
Joanna Kethin Rouling

Garri Potter



GARRI POTTER VA OLOV KUBOKI

JAHON ADABIYOTINING JAVOHIRLARI

Joanna Ketlin ROULING

GARRI POTTER

(*ruschadan **Dolimov Shokir** tarjimasi*)

GARRI POTTER VA OLOV KUBOKI

(«Garri Potter» romanlar turkumining IV qismi)

"Kamalak-Press"

Toshkent – 2019

UO`K: 821.111-93-31
KBK: 84(4Bel)
P-79

Joanna Ketlin Rouling. «Garri Potter va Olov kuboki» /roman/ «Garri Potter» romanlar turkumining IV qismi/ «Jahon adabiyotining javohirlari turkumi» – T.: "Kamalak-Press", 2019. – 720 b.

Nashrga tayyorlovchi: **Ergashbay MATYAKUBOV.**

«Garri Potter» romanlar turkumining ushbu qismida bu yil «Xogvars»da Uch sehrgar bellashuvi bo'lib o'tadi. Sehrgarlar olamida nihoyatda qiziqarli sanaladigan ushbu tadbirda Yevropadagi uchta yirik maktab: «Xogvars», «Belstek» va «Durmshtrang» o'quvchilari orasidan saralab olingan chempionlikka da'vogarlar ishtirok etadi.

O'tmishda o'tkazilgan Uch sehrgar bellashuvlarida o'lim bilan yakun topgan holatlar soni haddan ortiq oshib ketgach, tadbirning o'tkazilishi to'xtatilgan. Bu gal esa bellashuv o'tkazilishiga doir maxsus qaror qabul qilinib, chempionlikka da'vogarlar orasida yosh bo'yicha cheklanishlar joriy etilgan.

Uch sehrgar bellashuvining uch nafar ishtirokchisini, xususan, «Xogvars» maktabidan Sedrik Diggorini, «Durmshtrang» maktabidan Viktor Krumni, «Belstek» maktabidan Flyor Delakyorni saralab olgan Olov kuboki kutilmaganda to'rtinchi ishtirokchisi – Garri Potterning ismi yozilgan pergamentni ham chiqarib berdi! Hamma, shu jumladan, Garrining o'zi ham hayron. Iloj qancha, qoidaga amal qilish shart.

Bu bellashuvning oqibatlari haqida esa asarni o'qish davomida bilib olasiz.

Marhamat, qadrli kitobxon, voqealar rivojini o'qing va zavqlaning.

Ehtirom ila, tarjimon –
podpolkovnik Dolimov Shokir Zokirovich

Ehtirom ila, tarjimon –
podpolkovnik Dolimov Shokir Zokirovich

UO`K: 821.111-93-31
KBK: 84(4Bel)

ISBN: 978-9943-5367-5-3

SO‘ZBOSHI

Hech kimga sir emaski, kitob mutolaasi barchaning, shu jumladan, yoshlarning qalbiga ezgulikka, yaxshilikka xizmat qilish tuyg‘usini singdiradi. Shuningdek, kitob mutolaasi orqali yoshlarimizning ongi rivojlanadi, mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanadi. Shuninisi ham muhimki, badiiy kitoblar yoshlarimizni «XXI asrning dahshatli quroli – internet axboroti xuruji»dan himoyalash vazifasini ham to‘laqonli bajaradi. Shuning uchun o‘sib kelayotgan yosh avlodni kitoblar bilan ta’minlash har qanday davlat va jamiyatning asosiy burch va vazifasidir.

Kitoblarning davlatimizning asosiy kuchi hisoblangan yoshlar hayotida qanchalik muhim o‘rin tutganini yurtimiz prezidenti ***Shavkat Mirziyoyevning*** *2017-yil 13-sentyabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi qarorida ham bevosita ko‘rishimiz mumkin. Ushbu farmoyishda yurtimiz adiblarining kitoblarini chop etish bilan birga jahon adabiyoti namoyandalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish vazifalari alohida ko‘rsatilgan va bunday kitoblarning qanchalik ahamiyatga ega ekanligi alohida ta’kidlangan.*

Shularga tayangan holda ingliz adibi ***Joanna Ketlin Rouling tomonidan yozilgan «Garri Potter»*** *romanlar turkumi rus tilidagi tarjimasi asosida (rus tiliga* ***Mariya Viktorovna Spivak*** *tarjima qilgan) podpolkovnik* ***Dolimov Shokir Zoki-rovich*** *tomonidan ona tilimizga tarjima qilingan. Qo‘lingizdagi ushbu kitob* ***Garri Potter»*** *romanlar turkumini uchinchi, ya’ni «****Garri Potter va Olov kuboki****» deb nomlanuvchi qismidir.*

*Siz «****Garri Potter****» romanlar turkumi asosida chop etilayotgan kitoblarni o‘qish orqali adolatning jaholat ustidan, ezgulikning yovuzlik ustidan, haqiqatning yolg‘on ustidan doimo tantana qilib kelganiga guvoh bo‘lasiz. Ushbu fikrimizning isboti sifatida asarning asosiy qahramonlari: Albus Dambldor va Garri Potter orasidagi quyidagi suhbatni keltiramiz:*

Garri Potter: *– Nima uchun Kvirrell menga qo‘l tekkiza olmadi?*

Albus Dambldor: *– Ona [illegible] Bu dunyoda Voldemort va [illegible] tushunib yetmaydigan shunday bir tushunc[illegible] bo‘lsa, mu-*

SAMARQAND DAVLAT
VETERINARIYA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 57814

habbat. Onangning senga bo'lgan muhabbati va ushbu muhabbat kuchi o'z izini qoldirishi mumkinligini u hech idrok eta olmaydi. Bu iz peshonangdagi chandiq ham emas, biror-bir ko'zga ko'rinadigan boshqa alomat ham emas... Onangning senga bo'lgan muhabbati juda kuchli bo'lgani uchun u vafotidan so'ng ham o'z muhabbati ila himoya qilib boradi seni. Vujudingga onangning muhabbati singib ketgan. Shu bois ham o'z jon-u tanini Voldemort bilan baham ko'rib, yuragi nafrat, hasrat va g'azabga to'lib-toshgan Kvirrell senga qo'l tekkiza olmadi. Onaning farzandga bo'lgan mehr-muhabbatiga qarshi qo'l ko'tarish uning uchun, tom ma'noda, o'lim bilan barobar bo'ldi.

Demak, asar muallifi ham xuddi shunday fikrda, ya'ni bu asarda ta'riflangan voqealar (garchi ko'proq xayolot mahsuloti bo'lsa-da) tom ma'noda ezgulik va yovuzlik orasidagi ramziy kurashlardan iborat ekanligi va bu kurashlarda mehr-muhabbatning, adolatning, ezgulikning, haqiqatning doimo g'olib chiqishini tasvirlagan.

*Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, bu asar rus tilidan, shunchaki so'zma-so'z tarjima qilinmadi. Balki asarni tarjima qilish va nashrga tayyorlash jarayonida imkoni boricha asarga sharqona, ya'ni milliy mentalitetimizga xos xususiyat berishga harakat qilindi. Shuningdek, asarda uchraydigan har xil afsonaviy va tarixiy obrazlar, ilmiy va badiiy atamalar, marosim nomlari bildiruvchi so'zlar va shu kabi izohtalab so'z va jumlalarga alohida iqtibos-u izohlar keltirildi (**ushbu iqtibos va izohlarning aksariyati asarning ingliz tilidagi nashrida ham va rus tilidagi tarjimasida ham yo'q**). Bu esa o'z navbatda kitobxonning so'z boyligining oshishiga va dunyoqarashining o'sishiga xizmat qiladi. Qolaversa, kitobxon badiiy asarni o'qish barobarida ona tilimizning imlo qoidalarini o'rganishi va o'zida ko'nikma hosil qilib borishini ko'zda tutgan holda asarning mazkur nashri hozirgi o'zbek adabiy tilining imlo qoidalariga moslangan holda berildi.*

*Badiiy kitoblarning mutolaasi sizlarning orangizdan ham butun dunyoga tanilgan **Joanna Ketlin Rouling** kabi mashhur adib chiqishiga yordam beradi degan niyatdamiz!*

Zero, yaxshi niyat – yarim davlat!

Nashrga tayyorlovchi: ***«GOLD STAR EDUCATION» NTM direktori – Matyakubov E. R.***

I BOB. REDDLLAR UYI

Kichik Viselton qishlog'i aholisi ko'hna imoratni eski odatga ko'ra, garchi Reddllar sulolasi ancha vaqtdan buyon bu yerda yashamasa-da, «Reddllar uyi» deb ataydi. Ulkan bino baland do'nglikda, old tomoni qishloqqa qaratib qurilgan. Tomiga yopilgan sopol qisman uqalanib, quyi qavatdagi derazalari mixlangan ushbu qarovsiz uyning devori-yu old-atrofini gurkurab o'sgan pechak qamragan. Qachonlardir dang'illama hovli sanalib, kattaligi-yu hashamati ila ko'p millar naridagi har qanday imoratdan baland ko'ringan Reddllar uyi bugungi kunda tashlandiq, odam yashamaydigan holatga kelgan.

Ajablanarlisi shundaki, eski uyning «mash'um»ligi borasida Kichik Viseltonliklar tomonidan bildirilgan fikrlar doimo bir xil chiqadi. Yarim asr muqaddam ushbu hovlida qandaydir sirli va shunaqangi dahshatli hodisa ro'y bergan ekanki, qishloq odamlariga suhbatlashgani mavzusi topilmay qolsa, o'sha voqea muhokamasi bugungi kungacha juda qiziq sanalar emish. Yillar o'tib, Reddllar xonadoni haqidagi hikoyani bir-biriga ko'p aytib kelgan odamlar, voqeani turli tuman ikir-chikirlarga shu qadar boyitib yuborganki, qaysi gap rost-u, qaysi biri yolg'on ekanini endi hech kim bilmaydi. Biroq bunday suhbatlarning hammasi aynan bir gapdan, u ham bo'lsa, ellik yil muqaddam, ya'ni Reddllar uyi hali salobat to'kkan davrda otgan ajoyib tongdan boshlanadi. O'sha kuni ertalab xonadonning oqsoch ayoli Reddllarning mehmonxonasiga kiriboq uy sohiblarining uchalasi o'lib yotganini ko'ribdi.

Hovlidan o'qday uchib chiqqan ayol do'nglikda turgancha baland baqirib, tevarak-atrofni boshiga ko'taribdi:

– Hammasi yotibdi, qotib qolibdi! Ko'zlari ochiq! Kecha libosini yechishga ham ulgurishmagan!

Zudlik bilan politsiya chaqirildi. Kichik Viseltonda hayajonli qiziqsinish, yashirin to'lqinlanish muhiti qaror topdi. Reddllar oilasi xush ko'rilmaganidan bo'lsa kerak, hech kim o'zini, yolg'ondakam bo'lsa ham xonadon boshiga tushgan

kunga achinayotgan ko‘yga solmadi. Badavlat er-xotin Reddllar kibr-havo va qo‘rsligi ila ajrab turishgan. Ularning farzandlari Tom esa kattagina yigit bo‘lib, ushbu masalada ota-onasidan oshib tushgan. Qishloq aholisini faqat bir narsa – qotilning shaxsi qiziqtiradi, xolos. Zohiran soppa-sog‘ ko‘ringan uch kishi o‘z ajali bilan bir kechaning o‘zida baravariga o‘lib qol-masligi ayon-u.

O‘sha oqshom qishloqdagi yagona pab – «Xushchaqchaq» egalari buyurtma qabul qilishga ulgurmay qolishdi. Odamlar xonadonlarini tashlab chiqib, qotillikni muhokama qilib o‘tirish uchun ushbu mayxonaga yig‘ilishgan. Kecha qizib turgan ma-halda Reddllar xonadonida oshpazlik qilgan ayol pabga kirib kelib, birdaniga jim bo‘lgan Kichik Viselton ahliga Frenk Brays hibsga olinganini fojiali ovozda e’lon qildi.

– Frenk hibsga olindi?! Bo‘lishi mumkin emas! – taajjub-la qichqirdi bir necha kishi.

Frenk Brays Reddllar xonadonining bog‘boni bo‘lib, dan-g‘illama hovli hududining bir burchagidagi puturi ketgan kulba-da yashaydi. U urushdan oyog‘i majruh bo‘lib qaytgach, ser-shovqin yig‘inlarni yoqtirmay, o‘sha zamonlardan buyon Reddllar uyida ovushmay ter to‘kib kelgan.

Tafsilotlarga tashna odamlar oshpaz ayolga navbat bilan qadah uzatib, mehmon qilishdi.

Olcha aroqning to‘rtinchi piyolasidan so‘ng ayol ancha tetiklashib, diqqat-la quloq tutib o‘tirgan xaloyiqqa o‘z fikrini bildirdi:

– Uning esi past ekanini hamisha ta’kidlab kelganman! Tomi ketgan kishiday yuradi! Qittay-qittay urib olishni taklif qilsam, tersayib oladi-da, gaplashishni ham istamay qoladi.

– Qo‘ysangiz-chi, uyalmaysizmi bunday degani, – gapga aralashdi mayxona peshtaxtasi yonidagi ayol. – Frenk, har qalay, urushda bo‘lib, qaytgan. U o‘z holida, tinch yashashni istaydi. Nega endi?...

– Xo‘sh, orqa eshikning kaliti kimda edi? O‘sha xona-donda ish boshlagan davrlardan bilamanki, bog‘bonning uycha-sida zaxira kalit osig‘liq turadi! – o‘rinsiz gapirib qo‘ydi oshpaz ayol.

– Uy eshigi buzilmagan! Deraza oynalari ham butun! Hamma uxlab qolganida, katta uyga kirib olsa bo‘ldi...

Xaloyiq bir-biriga g‘amgin qarab qo‘ydi.

– Nima desangiz ,deng-u, uning ruxsori menga hech qachon yoqmagan, – dedi peshtaxta yonida turgan erkak.

– Brays urush tufayli shunday g‘alati bo‘lib qolgan, – dedi mayxona sohibi.

– Jahli chiqqan Frenkka ro‘baru bo‘lishni istamas edim, deganimni eslaysanmi, Dot? – dedi burchakda o‘tirgan ayol qizishib.

– Tabiati haqiqatan ham buzuq-da uning, – ma’qullagancha bosh irg‘idi Dot. – Bir voqeani eslayman. Frenk o‘shanda hali yosh yigit edi...

Tong otar mahalga kelib, Reddllarni Frenk Braysdan boshqa hech kim o‘ldirishi mumkin emas, degan umumiy xulo-saning to‘g‘ri ekaniga shubha qiladigan odam qolmadi.

Kichik Viseltondan sal naridagi Katta Viselton shaharchasining qorong‘i, ko‘pdan buyon tozalanmagan politsiya mahkamasida o‘tirgan Frenk esa aybdor emasligini, qotillik sodir etilgan kuni hovli atrofida allaqanday rangpar, qora sochli notanish o‘spirindan boshqa hech kimni ko‘rmaganini takror va takror ta’kidlar edi. Lekin qishloq ahli orasida notanish o‘spirinni ko‘rgan odam topilmadi. Shunday ekan, politsiya mahkamasidagilar o‘sha o‘spirinni Frenkning jinoiy tasavvuridan o‘zga narsa emas, deya e’tirof etishdi.

Bechora Frenkning boshiga malomat toshi yog‘ilayotgan fursatda tegishli muassasadan Reddllarning murdalarini yorib tekshirish tadbirlariga oid yakuniy xulosa bo‘yicha rasmiy bildiruv olingach, vaziyat butkul o‘zgardi.

Politsiyachilar bunday g‘ayrioddiy bildiruvni hali o‘qishmagan. Shifokorlar jamoasi murdalarni atroflicha o‘rganib chiqib, yakdil xulosa chiqargan. Tibbiyot mutaxassislarining yozishicha, oila a’zolaridan birortasi ham zaharlanmagan, so‘yilmagan, otilmagan, bo‘g‘ilmagan, nafasi qaytib ham o‘lmagan. Ushbu xulosani o‘qigan kishi, Reddllar, agar ularning o‘lgani hisobga olinmasa, mutlaqo jabr ko‘rmagan, hammasi soppa-sog‘

degan fikrga borishi tabiiy. Ammo jasadlarda qanday ko'rinishda bo'lmasin, nomunosib alomat topishga uringan shifokorlar, har bir Reddlning zo'riqqan yuzida dahshat qiyofasi qotib qolganini qayd etishni unutishmagan. Hafsalasi pir bo'l-gan politsiyachilar bir vaqtning o'zida uch kishini, jonlari uzilib ketguday darajada qo'rqitib yuborishning iloji yo'q, degan xulosa chiqarishdi.

Qotillikka doir biror-bir dalil-isbot topilmagani bois Frenk-ni ozod etishga to'g'ri keldi. Reddllar Kichik Viselton cherkovi qoshidagi qabristonga dafn etildi. Ularning daxmalari muayyan vaqt davomida qiziqsinish obyekti sifatida xizmat qildi. Hammani hayron qoldirib, badgumon xavf tug'dirgan Frenk Brays esa Reddllar hovlisi hududidagi eski uychaga qaytib keldi.

– Takror aytaman, Reddllarni aynan Frenk o'ldirgan, – ma'lum qildi «Xushchaqchaq»da o'tirgan shirakayf qariya Dot. – Politsiyada qanday qarorlar qabul qilinmaydi deysiz. Vijdoni bo'lganida, bu yerda qolmas edi. Axir, uning qotil ekanini hammamiz bilamiz-ku.

Nima qilganda ham Frenk ketmadi. U hovlida qolib, Reddllar uyiga ko'chib kirgan keyingi oila, sal o'tib-o'tmay, navbatdagi oila uchun bog'bonlik qilgancha, yashayverdi. Ammo hech kim bu uyda uzoq tura olmadi. Ehtimol, Frenk tufaylidir, ehtimol, bunday emasdir biroq hovlining har bir yangi sohibi ushbu uyda qandaydir yoqimsiz, shubhali narsalar borligini ta'kidlab bordi. Yashaydigan odam bo'lmagani uchun ham uy shu tariqa, asta-sekin tanazzulga yuz tutdi.

***

Hovlining hozirgi badavlat sohibi bu uyda turmaydi ham undan biror-bir ko'rinishda foydalanmaydi ham. Qishloq odamlari «Hovli sohibi, ushbu mulkni soliq masalalari nuqtai nazaridan xarid qilib olgan» degan qandaydir g'alati mish-mish gap tarqatishgan. Biroq bu so'zlarning ma'nosini ulardan biron-biri aniq va tushunarli talqin qilib bera olmaydi. Shunga qaramay, uy egasi, bog'bon Frenkka maosh to'lab borishni kanda qilgani yo'q. Brays o'zining yetmishinchi bahorini kutib olish tarad-

dudida. U oldingidan battar oqsoqlanib, deyarli kar bo‘lib qolgan. Hovlini bosib ketgan yovvoyi alaf Frenkning o‘zini teshib o‘tguday darajada xavf solib o‘sayotgan bo‘lsa-da, o‘z kasbi va odatiga sadoqatli qariya, ob-havo yaxshi kelgan kezlarda, gul egatlariga kurak sanchib borishini qo‘ymaydi.

Bechora Frenkning boshiga yovvoyi o‘tlargina tashvish solmaydi. Qishloq bolalari imorat oynalariga tosh otish, velosipedlari bilan Frenkning mashaqqatli mehnati singgan maysazorni payhon qilish qilig‘ini chiqarib olishgan. Qariya Brays uyni jon-jahd bilan himoya qilishini yaxshi biladigan bezori bolalar hovli hududiga bostirib kirishadi. Ularga cho‘loq chol-ning kalovlanib yugurishi, tayoq bilan tahdid qilishini ko‘rish, ovozi boricha baqirib, qarg‘aganini eshitish qiziq. Frenk esa ushbu bolalar, o‘z ota-onalari kabi uni qotil deb bilishgani uchun ham xo‘rlashayotganiga shubha qilmaydi. Shu bois av-gust oyidagi tunlardan birida uyg‘onib, uyda juda g‘alati narsa-lar sodir bo‘layotganini ko‘rgan keksa Brays, sitamgarlar uni butkul adoyi-tamom qilish maqsadida yanada jadal, yanada kes-kin choralar ko‘rishga ahd qilishganga o‘xshaydi, degan xayolga bordi.

Cholni qarigan sari battar qiynayotgan oyoq og‘rig‘i uyg‘otdi. Faqat rezina grelkagina[1] uning dardini yengillatishi mumkin. Frenk grelkaning suvini almashtirish maqsadida o‘rnidan turib, oqsoqlagancha oshxonaga tushdi. Oshxona chanog‘i qarshisida turib, choynak suvga to‘lishini kutar ekan Reddllar uyi tomon qarab, binoning yuqori qavatdagi derazalaridan biri-da miltillayotgan yorug‘likni ko‘rdi. Yana o‘sha shum takalar! Endi uy ichiga ham bostirib kirishibdi-da! Bu ham kamlik qilgandek, o‘t qalashibdi!

Politsiya chaqiray d esa telefoni yo‘q. Umuman aytganda, uni hibsga olishgan o‘sha davrlardan buyon politsiyaga bo‘lgan ishonchini umuman yo‘qotgan. U choynakni chetga qo‘yib, oyog‘i imkon bergancha kiyinish uchun yuqoriga ko‘tarildi.

[1] **Grelka** (*ruscha*) – badanning biron og‘riqli qismiga qo‘yiladigan, odatda, rezinadan qilinadigan sun’iy isitish moslamasi.

Ko‘p o‘tmay oshxonaga qaytib tushgan qariya Frenk eshik yonidagi ilgakdan zaxira kalitni va devorga suyab qo‘yilgan tayoqni olib, qorong‘i hovliga chiqdi.

Reddllar uyining old eshigi buzilmagan. Deraza oynalari ham butun. Brays kalovlangancha binoni aylanib, pechak chirmagan orqa eshik tomon o‘tdi. Kalitni qulf teshigiga solib, shovqin solmay eshik ochdi.

U g‘orga o‘xshab qolgan oshxonaga kirdi. Frenk bu yerga ko‘p yillardan buyon kirmagan bo‘lsa-da, qaysi eshik dahlizga olib chiqishini esladi va o‘sha tomon yo‘l oldi. Chirindi va vayronalik hidini sezdi. Qadam tovushi yoki odam ovozini eshitish uchun diqqat bilan quloq tutdi. Asosiy eshikning ikki tomonida baland derazalar bo‘lgani uchun ham nisbatan yorug‘roq dahlizga kirib, zina bo‘ylab yuqoriga ko‘tarila boshladi. Poyafzalining tagcharmi va tayanib borayotgan tayog‘i chiqaradigan tovushni bo‘g‘gani uchun tosh pog‘onalardagi yillar o‘tib qalinlashib ketgan changga shukrona qildi.

Zina maydoniga yetgach, o‘ng tomon burilgan Frenk bezori bolalar qaysi xonaga kirishganini darhol fahmladi. Yo‘lak oxiridagi eshik qiya ochiq qolib, hosil bo‘lgan tirqishdan qorong‘i polga tillarangli uzun shu’la tashlab turgan xira yorug‘lik miltillab turibdi. Qo‘lidagi tayoqni mahkam ushlagan Brays o‘sha eshikka asta-sekin yaqinlashdi. Ostonaga bir necha fut[1] qolganida qiya ochiq eshik orqali xonaning tor bir qismi ko‘rindi.

Olov tushunishicha, kaminga qalangan. Aynan shu holat Frenkni o‘ylantirib qo‘ydi. U qimir etmay, diqqat bilan quloq tutdi. Ichkaridan qandaydir erkak kishining jur’atsiz va hatto qo‘rquvli ovozi eshitildi:

– Shishada yana biroz bor, milord, agar to‘ymagan bo‘lsangiz.

– Keyinroq, – eshitildi ikkinchi ovoz.

Bu ham erkak kishining ovozi bo‘lsa-da, qandaydir g‘alati, xuddi chinqirgan kabi sovuq eshitilib, Braysning boshidagi

[1] **Fut** – 1) rus o‘lchovlar tizimidagi uzunlik birligi. 1 fut = 1/7 sarjin =12 dyuym = 0,3048 metr; 1918-yilda bekor qilingan; 2) ingliz o‘lchovlar tizimida uzunlik birligi. 1 fut = 1/3 yard = 12 dyuym = 0,3048 metr.

yakkam-dukkam qolgan orqa sochi tikka bo‘ldi.

– Gulxanga yaqinroq surib qo‘y meni, Chuvalchangdum, – buyurdi ikkinchi ovoz.

Yaxshiroq eshitish uchun Frenk eshikka o‘ng qulog‘ini tutdi. U qandaydir qattiq yuzaga qo‘yilgan shishaning jiringlagani, so‘ngra polda surilgan kreslo oyog‘ining og‘ir va bo‘-g‘iq tovushini eshitdi. Ichkarida Frenkka orqa o‘girib, kresloni kamin tomon surayotgan pakana mardak ko‘rindi. Uning boshi toz bo‘lib, egniga uzun qora plash kiygan. Sal o‘tib, yana ko‘rinmay qoldi.

– Nagini qayerda? – so‘radi sovuq ovoz.

– Bil... bilmayman, milord, – asabiy titradi birinchi ovoz. – Uyni ko‘zdan kechirib chiqayotgan bo‘lsa kerak...

– Uyquga yotishimizdan oldin uning sutini sog‘ib ol, Chuvalchangdum, – buyurdi ikkinchi ovoz. – Kechasi ovqatlanishim kerak. Safar nihoyatda toliqtirdi meni.

Qoshini chimirgan Frenk eshitadigan qulog‘ini eshikka yaqinroq tutib, diqqat bilan tingladi. Birozdan so‘ng Chuvalchangdum laqabli kishi yana gap boshladi:

– Milord, so‘rashga ijozat bering. Bu yerda uzoq qolamizmi?

– Bir hafta, – javob berdi sovuq ovoz. – Ehtimol, ko‘proqdir. Bu yer juda qulay joy. Ish ko‘lamini kengaytirishning hozircha iloji yo‘q. Kvidish[1] bo‘yicha jahon chempionati nihoyasiga yetguncha biror-bir ish ko‘rish g‘irt ahmoqlikdir.

Frenk o‘zining g‘adir-budur barmog‘ini qulog‘iga tiqib, burib-burib oldi. Chamasi, yana kir bo‘lganga o‘xshaydi, aks holda anavi so‘z «kvidish» deb eshitilmas edi-ku?! Umuman bu, so‘z ham emas edi, shekilli.

– Kvi... kvidish bo‘yicha jahon chempionati? – so‘radi Chuvalchangdum. – Ma’zur tutgaysiz-u, milord... nima uchun chempionat o‘tishini kutishimiz kerakligini tushunmayapman?

Frenk quloq tozalashga zo‘r berdi.

[1] **Kvidish** – supurgilarda uchib yuradigan o‘n to‘rt nafar sehrgar o‘yinchi tomonidan, oltita tik o‘rnatilgan halqali uzun tayoq va to‘rtta uchar koptok vositasida o‘ynaladigan o‘yin.

– Shuning uchunki, befarosat, hozir yurtga butun dunyo sehrgarlari kela boshlagan, – tushuntirish berdi ikkinchi ovoz. – Sehrgarlik vazirligidagi anavi to'nkalar ogoh bo'lib, g'ayri-oddiy faollik alomatlarini kuzatishga tushib qolishadi. Shaxsiy guvohnomalarni takror va takror tekshirib yurishadi. Axir, ular sir saqlash jinnisi bo'lib qolishgan-u! Xudo ko'rsatmasin, agar magllar[1] biror narsani sezib qolishsa bormi, tentaklarning tomi ketib qoladi. Yaxshisi sabr qilib, chempionat tugashini kutamiz.

Frenk quloq tozalashni bas qildi. U «Sehrgarlik vazirligi», «sehrgarlar» va «magllar» degan so'zlarni aniq eshitdi. Shubha yo'qki, ushbu iboralarning har biri nimanidir anglatadi. Ushbu so'zlar zamirida qandaydir yashirin, sirli ma'no bor. Shifrlan-gan iboralar faqat ikkita toifaga mansub kishilar tomonidangina qo'llanilishini Brays yaxshi biladi, u ham bo'lsa, josuslar va jinoyatchilar. Frenk tayog'i bilan polga ishonchliroq suyanib, yanada diqqat bilan quloq sodi.

– Demak, hazrati oliylari, qaroringiz qat'iy? – asta so'radi Chuvalchangdum.

– Albatta, Chuvalchangdum, qat'iy.

Pinak buzilmagan ushbu ovozda ochiqdan ochiq g'azab ohangi eshitildi. Sal o'tib, yana Chuvalchangdumning ovozi eshitildi. U o'z dadilligini yo'qotib qo'ymasdan oldin fikr-mulohazasini aytib olishga oshiqayotgan kishidek gapirar edi:

– Ishni Garri Pottersiz ham bajarish mumkin, milord.

Oraga uzoqroq sukunat cho'kdi.

– Garri Pottersiz? – bazo'r eshitilgan ovozda so'radi ikkinchi ovoz. – Tushunarli...

– Milord, bu gapni bolaga rahmim kelayotganidan aytayot-ganim yo'q! – baland ovozda chiyilladi Chuvalchangdum. – Uning taqdiri men uchun ahamiyatsiz, ha, mutlaqo ahamiyatsiz! Agar biz har qanday boshqa sehrgardan foydalansak, ishlarimiz tezroq bitadi demoqchiman, xolos! Mohirona niqoblana olishimni yaxshi bilasiz. Shunday ekan, meni qisqa muddatga

[1] **Magl** – sehrgarlik qobiliyatlardan mahrum bo'lgan yoki sehrgar oilada tug'ilmagan inson. Magllar ham o'zlarini tomirida bir tomchi ham sehrgarlik qoni bo'lmagan odamlar deb ta'riflashgan.

qo'yib yuborsangiz bas, ikki kunga qolmay bizga to'g'ri keladigan biror-bir kishini olib qaytaman...

– Chindan ham boshqa sehrgardan foydalanishim mumkin... – oldingiday past ovozda javob berdi ikkinchi ovoz.

– Milord, bu haqiqatan ham oqilona ish bo'ladi, – dedi Chuvalchangdum, yengil tortib. – Chunki Garri Potterga yetishish nihoyatda murakkab masala. Uni juda astoydil qo'riqlashmoqda...

– Demak, o'rniga boshqasini keltirishga tayyorsan? Qiziq... – dedi ikkinchi ovoz. – Balki, Chuvalchangdum, meni boqish senga malol kelib qolgandir? Ehtimol, birlamchi rejaga o'zgartirish kiritishga doir ushbu taklifing, mendan qochib qutulishga urinishdir, a?

– Milord! Men sizni umuman tark etmoqchi emasman. Bu haqda zarracha...

– Yolg'on! – vishilladi ikkinchi ovoz. – Yolg'on gapirayotganingni doim sezaman, Chuvalchangdum! Huzurimga qaytganingdan afsus qilayotganingni, ko'zingga jirkanch ko'rinayotganimni ham bilaman. Menga qaraganingda basharang burishib ketayotganini, menga qo'l tekkizayotganingda seskanib ketayotganingni ham ko'rib turibman...

– Yo'q, oliy hazratlari! Men sizning eng sadoqatli qulingizman...

– Nomardliging, qo'rqoqliging oldida sadoqating bir pulga qimmat. Agar borar joying bo'lganida, huzurimga qaytmagan bo'lar eding. Meni har ikki-uch soatda boqib turish kerak bo'lsa, sensiz qanday kun ko'raman? Naginini kim sog'adi?

– So'nggi vaqtlarda siz ancha baquvvat bo'lib qoldingiz, milord...

– Kazzob, – xo'rsindi ikkinchi ovoz. – Men quvvatsizman. Bir necha kun yolg'iz qoladigan bo'lsam, sening g'aliz parvarishing tufayli erishgan mujmal sog'ligimdan ham quruq qolaman. Jim!

Allaqanday dudmol gaplarni tinimsiz g'uldirayotgan Chuvalchangdum shu zahoti unini o'chirdi. Bir necha soniya davomida Frenk kamindagi gulxanning chirsillab yonayotganini

eshitdi, xolos. Shundan so‘ng ikkinchi ovoz, ilonning vishillashiga o‘xshash ovozda gapini davom etdi:

– Aynan o‘sha boladan foydalanishim uchun alohida sabablar bor. Ularni senga tushuntirganman. Ahdimdan qaytmasligimni ham bilasan. Bu kunni o‘n uch yil kutdim. Yana bir necha oy kutish kerak bo‘lsa, kutaman. Bolaga nisbatan ko‘rilayotgan xavfsizlik choralariga kelsak, ishonchim komilki, rejam kor beradi. Sendan esa Chuvalchangdum, zig‘irday jaso-rat talab etiladi, xolos. Modomiki, Lord Voldemortning nafra-tini o‘zingda to‘la-to‘kis sinab ko‘rishni istamas ekansan, jasoratingni namoyon etishga bor kuchingni safarbar etasan...

– Milord, fikr bildirishga ijozat eting! – vahima bosib qichqirdi Chuvalchangdum. – Safar davomida rejamiz haqida ko‘p mulohaza yuritdim. Milord, Berta Jorkinsning g‘oyib bo‘lishi uzoq vaqt e’tiborsiz qolmaydi. Agar biz ishimizni davom etishga ahd qilib, men o‘z qarg‘ishimni...

– Agar? – so‘radi ikkinchi ovoz. – Agar? Agar rejaga muvofiq ish tutsang, Chuvalchangdum, yana bir kishi g‘oyib bo‘lganini vazirlikdagilar payqashmaydi. Sen hamma ishni ortiqcha shovqin-suronsiz, hovliqmasdan bajarasan. Hammasini o‘zim bajarishni istar edim-u, biroq... mening mana bu hola-tim... Harakatingni boshla, Chuvalchangdum! Yana bitta to‘siq-ni yengib o‘tsak bas, Garri Potter tomon yo‘limiz ochiladi! Yakka o‘zing ishlashingni talab qilayotganim yo‘q sendan. O‘sha vaqtga kelib safimizga mening sadoqatli xizmatkorim qo‘shiladi...

– Sizning sadoqatli xizmatkoringiz men bo‘laman, men, – dedi Chuvalchangdum, bazo‘r sezilarli jizzaki ohangda.

– Chuvalchangdum, menga aql-farosatli, o‘z sadoqatini namoyon etish kerak bo‘lgan fursatda zarracha ikkilanmaydigan odam kerak. Sen esa, baxtga qarshi, ushbu talablarning biror-tasiga ham javob bermaysan.

– Sizni birov emas, men topdim, men, – ochiqdan ochiq xafa bo‘ldi Chuvalchangdum. – Men! Berta Jorkinsni ham huzuringizga men keltirdim.

– Haq gap, – javob berdi ikkinchi ovoz, biroz hayratlanib. –

Tan olishim kerakki, o'sha ishing, sendan kutilmagan zakovat shu'lasi bo'lgan edi. Agar oxirgacha ochiqcha gapiradigan bo'lsak, Chuvalchangdum, uning qanchalik naf keltirishini o'zing ham idrok etmagan eding, shunday emasmi?

– Men... men darhol... O'sha qizning foydali ekani haqida o'ylaganman, milord...

– Kazzob, – dedi ikkinchi ovoz, badjahl taajjub ohangida. – U bergan ma'lumotlar bebaho ekanini inkor etmayman! O'sha qiz bo'lmaganida mening rejam tug'ilmas edi ham. Buning uchun seni taqdirlayman, Chuvalchangdum. Senga favqulodda muhim ish ijrosini topshiraman. Shunday ishki, uni bajarish huquqiga ega bo'lish uchun aksariyat izdoshlarim o'ng qo'lini kesib yuborishga tayyordir...

– CH-chindanmi, milord? Qanday ish ekan u?... – yana vahima ohangda so'radi Chuvalchangdum.

– Eh Chuvalchangdum, xushxabar kutilmagan bo'lishi ila xush emasmi? Sening o'rning sahna xotimasida bo'ladi... Va'da qilishim mumkinki, sen Berta Jorkins kabi o'ta muhim hissa qo'shish sharafiga muyassar bo'lasan.

– Siz... Siz... – Chuvalchangdumning ovozi kutilmaganda xirillab eshitildi. – Siz meni ham asfalasofilinga yo'llamoqchimisiz?

– Eh Chuvalchangdum, Chuvalchangdum, – ta'na qildi sovuq ovoz. – Seni o'ldirib nima naf ko'raman? Bertani esa o'ldirishga majbur bo'ldim. So'roqdan so'ng u boshqa hech narsaga yaramay qolgan edi, umuman hech narsaga. Tirik qoldirdim deylik. Vazirlikka qaytib, ta'til davomida seni uchratganini aytsa, qanday so'roqlarga tutilishini tasavvur qilib ko'r, befarosat. O'zing o'ylab ko'r, o'lgan deb e'tirof etilgan sehrgar vazirlikda ishlaydigan afsungar ayol bilan yo'l bo'yidagi mehmonxonalardan birida tasodifan uchrashib qolishi mumkinmi...

Chuvalchangdumning javobini Frenk eshitmay qoldi. Biroq ikkinchi odamning har qanday quvonchdan mahrum bo'l-gan, o'z nutqi kabi nihoyatda sovuq eshitilgan qahhahasi yangradi.

– Xotirasini o'zgartirish?! – xitob qildi ikkinchi ovoz. – Biroq mohir sehrgarlar tomonidan unuttirish afsuni ta'siriga hech

bir qiyinchiliksiz barham beriladi. Buni Bertani so‘roqqa tutayotganimda o‘zim isbotlab berdim senga. Bundan tashqari, u bergan axborotdan unumli foydalanmaslik Jorkinsning xotirasini tahqirlash demak.

Xuddi shu fursatda, yo‘lakda turgan Frenk tayoq ushlagan qo‘li terlaganidan toyg‘anoq bo‘lganini his etdi. Ovozi nihoyatda sovuq eshitilayotgan odam bir ayolni o‘ldirib, bu haqda zarracha afsus qilmay, allaqanday arzimas vaqtixushlik haqida gapirayotgan kabi gapirmoqda. U o‘ta xavfli savdoyi ekaniga shubha yo‘q. Buning ustiga Garri Potter ismli yana allaqanday bolani o‘ldirishni rejalashtirib o‘tiribdi. Kim bo‘lishidan qat’i nazar o‘sha bola xavf ostida...

Frenk qanday ish tutish kerakligini biladi. Politsiyani tabiatan xush ko‘rmasa-da, hozir unga xabar berishi shart. U uyni tark etadi-da, qishloqqa qarab yo‘l oladi. U yerda telefon bor. Sovuq ovoz takror eshitilib, Frenk yana ichkaridan chiqa-yotgan so‘zlarga quloq tutdi.

– Yana bitta qarg‘ish... Mening sadoqatli xizmatkorim «Xogvars»da... – dedi ikkinchi ovoz. – Garri Potter esa mening ixtiyorimda! Gap shu. E’tirozga o‘rin yo‘q. Jim, nazarimda, Naginining sharpasini eshitganday bo‘ldim...

Ikkinchi kishining ovozi o‘zgarib, Frenk muqaddam eshitmagan tovush chiqara boshladi. Ichkaridagi odam nafas rostlamay vishillamoqda. Frenk bu kishining tutqanog‘i tutib qolgan, chamasi, degan xayolga bordi.

Daf’atan Frenkning orqa tomonida qandaydir harakat sezildi. Frenk yo‘lakka qarab, dahshatdan serrayib qoldi.

Polda nimadir o‘rmalab, kamindan tushayotgan yorug‘lik tomon yaqin kelyapti. Bu uzunligi kam deganda o‘n ikki fut keladigan bahaybat ilon ekanini Frenk arang idrok etdi. Joyida qotib, tilsiz qolgan Brays to‘lqinsimon harakatlanayotgan tana chang qatlamida keng yoy hosil qilgancha, tobora yaqinlashib kelayotganini ko‘rib turibdi... Nima qilsin? Anavi ikkalasi o‘tirgan xonaga kirib jon saqlay desa, ular shundoq ham qotillikni rejalashtirib o‘tiribdi, turgan joyida qolsa, ilon o‘ldirishi muqarrar...

U muqim bir fikrga kelguncha, ilon yoniga yetib keldi va mo'jizani qarangki, vishillab, tupurib ovoz chiqarayotgan odam o'tirgan xonaga kirib ketdi. Soniya o'tar-o'tmas, ilonning olmos sepilganday naqshli dumi eshik ortida g'oyib bo'ldi.

Frenkning vujudi terga botib, tayoq tutgan qo'li titra-moqda. Xona ichidan g'alati vishillashlar eshitilib, qariyaning miyasiga hayotda bo'lishi mumkin bo'lmagan o'y keldi... Anavi kishi, chamasi, ilon tilida gaplashishni biladi.

Brays hech narsani anglay olmaydigan holatda turib qoldi. Qani endi, u issiq grelkasini oyog'iga bosib, o'z o'rnida yotgan bo'lsa. Qariya titrab, o'zini idora qilishga urinar ekan, ichkarida yana o'sha sovuq ovozli odamning ingliz tilida so'zlayotgan gapi eshitildi.

– Nagini bizga qiziq xabar yetkazdi, Chuvalchangdum, – dedi u.

– CH-ch-chindanmi, m-milord? – javob berdi Chuvalchangdum.

– Chindan, – tasdiqladi sovuq ovoz. – Ilonning gapiga qaraganda, eshik ortiga keksa magl bekinib olib, gapimizni eshitib turgan emish.

Frenkning yashirinib olish imkoni yo'q. Ichkaridan qadam tovushi eshitilib, eshik lang ochildi.

Ostonada sochiga oq oralagan, burni uzunchoq, mitti ko'zi sersuv, yuzida qo'rqinch bilan xavotir uyg'unlashgan, past bo'yli odam ko'rindi.

– Ichkariga taklif qil, Chuvalchangdum. Xushmuomala bo'lsang-chi, – dedi ikkinchi ovoz.

Kamindagi olovga qaratilgan qadimiy kreslodan eshitilgan sovuq ovoz sohibi Frenkning ko'ziga ko'rinmayapti. Biroq gulxan yaqinidagi, deyarli chirib ketgan gilamchada uy hayvoni kabi kulcha bo'lib o'ralib olgan jirkanch ilon darhol ko'zga tashlandi.

Chuvalchangdum Braysni ichkariga imladi. Ruhiy larza o'tmaganiga qaramay, qariya [illegible] tutib, kalovlangancha, ostona hatladi.

Kamin yagona yorug'lik manbasi bo'lib, xona devorida

SAMARQAND DAVLAT
VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 57814

ulkan o'rgamchiklarni eslatadigan soyalar hosil qilgan. Frenk kreslo suyanchig'ining orqa tomonida to'xtadi. Unda o'tirgan kishining bo'yi, chamasi o'z xizmatkorining bo'yidan ham pastga o'xshaydi. Negaki boshining tepasi bo'lsa ham Braysga ko'rinmadi.

– Sen hamma gapni eshitdingmi, magl? – yangradi nihoyatda sovuq savol.

– Nima deb atadingiz meni? – so'radi Brays, tahdid ohangida.

Modomiki, ichkariga kirgan va endi tegishlicha ish tutishi kerak ekan, Frenk o'zini nisbatan dadilroq his etdi. Urushda ham shunaqa bo'lgan.

– Seni magl deb atadim, – pinagi buzilmay tushuntirish berdi ovoz. – Bu so'z kishining sehrgar emasligingni anglatadi.

– «Sehrgar» deya nimani nazarda tutayotganingizni bilmadim-u, – qat'iy ovozda javob berdi Frenk, – ishonchingiz komil bo'lsinki, politsiyani qiziqtirib qoladigan yetarlicha gaplarni eshitdim. Siz qotillik qilgansiz va yana bir qotillikni rejalash-tirib o'tiribsiz! Yana bir narsani aytib qo'yishim kerakki, – qo'shib qo'ydi Frenk, g'ayriixtiyoriy tarzda, – rafiqam shu yerda ekanimni biladi va agar menga biron gap bo'lsa...

– Hech qanday xotining yo'q, – gapni kesdi sovuq ovoz. – Hozir qayerda ekaningni it ham bilmaydi. Bu yerga kelganingni hech kimga aytmagansan. Lord Voldemortga yolg'on gapirish behuda. Chunki u hamma narsani ko'radi... hamma narsani...

– Shunaqami? – qo'pol javob berdi Frenk. – Lord deng? Muomalangizni qarang-a, qadrdon lord. Dastavval odamga o'xshab, kishiga yuzlanib gapirsangiz bo'larmidi!

– Mayli-yu, magl, faqat men odam emasman-da, – dedi lord, g'o'lalarning charsillashidan ham past eshitilgan ovozda. – Men oddiy odamga nisbatan ancha ulug' zotman. Ammo... mayli, sen aytgancha bo'la qolsin... yuzlanaman... Chuval-changdum, iltimos, kresloni aylantirib yubor.

Xizmatkor g'inshigan ovoz chiqardi.

– Amrimni eshitdingmi, Chuvalchangdum? – takrorladi Lord Voldemort.

Hazar qilib burishtirgan basharasidan o‘z sohibi va gilamcha ustida yotgan ilonga yaqin kelishdan ko‘ra har qanday boshqa ishga tayyor ekanini uqib olsa bo‘ladigan pakana xizmatkor kresloga asta yaqin kelib, aylantirdi. Kreslo oyog‘i gilamchaga tegib ketishi bilan ilon o‘zining jirkanch uch burchak boshini ko‘tardi.

Nihoyat kreslo Frenk tomon aylantirilib, unda nima o‘tirgani ko‘rindi. Qariyaning qo‘lidagi tayoq tarqalgancha polga tushdi. U og‘zini lang ochib, faryod ko‘tardi. Shunday dod soldiki, kresloda o‘tirgan maxluqning tayoqcha ko‘tarib, aytgan so‘zlarini ham eshitmadi. Ko‘zni qamashtirgan yashil tusli yashin yarqirab, havoda nimadir hushtak chalib o‘tgach, Frenk Brays xuddi o‘q tekkandek yiqildi. U tanasi polga yetib borguncha omonatini topshirishga ulgurdi.

Shu fursatda, hodisa ro‘y bergan joydan ikki yuz milya narida, «Odamovilar» xiyobonidagi 4-uyda uxlab yotgan Garri Potter ismli bola seskanib, uyg‘onib ketdi.

II BOB. CHANDIQ

Belida yotgan Garri kaftini yuziga bosgancha, uzoq yugurgan kishiday og‘ir nafas olib, juda aniq ko‘ringan tushdan uyg‘onib ketdi. Barmoqlari bilan uqalayotgan eski chandiq birov peshanasiga qizigan sim bosganday qattiq og‘riyapti.

Qo‘lini chandiqdan olmagan bola yotgan o‘rniga o‘tirib olishga uringancha, boshqa qo‘li bilan karavoti oldidagi javoncha ustini paypaslab, ko‘zoynak qidirdi. Ko‘zoynagini taqib olgach, xonadagi buyumlar qiyofasi ko‘cha fonusining deraza pardasi orqali xonaga tarqoq singib kirgan xira sariq nuri ostida nisbatan aniqroq ko‘rindi.

Garri og‘riyotgan chandig‘ini barmoqlari bilan asta silab, stol usti chirog‘ini yoqdi-da, o‘rnidan turib, xonaning narigi burchagidagi kiyim javoni yoniga borgach, eshigini ochib, tavaqaning ichki tomoniga mahkamlangan ko‘zguga qaradi. Ko‘zguda talmovsirab boqayotgan, yoshi o‘n to‘rtga borgan, ozg‘in, sochi to‘zg‘igan, yashil ko‘zli aksi ko‘rindi. Garri peshanasini diqqat bilan ko‘zdan kechirib, yashin zigzagi shaklidagi chandig‘i odatdagiday ko‘rinayotgan bo‘lsa-da, kuchli lovullayotganini his etdi.

Garri bemahal uyg‘onishiga sabab bo‘lgan tushini eslashga urindi. Tush juda yaqqol ko‘rindi... uch kishi... ulardan ikki nafari notanish, biri tanish... Garri qoshini chimirib olgancha, eslashga zo‘r berdi...

Xayolan muayyan manzara tiklandi: nimqorong‘i xona... kamin yonidagi gilamcha ustida yotgan ilon... ilon yaqinida laqabi Chuvalchangdum, Piter ismli tanish kishi... nihoyatda sovuq eshitilgan baland ovoz... Shoshma, axir, bu Lord Voldemortning ovozi-yu. Yirikkina muz bo‘lagi bolaning qizilo‘ngachini muzlatgancha, oshqozoniga sirpanib tushganday bo‘ldi...

Garri ko‘zini chirt yumib, tushida ko‘ringan Voldemortning qiyofasini eslashga urindi-yu, uddalay olmadi. U endigina aylantirilgan kresloda o‘tirgan maxluqqa ko‘zi tushgan zahoti dahshatga tushibmi, kim biladi, peshanasi og‘riganidanmi

uyg‘onib ketgan...

Anavi qariya-chi, kim edi? Tushiga keksa kishi kirganini aniq eslaydi. Cholning yerga qulaganini ham ko‘rdi. Garrining miyasidagi xotiralar aralashib ketdi. Bola xonadagi narsalardan chalg‘ib, tushida ko‘rganini xotirlashga urinish uchun kaftini yuziga bosdi. Biroq harakati, g‘alvirda suv tutib qolishdek, behuda ketdi. Eslashga qanchalik zo‘r bersa, xotira shu qadar tez yo‘qoldi... Voldemort bilan Chuvalchangdum o‘zlari o‘ldir-gan allaqaysi odamni tilga olishdi... Garri o‘sha kishining ismini hech eslay olmadi... Ular yana kimningdir joniga qasd qilish-moqchi... kim ekan u? Shoshma, axir... men edim-u!

Garri kaftini yuzidan olib, biron-bir g‘ayrioddiy narsa ko‘-rish ilinjida xonaga ko‘z yugurtirib chiqdi. Xona g‘alati narsa-larga to‘lib-toshgan. Karavotning oyoq tomonida qopqog‘i ochiq yog‘och sandiq turibdi. Unining ichida qozon, supurgi, sehrgarlarning qora kiyimi va turli tuman afsun kitoblari yo-tibdi. Yozuv stolida, aniqroq aytiladigan bo‘lsa, odatda, qutb boyqushi Xedvig qamab qo‘yiladigan katta qafasdan xoli qismida bir olam pergament[1] o‘rami aralashib ketgan. Karavot yaqinida uyqudan oldin o‘qilgan kitob ochiq holatda polda yotibdi. Unda tasvirlangan odamlar tinimsiz harakatlanmoqda. Egniga yaltiroq to‘q sariq kiyim kiygan supurgi egarlagan odamlar tasviri suratdan dam yo‘qolib, dam yana paydo bo‘lgancha, bir-biriga qizil to‘p oshirishmoqda.

Garri kitobni poldan ko‘tarib, supurgida uchib yurgan sehr-garlardan biri balandligi ellik fut keladigan tik xoda uchidagi halqaga zo‘r taassurot qoldiradigan darajada gol urishini tomo-sha qilgach, yopdi. Bolaning fikricha, dunyodagi eng qiziq o‘yin sanaladigan kvidish ham ayni paytda og‘ir xayoldan chal-g‘ita olmaydi. Garri ««Zambaraklar» bilan parvozlar» kitobini karavot javonchasi ustiga qo‘yib, deraza oldiga bordi-da, pardani ochib,

[1] **Pergament** (miloddan avvalgi II asrda xat yozish uchun xizmat qiladigan material tayyorlana boshlangan Pergam shahri nomidan olingan) – 1) maxsus ishlov berilgan mol va cho‘chqa terisidan doira, do‘mbira, baraban va ba’zi mashina detallari uchun ishlatilgan; 2) sulfat kislota bilan ishlov berilgan qog‘oz; shaffof, yog‘ va suvni o‘tkazmaydi.

ko‘chaga qaradi.

Shahar yaqinidagi katta ko‘cha shanba kuni tong otar mahalda qanday ko‘rinishi lozim bo‘lsa, «Odamovilar» xiyoboni ham xuddi shunday ko‘rinmoqda. Barcha uylarning derazalari parda tutib bekitilgan. Tong qorong‘isida ko‘chada biror zog‘, loaqal mushuk bo‘lsin, ko‘rinmaydi.

Shunga qaramay... shunga qaramay... Garri yana karavotiga qaytib, barmog‘i bilan chandig‘ini silagancha, o‘tirdi. Umuman aytganda, uni og‘riq bezovta qilayotgani yo‘q. U jon og‘rig‘iga ham turli tuman jarohatlarga ham ko‘nikib ketgan. Kunlardan bir kun Garri o‘ng qo‘lining suyagidan butkul mahrum bo‘lib, yangitdan o‘sib chiqquncha dahshatli o‘tgan tunni boshdan kechirgan. Yana bir safar xuddi o‘sha qo‘lini yirik ilon, uzunligi bir fut keladigan zaharli tishi bilan tishlab, teshgan. Ellik fut balandlikdagi supurgidan qulab tushganiga esa hali bir yil bo‘lgani yo‘q. Qisqasi, unga eng g‘ayrioddiy baxtsiz hodisa-laru, jarohatlar g‘alati tuyulmaydi. Modomiki, «Xogvars» sehrgarlik va afsungarlik san’ati maktabida tahsil ko‘rar ekansan, ustiga-ustak, misli ko‘rilmagan noxush ahvolga tushib yurishga moyil ekansan – o‘xshash jarohatlar tabiiydir.

Ayni paytda uni boshqa narsa bezovta qilmoqda. O‘tgan safar peshanasidagi chandig‘i, Voldemort yonginasida turgan fursatda og‘rigan edi... hozir yo‘q-ku, u... Yovuz Lord tunda «Odamovilar» xiyobonida izg‘ib yurganini tasavvur ham qilib bo‘lmaydi, axir bu g‘irt bema’nilik-ku...

Garri zo‘r berib tun sukunatiga quloq tutdi. Ehtimol, u yog‘och zinaning g‘ichirlaganini-yu, ridoning[1] shitir-shitir tovushini eshitmoqchi bo‘lgandir? Birdan u pastda eshitilgan ovozdan seskanib ketdi. Xayriyat, xolavachchasi Dudlining qattiq tortayotgan xurragi ekan.

Bola g‘aflatdan uyg‘onib, o‘zini idora qildi. Bunchalik emas-da. Uyda Vernon amaki, Petuniya xola va Dudlidan boshqa hech kim yo‘q. Ular ham hozir tarashaday qotib uxlashmoqda.

[1] **Rido** (*arabcha*; xalat, kiyim) – shayxlar, umuman, ruhoniylar yelkasiga yopinadigan choyshabsimon yopinchiq, libos; darvishlarning ustki kiyimi.

Ta'kidlab o'tmoq joizki, biron-bir quvonch keltirmaydigan Dursllarning uyg'oq yurishganidan ko'ra tishini devorga qaratib yotgan holati Garriga ko'proq ma'qul keladi. Bolaning yagona qarindoshlari sanaladigan Vernon amaki, Petuniya xola va Dudli magllar bo'lib, har qanday sehr-jodudan hazar qilish barobarida Garridan ham juda nafratlanishadi. Bola Dursllar xonadonida o'zini juda yomon his etadi. So'nggi uch yil davomida ushbu xonadon sohiblari qo'shnilarga Garrining uzoq vaqt ko'rinmay qolayotganini tuzalmas jinoyatchi nusxalar uchun qat'iy rejim joriy etilgan muqaddas Grubus muassasasida tarbiyalanayotganini ma'lum qilgancha, izohlab borishmoqda. Balog'atga yetmagan, «Xogvars»dan tashqarida yurgan yosh sehrgarga afsun bilan shug'ullanish qat'iyan man etilganini amaki bilan xola juda yaxshi biladi. Shunday bo'lsa-da, uyda yuz bergan barcha noxushliklarda Garrini ayblashga urinishadi. Ushbu qarindoshlarga ishonish haqidagi o'yning o'zi Garriga tuturiqsiz fikrday ko'rinadi. Bola ularga sehrgarlar olamidagi hayoti haqida hech qachon hech narsa aytib bermagan. Ular uyg'ongach, yonlariga borib, peshanasi og'riyotgani-yu, Lord Voldemort haqidagi o'ylar uni tashvishga solayotganini aytib berishni tasavvur qilishning o'zi kulgili!

Shunday bo'lsa ham Garri, avval boshdan, aynan Lord Voldemort tufayli Dursllar xonadoniga kelib qolgan. Agar Yovuz Lord bo'lmaganida, uning peshanasida chandiq ham bo'lmas, o'sha badbaxt, mal'un Voldemort bo'lmaganida, uning ota-onasi tirik bo'lar edi...

So'nggi yuz yillikning eng qudratli yovuz sehrgari, o'tgan o'n bir yil davomida katta kuch to'plagan Lord Voldemort kunlardan bir kun Godrik jarligidagi Potterlar xonadoniga tunda kelib, ota-onasini o'ldirganida Garri endigina bir yoshga to'lgan chaqaloq edi. Yovuz qilmishini amalga oshirgan Lord Voldemort hukm surishiga to'g'onoq bo'lgan ko'plab sehrgarlarni yer yuzidan sidirib tashlagan qarg'ishini talaffuz etgancha sehrli tayoqchasini chaqaloqqa o'qtadi. Biroq aynan Garriga kelganda, g'alati mo'jiza ro'y berib, qarg'ish yashini ta'sir qilmadi. Aniq-rog'i, go'dakni nobud qilish o'rniga, ushbu yashin Garrining

peshanasidan sapchib, Voldemortning o'ziga urildi. Bola bunday yashindan, peshanasida zigzag shaklidagi g'ayrioddiy chandiq qolgancha qutulib qoldi. Voldemort esa bazo'r jonli, qandaydir ayanchli narsaga aylanib qoldi. U g'oyib bo'ldi. Sehrgarlarning yashirin jamiyatida qaror topgan rasvogarchilik barham topdi. Voldemortning malaylari-yu, yugurdaklari har tomon tumtaraqay bo'ldi, omon qolgan bola – Garri Potter esa dongdor bo'lib ketdi.

O'n bir yoshga to'lgan kuni sehrgar ekanidan xabar topgan Garri qattiq hayajonlandi. Gap shundaki, magllar ko'zidan bekitilgan sehrgarlar olamidagi har bir bola uning ismini bilishi Garrini juda shoshirib qo'ydi. «Xogvars»ga kelgach, odamlar, uning ortidan hayajon-la pichirlab qolishiga uzoq ko'nikdi. Endi u bunday shivir-shivir gaplarga odatlandi. Bu yil bola to'rtinchi sinfda tahsil ko'radi. Garri qadrdon qasriga kirib boradigan sanagacha qolgan kunlarni sabrsiz sanab yuribdi.

Maktabga qaytishiga hali rosa ikki hafta bor. Garri umidsizlik ila xonaga yana ko'z yugurtirib chiqib, nigohi iyul oyining oxirida eng yaqin ikki do'sti tomonidan yo'llangan tabriknomalarda to'xtadi. Ularga chandig'i to'g'risida yozib yuborsa, nima deyishadi?

Shu zahoti qulog'iga Germiona Grenjerning xavotirli ovozi eshitildi: *Yana chandig'ing og'riyaptimi? Garri, bu holat juda jiddiyga o'xshaydi... Zudlik bilan professor Dambldorga xabar ber! Men* esa *«Sehrgarlar orasida keng tarqalgan dard va xastaliklarga oid ma'lumotnoma mazmunidagi qo'llanma»ni varaqlab chiqaman. Ajab emas, qarg'ish yashinidan qoladigan chandiqlar to'g'risida biron-bir foydali ma'lumot topsam...*

Ha, Germiona aynan shunday ya'ni, maydalashib o'tirmay, tikka «Xogvars» direktoriga murojaat qilish, ish bir yerga yetguncha, kitob varaqlash maslahatini bergan bo'lar edi. Kitob biron bir naf berishiga shubha qilgan Garri, deraza orqali siyohday falakka tikildi. Bilishicha u, Voldemort qo'llagan qarg'ish yashini kabi yashin ta'siridan omon qolgan jahonda yagona odam sanaladi. Binobarin, «Sehrgarlar orasida keng tarqalgan dard va xastaliklarga oid ma'lumotnoma mazmuni-

dagi qo'llanma»da ham bunday alomatlar tavsiflangan bo'lishi inchunin amri mahol. Direktorga murojaat qilish masalasiga kelsak, Dambldor yozgi ta'tilni qayerda o'tkazishidan Garri mutlaqo bexabar. U bir daqiqa o'z tashvishidan chalg'ib, belboqqa qisib olguday darajada uzun kumushrang soch-soqolli, egniga sehrgarlik libosi-yu, cho'qqidor shlapasini kiygan Dambldor dunyoning allaqaysi dengizining sohilida, o'zining ilmoqsimon qayrilma burniga oftobda qorayish malhamini surtib yotganini tasavvur qilib ko'rdi. Dambldor qayerda bo'lmasin, Garrining xat tashuvchi boyqushi Xedvig uni topadi, albatta. Pochta boyqushi xatning manzili ko'rsatilmagan bo'lsa ham, hali biror marta bo'lsin, pand bermagan. Faqat direktorga nima deb yozadi?

«*Hurmatli professor Dambldor, bezovta qilayotganim uchun ma'zur tuting, bugun kechasi chandig'im og'ridi. Ehtirom ila, Garri Potter*», deb yozish kerakmi?

Xayolan yozilgan bo'lsa ham xat ma'nosi juda bema'ni chiqdi.

Garri ikkinchi do'sti Ron Ueslining bildiradigan munosabatini ko'z oldiga keltirdi. Tasavvurida talmovsiragan, taajjubdan ko'zi kosasidan chiqib ketishiga sal qolgan, burni uzun, sepkil bosgan bashara gavdalandi:

– «*Yana chandig'ing og'riyaptimi? Lekin... «O'zing-Bilasan-Kim» hozir yoningda bo'lishi mumkin emas-u, shundaymi? Aytmoqchimanki... sen buni sezgan bo'lar eding, to'g'rimi? U yana seni joningga tegishga urinib ko'rgan bo'lar edi, a? Umuman, Garri, ishonchim komil emas-u, har qalay, qarg'ish yashinidan qolgan chandiqlar ba'zan, biroz bo'lsa ham, bezovta qilib turishi kerakdir, axir... Dadamdan so'rab ko'rishim kerak ekan...*».

Magllarning ro'zg'or buyumlaridan noto'g'ri foydalanish bo'limida ishlaydigan mister Uesli yuqori malakali sehrgar bo'lsa-da, qarg'ish yashiniga qarshi kurash va uning oqibatlarini bartaraf etishga ixtisoslashmagan. Har qalay, Garri shunday deb o'ylaydi. Ueslilar oilasi peshanasi biroz og'rigani uchun bola ortiqcha vahima ko'taribdi, degan fikrga borishini Garri mutla-

qo istamaydi. Missis Uesli Germionadan ham battar tashvishga tushib qoladi. Ronning o'n olti yoshli egizak akalari Fred bilan Jorj esa Garri o'zini idora qila olmay qolibdi, degan xulosa chiqarishlari turgan gap.

Ueslilar oilasini Garri juda yaxshi ko'radi, albatta. Yaqin orada uyga taklif qilib qolishlariga umid ham qilmoqda. Axir, Kvidish bo'yicha jahon chempionati to'g'risida Ron nimadir deganday bo'lgan edi-yu. Shu bois, mehmonda bo'lib, chandig'iga oid savollardan xoli yurishni istaydi.

Garri peshanasini barmoqlarining bo'g'in suyaklari bilan ishqalab qo'ydi. Hozir u, o'ziga o'zi bo'lsa ham iqror bo'lish-dan uyalsa-da, yovuz sehr bilan muloqot qilish tajribasiga ega ota yoki onaga o'xshash yoshi katta sehrgar qarindoshi bo'li-shini orzu qildi. Ana o'shanda u, o'zini tentaknamo his etmay maslahat so'rab, uning uchun birov jon kuydirayotganini his etishi mumkin edi...

Aynan shu xayol muammo yechimi topilishiga sabab bo'ldi. Ushbu yechim shu qadar sodda va shunchalik ayon ediki, nima uchun darhol shu qarorga kelmaganiga o'zi hayron. Sirius bor-u!

Garri karavotdan irg'ib turib, yozuv stoli yonidagi kursiga o'tirdi. Pergamentni o'ziga tortib, burgut patidan tayyorlangan patqalamni siyohga botirdi-da, maktub bitishga kirishdi: «*Qadrli Sirius!*»

Nima uchun shu vaqtgacha Siriusni eslamaganidan taajjublangancha, o'z tashvishini so'z vositasida qanday ifodalab, xatga mujassam etish haqida o'ylanib qoldi. Umuman aytganda, buning hayron qoladigan joyi yo'q. Sirius cho'qintirgan otasi ekanini Garri atigi ikki oy oldin bildi.

Sirius Blek cho'qintirilgan o'g'lining hayotida ayrim sabablarga ko'ra shu vaqtgacha bo'lmagan. U Azkaban deb nomlanib, mudhish dementorlar[1] qo'riqlaydigan sehrgarlar qa-

[1] **Dementor** – qadimiy rivoyat va afsonalarda aytilishicha, insonlar qalbiga qo'rquv va dahshat solib turadigan afsonaviy, ko'zga ko'rinmas maxluq. Bu maxluqlar, odatda, insonlarning mudhish xotiralaridan yuzaga kelgan. Shuning uchun asarda bularni haydash uchun quvnoq xotiralardan foydalanish tavsiya etilgan.

moqxonasida o‘tirgan. Sirius qamoqdan qochgach, kishi ruhini so‘rib oladigan so‘qir maxluqlar Blekni qidirib «Xogvars»ga kelishgan. Aniqlanishicha, Sirius aybsiz bo‘lib, u sodir etmagan qotillik aslida Lord Voldemortning malayi, qahramonlarcha halok bo‘lgan deb hisoblangan Chuvalchangdumning qilmishi ekan. Biroq haqiqat faqat Garri, Ron va Germionaga ma’lum. Uchovlon, o‘sha yaramas bilan o‘tgan yili yuzma-yuz kelib, bor gapdan xabar topdi. Ularning gapiga taassufki, faqat Dambldorgina bovar qildi.

Sirius Garriga, bo‘yniga qo‘yilgan barcha ayblardan xalos bo‘lgach, birga yashashni taklif qildi. Bola o‘zini Dursllar xonadonini butunlay tark etish haqidagi o‘ylar bilan atigi bir soatgina baxtiyor his etishga ulgurdi, xolos. Imkoniyat qo‘ldan ketdi. Sehrgarlik vazirligi ixtiyoriga topshirilmagan Chuvalchangdum juftakni rostladi. Siriusga esa qochib qutulishdan boshqa chora qolmadi. Garri uning qochib, omon qolishini tashkillashtirishda bevosita ishtirok etdi. Sirius Otburgut laqabli yirik kalxatni egarlab, uchib ketgandan buyon yashirinib yuribdi. Agar Chuvalchangdum qochib ketmaganida qanday uyda yashashi mumkinligini Garri yoz bo‘yi tasavvur qilib yurdi. O‘sha fojiali tasodif bo‘lmaganida Dursllardan butkul xalos bo‘lishini bilgan Garri uchun «Odamovilar» xiyoboniga qaytish ikki chandon qiyin kechdi.

Garchi cho‘qintirilgan o‘g‘lining yonida bo‘lish imkoniga ega bo‘lmasa ham Sirius Blek Garriga yordam berib bordi. Chunonchi, aynan Sirius tufayli, Garri, o‘z maktab anjomlarini xonada saqlash huquqiga ega bo‘ldi. Ilgari Dursllar bunga izn berishmas edi. Ularning asosiy fikr-xayoli, orzu-havasi – Garriga imkon qadar har qadamda noqulaylik yaratishdir. Jiyanining sehrgarlik qobiliyatidan dahshatga tushib kelgan Dursllar o‘tgan yillar davomida Garrining sandig‘i-yu, jamiki maktab anjomlarini zina ostidagi bufet ichiga kiritib, qulflab qo‘yishar edi. Garrining cho‘qintirgan otasi savdoyi-qotil ekanidan xabar topishgach, Dursllar, ushbu masalaga o‘z munosabatlarini darhol o‘zgartirdilar. Siriusning aslida aybsiz ekanini, qotillik qilmaganini Dursllarga aytib qo‘yish esa Garrining «xayolidan

ko‘tarilibdi».

«Odamovilar» xiyoboniga qaytganidan buyon Garri Sirius-dan ikkita xat oldi. Sehrgarlar olamida xatlar asosan pochta boyqushlari orqali yo‘llanadi. Biroq ikkala xatni ham boyqush emas, issiq mintaqalarda yashaydigan yirik, ochiq rangli qushlar yetkazdi. Xedvig, ko‘zga yaqqol tashlanadigan ushbu qushlar-ning bosqiniga salbiy munosabat bildirib, ortga qaytishlaridan oldin o‘z suvdonidan chanqov bostirishlariga istar-istamas izn berdi. Garriga esa, aksincha, qushlar juda xush keldi. Ularni ko‘rib, palmalar va oq qumli plyajlarni tasavvur qildi. Bu esa, o‘z navbatida, Sirius hozir qayerda bo‘lmasin, hayotdan zavq-lanayotganiga ishonch bag‘ishlaydi. Xatlar begona qo‘lga tu-shib qolishi mumkinligini o‘ylagan Blek dunyoning qaysi bur-chagida yurganini yozmagan. Garrining tasavvuricha, demen-torlar charaqlab turgan quyosh ostida uzoq sayohat qila olish-maydi. Ajab emas, shu bois ham Sirius janubga ketvorgan bo‘lsa. Blekning quvnoq ohangda yozilgan, zarurat tug‘ilishi bilan murojaat qilishga da’vat etgan xatlari Garrining karavoti ostidagi mixlanmagan pol taxta tagiga ishonchli yashirib qo‘yil-gan. Xo‘sh, mana o‘sha zarurat...

Stol ustiagi chiroq nuri tongotar mahalga kelib xiralashdi. Xona devoriga zarhal tus bergan quyosh chiqqan zahoti Vernon amaki bilan Petuniya xolaning xonasidan shitir-shitir tovush eshitildi. Garri stol ustidagi g‘ijimlangan pergament varaqlarini bir chetga uloqtirib, endigina yozib tugatgan maktubini qaytadan o‘qib chiqdi.

Qadrli Sirius!

Xat uchun rahmat. Uni keltirgan qush shu qadar yirik ekanki, derazaga arang sig‘di.

Bu yerda hamma narsa o‘z maromida-yu, faqat Dudlining parhezi juda qiyin kechmoqda. Yog‘da ko‘pchitib pishirilgan kulchalarni o‘z xonasiga o‘g‘rincha kiritib olayotganini xolam bilib qoldi. Agar bunday hunarini davom etsa, cho‘ntak pulining muayyan qismidan mahrum bo‘lishi haqida ogohlan-tirildi. Och qolib, jahl qilgan ahmoq Dudli esa *o‘yin o‘ynash uchun*

televizorga ulanadigan qo'shimcha moslamani deraza-dan uloqtirib yubordi. Bu kompyuterga o'xshash narsa bo'lib, ushbu moslama vositasida har xil o'yinlar o'ynaladi. Endi u o'zi yoqtiradigan «Megomushtlashuv-3» o'yinini o'ynay olmay, ovqat yeyish hayolidan chalg'ishi qiyin kechadi.

Ishlarim yaxshi. Dursllar menga qattiq tegishmayapti. Negaki ular iltimosimga binoan biror kun kelib, hammasini ko'rshapalakka aylantirib yuborishingdan juda qo'rqishadi.

Faqat bugun tunda g'alati holat ro'y berdi. Chandig'im yana og'ridi. So'nggi bor chandig'im Voldemort «Xogvars»da paydo bo'lganida og'rigan edi. Hozir u shu yaqin orada izg'ib yuribdi, degan fikrda emasman. Sen-chi, nima deb o'ylaysan? Ehtimol, qarg'ish yashinidan qolgan chandiqlar ko'p yillar o'tsa ham og'rib turar. Bu haqda eshitganing yo'qmi?

Ushbu xatni Xedvig orqali yo'llayman. Hozir u ovga chiqib ketgan. Otburgutga mendan salom.

Garri.

«Yomon chiqmadi, shekilli, – o'yladi Garri. – Tushimni esa tavsiflab berishga hojat yo'q. Tag'in meni qo'rqib ketibdi, degan xayolga bormasin».

U pergamentni o'rab, Xedvig qaytishigacha turishi uchun stol ustiga qo'ydi. O'rnidan turib, kerishib oldida, yana kiyim javoni yoniga borib, ko'zguga qaramay, nonushtaga tushish uchun kiyimini kiydi.

III BOB. TAKLIFNOMA

Garri oshxonaga tushganida, Dursllar dasturxon atrofiga yig'ilib bo'lishgan ekan. Oshxonaga kirib kelganida ham o'z joyini egallaganida ham hech unga kim e'tibor qilmadi: Vernon amakining lavlagiday qip-qizil yirik basharasi ertalab keltirilgan «Deyli Meyl» gazetasining ortida. Petuniya xola esa labini qimtib olguncha, biyanikiday keladigan tishini bekitib, greypfrut[1] mevasini to'rtga bo'lib o'tiribdi.

Dudlining avzoi nihoyatda buzuq. So'nggi vaqtda u, odatdagidan ham katta joyni egallab olganday go'yo. Bu esa yaxshilik alomati emas. Chunki Dudli, odatda, kvadrat shaklidagi katta stolning faqat bir tomonini butunlay egallab o'tirar edi.

– Mana bunisi yoqimtoyimiz Dyudyushchaga, – dedi greypfrut choragini sirtiga shakar sepmay o'g'lining likopiga qo'ygan Petuniya xola hurkovuch ovozda.

Ta'til boshidan buyon hayoti do'zaxga aylangan Dudli ertalabki nasibasidan norozi bo'lib onasiga o'qraydi. Gap shundaki, Dudlining yomon baholariga Vernon amaki bilan Petuniya xola odatdagiday oqlovchi vaj-bahonalar topa bilishdi. Onasining bu borada bildirgan fikriga qaraganda Dudli nihoyatda qobiliyatli bola bo'lib, nodon o'qituvchilar uning iste'dodini tushunishmas emish. Vernon amaki esa Dudli maktabda o'zlashtirilayotgan o'quv materiallarini tushunmasdan yod olishini, oyisining erka o'g'li bo'lib o'sishini istamasligini ma'lum qildi. Dudli Dursl maktab ma'muriyati tomonidan bezorilik va shafqatsizlikda ayblanayotganini ham ota-ona e'tiborsiz qoldirdi. Petuniya xolaning ko'ziga yosh olib aytgan gapiga qaraganda: «*Dudli o'ta faol bo'lgani bilan qo'y og'zidan cho'p olmaydigan nihoyatda yuvosh, mo'min-ma'qul bola*» ekan.

Biroq maktab o'qituvchilarining Dudli to'g'risidagi tanqidiy fikr-mulohazalari bitilgan xabarnoma oxirida ta'lim muassasasining hamshirasi tomonidan odob saqlab yozilgan shunday

[1] **Greypfrut** – sitruslar turkumiga mansub apelsinsimon mevali daraxt va uning mevasi.

so‘zlar bor ediki, ularga qarshi Vernon amaki ham Petuniya xola ham e’tiroz bildira olmadi. Petuniya xola o‘g‘lining suyagi yo‘g‘onligi, uning vazni asosan bola yog‘i evaziga og‘ir ekani, o‘sayotgan yosh organizmga yaxshi ovqat talab etilishi to‘g‘risida qancha sannamasin, haqiqat haqiqatligicha qoladi. Aniqlanishicha, maktabning kiyim-kechak omborida o‘lchami Dudlining dumbasiga mos keladigan kalta shim bo‘lishi ko‘zda tutilmagan ekan.

Tibbiyot hamshirasi o‘z tavsiyasida Petuniya xolaning yaltirab turgan devorda barmoq izini ko‘rishga qodir yoki qo‘shnilar o‘z uylaridan qachon chiqib ketgani-yu, qaytib kelganini yaxshi ko‘ra biladigan o‘tkir ko‘zi o‘g‘li Dudli qo‘shimcha ovqatlanishga emas, aksincha, parhez tutishga ehtiyoj sezayotganligi, bolasining tanasi yosh qotil-kit o‘lchamiga yetib borganini ko‘rishni istamayotganligiga e’tibor beribdi.

Shunday qilib, Garriga ajratilgan xona polini titratgan ko‘pdan ko‘p oilaviy mashmasha va munozaralar hamda Petuniya xolaning mo‘l-ko‘l oqqan ko‘z yoshidan so‘ng, Dursllar xonadonida ovqatlanishning yangi rejimi joriy etildi. Hamshira tomonidan ilova qilingan parhez varaqasi muzlatkich eshigiga yopishtirildi. Muzlatkich esa Dudli xush ko‘radigan barcha yeguliklar, jumladan: vijillaydigan ichimliklar, shokoladli mahsulotlar, gamburger[1] kabilardan batamom tozalanib, o‘rniga sabzavot-u, mevalar, Vernon amakining ta’biri ila ifodalab, bir so‘z bilan aytganda «silos»ga[2] to‘ldirildi. Dudliga alam qilmasligi uchun Petuniya xola parhezga oilaning jamiki a’zolari rioya qilishini talab qildi. Garriga greypfrutning Dudliga berilgan qismiga nisbatan ancha kichik bo‘lagini uzatgan Petuniya xola o‘g‘lining jangovar ruhi saqlanib qolishi uchun jiyaniga nisbatan ko‘proq yoyishi kerak, deb hisoblaydi, chamasi.

---

[1] **Gamburger** (Germaniyaning Hamburg shahri nomidan olingan) – pechkada yog‘siz pishirilgan yupqa xamir o‘ramiga bevosita olovda pishirilgan go‘sht bo‘lakchalari, pomidor bo‘lakchasi shuningdek har xil yog‘ va mayonezlar, salatlar solib tayyorlanadigan tez pishuvchi taom.

[2] **Silos** (*ispancha:* silos – don saqlanadigan o‘ra) – chorva mollari uchun o‘t, makkajo‘xori, kartoshka, kungaboqar va shu kabilarning ko‘k poyalaridan maxsus yo‘l bilan tayyorlanadigan to‘yimli yem, ozuqa.

Biroq Petuniya xola Garrining xonasidagi mixlanmagan taxta ostiga nimalar yashirib qo'yilganidan bexabar bo'lib, jiyani parhez tutmayotganini tasavvur ham qila olmaydi. Yoz bo'yi quyonga o'xshab sabzi g'ajib yurishini anglab yetgan Garri yordam so'rab barcha do'stlariga xat yo'lladi. Do'stlar esa o'z navbatida, misli ko'rilmagan yordam qo'lini uzatishdi. Ota-onasi tish doktori bo'lib ishlaydigan Germiona Xedvig orqali shakarsiz baton[1] shokoladlarga to'ldirilgan kattagina quti berib yuboribdi. «Xogvars» qorovuli Xagrid o'zi tayyorlagan peche-niylarning bir qopi bilan javob berdi. Ammo, Xagridning pazan-dalik qobiliyatidan yaxshi xabardor Garri, ushbu pecheniylarga hali qo'l tekkizgani yo'q. Missis Uesli esa oilaviy ukkilari Erroldan mevali pirog[2] va bir dunyo pirojniy[3] jo'natdi. Qarib, darmonsizlanib qolgan bechora Errolga uzoq sayohatdan so'ng o'ziga kelib olishi uchun besh kun kerak bo'ldi. Ko'p o'tmay Ron, Germiona, Xagrid va Siriusdan tug'ilgan kuniga atalgan to'rtta pirog oldi. Ularning ikktasi hali ham xonada turibdi. Shu bois o'z xonasida haqiqiy nonushta kutayotganidan ko'ngli to'q Garri, greypfrut bo'lagini shoshilmay tinchitdi.

O'qigan yangiligini ma'qul topmagan Vernon amaki pish-qirgancha, gazetani chetga qo'yib, likopiga qaradi.

– Shu xolosmi? – to'ng'illadi u, Petuniya xolaga murojaat qilib.

Petuniya xola eriga yeb qo'yguday o'qrayib, jag'i bilan bolasi tomon imo qildi. Dudli o'zining ulushini yeb bo'lib, cho'chqa ko'zini Garrining bo'lagiga tikib o'tiribdi.

Vernon amaki qalin, to'p-to'p bo'lib o'sib chiqqan mo'ylovini qimirlatgancha, chuqur xo'rsinib, qo'liga qoshiq oldi.

Shu payt eshik qo'ng'irog'i jiringladi. Vernon amaki o'rnidan bazo'r turib, dahlizga chiqdi. Onasi choynak bilan ovora bo'lgan paytda Dudli yashin tezligiday harakat qilib, otasining

---

[1] **Baton** (*fransuzcha:* baton – cho'p, tayoq) – cho'zinchoq oq bulka non.

[2] **Pirog** (*ruscha:* pirog – «bazm, ziyofat») – qiyma, meva, qiyom va shu kabilar solib, duxovkada pishiriladigan shirinlik.

[3] **Pirojniy** (*ruscha*) – yog', sut, tuxum va shakar aralashtirib qorilgan xamirdan turli shaklda tayyorlangan, ba'zan yuziga kremdan gullar solingan qandolat mahsuloti.

haqini changallab olgancha og'ziga tiqdi.

Garri eshik oldida qandaydir suhbat o'tgani, kimdir kulgani, bunga javoban amakisining so'kinganini, so'ng kirish eshigi yopilib, qog'oz yirtilganini eshitdi.

Petuniya xola qo'lidagi choynakni stolga qo'yib, orqa o'girilgancha, qiziqsinib qaradi. Eri nima bilan band ekanini bilish uchun uzoq kutishiga to'g'ri kelmadi. Daqiqa o'tmay, g'azabdan qaynayotgan Vernon amaki ko'rindi.

– Hoy, sen, – o'shqirdi u Garriga, – mehmonxonaga. Tez!

Bu safar nimada ayblanishini bilmay taajjublangan Garri o'rnidan turib, oshxonadan qo'shni xonaga chiqdi. Ikkalasi mehmonxonaga kirgach, Vernon amaki eshikni taraqlatib yopdida, kamin yoniga borib, xuddi hibsga olinganini ma'lum qilmoqchi bo'lganday Garriga yuzlandi.

– Xo'sh? – dedi u. – Xo'sh?

Garri «Ikki qo'ling bo'sh, ahmoq» deya javob qaytarmoqchi bo'ldi-yu, shundoq ham, aftidan, ruhiy larzaga kelgan, yana ustiga qorni durust to'ymay yurgan amakisining erta tongda asabiga tekkisi kelmadi. Shu bois aybsiz-hayron bashara yasab oldi.

– Hozir mana buni olib kelishdi, – dedi Vernon amaki, qirmizi pochta qog'ozini siltab. – Xat. Sen haqingda.

Garrining taajjubi yanada kuchaydi. Qiziq, u haqda Vernon amakiga kim yozishi mumkin? Uning tanishlari orasida kim magllarning pochtasi orqali xat yo'llashi mumkin?

Vernon amaki muayyan vaqt Garriga o'qrayib turdi-da, ko'zini pastga tushirib, ovoz chiqarib o'qidi:

Hurmatli mister va missis Dursl!

Siz-u biz bir-birimizga tanishtirilganimiz yo'q, lekin ishonchim komilki, jiyaningiz Garri o'g'lim Ron haqida sizlarga ko'p gapirib bergan.

Garri kelasi dushanba kuni Kvidish bo'yicha jahon chempionatining final o'yini bo'lib o'tishi haqida ham aytgan bo'lsa kerak. Turmush o'rtog'im Artur Sehrgarlik o'yinlari va

sport departamentida[1] ishaydigan qo'llovchi oshna-og'aynilari bo'lgani bois eng zo'r tomosha joylariga chipta olishga muvaffaq bo'ldi.

Umid qilamanki, Garrini mulohaza yuritilayotgan o'yinga olib borishimizga ijozat berasiz. Hamonki, bunday imkoniyat kishi hayotida atigi bir marta bo'ladi. Kubok o'yinlari Angliyada qariyb o'ttiz yildan buyon o'tkazilgani yo'q. Shu sababdan ham o'yingga chipta olish amri mahol. Jiyaningiz yozgi ta'tilning qolgan qismini xonadonimizda o'tkazsa va biz uni poyezdga chiqarib qo'ysak, o'zimizni tabiiyki, nihoyatda baxtiyor hisoblar edik.

Agar Garri, ushbu xat javobini to'g'ri usul bilan tezroq yo'llasa, behad minnatdor bo'lamiz. Negaki magllar pochtasi bizga kelmaydi. Umuman aytganda, pochtachi manzilimizni topa olishiga shubha qilaman.

Garrini tez orada ko'rishga umid qilaman.

Ehtirom ila, Molli Uesli.

P.S. Pochta markalarining yetarlicha sonini yelimlagan bo'lsam kerak, degan umiddaman.

Vernon amaki xatni o'qib bo'lgach, qo'lini ko'krak cho'ntagiga solib, undan nimanidir chiqardi.

– Ana endi mana bunga qara, – irilladi u.

Vernon amaki missis Uesli yo'llagan konvertni[2] ko'rib, qahqahlab yuborishdan o'zini bazo'r tiyib oldi. Konvertning a'zoyi badaniga, yuza tomonidagi dyum kvadratdek joydan tashqari, pochta markalari yelimlab tashlangan. Bo'sh kvadrat ichiga esa missis Uesli mikroskopik dastxat ila Dursllarning manzilini bitgan.

– Demak, u pochta markalarining yetarlicha sonini yelim-

[1] **Departament** (*fransuzcha:* departement – boshqarma, idora) – 1) Fransiyada va boshqa ayrim mamlakatlarda eng yirik ma'muriy-hududiy birlik; 2) ba'zi mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda, mahkama, idora va vazirliklar yoki ular tarkibidagi bo'linmalarning nomi; 3) ba'zi xalqaro tashkilotlarning bo'linma va shoxobchalari (**bu yerda shu ma'noda**).

[2] **Konvert** (*fransuzcha*: convert) – ichiga xat, hujjat va shu kabilarni solib, biror joyga yuborish uchun ishlatiladigan, to'rtburchak shaklida yasalgan qog'oz paket; xatjild.

lubdi, – xulosa qildi Garri ovoziga, bunday xatodan hech kim xoli emas degan ohang berishga urinib.

Vernon amaki o‘qrayib qo‘ydi.

– Pochtachi e’tibor berib, bunday xat qayerdan kelishi mumkinligi bilan qiziqibdi, – g‘ijinib g‘uldiradi u. – Xatni tuynukdan tashlagancha ketmay, eshik qo‘ng‘irog‘ini jiringlatganining boisi ham shu ekan.

Garri indamadi. Vernon amaki pochta markalarining haddan ortiq soni uchun jahl qilayotgani kimgadir g‘alati tuyular, biroq Garri Dursllar bilan uzoq yashab kelayotgani bois ularni yaxshi biladi. Odatiy an’analar doirasidan zarracha chiqib ketgan har qanday holat, Dursllarni dahshatga soladi. Muhimi, qanchalik uzoq bo‘lmasin, missis Uesliga o‘xshash odamlar bilan munosabatlari borligini birov bilib qolishi haqidagi o‘yning o‘zi ularni vahimaga soladi.

Vernon amaki ko‘zini jiyanidan uzmayapti. Garri esa o‘z navbatida, xolis qiyofa kasb etishga urinmoqda. Agar hozir ahmoqlik qilmay, o‘zini to‘g‘ri tutsa, uni haqiqiy sovg‘a, umr orzusi kutmoqda! Balkim, Vernon amakining o‘zi biror narsa der. Biroq u, baqraygancha turibdi.

– Demak... Borsam bo‘ladi? – sukunatni buzdi Garri.

Sezilar-sezilmas zo‘riqish yirik arg‘uvon[1] basharani burishtirib, mo‘ylovni hurpaytirdi. Garri, ushbu mo‘ylov ortida nima bo‘layotganini aniq biladi: hozir amakining tabiatidagi ikkita asosiy his-tuyg‘u o‘rtasida ayovsiz kurash kechmoqda. Borishga ruxsat berilishi Garriga huzur-halovat havola etilishini anglatadi. Vernon amaki esa bunday holatga qarshi roppa-rosa o‘n uch yildan buyon kurashib kelmoqda. Ikkinchi tomondan, ta’tilning qolgan qismini o‘tkazishi uchun Ueslilarnikiga ketishga ruxsat berilishi, Garridan, kutilgan muddatdan rosa ikki hafta oldin xalos bo‘lishni anglatadi. Axir, amaki jirkanch Garrining uyda bo‘lishini istamaydi-ku. O‘ylab ko‘rish uchun bo‘lsa kerak, u yana missis Ueslining xatiga qaradi.

[1] **Arg‘uvon** (*forscha*) – yog‘och o‘ymakorligida ishlatiladigan, bahorda ochiladigan qirmizi gulli bir daraxt (burchoqdoshlar oilasiga mansub daraxtlar turkumi)ning guliga rangiga o‘xshash rang, qirmizi rang.

– Kim u? – so‘radi Vernon amaki, imzoga jirkanch nazar tashlab.

– Siz uni ko‘rgansiz, – eslatdi Garri. – Do‘stim Ronning oyisi. Temir yo‘l stansiyasida[1] «Xog...», ya’ni maktabdan kelgan poyezdni kutib olgan edi.

Garri «Xogvars-Ekspress» deb yuborishiga sal qoldi. Bu so‘z amakining jahlini chiqarishi turgan gap. Dursllar xonadonida Garri tahsil ko‘rayotgan maktab nomini tilga olish qat’iyan man etilgan.

Vernon amakining basharasi, xuddi ko‘nglini behuzur qilgan bir narsa yodiga tushganday burishib ketdi.

– E, anavi, bir etak malla bolali semiz ayolmi? – so‘radi u, uzoq o‘ylanib.

Garri qovoq solib oldi. Vernon amaki kimni bo‘lmasin, «semiz» deb atashi haddan ortiq. O‘zi-ku, mayli, o‘g‘liga qarasa bo‘larmidi. Uch yoshdan buyon semira-semira, bugungi kunga kelib, eni otasining enidan ham oshib ketdi-yu.

Vernon amaki xat ma’nosini o‘zlashtirishni davom etdi.

– Kvidish, – g‘udulladi u. – Kvidish... degani qanaqangi bema’nilikni anglatadi?

– Sport o‘yini, – qisqa qildi zardasi qaynagan Garri. – O‘yin davomida supu...

– Jim, jim! – qo‘lini siltadi Vernon amaki.

Amakini vahima qamrab olganini ko‘rgan Garri xursand bo‘ldi. Uning mehmonxonasida supurgilar to‘g‘risida gapirilishi asabiga yoqmadi, chamasi. U voqelikdan chekinib, yana xat ma’nosiga qaytdi. Garri amakisining deyarli ovoz chiqarmay: «... *ushbu xat javobini to‘g‘ri usul bilan tezroq yo‘llasa...*» so‘zlarini o‘qib, basharasi burishib ketganini kuzatib turdi.

– Nimani nazarda tutyapti u «to‘g‘ri usul bilan», deb? – bazo‘r so‘radi amaki.

---

[1] **Stansiya** (*lotincha:* siatio – to‘xtash joyi; bekat) – 1) temir yo‘l poyezdlari yoki quruqlikdagi boshqa transport vositalari to‘xtaydigan joy; shu joyga tegishli inshoot va xizmatlar majmui; 2) maxsus vazifa bajaruvchi ayrim muassasalar, korxonalar yoki ilmiy-tekshirish ishi olib boruvchi muassasalar nomi; 3) bortida ilmiy asbob-uskunalari bo‘lgan kosmik apparat.

– Biz uchun to‘g‘ri usulni nazarda tutyapti, – dedi Garri. – Boyqush pochtasi orqali. Shu usulgina sehrgarlar uchun to‘g‘ri usul sanaladi, – qo‘shib qo‘ydi u, amakisi to‘xtatib qolishidan oldin.

Basharasi pishib yetilgan olxo‘ri rangini kasb etgan Vernon amakining g‘azabi xuddi Garri dunyodagi eng yomon haqorat so‘zni talaffuz etganday qaynadi. Qo‘shnilarning meh-monxona derazasiga bosilgan quloqlarini ko‘rib qolganday nafratdan zir titragancha, ko‘cha tomon asabiy qarab qo‘ydi.

– Senga necha marta aytish kerak, mening uyimda tentakliging haqida gapirma, deb? – vishilladi u. – Qarshimda, men bilan Petuniya bergan kiyimda turibsan...

– Dudli kiyib, teshilib ketguday eskirganidan so‘ng, – sovuq ohangda gap kesdi Garri.

Haqiqatan ham uning egnidagi sviter[1] shu qadar kattaki, yengini besh marta shimarib olishga to‘g‘ri keldi. Qopday keladigan jinsi esa tizzasigacha osilib turibdi.

– Men bilan bunday ohangda gaplashishga hech kim ruxsat bergani yo‘q senga! – baqirdi Vernon amaki, g‘azabdan titrab.

Biroq Garrining ham itoatkorona bosh egib, har xil tahqirlar-u, xo‘rlanishlarga bardosh berish niyati yo‘q. Dursllarning ahmoqona qoidalariga bo‘ysunib yuradigan zamon o‘tib ketdi. Dudliga sherik bo‘lib, parhez tutmaganday, Kubok finalida bo‘lishdan ham mahrum qildirib qo‘ymaydi o‘zini.

– Demak, chempionatga borishga ruxsat yo‘q, shundaymi? – chuqur nafas olib, o‘zini idora qilib oldi Garri. – Mayli, unday bo‘lsa, xonamga bora qolay. Siriusga yozayotgan xatimni nihoyasiga yetkazib qo‘yishim kerak. Siz uni, esingizda bo‘lsa, albatta, televizorda ko‘rgansiz. U meni cho‘qintirgan otam bo‘ladi.

Gap nishonga tegdi! Nihoyat mo‘jizali ta’sirga ega so‘z aytildi. Amakining basharasidagi qirmizi tus asta sekin doqqa aylanib, barham topa boshladi va tez orada uning turqi yaxshi

[1] **Sviter** (*inglizcha:* sweater – terlamoq, ter chiqarmoq) – jun ipdan to‘qilgan, tugmasiz kalta issiq kiyim.

aralashtirilmagan qorag'at[1] muzqaymog'ining rangini kasb etdi.

– Sen... u bilan yozishib turasanmi? – so'radi u, soxta-vazmin ovozda.

Shunday bo'lsa-da, Vernon amakining ko'z qorachiqlari qo'rqib ketganidan torayib ketgani yaqqol ko'rindi.

– A?... Ha, albatta, – beparvo javob berdi Garri. – U ko'p-dan buyon mendan xat olmagan edi. Agar yozmasam, menga biron kor-hol bo'ldi degan xayolga borib, bu yerga yetib kelishi mumkin.

Garri gapni gapirdi-yu, amakiga o'tkazgan ta'siridan o'zi lazzatlanib, jim qoldi. U Vernon amakining qalin, bir tekis taralgan sochi ostidagi miya soqqalari aylanayotganini deyarli ko'rib turdi. Agar Siriusga xat yozishni man etadigan bo'lsa, cho'qintirgan ota cho'qintirilgan o'g'ilga nisbatan ko'rsatilayot-gan munosabat borasida har xil xayolga borishi mumkin. Agar Garri o'yin tomoshasiga qo'yib yuborilmasa va Garri bu haqda cho'qintirgan otasiga yozib yuborsa, demak, yomon munosabat ko'rsatilayotgani ayon bo'ladi. Oxir-oqibatda yagona yo'l, u ham bo'lsa, Garriga ijozat berish yo'li qolmoqda. Bola amaki-ning mo'ylovli bahaybat basharasi go'yo shaffof bo'lib qolgan-u, miyasida tegishli qaror shakllanayotganini kuzatib turdi. Ku-lib yuborishdan o'zini bazo'r tiygan Garri hech narsa ifoda etmagan qiyofa yasadi. Nihoyat...

– Mayli. Borishing mumkin o'sha ahmoqona... bema'ni Kubogingga. Faqat anavi, kim edi... Ueslilaringga yozib yubor. Seni o'zlari kelib olib ketishsin. Butun mamlakat bo'ylab seni tashib yurgani vaqtim yo'q. Ha, aytganday, cho'qintirgan otang-ga ham yoz... Ruxsat berganimni yoz... yodingdan chiqmasin... yozib yubor.

– Yaxshi, yozaman, – quvonch-la javob berdi bola.

Garri teskari o'girilib, sevinganidan sakrab, baqirib yubo-rishdan o'zini bazo'r to'xtatib qoldi. U Ueslilarnikiga boradi! Final o'yinni tomosha qiladi!

---

[1] **Qorag'at** – daraxtlarga yopishib o'sadigan yashil buta. Qon tomirlarni mikroblardan tozalashda hamda terini husunbuzar toshmalardan tozalashga yordam beradi. Yevropada bu o'simlikdan gulchambarlar tayyorlashda ham foydalaniladi.

Mehmonxonadan chiqqach, eshik ortida xolavachchasini so'kishayotganini eshitish ilinjida ivirsiyotgan, lekin Garrining yuzidagi quvonchni ko'rib, taajjublangan Dudliga ro'baru bo'ldi.

– Nonushta juda mazali, ajoyib bo'ldi, a? Bo'kib qolishimga sal qoldi-ya! – dedi aybsiz ohangda Garri, Dudlini turgan joyida esankiratib.

Xandon otib, zinaning har uch pog'onasidan sakragancha, xonasiga kirib ketgan Garri dastavval Xedvigning qaytib kelganini ko'rdi. Qafasga kirib olgan boyqush qahraborang ko'zini Garriga o'qraytirgancha, jahlini ifoda etib, tumshug'ini shaqillatmoqda. Qushning jahlini chiqargan sabab tez orada ma'lum bo'ldi.

– VOY!

Garrining chakkasiga mittigina, kulrang, sirtiga pat qoplangan tennis koptogi kelib urildi. Jahli chiqqan bola boshini ishqalagancha, nima urilganini bilish uchun yuqoriga qarab, kaftiga bemalol joylashadigan jajjigina boyqushchani ko'rdi. Qushcha otilgan mushak singari xonada vizillab uchmoqda. Garri oyog'i ostiga tushgan qog'ozni olish uchun egilib, Ronning dastxatini tanidi. Konvertni ochib, ichidan shosha-pisha yozilgan xatni chiqardi.

Garri! DADAM CHIPTA OLIB KELDI!!!

Dushanba kuni kechqurun, Irlandiya-Bolgariya o'yini. Oyim, seni uyimizga kelishing uchun ruxsat so'rab, magl qarindoshlaringga xat yo'lladi. Balkim, olishgandir. Magl pochtasi qancha vaqtda yetib borishini bilmayman. Har ehtimolga qarshi senga Cho'chqa orqali xat yo'llashga ahd qildim.

«Cho'chqa» so'ziga kelganda Garri ko'zini katta ochib, atrofga alangladi. So'ng qandil atrofida gir aylanayotgan boyqushchaga qarab qo'ydi. Cho'chqaga o'xshamaydigan bunday cho'chqani birinchi marta ko'rishi. Balkim, u Ronning dastxatini yaxshi anglamagandir. Xatning davomini o'qidi:

Magllar xohlaydimi, xohlamaydimi farqi yo'q, bari bir

uylariga borib, seni olib ketamiz. Kubokni o'tkazib yuborishingga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Faqat dadam bilan oyim odob yuzasidan bir og'iz ruxsat so'rab qo'yishga ahd qilishdi. Agar magllar rozilik berishsa, zudlik bilan Cho'chqa orqali javob yo'lla. Yakshanba kuni soat beshda seni olib ketgani boramiz. Agar magl qarindoshlaring rozilik berishmasa, zudlik bilan Cho'chqa orqali javob yo'lla. Bari bir yakshanba kuni soat beshda borib, olib ketamiz.

Germiona bugun, kunning ikkinchi yarmida yetib keladi. Persi vazirlikning Xalqaro sehrgarlik hamkorligi departamentiga ishga kirdi. Uyimizda bo'lar ekansan, xorij yurtlar haqida gap ocha ko'rma, aks holda zerikmoqdan ishtoning tushib ketadi.

Ko'rishguncha!

Ron.

Boyqushcha uning boshi ustida uchib, qanotchasini tinmay silkitar va Garrining fahmicha, u nafaqat xat tashiy bilgani, balki uni tegishli manzilga yetkaza olganidan g'ururlanib qur-qurar edi

– Hoy, biroz tinchlansang-chi! – ovoz ko'targan bo'ldi Garri. – Yaqinroq kel, javobini yozib beraman, o'zing bilan olib ketasan!

Boyqushcha o'zini shap etib Xedvigning qafasi ustiga tashladi. Xedvig go'yo «Menga yaqinlashishga jur'at etib ko'r-chi!» deganday qushchaga boshdan oyoq sovuq razm solib chiqdi.

Garri toza pergament va burgut patidan tayyorlangan patqalamini olib, javob yozdi:

Ron, ishlar joyida, magllar ruxsat berdi. Ertaga soat beshda uchrashguncha. Hali shuncha vaqt bor ekan, sabrim chidamay, o'lib qolsam kerak!

Garri.

U xatni kichkina guvalacha shaklida o'radi-da, pildir-pildir qilib turgan betoqat boyqushchaning kaltagina panjachasiga bir iloj qilib bog'ladi. Ish yakuniga yetishi bilan boyqushcha havoga ko'tarilib, derazadan o'qday uchib chiqqanicha, ko'zdan

g‘oyib bo‘ldi.

– Uzoq safarga qalaysan? – so‘radi Garri Xedvig tomon yuzlanib.

Xedvig obro‘siga munosib g‘urur ifodalagancha, gursullab qo‘ydi.

– Mana buni Siriusga yetkazasanmi? – so‘radi Garri, qo‘lini xatga tekkizib. – Shoshma, oxiriga yetkazay...

P.S. Agar menga xat yozmoqchi bo‘lsang, yoz oxirigacha Ron Ueslinikida bo‘laman. Uning dadasi kvidish Kubogining final o‘yiniga chipta olibdi!

Garri xatni oxirigacha yozib, Xedvigning panjasiga bog‘ladi. Xedvig haqiqiy pochta boyqushi o‘zini qanday tutishi kerakligini ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘lganday, bir panjasini ko‘targancha tek turdi.

– Xatni yetkazgach, Ronning uyiga qaytgin, xo‘pmi? Men ularnikida bo‘laman, – tushuntirdi Garri.

Xedvig Garrining barmog‘ini mehr-la cho‘qib qo‘yib, katta qanotini asta shaldiratgancha yozdi-da, shovqin solmay derazadan uchib chiqdi.

Garri qush ortidan qarab, nigoh-la kuzatib qo‘ygach, karavotining ostiga emaklab kirib, mixlanmagan pol taxtasini ko‘tardi. U qalbi shodlikka to‘lib, nomi yozilgan pirogning kattagina bo‘lagini polda o‘tirgancha paqqos tushirishga kirishdi. Ovqatlanar ekan, faqat greypfrut g‘ajib o‘tirishga majbur bo‘lgan Dursllarni eslab kuldi. Bugun yozning quyoshli kuni. Ertaga u «Odamovilar» xiyobonini tark etadi. Chandiq og‘rimay qo‘ydi. Bola final o‘yinini tomosha qiladi. Hozir uni hech narsa, hatto Lord Voldemort haqidagi o‘y ham tashvishga sola olmaydi.

IV BOB. BOSHPANAGA QAYTISH

Ertasiga soat o'n ikkiga kelib, Garri, safar sandig'iga maktab anjomlarini, shu jumladan, o'zining asosiy boyliklari: otasidan meros qolgan ko'rinmas plash, Sirius sovg'a qilgan supurgi va o'tgan yili Fred bilan Jorj bergan «Xogvars»ning sehrli xaritasini joyladi. Mixlanmagan taxta ostidagi yashirin omborni oziq-ovqat mahsulotlaridan tozaladi, turli darslik va patqalamlar esdan chiqib qolmayotganini ko'rish uchun xilvat joylarni ikki marta tekshirib chiqdi, birinchi sentabrgacha qolgan kunlarni o'chirib borish maqsadida tuzgan qo'lbola kalendarini ham devordan yechib oldi.

Ayni vaqtda, «Odamovilar» xiyobonidagi 4-uyda qaror topgan muhit tobora keskinlashib, sehrgarlar olami vakillari tashrif buyurishlari muqarrarligi Dursllarni dahshatga solmoqda. Ueslilar bugun soat beshda tashrif buyurishlari haqida xabar topgan Vernon amaki qattiq tashvishga tushib qoldi.

– Umid qilamanki, odamga o'xshab kiyinib kelishlarini tayinlagansan anavi kaslarga, – irilladi Vernon amaki. – Senlar qanaqangi ro'dapo bo'lib yurishlaringni juda yaxshi bilaman. Tuzukroq kiyinib kelishga farosatlari yetar. O'zlariga yaxshi bo'ladi. Mana shunaqa.

Garri tahdid solayotgan joiz xavfni oldindan seza boshladi. Ronning ota-onasi Vernon amakining ta'biri ila aytilganda, «odamga o'xshab kiyinib» yurishganini hali ko'rmagan. Bolalari ta'til davomida magllar kiyimini kiyishsa-da, missis va mister Ueslilar, odatda, sehrgarlarning har biriniki turli darajada eskirib ketgan uzun korjomalarini kiyib yurishadi. Qo'niqo'shnilarning bu boradagi fikr-mulohazalari Garrini tashvishga solmaydi, albatta. Ammo Ueslilar, Dursllarning sehrgarlar haqidagi eng yomon tasavvurlarini tasdiqlagancha, odatiy kiyimda kelishsa, qo'pol qarshi olinishlarini o'ylab xavotirlanmoqda.

Vernon amakining o'zi bisotidagi eng yaxshi kostumini kiyib oldi. Boshqa birov uning bunday harakatini mehmondo'stlik fazilati sifatida e'tirof etishi mumkin. Biroq Garri aniq

biladiki, amaki sehrgarlar ko‘ziga dag‘-dag‘ali, ulardan-da salobatli ko‘rinmoqchi. Dudli esa, aksincha, g‘alati junjayib qoldi. Uning bunday holatiga parhez ta’siri emas, qo‘rquv sababdir. Katta yoshli sehrgar bilan ilk uchrashuvi juda ayanchli yakun topgan. O‘shanda cho‘chqa dumining gajagi yog‘ bosgan yo‘g‘on dumbasidan o‘sib, ishtonining yirtig‘idan chiqib qolgan. Dumni kesib tashlash uchun esa Londondagi xususiy klinikalardan biriga katta mablag‘ to‘langan. Bugun ham raqibga o‘sha joyini takror ro‘baru qilib qo‘ymaslik uchun qo‘lini ahyon-ahyon orqasiga olib o‘tib, asabiy holatda silab qo‘ygancha, xonadan xonaga yakkakift yurgani bejiz emas.

Tushlik sukunatini hech kim buzmadi. Hatto Dudli ham oshko‘kli tvorog borasida e’tiroz bildirmadi. Uzun qo‘li bilan o‘zini o‘zi quchib, labini qimtib olgan Petuniya xola esa hech narsa yemadi. U Garrini ko‘p narsalarda ayblab, so‘kib berishdan tiyilib turganday, tilini tishlab o‘tirganga o‘xshaydi.

– Anavilaring mashinada kelsa kerak, albatta? – akilladi stolning narigi boshida o‘tirgan Vernon amaki.

– M-m-m, – ma’nosiz ming‘irladi Garri.

Bola bu haqda o‘ylab ko‘rmagan ekan. Chindan ham Ueslilar uni qay tarzda olib ketishmoqchi? Mashinalari endi yo‘q. Eskirib ketgan «Ford Angliya» allaqachon yovvoyilashib, «Xogvars» atrofidagi «Taqiqlangan o‘rmon» ichida daydib yuribdi. O‘tgan yili mister Uesli Sehrgarlik vazirligining mashinasini olib turgan edi. Ehtimol, bu yil ham shunday ish tutar?

– Balki, – nihoyat nisbatan aniqroq javob berdi u.

Vernon amaki istehzoli kulib qo‘ydi. Agar mister Uesli oddiy odam bo‘lganda amaki mashinasining rusumini so‘ragan bo‘lar edi. Negaki u, odamlarga, avtomobillari qanday o‘lchamga egaligi-yu, narxiga qarab baho berib, mulohaza yuritadi. Biroq ayni vaziyatda, mister Uesli hatto «Ferrari»da kelgan taq-dirda ham hurmat bilan qarshi olinishi dargumon.

Hayvonot bog‘idan karkidon qochib ketgani haqidagi xabar radio orqali e’lon qilinganday, har besh soniyada to‘r parda tutilgan derazadan tashqariga qarab qo‘yayotgan Petuniya xolaning ahvoliga qarab o‘tirish qiyin kechdi. Shu bois Garri kunning

ikkinchi yarmini o‘z xonasida o‘tkazib, o‘n besh daqiqa kam beshda sabri chidamay mehmonxonaga tushdi.

Petuniya xola g‘ayriixtiyoriy seskangancha, divan yostiqlarini tuzatish bilan mashg‘ul. Vernon amaki o‘zini gazeta o‘qiyotgan ko‘yga solib o‘tiribdi-yu, mitti ko‘zi satrdan satrga o‘tmay, tek turibdi. Garri ont ichishga tayyorki, amakining vujudi quloqqa aylangan bo‘lib, ko‘chada mashina ovozi eshitilayotgan-eshitilmayotganini eshitish uchun zo‘r berib o‘tiribdi. Kresloga qapishib o‘tirgan Dudli sergo‘sht qo‘lini tagiga tiqib olgancha, tajovuz qilinishi mumkin bo‘lgan obyektni mahkam siqib olgan. Asabiy vaziyat keskinlashib, toqat qilib bo‘lmaydigan darajaga yetdi. Garri xonadan chiqib, soatga tikilgancha, dahlizdagi zinaga o‘tirib oldi. Yuragi go‘yo quturib ketganday urmoqda.

Soat millari besh bo‘lganini ko‘rsatib, harakatini ayovsiz davom etdi. Kostumda terlab ketgan Vernon amaki, kirish eshigini qiya ochib, tashqariga o‘g‘rincha qarab qo‘ydi-da, boshini tez ichkariga tortdi.

– Kechikishyapti! – dedi u, ayblayotgan jinoyatchiga qaraganday Garriga o‘qrayib.

– Bilaman, – dedi Garri. – Ehtimol... tirbandlik... yoki shunga o‘xshash vaziyat yuzaga kelgandir.

Soat beshdan o‘n daqiqa... o‘n besh daqiqa o‘tdi. Endi Garrining o‘zi xavotirlana boshladi. Soat besh yarimda mehmonxonadan bo‘g‘iq asabiy ovozlar eshitildi:

– Odob-axloq degan tushuncha yo‘q ularda, – dedi Petuniya xola.

– Agar boshqalar bilan uchrashuvimiz kutilganida nima bo‘lar edi! – jahl qildi Vernon amaki.

– Kechki ovqatga taklif qilinish ilinjida atayin kech kelishayotgan bo‘lsa-chi? – taxmin qildi Petuniya xola.

– Behuda ovora bo‘lishadi, – ma’lum qildi amaki.

Dahlizda o‘tirgan Garri Vernon amakining o‘rnidan turib, xonaning u burchagidan bu burchagiga yurgancha vaysaganini eshitdi.

– Ular, agar umuman kelishsa, bolani oliboq tuyoqlarini

shiqillatishlari kerak. Boshqa gap bo'lishi mumkin emas. Ehtimol, hafta kunini adashtirib yuborishgandir? O'sha savdo-yilar to'g'risidagi fikrim yana tasdig'ini topmoqda. Bunday kaslar puxtalikka u qadar ahamiyat berishmaydi. Yoxud biron-bir konserva bankasiga o'xshash eski mashinada kelishayotgan bo'lsa, tabiiyki, yo'lda buzilib... AAAAAAAAAA!

Garri o'rnidan irg'ib turdi.

Mehmonxonadan eshitilayotgan baqir-chaqirga qaraganda, vahima qamrab olgan uchala Dursl xona bo'ylab zir yugurishmoqda.

– Nima gap? Nima qildi? – so'radi Garri, dahlizga uchib chiqqan Dudlidan.

Biroq xolavachcha gapiradigan holatda emas. U qo'lini dumbasidan uzmay, oshxona tomon pildiradi. Garri mehmon-xona tomon oshiqdi.

Yonida rozetkaga ulangan elektr kamin turgan, g'isht urilib, yopib tashlangan haqiqiy kamin ichidan qattiq dukilla-gan, qitirlagan tovush eshitildi.

– Nima bu? – xirillab so'radi, qarama-qarshi devorga beli bilan suyanib kaminga tikilib qolgan Petuniya xola, – Nima bu, Vernon?

Ko'p o'tmay kamin ichidan ovoz eshitildi:

– Voy! Fred, yo'q... qayt, ortga qaytib, Jorjga... Voy!... Jorj, bu yerda joy yo'q... qayt, ortga qaytib, Ronga...

– Dada, ehtimol, Garri bizni eshitar... balkim, ichkariga kiritar?

Devorning narigi tomoniga kimdir musht bilan darang'lata boshladi.

– Garri! Garri! Eshityapsanmi, Garri!

Er-xotin Dursllar bir juft quturgan rosomaxaga[1] o'xshab Garriga baqrayib qolishdi.

– Nima bu? – irilladi Vernon amaki. – Nima bo'lyapti anavi yerda?

– Ular... ular bu yerga sayohat uni vositasida kelib, ichka-

[1] **Rosomaxa** – suvsarlar oilasiga mansub yirtqich hayvon.

riga kirishmoqchi bo'lishgan, – tushuntirish berdi Garri, asabiy xandon otib yuborishdan o'zini bazo'r tiyib. – Biz olov vositasida, kaminlar ichra sayohat qilishimiz mumkin. Faqat kaminingizning og'zi g'isht bilan bekitib yuborilgan. Sabr qiling...

U kamin yoniga kelib, devorga baqirdi:

– Mister Uesli! Meni eshityapsizmi?

Devorning darang'lashi to'xtab, kimningdir ovozi eshitildi:

– Jim, jim.

– Mister Uesli, bu men, Garri... kaminning og'zi g'isht bilan bekitib yuborilgan. Ichkariga kira olmaysiz.

– Ming la'nat! – eshitildi mister Ueslining ovozi. – Kaminning og'zini urib tashlash ularga nimaga kerak bo'lib qolibdi?

– Bu uyda kaminning boshqacha turidan, elektr tokida ishlaydigan rusumidan foydalaniladi, – tushuntirishga urindi Garri.

– Rostdanmi? – xitob qildi mister Ueslining ovozi. – Elektr tokida ishlaydigan? Sanchqisi ham bormi? O, Xudo! Men uni ko'rishim kerak! Hozir, o'ylab ko'ray-chi... Voy! Ron!

Ronning ovozi boshqa ovozlarga qo'shilib eshitildi:

– Nima qilyapsiz bu yerda? Biron-bir muammo bormi?

– Qanaqa muammo, Ron! – eshitildi Fredning o'ta istehzoli ovozi. – Muammo bo'lishi mumkin emas. Biz bir umr ayni shunday holatga tushib qolishni orzu qilib yurgan edik.

– Ha, nimasini aytasan, kayf-safo qilyapmiz, – ma'qulladi devorga yopishtirib qo'yilgan Jorjning ovozi.

– Bolalar, bolalar... – eshitildi mister Ueslining ta'nali ovozi. – Men nima qilish kerakligini o'ylayapman... ha... boshqa chora yo'q... Garri, nari tur.

Garri divan tomon chekindi. Vernon amaki esa, aksincha, devorga yaqinlashib:

– To'xtang! – baqirdi u, kaminga qarab. – Nima qilmoqchi...

GURS!

Elektr kamin xonaning narigi burchagiga uchib ketdi. Uning orqasidagi devor ag'anab, chang va shag'al buluti hosil bo'ldi. Devor o'rnida mister Uesli, Fred, Jorj va Ron ko'rindi. Chiyillab, orqaga tisarilgan Petuniya xola qahva stolchasiga qoqilib ketdi. Vernon amaki chalqanchasiga yiqilayotgan xotinini bazo'r tutib

qoldi. Og'zi lang ochilgan er-xotin churq etmay, bari birday malla rang Ueslilarga baqrayib qolishdi. Ulardan ikki nafari esa, umuman, so'nggi sepkiligacha bir xil.

– Shunday bo'lgani ma'qul, – chuqur nafas chiqardi yashil rang uzun korjomasini qoqib, ko'zoynagini to'g'rilagan mister Uesli. – Ha-a-a! Sizlar Garrining amakisi bilan xolasi bo'lsangiz kerak, a?

Novcha bo'yli, ozg'in, sochi to'kilib, siyqa bo'lib qolgan mister Uesli qo'lini uzatgancha, Vernon amaki tomon odimladi. Biroq amaki Petuniya xolani sudragancha, ortga chekindi. To'g'risini aytganda u tildan qolgan bo'lib, eng yaxshi kostumi, mo'ylovi-yu, sochiga ohak o'tirib, qariyb o'ttiz yoshga qarib qolganday ko'rindi.

– A-a-a... ha-ya... – mister Uesli qo'lini tushirib, portlatilgan devorga yelka uzra qarab qo'ydi. – Qilmishim uchun ma'zur tutgaysiz. Bu to'la-to'kis mening aybim. Kamindan chiqa olmasligimiz mumkinligi xayolimga kelmabdi. Gap shun-daki, sizning kaminingizni sayohat tarmog'iga ulatib qo'ygan edim. Xijolat tortmang, faqat bugunga, xolos, tushunyapsizmi? Garrini olib ketish uchungina shunday qildim. To'g'risini ayt-ganda, magllarning kaminlarini sayohat tarmog'iga ulash qat'iyan man etilgan. Ammo, sayohat nozirligida foydasi tega-digan tanishim bor. Ana o'sha kishi iltimosimga binoan ka-miningizni tarmoqqa vaqtincha ulab berdi. Siz tashvish qil-mang, ko'z ochib yumguncha hamma narsani o'z joyiga kelti-rib, boyagiday qilib qo'yaman. Faqat bolalarni yuborish uchun biroz o't qalayman, xolos. Kaminingizni tuzatgach, havoda daf bo'laman.

Garri garov bog'lashib, har qancha mablag' bo'lsin, tikish-ga tayyorki, ushbu qisqa nutqning ma'no-mazmunini Dursllar oz bo'lsa ham tushunmaganiga shubha qilmaydi. Dursllar ya-shin urgan merovlarday mister Ueslidan ko'z uzishmadi. Gandi-raklagan Petuniya xola oyoqqa turib, erining ortiga o'tib oldi.

– Salom, Garri! – dedi mister Uesli, quvnoq ohangda. – Sandig'ingni yig'ib qo'ydingmi?

– Yuqori qavatda, tayyor turibdi, – ishshaydi Garri.

– Biz olib kelamiz, – dedi Fred, Garriga ko'z qisib.

Jorj ikkalasi mehmonxonadan yugurib chiqishdi. Kunlardan bir kun Garrini qutqargani tun zulmatida kelgan egizaklar, uning xonasi qayerdaligini juda yaxshi bilishadi. Dudli haqida ko'p eshitgan Fred bilan Jorj uni o'z ko'zlari bilan ko'rgani kelishganiga Garri shubha qilmadi.

– Xo'sh, – dedi mister Uesli, noxush sukunatni buzib, suhbat uchun mavzu qidirar ekan. – Xonadoningiz... juda... m-m-m...shinam ekan...

Odatda, bequsur tutiladigan mehmonxonani ayni paytda chang va g'isht parchalari bosib ketgani uchun ham mister Uesli bildirgan fikr er-xotin Dursllar tomonidan u qadar iliq qarshi olinmadi. Aksincha, Vernon amakining basharasiga qon yugurib, asta qizara boshladi. Petuniya xola esa yana labini qimtib oldi. Ular o'lgudek qo'rqib ketishgani uchun miq etmay turishibdi.

Magllarga tegishli har qanday buyumga katta qiziqish bildiradigan mister Uesli atrofga razm soldi.. Televizor bilan videomagnitafonni tadqiq etib chiqishga qo'li qichib turgani yaqqol sezilmoqda.

– Elektr toki vositasida ishlaydi-da, a? – so'radi biladigan kishiday. – Ha, to'ppa-to'g'ri. Mana, sanchqilari ham bor ekan. Bilasizmi, men elektr sanchqilarini yig'ib yuraman, – dedi u, Vernon amakiga qarab. – Akkumulator batareyalarini ham yig'aman. Menda ularning ulkan kolleksiyasi bor. To'g'risini aytish kerakki, bu boradagi qiziqishlarim xotinimga unchalik yoqmay, meni telba hisoblaydi. O'zingiz tushunasiz, ishqivozlik.

Vernon amaki ham mister Ueslini telba sifatida ko'rayotganiga shubha yo'q. U har qanday fursatda tashlanib qolishi mumkin degan xayolga bordi, chamasi, astagina o'ng tomon surilib, Petuniya xolani to'sib oldi.

Shu payt mehmonxonaga Dudli kirib keldi. Garrining sandig'i zinadan tushirilayotgani bois yangrayotgan qaldir-quldir tovush xolavachchani oshxonadan chiqib, mehmonxonaga kirishga majbur qilgan ko'rinadi. Qo'rquv to'la ko'zini mister Ueslidan uzmagan Dudli devor bo'ylab yurib, ota-onasining orqasiga yashirinishga urinib ko'rdi. Petuniya xolani bemalol

bekitgan Vernon amakining semiz tanasi baxtga qarshi o'g'lini to'sishga ozg'inlik qildi.

– A-a, bu yigitcha xolavachchang bo'ladi, shundaymi, Garri? – so'radi mister Uesli.

– Ha, – bosh irg'idi Garri. – Dudli deganlari shu bo'ladi.

Ron ikkalasi bir-biriga qarab qo'yishdi-yu, tez o'girilib, chetga qarab olishdi. Bazo'r tiyilib turilgan qahhaha ikkalasining ichini yorib yuborguday bo'lib turibdi. Dudli, ajrab qolishdan qo'rqayotganday, dumbasini hanuzgacha mahkam ushlab olgan. Uning bunday xulqi mister Ueslini jiddiy tashvishga soldi. Yana boshlagan gapining ohangidan chindan ham Dudlini dumbul[1] sifatida e'tirof etib, unga achinayotgani bilindi.

– Ta'tilni yaxshi o'tkazyapsanmi, Dudli? – so'radi u, muloyim ovozda.

Dudli angillab yubordi. U barmoqlari bilan yirik dumbasining pallalarini yanada mahkam siqib oldi. Xonaga sandiq ko'targan egizaklar kirib, atrofga nazar solishdi. Dudlini ko'rishlari bilan yuzlariga yaxshi niyatdan dalolat bermaydigan kulgi yugurdi.

– Ana, juda soz, – dedi mister Uesli. – Xo'p, mayli. Ketar vaqt bo'ldi.

U yengini shimardi-da, qo'liga sehrli tayoqchasini oldi. Buni ko'rgan uchala Dursl devorga qapishib olishdi.

– Insendio! – dedi mister Uesli, tayoqchasini devordagi raxnaga yo'llab.

Kamin ichida gur etib, ancha vaqtdan buyon yonayotgan kabi charsillagan yorqin olov ko'rindi. Mister Uesli kissasidan og'zi bog'langan xaltacha chiqarib, tugunini ochdi va ichidan bir chimdim un olib olovga tashladi. Gulxan zumrad-yashil tus olib, baland ko'tarildi.

– Yo'lga chiq, Fred, – dedi mister Uesli.

---

[1] **Dumbul** (*forscha*: to'liq pishmagan don, dukkak) – donli ekinlar, mevalarning ta'm kirib qolgan, lekin hali yetilib pishmagan holati; 2) hali qotmagan, sutmiqatiq bo'lib qolgan (don haqida); 3) aqlsizroq, tentaknamo, devonasifat (ko'chma ma'noda); 4) hayot tajribasi bo'lmagan; xom, g'o'r (ko'chma ma'noda). **Bu yerda shu ma'noda kelgan**; 5) mazmunan pishiq-puxta emas; xom; qiyomiga yetmagan (ko'chma ma'noda).

– Ketyapman, – javob berdi Fred, – Voy, yo‘q... hozir, sabr qiling...

Fredning cho‘ntagidan qog‘oz xalta tushib, ichidagi rang-barang jildga o‘ralgan katta-katta konfetlar har tomon yumaladi. U bir pas timirskilanib, poldan konfet tergan bo‘ldi-da, Dudliga quvnoq qo‘l siltab, «Boshpana» deya qichqirgancha, olovga kirdi. Hushtak tovushi eshitilib, bola ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. O‘zini olovga urgan odamni ko‘rgan Petuniya xolaning vujudi dahshatdan titrab, oh urib yubordi.

– Endi sen, Jorj, – buyurdi mister Uesli. – Sandiqni ol.

Jorjga sandiq ko‘tarish oson bo‘lishi uchun Garri sandiqning bir dastasini yuqoriga qaratib, tikka o‘rnatdi. Yana «Boshpana» degan qichqiriq va shildiragan hushtak tovushi eshitilib, Jorj ham ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

– Ron, seni galing, – dedi mister Uesli.

– Xayr, omon bo‘ling, – ko‘tarinki ruh ila xayrlashdi Ron Dursllar bilan.

U Garriga kulib qarab, «Boshpana» degancha olovga kirdi-da, g‘oyib bo‘ldi. Garri bilan mister Uesli qoldi.

– Xo‘p... xayr bo‘lmasa, – dedi Garri qarindoshlariga.

Dursllar javob qaytarishmadi. Garri olov tomon qadam qo‘yib, kamin chetiga yetay deganda mister Uesli qo‘lini uzatib, uning yelkasiga qo‘ydi. U ochiqdan ochiq hayron bo‘lib Dursllarga yuzlandi.

– Garri sizlar bilan xayrlashdi. Eshitmadingizmi? – ta’na ila so‘radi u.

– Ahamiyati yo‘q, – g‘udulladi Garri. – Ularning bo‘lishi shu. Javoblari esa men uchun shart emas.

Biroq qo‘lini bolaning yelkasidan olmagan mister Uesli Vernon amaki tomon darg‘azab yuzlandi.

– Axir, siz jiyaningizni kelasi yozgacha ko‘rmaysiz-u! – dedi u. -Xayrlashib qo‘yishingiz kerak!

Vernon amaki basharasini burishtirdi. Qarang-a, hozirgina uning devorini pachaq qilib yuborgan odam endi unga aql-odob o‘rgatmoqda!

– Xayr! – majburan xayrlashdi u, mister Ueslining qo‘lida-

gi sehrli tayoqchaga ehtiyotkorona qarab.

– Uchrashguncha! – javob berdi Garri.

U endigina yashil olovga oyoq qo‘yib, gulxan taftini sezgan ediki, orqa tomonda bo‘g‘iq ovoz va Petuniya xolaning yurakni ezib yuborguday uvvosi eshitildi.

Garri keskin ortga burilib, hozirgina ota-onasining ortida turgan Dudli yerda yotgani va uzunligi bir fut keladigan qandaydir g‘alati, qizg‘ish rangli silliq narsani tupurib tashlashga urinayotganini ko‘rdi. Tahayyur qarab qolgan Garri o‘sha uzun narsa Dudlining tili ekani, yonida esa konfetlardan biri-ning rangli jildi bo‘sh yotganini anglab yetdi.

Petuniya xola shartta tizzasiga o‘tirdi-da, bor kuchini yig‘ib, o‘sayotgan tilni mahkam ushlagancha, Dudlining og‘zi-dan sug‘urib olishga urindi. Tabiiyki, joni og‘rigan Dudli faryod ko‘tarib, onasini changalidan qutulishga uringancha, battar bo‘g‘ildi. Qo‘lini silkitib dod-voy solgan Vernon amaki esa g‘ishtlarga qoqilgancha, xonaning u burchagidan, bu burchagiga zir yugura ketdi.

Uesli amaki qiy-chuvni bosishga urindi.

– Tinchlaning, men hammasini o‘z holiga qaytaraman, – baqirdi u, uzatilgan tayoqchasi bilan Dudli tomon yaqinlashib.

Buni ko‘rgan Petuniya xola tanasi bilan Dudlini to‘sib, battar chirilladi.

– Nima qilyapsiz, qoching! – baqirdi mister Uesli. – Bu-ning hech bir qiyin joyi yo‘q. Anavi konfet va o‘ylashimcha, Ishirish afsunining ta’siri. Har xil hazil-mutoyiba qiliqlarga ish-qiboz o‘g‘lim Fredning sho‘xligi bu. Iltimos, tinchlaning, hozir men hammasini o‘z holiga qaytaraman...

Ammo mister Ueslining gapi Dursllarni tinchlantirmadi, aksincha, ular yanada baxtsiz qiyofa kasb etishdi. Petuniya xola Dudlining tilini uzib olishga uzil-kesil ahd qilgan, chamasi, yig‘idan entikkancha, sholg‘om tortganday til tortdi. Dudli bir tomondan tili og‘irlashib ketayotganidan, ikkinchi tomondan, xuddi o‘lganning ustiga tepganday, onasi tilini zo‘r berib tortayotganidan lohas bo‘ldi. O‘zini idora qila olmay qolgan Vernon amaki esa bufetdagi chinni haykalchalardan birini

changallab oldi-da, mister Uesliga qarata uloqtirdi. Egilib, chap berishga bazo'r ulgurgan mister Ueslining ustidan uchib o'tgan haykalcha, devor yorig'i ichida chilparchin bo'ldi.

– Bu nima qilganingiz! – g'azab-la qichqirdi mister Uesli tayoqchasini siltab. – Men yordam bermoqchiman axir!

Vernon amaki yaralangan gippopotam[1] kabi uvvos solib ikkinchi haykalchani changalladi.

– Garri, sen boraver! Ket! – qichqirdi mister Uesli, tayoqchasini Vernon amakiga o'qtab. – Men o'zim uddalayman!

Garri bunday hangomani hech o'tkazib yubormagan bo'lar edi-yu, navbatdagi haykalcha uning chap qulog'iga tegishiga sal qolgach, ishni mister Uesliga qo'yib berishga ahd qildi.

– Boshpana! – dedi u, yelka uzra ortga qarab.

Mehmonxonada mister Uesli sehrli tayoqcha vositasida Vernon amakining qo'lidagi uchinchi haykalchani tortib olgani, Petuniya xola Dudlining ustiga yotib olgani, xolavachchasining tili esa ulkan ilon kabi polda to'lg'anayotgani Garri ko'rgan so'nggi manzara bo'ldi. Keyingi fursatda uning tanasi tez aylanib, magllarning mehmonxonasi gurullagan zumrad-zangori olov ortida g'oyib bo'ldi.

[1] **Gippopotam** (*yunoncha:* hippopotamos – daryo oti) – suv ayg'irlari, ya'ni begemotlarning bir turi. Gavdasining uzunligi 4,04,5 metr, dumi 3550 santimetr, vazni 1,33,2 (ba'zan 4,5) tonna. Boshi katta, ko'zlari bo'rtib chiqib turadi. Tana tuzilishi va hayoti suvda yashashga moslashgan. Ko'zi, qulog'i va burnini suvdan chiqarib, uzoq vaqt suvda turishi mumkin. Kechasi suvdan chiqib oziqlanadi.

V BOB. UESLILARNING AJOYIB ULTRAFOKUSLARI

Tirsaklarini yoniga bosib olgan Garrining tanasi tobora tez aylana boshladi. Ko'z o'ngida turli tuman o'choqlarning dudmol silsilasi katta tezlikda o'tganidan boshi aylanib, ko'ngli behuzur bo'la boshlagach, ko'zini chirt yumib oldi. Tezlik pasaygani va hozir keskin to'xtashini sezgan bola qo'lini oldinga uzatdi. To'g'ri qilgan ekan, aks holda Ueslilar oshxonasining poliga burni bilan yopishib qolgan bo'lar edi.

– Yedimi? – so'radi sabrsiz Fred, Garriga oyoqqa turishga yordam berib.

– Yedi, nafsingga o't tushkur, ochofat, – bosh irg'idi Garri. – Nima edi o'zi u?

– «Bir pud[1] til» pomadkasi[2], – quvonch-la javob berdi Fred. – Jorj ikkalamizning kashfiyotimiz. Kimda sinab ko'rishni bilmay yoz bo'yi bosh qotirgan edik...

Yangragan kulgidan kichkinagina oshxona portlab ketganday bo'ldi. Garri atrofga qarab, yo'nilgan stol atrofida Ron, Jorj va yana ikki nafar malla sochli notanish yigit o'tirganini ko'rdi. Bular Ronning eng katta akalari Bill bilan Charli ekanini Garri darhol fahmladi.

– Salom Garri, – ko'rishdi yaqinroq o'tirganlaridan biri qo'l uzatib.

Kulib boqqan ushbu yigitning kaftidagi qadoqlarni barmoqlari bilan his etgan Garri, Ruminiyada ajdar boqadigan Charli ekanini angladi. Bichimiga ko'ra u, novchalik va ozg'inlik-la ajrab turadigan Persi bilan Ronga nisbatan pastroq bo'lib, ko'proq egizak ukalariga o'xshab ketadi. Uning keng, sepkil bosgan, oftobda qoraygan yuzi asosan tabiat qo'ynida vaqt o'tkazadigan xushmuomala kishi yuziga o'xshaydi. Qo'l mushaklari chiqqan, baquvvat bo'lib, tirsagidagi kuygan joy

[1] **Pud** – 16,3 kg ga teng og'irlik o'lchovi.

[2] **Pomadka** – meva shirasi va shakardan qilingan yumshoq konfet.

kattagina yaltiroq chandiq sifatida ko‘zga tashlandi.

Salomlashish uchun tabassum-la o‘rnidan turgan Bill ham Garrining qo‘lini siqdi. Aytish joizki, uning zohiriy qiyofasi Garri uchun kutilmagan yangilik bo‘ldi. Bill sehrgarlarning «Gringotts» bankida ishlashi, maktabda eng ibratli o‘quvchi bo‘lganini Garri eshitgan, albatta. Shu bois ham Bill Garrining tasavvurida Persining yoshi kattaroq varianti sifatida gavdalangan edi. Aslida esa novcha bo‘yli, sochini bog‘lab, otning dumi singari orqaga tashlab olgan, qulog‘iga taqqan sirg‘asi allaqanday hayvon tishiga o‘xshab ketadigan Billning ko‘rinishi yo-mon emas. Egnidagi kiyimi esa rok-konsertga yarasha bo‘lib, oyog‘idagi botinkasi, fahmlashicha, ajdarning terisidan emas, naq zirhidan tayyorlangan.

Oltovlon endigina suhbat boshlamoqchi bo‘lgan ediki, havoda kuchsiz qarsak yangrab, Jorjning orqasida mister Uesli paydo bo‘ldi. Uning bu qadar achchiqlanganini Garri hali ko‘rmagan.

– Hech ham kulgili chiqmadi, Fred! – qichqirdi mister Uesli. – Bechora magl bolaga qanaqangi bema’ni narsa berib kelding?

– Men unga hech narsa berganim yo‘q, – dedi Fred, tirjayib. – To‘g‘ri, cho‘ntagimdan bexos to‘kilib ketdi... O‘zi aybdor. Kim unga yesin debdi? Men taklif qilganim yo‘q.

– Sen atayin to‘kib yuborgansan! – bo‘kirdi mister Uesli. – Uni parhezga majburan o‘tqizib qo‘yishganidan juda yaxshi xabardorsan va shu bois konfetingni yeyishi muqarrarligini bila turib qiliq qilgansan...

– Tili ancha o‘sdimi? – qiziqsimishini tiya olmadi Jorj.

– Ota-onasi hamma narsani o‘z holiga qaytarishimga ijozat berishguncha to‘rt futga borib yetdi!

Mister Ueslidan tashqari hamma, shu jumladan, Garri ham aqldan ozganday xandon otib kulib yuborishdi.

– Hech ham kulgili emas! – takror qichqirdi mister Uesli. – Bunday xulq-atvor magllar bilan sehrgarlar o‘rtasidagi munosabatlarga jiddiy putur yetkazadi! Men bir umr magllarga nisbatan yomon munosabatlarga qarshi kurashib kelganman. O‘z farzandlarim esa...

– Bu ishni bola magl bo‘lgani uchun qilganimiz yo‘q! – e’tiroz bildirdi Fred.

– Surbet, ahmoq bo‘lgani uchun qildik, – dedi Jorj. – To‘g‘rimi, Garri.

– Haq gap, mister Uesli, – samimiy tasdiqladi Garri.

– Farqi nima! – g‘azab-la gap kesdi mister Uesli. – Shoshmay turlaring, bor gapni onangga aytib beraman...

– Menga nimani aytib bermoqchisan? – eshitildi orqadan.

Oshxonaga jismonan girdig‘um[1], lo‘ppigina, ko‘ngli ochiq, odatda, mehr tovlanib turadigan ko‘zini shubhali qisib olgan missis Uesli kirib keldi.

– O, Garri, salom yoqimtoyginam, – dedi u, Garriga kulib qarab.

So‘ng nigohini yashin tezligiday eriga olib o‘tdi-da, takror so‘radi:

– Nimani aytib bermoqchi eding menga, Artur?

Mister Uesli ikkilangancha jim qoldi. Egizaklarning qilmishi uning jahlini chiqargan bo‘lishiga qaramay, ularni sotkisi yo‘qligi ko‘rinib turibdi. O‘rtaga xijolatli sukunat cho‘kib, mister Uesli hurkkan otday xotiniga qarab qoldi. Bu vaqtda missis Ueslining orqasida ikki qiz ko‘rindi. Ulardan biri Ron bilan Garrining eng yaqin do‘sti qo‘ng‘ir sochi nihoyatda qu-yuq, hurpaygan, bir juft old tishi yirik Germiona Grenjer bo‘lsa, ikkinchisi, kichkinagina, malla sochli qizaloq, Ronning singlisi Jinna edi. Ikkala qiz Garrini ko‘rib kulishdi. Garri ham javoban iljayib qo‘ydi. Jinna uyalganidan qip-qizarib ketdi. Garri ilk bor Boshpanaga tashrif buyurgan mahaldan e’tiboran Jinna Garriga boshqacha qaraydi.

– Nimani aytib bermoqchi eding menga, Artur? – yana so‘radi missis Uesli, yashirin tahdid solingan ohangda.

– Arzimagan gap, Molli, – cho‘zib gapirdi mister Uesli. – Fred bilan Jorj... shunchaki... Men ular bilan gaplashib qo‘ydim...

– Yana nima hunar ko‘rsatishdi? – baqirib yubordi missis Uesli. – Agar yana «Ueslilarning ajoyib ultrafokuslari»dan

[1] **Girdig‘um** – kaltabaqay, miqti, baqaloq (odam haqida).

biron-biri bo'lsa...

– Ron, Garrining yotoqxonasini ko'rsatib qo'ymaysanmi? – taklif kiritdi ostonada turgan Germiona.

– Qayerda yotishini juda yaxshi biladi, – e'tiroz bildirdi Ron. – Odatdagiday, mening...

– Yur, birgalikda ko'ramiz, – ma'noli ohangda gapni bo'ldi Germiona.

– A-a, ha, yuringlar – tushundi Ron.

– Juda yaxshi taklif, biz ham birga boramiz... – dedi Jorj.

– Yo'q, aynan sizlar shu yerda qolasizlar! – o'shqirdi missis Uesli.

Garri bilan Ron yakkakift yurgancha oshxonadan chiqib, Germiona va Jinna bilan birgalikda tor dahliz orqali g'ijirlaydigan, ilon izi ko'tarilgan zina tomon yurishdi.

– «Ueslilarning ajoyib ultrafokuslari» degani nima? – so'radi Garri qiziqsinib.

Ron bilan Jinna kulib yuborishdi, Germiona esa jiddiy qiyofasini saqlab qoldi.

– Oyim ularning xonasini yig'ishtirayotib, blankalarning bir dastasi, shu jumladan, xabaring bor, o'zlari qo'llaydigan har xil ma'ni-bema'ni narsalarning uzundan uzoq preyskurantini[1] topib oldi, – tushuntira boshladi Ron. – To'g'risini aytsam, ular bunday buyumlar yaratish bilan shug'ullanishlarini tasavvur ham qilmagan edim. Juda zo'r mollar, menga juda yoqdi. Soxta sehrli tayoqchalar deysanmi, tarkibiga masalliq sifatida turli-tuman hazil-sovg'alar kiritilgan shirinliklarmi-yey...

– Ularning xonasidan ancha vaqtdan buyon har xil portlash tovushlari eshitilar edi, – gapga aralashdi Jinna. – Allaqanday narsalar ixtirosi bilan band ekanliklari xayolimizga ham kelgani yo'q. Ikkovlon shunchaki to'polonchi, shovqin-suron solishni juda yoqtiradi, deb o'ylar edik.

– Faqat, ushbu narsalarning aksariyat qismi, umuman aytganda, hammasi desa mubolag'a bo'lmaydi, juda xavfli bu-

[1] **Preyskurant** – sotiladigan mollar va ko'rsatiladigan xizmatlarning guruh va turlari bo'yicha muayyan tizimga solingan narxlar (tariflar) to'plami.

yumlar sirasiga kiradi, – tushuntirishini davom etdi Ron. – Tasavvur qilyapsanmi, Fred bilan Jorj bularning barini «Xogvars»da pullashni ko'zlashgan ekan. Oyim ikkalasini o'ldirib qo'yishiga sal qoldi. Bunday ish bilan shug'ullanishni man etib, blankalarini yoqib tashladi... U shundoq ham ikkalasidan achchiqlanib yuribdi. Ular axir o'n besh yoshga to'lgan «Xogvars» o'quvchilari topshiradigan MOSDning oyim kutgandan ham past saviyasiga ega bo'lishdi.

– Shundan so'ng katta janjal bo'ldi, – dedi Jinna. – Oyim ularni dadam kabi vazirlikda ishlashlarini xohlaydi, egizaklar esa, aniqlanishicha, afsungarlikka oid kulgili mollar do'konini ochishmoqchi ekan. Shu payt ikkinchi qavat maydonchasidagi eshik ochilib, muguz ko'zoynak taqqan, qiyofasidan zardasi qaynagan bashara ko'rindi.

– Salom Persi, – ko'rishdi Garri.

– A-a, Garri! Salom, – alik qaytardi Persi. – Kim shovqin solyapti ekan deb qaragan edim. Ishlayapman, hisobotni tezroq yakuniga yetkazishim kerak. Zinani gumburlatib yugurishsa xayolni ishga jamlash qiyin kechadi.

– Biz yugurganimiz yo'q, yurib boryapmiz, – achchiqlandi Ron. – Vazirlik tomonidan topshirilgan o'ta maxfiy ishlaringga xalal bergan bo'lsak, uzr.

– Qanday hisobot ekan? – so'radi Garri.

– Xalqaro sehrgarlik hamkorligi departamenti uchun, – viqor-la sir ochganday bo'ldi Persi. – Qozonlar qalinligini standartlashtirish kerak. Chet eldan keltirilgan qozonlar biroz ingichkalik qilmoqda. Sirqish holatlari joriy yil davomida sal kam uch foizga oshib ketdi!...

– Shunday ekan, eslab qoling, mazkur hisobot tez orada dunyoni ag'dar-to'ntar qilib tashlaydi! – gapni bo'ldi Ron. – «Bashorat-u karomat gazetasi»da chop etilgan «Qozonlar teshilmoqda» yoki shunga o'xshash sarlavhali bosh maqolani tasavvur qilyapsizmi?

– Mazax qilaver, Ron, – chiyilladi yuzi biroz pushti tus olgan Persi. – Biroq xalqaro qonun qabul qilinmas ekan, tez orada ichki bozorimizni juda noqulay, yupqa tubli mahsulot

bosib, jiddiy xavf yuzaga keladi...

– Ha, ha, albatta-albatta, – vaysadi Ron, yuqoriga ko'tarilishni davom etib.

Achchiqlangan Persi eshikni ichkaridan qarsillatib yopdi. Garri, Germiona va Jinna Ronning izidan ergashib, zinaning navbatdagi uchta pog'onasiga ko'tarilgan ediki, oshxonada qiychuv boshlandi. Chamasi, mister Uesli xotinining tazyiqlariga bardosh bera olmay, «bir pud til» pomadkasi haqida aytib berishga majbur bo'lgan ko'rinadi.

«RONNING XONASI» so'zlari bitilgan tom ostidagi kichkinagina, bo'yog'i ko'chgan taxtacha ushbu xona sohibi kim ekanini ko'rsatmoqda. Xona o'tgan safar qanday bo'lsa, shundayligicha qolgan. Undagi narsalarning deyarli hammasi to'q sariq, karavot ustidagi o'rin yopinchig'i, devor va hatto shift ham to'q sariq. Yetti nafar afsungardan iborat «Otar zambaraklar» kvidish jamoasining turli ko'rinishda tasvirlangan plakatlari devordagi rangi o'chgan gulqog'ozni bekitgan. Supurgi ushlagan o'yinchilarning hammasi yarqiragan sariq kiyimda bo'lib, xonaga kirib kelganlarga zavq-la qo'l siltashmoqda. Bir juft qora rangli yirik «OZ» harfi va otilgan zam-barak o'qining tasviri aks ettirilgan to'q sariq o'rin yopinchig'i ham, o'tgan yili baqa uvuldirig'iga to'lgan akvarium ham o'z joyida. Faqat bu yil akvarium ichida uvuldiriq emas, balki misli ko'rilmagan semiz baqa yotibdi. Ronning Qasmoq laqabli kalamushi endi yo'q. Uning o'rnini Ron yo'llagan xatni «Odamovilar» xiyoboniga yetkaza bilgan, qafas ichida yuqoridan pastga tinim bilmay sakragancha, qurqurayotgan mittigina kulrang boyqushcha egallagan.

– O'chir ovozingni, Cho'chqa, – dedi Ron, xonaga tiqishtirib kiritilgan to'rtta karavotdan ikktasi orasidan bazo'r o'tib. – Fred bilan Jorj ham shu yerda yotadi, – tushuntirdi u Garriga. – Chunki Bill bilan Charli egizaklar xonasida yashab turishadi. Persiga esa alohida xona kerak. Uning ishi ko'p.

– Nega sen boyqushni Cho'chqa deb ataysan? – so'radi Garri.

– Chunki Ronning aqli biroz noqis, – dedi Jinna. – Aslida

qushchaning laqabi Cho'chrinstel.

– Ha, juda aqlli ism, – istehzo qildi Ron. – Bu laqabni Jinna qo'ygan, – tushuntirdi u. – Singilchaginamning fikricha, yoqimli eshitilar emish. Boshqa laqab qo'yishga urinib ko'r-dim-u, harakatim zoye ketdi. Biron-bir boshqa chaqirig'imga javob bermaydi. Shunday ekan, u Cho'chqa. Errol bilan Ger-mesning jig'iga, mening ham asabimga tegayotgani uchun uni shu yerda qamab saqlashga to'g'ri kelyapti.

Laqabini eshitib, o'zini baxtiyor his etgan Cho'chrinstel quloqni kar qilguday darajada uh-uhlab, qafas ichida gir aylandi. Ronni yaxshi bilgani uchun ham Garri uning gapini chinakamiga qabul qilmadi. Bir vaqtlar Ron o'zining Qasmoq laqabli kalamushi to'g'risida ham ko'p bema'ni fikr bildirgan bo'lsa-da, o'sha kalamush g'alati tarzda g'oyib bo'lganida Germiona-ning Maymoqoyoq laqabli mushugidan gumon qilib, chuqur qayg'uga botgan edi.

– Aytganday, Maymoqoyoq qani? – qiziqdi Garri.

– Bog'da bo'lsa kerak, – dedi Germiona. – Muqaddam ko'rmagan gnomlar[1] ketidan quvib yurishni juda yoqtiradi.

Garri karavotga o'tirib, uchib yurgan «Otar zambaraklar» dam plakatdan chiqib ketayotgani, dam yana paydo bo'layotganini tomosha qilgancha, Rondan so'radi:

– Demak, Persi o'z ishini yoqtirar ekan-da?

– Yoqtiradi? – yana istehzo qildi Ron. – Agar dadam uni majburlab olib kelmasa, uyga kelmay ishida o'tiraveradi. Aqlini batamom yeb bo'lgan. Eng asosiysi, uning boshlig'i to'g'risida gap boshlama... mister Sgorbsning gapiga qaraganda... men mister Sgorbsga... mister Sgorbsning fikricha... mister Sgorbs aytib bergan edi... deya quloq-miyani yeydi. Ikkalasi tez orada unashib olishganini e'lon qilishsa, ajablanmayman.

– Yoz qanday o'tdi, Garri? – so'rab qoldi Germiona. – Biz yuborgan oziq-ovqat mahsulotlari-yu, boshqa narsalarni oldingmi?

[1] **Gnom** – G'arbiy Yevropa xalqlari mifologiyasiga ko'ra, yer osti xazinalarni qo'riqlovchi maxluq.

– Ha, albatta. Katta rahmat, – minnatdorlik bildirdi Garri. – Sizlar yuborgan o‘sha piroglar hayotimni saqlab qoldi.

– Xat yozishib turdingmi, cho‘qin?...

Ron Germionaning yuzi kasb etgan qiyofani ko‘rib, savolini oxiriga yetkazmadi. Savol Sirius haqida ekanini Garri darhol tushundi. Xuddi Garrini tashvishga solgan kabi cho‘qin-tirgan otasining eson-omonligi Ron bilan Germionani tashvish-ga soladi, albatta. Uning qochib qutulishini uyushtirish uchun uchovlon hazilakam harakat qildimi axir. Shunday bo‘lsa-da, ushbu mavzuni Jinnaning oldida muhokama qilish shart emas. Sirius qay tarzda qochib, qamoqdan omon qolgani-yu, mutlaqo aybsiz ekanini Garri, Ron, Germiona va Dambldordan boshqa hech kim bilmaydi.

Jinna qiziqsinib, nigohini dam Ron, dam Garriga olib o‘tdi.

– O‘ylaymanki, janjalli vaziyat barham topdi, – dedi Germiona, noqulay sukunatni buzib. – Yuringlar, oyingizga kechki ovqat tayyorlash ishlarida yordamlashib yuboramiz.

– To‘g‘ri aytasan, yuringlar, – ma’qulladi Ron.

To‘rtovlon xonani tark etdi. Ular zinadan pastga tushib, oshxonada yolg‘iz qolgan avzoi buzuq missis Ueslini ko‘rishdi.

– Bog‘da ovqatlanamiz, – ma’lum qildi u, oshxonaga kirib kelgan bolalarni ko‘rib. – Oshxonamizga o‘n bir kishi sig‘maydi. Qizlar, sizlar likoplarni olib chiqishingiz mumkin. Bill bilan Charli bog‘da stol o‘rnatishyapti. Siz ikkalangiz esa pichoq bilan sanchqilarni olib boring, – dedi u, sehrli tayoqchasini chig‘anoq ichidagi kartoshkalar tomon o‘qtab.

Haddan ortiq asabiylashgan missis Uesli tayoqchasini bexos kuchli o‘qtab yubordi, chamasi, kartoshkalar o‘z po‘cho-g‘i ichidan shiddat-la otilib chiqib, shift va devordan sapchi-gancha, atrofga sochila boshladi. Missis Uesli shu zahoti tayoqchasini devorda osig‘liq turgan savatcha tomon yo‘lladi. Sakrab tushib polda sirpangan savatcha har tomon uchayotgan kartoshkalarni tutib olishga kirishdi.

– Xudo haqi, – na’ra torti missis Uesli, idish saqlash javonidan kastrulka va tovalarni jahl-la chiqarib. – Anavi ikkalasini nima qilsam ekan! Kelajagi nima bo‘lar ekan ular-

ning, bilmayman. Tasavvurimga ham sig'dira olmayman hatto. Izzati nafs degan tushuncha nima ekanini bilishmaydi-ya! Agar ular rasvogarchilik rekordini qo'yish maqsadini ko'zlamayotgan bo'lishsa, albatta... Garri gap egizaklar to'g'risida borayotganini tushundi. Missis Uesli katta mis kastrulkani oshxona stoliga taraqlatgancha qo'yib, ichiga sehrli tayoqchasini suqdi-da, darg'azab silkita boshladi. Tayoqcha uchidan kremga o'xshash qayla oqib chiqdi. So'ng kastrulkani gaz plitasiga o'rnatib, ostiga sehrli tayoqchasini suqdi-da, o't yoqdi.

– Miyasi yo'q, ahmoq bo'lishsa ham go'rga edi! – davom etdi u, badjahl ohangda. – Lekin aqlli miyani ko'tarib yurib nima qilishadi ular, hayronman. Bari bir ishlatishmayotgan bo'lsa. Tez orada aqlini yig'ib olishmas ekan, boshlari g'am-tashvishdan chiqmay qolishi aniq. Boshqa aka-ukalari to'g'risi-da «Xogvars»dan kelgan xat-xabarlar nechta-yu, ikkalasining sho'xligi yuzasidan yo'llangan shikoyatlar soni qancha. Ahvol shunday davom etar ekan, ikkalasini sehrgarlik va afsungarlik faoliyati ustidan nazorat bo'limiga chaqirtirishlari muqarrar!

Missis Uesli tayoqchasini sanchqi va pichoqlar saqlanadigan tortmaga o'qtadi. Shu zahoti surilib ochilgan tortmadan bir nechta pichoq otilib chiqqani bois Garri bilan Ron nari qochishga majbur bo'ldi. Pichoqlar hushtak chalgancha butun oshxona bo'ylab uchib, savatchadan endigina oshxona chig'a-nog'iga tushgan kartoshkalarga yopirildi.

Missis Uesli sehrli tayoqchasini qo'yib, boshqa kastrulkaga qo'l uzatdi.

– Tarbiya jarayonining nimasini noto'g'ri olib bordik, bilmayman. Bir umr shu ahvol. Bir qiliqni qo'yishsa, yangisini boshlashadi.

U stol ustidan olgan sehrli tayoqcha birdan katta rezina sichqonga aylanib, qattiq chiyillab yubordi.

– VOY DOD! Yanami? Yana soxta tayoqchami!!! Men nima deb vaysayapman-u, ULAR NIMA QILISHYAPTI?

Missis Uesli o'z tayoqchasini changallab, gaz plitasiga o'girildi-da, qaylasi kuyib, tutayotganini ko'rdi.

– Tezroq ketaylik bu yerdan, – dedi Ron, ochiq tortmadan

pichoq va sanchqilarning bir siqimini olib. – Borib, Bill bilan Charliga yordam beramiz.

Bolalar missis Ueslini yolg'iz qoldirib, orqa eshik orqali hovliga qochib chiqishdi.

Ular endigina ikki-uch qadam qo'yishgan ediki ro'paradan Germionaning egri oyoqli, havoda hilpirayotgan paxmoq dumi shisha tozalash cho'tkasiga o'xshaydigan Maymoqoyoq laqabli mushugi otilib chiqdi. Mushuk allaqanday mitti oyoqli iflos kartoshka ortidan quvib ketdi. Bo'yi o'n dyumdan oshmaydigan ushbu jonzod aslida kartoshka emas, gnomlarning bog' zarar-kunandalari sirasiga kiradigan bir turi. O'tkir pixli oyoqchalari bilan yer depsinib qochayotgan gnom hovli bo'ylab o'qday uchib o'tdi-da, bog'da sochilib yotgan son-sanoqsiz rezina etiklardan birining ichiga sho'ng'ib kirdi. Etik ichidagi gnomni tirnog'i bilan tutib olishga uringan mushuk oyog'ini ishga soldi. Jazavasi tutgan gnom qotib-qotib kulmoqda. Shu fursatda bolalarning qulog'iga bog' tomondan yangragan qasr-qusur tovush eshitildi. Ikkovlon boqqa kirib, shovqin-suron manbasini ko'rdi. Bill bilan Charli sehrli tayoqchalari vositasida ikkita eski stolni baland ko'tarib, bir-biriga qarshi havo jangini olib borish-moqda. Maqsad raqib stolini yerga qulatish. Fred Billga, Jorj esa Charliga tarafdor bo'lib, bog'ni boshlariga ko'targancha qichqirishmoqda. Jinna xandon otib, qornini ushlab olgan. Shox devor oldida turgan Germionaning qiyofasida esa xavotir bilan qiziquvchanlik uyg'unlashgan.

Billning stoli Charli boshqarayotgan stolning oyog'iga ilashib, uni qarsillatgancha uzib oldi. Yuqorida yana nimadir gumburladi. Hamma boshini ko'tarib, ikkinchi qavat deraza-sidan boshini chiqargan Persini ko'rdi.

– Sekinroq shovqin solsa bo'ladimi? – qichqirdi u.

– Uzr Persicha, – gunohkorona kulib boqdi Bill. – Qozon tublari qalay?

– Juda yomon, – g'udulladi Persi, derazani yopib.

Hiringlab qo'ygan Bill bilan Charli «jangovar uchish appa-ratlarini» maysa ustiga, bir-biriga jips o'rnatib qo'ndirishdi. Bill tayoqcha vositasida stol oyog'ini tuzatib, ustiga dasturxon tuzadi.

Soat yettiga kelib stollar, missis Ueslining pazandalik mahorati ila tayyorlangan taomlardan sinish holatiga keldi. Ueslilar oilasining jamiki to'qqiz nafar a'zosi, Garri va Germiona to'q ko'k tusli ochiq osmon ostida ziyofatdan lazzatlanish uchun antoydil joylashib olishdi. Yoz bo'yi suvi qochib, kun o'tgan sari qotib borayotgan piroglar bilan kun kechirgan bola uchun bu haqiqiy jannat bo'ldi. Ziyofat boshida tovuq va dudlangan go'shtdan tayyorlangan pirog, qaynatilgan kartoshka va gazaklarni paqqos tushira boshlagan Garri gapirishdan ko'ra ko'proq quloq soldi.

Dasturxonning narigi boshida o'tirgan Persi o'zining hisoboti haqida dadasiga ma'lumot bermoqda.

– Men mister Sgorbsga hisobotni seshanbagacha yakunlayman, deya va'da berdim, – viqor-la gapirdi Persi. – To'g'ri, bu sana u kutgan muddatdan sal ertaroq, lekin men hamma ishni o'z vaqtida bajarib borishni yoqtiraman. Bo'limimizda jahon kubogiga hozirlik ko'rish bilan bog'liq haybarakallachilik qaror topganini inobatga oladigan bo'lsak, ishni tez tugatganim uchun xursand bo'ladi, deb o'ylayman. Ta'kidlab o'tishim joizki, Sehrgarlik o'yinlari va sport departamentidan tegishli yordam olganimiz yo'q. Anavi Lyudo Shulman...

– Lyudo menga yoqadi, – xushmuomalalik-la ta'kidlab o'tdi mister Uesli. – O'yin tomosha qilish uchun yaxshi chipta-larni aynan Lyudo topib berdi. Bir vaqtlar men ham unga yaxshilik qilganman. Akasi Otto g'ayrioddiy ishlaydigan maysa o'rish moslamasi bilan noqulay ahvolga tushib qolgan. O'sha ishni bosdi-bosdi qilib yuborgan edim.

– To'g'ri, Shulman bir qarashda ijobiy kishiday ko'rinadi, – qo'l siltadi Persi. – Biroq qanday qilib u departament boshli-g'i bo'lib qoldi ekan, hayronman... Mister Sgorbs bilan solish-tirib ham bo'lmaydi! Departament xodimi izsiz g'oyib bo'lsa, mister Sgorbsning qo'l qovushtirib o'tirishini tasavvur ham qila olmayman. Berta Jorkins yo'qolib qolganiga bir oydan oshdi-yu axir! Mehnat ta'tilini o'tkazish uchun Albaniyaga ketgancha qaytib kelmadi!

– Bu haqda Lyudodan so'rab bilganman, – qoshini chimir-

di mister Uesli. – Uning gapiga qaraganda Berta ko'p marta yo'qolib, topilib kelgan emish... Umuman aytganda, agar u mening bo'limimda faoliyat yuritganida men ham tashvishga tushgan bo'lar edim...

– Chindan ham Bertaning ayrim tuzalmas qiliqlari bor, – dedi Persi. – Aytishlaricha, uni hamisha bir bo'limdan boshqasiga o'tkazib kelishgan ekan. Foydadan ko'ra tashvish ko'proq kutilar emish undan... Shunday bo'lsa-da, Shulman Bertani qidirib topishi lozim. Mister Sgorbs Shulmandan ko'ra ko'proq qiziqmoqda Bertaning taqdiri bilan. Bir vaqtlar u bizning departamentimizda ham faoliyat yuritgan bo'lib, mister Sgorbs uning ishidan mamnun bo'lgan ekan. Shulman esa Bertani mazax qilib, ustidan kulgani kulgan. Hoyna-hoy Berta xaritani adashtirib, Albaniya qolib, Avstraliyaga ketvorgan, deydi, – marjon sharbatidan xo'plagan Persi chuqur xo'rsindi. – Biroq Xalqaro sehrgarlik hamkorligi departamentida boshqa departamentlarga mansub xodimlarni qidirishdan-da ko'ra o'z tashvishlarimiz boshdan oshib yotibdi. O'zingiz bilasiz, Kubok o'yinlari nihoyasiga yetishi bilan biz yana bir o'ta muhim tadbirni tashkillashtirishimiz darkor.

Persi viqor-la tomog'ini qirib qo'yib, stolning narigi boshida o'tirgan Garri, Ron va Germiona o'tirgan tomonga qaragancha, balandroq ovozda qo'shib qo'ydi:

– Nima demoqchi bo'lganimni o'zingiz bilasiz, dada. O'ta maxfiy tadbir.

Ko'zini orqaga tortgan Ron Garriga past ovozda tushuntirish berdi: – Ishga joylashgandan buyon bizni «U qanaqa tadbir ekan?» deya so'rashga majbur qilmoqchi, shekilli. Tubi qalin qozonlar ko'rgazmasi bo'lsa kerak-da?!

Bill bilan o'rtada o'tirgan missis Uesli, o'g'lining qulog'idagi, aftidan, yaqinda xarid qilingan sirg'a yuzasidan bahslashyapti.

– ... chindan ham Bill, bunday mudhish tish bilan qanday yuribsan, a! Bankdagilar indamadimi senga? – xavotir olib so'radi missis Uesli.

– Oyi, hisob raqamiga pul tomib tursa bas, qanday kiyinib

yurishim bilan bankdagilarning ishi yo‘q, – vazminlik-la tushuntirdi Bill.

– Soching ham... ja uzun-da, o‘g‘lim, – davom etdi missis Uesli, qo‘lini sehrli tayoqchasiga qo‘yib, – Ularni sal tekislab qo‘yishga ijozat bermayotganing chatoq bo‘lyapti-da...

– Menga esa akamning sochi yoqadi, – ma’lum qildi Billning yonida o‘tirgan Jinna. – Eskilikka berilgan ayolsiz-da, oyi. Nima qilganda ham Billning sochi professor Dambldorning sochiga yetishi uchun hali ancha bor...

Missis Ueslining yon tomonida Fred, Jorj va Charli o‘tirib, jahon kubogini muhokama qilishmoqda.

– Kubok Irlandiyaga ketadi, – ishonch-la ma’lum qildi og‘zini kartoshkaga to‘ldirib olgan Charli. – Ular Peruni yarim finalda abjag‘ini chiqarib tashlashdi-yu.

– Bolgarlarda Viktor Krum bor, – e’tiroz bildirdi Fred.

– To‘g‘ri, biroq Krum bir nafar yaxshi o‘yinchi, xolos. Irlandlarda esa bunday o‘yinchilar soni yetti kishini tashkil etadi, – qisqa qildi Charli. – Esiz, Angliya chiqa olmadi-ya! Sharmandalikdan o‘zga narsa emas.

– Nima sababdan chiqa olmadi? – ehtiros-la so‘radi Garri.

Garri sehrgarlar olamidan yakkalanib, «Odamovilar» xiyobonida, magllar orasida yashashga majbur bo‘lganidan har qachongidan ham kuchli afsus qildi. U kvidish o‘yinini juda yaxshi ko‘radi. Bola birinchi sinfdan buyon «Griffindor» jamoasining «Sayyod»i bo‘lib, jahonda eng zo‘r «Chaqmoq» rusumli supurgi sohibidir.

– Inglizlar nihoyatda bema’ni o‘ynab, Transilvaniya[1] terma jamoasiga uch yuz to‘qson-u, o‘n hisobi bilan sharmandalarcha boy berishdi, – alam-la tushuntirish berdi Charli. – Bundan tashqari, Uels[2] Ugandaga, Shotlandiya esa Lyuksemburgga yutqazib qo‘ydi.

Bog‘ qorong‘ilashmoqda. Yer tutidan tayyorlangan qo‘l-bola muzqaymoqqa kirishishdan oldin mister Uesli sehr qo‘llab,

[1] **Transilvaniya** (Transilvania) – Ruminiya shimolidagi tarixiy o‘lka.
[2] **Uels** (Wales) – Buyuk Britaniyaning g‘arbidagi yarimorol.

sham yaratdi. Muzqaymoq yeb tugatilguncha dasturxon uzra parvonalar baralla parillab qoldi. Iliq havoni yovvoyi alaf bilan uchqat hidi qamrab oldi. Qorni rosa to'yib, hayotdan mamnun bo'lgan Garri Maymoqoyoq tomonidan ta'qib etilib, na'matak chakalaklari orasida rosa kulishayotgan gnomlarning bebok harakatlarini kuzatib o'tirdi. Ron dasturxon atrofidagi oila a'zolarini kuzatib chiqib, hamma o'zi bilan o'zi ovora bo'lganiga ishonch hosil qilgach, past ovozda Garridan so'radi:

– Demak, Siriusdan xat olib yurgan ekansan-da?

– Ha, ikkita xat oldim, – javob berdi Garri, past ovozda. – Uning ishlari joyida. Avval kuni xat yozib yubordim. Balki, shu yerda yurganimda, javobini ham olib qolarman.

Garri Siriusga xat yozishining sababini eslab, chandig'i yana og'rigani va yomon tush ko'rganini do'stlariga aytib bermoqchi bo'ldi-yu, o'zi baxtiyor, shod o'tirganida do'stlarini tashvishli xayollarga tortkisi kelmay, fikridan qaytdi.

– Qaranglar, vaqt allamahal bo'lib qolibdi-yu, – kutilmaganda chapak chaldi missis Uesli, qo'l soatiga qarab. – Hammangiz zudlik bilan yotishingiz kerak. Chunki tong sahar turishingiz lozim. Aks holda Kubok o'yinlariga bora olmaysiz. Garri, men ertaga Diagon xiyoboniga borib, hamma uchun bozor qilib qaytaman. Menga xarid qilinadigan buyumlar ro'yxatini qoldir, olib kelaman. Kubok o'yinlaridan so'ng vaqt bo'lmasligi mumkin. O'tgan safar o'yin besh kun davom etgan.

– Voy-bo'y, rostdanmi?! Bu safar ham shuncha kun davom etsa kerak, deya umid qilaman! – xitob qildi Garri.

– Men esa bunday umid qilmayman, – dedi Persi, ko'zini chin ixlos ila tepaga qaratib. – Ishda besh kun bo'lmasam, papkam rosa kattalashib ketadi.

– Asti qo'y. Kimdir yana ajdar najasini tiqib qo'yadi papkangga, a, Persi? – gijgijladi Fred.

– U Norvegiyadan yuborilgan o'g'it namunasi edi! – dedi Persi qizarib. – Bunda hech qanday haqorat alomatlari bo'lmagan.

– Aslida esa bo'lgan, – shivirladi Fred Garrining qulog'iga. – O'sha najasni biz yuborganmiz.

VI BOB. PORTSHLYUS[1]

Garrining nazarida, endigina uyquga ketdi-yu, kimdir uni siltab uyg'otdi.

– Turadigan vaqt bo'ldi, yoqimtoyginam, – dedi missis Uesli.

Garri ko'zoynagini paypaslab topib taqdi-da, ko'rpasiga o'tirdi. Derazadan ko'rinayotgan ko'cha qorong'i, tong hali otmagan. Onasi uyg'otgan Ron allanima deya vaysadi. Oyoq tomonda esa choyshablar ostidan ilashib chiqayotgan ikkita sharpa ko'rindi.

– Vaqt bo'ldimi? – uyqusirab so'radi Fred.

Ko'zi uyquga to'la, karaxt, so'z aytgani madori yo'q bolalar jimgina kiyinishdi-da, kerishgancha zinadan pastga, yuvingani tushishdi.

O'choq oldida turgan missis Uesli katta qozonda pishayotgan ovqatni aralashtirmoqda, kursida o'tirgan mister Uesli esa stol ustiga taxlangan chiptalarning yo'g'on dastasini tekshirmoqda. U oshxonaga kirib kelgan bolalarni ko'rib, o'rnidan turdi-da, egnidagi golf o'yini uchun jemper[2] va eski, qalin charm kamar vositasida siqib olingan keng jinsi shimni namo-yish qilish uchun qo'lini ikki tomonga uzatib, aylandi.

– Xo'sh, Garri, qalay? – so'radi u tashvishli ohangda. – Maglga o'xshab kiyinibmanmi? Yashirin safarimizga niqoblangan holatda chiqishimiz kerak, har qalay...

– O'xshaysiz, – kuldi Garri. – Juda o'xshaysiz.

– Bill, Charli, Pe-Pe-Persi qaaaaaaani? – so'radi Fred, esnashini tiya olmay.

– Yodingdan ko'tarildimi o'g'lim, ular havoda daf bo'lib, kerakli joyda paydo bo'la olishadi-yu, – dedi missis Uesli, stol-

[1] **Portshlyus** (*fransuzcha*) – G'arbiy Yevropa afsonalarida aytilishicha, sehrgarlarning kam sonli guruhini oldindan belgilangan vaqtda bir joydan boshqa joyga olib o'tadigan afsonaviy buyum. Zarurat tug'ilganida portshlyus vositasida tegishli manzilga yirik guruh tarkibida ham yetib borish mumkin.

[2] **Jemper** (*inglizcha:* jumper – yoqasiz kofta) – jun, ip yoki ipakdan to'qilgan, tugmasiz va yoqasiz kofta.

ga bazo'r olib o'ta olgan qozondan bolalarga suli bo'tqa ulashib.
– Shunday ekan, ular biroz uxlab olishlari mumkin hali.

– Ax, uxlashyapti deng, – vaysadi Fred. – Nega endi biz ham Kubok o'yiniga ular kabi bormaymiz?

– Chunki siz hali balog'atga yetmagansiz, imtihon ham topshirmagansiz, – vaysadi missis Uesli. – Qizlar qayoqqa yo'q bo'lib qolishdi ekan, a?

U oshxonadan chiqib, zina bo'ylab yuqoriga ko'tarildi.

– Havoda daf bo'lib, kerakli joyda paydo bo'lish uchun ham imtihon topshirish kerakmi? – qiziqib so'radi Garri.

– Albatta, – javob berdi mister Uesli chiptalarni shimining orqa cho'ntagiga solar ekan. – Maxsus guvohnomaga ega bo'lmay havoda daf bo'lib, paydo bo'lishga qiziqqan bir juft havaskorga Sehrli yo'llar departamenti tomonidan yaqinda jarima solindi. Havoda daf bo'lish oson kechadigan ish emas, Garri. Agar biror-bir harakat noto'g'ri bajarilsa, bunday tashab-bus jiddiy oqibat-la yakun topishi mumkin. Masalan hozirgina tilga olingan havaskorlar... parchalarga bo'linib ketishgan.

Dasturxon atrofida o'tirganlarning yuzlari burishib ketdi.

– E-e-e... parchalanib ketishdi?... – so'radi hech narsani tushunmagan Garri.

– Tanalarining yarmi ular turgan joyda qolib, ikkinchi yarmi tabiiyki, yo'lda tutilib qolgan, – tushuntirish berdi suli bo'tqaga qiyom quygan mister Uesli, oddiy ohangda. – Ular manzilga yetishmagan, ortga ham qayta olishmagan. Shunday ahvolda Favqulodda holatlarda sehr-joduga barham berish departamentiga qarashli otradni kutishlariga to'g'ri kelgan. Rosa qog'ozbozlik bo'ldi. Odam tanasining havoda muallaq osilib qolgan a'zolarini nechta magl ko'rganini o'zing tasavvur qilib ko'r...

Garri «Odamovilar» ko'chasida qolib ketgan ikkita oyog'iyu, bitta ko'z kosasini tasavvur qilib ko'rdi.

– Ular sog'-salomatmi? – so'radi u, qo'rqib-pisib.

– Albatta, – xotirjam javob berdi mister Uesli. – Faqat o'sha havaskorlarning bo'yniga nihoyatda katta jarima solindi. O'z qiliqlarini takror bajarishlariga shubha qilaman. Undan ko'ra

supurgida uchgan ma'qul. Sekin yursang, uzoq borasan, deb bejiz aytishmaydi.

– Bill, Charli va Persi havoda daf bo'lib, paydo bo'lishni bilishadimi?

– Charli imtihonni qayta topshirishga majbur bo'lgan, – biringladi Fred. – Birinchi bor topshirayotganida qulab tushdi. Kerakli manzil qolib, undan besh milya narida havoda paydo bo'ldi-da, nimadir xarid qilayotgan kampirning boshiga borib tushdi. Esingizdami?

– To'g'ri, lekin ikkinchi marta imtihonni muvaffaqiyatli topshirdi, – dedi oshxonaga kirib kelgan missis Uesli, dasturxon atrofida to'planib o'tirganlarning baralla kulganini ko'rib.

– Persining imtihon topshirganiga esa atigi ikki hafta bo'ldi, – dedi Jorj. – O'shandan buyon, bu ish qo'lidan kelayot-ganini ko'rsatib qo'yish uchun bo'lsa kerak, har kuni ertalab o'z xonasida daf bo'lib, pastda, bizning oldimizda paydo bo'ladi.

Yo'lakda qadam tovushi eshitilib, xonaga uyqusiragan yuzlari oqargan Germiona bilan Jinna kirib keldi.

– Nega muncha erta turib oldik? – so'radi Jinna ko'zini ishqalab.

– Chunki biroz sayr qilishga to'g'ri keladi, – tushuntirdi mister Uesli.

– Sayr qilish? – hayron bo'ldi Garri. – Kubok o'yini piyoda yetib borsa bo'ladigan joyda o'tadimi?

– Yo'q, – kuldi mister Uesli, – o'yin bu yerlardan juda olisda bo'ladi. Ko'p yurmaymiz. Gap shundaki, ko'p sonli sehrgarlarning bir joyda, magllar diqqatini tortmay to'planishi shundoq ham oson kechmaydi. Jahon kubogi kabi yirik miqyosli tadbirlar haqida esa gapirmasa ham bo'laveradi...

– JORJ! – kutilmaganda baqirib yubordi missis Uesli.

Dasturxon atrofida to'planib o'tirganlarning hammasi bir sapchib tushdi. Hozir hech kimni aldamagani uchun bo'lsa kerak, o'zini begunoh bilgan Jorj onasiga betashvish yuzlanib so'radi:

– Tinchlikmi, oyi?

– Cho'ntagingda nima bor? – talab ohangida so'radi missis Uesli.

– Hech nima yo‘q! – javob berdi begunoh qiyofa yasab olgan Jorj.

– Yolg‘on gapirma! – o‘shqirdi missis Uesli qo‘liga sehrli tayoqchasini olgancha Jorjning cho‘ntagiga o‘qtab, – Assio!

Bolaning kissasidan anchagina mayda-chuyda, rang-barang buyumlar uchib chiqdi. Jorj ularni to‘xtatib qolishga urinib barmoqlari bilan havoda chang soldi-yu, uddalay olmadi. Buyumlarning bari to‘ppa-to‘g‘ri missis Ueslining qo‘liga borib tushdi.

– Bularni bitta qoldirmay yo‘q qiling deb aytgan edik-ku! – baqirdi jahli chiqqan missis Uesli, qo‘lidagi «bir pud til» pomadkalariga qarab, – Bunday narsalarni yo‘q qilish amr etilgan edi sizlarga! Cho‘ntagingizni teskari ag‘daring, ikkalangiz, tez bo‘ling!

Bu tomosha u qadar yoqimli kechmadi. Aftidan, egizaklar imkon qadar ko‘proq pomadkalarni uydan kontrabanda[1] yo‘li bilan olib chiqishmoqchi bo‘lishgan. Afsuski, pomadkalar missis Uesli tomonidan Buyum chaqirish afsuni vositasida musodara etildi.

– Assio! Assio! Assio! – baqirdi missis Uesli.

Konfetlar umuman kutilmagan joylar: Jorjning egnidagi kurtka astari va Fredning jinsi shimi qaytarmalari orasidan chiqib keldi.

– Ularning ixtirosiga yarim yil sarf etgan edik! – qichqirdi Fred, pomadkalarning axlat o‘raga tashlanayotganini ko‘rib.

– Yarim yillik umrni ajoyib o‘tkazibsiz! – o‘kirdi missis Uesli. – Ikkalangiz erishgan MOSD saviyasiga esa ajablanmasa bo‘laveradi,.

Tark etilayotgan uyda qaror topgan muhit oxir-pirovardida yaxshi bo‘lmadi. Xayrlashayotgan eridan bo‘sa olayotgan missis Ueslining yuzidagi domangir qiyofa egizaklarga nisbatan yumshoqroq bo‘lsa-da, saqlanib qoldi. Yuk xaltalarini yelkaga

[1] **Kontrabanda** *(italyancha:* cotrabando < contra – qarshi + bando – hukumat farmoyishi) – 1) ta’qiqlangan moltopar, valyuta boyliklari va boshqa narsalarni davlat chegarasidan noqonuniy ravishda, yashirincha, boj to‘lamay olib o‘tish; 2) shunday yo‘l bilan o‘tkazilgan moltovar va boshqa qimmatbaho narsalarning o‘zi.

tushlagan egizaklar esa onaga churq etmay, xayr-ma'zurni nasiya qilgancha, hovlidan chiqib ketishdi.

– Vaqtingizni chog' o'tkazing. O'zingizni yaxshi tuting, – qichqirib qoldi chidamagan ona, uzoqlashayotgan egizaklarining ortidan.

Bir so'z aytmagan egizaklar esa onaga qiyo boqmay nari ketishdi.

– Kun yarmiga yaqin Bill, Charli va Persini yo'lga otlantiraman, – dedi missis Uesli eriga.

Garri, Ron, Germiona va Jinna mister Ueslining hamrohligida yo'lga chiqishdi. Havo sovuq, Oy osmonda charaqlamoqda. Ufqning o'ng tomonida ko'rinayotgan yorug'lik dog'igina tez orada tong otishidan darak bermoqda. Final o'yinini tomosha qilishga shoshilayotgan ming-minglab sehrgarlar haqida xayol surgan Garri yugurib, mister Uesliga yetib oldi.

– Shuncha sehrgar tegishli manzilga qanday qilib magllarga sezdirmay yetib oladi? – so'radi u.

– Aynan shu masala hamisha tashkiliy muammo bo'lib keladi, – xo'rsindi mister Uesli. – Hamma balo shundaki, o'yin tomoshasiga yuz mingga yaqin sehrgar-u afsungar tashrif buyuradi. Tabiiyki, yurtimizda buncha odam joylashadigan ulkan sehrli makon yo'q. Magllar o'ta olmaydigan joylar bor, albatta. Biroq Diagon xiyoboni yoki to'qqiz butun to'rtdan uchinchi platformada[1] bir vaqtning o'zida yuz ming kishi paydo bo'lsa nima bo'lishini o'zing tasavvur qilib ko'r. Shuning uchun biz katta maydonni egallagan kimsasiz botqoqlikni topib, atrofida magllarga qarshi, kishi tasavvuriga sig'adigan va sig'maydigan himoya choralarini ko'rdik. Sehrgarlik vazirligi bunday choralar ko'rish uchun ko'p mehnat sarfladi. Birinchi navbatda o'yinga tashrif buyuradigan sehrgarlar yetib kelishi uchun sirg'anma jadval joriy etilishiga to'g'ri keldi. Bunda, arzon chipta xarid qilgan odamlar o'yin boshlanishidan ikki hafta oldin hozir bo'lishga majbur. Sehrgarlarning ayrim doiralariga mansub

[1] **Platforma** *(fransuzcha:* plateforme – tekis, yassi shakl; maydoncha) – temir yo'l stansiyalarida yo'lovchilarning poyezdga chiqish yoki tushishi, yuk tushirish yoki ortish uchun temir yo'lga nisbatan balandroq qilib ishlangan uzun sahn, maydoncha.

cheklangan soni magllarning transport vositalarida yetib keladi. Biroq avtobuslar-u, poyezdlarda elatimiz vakillarining haddan ortiq soni bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ular jamiki jahondan kelishadi axir. Bundan tashqari, o'yingoh yaqinida havoda paydo bo'lish uchun qulay bo'lgan kichkinagina o'rmon bor. Havoda paydo bo'lishni istamaganlar yoki bunday huquqqa ega bo'lmaganlar esa portshlyuslardan foydalaniladilar. Portshlyus – sehrgarlarning kam sonli guruhini oldindan belgilangan vaqt-da bir joydan boshqa joyga olib o'tadigan buyum. Zarurat tug'ilganida portshlyus vositasida tegishli manzilga yirik guruh tarkibida ham yetib borish mumkin. Bunday buyumlar Angliya hududidagi ikki yuzdan ortiq strategik jihatdan muhim joylarga o'rnatilgan. Bizga yaqin nuqta Oqsichqon boshi tog'ining cho'qqisida joylashgan. Hozir biz o'sha joyga ketyapmiz.

Mister Uesli qo'lini oldinga uzatib Kolgotteri Sent-Inspektort qishlog'i ortida ko'ringan katta qora tog'ni ko'rsatdi.

– Portshlyuslarga nimalar kiradi? – qiziqsinib so'radi Garri.

– Har qanday buyum, – javob berdi mister Uesli. – *Magllarning e'tiborini o'ziga jalb etmaydigan, qo'liga olmaydigan* yoki o'ynashni xayoliga ham keltirmaydigan... xullas magllarga oddiy chiqindi sifatida ko'rinadigan har qanday buyum kiradi...

Tagcharmlari taqir-tuqur qilib tungi sukunatni buzayotgan sayyohlar qishloqning qorong'i, yog'ingarchilikdan nam tortgan ko'chasi bo'ylab asta yurib o'tdi. Qishloq kesib o'tilayotgan mahalda osmon juda sekin yorishdi. Nihoyat falakning siyoh-dek qop-qora tusi barham topib, ko'k rang kasb eta boshladi. Garrining oyoq-qo'li sovqotdi. Mister Uesli esa har daqiqa o'tgan sari soatiga qarab bordi.

Sayyohlar Oqsichqon boshi tog'iga ko'tarila boshladi. Bu xotirjam gaplashib boradigan jarayon emas, albatta. Hamma hansirab qoldi. Oyoq dam quyon iniga kirib, dam nishablikning qalin qora maysa qoplagan joyida sirpanib ketmoqda. Har bir nafas ko'krak qafasini og'ritmoqda. Nihoyat tekis joyga yetib kelishdi. Garrining oyoq mushaklari tortishdi.

– Voh, xayriyat-ye, – chuqur nafas chiqardi mister Uesli,

terlab ketgan ko'zoynagini artar ekan. – Kechga qolmay yetib keldik. Ixtiyorimizda yana o'n daqiqa bor...

Biqinini ushlab qolgan Germiona oxirgi bo'lib ko'tarildi.

– Endi portshlyusni qidirib topish qoldi, xolos, – dedi mister Uesli ko'zoynagini taqib, oyoq osti va tevarak-atrofni ko'zdan kechirar ekan. – Ko'rinishidan u qadar katta bo'lmagan buyum... Qidiringlar...

Bolalar atrofga tarqalishdi. Ikki daqiqa o'tar-o'tmas yaqin o'rtada kimdir qichqirdi:

– Artur, o'g'lim, bu yoqqa kelinglar! Biz uni topdik!

Yassi tepalikning narigi tomonidagi yulduzli osmon tusida novcha bo'yli ikki kishi ko'rindi.

– Amos! – javoban qichqirdi mister Uesli ovoz bergan kishi tomon tabassum-la yo'l olib.

Bolalar uning orqasidan borishdi. Mister Uesli qizil yuzli, chap qo'liga mog'or bosgan eski boshmoqni ushlab olgan qo'ng'ir-cho'tka soqolli keksa sehrgarning qo'lini siqdi.

– Bolalar, tanishinglar, Amos Diggori, – dedi mister Uesli. – Sehrli hayvonlar ustidan nazorat bo'limida ishlaydi. Uning o'g'li Sedrik bilan esa, o'ylaymanki, tanishsizlar.

Juda barno, yoshi o'n yettiga yetgan Sedrik Diggori «Xogvars»da tahsil ko'rayotgan yigitcha bo'lib, «Xufflpuff» kvidish jamoasining sardori va bir vaqtning o'zida «Sayyod»i sanaladi.

– Salom, – dedi Sedrik, hammaga ko'z yugurtirib chiqib.

Bosh irg'ib qo'yish bilan kifoyalangan Fred bilan Jorjdan tashqari, hamma ovoz chiqarib salomlashdi. «Griffindor» jamoasi o'tgan o'quv yilida birinchi o'yinni aynan mana shu Sedrik tufayli yutqazib qo'yganini egizaklar unutgani yo'q.

– Charchadingizmi, Artur? – so'radi Sedrikning otasi.

– Hech qisi yo'q, – javob berdi mister Uesli. – Biz tepalikning narigi tomonida yashaymiz. Sizlar-chi, uzoqdan kelsangiz kerak?

– Kechasi soat ikkida turishga to'g'ri keldi, to'g'rimi Sed? – dedi Amos Diggori. – Havoda daf bo'lib, paydo bo'lishga tezroq imtihon topshirsa edi. Garchi... yo'q, sog'ligimdan shikoyat

qilmayman... Kvidish bo‘yicha jahon kubogi! Bunday tomosha uchun bir qop galleonni ayamagan bo‘lar edim! Umuman aytganda, chipta narxi shunga yaqin borib qoldi. Ammo, aftidan, men oson qutulib qolganga o‘xshayman...

Amos Diggori mister Ueslining uch nafar o‘g‘li, Garri, Germiona va Jinnaga ochiq ko‘ngil-la qarab chiqdi.

– Hammasi seni bolalaringmi, Artur?

– O-o, yo‘q. Faqat malla sochlilari. Mana bular o‘g‘lim Ronning do‘stlari bo‘ladi. Germiona va Garri.

– O, Merlin soqoli! – xitob qildi ko‘zi katta ochilgan qariya, – Garri? Garri Potter?

– M-m-m... ha, – dedi Garri.

Kimligidan xabar topgan har qanday kishi bolaga baqrayib, nigohi shu zahoti peshanasidagi chandiqqa qadaladi. Garchi Garri bunga ko‘nikib qolgan bo‘lsa-da, o‘zini har safar noqulay his etadi.

– Sed sen haqingda ko‘p gapiradi, – dedi Amos Diggori. – O‘tgan yilgi o‘yinlaring haqida ham aytib berdi... Men unga o‘shanda: «Sed, sen hali nabiralaringga kimsan Garri Potter ustidan g‘olib chiqqaningni aytib berasan!» degan edim.

Biror og‘iz so‘z topa olmagan Garri, indamay qo‘ya qoldi. Fred bilan Jorj shu zahoti lab-lunjini osiltirib olishdi. Sedrik esa biroz xijolat tortdi.

– O‘shanda Garri supurgisidan qulab tushgan edi, dada, – g‘udulladi u. – Aytgan edim-ku, sizga... baxtsiz hodisa ro‘y bergan edi deb...

– Tushunarli! Biroq, maydon tekis, to‘p yumaloq deyishadi! Sen qulab tushmading-ku! – dedi xushmuomalalik ila Amos, o‘g‘lining beliga urib qo‘yib. – O‘g‘lim ja kamtarin-da! Haqiqiy jentlmenligini namoyon etib yuradi... Faqat saralargina g‘olib bo‘ladi, Sed! Buni Garrining o‘zi ham aytishi mumkin senga. To‘g‘rimi, Garri? Kimdir supurgisidan qulab tushadi, kimdir uni ishonch-la egarlaydi... Qaysi biri mohirona ucha bilishini aytish uchun ko‘p aql kerak emas!

– Menimcha, vaqt yetdi, – gapga aralashdi soatini chiqargan mister Uesli. – Amos, qolganlar bilan qayerda uchrashimizni

bilmaysanmi?

– Yo‘q, xabarim yo‘q. Lavgudlar bir haftadan buyon o‘sha yerdaligini, Fossettlarga esa chipta nasib qilmaganini bilaman, – dedi Diggori. – Hududimizda boshqa hech kim yashamaydi-yu, shundaymi?

– Har qalay, boshqa birov yashashidan xabarim yo‘q, – javob berdi mister Uesli. – Xo‘sh, bir daqiqa qoldi... hozirlik ko‘rish darkor... Bitta barmoq bilan bo‘lsa ham portshlyusga tegib turish shart, – yo‘riq berdi u Garri bilan Germionaga murojaat qilib.

Amos Diggori qo‘lini uzatdi. Uning qo‘lidagi eski boshmoq atrofiga yuk xaltalari to‘lib, shishib turgan to‘qqiz kishi g‘uj bo‘lib, bir-biriga zich turib oldi. Ular tor doira hosil qilgancha, churq etmay turishdi. Tog‘ cho‘qqisi uzra sovuq shamol shiddatla esib o‘tdi. Garrining xayoliga, ularning bunday turishi, ushbu tepalikka tasodifan chiqib qolgan biror-bir maglning ko‘ziga nihoyatda g‘alati ko‘rinsa kerak, degan fikr keldi. To‘qqiz kishi... ulardan ikki nafari yoshi katta erkak. Tong saharda qorong‘i joyga kelib olib, allaqanday yirtiq boshmoqni ushlab olishgancha, nimanidir kutib turishibdi...

– Uch... – sanay ketdi bir ko‘zi bilan soatiga qarab turgan mister Uesli, – Ikki... bir...

Jarayon atigi bir lahza kechdi: nimadir Garrini kindigiga mahkamlangan halqadan tortganday bo‘lib, oyog‘i yerdan uzildi; Ron bilan Germiona ikki tomonda yelkasiga urilayotganini sezdi; hamma shamolday uvullab, rang-barang dog‘lar uyur-masi ichra qayoqqadir olg‘a uchmoqda; boshmoq Garrining barmog‘ini xuddi ohanrabo kabi mahkam tortib ketyapti, so‘ng...

Botinkasining tagcharmi yerga qattiq tekkan Ron Garriga urilib, ikkovlon yerga ag‘anadi. Portshlyus esa Ronning boshidan sal nariga kelib tushdi.

Garri boshini ko‘tarib, sal narida sochi hurpaygan mister Uesli, mister Diggori va Sedrik turganini ko‘rdi. Qolganlar yerda yotibdi.

– Soat 05:07. Oqsichqon boshi tog‘idan, – eshitildi kimningdir ovozi.

VII BOB. SHULMAN VA SGORBS

Garri oyoqqa turdi. Guruh qo'ngan joy tuman qoplagan kimsasiz botqoqlik ekani va bu yerda ikki nafar toliqqan, bad-qovoq sehrgar turganini ko'rdi. Ulardan biri qo'liga katta tilla soat, ikkinchisi esa qalin pergament o'rami bilan patqalam ush-lab olgan. Ikkalasi ham maglga o'xshab kiyinishga uringan-u, kelishtira olmagan. Qo'liga soat ushlagan kishi junli gazla-madan tikilgan savlatli tivit kostum bilan botqoqlikda kiyib yuriladigan qo'nji uzun etik kiyib olgan bo'lsa, ikkinchi sehrgar shotlandiyaliklar yubkasi ustidan poncho[1] tashlab olgan.

– Salom Beyzil, – salomlashdi mister Uesli, yerdan olgan boshmoq-portshlyusni poncho kiygan sehrgarga uzatgancha.

– Salom, Artur, – horg'in alik qaytardi mister Ueslining qo'lidagi boshmoqni olib, ishlatilgan portshlyuslar yashigiga tashlagan Beyzil.

Yashik ichidagi bunday buyumlar orasida eski gazeta, qandaydir ichimlikdan bo'shagan banka, teshilgan futbol to'pi kabilar ko'rindi.

– O'rnimizga, navbatchilik xizmatiga emasmi, Artur? – so'radi Beyzil. – Esiz... Ikkalamiz tuni bilan shu yerda turib-miz... Joyingizga boring. Soat 05:15 da Qora o'rmondan katta guruh uchib keladi. Shoshmang, lageringiz qayerdaligini aytaman...

Beyzil pergament qog'ozga bitilgan ro'yxatga ko'z yugurtirdi.

– Demak, Ueslilar... Ueslilar... Bu yerdan taxminan chorak milya narida, eng birinchi maydon, – dedi u. – Qorovulning ismi mister Roberts. Xo'sh, endi Diggorilar... Ha, mana Diggo-ri, ikkinchi maydon... mister Peynni so'raysiz.

– Rahmat, Beyzil, – minnatdorlik bildirdi mister Uesli bolalarni ortidan imlab.

---

[1] **Poncho** – Janubiy va Markaziy Amerika indeyetslarining plash sifatida tashlab yuriladigan milliy kiyimi bo'lib, o'rtasida bosh uchun teshik ochilgan to'g'ri burchakli mato bo'lagi ko'rinishiga ega.

Ular cho'lga o'xshash botqoqlikda borishar ekan, tuman qalin tushgani tufayli deyarli hech nimani ko'rishmadi. Taxminan yigirma daqiqadan so'ng sayyohlar qarshisida kichkinagina tosh kulba paydo bo'ldi. Darvoza ortida esa uzoq ufqda qorayib turgan o'rmongacha cho'zilgan cheksiz do'nglikning tekis maydoniga tikilgan yuzlab chodirlar xira ko'rindi. Sayyohlar Diggorilar bilan xayrlashib, tosh kulbaga yaqinlashdi.

Ostonada chodirli shaharcha tomon qarab turgan kishi ko'rindi. Uning haqiqiy magl ekanini Garri bir qarashdayoq tushundi. Qadam tovushini eshitgan magl tashrif buyurganlar tomon o'girildi.

– Salom! – dadil salomlashdi mister Uesli.

– Salom, – alik qaytardi magl.

– Mister Roberts siz bo'lasizmi?

– Ha, men bo'laman, – javob berdi mister Roberts. – Sizchi, siz kim bo'lasiz?

– Uesli. Ikki kun oldin ikkita chodir tikiladigan joyga buyurtma bergan edim.

Mister Roberts eshikka mahkamlangan ro'yxatga ko'z yugurtirib chiqdi.

– Ha, to'g'ri, – dedi u. – Sizga ajratilgan maydon ho' anavi o'rmon etagida. Faqat bir kechaga buyurtma bergan ekansiz, shundaymi?

– Xuddi shunday, – tasdiqladi mister Uesli.

– Joy haqini hozir to'lasangiz kerak? – so'radi magl.

– A-a! Ha-ya... albatta... – esladi mister Uesli.

Kulbadan nari ketgan mister Uesli, cho'ntagidan magllarning bir dasta pulini chiqardi-da, sanashga kirishar ekan Garrini imladi.

– Ko'maklashib yubor. Mana bu... necha pul bo'ladi?... O'nmi? – so'radi u. – Ha, kichkina raqam mana bu-ku... Demak, bu besh-da, a?

– Yo'q, bu yigirma bo'ladi, – shivirladi Garri mister Roberts mister Ueslining har bir so'zni ilg'ab olishga urina-yotganini payqab.

– Ha-ya. To'g'ri. Qog'ozlari biram maydaki bularning... –

e'tiroz bildirdi mister Uesli.

– Xorijlikmisiz deyman? – so'radi qorovul, mister Uesli uzatgan pulni olib. – Yurtimiz pulining farqiga bormagan yolg'iz siz emassiz, – ma'lum qildi u, mister Uesliga sinchkovlik-la qarab. – O'n daqiqa oldin ikki kishi g'ildirak gupchagiday keladigan tilla tanga to'lamoqchi bo'ldi.

– Yo'g'-ye?! – asabiylashdi mister Uesli.

Mister Roberts qaytim qidirib konserva bankasini titishga kirishdi.

– Bu yerlarga hali shuncha odam kelmagan, – kutilmaganda fikr bildirdi magl, ko'zi bilan tuman qamragan maydon tomon imo qilib, – Yuzlab buyurtmalar oldindan berildi. Odamlar xuddi havodan paydo bo'lganday kelishyapti...

– Rostdanmi? – dedi mister Uesli, qaytimini olish uchun qo'l uzatib.

– Rost, – o'ychan javob berdi qaytim uzatishga shoshmagan mister Roberts. – Bir olam ajnabiy. Aftidan, bu yerda qandaydir yig'in o'tkaziladi, shekilli... bilmadim... Hammasi bir-birini taniydi-ya. Yirik miqyosli anjuman bo'lsa kerak... Ajnabiy bo'lib ham shunchaki ajnabiy emas. Ko'pchiligi qandaydir g'alati, tomi ketgan kishilarga o'xshaydi, tushunyap-sizmi? Sog'lom fikrli odam shotlandiyaliklar yubkasi ustidan indeyetslarning ponchosini tashlab oladimi, axir?

– Iye, bunday kiyinib bo'lmaydimi? – so'radi mister Uesli tashvishli ohangda.

Kulba eshigidan sal narida golf o'yinida kiyiladigan shim kiygan allaqanday sehrgar havoda paydo bo'ldi.

– Oblivieyt! – dedi u, sehrli tayoqchasini mister Robertsga o'qtab.

Maglning ko'zi bir aylanib, nigohi keskin o'zgardi. Hozirgina qoshini chimirib, xavotirdan tirishgan maglning peshanasi silliqlanib, yuzi biror-bir ma'no-mazmun anglatmaydigan qiyofa kasb etdi-qoldi. Garri kishining xotirasi o'zgartirilganda kuzatiladigan alomatlar yuz berganini tushundi.

– Marhamat, qaytimingiz. Lager xaritasini ham oling, – taklif qildi mister Roberts.

– Katta rahmat, – minnatdorlik izhor etdi mister Uesli.

Holdan toygan, qirtishlanmagan iyagidagi soqoli o'sib ketgan, ko'zining ostida arg'uvon dog' ko'ringan sehrgar kulbaga yetib kelgan sayyohlarni darvozagacha kuzatib qo'ydi.

– Charchatib yubordi-yu bu magl, – vaysadi u mister Uesliga murojaat qilib. – Kuniga o'ndan ortiq Unuttirish afsunisiz xotirjam tura olmaydi-ya! Lyudo Shulmandan esa hech qanday yordam yo'q! Tevarak-atrofda tentiragancha, «Kvaffl»lar-u, «Tajovuzkor» to'plar haqida ovozi boricha baqirib, magllarga qarshi himoya choralaridan mutlaqo bexabarday tutib yuribdi o'zini! O, Xudo! Bularning bari tugasa o'zimni benihoya baxtli his etgan bo'lar edim! Xo'p, mayli, Artur, men boray, ish ko'p, ko'rishguncha.

Sehrgar xayrlashib, havoda daf bo'ldi.

– Mister Shulman Sehrgarlik o'yinlari va sport departamenti rahbari emasmi? – so'radi hayron bo'lganidan qosh ko'tarilib ketgan Jinna. – Ehtiyot bo'lishi, magllarning oldida «Tajovuzkor» to'plar haqida gapirmasligi kerak-ku, shunday emasmi?

– Shundaylikka shunday-kuya, – kulib boqdi mister Uesli bolalarni darvozadan o'tkazib, – faqat Lyudo ehtiyot choralarini bir umr pisand qilmay kelgan. Bir vaqtlar o'zi ham Angliya terma jamoasida o'ynagan. Jamoani tark etganidan keyin «Ya-ramas arilar»da unga teng keladigan «Urib qaytaruvchi» bo'lmagan.

Sayyohlar guruhi tuman ichra uzundan uzun chodir qatorlari orasidan yurib bordi. Aksariyat chodirlar oddiy chodirdek ko'rinib, sohiblari magllarning chodiridan ko'p farq qilmasligiga urinishgani ko'rinib turibdi. Xatolar ham yo'q emas, albatta. Jumladan: ayrim chodirlardan kamin quvuri chiqqan bo'lsa, ba'zilariga eshik qo'ng'irog'i yoki fluger[1] o'rnatilgan. Ahyon-ahyon sehrgarlar chodiri ekani ko'zga yaqqol tashlanib turgan chodirlar ham uchramoqda. Mister Roberts ongida shubha

[1] **Fluger** (*nemischa:* Fluger– qanot) — shamol yo'nalishi va tezligini aniqlaydigan qurilma. U vertikal o'qqa qo'zg'almas qilib mahkamlangan shamol yo'nalishi ko'rsatkichlari, sterjenda erkin aylanuvchi posangili qanotchalar, yoy va shtiftlar biriktirilgan metall plastinkadan iborat.

paydo bo‘lgani ham bejiz emas. Masalan, dalaning qoq o‘rtasida, chodir emas qasrga o‘xshash, yo‘l-yo‘l shoyidan ko‘tarilgan, kiraverishida haqiqiy tovuslar sayr qilib yurgan g‘ayrioddiy inshoot turibdi. Undan sal narida kichik minoralari bilan ajrab turgan uch qavatli chodir tikilgan. Unchalik uzoq bo‘lmagan masofada esa kichkinagina bog‘, qush teganalari, quyosh soati va favvoraga ega chodir ko‘rindi.

– Elatimiz zig‘irday bo‘lsin, o‘zgargani yo‘q, – kulib boqdi mister Uesli. – Bir joyga to‘planib qolsak bas, maqtanchoqlik qilmay tura olmaymiz. Iye, yetib kelibmiz-ku! Qarang, ana bizga ajratilgan joy.

Ular adir tepasiga, o‘rmon chetiga yetib kelib, «Ueslilar» yozuvi bitilgan taxtacha qoqilgan bo‘m-bo‘sh maydonni ko‘rishdi.

– Bundan yaxshi joy bo‘lmaydi! – yashnab ketdi mister Uesli. – O‘yingoh shundoq o‘rmon ortida. Biz unga juda yaqin joylashibmiz. Aytmoqchi, yodingizda bo‘lsin, biz magllar hududida turibmiz, – hayajon-la ogohlantirdi u, yelkasidagi yuk xaltani yerga tushirib. – Shu bois bu yerda sehr-jodu bilan shug‘ullanish man etilgan. Biz ko‘pchilikmiz, shunday ekan chodirni o‘z qo‘limiz bilan tiklaymiz! Bu ish u qadar qiyin kechmasa kerak... Magllar uddalay olishadi-yu... Garri, nima deb o‘ylaysan, ishni nimadan boshlaganimiz ma’qul.

Garri hayotida biror marta bo‘lsin, dala safariga chiqmagan. Dursllar uni doimo qo‘shni kampir missis Figgning uyida qoldirib, hordiq chiqarishning bunday turiga hech qachon o‘zlari bilan olib borishmagan. Shunday bo‘lsa-da, Garri bilan Germiona chodir xodalarini qanday tiklash, qoziqlarini qayerga va qanday qoqish kerakligini anglab yetishdi. Mister Uesli yordam emas, ko‘proq xalal bergan bo‘lsa ham yog‘och bolg‘a ishlatilganida juda hayajonlanib ketdi. Nihoyat ular har biri ikki kishiga mo‘ljallangan ikkita eski chodirni tiklashga muvaffaq bo‘lishdi.

Terlab-pishgan sayyohlar o‘z mehnatining hosilasini tomosha qilish uchun nari chekinishdi. Ikkala chodir ham magllarning chodiridan hech farq qilmaydi. Garrini yagona bir muammo

o‘ylantirib qo‘ydi. Agar Bill, Charli va Persi yetib kelishsa, ushbu chodirlarda dam oladigan odam soni o‘n kishiga yetadi. Aftidan, Germiona ham shu haqda o‘ylanib qolgan ko‘-rinadi. Mister Uesli maysada tizza va kaftlariga turib, chodir ichiga kirib ketgach, Germiona hayron bo‘lib Garriga qarab qo‘ydi.

– Bizga sal torlik qilishi mumkin-u, – qichqirdi mister Uesli chodir ichida turib, – o‘ylaymanki, bir iloj qilib sig‘isha-miz. Qani, kirib ko‘ringlar-chi.

Egilib chodir ichiga kirgan Garrining og‘zi lang ochilib, hang-mang bo‘ldi. U vannaxona va hojatxonaga ega uch xonali xonadonga kirib qoldi. Ajablanarlisi shundaki, uy xuddi missis Figgning xonadoni kabi eskicha tuzalgan. O‘zaro mos kelmagan kreslolar ustiga zanjir kashta usulida tikilgan sochiqlar tashlangan bo‘lib, hammasiga mushuk hidi urib ketgan.

– Bir kun ming kun emas. Amallab chidasa bo‘ladi, – dedi dastro‘mol bilan peshanasini artayotgan mister Uesli, yotoqxonada yonma-yon turgan to‘rtta karavotga qarab. – Bu chodirni birga ishlaydigan keksa Pyorkinsdan vaqtincha oldim. U bechora belog‘riq bo‘lib, dala safariga chiqa olmaydigan holatga kelib qolgan. – Suv olib kelish kerak ekan... – dedi u, chang bosgan choynakni qo‘liga olib, ichiga qarar ekan.

Garrining ortidan kirgan Ron chodirning tashqi va ichki o‘lchamlari nomutanosibligidan mutlaqo taajjublanmadi.

– Anavi magl bergan xaritada suv kranining shartli belgisi ko‘rsatilgan, – dedi u. – Dalaning narigi tomoniga borishga to‘g‘ri keladi.

– Unday bo‘lsa, Garri va Germiona uchalangiz suvga boringlar, – dedi mister Uesli choynak va yana ikkita kastrulkani uzatib. – Qolganlar esa o‘t yoqish uchun o‘tin terib keladi.

– Pechkamiz bor-u, – hayron bo‘ldi Ron. – Nega endi...

– Magllardan himoya choralari-chi! – eslatib o‘tdi mister Uesli, o‘g‘lining tushunmaganidan taajjublanib. – Tabiat qo‘yniga chiqishgan haqiqiy magllar ovqatlarini tashqarida, o‘tin yoqib tayyorlaydilar. Chin so‘zim. O‘z ko‘zim bilan ko‘rganman.

Qizlar uchun tiklangan, o‘lchami nisbatan kichikroq chodirga kirib tez tomosha qilib chiqqan Garri, Ron va Germiona

choynak va kastrulkalarni olib, chodirli lager bo‘ylab suv qidirib ketishdi.

Quyosh chiqib, tuman tarqagach, bolalarning ko‘ziga tevarak-atrofga yoyilgan ulkan chodirli shaharcha endi butunicha ko‘rindi. Ular chodir qatorlari bo‘ylab asta yurib, hamma yoqni katta qiziqish-la tomosha qilib borishdi. Jahonda sehrgarlar naqadar ko‘p ekanini Garri ana endi tushuna boshladi. Ular boshqa yurtlarda ham yashashi mumkinligini Garri xayoliga ham keltirmagan ekan.

Chodirli shaharcha asta-sekin uyqudan turmoqda. Birinchi bo‘lib bolali oilalar uyg‘onishgan. Jajji sehrgar bolachalar-u afsungar qizchalarni Garri umrida birinchi bor ko‘rishi. Oldiga ayvon solingan sinchli uy shaklidagi katta chodir hovlisida endigina ikki yoshga to‘lgan o‘g‘il bolacha chordana qurib o‘tirgancha, qo‘lidagi sehrli tayoqchani maysada sudralayotgan shilliqqurtga zavq-la o‘qtadi. Shilliqqurtning o‘lchami shu zahoti kolbasadek bo‘lib qoldi. Suv qidirib ketayotgan bolalar ushbu sehrgarchaga yetib qolishganda chodirdan onasi yugurib chiqdi.

– Shohjahon! Dadangning tayoqchasini tegma deb necha marta aytish kerak senga!... Voy!

Sehrgarchaning onasi bexosdan bosib olgan shilliqqurt yorilib ketdi. Onasining koyishlari bilan Shohjahonning qichqiriqlari ancha joygacha eshitilib turdi:

– Kuttchamni o‘ldiyib ko‘ydingiz! Kuttcham o‘yib qoldi!

Sal narida yoshi Shohjahondan uncha katta bo‘lmagan, o‘yinchoq supurgi egarlagan ikki nafar afsungar qizcha ko‘rindi. Supurgichalar yerdan ozgina baland ko‘tarilib, qizaloqlarning oyoq uchlari shudring qoplagan maysaga tegib uchmoqda. Qizaloqlarning bunday o‘yinini ko‘rgan vazirlik xodimi Garri, Ron va Germionaning yonidan o‘tar ekan, vaysadi:

– Kuppa-kunduz kuni-ya. Ota-onasi yotgandir, ichkarida...

Hamma yoq jonlandi. Sehrgar erkaklar-u, afsungar ayollar nonushta tayyorlashga kirishib ketgan. Ayrimlar atrofga o‘g‘rincha alanglab qo‘yib, sehrli tayoqcha vositasida o‘t yoqsa, ba’zi sehrgarlar bunday ahmoqona ish biron-bir foydali kor berishiga

shubha qilishsa ham gugurt chaqishga vijdonan urinishmoqda. Egniga uzun oq kiyim kiygan, aftidan, nihoyatda jiddiy mavzuga oid suhbat qurayotgan uch nafar habash-sehrgar sixga quyonga o'xshash nimadir tortib, to'q qizil olovda pishi-rib o'tiribdi. Ularning yonidagi chodirlar orasiga tortilgan «Salemlik afsungar ayollar dorilfununi» yozuvi bitilib, yaltiroq tangachalar bilan bezalgan lavha ostida esa o'rta yoshli ameri-kalik ayollar baxtiyor qiyofa kasb etgancha, suxanchinlik qilib o'tiribdi. Bolalar o'tib borayotgan chodirlar ichidan tushunarsiz tilda aytilayotgan uzuq-yuluq gaplar eshitildi. Garchi Garri ushbu so'zlarni tushunmagan bo'lsa ham quvnoq kayfiyat-la aytilayotganini angladi.

– Voy!... Ko'zimga bir nima bo'ldimi yoki haqiqatan ham hamma yoq yashil bo'lib ketdimi? – so'radi Ron.

Uning ko'ziga hech nima qilmagan. Bolalar sebarga[1] bilan o'ralgan chodirlar yoniga kelib qolishgan, xolos. Ushbu chodirlar yerdan o'sib chiqqan g'alati do'ngliklarga o'xshab ketadi. U yer-bu yerda ochiq qolgan yashil pashshaxonalar ichida kulib boqayotgan chehralar ko'rindi. Birdan orqada kimdir chaqirib qoldi:

– Garri! Ron! Germiona!

Tabassumdan chehrasi ochilib ketgan griffindorchi-sinfdosh Simus Finnigan ekan. U sebargadan to'qilgan chodir yaqinida, sariq sochli, chamasi, onasi bo'lsa kerak, ayol va uning yaqin do'sti, bolalarning yana bir griffindorchi-sinfdosh o'rtog'i Din Tomas yonida o'tiribdi.

– Chodirimiz pardozi yoqdimi? – so'radi u, salomlashgani yaqin kelgan Garri, Ron va Germionadan. – Vazirlik xodimlariga unchalik yoqmadi.

– Nega endi biz o'z yurtimiz rangini ko'z-ko'z qilmasligimiz kerak ekan? – xitob qildi missis Finnigan. – Yaxshisi borib, bolgarlar o'z lavhalari ustiga nimalarni ko'tarib olishganini ko'rishsin! Siz Irlandiyaga tarafdor bo'lasiz, albatta, shunday-

[1] **Sebarga** (Trifolium) – dukkakdoshlarga mansub bir, ikki va ko'p yillik o'tsimon o'simliklar turkumi, yemxashak ekini.

mi? – so‘rab qoldi ayol Garri, Ron va Germionaga shubha ila qarab.

Uchovlon missis Finniganni chindan ham Irlandiyaga tarafdor bo‘lishlariga ishontirishga urinib, yo‘lni davom etdi.

– Bunday doiralarda teskari ma’noda gapirib ko‘r-chi, nima bo‘lishini ko‘rasan! – dedi Ron, sal nari uzoqlashgach.

– Qiziq, bolgarlar o‘z lavhalari ustiga nima ko‘tarib olishgan ekan? – qiziqdi Germiona.

– Yuringlar, borib ko‘ramiz, – taklif qildi Garri, ustida Bolgariyaning qizil-yashil-oq bayrog‘i hilpirab turgan g‘uj-g‘uj chodirlar tomon qo‘l uzatib.

Ushbu chodirlar o‘simlik vositasida pardozlanmagan bo‘lsa ham har biriga qalin qoshli, xo‘mraygan shaxs rasmi osilgan. Tabiiyki, surat sehrgarlarning surati kabi harakatchan-u, lekin undagi shaxs tasviri deyarli hech nima qilmayapti. Faqat badqovoq ko‘zini ochib-yumib turibdi, xolos.

– Krum, – dedi Ron past ovozda.

– Nima? – tushunmadi Germiona.

– Krum, – ovoz ko‘tardi Ron. – Viktor Krum, bolgarlar jamoasining «Sayyod»i!

– Namuncha badqovoq bo‘lmasa, – dedi Germiona qovoq solib, ko‘zlarini pirpiratayotgan bir dunyo Krumlarga qarab chiqqach.

– Badqovoq? – so‘radi qoshi ko‘tarilib ketgan Ron. – Zohiriy ko‘rinishining nima daxli bor? Eng asosiysi, u zo‘r o‘yinchi! Aytganday, u hali juda yosh. Endigina o‘n sakkizga kirgan bo‘lsa kerak. «Sayyod» emas avliyo! Shoshmay tur, tunda o‘zing ko‘rasan!

Suv krani oldida qisqa navbat shakllanib qolibdi. Garri, Ron va Germiona qizg‘in bahslashayotgan ikki kishi ortida to‘xtab navbatga qo‘shilishdi. Ulardan biri egniga tunda kiyila-digan guldor ko‘ylak kiygan qariya bo‘lsa, qo‘liga yo‘l-yo‘l shim ushlab, yig‘lab yuborishiga sal qolgan ikkinchi kishi esa, aftidan, vazirlik xodimiga o‘xshaydi.

– Mana bu shimni kiyib olsang bo‘ldi, Archi. Shu turishing bilan yurmaysan-u, axir. Darvoza yonida turgan magl qanday

xayolga boradi. Shundoq ham u nimadandir shubhalanib qolgan ko'rinadi...

– Men bu kiyimni o'sha maglga o'xshash magllarning do'konidan xarid qilganman axir, – qaysarlik qildi qariya. – Magllar kiyadi buni...

– To'g'ri, Archi. Faqat egningdagi kiyimni magllarning ayollari uyquga yotishdan oldin kiyadi. Erkaklari kiymaydi, tushunsang-chi, – zorlandi vazirlik xodimi shim uzatib.

– Yo'q, rahmat, buni kiymayman, – dedi hech narsani tushunmayotgan qariya. – Orqada havo almashib turishi kerak...

Gap shu yerga kelganida Germionani shunaqangi kulgi tutib qoldiki, navbatdan otilib chiqib, ayollarning tungi ko'yla-gini kiygan keksa Archi suvini olib, nari ketganidan so'nggina tinchlanib, joyiga qaytdi.

Suv ko'tarib yurish oson bo'lmagani uchun bolalar chodir tomon nisbatan sekin borishdi. Hamma yoqda tanish chehralar: «Xogvars» o'quvchilari va ularning qavm-qarindoshlari. Maktabni endigina tamomlagan Oliver Drev Garrini ota-onasi bilan tanishtirish uchun chodirga tortib ketdi. U viqor-la zaxira «Go'-dakson Yunayted» jamoasiga qabul qilinganini ma'lum qildi. Shundan so'ng ularni «Xufflpuff» fakultetining to'rtinchi sinf o'quvchisi Erni Makmillan tutib oldi. Sal yurishgach, «Ravenklo» jamoasining «Sayyod»i, nihoyatda chiroyli qiz Chu Chengni ko'rishdi. Tabassum-la qo'l siltayotgan Chengga javoban qo'l siltamoqchi bo'lgan Garri egnini shalabbo qildi. Tishining oqini bekitishi uchun bo'lsa kerak, Garri Ronga notanish o'spirinlarning boshqa guruhini ko'rsatdi.

– Nima deb o'ylaysan, kim ular? – so'radi Garri. – «Xogvars»dan emas-u, to'g'rimi?

– Biron-bir xorijiy maktabdan bo'lishsa kerak-da, – javob berdi Ron. – Chet ellarda ham maktabimizga o'xshash ta'lim muassasalari borligini bilaman-u, ularda tahsil ko'rayotgan o'quvchilarning birortasi bilan hali uchrashmaganman. Bill qachonlardir braziliyalik bir o'quvchi bilan yozishib yurgan edi. Akam o'quvchilarni ayirbosh o'qitish dasturiga asosan Braziliyaga o'qishga borishni orzu qilgan-u, ota-onamning moliyaviy

imkoni yetmagan ekan. Bil Braziliyaga bora olmasligini yozib yuborgach, o'rtog'ining jahli chiqib, afsun qo'llanilgan shlapa yuboribdi. Uni kiygan Billning qulog'i quruqshab, bujmaydi.

Garri kulib qo'ydi-yu, xorijda ham sehrgar bolalar tahsil ko'radigan bilim dargohlari borligiga hayron bo'lganini ko'rsatmadi. Tevarak-atrof turli millat vakillari bilan qaynayotgan ushbu vaziyatda «Xogvars»ni dunyoda yagona sehrgarlik va afsungarlik san'ati maktabi deb bilish bema'ni fikr bo'lishini tushunib yetdi. U Ronning gapidan oz bo'lsa ham hayron bo'lmagan Germionaga ko'z qirini tashlab qo'ydi. Shubha yo'qki, Germiona biron-bir kitobdan o'xshash maktablar haqida o'qib bilgan.

– Tolqon yeb, suvga jo'natish kerak ekan-da sizlarni, – dedi Fred, chodirga yetgan bolalarni ko'rib.

– Tanish-bilishlarni uchratdik, – tushuntirdi Ron, kastrulkani yerga qo'yib. – O'zingiz hali o't yoqishga ham yaramabsizku!

– Dadam gugurt o'ynab o'tiribdi, – dedi Fred qoshi ila imo qilib.

Mister Uesli chindan ham o't qalash borasida muvaffaqiyat qozonmay o'tirgan ekan. Lekin tirishqoqlik bilan uringani ko'rinib turibdi. Uning atrofida singan gugurt donalari qalashib ketgan. Birdan uning qo'lidagi gugurt kutilmaganda chaqilib, o't oldi. Mister Ueslining yuzi katta baxtga erishgan kishi qiyofasini kasb etdi-yu, yonayotgan gugurt donasiga hayron bo'lib qarab qolgancha, qo'lidan tushirib yuborib «Voy!» deb qo'ydi.

– Menga bering, mister Uesli, – dedi Germiona muloyim ohangda.

Qiz gugurt bilan qanday muomala qilish kerakligini hammaga ko'rsatdi.

Nihoyat sayyohlar gulxan yoqishga muvaffaq bo'lishdi. Biroq olov lovullab, taom tayyorlashga yaroqli bo'lguncha bir soat o'tdi. Shunday bo'lsa ham bolalar ko'rib, tanishib o'tiradigan narsalar ko'p bo'ldi. Ma'lum bo'lishicha, Ueslilarning chodiri o'yingoh tomon olib boradigan asosiy so'qmoq bo'yida joylashgan ekan. Goh-gohida chodir yonidan Sehrgarlik vazir-

ligi xodimlari mister Uesli bilan salomlashib o'tishdi. Farzandlari vazirlik ishlari bilan keragidan ortiq boxabar bo'lgani uchun mister Uesli Garri bilan Germionaga chodir yonidan kim o'tgani-yu, u nima bilan shug'ullanishini qisqacha tushuntirib o'tirdi.

– Mana bu Katbert Mokrits, Goblinlar[1] bilan aloqa bo'limi boshlig'i... anavi esa Gilbert Temnil, Eksperimental sehr-jodu qo'mitasida ishlaydi. Uning boshidagi shoxchalar o'sib chiqqaniga ancha bo'ldi... Ana, Arni kelyapti... Arnold Murotvors, obliviator – favqulodda holatlarda sehr-joduga barham berish jamoasining a'zosi, bunday departament haqida aytgan edim, xabaringiz bor... Anavi ikkalasi Keshifr bilan Doda... ular Tavsiflanmaydiganlar...

– Kimlar? – tushunmadi Garri.

– Qisqasi, Sirli sehr bo'limida ishlashadi. Faoliyati o'ta maxfiy bo'lim. Nima bilan shug'ullanishlarini tasavvur ham qila olmayman...

Gulxan nihoyat avj olib, tuxum bilan sosiska pishirsa bo'ladigan holatga kelgach, o'rmondan Bill, Charli va Persi chiqib keldi.

– Endigina havoda paydo bo'lib chiqdik, dada, – e'lon qildi Persi, hamma eshitishi uchun baland ovozda. – Voy-bo'y, tushlik tayyorlayapsizmi! Zo'r-u!

Sayyohlar sosiska va tuxumlarning yarmini yeb tugatayotgan paytda mister Uesli qo'lini silkitgancha, o'rnidan irg'ib turib, basavlat yurib kelayotgan kishini chorladi.

– Aha! – qichqirdi u. – Bugungi kun qahramoni! Lyudo!

Magl ayollarning tungi ko'ylagini kiyib olgan qariya Archi inobatga olinganda ham Lyudo Shulman bugun uchragan eng dongdor shaxslardan biri bo'ldi. Enli qora-sariq yo'lli uzun kvidish kiyimini kiyib olgan Lyudoning ko'kragiga katta ari chaplab chizilgani ko'zga tashlanadi. Egnidagi korjoma Angliya terma jamoasi tarkibida o'ynab yurgan davrida bo'lmagan qornini mahkam siqib qo'ygan. O'ziga qaramay qo'ygan odam-

[1] **Goblinlar** (*fransuzcha*) – G'arbiy Yevropa mifologiyasiga ko'ra, yer osti g'orlarda yashovchi va quyosh nuridan qo'rqadigan, qisman inson tanasiga o'xshash tanaga ega bo'lgan afsonaviy maxluqlar.

ga o‘xshaydigan, baquvvat, «Tajovuzkor» to‘plardan biri pachoqlagan bo‘lsa kerak, burni singan Lyudoning yumaloq moviy ko‘zi, qisqa qilib olingan och sariq sochi va yuzining sog‘lom tusi haddan ortiq o‘sib ketgan juda yirik maktab o‘quv-chisining siymosini ifodalamoqda.

– Hey! – quvonch-la qichqirdi Shulman.

Kayfiyati haddan ortiq ko‘tarinki Lyudo oyog‘i ostiga prujina mahkamlanganday yurmoqda.

– Artur, qariya! Omonmisan! – pishilladi u, gulxan tomon yo‘l olib. – Qanday ajoyib kun, a! Juda ajoyib kun! Ayt-chi, bundan ortiq bequsur ob-havo bo‘lishi mumkinmi? Tungi osmon musaffo bo‘ladi... Hamma narsa benuqson tayyor-langan... Menga hech qanday ish qolmabdi!

Ayni shu paytda orqadan vazirlik sehrgarlarining tinkasi qurigan otryadi allaqayerda baland yonayotgan binafsharang sehrli gulxanni Shulmanga imo qilishgancha yugurib ketishdi.

Persi qo‘lini oldinga uzatib, Lyudoni qarshi olgani peshvoz chiqdi. Shulmanning o‘z tasarrufidagi departamentni boshqarish uslubi Persiga yoqmasa-da, unda yaxshi taassurot qoldirishga urindi chog‘i.

– Ha, aytganday, Lyudo, tanishinglar, – dedi mister Uesli Shulman bilan salomlashib. – Yoningda turgan yigit o‘g‘lim Persi. U vazirlikda ishlaydi. Bular ham mening farzandlarim Fred, yo‘q kechirasan, bu Jorj. Mana bunisi Fred. Bular Bill, Charli va Ron. Bunisi qizalog‘im Jinna. Bular esa Ronning do‘stlari Germiona Grenjer va Garri Potter.

Garrining ismini eshitgan Shulman bilinar-bilinmas bolaga takror qiyo boqib, tabiiyki ko‘zini Garrining peshanasidagi chandiqqa olib o‘tdi.

– Bolalar, – tanishtirishni davom etdi mister Uesli, – bu kishi Lyudo Shulman. U nima ish qilishini bilasizlar. Aynan Lyudoning yordami ila biz shunday yaxshi joylarga ega bo‘ldik.

Shulmanning chehrasi yashnadi-yu, arzimaydi deganday kamtarona qo‘l siltab qo‘ydi.

– O‘yinga biron narsa tikishni istamaysanmi, Artur? – zavq-la so‘radi Lyudo qora-sariq korjomasining cho‘ntaklari-dagi

durustgina tangalarni jiringlatib. – Roddi Pontner bilan bas bog'ladik. Uning fikricha, birinchi golni bolgarlar urar emish. Irlandiya jamoasining hujumchi-«Ovchi»laridek kuchli uchlikni ko'rmaganimga ko'p bo'lganini inobatga ola turib, o'zimga zarar keltiradigan bo'lsa ham shart qo'ydim. Yo'q, u bari bir garov o'ynadi. Agata Timms esa o'z tasarrufidagi ilon baliq yetishtirishga ixtisoslashgan ferma aksiyalarining[1] yarmini tikdi. Uning nazarida, ushbu o'yin bir hafta cho'zilar ekan.

– Xo'p... unday bo'lsa men irlandiyaliklar g'alaba qozonishiga bir galleon tikaman, – qaror qildi mister Uesli.

– Bir galleon? – dedi Shulman, hafsalasi pir bo'lgani sezilgan bo'lsa ham bu haqda fikr bildirmay. – Xo'sh, yana kim nima deydi?

– Ularga qimor o'ynagani hali erta, – tez gapga aralashdi mister Artur. – Molli bilib qolsa...

– Biz o'ttiz yetti galleon, o'n besh sklat va uch nut tikamiz, – e'lon qildi Fred.

Egizaklar cho'ntaklaridan pul chiqarishdi.

– Irlandiya yutadi, – dedi Fred. – Ammo «Tilla chaqqon»ni Viktor Krum tutib oladi. Ha, aytganday, biz mana bu soxta sehrli tayoqchani ham tikamiz.

– Mister Shulmanga bunday bema'ni narsa nima kerak? – vishilladi Persi.

Ammo mister Shulman sehrli tayoqchani bema'ni narsa sifatida ko'rmaydi chog'i. Aksincha, Fredning qo'lidan olgan tayoqcha qattiq chiyillab, rezina jo'jaga aylanib qolganini ko'rgach, yosh boladay zavqlanib, xandon otdi.

– Zo'r-u! Bunday puxta ishlangan qalbaki narsani ko'rmaganimga ko'p bo'lgan edi! Bunga besh galleon beraman, rozimisiz?

Jahli chiqqan Persi jim bo'ldi.

– Bolalar, – dedi mister Uesli vazmin ohangda, – dov tikishingizni istamagan bo'lar edim... Axir, bu sizlarning jamiki

[1] **Aksiya** [(*fransuzcha:* action – qimmatbaho qog'oz) – aksiyadorlik jamiyati chiqargan qimmatbaho qog'oz.

jamg'armangiz-ku... oyingiz...

– Mijg'ov bo'lma, Artur! – dedi jonlanib ketgan Lyudo Shulman kissasini jiringlatib. – Bolalar ancha katta bo'lib qolishgan. Nima qilishayotgani va nima istashayotganini juda yaxshi bilishadi! Demak, sizningcha, Irlandiya g'alaba qozonadi-yu, «Tilla chaqqon»ni Krum tutib oladi, shundaymi? Aslo unday bo'lmaydi, bolalar, hech qachon... Xo'p, mayli sizlarga ham o'zimga zarar keltiradigan shart qo'yaman... va mana bu pulingiz ustiga soxta tayoqcha uchun men to'laydigan besh galleonni ham qo'shamiz, to'g'rimi?...

Lyudo Shulman yashin tezligida qayeridandir yozuv daftarchasini chiqardi-da, egizaklarning ismlarini yozib oldi. Mister Uesli esa bo'layotgan ishga chor-nochor qarab qoldi.

– Ura! – qichqirdi Jorj, Shulmandan olgan pergament parchasini ko'krak kissasiga solib.

– Choy damlab berasizmi? – so'radi qilgan ishidan mamnun Shulman mister Uesliga yuzlanib. – Aytganday, men Barti Sgorbsni qidirib yurgan edim. Bolgariyalik hamkasbim juda qiynab yubordi. Allanima to'g'risida vaysaydi-yu, o'lay agar biror og'iz so'zini tushunsam. Barti esa bu masalada menga yordam berishi mumkin. Adashmasam, u yuz ellikta til biladiyov.

– Mister Sgorbsmi? – gapga aralashdi hozirgina bo'lib o'tgan ishdan norozilik qiyofasini yig'ishtirib qo'ygan Persi. – U ikki yuzdan ortiq tilda gaplasha oladi! – xitob qildi u entikib. – Mister Sgorbs hatto suv parilari tilida ham, troll[1] tilida ham, goblin tilida ham...

– Troll tilida hamma gaplasha oladi, – qo'l siltadi Fred. – Har tomon barmoq o'qtab, ich-ichdan asta na'ra tortsang bo'ldida.

Fredga g'azab-la qarab qo'ygan Persi choynak cho'g'ini

[1] **Troll** (*shvedcha:* Troll – joziba, sehr-jodu) – skandinaviya afsonalarida tilga olingan, ko'p ertaklarda uchraydigan maxluq. Trollar ushbu afsona va ertaklarda, odatda, inson dushmani sifatida, toshga o'xshash tog' ruhlari ko'rinishida tasvirlanadi. Trollar afsonalari Skandinaviyada paydo bo'lgan. Afsonalarga ko'ra, ular mahalliy aholini jodugarligi va bahaybatligi bilan qo'rqitgan. Ular, odatda, qal'a va yer osti saroylarida yashagan.

titkiladi.

– Lyudo, Berta Jorkinsdan biron-bir xabar bormi? – asta so'radi mister Uesli, gulxan yaqinidagi maysaga uzala tushib yotib olgan Shulmandan.

– Gumdon bo'ldi-yu, biron bir xabari kelmadi, – betash-vish javob berdi Shulman. – Go'rga ketadimi, topiladi-da! Be-chora Berta... uning miyasi tovuqnikidan ko'p farq qilmaydi, Artur. Buning ustiga geografiya masalasida Xudo urgan uni. Batamom ovsar. Adashib biror-bir yurtda kezib yurmagan bo'lsa, qulog'imni kesib tashlayman. Mana ko'rasan, oktabrda ishga chiqadi-da: «Hali iyul o'tgani yo'q-ku!», deya ko'zini chaqchaytirib turaveradi.

Persi Shulmanga choy uzatdi.

– Qidirgani odam jo'natadigan vaqt bo'ldi, shekilli-yu, a? – asta so'radi mister Uesli.

– Barti Sgorbs ham mana shu gapni qaytargani qaytargan, – ko'zini ochdi Shulman ma'sum qiyofa kasb etib. – Biroq hozir qidiruvga jo'natadigan odam yo'q! Chin so'zim. O'zing ko'rib turibsan-u, ahvolni! Ana, qaranglar, itni eslasang, qulog'i ko'rinadi! Barti paydo bo'ldi.

Gulxan yaqinida havoda sehrgar paydo bo'ldi. Eskirib ketgan kvidish kiyimida maysada cho'zilib yotgan Lyudo Shulmanning tashqi qiyofasi bilan solishtiriladigan bo'lsa, bu kishining qiyofasi keskin farq qiladi. Yoshi o'tgan, aftidan, rasmiyatparast, qaddini tik tutgan Barti Sgorbs egniga benuqson tikilgan, gard yuqmagan kostum kiygan bo'lib, galstuk taqqan. Oq oralagan qisqa sochi o'rtasidan g'ayrioddiy to'g'ri farq ochilgan. Cho'tkaga o'xshaydigan mo'ylovi esa xuddi chizg'ich vositasida o'lchab qirqilganday tekislangan. Botinkasi tozaligidan yarqiramoqda. Nima uchun Persi bu kishini sal kam Xudo deb bilib, unga sajda qilishini Garri endi tushundi. Qayerda bo'lmasin joriy etilgan barcha qonun-qoidalarga so'zsiz amal qilish shart ekanini Persi takror va takror ta'kidlab keladi. Mister Sgorbs esa Kubok o'yinlariga magllarga o'xshab kiyinib kelishga doir vazirlik tomonidan qo'yilgan talablarni shu qadar aniq bajaribdiki, deylik, magllar bankining boshqaruvchisidan

umuman farq qilmay qolibdi. Vernon amaki mister Sgorbsning asl tabiatini ko'ra bilishiga Garrida shubha tug'ildi.

– Tashla o'zingni maysaga, Barti, – taklif qildi quvonib ketgan Lyudo, yerga qo'l urib.

– Yo'q, Lyudo, rahmat, – dedi mister Sgorbs, yozg'iriq ohangda, – Seni qidirmagan joyim qolmadi. Bolgarlar Mo'tabar Lojadan[1] yana o'n ikkita joy ajratilishini talab qilishyapti.

– Ax, mana nima kerak ekan ularga! – xitob qildi Shulman, – Mo'tabar Loja degin. Men esa ularning gapini «Mo'jizador lozimanda», deb tushunibman. Inglizcha so'zlar talaffuzi biram mudhish-yey, ularning!

Bevosita boshlig'iga yarim ta'zim qilib turgan Persi bukriga o'xshab ko'rindi.

– Mister Sgorbs! – dedi u, deyarli eshitilmagan ovozda. – Choy damlaymi?

– O, Uezerbi! – hayron bo'ldi mister Sgorbs, Persi ham shu yerda ekaniga endigina e'tibor qilib. – Mayli, damlang, rahmat.

Fred bilan Jorj chashkalariga qaragancha hiringlab qo'yishdi. Qulog'i pushti tus olgan Persi esa choy damlashga kirishdi.

– Aytganday, Artur. Sen bilan ham maslahatlashib oladi-gan gap bor, – dedi mister Sgorbs o'tkir nigohini mister Uesliga qaratib. – Ali Boshir jang so'qmog'iga o'tib oldi. Uchar gilamlarni mamlakatimiz hududiga olib kirish borasida departamentingiz tomonidan joriy etilgan taqiqlar haqida sen bilan shaxsan gaplashib olmoqchi.

– O'tgan hafta aynan shu masala yuzasidan unga boyqush yo'llagan edim, uf tortdi Mister Uesli. – Men unga yuz marta, ehtimol, ming marta aytgandirman: gilamlar magllarning ro'z-g'or buyumi sifatida sehrlanishi man etilgan obyektlar ro'yxatiga kiritilgan, deb. Qulog'iga gap kiradimi o'zi uning?

– Bu masalada shubham bor, – dedi Persining qo'lidan choy olayotgan mister Sgorbs. – Aftidan, gilamlarini yurtimizga

[1] **Loja** (*fransuzcha:* loge; qadimiy *nemischa:* laubia – shiyponcha) – tomosha zalida bir necha kishi o'tirishi uchun ajratib yasalgan maxsus joy.

eksport[1] qilishni o'z oldiga qo'ygan bosh maqsad deb biladigan ko'rinadi.

– Bari bir uning gilamlari Angliya supurgilarining o'rnini bosa olmaydi-yu, shunday emasmi? – gapga aralashdi Shulman.

– Ali Boshiming fikricha, uchar gilamlar oilaviy harakat vositalari bozorida o'z o'rnini topar emish, – tushuntirish berdi mister Sgorbs. – Esimda, buvamda ham o'n ikki kishiga mo'ljallangan eksminster[2] gilami bo'lgan.

Davrada o'tirganlar orasida o'z ajdodlarining amaldagi qonun-qoidalarga rioya etganlari borasida hech qanday shubha tug'ilmasligi uchun bo'lsa kerak, mister Sgorbs darhol qo'shimcha qilib qo'ydi:

– Tabiiyki, o'sha davrlarda bunday gilamlar man etilmagan edi.

– Barti, ishlaring boshingdan oshib yotgan ko'rinadi, a? – beparvo so'radi Shulman.

– Yetadi, – quruq javob berdi mister Sgorbs. – Portshlyuslar harakatini beshta qit'ada tashkillashtirish oson kechadigan ish emas, Lyudo.

– Chempionat nihoyasiga yetgach, sizlardan baxtli odamni topish qiyin bo'lsa kerak, a? – so'radi mister Uesli.

– Baxtli? – taajjublandi Lyudo Shulman. – Oxirgi marta qachon bunday huzur qilganimni eslay olmayman, Artur!... Shunday bo'lsa ham oldinda yana bir hayot quvonchi kutmoqda, shundaymi, Barti? Hali ko'p narsalarni tashkillashtirishimiz kerak bo'ladi, a?

– Bu haqda gapirmaslikka kelishib olgan edik-ku! – dedi qoshi ko'tarilib ketgan mister Sgorbs. – Toki barcha tafsilotlar...

– Qo'ysang-chi, yana qanaqa tafsilotlar! – qo'l siltadi Shulman, bir gala pashsha qo'rganday. – Tafsilotlar allaqachon pishitilib, kelishib bo'lindi, shunday emasmi? Istagan narsamni tikishim mumkinki, yoshlarimiz bari bir tez orada hamma gapdan

[1] **Eksport** (*inglizcha: ye*xport < *lotincha:* yexportare – chetga (tashqi bozorga chiq[illegible]) – sotish yoki boshqa maqsadlarda chet ellarga mol yoki kapital chiqarish va chi[illegible] mol, kapital.

[2] **Yeksminster** – sobiq ministr (vazir).

xabar topishadi. «Xogvars»da o'tadigan bu tadbir...

– Bolgarlar kutyapti bizni Lyudo, – gapni keskin bo'ldi mister Sgorbs, biror ho'plam ichmagan choyni Persiga qaytargancha Shulmanning o'rnidan turishini kutib. – Choy uchun rahmat, Uezerbi.

Shulman cho'ntagidagi tangalarni jiringlatgancha, salmoqlanib oyoqqa turar ekan choyini simirib oldi.

– Uchrashguncha! – baland ovozda xayrlashdi u. – Mo'tabar Lojada birga o'tiramiz. O'yinni o'zim sharhlayman.

Barti Sgorbs boshini boadab irg'ib, Lyudo Shulman qo'l siltab xayrlashgach, ikkala sehrgar ham havoda daf bo'ldi.

– «Xogvars»da nima bo'ladi, dada? – shu zahoti so'radi Fred. – Qanday tadbir to'g'risida gapirdi u?

– Lyudo Shulmanning ta'biri ila aytganda, tez orada hamma gapdan o'zingiz xabar topasiz, – javob berdi mister Uesli kulib boqib.

– Oshkor etishga Sehrgarlik vazirligi tomonidan maxsus ruxsat berilmas ekan, bu gap qat'iy sir tutilishi shart bo'lgan maxfiy axborot sanaladi, – takabbur-la e'lon qildi Persi. – Mister Sgorbs maxfiy axborotni sizlarga aytmay, juda to'g'ri ish tutdi.

– Iltimos, ovozingni o'chir, Uezerbi, – dedi Fred, muloyim ohangda.

Kun xotimasida umumiy shodlik kayfiyati chodirli lager uzra jismonan his etiladigan bulutday ko'tarila boshladi go'yo. Qosh qoraygan mahalda yoz mavsumiga xos havoning o'zi zavq-shavqdan titray boshladi. Zulmat minglab odamlar ustiga qora parda kabi tushishi bilan bir vaqtda ehtiyot choralariga amal qilishga doir har qanday urinish behuda bo'ldi. Sehrgarlik vazirligi taqdirga tan berib, har daqiqa o'tgan sari ko'payib borayotgan sehr-joduni ochiqdan ochiq namoyon etish holatlariga qarshi kurashni bas qildi.

Bir necha fut narida turli tuman g'ayrioddiy mollar terilgan taxta qayishini bo'ynidan o'tkazib olgan yoki arava yetaklagan savdogarlar havoda paydo bo'la boshlashdi. Sotilayotgan bunday mollar orasida: Irlandiya uchun yashil va Bolgariya uchun

qizil tus berib yorishgancha, o'yinchilar ismini qichqirib aytadigan to'garakchalar; raqsga tushadigan sebarga chirmalgan yashil cho'qqidor shlapalar; chinakamiga na'ra tortadigan sherlar bilan bezalgan bolgar sharflari; siltaganda ikkala mamlakatning milliy madhiyasini ijro etadigan davlat bayroqlari; «Chaqmoq» rusumli supurgining chinakamiga uchadigan mitti modellari; mashhur o'yinchilarning odam kaftida yurib, o'zini o'zi maqtab baqiradigan mitti qomatlari va shu kabi har xil esdalik sovg'a-salom buyumlari ko'rindi.

Garri, Ron va Germiona esdalik sovg'a sotuvchilaridan birining yoniga borishdi.

– Men yoz bo'yi aynan mana shu buyumlar uchun pul to'pladim, – dedi Ron.

U o'ziga raqsga tushadigan sebarga chirmalgan yashil cho'qqidor shlapa, yashil tus berib yorishadigan to'garakcha va Bolgariya jamoasining «Sayyod»i Viktor Krumning mitti qomatini xarid qildi. Jajjigina Krum Ronning kaftida yashil to'garakchaga xo'mrayib yurdi.

– Voy-bo'y, bu yoqqa qarang! – qichqirdi Garri, mis binokllar to'la arava yoniga yugurib.

Ushbu binokllarda allaqanday chiroyli tugmalar-u, raqamli doiralar ko'p ekan.

– Keb qoling, omniokulyardan[1] ob qoling! – g'ayrat-la taklif qildi sotuvchi. – Qarang, omniokulyarning kuzatilayotgan vaziyatni takroran ko'rish... harakat sur'atini sekinlatish... kabi imkoniyatlari bor. Agar kerak bo'lsa, vaziyatning tegishli fursatini batafsil tahlil qilib ko'rsatishi mumkin. Uch dona oladigan bo'lsangiz, ikki donasiga atigi o'n galleon to'lasangiz bas.

– Ana bo'lmasam. Shlapa olishga ozgina shoshibman-da, – dedi Ron omniokulyarga qiziqib qarab.

– Uch dona olaman, – dedi Garri sotuvchiga murojaat qilib.

– Nima qilyapsan... kerak emas, – dedi Ron qizarib.

---

[1] **Omnikulyar** – G'arbiy Yevropa afsonalarida tasvirlanishicha, kuzatilayotgan tasvirni sekinlashtirib, qayta ko'rish kabi imkoniyatlari mavjud bo'lgan afsonaviy durbin (zarrabin).

Ota-onasidan boylik meros qolgan Garri boy ekanini Ron doimo qandaydir og'ir qabul qiladi.

– Ol, bu senga. Ammo Rojdestvo[1] bayramiga mendan hech narsa kutma, – dedi Garri Ron bilan Germionaga bittadan omniokulyar berib. – O'n yil kutma, tushundingmi?

– Kelishdik, – dedi Ron kulib.

– O-o-o, Garri, rahmat, – dedi Germiona zavqlanib. – Unday bo'lsa, men borib o'yin dasturini sotib olay...

Hamyonlarini yaxshigina bo'shatib olgan bolalar chodirga qaytishdi. Bill, Charli va Jinna ham bittadan yashil to'garakcha taqib olishgan. Mister Uesli esa Irlandiya bayrog'ini siltab o'tiribdi. Fred bilan Jorj hech narsasiz qolishdi. Ularning hamma puli Shulmanning kissasida ketdi.

O'rmon ortidan zangning uzoq eshitilgan qattiq zarbasi yangradi. Shundan so'ng daraxtlar orasida o'yingoh tomon olib boradigan yo'llarni yorituvchi qizil va yashil chiroqlar yondi.

[1] **Rojdestvo** (*ruscha:* Rojdestvo – tug'ilish) – Iso alayhissalomning tug'ilgan kuni munosabati bilan joriy etilgan bayram. Xristian dinining asosiy bayramlaridan biri. Iso tug'ilgan kun sharafiga cherkov joriy etgan. 25-dekabrda (ayrim mamlakatlarda Yuliy taqvimi bo'yicha, boshqalarida Grigoriy taqvimi bo'yicha) nishonlanadi.

VIII BOB. JAHON KUBOGI

Bozorliklarini mahkam ushlagan bolalar mister Uesli boshchiligida fonuslar yoritgan so‘qmoq bo‘ylab o‘rmon ichiga kirishdi. Atrofda eshitilayotgan shitir-shitir tovushlar, xitob, o‘yin-kulgi, qo‘shiq o‘rmonda borayotgan bolalarga tumonat odam hamroh bo‘lib kelayotganidan darak bermoqda. Haya-jonli, oshig‘ich to‘lqinlanish kayfiyati shu qadar yuqimliki, Garri, Ron va Germiona ham yurgan yo‘lida kuygan kalladek beixtiyor kulib borishdi. Ular baland ovozda suhbat qurib, hazil-mutoyiba qilib taxminan yigirma daqiqa yurgach, o‘rmonning narigi tomoniga yetishdi. Odamlarning ko‘z o‘ngida tillarangli ulug‘vor devor bilan o‘ralgan bepoyon o‘yingoh paydo bo‘ldi. Zim-ziyo qorong‘ilikda qad ko‘targan devorning atigi bir qismi ko‘rinayotgan bo‘lsa ham Garri, ushbu o‘yingoh sarhadlariga bir emas o‘nta alohida sobor[1] joylashishi mumkinligini tasavvur qildi.

– Yuz ming o‘rinli o‘yingoh, – dedi mister Uesli Garrining hang-mang bo‘lganini ko‘rib. – Uni barpo etish uchun vazirlikning besh yuz nafar xodimi yil bo‘yi ter to‘kdi. Mana bu devorning har bir dyumi maglcho‘chitish afsuni bilan qoplangan. Yil davomida o‘yingohga yaqinlashgan har qanday magl bu yerlardan, yodiga qandaydir shoshilinch ishi tushib, juftakni tez rostlaydigan bo‘lib qoldi... bechoralar, – qo‘shib qo‘ydi u muloyimlik bilan.

U bolalarni o‘yingohning yaqin o‘rtadagi xaloyiq to‘planib qolgan kirish eshigi tomon yetakladi.

– Zo‘r joylar, Artur! Mo‘tabar Loja! – xitob qildi chiptani tekshirgan afsungar ayol. – Yuqoriga, oxirigacha ko‘tariling!

Zinaga to‘q qizil gilam to‘shalgan. Ular chap va o‘ng tomondagi namoyishgohlarga olib kiradigan eshiklar tomon tarqalib, tobora siyraklashib borayotgan xaloyiq bilan birga yuqoriga ko‘tarilishdi. Mister Ueslining hamrohlari esa yo‘lni

[1] **Sobor** – xristianlikda oliy martabali ruhoniylar toat-ibodat qiladigan ibodatxonasi.

davom etdi. Nihoyat ular namoyishgohning eng yuqori nuqtasiga chiqib, tilla xodalarning o'rtasida joylashgan kichik lojaga yetib kelishdi. Bu yerda tilla suvi yuritilgan yigirmatacha to'q qizil kreslo ikki qator o'rnatilgan. Garri qolgan Ueslilar bilan birgalikda oldingi qatorga joylashdi. Uning ko'z oldida o'xshashi topilmas, ko'rmasdan tasavvur qilish qiyin kechadigan manzara ochildi.

Tuxumsimon shaklidagi uzun maydonni o'rab turgan ko'p qavatli namoyishgohlar minglab sehrgar erkaklar-u, afsungarlar ayollar tomonidan asta-sekin egallanmoqda. Hamma yoqni o'yingoh taratayotgan tilla tusli ajib shu'la qamrab olgan. Yuqoridan qaralganda o'yin maydoni baxmal kabi tekis va silliq ko'rindi. Maydonning qarama-qarshi tomonlarida uchtadan, har birining bo'yi ellik fut keladigan, halqali xodalar tik o'rnatilgan. Mo'tabar Lojaning qarshisida, deyarli ko'z sathida toshtaxta o'rnatilgan. Ushbu taxtada, xuddi kimningdir ko'rinmas qo'li yozib, so'ng o'chirayotganday satrlar yugurmoqda. Yozuv mazmuniga e'tibor qilgan Garri uning reklama matni ekanini angladi.

Oila tarkibi uchun mo'ljallangan, ishonchli, xavfsiz, o'g'rilarga qarshi signalizatsiya[1] *vositasi bilan jihozlangan «Gurtenziya» rusumli supurgi... Missis Shvabersning rasvogarchilikni o'chirish universal vositasi: zahmat chekmay – dog'siz bo'lish!... O'Trebyenning modalar do'koni – London, Parij va Xogsmyoddan keltirilgan sehrgarlar kiyimi...*

Garri yon-atrofiga qaradi: qiziq, Mo'tabar Lojada yana kimlar o'tiribdi ekan? Orqa qatorda, oxiridan oldingi o'rinda o'tirgan mittigina maxluqdan boshqa hozircha hech kim yo'q. Yuzini kafti bilan to'sib olgan, oshxona sochig'ini tanasiga toga[2] sifatida o'rab olgan ushbu maxluqchaning qisqagina oyog'i kreslodan osilib tushmay, oldinga turtib chiqqan. Maxluqchaning ko'rshapalak qulog'iga o'xshash katta qulog'i

[1] **Signal** (*nemischa:* Signal < *lotincha:* signum – belgi) – 1) biror ma'lumot, buyruq, xabar va shu kabilarni yaqin yoki uzoq masofaga yetkazish, kishilarni o'ziga qaratish, ogohlantirish, tartibga chaqirish uchun qo'llanadigan shartli belgi, ishora, tovush. **Signalizatsiya** *(fransuzcha:* signalisation – belgilarni masofaga uzatish) – signallar sistemasi va signal beruvchi asboblar, qurilmalar majmui.

[2] **Toga** – qadimgi Rim erkaklarining ustki kiyimi.

Garriga sal-pal tanish ko'rindi...

– Dobbi? – hayron bo'ldi u.

Boshini ko'targan mitti maxluq, yuziga bosib olgan barmoqlarini ikki tomonga surib, katta jigarrang ko'zi va o'lchami ham shakli ham yirikkina pomidorga o'xshash burnini ochdi. Yo'q, bu Dobbi emas, lekin Garrining o'rtog'i Dobbi kabi uy elfi[1] ekani shak-shubhasiz. Garri Dobbini shafqatsiz sohibi Malfoydan xalos etib, ozodlikka chiqargan.

– Ser meni Dobbi deb chaqirdimi? – so'radi barmoqlarini yuzidan olmagan elf hayron bo'lib.

Garri, bunday maxluqlar jinsining farqiga bormasa ham Dobbining ovoziga nisbatan ingichka, past va titroq eshitilgan chiyildoq ovozidan, ushbu elfni urg'ochi bo'lsa kerak degan xayolga bordi. Ron bilan Germiona keskin o'girilib maxluqchaga qaradi. Ular Dobbi haqida ko'p eshitishgan bo'lsa-da, hali biror marta bo'lsin, ko'rishmagan. Hatto mister Uesli ham qiziqib boshini o'girdi.

– Ma'zur tuting, – dedi Garri elfga. – Men sizni bir tani-shim bilan adashtirib qo'yibman.

– Dobbi mening ham tanishim bo'ladi, ser! – chiyilladi elf.

Mo'tabar Loja kuchli yoritilmagan bo'lsa ham elf, xuddi ko'zini nurdan to'sib olganday yuzini qo'li bilan yana bekitib oldi.

– Mening ismim Vinki, ser... siz esa ser, – dedi desert[2] likopiday keladigan jigarrang ko'zini bolaning peshanasidagi chandiqqa qaratgan elf, – siz, ser Garri Potter ekanligingizga shubha yo'q!

– Xuddi shunday, – tasdiqladi Garri.

– Dobbi siz haqingizda juda ko'p gapiradi, ser! – dedi Vinki qo'lini sal pastroq tushirib.

---

[1] **Elf** (*nemischa: elf – alb – oq* ma'nosini anglatadi) – qadimgi Skandinaviya afsonalarida: arvoh, pari kabi afsonaviy maxluq. Elflar – germanskandinaviya va kelt folklorida (xalq og'zaki ijodida) tilga olingan sehrgar xalq. Alvlar nomi bilan ham ma'lum. Elflar tavsifi turli afsonalarda har xil keltirilgan bo'lishiga qaramay, insonga do'stona munosabat bildiradigan, nihoyatda go'zal maxluqlar, o'rmon ruhlari sifatida gavdalantirilgan.

[2] **Desert** (*fransuzcha:* dessert – so'nggi ovqat; ovqatning qolgani) – issiq ovqatdan keyin yeyiladigan yoki ichiladigan shirin taom (tort, konfet, ichimliklar, ho'l meva kabilar).

U, aftidan, esankirab qolganga o‘xshadi.

– Dobbining ishlari qalay, – qiziqdi Garri. – Hurriyat yoqdimi unga?

– Ax, ser, ser, – bosh chayqadi Vinki. – Sizni xafa qilmoqchi emasman-u, Dobbini ozod etib, unga ko‘p yordam bera olmadingiz chog‘i.

– Nega endi? – taajjublandi Garri. – Unga nima qildi?

– Hurriyat boshini aylantirib qo‘ydi, ser, – ma’yus javob berdi Vinki. – Qo‘lidan kelmaydigan ishga bel bog‘ladi. Endi esa o‘ziga ish topa olmayapti, ser.

– Nega endi? – yana takrorladi Garri.

– Ish haqi talab qilyapti, ser, – ovozini pasaytirib pichirladi Vinki.

– Ish haqi? Buni... bunisi nimasi yomon? – hayron bo‘ldi Garri.

Uning gapini eshitgan Vinki qattiq taajjublanib, barmoqlari bilan yuzining yarmini to‘sib oldi.

– Uy elflariga ish haqi to‘lanmaydi, ser! – bo‘g‘iq chiyil-ladi u. – Yo‘q, yo‘q, yo‘q, ser. Men Dobbiga o‘zini bosib olishi, biron-bir yaxshi xonadon topib, xizmatini qilishini maslahat berdim. Uning miyasida esa, aksincha, elfga yarashmaydigan har xil bo‘lmag‘ur g‘oyalar qaynayapti. Agar shu ahvolda da-vom etsa, uni shartta bosib olishib, allaqanday goblinga o‘x-shatgancha Sehrli maxluqlar ustidan nazorat bo‘limiga tortqilab topshirishlarini aytdim.

– Umuman aytganda, Dobbi biroz dam olsa, yomon bo‘l-maydi, – fikr bildirdi Garri.

– Uy elflarining qismatiga dam yozilmagan, Garri Potter, – qat’iy ma’lum qildi Vinki barmoqlari orasidan qarab. – Uy elfi o‘ziga tayinlangan ishni bajarishi shart. Mana misol uchun men, balandlikdan o‘lgunday qo‘rqaman, Garri Potter, lekin sohibim shu yerda o‘tirishni amr qilgan ekan, o‘tiribman, ser.

Vinki, lojaning chetiga titrab-qaqshab qaragancha, yutinib qo‘ydi.

– Balandlikdan qo‘rqishingizni bila turib, nega u sizni bu yerga jo‘natdi? – qoshini chimirdi Garri.

– Sohib... sohib... joy band qilib turishni buyurdi, Garri Potter, u juda ham serish kishi, – tushuntirgan bo'ldi Vinki, bo'shliq tomon bosh irg'ib. – Vinki o'z sohibining chodiriga qaytishni juda xohlaydi, Garri Potter, lekin Vinki tayinlangan ishni bajaradi. Vinki juda yaxshi uy elfi.

Urg'ochi elf titrab-qaqshab lojaning chetiga yana bir bor qaragancha, dahshatdan yuzini to'sib oldi. Garri sheriklari tomon o'girildi.

– Uy elfi degani shu ekan-da, – g'udulladi Ron. – Ja g'alati bo'lar ekan-u.

– Dobbi bundan o'tib tushadi, – dedi Garri.

Ron omniokulyarini chiqarib, narigi tomondagi odamlarga yo'naltirgancha, optik asbob ishini tekshirishga kirishdi.

– Zo'r-u! – xitob qildi u, takroriy ko'rsatish richagini[1] burab. – Ho' anavi kishini yana bir bor... yana bir bor... va yana bir bor burun kovlashga majbur qila olar ekanman.

Bu vaqtda Germiona popuk osilgan baxmal muqovali o'yin dasturini zavq-la varaqlab chiqdi.

– O'yin boshlanishidan oldin jamoalarni qo'llab-quvvatlash guruhlarining chiqishlari bo'lar ekan, – o'qidi u, ovoz chiqarib.

– O-o, unday tomoshalar juda qiziq o'tadi! – xitob qildi mister Uesli. – Har bir mamlakatning terma jamoasi tumor sifatida ham, o'zini boshqalarga ko'rsatib qo'yish uchun ham... yurtining sehrli maxluqlarini o'zi bilan, albatta, olib yuradi.

Bolalar o'tirgan loja keyingi yarim soat ichida tomoshabinlarga asta to'la boshladi. Mister Uesli vazirlikning, aftidan, juda katta mansabdor shaxslari bilan tinimsiz qo'l berib salomlashdi. Persi o'rnidan shu qadar tez-tez turib-o'tirdiki, chetdan kuzatgan odam uning kreslosida tipratikan bo'lsa kerak, deb o'ylashi turgan gap. Lojaga sehrgarlik vaziri Kornelius Fuj kirib kelganida esa Persi shu qadar chuqur ta'zim qildiki, ko'zoynagi tushib ketib, chilparchin bo'ldi. Haddan ortiq xijolat tortgan Persi

[1] **Richag** (*ruscha;* to'qmoq, so'yil, gavron) – biror tayanch nuqtasiga ega bo'lgan va oz kuch bilan katta kuchni muvozanatga keltiradigan oddiy qurilma.

ko‘zoynagini sehrli tayoqcha vositasida tuzatib oldi-da, kreslosidan qaytib turmadi. Lekin Kornelius Fuj o‘zining qadrdon do‘sti kabi salomlashgan Garriga hasad-la qarab qo‘ydi. Garri bilan muqaddam uchrashgan Fuj bolaning qo‘lini otalarcha siltab, ishlari bilan qiziqdi va yonida o‘tirgan sehrgarlarga tanishtirdi.

– Tanishing, Garri Potter, – dedi u Bolgariya sehrgarlik vaziriga.

Zar uqa bilan adiplangan serhasham qora baxmal kiyim kiygan bolgar vaziri ingliz tilini mutlaqo tushunmaydigan ko‘rinadi.

– Garri Potter, tushunyapsizmi... nima qilsam bo‘lar ekan sizlarni... bu bola kimligini bilasiz... «O‘zingiz-Bilasiz-Kim» o‘ldira olmay, omon qolgan bola bu... u haqda eshitgansiz, albatta...

Birdan Bolgariya vaziri Garrining peshanasidagi chandiqqa e’tibor berib, allanimalarni vaysay boshladi.

– Xayriyat, tushundi, – dedi uf tortgan Fuj Garriga murojaat qilib. – Til bilmasang ham, bir balo. Barti Sgorbs kerak. Ha, ana, uning elfi sohibiga joy band qilib turibdi... bir tomondan band qilib qo‘ygani ham juda yaxshi bo‘libdi. Mana bu bolgar nusxalarga qo‘yib bersang, eng yaxshi joylarning hammasini egallab olishdan toymaydi... Ana Lyutsius ham yetib keldi!

Garri, Ron va Germiona uchovlon bir vaqtda orqaga o‘girildi. Ikkinchi qatordagi uchta bo‘sh o‘rinni Dobbining sobiq xo‘jayinlari Lyutsius Malfoy, uning o‘g‘li Drako va yana bir ayol, aftidan, Drakoning onasi bo‘lsa kerak, egallashdi.

Drako Malfoy bilan Garri ikkalasi «Xogvars-Ekspress»da ilk bor uchrashgan kundan buyon bir-biriga dushman bo‘lib qolishgan. Rangpar yuzi biroz cho‘zilgan, sochi kumush rangli, «Slizerin» fakultetida tahsil ko‘radigan dimog‘dor Drako quyib qo‘ygandek otasiga o‘xshar ekan. Onasining ham sochi oq sariq bo‘lib, bo‘yi novcha, qaddi-qomati kelishgan. Agar yuzini xuddi burnining tagiga allaqanday qo‘lansa narsa surtib qo‘yil-ganday burishtirib olmaganida, ushbu ayolni sohibjamol desa bo‘lar edi.

– A-a, Fuj, – ovoz berdi mister Malfoy vazirga qo‘l uzatib.

Sog'ligingiz yaxshimi? Adashmasam, rafiqam bilan tanish emassiz? Narsissa... va o'g'limiz Drako.

– Xursandman, xursandman, – g'udulladi Fuj, tabassum-la missis Malfoyga ta'zim aylab. – Ijozatingiz bilan men ham tanishtirib o'tsam. Bu kishi mister Oblansk... Obalonsk... qisqasi Bolgariya sehrgarlik vaziri. Bari bir inglizchani tushunmaydi. Shunday ekan unga e'tibor qilmasangiz ham bo'laveradi. Xo'sh, o'ylaymanki, Artur Uesli bilan tanishsizlar?

G'ayritabiiy sukut qaror topdi. Mister Uesli bilan mister Malfoy bir-biriga qarab qolishdi. Garri ularning «Jimjimador va siyoh dog'i» kitob do'konida mushtlashuv bilan yakun topgan uchrashuvlarini esga oldi. Mister Malfoy o'zining po'latrangli ko'zi bilan mister Uesliga diqqat bilan sovuq razm solib, kreslolarning oldingi qatoriga ko'z yugurtirib chiqdi.

– O, Xudo, – asta xitob qildi u. – Mo'tabar Lojadan joy olish uchun nima ish qilgan eding, Artur? Axir, uyingni sotsang ham, shuncha pul olmas eding-ku?

Ularning suhbatiga quloq solmagan Fuj quvonch-la ma'lum qildi: – Artur, senga shuni aytib qo'ymoqchimanki, Lyutsius tunov kuni Muqaddas Rezgi kasalxonasi – g'alati jarohat va patologiyalar institutiga olihimmat xayr-ehson qildi. Bu yerga esa mening taklifim bilan tashrif buyurdi.

– Juda... yaxshi ish bo'libdi, – dedi mister Uesli zo'rma-zo'raki jilmayib.

Mister Malfoy nigohini Germionaga qaratdi. Qizning rangi pushti tus oldi-yu, lekin mister Malfoyning nigohini qat'iy qarshi oldi. Garri mister Malfoyning nima sababdan istehzoli irshayib qarayotganini juda yaxshi biladi. Malfoylar asilzoda sehrgarlar toifasiga mansubligidan juda kekkayadilar. Boshqa-cha qilib aytganda, Malfoylar magllardan chiqqan sehrgarlarni past tabaqali kishilar sifatida ko'rishadi. Biroq ayni damda mister Malfoy sehrgarlik vaziri oldida o'zining ushbu masalaga oid noma'qul fikrini bildira olmaydi. U mister Uesliga nafrat-la bosh irg'idi-da, o'z joyi tomon yo'l oldi. Drako ham Garri, Ron va Germionaga kalondimog' qarab qo'yib, ota-onasining ortidan ergashdi.

– Qaltis hayvonlar, – to‘ng‘illadi Ron.

Uchovlon o‘yin maydoniga yuzlandi. Shu paytda lojaga Lyudo Shulman hovliqib kirdi.

– Jamoa jammi? – qahqahlab qo‘ydi u.

Uning yum-yumaloq basharasi bir kalla edam pishlog‘i kabi yaltiramoqda.

– Muhtaram vazir, boshlashga tayyormisiz? – so‘radi u.

– Sen tayyor bo‘lsang bas, Lyudo, men hamisha tayyorman, – xayrixohlik-la inontirdi Fuj.

Lyudo sehrli tayoqchasini chiqarib, o‘z tomog‘i tomon bir siltadi.

– Sonorus! – murojaat qildi u, o‘yingohga yig‘ilgan tomoshabinlarga.

Uning ovozi namoyishgohlarni oxirigacha to‘ldirib o‘tirgan tomoshabinlarning shov-shuvini batamom bosib ketdi.

– Muhtaram xonimlar va janoblar... Xush kelibsiz! Kvidish bo‘yicha to‘rt yuz yigirma ikkinchi jahon chempionatining final o‘yiniga xush kelibsiz!

Tomoshabinlar ayyuhannos solib, qarsak urishdi. Havoda minglab bayroqlar chayqalib, umumiy shovqin-suronga bir maromda yangramagan milliy madhiyalar aralashib ketdi. Kattakon toshtaxtadagi so‘nggi: *Barcha ta'mlarni o'ziga mujassam etgan Berti Bott yong'oqlari. Har bir yutumda halokatli tahlika!* reklama matni g‘oyib bo‘lib, o‘rniga «*BOLGARIYA: 0, IRLANDIYA: 0*» yozuvi paydo bo‘ldi.

– Hozir esa hech qanday sustkashlikka yo‘l qo‘ymay, e’tiboringizga Bolgariya jamoasini qo‘llab-quvvatlash guruhining chiqishi havola etiladi!

Namoyishgohlarning yagona xalq ommasidan tashkil topgan qizil rangli o‘ng tomoni e’lonni ma’qullagancha bo‘kirib yubordi.

– Qiziq, juda qiziq, – dedi mister Uesli biroz oldinga egilib. – Ax!

Birdan u ko‘zoynagini yechib, korjomasining etagiga juda tez artib oldi-da, yana taqdi.

– Veylalar! – xitob qildi mister Uesli.

– Veyla deganingiz ni...?

Garrining og'zida qolib ketgan savoliga o'yingohga sirpanib chiqqan yuztacha veylani ko'rib, javob topdi. Bu ayollar... Garri umrida ko'rmagan nihoyatda sohibjamol ayollar... Faqat ular... ular odam bo'lishi mumkin emas... Garrining boshi qotdi. Odam bo'lishmasa, kim ular? Nima uchun ularning badanlari kumush singari, yaltiramoqda? Nega ularning oq tilla tusli sochi shamol yo'qligiga qaramay, bu qadar chiroyli hilpirayapti? Musiqa yangradi. Endi Garrini veylalarning g'ayriinsoniy tabiati ham, umuman aytganda, boshqa narsalar ham mutlaqo qiziqtirmay qo'ydi.

Veylalar raqs tushishga kirishdi. Garrining xushbaxt miyasi batamom bo'shadi. Muhimi veylalar o'z raqsini to'xtatmasin. Aks holda mudhish hodisa yuz berishi mumkin...

Veylalarning raqs sur'ati jadallashib bordi. Garrining gangib qolgan xayolida aqlga sig'maydigan, mubham fikrlar tug'yon ura boshladi. Shu tobda u biron-bir salmoqli ish ko'rsatishni istadi. Mana shu lojadan maydonga sakrasinmi... yaxshi fikr... lekin chindan ham yaxshimikan?

– Garri, nima qilyapsan? – uzoqdan eshitildi Germionaning ovozi.

Musiqa to'xtadi. Garri ko'zini pirpiratib oldi. Qarasa, oyog'ini juftlagancha, lojaning chetiga turib olibdi. Ron ham aynan shu holatda, tramplindan[1] sakrashga shay bo'lganday, uning yonida turibdi.

Hamma yoqdan tomoshabinlarning darg'azab qichqirig'i eshitildi. Xalq veylalarni qo'yib yuborishni xohlamayapti. Garri ularga vujudi ila berilgan. Turgan gapki, endi u Bolgariya jamoasiga muxlislik qiladi. Garri ko'kragiga qadab qo'yilgan yashil sebargaga qarab hayron bo'ldi. Xayoli qochgan Ron esa shlapasidagi sebargani uzib o'tiribdi. Mister Uesli muloyim kulib, Ronning qo'lidagi shlapani olib qo'ydi.

– Irlandlar chiqsin, ko'rasan, bu senga juda kerak bo'ladi.

[1] **Tramplin** (*fransuzcha*) – chang'ida uchish va suvga sakrash sportida mumkin qadar uzoqqa yoki balandga sakrash uchun yasalgan maxsus moslama.

– A-a? – dedi og‘zini katta ochgan Ron, maydonning bir tomoniga tekis saf tortgan veylalarga angrayib.

Tilini qattiq taqillatgan Germiona Garrini tortib, joyiga o‘tqizib qo‘ydi.

– O‘zingni idora qilsang-chi! – so‘kib berdi qiz.

– Endi esa, muhtaram xonimlar va janoblar, – yana yangradi Lyudo Shulmanning ovozi, – marhamat qilib sehrli tayoqchalaringizni ko‘taring... va Irlandiya jamoasini qo‘llab-quvvatlash guruhini qarshi olib, olqishlang!

Keyingi fursatda o‘yingohga yashil-tillarangli nihoyatda ulkan kometa[1] yopirilib kirdi. U o‘yin maydoni uzra gir aylanib, ikkita, nisbatan kichikroq kometaga bo‘lindi-da, o‘yingohning ikki tomonidagi halqali xodalar tomon uchdi. Daf’atan maydon uzra, ushbu ikkita yorug‘lik sharini o‘zaro bog‘lagan kamalak hosil bo‘ldi. Xaloyiq salut otilganda xitob qilganday, baland ovozda «Oh! Ax!» deya o‘kirdi. Shundan so‘ng kamalak xiralashib, yorug‘lik sharlari yana birlashdi-da, hilpirab turgan katta sebargaga aylanib, osmonga baland ko‘tarildi va namoyishgohlar ustida asta suza boshladi. Ayni vaqtda undan... ha, ha, tilla tangalar yomg‘iri quyildi...

– Qoyil! – qichqirdi Ron, sebarga ular ustidan uchib o‘tganda.

Sebargadan tomoshabinlarning boshi-yu, kreslolardan sapchib uchgan og‘ir tilla tangalar to‘kildi. Ko‘zini qisib, yuqoriga qaragan Garri ushbu sebarga aslida egniga qizil nimcha kiyib, qo‘liga yashil fonuscha ushlagan, hammasi birday soqolli minglab mitti odamchalardan tashkil topganini idrok etdi.

– Neprechyomlar! – gulduros qarsaklar ichra xitob qildi mister Uesli.

Namoyishgohlardagi aksariyat odamlar kursilar ostida bir-birini turtgancha, tilla terishga kirishib ketdi.

– Ma, ol, – baqirdi baxtiyor Ron, Garrining qo‘liga bir siqim tilla tanga ushlatib. – Bu omniokulyar uchun! Endi Rojdestvoga

[1] **Kometa** (*yunoncha:* kometes – uzun, paxmoq sochli) – tumansimon nurlanuvchi bulut hamda dumga o‘xshash nurli chiziq ko‘rinishiga ega bo‘lgan osmon jismi; dumli yulduz.

menga sovg'a olib berishing kerak bo'ladi, ha-ha-ha!

Ulkan sebarga ko'z ochib yumguncha havoda daf bo'ldi. Neprechyomlar o'yin maydoniga, veylalarning ro'parasiga tushib, kvidish tomosha qilish uchun chordana qurgancha o'tirib olishdi.

– Xonimlar va janoblar, – yangradi Lyudo Shulmanning ovozi. – Qarshi oling... Kvidish bo'yicha Bolgariya milliy terma jamoasi! Ijozatingiz bilan tanishtirib o'taman: Dimitrov!

Supurgi egarlagan qizil kiyimli o'yinchi muxlislarning gulduros qarsaklari ostida o'yingoh pastidan havoga shu qadar tez uchib ko'tarildiki, tomoshabinlar ko'ziga xira dog'day ko'rindi.

– Ivanova!

Ikkinchi o'yinchi ham shu tarzda uchib chiqdi.

– Zograf! – davom etdi Lyudo Shulman. – Levski! Vulchanov! Volkov! Va-a-a Kru-u-u-um!

– Ana u, ana u! – baqirdi Ron, Krum ortidan omniokulyarni burib.

Garri o'zining omniokulyarini tez sozladi.

Qora sochli ozg'in Viktor Krum yuzining rangi siniq-qanligi, burni kattaligi va qora qoshi qalinligi bilan ajrab turibdi. Yoshi o'n sakkizga kirganiga ishonish qiyin.

– QARSHI OLING!... – zo'r berib baqirdi Shulman. – Kvidish bo'yicha Irlandiya milliy terma jamoasi! Tanishtirib o'taman: Konnoli! Rayan! Troy! Mullet! Moran! Kvigli! Va-a-a Linch!

O'yin maydoniga yettita yashil dog' uchib chiqdi. Garri omniokulyardagi mitti murvatni burab, o'yinchilar harakatini shu qadar sekinlatdiki, supurgilaridagi «Chaqmoq» so'zi va o'yinchilar kiyimining orqa tomoniga tikib bitilgan kumush-rangli familiyalarni o'qiy oldi.

– O'yin hakami, – tanishtirdi Shulman, – olis Misrdan tashrif buyurgan, Xalqaro kvidish assotsiatsiyasining[1] sehrgarraisi hurmatli Xasan Mustafo! Olqishlar!

O'yin maydoniga kichkinagina, majmag'il, egniga o'yin-

[1] **Assotsiatsiya** (*lotincha*) – umumiy maqsadga erishish uchun tuzilgan uyushma.

goh rangiga mos korjoma kiygan, tepa kal, ammo Vernon amaki havas qilsa arziydigan uzun mo'ylovli sehrgar chiqdi. Mo'ylov ostida kumush hushtak ko'rindi. Hakam bir qo'liga katta savat qo'ltiqlab, ikkinchisiga supurgi ushlab chiqdi. Garri omniokulyarning tezlik rostlagichini burab, me'yoriy holatga keltirdi va Mustafoning supurgi egarlagani hamda oyog'i bilan bir tepib, savat qopqog'ini ochganini ko'rdi. Savat ichidan to'rtta to'p, xususan: bitta qizil «Kvaffl», ikkita «Tajovuzkor» va ko'zdan g'oyib bo'lishidan oldin Garri bir soniya ichida ko'rib qolishga ulgurgan mittigina, qanotli «Tilla chaqqon» otilib chiqdi. Qattiq hushtak chalgan Mustafo to'plar ortidan havoga ko'tarildi.

– To'plar HAVODA-A-A! – o'kirdi Shulman, – «Kvaffl» Mulletda! Troy! Moran! Dimitrov! Mulletga qayta oshirildi! Troy! Levski! Moran!

Bunaqangi kvidishni Garri hali ko'rmagan! U omniokulyarni ko'ziga qattiq bosgan, chamasi, ko'zoynagining bandi qanshariga botib, og'ritdi. O'yinchilarning uchish tezligi haqiqatdan yiroq. «Kvaffl» bir «Ovchi»dan boshqasiga shu qadar tez o'tmoqdaki, Shulman familiyalarni aytishga bazo'r ulgur-yapti. Garri omniokulyarning o'ng tomonidagi «sekinlatish» murvatini burab, «batafsil ko'rish» tugmasini bosdi-da, o'yinni sust sur'atda tomosha qildi.

Irlandlarning uch nafar «Ovchi»si yagona haybatli safga tizilgach, Garri omniokulyar ekranida ko'ringan: «*Qarchig'ay boshi hujumkor safi*» izohli yozuvni o'qidi. Troy sal oldinda, Mullet bilan Moran undan biroz orqada borib, bolgar halqalari tomon shiddat-la uchishmoqda. «Kvaffl»ni ushlab olgan Troy go'yo yuqoriga ko'tarilmoqchi bo'lganday harakat bajarib, bolgarlar «Ovchi»si Ivanovani ortidan jalb etdi, o'zi esa shu paytda «Kvaffl»ni Moranning qo'liga uloqtirdi. Omniokulyar ekranida: «*Ulepyotov nayrangi*» izohi ko'rindi. Bolgarlarning «Urib qaytaruvchi»laridan biri Volkov qo'lidagi qisqa klyushka bilan yaqin kelgan «Tajovuzkor»ni urib, Moran uchayotgan yo'nalish tomon yo'lladi. Moran chap bergancha pastga sho'ng'idi-yu, «Kvaffl»ni qo'lidan chiqarib yubordi. Qayerdandir paydo bo'lib

qolgan bolgar «Ovchi»si Levski to'pni ushladi-da va...

– GO-O-OL! Troy bolgar halqalarini ISHG'OL ETDI! – o'kirib yubordi Shulman.

O'yingoh ayyuhannos va gulduros qarsaklardan titrab ketdi.

– 10:0 Irlandiya oldinda, – baqirdi Lyudo.

– Nima? – qichqirdi boshini aylantirgan Garri, omniokulyarni tushirmay, – «Kvaffl» Levskida-ku, qanaqasiga Troy uradi?

– Garri, agar o'yinni me'yoriy tezlikda ko'rmas ekansan, hamma narsani o'tkazib yuborasan! – qichqirdi turgan joyida sakrab, qo'lini siltayotgan Germiona.

Ayni paytda Troy izzat-ikrom doirasi bo'ylab o'yin maydoni uzra uchmoqda. To'siq oldida o'yin tomosha qilib o'tirgan neprechyomlar to'dasi baralla havoga ko'tarilib, nihoyatda ulkan, yaltiroq sebarga shaklini yaratdi. Maydonning narigi tomonidagi veylalar esa darg'azab qarab qolishdi.

O'ziga o'zi jahl qilgan Garri omniokulyarning tezlik rostlagichini burab, me'yoriy holatga keltirdi.

O'yin davom etmoqda. Irlandiya «Ovchi»lari zo'r o'ynayotganini tushunish uchun Garri kvidish o'yini qoidalaridan yaxshi xabardor. Ushbu «Ovchi»larning hamjihat harakati benuqson kechmoqda. Ular o'z safini mohirona o'zgartirib borishidan ayonki, bir-birining fikrini juda tez va aniq ilg'amoqda. Garrining ko'kragidagi yashil to'garak: «Troy – Mullet – Moran!» degancha, «Ovchi»larning familiyalarini tinimsiz sanab bormoqda. Tez orada Irlandiya jamoasi yana ikkita gol urdi. Bu esa, o'z navbatida, yashil rangli muxlislar quvonchiga quvonch qo'shib, qarsaklari yanada baland eshitilishiga sabab bo'ldi.

O'yin shiddati avj oldi. Bolgarlarning urib qaytaruvchilari Volkov bilan Vulchanov quturib ketganday «Tajovuzkor»larni irlandlarning «Ovchi»lari tomon yo'llagancha, savalay ketishdi. Irlandlar harakatiga xalaqitlar yaratish uchun ikkalasi quv usullar qo'llashmoqda. Irlandlarning «Ovchi»lari ikki marta har tomon chekinishga majbur bo'ldi va nihoyat Ivanova ular orasi-dan o'tib, irlandlar «Qo'riqchi»si Rayanni chalg'itgancha, birinchi golni urishga muvaffaq bo'ldi.

– Qulog'ingizni bekiting! – qichqirdi mister Uesli.

Baxtiyor veylalar tantanavor raqsga tusha boshlashdi. Garri qulog'ini bekitish bilan bir vaqtda, o'yindan chalg'imaslik uchun ko'zini ham chirt yumib oldi. Bir necha soniya o'tgach, ko'zini ochib, o'yin maydoniga qarashga jur'at etdi. Bolgarlar «Kvaffl»ni yana egallab olishgan. Shulman ularning familiyalarini aytib qichqirmoqda:

– Dimitrov! Levski! Dimitrov! Ivanova – o'ho'!...

Yuz ming sehrgar-u, afsungar baralla oh-voh qilib yubordi. Ikkala jamoa «Sayyod»lari Krum bilan Linch yuqoridan pastga qarab shu qadar tez tushishmoqdaki, chetdan qaraganda ularni kimdir samolyotdan parashutsiz tashlab yuborgan, degan xayolga borishi mumkin. Omniokulyar orqali ularning pastlayotganini kuzatayotgan Garri «Tilla chaqqon»ni ko'rishga urindi...

– Hozir ikkalasining ham abjag'i chiqadi! – baqirdi Germiona.

Qiz deyarli haq bo'lib chiqdi. So'nggi fursatda Krum pastga sho'ng'ish jarayonini keskin to'xtatib, spiral shakli yo'nalishida buralgancha, yuqoriga ko'tarildi. O'yingohda gumburlagan mudhish tovush yangradi. Irlandiya muxlislari baralla ingrab yuborishdi.

– Ha, ahmoq! – ingradi mister Uesli. – Krum aldadi!

– Taym-aut! – e'lon qildi Lyudo Shulman. – Eydan Linchni sehrgar shifokorlar tibbiy ko'rikdan o'tkazishlari lozim!

– Unga balo ham urmaydi! – ovuntirgan bo'ldi Charli, loja chetidan osilib, dahshat-la pastga qarab qolgan Jinnani. – Ha endi yerni biroz shudgorlab qo'ydi-da! Krumning asl maqsadi shu bo'lgan o'zi...

Garri omniokulyarning «takroran ko'rsatish» va «batafsil ko'rish» tugmalarini zudlik bilan bosib, tezlik rostlagichini aylantirdi-da, asbobni ko'ziga yaqin keltirdi.

U o'yin vaziyatini sust sur'atda o'rganib chiqdi. Mana Krum bilan Linch yerga pastlab kelishmoqda. Omniokulyar linzasida qirmizi harflar bilan bitilgan: «*Kazzobskiyning firibi – raqib «Sayyod»ini chalg'itish usuli*» satri ko'rindi. Pastga sho'ng'ish jarayonini to'xtatayotgan Krumning basharasi zo'-riqmoqdan

burishib ketgan. Linch esa bu paytda chalpak bo'lib yerda yotibdi. Garri endi tushundi. Aslida Krum hech qanday «Tilla chaqqon»ni ko'rmagan. U Linchni aldab, atayin o'z ortidan ergashtirgan. Lekin Garri bunday yuksak mahorat-la ba-jarilgan parvoz amalini endi ko'rishi. Krum supurgida emas, havoda o'zi, qushday yengil uchganday parvoz etmoqda go'yo. Garri omniokulyarning tezlik rostlagichini burab, me'yoriy holatga keltirdi-da, Krum tomon yo'lladi. Bolgarlar «Sayyod»i balandda, sehrgar shifokorlar jamoasi damlama ichirayotgan Linch ustida uchib yuribdi. Garri Krumga sinchkovlik-la razm solib, pastga qaragancha, qora ko'zi ila «Tilla chaqqon»ni qidi-rayotganiga e'tibor berdi. U o'zi ko'zlagan maqsadga erishdi. Raqib «Sayyod»i Linchni safdan chiqarib, «Tilla chaqqon»ni o'zi topib tutmoqchi.

Nihoyat, yashil muxlislar tomonidan quvonch-la olqish-lanayotgan Linch oyoqqa turdi, «Chaqmoq»ni egarladi, yerdan itarilib, havoga ko'tarildi. Mustafoning hushtagi yangradi. «Sayyod»ning hayotga qaytishi Irlandiya jamoasining kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat, shiddatiga shiddat qo'shdi. Irland-larning «Ovchi»lari shunaqangi mahorat mo'jizalarini ko'rsata boshlashdiki, bunday o'yin usullarini Garri tushida ko'rmagan.

Shiddatli o'n besh daqiqa ichida quturib ketgan Irlandiya jamoasi yana o'nta gol urdi. Umumiy hisob 130:10 ga yetdi.

O'yin qo'pollashdi. «Kvaffl»ni mahkam ushlagan Mullet bolgar halqalari tomon, bolgar «Qo'riqchi»si Zograf esa Mullet tomon uchdi. Keyingi soniyada yuz bergan hodisani Garri il-g'ab olishga ulgurmadi. Lekin xaloyiqning e'tirozli hayqirig'i va Mustafoning hushtagi chalinganidan o'yin qoidasi buzilganini angladi.

– Mustafo dag'al o'yin, ya'ni tirsak bilan haddan ortiq harakat bajargani uchun bolgarlar «Qo'riqchi»sini ogohlantirdi! – ma'lum qildi Shulman ayyuhannos solayotgan tomosha-binlarga. – Va tabiiyki, ha! Irlandiyaga erkin to'p tayinlandi.

Bolgarlar jamoasiga jarima to'pi tayinlangach, g'azablan-gan yarqiroq qovog'arilar galasi kabi havoga ko'tarilgan nep-rechyomlar zudlik bilan bir-biriga otilgancha: «*HA-HA-HA*»ni

hosil qilishdi. Maydonning narigi tomonidagi veylalar oyoqqa turib, sochini jahl-la siltagancha, raqs tushishdi.

Garri va Ueslilarning o'g'il bolalari shu zahoti barmoqlarini quloqqa tiqishdi. Sal o'tgach Germiona Garrining yengidan tortib, barmog'ini qulog'idan sug'urib chiqardi.

– Hakamga qara! – hiringladi qiz.

Garri o'yin maydoniga e'tibor qilib, Xasan Mustafoning g'alati qiliq qilayotganini ko'rdi. Misrlik hakam yerga, raqs tushayotgan veylalar ro'parasiga tushib olib, mushakchalarini o'ynatgancha, uzun mo'ylovini viqor-la silamoqda.

– Shunisi yetmay turgan edi! – eshitildi Shulmanning masxaraomuz sharhi. – Hakamning yuziga bir tarsaki urib qo'yadigan odam bormi?

Ikki qulog'iga ikki qo'lining barmoqlarini tiqib olgan sehrgar shifokorlardan biri o'yin maydoniga yugurib chiqib, qo'li band bo'lgani uchun bo'lsa kerak, o'ng oyog'i bilan hakamning choviga chunonam tepdiki, joni og'rigan Mustafo shu zahoti o'ziga keldi. Garri xijolatda qolgan hakamning bir qo'lini chovida tutgancha, veylalarga qichqirganini omniokulyar orqali kuzatib turdi. Veylalar raqs tushishni bas qilishdi-yu, kishi jig'iga tegadigan qiyofalarini saqlab qolishdi.

– Adashmasam, Mustafo Bolgariya jamoasini qo'llab-quvvatlash guruhini o'yin maydonidan chiqarib yubormoqchi! – yana yangradi Shulmanning sharhi. – Iye, ana, xolos! Unaqasini hali ko'rmagan edik... O-o, buning oxiri baxayr bo'lmaydi chog'i...

Aynan shunday bo'ldi ham: bolgarlarning «Urib qaytaruvchi»lari Volkov va Vulchanov Mustafoning ikki yoniga kelib qo'nib, ma'nodor imo-ishora ila neprechyomlar tomon ko'rsatgancha, jon achchig'i bilan mubohasa qila boshlashdi. Shod-xurram neprechyomlar esa, o'z navbatida, «*HI-HI-HI*»ni hosil qilgan. Bolgarlarning vaj-bahonasi Mustafoga yetarli bo'lmadi chog'i. Hakam ko'rsatkich barmog'ini yuqoriga o'qtab, «Urib qaytaruvchi»lar havoga ko'tarilishi va o'z ishi bilan shug'ullanishini talab qildi. Bolgarlar uning talabini rad etishgach, ikki marta qisqa hushtak chaldi.

– Ikki marta jarima to'p uloqtiriladi! – tushuntirdi Shulman.

Bolgariya jamoasining g'azablangan muxlislari bo'kirib yuborishdi.

– Volkov va Vulchanov janoblar o'z supurgilarini egarlab olishsa yaxshi bo'lar edi, – sharhini davom etdi Shulman. – Ha... ular aynan shunday qilishdi ham... «Kvaffl» Troyda...

O'yin misli ko'rilmagan shafqatsizlik ruhini kasb etdi. Ikkala tomon «Urib qaytaruvchi»lari, ayniqsa, Volkov va Vulchanov rahm-shafqat tushunchasini unutib, klyushka bilan «Tajovuzkor» savalashyaptimi, yo raqib o'yinchilarinimi, farqiga bormay qo'yishdi. Dimitrov esa qo'lida «Kvaffl»ni ushlab olgan Moranga tashlanib, uni supurgidan qulatib yuborishiga bir baxya qoldi.

– Qoida buzildi! – baralla qichqirishdi yashin to'lqin singari bir vaqtda oyoqqa qalqigan Irlandiya jamoasi muxlislari.

– Qoida buzildi! – aks-sado kabi yangradi Lyudo Shulmanning sehr qo'llanilib kuchaytirilgan ovozi. – Dimitrov Moranni turtib yubordi. Qasddan amalga oshirilgan to'qnashuv. Aftidan, hakam yana bir bor erkin to'p tayinlaydi. Ha, shunday, hushtak chalindi!

Neprechyomlar yana havoga ko'tarildi. Bu safar ular qo'l shaklini yasab, veylalarga nihoyatda beadab ishora ko'rsatishdi. Qo'llab-quvvatlovchi maxluqlar o'rtasida qiyomat-qoyim boshlandi. Veylalarning g'azabi qaynab, o'zlarini idora qilmay qolishdi. Ular o'yin maydonining chetida jangovar marralar egallab, neprechyomlarga qarata hovuch-hovuch olov otishdi. Omniokulyar orqali kuzatib turgan Garri ayni paytda veylalar endi sohibjamol ayollar emas, aksincha, har birining yuzi cho'zilib, boshi dahshatli qush boshini kasb etgani, basharada mudhish tumshuq, yelkada tangachali qanot o'sib chiqqanini ko'rdi.

– Ana ko'rdingizmi, bolalar, – qichqirdi mister Uesli, – nafaqat tashqi, balki ichki go'zallikka ham e'tibor bermoq lozim!

O'yin maydoni Sehrgarlik vazirligi xodimlariga to'lib-toshdi. Ular veylalar bilan neprechyomlarni ajratishga urinishdiyu, xatti-harakatlari zoye ketdi. Havoda yuzaga kelgan vaziyat esa bundan battar. Garri omniokulyarini u yoq bu yoq burib, o'q

tezligiday qo‘ldan qo‘lga o‘tayotgan «Kvaffl»ni kuzatishga ulgurmayapti...

– Levski – Dimitrov – Moran – Troy – Mullet – Ivanova – yana Moran – GOL!!! MORAN HALQANI ZABT ETDI.

Biroq veylalarning chinqirishlari, vazirlik xodimlarining sehrli tayoqchalaridan berilgan zalplar[1], bolgar muxlislarning darg‘azab o‘kirishlari irland muxlislarining quvonchli qichqiriqlarini bosib yubordi. O‘yin davom etmoqda. Levskining qo‘lidagi «Kvaffl» Dimitrovga o‘tdi...

Irlandlarning «Urib qaytaruvchi»si Kvigli quloch ochib, bor kuchini ishga solgancha yonidan uchib o‘tayotgan «Tajovuzkor»ga zarb berib, uni Krum tomon yo‘lladi. Bolgarlar jamoasining «Sayyod»i chap berishga urindi-yu, kech bo‘ldi. To‘p uning yuziga borib soldi.

O‘yingohdagi jamiki tomoshabinlar baralla ingrab yuborishdi. A’zoyi-badani qonga belangan Krumning burni singani aniq, lekin hushtak chalinmadi. Veylalardan biri hakamga qarata uloqtirgan bir hovuch olovdan supurgisi o‘t olgan Xasan Mustafo o‘zi bilan o‘zi ovora.

Krumning yaralanganiga hech kim e’tibor bermayotgani Garrini tashvishga soldi. Mayli, Garri Irlandiya muxlisi bo‘lsin, biroq ushbu o‘yin maydonidagi barcha o‘yinchilar orasida Krum zo‘r o‘yinchi ekanini tan oladi. Ron ham xuddi shu fikrda.

– Taym-aut! Axir, u shu ahvolda o‘ynay olmaydi-ku... – qichqirdi Ron.

– Qarang! Linchga qarang! – baqirdi Garri.

Irlandiya jamoasining «Sayyod»i kutilmaganda tikka pastga qarab sho‘ng‘idi. Bu Kazzobskiyning firibi emasligiga Garri shubha qilmadi. Bu chindan ham...

– «Tilla chaqqon»ni topdi! – qichqirdi Garri. – Topdi! Qarang, pastlashini qarang!...

Aftidan, tomoshabinlarning yarmi nima bo‘layotganini id-

[1] **Zalp** (*nemischa:* Salve < *lotincha:* salve – yasha, sog‘ bo‘l; dastlab olqishlash, salomlashish ma’nosida o‘q uzishni ifodalagan) – bir necha to‘p yoki miltiqlardan bir yo‘la baravariga o‘q otish. **Bu yerda sehrli tayoqchalardan baravariga otilgan uchqunlar nazarda tutilyapti.**

rok etgan ko'rinadi. Irlandiya jamoasining muxlislari yashin to'lqin hosil qilgancha, o'z «Sayyod»iga dalda bermoqda... Ammo Krum Linchni quvib yetmoqda. Har tomon qon sachratayotgan Krum qayoqqa uchayotganini Garri hech tushuna olmadi. Nima qilganda ham Krum Linchga yetib olib, endi ikkalasi teppa-teng pastlamoqda...

– Ikkalasining ham abjag'i chiqadi! – chiyilladi Germiona.

– Bo'lmagan gap! – o'kirdi Ron.

– Linchning abjag'i chiqadi! – baqirdi Garri.

Garri shu bugun ikkinchi bor haq bo'lib chiqdi. Linch yerga juda qattiq urilib, shu zahoti darg'azab veylalar hujumiga mubtalo bo'ldi.

– Qani, «Tilla chaqqon» qani? – so'radi Charli qichqirib.

– Unda, Krumda! O'yin tugadi! – baqirdi Garri.

Krumning qizil korjomasi burnidan oqqan qondan yaltiramoqda. Biroq u havoga oson ko'tarilib, tilla nur taralayotgan mushtini boshi uzra baland ko'tardi.

Hech narsani tushunmay qolgan tomoshabinlar ustidagi toshtaxtada «*BOLGARIYA: 160, IRLANDIYA: 170*» yozuvi paydo bo'ldi. Shundan so'ng Irlandiya kvidish jamoasining muxlislari orasida asta sekin, xuddi ulkan reaktiv[1] samolyot havoga ko'tarilayotgani kabi quvonchli g'ovur-g'uvur ko'tarilib, nihoyat zavqqa to'lib-toshgan na'raga aylandi.

– IRLANDLAR YUTDI! – baqirdi sharhlovchi Shulman, o'yinning bu tarzda yakun topganidan o'zi ham gangib. – KRUM TILLA CHAQQONNI TUTIB OLDI, AMMO IRLANDLAR G'ALABA QOZONDI! O-o, Xudo, bunday bo'lishini kim... bilibdi... deysiz!...

– Nimaga «Tilla chaqqon»ni tutib oladi? – ingradi Ron, qo'lini boshi uzra ko'tarib, qarsak urar ekan. – Irlandlarning bir yuz ellik ochkosi bo'la turib, negadir o'yinni tugatdi-qo'ydi. Ha, ahmoq!

– Ular hech qachon irlandlarga yeta olmasliklarini tushunib

[1] **Reaktiv** (*fransuzcha:* reactif < re.. + *lotincha:* activus harakatdagi) – but, gaz va boshqa yonilg'ilar oqimining tepki kuchi natijasida yoki shunday kuch bilan harakat qilishi.

yetdi, – dedi Garri baland qichqirib. – Irland «Ovchi»lari nihoyatda kuchli o'yinchilar... Shu bois ham u o'yinni o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yakunladi. Bor gap shu...

– Juda jasur yigit ekan, a? – dedi Germiona loja panjarasidan pastga qarab.

Krum yerga qo'ngach, sehrgar shifokorlar bir-biri bilan olishayotgan veylalar-u neprechyomlar orasidan bazo'r o'tib, bolgar «Sayyodi» tomon yugurishmoqda.

– Qaranglar, nimaga o'xshab qolganini, – dedi Germiona.

Omniokulyarini ko'ziga keltirgan Garri, son-sanoqsiz neprechyomlarning o'yin maydoni uzra yelib-yugurayotgani tufayli pastda nima bo'layotganini ilg'ay olmadi. Shunday bo'lsa ham u omniokulyar obyektivini sehrgar shifokorlar o'rab olgan Krumga yo'llashga muvaffaq bo'ldi. Odatdagidan ham darg'azab Krum yuzini qondan tozalashga imkon bermayapti. Uning atrofidagi jamoa a'zolari ranjigan qiyofa ila bosh siltashmoqda. Sal narida neprechyomlar sochayotgan tilla yomg'ir ostida baxtiyor irlandlar raqs tushyapti. Irlandiya jamoasining muxlislari bayroq silkitib, o'z milliy madhiyalarini yangratdi. Veylalar esa garchi domangir qiyofa kasb etishgan bo'lsa-da, yana sohibjamol ayollarga aylanib qolishdi.

– Nima qilganda ham biz mardlarcha olishdik, – dedi kimdir sof ingliz tilida.

Garri orqaga qarab, ushbu gapni Bolgariya sehrgarlik vaziri aytganini angladi.

– Ingliz tilini bilar ekansiz-da, – e'tiroz bildirdi Fuj. – Nega kuni bo'yi meni qiyshanglashga majbur qildingiz?

– Juda qiziq ko'rinar ekan-da, – yelka qisdi bolgarlar vaziri.

– Muhtaram xonimlar va janoblar! Irlandiya terma jamoasi o'zining qo'llab-quvvatlash guruhi qurshovida o'yin maydoni uzra izzat-ikrom doirasi bo'ylab uchar ekan, – e'lon qildi Shulman, – marhamat qilib Mo'tabar Lojaga e'tibor qiling. JAHON KUBOGI!!!

Birdan Mo'tabar Loja sehrli tarzda oppoq bo'lib yorishib, Garrining ko'zi qamashib ketdi. Endi loja ichi tomoshabinlarga aniq ko'rinmoqda. Harsillab qolgan ikki nafar sehrgar oltin

Kubok joylangan yashikni lojaga olib chiqdi. Kubok kun bo‘yi hech qanday zaruratsiz imo-ishora tilida muloqot qilishga majbur qilinganidan haligacha xafa bo‘lib turgan Kornelius Fujga uzatildi.

– Kelinglar, dastlab boy bergan shonli Bolgariya terma jamoasini olqishlaylik! – qichqirdi Shulman.

Zinadan Mo‘tabar Lojaga yetti nafar mag‘lub bolgar o‘yinchilari ko‘tarildi. Dastlab o‘z vazirlari, so‘ng Fuj bilan qo‘l siqishar ekan, Shulman ularning ismlarini e’lon qilib bordi. Saf oxirida kelayotgan Krumning afti-angoriga qarab bo‘lmaydi. Qonga belangan yuzidagi qora ko‘zi darg‘azab yarqiramoqda. U hamon «Tilla chaqqon»ni qo‘lidan chiqargani yo‘q. «Krum yerda o‘zini unchalik ishonchli his etmaydi chog‘i», xayoldan o‘tkazdi Garri. Yelkalari suyri Krumning yurishi o‘rdak yurishiga o‘xshini eslatar ekan. Ismi e’lon qilinganida esa uni butun o‘yingoh quloqni kar qilguday darajada olqishlab, oyoqqa turdi.

Shundan so‘ng Mo‘tabar Lojaga Irlandiya terma jamoasi ko‘tarildi. Eydan Linchni Moran bilan Kannoli suyab olgan. Ikkinchi zarba-yu, veylalar hujumining oqibati yaqqol ko‘rinmoqda. Linch batamom garang bo‘lib, nigohining fokusiga putur yetgan ko‘rinadi. Shunday bo‘lsa-da, Troy bilan Kvigli namoyishgohlarni gumburlatgancha Kubokni baland ko‘tarishganini ko‘rib, kulib qo‘ydi.

Shundan so‘ng Irlandiya terma jamoasi o‘z supurgilarini egarlagancha (Eydan Linch Konnolining ortidan, uning belidan tutib, bema’ni irshaygancha), o‘yin maydoni uzra yana bir bor izzat-ikrom doirasi bo‘ylab uchib ketdi.

– Kviyetus! – dedi sehrli tayoqchasini chiqarib, o‘z tomog‘i tomon siltagan Lyudo Shulman. – Bu o‘yinni yillar osha eslab yurishadi. Kutilmagan yakun. Esiz... yana biroz davom etmadida... – xirilladi u, atrofdagi odamlarga qarab.

Fred bilan Jorj o‘z kreslolarining suyanchiqlaridan oshib o‘tib, Lyudo Shulmanning yonida keng tabassum-la, qo‘l uzatishdi.

– Ax, ha-ya... Xo‘sh, necha pul berishim kerak sizlarga? – so‘radi Lyudo Shulman.

IX BOB. AJAL BELGISI

To‘q qizil gilam to‘shalgan zinadan tushishar ekan, mister Uesli egizaklar Fred bilan Jorjga yolvorganday murojaat qildi:

– Pulga o‘ynaganingizni onangizga aslo aytmang.

– Xavotir bo‘lmang, dada, – javob berdi kayfiyati shodxurram Fred. – Bu pulga biz ulkan rejalarimizni amalga oshirmoqchimiz. Shunday ekan, uning musodara qilinishini aslo istamaymiz.

Mister Uesli egizak bolalarining ulkan rejalari bilan qiziqib ko‘rmoqchi bo‘ldi-yu, fikr yuritib ko‘rgach, bilishni ham istamaslikka ahd qildi.

Tez orada Garri, Germiona va Ueslilar o‘yingohni astasekin tark etib chiqayotgan xaloyiq oqimiga qo‘shilgancha, fonuslar yoritgan o‘rmon so‘qmog‘i bo‘ylab lager tomon yo‘l olishdi. Qo‘llariga chiroq ushlagan neprechyomlar quvonch-la hiringlab, odamlar boshi uzra izg‘ib yurishibdi. Atrofda shovqin-suron tinmagani uchun bo‘lsa kerak, chodirga yetib kelgan sayohatchilarning uyqusi kelmadi. Shu bois mister Uesli bir chashkadan qahva damlab ichishga rozi bo‘ldi. Ular hozirgina ko‘rib qaytishgan o‘yinni vaqtichog‘lik-la muhokama qilishdi. Mister Uesli bilan Charlining o‘rtasida o‘yin davomida yuz bergan olishuv mavzusiga doir ixtilof yuzaga keldi. Issiq shokoladni polga to‘kib yuborgan Jinna kichkina stol yonida uyqisirab, bazo‘r o‘tirganini ko‘rgan mister Uesli munozaralarga chek qo‘yib, zudlik bilan uyquga yotishni talab qildi. Germiona bilan Jinna qizlar uchun tikilgan qo‘shni chodirga kirib ketishdi. Garri bilan qolgan Ueslilar esa pijamalarini[1] kiyib, ko‘rpaga burkandi. Chodirli lagerning narigi tomonidagi odamlar haligacha qo‘shiq kuylashmoqda. Kimdir nimanidir qattiq urgani bois g‘alati zarba tovushi havoda aks sado berib eshitildi.

– Navbatchilikda bo‘lmagamimning o‘zi men uchun katta

[1] **Pijama** *(inglizcha:* pyjamas *(forscha + hindcha)* – oyoq +kiyim) – yumshoq matodan tikilgan, shim va keng kalta xalatdan iborat, uy ichida kiyiladigan yengil kiyim.

baxt, – g'udulladi uyqusiragan mister Uesli. – Ayniqsa irlandlardan bayram qilishni bas qilishni talab etadigan navbatchilar o'rnida bo'lishni mutlaqo istamagan bo'lar edim.

Ikkovlon o'rtoq ikki qavatli karavotni egallagan. Ustki karavotga joylashgan Garri chodirlar uzra ahyon-ahyon uchib o'tayotgan neprechyomlarning fonusi bilan yoritilayotgan brezent shiftga qarab yotdi. Hozir u xayolan Krumning mohirona harakatlarini takrorlab, o'zining «Chaqmoq» rusumli supurgisini egarlagancha, Kazzobskiyning firibini bajarib ko'rishni istadi. Negadir turli tuman harakatchan chizmalar muallifi Oliver Drev ushbu usul haqida alohida to'xtalib, uning qanday amalga oshirilishini hech tushuntirib o'tmagan ekan... Garri egniga familiyasi yozilgan korjoma kiyib olganini faraz qilib, o'yin sharhlovchisi Lyudo Shulmanning butun o'yingohni bo-shiga ko'tarib: «Endi esa qarshi oling, maydonda... Garri-i-i Potte-ye-yer!» qichqirig'iga javoban yuz ming tomoshabin na'ra tortib yuborganini tasavvur etdi.

Uxlab qolishga ulgurgan-ulgurmaganini bola anglay olmadi. Ehtimol, Krum singari uchish bilan bog'liq xayollar tushga ulanib ketgandir, bilmaydi.

– UYG'ONING! Ron, Garri! Turinglar, TEZ BO'LING! – kutilmaganda qichqirdi mister Uesli.

– Nima bo'ldi? – noaniq g'o'ng'irladi Garri, boshi bilan brezent shiftni ko'targancha, ko'rpasiga keskin o'tirib.

Garri chodirli shaharchada nimadir sodir bo'lganini angladi. Tashqarida yangrayotgan shovqin endi mutlaqo boshqacha eshitilmoqda. Quvnoq qo'shiqlar tingan bo'lib, atrofni qiy-chuv, har tomon yugurgan odamlarning shovqin-suroni, oyoq-larining dukurlagani qamrab olgan.

Karavotdan sirpanib tushgan Garri kiyimiga qo'l uzatgan ediki, pijamasi ustidan jinsi shimini kiyayotgan mister Uesli qichqirdi:

– Yo'q, Garri, vaqt yo'q. Kiyimingni olgin-da, ko'chaga chiq, tez bo'l!

Garri aytilgan ishni qilib, ko'chaga otildi. Ron uning izidan chiqdi.

Hali o‘chmagan bir nechta gulxan yorug‘ligida odamlar o‘rmon tomonga yugurayotgani ko‘rindi. Xaloyiq artilleriya[1] qurolidan o‘t ochilgan amalga o‘xshash olov chaqnatgancha, dala bo‘ylab kelayotgan qandaydir g‘alati narsadan qochyapti. Mast odamlarning baqir-chaqiri va tahqirlovchi qahhahasi eshitilmoqda. Ko‘p o‘tmay ularning qilmishini yoritgan yashil tusli yog‘du chaqnadi.

Allaqanday sehrgarlar guruhi sehrli tayoqchalarini yuqoriga o‘qtagancha, jips saf tortib kelmoqda. Garri ko‘zini qisib olib, ushbu manzaraga diqqat-la razm soldi. Odamlarning yuzi ko‘rinmaydi. Sal o‘tib Garri, ushbu mast olomon boshga qaytarma qalpoq tashlab olgani, yuzlarini niqob bilan yashirganini idrok etdi. Olomon ustida to‘rt kishi havoda beso‘naqay tipirchilab suzmoqda. Niqob taqqan sehrgarlar qo‘g‘irchoq o‘ynatuvchilar-u, havodagi odamlar sehrli tayoqchalardan chiqqan ko‘zga ko‘rinmas arqonlar vositasida harakatlanayotgan o‘yinchoqlarday go‘yo. Ulardan ikki nafari juda yosh.

Tantanavor yurayotgan mast sehrgarlar safiga yangi va yangi odamlar qo‘shilmoqda. Ular niqob taqqanlarni xandon otib qarshi olgancha, qo‘llaridagi sehrli tayoqchalarini havoda muallaq osilgan odam tanalariga o‘qtashmoqda. Olomon soni borgan sari ortib, yo‘lidagi chodirlarni uchirib tashlamoqda. Ulardan biri yurishga xalal berayotgan bir juft chodirni portlatib tashladi. O‘t olgan ayrim chodirlar yaqinida chorasiz qichqiriqlar yanada baland eshitildi.

Mast olomon gurullab yonayotgan chodir yorug‘iga yaqin kelgach, havoda suzayotgan odamlar aniq ko‘rindi. Garri, ulardan biri qorovul mister Roberts, qolganlar esa, chamasi, uning rafiqasi bilan bolalari ekanini angladi. Yurish ishtirokchilaridan biri o‘zining sehrli tayoqchasi vositasida missis Robertsni oyog‘ini osmondan keltirib aylantirdi. Ayolning tungi ko‘ylagi tushib, katta pantaloni ochilib qoldi. Bechora ayol oyoq yopishga urinsa, aqldan ozgan olomon kishining nafratini

[1] **Artilleriya** (*fransuzcha:* artillere – tayyorlamoq, shaylamoq) – 1) to‘p, minomyot va shu kabilarning otish qurollari majmui; 2) shunday qurollar bilan qurollangan qo‘shin turi; 3) to‘p-zambaraklar, ularning tuzilishi va urushda qo‘llanishi haqidagi fan.

qo‘zg‘atadigan darajada chirqirab, missis Robertsni ochiqdan ochiq tahqirlamoqda.

Yerdan o‘n olti fut yuqorida suzayotgan kichkinagina bolakay birdan bizbizakday aylanib, jonsiz boshi u yoq bu yoqqa ojiz chayqalmoqda.

– *Jirkanchlik*, – pichirladi Ron. – Qanday jirkanchlik...

Tungi ko‘ylak ustidan palto kiyayotgan Germiona bilan Jinna, ularning ketidan esa mister Uesli yetib kelishdi. O‘g‘il bolalar chodiridan esa to‘liq kiyingan, yenglari shimarilgan, qo‘llariga sehrli tayoqchalarini ushlab olgan Bill, Charli va Persi chiqishdi.

– Biz vazirlik xodimlariga yordam berishimiz kerak, – qichqirdi mister Uesli yeng shimarib. – Sizlar esa bir-biringizdan qolishmay o‘rmonga qochinglar! Ish bitgach men o‘zim sizlarni qidirib topaman!

Bill, Charli va Persi yaqinlashib kelayotgan kolonna tomon yugurishdi. Mister Uesli ularning ketidan ergashdi. Hamma yoqdan vazirlik xodimlari yugurib kelib, bir yerda qo‘shila boshlashdi. Robertslar oilasini «ko‘tarib kelayotgan» olomon yaqinlashmoqda.

– Ketdik, – dedi Jinnaning qo‘lidan ushlab olgan Fred.

Uning ketidan ergashgan Garri, Ron, Germiona va Jorj o‘rmon tomon yugurishdi. Daraxtlarga yetib olishgach, bolalar orqaga o‘girilishdi. Robertslar oilasi ostidagi olomon soni yanada ko‘payib ketgan. Vazirlik xodimlari qaytarma qalpoq tashlab olgan sehrgarlar yoniga, olomon o‘rtasiga kirib borishga harakat qilishmoqda-yu, lekin ularning urinishlari oson kechmayapti. Aftidan, Robertslar yerga qulab tushmasligi uchun vazirlik xodimlari afsun qo‘llashdan qo‘rqishmoqda.

O‘yingoh tomon olib boradigan yo‘lni yoritgan rang-barang fonuslar allaqachon o‘chgan. Qorong‘i o‘rmon ichidagi odamlar daraxt paypaslab yo‘l qidirishmoqda. Bolalar yig‘isi, vahimali baqir-chaqirlar muzday havoni titratmoqda. Yuzi ko‘rinmagan qandaydir odamlar Garrini har tomon turtib o‘tishdi. Sal o‘tib Ronning og‘riqdan baqirgan ovozi eshitildi.

– Nima bo‘ldi? – so‘radi Germiona xavotirlanib.

Garri kutilmaganda to‘xtab qolgan Germionaga borib urildi.

– Qayerdasan, Ron? – yana eshitildi Germionaning ovozi. – Voy, tayoqcham bor-u! Lyumos!

Germionaning tayoqchasi yorishib so‘qmoqni yoritgach, yerda uzala tushib yotgan Ron ko‘rindi.

– Ildizga qoqilib ketdim, – achchiqlandi oyoqqa turayotgan Ron.

– Hayron bo‘ladigan yeri yo‘q, – eshitildi kimningdir cho‘zib gapirgan dimog‘dor ovozi. – Bunday tuyoqlar bilan qoqilmay bo‘ladimi.

Garri, Ron va Germiona keskin o‘girilib, sal naridagi daraxtga beli bilan suyanib olgan Drako Malfoyni ko‘rishdi. Qo‘lini ko‘kragiga yig‘ib, xotirjam turganidan, lagerda bo‘layotgan ishlarni kuzatib turish Malfoyga xush yoqayotgan ko‘rindi.

Ron Malfoyni shunday joyga jo‘natdiki, u joyning nomini missis Ueslining yonida tilga olib bo‘lmaydi.

– Bu qanaqa ibora bo‘ldi, Uesli? – e’tiroz bildirdi ko‘zi so‘niq yarqiragan Drako. – Agar mana buni ham anavi holatda ko‘rishni istamas ekansiz, – dedi u, Germiona tomon bosh irg‘ib, – tuyoqlaringni bu yerdan tezroq shiqillatinglar.

Shu fursatda lager tomondan go‘yo bomba portlagan kabi tovush gumburlab, yorqin yashil shu’la daraxtlarni yoritib yubordi.

– Bu bilan nima demoqchisan? – dag‘dag‘a ohangida so‘radi Germiona.

– Grenjer, ular magl oviga chiqishgan, – beparvo javob berdi Drako. – Sen ham hammaga trusikchangni ko‘rsatmoqchimisan? Xohlasang, shu yerda tur... Biz esa seni tomosha qilib, miriqib kulamiz.

– Germiona magl emas, afsungar qiz, – baqirdi Garri.

– Senga qanday yoqsa, shunday hisoblayver, Potter, – murdor kulib qo‘ydi Malfoy. – Agar ular maglvachchalarning farqiga bormaydi deb o‘ylasang, shu yerda turaver.

«Maglvachcha» so‘zi sehrgarlarning nasl-nasabiga mansub bo‘lmagan afsungar ma’nosini anglatadigan haqorat so‘zi ekani

hammaga ma'lum.

– Og'zingga qarab gapir! – o'shqirdi qo'lini musht qilib tugib olgan Ron, Drako tomon odimlab.

– Tegma uni, Ron, – dedi Germiona do'stining qo'lidan ushlab. – Najasga tegmasang, sasimaydi.

Narigi tomondagi daraxtlar orasidan yanada qattiqroq portlash eshitildi. Yaqin orada turgan odamlarning baqirib yuordi.

– Shunchalik hurkak bo'ladimi odam degan, a? – g'ijinib fikr bildirdi Malfoy erinchoqlik-la hiringlab. – O'ylashimcha, dadang sizlarga bekinib olishni buyurgan, shundaymi? O'zichi, o'zi qani? Maglchalarni qutqargani ketdimi?

– Sening ota-onangchi? Qani ular? – achchiqlanib so'radi Garri. – Niqob taqqanlar orasidami?

– Xm... shunday bo'lganda ham Potter, bu haqda senga aytarmidim? – irshaygancha Garriga yuzlandi Malfoy.

– E, qo'ysalaring-chi uni, – dedi Germiona. – Yaxshisi yuringlar, qolganlarni qidirib topaylik.

– Grenjer, baroq boshingni egib yurishni unutma, – hiringladi Malfoy.

– Ketdik, – takrorladi Germiona Garri bilan Ronning qo'lidan tortib.

– Ont ichib aytamanki, uning otasi niqob taqqanlar orasida yuribdi! – qizishib qichqirdi Ron.

– Juda soz, demak, hozir uni vazirlik xodimlari qo'lga olishadi! – dedi yurakdan Germiona. – Qolganlar qayoqqa ketishdi ekan?

Garchi so'qmoqda ko'pchilik yig'ilib, lagerda bo'layotgan ishlarni asabiy holatda kuzatayotgan bo'lsa-da, na egizaklar, na Jinna ko'rindi.

Sal narida qizg'in bahslashayotgan, egnilariga pijama kiygan o'spirinlar to'dasi ko'rindi. Ular Garri, Ron va Germionani ko'rishgach, qo'ng'iroq sochi qalin o'sgan qizlardan biri o'girilib, tez so'radi:

– Ou est Madame Maxime? Nous l'avons perdue...

– E-e-e... nima? – tushunmadi Ron.

– O... – qiz teskari o'girildi.

Uchovlon to‘da yonidan o‘tib ketayotib qizning ovozini eshitib qodi:

– Ogvag‘s.

– Belstek, – g‘udulladi Germiona.

– Nima? – tushunmadi Garri.

– Ular «Belstek»dan, shekilli, – dedi Germiona. – «Belstek» sehr-jodu akademiyasi[1]... «Yevropadagi sehrgarlik maktablarining nufuzi» kitobida o‘qigan edim o‘sha akademiya to‘g‘risida...

– A... ha... albatta... – dedi ikkilanib Garri.

– Fred bilan Jorj bu qadar uzoqqa ketib qolishi mumkin emas, – dedi sehrli tayoqchasini qo‘liga olib yog‘du chiqargan Ron qorong‘ilikka qarab.

Garri ham o‘z sehrli tayoqchasini olish uchun cho‘ntak titkilab, kissasida omniokulyaridan boshqa narsa topa olmadi.

– O, yo‘q... Sehrli tayoqchamni yo‘qotib qo‘yganga o‘x-shayman! – oh urdi u.

– Hazillashyapsanmi? – dedi Ron.

Ron bilan Germiona atrofni yoritish uchun tayoqchalarini baland ko‘tarishdi. Garri yer paypaslab, tayoqchasini topa olmadi.

– Chodirda qolgandir? – taxmin qildi Ron.

– Yugurayotganingda cho‘ntagingdan tushib qolgandir? – xavotirlandi Germiona.

– Ha... Ehtimol, – ma’yus tortdi Garri.

Sehrgarlar olamida u hech qachon o‘z tayoqchasini yonidan qo‘ymagan. Mudhish vaziyat qaror topgan ayni vaziyatda esa tayoqchasiz qolgan Garri o‘zini nihoyatda zaif his etdi.

Birdan nimadir shitirlab, uchalasini seskantirib yubordi. Yaqin oradagi butalar orasidan uy elfi Vinki kuchanib chiqib keldi. U qandaydir g‘alati tarzda, go‘yo allaqanday ko‘rinmas kishi uning etagidan mahkam ushlab, olg‘a odimlashiga mone-

[1] **Akademiya** (*yunoncha:* Academia – afsonaviy qahramon Akadem nomi hamda Platon o‘z ta’limotidan dars bergan, Afina yaqinidagi kichik o‘rmon nomidan) – 1) ilm-fan yoki san’atni rivojlantirish uchun tuzilgan, yuqori malakali olimlarga ega bo‘lgan oliy ilmiy muassasa (**bu yerda shu ma’noda**); 2) ba’zi bir oliy o‘quv yurtlarining nomi.

lik qilayotganday nihoyatda qiyin yurmoqda.

– Yomon sehrgarlar! Ko‘pchilik! Odamlar havoga ko‘tarilgan! Baland ko‘tarilgan! Vinki yashirinib olishi kerak! – baqirdi elf.

Vinki xuddi ko‘rinmas kuch qarshiligini yengayotganday zo‘riqib, qariyb ikki bukilib yugurgancha, so‘qmoqning narigi tomonidagi daraxtlar ortiga o‘tib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

– Nimagadir elf g‘ayritabiiy yugurdi. Unga nima qildi ekan? qiziqdi Ron Vinkining ortidan qarab.

– Bas bog‘lashim mumkinki, u yashirinib olish uchun o‘z sohibidan ijozat so‘ramagan, – dedi beixtiyor Dobbini eslagan Garri.

Dobbi Malfoylar ma’qul deb topmaydigan biron-bir ish qilib qo‘ygan bo‘lsa, allaqanday ichki kuch uni har safar o‘zini o‘zi jazolashga majbur qilar edi.

– Uy elflarining mehnat sharoitlari nihoyatda yomon ekanini bilasizmi?! Hayot emas qullikning o‘zginasi! – achchiqlandi Germiona, – Mana, gapimning isboti sifatida sizga hayotiy misol. Vinki balandlikdan qo‘rqishini ko‘ra-bila turib, anavi mister Sgorbs bechora elfni namoyishgohning eng yuqori lojasiga yubordi. Dahshatga tushgan ojiz elf yuragi yorilib, o‘lib qolishiga sal qoldi. Bu ham kamlik qilganday, o‘sha mister Sgorbs, tevarak-atrofda chodirlar portlayotganiga qaramay, qochib ketmasligi uchun o‘z qulini sehrlab qo‘yganga o‘xshaydi! Nima uchun hech kim elflar manfaati yo‘lida biron-bir chora ko‘rmayapti?

– Uy elflari o‘z turmushlari, kechirayotgan hayot tarzidan mamnun, birortasi nolimayapti-yu, – e’tiroz bildirdi Ron. – Anavi kampir Vinki lojada o‘tirgan joyida «*Uy elflariga dam olish mumkin emas*» deganini o‘zing eshitding. Sohibi idora qilayotgani unga yoqadi...

– Yo‘q, Ron, – qizishdi Germiona. – Bunday holatlar ay-nan senday fikr yuritib, tegishli chora ko‘rishga eringani uchun ham poydevori chirigan adolatsiz tizimni qo‘llab-quvvat-layotgan kishilar tufayligina yuzaga keladi...

O‘rmon chetida yana nimadir qattiq portladi.

– Yuringlar, yaxshisi bu yerlardan nari ketaylik, – taklif kiritdi Ron.

Garri Ronning Germionaga ko‘z qirini tashlab qo‘yganini payqab qoldi. Ehtimol, Malfoyning gapida oz bo‘lsa ham haqiqat bordir. Balki, chindan ham bu yerda Germionaga nisbatan xavf tug‘ilishi mumkindir. Ular jadalroq odimlay ke-tishdi. Garri yonida tayoqchasi yo‘qligini bilsa-da, chiqmagan jondan umid deganlariday, yurgan yo‘lida cho‘ntaklarini yana bir bor titkilab chiqdi.

So‘qmoq bo‘ylab yurgan bolalar, Fred, Jorj va Jinnani ko‘rish ilinjida atrofga alanglab, o‘rmon ichkarisiga kirib ke-tishdi. Uchovlon, aftidan, o‘yinda yutib olingan, shekilli, bir qop tilla ustida g‘ivirlab, xandon otayotgan goblinlar to‘dasi yonidan o‘tdi. Lagerda bo‘layotgan hodisalar goblinlarning parvoyiga ham kelgani yo‘q. Yana biroz yurib kumush tusda yoritilgan joyga yetishdi. Daraxtlar ortidagi yalanglikda baland bo‘yli uchta sohibjamol veyla bir-biriga gap bermagan uch nafar yosh sehrgar yigit davrasida turibdi.

– Mening yillik daromadim tilla galleonlarning yuz qopini tashkil etadi, – qichqirdi yigitlardan biri. – Chunki men xavfli hayvonlarni yo‘q qilish qo‘mitasida ajdar qassobi bo‘lib ishlayman

– Yolg‘on gapirma! – o‘kirdi boshqa biri. – Sen «Teshik qozon» mayxonasida idish-tovoq yuvib kun ko‘rasan. Mana men esa qonxo‘r ovchisi bo‘lib ishlayman. Bugungi kunga kelib to‘qsoninchi...

Veylalar tanasidan xira bo‘lsa ham taralayotgan kumush tusli shu’la yuzidagi husnbuzarlarini aniq yoritgan uchinchi yigit shu zahoti sherigining gapini bo‘ldi:

– Men esa tez orada eng yosh sehrgarlik vaziri bo‘laman, eshitdingizmi?!

Uch qavatli «Tungi ritsar[1]» avtobusining chiptachisi, yuzi-ni bo‘jarna bosgan Sten Qo‘riqchini tanigan Garri kulib yubor-

[1] **Ritsar** (*nemischa:* Ritter – otliq, chavandoz) – o‘rta asrlarda G‘arbiy va Markaziy Yevropada yoshligidan jasorat, mardlik, burchga sadoqat, ayollarga nisbatan oliyjanoblik ruhida tarbiyalangan jangovar feodal.

di. Buni Ronga aytmoqchi bo'lib orqaga o'girilgan ediki, o'rtog'ining aqli noqis kishi yuziga o'xshab qolgan qiyofasiga ro'baru bo'ldi.

– Men sizlarga Mushtariygacha uchib borsa bo'ladigan supurgi ixtiro qilganimni aytdimmi? – xayol o'tmay qichqirdi Ron.

– O'zingni idora qilib olsang-chi! – dedi Germiona.

Ahvolini idrok etgan Garri bilan Germiona Ronni veylalarga teskari o'girib, qo'ltig'idan tutgancha nari tortib ketishdi. Xushtorlar bilan veylalarning ovozi eshitilmay qolganda bolalar o'rmonning qoq o'rtasiga kelib qolishganini anglashdi.

– Shu yerda kutganimiz ma'qul, – qaror qildi Garri atrofga nazm solib. – Birov bir milya narida kelayotgan bo'lsa ham, aniq eshitiladi.

U hali gapini tugatmay daraxtlar orasidan Shulman chiqib keldi.

Ikkita sehrli tayoqcha taratayotgan yorug'lik xira bo'lsa ham, Lyudoning qiyofasida katta o'zgarish yuz berganini ko'rsatdi. Endi u xuddi oyog'i ostiga prujina mahkamlanganday yurmas, kayfiyati tushgan, yuzidan qon qochib, qandaydir zo'riqqan holatda edi.

– Kim bor bu yerda? – so'radi u, ko'zini pirpiratgancha, bolalarning yuziga termilib. – Yolg'iz o'zingiz nima qilyapsiz bu yerda?

Lyudoning savolidan hayron bo'lgan bolalar bir-biriga qarab qo'yishdi.

– Axir... lagerda to's-to'polon ko'tarilgan-u, hamma yoq vayron qilinyapti, – tushuntirgan bo'ldi Ron.

– Nima?! – baqrayib Shulman.

– Chodirli lagerda... allaqanday sehrgarlar magllar oilasini qiynashyapti...

– Jin ursin ularni, – changitib so'kindi Shulman, yuzi biron-bir ma'no uqish qiyin bo'lgan qiyofa kasb etib.

Qars etib tovush chiqargan Lyudo Shulman havoda daf bo'ldi.

– Dunyobexabar qolganga o'xshaydi, – qoshini chimirdi

kimdir izg'ib yurganday tuyuldi. Bolalar tek qotishib, jur'atsiz bosilayotgan qadam tovushiga quloq tutishdi. Birdan tovush tindi.

– Hoy, kim u? – qichqirdi Garri.

Hech kim javob qaytarmadi. Garri o'rnidan turib, daraxtlar ortiga qaradi. U yer qorong'i bo'lib, hech narsa ko'rinmasa-da, kimdir borligi sezilib turibdi.

– Kim bor? – so'radi Garri.

Sukunatni daf'atan ohangi xotirjam, qandaydir notanish ovoz buzdi. Kimningdir afsun qo'llagani eshitildi:

– MORSMORDRE!

Qorong'ilikka termilgan Garri afsun qo'llagan kishini ko'rmoqchi bo'ldi. Kutilmaganda zulmat qa'rida allaqanday ulkan, yashil tusli, yaltiroq narsa hosil bo'lib, daraxtlar orasidan tikka osmonga ko'tarildi.

– Bu qanaqa?... – xirilladi o'rnidan sapchib turib, yuqoriga qaragan Ron.

Garri hosil bo'lgan ushbu narsaga dastlabki bir necha soniya davomida neprechyomlar tomonidan yaratilgan yana biror-bir shakl bo'lsa kerak degan xayolda qaradi. Biroq ko'p o'tmay bu shakl zumrad yulduzchalardan tashkil topgan, og'zi-dan til o'rnida ilon chiqayotgan nihoyatda katta bosh suyak tasviri ekanini idrok etdi. Yashil tusli xira parda bilan qop-lanayotgan bosh suyagi tobora baland ko'tarilib, qop-qorong'i osmonda yangi burj kabi shakllana boshladi.

O'rmonda daf'atan baqir-chaqir ko'tarildi. Bunday holat nima uchun ro'y berganini Garri tushunib yetmadi-yu, lekin u ayni paytda odamning nihoyatda yuqoriga ko'tarilgan va endi mudhish neon reklama singari o'rmonni yoritgan bosh suyagi kutilmaganda paydo bo'lgani shovqin-suron ko'tarilishining yagona sababi bo'lishi mumkin degan xayolga bordi. Garri qorong'ilikka, bosh suyak shaklini yaratgan kimsani ko'rish ilinjida qarab, yana so'radi:

– Kim bor?

– Garri, qochdik bu yerdan, tezroq! – Garrining kurtkasini orqa tomondan ushlab tortdi Germiona.

– Tinchlikmi, nima gap? – taajjublandi Garri, Germionaning yuzi oqarib ketganini ko‘rib.

– Ajal belgisi-yu bu, Garri, – ingradi Germiona, Garrini kuchi boricha tortib. – «O‘zing-Bilasan-Kim»ning timsoli-ku!

– Voldemortning timsolimi? – talmovsiradi Garri.

– Bo‘lsang-chi, Garri! – tezlatdi Germiona.

Garri o‘rtoqlariga yuzlandi. Ron Krumning mitti qomatini qo‘liga olgach, uchovlon yalanglik bo‘ylab yugurib ketdi. Biroq ular bir necha qadam qo‘yishga ulgurmay ketma-ket bo‘g‘iq qarsak tovushlari eshitildi. Havoda kam deganda yigirma nafar sehrgar paydo bo‘lib, bolalarni qurshovga oldi.

Garri o‘z o‘qi atrofida bizbizakday gir aylanib, bir onning o‘zida jamiki sehrgarlar sehrli tayoqchalarini shay holatda, Ron va Germiona uchchalasiga o‘qtab turganini anglab, o‘rtoqlarini qo‘llaridan yerga tortgancha, g‘ayriixtiyoriy ravishda qichqirdi:

– EGILING!

– STUPEFAY! – baralla o‘kirdi yigirmatacha ovoz.

Ketma-ket uloqtirilgan yashinlar tovlanib, ko‘zni qamashtirdi. Garri xuddi yalanglik uzra kuchli shamol esgandek sochi to‘zg‘ib, tik bo‘lganini his etdi. Boshini ozgina ko‘tarib, ustida sehrgarlarning tayoqchalaridan otilib chiqqancha bir-biriga havoda urilib, daraxt tanalaridan sapchib, qorong‘ilikka kirib ketayotgan qip-qizil yorug‘lik zalplarini ko‘rdi.

– Bas qiling! – yangradi tanish ovoz. – To‘xtang! Bu mening o‘g‘lim!

Garrining sochi o‘z holiga qaytdi. U boshini balandroq ko‘tarib, qarshisida turgan sehrgar qo‘lidagi tayoqchasini tushirgani, yotgan yerida ag‘anab olgach esa o‘lgudek qo‘rqib ketgan mister Uesli yaqinlashib kelayotganini ko‘rdi.

– Ron... Garri... – eshitildi mister Ueslining titroq ovozi. – Germiona... ahvolingiz yaxshimi?

– Yo‘ldan qoch, Artur, – yangradi nihoyatda sovuq eshitilgan keskin ovoz.

Bolalar yoniga vazirlikning boshqa xodimlari bilan birga mister Sgorbs yaqinlashdi. Garri o‘rnidan turib, sehrgarlarga yuzlandi. Qattiq g‘azabga kelgan mister Sgorbsning vujudi

tarang tortilgan tor kabi titramoqda.

– Qaysi biringiz qildingiz bu ishni? – irilladi u, nigohini bir bolaning yuzidan boshqasining yuziga olib o'tib. – Ajal belgisini qaysi biringiz yaratdingiz?

– Biz yaratganimiz yo'q! – baqirdi Garri bosh suyagi tomon imo qilib.

– Biz umuman hech narsa qilganimiz yo'q! – ma'qulladi tirsagini ishqalab, dadasiga e'tiroz-la qaragan Ron. – Nega bizga hamla qilasiz?

– Yolg'on gapirmang, ser! – baqirdi ko'zi kosasidan chiqib ketguday baqrayib, qo'lidagi sehrli tayoqchasini Ron tomon hamon o'qtab turgan mister Sgorbs. – Siz jinoyat sodir etilgan joyda qo'lga olindingiz!

– Barti, – pichirladi egniga jun gazlamadan tayyorlangan xalat kiygan afsungar ayol. – Axir, bola-ku bular hali! Ajal belgisini yaratishni istashgan taqdirda ham uddalay olishmaydi...

– Belgi qayerdan chiqdi? – tez gapga aralashdi mister Uesli.

– Ho' anavi yerdan, – javob berdi labi titragan Germiona, afsun eshitilgan tovush tomon imo qilib. – Anavi daraxtlar ortida kimdir bor edi... U allaqanday so'z... afsunni baqirib, talaffuz etdi...

– Demak, o'sha yerda turishgan edi deng? – zaharli ohangda so'radi mister Sgorbs, chaqchaygan ko'zini Germiona-ga olib o'tib. – Afsun qo'llashdi, deng? Qarang-a, yaxshi qiz, Ajal belgisini qanday yaratish kerakligini yaxshi bilar ekansiz-da...

Vazirlik xodimlaridan birortasi ham mister Sgorbsdan farqli o'laroq Garri, Ron yoki Germiona bosh suyak tasvirini yarata olishiga ishonmadi. Aksincha, Germionaning gapini eshitgach, ular qop-qora bo'lib ko'rinayotgan daraxtlar tomon yuzlangancha, sehrli tayoqchalarini yana ko'tardi.

– Kech qoldik, – bosh chayqadi egniga jun gazlama xalat kiygan afsungar ayol. – Ular havoda daf bo'lishga ulgurishgan.

– Bo'lishi mumkin emas, – e'tiroz bildirdi Sedrikning otasi, qo'ng'ir-cho'tka soqolli Amos Diggori. – Biz otgan Urib yiqituvchi yashinlar o'sha daraxtlar orasidan uchib o'tdi... Birortasiga tekkan bo'lishi aniq...

U tayoqchasini oldinga uzatdi-da, qaddini rostlagancha, yalanglik bo‘ylab qorong‘ilik tomon shaxdam qadam tashladi.

– Ehtiyot bo‘l, Amos! – baralla ogohlantirdi sheriklardan bir nechasi.

Uzoqlashayotgan keksa sehrgarning ortidan qarab qolgan Germiona kaftini og‘ziga bosdi. Bir necha soniya o‘tar-o‘tmas, mister Diggorining qichqirig‘i eshitildi:

– Aytdim-ku! Mana, tegibdi! Ulardan biri qo‘lga tushdi! Hushidan ketgan! U... voy... jin ursin!...

– Tutdingmi? – ishonqiramay baqirdi mister Sgorbs. – Kimni qo‘lga olding? Kim ekan u?

Shox-shabbalar qarsillagani, xazon shitirlagani, so‘ng og‘ir qadam eshitilgach, yalanglikda keksa Diggori ko‘rindi. U qo‘lida kimningdir mittigina, dami chiqmay qolgan tanasini ko‘tarib kelyapti. Garri ushbu tanachaga toga sifatida o‘ralgan oshxona sochig‘ini darhol tanidi. Mister Diggori Vinkini ko‘tarib olgan.

U hushsiz uy elfini mister Sgorbsning oyog‘i ostiga yotqizdi. Turgan joyida qilt etmay o‘z elfiga baqrayib qolgan mister Sgorbs churq etmadi. Vazirlik xodimlari ham bir so‘z demay, uning bo‘zday oqargan ikki yuzi-yu, yonayotgan ko‘ziga qarab qolishdi. Nihoyat mister Sgorbs o‘ziga keldi.

– Bo‘lishi mumkin emas, – bosh siltadi u. – Bunday bo‘lishi mumkin emas...

U mister Diggorining yonidan shiddat-la o‘tib, Vinki topilgan joy tomon oshiqdi.

– Foydasi yo‘q, mister Sgorbs, – qichqirdi uning ketidan keksa Diggori. – U yerda hech kim yo‘q.

Gapga ishonmagan mister Sgorbs qorong‘ilik qa’riga kirib, u yoq bu yoq yurgani, butalar orasini ochib, barg shitirlatgani eshitildi.

– Noqulay bo‘ldi-da, – dedi mister Diggori behush yotgan mitti tanaga ma’yus qarab. – Barti Sgorbsning uy elfi... aytmoqchimanki...

– Qo‘ysang-chi, Amos, – dedi mister Uesli xotirjam ohangda. – Bu ishni uy elfi qilgan demoqchi emassan-u? Ajal belgisi maxluqot emas sehrgar odam yaratadigan belgi. Uni yaratish

uchun esa, avvalambor, sehrli tayoqcha kerak.

– To‘g‘ri, – bosh irg‘idi mister Diggori. – Elfning sehrli tayoqchasi bo‘lgan.

– Nima? – hayron bo‘ldi mister Uesli.

– Mana, qara, – dedi mister Diggori tayoqchani ko‘rsatib. – Qo‘lida ushlab yotgan ekan. Demak, bu, avvalambor, Sehrli tayoqchalardan foydalanish kodeksining qo‘pol ravishda buzilishi sanaladi. Tabiatan inson bo‘lmagan tirik jonzodlarga esa yonida sehrli tayoqcha olib yurish, shu jumladan, undan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Shu paytda yana bir qarsak eshitilib, mister Ueslining yonida Lyudo Shulman paydo bo‘ldi. U hansirab, hech narsani idrok eta olmayotgan basharasi ila osmondagi yam-yashil bosh suyak shakliga angraydi.

– Ajal belgisi! – pichirlagancha qichqirdi u.

So‘ng odamlarga yuzlanib, Vinkini bosib olishiga sal qoldi.

– Kim yaratdi uni? Birortasini ushladingizmi? – so‘radi u. – Barti! Nima bo‘lyapti bu yerda?

Mister Sgorbs quruq qaytdi. U haligacha arvohday oppoq, qo‘li va tish cho‘tkasiga o‘xshab ketadigan mo‘ylovi hamon titramoqda.

– Qayerdan kelyapsan, Barti? – tinchimadi Shulman. – Nega o‘yinda ko‘rinmading? Vinking joyingni band qilib o‘tir-gan edi... Voy... turqi xunuk maxluq-yey! – hayron bo‘ldi Shulman, oyog‘i ostida yotgan Vinkiga endigina e’tibor berib. – Mana bunga nima qildi?

– Band edim, Lyudo, – bazo‘r javob berdi mister Sgorbs. – Elfim esa Urib yiqituvchi yashinining zarbiga duchor bo‘ldi.

– Sizlar otgan Urib yiqituvchi zarbiga duchor bo‘ldimi? – so‘radi Lyudo Shulman. – Qaysi gunohi uchun?...

Ana shundagina vaziyatni idrok etgan Shulmanning yumaloq yuzi yorishib ketdi. U dastlab yuqoriga, osmonda ko‘rinayotgan bosh suyak shakliga, so‘ng pastga, yerda uzala yotgan Vinkiga va yana mister Sgorbsga yuzlandi.

– Bo‘lishi mumkin emas! – qichqirdi u. – Vinki? Ajal belgisini? Uning qo‘lidan kelmaydi! Avvalambor, buning uchun

elfga sehrli tayoqcha kerak bo‘ladi!

– Elfning sehrli tayoqchasi bo‘lgan, – takrorladi mister Diggori. – Men uni qo‘lida tayoqcha ushlab yotgan holatda topdim, Lyudo. Agar siz, mister Sgorbs, e’tiroz bildirmasangiz, albatta, elfning tushuntirishlarini tinglasak ma’qul bo‘lar edi.

Mister Sgorbs mister Diggorining gapini eshitgan-eshitmaganini hech qanday tarzda bildirmadi. Mister Diggori esa buni rozilik alomati sifatida qabul qildi.

– Enerveyt! – dedi u, tayoqchasini ko‘tarib.

Vinki asta qimirlay boshladi. Elf o‘zining katta jigarrang ko‘zini ochib, bir necha bor ma’nosiz pirpiratdi. So‘ng uni o‘rab turgan sehrgarlar nigohi ostida qaddini ko‘tarib, yerga o‘tirdi. Qarshisida turgan mister Diggoriga baqrayib, ko‘zini yanada balandroq ko‘targancha, osmonga qaradi. Garri elfning aqlga to‘g‘ri kelmaydigan, ko‘zguga o‘xshash yirik ko‘zida osmonda suzayotgan bosh suyak shaklining aksini ko‘rdi. Oh urib yuborgan Vinki boshini odam to‘la yalanglik bo‘ylab aylantirib chiqib, cho‘chib ketganidan ho‘ngrab yubordi.

– Elf! – qat’iy ohangda gap boshladi mister Diggori. – Men kimman, bilasanmi? Sehrli maxluqlar ustidan nazorat bo‘limida ishlayman!

Vinkining tanasi orqa-oldinga tebrana boshladi. Siqilgan nafasi ko‘krak qafasidan bazo‘r chiqayotgani eshitildi. Uning harakatini ko‘rgan Garri Dobbini esladi. Dobbi sohibiga bo‘ysunmaganidan o‘zi qo‘rqib ketgan holatda aynan shunday tebranar edi.

– Ko‘rib turibsanki, elf, yaqin orada kimdir Ajal belgisini yaratgan, – davom etdi mister Diggori. – Bir necha daqiqa o‘tgach esa belgi ostida sen topilding! Marhamat qilib, ushbu holatga izoh bersang!

– Men... men... men... hech nima qilganim yo‘q, ser! – qo‘rqib ketdi Vinki. – Bu ish qo‘limdan kelmaydi, ser!

– Sen sehrli tayoqcha ushlab yotgan holatda topilding, – o‘shqirib berdi mister Diggori, qo‘lidagi ashyoviy dalilni siltab.

Bosh suyak tasviridan taralayotgan yashil tusli xira yorug‘likda Garri o‘z tayoqchasini tanib qoldi.

– To‘xtang! Axir, bu mening tayoqcham-ku! – xitob qildi u.

Hamma unga yuzlandi.

– Nima?! – hayron bo‘ldi mister Diggori.

– Bu mening sehrli tayoqcham! – takrorladi Garri. – Men uni tushirib qo‘ygan edim.

– Tushirib qo‘ygan edim?! – so‘radi mister Diggori, o‘z qulog‘iga o‘zi ishonmay. – Buni o‘z aybingga iqror bo‘layotganing, Ajal belgisini yaratgach, tayoqchani uloqtirib yuborganing, deb tushunish kerakmi, yigitcha?

– Amos, kim bilan gaplashayotganingni o‘ylab ko‘r! – achchiq qildi mister Uesli. – Garri Potter Ajal belgisini yaratib nima naf ko‘radi?

– Ha... albatta... hech qanday naf ko‘rmaydi, – dovdiragancha g‘udulladi qariya, biroz o‘ylangach. – Ma’zur tutgaysiz... sal oshirib yuborganga o‘xshayman...

– Men tayoqchani bu yerda tushirganim yo‘q, – tushuntirish berdi Garri, bosh barmog‘i bilan shakl ostidagi daraxtlar tomon imo qilib. – O‘rmon boshida yo‘qotib qo‘ygan edim.

Mister Diggorining Vinkiga qaratilgan nigohi yanada qat’iylashdi.

– Demak, elf, gap bunday, – dedi u oyog‘i ostida g‘ujanak bo‘lib o‘tirgan Vinkiga. – Sen tayoqchani topib olgansan. Shundaymi? Topib olgansan-da, biroz sho‘xlik qilishni istab qolgansan, a? Aybingga iqror bo‘l!

– Men sehr-jodu bilan shug‘ullanganim yo‘q, ser! – chiyilladi Vinki, pomidorga o‘xshash burnining ikki tomonidan ko‘z yosh oqizib. – Men faqat... faqat... yerda yotgan tayoqchani oldim, xolos, ser! Ajal belgisini yaratganim yo‘q, ser, men bu ishni qilishni bilmayman!

– U qilmagan bu ishni! – chinqirdi sabri chidamagan Germiona.

Vazirlik xodimlari oldida gapirishga jur’at etgani uchun asabiylashganiga qaramay, qiz o‘z fikrini bildirishga qat’iy ahd qilgani ko‘rinib turibdi.

– Vinkining ovozi ingichka, chiyildoq, afsun qo‘llagan kishining ovozi esa ancha yo‘g‘on eshitildi! – dedi Germiona. –

O‘sha ovoz mutlaqo boshqacha eshitildi, to‘g‘rimi? – so‘radi qiz Garri bilan Ronga yuzlangancha, ma’qullashlarini kutib.

– To‘g‘ri, – bosh irg‘idi Garri. – Elfning ovoziga o‘xshamagan edi.

– To‘g‘ri, – tasdiqladi Ron ham. – Inson ovozi eshitildi.

– Xo‘sh, unday bo‘lsa, tekshirib ko‘ramiz, – dedi bolalar bergan shohidlikdan qanoatlanmagan mister Diggori. – Sehrli tayoqcha so‘nggi bor qaysi afsunni amalga oshirganini tekshirishning oddiy usuli bor. Buni bilasanmi, elf?

Titrab o‘tirgan Vinki, boshini chayqab, qulog‘ini hilpiratdi. Mister Diggori esa o‘z sehrli tayoqchasining uchini Garrining tayoqchasi uchiga taqadi.

– Priori Inkantatem! – o‘kirdi u.

Cho‘chib ketgan Germionaning bo‘g‘iq qichqirig‘i eshitildi. Ikkita tayoqcha tutashib turgan nuqtadan ilon tilli bosh suyakning kattagina shakli otilib chiqdi. Biroq bu shakl o‘rmon ustida muallaq osilib turgan yashil shaklning ko‘lankasiday ko‘rinib, kulrang qalin tutundan hosil bo‘ldi.

– Deletrius! – qichqirdi mister Diggori.

Bosh suyakning tutundan hosil bo‘lgan shakli buzilib, bulutga aylandi.

– Xo‘sh! – muzaffariyat ohangida xitob qildi mister Diggori, hamon titrab-qaqshab o‘tirgan Vinkining ustiga engashib.

– Men sehr-jodu bilan shug‘ullanganim yo‘q, ser! – takror chiyilladi ko‘zi kosasidan chiqib ketishiga sal qolgan baxti qora elf. – Bu ishni men qilmadim, qilmadim, qanday qilishni ham bilmayman! Men yaxshi elfman! Sehrli tayoqchalarga qo‘l tekkizmayman, men bu ishni qanday qilishni bilmayman!

– Sen, elf, jinoyat sodir etilgan joyda qo‘lga olinding! – takrorladi mister Diggori o‘shqirib. – Aynan jinoyat vositasi bo‘lmish mana bu sehrli tayoqchani qo‘lingda ushlab yotgan joyingda topilding!

– Amos, – gapni bo‘ldi mister Uesli. – Biroz jo‘yaliroq fikr yuritib ko‘rsang-chi... Ushbu afsun ijrosini har qanday sehrgar ham uddalay olmaydi... Elf qayerdan bilishi mumkin?

– Balkim, sen, Amos, Ajal belgisi qanday yaratilishini o‘z

xizmatkorlarimga o‘rgatganimga shama qilayotgan bo‘lsa kerak? – gapga aralashdi mister Sgorbs, har bir so‘ziga alohida g‘azab urg‘usini berib.

Noqulay sukunat qaror topib, Amos Diggori xijolatda qoldi.

– Mister Sgorbs... yo‘q... men unday demoqchi emasman... – dedi u nihoyat.

– Ushbu yalanglikda turgan odamlar orasida Ajal belgisini yaratishi mumkin bo‘lmagan ikki kishini, ya’ni Garri Potter bilan meni ayblamoqdasiz! – ovoz ko‘tardi mister Sgorbs. – Umid qilamanki, ushbu yigitchaning qismatidan xabaringiz bor, Amos?

– Albatta... buni hamma biladi... – tutildi keksa Diggori.

– Uzoq yillar olib borgan faoliyatim davomida yovuz kuchlar sehrini ham, bunday sehr bilan shug‘ullanadiganlarni ham har qanaqasiga ta’qib qilib kelganimni juda ko‘p marta isbotlab kelganman. Buni ham yodingizdan chiqarmagansiz degan umiddaman? – ta’kidlab o‘tdi mister Sgorbs, ko‘zi kosasidan chiqib ketguday baqrayib.

– Mister Sgorbs, men... siz bunga daxldor ekaningizga shama qilganim yo‘q! – duduqlandi keksa sehrgar, yuzi qizil soqolidan ham battar qizarib.

– Mening elfimni ayblaganingiz, meni ayblaganingiz bilan barobar, Diggori! – qichqirishni davom etdi mister Sgorbs. – Afsun ijrosini mana bu elfga yana kim ham o‘rgatishi mumkin?

– Elf... buni har qanday joyda ilashtirib olishi mumkin edi... – fikr bildirishga jur’at etdi mister Diggori.

– To‘ppa-to‘g‘ri, Amos, – gapga aralashdi mister Uesli. – Har qanday joyda ilashtirib olishi mumkin... Vinki? – murojaat qildi u elfga, – Garrining tayoqchasini qayerdan topganingni aniqroq ayta olasanmi?

Mister Uesli muloyim ohangda murojaat qilgan bo‘lsa-da, bechora Vinki bari bir xuddi unga qichqirib berishganday cho‘chib ketdi. Egnidagi kiyimning etagini titib o‘tirgan urg‘ochi elfning barmoqlari ostidan oshxona sochig‘ining iplari so‘tilib chiqmoqda.

– Men... tayoqchani... o‘sha yerda, ser... – pichirladi Vinki,

– O‘sha yerda... daraxtlar ostida topdim, ser...

– Tushundingmi, Amos? – xulosa chiqardi mister Uesli. – Ajal belgisini yaratgan kishi zudlik bilan havoda daf bo‘lib, Garrining tayoqchasini tashlab ketgan. Umuman aytganda, o‘sha kishi birovning tayoqchasini ishlatib to‘g‘ri ish tutgan. Aks holda o‘zining tayoqchasi o‘zini sotib qo‘yishi mumkin. Vinki esa ushbu tayoqchaga to‘satdan duch kelib, qo‘liga olgan.

– Bundan chiqdi, mana bu elf jinoyatchidan atigi bir necha fut narida bo‘lgan! – xitob qildi mister Diggori. – Qani ayt-chi, elf, – sabrsizlik-la murojaat qildi u Vinkiga, – biron-bir kishini ko‘rdingmi?

Vinki battar titradi. U yirik ko‘zini mister Diggoridan Lyudo Shulmanga, undan esa mister Sgorbsga yugurtirdi.

– Yo‘q, ser... – yutinib olgach javob berdi elf, – men hech kimni ko‘rganim yo‘q....

– Amos, – uzuq-yuluq gap boshladi mister Sgorbs. – Vinkini so‘roq qilish uchun o‘z bo‘limingizga olib ketishingiz kerakligini tushunib turibman. Shunday bo‘lsa-da, bu ishni o‘zim oxriga yetkazmoqchiman va vaziyat boshqacha bo‘lga-nini inobatga olib, bunga imkon berishingizni iltimos qilishga jur’at etaman.

Garri mister Diggorining bunday taklifdan xursand bo‘lmagani, biroq vazirlikning eng muhim mansabdor shaxslaridan biriga gap qaytarishga jur’at eta olmaganini fahmladi.

– Shubha qilmang, – sovuq ohangda qo‘shimcha qildi mister Sgorbs. – Elf qattiq jazoga tortiladi.

– S-s-sohib, – duduqlandi Vinki, yoshga to‘la ko‘zini mister Sgorbsga yolvorganday tikib. – S-s-sohib, iltimos...

Mister Sgorbs elfning nigohini har bir ajini aniq ifodalangan darg‘azab yuzi ila qarshi oldi. Uning ko‘zida zig‘irday bo‘lsin, rahm-shafqat alomati ko‘rinmadi.

– Vinkidan bunday itoatsiz xulq-atvorni hech qachon kutmaganman, – bir maromda tushuntirish bera boshladi mister Sgorbs, atrofda turgan sehrgarlarga. – Men unga, toki o‘z ishimni bir yoqlik qilib qaytgunimcha chodirda qolishni amr etgan edim. Xo‘sh, chodirga qaytganimdan keyin nimani ko‘r-dim? – so‘radi u, yerda o‘tirgan Vinkiga qarab. – Xizmatkor amrimga itoat

etmaganini ko'rdim. Bu esa unga kiyim berilishi-ni anglatadi!

– Yo'q! – chiyilladi Vinki, sohibining oyog'i ostiga cho'zilib. – Yo'q, sohib! Kiyim emas, har qanday boshqa jazo tayinlang, faqat kiyim bermang!

Uy elfini ozodlikka qo'yib yuborish yoki uydan quvib solish uchun xonadon sohibi o'z elfiga kiyim hadya etishi ke-rakligini Garri yaxshi biladi. Ho'ngrab, ovozi bo'g'ziga tiqilib qolayotgan Vinkining o'z egnidagi oshxona sochig'ini mahkam ushlab olganini ko'rish bolaga og'ir kechdi.

– U qo'rqib ketgan-ku, axir! – darg'azab baqirdi Germiona, mister Sgorbsga yeb qo'yguday qarab, – Sizning elfingiz balandlikdan o'lgudek qo'rqadi. Anavi niqob taqqan sehrgarlar esa odamlarni havoga baland ko'tarib olishgan edi! Nima uchun ulardan nari qochib, jon saqlab qolgan elfni gunohkor deb bilib, itoatsizlikda ayblayapsiz?!

Mister Sgorbs yuzini burishtirib, pastga qaradi va yaltirab qolguncha sayqal berilgan botinkasini bulg'amoqchi bo'lgan allaqanday jirkanch, yuqumli kasali bor narsadan xalos bo'lishga uringanday elfdan nari chekindi.

– Ko'rsatmalarimni bajarmaydigan uy elfi menga kerak emas, – sovuq ovozda ma'lum qildi u, Germionaga yuzlanib. – Sohibini unutadigan, obro'sini qadrlamaydigan xizmatkorga ehtiyoj sezmayman.

Zorlanib ho'ngrayotgan Vinkining oh-fig'oni butun yalanglikda yangradi.

– Agar hech kimning e'tirozi bo'lmasa, bolalarni chodirga olib ketmoqchiman, – biroz noqulay ahvolda qolgan sehrgarlar orasidagi jimlikni buzdi mister Uesli. – Amos, sehrli tayoqcha bizga zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni berib bo'ldi. Ijozat bersang, uni Garriga qaytarib bersak.

Garri mister Diggori uzatgan tayoqchani olib, cho'ntagiga soldi.

– Yuringlar, bolalar, ketdik, – dedi mister Uesli past ovozda.

Germiona turgan joyidan qilt etmay, ho'ngrayotgan Vinkiga qarab qoldi.

– Germiona! – yanada qattiqroq ovozda chaqirdi mister

Uesli.

Qiz o‘girilib, Garri bilan Ronning izidan ergashdi.

– Vinkiga nima bo‘ladi endi? – so‘radi u, yalanglikni tark etib, o‘rmon ichiga kirishgach.

– Bilmayman, – javob berdi mister Uesli.

– Unga qilingan muomalani qarang-a! – achchiqlandi Germiona. – Anavi mister Diggori deganlari unga faqat «elf», deya murojaat qildi-ya... Berahm mister Sgorbs-chi! Qilg‘ilikni Vinki qilmaganini ko‘ra-bila turib, uni uydan haydamoqchi! Vinki qo‘rqib ketganiga ham, o‘zini yo‘qotib qo‘yganiga ham tupurgan u! Go‘yo Vinki odam emasday muomala qilyapti!

– Umuman aytganda, Vinki chindan ham odam emas, – eslatib o‘tdi Ron.

Germiona shartta to‘xtab, g‘azab-la Ronga yuzlandi.

– Bu holat Vinkida hech qanday qadr-qimmat yo‘qligi, his-tuyg‘u degan tushunchalardan mahrum ekanini anglatmaydi, – baqirdi qiz. – Odamlarning xulq-atvorlari esa Ron, juda jirkanch kechdi...

– Germiona, sening fikringga to‘la-to‘kis qo‘shilaman, – dedi mister Uesli, harakatni davom etish kerakligini imo ila ko‘rsatib. – Biroq hozir elflarning haq-huquqlarini muhokama qilish mavridi emas. Chodirimizga imkon qadar tezroq yetib olishimiz kerak. Ha, aytganday, qolganlar qayoqqa yo‘qoldi?

– O‘rmon qorong‘iligida bir-birimizni yo‘qotib qo‘ydik, – tushuntirdi Ron. – Dada, nima uchun hamma anavi bosh suyak shaklidan qo‘rqib ketdi?

– Chodirga qaytishimiz bilan tushuntirib beraman o‘g‘lim, – zo‘riqib javob berdi mister Uesli.

O‘rmondan chiqaverishda kutilmagan to‘siq ro‘baru keldi. Qo‘rqib ketgan sehrgarlar o‘rmon chetida to‘planib olishgan. Ularning aksariyati mister Ueslini ko‘riboq yoniga yugurib kelib, savol yog‘dirishdi:

– Nima bo‘ldi, Artur?

– Kim qildi bu ishni?

– Artur, axir, bu ishni... o‘zi qilmagan-u, shundaymi?

– Albatta, u qilmagan, – javob berdi mister Uesli biroz

achchiqlanib. – Biz jinoyatchilarning shaxsini aniqlay olmadik. Aftidan, ular havoda daf bo'lishga ulgurishgan ko'rinadi. Endi esa meni ma'zur tuting, o'lgudek toliqdim. Biroz uxlab olmasam bo'lmaydi.

Garri, Ron va Germionani xaloyiq orasidan olib o'tgan mister Uesli ko'p o'tmay chodirli lagerga kirib keldi. Hamma yoq jimjit. Majaqlangan bir nechta chodirning tutayotganini inobatga olmaganda, niqob taqqan sehrgarlar izidan asar qolmagan.

O'g'il bolalar chodiridan Charlining boshi ko'rindi.

– Dada, tinchlikmi? – qichqirdi u. – Fred, Jorj va Jinna eson-omon qaytib kelishdi, qolganlar esa...

– Men topib kelyapman ularni, – dedi egilib, chodirga kirayotgan mister Uesli.

Garri, Ron va Germiona mister Ueslining ketidan chodirga kirishdi.

Qonayotgan qo'liga latta bosgan Bill oshxona stoli yonida o'tiribdi. Charlining egnidagi ko'ylagi yirtilgan. Persi esa burni lat yeganidan g'ururlanayotgani ayon ko'rinib turibdi. Bir qadar hayajonli holatda bo'lishsa ham egizaklar bilan Jinnaga hech nima qilmagan.

– Ajal belgisini yaratganlar qo'lga olindimi, dada? – so'radi Bill.

– Yo'q, – javob berdi mister Uesli. – Biz Garrining sehrli tayoqchasini ushlab yotgan Barti Sgorbsning elfini tutib oldik, xolos. Biroq Ajal belgisini kim yaratganini oydinlashtirishga muvaffaq bo'lmadik.

– Nima?! – baralla baqirishdi Bill, Charli va Persi.

– Garrining sehrli tayoqchasi bilan? – xitob qildi Fred.

– Mister Sgorbsning uy elfini? – taajjublandi Persi.

Mister Uesli o'rmonda bo'lib o'tgan hodisani Garri, Ron va Germionaning yordami bilan so'zlab berdi. Voqea bayoni nihoyasiga yetganda Persi qoshini chimirdi.

– Bunday itoatsiz elfdan xalos bo'lishga ahd qilgan mister Sgorbs to'g'ri ish tutibdi! – dedi u. – Joyidan qo'zg'almaslik to'g'risida buyruq olgan ekan, postni tashlab ketmay, tek o'tiri-

shi kerak edi!... O‘z sohibini butun vazirlik oldida noqulay holatga solibdi!... Agar uni Sehrli maxluqlar ustidan nazorat bo‘limiga chaqirishsa nima degan gap...

– U hech qanday yomon ish qilmagan! Vinki shunchaki noto‘g‘ri joyga, bemavrid kelib qolgan, xolos! – baqirdi Germiona Persiga.

Germiona Persiga hamisha hurmat-la qaragan. Aniqroq aytiladigan bo‘lsa, boshqalarga nisbatan yaxshiroq munosabatda bo‘lgan.

– Germiona, – dedi qo‘rqib ketgan Persi biroz o‘ziga kelib. – Birovning tayoqchasini olib, ketini o‘ylab-netmay tavakkaliga qochib qoladigan uy elfi mister Sgorbsday mavqega ega sehrgarga kerak emas, – fikr bildirdi u kibr-havo ila.

– Vinki tayoqchani o‘g‘irlamagan! – yana baqirdi Germiona. – Yerda yotgan tayoqchani topib olgan, xolos!

– To‘xtanglar! Anavi bosh suyak haqida tushuntirish bera olasizlarmi? – gapni bo‘ldi Ron sabrsizlanib. – O‘sha shakl hech kimga zarar yetkazmadi-yu... Nega bunchalik vahima ko‘tarilib ketdi?

– Ajal belgisi «O‘zing-Bilasan-Kim»ning timsoli bo‘ladi, dedim-ku senga, Ron, – hammadan oldin javob berdi Germiona. – O‘sha timsol haqida «Yovuz kuchlar ravnaqi va barham topishi» kitobida yozilgan.

– Mana o‘n uch yildir-ki, o‘sha belgini hech kim ko‘rmagan, – past ovozda qo‘shimcha qildi mister Uesli. – Odamlarning qo‘rqib ketgani tabiiy. Ajal belgisini ko‘rish ular uchun ««O‘zingiz-Bilasiz-Kim» qaytibdi», degan gapni eshitish bilan barobar.

– Hech narsani tushunmadim... – qoshini chimirdi Ron. – Axir bu... shunchaki, qog‘ozga emas osmonga chizilgan rasm, xolos-ku...

– Ron, bu ish «O‘zing-Bilasan-Kim» va uning malaylari uchun odat tusiga kirgan, – batafsil tushuntirishga urindi mister Uesli, – Ular har safar, biron-bir kishini asfalasofilinga yo‘llagach, havoga Ajal belgisini uchirishgan. Sen hali yoshsan. O‘sha belgi soladigan dahshat odamlar qalbini qanchalik qam-rab

olishini tushunmaysan. O‘zing tasavvur qilib ko‘r: sen ma’lum bir joydan uyga qaytyapsan-u, uying ustida Ajal belgisi muallaq osilib turibdi. Ichkarida esa seni qanday manzara kutib turganini juda yaxshi idrok etib turibsan, – dedi mister Uesli, o‘z gapidan o‘zi cho‘chib. – O‘sha davrlarda har bir odam o‘z uyining ustida Ajal belgisini ko‘rishdan o‘lgudek qo‘rqib yurgan.

Qo‘lining jarohatini ko‘rish uchun lattani ko‘tarib qaragan Bill bir necha daqiqa davom etgan sukunatni buzdi.

– Nima qilganda ham Ajal belgisini yaratgan kishi O‘limdan miriquvchilarni qo‘rqitib yuborib, bizga xalal berdi, – dedi u. – Niqoblarini yulib olishga ulgurmasimizdan oldin havoda daf bo‘lib, juftakni rostlab qolishdi. Xayriyatki Roberts-lar oilasini, yerga tushib, chalpak bo‘lib ketishlariga yo‘l qo‘y-may, tutib olishga muvaffaq bo‘ldik. Hozir ularning xotiralariga tegishli o‘zgartirish kiritilyapti.

– O‘limdan miriquvchilar? – hayron bo‘ldi Garri. – Kim ular?

– «O‘zing-Bilasan-Kim»ning izdoshlari o‘zlariga shunday nom qo‘yib olishgan, – javob berdi Bill. – O‘ylaymanki, bugun o‘sha kaslar to‘dasining Azkabanga qamalmay qolib ketgan so‘nggi parchasini ko‘rdik.

– Ular aynan o‘sha kaslar ekanini isbot qila olmaymiz, – xo‘rsindi mister Uesli. – Garchi bunga hech kim shubha qilmasa-da, – qo‘shib qo‘ydi u umidsiz ohangda.

– Shubha yo‘q, dada! – kutilmagan g‘ayrat-la qichqirdi Ron. – Biz o‘rmonda Drako Malfoyni uchratdik. Dadasi niqob taqqanlar orasida yurganiga u deyarli iqror bo‘ldi! Axir, Malfoylar «O‘zingiz-Bilasiz-Kim»ga yaqin kishilar doirasiga kirgani hech kimga sir emas-u!

– Nega endi Voldemortning malaylariga... – gap boshladi Garri, lekin chodirda o‘tirganlarning barchasi bir seskanib tushgach, to‘xtab qoldi.

Sehrgarlar olamining aksariyat vakillari kabi Ueslilar ham Yovuz Lordning ismini tilga olishmaydi.

– Ma’zur tuting, – tez uzr so‘radi u. – Nega endi ularga magllarni osmonga ko‘tarish kerak bo‘lib qoldi? Bunday hara-

katning ma'nosi nima?

– Ma'nosi? – ma'yus kulib boqdi mister Uesli. – Garri, ular shu tarzda vaqtichog'lik qilishadi! «O'zing-Bilasan-Kim» o'z hukmini surib yurgan kezlarda magllar bilan bog'liq qotillik-larning yarmi aynan ermak uchun sodir etilgan. Bugun ular bo'kib ichib, aftidan, hali ko'pchilik ekanliklarini yodimizga solishga ahd qilishgan ko'rinadi. Shu tarzda «qadrdon do'stlar uchrashuvi» bo'lib o'tdi, – gapini yakunladi u jirkanch qiyofa yasab.

– Modomiki, ular O'limdan miriquvchilar ekan, nega bo'lmasa Ajal belgisini ko'rib, daf bo'lishdi? – so'radi Ron. – Axir, ular o'z belgilarini ko'rib xursand bo'lishlari kerak edi-yu, shunday emasmi?

– O'zing o'ylab ko'r, Ron, – dedi Bill. – Aytaylik, ular chindan ham bir vaqtlar O'limdan miriquvchilar bo'lishgan. «O'zing-Bilasan-Kim»ning davri barham topgach esa Azkabanga qamalmaslik maqsadida o'z sohibidan tonishgan. Buning uchun yolg'on gapirib: «odamlarni qiynash va o'ldirishga aynan «O'zingiz-Bilasiz-Kim» bizni majbur qilgan», deya turib olishgan. Bor narsamni o'rtaga qo'yib aytamanki, ular Ajal belgisini, ya'ni sohibning qaytib kelganini ko'rib, boshqalardan battar qo'rqib ketishgan. Har qalay, ular «O'zing-Bilasan-Kim» bilan har qanday munosabatdan tonib, oddiy hayot tarziga qaytishgan-da... Buni esa ularning sohibi kechirishi amri mahol.

– Xo'sh, unday bo'lsa, Ajal belgisini yaratgan kishi haqida qanday xulosa chiqarmoq darkor?... – o'ychan gap boshladi Germiona. – Uning maqsadi O'limdan miriquvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'lganmi yoki aksincha, qo'rqitishmi?

– Buni bila olmaymiz, Germiona, – yelka qisdi mister Uesli. – Biroq shuni aniq aytishim mumkinki... Ajal belgisini yaratish usuli faqat O'limdan miriquvchilargagina yaxshi ma'lum. Ittifoqo, o'sha belgini yaratgan odam O'limdan miri-quvchilar doirasiga muqaddam kirmagani aniqlansa, nihoyatda taajjublangan bo'lar edim. Quloq soling, bolalar, kech bo'ldi. Agar oyingiz bu yerda bo'lib o'tgan hodisalardan xabar topguday bo'lsa bormi, qattiq tashvishga tushishi muqarrar. Shu bois

ham biroz uxlab olib, eng birinchi portshlyus bilan jo'nab qolishga harakat qilishimiz darkor.

Garri o'z karavotiga yana yotganida boshi g'uvullayotganini his etdi. Aslida u hozir, tungi soat uchda, o'zini o'lgudek toliqqan kishiday his etishi kerak. Ammo zig'irday bo'lsin, uyqu yo'q. Buning ustiga uni nimadir tashvishga solyapti.

Oradan ancha vaqt o'tganday bo'lsa ham, chandig'i atigi uch kecha oldin og'rib uyg'ongan edi. Bugun esa o'tgan o'n uch yildan so'ng ilk bor osmonda Lord Voldemortning timsoli ko'rindi. Bularning bari nimani anglatadi?

Garri «Odamovilar» xiyobonini tark etishidan oldin Siriusga yo'llagan xatini esga oldi. Sirius oldimikan xatni? Javobini qachon yo'llaydi? Garri brezent shiftga termilib yotdi. Lekin bu safar ko'ziga uxlab qolishga yordam beradigan kvidishning qiziqarli lavhalari ko'rinmadi. Garri uyquga ketishidan, Charlining xurragi chodirni qamrab olishidan oldin ancha vaqt o'tdi.

X BOB. VAZIRLIKDAGI TO‘POLON

Mister Uesli uxlab olishlari uchun bolalarga atigi bir necha soat berib, erta tongda uyg‘otdi-da, sehr qo‘llab chodirni yig‘ishtirdi. Ueslilar, Garri va Germiona chodirli lagerni imkon qadar tez tark etishar ekan, kichkinagina tosh kulba ostonasida g‘alati, hech qanday ma’no kasb etmagan nigoh-la qarab turgan mister Robertsga duch kelishdi. Magl qo‘l siltab, sayyohlarga Rojdestvo bayramini baxayr kutib olishni tilab qoldi.

– U, albatta, sog‘ayib ketadi, – ishontirdi mister Uesli past ovozda. – Xotirasiga o‘zgartirish kiritilgan har qanday kishining fikr-mulohazalari muayyan vaqt davomida chalkashib boradi... mister Robertsga esa ko‘p, juda ko‘p mudhish narsalarni unutishga to‘g‘ri keldi.

Ular botqoq bo‘ylab ketishdi. Portshlyus tarqatish punkti yaqiniga yetgan bolalarning qulog‘iga hayajonli ovozlar eshitildi. Aniqlanishicha, portshlyus xizmatining noziri Beyzilni ko‘plab sehrgar erkaklar-u, afsungar ayollar o‘rab olishga ulgurgan. La’nat o‘qilgan ushbu lagerdan nariga iloji boricha tezroq jo‘nab ketishni istagan xaloyiq portshlyus talab qilmoqda. Mister Uesli Beyzil bilan allaqanday masalani tez muhokama qilib olgach, bolalar navbatga turishdi. Tong otmasdan ular eskirib yirtilgan rezina pokrishka vositasida Oqsichqon boshi tog‘iga qaytishga ulgurdi. Tong otardagi g‘ira-shirada esa toliqqan bolalar mazali nonushta qilishni orzu qilgancha, Kolgotteri Sent-Inspektort qishlog‘i bo‘ylab Ueslilar Boshpa-nasi tomon churq etmay yurishdi. Muyulish ortiga o‘tib, Boshpana ko‘rinadigan joyga yetishgach, shudring nami qamra-gan havoda qadrdon ovoz yangradi:

– Xudoga shukurlar bo‘lsin! Behad shukurlar bo‘lsin!

Aftidan, hovlida kutib o‘tirishga sabri chidamagan missis Uesli ertalabki «Bashorat-u karomat gazetasi»ni qo‘liga mahkam siqib olgancha, oyog‘idagi uy shippagini alishtirib olishni ham unutib, bolalarini qarshi olgani ko‘chaga chiqqan ko‘rinadi.

– Artur!... – sevindi ayol, erini ko‘rib. – Shunday xavotir

oldimki, shunday xavotir oldimki...

O‘zini erining bo‘yniga otgan missis Uesli bo‘shashgan qo‘lidagi gazetani tushirib yubordi. Pastga qaragan Garri gazetadagi: «*KVIDISH KUBOGINING FINAL O‘YINIDA RO‘Y BERGAN MUDHISH HODISA*» sarlavhasini o‘qib, o‘rmon ustida yarqirayotgan Ajal belgisining oq-qora fotosuratini ko‘rdi.

– Xayriyat tirik ekansizlar, – g‘udulladi eridan nari qochgan missis Uesli yig‘idan qizargan ko‘zi bilan qolganlarni sanab chiqib. – Tirik ekansizlar... bolalarim...

Missis Uesli egizaklarni bag‘riga hammani hayron qoldirgan tarzda chunonam bosdiki, Fred bilan Jorjning boshlari urishib ketdi.

– Voy! Oyi, bo‘g‘ib qo‘yasiz!...

– Sizlarga o‘shqirib, qichqirib bergan edim-ku, axir! – hiqilladi missis Uesli. – Xayolimga boshqa hech narsa kelmadi! «O‘zingiz-Bilasiz-Kim» sizlarni o‘ldirib qo‘ygan bo‘lsa-yu, men esa bu dunyoda ikkalangiz erishgan MOSDning saviyasi past bo‘lgani uchun vaysagan xotiralarim-la qolib ketsam, o‘zimni qanday his etgan bo‘lar edim? O, Fred... Jorj...

– Tinchlan, Molli, bizga hech nima qilgani yo‘q, – dedi xotinini egizaklardan ajratgancha, erkalab, uy tomon yetaklagan mister Uesli. – Bill, o‘g‘lim, anavi gazetani ol, – qo‘shib qo‘ydi u past ovozda, – nimalar yozishganini o‘qib bilmoqchiman...

Hamma Boshpananing kichkinagina oshxonasiga kirdi. Germiona missis Uesligа achchiq choy damlab, mister Ueslining qistoviga ko‘ra Ogden Oldning kuydiradigan viskisidan «bir tomchi» qo‘shib berdi. Mister Uesli Bill uzatgan gazetani qo‘liga olib, birinchi sahifasiga ko‘z yugurtirdi. Persi esa maqolani otasining orqasida turib o‘qidi.

– O‘zim ham shunday deb o‘ylagan edim, – og‘ir xo‘rsindi mister Uesli. – *Vazirlik tomonidan yo‘l qo‘yilgan omilkor-sizlik... aybdorlar topilmadi... xavfsizlik choralariga e’tibor-sizlik... yovuz sehrgarlarning monesiz kirib kelishi... millatga tekkan isnod...* Kim yozibdi o‘zi buni? A... kim bo‘lardi... Rita Vriterda, albatta.

– Sehrgarlik vazirligining nufuziga putur yetkazishni – o‘z

oldiga qo‘ygan asosiy maqsad deb biladi, shekilli, bu ayol! – fikr bildirdi Persi achchiqlanib. – O‘tgan hafta u, qonxo‘rlarni qirib bitkazish o‘rniga qozonlar bilan g‘imirlab yurganimizni yozgan edi! Go‘yoki, «Tabiatan sehrgar bo‘lmagan yarim odamsimon maxluqotlar bilan muomala qilish bo‘yicha qo‘llan-ma»ning 12-bandida atayin ko‘rsatib o‘til...

– Pers, iltimos, – esnadi Bill. – Ovozingni o‘chir.

– Bu yerda men haqimda ham yozishibdi, – dedi maqolani oxirigacha o‘qib chiqqan mister Uesli ko‘zini katta ochib.

– Qayerida? – qulqullab qoldi missis Uesli bo‘g‘ziga viski aralashtirilgan choy tiqilib. – Bilib o‘qiganimda, sizlar tirik ekanliklaringdan xabar topgan bo‘lar edim-u!

– Ismim aytilmagan, – bosh chayqadi mister Uesli. – Mana, quloq soling: «*O‘rmon chetida o‘lgudek qo‘rqib, yurak oldirgancha turgan sehrgar erkaklar-u, afsungar ayollarning vazirlik xodimlaridan taskin topib, dalda olish umidi ayanchli ravishda puchga chiqdi. Falakda Ajal belgisi paydo bo‘lib, bir qadar vaqt o‘tganidan so‘ng o‘rmondan vazirlik xodimlaridan biri chiqdi. Mansabdor shaxs hech kimga shikast yetmagani haqida ma’lum qildi-yu, boshqa biron-bir axborot berishdan bosh tortdi. Biroq uning ushbu qisqagina bayonoti o‘rmondan bir nechta hushsiz tana olib chiqilgani haqidagi mish-mish gaplarga chek qo‘yish uchun yetarli bo‘lish-bo‘lmasligini aniq-lash kerak bo‘ladi*». Oshirib yuboribdi, – dedi gazetani Persiga uzatgan mister Uesli chor-nochor ohangda. – Axir, haqiqatan ham hech kimga shikast yetmagan-u, boshqa nimani aytishim kerak edi? O‘rmondan bir nechta hushsiz tana olib chiqilgani haqidagi mish-mish gapga kelsak... Uning bunday satrlaridan so‘ng endi chindan ham bema’ni ovoza tarqaladigan bo‘ldi.

U yana bir bor chuqur xo‘rsindi.

– Molli, bunday bema’nilikni bartaraf etish uchun ishga borishim kerak

– Men siz bilan boraman, dada, – mardonavor istak bildirdi Persi. – Bugun mister Sgorbsga bo‘limning barcha xodimlari kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, hisobotimni unga shaxsan o‘zim topshirishim mumkin.

Persi oshxonadan chiqib ketdi. Missis Ueslining esa kayfiyati buzildi.

– Artur, axir, mehnat ta’tilidasan-u! Bu ishning sen boshqaradigan bo‘limga daxli bo‘lmasa! Vazirlik sensiz ham tinchitar o‘sha bema’nilikni...

– Yo‘q, Molli, borishim kerak, – qat’iy ahd qildi mister Uesli. – Ishlar aynan mening dastimdan pachava bo‘ldi. Odamga o‘xshab kiyinib chiqay, ketaman.

– Missis Uesli, mabodo Xedvig xat keltirmadimi menga? – so‘radi sabri chidamagan Garri.

– Xedvig, xat? Yo‘q yoqimtoyginam, – javob berdi parishonxotir missis Uesli. – Umuman hech qanday xat kelmadi.

Ron bilan Germiona Garriga qiziqsinib qaradi. O‘rtoq-lariga purma’no qarab qo‘ygan Garri Ronga murojaat qildi:

– Narsalarimni xonangga kiritib qo‘ysam maylimi.

– Ha... Men ham o‘z lash-lushlarimni kiritib qo‘yaman, – javob berdi Ron. – Sen-chi, Germiona?

– Men ham, – darhol bosh irg‘idi Germiona.

Uchovlon oshxonani tark etib, zinadan yuqoriga ko‘tarildi.

– Nima gap, Garri? – so‘radi Ron qiya shiftli boloxonadagi xona eshigini yopib.

– Sizlarga aytishim shart bo‘lmagan bir gap bor, – ma’lum qildi Garri. – Yakshanba kuni chandig‘im og‘rib uyg‘ongan edim.

Do‘stlarning ushbu gapga bildirgan munosabati Garrining tasavvuriday kechdi. Qichqirib yuborgan Germiona shu zahoti tegishli kitoblardan olingan ma’lumotlar, shuningdek, Albus Dambldorday nufuzli zotlardan boshlab, maktab feldsheri[1] Pomfri xonimgacha bildirishi mumkin bo‘lgan fikr-mulohazalar-u, ko‘rishi mumkin bo‘lgan choralar haqida gapira ketdi.

– Ammo... Lekin... Biroq... Axir... «O‘zing-Bilasan-Kim» bo‘lmagan-u xiyobonda, to‘g‘rimi?... – tamoman esankirab qoldi Ron. – Ya’ni... o‘tgan safar chandig‘ing og‘riganida Yovuz Lord

[1] **Feldsher** *(nemischa:* Feldscher, Fcldscherer – jarroh; harbiy qism sartaroshi) – o‘rta tibbiy ma’lumotga ega bo‘lgan tibbiyot xodimi, vrach yordamchisi.

«Xogvars»da bo‘lgan...

– Yovuz Lord «Odamovilar» xiyoboniga kelmagan. Bunga ishonchim komil, – o‘ychan javob berdi Garri. – Ammo o‘sha kecha tushimda Voldemort bilan Piterni... ya’ni Chuval-changdumni ham ko‘rdim. Tushimni to‘liq eslay olmayman-u... ikkalasi kimnidir o‘ldirishni rejalashtirishgan.

Garri «meni» demoqchi bo‘ldi-yu, cho‘chigan Germionaning ahvolini ko‘rib, fikridan qaytdi.

– Bu bor-yo‘q tush, xolos-ku, – yasama bardamlik-la ovuntirgan bo‘ldi Ron. – Shunchaki tungi bosinqirash.

– Shundaylikka shundayku-ya, lekin chindan ham shundaymikan? – dedi Garri yorishayotgan osmonga qarab. – Juda g‘alati-da... Dastlab chandig‘im og‘rig‘i, uch kun o‘tgach O‘limdan miriquvchilarning namoyishkorona yurishi, so‘ng Voldemortning osmonga ko‘tarilgan timsoli...

– Ismini talaffuz etma! – dona-dona qilib o‘shqirdi Ron, mahkam qisib olgan tishi orqali.

Garri «Xogvars»da o‘qitiladigan bashorat fani o‘qituvchisini esladi.

– Professor Trelanining bashorati esingizdami? – fikrini davom etdi u, Ronga e’tibor qilmay. – O‘tgan o‘quv yili oxiridagi bashorati?

– E Xudoyim, Garri! – xitob qildi yuzidagi qo‘rquv bir zumda barham topib, istehzoli kulib yuborgan Germiona. – Miyasini yegan o‘sha qari qizning bashoratiga laqqa tushyapsanmi?

– Sen u yerda bo‘lmagansan-da, – e’tiroz bildirdi Garri. – Uning qay tarzda gapirganini eshitmagansan. O‘sha safar hodisa mutlaqo boshqacha kechdi. Gapimga ishon, gapirayotganida o‘z hushida bo‘lmagan u. Ongi o‘chgan, haqiqiy trans[1] holatida bo‘lgan. *Yovuz Lord tanho o‘zi, do‘stlari va izdoshlari tomoni-*

[1] **Trans** (*lotincha:* trans – orqali, orasidan, ichidan; orqasida; mobaynida) – Baynalmilal o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib: 1) biron bir fazo, maydon orqali harakatlanib, uni kesib o‘tish (**bu yerda shu ma’noda**); 2) biror narsa ortidan, biror narsaning narigi tomonida borish, joylashish; 3) biror narsa vositasida ko‘rsatish; belgilash, yetkazish kabi ma’nolarni bildiradi.

dan unutilgan, qarovsiz qoldirilgan ahvolda yotibdi. Uning eng sadoqatli xizmatkori o'n ikki yil badarg'ada bo'ldi... Huzuriga qaytgan xizmatkorining yordami ila Yovuz Lord oldingi holatidan ham buyuk va yanada dahshatli holatda yana bosh ko'taradi... deya bashorat qilgan edi. Chuvalchangdum esa aynan o‘sha kecha qochib qoldi.

Orga sukunat cho‘kdi. Parishon qiyofa kasb etgan Ron qora rangli yirik «OZ» harflari va otilgan zambarak o‘qining tasviri tikilgan to‘q sariq o‘rin yopinchig‘idagi teshikka suqil-gan barmog‘ini o‘ynatib o‘tirdi.

– Xedvigni nega so‘rading? – qiziqdi Germiona. – Biron kishidan xat kutyapsanmi?

– Siriusga chandig‘im og‘rig‘i haqida yozib yuborgan edim, – yelka qisdi Garri. – Nima deyishini kutyapman.

– Zo‘r ish tutibsan! – xitob qildi yuzi oydinlashgan Ron. – Sirius aniq biladi nima qilish kerakligini!

– Javobini tezroq olsam kerak, deya umid qilgan edim, – g‘udulladi Garri.

– Uning qayerdaligini bilmaymiz-u... Balki, u Afrikada yurgandir, – jo‘yali fikr bildirib o‘tdi Germiona. – Bunday uzoq masofaga Xedvig bir necha kun ichida borib qayta olmaydi, axir.

– Ha, albatta, – rozi bo‘ldi Garri.

Derazadan tashqariga yana bir bor qarab Xedvigni ko‘rmagan bolaning qalbini g‘am-tashvish qamradi.

– Yur, Garri, boqqa chiqib kvidish o‘ynaymiz, – taklif kiritdi Ron. – Bill, Charli, Fred va Jorj ham jon deb o‘ynashadi. Uch kishiga qarshi uch kishi chiqamiz... Kazzobskiyning firibi-ni amalda qo‘llab ko‘rasan...

– Ron, – dedi Germiona ifodali ohangda, – hozir Garrining ko‘ngliga kvidish sig‘adi, deb o‘ylamayman... U charchagan, asabiy bir holatda... Hammamiz uxlab olsak yomon bo‘lmas edi...

– Hozir aynan kvidish o‘ynagim kelyapti, – kutilmaganda iqror bo‘ldi Garri. – Shoshmay tur, «Chaqmoq»ni olay.

Germiona allanima vaysab, «Yosh bolachalar» degancha xonani tark etdi.

***

Kelgusi hafta davomida mister Uesli bilan Persi deyarli ko‘rinishmadi. Ular tong sahar, hali hamma uxlab yotgan mahalda uydan chiqib, kechki ovqat vaqtidan ancha keyin qaytishar edi.

Yakshanba kuni kechqurun, bolalar maktabga jo‘nab ketishidan bir kun oldin o‘lgudek toliqqan qiyofa yasagan Persi kibr-havo ila o‘z faoliyatiga taalluqli sirlardan birini ozgina ochgan bo‘ldi.

– Vazirlikda qanaqangi to‘polon bo‘layotganini siz tasavvur ham qila olmaysiz. Hafta bo‘yi o‘t o‘chirish bilan ovora bo‘ldim, – ma’lum qildi u. – Bizga Qichqiriqnoma ketidan Qichqiriqnoma yo‘llanyapti. Ularni tez ochmas ekansiz portlab, o‘t oladi. Stolimning usti kuyukka to‘ldi. Hatto eng yaxshi patqalamim ham yonib bitdi.

– Nega endi sizlarga Qichqiriqnomalar yo‘llanyapti? – so‘radi Jinna.

Qizaloq kamin oldidagi sholchada o‘tirib, sehrgarlar tasmasi vositasida Fillida Sporaning «Mingta sehrli alaf va qo‘ziqorinlar» kitobini ta’mirlab o‘tiribdi.

– Odamlar final o‘yining qo‘riqlash xizmati talab darajasida tashkillashtirilmaganidan nolib, xususiy mol-mulklariga yetkazilgan zarar o‘rniga badal to‘lanishini talab etishmoqda, – tushuntirdi Persi. – Anavi muttaham Mundugnus Fletcher esa maxsus jihozlangan yuvinish xonasi va o‘n ikkita yotoqxonaga ega chodir haqini undirib olish maqsadida da’vo qo‘zg‘abdi. Men esa uning makkorona firibini fosh qilib tashladim. O‘sha kunlari u, chodirli shaharchada to‘rtta yog‘och tayoqqa tortilgan ridosi ostida, quruq yerda yotganini juda yaxshi eslayman.

Missis Uesli polda turgan baland soatga qarab qo‘ydi. Bu soat Garriga juda yoqadi. Hozir soat necha bo‘lganini ko‘rsatmasa-da, uning millari yetarlicha to‘liq ma’lumot beradi. Xususan, ushbu soatning to‘qqizta tilla mili bo‘lib, har biriga Ueslilardan birining ismi o‘yib bitilgan. Soat doirasiga raqam o‘rniga oilaning tegishli a’zosi ayni fursatda qayerda ekanini

anglatadigan yozuvlar, chunonchi: «*Uyda*», «*Ishda*», «*Maktabda*» va hatto «*Bedarak ketdi*», «*Kasalxonada*», «*Qamoqda*» kabi so'zlar, «12» raqami o'rnida esa «*Halokat yoqasida*» yozuvi bitilgan.

Hozir millarning sakkiztasi «*Uyda*» yozuvi ro'parasiga yig'ilgan. Faqat eng uzun, mister Uesliga *taalluqli* bittagina mil hanuzgacha «*Ishda*» yozuvini ko'rsatib turibdi.

– Dadangiz «O'zingiz-Bilasiz-Kim»ning davri o'tgandan buyon dam olish kunlari ishga bormagan edi, – chuqur xo'rsindi missis Uesli. – Rahbariyatdan birortasi ham uni avaylamaydi-ya. Agar u hozir yetib kelmas ekan, kechki ovqati aynib qoladi.

– Dadam o'yin kuni yo'l qo'ygan xatosini tekislashga urinib, to'g'ri ish qilyapti, shunday emasmi? – dedi Persi. – To'g'risini aytadigan bo'lsak, o'z fikrini departament rahbari bilan oldindan muvofiqlashtirmay omma oldida ma'lum qilgani – ketini o'ylamay qilingan ish bo'ladi...

– Anavi mudhish ayol kabi otangga tuhmat qilib, qilmagan ishini qildi deb ayblama uni! – jahl qildi missis Uesli.

– Agar dadam biron og'iz so'z aytmaganida ham o'sha tentak Rita bari bir: «bo'lib o'tgan hodisani vazirlik xodimlaridan birortasi ham sharhlab o'tmadi», deya vazirlikni ayblagan bo'lar edi – e'tiroz bildirdi Ron bilan shaxmat o'ynab o'tirgan Bill. – Rita Vriter hali biror kishi haqida yaxshi narsa yozmagan. «Gringotts» bankining afsun ta'siriga barham berish xodimlaridan olgan intervyusi, o'sha intervyuda meni «Sochi uzun ovsar» deganini eslaysizmi?

– Soching chindan ham haddan ortiq uzun-da, o'g'lim, – ta'kidlab qo'ydi missis Uesli muloyim ohangda. – Ijozat ber-sang bo'ldi, o'zim...

– Yo'q, oyi, – ko'nmadi Bill.

Akasi bilan shaxmat o'ynayotgan Ron barmoqlari bilan mehmonxona *derazasining oynasini chertib* o'tirdi. Germiona Miranda Goshokning «Afsunlar to'plami (to'rtinchi qismi)»ni mutolaa qilishga berilib ketgan. Missis Uesli Diagon xiyo-boniga tashrif buyurib, ushbu kitobning uchtasini Germiona, Garri va Ron uchun xarid qilib keldi. Garri o'n uch yoshga to'lgani

munosabati bilan Germionadan olgan sovg‘asi – supur-giga texnik xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan asbob-usku-nalar to‘plamini oyog‘i ostiga yozib olib, «Chaqmoq»qa sayqal beryapti. Qo‘llariga patqalam ushlagancha pergament varag‘i ustiga engashib olishgan Fred bilan Jorj esa bir burchakda alla-nima haqida pichirlashmoqda.

– Ikkalangiz nima qilyapsiz u yerda? – shubha ila qarab qo‘ydi missis Uesli.

– Uyga berilgan vazifani bajarib o‘tiribmiz, – mubham javob berdi Fred.

– Meni ahmoq qilma, hozir ta’til-ku, – ovoz ko‘tardi missis Uesli.

– To‘g‘ri, ammo biz ayrim vazifalarni bajarishga ulgur-ganimiz yo‘q, – dedi Jorj.

– Ittifoqo, o‘sha vazifa buyurtmalarning yangi blankasi emasmi? – ziyrak tikilib qaradi missis Uesli. – «Ueslilarning ajoyib ultrafokuslari»ni qaytadan boshlayotganlaring yo‘qmi, ishqilib?

– Quloq soling, oyi, – dedi Fred missis Uesliga qarab. – Mabodo ertaga «Xogvars-Ekspress» halokatga uchrab, Jorj ikkalamiz halok bo‘lsagu, siz bu dunyoda ikkala bolangizni adolatsiz ayblagan xotiralaringiz ila qolib ketsangiz, o‘zingizni qanday his etgan bo‘lar edingiz?

Hamma, hatto missis Ueslining o‘zi ham kulib yubordi.

– O, ana otangiz ishdan qaytyapti! – birdan xitob qildi u, yana bir bor soatga qarab.

Mister Uesliga taalluqli soat mili «*Ishda*» holatidan «*Yo‘l-ga chiqdi*» yozuviga sakrab o‘tdi. Bir soniya o‘tgach esa biroz titrab, qolgan millar kabi «*Uyda*» holatiga kelib to‘xtadi. Sal o‘tib, oshxonadan mister Ueslining ovozi eshitildi.

– Hozir chiqaman, Artur! – qichqirdi missis Uesli, xonadan o‘qday otilib chiqib.

Daqiqa o‘tgach, tinka-madori qurigan mister Uesli qo‘liga patnis ushlagancha iliq mehmonxonaga kirib keldi-da, kamin yoniga o‘tirib, qurishib qolgan gulkaramni sanchqi vositasida titkilashga kirishdi.

– Falokat yuz beradigan ko‘rinadi, Molli, – dedi u nihoyat. – Rita Vriter hafta davomida har xil qog‘ozlar titib, vazirlik tomonidan yo‘l qo‘yilgan yana birorta xato topishga urindi. U o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishgan ko‘rinadi, chamasi. Bechora Berta haqidagi ma’lumotlarni topib olibdi. Aftidan, ertaga «Bashorat-u karomat gazetasi»da o‘sha qiz haqida maqo-la chiqadigan ko‘rinadi. Shulmanga yuz yil oldin aytgan edim-a, o‘sha qizni qidirish ishlarini boshlash kerak, deb.

– Mister Sgorbs ham shu haqda ko‘p gapirib kelgan edi, – shu zahoti gapga aralashdi Persi.

– E, o‘sha mister Sgorbsning... – achchiqlandi mister Uesli. – Xayriyatki, Rita Vriter Vinki haqida xabar topmadi. Sgorbs-ning omadi chopdi deyilsa lof bo‘lmaydi, aks holda vazirlik xodimining uy elfi Ajal belgisini yaratgan sehrli tayoqcha bilan qo‘lga olingani haqidagi bema’ni, purbo‘hton maqolalarning butun boshli seriyasi chop etilishiga sabab topilgan bo‘lar edi.

– O‘sha Vinki o‘ta mas’uliyatsiz bo‘lsa-da, Ajal belgisini yarata olmasligini oydinlashtirib olgan edik, shekilli, – qizishdi Persi.

– Agar shaxsan mening fikrim qiziq bo‘lsa, mister Sgorbs-ning omadi chindan ham chopdi desa bo‘laveradi, – dedi Germiona. – Chunki mister Sgorbs uy elflariga nisbatan qanday beshafqat munosabat bildirishini «Bashorat-u karomat gazetasi» muxbirlarining xabari yo‘q.

– Bilib qo‘y, Germiona! – dedi Persi, zardasi qaynab. – Mister Sgorbsdek yuqori martabali mansabdor shaxsning xiz-matkorlari unga so‘zsiz bo‘ysunishi shart...

– Qullari, demoqchisan, shekilli! – gap qaytardi Germiona jarangdor ohangda. – Axir, u Vinkiga haq to‘lamaydi-yu, shunday emasmi?

– Nazarimda, hammangiz narsalaringizni yig‘ishtirib, safarga shay holatga ekanligini tekshirish uchun yuqoriga chiq-qaningiz ma’qul! – bahsga chek qo‘ydi missis Uesli. – Qani, o‘rningizdan turing. Hammangiz. Tez bo‘ling!

Garri supurgiga texnik xizmat ko‘rsatish to‘plamini yopib, «Chaqmoq»ni yelkasiga tashladi-da, Ron bilan birga yuqoriga

ko‘tarildi.

Shamolning g‘uvullashi bilan jalaning shovqini tom ostida yanada baland eshitilmoqda. Chordoqda yashaydigan yirik ko‘r-shapalakning vaqti-vaqti bilan solgan ayyuhannosini esa gapir-masa ham bo‘laveradi. Bolalar xonaga kirib kelishlari bilan qafas ichida tipirchilay ketgan Cho‘chrinstel chug‘ur-chug‘urini boshladi. Xonada safar oldidan yuzaga kelgan vaziyat, sandiqlar hali to‘la-to‘kis yig‘ishtirilmagan ahvol, ushbu boyqushchaning kayfiyatini idora qilib bo‘lmaydigan darajada ko‘tarib yuborgan ko‘rinadi.

– Unga «Boyqush quvonchi»dan ozgina to‘kib ber, zora unini o‘chirsa, – dedi Ron Garriga qog‘oz xaltacha uzatib.

Garri qush yemining bir juftini qafas panjarasining chiviq-lari orqali suqib kiritib, sandig‘i yonida hanuzgacha bo‘sh turgan Xedvigning qafasiga qaradi.

– Bir haftadan o‘tdi, – dedi u ma’yus ohangda. – Nima deb o‘ylaysan Ron, Siriusni qo‘lga olishmadimikan mabodo.

– Yo‘q, – ishonch-la javob berdi Ron, bosh chayqab. – Qo‘lga olinganida «Bashorat-u karomat gazetasi» sahifalarida bu haqda allaqachon jar solingan bo‘lar edi. Axir, vazirlik loaqal bir kishini bo‘lsa ham qo‘lga olishga muvaffaq bo‘lganini ma’lum qilishi keragu.

– Ha, albatta...

– Garri, mana bu yerda oyim Diagon xiyobonida senga xarid qilgan narsalar, bankdan sen uchun olgan pul va yuvilgan paypoqlaring yotibdi.

Ron Garrining karavotiga bo‘xchalar uyumini olib o‘tib, hamyon bilan paypoqlarni uloqtirdi. Garri xarid qilingan narsa-larni ochib ko‘rishga kirishdi. Miranda Goshokning «Afsunlar to‘plami (to‘rtinchi qismi)»dan tashqari, unga bir siqim yangi patqalam, pergament qog‘ozining o‘n ikkita o‘rami va sehrli damlamalar tayyorlash uchun qo‘llaniladigan tarkibiy qismlar-ning ayrimlari xarid qilinibdi. Garrining zaxiralarida sher-baliq-

ning tuyilgan umurtqasi bilan belladonna[1] ekstrakti[2] deyarli tugagan edi.

– Bu qanaqangi qabohat bo‘ldi? – jirkangancha, baqirdi Ron, Garri ichki kiyimini qozon ichiga taxlayotgan fursatda.

Ron qo‘liga to‘q qizil duxobadan tikilgan uzun ko‘ylakka o‘xshash, allaqanday tushunarsiz kiyimni ushlab olgan. Yenglari va yoqasining gardishi yo‘sin bosgan to‘rlar vositasida bezalgan.

Eshik taqillab, xonaga yuvilib, dazmol bosilgan korjomalarning bir dunyosini quchoqlab olgan missis Uesli kirib keldi.

– Bu sizlarniki, – dedi u korjomalarni ikkita dastaga ayirib. – Batartib joylang, g‘ijimlanmasin.

– Oyi, Jinnaning kiyimini mening kiyimlarim orasiga solib qo‘yibsiz, – dedi Ron, to‘q qizil xlamidani[3] missis Uesliga uzatib.

– Jinnaniki emas, seniki, – e’tiroz bildirdi missis Uesli. – Bu tantanali marosimga kiyiladigan bayram kiyiming.

– Nimam?! – hayron bo‘ldi Ron, basharasi yashin urgan kishining turqiga o‘xshab.

– Bayram kiyiming, – takrorladi missis Uesli. – Maktabdan yo‘llangan bu yilgi ro‘yxatda o‘quvchilarning bayram kiyimi bo‘lishi tayinlangan... tegishli marosimda kiyish uchun.

– Hazillashyapsiz, shekilli, a? – ishonqiramay shivirladi Ron. – Men bu matohni hayotda kiymayman.

– Hamma kiyadi uni, Ron! – achchiqlandi missis Uesli. – Bunday kiyimlar o‘zi shunaqa bo‘ladi! Dadangda ham xuddi shunaqasi bor... tantana va marosimlarga kiyish uchun.

– Buni kiyib borgandan ko‘ra, o‘sha tantanada qip-yalang‘och ishtirok etganim afzal, – o‘jarlik qilgancha turib oldi Ron.

– Ahmoqona gaplaringni yig‘ishtir, – o‘g‘lini tinchlantirishga urindi missis Uesli. – Marosimlarga kiyiladigan korjomalaring bo‘lishi shart. Ro‘yxatda ko‘rsatilgan. Garriga ham sotib oldim... ko‘rsat unga Garri...

Ona-bola o‘rtasidagi gapni eshitib, hayajondan titrab-qalti-

[1] **Belladonna** – zaharli o‘tsimon o‘simlik va undan tayyorlangan dori.
[2] **Ekstrakt** – kimyoviy yo‘l bilan organik to‘qimalardan olingan modda.
[3] **Xlamida** – Yunonistonlik va rimlik erkaklarning plashga o‘xshash kiyimi.

ragan Garri so‘nggi bo‘xchasini asta ochdi. Yomon emas. Xayriyatki, uning bayram kiyimida to‘r yo‘q. Umuman aytganda, bu kiyim nimasi bilandir oddiy korjomaga o‘xshab ketadi. Faqat rangi qora emas yashil.

– Ko‘zing rangiga mos keladi, deb mana shu rangni tanladim, yoqimtoyginam, – dedi missis Uesli zavqlanib.

– To‘g‘ri, bunaqasini kiysa bo‘ladi! – dedi Ron, darg‘azab nigoh-la Garrining bayram kiyimiga baho berib. – Nega endi menga ham shunga o‘xshashini olib bermadingiz?

– Chunki... chunki men sening kiyimingni tutilgan buyumlar do‘konidan xarid qildim. U yerda esa tanlab olinadigan mollar ko‘p bo‘lmaydi! – tushuntirdi lunji qizargan bechora ona.

Garri ko‘zini olib qochdi. U pulini bajonidil Ueslilar bilan birga baham ko‘rgan bo‘lar edi-yu, biroq ular hayotda olishmasligini yaxshi biladi.

– Men bu matohni hech qachon kiymayman, – o‘jarlik-la takrorladi Ron. – Hech qachon.

– Juda soz, – o‘shqirdi missis Uesli, – qip-yalang‘och boraver o‘sha marosimga. Sen esa Garri, uni suratga tushirishni unutma. Xudo shohid, ba’zan vaqtichog‘lik qilish menga hech ham zarar qilmaydi.

Missis Uesli eshikni qarsillatib yopgancha, xonadan chiqib ketdi. Shu payt biqirlagan g‘alati tovush eshitildi. Cho‘chrinstelning tomog‘iga «Boyqush quvonchi»ning kattagina bo‘lagi tiqilib qolibdi.

– Nima uchun narsalarimning hammasi ikki pulga qimmat, a? – yurakdan nolidi Ron, Cho‘chrinstel tomon, uning tumshug‘ini ochish uchun borar ekan.

XI BOB. «XOGVARS-EKSPRES»DA

Ertasiga ertalab uyg'ongan Garri Boshpanada, yozgi ta'til tugaganini anglatayotgan qandaydir g'alati kayfiyat hukm surayotganini his etdi. Deraza oynasini intihosi yo'q yomg'irning yirik tomchilari savalamoqda. U o'rnidan turib jinsi shimi bilan sviterini kiydi. Maktab kiyimi, odatda, poyezdda kiyiladi.

Oshxonaga yo'l olib zina boshiga yetgan Garri, Ron va egizaklar hali birinchi qavatga tushmay turib, pastda, nihoyatda hayajonlanib ketgan missis Ueslini ko'rishdi.

– Artur! – chaqirdi u baland ovozda. – Artur! Pastga tush, tezroq, vazirlikdan shoshilinch xabar!

Korjomasini teskari kiyib olgancha, pastga gumburlab tushayotgan mister Ueslini o'tkazib yuborish uchun Garri devorga qapishib oldi. Bolalar oshxonaga kirib kelganda jonsarak holatga kelgan missis Uesli kiyim javonining yashiklarini titkilayotgan ekan.

– Shu yerda ham bor edi-ku, patqalamlarim! – vaysadi u.

Mister Uesli esa bu paytda o'choq cho'g'iga yuzlanib olgancha... kim bilandir suhbat qurmoqda...

Garri manzarani to'g'ri idrok etganiga ishonch hosil qilishi uchun ko'zini chirt yumib, yana ochdi.

Kamin ichida go'yo soqol yopishtirilgan katta tuxum kabi keksa sehrgar Amos Diggorining muallaq osilgan boshi ko'rindi. U o'z atrofida sachrayotgan uchqunlarga ham qulog'ini yalayotgan gulxan tillariga ham e'tibor qilmay tez gapiryapti.

– ... shovqin-suronni eshitgan qo'shni magllar, anavi... nima deb atashar edi ularni... ha, politsiyachilarni chaqirishibdi. Artur, sen zudlik bilan o'sha yerga yetib borishing kerak bo'ladi.

– Mana! – ovoz chiqarmay hansiradi missis Uesli, erining qo'liga pergament varag'i, siyohdon va ezilgan patqalam ushlatib.

– ... tasodifan xabar topganimning o'zi katta bir omad, – gapini davom etdi mister Diggorining boshi. – Har xil manzillarga bir nechta boyqush jo'natishim kerak bo'lgani uchun

idoraga ertaroq borgan edim. Qarasam, Sehrgarlik va afsungarlik faoliyati ustidan nazorat bo'limining xodimlari to'la [illegible] yig'ilib, voqea joyiga jo'nashga shay turishibdi... Agar [illegible] Yriter bu gaplardan xabar topadigan bo'lsa, Artur...

– O'ynoqko'zning o'zi qanday tushuntirish berdi? – so'radi [illegible]donni ochib, patqalam botirgan mister Uesli yozishga [illegible]aylanib.

– Hovlisiga kimdir oshib tushayotganini eshitgan emish, – [illegible] mister Diggorining boshi ko'zini tepaga qaratib, – Go'yo ular uyga sezdirmay yaqin kelishmoqchi bo'lgan-u, chiqindi [illegible]ari pistirmasiga tasodifan ro'baru bo'lishgan.

– Xo'sh, chiqindi baklari nima hunar ko'rsatibdi? – so'radi [illegible]y qiyofa kasb etgan mister Uesli allanima yozib.

– Nima qilar edi, chiqindi otibdi. Umuman katta to's-[illegible]polon ko'tarilgan, – dedi mister Diggorining boshi. – Tushu-[illegible]imcha, politsiyachilar yetib kelishganida chiqindi baklari-[illegible]an biri shiddat-la o't ochishni davom etayotgan ekan...

– Hovliga pisib kirganlar borasida ham biron-bir ma'lumot [illegible]ormi? – ingrab yubordi mister Uesli.

– Artur, O'ynoqko'zni yaxshi bilasan-u, – mister Diggorining boshi ko'zini yana tepaga qaratdi. – Tun yarmida uning hovlisiga chindan ham birov bostirib kirgan, deb o'ylaysanmi? Kartoshka po'choqlari-yu, har xil axlatga belangan mushuk kirgan bo'lishi mumkin. Biroq o'zing o'ylab ko'r, agar Sehrgarlik va afsungarlik faoliyati ustidan nazorat bo'limi tomonidan O'ynoqko'zga nisbatan biron-bir chora ko'riladigan bo'lsa, tamom bo'ldi, deb hisoblayver. O'ynoqko'zga taalluqli hujjatlar jildini esla! Bu ishlarni bosdi-bosdi qilish, O'ynoqko'zni sening idorangga taalluqli biror-bir arzimas narsada ayblab, saqlab qolish kerak. Chiqindi otar baklar uchun nima chora ko'riladi sizlarda?

– Dastlab ogohlantiriladi, – dedi qosh chimirgan mister Uesli allanima yozishda davom etib. – O'ynoqko'z sehrli tayoqcha qo'lladimi? Biror-bir kishiga hamla qildimi?

– Ishonchim komilki, O'ynoqko'z karavotidan turiboq, derazadan ko'ringan narsa borki, hammasiga qarshi afsun qo'l-

lashga kirishib ketgan, – javob berdi mister Diggorining boshi. – Biroq buni isbotlash kerak. Jabrlanganlar yo'q-ku, axir.

– Bo'pti, unday bo'lsa men uchdim, – mister Uesli qog'ozni cho'ntagiga solib, oshxonadan yugurgancha chiqib ketdi.

– Kechir meni, Molli, – dedi keksa Diggorining missis Uesliga yuzlangan boshi nisbatan bosiq ohangda, – sizlarni juda erta bezovta qilib qo'ydim. O'ynoqko'zni faqat Arturgina qutqarib qolishi mumkin. Buning ustiga, bugun, O'ynoqko'z yangi joyda ish boshlaydigan birinchi kun... Aynan shu bugun tunda to'polon ko'targaniga hayronman...

– Hech qisi yo'q, Amos, – tinchlantirdi missis Uesli. – Yo'lga chiqishdan oldin buterbrodmi[1] yoki biron boshqa narsami, yeb olasanmi?

– A-a? Bo'pti, uzat, – rozi bo'ldi mister Diggori.

Missis Uesli oshxona stoli ustiga taxlangan buterbrodlar uyumi cho'qqisidagi sariyog' surtilgan non bo'laklaridan bittasini oldi-da, olov tillari orasidan mister Diggorining og'ziga soldi.

– ... ah-ahmat, Molli, – po'ng'illadi og'zi to'lgan bosh va yengilgina qarsillab, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Garri mister Ueslining Bill, Charli, Persi va qizlar bilan xayrlashganini eshitdi. Besh daqiqa o'tmay egnidagi korjomani to'g'ri kiyib, siyrak sochini taragancha, oshxonaga kirib kelganini ko'rdi.

– Xo'p, bolalar, men ketdim. Maktabda yaxshi o'qinglar, – tilak bildirdi plashini kiyib, havoda daf bo'lishga otlangan mister Uesli Garri, Ron va egizaklarga. – Molli, bolalarni Kings-Krossga o'zing eltib qo'yasanmi?

– Albatta, – ishontirdi missis Uesli. – Sen O'ynoqko'zning ishini bir yoqli qilaver, bu yog'ini o'zimiz amallaymiz.

Mister Uesli havoda daf bo'lishi bilan oshxonaga Bill bilan Charli kirib keldi.

– O'ynoqko'zni kim esladi? – so'radi Bill. – Yana nima

[1] **Buterbrod** *(nemischa:* Butter – yog' + Brot – non) – ustiga sariyog' surtilgan yoki pishloq, kolbasaning bir bo'lagi qo'yilgan bir bo'lak non.

karomat ko‘rsatibdi u?

– Kimdir bugun tunda uning uyiga yashirincha kirishga uringan emish, – javob berdi missis Uesli.

– O‘ynoqko‘z Xmuri, – o‘ychan esladi Jorj, noniga quyuq shinni surtib, – anavi savdoyi...

– Otangiz O‘ynoqko‘z Xmuriga katta hurmat-la qaraydi, – bolasining tanqidiy gapini kesdi oshxonani tark etayotgan missis Uesli.

– Dadam ham oppoq emas. Elektr sanchqilarni yig‘ib yuradi-yu, axir, – dedi Jinna. – Shunday ekan, ikkalasini bir bog‘da yetilgan meva desa bo‘laveradi...

– Xmuri o‘z davrining buyuk sehrgarlaridan biri bo‘lgan, – dedi Bill.

– U Dambldorning qadrdon do‘sti-yu, shundaymi? – dedi qizaloq.

– Dambldorning tomini ham joyida deb bo‘lmaydi, to‘g‘rimi? – gapga aralashdi Fred. – U avliyolikka, avliyo, albatta, biroq...

– O‘ynoqko‘z deganlari kim o‘zi? – so‘radi Garri.

– Ilgari vazirlikda ishlagan, hozir nafaqada, – javob berdi Charli, – Bir vaqtlar dadam o‘zi bilan meni ham ishiga olib borib yurganida ko‘rganman uni. O‘shanda Xmuri avror, ya’ni yovuz sehrgarlarni ta’qib qiladigan xodim bo‘lib ishlagan, – darhol tushuntirish berdi Charli, Garrining gap tushunmagan nigohini ko‘rib. – Azkaban kameralarining[1] yarmi aynan Xmurining sa’y-harakatlari ila to‘lgan. Biroq dushmanlari ham yetarlidan ko‘p... Ular asosan O‘ynoqko‘z qamatib yuborgan sehrgarlarning qarindosh-urug‘lari bo‘ladi. Eshitishimcha, Xmuri qarib, paranoyya[2] kasaliga duchor bo‘lgan. Hech kimga ishonmaydi. Uning o‘ynoq ko‘ziga hamma yovuz sehrgar bo‘lib ko‘rinaveradi.

Bill bilan Charli ham bolalarni kuzatgani temir yo‘l vokzaliga borish istagini bildirishdi. Persi esa uzr so‘rab, chindan ham

[1] **Kamera** (*lotincha:* camera – gumbaz; xona, bo‘lma) – 1) ba’zi muassasalarda biror narsa uchun yoki alohida shaxslar uchun mo‘ljallangan maxsus xona, bo‘lma.

[2] **Paranoyya** – ruhiy kasallikning bir turi.

tezroq ishga yetib borishi zarurligini ma'lum qildi.

– Shunday murakkab vaziyatda ishga bormaslikni o'zimga ep ko'ra olmayman, – e'lon qildi u, hammaga eshittirib. – Mister Sgorbs hamma ishni menga ishonib topshirishga odatlanib bo'ldi.

– To'g'ri, – dedi bosh irg'igan Jorj, jiddiy ohangda. – Bilasanmi, Persi, nazarimda, u tez orada familiyangni ham eslab qoladi.

Missis Uesli qishloq pochta bo'linmasiga borib, London-gacha eltib qo'yishi uchun magllarning uchta taksisini telefon orqali chaqirtirdi.

Taksichilar mashinalarning yuk bo'lmalariga oltita og'ir sandiqni ortar ekan, hamma yomg'ir ivitgan hovliga chiqib, tomosha qilib turdi.

– Artur vazirlik mashinalarini olishga urindi-yu, bo'shi topilmadi... – tushuntirish bergan bo'ldi missis Uesli Garriga. – Anavi taksichilar nimadandir noroziga o'xshaydimi? Senga shunday tuyulmayaptimi?

Magllar dunyosining taksichilari quturib ketgan boyqush-larni kamdan kam holatlarda tashishini Garri tushuntirib o'tirmadi. Ta'kidlab o'tmoq joizki, Cho'chrinstel chindan ham quloqni kar qilib yuborguday ayyuhannos solmoqda. Buning ustiga Fredning sandig'i bexosdan ochilib ketib, doktor Filibuster-ning suvdan olovsiz otiladigan fantastik mushaklaridan muayyan qismi portlab ketdi. Qo'rqib ketgan taksichining yura-gi yorilib ketishiga bir baxya qolgani kamlik qilganday, jon-poni chiqib ketgan Maymoqoyoq o'tkir tirnog'i bilan kelib-kelib o'sha taksichining oyog'iga tirmashib, yelkasiga chiqib oldi. Joni og'rigan taksichi yana dod soldi.

To'lib-toshgan mashinalarda yo'l yurish ham oson kech-madi. Tinchlanib olishi uchun Maymoqoyoqqa ko'p vaqt kerak bo'ldi. Londonga yetib olguncha u Garrini ham Ronni ham Germionani ham tirnab tashlashga ulgurdi. Kings-Kross vokza-liga yetishgach, jala yanada kuchli quyayotganiga qaramay, uchovlon taksidan chiqib, ancha yengil tortdi. Sandiqlar mashi-nalar tirband ko'chadan vokzal ichiga olib kirilguncha hamma

shalabbo bo'ldi.

Garri to'qqiz butun to'rtdan uchinchi platformaga o'tib olishning g'alati usuliga allaqachon ko'nikib qolgan, albatta. Buning uchun to'qqizinchi va o'ninchi platformalarni ajratib turgan temir to'siq orqali o'tib ketish kerak. Yagona shart shundan iboratki, bu ishni hech kimga sezdirmay, magllarning diqqatini jalb etmay amalga oshirish darkor. Bugun bolalar bu ishni kichik guruhlarga bo'linib bajarishdi. Cho'chrinstel bilan Maymoqoyoqni ko'tarib olgancha, juda shubhali ko'rinayotgan uchlik – Garri, Ron va Germiona birinchi bo'lib o'tadigan bo'ldi. Beg'am vaysab kelgan bolalar to'siqqa beparvo suyanib olishdida, yon tomonlari bilan sehrgarlar olamiga o'tib ketish-di... Shu zahoti to'qqiz butun to'rtdan uchinchi platforma ularning ko'z o'ngida moddiy tus oldi.

Yarqirayotgan to'q qizil «Xogvars-Ekspress» parovozi[1] platformaga pag'a-pag'a bug' purkamoqda. Qalin bug' orasida esa «Xogvars» o'quvchilari va ularning ota-onalari arvohlar kabi dam ko'rinib, dam ko'rinmay qolishmoqda. O'zaro suhbat qurishayotgan boyqushlarning gursullaganini eshitgan Cho'chrinstel yanada battar chirqiradi. Bo'sh joy qidirgan Garri, Ron va Germiona poyezd yonidan borib, ko'p o'tmay sandiqlarini o'rtadagi vagonlardan biriga ortishdi. Shundan so'ng ular, missis Uesli, Bill va Charli bilan xayrlashish uchun yana platformaga sakrab tushishdi.

– Balkim, siz o'ylagan vaqtdan ham ertaroq uchrasharmiz, – kulib boqdi Charli, singlisi Jinnani quchib xayrlashar ekan.

– Nega endi ertaroq uchrashishimiz kerak ekan? – so'radi Fred, akasiga sinchkovlik-la qarab.

– Mana ko'rasan, – mubham javob berdi Charli. – Faqat bu haqda og'iz ochganimni Persiga ayta ko'rmanglar. Axir, bu gap, uning ta'biri ila aytiladigan bo'lsa: «*Oshkor etishga Sehrgarlik vazirligi tomonidan maxsus ruxsat berilmas ekan, qat'iy sir tutilishi shart bo'lgan maxfiy axborot sanaladi*».

---

[1] **Parovoz** (*ruscha:* par – bug' + voz(it) – eltmoq) – temir yo'l poyezdlarini tortish uchun belgilangan, bug' dvigateli bilan harakatga keladigan mashina, bug' dvigatelli lokomotiv.

– Ha, «Xogvars»da yana bir yil o‘qish taklifini rad etma-gan bo‘lar edim, – dedi qo‘lini cho‘ntagiga solib olgan Bill poyezdga ma’yus qarab.

– Nega endi? – yana so‘radi Jorj, talab ohangida.

– Bu o‘quv yili qiziqroq o‘tadi, chamamda, – javob berdi Bill, ko‘zi yarqirab. – Balki, vaqt topib... tomoshaga kelarman...

– Nimani tomosha qilgani? – so‘radi Ron.

Shu paytda hushtak yangrab, missis Uesli bolalarni poyezdga turtib kirita boshladi.

– Taklifingiz uchun rahmat, missis Uesli, – dedi Germiona.

Bolalar kupega[1] kirib, eshikni yopishdi-da, derazalardan bosh chiqarishdi.

– Mehmondorchilik uchun rahmat, missis Uesli, – dedi Garri.

– Qo‘ysalaring-chi, yoqimtoylarim! Bunday mehmondor-chilik o‘zimga zavq bag‘ishlaydi-yu! – dedi missis Uesli. – Men sizlarni Rojdestvo ta’tiliga ham taklif qilgan bo‘lar edim-u... yuzaga kelgan vaziyatni inobatga olgan holda... m-m-m... ta’til-ni maktabda o‘tkazishni o‘zingiz afzal ko‘rasiz, deb o‘ylayman.

– Oyi! – achchiqlandi Ron. – Uchalangiz nimani sir tutyapsiz bizdan?

– O‘ylaymanki, bugun kechqurun hamma gapdan o‘zingiz voqif bo‘lasiz, – kulib yubordi missis Uesli. – Bu juda qiziq gap. Bilasizlarmi, qoidalarga o‘zgartirish kiritilganini eshitib rosa xursand bo‘ldim...

– Qaysi qoidalarga? – baralla so‘rashdi Garri, Ron, Fred va Jorj.

– Ishonchim komilki, professor Dambldor hammasini siz-larga batafsil tushuntirib beradi... – dedi missis Uesli. – Xush-xulq bo‘linglar, xo‘pmi? Va’da berasizmi? Va’da berasizmi? Fred?... Jorj?...

Porshenlar bug‘ vishillatgach, poyezd joyidan qo‘zg‘aldi.

– Aytsalaring-chi, nima bo‘ladi o‘zi «Xogvars»da? – baqir-

[1] **Kupe** (*fransuzcha:* coupe < couper qirqmoq, bo‘lmoq) – vagonning bir necha passajir uchun ajratilgan alohida bo‘lmasi.

di asabi chidamagan Fred, tez uzoqlashib qolayotgan missis Uesli, Bill va Charliga. – Qaysi qoidalarga o'zgartirish kiritildi?

Biroq missis Uesli sirli kulgancha, qo'l siltab qo'ydi. Bill bilan Charli esa poyezd muyulish ortiga o'tmay, havoda daf bo'lishdi.

Garri, Ron va Germiona kupega kirishdi. Jala chunonam kuchli quymoqdaki, tashqarida hech narsa ko'rinmaydi. Ron sandig'ini ochib, to'q qizil bayram kiyimini chiqardi-da, chirqirashini sal bo'lsa ham to'xtatish uchun Cho'chrinstelning qafasi ustiga tashlab, qushchani yopib qo'ydi.

– Yodingizdami, o'yin bo'ladigan kuni hatto Shulman ham «Xogvars»da o'tadigan allaqanday tadbir haqida aytib bermoqchi edi? – so'radi u, Garrining yoniga joylashib. – O'z onam esa mendan sir tutdi! Qiziq, nima...

– SH-sh-sh! – kutilmaganda pichirladi Germiona, ko'rsatkich barmog'ini labiga bosgancha, qo'shni kupe tomon imo qilib.

Ochiq eshik orqali ularga o'lgudek tanish cho'ziq ovoz eshitildi:

– ... umuman aytganda, dadam «Xogvars»da emas, «Durmshtrang»da tahsil ko'rishimni xohlagan. O'sha maktab direktori bilan dadam ikkalasi yaxshi tanish. Anavi maglparvar Dambldorga bo'lgan munosabatidan esa xabaringiz bor, albatta. Chunki «Durmshtrang»ga har xil isqirtlar qabul qilinmaydi. Lekin onam meni uzoq yurtga qo'yib yuborishni istamadi. Dadamning fikricha, «Durmshtrang»da yovuz kuchlar sehriga anchagina oqilona qaralar ekan. Aslida, yovuz kuchlar sehri «Durmshtrang»da bizning maktabimiz singari yovuz kuchdan himoyaga o'xshash ahmoqona fan sifatida emas, balki mustaqil fan sifatida o'zlashtiriladi...

Germiona o'rnidan turib, oyoq uchida yurgancha, qo'shni kupening kirish eshigi yoniga borib, Malfoyning ovozi eshitilmasligi uchun yopib qo'ydi.

– Demak, unga «Durmshtrang» ma'qul kelar ekan-da! – yurakdan xitob qildi qiz, – Esiz, o'sha yerga yuborishmabdi-da uni, bizga ham tishni-tishga qo'yib chidab yurishga to'g'ri kelmas edi.

– «Durmshtrang» ham sehrgarlik maktabimi? – so‘radi Garri.

– Ha, – jirkanch qiyofa yasadi Germiona, – nufuzi juda past maktab. «Yevropadagi sehrgarlik ta’limining qiyosiy tahlili»da yozilishicha, u yerda yovuz kuchlar sehriga alohida e’tibor ajratilar ekan.

– Nazarimda, o‘sha maktab haqida qayerdadir eshitganday bo‘lyapman, – esladi Ron. – Qayerda u? Qaysi yurtda?

– Buni hech kim bilmaydi-ku! – qoshini ko‘tardi Germiona.

– A-a... sabab? – hayron bo‘ldi Garri.

– Sehrgarlik maktablari orasida azaldan nooshkor raqobat hukm surib kelgan, – tushuntirishga kirishdi Germiona, xuddi hammaga ma’lum, tabiiy bir narsani aytib berayotgan kabi. – «Durmshtrang» bilan «Belstek» maktablari o‘z sirlarini muhofaza qilish maqsadida qayerda joylashganini hamisha sir tutib kelgan

– Qo‘ysang-chi, Germiona, – kulib yubordi Ron. – «Durmshtrang» ham xuddi «Xogvars» singari katta bo‘lsa kerak. Qanday qilib shunday yirik qasrni odamlarning ko‘zidan bekitish mumkin?

– «Xogvars» bekitib qo‘yilgan-u! – xitob qildi lol qolgan Germiona, – Bu hammaga... har qalay, «Xogvars» tarixi» kitobini o‘qiganlarga ma’lum.

– Demak, faqat senga ma’lum, – ta’kidlab qo‘ydi Ron. – Qani, davom et, qanday qilib shunday katta qasrni hammadan bekitish mumkin?

– Qasrimiz sehrlangan, – tushuntira ketdi Germiona, qarshisida o‘tirgan ikkala dunyobexabarga. – Agar unga magllar yuzlanadigan bo‘lsa, ularning ko‘ziga: «KIRMA, TIL TORTMAY O‘LASAN!» yozuvi osilgan, yo‘sin qoplagan ko‘hna xarobazor ko‘rinadi.

– Demak, «Durmshtrang» ham begonalarga xarobazor bo‘lib ko‘rinar ekan-da, a? – so‘radi Garri.

– Ehtimol, – yelka qisdi Germiona. – Balki, unga Kvidish bo‘yicha jahon kubogi o‘tkazilgan o‘yingoh devoriga qoplangan kabi maglcho‘chitish afsuni qoplangandir, kim biladi deysiz.

Xorijiy sehrgarlar topa olmasligi uchun esa tasvirlanmas qilib qo'yilgan bo'lishi ham mumkin.

– Nimamas qilib qo'yilgan? – tushunmadi Ron.

– Tasvirlanmas, ya'ni bino shunday sehrlanadiki, uning aksini ham shartli belgisini ham xaritaga tasvirlab bo'lmaydi. Sen bilasan-u.

– M-m-m... sen shunday desang, albatta, – g'udulladi Garri.

– Fikrimcha, «Durmshtrang» juda sovuq yurtda, uzoq shimolda joylashgan, – dedi Germiona, o'ylanib. – Negaki u yerda tahsil ko'radigan har bir o'quvchining maktab kiyimi tarkibiga mo'yna po'stin kiritilgan.

– Qanday imkoniyatlarimiz bo'lishini o'ylab ko'ringlar, – orzu-xayol ichra fikr almashdi Ron. – Malfoyni muz bo'lagidan suvga turtib yuborib, baxtsiz hodisa sifatida ko'rsatishimiz mumkin bo'lar edi... Afsus, uni yaxshi ko'radigan onasi bor ekan-da...

Poyezd shimol tomon harakatlangan sari yomg'ir kuchayib bordi. Deraza oynasi terlab kupe qorong'ilashib qolgani bois, chiroqlar kun yarmida yoqildi. Vagon yo'lagida lunji chuqurchali kulimsiragan chiroyli ayol yegulik ortilgan aravachasini tortgancha, o'tdi. Garri hamma uchun qozon shaklidagi keksning yirik bo'lagini xarid qildi.

Kun davomida ularning kupesiga sinfdoshlari, jumladan Simus Finnigan, Din Tomas va faromushxotirligi bilan ajrab turadigan kulchayuz Nevill Longbottom kirib turdi. Nevill o'zining nihoyatda qattiqqo'l afsungar buvisi qo'lida tarbiya topgan. Simus hanuzgacha ko'kragidan yashil tusda yorishgancha, Irlandiya terma jamoasi o'yinchilarining ismlarini qichqirib aytayotgan to'garakchani yechmagan. To'garakchaning sehri asta-sekin barham topmoqda. U haligacha «Troy! Mullet! Moran!», deya qichqirsa-da, ovozi qandaydir sust va horg'in eshitilmoqda. Yarim soatdan so'ng oxir-poyoni yo'q kvidish mavzusidan charchagan Germiona «Afsunlar to'plami (to'rtinchi qismi)»ni mutolaa qilib, Buyum chaqirish afsunini o'zlashtirishga kirishib ketdi.

Nevill Kvidish bo'yicha jahon chempionatining final o'yini

haqidagi gaplarni hasad bilan tinglab o'tirdi.

– Buvim o'yinga borishni istamay, chipta xarid qilmadi, – dedi u bebaxt ohangda. – Sizlarning hikoyalaringiz juda qiziq eshitilyapti.

– Haqiqatan ham zo'r bo'ldi, – tasdiqladi Ron. – Mana qara, Nevill...

U yuk tokchasida turgan sandig'ini titkilab, Viktor Krumning mitti qomatini chiqardi.

– Voy-bo'y, zo'r-u! – xitob qildi Nevill, Ronning kaftida yurgan o'yinchoq kaftiga sakrab o'tgach.

– Biz Krumning o'zini yaqindan ko'rdik, – dedi Ron. – Chunki o'yinni Mo'tabar Lojada o'tirib tomosha qilgan edik...

– Hayotingda birinchi va so'nggi bor, Uesli, – eshitildi tanish ovoz.

Kupe eshigida Drako Malfoyning ruxsori ko'rindi. Uning ortida qurollangan o'g'ri qiyofasini kasb etgan bahaybat ulfatlari Krabbe bilan Goyl turibdi. Yoz davomida ikkalasining bo'yi kam deganda yana bir futdan o'sibdi. Aftidan, ular bola-larning suhbatini Din bilan Simus qiya ochiq qoldirgan eshik orqali eshitishgan ko'rinadi.

– Seni kupega chaqirganimizni eslay olmayman, Malfoy, – dedi Garri sovuq ohangda.

– Uesli... mana bu qanaqangi qabohat bo'ldi, a? – baqraydi Malfoy, Cho'chrinstelning qafasiga imo qilib.

Qafas ustidan osilib tushgan bayram kiyimining yengi poyezd harakati bilan bir maromda siltanmoqda. Qadama yengdagi to'r esa aniq ko'rinib turibdi.

Ron korjoma yengini yashirish uchun tez harakat qildi-yu, Malfoy epchillik qilib changallab oldi-da, kiyimni qafas ustidan tortib oldi.

– Mana bunga qarang! – xitob qildi Malfoy jazavasi tutib.

U korjomani Krabbe bilan Goylning tumshug'i ostiga keltirib, hilpiratdi.

– Uesli, shuni kiyib yuraman demoqchimisan? To'g'ri, bir vaqtlar bu rasm bo'lgan, biroq u davrlar 1890-yillarda qolib ketgan...

– Najasga tiqilib o‘l, Malfoy! – yurakdan tiladi Ron, yuzi Drakoning qo‘lidan tortib olingan bayram kiyimining rangiday tus olib.

Malfoy, Goyl va Krabbe huzur qilib kishnashdi.

– Xo‘sh, Uesli... sen ham ishtirok etasanmi? – so‘radi Malfoy. – Oilang shuhratini olamga yoyishga urinib ko‘rarsan, axir? Qolaversa, mo‘maygina pul ham ishlab olishing mumkin... G‘olib chiqsang, o‘zingga durustroq bayram kiyim olasan...

– Nimalar deb valdirayapsan? – irilladi Ron.

– Qatnashasanmi, deb so‘rayapman? – takror so‘radi Malfoy. – Sen-u, Potter, ishtirok etishing aniq, a? Omma oldida yana bir bor qiyshanglash imkonini qo‘ldan chiqarmassan axir, shundaymi?

– Yo nimani nazarda tutayotganingni tushuntirib gapir, Malfoy, yo yo‘qol bu yerdan, – dedi Germiona, kitob ustidan nafrat-la qarab.

– Xabarim yo‘q, demoqchimisan, Uesli?! – hayratlangan Malfoyning rangpar yuzi kulgidan kengayib ketdi. – Akang ham, otang ham vazirlikda ishlashsa-yu, sen hali dunyobexabar bo‘lib yuribsanmi? Voy Xudo! Dadam bor gapni aytib, batafsil tushuntirib berganiga yuz yil bo‘ldi-yu!... Shaxsan Kornelius Fuj aytgan unga. To‘g‘risini aytganda, dadam juda yirik amal-dor shaxslar bilan muloqot qiladi... Sening dadang-chi, Uesli? Aftidan, ahamiyatsiz, kichik bir amaldor, shekilli-da, a? Unga biron-bir arzigulik gap aytilmasa kerak... Ha, shunga o‘xshaydi... Dadang bor joyda muhim mavzular to‘g‘risida gapirilmaydigan ko‘rinadi...

Yana bir bor huzur qilib kishnab olishgach, Malfoyning imosiga ko‘ra uchala bashara nari ketdi.

Ularning ortidan tashlangan Ron kupe eshigiga chunonam urilib ketdiki, eshik oynasi sinib, chilparchin bo‘ldi.

– Ron! – qichqirdi Germiona, ta’na ohangida. – Reparo! – g‘udulladi u, sehrli tayoqchasini siltab.

Oyna parchalari atrofdan yig‘ilib, bir butun bo‘ldi-da, eshik ko‘ziga qayta joylashdi.

– Nega endi u o‘zini hamma narsadan boxabar-u, bizni

ahmoq qilib ko‘rsatyapti?... – baqirdi Ron. – Dadam juda yirik amaldor shaxslar bilan muloqot qiladi emish... Mening dadam allaqachon katta amaldor bo‘lib ketishi mumkin edi, faqat u...

– Albatta, bo‘lishi mumkin edi, – rozi bo‘ldi Germiona vazmin ohangda. – Ron, Malfoyga sir boy berma...

– Kim? Men? Unga? Ovora bo‘ladi! – alam-la xitob qildi Ron, keksning bir bo‘lagini changallagancha, bir musht urib uvoqlab.

Yo‘lning qolgan qismida qovoq solib ketgan Ron maktab kiyimini indamay kiydi. «Xogvars-Ekspress» harakati sekinlab, Xogsmyod stansiyasidagi qop-qorong‘i zulmatda to‘xtaguncha churq etmay o‘tirdi.

Poyezdning eshigi ochilishi bilan momaqaldiroq gumburladi. Germiona Maymoqoyoqni ridosiga o‘radi. Ron esa bayram kiyimini Cho‘chrinstel qafasi ustida qoldirdi. Bosh egib, ko‘z qisib olgan bolalar qiyalama urayotgan jalaga chiqishdi. Yomg‘ir chelakdan to‘kilayotgan suv kabi kuchli yog‘moqda.

– Salom, Xagrid! – qichqirdi Garri, platformaning narigi boshida turgan davangir do‘stini ko‘rib.

– Ishlar joyidami, Garri? – javoban eshitildi Xagridning ovozi. – Ziyofatda uchrashguncha! Agar cho‘kib o‘lmasak, albatta.

Xagrid har yili birinchi sinf o‘quvchilarini qasrga an’anaga ko‘ra kichik qayiqchalar flotiliyasida[1] ko‘l orqali olib o‘tadi.

– Vu-u-u! Bunaqa havoda ko‘lda suzishni hech istamagan bo‘lar edim! – xitob qildi Germiona, nimanidir tasavvur qilganday qaltirab.

Xaloyiqqa qo‘shilgan bolalar platforma bo‘ylab harakat boshlashdi. Stansiya yaqinida ularni ko‘rinmas ot qo‘shilgan son-sanoqsiz aravalar kutmoqda. Garri, Ron, Germiona va Nevill ushbu aravalarning biriga kirib olishgach, Tangriga shukrona o‘qishdi. Eshik yopilib, bir necha daqiqa o‘tgach qing‘ir-qiyshiq aravalar karvoni «Xogvars» qasri tomon yo‘l oldi.

[1] **Flotiliya** (*fransuzcha*) – 1) daryo va ko’llarda, ba’zan esa yopiq dengizda xizmat qiladigan harbiy kemalar qo‘shilmasi; 2) muayyan vazifa bajaruvchi (ov, ekspeditsiya va shu kabilar) kemalar otryadi (**bu yerda shu ma’noda**).

XII BOB. UCH SEHRGAR BELLASHUVI

Dovul kuchini kasb etayotgan shamol xavfli darajada og'dirayotgan otsiz aravalar maktab hududiga olib kiradigan ulkan cho'yan darvozaning ikki yonida, tepa qismini qanotli tosh to'ng'izlar bezab turgancha qad ko'targan marmar ustun-lardan o'tgach, tik qiyalik bo'ylab qasr tomon ko'tarildi. Yaqin-lashgan sari ko'hna binoning sarg'ish tusda yorishayotgan dera-zalari sharros jala pardasi orqali xira miltillab ko'rinmoqda. Arava katta eman darvoza bo'sag'asiga olib chiqadigan tosh zinaga yetib to'xtagan ediki, yashin chaqnab, osmon yorishib ketdi. Oldin yetib kelgan o'quvchilar zina bo'ylab yuqoriga ko'tarilishmoqda. Aravadan sakrab tushgan Garri, Ron, Germiona va Nevill ham boshni xam qilib, yelka qisib olgan-cha, qasr tomon yugurishdi. To'rtovlon serhasham marmar zinasi qasrning yuqori qavatlariga olib chiqadigan, mash'alalar yoritgan bo'lib, nimasi bilandir g'orni eslatadigan vestibulga[1] kirgandagina, xavfsizliklariga amin bo'lib, qad rostlashdi.

– Dahshat! – dedi boshini kuchuk singari siltagan Ron. – Agar yomg'ir shu tarzda tinmay quyadigan bo'lsa, ko'l sathi tez orada ko'tarilib, sohildan oshib chiqadi... Kiyimim ivib ketdi-yu... VOY DO-O-OT!

Shiftdan suvga to'la qizil rangli havo shari tikka Ronning boshiga tushib yorildi. Ustidan suv oqayotgan Ron qulqulla-gancha, Garriga suyanib qoldi. Yana bir soniya o'tib, navbat-dagi suv bombasi Germionaning yonidan o'tgancha, Garrining oyog'i yaqinida portladi. Muzday suv poyafzaldan o'tib, pay-poqqa yetdi. Bombardimon qilinayotgan maydonni tezroq tark etish payiga tushgan xaloyiq qiy-chuv ko'tarib, bir-birini turt-gancha nari qocha boshladi. Tepaga qaragan Garri bo'yniga malla rang kapalaknusxa galstuk taqib, boshiga qo'ng'iroq-simon shlapa

[1] **Vestibul** (*lotincha:* vestibulum – uyga kiraverishdagi maydoncha, dahliz) – kino, teatr, metro va shu kabi boshqa jamoat inshootlarining ichkari qismiga kirish joyidagi katta, keng sahn, maydon.

qo'ndirib olgan, poldan yigirma futcha yuqorida havoda muallaq osilgan Dryuzgni ko'rdi. Keng yuzini darg'a-zab burishtirgan poltergeyst[1] jamiki diqqat-e'tiborini o'z ishi – navbatdagi nishon tanlashga jamlagan.

– BAS QIL DRYUZG! – yangradi professor Makgonagallning juda tanish darg'azab ovozi. – Basharang qursin!! Yo'qol bu yerdan!

«Griffindor» fakultetining mudiri, bir narsani boshqa narsaga aylantirish fani o'qituvchisi bo'lmish ushbu ayol vestibul bo'ylab shiddat-la odimlab kelmoqda.

– Voy jonim-yey! – dedi u, ho'l polda toyib, yerga qulab tushmaslik uchun Germionaning bo'yin aralash tomog'idan ushlab qolib. – Uzr, missis Grenjer...

– Hech q-q-qisi yo'q, prof-f-fessor! – xirilladi nafasi tiqilgan Germiona, tomog'ini silab.

Kvadrat gardishli ko'zoynak taqqan professor Makgonagall darg'azab nigoh-la poltergeystga o'qraydi.

– Yo'qol dedim senga, Dryuzg! – yana qichqirdi u, boshidagi cho'qqidor shlapasini to'g'rilab.

– Men biron-bir ayb ish qilayotganim yo'q! – hiringladi Dryuzg qasrga endigina kirib kelgan beshinchi sinf o'quvchilari ustiga navbatdagi bombani tashlab. – Ularning bari shundoq ham jiqqa ho'l! Bu ham yomg'ir! O't och! – dedi u, anqayib kirgan ikkinchi sinf o'quvchilarining boshiga yana bir bomba tashlab.

– Direktorni chaqirishga majbur qilasan, shekilli! – qichqirdi professor Makgonagall. – Aytib qo'yay, Dryuzg...

Tilini chiqarib mazaxlagan Dryuzg so'nggi bombani yuqoriga uloqtirib, aqldan ozgan kishining kulishiday xandon otgancha marmar zina uzra yuqoriga uchdi.

– Nega anqayasiz o'ting, Katta Zalga o'ting, marhamat! – dedi professor suvdan chiqqan mushuk bolalariday vestibulda g'uj bo'lib olgan bolalarga.

Bir-birini mahkam ushlab, yurgan yo'lida toyib borayotgan

[1] **Poltergeyst** – rivoyatlarga qaraganda, shovqin-suron, idish-tovoqlarni sindirish bilan o'zining kelganligini bildiradigan sirli arvoh. Arvohning bu turi odatda nohaq o'ldirilgan odamning ruhi ko'rinishida bo'ladi.

Germiona, Ron va Garri ham amallab qadam tashlab, o'ngga, qo'sh eshik tomon burilar ekan, yopishgan sochini ho'l peshanasidan sidirayotgan Ron darg'azab vaysab bordi.

Bayramona yasatilgan Katta Zal har safargiday ajib ko'rinmoqda. Fakultetlar uchun o'rnatilgan to'rtta uzun stolga terilgan likop va qadahlar shift ostida muallaq osilgan minglab shamlar shu'lasida tilla tus berib yarqiramoqda. Garri, Ron va Germiona «Slizerin», «Ravenklo» va «Xufflpuff» stollari yonidan o'tib, Katta Zalning narigi chekkasida yozilgan «Griffindor» fakultetining dasturxoni tomon odimlashdi. Ularga sadafdek oppoq tanasi miltillab, yarim shaffof ko'rinadigan, bugun qandaydir boshqacha yasanib, shukuhli yoqa taqqan fakultet arvohi «Deyarli Boshsiz Nik»ning yonidan joy topildi. Ushbu arvohning yoqasi biratulasiga ikkita vazifa bajaradi: birinchidan, bugungi oqshom nihoyatda tantanavor ekanini ta'kidlasa, ikkinchidan, mudhish ko'rinadigan bo'ynini yashirib, oxirgacha judo etilmagan boshining yelka ustida turg'un turishini ta'minlaydi.

– Xayrli oqshom, do'stlar, – yorishib so'rashdi Nik.

– Nimasini aytasan, chunonam xayrliki, cheki yo'q, – istehzo ila g'udulladi poyafzalini yechib, ichidagi suvni polga to'kayotgan Garri. – Saralash taomili cho'zilmas, degan umiddaman. Qornim ochligidan ichagim urnurtqamga yopishib qolgan.

Saralash taomili – o'quv yili boshida birinchi sinf o'quvchilarini maktab fakultetlariga majburiy taqsimlash tadbiridir. Ammo Garri birinchi sinfga kelib o'zi bevosita ishtirok etgan birinchi yilgi tadbirdan tashqari, bunday taomilning so'nggi ikkitasini juda nobop holatlar sababli o'tkazib yuborgan edi. Hozir esa to'g'risini aytganda, ovqatlanishdan ko'ra, ushbu taomilni tomosha qilish ishtiyoqida o'tiribdi.

Kutilmaganda stolning narigi boshidan Garriga sal kam sajda qiladigan uchinchi sinf o'quvchisi Kolin Krivining hayajonli xitobi eshitildi:

– Ho-o-oy, Garri!

– Salom, Kolin, – javob berdi ortiqcha shov-shuv ko'tarilishini istamagan Garri.

– Bilasanmi, Garri? Xabaring bormi, Garri? Bu yil-chi,

Garri, ukam, mening ukam Dennis ham o'qishga kiryapti! – uzuq-yuluq ma'lum qildi Kolin.

– M-m-m... juda yaxshi, – dedi Garri.

– Biram xursandki, u, Garri, shunday xursandki, qo'ya-verasan! – hayajonlandi Kolin, kursidan sakrab ketguday bo'lib. – «Griffindor»ga saralanadi deb o'ylayman! Barmoqlaringni chalishtirib ol, xo'pmi, Garri[1]?

– M-m-m... xo'p, yaxshi, – ishontirdi Garri.

Ueslilar xonadonining yetti nafar farzandi «Griffindor»da tahsil ko'rgani haqida o'ylanib qolgan Garri yonida o'tirgan Ron, Germiona va «Deyarli Boshsiz Nik»ka murojaat qilib so'radi:

– Aka-uka va opa-singillar, odatda, bitta fakultetga taqsim-lanishadi-ku, shundaymi?

– Har doim ham emas, – bosh chayqadi Germiona. – Masalan, sinfdoshimiz Parvatti Patilning Petil ismli egizak singlisi bor. Aslida ikkalasi bir-biriga ikki tomchi suvday o'x-shab, bitta fakultet sinfida o'qishlari kerakday ko'rinadi. Biroq Petil «Ravenklo»ga taqsimlangan.

Garri o'qituvchilar o'tiradigan «Mo'tabar Stol»ga nazar solib, ayrim joylarning bo'shligini ko'rdi. Xo'p, aytaylik, birin-chi sinf o'quvchilarini ko'l orqali olib o'tayotgan Xagrid ayni paytda to'lqinga qarshi kurash olib bormoqda, professor Mak-gonagall esa ularni kutib vestibul polini yuvib quritish ishlariga rahbarlik qilayotgan bo'lsa kerak. Lekin yana bitta joy bo'sh... Bu joy kimning joyi bo'lishi mumkinligini Garri hech fahmlay olmadi.

– Yovuz kuchdan himoya fanining yangi o'qituvchisi qani? – so'radi «Mo'tabar Stol»ga e'tibor qilgan Germiona.

Hali birorta o'qituvchi ushbu lavozimda uchta semestrdan[2] ortiq ushalib qolmagan. Ular orasida hurmatga ko'proq sazovor bo'la olgan o'qituvchi, o'tgan o'quv yili oxirida o'z xohishi bilan ishdan bo'shab ketgan professor Lyupin bo'ldi. Garri yana bir bor «Mo'tabar Stol»ga ko'z yugurtirib, birorta ham notanish

[1] **Eslatma**: Barmoqlarni chalishtirish – birovga omad tilab bajariladigan nasroniy irim.

[2] **Semestr** (*fransuzcha*: semestre; *lotincha* semestris – olti oylik; yarim yillik (sex – olti + mensis – oy)) – oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'quv yilining yarmi.

chehra ko‘rmadi.

– Nahotki hech kim topilmagan bo‘lsa? – tashvishlandi Germiona.

Garri o‘qituvchilarning hammasiga bir chekkadan sinchkovlik-la nazar soldi. Har tomon to‘zib ketgan oq sochi ustidan sehrgarlar shlapasini bosib kiygan gerbologiya[1] fani o‘qituv-chisi professor Sarsabil xonimning yonida afsun o‘qish fanining mushtdaygina o‘qituvchisi professor Flitvik kursiga taxlangan yostiqchalar ustida o‘tiribdi. Sarsabil xonim bilan nimalardir haqida qiziq suhbat qurayotgan astronomiya professori Zlovestraning chap yonida esa Garri yomon ko‘radigan qiyg‘ir-burun o‘qituvchi, sehrli damlamalar tayyorlash fani professori Severus Snegg joylashgan. Ushbu professor o‘zining yog‘li sochi, yuzi hamisha kasalmand ko‘rinishi ila boshqalardan ajrab turadi. Garrining Sneggdan nafratlanish darajasi faqat Sneggning Garriga bo‘lgan nafrati bilangina teng kelishi mumkin. O‘tgan o‘quv yilida Garri Sneggning kattagina tumshug‘i ostida Sirius Blekning qochib qutulishini uyushtirganidan so‘ng professorning bolaga nisbatan nafrati yanada oshib ketgan. Aniqlanishicha, maktabda o‘qib yurishgan kezlarda Snegg bilan Sirius bir-biriga ashaddiy dushman bo‘lib qolishgan ekan.

Sneggning yonidagi bo‘sh kresloda, aftidan, professor Minerva Makgonagall o‘tirsa kerak. Keyingi, ya’ni «Mo‘tabar Stol» markazidagi kresloda egniga nihoyatda muhtasham, yulduz-u yangi chiqqan oy tasviri ila bezatilgan to‘q-yashil korjoma kiygan, o‘zaro chalishtirilgan uzun barmoqlariga iyagini tirab olgan, uzun soch-soqoli sham shu’lalarida kumush tus berib tovlanayotgan maktab direktori professor Albus Dambldor o‘tiribdi. Xayolga berilgan direktor yarim oy shaklidagi ko‘zoynagini Katta Zalning sehrlangan shiftidan uzgani yo‘q. Garri ham qasr ustidagi samo holatini aks etadigan shiftga qarab, to‘q qizil bulut qamragan osmonning avzoyi buzilgan tasvirini ko‘rdi. Shu fursatda deraza ortida navbatdagi momaqaldiroq gumburlab,

[1] **Gerbologiya** – o‘simliklarning turlarini o‘rganadigan fan. Odatda bu fanda shifobaxsh xususiyatga ega bo‘lgan o‘simliklar o‘rganiladi.

ko'zni qamashtirgan darajada yashin chaqnadi.

– Tezroq bo'lishmaydimi, butun boshli gippogrifni[1] ikki yamlab bir yutadigan darajada ochqadim-u! – nolidi Ron.

Uning gapi oxirigacha yetmay Katta Zalning eshigi lang ochilib, oraga sukunat cho'kdi. Xayol o'tmay «Xogvars»ning birinchi sinf o'quvchilarini «Mo'tabar Stol» tomon boshlab kelayotgan professor Makgonagall ko'rindi. Garri, Ron, Germiona va qolgan barcha o'quvchilarning egnidagi kiyimi ho'l, lekin ularning holatini Katta Zalga kirib kelgan bolachalarning ahvoli bilan qiyoslab bo'lmaydi. Birinchi sinf o'quvchilarining aft-angori ko'ldan flotiliya qayiqchalarida emas o'zlari suzib o'tganga o'xshab qolibdi. O'qituvchilar stoli yoniga kelib, bir qator saf tortgan bolachalar sovqotgandan va yana ustiga, qasr arvohlariga ro'baru kelishganidan bo'lsa kerak, dahshatdan dag'-dag' titrashmoqda. Faqat kulrang sochli kichkinagina o'g'il bolagina bundan mustasno. U Xagridning krot po'stiniga[2] o'rab qo'yilgan bo'lib, qora mo'ynadan tikilgan chodirga kirib olganday ko'rinmoqda. O'rtoqlarining yaqinida turib, mittigina boshini ulkan kiyim yoqasining bir chetidan chiqarib olgan bolachaning mittigina chehrasida ifodalangan zavq-shavqning cheki yo'q. Katta Zalda o'tirgan Kolin Krivini topgan bolacha ikkala bosh barmoqchasini baland ko'tardi. Aftidan, yuz bergan hodisadan cheksiz quvonayotgan bo'lsa kerak, labi bilan «Men ko'lga tushib ketdim!» degani ko'rindi.

Bolachalar saf tortguncha professor Makgonagall ularning qarshisiga uch oyoqli kursi, kursi ustiga esa haddan tashqari kir, a'zoyi-badani yamoq bo'lib, nihoyatda eskirib ketgan cho'qqidor shlapani qo'ydi. Bolachalar Katta Zaldagi boshqa odamlar kabi shlapadan ko'z uzmay, tek qotishdi. Bir necha soniya ichida Katta Zalda mutlaq sukunat qaror topdi. Bir vaqt shlapa joyidan qo'zg'alib, chetida og'izga o'xshash teshik hosil bo'l-gach, qo'shiq aytishga kirishib ketdi:

---

[1] **Gippogrif** – G'arbiy Yevropa afsonalarida aytilishicha, tanasi sherga, qanoti burgut qanotiga o'xshash afsonaviy maxluq.

[2] **Krot** – yer ostida yashovchi, hasharotxo'r sutemizuvchi hayvon. **Krot po'stin** – shu hayvon terisidan tikilgan po'stin.

Ming yil oldin to'rt nafar yashab o'tdi sehrgar,
Bosh kiyim sifatida meni shunda tikdilar.
Buyuk ajdoddir bugun, siz bilgan o'sha zotlar
Mo'tabar nomlari-la atalgan fakultetlar.

Griffindor – oyoq yetmas botqoqlikning jasur o'g'loni,
Ravenklo – tog' ko'llaridan chiqqan dono qiz, misli ijod bulog'i,
Xufflpuff – tekislikning dono qizi, yaxshilikni ayamas,
Slizerin – mansabparast, makkorlikda hech kim unga teng kelmas.

Sehrgarlar qildi qaror maktab ta'sis etgani,
Qobiliyatli avlodga sehr sirin ochgani.
Ular qasr tiklashib, «Xogvars» degan nom berdi,
To'rtovlon to'rt talab-la shogird qidira ketdi.

Modomiki, talablar tafovutga boy ekan,
Shogirdlarga alohida ta'lim joriy etilgan.
Shu zayl ushbu maktab to'rt qismga bo'lingan,
Fakultetlar bir-biridan asta ajralib qolgan.

Griffindor shogirdlarning mardligin qadrlagan,
Ravenklo azaldan zakovatni tan olgan,
Xufflpuffning shiori tirishqoq mehnat bo'lgan,
Slizerin mag'rurlarni o'ziga chorlab kelgan.

Bosh qotirdi to'rtovlon
Kunlardan bir kun kelib,
«Kim saralar shogirdlarni
Omonatni topshirsak?» – deb.

Muammoning yechimin topdi jasur Griffindor
Shartta yechdi-da meni va dedi: «Bir yo'li bor!»
Shu tariqa mas'uliyat qoldi zimmamda abad:
Bilish sizga tabiat qanday bergan qobiliyat.

Qo'lingga ol do'stim meni, quloqqacha kiyib ol,
Men ko'rsatgan yo'l sari faoliyatni boshlab qol.

Shlapaning qo'shig'i yakuniga yetgach, Katta Zalda gulduros qarsaklar yangradi.

– Bizni saralaganda qo'shig'i boshqacha edi, – esladi Garri el qatori qarsak urib.

– U har yilgi saralash taomiliga yangi qo'shiq to'qib chiqadi, – dedi Ron. – Shlapa bo'lish qanchalik zerikarli ekanini tasavvur qilyapsanmi? Navbatdagi tadbirga yil bo'yi she'r yozib, kuy bastalab yotsa kerak-da.

Professor Makgonagall qo'lidagi uzun pergament o'ramini yozdi.

– Men ism-familiyangizni aytib, navbat bilan chaqiraman, siz esa safdan chiqqach shlapani boshingizga kiyasiz-da, kursiga o'tirasiz, – tushuntirish berdi u birinchi sinf o'quvchilariga. – Saralovchi shlapa siz tayinlangan fakultet nomini e'lon qilgach, tegishli stol tomon yo'l olasiz. Boshladik:

– Styuart Akkerli!

Safdan a'zoyi-badani titrayotgan bolacha chiqib, shlapani boshiga kiydi-da, kursiga o'tirdi.

– «Ravenklo»! – qichqirdi Shlapa.

Styuart Akkerli shlapani yechib, qarsak urib qarshi olayotgan «Ravenklo» fakulteti tomon yo'l oldi. Garri dasturxon atrofidagi joylardan birini egallayotgan Styuartni el qatori kutib olayotgan «Ravenklo» jamoasining «Sayyod»i Chuni ko'rdi.

– Malkolm Beddok! – chaqirdi professor Makgonagall.

– «Slizerin»! – e'lon qildi Shlapa.

Olqishlar endi Katta Zalning boshqa tomonida yangradi. Garri Beddokni qarshi olayotgan Malfoyning qarsak urayotganini ko'rdi. «Qiziq, – xayoldan o'tkazdi Garri, – yovuz sehrgarlar boshqa fakultetlarga nisbatan aynan «Slizerin»dan ko'p yetishib chiqqanidan anavi Beddokning xabari bormikan?»

Beddok o'z joyini egallar ekan Fred bilan Jorj vishillab qo'yishdi.

– Eleanor Brenstoun! – chaqirdi professor Makgonagall.

– «Xufflpuff»! – qichqirdi Shlapa.

– Ouen Kolduell! – davom etdi professor Makgonagall.

– «Xufflpuff»!- e'lon qildi Shlapa.

– Dennis Krivi! – chaqirdi professor Makgonagall.

Oldinga chiqayotgan mittigina Dennis Krivi Xagridning krot po'stiniga qoqilib ketdi. Xagridning o'zi esa bu paytda yakkakift yurib, o'qituvchilar stolining ortiga o'tdi. Bo'yi har qanday me'yoriy odamdan ikki chandon baland, uch barobar enli, sochi hurpaygan, soqol-mo'ylovi baroq Xagridning qiyofasi bir qarashda qo'rqinchli ko'ringani bilan aslida unday emas. U tabiatan mehribon ekanini Garri, Ron va Germiona boshqalardan ko'ra yaxshi bilishadi. O'z joyini egallar ekan Xagrid bolalarga ko'z qisib qo'yib, Dennisning shlapa kiyishini tomosha qildi.

– «Griffindor»! – e'lon qildi og'zini katta ochgan Shlapa.

Xagrid griffindorchilarga qo'shilib qarsak urdi, og'zi qulog'iga yetgan Dennis Krivi esa shlapani kursiga qo'yib, akasining yoniga yugurdi.

– Kolin, tasavvur qilyapsanmi, qayiqdan ag'anab, suvga shalop etib tushdim! – xitob qildi u, bo'sh joylardan biriga o'tirar ekan, hayajondan vujudi titrab. – Meni tutib olgan allaqanday ko'l jonivori qayiqqa chiqarib qo'ydi! Ajoyib, a!

– Yo'g'-ye?! – hayratda ukasidan qolishmadi Kolin. – Zo'r-u, Dennis! Bahaybat kalmar[1] bo'lsa kerak-a!

– Rostdanmi! – zavq oldi Dennis.

Bolachaning nazarida, po'rtana vaqtida qayiqdan tubsiz ko'lga tushib ketishni-yu, suv maxlug'i yordami ila omon qolishni hech kim, hatto aqlga sig'mas xayollarda ham orzu qila olmagan.

– Dennis! Anavi ko'zoynak taqqan qora sochli bolani ko'r-yapsanmi? – so'radi Kolin. – Uning kimligini bilasanmi, Dennis?

Garri aka-ukalarga teskari qarab, diqqat-e'tiborini ayni

[1] **Kalmar** (*lotincha;* Teuthida) – umurtqasizlar oilasiga mansub dengiz mollyuskasi. Odatda, bunday mollyuskaning uzunligi 25 santimetrdan 50 santimetrgacha bo'ladi. Ammo Architeuthis turiga mansub mollyuskalar 16,5 metrgacha uzunlikda bo'lishi mumkin.

paytda Emma Dobbsning boshidagi saralovchi Shlapaga qaratdi.

Taomil davom etib, ancha cho'zildi. Yuzlarida turli darajada qo'rquv aks etgan o'g'il va qiz bolachalar navbat bilan uch oyoqli kursiga o'tirib, saflari qisqara bordi. Professor Makgonagall familiyasi «L» harfi bilan boshlanadigan bolalarni chaqirib bo'ldi.

– Tezroq, tezroq, – ingradi ochlikka chiday olmayotgan Ron qornini silab.

– Nimalar deyapsan, Ron, – yozg'irdi «Deyarli Boshsiz Nik» Laura Medli «Xufflpuff»ga tayinlangan fursatda. – Saralash taomili ovqat yeyishdan muhimroq-ku, axir.

– Albatta, ayniqsa kishi o'lgan bo'lib, ovqatlanishi shart bo'lmasa, – kesatdi Ron.

– Griffindorchilarning yangi avlodi shonli an'analarimizga munosib bo'lishiga juda umid qilaman, – ishonch bildirdi «Deyarli Boshsiz Nik» endigina «Griffindor» safiga qo'shilgan Natali Makdonaldni olqishlar ekan. – Omad va g'alabalarimiz silsilasi uzilishini istamaymiz-u, shunday emasmi?

Mana uch yildir-ki, fakultetlar orasidagi birinchilikda «Griffindor» maktab kubogini qo'ldan chiqargani yo'q.

– Grem Prichard! – davom etdi professor Makgonagall.

– «Slizerin»!- qichqirdi Shlapa.

– Orla Uirke! – chaqirdi professor Makgonagall.

– «Ravenklo»! – e'lon qildi Shlapa.

Nihoyat «Xufflpuff»ga tayinlangan «Uitbi Kevin» bilan saralash taomili yakuniga yetib, professor Makgonagall Shlapa bilan kursini olib ketdi.

– Va nihoyat, – g'udulladi sanchqi bilan pichoqni changallagan Ron, mo'jiza ro'y berishini kutgancha dasturxondagi tilla likopga baqrayib.

«Xogvars» direktori professor Dambldor o'rnidan turib, qo'lini keng ochib ko'targancha, bolalarga kulib boqdi.

– Quloq soling, quloq soling! – baqirdi Garri bilan Ron.

– Bir og'iz so'z aytmoqchiman, xolos. Chovut soling! – amr qildi direktor.

Bo'sh idishlar bolalarning ko'z o'ngida turli-tuman taom-

larga to'lib-toshdi.

– O-o-o, an-na en-di zo'... – xursand bo'ldi og'zini shu zahoti kartoshka bo'tqasiga to'ldirgan Ron.

– Omadingiz bor ekanki, ziyofat amalga oshdi, – ma'lum qildi «Deyarli Boshsiz Nik». – Oshxonada bugun katta to'polon ko'tarilgan edi.

– Tin-chlikm-m-i? Nim-ma bo'ldi? – qiziqdi Garri steykning[1] kattagina bo'lagini g'ajir ekan.

– Nima ham bo'lar edi... Dryuzgning navbatdagi qilig'i-da, – boshini tebratdi «Deyarli Boshsiz Nik» uni to'g'ri vaziyatda tutib qolish uchun shukuhli yoqasini to'g'rilab. – Odatiy holat. U ham ziyofatda ishtirok etmoqchi edi. Bunga esa yo'l qo'yib bo'lmaydi. Uning tabiatida boadab tarbiya degan tushunchadan hech qanday alomat yo'qligi o'zingizga yaxshi ma'lum. Ovqat solingan likopga xotirjam qarab tura olmaydi. Toki taomni to'kib sochmas ekan, ko'ngli tinchimaydi. Arvohlar kengashi-ning yig'ilishi o'tkazildi. Ta'kidlab o'tish joizki, Semiz Rohib odatdagiday poltergeystga yana bir marta imkon berish tarafdori bo'ldi, biroq «Qonxo'r Baron» qat'iyan man etish fikrini bildirib, nazarimda, to'g'ri qildi.

Badjahl, kamgap, egni doimo kumush tusli qon dog'lariga belanib yuradigan «Qonxo'r Baron» «Slizerin» fakultetining arvohi bo'lib, ushbu maktabda Dryuzgning tanobini tortib qo'-yishga qodir bo'lgan yagona arvoh sanaladi.

– Dryuzgning nimadandir jahli chiqqanini qasrga kiriboq tushundik, – dedi Ron qovoq solib. – Xo'sh, oshxonada nima karomat ko'rsatdi u?

– Nima karomat ko'rsatar edi, tartibsizlik va vayronalikni-da, – yelka qisdi «Deyarli Boshsiz Nik». – Oshxona idishlarini-yu, tovalarni ag'darib, atrofga uloqtirdi. Hamma narsa sho'rva-da suzdi. Xizmatkor uy elflarining o'takasini yorib yubordi...

Jarang. Germiona qo'lidagi qadahni tushirib yubordi. Osh-qovoq sharbati oppoq dasturxonga to'kilib, uning katta qismi

[1] **Steyk** (*inglizcha*) – go'sht bo'lagi. Bu taom ham inglizlarning mashhur taomlaridan biri bo'lib, bizda ochiq olovda pishirladigan kabobga o'xshaydi. Steyk olov ustiga qo'yilgan panjarali moslama ustida pishiriladi.

to‘q sariq rangga bo‘yaldi. Qiz bunga e’tibor qilmadi.

– Bu yerda uy elflari bormi? – ko‘zini chaqchaytirdi u «Deyarli Boshsiz Nik»ka. – «Xogvars»da-ya?

– Albatta, – javob berdi «Deyarli Boshsiz Nik» Germionaning munosabatidan hayratlanib. – Ularning soni Britaniyadagi har qanday boshqa qasrga nisbatan ancha ko‘p. Yuzdan ziyod.

– Shuncha vaqtdan buyon ularning birortasini ham ko‘rmadim-u! – xitob qildi Germiona.

– Juda to‘g‘ri, – dedi «Deyarli Boshsiz Nik». – Ular kunduzi oshxonadan chiqishmaydi. Faqat tunda chiqib, tevarak-atrofni tartibga keltirishadi, kaminlarga o‘t qalashadi... xullas xo‘jalikning barcha zaruriy ishlarini bajarib yurishadi. Aytmoqchimanki, ular haqiqatan ham ko‘zga ko‘rinmasligi kerak, to‘g‘rimi? Axir, ko‘rinmaslik va eshitilmaslik uy elfining eng yaxshi fazilatlaridan biri-yu.

Qiz Nikka yeb qo‘yguday qarab turdi.

– Ularga maosh to‘lanadimi? – g‘azab-la so‘radi Germiona. – Mehnat va kasallik ta’tillariga chiqishadimi? Kek-salariga nafaqa to‘lanadimi? Xullas, shunga o‘xshash boshqa shart-sharoit va imtiyozlar havola etilganmi?

«Deyarli Boshsiz Nik» shunday kuldiki, shukuhli yoqasi bo‘ynidan sirg‘alib tushib, boshi yon tomonga ag‘anagancha, arzimagan mushaklar tutami va teri bo‘lagiga ilinib qoldi.

– Kasallik ta’tili? Nafaqa? – dedi u, yelkasiga joylayotgan boshini yoqa vositasida mahkamlab. – Uy elfiga bunday narsalar kerak emas!

Germiona hali tuzuk-quruq tatib ko‘rishga ulgurmagan ovqatga qaradi-da, qo‘lidagi pichoq bilan sanchqini stolga qo‘yib, likopni o‘zidan nari surdi.

– Hoy, bas qils-s-sangchi-i, Yer-mona! – jahl qildi Ron, endigina og‘ziga solgan Yorkshir pudingini[1] bexosdan Garrining egniga tupurib yuborib. – Iye, uzr... Arri... Sening kasringdan tiqilib o‘lishimga sal qoldi, – gapini davom etdi u, og‘zi-

[1] **Puding** (*inglizcha*) – inglizlar sevib iste’mol qiladigan, tuxum, shakar, sut va un qorishmasidan tayyorlanadigan pishiriq.

dagini bir iloj qilib yutib. – Ochlik e'lon qilganing bilan, elflarga kasallik ta'tili berilishiga erisha olmaysan!

– Qullar mehnati! Ana shunday tayyorlangan bu ovqat, – dedi Germiona, burun kataklarini shishirib. – Nihoyatda og'ir va mashaqqatli mehnat-la tayyorlangan.

Qiz tuz ham totmadi.

Jala Katta Zalning qop-qora ko'rinayotgan baland derazalarini tinmay savalamoqda. Momaqaldiroqning navbatdagi gumburi romlarni qarsillatdi. Birinchi tortilgan taom qoldiqlari tez yo'qolayotgani, o'rniga shirinliklar paydo bo'layotgan tilla likoplarni sehrlangan shiftda chaqilgan yashin yoritdi.

– Germiona qara, sen yoqtirgan quyuq shinnili tort! – dedi Ron, shirinlik hidi Germionaga yetib borishi uchun kaftini siltab. – Qorag'at pudingi! Shokolad pirojniy!

Germionaning nigohi professor Makgonagallning nigohiga o'xshab ketganini ko'rgan Ron unini o'chirdi.

Shirinliklarning oxirgi ushoqlari likoplardan gum bo'lib, idishlar yana yaltirab qolganidan so'ng Albus Dambldor yana o'rnidan turdi. Katta Zaldagi quvnoq g'o'ng-g'o'ng bir zumda tinib, faqat shamolning uvullayotgani-yu, yomg'irning dukillayotgani eshitildi.

– Shunday qilib! – gap boshladi, hammaga kulib boqqan Dambldor. – Yeb ichib, qornimizni to'yg'azdik.

– Hm, – darg'azab kulib qo'ydi Germiona.

– Endi gapimga diqqat bilan quloq solishingizni iltimos qilaman. Negaki men, nihoyatda muhim ma'lumot bermoqchiman.

Dambldor eshik yonida o'zining missis Norris laqabli mushugini mahkam quchoqlab turgan Filch tomon imo qildi.

– Maktabimiz nazoratchisi mister Filch, mazkur dargohda qo'llanilishi man etilgan buyumlar ro'yxati bu yil yanada kengayganligi, endi ular jumlasiga o'ldirilgan uy-yashkalar, dandonli frisbilar[1] va bum-bum bumeranglari[2] kiritilgani haqida

[1] **Dandonli frisbi** – fil suyagidan yasalgan uchar disklar.

[2] **Bumerang** (*inglizcha*) — qadimiy otish quroli. Bukilgan yog'ochdan yasalgan,

sizlarni xabardor qilib o'tishimni mendan iltimos qildi. Bilishimcha, mulohaza yuritilayotgan ro'yxat taxminan to'rt yuz o'ttiz yettita buyumni o'z ichiga mujassam etgan. Kim yaqindan tanishib chiqish yoki yod olishni istasa, o'sha ro'yxatni mister Filchning xizmat xonasidan topishi mumkin. Zero, ko'rinadigan joyga osib qo'yilgan ro'yxat devor gulqog'ozi vazifasini o'tamoqda.

Sezilar-sezilmas kulib qo'ygan Dambldor gapini davom etdi:

– O'zgarmas talablar o'z kuchini saqlab qolayotganligi, ya'ni, qasr hududini qurshab olgan o'rmonga kirish barcha o'quvchilar uchun man etilgani, uchinchi sinfdan quyi sinfda tahsil ko'rayotgan o'quvchilarga Xogsmyod qishlog'iga tashrif buyurishga ijozat yo'qligini eslatib o'tmoqchiman. Bundan tashqari, maktabimizning kvidish bo'yicha chempionati bu yil o'tkazilmasligi haqida sizni og'ir majburiyatimni bajargan holda xabardor qilmoqchiman.

– Nima?! – xitob qildi Garri.

U «Griffindor» jamoasida birgalikda o'ynaydigan Fred bilan Jorj tomon yuzlandi. Egizaklar so'z aytishga yaramaydigan holatga kelib, labini qimirlatgancha Dambldorga tikilib o'tirishibdi.

Direktor so'zini davom etdi:

– Gap shundaki, maktabimizda, oktabr oyidan boshlab, ushbu o'quv yilining oxirigacha, o'qituvchilarimizning ko'p vaqtini olib, ulardan bisyor kuch-quvvat talab etiladigan tadbir o'tkaziladi. Biroq ishonchim komilki, mulohaza yuritilayotgan tadbir hammaga yoqadi. Bag'oyat ulkan mamnuniyat-la e'lon qilamanki, bu yil «Xogvars»da...

Shu fursatda quloqni bitkazib yuborguday momaqaldiroq gumburlab, Katta Zalning eshigi taraqlagancha ochilib ketdi.

Ostonada qo'liga uzun aso ushlab, safar ridosiga o'ranib olgan kishi ko'rindi. Katta Zalda o'tirganlarning hammasi

---

ko'pincha o'roqsimon shaklda bo'ladi. Bumerang otilganda, aylanib, yana otuvchining o'ziga qaytib keladi.

daf'atan shiftdan chaqnagan qo'shaloq yashin yoritgan notanish kishi tomon yuzlandi. Musofir boshidan qora rangli ridosining qaytarma qalpog'ini yechib, otning haddan tashqari o'sib ketgan yolini eslatadigan uzun mosh-guruch sochini qattiq siltadi-da, o'qituvchilar stoli tomon ravona bo'ldi.

Har ikkinchi qadami taraqlab eshitilayotgan musofir stolning oxiriga yetib borib, o'ng tomonga burildi-da, Dambldor tomon kalovlandi. Shiftdan otilgan yana bir yashin yorqin chaqnadi. Notanish kasning yashindan yorishgan yuzini ko'rgan Germiona oh urib, og'zi hayratdan lang ochildi.

Odamning yuzi shunday bo'lishi mumkinligini Garri hech tasavvur qilmagan ekan. Bolaning nazarida, mana bu kishining yuzini tosh pichog'-u iskana kabi asbob-uskuna qanday ishlatilishini bilmaydigan, inson yuzi aslida qanday tuzilishidan mutlaqo bexabar allaqanday usta ko'rmagan notavon shogird chatnab ketgan g'o'ladan yo'nganday go'yo. Kelgindining yuz terisi nuqul chandiq. Qiyshiq ketgan diagonal yirmoch uning og'zi bo'lib, burnining kattagina bo'lagi yo'q. Biroq eng dahshatlisi bu odamning yuzi emas, ko'zi ekan...

Bitta ko'zi kichkina munchoqqa o'xshaydi. Kattagina, tangaga o'xshash yumaloq ikkinchi ko'zi esa elektr yorug'iday moviy tus berib ko'rinmoqda. Sog'lom odamning odatiy ko'ziga mutlaqo o'xshamaydigan bu ko'z pirpiramay, har tomon tinmay harakatlangancha, chanog'ida gir aylanmoqda. Nihoyat moviy ko'z bosh suyak ichiga yumalab kirib, tashqarida faqat oq soqqa qoldi.

Dambldorning yoniga yetgan musofir teri qoplamasi yuz terisidan qolishmaydigan qo'lini direktorga uzatdi. Qo'l siqishgan Dambldorning notanish kishiga g'udranib aytgan gapini Garri anglay olmadi. Aftidan, direktor bir nima so'radi, shekilli, musofir bosh irg'ib, yuzi o'ta jiddiy qiyofa kasb etgancha, past ovozda javob berdi. Dambldor ham bosh irg'ib, mehmonga o'ng tomondagi bo'sh o'rinni ko'rsatdi.

Taklif etilgan joyga o'tirgan kishi yuzini to'sib qo'ygan sochini orqaga siltab kolbasali taom solingan likopni o'ziga tortdi-da, kimdir chopib tashlagan burniga yaqin keltirib hidla-

di. Shundan so‘ng kissasidan kichkina pichoq chiqarib kolbasining bir bo‘lagini sanchib oldi-da, ovqatlanishga kirishdi. Ayni paytda uning sog‘ ko‘zi kolbasaga yo‘naltirilgan bo‘lsa, sun’iy ko‘zi chanog‘ida tinimsiz aylangancha, Katta Zalni batafsil o‘rganib chiqishga kirishdi.

– Ijozatingiz bilan tanishtirib o‘tay, – Katta Zalda qaror topgan o‘lik sukunatni buzdi Dambldor zavqlanib. – Yovuz kuchdan himoya fanining yangi o‘qituvchisi professor Xmuri.

Odatda, yangi o‘qituvchi gulduros qarsaklar ila qarshi olinadi. Biroq bu gal Dambldor bilan Xagriddan tashqari na o‘qituvchilar va na o‘quvchilar qarsak urdi. Sukunat ichra tanho chalinayotgan chapaklari mudhish eshitilayotganini idrok etishgach, ikkalasi ham qarsak urishni barobar bas qildi. Qolganlar haddan ortiq g‘alati o‘qituvchining yanada g‘alati tarzda paydo bo‘lganidan serrayib, Xmuriga baqrayib o‘tirishdi.

– Xmuri? – pichirladi Garri. – O‘ynoqko‘z Xmurimi? Bugun ertalab dadang shu kishiga yordam bergani yo‘lga chiqqanmidi?

– Ehtimol, – past ovozda javob berdi yangi o‘qituvchidan ko‘zini uza olmayotgan Ron.

– Unga nima qilgan ekan, a? – so‘radi Germiona pichirlab. – Yuzini nazarda tutyapman.

– Tasavvurimga sig‘dira olmayman, – cho‘zib javob berdi Ron, Xmuriga hayrat-la qarab.

Sovuq qabul qilingani yangi o‘qituvchining parvoyiga ham kelgani yo‘q. Qarshisida sharbat quyilgan ko‘za turganiga qaramay Xmuri safar ridosining qatlaridan qandaydir idish chiqardida, bo‘g‘zini og‘ziga keltirib kattagina xo‘pladi. Qo‘lini baland ko‘targancha, boshini orqaga tashlab ichar ekan ridosining etagi ko‘tarildi. Garri o‘tkir tirnoqli panja shaklida yakunlangan yog‘och oyoqning uchini ko‘rdi.

Hayrat to‘la nigohlarini O‘ynoqko‘z Xmuridan uza olmayotgan katta-kichik tomoshabinlarga kulib qaragan Dambldor tomoq qirdi.

– Yuqorida boshlagan fikrimga qaytmoqchiman, – dedi u. – Sehrgarlar olamida shunday qiziq bir tadbir borki, uning

o‘tkazilmaganiga yuz yildan oshdi. Favqulodda ulkan zavq-la e’lon qilamanki, kelasi bir necha oy davomida aynan bizning maktabimiz – «Xogvars»da Uch sehrgar bellashuvi bo‘lib o‘tadi.

– HAZILLASHMANG! – qichqirdi Fred Katta Zalni boshiga ko‘tarib.

Hamma kulib yubordi. Xmuri kirib kelgan fursatdan buyon hukm surgan keskin vaziyat birdaniga barham topdi. Hatto Dambldor ham ma’qullagancha hiringlab qo‘ydi.

– Yo‘q mister Uesli, hazillashayotganim yo‘q, – dedi direktor. – Garchi hazil masalasini ko‘targan ekansiz, yozda aytib berilgan bir latifa yodimga tushdi. Demak, hodisa bunday bo‘lgan ekan: kunlardan bir kun qahvaxonada troll, afsungar ayol va neprechyom uchrashib qolibdi...

Professor Makgonagall qattiq yo‘talib qo‘ydi.

– M-m-m... hozir mumkin... mavridi emasdir... m-ha... – gapini yo‘qotib qo‘ydi Dambldor. – Nima deb turgan edim? Ha-ya, Uch sehrgar bellashuvi... Ba’zilar qanday tadbir to‘g‘risida gap ketayotganini bilmay o‘ylanib o‘tirgandir, ehtimol. Boxa-barlar esa tarix sahifalarini yana bir karra esga olib o‘tayot-ganim uchun meni ma’zur tutib, ularga o‘z xayollarining og‘ushida o‘tirishlariga ijozat beramiz. Uch sehrgar bellashu-vini o‘tkazish taxminan yetti yuz yil muqaddam an’ana tusiga kirgan. Ushbu bellashuv Yevropadagi uchta yirik sehrgarlar maktabi, xususan «Xogvars», «Belstek» va «Durmshtrang» o‘quvchilari o‘rtasida do‘stona musobaqalar ko‘rinishida o‘tka-zilgan. Har bir maktab mulohaza yuritilayotgan bellashuvga o‘z vakilini yo‘llagan. Sanab o‘tilgan maktablardan tashrif buyur-gan chempionlikka da’vogarlarning har biri sehr-joduga oid uchtadan vazifa bajarishi kerak. Har besh yilda har bir maktab o‘z dargohida bellashuv ishtirokchilarini qabul qilib borgan. O‘xshash tadbirlar turli xalq va millatlarga mansub yigit-qizlar o‘rtasida do‘stona munosabatlar qaror topilishining eng yashi usuli, deya e’tirof etilgan... Biroq bunday bellashuvlarda o‘lim bilan yakun topgan holatlar soni haddan ortiq oshib ketgach, o‘tkazilishiga chek qo‘yilgan.

– O‘lim bilan yakun topgan holatlar? – dahshat-la takrorladi

Germiona.

Biroq bunday xabar Katta Zalda o'tirganlarning aksariyatini tashvishga solmadi. Aksincha, ko'pchilik orasida jonli shivir-shivir boshlandi. Garri ham yuzlab yillar oldin sodir bo'lgan o'lim holatlari haqida o'ylab, boshini og'ritmay, bellashuv haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishga qiziqdi.

– So'nggi bir necha asr davomida Uch sehrgar bellashuvi an'analarini tiklashga qaratilgan urinishlar ko'p bo'lgan-u lekin har safar natijasiz yakun topib kelavergan, – davom etdi Dambldor. – Bu safar esa Buyuk Britaniya Sehrgarlik vazirligining Sehrgarlik o'yinlari va sport departamenti Uch sehrgar bellashuvi o'tkazilishiga doir qaror qabul qildi. Musobaqalar davomida qanday vaziyat yuzaga kelmasin, bellashuvning birorta ham ishtirokchisiga o'lim tahdid qilmaydigan xavfsizlik choralari ustida vazirlikning yuqori malakali aksariyat mutaxassis-sehrgarlari tomonidan yoz bo'yi ko'p ter to'kildi. Oktabr oyida «Belstek» va «Durmshtrang» direktorlari o'z tasarrufidagi maktablarining chempionlikka da'vogarlari bilan birga maktabimizga tashrif buyuradi. Bellashuv ishtirokchilarini tanlash marosimi Xellouin kuni o'tkaziladi. Ta'kidlab o'tishim joizki, o'z maktabining shoni va faxri, Uch sehrgar bellashuvida ishtirok etib, ming galleon yutuqni qo'lga kiritish uchun kura-shishga kim munosib ekanini faqat betaraf hakamgina hal etadi.

– Men, albatta, o'z kuchimni sinab ko'raman! – baland ovozda pichirladi Fred.

Shon-shuhrat va boylikka ega bo'lish orzusi uning yuzida barq urmoqda. Katta Zalda o'tirganlar orasida o'zini «Xogvars»ning eng munosib, tanho da'vogari deb bilgan faqat Fred emasligi yaqqol ko'zga tashlandi. Har bir stol atrofida Dambldorning gapini berilib tinglab, baqrayib o'tirganlar kam emas. Ko'pchilik shivirlashmoqda.

Dambldor yana gap boshlagach, Katta Zalga suv quygandek sukunat cho'kdi.

– Har biringiz Uch sehrgar bellashuvi Kubogini «Xogvars»da olib qolish yo'lida kurashishni o'zingiz uchun yuksak sharaf deb bilishingiz va bundan benihoya baxtiyor

bo'lishingizga shubha yo'q. Shunga qaramay ishtirokchi-maktab direktorlari tomonidan Buyuk Britaniya Sehrgarlik va-zirligi bilan birgalikda chempionlikka da'vogarlar orasida yosh bo'yicha ayrim cheklanishlar joriy etishga doir qo'shma qaror qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq bellashuvda ishtirok etish uchun faqat o'n yetti yoshga to'lgan da'vogarlarning arizalari qabul qilinadi.

Katta Zalda e'tirozli hayqiriqlar ko'tarildi. Egizak Ueslilar-ning esa chinakamiga jahli chiqdi.

– Bu zaruriy shartlardan biri sanaladi, – baland ovozda davom etishga majbur bo'ldi direktor. – Negaki o'qituvchilar tomonidan qanday xavfsizlik chorasi ko'rilmasin, Uch sehrgar bellashuvida hal etiladigan vazifalar juda murakkab va xavfli-dir. Oltinchi-yettinchi sinfdan quyi sinfda tahsil ko'radigan o'quvchilar bunday vazifalarni uddalay olishlari amri mahol. O'n yetti yoshga to'lmaganlar orasidan biror-bir kishi betaraf hakamni alday olmasligi uchun qo'limdan kelgancha ish tutib, g'ov qo'yishga ahd qilganman, – dedi moviy ko'zi yarqiragan Dambldor, Fred bilan Jorjning isyonchi yuzlariga qarab. – Shunday ekan, o'n yetti yoshga to'lmaganlar vaqtni behuda o'tkazib, ariza berishga urinishmasin. «Belstek» va «Durmshtrang» vakillari oktabr oyida tashrif buyurib, o'quv yilining deyarli oxirigacha dargohimizda qolishadi. Ishonchim komilki, xorijiy mehmonlarni iltifot-u izzat-ikrom-la qabul qilib, qaysi fakultetdan saralab olinishidan qat'i nazar, «Xogvars»ning chempionlikka da'vogar yigiti yoki qizini sami-miy qo'llab-quvvatlaysiz. Aytilishi lozim bo'lgan gaplar aytildi. Kech bo'ldi. Yaxshi dam, ertangi mashg'ulotlarga hamdam. Shunday ekan, xayrli tun. Yotoqxonalar tomon qadam bos!

Dambldor joyiga o'tirib, O'ynoqko'z Xmuri tomon yuzlandi. O'quvchilar shovqin-suron solgancha o'rinlaridan turib, Katta Zalning qo'shaloq chiqish eshiklari tomon yo'l olishdi.

– Qanday jur'at etishdi?! – o'kirdi stol yonida qolgan Jorj Uesli, xuddi nigoh-la yondirib yuborishga uringanday Dambl-dorga chaqchayib. – Aprel oyida o't yettiga to'lamiz. Nega endi bellashuvda ishtirok etishga haqimiz yo'q ekan.

– O'zlarining bo'lmag'ur qoidalari bilan meni to'xtatib qolisha olmaydi! – o'jarlik-la ma'lum qildi Fred, o'qituvchilar stoli tomon norozi qarab. – Oddiy holatda man etilgan ayrim narsalar chempionlikka da'vogarlarga ijozat beriladi! Plus ming galleon sovrin ularni kutadi!

– Ha-a, – cho'zib tasdiqladi Ron, – ming galleon-a!...

– Ketdik, – shoshiltirdi Germiona. – Katta Zalda o'zimiz qoldik.

Garri, Ron, Germiona va egizaklar chiqish eshigi tomon yo'l olishar ekan o'n yetti yoshga to'lmagan o'quvchi Uch sehr-gar bellashuvida ishtirok eta olmasligi uchun Dambldor tomoni-dan ko'riladigan joiz choralarni muhokama qilib ketishdi.

– Chempionlikka da'vogarlarni tanlab oladigan betaraf hakam kim ekan o'zi, a? – so'radi Garri.

– Tasavvur ham qila olmayman, – dedi Fred. – Biroq bari bir men uni aldayman. O'ylaymanki, Qaritish damlamasining ikki tomchisi yetarli bo'ladi, a, Jorj?

– Nima qilsalaring ham bari bir yoshingiz o't yettiga to'lmaganini Dambldor biladi, – yelka qisdi Ron.

– Ha, to'g'ri, biroq chempionlikka da'vogarni u tanla-maydi-ku, to'g'rimi? – e'tiroz bildirdi Fred, Ronga o'qrayib. – Fikrimcha, o'sha hakam bellashuvda ishtirok etmoqchi bo'lgan-larning ro'yxatini oladi-da, har bir maktabdan bir nafardan eng zo'r da'vogarni saralab oladi. Da'vogarning yoshi esa uni mutlaqo qiziqtirmaydi. Aynan shu sababli, Dambldor, nima qilib bo'lsa ham ariza berishimizga to'sqinlik qilmoqchi.

Bolalar gobelen[1] vositasida bekitilgan eshikdan o'tib, torgina zina qarshisidan chiqishdi.

– Bellashuvlarda o'lim bilan yakun topgan holatlar ham bo'lganini unutmang! – eslatdi Germiona tashvishli ohangda.

– Bo'lgan unday holatlar, – beparvo ohangda rozi bo'ldi Fred. – Million yil muqaddam bo'lgan, shundaymi? Nima qil-ganda ham o'ychi o'yiga yetguncha, tavakkalchi ishini bitiribdi,

[1] **Gobelen** (*fransuzcha: gobilin*) – devorga osib qo'yish uchun mo'ljallangan, hunarmandlar tomonidan qo'lda to'qilgan gilam. Uning yuza qismida ma'lum bir voqea tasvirlanadi. Shu xususiyati bilan boshqa shunday ko'rinishdagi gilamlardan farq qiladi.

deyishadi... Hoy, Ron, agar Dambldorni aldash yo'lini topadigan bo'lsak, bellashuvda ishtirok etish masalasiga qanday qaraysan?

– Sen-chi Garri, nima deysan? – so'radi Ron Garridan. – Ariza berish imkoniga ega bo'lsak, zo'r ish bo'ladi-yu, a?! Faqat bari bir o'sha betaraf hakam yoshi kattaroq da'vogarni tanlasa kerak... Uning fikricha, bizning bilimimiz yetishmas, mumkin...

– Mening bilimlarim yetishmasligi turgan gap, – eshitildi egizaklar orqasidan sudralib kelayotgan Nevillning ovozi. – Shunday bo'lsa ham buvim, o'zimni sinab ko'rishimni istagan bo'lar edi. Bir gap ikki bo'ldi, xonadon sha'nini saqlashim darkorligini ta'kidlagani-ta'kidlagan. Faraz qiling men ne-ne zahmatlardan o'tishim kerak bo'la... VOY!...

Nevillning bir oyog'i zina o'rtasiga tushib ketdi. Aksariyat maktab o'quvchilari uchun xavfli pog'onalar uzra sakrab yurish odat tusiga kirgan. Biroq Nevillning xotirasi favqulodda yomon bo'lib, bunday narsalarni doimo unutib yuradi. Ron bilan Garri uning qo'ltig'idan ushlab, chiqarishga ulgurib qolishdi. Zina oxirida turgan ritsarlarning yarog'-aslahalari kulib, zirillab qo'yishdi.

– O'chir ovozingni, – dedi ulardan birining yonidan o'tayotgan Ron, dubulg'asining pardasini qarsillatgancha yopib.

Nihoyat bolalar «Griffindor» binosiga olib kiradigan tuynukni to'sib turadigan, egniga pushti shoyi ko'ylak kiygan «Semiz Xola» portretiga yetib kelishdi.

– Parol? – talab qildi «Semiz Xola».

– Bema'ni gap, – javob berdi Jorj. – Sinfboshi aytgan edi menga, pastda turganimizda.

Portret yuqoriga ko'tarilib, devordagi tuynukni ochdi. Bolalar navbat bilan ichkariga kirishdi. Dumaloq shaklga ega umumiy mehmonxona kaminidagi olov chirs-chirs yonmoqda. Mehmonxonaga kichik stollar va do'mboq kreslolar o'rnatilgan. Germiona o'ynab yonayotgan gulxanga xo'mrayib qaradi. Garri qizning: «Qullar mehnati» – deya g'udullaganini aniq eshitdi. Germiona hammaga xayrli tun tilagancha, yotoqxonasiga ravona bo'ldi.

Garri, Ron, Nevill esa so‘nggi aylanma zinadan, minora cho‘qqisida joylashgan yotoqxonalariga ko‘tarildi.

Xona devori yonidagi to‘q-qizil rangli baxmaldan tayyorlangan beshta guldor chodir ostiga beshta karavot o‘rnatilgan. Bolalarning sandiqlari allaqachon yotoqxonaga olib chiqilib, karavotlarning oyoq tomoniga terib chiqilgan. Din bilan Simus yotish taraddudida. Simus o‘z karavotining bosh tomoniga Irlandiya terma jamoasining muxlislari taqqan to‘garakni, Din esa kichkina javon tepasidagi devorga Viktor Krumning portreti bilan Vestxem futbol jamoasi tasvirlangan plakatni mahkamlab qo‘yibdi.

– Telbalik, – xo‘rsindi mutlaqo harakatsiz futbolchilarni ko‘rgan Ron boshini tebratib.

Uchalasi pijama kiyib, ko‘rpaga yotdi. Kimdir, uy elflari bo‘lsa kerak, choyshablar orasiga grelka tashlab qo‘yibdi. Bu misli yo‘q shinamlik hissini uyg‘otadi. Deraza ortida bo‘ron o‘ynasa-yu, sen iliqqina ko‘rpada yotib, tashqaridagi to‘s-to‘polonni eshitib yotsang!

– Bilasanmi nima, men, albatta, bellashuvda ishtirok etaman, – uyqusiragancha g‘udulladi Ron. – Agar Fred bilan Jorj... yo‘lini topishsa... musobaqa... bilmaysan-u, nima bo‘lishini... to‘g‘rimi?...

– Ha... – javob berdi Garri yonboshlar ekan.

Uning ko‘z oldiga qiziq manzara keldi: go‘yo betaraf hakamni laqillatishga erishibdi-yu, «Xogvars»ning o‘n yetti yoshga to‘lgan chempionlikka da’vogari sifatida saralanib, jamiki maktab oldida, xuddi zafar qozongan kabi qo‘lini baland ko‘taribdi... hamma ayyuhannos solgancha, Garrini olqishlamoqda. Xaloyiq orasida Chuning zavqli chehrasi alohida ajrab turibdi...

O‘zi ko‘ra oladigan narsani Ron ko‘ra olmasligidan xursand bo‘lgan Garri yuzini yostiqqa bosib kulib qo‘ydi.

XIII BOB. O‘YNOQKO‘Z XMURI

Ertalab dovul tindi-yu, qasr ustidagi osmon holatini aks etadigan Katta Zal shifti yirik, qalay tusli kulrang bulutlar bilan to‘silgancha, badqovoq qoldi. Nonushta qilayotgan Garri, Ron va Germiona yangi o‘quv yiliga tuzilgan mashg‘ulotlar jadva-lini o‘rganib o‘tirishibdi. Fred bilan Jorj esa kishini qaritishning turli usullarini do‘stlari Li Jordan bilan qizg‘in muhokama qilishmoqda. Uch sehrgar bellashuvida ishtirok etish uchun ariza berishning yolg‘on-yashiq yo‘llari doir fikr ularga hamon tinchlik bermayapti.

– Bugun yaxshi kun ekan... tushlikkacha vaqtimiz hovlida o‘tar ekan, demoqchiman, – ma’lum qildi mashg‘ulotlar jadva-lining dushanba kuniga taalluqli ustuni bo‘ylab barmoq yuritgan Ron. – Dastlab xufflpuffchilar bilan gerbologiya, keyin sehrli hayvonlarni parvarish qilish fani... Jin ursin, yana slizerinchilar bilan birga!...

– Tushlikdan so‘ng esa qo‘sh soatli bashorat, – ingrab yubordi Garri jadvalga qarab.

Bashorat sehrli damlamalar tayyorlash darslari bilan bir qatorda Garri yoqtirmaydigan fan sanaladi. Har darsda Garri-ning kuni bitishiga oz qolgani professor Trelani tomonidan bashorat qilingan sari, bolaning joni chiqaveradi.

– O‘sha bema’ni fandan allaqachon qo‘l yuvishing kerak edi, Garri, – ishonch-la ma’lum qildi Germiona nonga sariyog‘ surtib. – Mana meni olaylik. Bashoratning tuturiqsiz mashg‘u-lotlariga kirmay qo‘ydim! Sen ham shunday qilsang biron-bir bama’ni, masalan numerologiya[1] fanini o‘zlashtirishingga imkon tug‘iladi.

– Bundan tashqari, agar to‘g‘ri tushungan bo‘lsam, endi sen ovqatlanishdan ham bosh tortmaydigan bo‘lib qolding, – gap

[1] **Numerologiya** (*inglizcha;* arifmantika) – «Sehrli sonlar»ning tirik organizmlar, shuningdek, insonlar hayotidagi o‘rni va ta’sirini o‘rganadigan fan. Bu fan ko‘proq mistik-fantastika sohasida qo‘llaniladi.

qistirdi Ron, Germionaning buterbrod ustiga jem[1] bosayot-ganini ko‘rib.

– Elflarning haq-huquqlari uchun olib boriladigan kurash-ning boshqa, yanada samarali usullarini qo‘llashga ahd qildim, – g‘urur-la ma’lum qildi Germiona.

– Ha, albatta... – hiringladi Ron. – Ayniqsa, qorning po‘stakni yeb yuboradigan darajada och qolgach.

Kutilmaganda bosh uzra shitir-shitir eshitildi. Katta Zal-ning ochiq derazalaridan yopirilib kirgan son-sanoqsiz boyqush-lar ertalabki pochtani yetkazib keldi. Ming afsuski, qo‘ng‘ir va kulrang qushlar oqimida birorta bo‘lsin oq boyqush ko‘zga tashlanmadi. Qush galasi xat va jo‘natma egalarini qidirgancha stollar uzra gir aylandi. Bolalar boshi ustida muallaq osilib olgan allaqanday yirik, malla rang boyqush Nevill Longbottom-ning tizzasiga nimadir tashlab ketdi. «Xotira kuchi» masalasida Nevillga yetadigan odam bo‘lmasa kerak «Xogvars»da. U yana biron narsasini uyda qoldirib kelgan ko‘rinadi.

Katta Zalning narigi boshida qarchig‘aylar oilasiga mansub ukki o‘z sohibi Drako Malfoyning yelkasiga qo‘ndi. Qush odatdagiday Malfoyga pirog va shirinliklar keltirgan. Garrining hafsalasi pir bo‘lib yuragi achishdi. Tashvish ta’siriga berilmas-lik uchun o‘zini bo‘tqa yeyishga majbur qildi. Xedvigga biron kor-xol bo‘lmadimikan? Garrining xati Siriusga yetib bormagan bo‘lsa-chi?

Fikr-xayolini noxush o‘ylar egallagan Garri ekinzor orasi-dan uchinchi issiqxona tomon yo‘l oldi. O‘quv yilining birinchi mashg‘uloti Garrini ma’yus xayollardan chalg‘itdi. Professor Sarsabil xonim o‘quvchilar e’tiborini issiqxona egatlarida saf tortib o‘sgan nihoyatda xunuk o‘simlikka qaratdi. Aniqroq aytiladigan bo‘lsa, o‘simlik bo‘lib o‘simlik ham emas, har biri yerdan tikka chiqib, bilinar-bilinmas tebranib turgan allaqanday yirik, qop-qora, semiz shilliqqurtga o‘xshaydi. Poyasining silliq yuzasida ichi suyuqlikka to‘lgan katta-katta shishlar ko‘rinmoqda.

[1] **Jem** *(inglizcha:* jam – murabbo) – quyuq shinni; meva qiyomi.

– Bubotuber, – e’lon qildi baxtiyor qiyofa kasb etgan Sarsabil xonim. – Mana bu shishlarini siqib, ichidagi fasodni chiqarish kerak. Siqib chiqarilgan fasodni anavi...

– Nimani siqib chiqarishimiz kerak? – jirkanib baqirdi Simus Finnigan.

– Fasodni, Finnigan, fasodni, – takrorladi professor Sarsabil xonim. – Bu fasod nihoyatda noyob, qimmatbaho modda sanaladi. Shu bois birorta ham tomchisini uvol qilmang. De-mak, fasodni mana bu shishalarga siqib olasiz. Ajdar terisidan tayyorlangan himoya qo‘lqopini taqing. Eritilmagan bubotuber fasodi kishi badanining teri qoplamasini mudhish holatga keltirib qo‘yishi mumkin.

Bubotuber fasodini siqib chiqarish jarayoni juda yoqimsiz kechgani bilan qandaydir g‘alati qanoatlanish hissi sezildi. Shish yorilgan zahoti ichidan quyuq, benzin hidini esga sola-digan sarg‘ish-yashil suyuqlik otilib chiqdi. Sarsabil xonim su-yuqlik oqimini shisha og‘ziga yo‘llash usulini ko‘rsatdi. Mash-g‘ulot nihoyasiga yetguncha bir necha pinta[1] fasod yig‘ishga erishildi.

– Pomfri xonim rosa xursand bo‘ladi, – dedi Sarsabil xo-nim so‘nggi shishaning bo‘g‘zini tiqinlab. – Bubotuber fasodi husnbuzar toshmasining deyarli davolab bo‘lmaydigan yoki shifosi nihoyatda qiyin kechadigan shakllariga qarshi kuchli va juda samarali vosita sanaladi. Umid qilamanki, o‘quvchilar bun-dan buyon husnbuzardan xalos bo‘lish uchun turli-tuman ahmoqona ishlarini bas qilishadi.

– Eloiza Moshkar kabi – dahshatli pichirlab gap qo‘shdi xufflpuffchi o‘quvchi qiz Xanna Abbot. – Bechora yuzidagi husnbuzarni afsun vositasida yo‘q qilishga uringan edi.

---

[1] **Pinta** – ingliz o‘lchovlarini qo‘llovchi mamlakatlarda suyuqlik va sochiluvchi narsalar hajmining (sig‘imining) o‘lchov birligi. Buyuk Britaniyada bir pinta gallonning sakkizdan bir qismiga teng (0,568261 detsimetr kub (dm^3)). AQSHda pinta suyuq va quruq pintaga farq qiladi. Suyuq pinta Amerika gallonining sakkizdan bir qismiga teng (0,473179 detsimetr kub (dm^3)) bo‘lsa, quruq pinta Amerika bushelining oltmish to‘rtdan bir qismiga teng (0,550614 detsimetr kub (dm^3)). Pinta o‘lchov birligi metrik o‘lchovlar birligi qabul qilinguncha boshqa davlatlarda ham qo‘llanilgan. Masalan Fransiyada bir pinta 0,931389 detsimetr kub (dm^3)ga, Niderlandiyada esa 0,6063 detsimetr kub (dm^3)ga teng bo‘lgan.

– Tentak qiz, – boshini sarak-sarak qildi Sarsabil xonim. – Xayriyatki, Pomfri xonim uning burnini o‘z joyiga o‘rnatib qo‘yishga muvaffaq bo‘ldi.

Qasr tomondan dars vaqti nihoyasiga yetganini anglatgan qo‘ng‘iroq zarbi yangradi. O‘quvchilar guruhi ikkiga bo‘lindi: xufflpuffchi o‘quvchilar bir narsani boshqa narsaga aylantirish darsiga qasr tomon, griffindorchilar esa qarama-qarshi yo‘nalishga, sirg‘anchiq qiyalikdan pastga tushib, Xagridning «Taqiqlangan o‘rmon» chetidagi kulbasi tomon yo‘l olishdi.

So‘yloqtish laqabli qop-qora, bahaybat nemis dogining bo‘yinbog‘idan ushlab olgan Xagrid kulba hovlisiga terilgan usti ochiq bir nechta yashik yonida o‘quvchilarni kutib turibdi. So‘yloqtish vangillagancha, yashiklarga intilib, ichidagilarni o‘rganib chiqishga oshiqmoqda. Yashiklar ichidan galma-gal yangrayotgan gumbur-gumbur va portlashlarning bo‘g‘iq tovushlari bolalarning qulog‘iga chalinmoqda.

Garri, Ron va Germionaga ko‘zi tushgan Xagrid irshaydi.

– Salom! Slizerinchilarni kutganimiz ma’qul. Ular ham qiziqarli joyini o‘tkazib yuborishni istashmaydi!... Qarang, portlovchi drakllar!

– Nimalar? – tushunmadi Ron.

Xagrid barmog‘ini yashiklarga o‘qtadi. Lavanda Braun chirillagancha nari sakradi.

– Eq! – dedi qiz, yashikka imo qilib.

Yashik ichiga qaragan Garri chindan ham drakllar borasida «Eq» deyishdan boshqa so‘z topish qiyinligini tushundi. Sasi-gan baliq hidi gupullayotgan yashik ichida tanasi sirpanchiq, har birining uzunligi olti dyumcha keladigan, jirkanch darajada rangsiz, bosh degan a’zodan nom-nishon yo‘q, son-sanoqsiz oyoqlari har tomon chiqqan yuzga yaqin drakl tanasining shakli buzilgan kosasiz toshbaqalarga o‘xshaydi. Ular bir-birining ustiga chiqib, yashik devoriga tinim bilmay urilmoqda. Tanasining boshqa tomonidan goh-goh «purt» etgan bo‘g‘iq tovush chiqib, bir necha dyum nariga uchib yetayotgan yorqin uchqunlar sachramoqda.

– Tuxumini endigina ochib chiqishdi, – g‘urur-la ma’lum

qildi Xagrid. – Ularni o‘zingiz parvarish qilasiz! G‘oyam shunday! Shunaqa «loyiha» bo‘ladi!

– Nimaga endi biz ularni parvarish qilishimiz kerak? – eshitildi sovuq ovoz.

Slizerinchilar yetib kelibdi. Murdor hiringlagan Krabbe bilan Goyl Drako Malfoyning gapini shu tarzda ma’qullashmoqda.

Xagrid esankirab qoldi.

– Parvarishdan nima naf ko‘ramiz? – fikrini oydinlashtirgan bo‘ldi Malfoy. – Nima karomat ko‘rsatishadi bular?

Xagrid og‘zini ochdi-yu, uzoq o‘ylanib, nihoyat uzuq-yuluq javob berdi:

– Bu kelasi mashg‘ulot mavzusi bo‘ladi, Malfoy. Ha, aytib qo‘yay. O‘zim drakl boqmaganman, shu bois ular nimani ko‘proq hush ko‘rishini bilmayman. Mana, mana bu yerda chumoli tuxumi, qurbaqa jigari, bir bo‘lak suvilon bor. Hamma narsadan oz-ozdan berib ko‘ramiz.

– Ertalab fasod, endi qabohat, – norozi ohangda g‘udulladi Simus Finnigan.

Garri, Ron va Germiona faqat Xagridga bo‘lgan hurmati yuzasidangina yoqimsiz-sirpanchiq qurbaqa jigarini hovuchlab, drakllarni qiziqtirish uchun yashikka solishdi. Drakllarning og‘zi yo‘qligi, har qalay, og‘zi borligining alomati sezilmagani tufayli Garri ushbu ishni behuda bildi.

– Voy! Tishlab oldi, – baqirdi Din Tomas o‘n daqiqa o‘tgach.

Sarosimaga tushgan Xagrid shu zahoti Tomasning yoniga oshiqdi.

– Noto‘g‘ri tomoni portladi! – g‘udulladi Din kuygan kaftini Xagridga ko‘rsatib.

– Ha... to‘g‘ri... shunday bo‘ladi, ular portlab turishadi, – ish ko‘zini bilganday bosh irg‘idi Xagrid.

– Eq! – yana baqirdi Lavanda Braun. – Eq, Xagrid, qara, draklning anavi uchli narsasi nima bo‘ldi?

– Ayrimlari nishli bo‘ladi, – ishtiyoq-la ma’lum qildi Xagrid. – Fikrimcha, bunday drakllar erkak jinsiga mansub

sanaladi... Urg‘ochisining qorin sohasida esa so‘rg‘ichga[1] o‘xshash a’zosi bor... Aftidan, ular boshqa hayvonlarning qonini so‘radi.

– Nima uchun ularni boqishimiz kerakligini nihoyat tushunganday bo‘ldim, – fikr bildirdi Malfoy istehzoli ohangda. – Bir tomoni bilan chaqib oladigan, ikkinchi tomoni bilan tishlab oladigan, yana bir joyi bilan kuydiradigan hayvon sohibi bo‘lishdan kim ham voz kechadi?

– Draklning xunukligi, befoyda ekanini anglatmaydi, – jerkib berdi Germiona. – Masalan, ajdarning qoni foydali ekani e’tirof etilgan, biroq sen uyingda ajdar boqmaysan-u!

Garri bilan Ron kulib, Xagrid tomon quv qarab qo‘yishdi. Xagrid ham soqol-mo‘ylovi orasidan bilinar-bilinmas irshaydi. Uyda ajdar boqish Xagridning armonli orzusi. Uning bunday orzu-havasi Garri, Ron va Germionaga juda yaxshi ma’lum. Uchovlon birinchi sinfda o‘qib yurgan kezlarda Xagrid, qisqa vaqt bo‘lsa ham Norbert laqabli dandon belli norveg ajdarining sohibi bo‘lgan. Davangir dahshatli maxluqlarni, ular tabiatan qanchalik zahri qotil bo‘lsa, shunchalik qattiq yaxshi ko‘radi.

– Nima ham der edim, – xulosa chiqardi Ron, bir soat o‘tib, qasr tomon yo‘l olishgach, – har qalay, drakllar ajdarga nisbatan maydarog‘-u.

– Hozircha, ha, mayda, – ma’yus xo‘rsindi Germiona. – Biroq Xagrid drakllar nimani hush ko‘rishini aniqlab olsa bas, kam deganda olti futga o‘sib ketishadi.

– Ahamiyati yo‘q. Agar ular dengiz to‘lqinida ko‘ngil aynish kasalidan davo ekani aniqlansa-chi? – piching qildi Ron, ayyorona kulib.

– O‘sha gapni Malfoyning unini o‘chirish uchun aytganimni juda yaxshi bilasan, – chaqib oldi Germiona. – Umuman aytganda, bu safar u haq. Yaxshisi, bizni tishlab olmasidan oldin, drakllardan qutulgan ma’qul.

Bolalar griffindorchilarning dasturxoni atrofiga joylashib,

[1] **So‘rg‘ich** – ba’zi tekinxo‘r o‘simlik yoki hayvonlarning boshqa o‘simlik yoki hayvonlarni so‘rib olishga moslashgan organi.

qo‘yning to‘qmoqlab yumshatilgan go‘shti bilan kartoshkani miriqib yeyishdi. Germiona shu qadar tez ovqatlandiki, Garri bilan Ron qizqa baqrayib qolishdi.

– Tinchlikmi?... – so‘radi Ron. – Elflarning haq-huquqlari uchun kurashning yangi, yeganingni qayt qilib yuborish usulini o‘ylab topdingmi deyman, a?

– Yo‘q, – javob berdi og‘zi sarsabilga to‘la Germiona, ohangi imkon qadar g‘urur-la chiqishiga urinib. – Kutubxonaga borishim kerak.

– Nima?! – hayron bo‘ldi Ron. – Germiona! Bugun endi birinchi o‘quv kuni! Hali hech kim uyga vazifa bergani yo‘q!

Germiona yelka qisib, xuddi bir necha kun ovqat yemagan kishiday og‘zini yegulikka to‘ldirishni davom etdi.

– Kechki ovqat mahalida uchrashguncha! – dedi o‘rnidan irg‘ib turgan qiz, Katta Zaldan yugurib chiqar ekan.

Tushlikdan keyingi mashg‘ulotlar vaqti boshlanishini anglatadigan qo‘ng‘iroq zarbi yangradi. Garri bilan Ron Shimoliy minora tomon yo‘l oldi. Ikkovlon ensiz aylana zina bo‘ylab, minoraning eng yuqori qavatiga chiqdi. So‘nggi pog‘onalarga yetgach, shiftning mis taxtacha mahkamlangan yumaloq tuynugidan tushirilgan kumush narvon orqali professor Trelanining xizmat xonasiga ko‘tarildi.

Tuynukka bosh suqqan bolalar kamindan gupullab uradigan tanish hidni sezishdi. To‘q qizil tusda yoritilgan xona derazalari odatdagiday pardalangan. Kam deganda yigirmatacha yum-yumaloq pastak stolchalar ustiga o‘rnatilgan chiroqlarning har biriga qizil sharf o‘ralib, shlapa kiydirilgan. Garrining sinfdoshlari allaqachon darsga tayyor. Chit qoplangan kreslolar-u, do‘mboq kursilar orasidan o‘tgan Garri bilan Ron ham bo‘sh joy topib o‘tirdi.

– Xayrli kun.

Professor Trelanining orqa tomondan daf’atan yangragan sirli ovozi Garrini cho‘chitib yubordi.

Novcha bo‘yli professor Trelani favqulodda ozg‘in ayol bo‘lib, katta ko‘zoynak ortidagi ko‘zi juda yirik ko‘rinadi. U Garriga qarar ekan, yuzi har safargiday fojiali qiyofa kasb eti.

Bo'ynidagi ko'p sonli marjon-u zanjirlari, barmoq va bilaklaridagi har xil uzuk va bilaguzuklari kamin olovidan yarqiramoqda.

– Nimadandir bezovta ko'rinasan, qadrdonim, – gap boshladi professor Trelani narigi dunyodan eshitilayotgan ovoz ohangida. – Ichki ko'zim mardonavor yuzingda aks topgan tashvishli ruhingni ko'rmoqda. Bezovtaliging asossiz emasligini dilsiyohlik-la ta'kidlab o'tishga majburman. Ming afsus!... Oldinda mashaqqatli davr kutmoqda seni... Juda, juda mashaqqatli davr... Sen xavfsirayotgan kunlar chindan ham keladi... sen kutgandan ham erta keladi...

So'nggi so'zlarini u pichirlab aytdi. Garriga qiyo boqqan Ron ko'zini tepaga qaratib oldi. Garri o'rtog'ining nigohini toshdek qotgan qiyofa ila qarshi oldi. Professor Trelani ko'ylagini shitirlatgancha bolalar yonidan o'tib, kamin yonidagi tirsakqo'ygichli kresloga joylashib o'tirdi. Ushbu sohibkaromat ayolga sal kam sajda qiladigan Lavanda Braun bilan Parvatti Patil uning yaqinidagi do'mboq kursilarga joylashib olgan.

– Azizlarim, mana nihoyat yulduzlar bilan muloqot qilish vaqti yetdi, – dars boshladi o'qituvchi. – Osmonda kechadigan sayyoralar harakati, yulduzlar raqsining mazmun-mohiyatini idrok etishga qodir odamlargagina ayon bo'ladigan sirli alomatlarni o'zlashtirish vaqti yetdi. Inson qismati sayyoralardan taraladigan nurlar zamiriga yashiringan bo'lib, ularning uyg'unligi...

Garrining fikr-xayoli uzoq-uzoqlarga ketdi. Kamindan hid bergancha gupullab chiqayotgan issiqlik har doimgiday uyqusini keltirib, miyasini gangiti. Garchi professor Trelanining endigina aytgan «Sen xavfsirayotgan kunlar chindan ham keladi...» so'zlari Garrini o'ylantirib qo'ygan bo'lsa ham sohibkaromatning bir ohangda g'udullashi Garri uchun hech qachon ta'sirli bo'lmagan.

«Germiona haq, – achchiqlangancha o'ylanib qoldi Garri. – Professor Trelani haqiqatan ham miyasini yeb qo'ygan qari qiz, xolos». To'g'risini aytganda, hozir Garri hech narsadan bezovta bo'layotgani yo'q... Siriusni kelgusida nimalar kutayot-ganini o'ylab xavotir olayotganini hisobga olmaganda, albatta. Biroq

o‘qituvchi bu haqda nimani ham bilishi mumkin? Garri allaqachon tegishli xulosa chiqarib bo‘lgan: professor Trelaning bashorati xayoliy farazdan o‘zga narsa emas. Faqat u o‘z taxminlarini sirli ohangda ifoda etib, turli qiyofa-yu qiliqlar-la boyitadi, xolos.

O‘tgan o‘quv yilining oxirida ro‘y bergan holatni e’tibordan chetga chiqarib bo‘lmaydi, albatta. O‘shanda professor Trelani Voldemortning qaytishini bashorat qilgan edi... Garrining bu boradagi taassurotini eshitgan Dambldor professor Trelanining trans holati haqiqiy ekanini tan oldi...

– Garri! – chaqirdi Ron past ovozda.

– Nima?

Garri atrofga nazar solib, jamiki sinf unga qarab o‘tirganini ko‘rgach, qaddini to‘g‘rilab oldi. Xonadagi issiqdan gangib, xayolga berilgan bola deyarli uxlab qolibdi.

– Sen Zuhalning halokatli ta’siri ostida tug‘ilgan ko‘rinasan, deb turgan edim, qadrdonim, – ovoz ko‘tardi professor Trelani.

Har bir so‘zini berilib tinglamagan o‘quvchidan biroz xafa bo‘lgani o‘qituvchining ohangidan sezilib turibdi.

– M-ma’zur tuting... nimaning ostida tug‘ilibman? – so‘radi Garri.

– Zuhalning, qadrdonim, Zuhal sayyorasining! – chirilladi professor Trelani, bunday xabarni eshitgan bola dahshatdan hushini yo‘qotmagani uchun bo‘lsa kerak, achchiqlanib. – Sen tug‘ilgan fursatda Zuhal ta’siri aftidan, nihoyatda kuchli bo‘lgan, dedim... Qora sochliging... ozg‘inliging... bolaligingdagi fojiali yo‘qotishlar... Qahraton qishning qoq o‘rtasida tug‘ilgansan, desam xato qilmagan bo‘laman, shundaymi?

– Yo‘q, aksincha, – bosh chayqadi Garri. – Jazirama yoz o‘rtasida, iyul oyida tug‘ilganman.

Ron ich-ichidan otilib chiqqan kulgisini bazo‘r yo‘talga o‘xshata oldi.

Yarim soatdan so‘ng har bir bolaga doira shaklidagi murakkab chizma tarqatilib, o‘zi tug‘ilgan fursatda sayyoralar qanday holatda bo‘lganini chizmada aks ettirish vazifasi qo‘yil-

di. Jadvallarni diqqat bilan o‘rganib, burchaklarni hisoblab chiqarishga majbur bo‘lgan o‘quvchilar xunob bo‘lishdi.

– Mening chizmamda Neptun[1] ikkita bo‘lib chiqyapti, – dedi birozdan so‘ng Garri, qosh chimirib. – Bunaqa bo‘lishi mumkin emas-u, a?

– Ha-a-a, Gar-r-ri, – sirli pichirladi Ron, professor Trelaniga taqlid qilib. – Falakda Neptunlar juft bo‘lib ko‘ringani, o‘sha fursatda qayerdadir senga o‘xshagan ko‘zoynakli churvaqa tug‘ilayotganini anglatadi...

Uning yaqinida o‘tirgan Simus bilan Din piqillab kulib yuborishdi. Lekin ularning kulgisini Lavanda Braunning chinqirig‘i bosib yubordi.

– O, mana buni qarang, professor! Mening chizmamda hali kashf etilmagan sayyora mavjudligi aniqlandi, nazarimda! O-o-o, qanaqangi sayyora ekan bu, professor?

– Uran bu, azizam, – dedi professor Trelani, yulduzlar xaritasiga uzoq tikilib.

– Ura, ura, Ur-r-a-anus! Ko‘rsat, Lavanda! – o‘zidan o‘zi quvonib ketdi Ron.

Afsuski, Ronning gapi professor Trelanining qulog‘iga chalinib, miyasiga yetib bordi. Shu sabab bo‘lsa kerak, uyga bir dunyo vazifa berdi.

– Iltimos, sayyoralarning kelasi oy davomida kechadigan harakati tabiatingizga xos xususiy xaritangizga muvofiq taqdiringizga qanday ta’sir o‘tkazishini dushanba kungacha batafsil tahlil qilib keling, – keskin gapirdi u, o‘zining odatdagiday xayol qochgan ohangini yig‘ishtirgancha, professor Makgonagallni eslatib. – O‘tinaman, hech qanaqangi vajbahonalarni ro‘kach qilmang.

– Qari ko‘rshapalak, – vaysadi Ron, zinada Katta Zal tomon ketayotgan xaloyiqqa qo‘shilib. – Dam olish kunining boshini yeydigan bo‘ldi-yu!

– Uyga sal ko‘proq vazifa berildimi deyman, a? – so‘radi

[1] **Neptun** (*lotincha:* Neptunus – qadimgi rim mifologiyasida: dengizlar ma’budi, xudosi) – Quyosh sistemasining Quyoshdan keyin sakkizinchi o‘rindagi katta sayyorasi.

ularga yetib olgan Germiona. – Professor Vektor esa bizga hech qanday vazifa bermadi!

– Jin ursin, o‘sha professoringni, – achchiqlandi Ron.

Bolalar xaloyiq to‘plangan vestibulga tushib, Katta Zalga kirayotgan o‘quvchilar navbatining oxiriga turishdi. Shu payt orqa tomondan qichqiriq eshitildi:

– Uesli! Hoy, Uesli!

Garri, Ron va Germiona o‘girilib qaradi. Ularning ortida nimadandir mamnun bo‘lgan Malfoy, Krabbe va Goyl turibdi.

– Nima kerak senga? – qisqa qildi Ron.

– Dadang haqida yozishibdi, Uesli! – dedi qo‘liga «Bashorat-u karomat gazetasi»ning yangi sonini ushlab olgan Malfoy, hamma eshitishi uchun atayin baland ovozda. – Quloq sol, gazetaning maxsus muxbiri Rita Vriter yozibdi!

SEHRGARLIK VAZIRLIGINING NAVBATDAGI XATOSI

Sehrgarlik vazirligining boshiga tushgan balo-yu mushkulliklarning oxiri yo‘qqa o‘xshaydi. Kvidish bo‘yicha jahon chempionatining final o‘yini davomida bo‘lib o‘tgan ommaviy tartibsizlik kabi salbiy jarayonlarni idora etishga qodir emasligini namoyon etgan, o‘z xodimlaridan biri nom-nishonsiz yo‘qolib ketishining sababini hanuzgacha aniq-ravshan tushuntirib bera olmayotgan ushbu vazirlik magllarning ro‘zg‘or buyumlaridan noto‘g‘ri foydalanish bo‘limida faoliyat yuritayotgan Arnold Ueslining kechagi nojo‘ya harakati tufayli yana noqulay ahvolga tushib qoldi.

Malfoy maqoladan boshini ko‘tardi.

– Qara-ya, Uesli, dadangning ismi noto‘g‘ri yozilgan. Vazirlikning biron-bir qimmatga ega bo‘lmagan xodimi bo‘lsa kerak-da dadang, – xandon otdi Malfoy o‘z tasavvuridan o‘zi suyunib.

Endi vestibulda borki odamlar Malfoyning mutolaasini diqqat bilan tinglamoqda. Buni ko‘rgan Malfoy huzur-la davom etdi:

Ikki yil muqaddam uchar avtomobil sohibi bo‘lganida ayblangan Arnold Uesli kecha, magllarning huquqni muhofaza qilish organi xodimlari («politsiyachilar») bilan bo‘lib o‘tgan, haddan ortiq tajovuzkor chiqindi tashlash baklari bilan bog‘liq allaqanday mojaroga aralashib qoldi. Aftidan, Arnold Uesli ilgari vazirlikda avror bo‘lib ishlagan, hozirda nafaqaxo‘r sanaladigan, qo‘l berib ko‘rishish harakatini qotillik harakatlaridan ajrata olmay qolgani bois iste’foga chiqarilgan «O‘ynoqko‘z» Xmurini qutqargani yetib borgan ko‘rinadi. Ayonki, mister Xmurining uyiga yetib borgan mister Uesli navbatdagi yolg‘ondakam trevoga signali bilan chaqirilganini tushunib yetgan. Xmurining tabiatiga xos xatti-harakatlar inobatga olinadigan bo‘lsa, buning hayron bo‘ladigan joyi yo‘q. Mister Uesli politsiyachilardan bir necha nafarining xoti-rasini o‘zgartirganidan so‘nggina, ulardan xalos bo‘lishga muvaffaq bo‘ldi. Sehrgarlik vazirligini bunday noshoyon va xavfli ahvolga solib qo‘yish nima uchun kerak bo‘lganiga doir «Bashorat-u karomat gazetasi» muxbirlari tomonidan berilgan savollarga javob berishdan esa *mister Uesli bosh tortdi.*

– Bu yerda fotosurat ham bor, Uesli! – e’lon qildi Malfoy gazetani boshi uzra ko‘targancha, yozib. – Ota-onang uylaring yonida turibdi. Agar bu xarobazor uy, deb atalishga arzisa, albatta. To‘g‘rimi, Uesli?

Hammaning nigohi g‘azabdan dag‘-dag‘ titrayotgan Ronda.

– Iflos og‘zingni yop, Malfoy, – buyurdi Garri. – Ketdik, Ron...

– Ha-ya, Potter, o‘tgan yoz faslida Ueslilar xonadonining mehmoni bo‘lgansan-u, shundaymi? – jirkanch qiyofa ila «esladi» Malfoy. – Qani, ayt-chi, uning onasi chindan ham shunchalik semirib, yog‘ bosganmi yoki fotosurat chatoq chiqqanmi?

Malfoyga tashlanmasligi uchun Germiona bilan birgalikda Ronni mahkam ushlab turgan Garri javob berdi:

– Malfoy, sening onang esa burnining tagiga allaqanday qo‘lansa moddа surtib qo‘yilganday yuzini burishtirib turar ekan, hech e’tibor berganmisan? Uning afti tug‘ma qiyshiqmi yoki sen

uning yonida turganingda shunaqa qiyofa kasb etib qoladimi?

Malfoyning rangpar yuzi pushti tus oldi.

– Onamni haqorat qilma, Potter.

– Yoqmas ekan, jirkanch tilingni tiyib yur, tushundingmi? – dedi Garri teskari o‘girilib.

TARS!

Baqir-chaqir ko‘tarildi. Garri yuziga qandaydir issiq narsa tekkanini his etib, qo‘li sehrli tayoqchaga yugurdi. Biroq tayoqchani qo‘liga olishga ulgurmay, yana bitta «tars» etgan tovushni-yu, vestibulda qattiq yangragan hayqiriqni eshitdi:

– YO‘Q, YIGITCHA!

Garri ovoz eshitilgan tomon keskin o‘girildi. Professor Xmuri hashamatli marmar zinadan cho‘loqlangancha tushib kelmoqda. Uning qo‘lidagi sehrli tayoqcha mo‘ynasi ko‘zni qamashtirib yuborguday oppoq, qo‘rqqanidan zina pog‘onasiga mahkam yopishib olgan sassiqko‘zanga[1] o‘qtalgan. Bu yerda hozirgina Malfoy turgan edi. Vestibulda suv quygandek jimjitlik qaror topdi. Kalovlanayotgan Xmuridan tashqari hech kim qilt etmadi. Xmuri burilib, Garriga qaradi. Har qalay, uning sog‘ ko‘zi Garriga qarab turibdi. Ikkinchisi esa boshining ichkari tomoniga kirib ketgan.

– Senga ziyon yetkazdimi? – so‘radi professor.

– Yo‘q, – javob berdi Garri. – Harakati xato ketdi.

– TEGMA! – qichqirdi Xmuri.

– Nimani tegmay? – hayron bo‘ldi qo‘rqib ketgan Garri.

– Sen emas, anavi!

Xmuri bosh barmog‘ini yelkasi uzra orqa tomonidagi oq sassiqko‘zanni qo‘liga olmoqchi bo‘lib, yarim egilgan holatda qotib qolgan Krabbega o‘qtadi. Xmurining sun’iy ko‘zi sehrli, shekilli, orqasida nima bo‘layotganini ko‘rar ekan.

Xmuri oqsoqlangancha Krabbe, Goyl va sassiqko‘zan tomon odimladi. Turgan joyida siyib qo‘ygan sassiqko‘zan mo‘ynasini o‘ynoqi yaltiratgancha qasrning yerosti yo‘lagi tomon talpindi.

[1] **Sassiqko‘zan** – suvsarlar oilasiga mansub, qimmatbaho mo‘ynali yirtqich jonivor.

– Unaqasi ketmaydi! – o‘kirdi Xmuri, qo‘lidagi sehrli tayoqchasini sassiqko‘zanga o‘qtab.

Jonivor yuqoriga o‘n futcha ko‘tarilib, tosh yotqizilgan polga shaloplab tushdi-da, koptok singari sapchidi.

– Orqadan nomardlarcha hamla qiladigan odamlarni jinim yoqtirmaydi, – ma’lum qildi Xmuri, polga tinimsiz urilib, yuqoriga ko‘tarilayotgani bois joni og‘rib chirillayotgan sassiqko‘zanga murojaat qilib. – Bunday qilmish, mal’unlik va qo‘rqoqlikdir!

Havoga ko‘tarilayotgan jonivor tipirchilagani-tipirchilagan.

– Takror unday qila ko‘rma, – deb turdi Xmuri, sassiqko‘zan har gal yerga urilganida.

– Professor Xmuri! – yangradi yana bir tanish ovoz.

Endi hashamatli marmar zinadan qo‘liga bir dasta kitob ushlagan professor Makgonagall tushib kelmoqda.

– Bu nimasi?... Nimalar qilyapsiz? – so‘radi ayol, ko‘zini polga urilib, yuqoriga sapchiyotgan sassiqko‘zan izidan yugurtirib.

– Tarbiyalayapman, – javob berdi Xmuri.

– Tarbiyalayapsiz?... Xmuri, axir, bu o‘quvchi-yu?! – chinqirib yubordi professor Makgonagall.

– To‘g‘ri, aynan shuning uchun ham uni tarbiyalayapman, – g‘udulladi Xmuri, ishini davom etib.

– Noto‘g‘ri! – baqirdi qo‘liga sehrli tayoqchasini olgan professor Makgonagall zinadan yugurgancha pastga tushib.

Bir soniya o‘tar-o‘tmas, «tars» etgan tovush chiqargan sassiqko‘zan yerda uzala tushib yotgan Drako Malfoyga aylandi. Uning platinarangli sochi to‘q qizil tus olgan yuziga tushgan. Og‘riqdan aftini jiyirgan Malfoy oyoqqa turdi.

– Xmuri, biz hech qachon aylantirish usulini jazo tariqa-sida qo‘llamaymiz! – dedi professor Makgonagall darmonsiz ovozda. – Ishonchim komilki, professor Dambldor bu haqda sizni xabardor qilgan?

– Aytganday bo‘lgan edi, shekilli, – xotirjam jag‘ qashladi Xmuri. – Ammo yaxshigina tayog‘-u qo‘rquv...

– Bizda boshqacha jazo tayinlanadi, Xmuri! Mehnat jazosi.

Yoxud fakultet mudiriga ma’lum qilinadi!

– Yaxshi, endi men ham shunday qilaman, – bosh irg‘idi Xmuri, Malfoy tomon g‘ijinib qarab.

Og‘riq va tahqirdan yoshga to‘lgan ko‘zini Xmuriga chaqchaytirgan Malfoy g‘azab-la nimalardir g‘udulladi. Anglab bo‘lmas gapidan faqat «dadam» degan so‘zigina aniqroq eshitildi.

– Dadam, deganday bo‘ldingmi? – xotirjam so‘radi Xmuri, Malfoyga yaqinroq borib.

Yog‘och oyoqning har bir taqillashi vestibulda aks sado bermoqda.

– Nima ham der edim senga, yigitcha... Dadangni ko‘pdan buyon taniyman... – dedi Xmuri. – Unga yetkazib qo‘y... Endi uning arzandasini bundan buyon men, Xmuri, kuzatib yuraman... Xo‘sh... Demak, mudirlaring Snegg, shundaymi?

– Ha, – alam-la g‘udulladi Malfoy.

– Uni ham yaxshi taniyman, – dedi Xmuri, istehzoli ohangda. – Bajonidil suhbatini olaman... Qani, yur-chi...

Xmuri Malfoyning qo‘ltig‘idan mahkam changallab, yerosti tomon tortib ketdi.

Professor Makgonagall ikkalasining ketidan tashvishli qarab turdi-da, sehrli tayoqchasini zina pog‘onalarida sochilib yotgan kitoblarga o‘qtadi. Kitoblar havoga ko‘tarilib, professorning qo‘lida taxlandi.

Bir necha daqiqa o‘tgach Garri, Ron va Germiona griffindorchilar dasturxoni atrofiga joylashdi. Hodisani hayajon-la muhokama qilayotgan ovozlar atrofda g‘o‘ng‘illamoqda.

– Men bilan bir pas gaplashmay turinglar, – dedi ko‘zini chirt yumib olib, yuzi baxtiyor qiyofa kasb etgan Ron past ovozda.

– Nima uchun? – taajjublandi Germiona.

– Hodisaning jamiki tafsilotlarini eslab qolmoqchiman, – zavq-la javob berdi Ron. – Faraz qiling, Drako Malfoy, g‘ayrioddiy sakraydigan sassiqko‘zan...

Garri bilan Germiona kulib yubordi. Shundan so‘ng Germiona toblab pishirilgan go‘shtni likoplarga taqsimlab chiqdi.

– Nazarimda, u chindan ham Malfoyning jonini qattiq og‘ritdi, – xavotir oldi Germiona. – Professor Makgonagall kelib o‘sha ishni to‘xtatgani yaxshi bo‘ldi...

– Germiona! – baqirdi ko‘zini katta ochgan Ron. – Hayotimning eng lazzatli fursatini rasvo qilding!

Germiona jahl-la pishqirib qo‘yib, tez ovqatlana boshladi.

– Faqat yana kutubxonaga shoshilyapman dema, – dedi Garri Germionaning harakatini ko‘rib.

– Nima qilay? – dedi Germiona. – Bir olam ish kutib turibdi.

– O‘zing aytding-ku, professor Vektor... – e’tiroz bildirmoqchi bo‘ldi Garri.

– Yo‘q, bu uyga berilgan vazifa emas, – qisqa qildi Germiona.

Ikki daqiqa ovqatlangan Germiona yugurgancha, Katta Zaldan chiqib ketdi. Qizning o‘rnini Fred egalladi.

– Xmuri zo‘r ekan, a?! – dedi u.

– Juda zo‘r! – xitob qildi Fredning qarshisiga o‘tirgan Jorj.

– Zo‘r ham gapmi, superzo‘r! – gapni ma’qulladi egizaklarning do‘sti, kursini surmay sirpangancha, Jorjning yoniga joylasha olgan Li Jordan. – U hozirgina bizga dars o‘tdi, – tushuntirish berdi Jordan Garri bilan Ronga.

– Xo‘sh, qalay o‘tar ekan? – qiziqdi Garri.

Fred, Jorj va Li bir-biriga purma’no qarab qo‘yishdi.

– Unaqasi hali bo‘lmagan, – ishonch-la fikr bildirdi Fred.

– Ha, u biladi, – bosh irg‘idi Li.

– Nimani biladi? – engashdi Ron.

– Yo‘lini biladi, – ehtiros-la javob berdi Jorj.

– Nimaning yo‘lini biladi? – so‘radi Garri.

– Yovuzlik kuchiga qarshi kurash yo‘llarini, – tushuntirgan bo‘ldi Fred.

– Ajoyib, – qo‘shib qo‘ydi og‘zini ovqatga to‘ldirib olgan Li.

Ron shosha-pisha yuk xaltasini titib, mashg‘ulotlar jadvalini chiqardi.

– Payshanba kuni dars o‘tar ekan bizga, – hafsalasi pir bo‘lib, labini cho‘chchaytirdi u.

XIV BOB. OQIBATI MUDHISH QARG'ISHLAR

Sehrli damlamalar tayyorlash fani darsida Nevill o'zining oltinchi qozonini eritib yuborgani hisobga olinmasa, o'tgan ikki kun deyarli tinch kechdi. Intiqom olish niyatining ko'lami yoz davomida misli ko'rilmagan darajada keng tus olgan professor Snegg bechora Nevillni mehnat jazosiga tortdi. Sho'rlik Nevill Longbottom muguzli qurbaqalarning bir bochkasini ichak-chovoqdan tozalab, umumiy mehmonxonaga aqldan ozishga yaqin holatda qaytdi. Germionaning Nevillga tirnoq orasidagi qurbaqa ichagini ketkizish uchun Kir tozalash afsunini o'rgatayotganini tomosha qilib o'tirishar ekan, Ron Garridan so'rab qoldi:

– Nega Snegg bunchalik razilona kayfiyatda yurganining sababini fahmlayapsanmi?

– Fahmlayapman, albatta, – bosh irg'idi Garri. – Xmuri tufayli.

Snegg yovuz kuchdan himoya fani o'qituvchisi lavozimini orzu qilishi, biroq mana to'rt yildirkim, bunday imkoniyat uni chetlab o'tayotgani hammaga ma'lum. Garchi Snegg qandaydir sababga ko'ra O'ynoqko'z Xmuriga nisbatan zid munosabatini ochiq namoyon etishdan xavfsirayotgan bo'lsa-da, ushbu fanning oldingi o'qituvchilaridan nafratlanganini hech qachon yashirmagan. Ikkala o'qituvchi qasr yo'laklarida bir biriga duch kelib qolar yoki yonma-yon o'tirib ovqatlanar ekan, Snegg professor Xmurining ko'ziga, xususan sog' ko'ziga ham, sehrli ko'ziga ham tik qarashga jur'at eta olmayotgani Garrining e'tiborini o'ziga jalb etdi.

– Nazarimda, Snegg Xmuridan qo'rqadi, – o'ychan fikr bildirdi Garri.

– Xmuri Sneggni muguzli qurbaqaga aylantirib, qasr ostidagi yo'lakda hakkalatishini tasavvur qilib ko'r, – xayolga berildi Ron.

«Griffindor»ning to'rtinchi sinf o'quvchilari Xmurining birinchi darsini shu qadar sabrsizlik bilan kutishdiki, payshanba kuni tushlikdan so'ng qo'ng'iroq zarbi yangramasdan ancha

oldin, sinf xonasining eshigi oldiga kelib, saf tortishdi.

O'quvchilar orasida faqat Germionagina ko'rinmaydi. Qiz bevosita dars boshlanishi oldidan yetib keldi.

– Men... – og'iz juftladi qiz.

– Kutubxonada eding, – Germionaning gapini tugalladi Garri. – Tezroq yuringlar, durustroq joy topib o'tiraylik.

Ular xonaga otilib kirib, o'qituvchining stoliga tutash stolni egallashdi-da, Kventin Tryaslning «Yovuz kuchlar: o'zini o'zi himoya qilish bo'yicha qo'llanma»sini chiqarib, churq etmay o'qituvchini kutib o'tirishdi. Ko'p o'tmay yo'lakdan hammaga tanish bo'lib qolgan taq-tuq eshitildi. Xonaga korjomasining etagi ostidan tirnoqli yog'och panja chiqqan, odatdagiday kishini hurkitadigan g'alati Xmuri kirib keldi.

– Kitoblaringizni yig'ishtirib qo'yishingiz mumkin. Bugun kerak bo'lmaydi – xirilladi u, o'z stoli tomon kalovlangancha kursisiga o'tirar ekan.

Bolalar kitoblarini yuk xaltalariga solishdi. Ronning yuzida zo'r zavq barq urmoqda.

Xmuri sinf jurnalini qo'liga olib, chandiq tirishtirgan yuzini to'sayotgan oq sochini ortga tashladi-da, o'quvchilarning familiyalarini o'qiy ketdi. Uning sog' ko'zi jurnaldagi satrlar bo'ylab yugursa, sehrli ko'zi «men», deya javob bergan har bir bolaga chanog'ida aylangancha diqqat bilan tikilmoqda.

– Juda yaxshi, – dedi u, so'nggi o'quvchining familiyasini o'qigach. – Sizning sinfingiz borasida professor Lyupindan xat olganman. Tushunishimcha, siz boggart[1], qizilqalpoq, grindilou[2], kappa[3] kabi yovuz sehrga oid turli-tuman qabo-hatlar-u, maxluq tusiga kiradigan odam bilan muloqot bobida anchagina tahsil ko'rgansiz, to'g'rimi?

O'quvchilar orasida tasdiq ohangidagi tushunarsiz pichir-pichir eshitildi.

---

[1] **Boggart** *(inglizcha; uy arvohi)* – G'arbiy Yevropa afsonalarida aytilishicha, odamlar yashaydigan uylarda yashovchi, ko'pincha odamlarga do'stlik qiluvchi, ba'zan esa yomonlik qiluvchi mifologik obraz.

[2] **Grindilou** – ingliz afsonalarida tasvirlanishicha, o'tkir shoxli, uzun barmoqli, suvda va suvga yaqin joylarda yashaydigan afsonaviy yovuz arvoh.

[3] **Kappa** –trollarga aylantirish afsuni.

– Shunga qaramay, ayniqsa, qarg'ish qo'llash masalasida batamom qoloq bo'lgancha qolmoqdasiz, – davom etdi Xmuri. – Yovuz sehr ta'siriga qarshilik ko'rsatishni o'rgatish uchun ixtiyorimda bir yil bor. Shunday ekan, sehrgar va afsungarlar hayotda bir-birini qay ko'yga solib qo'yishi mumkinligi haqida sizlarni boxabar qilish – bugundan e'tiboran mening oldimda turgan asosiy vazifadir.

– Keyingi yili-chi? – beixtiyor so'radi Ron.

Chanoqda aylangan ko'z Ronga tikilgancha tek qotib, bola bechorani qattiq qo'rqitib yubordi. Lekin Xmuri, maktabga kelganidan buyon ilk bor bo'lsa kerak, kulib boqdi. Shundagina Ronning qiyofasidan o'zini ta'riflab bo'lmas darajada yengil his etgani ko'rindi. Tabassum basharasini battar burishtirib yuborganiga qaramay, haybatli o'qituvchi kulgidan boxabar ekani yaxshi, albatta.

– Sen, Artur Ueslining o'g'li bo'lsang kerak, a? – fahmladi Xmuri. – Bir necha kun muqaddam dadang meni o'ta noxush ahvolga tushib qolishdan asrab qoldi... Ha, bu yerga atigi bir yilga... Dambldorning iltimosiga binoan kelganman. So'ng yana ortga, nafaqaga, tinch va osoyishta hayotga qaytaman.

U xirillagancha hiringlagan bo'ldi-da, cho'tir kafti bilan qars urdi.

– Xo'sh, gapni cho'zmay, ishga kirishamiz. Demak, qarg'ishlar. Qarg'ishlar har xil bo'lib, ularning ta'sir kuchi ham turlicha bo'ladi. Umuman aytganda, Sehrgarlik vazirligining ta'lim sohasiga oid ko'rsatmasiga muvofiq, zimmamga faqat qarg'ishga qarshi qarg'ish qo'llashni o'rgatish vazifasi yuklangan, xolos. Oltinchi sinfga o'tmagan bo'lsangiz yovuz sehrning man etilgan afsunlari nimadan iborat bo'lishini o'rgatishga haqli emasman. Bunday afsunlardan boxabar bo'lishga hali yoshlik qilishingiz vazirlik tomonidan e'tirof etilgan. Biroq professor Dambldor sizlarning bardoshingizga doir nisbatan ijobiy fikrda. Uning mulohazalariga ko'ra, siz o'zingizni idora eta olar ekansiz. Shaxsan mening fikrimni bilmoqchi bo'lsangiz, hayot-da nimalarga duch kelishingiz mumkinligini qancha erta tushu-nib yetsangiz, shuncha yaxshi. Axir, o'zingiz o'ylab ko'ring, hali

hech qachon ko'rmagan, bilmagan, tasavvur ham eta olmaydigan kuch ta'siridan qanday saqlanish mumkin? Agar biror-bir sehrgar man etilgan afsunlardan biron-bir turini sizga qarshi qo'llashni niyat qilgan bo'lsa, bu haqda u sizni oldindan ogohlantirmaydi-yu, to'g'rimi?! Modomiki, niyat qilgan ekan, iymanib ham o'tirmaydi. Demak, siz hamisha shay bo'lishingiz shart. Diqqat-e'tiborli, sergak va ogoh bo'lishingiz darkor. Va sizdan, miss Braun, har qanday ishingizni bir chetga yig'ish-tirib, mening gapimni diqqat bilan tinglash talab etiladi.

O'zi tuzgan yulduzlar jadvalini parta ostidan Parvattiga ko'rsatib o'tirgan Lavanda seskanib tushib, bir zumda qip-qizil bo'lib qoldi. Bundan chiqdi, Xmurining sehrli ko'zi nafaqat boshi ortidagi manzara, balki qattiq jismlar ortidagi buyumlarni ham ko'ra olar ekan.

– Xo'sh... Qay biringiz ayta olasiz, qaysi afsunlarning qo'llanilishi sehrgarlar olamida jazoga tortilishga sabab bo'ladi?

Partalar ustida astagina bir nechta, shu jumladan, Ron bilan Germionaning ham qo'li ko'tarildi. Xmuri sehrli ko'zini hanuzgacha Lavandadan uzmagan bo'lsa-da, barmog'ini Ronga o'qtadi.

– M-m-m... – ikkilandi Ron, – bunday afsunlardan birini dadam aytganday bo'luvdi... Adashmasam, Qaram qilish qarg'ishi, deb ataladi u?

– To'ppa-to'g'ri, – bosh irg'idi Xmuri, ma'qullab. – Bir vaqtlar vazirlikni mushkul ahvolga solgan ushbu qarg'ish turidan dadang yaxshi xabardor, albatta.

Xmuri o'zining har xil oyoqlariga bir amallab turdi-da, stol tortmasini tortib, shisha banka chiqardi. Banka ichida uchta qop-qora yirik o'rgimchak g'imirlamoqda. O'rgimchaklardan o'lgudek qo'rqadigan Ron g'ujanak bo'lib oldi.

Xmuri baquvvat qo'lini bankaga solib, hasharotlardan birini kaftiga oldi-da, sinfga ko'rsatdi. So'ng sehrli tayoqchasini o'rgimchakka o'qtab, past ovozda g'uldiradi:

– Imperio!

Xmurining kaftidan tushgan o'rgimchak ingichka shoyi

ipakka osilib, xuddi trapetsiyaga[1] osilib tebranganday, tebrana boshladi. So'ng oyog'ini g'ayritabiiy tarzda har tomon uzatib, dumbaloq oshdi. Shoyi ipak uzilib, partaga tushgan o'rgimchak g'ildirak singari yumalay ketdi. Xmuri tayoqchasini siltab qo'ygan ediki, hasharot orqa oyoqlaridan ikkitasiga turib olib, chechyotka raqsiga tusha ketdi.

O'rgimchakning harakatlaridan hamma kuldi. Faqat Xmuri kulmadi.

– Kulgili tuyulyaptimi? Agar sizni shu ko'yga solsam, kularmidingiz?

O'quvchilarning yuzidagi kulgi bir zumda barham topdi.

– Birovning xatti-harakatini to'la-to'kis boshqarish, deyiladi bu, – past ovozda davom etdi Xmuri, o'rgimchakni guvala bo'lib, tez aylanishga majbur qilib. – O'zini derazadan tashlab yuborishga, mana bu idishdagi suvga g'arq bo'lishga yoki har qanday biringizning bo'g'zingizga kirib ketishga majbur qilishim mumkin uni...

Ron beixtiyor seskanib tushdi.

– Shunday zamonlar bo'lgan ediki, ko'plab afsungar ayollar-u sehrgar erkaklarning xatti-harakati aynan Qaram qilish qarg'ishi ila boshqarilgan, – ma'lumot berdi Xmuri ma'yus ohangda.

Xmuri Lord Voldemort hukm surgan mudhish davrni nazarda tutib aytayotganini Garri fahmladi.

– O'shanda o'zining jinoiy xatti-harakatlarini kim ongsiz, ya'ni ushbu qarg'ish ta'siri ostida, kim adovat ruhida, ongli ravishda sodir etganini bilish, oydinlashtirish, tagiga yetish Sehrgarlik vazirligi uchun qanchalik mushkul kechganini tasavvur eta olasizmi?! – davom etdi Xmuri. – Shunga qaramay, Qaram qilish qarg'ishiga qarshilik ko'rsatsa bo'ladi. Buni qanday bajarish kerakligini sizga ko'rsataman. Biroq buning uchun hammada ham birday bo'lmaydigan kuchli, bukilmas iroda, metindek shijoat, jangovar ruh kerak bo'ladi. Shunday ekan, yaxshisi, Qaram qilish qarg'ishi ta'siriga duchor bo'lish ehtimo-

[1] **Trapetsiya** – gimnastika asbobi, ikki uchiga arqon bog'lab osib qo'yilgan tayoq.

li bo'lgan vaziyatdan chetga bo'ling. Buning uchun esa sizdan BETINIM SERGAKLIK TALAB ETILADI! – kutilmaganda o'kirib yubordi Xmuri.

Bolalarning bari o'tirgan o'rnida bir sapchib tushdi.

Xmuri tinmay salto[1] bajarayotgan o'rgimchakni ikkita barmog'i bilan ushlab, bankaga soldi.

– Sehrgarlar olamida jazoga tortilishga sabab bo'ladigan yana qanday qarg'ish bor? Kim aytadi?

Endi Germionadan tashqari, Garrini hayron qoldirgan Nevill ham qo'l ko'tardi. Odatda, Nevill bunday ishga faqat o'zi yaxshi ko'rib, puxta o'zlashtiradigan gerbologiya darsida jur'at eta oladi, xolos. Hozir esa yuzi o'z mardligidan o'zi taajjublanayotgan qiyofa kasb etgan.

– Xo'sh? – dedi sehrli ko'zi aylanishdan taqqa to'xtab, Nevillga tikilgan Xmuri.

– Men... men Qiynoqqa solish qarg'ishi haqida eshitganman, – past ovozda, ammo aniq talaffuz etdi Nevill.

– Familiyang Longbottommi? – so'radi Xmuri sehrli ko'zini pastga, *sinf jurnaliga* qaratib.

Nevill asabiy bosh irg'idi, lekin Xmuri unga ortiq savol bermadi. Sinfga o'girilgan o'qituvchi banka ichidan navbatdagi o'rgimchakni chiqarib, stol ustiga tashladi. Hasharot hozir qay ko'yga tushishini sezganday turgan joyida qotib qoldi.

– Qiynoqqa solish qarg'ishi, – xo'rsindi Xmuri. – Tushunib yetishingiz ta'sirliroq kechishi uchun nimadir kerak... Xo'sh, mana bunday qilamiz... Engorgio!

O'rgimchak shishib, biydan ham yirik o'lchamga yetdi. Boyadan buyon qo'rqayotganini bildirmaslikka urinib o'tirgan Ron kursisini o'qituvchining stolidan imkon qadar nariga tortdi.

Xmuri sehrli tayoqchasini yana ko'tarib, hasharotga o'qtadida, asta g'uldiradi:

– Krusio!

O'rgimchak shu zahoti oyoqlarini tanasiga tortib oldi. U yotgan yerida ag'anab, u yoq bu yoq tebranib, qattiq to'lg'ana

[1] **Salto** (*lotincha:* salto – sakrash) –havoda o'mbaloq oshib sakrash.

boshladi. To'g'ri, uning tovushi chiqmayapti ammo tovush chiqarish qobiliyati bo'lganda, quloqni kar qilguday chinqirishi shubhasiz. Xmuri tayoqchasini tushirmadi, hasharot esa yanada kuchli titramoqda...

– Bas qiling! – chinqirdi Germiona.

Germionaga yuzlangan Garri qiz o'rgimchakka emas Nevillga qarab o'tirganini ko'rib, u ham Longbottomga e'tibor qildi. Parta ostidagi qo'lini barmoqlarining bo'g'inlari oqarib ketguncha chirmashtirib olgan Nevill dahshatga tushganidan ko'zini katta ochib o'tiribdi.

Xmuri sehrli tayoqchasini nari oldi. O'lchami sehr vositasida yiriklashtirilgan hasharotning oyoqlari bo'shashdi-yu, tanasining titrashi to'xtamadi.

– Redutsio! – g'udulladi Xmuri.

O'rgimchak o'z o'lchamiga qaytdi. Xmuri uni ham bankaga soldi.

– Og'riq, – deyarli shivirlab fikr bildirdi Xmuri. – Birovni qiynoqqa solish kerak bo'lsa, ushbu qarg'ish qo'llanilsa bas, hech qanday gira-yu, pichoq kerak bo'lmaydi. Qiynoqqa solish qarg'ishi ham bir zamonlar ommalashgan... Xo'sh... Yana qanday qarg'ish bor, kim aytadi?

Garri sinfga ko'z yugurtirib chiqdi. Sinfdoshlarining yuzida so'nggi o'rgimchakning qismati bilan bog'liq xavf aks etayotganini uqdi. Germiona yana qo'lini ko'tardi. Biroq bu safar uning qo'li titramoqda.

– Eshitaman, – dedi Xmuri Germionaga yuzlanib.

– Avada kedavra, – pichirladi Germiona.

Bir necha kishi, hatto Ron ham Germionaga g'ujanak bo'lib qaradi.

– A-a? Ha-ya, – dedi qiyshiq og'zida yana bir tabassum ko'ringan Xmuri. – So'nggi va eng dahshatli qarg'ish. Avada kedavra... O'ldirish qarg'ishi.

U qo'lini bankaga soldi. Kuni bitganini sezgan uchinchi o'rgimchak Xmurining barmoqlaridan qochib qutulishga uringancha, banka tubida gir aylanmoqda. Nihoyat tutib olingan hasharot stolga tashlandi. Vujudini vahima qamragan bechora

o'rgimchak yog'och yuzada yugura ketdi.

Xmurining sehrli tayoqcha ko'targanini ko'rgan Garri dahshatli manzara ro'y berishini kutib, tek qotdi.

– Avada kedavra! – o'kirdi Xmuri.

Ko'zni qamashtirgan yashil chaqmoq yashnadi, ko'zga ko'rinmas allaqanday yirik narsa havoda uchib o'tgan kabi g'alati shitir-shitir eshitildi. Beliga ag'anagan o'rgimchakning joni bir lahzada, bilinmay uzildi. Qizlardan qaysidir biri bo'g'iq ovozda qichqirib yubordi. Sirpanib kelayotgan o'rgimchakning tanasiga chap berish uchun o'zini orqaga tashlagan Ron kursi bilan birga polga ag'anashiga sal qoldi.

Xmuri o'rgimchakning jasadini ushlab, polga uloqtirdi.

– Ana shunday, – xotirjam davom etdi professor. – Dilkashlikka o'rin yo'q. Bunday qarg'ishga qarshi qarg'ish ham yo'q. Uning ta'sirini yo'q qilib bo'lmaydi. Ammo ta'kidlab o'tmoq darkorki, ushbu qarg'ish ta'siridan bu yorug' olamda yolg'iz bir kishigina omon qolgan. U ham bo'lsa, mening ro'paramda o'tiribdi. Xmurining ikkala ko'zi qilt etmay Garrining ko'ziga qaradi. Jamiki sinfdoshlari baqrayib o'tirirganini sezgan Garri qizarib, sehrlab qo'yilganday sinf taxtasiga qarab qoldi. Bola sinf taxtasiga termilib o'tiribdi-yu, aslida ko'zi taxtani ko'rayotgani yo'q...

Demak, uning ota-onasi shu tariqa... xuddi mana bu o'rgimchak kabi... Qiziq, ular ham so'nggi fursatda aynan shu hasharot singari ayanchli, ko'rimsiz bo'lishganmi? Ular ham faqat yashil chaqmoqni ko'rib, tanalari hali yerga yetmay, ajalning shitir-shitirini eshitishgan, xolosmi?

Uch yildirkim Garri o'sha mash'um tunda nimalar sodir bo'lgani, xususan, Chuvalchangdum Potterlar qayoqqa bekinib olishganini Voldemortga sotgani, shundan so'nggina Lord Voldemort ularning uyini topa olganini, ota-onasi qanday halok bo'lganini tasavvur qilishga urinib kelgan edi. Yovuz Lordni to'xtatib qolishga uringan Jeyms Potter rafiqasiga Garrini olib qochishni buyurib baqirgani va ayni shu paytda Lord Voldemort tomonidan o'ldirilgani... Lili Potter chaqaloq Garrini qo'liga olib yugurgani... Voldemort unga yetib olib, Garrini o'ldirishga

imkon berishi uchun nari turishni buyurgani... Lili Lord Voldemortga yalinib o'tingani, bolaning o'rniga uning jonini olishni so'ragani... Voldemort dastlab Lilini o'ldirib, so'ng sehrli tayoqchasini Garriga o'qtagani... Bularning barini bola ko'z oldiga keltirib o'tirdi.

Ushbu tafsilotlar Garriga o'tgan yili, dementorlar yaqin kelgan fursatda ota-onasining bevosita o'limi oldidagi qichqiriqlari qulog'iga eshitilgani tufayli ma'lum bo'ldi. Chunki dementorlarning dahshatli qudrati aynan shundan, ya'ni o'z qurbonlarini hayotidagi eng dahshatli fursatlarni takror va takror boshdan kechirishga majbur qilish, kuchsizlantirib, umidsizlik dengiziga g'arq qilishdan iborat...

Xuddi uzoqda yangrayotgan kabi Garrining qulog'iga Xmurining gapi yana eshitildi. Bola mudhish xayollardan chalg'ib, darsga qaytishi uchun bor kuchini sarflagancha, professorning gapiga quloq tutdi.

– Avada kedavra nihoyatda katta sehr kuchiga ega bo'lishni taqozo etadigan qarg'ishdir. Hammangiz bir bo'lib sehrli tayoqchalaringizni menga o'qtashingiz va ushbu qarg'ishni baralla talaffuz etishingiz mumkin. Menga esa hech nima qilmaydi. Nari borsa, burnimdan qon keladi. Biroq hozir gap bunda emas. Men maktabga qarg'ish ijrosini o'rgatish uchun kelganim yo'q. «Qarg'ishga qarshi qarg'ish yo'q ekan, nega bo'lmasa O'ldirish qarg'ishining ta'sirini bizga ko'rsatdingiz?» degan oddiy savol berishingiz tabiiy, albatta. Javobi ham sodda: siz voqif bo'lishingiz, hamma gapdan, hatto eng mudhish oqibatlardan boxabar bo'lishingiz kerak. Yaxshisi, bunday qarg'ish ta'siriga duchor bo'lish ehtimoli bo'lgan vaziyatdan nari bo'lishingiz darkor. Buning uchun esa sizdan yagona narsa BETINIM SERGAKLIK TALAB ETILADI! – yana o'kirib yubordi kutilmaganda Xmuri.

Bolalarning bari o'tirgan o'rnida yana bir bor sapchib tushdi.

– Umumlashtirib aytganda... yuqorida tilga olingan O'ldirish, Qaram qilish va Qiynoqqa solish qarg'ishlari – oqibati mudhish qarg'ishlar turkumiga kiradi. Ulardan har qanday biri-

ning inson zotiga qarshi qo'llanilishi Azkabanga umrbod qamalish uchun yetarli bo'ladi. Siz aynan mana shunga qarshi kurasha bilishingiz darkor. Qanday kurashishni esa men sizga o'rgataman. Shunisi ayonki, sizni hozirdan tayyorlash, yetarlicha qurollantirish lozim. Eng muhimi, betinim, susaymaydigan sergaklikka o'rganib olishingiz shart. Patqalamingizni qo'lingizga oling-da, yozing...

O'quvchilar darsning qolgan qismini oqibati mudhish qarg'ishlarning har biri to'g'risida tegishli ma'lumotlar yozib o'tkazdi. Qo'ng'iroq zarbi eshitilguncha hech kim churq etmadi. Bolalar Xmurining xonasini tark etib, yo'lakka chiqishgach esa ichki gap qoplari yorilib ketganday bo'ldi. Ko'pchilik qarg'ishlar ta'sirini zo'r izzat-hurmat ohangida muhokama qila ketdi:

– To'lg'anganini ko'rdingmi?!...

– ... o'ldirishi-chi, shap etdi-da, asfalasofilinga yo'lladiqo'ydi!...

Sinfdoshlar yovuz kuchdan himoya fanidan o'tkazilgan dars haqida xuddi maroqli tomoshani muhokama qilganday gapirib bordi. Garriga esa bunday muhokama qiziq tuyulmadi. Aftidan, Germionaga ham.

– Yuringlar tezroq, – shoshiltirdi qiz do'stlarini.

– Yana o'sha ahmoqona kutubxonanggami? – so'radi Ron.

– Yo'q. Ko'ryapsanmi, Nevill, – qisqa qildi Germiona, yon tomondagi yo'lakka imo qilib.

Nevill hech narsani ko'rmayotgan ko'zini katta ochib olgancha, ro'parasidagi devorga baqrayib, yo'lak o'rtasida tanho o'zi turibdi. Xmuri Qiynoqqa solish qarg'ishining ta'sirini namoyish etayotgan paytda shakllanib qolgan qiyofa yuzida qotib qolgan.

– Nevill, – muloyim ohangda asta chaqirdi Germiona.

Nevill boshini burdi.

– A-a, salom, – odatdagidan baland ovozda gap boshladi Nevill. – Dars qiziqarli o'tdi, a? Tushlikka nima berishar ekan, bilmaysizmi? Ochimdan o'lyapman. Sizlar-chi?

– Senga nima qildi, Nevill? – so'radi Germiona.

– Hech nima, ishlar joyida, – g'udulladi Nevill, hamon o'sha g'ayrioddiy ovozda. – Juda qiziqarli tushlik... yo'g'-ye dars bo'ldi. Nima ovqat berishar ekan?

Ron cho'chib Garriga qaradi.

– Nevill, nima bo'ldi?... – so'radi Garri.

Yo'lakda tanish taqir-tuqur eshitildi. Bolalar o'girilib, kalovlanib kelayotgan professor Xmurini ko'rishdi. To'rtovlon tek qotib, allaqanday dahshat-la, o'qituvchiga churq etmay baqraydi.

– Hech qisi yo'q, o'g'lim, – kutilmaganda past va nisbatan muloyim ovozda xirillab gap boshladi Xmuri, Nevillga muro-jaat qilib. – Yur... xonamga borib, ikkalamiz choyxo'rlik qilamiz...

Xmuri bilan choyxo'rlik qilish istiqboli Nevillni battar cho'chitganday bo'ldi. U hech nima demadi, biroq qilt ham etmadi.

– Ishlaring joyidami, Potter? – so'radi sehrli ko'zi aylanib, Garri tomon burilgan Xmuri.

– Joyida, – javob berdi Garri.

Garrini boshdan oyoq o'rganib chiqayotgan ko'z biroz titraganday bo'ldi.

– Sizlar voqif bo'lishingiz kerak, – yana fikr bildirdi Xmuri. – Ehtimol, bu shafqatsizlikdir, lekin boxabar bo'li-shingiz kerak. O'zingizni go'llikka solib yurishingizdan naf yo'q... m-m-m-ha... Yur, Longbottom, menda bir talay qiziqarli kitob bor, senga yoqadi bilaman.

Nevill uchala o'rtog'iga o'tinchli nigoh-la qaradi. Ulardan sado chiqmagach, taqdirga tan berib, cho'tir qo'lni yelkasida ko'targancha, Xmuri bilan birga ketishga majbur bo'ldi.

– Buni qanday tushunish kerak? – so'radi Ron, Nevill bilan Xmuri muyulish ortiga o'tgach.

– Bilmadim, – javob berdi Germiona ma'yus ohangda.

– Chindan ham saboq olsa bo'ladigan dars desa bo'ladi, a, Garri? – xulosa chiqardi Ron, Katta Zal tomon borishar ekan. – Fred bilan Jorj haq. Xmuri deganlari rostdan ham o'z ishini biladigan ko'rinadi! Avada kedavrani ham bopladi, a? O'rgimchakni ko'rdingmi, shartta o'ldi-qo'ydi...

Biroq Garrining qiyofasini ko'rgan Ron unini o'chirdi-da,

Katta Zalga yetib borguncha churq etmadi. Dasturxon atrofida joylashgach esa professor Trelani uchun fol tayyorlashga kirishish kerakligi, aks holda ulgurmay qolishlari mumkinligini har ehtimolga qarshi eslatib qo'ydi.

– Qiziq, anavi qarg'ishlar ta'siri bizga namoyish etilgani haqidagi ma'lumotlar vazirlikka yetib boradigan bo'lsa, Xmuri bilan Dambldorning boshi malomatga qolmasmikan? – qiziqdi Garri, «Semiz Xola» portretining ro'parasiga kelib.

– Ehtimoldan xoli emas, – bosh irg'idi Ron. – Biroq Dambldor o'zi bilgancha ish tutishga odatlangan. Xmuri esa malomatsiz yashay olmaydigan ko'rinadi. Dastlab bajar, so'ng o'yla tamoyili, uning hayotidagi asosiy shior bo'lsa, hech ham ajablanmayman. Bema'ni gap.

Parolni eshitgan «Semiz Xola» devor tuynugini ochgancha, yuqoriga ko'tarildi. Ikkovlon «Griffindor» fakultetining odamga to'la, to's-to'polon ko'tarilgan umumiy mehmonxonasiga kirdi.

– Xo'sh, yuqoriga chiqib, bashorat qog'ozlarini olib tushamizmi? – so'radi Garri.

– Iloj qancha, – ingradi Ron.

Ikkovlon kitob va xaritalarini olib tushish uchun yotoqxonaga ko'tarildi. Karavotda allaqanday kitob o'qib o'tirgan Nevill xonada yolg'iz ekan. Holati zo'r bo'lmasa ham, har qalay, biroz tinchlangani ko'rinib turibdi, biroq ko'zi qizargan.

– Ahvoling yaxshimi, Nevill? – so'radi Garri.

– Ahvolim? Ha, yaxshi, – javob berdi Nevill. – Ishlar joyida, rahmat. Mana, professor Xmuri berdi, o'qib o'tiribman...

U qo'lidagi «O'rta dengiz havzasida o'sadigan sehrli suv o'simliklarining o'ziga xos xususiyatlari» kitobini ko'rsatdi.

– Professor Sarsabil xonim professor Xmuriga gerbologiya bo'yicha layoqatim kuchliroq ekanini aytib o'tgan emish, – o'rtoqlashdi Nevill, kamdan kam eshitiladigan g'urur ohangida. – Aytishiga qaraganda bu kitob menga qiziq tuyulishi kerak ekan.

«Xmuri Nevillga dalda berib, yaxshi ish qilibdi, – o'yladi Garri. – Professor Lyupin ham shunday ish tutgan bo'lar edi. Bechora bolani kamdan kam maqtashadi».

Kassandra Vablatskayaning «Kelajakni to'sgan tumanni

haydash» kitobini olgan Garri bilan Ron mehmonxonaga tushishdi. U yerda bo'sh stol topib, fol ochishga kirishishdi. Bir soat o'tgach, garchi stol usti har xil hisob-kitob va sirli belgilarga qalashib ketgan bo'lsa ham sohaga doir durustroq natijaga erishishmadi. Garrining miyasi, xuddi birov professor Trelanining kaminidan chiqadigan tutunni uning boshiga damlab kiritganday, xiralashib ketdi.

– Bu bema'niliklar nimani anglatishi mumkin, tasavvur ham qila olmayman, – g'udulladi u, uzundan uzoq raqamlar satriga qarab

– Bilasanmi, nazarimda, tabiatimizdagi yangi qirralarni kashf etish, sohibkaromatlik uydirmalarini o'ylab topish qobiliyatimizni ishga solishga to'g'ri keladi, shekilli, – taklif kiritdi, sochining orasiga barmoq solaverib hurpaytirib yuborgan Ron.

– Nima? Tahlil natijalarini to'qib chiqaraylik, demoqchimisan?

– Ha-da.

Ron stol ustidagi pergament bo'laklarini sidirib tashlab, patqalamni siyohdonga botirib oldi-da, ovoz chiqargancha yozishga kirishdi:

– Mirrix bilan Mushtariyning o'zaro joylashuvi noqulay kelgani bois kelasi dushanba kuni nafas yo'llarimning kasallanish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Shundan so'ng boshini ko'tarib Garriga qaragancha o'ychan fikr bildirdi:

– Tahlil mazmunan qizg'anch hodisalarga qanchalik boy bo'lsa, Trelani shunchalik o'zini baxtiyor his etishini bilasan-u.

– To'g'ri aytasan.

Zavqlanib ketgan Garri xomaki qo'lyozmalarini g'ijimlab koptokcha yasadi-da, vaqtichog'lik qilib o'tirgan birinchi sinf o'quvchilarining boshi uzra kaminga uloqtirdi.

– Xo'sh... demak, dushanba kuni... men... m-m-m... kuyib qolishim mumkin, – fol to'qishga kirishdi Garri.

– To'g'ri, – ma'yus tasdiqladi Ron. – Chunki dushanba kuni yana portlovchi drakllar bilan uchrashamiz. Xo'p, mayli, davom etamiz... Seshanba kuni men... m-m-m...

– Qalbga yaqin narsadan judo bo'lasan, – yordam berdi Garri, durustroq g'oya topish ilinjida «Kelajakni to'sgan tumanni haydash» kitobini varaqlab.

– Juda soz, – dedi Ron, zudlik bilan qayd etib. – Merkuriyning noto'g'ri holati tufayli. Sen-chi, do'sting senga zimdan xiyonat qilsa yomonmi? Yoz!

– Ha-ya... zo'r-u... chunki Zuhra o'n ikkinchi o'ringa o'tib oladi, – qo'shib qo'ydi Garri.

– Chorshanba kuni birov bilan mushtlashib, yaxshigina kaltak yeyman.

– Hoy! Men urishmoqchi edim! Xay, mayli, unday bo'lsa, men garovda yutqazib qo'yaman.

– To'g'ri, chunki sen o'sha mushtlashuvda ustun kelishimga ishongan eding...

Ikkovlon uyga berilgan vazifa yechimini xuddi shu ruhda bir soat davom etdi. Sayyoralarning kelasi oy davomida kecha-digan harakati ikkalasining taqdiriga o'tkazadigan ta'siri niho-yatda fojiali tus oldi. Xaloyiq yotoqxonalarga tarqalib, umumiy mehmonxona asta-sekin bo'shab bordi. Bolalarning yonidagi bo'sh kresloga sakrab chiqqan Maymoqoyoq Garriga, uy vazifasining yechimiga bunchalik ahmoqona yondashgani uchun Germiona qanday munosabat bildirgan bo'lishi mumkin bo'lsa, shunday qiyofa yasagancha, baqrayib o'tirdi.

Nigohini xona bo'ylab yuritgancha, navbatdagi baxtsizlikni o'ylab topishga uringan Garri narigi devor yaqinida patqalam ushlagancha bir varaq pergament ustida bosh egib o'tirgan Fred bilan Jorjni ko'rdi. Burchakka biqinib olib, uyga berilgan vazifani bajarish egizaklar tabiatiga xos ish emas. Ikkalasi doimo voqealar markazida bo'lish, to's-to'polon ko'tarish, umuman hammaning e'tiborini jalb etishni xush ko'radi. Ammo hozirgi holat zamirida qandaydir sir borligi aniq. Garri egizak-larning Boshpanada yonma-yon o'tirib, allanima yozish bilan mashg'ul bo'lishganini esladi. Ko'p vaqt o'tmay o'sha qog'oz «Ueslilarning ajoyib ultrafokuslari»ga oid buyurtmalar blankasi ekani aniqlandi. Lekin mana bu pergament mutlaqo boshqa narsa ekanligiga shak-shubha yo'q. Aks holda ular do'stlari Li

Jordanni ham chaqirishgan bo'lar edi. Ittifoqo, bu qog'oz U... sehrgar bellashuviga daxldor emasmikan, o'ylab qoldi Garri.

Egizaklarni kuzatib o'tirar ekan, Jorjning e'tiroz bildirib bosh siltaganini ko'rdi, nimanidir o'chirgan Fredning deyarli bo'sh xonada bazo'r eshitilgan ovozda aytgan gapi qulog'iga chalindi.

– Yo'q, bo'lmaydi... uni ayblayotgan bo'lib qolamiz. Ehtiyotlik bilan ish tutmoq darkor...

Boshini burgan Jorj Garrining qarab o'tirganini payqadi. Garri kulib boqib, gap poylayotganga o'xshamaslik uchun to'g'ri qib o'tirgan bashoratiga yuzlandi. Ko'p o'tmay egizaklar pergamentni o'rab, hammaga xayrli tun tilagancha, yotoqxonaga kirib ketishdi. O'n daqiqacha o'tgach portret to'sgan tuynuk ochilib, umumiy mehmonxonaga bir qo'liga pergament dastasini, ikkinchisiga shaqir-shuqur qilayotgan quti ushlab olgan Germiona kirib keldi. O'z sohibasini ko'rgan Maymoqoyoq suyunganidan belini bukib, xirillab qo'ydi.

– Salom, – ko'rishdi Germiona. – Endigina tugatdim.

– Men ham! – o'tirgan joyida zafarli cho'zildi Ron, qo'lidagi patqalamni stol ustiga tashlab.

Germiona qo'lidagi narsalarni bo'sh kreslolardan biriga qo'yib, bolalarning yoniga o'tirdi-da, Ronning bashoratlarini o'ziga tortdi.

Tanasi yirik Maymoqoyoq sohibasining tizzasiga sakrab chiqib, imkon qadar qulayroq joylashib olishga urindi.

– Kelasi oy sen uchun haddan ortiq mudhish kechadigan ko'rinmaydimi?! – xulosa chiqardi Germiona zaharligini ohangda.

– Hech qisi yo'q. Bularning baridan boxabar ekanman, demak, ogoh bo'lib, sergakroq yuraman, – esnadi Ron.

– Nazarimda, ikki marta g'arq bo'ladigan ko'rinasan, – yana istehzo qildi Germiona.

– Nima?! Rostdanmi? – pergamentga baqraydi Ron, qaddini rostlab. – Unday bo'lsa, birinchi holatni quturgan gippogrif tepalaydigan xavfga almashtiramiz.

– Bularning bari to'qima ekani yaqqol sezilayotgani xayo-

lingga kelmadimi?

– Qanday jur'at etding?! – e'tiroz bildirdi Ron, yolg'ondakam achchiqlanib. – Garri ikkalamiz uy elflariday ezilib ishladik!

Germionaning qoshi ko'tarilib ketdi.

– Bu shunchaki, gap kelganda aytilgan gap-da, – shosha-pisha qo'shib qo'ydi Ron.

Boshi uzilib o'lishini bashorat qilgan Garri ham nihoyat uy vazifasini tugatib, patqalamni tashladi.

– Qutida nima bor? – qiziqdi u.

– Xayriyat, so'rading-a! – dedi Germiona Ronga g'ijinib qarab.

Germiona qutini ochdi. Quti ichida elliktacha rangi har xil bo'lsa ham sirtiga yuritilgan harflari bir xil ko'krak nishonlari ko'rindi.

– Sassiq? – ovoz chiqarib o'qidi Garri, ulardan birini qo'liga olib. – Qaysi ma'noda?

– Sassiq emas, – achchiqlandi Germiona. – S-A-S-S-I-Q. Jamiyatning qisqartma nomi. «Sababsiz abgor-u, sargardon sehrgarlar istibdodiga qarshiman», degani.

– Hech qachon eshitmaganman bunday jamiyat borligini, – taajjublandi Ron.

– Turgan gap, – quvonib ketdi Germiona. – Chunki men unga endigina asos soldim.

– Nimalar deyapsan? – hayron bo'ldi Ron. – Xo'sh, necha kishidan iborat ekan, o'sha jamiyat?

– M-m-m..... Agar ikkalangiz ham a'zo bo'lsangiz, uch kishi bo'ladi.

– Nega endi sassiqlikka da'vat etadigan ko'krak nishonini ta'qib yurishimizga bunchalik ishonch bildirmoqdasan? – e'tiroz bildirdi Ron.

– S-A-S-S-I-Q, – qizishib ketdi Germiona, – jamiyatimizning nomini «Abgor Sehrgar Birodarlarimizga Nisbatan Ablahona Munosabatlarga Chek Qo'yish hamda Ularning Huquqiy Mavqeini O'zgartirishga Qaratilgan Kampaniya», deb atamoqchi bo'ldim-u, sig'madi. Shu bois ham uning qisqaroq nomi S-

A-S-S-I-Q bo'ldi.

Germiona bir dasta pergament varaqlarini qo'liga olib silkitdi.

– Nihoyatda batafsil tergov o'tkazdim, – davom etdi qiz. – Elflar asorati asrlar osha davom etib kelayotgan ekan. Mengacha biror-bir kas biror chora ko'rmaganiga hech ishongim kelmayapti.

– Germiona! – baqirdi Ron. – Tanangda quloq degan a'zo bormi? Agar bo'lsa, gapimni eshit: bunday asorat ularning o'ziga xush keladi. Qaramlik uy elflariga yoqadi!

– Kelgusi sa'y-harakatlarimizga doir qisqa muddatli dasturimiz, uy elflariga munosib haq to'lanishi va qulay mehnat sharoitlari yaratib berilishini ta'minlashdan iborat bo'ladi, – davom etdi Germiona, Rondan ham baland qichqirib va umuman o'zini, xuddi Ron biron og'iz so'z aytmaganday tutib. – Uzoq muddatli dasturimiz esa qonun hujjatlarining uy elfla-riga sehrli tayoqchalardan foydalanish man etilgan moddalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish, ularning vakillarini vazirlikning Sehrli maxluqlar ustidan nazorat bo'limi tarkibiga kiritishdan tashkil topadi. Chunki uy elflarining ushbu bo'lim faoliyatidagi bugungi ishtiroki aqlga sig'mas darajada oz foizni tashkil etmoqda!

– Xo'sh, dasturlaringni hayotga qay tarzda tatbiq etamiz? – so'radi Garri.

– Tarafdorlarimiz sonini oshirib, doirasini kengaytiramiz, – baxtiyor ohangda tushuntira ketdi Germiona. – Menimcha, jamiyatimizga kirish badalini ikki sklat belgilasak-da, ko'krak nishonlarining pulini olib, a'zolik badalini yig'ib borsak, mavzuga doir varaqalar nashr etish tadbirlarini moliyalashtirish uchun yetarli bo'ladi. Sen Ron, jamiyat g'aznachisi bo'lasan. Buning uchun senga konserva bankasini tayyorlab qo'ydim. Yuqorida, xonamda turibdi. Garri esa jamiyat kotibi bo'ladi. Shuning uchun hozir u men aytayotgan gaplarni hujjatlashtirib o'tirishi lozim. Negaki bularning bari ilk majlisimizning kun tartibiga chiqarilgan masala bo'ladi.

O'rtada kutilmagan tanaffus yuzaga keldi. Tashabbusi ma'qul topilishini kutgan Germiona yashnab turgan yuzi ila

bolalarga qarab o'tirgani, uning qandaydir g'alati mulohazalari Garrini achchiqlantirgan bo'lsa, Ronning basharasi kasb etgan tentaknamo qiyofadan quvnoq taajjublandi. Nihoyat jimlik buzildi. Faqat ushbu sukunatni ovsarlik holatiga muvaqqat tushib qolgan Ron emas, deraza oynasini chertganda chiqadigan tovush buzdi. Garri endi batamom bo'shagan mehmonxona orqali derazaga qarab, tashqi tokchada o'tirgancha oy nurida qorday oppoq yarqirayotgan boyqushni ko'rdi.

– Xedvig! – xitob qildi u.

Quvonchi ichiga sig'magan bola kreslodan sakrab turib, deraza ochgani oshiqdi. Xonaga otilib kirib, shift ostida biroz shitirlagan Xedvig Garrining kelasi oy uchun tuzilgan basho-ratlari ustiga qo'ndi.

– Nihoyat! – xitob qildi Garri, qush yoniga yugurib.

– Javob xatini keltiribdi! – dedi sevinib ketgan Ron, boyqushning panjasiga bog'langan pergamentning ezilib ketgan parchasini ko'rsatib.

Garri pergamentni zudlik bilan bo'shatib, o'qishga o'tirdi. Muloyim ovozda gursullagan Xedvig esa bolaning tizzasida pitirladi.

– Nima gap? – deyarli unsiz so'radi Germiona.

Xat juda qisqa, dastxatga qaraganda, shosha-pisha yozilgan. Bola ovoz chiqarib o'qidi:

Salom, Garri,

Zudlik bilan shimol tomon uchish taraddudiga tushaman. Sirasiga tarqalgan bir talay shubhali mish-mishlarning so'nggi tomchisi chandig'ing haqidagi gaping bo'ldi. Agar chandig'ingda yana og'riq sezsang, tezlik bilan Dambldorga ayt. Eshitishimcha, u O'ynoqko'zni ishga olgan emish. Bu esa o'z navbatida, direktor ham, garchi endi hech kimning qo'lidan kelmasa-da, tegishli alomatlarni to'g'ri idrok etayotganini anglatadi. Tez orada senga yana xat yo'llayman. Ron bilan Germionaga eng yaxshi tilaklarimni yetkazib qo'y. Ogoh bo'l, Garri.

Sirius.

Garri boshini ko'tarib, baqrayib o'tirgan Ron bilan

Germionaga qaradi.

– Shimol tomon uchish taraddudiga tushibdi? – shivirladi Germiona. – Qaytyaptimi?

– Yana qanaqangi alomatlarni idrok etyapti ekan Dambldor? – hech nimani tushunmadi Ron. – Garri... nima?...

Garri peshanasidagi chandig'iga kuchi boricha musht qo'yib, tizzasida o'tirgan Xedvigni hurkitib yubordi. – Unga aytmasligim kerak edi! – qichqirdi o'zidan o'zi nafratlangan Garri.

– Nimalar deyapsan? – taajjublandi Ron.

– Shu arzimagan narsa tufayli qaytishga ahd qilgan emish! – stol mushtladi Garri.

E'tiroz-la gursullagan Xedvig uchib, Ron o'tirgan kreslo-ning suyanchig'iga borib qo'ndi.

– Uning nazarida, menga nisbatan xavf tug'ilgan-u, tez qaytishi kerak bo'lib qolgan! Meni esa jin ham urgani yo'q! Senga ham beradigan narsam yo'q! – o'shqirib berdi Garri, umidla tumshuq shaqillatayotgan Xedvigga. – Qorning och bo'lsa, boyqushxonaga bor!

Xafa bo'lgan Xedvig Garriga chaqchayib qo'ydi-da, havoga ko'tarilayotib qanoti bilan Garrining boshiga solgancha, derazadan uchib chiqdi.

– Garri, – tinchlantirishga urindi Germiona.

– Yotaman, – dedi Garri. – Ertalab ko'rishguncha.

Yuqoriga chiqqach, pijamasini kiyib ko'rpaga kirdi. Uyqudan asar yo'q.

Sirius qaytib kelib, qo'lga tushguday bo'lsa, Garri aybdor bo'ladi. Nima uchun dardini dasturxon qilmay, tilini tiyib yurmadi? Andak og'rigan bo'lsa, og'ribdi-da. Darhol arz qilish kerakmidi?... Nega o'z muammolarini o'z ichida qoldirishga aqli yetmadi?... Ko'p o'tmay yotoqxonaga Ron kirib kelgani, biroq u bilan gaplashish hozir ortiqcha, deb bilganini sezdi. Garri karavoti ustiga tortilgan pashshaxonaga tikilgancha uzoq o'ylanib yotdi. Yotoqxonada mutlaq sukunat hukm surmoqda. Agar u o'z tashvishlariga kamroq berilganda, Nevillning karavotidan odatiy pishillash eshitilmayotganiga e'tibor qilgan, uyqusiz yotgan yolg'iz o'zi emasligini idrok etgan bo'lar edi.

XV BOB. «BELSTEK» VA «DURMSHTRANG»

Ertalab Garri, go‘yo tanasi uxlagan-u, miyasi fikrlashdan tinmaganday, kelgusi xatti-harakatlarning puxta o‘ylangan rejasi bilan uyg‘ondi. U o‘rnidan turib, tong qorong‘isida bir amallab kiyingach, Ronni uyg‘otmay, yotoqxonadan chiqib, fakultetning kimsasiz umumiy yotoqxonasiga tushdi. Kelasi oy uchun tuzgan bashoratlari yotgan stol ustidan toza pergament varag‘ini olib, xat yozishga kirishdi:

Qadrli Sirius!

O‘shanda menga chandig‘im og‘riganday tuyulgan, xolos. O‘tgan safar xatni uyqusirab, kallam ishlab-ishlamay yozgan edim. Shu bois shimolga qaytishingga hojat yo‘q. Tashvish tortma, ishlarim joyida, sog‘ligim yaxshi, hech qayerim og‘rimayapti.

Garri.

Shundan so‘ng portret to‘sgan tuynukdan chiqib, jimjitlik hukm surayotgan qasr bo‘ylab G‘arbiy minora cho‘qqisida joylashgan boyqushxona tomon yo‘l oldi. Faqat to‘rtinchi qavatga yetib, boshiga vaza tashlashga uringan Dryuzgning xatti-harakatlari tufayligina biroz to‘xtashga majbur bo‘ldi.

Derazalariga oyna solinmagan tosh devorli dumaloq boyqushxona ichida kuchli yelvizak esmoqda. Polga to‘shalgan poxolda boyqush go‘ngi bilan qayt qilingan sichqon skeletlari qalashib yotibdi. Shiftgacha o‘rnatilgan qo‘noqlar qatorida aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ko‘pdan ko‘p boyqush zotlari o‘tiribdi. U yer, bu yerda sinchkovlik-la qarab turgan qahraborang ko‘zlar inobatga olinmaganda, qushlarning hammasi uxlayapti. Garri ombor boyqushi bilan allaqanday jigarrang boyqush o‘rtasida uxlab yotgan Xedvigni ko‘rib, go‘ng tepalagancha, yoniga oshiqdi.

Qo‘noqda aylanib, dumi bilan teskari o‘girilgan qushini uyg‘otib, o‘ziga qaratish uchun bola ancha ovora bo‘ldi. Kecha

oqshom mehnatiga yarasha rag'batlantirilmagan Xedvig haligacha arazlayotgan ko'rinadi. Garri qushning juda toliqqani va, aftidan, Cho'chrinstel xizmatidan foydalanish uchun Rondan ijozat so'rash kerakligini o'ylab qolgan ediki, Xedvig panjasini uzatishga marhamat qilib, xat bog'lashga imkon berdi.

– Uni dementorlar qidirib topmasdan oldin o'zing topgin, xo'pmi? – tayinladi Garri Xedvigning belini silagancha, devor tuynugi tomon ko'tarib borib.

Boyqush bolaning barmog'ini odatdagidan ko'ra qattiqroq cho'qidi. Ehtimol, Xedvig shu tariqa alamidan chiqqandir, lekin nima qilganda ham u Garrini tinchlantirgan bo'lib, past ovozda gursullab qo'ydi-da, qanotini keng yozib, tonggi shafaq tomon yo'l oldi. Siriusdan keladigan javob xati yuragini tinchlantirishiga umid qilgan Garri taassufki, tashvishiga tashvish qo'shilib, endi xavotirga to'lib-toshgan nigohi ila qushini kuzatmoqda.

***

– Axir, bu qip-qizil yolg'on-u, – koyib berdi Germiona, Garrining qilgan ishini eshitib. – Chandig'ing og'rig'i senga tuyulganday bo'lmagan, buni o'zing ham juda yaxshi bilasan.

– Nima qilibdi yolg'on bo'lsa? – dedi Garri. – Shu arzimagan og'riq dastidan Sirius yana Azkabanga qamalishi kerakmi?

– Tinch qo'y uni, – ovoz ko'tardi Ron endigina og'iz juftlagan Germionaga.

Shunisi qiziqki, qiz tanbehga quloq tutib, gap qaytarmadi.

Keyingi ikki hafta ichida Garri Siriusning qismati bilan bog'liq tashvishlarini biroz bo'lsa ham bosishga urindi. Ertalabki boyqush pochtasi kelganida hayajonni idora qilib o'tirish unga ancha qiyin kechdi. Kechqurun uyquga yotishdan oldin ham shu ahvol. Londonning qorong'i ko'chalaridan birida Siriusning dementorlar tomonidan burchakka taqab olingani yoki shunga o'xshash boshqa mudhish tasavvurlardan xalos bo'lishning iloji bo'lmayapti. Kunduz kuni Garri cho'qintirgan

otasi haqida o‘ylamaslikka urinmoqda. Kvidish mashqlari bekor qilingani chatoq bo‘ldi-da. Hech narsa holdan toydiradigan yaxshigina mashq kabi kishi ruhiyatini tinchlantirmaydi. Boshqa tomondan qaraganda, to‘rtinchi sinf o‘quvchilarining mashg‘ulotlari, ayniqsa, yovuz kuchdan himoya fani darslari anchagina murakkab bo‘lib, ilgarigiga nisbatan ko‘proq vaqt ajratilishini taqozo qilmoqda.

Taajjubki, professor Xmuri Qaram qilish qarg‘ishini har bir o‘quvchiga qo‘llashi, bolalar ushbu qarg‘ish ta’sirini o‘z tanalarida sinab ko‘rib, uning kuchiga qarshilik ko‘rsata olish-olmasligini idrok etib olishlari mumkinligini e’lon qildi.

O‘qituvchi sehrli tayoqchasini sezilar-sezilmas siltab partalarni gum qilgach, sinf xonasining o‘rtasida katta sahna hosil qildi.

– Ammo... professor... o‘zingiz aytgan edingiz-u, ushbu amalni g‘ayriqonuniy, ya’ni oqibati mudhish qarg‘ishlar turkumiga kiradi, deb?! – ikkilanib g‘udulladi Germiona. – Ulardan har qanday birini inson zotiga qarshi qo‘llash...

– Qarg‘ish ta’sirini sinab ko‘rishingizni Dambldorning o‘zi istamoqda, – dedi qilt etmayotgan sehrli ko‘zini Germionaga yo‘naltirgan Xmuri, qizning tanasini teshib yuborguday qarab. – Agar ushbu amalni boshqacha usulda, masalan, biron-bir yot sehrgar sizga qarshi qo‘llab, xatti-harakatingizni to‘la-to‘kis nazorat qilayotganida o‘zlashtirmoqchi bo‘lsangiz, marhamat, e’tiroz bildirmayman. Mashg‘ulotda ishtirok etishingiz shart emas. Xonani tark etishingiz mumkin.

Professor Xmuri cho‘tir qo‘lini chiqish eshigi tomon uzatdi. Qizarib ketgan Germiona po‘ng‘illab, o‘z fikrini ketish niyatida aytmaganini tushuntirgan bo‘ldi. Garri bilan Ron esa zaharxanda kulib, bir-biriga qarab qo‘yishdi. Germiona bubotuber fasodini ichsa ichib yuboradiki, bunday muhim darsni o‘tkazib yubormasligini ikkalasi juda yaxshi biladi.

Xmuri o‘quvchilarni bitta-bitta o‘rtaga chaqirib, Qaram qilish qarg‘ishini qo‘lladi. Garri sinfdoshlarning qarg‘ish ta’sirida nihoyatda g‘alati qiliqlar bajarishga majbur bo‘layotganini ko‘rdi. Sinf xonasini uch marta sakrab-sakrab aylanib chiqqan

Din Tomas yurgan yo'lida milliy madhiyani ijro etdi. Lavanda Braun olmaxonning qiliqlariga taqlid qildi. Nevill hech qachon bajara olmagan gimnastik mashqlar ijrosini bugun bequsur ko'rsatdi. Qarg'ish ta'siriga hech kim qarshilik ko'rsata olmadi. Xmuri qarg'ish qo'llashni bas qilgandagina bolalar o'zlariga kelishdi.

– Potter, – g'udulladi Xmuri, – sening galing.

Garri sinf xonasining o'rtasiga, partalardan xalos etilgan joyga chiqdi.

– Imperio! – dedi o'qituvchi, sehrli tayoqchasini Garriga o'qtab.

Vujudini qandaydir g'alati tuyg'u qamragan Garri fikr-xayoli uzoq-uzoqlarga uchib ketayotgani, miyasi tashvish-xavotirlardan xalos bo'layotgani, qalbida faqat tutqich bermayotgan mubham baxtiyorlik hissigina qolganini sezdi. Batamom tinchlangan bola sinfdoshlar unga qarab turganini g'ira-shira idrok etmoqda.

Shundan so'ng Garrining miyasida, ongining uzoq burchagida O'ynoqko'z Xmurining ovozi eshitildi:

– Partaga sakrab chiq... partaga sakrab chiq...

Garri tizzasini itoatkorona bukib, sakrashga hozirlandi.

– Partaga sakrab chiq...

Miyasining yanada chuqurroq burchagidan boshqa ovoz eshitildi:

– To'xta, nega endi men partaga sakrab chiqishim kerak ekan? G'irt ahmoqlik-ku, bu.

– Partaga sakrab chiq...

– Yo'q, sakramayman, – rad etdi ikkinchi ovoz, yanada qat'iy ohangda. *– Yo'q, istamayman.*

– Sakra! TEZ BO'L!

Ana shunda Garri qattiq og'riq sezdi. U bir vaqtning o'zida ham sakradi, ham sakramay, joyida qolishga urindi. Natijada boshi bilan urgan partani ag'darib yubordi. Bundan tashqari, og'riqning zo'riga qaraganda, tizzasining ikkala ko'zini qattiq urgan ko'rinadi.

– Yo'qdan ko'ra bori, – gumburladi Xmurining ovozi.

Garrining miyasidagi jarangdor bo‘shliq yo‘qoldi. Unga nima qilganini yaxshi eslaydi. Tizza og‘rig‘i ikki chandon kuchaydi.

– E’tibor bering... Potter qarshilik ko‘rsatishga urindi! U qarshilik ko‘rsatib, nimagadir erisha oldi ham! Birozdan so‘ng amal ijrosini takrorlaymiz, Potter. Hozir esa hamma uning ko‘ziga e’tibor bersin! Uning nigohida o‘z savolingizga javob topasiz! Juda yaxshi, Potter, juda yaxshi! Ular seni yenga olishmaydi!

Toki Garri Qaram qilish qarg‘ishini to‘la-to‘kis muhosara qilishni o‘zlashtirib olguncha Xmuri tajribani to‘rt marta takrorladi.

Bir soatdan so‘ng mashg‘ulotdan kalovlanib qaytayotgan Garri xulosa chiqardi:

– Uning gapiga quloq soladigan bo‘lsak, ko‘p o‘tmay bizga qarshi hujum boshlanadi.

– Nimasini aytasan, – tasdiqladi, qarg‘ish ta’siriga qarshilik ko‘rsatishga ancha qiynalgan, hozir esa zinaning har ikkin-chi pog‘onasini sakrab o‘tayotgan Ron. – Uning ruhiy kasalligi haqida bir gap esimga tushdi...

Yaqin atrofda professor Xmuri gap poylamayotganiga ishonch hosil qilish uchun bo‘lsa kerak, Ron yelka orqali asabiy o‘girilib, ortga qarab qo‘ydi.

– Sehrgarlik vazirligi xodimlari undan xalos bo‘lishgani uchun qanchalik suyunishgani haqidagi mish-mish gaplardan hayron bo‘lmasa ham bo‘laveradi. Birinchi aprel kuni samimiy hazil qilish niyatida orqadan asta kelib: «Vah!», – deya cho‘chitishga uringan afsungar ayolni qay ahvolga solgani haqida Simusga aytgan gapini eshitdingizmi? Qani, ayting-chi, uyga bir olam vazifa berilgan bir sharoitda, Qaram qilish qarg‘ishining ta’siriga qarshilik ko‘rsatishga qachon tayyorgarlik ko‘rish mumkin, a?

Ushbu semestrda uyga berilayotgan vazifalar hajmi qanchalik oshganini to‘rtinchi sinf o‘quvchilari juda yaxshi his etishdi.

– Siz sehrgarlik ta’limotining eng mas’uliyatli bosqichiga

qadam tashladingiz! – tushuntirib o‘tdi, kvadrat ko‘zoynagini haybat-la yarqiratgan professor Makgonagall navbatdagi vazifa-ni olib, oh-voh qilgan bolalarga. – Attestatsiya[1] imtihon uchun belgilanadigan baho, ya’ni siz Mutlaqo oddiy sehrgarlik daraja-sining zaruriy saviyasiga ega bo‘lishingiz uchun sinovdan o‘tadigan vaqt yaqinlashmoqda.

– MOSD imtihoni beshinchi sinfda bo‘ladi-yu! – e’tiroz-li ovoz ko‘tardi Din Tomas.

– To‘g‘ri, Tomas, biroq o‘sha imtihonga hozirdan tayyor-garlik ko‘rib borish kerak! Sinfingizda faqat miss Grenjergina tipratikanni igna va to‘g‘nog‘ich sanchish yostiqchasiga qoni-qarli sifat-la aylantira oladi, xolos. Sizning yostiqchangiz esa Tomas, eslatib o‘tish joizki, to‘g‘nog‘ichni ko‘rishi bilan kirpiga aylanib qolmoqda!

Qizarib ketgan Germiona g‘ururdan haddan ortiq yashnab ketmaslikka urindi.

Kelasi oy bashoratlari uchun professor Trelanining yuqori bahosiga erishganini eshitgan Garri bilan Ron bashorat fani bo‘yicha navbatdagi darsda rosa zavqlandi. O‘qituvchi ikkala bola tuzgan folning asosiy qismini o‘quvchilarga o‘qib eshit-tirib, bo‘lg‘usi g‘am-anduhlarni mardonavor qarshi olishga tayyor ekanliklari uchun Garri bilan Ronni rosa maqtadi. Lekin xursandchilik uzoqqa cho‘zilmadi. Chunki o‘qituvchi keyingi oy uchun ham o‘xshash vazifa berdi. Ikkalasining baxtsizlik va ko‘ngilsiz hodisalar zaxirasi esa poyoniga yetgan edi.

Bundan tashqari, sehrgarlik tarixi fanidan dars o‘tadigan yagona arvoh o‘qituvchi professor Binnz o‘n sakkizinchi asrda bo‘lib o‘tgan goblinlar qo‘zg‘olonlariga doir insholar yozib kelishni har hafta buyurib bordi. Professor Snegg o‘quvchilarni jahonda mavjud ziddi-zaharlarning hammasini o‘zlashtirishga majbur qilayotgan ko‘rinadi. Ushbu vazifaga nihoyatda jiddiy yondashishga to‘g‘ri keldi. Negaki Snegg Rojdestvo bayra-migacha hammani atayin zaharlashni, zaharlangan har bir

[1] **Attestatsiya** *(lotincha;* attestatio – guvohlik berish; guvohnoma; tasdiqnoma) – xodim malakasini, bilim darajasi va xulq-atvorini aniqlash va shu asosda ishga tayinlash yoki unvon berish.

o‘quvchi omon qolish uchun zaruriy ziddi-zaharni topa olish-olmasligini tomosha qilishni va’da qildi. Professor Flitvik esa Buyum chaqirish afsuniga doir amaliy mashg‘ulotga oldindan puxta hozirlik ko‘rish uchun qo‘shimcha adabiyot sifatida uchta kitobni o‘qib kelishni tayinladi.

Hatto Xagrid ham o‘lganni ustiga tepgan qabilida ish tutib, muammo ustiga muammo qo‘shdi. Garchi nimani xush ko‘rishini hanuzgacha hech kim aniqlay olmagan bo‘lsa-da, portlovchi drakllar hayron qoldirgan darajada tez ulg‘aya boshlashdi. Bunday sur’at Xagridni quvontirmay qo‘ymadi, albatta. «Loyiha»ni yanada ravnaq toptirib, mazmunan boyitish uchun o‘quvchilar uning kulbasiga navbat bilan tashrif buyurib, drakllarni kuzatgancha, tegishli qaydlar yuritgancha, jarayonni hujjatlashtirib borish taklifini kiritdi.

Xagrid ushbu g‘oyani qopidan superkatta sovg‘a chiqargan qorboboday e’lon qilganini ko‘rgan Drako Malfoy o‘qituvchining taklifini qat’iyan rad etdi.

– Hech qachon! Ularni darsda kuzatayotganimning o‘zi yetadi.

Xagridning yuzidagi kulgi shu zahoti barham topdi.

– Menga qara... bolakay... sen aytganimni qilishing kerak, – g‘udulladi u. – Aks holda professor Xmuridan o‘rnak olishga majbur bo‘laman... Eshitishimcha, sendan zo‘r sassiqko‘zan chiqqan emish.

Griffindorchilar kulaverib qorin ushlab qolishdi. G‘azabi qaynab qizargan Malfoy esa professor Xmurining sabog‘ini hali unutmagan ko‘rinadi, gap qaytarmadi. Garri, Ron va Germiona qasrga Xagridning darsidan ko‘tarinki kayfiyat-la qaytishdi. O‘tgan yili Malfoy Xagridni o‘qituvchilikdan haydatish uchun rosa chirangan edi. Bugun esa Xagrid oz bo‘lsa ham Malfoy-ning ta’zirini berib qo‘ydi.

Qasr eshigini ochgan bolalar ichkariga kira olishmadi. Vestibul odamga to‘la. O‘quvchilar hashamatli marmar zinaning bo‘sag‘asi yaqinidagi devorga osib qo‘yilgan katta e’lon oldiga to‘planib olishgan. Uchovining orasida bo‘yi novcharoq Ron oyoq uchiga turgancha, ovoz chiqarib o‘qidi:

UCH SEHRGAR BELLASHUVI

«Belstek» va «Durmshtrang» maktablarining vakillari 30 oktabr juma kuni kechki soat oltida yetib kelishadi. O'sha kungi mashg'ulotlar yarim soatga ertaroq tugatiladi...

– Juda soz! – xursand bo'ldi Garri, – Juma kuni sehrli damlamalar tayyorlash fanining ta'til oldi darsi bo'ladi! Snegg hammamizni zaharlashga ulgurmaydi!

E'londa o'quvchilar o'sha kuni o'z yuk xaltalari-yu, darsliklarini yotoqxonalariga eltib qo'yib, mehmonlarni qarshi olish uchun qasr oldida yig'ilishlari lozimligi tayinlanib, mehmonlarning tashrifiga bag'ishlangan tantanali ziyofat uyushtirilishi ma'lum qilingan.

– Atigi bir hafta qolibdi-yu! – xitob qildi ko'zida zavq barq urgan xufflpuffchi Erni Makmillan xaloyiq orasidan chiqib. – Qiziq, Sedrikning xabari bormikan? Borib xabardor qilay...

– Sedrik? – tushunmadi Ron, Ernining ortidan qarab.

– Diggori, – eslatdi Garri. – Bellashuvda ishtirok etish uchun ariza bersa kerak-da.

– O'sha ahmoq-a?! «Xogvars»dan chempionlikka da'vogar bo'ladimi? – ko'zini chaqchaytirdi Ron, marmar zina tomon harakat boshlab.

– Hech ham ahmoq emas u. O'tgan yili o'sha yigit tufayli kvidish jamoamiz «Xufflpuff» jamoasiga yutqazib qo'ygani uchungina sen uni yomon ko'rib qolgansan, – e'tiroz bildirdi Germiona. – Eshitishimga qaraganda u yomon o'qimas ekan. Bundan tashqari, u sinfboshi.

Germiona «sinfboshi» so'zini shunday talaffuz etdiki, go'yo ushbu mezon borki masalani uzil-kesil hal etadi.

– Basharasi barno bo'lgani uchun ham yoqadi-da, senga u, – zahardek gap qistirdi Ron.

– Meni ma'zur tuting-u, odamlarga, ularning zohiriy ko'rinishiga qarab baho berganimni hech eslay olmayman, – e'tiroz bildirdi Germiona.

Ron baland va soxta yo'talib qo'ydi. Yo'tal orasida

«Charuald!» so‘zi aniq eshitildi.

Vestibulga osilgan e’lon qasr aholisiga kuchli ta’sir o‘tkazdi. Hafta davomida qayerda bo‘lmasin, Garri, faqat Uch sehrgar bellashuvi haqidagi gaplarni eshitib yurdi. Kim «Xogvars» chempionligiga da’vogar bo‘lmoqchi ekani, bellashuv topshiriqlari mazmunan nimalardan iborat bo‘lishi, «Belstek» bilan «Durmshtrang» o‘quvchilari «Xogvars» o‘quvchilaridan nimasi bilan farq qilishi haqidagi mish-mish gaplar xuddi gripp virusi kabi bir og‘izdan boshqa og‘izga o‘tib bordi.

Bundan tashqari, qasr astoydil tartibga keltirilayotgani Garrining e’tiboridan chetda qolmadi. Chunonchi, haddan ortiq kir bo‘lib ketgan ayrim portretlar tozalandi. Ularda tasvirlangan tarixiy shaxslar esa qizarib, yallig‘langan yuzlarini silab, peshanalarini tirishtirib, tumshayib olishgancha, norozi ohangda e’tiroz bildirishdi. Ritsarlarning qurol-aslahalari kutilmaganda yaltirab, g‘ichirlamay qoldi. Argus Filch oyog‘ini artmay yurganlarga juda dag‘al muomala qilib, o‘z xatti-harakati ila birinchi sinfda tahsil ko‘rayotgan ikki nafar qizaloqni asabiy holatga keltirib qo‘ydi.

Maktabning qolgan xodimlari esa g‘alati tarzda zo‘riqqan ko‘rinadi.

O‘ta murakkab darslardan birining nihoyasida Nevill bexosdan o‘z qulog‘iga kaktus[1] shaklini berib qo‘ydi.

– Longbottom! – o‘shqirdi professor Makgonagall. – Muhimi siz «Durmshtrang» o‘quvchilariga Aylanish tilsimini bajarishga qodir emasligizni ko‘rsatmasangiz bo‘ldi!

30 oktabr kuni ertalab nonushta qilgani tushgan bolalar Katta Zalning tantanali tadbir sharofatiga bezatilganini ko‘rishdi. Devorga yirik shoyi bayroqlar osilgan. Ularning har biri «Xogvars» fakultetlaridan birini, xususan: tilla tusli sher tasvirlangan qizil bayroq – «Griffindor» fakultetini; bronzarangli burgut tasvirlangan ko‘k bayroq – «Ravenklo» fakultetini; qora

[1] **Kaktus** (Cactaceae) – kaktusdoshlarga mansub ko‘p yillik semiz poyali o‘simliklar, manzarali va uy o‘simligi.

bo‘rsiq[1] tasvirlangan sariq bayroq – «Xufflpuff» fakultetini; kumush tusli ilon tasvirlangan yashil bayroq – «Slizerin» fakultetini ifodalaydi.

«Mo‘tabar Stol» ortiga esa «Xogvars» gerbi: katta «X» harfini o‘rab olgan sher, burgut, bo‘rsiq va ilon tasviri tushirilgan eng katta bayroq tortilgan.

Garri, Ron va Germiona «Griffindor» dasturxoni atrofida o‘tirgan Fred bilan Jorjni ko‘rishdi. Egizaklar hammadan ajralib olib, past ovozda gaplashib o‘tirishibdi. Ron akalariga yaqin bordi.

– Bu, muvaffaqiyatsizlik, albatta, – dedi Jorj Fredga. – Biz bilan gaplashishni istamasa ham, bari bir unga xat yo‘llashimiz kerak. Yoki o‘sha xatni qo‘liga ushlatib qo‘yamiz. Bir umr qochib yurmaydi-yu, bizdan.

– Kim sizlardan qochib yuribdi? – so‘radi Ron akalarining yoniga joylashib.

– Esiz, sen emassan-da, – gapi bo‘linganidan achchiqlandi Fred.

– Qanaqangi muvaffaqiyatsizlik haqida gapiryapsan? – so‘radi Ron Jorjdan.

– Tagpurs ukali bo‘lish muvaffaqiyatsizligi haqida, – javob berdi Jorj.

– Bellashuv borasida biron narsa o‘ylab topdingizmi? – qiziqdi Garri. – Ariza berish masalasida biron-bir g‘oya tug‘ildimi?

– Chempionlikka da’vogarlar qanday saralab olinishini professor Makgonagalldan so‘rab bilishga urindim. Biroq kampir indamayapti, – dedi Jorj, achchiqlanib. – Unimni o‘chirib, yenot[2] aylantirish amalidan chalg‘imaslikni tayinladi.

– Qiziq, qanaqa topshiriqlar berilar ekan, a? – o‘ychan so‘radi Ron. – Bilasanmi, Garri, ishonchim komilki, sen bilan

[1] **Bo‘rsiq,** qashqaldoq (Melesmeles) – sut emizuvchilar turkumining suvsarsimonlar oilasiga mansub yirtqich hayvon.

[2] **Yenot** (Procyonidae) – yirtqich sut emizuvchilar turkumi oilasi hayvon. Tashqi ko‘rinishi beso‘naqay, oyoqlari kalta, tovonda yoki yarim tovonda yuruvchi besh barmoqli. Mo‘ynasi qalin, yumshoq.

men o‘sha topshiriqlar ijrosini uddalaymiz. Axir, qanchadan qancha xavfli tadbirlarni boshimizdan kechirganmiz...

– Har qalay, hakamlar ko‘z o‘ngida emas-u, – e’tiroz bildirdi Fred. – Makgonagallning aytishiga qaraganda, ballar topshiriq ijrosining bequsurligiga qarab belgilanar ekan.

– Kimlar hakamlik qiladi? – so‘radi Garri.

– 1792 yili bo‘lib o‘tgan Uch sehrgar bellashuvini misol tariqasida oladigan bo‘lsak, asosiy hakamlar birinchi navbatda, bellashuvda ishtirok etayotgan maktab direktorlari bo‘lishadi, – savolga javob berdi Germiona, hammaning taajjubli nigohini o‘ziga qaratib. – Biroq o‘shanda uchala direktor ham qattiq jarohatlangan. Chunki chempionlikka da’vogarlar tutishlari talab etilgan Vasilisk quturib ketgan ekan.

Germiona atrofida qarab turgan lol qiyofalarni ko‘rib, tabiiyki, u o‘qigan kitoblarni boshqa hech kim o‘qima-ganligidan achchiqlandi.

– Bularning bari ««Xogvars» tarixi»da keltirilgan. Kitobning ishonchli yozilganligiga shubha qilaman, albatta. Men uni «Tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritilgan «Xogvars» tarixi», deb nomlagan bo‘lar edim. Agar «Haddan ortiq buzib ko‘rsatilgan, tarixiy hodisalar oralab keltirilgan «Xogvars» tarixi», deb nomlansa, yanada aniqroq bo'lar edi.

– Nimalar haqida gapiryapsan? – tushunmadi Ron.

Germiona nimaga shama qilayotganini Garri fahmlab bo‘ldi.

– Uy elflari haqida! – ma’lum qildi qiz baland ovozda, Garrining miyasiga kelgan fikrni tasdiqlab. – ««Xogvars» tarixi»ning mingta sahifasidan birortasida ham yuzlab qullarning istibdod qilinishida barchamiz ishtirok etayotganimiz haqida biron-bir satr keltirilmagan!

Bosh chayqagan Garri quymoq bilan mashg‘ul bo‘ldi. Ron ikkalasida tadbirda ishtirok etish ishtiyog‘i yo‘qligi Germionani uy elflariga nisbatan adolatsiz munosabatlarga qarshi kurash hovuridan tushirmadi. Bolalar SASSIQ jamiyatining ko‘krak nishoni uchun ikki sklatdan to‘lashdi, albatta. Biroq bu ishni ular Germiona tinch qo‘yishi uchungina qilishgan edi, xolos. Biroq

qiz o‘z g‘oyalarini ilgari surar ekan, ikkalasi chuchvarani xom sanashganiga, ushbu to‘lov amalini behuda bajarishganiga kundan kunga ishonch hosil qilishmoqda. Garri bilan Ronni dastlab ko‘krak nishonlarini taqib yurish va bu bilan boshqa-larni ham jamiyat a’zoligiga da’vat etishga majbur qilgan Germiona bolalarni qiynab yubordi. Bundan tashqari, u, kech-qurunlari umumiy mehmonxonadagi xaloyiq qarshisiga chiqib, qo‘lidagi konserva bankasini taraq-turuq qilguncha, xayr-ehson talab qiladigan odat chiqarib oldi:

– Choyshab almashtirish, kaminga o‘t qalash, ovqat tayyorlash, sinf xonalarini tozalash kabi ishlarni baxti qora uy elflari bajarayotgani, buning uchun ularga haq to‘lanmasligi, umuman ularga qul sifatida qaralayotganini hech o‘ylab ko‘rganmisiz?

Ayrimlar, masalan Nevillga o‘xshagan bolalar, Germionaning dag‘dag‘ali nigohidan xalos bo‘lish uchungina pul to‘lashdi. Ba’zilar uning nutqini biroz qiziqib tinglashadi-yu, tadbirda shaxsan ishtirok etishni istashmadi. Aksariyat o‘quvchilar esa uning xatti-harakatini hazil tariqasida ko‘rdi. Egizaklar SASSIQ jamiyatining ko‘krak nishoni uchun pul to‘lashdan bosh tortishdi.

Hozir Ron ko‘zini kuz quyoshi yarqirayotgan shiftga ko‘tarib oldi. Fred bekon[1] bilan ovora bo‘ldi.

– Germiona, oshxonaga biror marta bo‘lsin, kirganmisan? – so‘rab qoldi Jorj qiz tomon engashib.

– Yo‘q, albatta, – jerkib berdi Germiona. – O‘quvchilarga man etilgan...

– Biz esa kirganmiz, – Germionaning gapini bo‘ldi Jorj, Fred tomon imo qilib. – Yegulik olish uchun ming marta kirib-chiqqanmiz, desam mubolag‘a qilmagan bo‘laman. Aytmoqchimanki, biz ular bilan shaxsan muloqot qilganmiz. Ular o‘zlarini nihoyatda baxtiyor bilishadi. O‘z faoliyatlarini bu yorug‘ olamdagi eng zo‘r ish, deb hisoblashadi...

– Chunki ular ilmsiz, omi xalq! Chunki bugungi quldorlar

[1] **Bekon** (*inglizcha*) – maxsus boqilgan cho‘chqa go‘shtidan tuzlab yoki olovda dudlab tayyorlanadigan taom.

tomonidan olib borilayotgan mafkuraviy ish uy elflari ongiga aynan sen aytgan tushuncha-yu, g'oyalarni singdirib borishga yo'naltirilgan! – darg'azab bo'ldi Germiona.

Biroq uning gapini pochta boyqushlari yetib kelganini anglatgan shift ostidagi shitir-shitir bosib yubordi. Garri tepaga qarab, shiddat-la yaqinlashib kelayotgan Xedvigni ko'rdi. Germiona shu zahoti unini o'chirib, Ron bilan birga tashvishli nigoh-la Garrining yelkasiga horg'in qo'nib, qanotini yig'-gancha, panjasini uzatgan boyqush harakatini kuzatib o'tirdi.

Garri Siriusdan kelgan javob xatini Xedvigning panjasidan yechib olib, bekondan ortgan teri bo'lagini qushga uzatdi. Minnatdor Xedvig yegulikni paqqos tushirdi. Fred bilan Jorj Uch sehrgar bellashuvini qizg'in muhokama qilishayotganiga ishonch hosil qilgach, Ron bilan Germionaga xatni pichirlab o'qib berdi:

Salom, Garri!

Behuda urinibsan. Men allaqachon yurtga qaytib kelganman. Hozir ishonchli joyda bekinib olganman. «Xogvars»da bo'layotgan ishlar haqida meni boxabar qilib tur, iltimos. Fa-qat Xedvig orqali emas. Umuman boyqushlarni tez-tez almash-lab bor. Mendan xavotir olma, o'zing ham ogoh bo'l. Chandig'ing haqida aytgan gapimni unutma.

Sirius.

– Nima uchun boyqushlarni tez-tez almashlab borish kerak? – past ovozda so'radi Ron.

– Xedvig ko'zga tashlanib har qanday kishining e'tiborini o'ziga tortadi, – tushuntirgan bo'ldi Germiona. – Siriusning panogohi yaqinida qutb boyqushining muntazam ko'rinish berib borishi esa gumon tug'ilishiga sabab bo'ladi... Boyo'g'lining bunday zoti yurtimizda keng tarqalmagan. Endi tushundingmi?

Tashvishi ortgan yoki qaytganini hali tushunib yetmagan Garri xatni o'rab, ichki kissasiga soldi. Modomiki, Sirius qo'lga tushmay, mamlakat hududiga kirib kelgan ekan, demak, chin-dan ham ko'p xavotir olmasa bo'laveradi. Boyqushini silab qo'ygan Garri yana bir narsani tan oldi: Siriusning yaqin atrofda bo'lishi

yanada dadil bo‘lishiga omil bo‘lib, javob xatlarini ham uzoq kutmaydi.

– Rahmat senga, Xedvig, – dedi u boyqushiga.

Garrining qadahidagi sharbatdan qonib ichgan Xedvig boyqushxonada to‘yib uxlashni orzu qilgan, shekilli, shoshgancha uchib ketdi.

Bugungi kun yoqimli kutish hissi ila o‘tdi. Mehmonlarni qarshi olishni o‘ylagan o‘quvchilardan birortasi darsga quloq solmadi. Hatto yarim soatga qisqartirib yuborilgan sehrli damlamalar tayyorlash darsi ham baharnav o‘tdi. Qo‘ng‘iroq zarbi yangrashi bilan Garri, Ron va Germiona «Griffindor» minorasi tomon yugurib, kitob to‘la yuk xaltalarini tashlashdi-da, ridolarini kiygancha, el qatori pastga, vestibulga oshiqishdi.

Fakultet mudirlari o‘quvchilarni safga tizishdi.

– Shlapangizni to‘g‘rilang Uesli, miss Patil sochingizdagi anavi ahmoqona narsani olib tashlang, – ko‘rsatmalar berib bordi professor Makgonagall.

Lab-lunji osilgan Parvatti kokiliga mahkamlangan jimjimador kapalaknusxa soch to‘g‘nog‘ichini yechdi.

– Ortimdan, – buyurdi professor Makgonagall. – Birinchi sinf o‘quvchilari yo‘l boshlashadi... turtishmang...

Ular asosiy zinadan pastga tushib, qasr qarshisida saf tortishdi. Oqshom osmoni musaffo, havosi sovuq. Qosh qora-yib, «Taqiqlangan o‘rmon» uzra xira, shaffof Oy ko‘rinmoqda. To‘rtinchi qatorda, Ron bilan Germionaning o‘rtasida turgan Garri birinchi sinf o‘quvchilari orasida sabrsizlikdan titrayotgan Dennis Kriviga qarab qo‘ydi.

– Sal kam olti bo‘ldi, – dedi soatiga qaragan Ron maktab darvozasi tomon yuzlanib. – Nimada kelishar ekan, a? Poyezddami?

– Bu masalada shubham bor, – bosh siltadi Germiona.

– Xo‘sh, unda nimada kelishadi? Supurgilardami? – taxmin qildi Garri, yulduzlar sochilgan osmonga qarab.

– Unday ham emas... – dedi Germiona. – Masofa haddan ortiq uzoq.

– Portshlyus vositasida kelishsa kerak-da? Yoki havoda

paydo bo'lishadi. – dedi Ron. – Balki, ularning milliy qonunlariga muvofiq o'n yetti yoshga to'lmagan bo'lsang ham havoda daf bo'lish va paydo bo'lishga izn berilar?

– Necha marta eslatish kerak o'zi sizlarga, a? – achchiqlandi Germiona. – «Xogvars» qasri nafaqat devor vositasida to'silgan, balki birov hududiga ijozatsiz kira olmasligi uchun turli-tuman sehr-jodu qo'llanilib ham himoyalangan. Havoda paydo bo'lish yo'li bilan kirib bo'lmaydi bu yerga.

Ular qorong'ilik qalinlashayotgan hovliga ko'z yugurtirishdi. Hech qanday harakat sezilmayapti. Hamma yoqda odatiy jimjitlik, sukunat va osoyishtalik hukm surmoqda. Garri sovqota boshladi. Tezroq kela qolishsa edi... Balkim, xorijiy mehmonlar ta'sirli, dabdabali kirib kelishar? U mister Ueslining Kvidish bo'yicha jahon chempionatining final o'yini oldidan aytgan gapini esladi: «*Elatimiz zig'irday bo'lsin, o'zgargani yo'q. Bir joyga to'planib qolsak bas, maqtanchoqlik qilmay tura olmaymiz*»...

Orqa qatorda, o'qituvchilar orasida turgan professor Dambldorning ovozi yangradi:

– Aha! Adashmasam, «Belstek» vakillari yaqinlashmoqda.

– Qani? – so'rashdi aksariyat bolalar boshlarini har tomon aylantirib.

– Ana! – qichqirdi «Taqiqlangan o'rmon» tomon qo'l uzatgan oltinchi sinf o'quvchilaridan biri.

To'q ko'kargan osmonda o'lchami supurgidan katta, yo'q, yuzta supurgidan ham katta narsa har soniya o'tgan sari yiriklashib qasr tomon uchmoqda.

– Ajdar! – qichqirdi birinchi sinf o'quvchilaridan biri dahshatdan esini yo'qotib.

– Nimalar deyapsan, nodon!... Uchar uy-ku, u! – e'tiroz bildirdi Dennis Krivi.

Dennisning fikri haqiqatga yaqinroq... Qasr derazalaridan taralayotgan nur pastlash barobarida o'rmon daraxtlarining uchiga tegib borayotgan bahaybat sharpani yoritdi. Hammaning ko'z o'ngida har birining o'lchami fildan qolishmaydigan o'n ikkita uchar otga qo'shilgan, kattaligi uyday keladigan xira

moviy arava paydo bo‘ldi.

Yerga shiddat-la yaqinlashayotgan aravaning vajohatidan o‘quvchilar safining oldingi uchta qatori ortga tislandi. Shu paytda *har bir tuyog‘i katta laganday keladigan qanotli otlar* gumburlagancha yerga qo‘ndi. Seskanib orqaga tisarilgan Nevill beshinchi sinfda o‘qiydigan slizerinchi bolaning oyog‘ini bosib oldi. Misli ko‘rilmagan katta g‘ildirakli arava ham soniya o‘tib-o‘tmay yerga tushdi. Yirik boshlarini chayqayotgan tilla-rang otlarning qip-qizil ko‘zlari chanog‘idan chiqib ketayotganday go‘yo.

Arava eshigida o‘zaro kesishib, har biri uchtadan yulduzcha chiqargan ikkita tillarang sehrli tayoqchadan iborat gerb tasvirlangan. Eshik tez ochilib, ichkaridan egniga xira moviy korjoma kiygan bolakay sakrab tushdi. Birpas ivirsigan bola arava polidagi yig‘ma tilla narvonni tushirib, chuqur ta’zim bajo aylagancha ortga tislandi. Arava va otlarning o‘lchami nega bu qadar yirik ekaniga ana endi javob topilganday bo‘ldi. Gap shundaki, arava ichidan baland poshnali, o‘lchami bolalar chang‘isiday keladigan yaltiroq tufli kiygan bahaybat ayol chiqdi. «Xogvars» tomoshabinlaridan ayrimlari g‘ayriixtiyoriy ravishda oh urib yubordi.

Garri ushbu ayolga o‘xshash faqat bir kishini – davangir Xagridni biladi, xolos. Ikkalasining bo‘yi bir dyumga bo‘lsin, farq qilmasa kerak. Shunday bo‘lsa-da, ehtimol, Xagridga ko‘nikib qolganidan bo‘lsa kerak, churq etmay baqrayib turgan xaloyiqqa qiziqsinib qarab, qasrning asosiy kirish eshigi tomon odimlagan ushbu juvon negadir Xagridga nisbatan ko‘proq ta’sir o‘tkazdi. Vestibuldan taralayotgan yorug‘likka yetgan davangir ayol nihotda xushro‘y, yuzi zaytunrangli, sersuv ko‘zi qop-qora, burni qirg‘iyburun ekani ko‘rindi. Boshdan oyoq qora shoyiga burkangan xonimning bo‘yni va yo‘g‘on barmoqlarida opal[1] ko‘zli zeb-ziynatlar xira yaltiramoqda.

[1] **Opal** (*sanskritcha:* upal – qimmatbaho tosh) — tarkibida suv saqlaydigan kolloidli kremniy oksididan iborat mineral, globulyar (sharcha) tuzilishga ega. Issiq vulkanogen suvlardagi cho‘kindilar va nurash zonasida suv ta’siridagi qatlamlar hamda karbonat kislotaning ajralishida kristallanish natijasida hosil bo‘ladi.

Dambldor qarsak chaldi. O‘quvchilar ham direktorga jo‘r bo‘lib qarsak chalishdi. Ko‘pchilik tong qoldiradigan ushbu mehmonni yaxshiroq ko‘rish uchun oyoq uchiga turib oldi.

Xonimning yuzi nazokatli tabassumdan munavvar bo‘lib, yaltiroq qo‘lini uzatgancha Dambldor tomon odimladi. Uning qo‘lini o‘pib qo‘yish uchun novcha bo‘yli Dambldorga engashishga to‘g‘ri kelmadi.

– Maksim xonim, azizam! «Xogvars»ga xush kelibsiz, – salomlashdi direktor.

– Dambl-dog‘! Sog‘-salomatsiz deg‘an umiddaman? – alik qaytardi Maksim xonim.

– Ishontirib aytamanki, to‘rt mucham butun, sog‘-salomatman, – javob berdi Dambldor.

– Mening o‘quvchilarim, – tanishtirdi Maksim xonim, yirik qo‘lini orqaga beparvo uzatib.

Shu vaqtgacha davangir ayoldan ko‘zini uzmagan Garri aravadan yoshi o‘n yetti-o‘n sakkizga to‘lgan o‘n ikki nafarcha yigit-qiz tushganiga e’tibor berdi. Saf tortib, o‘z rahbarining ortidan odimlab kelayotgan ushbu o‘quvchilar dag‘-dag‘ qaltirashmoqda. Bundan hayron bo‘lmasa ham bo‘laveradi. Maksim xonimning ulkan soyasida turib, «Xogvars» qasriga xavfsirab qarayotgan mehmonlarning egnida shoyi korjomadan boshqa narsa yo‘q. Ayrimlari boshiga sharf yoki ro‘mol o‘rab olgan, xolos.

– Kag‘kag‘ov yetib keldimi? – qiziqdi Maksim xonim.

– Ha demay kelishi kerak, – javob berdi Dambldor. – Shu yerda kutasizmi yoki qasrga kirib biroz isinib olasizmi?

– Big‘oz isinamiz, – ahd qildi Maksim xonim. – Mening otlag‘im...

– Otlaringizni maktabimizning sehrli hayvonlarni parvarish qilish fani o‘qituvchisi shaxsan o‘zi, qo‘li bo‘shagan zahoti cheksiz zavq-la parvarish qilishga kirishadi, – ishontirdi Dambldor. – Hozir u boshqa jonivorlar bilan bog‘liq... m-m-m... arzimas muammoni hal qilish bilan ovora.

– Drakllar bilan bog‘liq muammolar, – pichirladi istehzoli hiringlagan Ron Garrining qulog‘iga.

– Otlag'im juda kuchli. Ulag'ga baquvvat qo'l keg'ak, – ogohlantirdi Maksim xonim, bunday kishi «Xogvars»da topilishiga shubha qilgan ohangda.

– Tashvish tortmang. Xagrid otlaringizni toychoqlarni eplagan kabi uddalaydi.

– Juda soz, – yengil ta'zim bajo ayladi Maksim xonim. – Iltimos, o'sha Xagg'idga aytib qo'ysangiz. Otlag'ni faqat undig'ib yanchilgan bug'doy viskisi bilan sug'og'ish keg'ak.

– Albatta, – javoban ta'zim qildi Dambldor.

– Yug'inglag', – amr etdi Maksim xonim o'quvchilariga.

«Xogvars» o'quvchilari ikki tomonga surilib, asosiy zina tomon o'tishlari uchun mehmonlarga yo'l berishdi.

– «Belstek» otlari bunchalik katta ekan, «Durmshtrang»ning otlari qanday bo'lar ekan, a? – so'radi Lavanda bilan Parvattining orasida turgan Simus Finnigan Garri bilan Ronga murojaat qilib.

– Agar manavi otlardan ham katta bo'lsa, ularni hatto Xagrid ham uddalay olmaydi, – javob berdi Garri. – Uni drakllar yeb qo'yishmagan bo'lsa, albatta. Qiziq, drakllarga nima qildi ekan?

– Tarqab ketishgandir? – xayolchan ohangda taxmin qildi Ron.

– Unday dema, – seskanib ketdi Germiona. – Hovliga o'rmalab kelishsa, nima bo'lishini tasavvur qilib ko'r...

Harakatsiz turib «Durmshtrang» maktabidan tashrif buyuradigan mehmonlarni kutayotgan bolalar ham sovqota boshlashdi. Ko'pchilik umid-la osmonga boqdi. Jimlikni faqat Maksim xonimni olib kelgan otlarning pishqirib, yer depsinishlari buzib turdi. Nihoyat...

– Eshityapsanmi? – kutilmaganda so'rab qoldi Ron.

Garri diqqat bilan atrofga quloq soldi. Zulmat qa'ridan qandaydir baland, xuddi oxiratdan yangrayotgan kabi bo'g'iq gumbur-gumbur, girdobga tortayotgan xo'rillash eshitildi. Garriga go'yo daryo tubida ulkan changyutkich ishlayotganday tuyuldi...

– Ko'l! – o'kirdi Li Jordan, qo'lini uzatib. – Ko'lga qarang!

Do‘nglik cho‘qqisidagi xaloyiqqa nihoyatda go‘zal manzara – qorong‘ilik qamragan suv havzasining silliq yuzasi ochil-gan edi. Biroq endi ko‘l yuzasi silliq emas. Uning o‘rtasida g‘ayrioddiy qo‘zg‘alish kuzatilmoqda. Yirik pufaklar paydo bo‘lib, suv to‘lqini loyqa qirg‘oqqa urila boshladi. Xayol o‘tmay, ko‘l tubidagi ulkan tiqinni birov sug‘urib yuborganday, havzaning qoq markazida katta girdob hosil bo‘ldi...

Girdob o‘rtasidan uzun, qora xoda asta-sekin o‘sib chiqdi... Yelkan anjomlari-yu, arqonlar ko‘rindi.

– Machta! – xitob qildi Garri, Ron bilan Germionaga yuzlanib.

Suv yuzasiga oy nurida yarqirab ko‘ringan serhasham kema asta-sekin suzib chiqdi. Kema korpusi[1] qandaydir g‘alati, xuddi bir zamonlar halokatga uchrab g‘arq bo‘lgan-u, endi suv tubidan chiqarilgan kema skeletiga o‘xshaydi. Illuminatorlardan[2] ko‘rinayotgan xira, tarqoq yorug‘lik esa nimasi bilandir arvoh ko‘zini esga soladi. Nihoyat qattiq g‘i-chirlagan kema suv ostidan to‘la-to‘kis chiqib, ayqirayotgan suv oqimida tebrangancha, qirg‘oq tomon suzdi. Ikki daqiqa o‘tar-o‘tmas qarshi olayotganlar qulog‘iga kema langarining suvga shaloplab tushgani va qirg‘oqqa tushirilgan narvonning yerga tegib chiqargan bo‘g‘iq tovushi yetib keldi.

Qirg‘oqqa tushib, illuminator yonidan o‘tayotgan kema yo‘lovchilarining qomatlari ko‘rindi. Tanalarining bichimiga qaraganda hammasi birday Krabbe bilan Goylni eslatishmoqda... Biroq vestibul ro‘parasidagi yoritilgan maydonga yaqinroq kelishgach, egnilariga allaqanday chigallashib, rangi ketgan mo‘ynadan tikilgan rido kiyishgani uchun ham jussalari

---

[1] **Korpus** (*lotincha:* corpus – tana, jism, modda; bir butun narsa) – 1) mexanizm, apparat va shu kabilarning tayanchini yoki qobig‘ini tashkil etuvchi qismi (**bu yerda shu ma’noda**); 2) bir umumiy uchastkadagi, bir majmuaga kiruvchi binolardan biri, alohida bino; 3) bir necha diviziya yoki brigadadan iborat yirik harbiy qo‘shilma; 4) biror davlatdagi barcha diplomatlar, konsullar; 4) qonun chiqaruvchi ayrim muassasalarning yoki qonun chiqaruvchi organga tegishli palatalarning barcha deputatlari.

[2] **Illyuminator** (*lotincha:* illuminator – yorituvchi, yoritqich) – kemalar, samolyotlar va kosmik kemalarning mahkam bekiladigan (yoki ochiladigan), suv o‘tkazmaydigan to‘garak (doira) yoki to‘rtburchak shaklli darchasi.

kvadrat bo‘lib ko‘rinayotgani ma’lum bo‘ldi. Mehmonlar rahnamosining egnidagi kiyim esa mo‘ynaning boshqa turi, o‘zining sochiga o‘xshash kumush tusli, silliq navidan tayyorlangan ekan.

– Dambldor! – shodiyona qichqirdi u, qiyalikdan ko‘tarilib. – Salom, qadrdon do‘stim! Eson-omonmisiz?

– Minnatdorman, professor Karkarov, sog‘-salomatman, – salomlashdi Dambldor.

Karkarovning ovozi muloyim, jarangdor eshitildi. Qasr eshigidan taralayotgan yorug‘likka yetgach, u xuddi Dambldor kabi novcha bo‘yli, ozg‘in ekani, faqat Dambldordan farqli o‘laroq oq sochi qisqa olingani, uchi o‘rilgan cho‘qqi soqoli esa qat’iyatsiz jag‘ini to‘liq bekita olmayotgani ko‘rindi. Yaqin kelgan Karkarov Dambldorning qo‘lini ikkala qo‘li bilan siqib, silkitdi.

– Qadimiy va qadrdon «Xogvars», – dedi Karkarov, sariq tishini yalang‘ochlatgancha, qasrga nazar tashlab.

Garrining nazarida, Karkarov sevinyapti-yu, nigohi sovuq bo‘lgancha qoldi.

– Qadrdon dargohga tashrif buyurishga nima yetsin... – xitob qildi Karkarov.

Shundan so‘ng u ortga o‘girilib, o‘quvchilaridan birini imlab chaqirdi.

– Viktor, issiqqa kir... – dedi Karkarov. – E’tirozingiz yo‘qmi, Dambldor? Viktorimiz biroz shamollab qolgan...

Garri qora qoshi qalin o‘sgan qarchig‘ayburun o‘smirni tanidi.

– Krumning shaxsan o‘zi-yu, bu! – quloqqa pichirladi Ron, Garrining qo‘lini chimdib.

XVI BOB. OLOV KUBOK

«Durmshtrang» vakillari ketidan «Xogvars» o‘quvchilari ham marmar zinadan ko‘tarildi.

– Ko‘zimga ishonmayman! – to‘lqinlanib ketdi Ron. – Garri Krumning o‘zi-yu, bu! Viktor Krum!

– E Xudoyim, u bor-yo‘q kvidish o‘yinchisi, xolos-u, – hayron bo‘ldi Germiona.

– Kvidish o‘yinchisi, xolos? – taajjub-la qizga yuzlandi Ron. – Germiona, axir u jahonning eng zo‘r «Sayyod»laridan biri-ku! Maktab o‘quvchisi ekanini tasavvur ham qilmagan ekanman!

Katta Zal tomon harakatlanayotgan Garri Li Jordanning Krumni ko‘rish ishtiyoqida oyoq uchida sakrab borayotganini kuzatib bordi. Oltinchi sinfda tahsil ko‘radigan qizlar esa yur-gan yo‘lida kissa titkilashmoqda.

– Qara-ya, o‘chakishganday, birorta ham patqalam topilmaydi!

– Nima deb o‘ylaysan, shlapamga lab bo‘yog‘i bilan dastxat qo‘yib berishga ko‘narmikan?

Xayol o‘tmay qizlar bitta lab bo‘yog‘ini talashib, og‘zaki janjallashib qolishdi.

– O‘zingizni sal bo‘lsa ham idora qilib olsangiz-chi, – dedi ularning yonidan o‘tayotgan Germiona, dimog‘dor bepisandalik bilan.

– Men ham uning dastxatini olishga urinib ko‘raman. Yoningda birorta patqalam yo‘qmi, mabodo, Garri? – so‘radi Ron.

– Yo‘q, hammasi yotoqxonada, yuk xaltamda, – dedi Garri.

Ular «Griffindor» stoli tomon yo‘l olishdi. Ron ataylab, haligacha ostonada, qayerga joylashishni bilmay ivirsib turgan Krum va uning o‘rtoqlari tomon yuzlanib o‘tirdi. «Belstek»dan kelgan bolalar «Ravenklo» dasturxoni atrofiga o‘tirishga ahd qilishibdi. Ular noxush qiyofa yasab, Katta Zalni tomosha qilishdi. Uch nafari haligacha boshidagi sharf va sholro‘mol-larini yechgani yo‘q.

– Bu yer sovuq emas-u, – dedi belstekchilarni kuzatib o‘tirgan Germiona. – Umuman aytganda, nega ular rido kiyib kelishmabdi?

– Bu yoqqa! Mana bu yerga o‘tiring, keling! – dedi kutilmaganda Ron. – Bu yoqqa! Germiona, silji, joy bo‘shat...

– Nima?! – achchiqlandi qiz.

– Bo‘ldi, kech bo‘ldi, – alam-la xo‘rsindi Ron.

Viktor Krum boshqa durmshtrangchilar bilan birga «Slizerin» davrasiga qo‘shildi. Malfoy, Krabbe va Goylning yuzlari mag‘rurona qiyofa kasb etdi. Malfoy engashib Krum bilan suhbatga kirishdi.

– Ha, Malfoy, yaltoqlan, – pichirladi zardasi qaynagan Ron. – Ishonchim komilki, Krum ko‘zingga qarab, orqangni ko‘radi... Odamlarning surkalishlariga o‘rganib qolgan bo‘lsa kerak... Nima deb o‘ylaysiz, ular qayerda uxlashadi? Yotoqxo-namizni taklif qilishimiz mumkin, a, Garri, nima deysan?... Men unga o‘rnimni bo‘shatib, o‘zim yig‘ma karavotda yotgan bo‘lar edim...

Germiona istehzoli pishqirib qo‘ydi.

– Qiyofalari belstekchilarga nisbatan mamnunroq, – ta’kidlab o‘tdi Garri.

Mo‘ynali kiyimlarini yechayotgan «Durmshtrang» o‘quvchilari Katta Zalning yulduzli shiftini tomosha qilishdi. Ayrimlari esa dasturxondagi tilla likop va qadahlarni qo‘lga olib, bunday hashamdan ta’sirlangancha, aylantirib ko‘rishdi.

Nazoratchi Filch «Mo‘tabar Stol» yonida qo‘shimcha kreslo o‘rnatish bilan ovora. Tantanali kun munosabati bilan u o‘zining yo‘sin qoplagan frakini[1] kiyib olgan. Dambldorning ikki tomoniga ikkitadan to‘rtta kreslo qo‘shilgani Garrini taajjublantirdi.

– Nega Filch to‘rtta kreslo keltirdi? Axir, katta yoshli mehmonlardan ikki kishi keldi, xolos-u? – qoshini ko‘tardi Garri. – Yana kimdir kelishi kerakmi?

– A? – tushunmadi Krumdan ko‘zini uzmagan Ron.

[1] **Frak** (*fransuzcha;* frac) – old qismi kalta qilib o‘yilgan, uzun orqa etagining quyi qismi ikkiga ajralgan, asosan tantanalarda kiyiladigan erkaklar kiyimi, kostyum.

O‘quvchilar joylashgach, Katta Zalga o‘qituvchilar kirib, «Mo‘tabar Stol» atrofidagi joylarini birin-ketin egallashdi. O‘qituvchilar navbatining oxirida professor Dambldor, professor Karkarov va Maksim xonim kirishdi. O‘z direktorlarini ko‘rgan belstekchilar tik turishdi. Buni ko‘rgan «Xogvars» o‘quvchilarining ayrimlari miyig‘ida kulib qo‘yishdi. Ularning kulgilaridan belstekchilar oz bo‘lsa ham xijolat tortishgani yo‘q. Maksim xonim Dambldorning chap tomonida ajratilgan kresloga o‘tirguncha belstekchilar qilt etmay oyoqda turdi. Dambldor ham oyoqda turgancha qoldi. Shundan so‘ng Katta Zalga mutlaq sukunat cho‘kdi.

– Xayrli oqshom, muhtaram xonimlar va janoblar, arvohlar va eng muhimi, aziz mehmonlar, – so‘z boshladi Dambldor xorijiy o‘quvchilarga yashnagancha qarab. – Sizlarni «Xogvars» dargohida qutlash men uchun ulug‘ sharafdir. Umid qilamanki, bu yerda o‘tkazadigan kunlaringiz sizga yoqimli, xushnud va shinam kechadi.

Boshidagi sharfini qo‘li bilan hamon tutib turgan «Belstek» qizlaridan biri yaqqol eshittirib istehzoli kulib qo‘ydi.

– Yoqmasa, yo‘qol! – pichirladi Germiona achchiqlanib.

– Bellashuvning rasmiy ochilish marosimini ziyofat nihoyasida o‘tkazamiz, – e’lon qildi Dambldor. – Hozir esa taomlar-u, ichimliklardan lazzatlanishingiz, umuman aytgan-da, o‘zingizni o‘z uyingizda, deb bilishingizni iltimos qilaman.

Dambldor o‘tirishi bilan Karkarov engashib, ikkalasi jonli suhbat qurib ketishdi.

Har doim sodir bo‘lganday, stol ustidagi idishlar taom va ichimlikka sehrli tarzda to‘lib-toshdi. Uy elflari bugun zo‘r mahorat ko‘rsatibdi. Ushbu dargohda ko‘p ziyofatlar o‘tgan bo‘lsa-da, bu qadar rang-barang yegulikni Garri muqaddam ko‘rmagan. Bir qancha taomlar xorijiy ekani yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

– Mana bunisi nima bo‘ldi? – so‘radi Ron go‘sht va buyrakdan tayyorlangan puding yonidagi dimlangan molluskalarga o‘xshash narsaga to‘la laganni ko‘rsatib.

– Buyabes, – dedi Germiona.

– Sog‘ bo‘l, – tilak bildirdi Ron.

– Men chushkirganim yo‘q. Bu fransuzcha taom. Nomi shunday talaffuz etiladi, – tushuntirgan bo‘ldi Germiona. – Yozgi ta’tilda yegan edim. Tatib ko‘r, juda mazali.

– Gapingga shundoq ham ishonaman, – dedi Ron likopiga puding solib.

Kelgan bo‘lsa, jami yigirmatacha mehmon kelgandir. Biroq hozir, balki, rangli kiyimlar «Xogvars»ning qora korjo-malari orasida yaqqol ajrab turganidan bo‘lsa kerak, Katta Zal odamga to‘lib ketganday tuyulmoqda. «Durmshtrang» o‘quv-chilari yechib qo‘yishgan mo‘ynalar ostidagi kiyim qonday qip-qizil.

Ziyofat boshlanib, yigirma daqiqa o‘tgach, o‘qituvchilar stoliga yakkakift yurgan Xagrid yaqinlashdi. U «Mo‘tabar Stol» chetidagi kreslosiga joylashib, bintga[1] o‘ralgan qo‘lini Garri, Ron va Germionaga siltadi.

– Draklchalar qalay, Xagrid, sog‘-salomatmi? – qichqirdi Garri.

– Zo‘r, – javob berdi baxtiyor Xagrid.

– Kim ham shubha qilishi mumkin, ularning salomat-liklariga, – zaharxanda qildi Ron. – Aftidan, drakllar nimani xush ko‘rishi nihoyat aniqlangan ko‘rinadi. Xagridning barmoq-lari ekan-da.

– Meni ma’zug‘ sanang, buyabesdan yana yeysizmi?

Bolalarning ro‘parasida hali Dambldorning gapiga istehzo-li kulib qo‘ygan, boshidagi sharfini nihoyat yechgan qiz turibdi. Ko‘m-ko‘k ko‘zi katta, oppoq tishi tep-tekis ko‘rinayotgan qiz-ning kumush-tilla tusli sochi sharsharaday tovlanib, beligacha tushgan.

Yuzi qizarib ketgan Ron, og‘zi lang ochilgancha, qizga baqrayib qoldi. Savolga javob bermoqchi bo‘ldi-yu, og‘ziga ikki kalima so‘z kelmadi.

– Yo‘q, olavering, – dedi Garri laganni qiz tomon surib.

– Yeb ko‘g‘dingizmi? – so‘radi mehmon qiz.

---

[1] **Bint** *(nemischa:* Binge – bog‘ich, bog‘) – yaralarni bog‘lashga mo‘ljallangan doka, bo‘z, flanel, lenta va boshqalar).

– Ha, – nihoyat unsiz javob berdi Ron. – Nihoyatda mazali ekan.

– To‘g‘g‘i aytasiz, minnatdog‘man.

Qiz laganni olib, ehtiyotlik-la «Ravenklo» stoli tomon ravona bo‘ldi. Ron hayotida qiz ko‘rmagandek, mehmonning ortidan baqrayib qoldi. O‘rtog‘ining aftini ko‘rib kulib yubor-gan Garri Ronning hushini joyiga qaytardi.

– Veyla-ku! – xirilladi Ron.

– Bo‘lmagan gap! – labini qimtidi Germiona. – Sendan boshqa hech kim unga xuddi esi past ovsarday chaqchaygani yo‘q!

Biroq Germionaning gapi haqiqatdan yiroq. Aksariyat o‘g‘il bolalar uzun sochli qiz ortidan qarab o‘tirishar, ayrimlari esa xuddi Ron kabi dong qotib qolishgan edi.

– Chin so‘zim, bu oddiy qiz emas! – dedi Ron, kuzatuv obyektini ko‘zdan yo‘qotib qo‘ymaslik uchun yon tomon og‘ib. – «Xogvars»da bunday qizlar yasalmaydi!

– Adashasan, «Xogvars»da ham yasaladi, – o‘ylab-netib o‘tirmay valdiradi Garri, kumush sochli qiz yaqinida o‘tirgan Chu Chengga qarab.

– Ikkalangiz ham sog‘lom aqlingiz va ko‘rish qobiliyatingizni tiklab olsangiz, hozirgina «Xogvars»ga kim tashrif buyurganini ko‘rasiz, – dedi Germiona, «Mo‘tabar Stol» tomon imo qilib.

Qo‘shimcha qo‘yilgan to‘rtta kreslodan yana ikktasi nihoyat band qilinibdi. Professor Karkarovning yonidagi kresloni Lyudo Shulman, Maksim xonimning yonidagi kresloni esa Persining boshlig‘i mister Sgorbs egallabdi.

– Ularga nima kerak ekan bu yerda? – hayron bo‘ldi Garri.

– Uch sehrgar bellashuvini aynan shu kishilar tashkillashtirishgan-u, har qalay, – kesatdi Germiona. – O‘ylashimcha, tantanali ochilish marosimida haqli ravishda ishtirok etishgani kelishgan.

Uzatilgan shirinliklar orasida notanish yeguliklar ko‘rindi.

Ron blanmanjeni[1] diqqat bilan o'rganib chiqdi-da, «Ravenklo» stolidan ko'rinishi uchun sal o'ngroq surib qo'ydi. Biroq veylaga o'xshatilgan qizning qorni to'ygan ko'rinadi, qaytib kelmadi.

Ko'p o'tmay tilla idishlar bo'shab, tozaligidan yarqiradi. Dambldor yana oyoqqa turgach, Katta Zalda hayajonli sukunat qaror topdi. Garrining tanasi yoqimli titradi. Qiziq, nima bo'lar ekan hozir? Undan bir nechta kursi narida o'tirgan Fred bilan Jorjning vujudi quloqqa aylanib qolganday go'yo. Ikkalasi engashib, Dambldorga diqqat bilan tikilib o'tiribdi.

– Vaqt yetdi, – e'lon qildi «Xogvars» direktori chehralar ummoniga murojaat qilib. – Uch sehrgar bellashuvi boshlanyapti. Sandiqcha olib kelinguncha, ushbu o'quv yilida nimalar bo'lib o'tishi haqida ayrim tushuntirishlar berib o'tmoqchiman...

– Nima olib kirilguncha? – tushunmadi Garri.

Ron yelka qisdi.

– Dastavval, ijozatingiz bilan, mehmonlarimizni tanishtirib o'tsam. Demak, tanishing: mister Bartolomeus Sgorbs, Buyuk Britaniya Sehrgarlik vazirligi Xalqaro sehrgarlik hamkorligi departamenti boshlig'i.

Boadab qarsaklar chalindi.

– Va mister Lyudo Shulman, vazirlikning Sehrgarlik o'yinlari va sport departamenti boshlig'i.

Ehtimol, kvidish o'yinida erishgan so'nmas shuhrati, balki mister Sgorbsga nisbatan barno ko'ringani sabablidir, Shulmanning sharafiga ancha qattiq qarsak urildi. Minnatdorlik sifatida bo'lsa kerak, Shulman qo'li bilan artistlarga xos imo qildi. Bartolomeus Sgorbs esa, aksincha, ismi e'lon qilinganiga hech qanday munosabat bildirmadi. Chodirli lagerga bequsur kiyimda kelganini eslagan Garri sehrgarlar kiyimi Sgorbsga yarashmasligini ichida ta'kidlab qo'ydi. Cho'tkaga o'xshash mo'y-loviyu, sochining o'rtasidan nihoyatda to'g'ri ochilgan farq Dambldorning uzun soch-soqoli oldida juda g'alati ko'rinar ekan.

– Mister Shulman bilan mister Sgorbs so'nggi bir necha oy

[1] **Blanmanje** – qaymoqqa qorilgan mag'iz, shakar va jelatindan tayyorlangan dirildoq.

ichida Uch sehrgar bellashuvini tashkillashtirish yo'lida ko'p ter to'kishdi, – davom etdi Dambldor. – Shunday ekan, ular bellashuv hakamlari tarkibiga professor Karkarov, Maksim xonim va men kabi teng huquqli a'zosi sifatida kirib, chempionlikka da'vogar-ishtirokchilarning mahoratlariga baho berib borishadi.

«Chempionlikka da'vogar-ishtirokchilar» so'zlari talaffuz etilganida, barchaning shundoq ham zo'r berilgan diqqat-e'tibori yanada oshdi. Buni Dambldor ham sezdi, shekilli, kulib boqdi.

– Ana endi navbat sandiqchaga. Mister Filch, marhamat qilsangiz, – dedi Dambldor.

Shu vaqtgacha hech kimning nazarini o'ziga jalb etmay Katta Zalning uzoq burchagida turgan Filch Dambldorning yoniga qimmatbaho toshlar vositasida bezatilgan kattagina yog'och qutini keltirib qo'ydi. Nihoyatda qadimiy ushbu quti odamlar orasida hayajonli pichir-pichir ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Dennis Krivi yaxshiroq ko'rish uchun kursiga chiqib oldi. Lekin jussasi chindan ham mitti bo'lgani uchun uning boshi o'tirganlar boshi uzra bazo'r chiqdi.

Qutini qo'ygan Filch nari ketgach, Dambldor yana gap boshladi.

– Mister Sgorbs bilan mister Shulman chempionlikka da'vogarlar bajaradigan topshiriqlarga oid yo'riqnomalarni atroflicha o'rganib chiqib, zaruriy tadbirlarning barini to'la-to'kis tashkillashtirishdi. Topshiriqlar jami uchta bo'lib, ijro muddati bo'yicha o'quv yili davomiga bo'lib chiqilgan. Bu esa, o'z navbatida, har bir chempionlikka da'vogarning qobiliyati, sehrgarlikka, ya'ni xususiy xulosalar chiqarishga qodirligi va albatta, xavfli vaziyatni munosib qarshi olib, tegishli harakatlarni bajara bilishini puxta tekshirib chiqish imkonini beradi.

Katta Zaldagi jimjitlik shu darajaga borib yetdiki, birov nafas olayotgan-olmayotgani eshitilmaydi.

– Sizga ma'lumki, ushbu bellashuvda har bir ishtirokchi-maktabdan bir kishidan, jami uch nafar sehrgar kuch sinashadi, – xotirjam davom etdi Dambldor. – Topshiriq ijrosining sifati va bekami-ko'stligiga qarab, chempionlikka da'vogarlarga ball yozib boriladi. Eng ko'p ball to'plagan da'vogar Uch sehrgar

bellashuvining chempioni deya e'tirof etiladi. Chempionlikka da'vogarlarni esa betaraf hakam... xususan mana bu sandiqcha ichidagi Olov kuboki tanlaydi.

Dambldorning qo'lidagi sehrli tayoqcha uch marta asta urilib tekkan sandiqchaning qopqog'i g'ijirlab ochildi. Dambldor qo'lini sandiqchaga solib, g'aliz o'yilgan kubokning chiqardi. Agar ichidan oqish-moviy tusda yonib chiqayotgan o'ynoqi olov inobatga olinmasa, ushbu kubokning biron-bir diqqatga sazovor joyi yo'q.

«Xogvars» direktori sandiqchaning qopqog'ini yopib, ustiga Olov kubokini qo'ydi. Ana endi kubok hammaga aniq ko'rinmoqda.

– Bellashuvda ishtirok etish istagini bildirgan o'quvchi pergament parchasiga o'zining familiyasi va qaysi maktab vakili ekanini yozib, ushbu kubok ichiga tashlashi darkor, – tushuntirish berdi Dambldor. – O'ylab ko'rish uchun chempionlikka da'vogarlar ixtiyoriga yigirma to'rt soat vaqt havola etilgan. Olov kuboki o'z maktabining sharafini himoya qilishga munosib da'vogarlarni ajratib olgach, uch nafar sehrgarning ismlarini bizga ertaga, Xellouin kuni ma'lum qiladi. Bugun oqshomda Olov kuboki vestibulga, ya'ni barcha talabgorlar bemalol kirishi mumkin bo'lgan joyga o'rnatiladi.

Biroz tanaffus qilgan Dambldor qo'shimcha qildi:

– Uch sehrgar bellashuvida ishtirok etish huquqini beradigan yoshga to'lmagan o'quvchi vasvasaga tushib qolishiga yo'l qo'ymaslik chorasi ko'riladi. Xususan, kubok vestibulga o'rnatilishi bilan men uning atrofiga Yosh chegarasini yuritib qo'yaman. Ishontirib aytamanki, o'n yettiga to'lmagan biror-kishi ushbu marrani kesib o'ta olmaydi.

Gubka suv shimgan kabi har bir so'zni diqqat bilan eshitayotgan xaloyiqqa nazar solib biroz sukut saqlagan Dambldor davom etdi:

– So'zimni yakunlar ekanman, ma'lumotingiz uchun yana bir jiddiy xabarni sizga yetkazib qo'ymoqchiman. O'zini sinab ko'rish niyatida bo'lgan chempionlikka da'vogarlarni ogohlantirib qo'yish mening zimmamga yuklangan burchdir. Shuni

bilingki, bellashuv shartlari u qadar sodda emas. Olov kuboki tomonidan saralangan chempionlikka da'vogar bellashuvning boshidan oxirigacha ishtirok etishi shart. Chunki familiyangiz yozilgan pergament bo'lagi Olov kubokiga tushgan zahoti, siz bilan kubok o'rtasida uzluksiz aloqa yuzaga keladi, ya'ni o'ziga xos sehrli bitim tuziladi. Modomiki, Olov kuboki tomonidan chempionlikka da'vogar sifatida saralab olinar ekansiz, hech narsani o'zgartirib bo'lmaydi. Bas, shunday ekan, Uch sehrgar bellashuvining oxirigacha ishtirok etishga qurbingiz yetish-yetmasligini obdon o'ylab ko'rishingiz kerak... Xo'sh, yotar vaqt yetdi. Marhamat, hamma uyquga. Xayrli tun.

– Yosh chegarasi! – xitob qildi Fred, Katta Zaldan chiqish eshigi tomon el qatori yo'l olar ekan. – Bunday g'ov biz uchun muammo emas. Uni yengib o'tish vositasi sifatida aynan Qaritish damlamasi qo'l keladi. Muhimi, pergament bo'lagini Olov kubokiga tashlashga ulgursak bas. Ana o'shanda ish bitib, marra bizniki bo'ladi. O'n yetti yoshga to'lganing yoki hali beshikda yotganingni jonsiz kubok qayerdan bilsin?

– Biroq, fikrimcha, o'n yetti yoshga to'lmagan ekanmiz, topshiriqlar ijrosini uddalay olmaymiz, – gapga aralashdi Germiona. – Biz hali juda ko'p narsalarni bilmaymiz...

– O'z nomingdan gapir, – kesatdi Jorj. – Xo'sh, Garri, sen nima deysan? Fredning taklifini amalda sinab ko'rasanmi?

Dambldorning: «*... o'n yetti yoshga to'lmaganlar vaqtni behuda o'tkazib, ariza berishga urinishmasin*», – degan gapini esga olgan Garri Uch sehrgar bellashuvi Kubogini qo'lga olayotganini tasavvur etgach... Qiziq, o'n yetti yoshga to'lmagan o'quvchi Yosh chegarasini oshib o'tish usulini topa olga-nini Dambldor bilsa, qanchalik qattiq ranjishi mumkin...

Ron suhbatga mutlaqo e'tibor qilgani yo'q. Uning alang-jalang ko'zi Krumni qidirmoqda.

– Qani u? Durmshtrangchilar qayerda yotishi haqida Dambldor to'xtalib o'tmadimi?

Uning savoliga javob shu zahoti topildi. Slizerinchilar stoli yonidan o'tib borishar ekan, Karkarov o'z o'quvchilarini yig'a-yotganini ko'rishdi.

– Bo‘ldi, kemaga qaytamiz, – dedi u shogirdlariga. – Viktor, ahvoling qalay? Qorning to‘ydimi? Glintveynga[1] odam jo‘nataymi? Mo‘yna kiyimini kiyayotgan Krum bosh chayqadi.

– Professor, vino berishsa, rad etmas edim, – umid-la so‘radi boshqa bola.

– Men uni senga taklif qilganim yo‘q, Polyakov, – irilladi otalarcha g‘amxo‘rligi bir zumda barham topgan Karkarov. – Sen yana korjomangni ovqatga bulg‘absan, isqirt...

Karkarov o‘girilib, o‘quvchilarini chiqish eshigi tomon yetaklagancha, Garri, Ron va Germionani quvib yetdi. Garri to‘xtab, odob-la professorni oldinga o‘tkazdi.

– Tashakkur, – dedi Karkarov.

Bola tomon loqayd qarab qo‘ygan professor kutilmaganda taqqa to‘xtab, Garriga baqrayib qoldi. Direktorining ortidan ergashib kelayotgan «Durmshtrang» o‘quvchilari ham to‘xtadi. Karkarov Garriga boshdan oyoq nazar solib, chandiqqa tikildi. Durmshtrangchi bolalar ham Garriga qiziqsinib qarashdi. Isqirt bola esa tirsagi bilan yonidagi qizni turtib, ochiqdan ochiq chandiqqa imo qildi.

– Ha, bu o‘sha – omon qolgan bola, – gurullagan ovoz yangradi orqadan.

Professor Karkarov ovoz eshitilgan tomon keskin o‘girilib, qo‘liga aso ushlagan O‘ynoqko‘z Xmurini ko‘rdi.

– Siz?! – oh urish ohangida so‘radi Karkarov, xuddi arvohni ko‘rganday bo‘lib.

– Men, – g‘azab-la javob berdi Xmuri. – Agar Potterga aytadigan gapingiz bo‘lmasa, yo‘lingizni davom eting Karkarov. Tirbandlik hosil qildingiz.

Chindan ham uning ortida anchagina odam to‘plangan bo‘lib, nima bo‘layotganini bilish uchun bo‘yin cho‘zishmoqda.

So‘z aytmagan professor Karkarov shogirdlarini ortidan ergashtirib, nari ketdi. Sehrli ko‘zini durmshtrangchilar direktorining beliga tikib olgan Xmuri jirkanch qiyofa yasagancha kuzatib qoldi.

[1] **Glintveyn** – shirinlik narsalar qo‘shib, qizil vinodan tayyorlangan issiq ichimlik.

***

Ertasi kuni shanba bo'lgani bois aksariyat bolalar Katta Zalda o'tadigan nonushtaga nisbatan kech kelishi kerak edi. Biroq bugun Garri, Ron va Germiona hali qarg'a go'ng titmay, uyg'onishdi. Uchovlon pastga tushib vestibulga allaqachon yigirmaga yaqin bola yig'ilganini ko'rdi. Kimdir buterbrod kavshayapti, kimdir Olov kubokini tomosha qilyapti. Kubok polga yuritilgan, radiusi o'n futcha keladigan tilla tusli doira markazida, odatda, o'quv yili boshlanishi munosabati bilan o'tkaziladigan ziyofat boshida saralovchi Shlapa qo'yiladigan kursi ustiga o'rnatilgan.

– Biron kishi qog'oz tashladimi kubokga? – qiziqsinib so'radi Ron uchinchi sinfda tahsil ko'radigan o'quvchi qizdan.

– «Durmshtrang» o'quvchilarining hammasi, – javob berdi qiz. – Lekin «Xogvars»dan biron kishi qog'oz tashlaganini ko'rmadim.

– Balkim, birorta maktabdoshimiz tunda, hamma uxlab yotgan mahalda tashlagandir, – fikr bildirdi Garri. – Men ham birovga ko'rsatishni istamay, shunday qilgan bo'lar edim. Agar kubok pergamentni tashlashing bilan hammaning ko'z o'ngida tupurib tashlasa nima bo'lishini tasavvur qilib ko'r?!

Orqada kulgi eshitildi. Marmar zinadan haddan ortiq to'lqinlangan egizaklar Fred, Jorj va ularning do'sti Li Jordan tushishmoqda.

– Jur'at etdik, – pichirladi yuzi muzaffar qiyofa kasb etgan Fred, uchovining xulqini kuzatib turgan Garri, Ron va Germionaga. – Urib oldik!

– Nimani urib oldingiz? – so'radi hech nimani tushunmagan Ron.

– Qaritish damlamasini, befahm, – dedi Fred.

– Biz atigi bir necha oyga keksayishimiz kerak, xolos. Shu bois bir tomchidan ichganimiz yetarli bo'ladi, – quvonch-la qo'l ishqaladi Jorj. – Qaysi birimiz g'olib chiqishimizdan qat'i nazar, ming galleonni uch kishi orasida bo'lishib olishga ahd qildik.

– Bu qilig'ingiz kor berishiga shubha qilaman. Ishonchim komilki, Dambldor bu kabi nayranglarni ham ko'zda tutgan, – ogohlantirdi Germiona.

Fred, Jorj va Li Germionaning gapini pisand qilishmadi.

– Tayyormisiz? – so'radi Fred ikkala sherigiga murojaat qilib. – Unday bo'lsa, ketdik. O'zim boshlab beraman...

Fred cho'ntagidan «Fred Uesli – «Xogvars»» so'zlari bitilgan pergament parchasini chiqarib, tilla tusda tovlanayotgan Yosh chegarasi yoniga, xuddi ellik fut balandlikdan sakrashga hozirlanayotgan kishiday turib oldi. Garri ko'zini katta ochgancha uning harakatini kuzatib turdi. Vestibulda borki odam Fredga baqrayib qolgan. Chuqur nafas olgan Fred chegara chizig'ini shartta kesib o'tdi.

Nayrang kor berganiga Garri ma'lum vaqt bovar qildi. Bu masalada ishonchi komil bo'lgan Jorj muzaffariyat na'rasini tortgancha, akasining ketidan sakradi. Keyingi soniyada allaqanday vishillagan tovush eshitilib, egizaklar, xuddi ko'zga ko'rinmas manjaniq vositasida uloqtirib yuborilganday, doira tashqarisiga uchib chiqdi. Ikkalasi Olov kubokidan o'n futcha nariga, toshdan to'shalgan muzday polga joni og'rib tushdi. Bunday xo'rlik kamlik qilganday nimadir qars etib, ikkalasining boshi uzun, oppoq soch-soqolga burkandi.

Yangragan qahhahadan vestibul devori titradi. Hatto oyoqqa turgan Fred bilan Jorj ham bir-birining basharasiga qarab kulib yubordi.

– Sizlarni ogohlantirgan edim-u, – eshitildi taajjubli ovoz.

Hamma Katta Zalga kirish eshigi oldida turgan Dambldorni ko'rdi. Direktor quv nigoh-la Fred bilan Jorjni diqqat bilan ko'zdan kechirib chiqdi.

– Nazarimda, Pomfri xonimning qabuliga borishingiz darkirib chiqishingiz kerak bo'ladi. Ayni paytda u, ikkalangiz kabi biroz qarishga ahd qilgan ravenklochi miss Fossett bilan xufflpuffchi mister Sammersni davolash bilan mashg'ul. Ta'kidlab o'tmoq joizki, ularning soqollari sizning soch-soqolingiz oldida ip esha olmaydi.

Egizaklar kulaverib ho'ngrab yuborishga sal qolgan do'st-

lari Li Jordanning hamrohligida kasalxona tomon o‘qday uchishdi. Garri, Ron va Germiona esa hiringlagancha, nonushta qilgani yo‘l oldi.

Bugun, Xellouin bayrami munosabati bilan Katta Zalning qiyofasi o‘zgacha. Havoda muallaq osilib, kattagina bulut hosil qilgan haqiqiy ko‘rshapalaklar sehrlangan shift ostida qanot shitirlatishmoqda. Har bir burchakda esa oshqovoqdan jimjimador kesib yasalgan basharalar baqraymoqda. Garri «Xogvars»ning o‘n yetti yoshga to‘lgan bo‘lib, chempionlikka da’vogar bo‘lishga munosib o‘quvchilarini muhokama qilib o‘tirgan Din bilan Simusning yoniga joylashdi.

– Aytishlaricha, «Slizerin» jamoasining «Ovchi»si Uorrington tongotar mahalda ismi yozilgan pergamentni kubokga tashlabdi, – dedi Din Garriga. – Nimasi bilandir lenivetsni[1] esla-tadigan slizerinchi-tomtesharni eslaysanmi?.

– Odam qurib ketganday, kelib-kelib slizerinchi da’vogar bo‘ladimi? – dedi Garri. – Hech qachon!

– Xufflpuffchilar esa hammasi birday Diggoriga yopishib olgan. Faqat, nazarimda, o‘sha xushro‘y Diggorining ichagi tavakkal qilishga ingichkalik qiladiyov, – fikr bildirdi Simus, jirkanib.

– Eshityapsizmi? – kutilmaganda suhbatni to‘xtatdi Germiona.

Vestibulda quvonchli qichqiriqlar yangradi. Bolalar o‘tirgan joyida o‘girilib, Katta Zalga uyatchan tabassum-la kirib kelayotgan, novcha bo‘yli, qora sochli, «Griffindor» kvidish jamoasining «Ovchi»si Angelina Jonsonni ko‘rdi.

– Bo‘ldi, ariza berdim! – dedi u, Garriga yaqin turgan kursiga o‘tirib, – kubokga qog‘oz tashladim!

– Rostdanmi?! – so‘radi Ron ta’sirlanib.

– Demak, o‘n yettiga to‘lgan ekansan-da? – qiziqdi Garri.

– Soqolini ko‘rmayapsanmi? To‘lgan, albatta, – xulosa chiqardi Ron.

---

[1] **Lenives** – daraxtlarda o‘rmalab, barg bilan ovqatlanadigan, yerda yurishga yaxshi moslashmagan, asosan Janubiy Amerikada tarqalgan sutemizuvchi hayvon.

– Tug‘ilgan kunim o‘tgan hafta bo‘lib o‘tdi, – ma’lum qildi Angelina.

– Xayriyat, «Xogvars» o‘quvchilari orasidan bir kishi bo‘lsa ham ariza berdi, – dedi Germiona. – Angelina, aynan seni tanlashlariga juda umid qilaman!

– Rahmat, Germiona, – bosh irg‘ib qo‘ydi Angelina.

– To‘g‘ri, anavi barno Diggoridan ko‘ra sen ishtirok etganing afzal, – fikr bildirdi Simus.

Uning og‘zidan gap chiqishi bilan ayni paytda bolalar yonidan o‘tayotgan xufflpuffchilar guruhi o‘qrayib, jerkib ketishdi.

Uchovlon o‘rtoq nonushta qilib bo‘lib, Katta Zaldan chiqish eshigi tomon yo‘l oldi.

– Xo‘sh, bugun nima ish qilamiz? – so‘radi Ron Garri bilan Germionadan.

– Biz hali Xagridning kulbasiga tashrif buyurganimiz yo‘q, – esladi Garri.

– Unday bo‘lsa, kulbaga boramiz, – rozi bo‘ldi Ron. – Agar u drakl boqish uchun bir juftdan barmoq berishimizni so‘ramasa, albatta.

Germionaning yuzi kutilmaganda yashnab ketdi.

– To‘xtang, Xagridga SASSIQ jamiyatiga a’zo bo‘lishni hali taklif etmagan edim, – quvonch-la baqirdi u. – Shu yerda kuting, yugurib borib, ko‘krak nishonlaridan olib kelay.

– Qanaqangi odam u, a? – uf tortdi Ron, marmar zina bo‘ylab yugurgancha ko‘tarilayotgan Germionaga qarab.

– Uyalmaysanmi, Ron? Do‘sting-ku, u, axir, – dedi Garri. – Nimalar deyapsan?...

Ko‘chadan vestibulga belstekchilar kirib kelishdi. Ular orasida veylaga o‘xshaydigan uzun sochli qiz ham bor. Olov kuboki atrofida yig‘ilganlar nari qochib, nima bo‘lishini kutgancha, qarab qolishdi.

Vestibulga oxirgi bo‘lib kirib kelgan Maksim xonim o‘quvchilarini bir chiziqqa tizdi. O‘ta intizomli belstekchilar Yosh chegarasini navbat bilan kesib o‘tib, qo‘lidagi pergamentlarini oqish-moviy tusda yonayotgan olovga tashlashdi. Qog‘oz

bo‘lagi tushishi bilan olov muayyan vaqt qizil rang olib, uchqun sachratdi.

– Nima deb o‘ylaysan, Garri, – pichirlab so‘radi Ron, veylaga o‘xshash qiz o‘z pergamentini olovga tashlab, safga qaytgach. – Tanlanmagan mehmonlar yurtiga qaytib ketadimi, yo bellashuv tomoshasiga qoladimi?

– Bilmadim, – yelka qisdi Garri. – Qaytib ketishmasa kerak. Axir, Maksim xonim shu yerda qolib, hakamlik qiladi-yu...

Belstekchilar ariza berib bo‘lgach, Maksim xonim shogirdlarini ko‘chaga ergashtirib ketdi.

– Qiziq, ular qayerda yotishadi? – so‘radi Ron sehrlanib qolganday ularga ergashib.

Baland eshitilgan shaqir-shuqur tovush SASSIQ jamiyatining ko‘krak nishonlariga to‘lgan quti ushlagan Germiona qaytganidan dalolat berdi.

– O, juda soz, endi tezroq chiqaylik, – suyundi Ron, chiqish eshigi tomon oshiqib.

U qiyalik o‘rtasiga yetgan Maksim xonimning guruhi orasidagi veyla qizning belidan hech ko‘z uza olmadi.

Bolalar Xagridning «Taqiqlangan o‘rmon» chetidagi kulbasiga yetgach, «Belstek» qarorgohi qayerda joylashgani ma’lum bo‘ldi. Xagridning kulbasidan taxminan ikki yuz yard narida kattaligi uyday keladigan xira moviy arava turibdi. Ayni paytda belstekchilar navbat bilan aravaga chiqishayotgan ekan. O‘lchami filday keladigan o‘n ikkita uchar ot esa naridan-beri tayyorlangan qo‘ton ichida o‘tlab yuribdi.

Garri eshik taqillatishi bilan So‘yloqtish akilladi.

– Xayriyat! – xitob qildi eshikni ochib, kimlar tashrif buyurganini ko‘rgan Xagrid. – Kulbam qayerdaligini unutib yuborgan bo‘lsangiz kerak, degan xayolga borgan edim.

– Biz nihoyatda band edik, Xag...

Kutilmaganda gapirish qobiliyatini yo‘qotgan Germiona Xagridga baqrayib qoldi.

Xagrid negadir jigarrang, sertuk, nihoyatda xunuk bayramona kostum kiyib, to‘q malla katakli galstuk taqib olibdi. Bu ham mayli, eng dahshatlisi, Xagrid hayotda taroq ko‘rmagan

yovvoyi sochini g'ildirak moyini eslatadigan qandaydir modda vositasida tartibga keltirishga uringani bo'lib, buning uchun o'sha moddani hech ayamabdi. Boshidagi mol yalaganga o'xshab qolgan yolini teng ikkiga bo'lib yotqizibdi. Billga taqlid qilgan Xagrid, aftidan, dastlab sochini o'rmay bog'lab, otning dumi singari orqaga tashlab olishga harakat qilgan-u, sochi haddan ortiq ko'plik qilgan. Qisqasi, bunday qiyofa Xagridga yarashmabdi.

– M-m-m... drakllar qalay? – nihoyat so'radi biroz chaqchayib turgan Germiona, Xagridning turqiga izoh berishdan o'zini tiyib.

– Oshqovoq egatlarida, – javob berdi Xagrid, baxtiyor ohangda. – O'sishdan to'xtashgani yo'q. Tanalari uch futga yetib qoldi! Faqat bir noxushlik bor, u ham bo'lsa, bir-birini o'ldirib qo'yishi!

– Bo'lishi mumkin emas! – oh urgan bo'ldi Germiona.

Qiz Xagridning sochidan ko'zini uzmay, allanima deyish uchun og'iz juftlashga hozirlik ko'rayotgan Ronga o'qrayib qo'ydi.

– Shunaqa, – dedi Xagrid tashvishli ohangda. – Lekin chora topganday bo'ldim. Har birini alohida-alohida yashikka qamab qo'ydim.

– Juda yaxshi o'ylabsan, – dedi Ron.

Bolaning ohangidagi istehzoni Xagrid uqib olmadi.

Kulba atigi bir xonali. Burchakka ustiga quroq adyol tashlangan ulkan karavot o'rnatilgan. Shiftga tozalangan qush tanalari-yu, son go'shti osib qo'yilgan. Kamin ro'parasida o'lchami karavotdan qolishmaydigan, atrofiga kursi terilgan yog'och stol o'rnatilgan. Kaminda gurullayotgan gulxan ustida mis choynak qaynamoqda. Uchovlon stol atrofiga joylashgach, Xagrid choy damlashga kirishdi. Ko'p o'tmay Uch sehrgar bellashuvi haqida bahs boshlandi. Xagrid bo'lg'usi tomosha tadbirlaridan hayajonlanish masalasida bolalardan qolishmadi.

– Shoshmang, – irshaydi u, – hali shunaqa tomoshalar bo'ladiki, yetti uxlab tushingizga kirmagan. Birinchi topshiriq... Ha-ya, bu haqda gapirish mumkin emas-ku!

– Ayt, Xagrid, aytib, iltimos! – baralla o'tindi bolalar.

Irshayib qaragan Xagrid bosh chayqashini qo'ymadi.

– Yo'q, aytsam, qizig'i qolmaydi... Ta'kidlab o'tishim mumkinki, zo'r tomosha bo'ladi. Chempionlikka da'vogarlarga anchagina ter to'kishga to'g'ri keladi. Hech o'ylamagan edim Uch sehrgar bellashuvi yana o'tkaziladigan kunga yetishimni.

Bolalar Xagrid bilan tushlik qilishga qolishdi-yu, to'yib ovqatlana olishmadi. Davangir dasturxonga toblangan mol go'shti, deb nom bergan taom uzatdi. Biroq Germionaning porsiyasidan[1] kattagina tirnoq chiqqach, Ron bilan Garrining ishtahasi bo'g'ildi. Shunday bo'lsa-da, ular maroqli suhbat qurib, chempionlikka da'vogar sifatida kimlar saralanishi mumkinligini muhokama qilishdi. Birinchi musobaqa xususida Xagriddan gap sug'urishga urinishdi, Fred bilan Jorj sochsoqoldan xalos bo'lishgan-bo'lishmagani taxmin qilishdi.

Kun yarmidan o'tib, yomg'ir yengil savalay boshladi. Kamin yonida qulay joylashib olgan bolalar yomg'ir qatralarining deraza oynasiga urilishini eshitgancha, Germiona bilan uy elflari borasida mubohasa o'tkazayotgan Xagridning paypoq yamashini tomosha qilib o'tirishdi. Ko'krak nishonini ko'rgan Xagrid SASSIQ jamiyatiga a'zo bo'lishdan qat'iy bosh tortdi.

– Sen to'g'ri tushun Germiona, uy elflarining hurriyati yo'lida olib boriladigan har qanday sa'y-harakat aynan elflar uchun hech qanday naf keltirmaydi, – qat'iy fikr bildirdi Xagrid, sariq ip o'tkazilgan suyak ignani tortar ekan. – Inson xizmatida bo'lish – elf tabiatiga xos fazilatdir. Parvardigorning o'zi shunday yaratgan ularni, tushunyapsanmi? Agar bunday xizmatdan xalos etiladigan bo'lsa, ular badbaxt bo'lib qolishadi. Xizmatiga haq taklif qilsang, qattiq haqorat qilgan bo'lasan.

– Garri Dobbini ozod etdi-yu. Hurriyatga erishgan o'sha baxtiyor elf xursandligidan boshi osmonga yetdi! – e'tiroz bildirdi Germiona. – Eshitishimizga qaraganda, hozir u haq

[1] **Porsiya** (*lotincha; portio*) – har bir odamga tegishli ulush, hissa. 1) biror narsaning kimgadir, nimagadir mo'ljallangan o'lchovli bo'lagi, miqdori; 2) restoran yoki oshxonada bir xo'randaga mo'ljallangan ma'lum miqdordagi yegulik (**bu yerda shu ma'noda kelgan**).

to‘lanadigan ish qidirayotgan emish.

– Nima ham der edim. O‘z elatidan ajrab turadiganlar hamma joyda topiladi. Uy elflari ham bundan mustasno emas. Biroq ularning aksariyatini do‘q-po‘pisa bilan ham ixtiyoriy hurriyatga quvib chiqara olmaysan. Yo‘q, Germiona, urinishlaring behuda.

Germiona arazlab, lab-lunjini osib olgancha, ko‘krak nishonlari joylangan qutini korjomasining kissasiga soldi.

Soat besh yarimda qosh qoraya boshladi. Bolalar qasrga, Xellouin bayramini nishonlash uchun uyushtiriladigan ziyofatga va eng muhimi, bellashuv ishtirokchilari saralanib, chempionlikka da’vogarlarning ismlari e’lon qilinadigan tadbirga oshiqishdi.

– Men ham sizlar bilan boraman, – dedi Xagrid, chevarchilik ashyolarini yig‘ishtirib. – Bir daqiqa sabr qiling.

U karavotdan turib, yashiklarni titkilay ketdi. Bolalar mudhish hid sezishguncha Xagrid tomon qarashmagan edi. Badbo‘y hidga bardosh bera olmagan Ron yo‘talgancha, baqirib yubordi:

– Nima qilding, Xagrid?

– A-a? – dedi qo‘liga katta shisha ushlagan Xagrid, bolalarga yuzlanib, – Ha, yomonmi?

– Soqol olinganidan so‘ng surtiladigan losyonmi? – qiziqdi nafasi bo‘g‘ilgan Germiona.

– M-m-m... atir, – javob berdi Xagrid qizarib. – Sal oshirib yubordim chog‘i. Hozir yuvib tashlayman... hozir, shu yerda kutib turing...

U tashqariga chiqib ketdi. Bolalar derazadan Xagridning hovlidagi bochkaga to‘ldirilgan suv bilan yuvinayotganini ko‘rishdi.

– Atir va Xagrid? – hayron bo‘ldi Germiona, bolalarga yuzlanib.

– Sochi bilan kostumi-chi? – qo‘shib qo‘ydi Garri.

– Tashqariga qarang! – kutilmaganda baqirib yubordi Ron.

Bochka ustida engashgan Xagrid shu fursatda qaddini rostladi. Agar uning muqaddam kuzatilgan bunday holati «qizarib ketdi», deb ta’riflanganda, hozirgi ahvolini tavsiflash uchun

vasf topilmaydi. Garri, Ron va Germiona Xagrid sezib qolmasligi uchun asta o'rinlaridan turib, derazaga yaqin kelishdi. Ziyofatga otlangan Maksim xonim o'z o'quvchilari bilan birga aravadan tushgan ekan. Bolalarga Xagridning gapi eshitilgani yo'q, ammo uning Maksim xonim tomon maftun bo'lgancha qarab qolgani, zavq yuzida barq urayotgani, nigohi xiralashganidan hamma narsa tushunarli bo'ldi-qoldi. Xagridning bunday nigohini Garri bir vaqtlar endigina tuxumdan chiqqan Norbertga qarab o'tirganida ko'rgan edi.

– Qarang, qasrga anavi bilan birga ketdi-ya! – jahl qildi Germiona. – Nega u bizni unutib qo'ydi?

Kulba tomon biror marta qiyo boqmagan Xagrid Maksim xonimning yonida bitta-bitta qadam tashlagancha, nari ketdi. Ulkan qadam tashlab borayotgan ikkala davangirdan ortda qolmaslikka harakat qilayotgan belstekchi bolalar lo'killab yurishga majbur bo'ldi.

– Jigaridan urgan ko'rinadi! – pichirladi Ron. – Nima ham der edim, agar ikkalasi farzand ko'rishadigan bo'lsa, jahon rekordini qo'yishadi. Ont ichib aytamanki, tug'ilajak chaqaloqning vazni bir tonnadan yengil bo'lmaydi! Tashqari qorong'i. Kulbadan chiqib, eshikni yopgan bola-lar ridolariga zichroq o'ranib, qiyalik bo'ylab ko'tarila boshlashdi.

– O-o-o, qarang, yana bir guruh mehmon! – pichirladi Germiona.

Ko'l tomonda qasr yo'nalishida yo'l olgan durmshtrangchilar ko'rindi. Viktor Krum Karkarovning yonida, qolganlar orqada kelishmoqda. Ron Krumga zavq to'la nigoh-la qaradi. Biroq Garri, Ron va Germionaga kirish eshigi yonida yetib olgan Krum bolalarga qiyo ham boqmay o'tib ketdi.

Son-sanoqsiz sham yoritgan Katta Zal odamga to'la. Vestibulda turgan Olov kuboki Katta Zalga olib kirilib, «Mo'tabar Stol» ustiga, Dambldor o'tiradigan kreslo ro'parasiga o'rnatilgan. Soch-soqoldan xalos bo'lib, muvaffaqiyatsizlikni munosib qarshi olgan Fred bilan Jorj ham o'z joylarida g'urur-la o'tirishibdi.

– Ishonchim komilki, Angelina tanlanadi, – umid bildirdi

Fred, egizaklar yoniga joylashgan Garri, Ron va Germionaga murojaat qilib.

– Men ham shunga umid qilyapman, – deyarli unsiz ma'qulladi Germiona. – Tez orada hammasini bilamiz.

Xellouin munosabati bilan uyushtirilgan ziyofat ancha cho'zildi. Ketma-ket ikkinchi ziyofat bo'lgani sabablidir, benazir tayyorlangan tansiq taomlar Garrining ishtahasini zo'r qo'zg'ata olmadi. Aksincha, chempionlikka da'vogar sifatida kimlar saralab olinganini tezroq bilish uchun taomlar tezroq gum bo'lsa, behad xursand bo'lar edi. Katta Zalda o'tirgan odam-larning aksariyati bo'yin cho'zayotgani, sabrsizlik barq urayot-gan qiyofalari, behalovat xatti-harakatlari, «Xogvars» direktori ovqatlanib bo'lgan-bo'lmaganini ko'rish uchun ayrimlar vaqti-vaqti bilan o'tirgan o'rnidan turib, qarab-qarab qo'yishidan bilsa bo'ladiki, qolganlar ham Garri kabi fikr yuritmoqda.

Nihoyat, uzoq kutilgan fursat yetdi. Tilla likop-u, qadahlar yana top-toza bo'lib qoldi. To'lqinlanib ketgan xaloyiq shov-shuv ko'tardi-yu, Dambldor o'rnidan turishi bilan Katta Zalni, suv sepganday, sukunat qamradi. «Xogvars» direktorining ikki yonida o'tirgan ishtirokchi-maktab direktorlari professor Karkarov bilan Maksim xonimning yuzlarida ham ayni damda odamlar qalbida tug'yon urayotgan hayojon tuyg'usi yaqqol ifodalanib turibdi. Yuzi yashnayotgan Lyudo Shulman atrofga qarab ko'z qisgani-qisgan. Mister Sgorbsning yuzida esa aksincha, qandaydir zerikish alomati, kechayotgan hodisaga hech qanday qiziqish yo'qligi kuzatilmoqda.

– Xo'sh, Olov kuboki siz-u biz anchadan buyon kutayotgan savolga javob berishga tayyor, – gap boshladi Dambldor. – Chamamda bir daqiqadan kam qoldi. Ismlari e'lon qilingan chempionlikka da'vogarlar o'qituvchilar stoli yoniga kelib, dastlabki yo'l-yo'riq olish uchun mana bu xonaga kirishlarini so'rayman, – e'lon qildi u, orqadagi eshikni ko'rsatib.

Dambldor sehrli tayoqchasini qo'liga olib, aylantirdi. Oshqovoqdan kesilgan basharalar ichida yonayotgan shamlardan tashqari, barcha sham-u, mash'alalar o'chdi. Katta Zalda sirli qorong'ilik qaror topdi. Eng yorqin dog' endi Olov kuboki bo'lib

qoldi. Uning o‘ynoqlab, oqish-moviy tusda yonayotgan yarqiroq olovi ko‘zni og‘ritmoqda. Hamma jim... Ayrim sabrsizlar soatiga qarab-qarab qo‘yishmoqda...

– Mana hozir, – pichirladi Garridan ikki kursi narida o‘tirgan Li Jordan.

Birdan olov qip-qizil tus oldi. Kubok ichidan uchqun sachrab, gulxanning uzun tili bilan birga kuyib qoraygan pergament bo‘lagi uchib chiqdi. Bunday bo‘lishini kutmagan Katta Zal oh urib yubordi. Pergamentni tutib olgan Dambldor, qog‘oz bo‘lagidagi yozuvni o‘qish uchun ikkala qo‘lini oqish-moviy rangiga qaytgan olov nuriga uzatdi.

– «Durmshtrang» maktabining chempionlikka da’vogari, – e’lon qildi u jarangdor, tiniq ovozda. – Viktor Krum!

Katta Zal quvonchli ayyuhannos-u, gulduros qarsaklardan portlab ketganday bo‘ldi.

– Hayron bo‘ladigan joyi yo‘q! – baqirdi Ron.

Slizerinchilar davrasida o‘tirgan Viktor Krum o‘rnidan turib, dastlab Dambldor yo‘nalishida, so‘ng «Mo‘tabar Stol»ning o‘ng tomonidan yurib, orqadagi xonaga olib kiradi-gan eshik ortiga bukchaygancha o‘tib ketdi.

– Balli, Viktor! – gumbur-gumburga qaramay baland baqirdi Karkarov. – Bilar edim! Aynan sen saralab olinishingni sezgan edim!

Xitob va olqishlar tindi. yana sukunat. Hammaning diqqat-e’tibori yana Olov kubokiga qaratildi. Ikki soniya o‘tib olov yana qizil tus oldi. Gulxan tili ustida gir aylangancha perga-mentning ikkinchi bo‘lagi uchib chiqdi.

– «Belstek» maktabining chempionlikka da’vogari, – e’lon qildi Dambldor. – Flyor Delakyor!

– O‘sha qiz-u, Ron! – o‘kirdi Garri.

Veylaga juda-juda o‘xshab ketadigan qiz o‘rnidan yengil nazokat-la turib, kumush-tilla tusli sochini orqaga tashlagancha, «Ravenklo» va «Xufflpuff» stollari o‘rtasida xirom aylab «Mo‘tabar Stol» tomon yo‘l oldi.

– Qarang-a, xafa bo‘lishdi, – dedi Germiona zahargina ohangda to‘polon orasida belstekchilar tomon imo qilib.

«Xafa bo'lishdi» izohi odob bilan aytilgan fikrdir, o'yladi Garri belstekchilarning holatini ko'rib. Saralanmay qolganlar orasida ikki nafar qiz yuzini kaft bilan bekitib olguncha, ho'ngramoqda.

Flyor Delakyor orqa xonaga kirib ketgach, Katta Zalga yana jimlik cho'kdi. Ushbu sukunat hayajonga shu qadar to'yin-ganki, mazasini tatib ko'rsa bo'ladi go'yo. Navbat «Xogvars»ga yetdi...

Olov kuboki olovi yana qizarib, uchqun sachrata boshladi. Havoga gulxanning uzundan uzun tili otilib chiqdi. Dambldor til uchidan pergamentning so'nggi, uchinchi bo'lagini tutib oldi.

– «Xogvars» maktabining chempionlikka da'vogari, – qichqirdi Dambldor. – Sedrik Diggori!

– Yo'q! – ingrab yubordi Ron.

Qo'shni stolda ko'tarilgan to'fon shu qadar shiddatli ediki, Ronning ushbu so'zini Garri bilan Germionadan tashqari hech kim eshitmadi. Jamiki xufflpuffchilar dod-voy ko'targancha, oyoqqa qalqib olgan. Og'zi qulog'iga yetgan Sedrik bolalar yonidan o'tib, o'qituvchilar stolining ortida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Olqishlar uzoq davom etdi. Dambldor yana so'z olguncha ancha vaqt o'tdi.

– Juda soz! – quvonch-la xitob qildi u, so'nggi qichqiriq tingach. – Ana endi uch nafar chempionlikka da'vogarimiz bor. Har biringiz, shu jumladan, saralab olinmay qolgan «Belstek» va «Durmshtrang» o'quvchilari o'z da'vogarlarini qo'llab-quvvatlab borishlariga hech shubha qilmayman. Chunki, bu bilan siz chindan ham bebaho... Dambldor kutilmaganda unini o'chirdi. Xayol o'tmay bu-ning sababi hammaga ayon bo'ldi.

Olovi yana qip-qizil tus olgan Olov kuboki atrofga bir olam uchqun sachradi. Havoga gulxan tili otilib, kubok ichidan yana bitta pergament bo'lagi uchib chiqdi.

Uzun qo'li bilan qog'oz parchasini tutib olgan Dambldor uzatilgan qo'lidagi pergament bo'lagiga bitilgan ismga baqray-gancha, dong qotdi. Esankiragan Dambldor qog'ozga, Katta Zalga yig'ilgan xaloyiq esa Dambldorga uzoq tikilib qoldi. Tomoq qirgan mezbon hakam nihoyat ovoz chiqardi:

– Garri Potter.

XVII BOB. TO‘RT NAFAR CHEMPIONLIKKA DA’VOGAR

Katta Zaldagi jamiki xaloyiq baqrayib qolganini ko‘rgan Garri qilt eta olmadi. Bola hayron. U hech narsani sezayotgani, his etayotgani yo‘q. Go‘yo mizg‘ib qolgan-u, g‘alati gaplarni eshitib uyg‘ongan.

Hech kim qarsak urmadi. Katta Zalda asta-sekin ko‘tarilayotgan g‘ovur-g‘uvur nimasi bilandir uyasi to‘zg‘itilib, jahli chiqarilgan ari galasining g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘irini eslatdi. Hayratdan toshday qotgan Garrini durustroq ko‘rish uchun ba’zilar oyoqqa turib olgan.

O‘rnidan keskin turgan professor Makgonagall Lyudo Shulman bilan Karkarovning orqa tomonidan shiddat-la o‘tib, Dambldorning qulog‘iga nimadir shivirladi. Qoshini chimirgan Dambldor qulog‘ini professor Makgonagallning og‘ziga yaqinroq tutdi.

Ron bilan Germionaga qaragan Garri jamiki «Griffindor» fakulteti og‘zi lang ochilgancha, unga baqrayib o‘tirganini ko‘rdi.

– O‘zingiz yaxshi bilasiz, men hech qanday ariza berganim yo‘q, – dedi Garri.

Biroq Ron bilan Germiona ham yuzida hech qanday ifoda ko‘rinmayotgan Garriga el qatori tikilib qolgan.

Dambldor professor Makgonagallning gapini ma’qullagan ko‘rinadi, bosh irg‘ib qad rostladi.

– Garri Potter! – yana e’lon qildi u. – Garri! Iltimos, bu yoqqa o‘t.

– Bor, – dedi Germiona, Garrini yengil turtib.

O‘rnidan turar ekan o‘z korjomasining etagini o‘zi bosib olgan Garri qulab tushishiga bir baxya qoldi. Yuzlab odamlar qarab turganini tanasi bilan his etayotgan bola «Griffindor» va «Xufflpuff» stollari orasidagi yo‘lak bo‘ylab «Mo‘tabar Stol» tomon yo‘l oldi. Yo‘lning oxiri ko‘rinmay, nazarida, o‘qituvchilar stoli tomon bir umr yurganday bo‘ldi. Dambldorning

qarshisiga yetib borguncha xuddi bir soat o‘tganday tuyuldi. O‘qituvchilardan birortasi undan ko‘z uzmadi.

– Xo‘sh... Garri, anavi xonaga kir, – tabassumsiz eshik ko‘rsatdi Dambldor.

Garri o‘qituvchilar stolini aylanib o‘tar ekan, ko‘z qiri bilan stol chetida o‘tirgan Xagridga qarab qo‘ydi. Xagrid ham na ko‘z qisib qo‘ydi, na qo‘l siltadi. Davangirning Garriga tahayyur qarab qolgan yuzidagi sarosimalik boshqalarning qiyo-fasidan hech farq qilmadi. Garri tayinlangan eshik tomon yurib, Katta Zaldan ancha kichik, devoriga sehrgar erkaklar-u, afsun-gar ayollarning portretlari osilgan xonaga kirib qoldi. Xonaning narigi tomonidagi kaminda olov gurkurayapti.

Ichkariga kirishi bilan portretlarda tasvirlangan odamlar ham Garriga yuzlandi. Mo‘ylovi morjning mo‘yloviga o‘xshaydigan kishi portretiga yuzini ajin bosgan bir kampir tasviri sakrab o‘tib, qo‘shnining qulog‘iga allanima pichirladi.

Viktor Krum, Sedrik Diggori va Flyor Delakyor kamin oldida yig‘ilib olishgan. Uchovining qomati gulxan yog‘dusida qandaydir sirli, haybatli ko‘rinmoqda. Bukchayib olgan domangir Krum hammadan narida, kamin tokchasiga suyanib, qo‘lini orqaga qilgan Sedrik esa gulxanga qarab turibdi. Flyor Delak-yor Garrini ko‘rib, kumush sochini orqaga tashladi.

– Nima gap? – so‘radi u. – Zalga chiqishimiz keg‘ak ekanmi?

Inglizchani buzib gapiradigan ushbu qiz Garrini zalga chorlagani kelgan chopar sifatida qabul qilgan ko‘rinadi. Garri hozirgina bo‘lib o‘tgan hodisani ularga qanday tushuntirishga boshi qotdi. Bola uchala da’vogarga qaragancha, tek turib qoldi. Uchalasi birday bo‘ydor ekaniga e’tibor qilgan Garrining ichi ag‘dar-to‘ntar bo‘ldi.

Qadam tovushi eshitilib, xonaga Lyudo Shulman otilib kirdi. U Garrining tirsagidan ushlagancha, uchala da’vogarga yaqin tortdi.

– Favqulodda holat! – g‘udulladi u, Garrining qo‘lini siqib. – Misli ko‘rilmagan favqulodda holat! Janoblar... va xonimlar! – qo‘shib qo‘ydi u, uchala da’vogarga murojaat qilgancha

gulxanga yaqinroq borib. – Aqlga qanchalik to‘g‘ri kelmayotgan bo‘lishiga qaramay, Uch sehrgar bellashuvining to‘rtinchi ishtirokchisini tanishtirishga ijozat bergaysiz.

Garriga boshdan oyoq nazar solib qaddi beixtiyor rostlagan Viktor Krumning xo‘mraygan basharasi battar burishib ketdi. Gapni noto‘g‘ri anglaganiga shubha qilmayotgan Sedrik shoshib qolib, nigohini Shulmandan Garriga, Garridan Shulmanga dam-badam olib o‘tdi.

– O, qanday kulgili hazil, misteg‘ Shulman, – dedi sochini siltagancha kulib boqqan Flyor Delakyor.

– Hazil? Yo‘q, xonim, bu hazil emas! – ma’lum qildi hayajoni tug‘yon urayotgan Shulman. – Hozirgina Olov kuboki Garrining ismi yozilgan pergamentni chiqarib berdi!

Krumning qalin qoshi sapchib tushdi. Sedrikning butun borlig‘i haligacha boadab talmovsirab turganini ifoda etmoqda. Flyor esa tumshayib oldi.

– Big‘oq, qandaydir katolik o‘tgan ko‘g‘inadi, – qo‘rs muomala qildi Delakyor. – U bizlag‘ga qag‘shi bellasha olmaydi. U kali juda kichkina.

– Fikringizga qo‘shilaman xonim, – dedi Shulman, silliq jag‘ini silagancha, Garriga kulib boqib. – Joriy yili tarixda ilk bor chempionlikka da’vogarlarning yoshiga doir ayrim cheklanishlar to‘g‘risida qo‘shma qaror qabul qilingan bo‘lsa-da, hodisa juda g‘alati kechmoqda. yana ustiga Garrining ismini Olov kuboki chiqarib berdi... Aytmoqchimanki, endi ortga yo‘l yo‘q... hech narsani o‘zgartirib bo‘lmaydi. Qoida shunaqa, Garri... Olov kuboki tomonidan saralab olingan chempionlikka da’vogar bellashuvning boshidan oxirigacha ishtirok etishi shart.

Xona eshigi lang ochilib, birdaniga ko‘pchilik: professor Dambldor, mister Sgorbs, professor Karkarov, Maksim xonim, professor Makgonagall va professor Snegg kirib keldi. Professor Makgonagall eshikni yopar ekan, Garri Katta Zalda ko‘tarilgan to‘s-to‘polon, qiy-chuvni eshitishga ulgurdi.

– Maksim xonim! – arz qildi Flyor rahbari tomon oshiqib. – Ulag‘ning aytishiga q ag‘aganda anavi kichkina bola ham bellashuvda ishtig‘ok etag‘ emish.

Yuz berayotgan hodisadan dong qotgan bo‘lsa-da, Flyorning «kichkina bola»si Garrining g‘ururiga tegib o‘tdi. «Kichkina demang bizni, ko‘tarib uramiz sizni. Bu gapning asl ma’nosini ko‘rsatib qo‘yaman hali senga. Kichkina bola emish-a?!»

Maksim xonim daroz qaddini rostlab, shiftga osilgan katta shamdonga chiroyli boshi bilan tegib ketgancha, shoyi to‘sgan yirik ko‘kragini kerib oldi.

– Buni qanday tushunmok dag‘kog‘, Dambl-dog‘g‘? – buyruq ohangida so‘radi u.

Karkarovning yuzida sovuq tabassum qotgan bo‘lib, moviy ko‘zi ikki bo‘lak muzga aylanib qolganday go‘yo.

– Nima bo‘layotganini men ham anglab yetmoqchiman, Dambldor, – dedi u Maksim xonimning savolini ma’qullab. – «Xogvars»dan ikki nafar da’vogar ishtirok etadigan bo‘ldimi? Qabul qiluvchi tomon bunday huquqqa ega bo‘lishini birov aytgan-aytmaganini eslay olmayapman. YO Uch sehrgar bellashuvi qoidalarini sinchkovlik-la o‘rganib chiqmagan ko‘rinamanmi?

Karkarov istehzoli xandon otib qo‘ydi.

Maksim xonim serhasham opallar bilan bezatilgan yirik kaftini Flyorning yelkasiga qo‘ydi.

– C'est impossible. Bo‘lishi mumkin emas. «Xogvag‘s»dan ikki nafar da’vogar ishtirok eta olmaydi. Bu adolatdan emas.

– Siz qo‘llagan Yosh chegarasi, Dambldor, tayinlangan yoshga yetmagan da’vogarlar uchun Olov kuboki yo‘lida g‘ov bo‘lishiga ishongan edik, – davom etdi murdor tabassumi yuzidan hanuzgacha barham topmay, nigohi muzdan ham sovuq ko‘rinayotgan Karkarov. – Aks holda, tabiiyki, nomzodlarimiz doirasi ancha keng bo‘lar edi.

– Karkarov, iltimos, Dambldorni ayblamang, – asta fikr bildirdi qora ko‘zi g‘azabdan yarqirayotgan Snegg. – Bu ishda Potterning o‘zigina aybdor. Negaki u, maktabga kelgan ilk kunlaridan buyon, ushbu dargohda joriy etilgan jamiki qoidalarni birma-bir buzib chiqishga jon-jahd ila chiranib kelmoqda...

– Yetar, bas Severus. Meni himoya qilganingiz uchun tashakkur, – gapni kesdi Dambldor.

Snegg unini o‘chirgan bo‘lsa-da, yog‘li sochi orasidagi ko‘zi yarqiragancha qoldi.

Professor Dambldor Garrining, bola esa direktorning ko‘ziga tik qaradi. Garri yarim oy shaklidagi ko‘zoynak ortidan qarab turgan bir juft ko‘z nimani ifoda etayotganini anglab yetishga urindi.

– Garri, Olov kubokiga ariza tashladingmi? – xotirjam so‘radi Dambldor.

– Yo‘q, – javob berdi Garri hammaning nigohini his etib.

Nim qorong‘ilikda turgan Snegg istehzoli ovoz chiqarib qo‘ydi.

– Birorta yuqori sinf o‘quvchisidan noming yozilgan pergamentni Olov kubokiga tashlashni iltimos qildingmi? – so‘roqni davom etdi Dambldor Sneggning ovozini pisand qilmay.

– Yo‘q, – bosh chayqadi jazavasi tutayotgan Garri.

– Tabiiyki u yolg‘on gapig‘yapti! – ovoz ko‘tardi Maksim xonim.

Zaharxandalik qilayotgan Snegg bosh chayqadi.

– Yosh chegarasidan o‘ta olmas edi u, – gapga aralashdi professor Makgonagall. – Nazarimda, bunga hamma amin bo‘ldi...

– Balkim, Daml-dog‘g‘ o‘sha chegag‘aga oid big‘og‘ta xatoga yo‘l qo‘ygandig‘, – yelka qisdi Maksim xonim.

– Bo‘lishi mumkin, albatta, – boadab rozi bo‘ldi Dambldor.

– Muhtaram Dambldor, bu masalada hech qanday xatoga yo‘l qo‘yilmaganini juda yaxshi bilasiz! – achchiqlandi professor Makgonagall. – Qanday bema’nilik! Takror aytaman, Garri Yosh chegarasini o‘zi mustaqil kesib o‘ta olmas edi. Yuqori sinf o‘quvchisidan o‘z nomi yozilgan pergamentni Olov kubokiga tashlashni iltimos qilmaganiga ham professor Dambldor to‘la-to‘kis ishonadi. Yana nima kerak sizlarga?

Professor Makgonagall Snegg tomon nihoyatda domangir nigoh tashlab qo‘ydi.

– Mister Sgorbs... mister Shulman, – murojaat qildi Karkarov riyokorona ohangda, – sizlar oramizda... m-m-m... bo‘lib o‘tayotgan hodisalarga nisbatan xolisona baho beradigan yago-

na kishilarsiz. Ishonchim komilki, ayni paytda o‘ta nomuvofiq ish bo‘layotganini ta’kidlab o‘tasiz, shunday emasmi?

Haddan ortiq o‘sib ketgan maktab o‘quvchisining siymosiga o‘xshash yuzini dastro‘moli bilan bekitgan Shulman, mo-viy ko‘zini kamin taratayotgan yorug‘lik doirasidan narida, qorong‘ilikda turgan mister Sgorbsga qaratdi. Yuzi nimqorong‘ilikda ko‘rinmay, bosh suyagini eslatayotgan mister Sgorbs xuddi keksayib qolgan, umuman aytganda, oxiratdan qaytib chiqqan kishiga o‘xshaydi.

– Qoidaga amal qilinishi shart, – javob berdi mister Sgorbs. – Qoidada esa: «Olov kuboki tomonidan ismi saralab olingan kishi Uch sehrgar bellashuvida ishtirok etishga majbur-dir», deb belgilangan.

– Mana marhamat! Barti qonunlar to‘plamini uzunasiga ham ko‘ndalangiga ham yod olgan, – xulosa chiqardi Shulman, masala uzil-kesil hal bo‘lganini ifoda etayotgan qiyofasi ila Karkarov bilan Maksim xonim tomon yuzlanib.

Karkarovning yuzidagi murdor tabassum nihoyat barham topdi. Endi uning qiyofasi chindan ham darg‘azab tus oldi.

– Tasarrufimdagi maktabdan tashrif buyurgan nomzodlarga takroran ariza berish imkoniyati havola etilishini talab qilaman, – dedi u riyokorona ohangini bir chetga yig‘ishtirib. – Siz Olov kubokini yana o‘z joyiga o‘rnatasiz. Toki har bir maktabdan ikki nafardan chempionlikka da’vogar saralab olinmas ekan, jarayonni bot-bot takrorlayveramiz. Shunday qilsak, Dambldor, adolat qaror topishini rad etmassiz.

– To‘g‘ri, Karkarov. Siz aytganday ish tutilsa, adolat chindan ham qaror topgan bo‘lar edi, – e’tiroz bildirdi Shulman. – Biroq Olov kuboki sovidi va endi u navbatdagi bellashuvgacha o‘t olmaydi...

– ... va o‘sha bellashuvda, o‘sha davrda qanday vaziyat yuzaga kelishidan qat’i nazar «Durmshtrang» ishtirok etmaydi! – g‘azab-la ma’lum qildi Karkarov. – Shuncha uchrashuvlarimiz, muzokaralarimiz, murosa-yu, son-sanoqsiz yon berishlarimizdan so‘ng ham mehmonlarga bunday munosabat ko‘rsatilishini hech kutmagan edim! Bilmadim, balki, tugun-tersa-

gimni yig‘ishtirib, jo‘nab ketganim ma’quldir!

– Bunday tahdidlarning bari behuda, Karkarov, – eshik tomondan yangradi tanish ovoz. – Siz o‘z da’vogaringizni tashlab keta olmaysiz. U esa hozirgina ta’kidlab o‘tilganday, bellashuvda ishtirok etishga majburdir. To‘rtalasi ham majbur. Modomiki, ular Olov kuboki tomonidan chempionlikka da’vogar sifatida saralab olingan ekan, endi hech narsani o‘zgartirib bo‘lmaydi. Har bir da’vogar bilan kubok o‘rtasida uzluksiz aloqa yuzaga kelib, o‘ziga xos sehrli bitim tuzilgan. Bu haqda Dambldor ogohlantirib o‘tgan edi, agar yodingizda bo‘lsa, albatta. Juda qulay yo‘l topilgan, shunday emasmi?

Xonaga kirib kelgan Xmuri kalovlangancha kaminga yaqinlashdi. Uning har bir bosgan qadami aks sado bermoqda.

– Qulay yo‘l topilgan? – hayron bo‘ldi Karkarov. – Fikringizni tushunmadim, Xmuri.

Karkarov o‘z ohangiga istehzoli tus berib, Xmurining fikri e’tiborga loyiq emasligini ko‘rsatishga chiranayotgani, biroq musht tugilayotgan qo‘li sirini ochib qo‘yayotgani Garrining e’tiboridan chetda qolmadi.

– Tushunmadim, deng? – xotirjam takrorladi Xmuri. – Obdan o‘ylab ko‘rsangiz, Karkarov, fikrimni tushunib yetish u qadar qiyin kechmaydi. Kimdir Potterning familiyasi yozilgan arizani kubokga qasddan tashlagan. Chunki bola saralanib olinsa, bellashuvda ishtirok etishga majbur bo‘lishini juda yaxshi bilgan.

– Bu ishni hammaga beg‘ilgan big‘ dona olmadan «Xogvag‘s» ikki tishlam uzib olishini istag‘an kishi qilg‘ani ayon! – gap tashladi Maksim xonim.

– Fikringizga to‘la-to‘kis qo‘shilaman, Maksim xonim, – dedi Karkarov ta’zim bajo aylab. – Buyuk Britaniya Sehrgarlik vazirligi va Xalqaro sehrgarlar konfederatsiyasiga[1] shikoyat yo‘llayman, albatta...

– Qaysi biringiz oldinroq arz qilishingizni bilmadim-u,

[1] **Konfederatsiya** (*lotincha:* confoederatio – ittifoq, uyushma, birlashma) – 1) mustaqilligini saqlagan holda muayyan masalalarda o‘z davlat hokimiyati va organlariga ega bo‘lgan davlatlar tomonidan tuziladigan davlat qurilishi shakli; 2) biron bir tashkilotlar uyushmasi, ittifoqi (**bu yerda shu ma’noda**).

ammo birinchi navbatda Potter shikoyat qilishi kerakligi aniq, – o‘shqirdi Xmuri. – Biroq... masalaning taajjubli joyi shundaki... undan biron og‘iz shikoyat eshitmayapman...

– Nega endi u ag‘z qilishi keg‘ak ekan? – jahl qildi Flyor Delakyor, oyog‘i bilan yer depsinib. – U biz bilan kuch sinashish imkoniga ega bo‘ldi, shunday emasmi? Biz hamma-miz sag‘alab olinishni ko‘p og‘zu qilganmiz, buni haftalab kut-ganmiz! Axig‘ bu maktablag‘imiz uchun buyuk shag‘af! Ming galleon sovg‘in uchun ko‘pchilik o‘lib ketishga ham tayyog‘!

– Hamma gap shunda-da, qizaloq, – past ovozda na’ra tortdi Xmuri. – kimdir Potterning o‘lib ketishiga umid bog‘lagan.

Bunday gapdan so‘ng juda keskin sukunat cho‘kdi.

– Xmuri, qariya... nimalar deyapsan?! – dedi tashvishga tushib, tovonida tebrana boshlagan Lyudo Shulman.

– Tushlikka qadar kam deganda oltita fitna fosh etilmas ekan, professor Xmuri kunning yarmi bekor o‘tdi, deb bilishini hammamiz yaxshi bilamiz, – ma’lum qildi Karkarov baland ovozda. – Hozir u o‘z o‘quvchilariga yollangan qotillardan ogoh bo‘lish usullarini o‘rgatayotgan bo‘lsa, ajab emas. Yovuz kuchdan himoya fani o‘qituvchisining tabiati uchun juda g‘alati sifatlar, shunday emasmi? Ammo... bu masalada o‘z mulohaza va mantiqlaring borga o‘xshaydi, shundaymi, Dambldor?

– Demak, menga shunday tuyilibdi-da? – o‘shqirdi Xmuri. – To‘qib chiqaribman-da, a? Faqat yuqori malakali sehrgar erkak yoki afsungar ayolgina bolaning ismini Olov kubokiga tashlay olishi mumkin...

– Gapni qag‘ang-a! Isbotingiz bog‘mi? – yirik qo‘lini siltadi Maksim xonim.

– Isbot shundan iboratki, ular Olov kubokiday o‘ta qudratli sehr qo‘llanilgan buyumni alday bilishdi! – ovoz ko‘tardi Xmuri. – Favqulodda kuchli Miya aynitish afsuni qo‘llanilib, kubok, bellashuvda atigi uchta maktab ishtirok etayotganini unutib qo‘yishi uchun yetarli bo‘ldi... O‘ylashimcha, Potterning ismi kubokga to‘rtinchi maktabdan ilgari surilgan nomzod sifatida kiritilgan va bunday vaziyatda bola kubok uchun yagona nomzod bo‘lib qolgan...

– Haddan ortiq ko‘p o‘ylab yuboribsiz Xmuri, – nihoyatda sovuq ohangda gapni bo‘ldi Karkarov. – Tabiiyki, dohiyona xulosa chiqargansiz... Garchi, agar menga yetib kelgan mish-mish gaplar rost bo‘lsa, tug‘ilgan kuningizga tuhfa qilingan ot aravasiga o‘rnatiladigan soatni yaxshigina niqoblangan Vasilisk tuxumi sifatida e’tirof etib, parcha-parcha qilib tashlaganingiz-dan so‘ng, o‘xshash xulosalaringizdan ajablanmasa ham bo‘la-veradi. Shu bois taxminingizni jiddiy qabul qilmasak, bizni to‘g‘ri tushunasiz, degan umiddaman...

– Shunday kishilar borki, Karkarov, – tahdid solgancha, javob berdi Xmuri, – nihoyatda soddadil aytilgan gapni buzib ko‘rsatib, noto‘g‘ri talqin qilishdan hazar qilishmaydi. Mening ishim, yovuz sehr vakillari kabi fikr yuritib, ular tomondan amalga oshirilgan xatti-harakatlar va joiz qilmishlarni tahlil qilishdan iborat... Siz esa Karkarov, yodingizda bo‘lsa...

– Alastor! – vaziyatning oldini olib qichqirdi Dambldor.

Dambldor kimga murojaat qilganini Garri dastlab tushun-madi-yu, darhol idrok etdi. Insonga «O‘ynoqko‘z» degan ism berilmaydi-yu, har qalay. Xmuri unini o‘chirdi-yu, lekin yuzi yonib ketguday holatga keltirib qo‘yganidan mamnun bo‘lgan-cha Karkarovga qarab qoldi.

– Mazkur holat qay tarzda yuzaga kelganini hech qaysi birimiz aniq bilmaymiz, – dedi Dambldor hammaga murojaat qilib. – Biroq, nazarimda, chempionlikka da’vogarlar uchun ushbu holatni tan olishdan boshqa iloj yo‘q, Sedrik ham, Garri ham, Olov kuboki tomonidan bellashuv ishtirokchisi sifatida saralanib olindi. Binobarin, ular aynan shu ishni bajarishadi...

– Ax, Dambl-dog‘g‘, big‘oq... – e’tiroz bildirish uchun og‘iz juftladi davangir ayol.

– Qadrli Maksim xonim, agar muqobil qaror taklif et-sangiz, undan xabar topishdan o‘zimni benihoya baxtiyor bilgan bo‘lar edim, – dedi Dambldor.

Professor Dambldor Maksim xonimning og‘ziga qarab turdi. Biroq «Belstek» direktori butun vujudi bilan qahr sochib turishdan boshqa narsaga yaramadi. Faqat Maksim xonimgina emas, Snegg ham, Karkarov ham darg‘azab qolishdi. Yolg‘iz

Shulmanning yuzidangina kutilayotgan shod-xurramlikni o‘ylayotganidan bo‘lsa kerak, besabrlik yog‘ilmmoqda.

– Xo‘sh, unday bo‘lsa, ishga kirisharmiz? – taklif kiritdi u, hammaga tabassum hadya etgancha kaftini kaftiga ishqalab. – Chempionlikka da’vogarlarimiz dastlabki yo‘riqni kutishmoqda, shundaymi? Barti, raislik qilishga e’tirozing yo‘qmi?

– Ha, – bosh irg‘idi mister Sgorbs o‘ychan holatdan chiqib, – Yo‘l-yo‘riq va... birinchi topshiriq...

U kaminga yaqinroq keldi. Garri mister Sgorbsni yaqindan ko‘rib, ko‘zining osti ko‘karganiga qaraganda, tobi yo‘qligiga, yuzining ajin qoplagan teri qoplamasi jahon kubogining final o‘yini o‘tgandan buyon yupqalanib, qandaydir qog‘oz qoplamasiga o‘xshab qolganiga e’tibor berdi.

– Birinchi topshiriqda mardlik va jasoratingizni sinovdan o‘tkazish maqsadi ko‘zlanadi, – e’lon qildi mister Sgorbs Garri, Sedrik, Flyor va Krumga murojaat qilib. – Shu bois ushbu topshiriq mazmunan qanday xatti-harakatlardan iborat bo‘lishi mumkinligi hozir sizga aytilmaydi. Majhullik oldida namoyon etiladigan dovyuraklik sehrgarning nihoyatda jiddiy sifatlaridan biridir... nihoyatda jiddiy...

Mister Sgorbs biroz o‘y surib, gapini davom etdi:

– Birinchi musobaqa yigirma to‘rtinchi noyabr kuni jamiki o‘quvchilar va hakamlar hay’atining ko‘z o‘ngida o‘tkaziladi. Uch sehrgar bellashuviga daxldor topshiriq ijrosi uchun o‘qituvchilardan biron-bir shaklda yordam so‘rash yoki ularning yordam qo‘lini qabul qilishga ruxsat berilmaydi. Har bir chempionlikka da’vogar birinchi sinovni faqat o‘z sehrli tayoqchasi bilan qurollangan holdagina qarshi oladi. Ikkinchi topshiriq haqidagi ma’lumotlar sizlarga birinchi topshiriq ijrosidan so‘ng yetkaziladi. Uch sehrgar bellashuvi chempionlikka da’vogarlardan ko‘p vaqt va kuch talab qilishi tufayli, da’vogarlar imtihondan ozod qilinadilar.

Mister Sgorbs yana biroz o‘ylanib, Dambldorga yuzlandi:

– Hech narsani unutmadim, shekilli, Albus?

– Menimcha, yo‘q, – dedi Dambldor, mister Sgorbsga tashvishli qarab. – «Xogvars»da qolmaslik ahding qat’iyligiga

ishonching komilmi, Barti?

– Ha Dambldor, vazirlikka qaytishim shart, – taklifni rad etdi mister Sgorbs. – Hozir biz uchun juda murakkab, nihoyatda keskin davr kechmoqda... O‘rnimga yosh Uezerbini qo‘yib kelishga majbur bo‘ldim... u hozir zo‘r jahd-u jadal namoyon etmoqda... Rostini aytsam, haddan ortiq ko‘rsatmoqda...

– Loaqal, yo‘l oldidan biron narsa ichib olarsan? – taklif qildi Dambldor.

– Qo‘ysang-chi, Barti! Mana men qolyapman! – zavq-la gapga aralashdi Shulman. – Tushun, eng muhim narsalar hozir shu yerda va ayni damda kechmoqda. Sen esa vazirlikka, vazirlikka deganing degan...

– Yanglishyapsan Lyudo, – dedi Sgorbs, ilgarigi sabrsizlik ohangida.

– Professor Karkarov, azizam Maksim xonim, uyqudan oldin bir rumkadan ketadimi? – lutfan taklif qildi Dambldor.

Biroq Maksim xonim qo‘lini Flyorning yelkasiga qo‘yib, xonani tark etishga otlandi. Katta Zalga chiqishar ekan, usta-shogird fransuz tilida allanima haqida tez gapirib ketdi. Karkarov Krumga imo qilgach, ikkovlon churq etmay xonani tark etdi.

– Garri, Sedrik, fikrimcha, ikkalangiz ham yuqoriga ko‘tarilganingiz ma’qul, – dedi Dambldor «Xogvars»ning chempionlikka da’vogarlariga kulib boqib. – Shubha yo‘qki, griffindorchilar ham, xufflpuffchilar ham g‘alabangizni nishonlash uchun sizni sabrsizlik-la kutishmoqda. Ularning tug‘yon tortib xushvaqtlik qilish bahonasidan mahrum qilsak, o‘ta shafqatsizlik bo‘ladi.

Garri Sedrikka qaradi. Diggori bosh irg‘igach, ikkovlon birgalikda chiqib ketdi.

Katta Zal kimsasiz qolgan. Shamlar deyarli yonib bitib, milt-milt etib turishidan oshqovoqlarning o‘tkir tishli xandalari qandaydir sirli, mudhish tus olibdi.

– Shunday qilib, – dedi Sedrik bilinar-bilinmas tirjayib, – bir-birimizga yana qarshi chiqadigan bo‘libmiz-da?

– Shunga o‘xshaydi, – yelkasini biroz ko‘tardi Garri.

Miyasi hozirgina tintuv qilinganday xayoli besaranjom

bo‘lib qolgan Garri yana nima deyish mumkinligini bilmadi.

Ikkalasi vestibulga chiqishdi. Olov kuboki endi yo‘q. Yorug‘lik faqat devorga mahkamlangan mash’alalardan taralmoqda.

– Qani endi, rostini ayt-chi, – so‘rab qoldi Sedrik, – ariza berishga qanday erishding?

– Men ariza bermaganman, – javob berdi Garri, Sedrikning ko‘ziga tik qarab. – Chin so‘zim.

– Ha-a... yaxshi, – yelka qisdi Sedrik, Garrining gapiga ishonmaganini ayon bildirib. – Unday bo‘lsa... uchrashguncha.

Markaziy eshikka yetib kelishgach, Sedrik o‘ngga burilib, yon eshik tomon yo‘l oldi. Garri tosh zina pog‘onalari bo‘ylab pastlab ketayotgan qadam tovushlariga quloq tutgancha, biroz turdi-da, marmar zina bo‘ylab yuqoriga ko‘tarildi.

Qiziq, Garrining gapiga Ron bilan Germionadan tashqari, yana biror kishi ishonadimi? Yoki hamma Garri allaqanday hiyla ishlatgan, degan xayolga boradimi? Sehr-jodu borasida Garriga nisbatan uch yildan ko‘p vaqt tajriba orttirgan raqib-larga qarshi kurashish kerakligi, sinovlar nafaqat xavfli kechi-shi, balki yuzlab odamlarning ko‘z o‘ngida o‘tishini bila turib, bunday hiyla ishlatishdan nima naf? Garri Uch sehrgar bella-shuvida ishtirok etishni orzu qilgan, albatta. Biroq bu bolalarcha orzu-havas, xayolparastlikdan o‘zga narsa bo‘lmagan! Axir u, biror marta bo‘lsin, chempionlikka da’vogar bo‘lish yuzasidan ariza berish borasida jiddiy o‘ylamagan!...

Lekin kimdir uning o‘rniga o‘ylagan... Kimdir Garrining bellashuvda ishtirok etishini istagan va saralab olinishi uchun qo‘ldan kelgancha harakat qilgan. Biroq nima uchun? Nima maqsadda? O‘ziga xos tuhfa sifatidami?... O‘xshamaydi... Garri hammaning ko‘z o‘ngida ahmoqona holatga tushib qolishi uchunmi? Unday bo‘lsa, ularning rejalari ro‘yobga chiqishi ehtimoldan xoli emas... Lekin Garrini halok qilish maqsadi ko‘zlanishi?! Balki, bunday bema’ni fikr Xmurining odatiy ruhiy xurujidan o‘zga narsa emasdir? Nega endi buni hazil tariqasida qilingan qiliq, deya e’tirof etish mumkin emas? Nahotki chindan ham Garrining o‘limi kimgadir kerak bo‘lsa?

Bu savolga Garrining javobi tayyor. Bor bittasi, u ham bo‘lsa, Lord Voldemort. Yovuz Lord bolaning o‘limini u bir yoshga to‘lgan go‘dakligidan buyon istaydi. Biroq qanday qilib Lord Voldemort Olov kubokiga Garrining ismi yozilgan pergament bo‘lagi tashlanishiga erishishi mumkin? E’tirof etilishicha, ayni paytda Voldemort olis yurtda, tanho o‘zi... zaif, majolsiz bekinib yuribdi-ku...

Shunday bo‘lsa-da, chandig‘i qattiq og‘rigan o‘sha tungi tushida Lord Voldemort yolg‘iz bo‘lmagan... U Chuvalchangdum bilan gaplashib... Garrini o‘ldirishni rejalashtirgan edi...

Garri «Semiz Xola»ning ro‘parasida turganini idrok etib, taajjublandi. Qanday yetib kelganini o‘zi bilmaydi. «Semiz Xola» ham yolg‘iz emasligini ko‘rib, battar lol bo‘ldi. Xolaning huzuriga o‘zining joyi Katta Zalga tutashgan xonadagi portret matosida bo‘lib, Garri chempionlikka da’vogarlar davrasiga qo‘shilgan paytda o‘z joyidan qo‘shni portretga sakrab o‘tgan, yuzini ajin bosgan anavi kampir tashrif buyuribdi. Aftidan, yettinchi qavatga boladan oldin yetib kelish uchun kampir qasr devoriga osilgan bir rasmdan keyingisiga o‘tgancha, halloslab yugurgan ko‘rinadi. To‘lqinlanib ketgan ikkala xonim pastda turgan Garriga jo‘shqin nigoh-la qarab turibdi.

– Xo‘sh, yigitcha, – gap boshladi «Semiz Xola», – Violetta menga bor gapni aytib berdi. Chempionlikka da’vogar sifatida saralanib oldik, deng?

– Bema’ni gap, – nochog‘ kayfiyat-la javob berdi Garri.

– Nega endi bema’ni gap bo‘lar ekan, – e’tiroz bildirdi kampir, achchig‘i chiqqanidan rangi oqarib.

– Yo‘q, yo‘q, Vi, – tinchlantirdi kampirni «Semiz Xola». – Bola minoraga kirish parolini aytdi.

Xonimlar fakultetning umumiy mehmonxonasiga olib kiradigan tuynukni ochgancha, yuqoriga ko‘tarildi.

Portret yo‘l berishi bilan ichkaridan Garrini tislantirib yuborguday darajada gumburlagan tovush eshitildi. Nima bo‘lganini idrok etishga ulgurmagan Garrini kam deganda o‘n ikkitacha qo‘l mahkam ushlab, ichkariga ko‘tarib kirdi. Yerga qo‘yilgach esa Garri jamiki griffindorchilar chinqirib, hushtak

chalib, qarsak urayotganini angladi.

– Ariza berganingni bizga ham aytishing kerak edi! – baqirdi bir vaqtning o‘zida ham e’tiroz bildirayotgan, ham qoyil qolgan Fred.

– Soqol o‘stirmaslikka qanday erishding? Mahoratni qarang-a! – baqirdi Jorj.

– Ariza berganim yo‘q, – gap boshladi Garri. – Bilmayman qanday...

Uning gapiga hech kim quloq solmadi.

– Meni saralab olishmagani, ushbu bellashuvda ishtirok eta olmaganim uchun xafa emasman, mayli, – dedi Garrining oldiga kelgan Angelina. – Lekin nima qilganda ham, musoba-qada griffindorchi ishtirok etishidan, fakultetimiz bir chetda qolib ketmaganidan behad xursandman...

– «Xufflpuff» bilan o‘tgan so‘nggi uchrashuv uchun Diggoridan o‘ch olasan, Garri! – chirilladi «Griffindor» kvidish jamoasining ikkinchi «Ovchi»si Ketti Bell.

– Garri biz har xil yeguliklar olib kelganmiz, yur bu yoqqa... – dedi Fred.

– Men och emasman, – rad etdi Garri. – Ziyofatda to‘yib oldim...

Biroq uning och emasligi hech kimni qiziqtirgani yo‘q, ariza bermagani haqidagi tushuntirishlariga hech kim quloq solmadi, biron narsani nishonlash kayfiyatida emasligiga hech kim e’tibor qilmadi... Qayerdandir «Griffindor» bayrog‘ini topib kelgan Li Jordan uni rido kabi egniga o‘rab olishini Garridan talab qilib, turib oldi. Bularning baridan qochib qutu-lishning iloji bo‘lmadi. Garri yotoqxonaga olib chiqadigan zina tomon yakkakift bo‘lib o‘tishga uringan zahoti quturib ketgan xaloyiq uni shu zahoti o‘rab olib, huzur-lazzat ichimligining navbatdagi porsiyasini majbur ichirgancha, qovurib quritilgan kartoshka va yong‘oqlarni qo‘liga tutqizib bordi... Arizani kubokga qay tarzda joylay olgani, Yosh chegarasidan o‘tishga qanday erishganini bilishga hamma orzumand bo‘ldi...

– Men ariza berganim yo‘q, – qayta-qayta takrorladi Garri. – Mening ishtirokim qay tarzda yuzaga kelganini bilmayman.

Bu gapni aytishi shart emas. Bari bir hech kim ishongani, e’tibor ham bergani yo‘q.

– Men charchadim! – nihoyat portlab ketdi u. – Yo‘q Jorj, chin so‘zim, borib yotaman...

U hozir Ron bilan Germionani qidirib topmoqchi, ular bilan o‘tirib tinchlanmoqchi bo‘ldi-yu, lekin do‘stlari mehmon-xonada ko‘rinmayapti. Uyqusi kelgani, borib yotishi kerakligini qattiq turib, talab qilgan Garri yo‘lini to‘sishga uringan aka-uka Krivilarni devorga qapishtirib qo‘yishga bir baxya qolib, hammadan xalos bo‘lish va aylanma zinadan tez ko‘tarilib, yotoqxonasiga kirib ketishga muvaffaq bo‘ldi.

Xayriyatki Ron yotoqxonada ekan. Negadir u karavotda, ustki kiyimini yechmay yotibdi. Garri eshikni yopgach, Ron ko‘zini ochib, boshini ko‘tardi.

– Sen qayerda eding? – so‘radi Garri.

– O... salom, – javob berdi Ron.

U kulyapti-yu, tabassumi qandaydir g‘alati, zo‘raki ko‘rinyapti. Garri haligacha egnida «Griffindor» bayrog‘i bilan turganini idrok etib, yechishga urindi-yu, tugun itoat qilmadi. Ron qilt etmay, Garrining bayroq bilan ovora bo‘lishini tomosha qilib yotdi.

– Xo‘sh? – dedi u, Garri nihoyat bayroqdan xalos bo‘lib, burchakka uloqtirib yuborgach, – Tabriklayman.

– Tabriklayman, deganing nimasi?

Garri Ronga diqqat bilan nazar soldi. Do‘stining tabassumi qandaydir noto‘g‘ri chiqyapti. Aslida bu tabassum emas, soxta yasalgan basharaday ko‘rinmoqda.

– Tabriklayman-da, albatta. Har qalay, Yosh chegarasini sendan boshqa hech kim aldab o‘ta olgani yo‘q, – tushuntirish bergan bo‘ldi Ron. – Qanchalik firibgar bo‘lishmasin, hatto Fred bilan Jorj ham buning uddasidan chiqa olishmadi. Sen qanday erisha olding? Ko‘rinmas plashingni kiyib oldingmi?

– Ko‘rinmas plash Yosh chegarasini kesib o‘tishga yordam bermaydi, – dedi Garri past ovozda.

– Ha-ya, albatta! – xitob qildi Ron. – Agar plash yordam bera olganida hech shubha yo‘qki, sen menga aytgan bo‘lar

eding... unga ikkalamiz ham sig‘ar edik... Sen boshqacha usul topgansan... Xo‘sh, ayt, qanaqa usul ekan u?

– Quloq sol, – dedi Garri Ronning ko‘ziga tik qarab. – Men ariza berganim yo‘q. Bu ishni boshqa birov qilgan.

Ronning qoshi ko‘tarilib ketdi.

– Nega endi?

– Bilmayman.

Garri «Meni halok qilish maqsadida», demoqchi bo‘ldi-yu, gapi haddan ortiq fojiali chiqishini o‘ylab, tilini tiydi.

Ronning qoshi shu qadar ko‘tarilib ketdiki, soch orasida ko‘rinmay qoldi.

– Qo‘rqma, menga rostini aytishing mumkin, – kesatdi u. – Hech kimga aytishni istamaysanmi, juda yaxshi. Faqat bir narsani aqlimga sig‘dira olmayapman, yolg‘on gapirib nima naf ko‘rasan? Axir, seni jazoga tortishmadi-ku! «Semiz Xola»ning dugonasi, anavi Violetta, hammaga jar solib, Dambldor senga bellashuvda ishtirok etishga ruxsat berganini aytib bo‘ldi. Ming galleon mukofot olasan, shundaymi? Imtihondan ham ozod etilding...

– Men bellashuvda ishtirok etish uchun ariza berganim yo‘q, – jahl qildi Garri.

– Ha, ha, albatta, – dedi Ron, xuddi Sedrik kabi Garrining gapiga ishonmaganini ayon bildirib. – Birovga ko‘rsatishni istamay, arizani kubokga tunda, hamma uxlab yotgan mahalda tashla-gan bo‘lishingni bugun ertalab aytgan eding... Men, bilsang agar, ahmoq emasman.

– Gapimni buzib, noto‘g‘ri talqin qilyapsan, – jerkib berdi Garri.

– Shundaymi? Yotadigan vaqting bo‘ldi, Garri, – dedi yuzida na samimiy, na yasama kulgi ko‘ringan Ron, pardasini zarda bilan yopib. – Ertangi kunga, ya’ni gazeta sahifalarida chop etilishi uchun suratga tushishga va shunga o‘xshash boshqa tadbirlarga tayyor bo‘lishing kerak.

Garri to‘q-qizil baxmaldan tayyorlangan guldor chodir ortidagi, unga ishonishi kerak bo‘lgan ozgina odamlardan biri yotgan tomon qarab, eshik oldida turgancha qoldi.

XVIII BOB. SEHRLI TAYOQCHALAR KO‘RIGI

Ertasiga, yakshanba kuni ertalab uyg‘ongan Garri nima uchun tashvish chekayotgani, o‘zini baxtsiz his etayotganini darhol eslay olmadi. Xayol o‘tmay kechagi oqshom xotiralari miyasiga zarb berganday bo‘ldi. Yotgan o‘rniga keskin o‘tirib, chodirining pardasini kuch bilan ochdi-da Ron bilan gapni och-di qilib, uni ishonishga majbur qilmoqchi bo‘ldi. Biroq qo‘shni karavot bo‘sh. Ron nonushta qilgani o‘zi tushib ketibdi.

Yuz-qo‘lini yuvib, kiyingan Garri aylanma zinadan pastga tushdi. Umumiy mehmonxonaga kirishi bilan nonushtadan qaytgan bolalar uni gulduros qarsaklar bilan qarshi oldi. Ayni damda Katta Zalda nonushta qilib o‘tirgan, har biri Garrini qahramon deb biladigan griffindorchilarning oldiga tushish istiqboli uni o‘ylantirib qo‘ydi. Iloj qancha! Arazlagan bo‘rining xurjuni bo‘sh qoladi. YO nonushta qilish uchun Katta Zalga tushish kerak, yo zo‘r berib qo‘l siltagancha, o‘z davrasiga chorlayotgan aka-uka Krivilarga taslim bo‘lish kerak. Garri chiqish tomon yo‘l olib, portretni shartda ochdi-yu, Germiona bilan yuzma-yuz keldi.

– Salom, – dedi qo‘liga sochiqqa o‘ralgan buterbrodlarni ushlab olgan Germiona. – Mana... senga olib keldim. Sayr qilib kelmaymizmi?

– Ajoyib fikr, – dedi minnatdor Garri.

Ikkovlon asta pastga tushib, Katta Zal tomon qaramay vestibuldan tez o‘tdi-da, ikki daqiqadan so‘ng maysazor bo‘ylab ko‘l sari yo‘l oldi. Oynaday silliq ko‘lda durmshtrangchilarning sohilga bog‘lab qo‘yilgan kemasi o‘zining qop-qora soyasi bilan birga chayqalmoqda. Garri buterbrod kavshar ekan, kecha dasturxondan turgan fursatdan e’tiboran bo‘lib o‘tgan gap-u, hodisalarni Germionaga batafsil so‘zlab berdi. Tong havosi sovuq bo‘lgani uchun ikkalasi bir yerda to‘xtamay, u yoq bu yoqqa sanqib yurdi. Germiona Garrining gapiga e’tirozsiz ishongani uchun bo‘lsa kerak, bolaning ruhi ancha tetiklashdi.

– Bu ishni sen qilmaganingni bilardim, – fikr bildirdi

Germiona Katta Zalga tutash xonada bo‘lib o‘tgan sahnani eshitib. – Ishonch hosil qilish uchun esa Dambldor ismingni e’lon qilgan fursatda yuzingga qarashning o‘zi kifoya edi! Hozir eng muhimi, arizani kim berganini bilishdir. Xmuri haq, Garri... Birorta ham maktab o‘quvchisi kubokni aldab, isming yozilgan pergamentni tashlay olmaydi... Olov kubokini hiyla bilan yengish yoki Dambldorni chuv tushirish birorta o‘quvchining qo‘lidan kelmaydi...

– Ronni ko‘rdingmi? – gapni bo‘ldi Garri.

– M-m-m... ha... – tutilib qoldi Germiona, – nonushta qilayotgan edi.

– Bu ishni o‘zim qilganim haqidagi fikridan haligacha qaytmadimi?

– M-m-m... yo‘q, unday bo‘lmasa kerak... – to‘ng‘illadi Germiona. – U darajada emas-u...

– U darajada emas deganing nimasi?

– O Garri, nahotki tushunmayotgan bo‘lsang? – noiloj baqirib yubordi Germiona. – Senga hasad qilyapti u!

– Hasad qilyapti? – inonmadi Garri. – Nimamga hasad qiladi? Mening o‘rnimda bo‘lib, hammaning ko‘z o‘ngida ahmoqona holatga tushib qolishni xohlaydimi? Shundaymi?

– Quloq sol, – bardosh-la tushuntira ketdi Germiona. – Odamlarning diqqat-e’tibori doimo senda. Buni rad eta olmaysan. Bilaman, bunda sening aybing yo‘q, – tez qo‘shib qo‘ydi Germiona, g‘azabi qaynab ketgan Garrining og‘iz juftlaganini ko‘rib. – Bunday bo‘lishini odamlardan ham, Xudodan ham iltijo qilmasligingni bilaman... ammo... Ronning bir etak akalari borligi, erinmagan kishi uni akalari bilan qiyoslab borishini yaxshi bilasan. Sen esa uning eng yaqin, eng dongdor, juda mashhur do‘stisan. Seni ko‘rgan har qanday kishi yoningda turgan Ronga e’tibor qilmaydi. Bunday holatga u ko‘nikib qolgan, albatta. Bu haqda u hech qachon gapirmaydi, ammo, nazarimda, bu safar... yuzaga kelgan mana bu holat Ron uchun chidab bo‘lmas, haddan ortiq ish bo‘ldi...

– Ajoyib, – alam-la xitob qildi Garri. – Juda soz. Har qanday fursatda o‘rnimni bo‘shatib berishim mumkinligini, qa-yerda

paydo bo‘lmasin, odamlar peshanasiga baqrayishi va shu kabi boshqa samimiy tilaklarimni yetkazib qo‘y unga...

– Hech narsa yetkazmayman, bor gapni o‘zing tushuntirasan unga, – gapni kesdi Germiona. – Orani ochdi qilishning yagona yo‘li shu.

– Ong-la ulg‘ayishini o‘tinib, ortidan yugurib yurmoqchi emasman! – baqirdi Garri, sal naridagi daraxtda o‘tirgan bir nechta boyqushni hurkitib yuborib. – Bellashuvda jig‘im uzilib ketishi mumkinligidan biron-bir naf topmasligimni anglab yetgach, balki, o‘zi ishonar gapimning chinligiga yoki...

– Bunday hazillashma, – dedi hayajonlanib ketgan Germiona past ovozda. – Bularning bari hech ham kulgili emas. Garri, fikrimcha... O‘zing ham yaxshi bilsang kerak qasrga qaytishimiz bilan nima ish qilish kerakligini, shundaymi?

– Bilaman, albatta. Ronning yumshoqroq joyiga yaxshilab tepaman...

– Yo‘q, unday emas. Siriusga xat yo‘llashing, bo‘lib o‘tgan gaplarning barini yozib yuborishing kerak. Yodingda bo‘lsa, «Xogvars»da ro‘y berayotgan hodisalar haqida yozib borishingni iltimos qilgan edi... Nazarimda, o‘xshash voqealar sodir bo‘lishini kutgan u. Men kissamga pergament bilan patqalam solib kelganman...

– Aqlingni yedingmi, Germiona? – dedi Garri, hech kim eshitmayotganiga ishonch hosil qilish uchun tevarak-atrofga qarab. – Chandig‘im og‘rigani uchungina xorijdan qaytib kel-gan edi. Agar u Uch sehrgar bellashuvidagi ishtirokim noma’lum kishi tomonidan zimdan uyushtirilgani haqida xabar topadigan bo‘lsa, qasrga yopirilib kirishi turgan gap-u...

– Sirius bilishi kerak, – dedi Germiona qat’iy ohangda. – U bari bir xabar topadi...

– Qanday qilib?

– Garri, bunday yangiliklar e’tiborsiz qoldirilmaydi, – dedi Germiona jiddiy qiyofa kasb etib. – Uch sehrgar bellashuvi jiddiy ahamiyatga ega xalqaro tadbirlar sirasiga kiradi. Sen esa sehrgarlar olamida juda mashhur shaxs sanalasan. «Bashorat-u karomat gazetasi»ning bugungi sonida sening ishtiroking haqi-

da maqola chiqmagan bo'lsa, hayron bo'laman... Sening isming shundoq ham «O'zing-Bilasan-Kim» haqida yozilgan kitoblar-u, risolalarda zikr etilgan... Sirius bor gapni gazetalardan emas, o'zingdan bilishni afzal ko'rgan bo'lar edi. Ishonchim komilki...

– Bo'pti, bo'pti, yozaman, – dedi Garri ortib qolgan buterbrodni ko'lga uloqtirib.

Ikkovlon o'ychan holatda xo'rakning suvda qalqib turishi, daqiqa o'tar-o'tmas suv ichidan chiqqan ulkan paypaslagich tortib ketishini kuzatgach, qasr tomon yo'l oldi.

– Kimning boyqushini olsam ekan? – so'radi zinadan ko'tarilayotgan Garri. – Sirius Xedvigni jo'natma, deb tayinlagan edi-ku.

– Rondan so'ra, balki...

– Undan hech narsa so'ramayman, – gapni kesdi Garri vazmin ohangda.

– Unday bo'lsa, maktab boyqushlaridan birini ol, – taklif kiritdi Germiona. – Ularning xizmatidan hamma barobar foydalanishi mumkin.

Ikkovi boyqushxonaga ko'tarildi. Germiona Garriga siyoh shishasi, pergament va patqalam bergach, uzun qo'noqlar yonida yurib, boyqush zotlarini tomosha qilishga kirishdi. Garri esa devorga suyanib o'tirgancha, xat bitishga tushdi:

Qadrli Sirius!

«Xogvars»da bo'layotgan ishlar haqida boxabar qilib borishimni iltimos qilgan eding. Shunday ekan, marhamat, bilib qo'y. Balki, xabar topgandirsan, bilmadim, bu yil «Xogvars»da Uch sehrgar bellashuvi bo'lib o'tadi. Shanba kuni kechqurun esa men chempionlikka to'rtinchi da'vogar sifatida saralab olindim. Mening nomimdan yozilgan arizani Olov kubokiga kim tashlaganini bilmayman. Lekin shunisi aniqki, bu ishni o'zim qilmaganman. «Xogvars»ning boshqa da'vogari Sedrik Diggori. U «Xufflpuff» fakultetida tahsil ko'radi.

Shu yerga kelganda Garri o'ylanib qoldi. Kecha oqshomdan buyon ichini nimadir tatalayotgani, tashvishga solayot-

ganini yozmoqchi bo‘ldi-yu, bularning barini qanday bayon etishga so‘z topa olmadi. Shu bois patqalamni siyohdonga botirdi-da, xatni tugatdi-qo‘ydi:

Otburgut ikkalangizning ishlaringiz joyida, degan umiddaman.

Garri.

– Bo‘ldi, – dedi u Germionaga va o‘rnidan turib, korjomasiga ilashgan poxolni qoqib tashladi.

Shu paytda Garrining yelkasiga qanotini hilpiratgan Xedvig qo‘nib, panjasini uzatdi.

– Yo‘q, do‘stim, seni yuborishga haqim yo‘q, – dedi Garri. – Anavi qabiladoshlaringdan birortasini jo‘natishim kerak.

G‘azabi qaynab ketgan Xedvig kuchi boricha chinqirib, shunday keskin uchdiki, tirnog‘ini sohibining yelkasiga botirib, jonini og‘ritdi. Bola yirik ombor boyqushining panjasiga xat bog‘lar ekan, Xedvig teskari o‘girilib, dumini ko‘rsatdi. Pochta boyqushini jo‘natgan Garri Xedvigni silab, yupatish uchun qo‘l uzatishi bilan qorday oppoq qutb boyqushi tumshug‘ini darg‘azab shaqillatgancha, chordoq to‘siniga ko‘tarildi.

– Dastlab Ron zarda qildi, endi esa sen fe’l ko‘rsatyapsan. Bilib qo‘y ikkalang, men aybdor emasman, – o‘shqirib berdi jahli chiqqan Garri.

***

«Agar odamlar chempionlikka da’vogar sifatida saralanganimga tez orada ko‘nikib qolsa, ishlar yana o‘z iziga tusha-di», – o‘yladi Garri. Lekin bola chuqur yanglishdi. Dushanba kuni mashg‘ulotlar boshlandi. Tabiiyki, endi u maktabdosh-lardan bekina olmaydi. Jamiki maktab, xuddi griffindorchilar singari Garrining Olov kubokini hiyla bilan yengib, bellashuvda ishtirok etish arizasini o‘zi berganiga shubha qilmagani, biroq griffindorchilardan farqli o‘laroq, bunday holatdan mamnun bo‘lmagani ayon bo‘ldi.

Griffindorchilar bilan doimo do‘stona munosabatda bo‘lib kelgan xufflpuffchilar kutilmaganda sovuq qaraydigan bo‘lib qolishdi. Buni anglab yetish uchun yangi o‘quv haftasida gerbologiyadan o‘tkazilgan birinchi dars yetarli bo‘ldi. Aniqlani-

shicha, Garri xufflpuffchilar da’vogarining qismatiga yozilgan shon-shuhratni o‘g‘irlagan emish. Agar «Xufflpuff»ga biron-bir ko‘rinishdagi shon-sharaf kamdan kam nasib qilgani inobatga olinadigan bo‘lsa, bunday holatni o‘zlari ham yaxshi biladigan xufflpuffchilarning his-tuyg‘ulari battar og‘irlashdi. Sedrik o‘tgan yili «Griffindor» kvidish jamoasi bilan o‘tkazilgan o‘yinda g‘alaba qozonib, o‘z fakultetiga shuhrat keltirgan ozgina odamlardan biri sanaladi. Shu kungacha Garri bilan yaxshi murosada bo‘lgan Jastin Finch-Fletchi bilan Erni Makmillan, garchi bitta patnisga terilgan tuvaklardagi savalovchi piyozlarni birgalikda ko‘chirib, egatga ekishga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa-da, Garri bilan gaplashishni istashmadi. Piyozlardan biri Garrining qo‘lidan bo‘shab chiqib, ko‘ziga zarb bergan fursatda esa razilona xandon otib, huzur qilishdi. Ron ham Garri bilan gaplashmay qo‘ygan. Germiona ikkala o‘rtog‘ining o‘rtasida zo‘rma-zo‘raki suhbat uyushtirishga urinib o‘tirdi. Ikkalasi ham Germiona bilan to‘g‘ri ohangda gaplashsa-da, bir-birining ko‘ziga tik qarashni istamadi. Garrining nazarida, hatto «Xufflpuff» fakul-tetining mudirasi professor Sarsabil xonim ham griffindorchilar bilan juda rasmiy ohangda muloqot qila boshlagan.

Garri Xagrid bilan ko‘rishadigan vaqtni, odatda, sabrsizlikla kutadi. Biroq sehrli hayvonlarni parvarish qilish fani bo‘yicha o‘tadigan navbatdagi dars chempionlikka da’vogar sifatida saralanib olingan kundan so‘ng nafaqat Xagrid, balki slizerinchilar bilan ham uchrashish kerakligini anglatadi.

To‘ppa-to‘g‘ri, taajjublanadigan ish bo‘lgani yo‘q.,:

– Iye, anavini qaranglar, chempionlikka da’vogar-u! – yuziga singib ketgan murdor tabassumi ila Krabbe bilan Goylga murojaat qildi Malfoy, Xagridning kulbasiga, Garri aniq eshitadigan masofaga yaqinlashgach. – Dastxatini olish uchun yon daftarcha olib keldingizmi? Fikrimcha, uning imzosini hozir olgan ma’qul. Negaki u oramizda uzoq qolishi dargumon... Hoy, Potter, qancha vaqt tirik qolmoqchisan? Birinchi muso-baqa boshlangan fursatdan e’tiboran o‘n daqiqa nafas olishing-ga tikmoqchiman, pand berib qo‘ymaysanmi? Ertaroq o‘lib qolmaysanmi, ishqilib?

Krabbe bilan Goyl Malfoyga yaltoqlangancha irshaydi. Kulba ortidan chiqqan Xagridni ko‘rgan manfur slizerinchi ovozini o‘chirishga majbur bo‘ldi. Xagrid chayqalayotgan savatlar taxini qorniga bosgancha ko‘tarib kelmoqda. Ularning har biriga bittadan portlovchi drakl qamalgan. Xagrid nima uchun drakllar bir-birini nobud qilayotganining sababini tushuntirib, o‘quvchilarni dahshatga soldi. Uning fikricha, savatga qamalgan drakllar orasidagi qotillik jonivorlarning hayot tarzi harakatsiz kechayotgani, kun sayin oshib borayotgan ichki kuch-quvvatni sarf etish imkoni deyarli yo‘qligi tufayli sodir etilayotgan emish. Endi o‘quvchilar o‘ziga bittadan drakl tanlab, bo‘yniga bo‘yinbog‘ solgancha, sayr qildirishi kerak ekan. Ushbu g‘oyaning yagona ijobiy tomoni Malfoyni Garri-dan batamom chalg‘itgani bo‘ldi.

– Sayr qildirish kerak? Manavi badbasharalarni-ya?! – hazar qildi Malfoy, savatlardan biriga qarab. – Xo‘sh, bo‘yin-bog‘ ushbu qabohatning qayeriga bog‘lanishi kerak ekan? Nishigami, so‘rg‘ichigami yoki portlatkichiga?

– Tanasining o‘rtasiga, – pinagini buzmay ko‘rsatdi Xagrid. – M-m-m... Ehtiyot chorasi sifatida ajdar terisidan tayyorlangan himoya qo‘lqopini taqinglar. Garri, bu yoqqa kel. Mana bu baquvvatrog‘ini bog‘lashga yordamlashib yubor.

Garrini chetga chorlagan Xagrid aslida bolaning suhbatini olishni niyat qilgan.

– Bellashuvda ishtirok etar ekansan-da endi, Garri? – dedi u, o‘quvchilar o‘z draklini tanlab, har tomon tarqab ketgach. – Maktabning chempionlikka da’vogari bo‘ldim degin?

– Da’vogarlaridan biri bo‘ldim, – tuzatib qo‘ydi Garri.

Devqomat Xagrid qalin qoshini chimirib, ikkita qora qo‘ng‘izday keladigan katta-kata ko‘zi bilan bolaga qaradi.

– Bu ishga seni kim tortganini bilmaysanmi?

Savolni eshitgan Garri vujudini qamragan minnatdorlik tug‘yonini bazo‘r idora qila oldi.

– Demak, arizani o‘zim bermaganimga ishonar ekansan-da?

– Albatta, ishonaman, – tasdiqladi Xagrid. – Axir, o‘zing aytding-ku, men berganim yo‘q, deb. Dambldor ham ishonadi.

Hamma ishonadi.

– Kimning qilig‘i ekanini o‘zim ham bilgim kelyapti, – alam-la xo‘rsindi Garri.

Ikkalasi o‘quvchilar tarqab ketgan maysazor tomon yuzlandi. Hamma muammoga yo‘liqqan. Drakllar uzunasiga uch futga o‘sgan bo‘lib, kuch-quvvatga to‘lib-toshgan. Endi ular ilgarigidek yalang‘och, rangsiz emas. Har birining teri qoplamasi po‘lat-kulrangli qalin zirhga aylangan. Nimasi bilandir yirik chayon bilan haddan ortiq uzayib ketgan krabning duragayiga o‘xshab ketadi. Biroq boshi-yu, ko‘zi qayerda joylashganini anglatuvchi alomat hanuzgacha ko‘rinmaydi. Shunday baquvvat bo‘lib ketganki, xatti-harakatini idora qilish oson kechmayapti.

– Qara, quvonishayotganini qara! – zavqlandi baxtiyor Xagrid.

Xagrid o‘quvchilarni emas, drakllarni nazarda tutib xursand bo‘layotganiga shubha yo‘q. Sinfdoshlarning aftiga qaraladigan bo‘lsa, quvonishayotgani bilinmaydi. Ba’zan «bum!» etgan portlash tovushi yangrab, har tomon uchqun sachraydi. Har portlash zarbidan drakl yetaklayotgan bola qorni bilan yerga qulaydi-da, oyoqqa turib olish uchun yotgan joyida tipirchilaydi.

– Oh, sho‘rlik Garri! – kutilmaganda xo‘rsindi Xagrid, tashvish to‘la nigoh-la bolaga qarab. – Endi chempionlikka da’vogarlik degin... Nimalar ko‘rmading yosh boshing bilan, a?

Garri indamadi. Chindan ham ne-ne kunlar o‘tmadi uning boshidan... Xuddi shu gapni yakshanba kuni ertalab ko‘l atrofida sayr qilib yurishganda Germiona ham aytgan edi. Uning gapiga qaraganda, shu sababdan ham Ron Garri bilan gaplashmay qo‘ygan emish.

***

«Xogvars»ga kelganidan keyingi bir necha kun Garri uchun nihoyatda mudhish davr bo‘ldi. Ikkinchi sinfda o‘qib yurganida o‘quvchilarga uyushtirilgan hamlalar borasida jamiki maktab undan gumon qilgan. Hozir ham u o‘xshash ahvolga tushib qolgan. Biroq o‘shanda Ron Garriga ishonib, tarafini olgan edi. Agar Ron bilan yarashib olsa qolganlarning muno-sabatiga chidasa bo‘ladi. Lekin Ron yarashishni istamas ekan, Garri ham

yalinmoqchi emas. Ammo hozir Garrini yolg‘izlik qiynayapti. Buning ustiga har tomondan adovat tomchilamoqda.

Xufflpuffchilarning munosabati yoqmasa-da, ularni Garri to‘g‘ri tushunadi. Axir ular o‘z da’vogarini qo‘llab-quvvatlashlari kerak-ku. Slizerinchilardan, tabiiyki, g‘azabnok tahqirlardan boshqa narsa kutmaydi. Ular doimo Garridan nafratlanib kelishgan. Negaki aynan Garri tufayli «Griffindor» fakulteti bir necha yildan buyon kvidish o‘yinlarida ham, maktab kubogi uchun yil davomida olib boriladigan kurashda ham, «Slizerin»dan ustun kelmoqda. Garri ravenklochilarga ishonib, ularning qalblarida Sedrik bilan birga joy topa olishiga katta umid bog‘lagan edi. Biroq Garri bu masalada ham yanglishdi. Aksariyat ravenklochilarning ongida: «Garriga shuhrat yetishmay, Olov kubokini ariza qabul qilishga hiyla qo‘llab majbur qilgancha, o‘z dongdorligini yanada orttirishga urindi», degan fikr mustahkam o‘rnashib qolgan ko‘rinadi.

Umuman aytganda, tan olish kerakki, chempionlik qiyofasi Garriga nisbatan ko‘proq Sedrik Diggoriga yarashadi. So‘nggi vaqtlarda diqqat-e’tibor kimga ko‘proq qaratilayotganini aytish qiyin: badqovoq durmshtrangchi Krumgami yoki burni to‘g‘ri, sochi qora, ko‘zi kulrang o‘ta barno yigit Sedrikkami. Bir vaqtlar Krumning dastxatini olish uchun lab bo‘yog‘ini talash-gan oltinchi sinf qizlari tushlik tanaffusi vaqtida yuk xaltalariga dastxat qo‘yib berishini endi Sedrikdan so‘rab, o‘tinayotganini Garri ko‘rib qoldi.

Bundan tashqari, Siriusdan hanuzgacha javob kelmayapti, Xedvig arazlagan, professor Trelani Garrining o‘limini zo‘r ishonch-la bashorat qilmoqda, professor Flitvik esa Buyum chaqirish afsunini yaxshi uddalay olmagan Garriga qo‘shimcha vazifa berdi. Aytish joizki, agar Nevill hisobga olinmasa, o‘sha kuni uyga vazifa yolg‘iz Garriga berildi.

Butun dars davomida lunaskop[1], sinf taxtasining lattasi, qog‘oz chiqindisi tashlanadigan savat uchun o‘ziga xos miqno-

[1] **Lunaskop** (*inglizcha*) – oy xaritasining o’rni bosuvchi, oy harakatlarini kuzatish uchun mo‘ljallangan qurilma.

tisga aylanib qolgan Germiona, ushbu buyumlarni katta tezlikda uchib kelishga majbur qilib o‘tirdi.

– Afsun ijrosining hech qiyin joyi yo‘q, Garri, – dalda bergan bo‘ldi qiz Flitvikning xizmat xonasidan chiqar ekan. – Fikr-xayolingni jamlay olmayapsan, xolos.

– Nega jamlay olmayotganimni, hech tushuna olmayapman, – vaysadi Garri. – Lekin... o‘ylashimcha, bunga jiddiy ahamiyat berish kerak emas. Axir oldinda meni baxtiyor onlar – sehrli damlamalar tayyorlashning qo‘sh soatli darsi kutmoqda. Rosa taskin topadigan bo‘ldim-da!

Ularning yonidan noz-istig‘nolik qilayotgan qizlar galasi o‘rab olgan Sedrik Diggori o‘tib ketdi. Garrini ko‘rgan qizlar nihoyatda jirkanch portlovchi draklga duch kelib qolishganday qiyofa yasashdi.

Sehrli damlamalar tayyorlash fanining qo‘sh soatli darsi Garri uchun doimo og‘ir sinov bo‘lib kelgan. Biroq so‘nggi vaqtda bu dars emas, haqiqiy qiynoqning o‘ziga aylanmoqda. Chempionlikka da’vogar bo‘lib olgani uchun Garriga jazo berishni o‘z oldiga oliy maqsad qilib olgan Snegg va slizerinchilar bilan bir yarim soat davomida deyarli yakkama-yakka qolishdan battar azobni o‘ylab topish qiyin bo‘lsa kerak. O‘tgan juma kuni ular Garrini rosa boplashdi. O‘shanda Garrining yonida o‘tirgan Germiona bir ohangda: «e’tibor berma, e’tibor berma, e’tibor berma», – degan gapini hech qo‘ymagan edi. Bu safar dars nisbatan tinchroq o‘tishiga umid yo‘q.

Tushlikdan so‘ng Germiona ikkalasi Sneggning tasarrufidagi yerosti yo‘laklariga tushib, eshik yaqinida to‘planib olgan slizerinchilarga ro‘baru bo‘lishdi. Hammasining kiyimida, istisnosiz, allaqanday ko‘krak nishoni qadalgan. Bir necha aqlga sig‘mas soniyalar davomida Garriga ushbu ko‘krak nishonlari Germiona asos solgan SASSIQ jamiyatining ko‘krak nishoniday bo‘lib ko‘rindi. Biroq durustroq qarab, qizil harflar bilan yozilgan, nimqorong‘i yo‘lakda yarqirab ko‘ringan so‘zlarni o‘qidi:

«Xogvars»ning haqiqiy chempionlikka da’vogari – Sedrik

Diggorini qo‘llab-quvvatlang!

– Qalay, yoqdimi, Potter? – baland ovozda so‘radi Malfoy, yaqinroq kelgan Garridan. – To‘xta, bu hali hammasi emas... Davomini o‘qi!

Malfoy ko‘kragidagi nishonni bosdi. Yozuv yo‘qolib, o‘rniga yashil harflar bilan bitilgan boshqa yozuv paydo bo‘ldi:

Potter – badbo‘y

O‘kirib kulgan slizerinchilarning har biri o‘z ko‘krak nishonini bosdi. Atrofda *Potter – badbo‘y* yozuvlari yarqiradi. Garrining yuzi qizib, harorat bo‘yniga yetdi.

– Oh, judayam kulgili, – istehzo qildi Germiona Pansi Parkinson va uning dugonalariga qarab. – Ajoyib zakovat ko‘rsatibsiz.

Din va Simus bilan birga Ron ham devor yonida turibdi. U slizerinchilarga qo‘shilib kulmadi, lekin Garrini ham himoya qilmadi.

– Bittasini beraymi, Grenjer? – dedi Malfoy Germionaga ko‘krak nishonini uzatib. – Ma ol, menda ko‘p. Faqat qo‘limga tegib ketma, hozirgina yuvgan edim. Iflos maglvachcha qo‘limga tegib, yana bulg‘ashini istamayman.

Garrining yuragiga ko‘pdan buyon to‘planib qolgan g‘azab zohiran ko‘rinmas to‘g‘onni vayron qilganday bo‘ldi go‘yo. Garri nima qilayotganini idrok etishga ulgurmay, sehrli tayoqchasini qo‘liga oldi. Yonida turganlar undan nari qochdi.

– Garri! – oldini olganday baqirdi Germiona.

– Xo‘sh, Potter, – dedi Malfoy, tayoqchasini xotirjam chiqarib. – Bu yerda himoyaching Xmuri yo‘q. Qani ko‘raylikchi, nimalarga qodir ekansan...

Bir soniya ham o‘tmay ikkalasi bir-biriga hamla qildi.

– Furunkulyus! – baqirdi Garri.

– Dantisimus! – o‘kirdi Malfoy.

Ikkala tayoqchadan otilib chiqqan yorqin yashin havoda to‘qnash kelib, nari sapchidi. Garrining yashini Goylning, Malfoy otgan yashin esa Germionaning yuziga urildi. Bir zumda zindoni chiqqan burnini ushlagan Goyl o‘kirib yubordi.

Qo‘rqib ketgan Germiona esa ingrab, kaftini og‘ziga bosdi.

– Germiona! – qichqirdi Ron.

Garri o‘girilib, Ron Germionaning qo‘li bilan bekitib olgan yuzini ochishga urinayotganini ko‘rdi. Dahshatli manzara. Germionaning shundoq ham qisqa bo‘lmagan bir juft old tishi dastlab pastki labi, so‘ng jag‘igacha tez o‘sib, suv qunduziga o‘xshab qoldi. Vujudini vahima qamragan qiz nihoyat chinqirib yubordi.

– Nima shovqin? – eshitildi tilyog‘lama ohangli, mash’um ovoz.

Yo‘lakda Snegg ko‘rindi. Slizerinchilar baralla arz qilishdi.

– Siz tushuntiring, – dedi hech narsani uqmagan Snegg uzun sariq barmog‘ini Malfoyga o‘qtab.

– Potter menga hamla qildi, ser... – javob berdi Malfoy.

– Biz bir-birimizga bir vaqtda hamla qildik! – o‘shqirdi Garri.

– ... u Goylning sog‘ligiga ziyon yetkazdi, ser, ana o‘zingiz ko‘ring, – chaqimchilik qildi Malfoy.

Snegg Goylning zaharli qo‘ziqorinlar ta’siri haqidagi kitobda rasm sifatida keltirsa bo‘ladigan basharasini tadqiq qilib chiqdi.

– Kasalxonaga, – xotirjam buyurdi Snegg.

– Malfoy esa Germionaning sog‘ligiga putur yetkazdi! – gapga aralashdi Ron. – Mana qarang!

Ron Germionani tishini ko‘rsatishga majbur qildi. Qiz tishini imkon qadar bekitishga urinsa-da, foydasi bo‘lmadi. Tish yoqagacha o‘sib tushgan. Sneggning orqasida turgan Pansi Parkinson Germionaga barmoq o‘qtagancha, dugonalari bilan birga unsiz kulib, ikki bukilib qoldi.

– Oldingi holatidan ko‘p farq qilayotganini sezmadim, – xulosa chiqardi Snegg Germionaga sovuq nazar tashlab.

Ko‘zi yoshga to‘lgan Germiona chirillab, shartta burildi-da, yo‘lak bo‘ylab yugurgancha ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Garri bilan Ron baralla qichqirgani yaxshi bo‘ldi. Ikkalasining ovozi tosh yo‘lak devoridan aks sado bo‘lib qaytib, nimalar deb haqorat qilishganini Snegg ilg‘ay olmadi-yu,

mazmunni uqib oldi.

– Endi fahmlab olaylik, – dedi Snegg o‘ta muloyim ovozda. – «Griffindor»dan ellik ball ayriladi. Potter bilan Uesli bir kunli mehnat jazosiga tortiladi. Sinfga kiring, tez, aks holda butun haftaga jazo tayinlayman.

Garrining qulog‘i jaranglab ketdi. Adolatsizlik g‘azabini qaynatib, Sneggni minglab jirkanch bo‘laklarga bo‘lib tashlashni istadi. Ikkovlon Sneggning yonidan o‘tib, yo‘lak oxiridagi sinf xonasiga kirdi. Garri yuk xaltasini kuchi boricha partaga uloqtirdi. Ron ham g‘azabdan dag‘-dag‘ titramoqda. Ma’lum vaqt ikkalasi yarashib olganday bo‘ldi go‘yo. Biroq Ron teskari o‘girilib, Garrini yolg‘iz qoldirgancha, Din bilan Simusning yoniga o‘tirdi. Xonaning narigi tomonida o‘tirgan, Snegg orqa o‘girgan fursatdan foydalangan Malfoy, kiyimiga qadalgan ko‘krak nishonini bosib, *Potter – badbo‘y* yozuvini yana ko‘rsatib qo‘ydi.

Dars boshlandi. Garri Sneggdan ko‘zini uzmay, u yo‘liqishi mumkin bo‘lgan eng dahshatli manzaralarni ko‘z oldiga keltirib o‘tirdi... Eh, qani endi Qiynoqqa solish qarg‘i-shini qo‘llay bilsa... Snegg hozir anavi o‘rgimchak singari belida yotib, to‘lg‘anib, tipirchilagan bo‘lar edi...

– Ziddi-zaharlar! – mavzuni e’lon qildi Snegg, yarqirayotgan ko‘zi ila sinfga nazar solib. – Hamma bugungi kungacha ziddi-zahar tayyorlash usullarini o‘zlashtirib kelgan bo‘lishi shart edi. Binobarin, damlamani astoydil tayyorlash talab etiladi. Negaki bugun, damlamani to‘g‘ri tayyorlaganini tekshi-rish maqsadida sinovdan o‘tkaziladigan odam tanlanadi...

Snegg bilan Garrining nigohi to‘qnash keldi. Bola bugun nima bo‘lishini darhol va juda yaxshi angladi. Snegg aynan Garrini zaharlamoqchi. U qozonini qo‘liga olgancha, sinf bo‘ylab yugurib borib, bor kuch-u, nafrati ila Sneggning iflos boshiga solishini ko‘z oldiga keltirib ko‘rdi...

Shunday shirin xayoldan eshikning qattiq taqillashi chalg‘itib yubordi.

Xonaga Kolin Krivi kirdi. U yashnagancha Garriga qarab, Sneggning stoliga yaqin bordi.

– Eshitaman? – qisqa qildi Snegg.

– Ser, Garri Potter yuqoriga chaqirilyapti, – dedi Kolin Krivi. – Shuni yetkazish menga buyurildi.

Snegg yovuz ko‘zini ilgaksimon uzun burni uzra Kriviga chaqchaytirdi. Bechora bolachaning hozirgina yashnab turgan yuzidagi tabassum bir zumda barham topdi.

– Potter yana bir soat sehrli damlamalar bilan mashg‘ul bo‘ladi, – sovuq ovozda ma’lum qildi Snegg. – Dars tugaganidan so‘nggina yuqoriga chiqadi.

Dahshatga tushgan Kolinning rangi qizil tus oldi.

– Ser... ser, mister Shulman chaqirtiryapti uni, – qo‘rquv ichra ma’lum qildi bolacha, – Chempionlikka da’vogarlarning hammasi chaqirtirilgan. Menimcha, ularni fotosuratga olishadi

Krivi shu fikrini aytmasa, Garri eng qimmat narsalarini bergan bo‘lar edi-ya. U tavakkaliga Ron tomon yuzlandi. Ron harakatsiz, shiftga tikilib o‘tiribdi.

– Yaxshi, yaxshi, – jerkib berdi Snegg. – Potter, narsalaringizni qoldirib, boravering. Tadbir o‘tgach, qaytib keling. Siz tayyorlagan ziddi-zaharni amalda tekshirib ko‘rmoqchiman.

– Meni ma’zur tuting, ser... U narsalarini ham o‘zi bilan olishi kerak ekan, – chiyillab qo‘ydi Kolin. – Chempionlikka da’vogarlarning hammasi...

– Juda yaxshi! – o‘shqirdi Snegg. – Potter, narsalaringizni oling-da, bu yerdan daf bo‘ling, tez!

Yuk xaltasini yelkasiga tashlagan Garri, o‘rnidan turib, chiqish eshigi tomon yo‘l oldi. Slizerinchilar yonidan o‘tar ekan, hamma joyda *Potter – badbo‘y* yozuvi yarqirab ko‘rindi.

– Zo‘r, a, Garri? – bidirlay ketdi Kolin, Garri eshikni yopishi bilan, – Chempionlikka da’vogar bo‘lganing zo‘r ish bo‘ldi, a?

– Nimasini aytasan, juda zo‘r bo‘ldi, – g‘amgin javob berdi Garri. – Kolin, xabaring yo‘qmi, nega bizni suratga olishar ekan?

– «Bashorat-u karomat gazetasi» uchun bo‘lsa kerak!

– Ajoyib! – dedi Garri yanada tushkun ohangda. – Menga aynan shuhrat yetishmay, dongdorlikni yanada orttirishim kerak edi.

– Omadingni bersin! – tilak bildirdi Kolin, o‘ng tomondagi allaqanday eshik yoniga yetgach.

Garri eshik taqillatib, ichkariga kirdi.

Bu yer deyarli barcha partalar orqaga surilib, o‘rtada tor bo‘shliq hosil qilingan kichik xona ekan. Faqat uchta parta sinf taxtasining ro‘parasiga bir qator terilib, ustiga duxoba yozilgan. Shu tarzda naridan-beri tayyorlangan uzun stol ortiga beshta kursi qo‘yilib, ulardan birida egniga pushti ko‘ylak kiygan, Garri muqaddam uchratmagan afsungar ayol bilan suhbat qura-yotgan Lyudo Shulman o‘tiribdi.

Burchakda hech kim bilan muloqot qilmayotgan badqovoq Viktor Krum turibdi. Sedrik bilan Flyor esa aksincha, jonli suhbat qurishgan. Flyor bugun baxtiyor, har qalay, ilgarigiga nisbatan mamnunroq ko‘rinmoqda. U dam-badam boshini ortga siltab turibdi. Uning kumush tusli uzun sochi yorug‘lik shu’lasida tillarang kasb etmoqda. Tutun burqib turgan fotokamera ushlagan qorni katta kishi Flyorga zimdan qarab-qarab qo‘ymoqda.

Garrini ko‘rgan Shulman o‘rnidan sakrab turib, bola tomon oshiqdi.

– Ana u! To‘rtinchi raqamli chempionlikka da’vogarimiz! Kir, Garri, kiraver... Xavotir olma, sehrli tayoqchalar ko‘rigi o‘tkaziladi, xolos, qolgan hakamlar ham tez orada yetib keladi...

– Sehrli tayoqchalar ko‘rigi? – cho‘chib so‘radi Garri.

– Chempionlikka da’vogarlarning sehrli tayoqchalarini tekshirib, benuqson ish holatida ekaniga ishonch hosil qilishimiz kerak, – tushuntirdi Shulman. – O‘zing bilasan, sehrli tayoqcha bo‘lajak sinovlarda eng asosiy qurol bo‘ladi. Tekshiruv o‘tkazadigan mutaxassis hozir yuqorida, Dambldorning xonasida. Marosim o‘tgach, fotosuratga tushamiz. Tanishinglar, Rita Vriter. U Uch sehrgar bellashuvi haqida «Bashorat-u karomat gazetasi» uchun kichik maqola yozmoqchi...

– Balkim, unchalik kichik bo‘lmasligi ham mumkin, – dedi egniga pushti ko‘ylak kiygan afsungar ayol Garridan ko‘zini uzmay.

Rita Vriterning soch turmagi zichlab gajaklangan murak-

kab zulfdan iborat bo‘lib, kvadrat shaklini eslatadigan bosh suyagidan keskin va juda g‘alati tarzda farq qilmoqda. Ko‘zoynagining gardishi qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan. Timsoh terisidan tayyorlangan sumkachani mahkam ushlab olgan yo‘g‘on barmoqlari to‘q qizil rangli yaltiroq lakka bo‘yalib, uzunligi kamida ikki dyum keladigan tirnoqlar bilan yakun topgan.

– Marosim boshlanguncha Garri ikkalamiz suhbatlashib olishimizga e’tiroz bildirmaysizmi? – dedi boladan ko‘zini uzmagan ayol Shulmanga murojaat qilib. – Eng yosh chempionlikka da’vogar! Tushunyapsizmi?... Bu maqolaga yanada yorqin ifoda beradi...

– Albatta! – rozi bo‘ldi Shulman. – Agar... Garrining o‘zi e’tiroz bildirmasa.

– M-m-m.. – deya oldi Garri, og‘iz juftlashga urinib.

– Juda soz, – dedi bolaning ming‘irlaganini rozilik alomati sifatida qabul qilgan Rita Vriter.

Garrining o‘ng qo‘lini qizil tirnog‘i bilan changallagan Rita Vriter bolani sinf xonasidan tortib chiqarib, yo‘lakda duch kelgan birinchi eshikni ochdi.

– Xonadagi shovqin suhbatimizga xalal berishini istamaymiz-ku, shundaymi? – dedi u. – Qani, ko‘raylik-chi... juda yaxshi... mana shu yer juda shinam va qulay ekan.

Ikkalasi chelak, supurgi va polyuvgichlar saqlanadigan qaznoq ro‘parasida turib olishgan. Garri muxbirga tahayyur qarab qoldi.

– Kir, yoqimtoyginam... mana shunday... juda soz.

Ontarilgan chelakka asta o‘tirgan Rita Vriter kuch ishlatib, bolani karton qutiga o‘tqizdi-da, eshikni yopdi. Qaznoq zulmatga cho‘mdi.

– Ana endi bir ish qilamiz... – eshitildi ayolning ovozi.

Timsoh terisidan tayyorlangan sumkachasini ochgan Rita Vriter bir siqim mayda sham chiqarib, kaft harakati ila yoqdi-da, xonani yoritish uchun havoga, har joyga muallaq osib qo‘ydi.

– Muloqot patqalamidan foydalanishimga e’tirozing yo‘qmi, Garri? Shunday qilsak, ikkalamiz bamaylixotir gaplashib o‘tirishimiz mumkin...

– Nimadan foydalanasiz? – tushunmadi Garri.

Rita Vriterning tabassumi yanada kengayib, Garrining ko‘ziga hozircha uchta tilla tish ko‘rindi. Vriter sumkachasini yana titkilab, yashil patqalam va pergament o‘ramini chiqardida, missis Shvabersning rasvogarchilikni o‘chirish universal vositasi joylangan savat ustiga yozdi. Rita yashil patqalamning uchini og‘ziga solib, huzur-la so‘rgach, pergament ustiga tik o‘rnatdi. Patqalam asta titrab, uchida turgancha muvozanat saqlab qoldi.

–Tekshiruv... – dedi ayol.

Men, «Bashorat-u karomat gazetasi»ning muxbiri Rita Vriter. (Patqalam Garrining ko‘z o‘ngida Vriterning gapini shatirlatib yozib tashladi)

Makrli patqalami haddan ortiq shishib ketgan ko‘plab dong-shuhratlarni teshib, damini chiqarib tashlagan oq sariq sochli jozibador ayol Rita Vriter, 43...

– Juda soz, – yana takrorladi pergamentning bosh qismini yirtib, g‘ijimlagancha, sumkachasiga solgan Rita Vriter. – Xo‘sh Garri, Uch sehrgar bellashuvida ishtirok etish uchun ariza berishga nima majbur qildi seni?

– M-m-m... – yana ming‘irladi Garri.

Patqalam bolaning fikrini chalg‘itdi. Garchi u hali hech nima demagan bo‘lsa-da, patqalam pergament yuzasi bo‘ylab, satr bitgancha, yugura ketdi:

Fojiali o‘tmishdan achinarli esdalik sifatida qolgan vahimali chandiq Garri Potterning yoqimli yuzini rasvo qilib, ko‘zi...

– Patqalamga e’tibor qima, Garri, – dedi Rita Vriter.

Garri istar-istamas patqalamga qadalgan nigohini Vriterga olib o‘tdi.

– Savol esingdami? Bellashuvda ishtirok etish uchun ariza berishga seni nima majbur qildi?

– Arizani men berganim yo‘q, – javob berdi Garri. – Arizani birov mening nomimdan yozgan. Ismim bitilgan pergament

Olov kubokiga qanday qilib tushib qolganini bilmayman. Uni men tashlamaganman.

Ritaning qoraga qalin qilib bo‘yalgan qoshi ko‘tarilib ketdi.

– Qo‘ysang-chi, Garri, bu ishing uchun javobgarlikka tortishmaydi-ku, seni. Ariza berganing noto‘g‘ri ish ekani hammaga shundoq ham ayon. Lekin bu masalada tashvish tortmasang bo‘laveradi. Gazetxonlarimiz oqimga qarshi yuradigan kishilarni juda yoqtiradi.

– Lekin men ariza bermaganman, – takrorladi Garri. – Bilmayman kim...

– Bo‘lg‘usi sinovlar arafasida nimalarni his etyapsan? – gapni bo‘ldi Rita Vriter. – Kurashga tayyormisan? Yoki asabiylashyapsanmi?

– Bu haqda hali o‘ylab ko‘rganim yo‘q... Asabiylashayotgan bo‘lsam kerak, – iqror bo‘ldi Garri, ichida nimadir yoqim-siz siqilganini his etib.

– O‘tmishda o‘tgan bellashuvlarda chempionlikka da’vogarlar halok bo‘lgan holatlar bo‘lgan, xabaring bormi?

– M-m-m... bu bellashuv ancha xavfsiz o‘tadi, deb ishontirilyapti.

Pergamentning u chetidan, bu chetiga shiddat-la harakatlanayotgan patqalam muz ustida uchayotgan konkiga o‘xshaydi.

– Ammo sen ilgari ham ajal bilan yuzma-yuz kelgansan-u, shundaymi? – davom etdi Rita Vriter bolaning ko‘ziga sinchkovlik-la qarab. – Nima deb o‘ylaysan, bunday holat tabiatingda ma’lum bir iz qoldirganmi?

– M-m-m, – yana ming‘irladi Garri.

– Muqaddam boshdan o‘tkazgan ruhiy larzalar bugungi kunga kelib nimaga qodir ekaningni hammaga ko‘rsatib qo‘yishingga sabab bo‘ladimi? O‘xshash hissiyotlaring tug‘yon uryaptimi? Ismingga munosib bo‘lishga intilishing, Uch sehrgar bellashuvida ishtirok etish istaging tug‘ilishiga?...

– Bunday istak menda bo‘lmagan, – dedi Garri asabiylashib.

– Ota-onangni eslaysanmi? – boladan balandroq gapirdi Rita Vriter.

– Yo‘q, – qo‘rslik qildi Garri.

– Nima deb o‘ylaysan, Uch sehrgar bellashuvining ishtirokchisi sifatida saralab olinganingdan ota-onang xabar topishganida qanday his etgan bo‘lar edi o‘zlarini? Faxrlangan, tashvishga tushgan yoki jahli chiqqan bo‘larmidi?

Ana endi Garrining rostakamiga g‘azabi qaynadi. Axir, qayerdan bilsin u, ota-onasi tirik bo‘lganda o‘zlarini qanday his etgan bo‘lishini? Bola muxbir ayolning chaqchayib turganini his etib, ko‘ziga qaramaslik uchun qovoq solgancha, patqalam bitayotgan satrlarga e’tibor berdi.

Gap ota-onasi haqida ochilar ekan, ularni eslay olmaydigan bolaning hayratomuz yashil ko‘zi jiq yoshga to‘ldi.

– Hech qanaqangi yoshga to‘lgani yo‘q ko‘zim! – e’tiroz bildirdi darg‘azab Garri.

Rita og‘iz juftlashga ulgurmay, qaznoqning eshigi lang ochildi. Yorqin nurdan ko‘zi qamashgan Garri ostonada tahayyur nigoh-la qarab turgan Dambldorni ko‘rdi.

– Dambldor! – xitob qildi Rita Vriter, zavqlanib ketganday bo‘lish uchun jamiki noz-karashmasini ishga solib.

Ayni paytda Garri, muloqot patqalami ham, rasvogarchilikni o‘chirish vositalari joylangan savat ustiga yozilgan pergament o‘rami ham daf’atan gum bo‘lgani, Rita Vriterning uzun tirnoqli yo‘g‘on barmoqlari esa sumkachani shiq etib yopib qo‘yganini sezib qoldi.

– Salomatligingiz yaxshimi? – so‘radi Vriter, erkak kaftiga o‘xshash qo‘lini Dambldorga uzatib. – Xalqaro sehrgarlar konfederatsiyasiga oid yozda chop etilgan maqolamni o‘qigansiz, degan umiddaman, Dambldor.

– Har bir jumlasidan zahar chakkalab turadigan bunday maqolalar kamdan kam chiqadi, – fikr bildirdi Dambldor ko‘zi yarqirab. – Ayniqsa, kamtarin kaminangizni «*Kuch-quvvatdan qolib, yo‘sin qoplaganiga ko‘p yillar bo‘lgan chol*» sifatida tavsiflaganingiz menga alohida huzur bag‘ishladi.

Ritaning bezbet basharasida xijolat alomatidan asar ko‘rinmadi.

– Ba'zi qarashlaringiz o'z umrini o'tab bo'lgan fikr-mulohazalar sirasiga kirishini ta'kidlab o'tdim, xolos, Dambldor, – dedi ayol. – Sehrgar elatimizning ayrim tor fikrli vakillari esa...

– Dag'al va takabbur ohang zamirida qanday mantiq borligidan xabar topsam, o'zimni benihoya baxtiyor bilgan bo'lar edim, – dedi Dambldor ayolga iltifot-la ta'zim bajo aylab. – Ammo hozir mavridi emas. Ushbu masala muhokamasini kechga qoldirishga to'g'ri keladi. Xayol o'tmay sehrli tayoq-chalar ko'rigi boshlanadi. Chempionlikka da'vogarlardan biri polyuvgich saqlash qaznog'iga bekitilib qo'yilar ekan, bunday udumning boshlanishi amri mahol.

Rita Vriterdan qutulganidan mamnun bo'lgan Garri sinf xonasiga oshiqdi. Qolgan da'vogarlar eshik yonidan joy olishgan. Garri lip etib Sedrikning yonidagi kursiga joylashdi. To'rt nafar hakam: professor Karkarov, Maksim xonim, mister Sgorbs va Lyudo Shulman duxoba yozilgan stol ortida o'tiri-shibdi. Garri Rita Vriterning burchakka biqinib olib, muloqot patqalamini so'rgancha, tizzasiga yozilgan pergament ustiga tik o'rnatganini ko'rdi.

– Sizlarni mister Ollivander bilan tanishtirib o'tishga ijozat bergaysiz, – dedi hakamlar stoli ortidagi joyini egallayotgan Dambldor chempionlikka da'vogarlarga murojaat qilib. – U sehrli tayoqchalaringizni tekshirish uchun atayin tashrif buyurgan. Uch sehrgar bellashuvini boshlashdan oldin ishtirokchilarning tayoqchalari tekshirilib, benuqson ish holatida ekaniga ishonch hosil qilishimiz shart.

Garri xonaga ko'z yugurtirib, deraza yonida ko'zi bir juft to'lin oyga o'xshab ketadigan qariyani ko'rdi. Bola darhol Xagrid bilan birga Diagon xiyobonidagi *«Ollivanderlar: miloddan avvalgi 382 yildan buyon sehrli tayoqcha yasab kelgan sulola!»* do'konining sohibi, sehrli tayoqcha yasash ustasi bo'lmish keksa sehrgardan uch yil muqaddam o'zi uchun sehrli tayoqcha xarid qilganini esladi.

– Mademuazel Delakyor, – dedi xona o'rtasiga chiqqan mister Ollivander Flyorga murojaat qilib. – Sizning tayoq-

changizdan boshlasak, agar qarshi bo'lmasangiz, albatta.

Flyor Delakyor mister Ollivanderning yoniga borib, sehrli tayoqchasini uzatdi.

– Hm-m-m... – to'ng'illadi mister Ollivander.

Qariya tayoqchani uzun barmoqlarining orasidan spiral shakli yo'nalishida yurgizgan ediki, tayoqchaning uchidan pushti va tilla tusli uchqunlar otildi. Shundan so'ng ko'ziga ya-qin keltirib, uni diqqat bilan o'rganib chiqdi.

– Xo'sh, – dedi u past ovozda, – to'qqiz yarim dyum... qattiq... atirgul daraxti... va tarkibida... o, Xudo...

– Veyla boshidan olingan soch, – e'lon qildi Flyor. – Buvilarimdan birining sochi.

«Demak, Flyor, chindan ham qisman veyla ekan-da, – o'yladi Garri. – Buni Ronga aytib qo'yishni unutmaslik kerak»... va shu zahoti u bilan gaplashmay qo'ygani esiga tushdi.

– Albatta, – bosh irg'idi mister Ollivander. – Albatta. O'zim veyla sochini hech qachon qo'llamayman. Fikrimcha, tarkibiga bunday soch kiritilgan sehrli tayoqcha o'jar bo'ladi. Lekin kim neki istasa, shuni topadi. Modomiki, sizga to'g'ri kelar ekan...

Keksa sehrgar barmoqlarini tayoqcha sirtida yurgizib, timdalangan yoki bo'rtgan joylari yo'qligini tekshirdi.

– Orxideus! – dedi u, sehrli tayoqchaning benuqson ishlashiga ishonch hosil qilgach.

Tayoqcha uchidan bir dasta gul otilib chiqdi. Mister Ollivander gul dastasini chapdastlik-la, tutib olib Flyorga uzatdi.

– Juda yaxshi, juda soz. Tayoqcha a'lo darajada ishlayapti, – e'lon qildi qariya. – Mister Diggori, navbat sizga.

Flyor sirg'alib, yonidan o'tayotgan Sedrikka iljayib qo'ygancha, joyiga borib o'tirdi.

– Aha, bunisi endi mening asarim, shunday emasmi? – dedi ohangiga ko'proq zavq qo'shilgan mister Ollivander. – To'ppa-to'g'ri. Uni juda yaxshi eslayman. Tarkibiga yakkashox ot narining kamdan kam uchraydigan namunasiga tegishli dum tuki kiritilgan... yag'rinidan kam deganda o'n yetti kaft naridagi yoli... Shumtol... o'n ikki butun to'rtdan bir dyum, xush keladigan taranglik. Holati ham juda yaxshi. Muntazam sayqal berib

turibsanmi?

– Kechagina sayqal berdim, – yashnab ketdi Sedrik.

Garri o‘zining tayoqchasiga e’tibor berdi. Tayoqcha ushlanaverib kir bo‘lib ketgan. U korjomasining etagini qo‘liga olib, tayoqchani artmoqchi bo‘ldi-yu, Flyorning rag‘batlantiruvchi nigohiga ko‘zi tushgach, fikridan qaytdi.

Mister Ollivander sehrli tayoqchadan xona uzunasi bo‘ylab tutun halqalar chiqargach, qanoatlanganini ma’lum qildi.

– Mister Krum, marhamat qilsinlar, – chaqirdi qariya.

O‘rnidan turgan Viktor Krum qariyaning yoniga oyog‘i bilan eshkak eshganday bukchayib keldi. Tayoqchasini mister Ollivanderning qo‘liga sanchib yuborguday uzatgach, qo‘lini korjomasining cho‘ntagiga solib g‘oz turdi.

– Hm-m-m... – cho‘zib to‘ng‘illadi mister Ollivander, – yanglishmasam, Gregorovichning mahsuloti, to‘g‘rimi? Mohir usta, garchi uning uslubi, men qo‘llaydigan... Lekin shunday bo‘lsa-da...

Chol tayoqchani yuqoriroq ko‘tarib, millimetrma-millimetr o‘rganib chiqdi.

– Demak... grab[1] va ajdar qalbining tori ekan-da, a? – so‘radi u Krumdan.

Krum tasdiqlab, bosh irg‘idi.

– Odatdagidan qalin, – davom etdi qariya. – Juda qattiq... o‘n butun to‘rtdan bir dyum... Avis!

Grab tayoqcha zambarak kabi tovush chiqarib, uchidan uchib chiqqan bir gala mitti qush chug‘ur-chug‘ur qilgancha derazadan tashqariga, xira osmonga ko‘tarildi.

– Juda soz, – xulosa qildi mister Ollivander, Krumga tayoqchasini qaytarib berar ekan. – Endi... mister Potter.

Garri o‘rnidan turib, Krumning yonidan o‘tgancha, qariyaning qarshisiga kelib to‘xtadi.

– A-a-a-ah, albatta, – yarqirab ketdi cholning xira ko‘zi. – Ha, ha, ha. Juda yaxshi eslayman o‘sha kunni.

Garri ham juda yaxshi eslaydi o‘sha kunni. Shu qadar aniq

[1] **Grab** – qayinlar oilasiga mansub daraxt yoki buta.

eslaydiki, xuddi kecha bo'lib o'tganday.

Qariyb to'rt yil muqaddam, o'n bir yoshga to'lgan kuni Xagrid sehrli tayoqcha xarid qilish uchun uni mister Ollivanderning do'koniga yetaklab borgan edi. Mister Ollivander Garrining tanasini boshdan oyoq har qanaqasiga o'lchab chiqqach, sinab ko'rishi uchun sehrli tayoqcha uzatib turdi. Sonsanoqsiz tayoqchalar sinab ko'rilib, nihoyat bolaga aynan mana shu, tarkibiga qaqnus dumidan olingan pat kiritilgan, nayzabargdan tayyorlangan, uzunligi o'n bir dyum, juda yoqimli, muomala qilish qiyin kechmaydigan sehrli tayoqcha to'g'ri keldi. O'shanda mister Ollivander tayoqcha joylangan qutini, jigarrang qog'ozga asta o'rar ekan: «*Qiziq... qiziq* ..» – deyishini qo'ymadi. Garri mister Ollivanderdan buni nimasi qiziq ekanini so'ragan. Shunda qariya: «Mazkur do'konda *sotilgan har bir sehrli tayoqchani juda yaxshi eslayman, mister Potter. Uqdingizmi, har birini! Hozir shunday bir holat yuz berdiki, dumi tayoqchangiz tarkibiga kiritilgan qaqnus bor-yo'q ikki dona pat bergan. Ushbu patlardan biri, ta'kidlab o'tganimday, sizning sehrli tayoqchangiz, ikkinchisi esa peshanangizga chandiq qoldirgan boshqa bir sehrli tayoqcha tarkibiga kiritilgan. Endi tushundingizmi? Bu haqiqatan ham qiziq emasmi? Ha, ha, o'n uch yarim dyum. O'ylab ko'ring! Darhaqiqat, bunday holatning yuzaga kelishi juda qiziq. Yodingizda bo'lsin, sehrli tayoqcha o'z sohibini o'zi tanlaydi... O'ylaymanki, biz sizdan buyuk ishlar kutishimiz kerak, mister Potter. Axir, «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» o'z sehrli tayoqchasi bilan juda buyuk va taassufki, nihoyatda dahshatli ishlar qilgan*» deya javob bergan edi.

Garri bu haqda hech qachon, hech kimga aytmagan. U o'zining tayoqchasini juda yoqtiradi. Tayoqchasi Lord Voldemortning tayoqchasi bilan egizak ekanini, o'zi Petuniya xola bilan qarindoshligini rad eta olmaydigan holatday qabul qiladi. Ammo hozir mister Ollivander, ushbu ma'lumotni hammaga oshkor etmasligini juda istar edi. Qariya, Xudo ko'rsatmasin, og'zidan gullab qo'yadigan bo'lsa bormi, Rita Vriterning muloqot patqalami shu zahoti zavqqa to'lib, portlab ketishiga shubha

qolmaydi.

Mister Ollivander Garrining tayoqchasini o‘rganib chiqish uchun ancha vaqt sarfladi. Nihoyat u tayoqcha uchidan vino favvorasini sachratgancha, bequsur ishlayotganini e’lon qilib, Garriga qaytarib berdi.

– Hammaga tashakkur, – dedi Dambldor, hakamlar davrasidan turib. – Sizlar darsga qaytishingiz mumkin. Umuman aytganda, tushlik qilgani tushsangiz, oqilona ish tutgan bo‘lasiz. Negaki tez orada qo‘ng‘iroq zarbi yangraydi.

Ish ko‘ngilli yakun topganidan mamnun bo‘lgan Garri xonani tark etishga taraddudlandi. Shu payt qo‘liga fotokamera ushlagan kishi ma’noli yo‘talib qo‘ydi.

– Suratga tushamiz, Dambldor, suratga! – quvonch-la qichqirdi Shulman. – Hakamlar-u, chempionlikka da’vogarlar, hammamiz birgalashib tushamiz! Nima deding, Rita?

– M-m-m... Ha, dastlab shunday qilgan ma’qul, – rozi bo‘ldi hanuzgacha Garridan ko‘z uzmay turgan Rita. – Shundan so‘ng, chempionlikka da’vogarlarning har biri alohida suratga olinishi kerak.

Suratga tushish jarayoni ham ancha vaqtning boshini yedi. Maksim xonim qayoqqa turmasin, ko‘lankasi hammani qamrab olaverdi. Bundan tashqari, tik turgan Maksim xonim kadrga sig‘ishi uchun kichkina xonada fotosuratchi ortga chekinadigan joy yo‘q. Nihoyat u kursiga o‘tiradigan, qolganlar esa atrofiga to‘planadigan bo‘ldi. Karkarov barmoqlari bilan soqolini eshgani-eshgan, Krum, jahonga mashhur bo‘la turib, bunday ishlarga allaqachon ko‘nikib qolishi kerak edi, lekin u boshqalar ortiga o‘tib olishga urinishini qo‘ymadi. Fotosuratchi o‘rtaga Flyorni qo‘yish, Rita Vriter esa yugurib kelib Garrini markazga surish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Umumiy surat olingach, Vriter har bir chempionlikka da’vogar alohida suratga tushishini talab qilib, turib oldi. Xonani tark etishga ijozat olinguncha bir olam vaqt o‘tdi.

Garri tushlik qilgani Katta Zalga tushdi. Germiona yo‘q. Aftidan, u haligacha tishini davolatayotgan ko‘rinadi. Bola yolg‘iz o‘zi tushlik qilib, Buyum chaqirish afsuniga doir qo‘shim-

cha ish haqida istar-istamas o‘ylagancha, «Griffindor» minorasi tomon yo‘l oldi. Yotoqxonaga kirgach, Ronga duch keldi.

– Seni boyqush kutib o‘tiribdi, – dag‘al ohangda ma’lum qildi Ron, Garrining karavotiga imo qilib.

Maktabning yirik ombor boyqushi yostiq ustiga astoydil joylashib olibdi.

– O! Juda soz, – bosh irg‘idi Garri.

– Ertaga kechqurun esa Sneggning yerto‘lalarida ikkalamiz jazo o‘tashimiz kerak, – qo‘shib qo‘ydi Ron va Garriga qiyo boqmay xonadan chiqib ketdi.

Garri Ronni quvib yetish haqida bir muddat o‘ylab qoldi. Lekin nima maqsadda: gapni ochdi qilish uchunmi yoki bo‘yniga yaxshilab solish uchunmi o‘zi bilmaydi. Unisi ham bunisi ham qiziq tuyuldi-yu, Siriusdan kelgan xatni o‘qish istagi ustun keldi. Garri boyqush yoniga kelib, uning panjasiga bog‘langan maktubni yechib oldi.

Garri,

Aytishim kerak bo‘lgan gaplarning hammasini xatda bayon eta olmayman. Haddan ortiq tavakkalchilik qilgan bo‘laman. Negaki ushbu xat birovning qo‘liga tushib qolishi ehtimoldan xoli emas. Biz yuzma-yuz uchrashib suhbatlashimiz darkor. 22 noyabr kuni kechasi soat birda «Griffindor» minorasining kamini yoniga yolg‘iz o‘zing kela olasanmi?

O‘zingni xafa qildirib qo‘ymasligingni hammadan ko‘ra men yaxshi bilaman. Bundan tashqari, Dambldor bilan Xmuri yoningda ekan, senga hech kim ziyon yetkaza olmaydi. Shunga qaramay, bellashuvda ishtirok etishing uchun qandaydir noma’lum shaxs Dambldorning huzurida amalga oshirgan ishi juda xavfli ekanini bila turib, senga ziyon yetkazmoqchi bo‘layotgani aniq.

Sendan iltimos, Garri, juda ehtiyot bo‘l. Ko‘zingga g‘ayrioddiy ko‘ringan har qanday narsa haqida zudlik bilan meni boxabar qilib bor. 22 noyabr borasida imkon qadar tezroq xabar yetkaz.

Sirius.

XIX BOB. TIKANAK DUMLI VENGER AJDARI

Keyingi ikki hafta davomida Garriga faqat Sirius bilan tanho uchrashish umidigina kuch-quvvat bag'ishlab, hali bu qadar qayg'uli tuyulmagan kelajakdagi yagona yorug'likday ko'rindi. Maktabning chempionlikka da'vogari sifatida sarala-nib olingani tufayli kechgan ruhiy hayajon asta-sekin barham topib, o'rnini bo'lg'usi sinovlar oldidagi qo'rquv egallay boshladi. Birinchi musobaqa sanasi og'ishmay yaqinlashib, Garrining nazarida, ushbu tadbir hayot yo'lida daf'atan paydo bo'lgan maxluqday tahdid solmoqda. Muqaddam Garrini hech narsa, hech qachon, birorta kvidish o'yini, hatto kvidish kubogi kimga nasib etishini hal qilgan «Slizerin» jamoasi bilan o'tgan uchrashuv ham bu qadar asabiylashishga majbur qilmagan edi. Oldinda nimalar kutayotgani haqidagi o'y majburan bo'lsa ham miyasiga kelmayapti. Nafaqat o'tgan qisqa umri, balki hayot xotimasining ma'nisi ham ayni mana shu sinovga mujassam bo'lib qolganday ko'rinadi go'yo...

Umuman aytganda, Sirius biron bir ko'rinishda yordam qo'lini uzatishi, dalda bera olishi dargumon. Tovuq tuxumiga xoh u yonidan qara, xoh bu yonidan – shakli birday ko'rinadigan kabi istaydimi Garri buni, yo'qmi, undan yuzlab odamlarning ko'z o'ngida, vaziyatning o'ta murakkab sharoiti-da sehr-jodu mahoratini ko'rsata bilish talab etiladi. Shunday bo'lsa-da, ushbu holatda chin do'st bilan diydor ko'rishish bolaga taskin beradigan yupanchday tuyuldi. Garri Siriusga umumiy mehmonxonaning kamini yonida tayinlangan vaqtda bo'lishi haqida xabar berib, Germiona ikkalasi tungi vaqtda fakultetning kechyotar o'quvchilaridan qanday xalos bo'lish kerakligini soatlab muhokama qildi. Oxirgi chora sifatida go'ng bombasidan foydalanishga ahd qilishdi-yu, har qalay, ish bom-ba portlatishgacha borib yetmasligi ikkalasining so'nggi umidi bo'ldi. Aks holda Filch ularning yetti qavat terisini shilib olishi muqarrar.

Bu vaqtga kelib Garrining hayoti toqat qilib bo'lmaydigan

darajaga yetdi. «Bashorat-u karomat gazetasi»da Rita Vriter-ning Uch sehrgar bellashuvi haqidagi maqolasi chop etildi. Biroq ushbu maqolani bo'lg'usi musobaqalar haqida berilgan ma'lumot emas, balki Garri Potterning mazmuniy bo'yoqlari o'ta mos tushirilgan tarjimai holi desa, to'g'riroq bo'ladi. Birinchi sahifaning asosiy qismini Garrining fotosurati band etgan. Gazetaning ikkinchi, oltinchi va yetti sahifalaridan jo olgan maqola faqat Garriga bag'ishlangan bo'lib, imloviy xato bilan yozilgan «Belstek» va «Durmshtrang» vakillarining ismlari eng so'nggi jumlada tilga olib o'tilgan. Sedrikning ismi esa birovning esiga ham kelmagan.

Gazetaning o'sha soni chiqqaniga o'n kun bo'ldi. Lekin Garri mash'um maqolani eslashi bilan har safar ich-ichini yondiradigan, ko'nglini behuzur qiladigan uyat hissi vujudini qamrab oladi. La'nati Ritaning gapiga qaraganda Garri shunaqangi gaplar aytgan emishki, bunday uydirmalar hayotda, ayniqsa, polyuvgichlar saqlanadigan qaznoqda bolaning xayoliga kelmagan.

O'ylashimcha, kuch-qudratimni ota-onamdan olaman. Hozir ular meni ko'rishganda juda faxrlangan bo'lishar edi... Ha, ikkalasini yodga olib kechalari yig'lab chiqaman. Bunga iqror bo'lishdan hech xijolat tortmayman... Ishonchim komilki, bellashuv davomida menga hech nima qilmaydi. Chunki ota-onam haqidagi xotira meni asrab-avaylaydi...

Rita Vriter Garrining qaznoqda «M-m-m...»lab ming'irlaganini uzundan uzoq, jirkanch jumla sifatida bayon etibgina qolmay, boshqa bolalardan ham Garri haqida intervyu olibdi.

«Xogvars»ga kelgan Garri nihoyat o'z muhabbatini topishga muvaffaq bo'lgan ko'rinadi. Uning eng yaqin do'sti Kolin Krivining gapiga qaraganda, Garri maktab hududida o'zi singari eng ibratli o'quvchi, magllar oilasida tug'ilgan ko'hlikkina afsungar qiz Germiona Grenjersiz deyarli yurmas emish.

Maqola chiqqanidan buyon Garri ko'p bema'ni gaplar-mazaxlarni eshitib, hammasiga bardosh berishiga to'g'ri kel Ko'pchilik, asosan slizerinchilar, albatta, Garrini ko'rib Vriterning maqolasidan iqtibos keltiradigan, unda bildirilg fikrlarga manfur sharhlar berib boradigan odat chiqardi.

– Dastro'mol beraylikmi, Potter? Darsda yig'lab yubo guday bo'lsang, asqatadi deymiz-da!

– Hoy, Potter, qachondan buyon sen maktabning eng ibra o'quvchisi bo'lib qolding? Yoki gap Longbottom ikkalan o'qiydigan boshqa maktab to'g'risida boryaptimi?

– Hoy, Garri!

Bunday gaplar Garrining joniga shu qadar tegib ketdik ovoz eshitilgan tomon oxirigacha o'girilishga ulgurmay, hatt o'zi uchun kutilmagan tarzda baqirib yubordi

– Ha, ha, to'ppa-to'g'ri. Rahmatli oyimni eslab yig'l ganim-yig'lagan. Hozir ham biron-bir xonaga kiraman-d to'yib-to'yib yig'lab ola... man...

– Yo'q... men... shunchaki... Patqalamning tushib ketdi, shu aytmoqchi edim, xolos.

Yer yorilmadi-yu, Garri kirib ketmadi. Uning qarshisid «Ravenklo» fakultetining o'quvchi qizi Chu Cheng turibdi.

– A-a, senmi?... Ha... Meni ma'zur ko'rasan, – ming'irla Garri, Chu uzatayotgan patqalamni olib.

– M-m-m... Seshanba kuni senga omad yor bo'lishini tila qolaman, – dedi Chu. – Sinovdan munosib o'ta olishing ishonaman.

O'zini ahmoqona his etgan Garri turgan joyida qoldi.

Ta'kidlab o'tmoq joizki, Germiona ham turli pichin gaplardan benasib qolmadi. Ammo u Garri kabi beayb odam larga o'shqirib berish holatiga yetgani yo'q. Chindan ham Gar Germionaning tahammul qilishi, o'zini munosib tuta olishi, xatti harakatlari va mulohazalarini idora eta bilishini ko'rib, hava keldi.

– Ko'hlikkina afsungar qiz? Anavi-ya? – chirilladi Pan Parkinson, maqola chiqqanidan so'ng Germionaga nazar solib. Olasichqonga qiyoslab aytilgandir-da?

– E'tibor berma ularga, Garri? – dedi o'z qadr-qimmatini saqlay biladigan Germiona, slizerinchi qizlar yonidan viqor-la, xuddi ularning gapini eshitmagan singari o'tib. – E'tibor bermasang, najas yegan itday qolishadi.

Ammo Garri, ming urinmasin, «e'tibor bermay» yura olmadi. Ron, jazo o'tashlari kerak bo'lgan vaqt haqida ma'lum qilganidan buyon boshqa biron og'iz so'z aytmadi. Garri yer-to'lani Ron bilan birga kalamush miyasidan ikki soat davomida tozalar ekan, yarashib olishni orzu qildi. Ammo baxtga qarshi bu aynan Rita Vriterning maqolasi chiqqan va bu bilan Ronning ongidagi Garri haqida shakllangan fikrlar o'z tasdig'ini topgan kun bo'ldi.

Ikkalasidan jahli chiqqan Germiona birini qo'yib, ikkinchining oldiga, bir-biri bilan gaplashishga majbur qilishga urinib yurdi. Biroq Garri Olov kubokiga ariza tashlamaganini Ron tan olib, yolg'onchilikda ayblagani uchun uzr so'rasagina, u bilan gaplashishini talab qilib, qat'iy turib oldi.

– Arazlashishni men boshlaganim yo'q, – sarkashlik qildi Garri. – Bu uning muammosi.

– Sen usiz zerikyapsan! – baqirdi toqati toq bo'lgan Germiona kunlardan bir kun. – Bilamanki, u ham sensiz zerikyapti!

– Zerikyapman? – e'tiroz bildirdi Garri. – Bekor gap!...

Lekin Germiona haq. Garrining Germiona bilan munosabati qanchalik yaxshi bo'lmasin, qiz Ronning o'rnini bosa olmaydi. Agar yosh yigitning do'sti Germiona kabi qiz bo'lsa, hech mubolag'asiz aytish mumkinki, hayot quvonchlari nisbatan cheklanib, umrining asosiy qismi kutubxonada o'tib ketadi. Garri Buyum chaqirish afsunining ijrosini haligacha o'zlashtirib olmadi. Bunga, Garrining fikricha, allaqanday ruhiy g'ov to's-qinlik qilmoqda. Germiona esa ishni dastlab nazariyadan boshlab, uni puxta o'zlashtirish kerakligini takror va takror ta'kidlab kelmoqda. Shuning uchun ikkalasi tushlik tanaffusida har xil kitob-u, risolalarga termilib o'tirishadi.

Viktor Krum ham asosiy vaqtini kutubxonada o'tkazadi. «Qiziq, unga nima kerak ekan bu yerda, – o'yladi Garri. – U shunchaki o'zi uchun shug'ullanyaptimi yoki birinchi muso-baqa

manfaatlarida, sinov davomida asqatib qoladigan ma'lu-motlar qidirish bilan mashg'ulmi?» Krumning kutubxonaga tashrifi xalal berayotgani haqida Germiona ham tez-tez arz qilib turadi. Yo'q, Krum unga biror marta bo'lsin, murojaat qilib xalal bergani yo'q. Krumning ketidan soyadek ergashib yura-digan, kitob tokchalarining ortiga bekinib, hiring-hiring qila-digan bir gala qiz shovqini xalal beradi.

– Jo'yali mulohaza yuritadigan bo'lsak, Krumning sal bo'lsa ham husni yo'q, – nolib ming'irladi Germiona, Krum-ning yon tomonidan qarab. – Qizlar uning ketidan dongdor bo'lgani uchungina yugurib yurishibdi! Agar u anavi... nima deb atalar edi... Qassobning fikrini... bajara olmaganda, uning kutubxonada o'tirganini sezmay, yonidan o'tib ketishgan bo'lar edi.

– Kazzobskiyning firibi, – e'tirozli ohangda tuzatib qo'ydi Garri.

Garri kvidish termini buzib talaffuz etilgani uchungina ranjimay, «Qassobning fikri»ni eshitgan Ronning basharasi hozir qanday qiyofa kasb etishini tasavvur etib, ichi achishdi.

***

Taajjublanarli joyi shundaki, muayyan hodisa yuz berishi-dan cho'chigan kishi, vaqt o'tishini sekinlatish imkoniga ega bo'lish uchun ixtiyorida bor bisotini berishga tayyor bo'lsa, buning mutlaqo aksi ro'y beradi, xuddi birov atayin qilganday, vaqt nihoyatda tez chopadi. Birinchi musobaqa o'tadigan sana-ga qolgan kunlar, go'yo kimdir soat harakatining tezligini ikki chandon oshirib yuborganday, o'tdi-ketdi. Garri qayoqqa bor-masin, «Bashorat-u karomat gazetasi»ning maqolasiga tahqirli sharhlar eshitish bilan birga, idora qilinishi qiyin kechadigan vahimali kayfiyat ham hamroh bo'ldi.

Shanba kuni, birinchi musobaqalardan oldin, uchinchi va undan yuqori sinf o'quvchilariga Xogsmyod qishlog'iga chiqishga ijozat berildi. Germionaning fikricha, qasrdan tash-qariga chiqib, sayr qilib kelish Garriga foydali emish. Bu borada Garrini ishontirish uchun ko'p vaqt ketmadi.

– Ron-chi? – so‘radi Garri. – Balki, sen u bilan borishni istarsan?

– O-o... o‘ylashimcha, uni «Uch supurgi» qahvaxonasida uchratishimiz mumkin, – javob berdi rangiga qizil yugurgan Germiona.

– Yo‘q, – gapni qisqa qildi Garri.

– Garri, axir, bu g‘irt ahmoqlikning o‘zginasi-ku...

– Men boraman, lekin Ron bilan uchrashmayman. Ko‘rinmas plashimni kiyib olaman.

– Bilganingni qil, – jahl qildi Germiona. – Faqat aytib qo‘yay, o‘sha plashingni kiyganingda sen bilan gaplashishni o‘lguday yomon ko‘raman. Senga qarab gapiryapmanmi, teskari qarab olganmanmi, bilmayman.

Shunday qilib Garri yotoqxonada ko‘rinmas plashini kiyib oldi-da, Germiona bilan birga Xogsmyodga qarab yo‘l oldi.

Plash kiygan Garri o‘zini ancha erkin his etdi. Qishloq bo‘sag‘asiga yetganda ularni boshqa o‘quvchilar quvib o‘tdi. Hammasining kiyimiga *«Xogvars»ning haqiqiy chempionlikka da’vogari – Sedrik Diggorini qo‘llab-quvvatlang!* ko‘krak nishoni qadalgan. Biroq ulardan hech qaysi biri haqoratomuz so‘z aytmay, manhus maqoladan iqtibos keltirmay o‘tmoqda.

O‘zining shakarpazlik korxonasiga ega «Rohat-luqum» qandolat do‘konidan qo‘lida krem bilan boyitilgan shokolad ushlab chiqar ekan Germiona yana e’tiroz bildirdi:

– Menga hamma tahayyur baqrayib ketyapti. Xuddi mening tomim sal og‘ib qolgan-u, tentakka o‘xshab o‘zim bilan o‘zim gaplashib ketyapman.

– Sen labingni ko‘p ishlatma, – maslahat bergan bo‘ldi Garri.

– Qo‘ysang-chi, Garri! Yechib tashla mana shu ahmoqona plashingni. Senga bu yerda hech kim tegajog‘lik qilmaydi.

– Shunday deb o‘ylaysanmi? Atrofga bir qara-chi.

«Uch supurgi» qahvaxonasidan o‘zining fotosuratchi kasbdoshi bilan birga Rita Vriter chiqib keldi. Ikkalasi past ovozda gaplashgancha, Germionaning o‘ng tomonidan o‘tar ekan, qizga qiyo ham boqishmadi. Garriga esa Ritaning timsoh terisidan

tayyorlangan sumkachasi tegib ketmasligi uchun, «Rohatluqum» do'konining devoriga qapishib olishga to'g'ri keldi.

– U ketmadimi, demak, musobaqa tomoshasiga keladi, – dedi Garri, sherigi bilan birga nari ketgan Ritaning ortidan qarab.

Ushbu gapni aytgan bolaning vujudini ich-ichini yondirayotgan qo'rquv hissi qamrab oldi. U boshqa hech nima demadi. Musobaqada nimalar ro'y berishi mumkinligini Germiona ikkisi muhokama qilishmadi. Garrining nazarida, Germiona, muhokama u yoqda tursin, bu haqda o'ylashdan ham qo'rqyapti.

– Vriterning qorasi o'chdi, – dedi Germiona Garri orqali Daroz ko'chaga qarab. – Balki, qahvaxonaga kirib, huzur-lazzat icharmiz, sovqotdim. Ron bilan gaplashishing shart emas! – darg'azab qo'shib qo'ydi u, Garrining sukut saqlab turishini to'g'ri talqin qilib.

«Uch supurgi» qahvaxonasi asosan «Xogvars» o'quvchilari bilan to'lgan. Lekin sehrgarlar elatining turli-tuman vakillari ham o'tirishibdi. Garri ularni boshqa joyda kamdan kam uchratadi. Xogsmyod Buyuk Britaniyaning birorta ham magl yashamaydigan yagona qishlog'i bo'lib, niqoblanish bobi-da sehrgar erkaklar-u, afsungar ayollar kabi ustasi farang bo'lmagan jin, alvasti kabilar uchun o'ziga xos sokin bandargoh sanaladi.

Ko'rinmas plash kiyib, xaloyiq ichra yurish nihoyatda mushkul ish. Garri birovni turtib, ortiqcha savol tug'ilishiga sababchi bo'lishni istamaydi. Germiona huzur-lazzat ichimligiga borib kelguncha, Garri burchakda turgan bo'sh stolni egalladi. Stol tomon odimlar ekan Fred, Jorj va Li Jordan bilan o'tirgan Ronni ko'rdi. Borib boshiga bir tushirmoqchi bo'ldi-yu, o'zini tiydi.

Daqiqa o'tmay yetib kelgan Germiona hech kimga bildirmay huzur-lazzat ichimligini plash ostiga uzatdi.

– Ana endi yakkamoxovga o'xshab o'tiraman, – yana e'tiroz bildirdi qiz. – Xayriyatki qiladigan ishim bor.

Germiona SASSIQ jamiyatiga a'zo bo'lganlar ro'yxatini yuritib boradigan yon daftarchasini chiqardi. Qisqagina ro'yxat boshida Garri bilan Ronning ismi ko'rindi. Ron bilan birga sohibkaromatlik uydirmalarini o'ylab topish qobiliyatini ishga

bolib o'tirgan paytda Germiona kelib o'zi ta'sis etgan ushbu jamiyatning kotiblik va g'aznachilik lavozimlarini ikkalasiga taklif qilgan kundan buyon ming yil o'tganday bo'ldi go'yo.

– Qishloq aholisidan birortasi SASSIQ jamiyatiga a'zo bo'lishiga urinib ko'rishim kerak, – purma'no fikr bildirgan bo'ldi Germiona, qahvaxona mijozlarini ko'zdan kechirib.

– Ha, albatta, ular yugurib kelib, ro'yxatdan o'tib qo'yishadi, – istehzoli qildi Garri, huzur-lazzat ichimligidan xo'plab. – Germiona, qachon bas qilasan SASSIQ gapingni, a?

– Uy elflariga munosib ish haqi tayinlanib, mehnat sharoitlari talab darajasiga keltirilganidan so'ng! – vishilladi Germiona. – O'ylashimcha, yanada qat'iy xatti-harakatlar vaqti yetdi. Qiziq, maktab oshxonasiga qanday kirilar ekan, a?

– Tasavvur ham qila olmayman. Fred bilan Jorjdan so'rab ko'r, ular aniq bilishadi.

Germiona chuqur o'yga toldi, Garri esa huzur-lazzat ichib, qahvaxonadagi xaloyiqqa nazar soldi. Hamma quvnoq, betashvish... Qo'shni stolda o'tirgan Erni Makmillan bilan Xanna Abbot shokobaqa dastasi ichidan chiqqan mashhur sehrgarlar suratini o'zaro almashib o'tirishibdi. Ikkalasi *«Xogvars»ning haqiqiy chempionlikka da'vogari – Sedrik Diggorini qo'llab-quvvatlang!* ko'krak nishonini ridosiga qadab olgan. Chiqish eshigi yaqinida Chu o'zining ravenklochi do'stlari davrasida o'tiribdi. Qizning kiyimida anavi ko'krak nishonini ko'rmagan Garri xursand bo'ldi.

Nega endi Garri fikr-xayolini uyga berilgan vazifalar ijrosidan tashqari, boshqa hech qanday tashvish egallamagan, mana shu yerda vaqtni xushchaqchaq o'tkazib, allanima haqida vaysab o'tirgan beg'am bolalardan biri emas, a? Agar Olov kuboki uni chempionlikka da'vogar sifatida saralab olmaganda hozir o'zini qanday his etgan bo'lishini tasavvur qilib ko'rdi. Avvalambor u, mana bu plashsiz, Ron bilan birga ochiq-oydin o'tirgan bo'lar edi. Seshanba kuni chempionlikka da'vogarlarni qanday dahshat va mashaqqatlar kutayotganini uchovlon shodmon kayfiyat-la muhokama qilib, maroqli tomoshani kutgan, uddalash talab qilingan topshiriqni chempionlikka da'vo-

garlar eplay olish-olmasligini o‘z ko‘zi bilan ko‘rishga oshiqqan, namoyishgohning xavfsiz joyida o‘tirib, Sedrikka dalda bergan bo‘lar edi. Eh, nimasini aytasiz!...

Boshqa da’vogarlar hozir o‘zini qanday his etayotgani Garriga qiziq tuyuldi. Sedrik so‘nggi vaqtda faqat muxlis va muxlisalar davrasida yuribdi. Qiyofasidan biroz cho‘chigan ko‘rinsa-da, kayfiyati quvnoq. Dimog‘dor va betashvish Flyor Delakyor ba’zan qasr yo‘laklarida ko‘rinish berib qoladi. Krum esa kutubxonadan chiqmaydi.

Siriusni eslagan Garri ko‘krakragini siqayotgan allaqanday tugun sal bo‘shaganini his etdi. Yanv o‘n ikki soatdan so‘ng ikkalasi yuzma-yuz ko‘rishib, suhbatlashadi. Chunki bugun tunda ikkalasi kamin yonida uchrashadi, so‘nggi vaqtda an’ana tusiga kirgan biror bir kutilmagan kor-hol yuz bermasa, albatta...

– Qara, Xagrid ham shu yerda ekan! – xitob qildi Germiona.

Xaloyiq uzra baroq boshning orqa tomoni ko‘rindi. Xayriyat Xagrid sochini o‘ziga yarashmaydigan ot dumi shaklida turmaklamay qo‘yibdi. Nega Xagridni shuncha vaqtdan buyon ko‘rmaganidan hayron bo‘lgan Garri o‘midan turib sababini angladi. Professor Xmuri bilan suhbatlashib o‘tirgan davangir ancha engashib olgan ekan. Xagridning oldida odatdagiday chelak-krujka turibdi. Xmuri o‘z suvdonidan allanima ichyapti. Xmuri qahvaxonaning milledmeadini[1] pisand qilmagani uchun bo‘lsa kerak, ushbu muassasa sohibasi – qaddi-qomati kelishgan, chehrasi chiroyli Rosmerta xonimga uning xulqi yoqmayotgan ko‘rinadi. Bo‘shagan krujkalarni yig‘ib borayotgan ayol Xmuriga dam-badam savol nazari ila qarab o‘tmoqda. Ammo gap nimada ekanini Garri yaxshi biladi. Yovuz kuchdan himoya fanidan o‘tgan so‘nggi darsda professor Xmuri o‘zi tayyorlagan taomlar-u ichimliklarni afzal ko‘rishini ta’kidlab o‘tgan edi. Chunki qarovsiz qolgan yegulikni zaharlash yovuz sehrgar uchun muammo emas ekan.

Ikkalasini kuzatib o‘tirgan Garri professor Xmuri bilan

[1] **Milledmead** (*inglizcha: **milled of mead***) – G‘arbiy Yevropa afsonalarida aytilishicha, asalga limon, olma sharbati va zanjabil suvi qo‘shib tayyorlanadigan konyak.

Xagrid o‘rnidan turib, qahvaxonani tark etishga taraddud-langanini ko‘rdi. Bola do‘stiga qo‘l siltadi-yu, Xagrid uni ko‘r-mayotgani esiga tushdi. Biroq Xmuri Garri o‘tirgan burchakka qaragancha, biroz ushlanib qoldi. Qo‘li davangirning yelkasiga yetmasligi bois beliga turtib, allanima dedi. Shundan so‘ng ikkalasi butun qahvaxonani kesib o‘tgancha, to‘ppa-to‘g‘ri Garri bilan Germiona o‘tirgan stol tomon yo‘l oldi.

– Ishlar joyidami, Germiona? – baland so‘radi Xagrid.

– Salom, – dedi Germiona javoban.

Xmuri kalovlangancha stolni aylanib o‘tib, engashdi. Professor SASSIQ jamiyatiga oid yozuvlar bilan tanishib chiqmoqchi, shekilli, o‘yladi Garri.

– Chiroyli plash ekan, Potter.

Garri professorga tahayyur baqrayib qoldi. Xmurini bun-chalik yaqin masofadan endi ko‘rayotgan Garri chindan ham irshayib qarayotgan professorning burnida bir bo‘lak et yetish-masligiga ishonch hosil qildi.

– Sizning ko‘zingiz?... Ya’ni siz?...

– Ha, ko‘rinmas plashga o‘ranib olganlarni ham ko‘raman, - xotirjam javob berdi Xmuri. – Ba’zan bu juda asqatadi, ishonaver.

Xagrid ham Garri tomon qarar ekan, yuzi yashnab ketdi. U Garrini ko‘rmayotgani aniq, lekin bola shu yerda o‘tirganini Xmuri aytgan ko‘rinadi. Xagrid ham yon daftarchani o‘qigan bo‘lib egildi-da, faqat Garri eshitadigan past ovozda pichirladi:

– Garri, bugun yarim tunda plashingni kiyib kulbamga kel, gap bor.

Shundan so‘ng Xagrid qaddini rostlab, Germionaga murojaat qildi:

– Ko‘rishganimdan xursandman, Germiona.

Ko‘z qisib qo‘ygan davangir chiqish eshigi tomon odimla-di. Xmuri uning ortidan yo‘l oldi.

– Nega endi yarim tunda kulbaga borishim kerak? – g‘udulladi Garri boshi qotib.

– Senga shunday dedimi? – hayron bo‘ldi Germiona. – Yana nmani boshlamoqchi ekan? Bilmadim Garri, borishing kerakmi-

yo‘qmi, hayronman... Sirius bilan uchrashuvga ulgur-may qolishing mumkin, – ogohlantirgan bo‘lib pichirladi qiz, atrofga asabiy holatda qarab chiqib.

Chindan ham tungi o‘n ikkidagi safarni Sirius bilan soat birda o‘tadigan uchrashuv bilan bog‘lash qiyin kechishi mumkin. Germiona Xedvigni davangirning kulbasiga yo‘llab, boyqush rozi bo‘lsa, albatta, bugun tunda kela olmasligini yozib yuborishni taklif qildi. Ammo Garri dastlab Xagridning niyatini bilish kerakligini aytdi. Chunki u ilgari Garriga tungi vaqtda kulbaga kelishni tayinlamagan.

***

Erta yotib uxlash istagini bildirgan Garri kechasi soat o‘n bir yarimda ko‘rinmas plashini kiyib, umumiy mehmonxonaga asta tushdi. Mehmonxonada odam ko‘p hali. Aka-uka Krivilar qayerdandir bir dasta *«Xogvars»ning haqiqiy chempionlikka da'vogari – Sedrik Diggorini qo'llab-quvvatlang!* ko‘krak nishonini topib kelib, qaytadan sehrlash va «*Sedrik Diggorini*» so‘zlarini «*Garri Potterni*» so‘zlariga almashtirishga urinish bilan ovora. Biroq hozircha ularning ishlari nishondagi yozuv endi almashmay qolib, *Potter – badbo‘y* so‘zlari qotib qolishi bilan yakun topgan. Garri ularni chetlab o‘tib, chiqish tuynugi oldida soatga qaradi. Oldindan kelishib olingan rejaga muvofiq Germiona «Semiz Xola»ning portretini tashqaridan ochdi. Qizning yonidan o‘tgan Garri «Rahmat!» deya pichirlagancha, zim-ziyo qasr bo‘ylab nari ketdi.

Maktab hovlisi ham juda qorong‘i. Garri qiyalik bo‘ylab kulba chirog‘i tomon yo‘l oldi. Belstekchilarning aravasi ham ichkaridan yoritilgan. Maksim xonimning fransuz tilida allanima deyotgani aniq eshitilib turibdi.

– Senmi, Garri? – pichirladi Xagrid, Garri kulba eshigini taqillatgach.

– Men.

Garri ichkariga kirib, plashini yechdi.

– Tinchlikmi Xagrid, nega chaqirding?

– Bir narsani ko‘rsatib qo‘ymoqchiman senga.

Yoqasiga artishokka[1] o'xshash haddan ortiq katta gul qadab olgan davangir qattiq hayajonlangan. Boshiga g'ildirak moyini surmabdi-yu, sochiga taroqning singan tishi ilashib qolganiga qaraganda, taranib olishga uringani bilinib turibdi.

– Yana nimani ko'rsatmoqchisan, Xagrid? – so'radi Garri, toliqqan ohangda. – Drakllaring tuxum tug'ib berdimi yoki mayxonada ichib o'tirib, navbatdagi uch kallali itvachcha xarid qildingmi?

– Ortimdan yur. Faqat nima qilganda ham plashni yechma, ovoz chiqarma, tushundingmi? – tayinladi Xagrid. – So'yloqtishni olmaymiz, unga yoqmaydi...

– Quloq sol Xagrid, men uzoq qola olmayman... Soat birga qolmay qasrga qaytishim kerak...

Lekin kulbaning eshigini ochib, qorong'ilikka kirib ketgan Xagrid quloq solmadi. Garri uning izidan ergashib, belstek-chilar aravasi tomon yo'l olishganidan hayron bo'ldi.

– Xagrid, nima?...

– SH-sh-sh!

Xagrid kesishgan sehrli tayoqchalar tasvirlangan eshikni uch marta taqillatdi.

Eshikni yirik yelkalariga shoyi ro'mol tashlab olgan Maksim xonim ochdi.

– Ax, Xagg'id... Vaqt bo'ldimi? – dedi davangirni ko'rib yuzi tabassumdan yashnab ketgan ayol.

– Bon-suar, – ko'rishdi o'zini cheksiz baxtiyor his etayotgan Xagrid, tilla zinadan pastga tushishga yordam berish uchun yirik qo'lini xonimga uzatib.

Maksim xonim arava eshigini yopgach, Xagrid odob-nazokat ila qo'l uzatdi. Ikkalasi belstekchilarning qanotli otlari uchun naridan-beri tayyorlangan qo'ton panjarasi bo'ylab noma'lum tomon yo'l oldi. Bir juft davangirga yetishib yurish uchun bolaga yugurib yurishga to'g'ri keldi. Nahotki Xagrid Garriga Maksim xonimni ko'rsatmoqchi bo'lgan? Garri ushbu ayolni ko'p ko'rgan, yana ko'rishi mumkin, qolaversa, ko'rishni

[1] **Artishok** – o'tsimon poliz o'simligi.

xohlamaganida ham bunday katta ayolni ko'rmaslikning iloji yo'q.

– Qayoqqa o'g'ig'lab ketyapsiz meni, Xagg'id?

Maksim xonimning ishva ila bergan ushbu savoliga qaraganda, ayol ham Garri kabi qiziq tomoshaga taklif qilingan.

– Sizga yoqadi, – xirilladi Xagrid. – Chin so'zim, tomosha qilishga arziydi. Faqat o'tinaman... Sizga ko'rsatganimni hech kimga aytmang, xo'pmi? Aslida sizga bunday ma'lumotdan xabar topish mumkin emas.

– Hech kimga chug'q etmayman, – va'da berdi Maksim xonim, uzun kiprigini pirpiratib.

Ular ancha yurishdi. Ikkalasining ketidan yugurgancha ergashib kelayotgan Garri asabiylashib, soatiga qarab-qarab bordi. Aftidan, Xagrid qandaydir tuturiqsiz, biron-bir bema'nilikni o'ylab topgan ko'rinadi. Lekin uning dastidan Garri uchrashuvga kechikishi mumkin. Agar kerakli joyga yana ikki daqiqa ichida yetib borishmas ekan, u shartta buriladi-da, qasrga qaytadi. Xagrid esa oydin kechada Maksim xonim bilan sayr qilaversin.

Uchalasi «Taqiqlangan o'rmon» chetidan borib, shu qadar uzoqlashib ketdiki, endi qasr ham ko'l ham ko'rinmayapti. Bir payt tepalikdan qandaydir qichqiriqlar va sal o'tib... quloqni kar qilib yuborguday darajada yangragan na'ra eshitildi.

Nihoyat yosh daraxtlarni chetlab o'tayotgan Xagrid bilan Maksim xonim to'xtab, Garri ikkalasiga tez yetib oldi. Dastlab u gulxanni va gulxan atrofida yugurib yurgan bir gala erkakni ko'rdi. Durustroq razm solgan, iyagi osilib qoldi.

Ajdarlar. Balog'at yoshiga yetgan nihoyatda yirik to'rtta badjahl ajdar dahshatli pishqirgancha, qalin taxta to'sgan qo'ton ichida orqa oyoqda o'tiribdi. To'rtalasi bo'ynini ellik fut yuqoriga cho'zgancha, so'yloq tishga to'la og'zini katta ochib, qop-qora osmonga qarata olov uchqunini purkamoqda. O'tkir shoxi uzun, kulrang-moviy tusli ajdar atrofda ivirsiyotgan sehrgarlar tomonidan ustiga tashlangan zanjirdan xalos bo'lishga urinib na'ra tortmoqda. Maxluqlardan yana biri yashil, silliq-tangachali bo'lib, jon-jahd ila bilanglab, to'lg'anmoqda. Pag'a-pag'a

qo‘ziqorinsimon olov purkayotgan uchinchi ajdar qip-qizil bo‘lib, basharasini tumshuq atrofida o‘sgan o‘tkir tilla rang ignalar burma qilib yuborgan. Garriga yaqinroq turgan yirik, qop-qora to‘rtinchi maxluq esa hammasidan katta bo‘lib, nimasi bilandir yasherga[1] o‘xshamoqda.

Har bir ajdar atrofiga yetti-sakkiz kishidan bo‘linib olgan kamida o‘ttiz nafar sehrgar maxluqlarni bo‘yni va oyog‘iga bog‘langan enli charm kamarlarga ulangan zanjirni tortib, bo‘y-sundirishga urinmoqda. Ushbu manzaradan hang-mang bo‘lib, bo‘yin cho‘zgan Garrining nigohi xirildoq uvlayotgan qora ajdar nigohi bilan uchrashdi. Qo‘rquvdanmi, g‘azabdanmi, aytish qiyin-u, qorachig‘i mushuk ko‘zining qorachig‘iga o‘x-shaydigan ushbu ko‘z kosasidan chiqib ketar holatga kelib qolgan.

– Yaqin kelma, Xagrid! – qichqirdi qo‘ton panjarasi yonida turgan sehrgarlardan biri, zanjirni kuchi boricha tortib. – Ular yigirma fut masofaga olov purkaydi! Manavi tikanak dumlisi esa olovini qirq futga yetkazganini ko‘rdim!

– Naqadar chiroyli jonivorlar, shunday emasmi? – mulo-yim ovoz-la g‘urullab qo‘ydi Xagrid.

– Chiroy ularni xavfsiz qilib qo‘ymaydi! – qichqirdi boshqa sehrgar. – Urib yiqitish qarg‘ishi, uchgacha sanayman, tezroq!

Ajdar hurkituvchilarning bari sehrli tayoqchalarini chiqa-rishdi.

– STUPEFAY! – baralla o‘kirdi ular.

Urib yiqitish qarg‘ishining qorong‘ilikka olov raketalari kabi uchgan yashinlari ajdarlarning silliq tangachali terisiga urilib, yulduzlar favvorasiga aylangancha, parchalanib ketdi.

Og‘zini katta ochib tahdid solayotgan yaqinroqdagi maxluq orqa oyog‘ida turib bir qadam oldinga odimladi-yu, kutilma-ganda bo‘g‘iq o‘kirib, burun katagidan chiqayotgan olov, garchi tutun burqishi to‘xtamagan bo‘lsa-da, o‘chdi. Ajdar asta-sekin yerga ag‘darildi. Vazni bir necha tonna keladigan tana yerga

[1] Yasher – asosan Afrika va Janubiy Osiyoda yashaydigan kaltakesakka o‘xshagan yirik sutemizuvchi hayvon.

chunonam urildiki, Garrining orqa tomonidagi yirik daraxt tanalari zir titradi.

Ajdar hurkituvchilar sehrli tayoqchalarini tushirib, harakatsiz yotgan, har biri kichik tog'day keladigan maxluqlarga yaqin borishdi. Ular zanjirlarni epchillik bilan tarang tortib, sehrli tayoqchalar vositasida yerga chuqur kiritilgan temir qoziqlarga ishonchli qadab qo'yishdi.

– Yaqinroq borishni istaysizmi? – zavq-la taklif qildi Xagrid Maksim xonimga.

Ikkalasi panjaraga yaqinroq bordi. Garri ularning ortidan ergashib bormoqda. Boya yaqin kelmaslikni talab qilib, endi esa suhbatlashish uchun Xagridga yuzlangan sehrgar Ronning akasi Charli Uesli ekan.

– Ishlar qalay, Xagrid? – hansiradi Charli. – Endi jim bo'lishadi. Bu yerga yetkazib keltirish uchun Uyqu damlama-sini ichirgan edik ularga. Sukunat va qorong'ilikda uyg'onishsa, tinch turishadi, degan xayolga borgan edik. Chuchvarani xomroq sanabmiz. Bu yer ularga yoqmadi... umuman yoqmadi...

– Qanaqangi ajdar zotlari bular, Charli? – so'radi Xagrid, izzat-ikromga to'lib-toshgan nigohini yaqinroq yotgan qora ajdardan uzmay.

Maxluqning ko'zi ochiq qolgan. Ajin bosgan qovog'i ostida sariq tusli chiziq ko'rinyapti.

– Mana bunisi tikanak dumli venger ajdari, – tanishtira ketdi Charli. – Anavi yashili oddiy uelva ajdari, kulrang-moviy tuslisi to'mtoq tumshuqli shved ajdari, qizili esa olov sharini purkaydigan xitoy ajdari.

Charli panjara bo'ylab yurib, harakatsiz yotgan ajdarlarni tomosha qilgani ketgan Maksim xonimga qarab qo'ydi.

– Uni ham boshlab kelishingdan bexabar edim, Xagrid, – qovoq soldi Charli. – Chempionlikka da'vogarlar nimaga duch kelishini umuman bilishmasligi kerak. Axir, u o'z o'quvchilariga aytishi turgan gap-u.

– Men shunchaki... ajdarlar ayolga yoqadi degan xayolga bordim, – yelka qisdi Xagrid, ko'zini ajdardan uzmay.

– Darhaqiqat, naqadar ajoyib romantik uchrashuv, – bosh

chayqadi Charli.

– To‘rtta-ya... – xitob qildi Xagrid. – Demak, da’vogarlarning har biriga bittadan ekan-da? Nima qilishlari kerak ular? Jang qilishlari kerakmi?

– Jang qilib, yengishni-yu, ularning hech qaysi biri eplay olmasligi turgan gap. Yonidan o‘tib biror ish qilishlari kerak bo‘ladi, shekilli. Biz ajdarga yaqin joyda turamiz. Biror kor-hol bo‘ladigan bo‘lsa, O‘chirish afsunini qo‘llaymiz. Sababini bilmadim-u, negadir, aynan endigina tuxum qo‘ygan urg‘ochilarga buyurtma berilgan... Lekin aniq aytishim mumkinki, tikanak dumlisiga ro‘baru bo‘ladigan chempionlikka da’vogarga hech havas qilmayman. O‘lguday darg‘azab. Chunki, uning og‘iz tomoni ham dum tomoni ham bir xilda xavfli. Bu yoqqa yur, o‘zing ko‘rasan.

Ajdar dumining har bir necha dyumidan bronza tusli uzun zirh tikanaklar o‘sib chiqqan.

Shu payt tikanak dumli ajdar yoniga Charlining besh nafar hamkasbi keldi. Ular adyolga terilgan kulrang-granit tusli yirik tuxumlarni ko‘tarib kelib, ajdar yoniga qo‘yishdi. Xagrid ingrab yubordi.

– Tuxumlar sanoqli, Xagrid, – qat’iy ohangda ogohlantirdi Charli. – Garrining ishlari qalay?

– Joyida, – javob berdi xayoli parishon Xagrid, tuxumga baqrayib.

– Mana bu otashqalb do‘stlarimizdan biri bilan o‘tgan uchrashuvidan so‘ng ham ishlari joyidaligicha qoladi degan umiddaman, – dedi Charli ma’yus ohangda. – Bolani qanday sinov kutayotganini oyimga ayta olmadim, tilim aylanmadi. U shundoq ham Garrini o‘ylab, aqldan ozish darajasiga yetib qolgan.

Charli oyisining gapini tashvishga toshgan ovoziga taqlid qilib, takrorladi:

– «*Qanday jur’at etishdi! Axir, u hali yosh bola-yu! Nega bellashuvda ishtirok etishga ijozat berishadi! Yosh bo‘yicha cheklanishlar joriy etilib, endi ularga hech qanday xavf tahdid solmaydi, deb xotirjam yurgan ekanman!*». Shundan so‘ng

«Bashorat-u karomat gazetasi»da chop etilgan anavi maqolani o‘qib: «*Bechora bola! U haligacha ota-onasini qo‘msab yig‘lar ekan-a, bilganimda!...*», deb rosa ho‘ngradi.

Ko‘rganidan qanoatlangan Garri turgan joyida burildi-da, to‘rtta ajdar va Maksim xonimning jazb qiladigan kuchi ta’sirida qolgan Xagridning zerikmasligiga komil ishonch bildi-rib, qasr tomon yo‘l oldi.

Bo‘lg‘usi sinov haqida xabar topganidan xursandmi yo‘q-mi, Garri hali tushunib yetgani yo‘q. Shunisi ham yaxshi. Har qalay, dastlabki hayajon o‘tdi. Agar ajdarlarni birinchi marta seshanba kuni ko‘rganida, ehtimol, jamiki maktabning ko‘z o‘ngida hushidan ketgan bo‘larmidi. Shunday bo‘lsa ham bari bir qulab tushsa kerak. Kattaligi ellik fut keladigan, a’zoyi-badanini zirh qoplagan, tikanak dumli otashnafas ajdarga qarshi sehrli tayoqchasidan tashqari qo‘yadigan yana nimasi bor? Zotan, sehrli tayoqcha o‘zi nima? Ingichkagina novdadan o‘zga narsa emas... Har qalay, hozir shunday tuyulyapti... Shu tayoq-cha bilan hammaning ko‘z o‘ngida anavi maxluqning yonidan o‘tish kerak. Qanday qilib?

Garri qadamini tezlatdi. Qasrga yetib, Sirius bilan uchra-shish uchun ixtiyorida atigi o‘n besh daqiqa qolgan. Hozir u chindan ham biror kishi bilan gaplashishga ehtiyoj sezmoqda. Garri kutilmaganda nimagadir urilib ketib, beliga yiqildi. Ko‘zoynagi yon tomon surilib ketgan bola plash bilan yaxshilab o‘ranib olar ekan birovning:

– Hoy! Kim bu? – deganini eshitdi

Garri plashning ochilib ketmaganini tez tekshirdi-da, yuqoriga, urilib ketgan sehrgarning qora sharpasiga qaradi. Tanish soqol... Karkarov!

– Kim bor bu yerda? – savolini qaytardi Karkarov, atrofga alanglab.

Qimirlamay yotgan Garri churq etmadi. Bir daqiqacha o‘tgach Karkarov, aftidan, biror-bir jonivorga urilib ketdim, degan xayolga bordi, chamasi, itga o‘xshash hayvon ko‘rish ilinjida, atrofni beli barobar balandlikda ko‘zdan kechirib chiq-di. Shundan so‘ng daraxt tanalariga yaqin borib ajdarlar tomon

asta yo‘l oldi.

Ehtiyotlik bilan oyoqqa turgan Garri ortiqcha shovqin solmay, qasr tomon yugurdi.

Karkârovning tungi sayri borasida Garrining hech qanday shubhasi yo‘q. Tabiiyki, u, o‘z kemasidan pinhona tushib, birinchi sinovga doir biron-bir ma’lumot qidirib chiqqan. Ehtimol, Xagrid bilan Maksim xonimning o‘rmonga kirib ketganini ham ko‘rgandir. Ikkala davangirni uzoqdan bo‘lsa ham ko‘rmaslikning iloji yo‘q. Endi u ham Maksim xonim kabi chempionlikka da’vogarlarni qanday sinov kutayotganidan xabar topadi. Majhullik bilan rostakamiga yuzma-yuz keladigan faqat Sedrik qoladi.

Garri qasrga yetib, asosiy eshikdan kirdi-da, hashamatli marmar zinadan ko‘tarildi. Kamin yonidagi uchrashuvga besh daqiqa qolgani bois hansirab qolganiga qaramay qadamini sekinlatmadi.

– Bema’ni gap! – nafas chiqardi u, mizg‘ib o‘tirgan «Semiz Xola»ning yuziga.

– Nima desang, shu-da, – dedi uyqusiragan portret, yuqoriga ko‘tarilib.

Garri tuynukdan ichkariga kirdi. Umumiy mehmonxonada hech kim yo‘q. Xona havosi o‘zgarmaganiga qaraganda, Garri yolg‘iz qolib Sirius bilan uchrashishi uchun Germionaga go‘ng bombasini portlatishga to‘g‘ri kelmagan.

Garri egnidagi ko‘rinmas plashni yechib, o‘zini kamin yonidagi kreslolardan biriga tashladi. Xona g‘ira-shira yoritilgan. Kamin olovining qisqa tillari yagona yorug‘lik manbai bo‘lib qolgan. Yonidagi stol ustida aka-uka Krivilar kuymalangan bir dasta «*«Xogvars»ning haqiqiy chempionlikka da’vogari – Sedrik Diggorini qo‘llab-quvvatlang!*» ko‘krak nishon-lari sochilib yotibdi. Faqat endi nishonlarda «*Potter – juda badbo‘y*» so‘zlari yarqiramoqda. Nigohini kamin oloviga olib o‘tgan Garri qo‘rqib ketganidan o‘tirgan o‘rnida bir sapchib tushdi.

Cho‘g‘da Siriusning boshi turibdi. Agar Garri muqaddam Ueslilar Boshpanasining oshxonasidagi kaminda mister Diggorining xuddi shu holatda paydo bo‘lgan boshini ko‘rmaganida,

hozir dahshatdan siyib qo'yishi muqarrar edi. Hushini yig'ib olgan Garri ko'pdan buyon birinchi bor kulib, kreslodan tushdida, polga chordana qurib o'tirdi.

– Salom, Sirius... ishlar qalay?

Siriusning hozirgi qiyofasi Garrining xotirasidagi qiyofa bilan solishtiriladigan bo'lsa, tamoman boshqacha ko'rinmoqda. Ular xayrlashgan kuni Siriusning eti suyagiga yopishgan oriq yuzini kir qora sochi chigal yoldek to'sgan edi. Hozir esa yuvib tozalangan sochi qisqartirilgan, yuzi to'lishib, biroz qon yugurgan holatda ko'rinmoqda. Ancha yosharib, to'y kuni olingan o'sha fotosuratdagi tasviriga o'xshab qolibdi.

– Men-u, mayli... amallayapman. Sen-chi, sening ishlaring qalay? – so'radi Sirius jiddiy ohangda.

– Mening ishlarim...

Garri «joyida» demoqchi bo'ldi-yu, tili aylanmadi. Ancha vaqtdan buyon bunchalik ko'p gapirmagan bola o'zini to'xtata olmadi. U ichidagi bor dardini dasturxon qilib, to'kib-sochdi. Bellashuvda ishtirok etish uchun ariza bermaganiga hech kim ishonmayotgani, Rita Vriterning uydirma-yu, bo'htonlarga to'lib-toshgan maqolasi, yurgan yo'lida tahqirli so'z eshitayotgani va eng asosiysi, Ron unga ishonmay, hasad qilayotgani haqida aytib berdi...

– ... hozir esa Xagrid birinchi musobaqada nima bo'lishini ko'rsatdi... Sirius, ishonasanmi, ajdarlar! Tamom bo'ldim! – hikoyasini tarki dunyo kayfiyatida yakunladi bola.

Siriusning Azkabanda shakllangan nursiz, jonsiz nigohi mutlaq o'zgargan bo'lib, hozir tashvishga to'lgan ko'zini bolaga tikib turibdi. U Garrining gapini bo'lmay, oxirigacha quloq soldi.

– Garri, ajdar muammo emas, uni bir yoqlik qilamiz. Faqat bu haqda sal o'tib gaplashamiz... Kamindan foydalanish uchun bir sehrgarning xonadoniga o'g'rincha kirib olganman. Lekin uy egalari har qanday fursatda kelib qolishlari mumkin. Seni ba'zi narsalar haqida xabardor qilib qo'yishim kerak.

– Nimalar haqida?

Garrining kayfiyati yanada cho'kdi. Kuydirib, pishirib, yamlamay yutadigan ajdardan battar yana nima bo'lishi

mumkin?

– Karkarov haqida, – dedi Sirius. – Garri, u bir vaqtlar O'limdan miriquvchi bo'lgan. O'limdan miriquvchilar kimligini bilasan, to'g'rimi?

– Bilaman... U?...

– U qo'lga olinib Azkabanga qamalgan va men bilan birga o'tirgan. Biroq ko'p o'tmay chiqarib yuborilgan. Xohlagan narsangni o'rtaga qo'yib bas bog'lashim mumkinki, Dambldorga aynan Karkarov tufayli bu yil maktabda avror bo'lishi kerak bo'lgan. Chunki Karkarov, aynan Xmurining sa'y-harakati ila qo'lga olinib, Azkabanga qamalgan edi.

– Karkarov ozodlikka chiqarilgan? – asta so'radi Garri. – Nima sababdan?

Bolaning miyasi ruhiy larzaning navbatdagi porsiyasini qabul qilishni istamayapti.

– Karkarov Sehrgarlik vazirligi bilan bitimga kelgan, – alam-la javob berdi Sirius. – U go'yo o'z xatolarini tushunib, aybiga iqror bo'lgan va sheriklarining ko'pini aytib bergan... Uning dastidan ko'pchilik qamalib ketdi... Ta'kidlab o'tishim kerakki, bu ishi uning obro'yiga obro' qo'shmadi. Ozodlikka chiqqach, eshitishimga qaraganda, o'quvchilarini yovuz kuchlar sehriga o'rgata boshladi. Shunday ekan, durmshtrangchi da'vogardan ham ogoh bo'l.

– Tushundim, – o'ychan javob berdi Garri. – Demak... fikringcha, mening nomimdan yozilgan arizani Olov kubokiga Karkarov tashlagan, shundaymi? Agar haqiqatan ham bu ishni Karkarov qilgan bo'lsa, u durustgina aktyor ekan. Chunki u, o'sha kuni o'zini juda darg'azab tutdi. Mening ishtirokim man etilishini talab qilib turib oldi.

– Modomiki, Sehrgarlik vazirligi uni ozodlikka chiqarishiga erisha olgan ekan, demak, Karkarov chindan ham mohir aktyor, – ma'qulladi Sirius. – Bundan tashqari, Garri, men «Bashorat-u karomat gazetasi»ni ham o'qib boraman va...

– Yolg'iz sen emas, jamiki jahon o'qiydi uni, – ma'yus gap qistirdi Garri.

– ... va anavi xonim, Rita yozgan maqolaning zamiridagi

ma'noni to'g'ri anglagan bo'lsam, Xmuriga aynan «Xogvars»ga ishga kelish arafasida suiqasd uyushtirilgan. Bilaman, Vriterning gapiga qaraganda bu yana bir yolg'ondakam trevoga bo'lgan, – tez qo'shib qo'ydi Sirius, Garrining og'iz juftlaganini ko'rib. – Biroq men bunga ishonmayman. Fikrimcha, kimdir Xmurining «Xogvars»ga borishini istamagan. U maktabda bo'lar ekan, ko'zlangan niyat amalga oshishi qiyinlashishini, tergov tadbirlari bilan birov jiddiy shug'ullanmasligini kimdir tushunib yetgan. O'ynoqko'z tekis joyda g'udda qidirib yuri-shini hamma biladi. Biroq Xmurining bunday tabiati haqiqiy jinoyatchini farqlay olmaydigan bo'lib qolganini anglatmaydi. Sehrgarlik vazirligida Xmuriga bas keladigan avror hali bo'lmagan.

– Gapingga qaraganda, Karkarov meni o'ldirish payiga tushgan, shundaymi? Nima... maqsadda? – asta so'radi Garri.

Sirius biroz tutilib qoldi.

– Men har xil mish-mish gaplarni eshitdim, – dedi u biroz o'ylangach, – so'nggi vaqtda O'limdan miriquvchilarning faoliyati haddan ortiq jadallashib ketdi. O'zing o'ylab ko'r: jahon kubogida ular ochiqdan ochiq ko'rinish berishdi, qaysidir biri Ajal belgisini yaratdi... vazirlik xodimasi yo'qolib qoldi...

– Berta Jorkinsmi?

– Ha, o'sha. U Albaniyada yo'qolgan. Mish-mish gaplarga qaraganda esa Lord Voldemortning izi so'nggi bor aynan o'sha yerda ko'ringan... Berta shu yildan e'tiboran Uch sehrgar bellashuvi o'tkazila boshlanishini yaxshi bilgan, to'g'rimi?

– To'g'rilikka to'g'riku-ya, biroq u, tikka borib aynan Voldemortga duch kelganini ishonch-la aytish qiyin, – shubhalandi Garri.

– Quloq sol, bolakay, men Bertani juda yaxshi bilaman, – qat'iy ohangda javob berdi Sirius. – U men o'qigan zamonda o'qigan. Dadang ikkalamizdan besh-olti yosh katta edi, xolos. O'shanda ham g'irt ahmoq, tumshug'ini to'g'ri kelgan joyga tiqib, hamma narsaga qiziqib yuradigan, surishtiradigan, tagpurs, no'xatdek bo'lsin miyasi yo'q qiz bo'lgan. Bu juda dahshatli uyg'unlikdir, Garri. Aytmoqchimanki, bunday ayollar-ni tuzoqqa ilintirish hech gap emas.

– Demak... Voldemort bellashuv o'tkazilishidan xabar topgan? Fikringcha, Karkarov bu yerga uning topshirig'iga binoan kelgan, shundaymi?

– Bilmadim, – o'ylanib qoldi Sirius, – bir narsa deyish qiyin... Voldemort yetarlicha kuchga ega bo'lganiga ishonch hosil qilmay turib, unga yana tarafdor bo'ladiganlar, himoya qiladiganlar sirasiga kirmaydi u, nazarimda. Nima qilganda ham sening nomingdan yozilgan arizani Olov kubokiga tashlagan odam o'z ishini yaxshi bilgan. Bellashuvda ishtirok etishingni uyushtirgan tarzda senga suiqasd qilish va buni baxtsiz hodisa sifatida ko'rsatish ular uchun eng qulay usul degan fikrdan hech xalos bo'la olmayapman.

– Ishontirib aytamanki, ularning rejasi bequsur, – ma'yus tasdiqladi Garri. – Ajdar meni yaxshilab qovurib yamlamay yutishini bir chetda tomosha qilib turish qoladi, xolos, ularga.

– Ha, aytganday, endi ajdarlarga qaytamiz, – shoshib qoldi Sirius. – Ajdarga qarshi kurashishning yaxshigina bir yo'li bor, Garri. Urib yiqitish qarg'ishini qo'llashga urinma. Chunki, ajdar haddan ortiq kuchli va qudratli sehr kuchiga ega maxluqdir. Shunday ekan, Urib yiqituvchi vositasida yolg'iz o'zing udda-lay olmaysan uni. Chunki ajdarni urib yiqitish uchun kamida o'n ikki kishi kerak bo'ladi...

– Xabarim bor, hozirgina ko'rib keldim, – bosh irg'idi Garri.

– Agar men aytgan usulni qo'llasang, ajdarni tanho o'zing bir yoqlik qila olasan, – davom etdi Sirius. – Buning uchun senga oddiygina bir afsunni qo'llash kerak bo'ladi...

Lekin Garri qo'lini oldinga uzatib, Siriusga jim bo'lishni imo qildi. Qadam tovushi eshitilib, bolaning yuragi ko'krak qafasidan chiqib ketadigan darajada qattiq ura boshladi. Kimdir aylanma zinadan pastga tushib kelyapti.

– Ket! – pichirladi u Siriusga. – Kimdir kelyapti! Tezroq ket!

Garri o'rnidan irg'ib turib, tanasi bilan kaminni to'sdi. Agar birov Siriusni ko'rib qolsa, vahima ko'tarilib, vazirlik xodimlari yetib keladi. Qochoq jinoyatchining qayerga yashi-rinib olganini bilish uchun Garri so'roqqa tutiladi...

Garri orqasida «paq» etgan tovushni eshitib, Siriusning gumi bo‘lganiga ishonch hosil qildi. Tunda kim sayr qilmoqchi ekani, ajdarga qarshi kurash usulini oxirigacha eshitishga kim xalal berganini bilish uchun zina bo‘sag‘asiga qarab qoldi.

Guldor to‘q qizil pijama kiygan Ron ekan. Xonaning narigi tomonidagi Garrini ko‘rgan Ron oyog‘i yerga ko‘milganday tek qotib, atrofga qaradi.

– Kim bilan gaplashyapsan? – so‘radi u.

– Nima ishing bor? – dedi Garri qaysarligi tutib qolib. – O‘zing-chi, tun yarmida nima qilib yuribsan?

– Qo‘rqib ketdim, senga... – Ron o‘z gapini o‘zi bo‘ldi-da, yelka qisdi. – Hech narsa qilayotganim yo‘q. Uxlagani ketyapman.

– Balki, josuslik qilmoqchi bo‘lgandirsan? – o‘shqirdi Garri.

Ron xonada nima bo‘lganidan mutlaqo bexabar ekani, xalal berish uchun atayin tushmaganini Garri yaxshi bilib turibdi, lekin Rondan, uning boshidan tortib, to ishtonining pochasidan bir necha dyumga chiqib turgan oyog‘ining uchiga-cha nafratlanayotganini aniq biladi.

– Ma’zur ko‘rasan, seni bezovta qilish mumkin emasligi yodimdan chiqibdi, – dedi rangi g‘azabdan qizargan Ron. – Axir navbatdagi intervyuga hozirlik ko‘rishing uchun senga tinchlik kerak-ku, a?

Garri stol ustidagi «*Potter – juda badbo‘y*» so‘zlari bitilgan ko‘krak nishonlaridan birini oldi-da, Ronga qarata kuchi bori-cha uloqtirdi. Nishon Ronning peshanasiga urilib, nari sapchidi.

– Mana bu senga, seshanba kuni yoqangga taqib ol, – qilgan ishidan qanoatlanib nafas chiqardi Garri. – Agar omading yurishsa, peshanangda chandiq paydo bo‘lar... Axir sen shuni istaysan-u, to‘g‘rimi?

U mehmonxona bo‘ylab zina tomon yo‘l olar ekan Ron uni to‘xtatishi, basharasiga kelishtirib tushirishini kutdi. Biroq pijamasi tanasiga kichiklik qilayotgan Ron turgan joyida tek qoldi. Garri aylanma zinadan shiddat-la ko‘tarilib, yotoqxonaga kirdi-da, g‘azabdan uzoq vaqt qaynab yotdi. Lekin Ronning yotoqxonaga qaytganini eshitmadi.

XX BOB. BIRINCHI MUSOBAQA

Yakshanba kuni ertalab uyg'ongan Garri kiyinishga kirishdi-yu, ishni e'tiborsiz bajargani uchun oyog'ini paypoqqa emas, shlapaga suqayotganini darhol anglab yetmadi. Xatti-harakatlarini o'nglab olgach, kiyimini to'g'ri kiygancha Germionani qidirib, Katta Zalda, griffindorchilar dasturxonida Jinna bilan ovqatlanib o'tirgan joyida topdi. Ko'ngli behuzur bo'layotgan Garri hech narsa yemay, Germiona suli bo'tqaning oxirgi qoshig'ini og'ziga solishini kutib o'tirdi. Shundan so'ng do'stini ko'l sohilida o'tkaziladigan navbatdagi sayrga yetakladi. Ajdarlar haqida ham Sirius bilan o'tgan suhbatni ham o'sha yerda batafsil aytib berdi.

Karkarovning joiz niyatlari haqidagi xabar Germionani qattiq tashvishga solgan bo'lsa-da, hozir birinchi navbatda hal etilishi lozim bo'lgan muammo ajdarlar ekanini ta'kidlab o'tdi.

– Dastavval fikr-xayolimizni seshanba kuni kechqurun omon qolishing kerakligiga jamlaylik, – hayajon-la xitob qildi u. – Shundan so'nggina Karkarov masalasiga o'tsak bo'ladi.

Ular ajdarni tinchitishi mumkin bo'lgan oddiy afsun haqida o'ylab ko'l atrofini uch marta aylanib chiqishgan bo'lishsa-da, xayolga durustroq bir fikr kelmadi va noiloj kutubxona tomon yo'l olishdi. Garri ajdarshunoslikka oid kitoblarni topib kelib, stol ustida baland tax hosil qilgach, Germiona ikkalasi ishga kirishdi.

– Ajdar tirnog'ini olish afsuni... ajdar tanasidagi tangachalar irishini to'xtatish... bularning bari bizga emas, ajdar salomatligi yo'lida kuydi-pishdi qiladigan Xagridga o'xshash savdoyilarga kerak... – xulosa qildi Garri.

– *Ajdar zirhiga ibtidoiy va nihoyatda qudratli sehr kuchi singib ketgani bois, terisini faqat o'ta kuchli qarg'ishgina te-shib o'tadi...* Sirius esa «oddiygina afsun» dedi, – esladi Germiona..

– Unday bo'lsa, kel, oddiy tilsimlar darsliklarini varaqlab ko'raylik, – taklif kiritdi Garri, «Ajdarlarni haddan ortiq suygan kishilar» kitobini chetga tashlab.

U kitoblarning boshqa dastasini yig'ib kelib, bir chetdan varaqlay boshladi. Qulog'ining tagida esa Germiona o'ziga o'zi tinimsiz vaysamoqda:

– Aylantirish afsunlari ham bor albatta... lekin nima naf berishi mumkin ular? Tishini anjir saqichiga yoki birorta shunga o'xshash boshqa narsaga aylantirib qo'yish mumkin, shunda u nisbatan xavfsiz bo'lib qoladi, lekin hamma balo, anavi kitobda yozilishicha, ajdar zirhini uncha-buncha narsa teshib o'ta olmasligida-da... Yaxshisi ajdarning o'zini nimagadir aylantirib tashlash kerak, ammo... ajaling kelgur juda yirik-da... yo'q, bo'lmaydi... hatto professor Makgonagall ham eplay olmasa kerak... Agar kishining o'zi biron narsaga aylanib olishi ko'zda tutilmasa, a? Qo'shimcha sehr kuchiga ega bo'lish uchunmi? Afsuski, bunday narsalar oddiy afsunlar sirasiga kirmaydi-da. Biz ularni o'tmaganmiz. Men bularning barini MOSDning zaruriy saviyasiga ega bo'lish testlarini sinab ko'rganim uchungina biroz bilaman...

– Germiona, iltimos, ichingda mulohaza yurit, xo'pmi? Xayolimni jamlay olmayapman.

Qiz unini o'chirgani bilan foydasi bo'lmadi. Aksincha, miyasi bir maromda guvullagan Garri xayolini jamlay olmadi. U barmog'ini «Vaqt yo'q, biroq g'azabdan ensa qotyaptimi? Tez va samarali ishdan chiqarish» risolasining mundarijasi bo'ylab umidsiz yuritib o'tirdi: bosh terisini soch bilan birga bir zumda shilib olish... lekin ajdarning juni bo'lmaydi... achchiq nafas oldirish... bundan esa uning olov purkash qudrati battar oshadi... muguz til... uni qarang-a, yana nima? Qo'shimcha qurollantirishning o'zginasi-ku, bu...

– O, yo'q, shunisi yetmay turgan edi! Nahotki o'zining ahmoqona kemasida o'tirib o'qiy olmasa, a? – darg'azab vaysadi Germiona.

Kutubxonaga beso'naqay Krum kirib kelib, bolalar tomon noxush qarab qo'ydi-da, uzoq burchakka, oldiga bir dasta kitob qo'ygancha, yalpayib o'tirib oldi.

– Ketdik bu yerdan, Garri. Mehmonxonaga qaytamiz... hozir bu yerga uning muxlisalari kelib, chug'ur-chug'ur qila

boshlashadi...

Darhaqiqat, ikkalasi kutubxonani tark etishar ekan, yonlaridan xipcha bellariga bolgar sharfini o'rab olgan bir gala qiz oyoq uchida yurib o'tdi.

***

Tunni Garri deyarli uyqusiz o'tkazdi. Dushanba kuni ertalab turib «Xogvars»ni tashlab qochish haqida hayotida ilk bor jiddiy o'y surdi. Ammo nonushta qilib o'tirar ekan Katta Zaldagi hashamatga ma'yus qaragancha, qasrdan ketib qolsa qay ko'yga tushishini tasavvur qilib, uni hech qachon tark eta olmasligini idrok etdi. Axir, yer yuzida o'zini baxtiyor his etadigan yagona joy aynan shu dargoh-u... to'g'ri, ota-onasi bilan ham u o'zini juda yaxshi his etgan, biroq bola buni eslay olmaydi-da...

«Odamovilar» xiyoboniga qaytishdan ko'ra shu yerda qolib, ajdar bilan jang qilmoq afzal ekanini tushunib yetgani negadir Garriga dalda bo'ldi, hatto biroz tinchlantirdi ham. U so'nggi vaqtlarda o'z vazifasini durust bajarmayotgan tomog'idan bekonning qolgan bo'lagini bir iloj qilib o'tkazgach, Germiona bilan bir vaqtda o'rnidan turar ekan, «Xufflpuff» dasturxonini tark etayotgan Sedrikni ko'rib qoldi.

Agar Garrining shubhasi to'g'ri bo'lsa, Maksim xonim bilan Karkarov ajdarlar haqida Flyor bilan Krumga aytib bo'lgan. Demak, chempionlikka da'vogarlar orasida maxluq-lardan mutlaqo bexabar yagona Sedrik bo'lib qolmoqda...

Uzoqlashib ketayotgan Sedrikning qiyofasi Garriga kutilmaganda qat'iylik baxsh etdi.

– Germiona, issiqxonada uchrashamiz. Boraver, senga yetib olaman.

– Garri, darsga kechikasan, ha demay qo'ng'iroq zarbi yangraydi...

– *Yetib olaman dedim-u, xo'pmi?*

Garri vestibuldagi marmar zinaga yetgan paytda ancha yuqoriga ko'tarilgan Sedrikni bir to'da sinfdoshlari o'rab olibdi. Bola boshqalar oldida Sedrikka gapirmadi. Oltinchi sinf o'quvchilari orasida Garrini ko'rsa Rita Vriterning maqolasidan iqti-

bos keltirib o'tadigan bolalar ham bor. Ancha narida ergashib borgan Garri Sedrikning afsun o'qish fani xonasiga olib boradigan yo'lak tomon burilganini ko'rdi. Shunda uning miyasida bir g'oya tug'ildi. U to'xtab, yaxshilab nishonga oldi-da, pichirladi:

– Diffindo!

Sedrikning yuk xaltasi chok bo'ylab yorildi. Kitoblar, pergament o'rami, patqalamlar yerga to'kilib, siyohdoni sindi.

– Boravering, o'zib yig'ib olaman, – dedi ta'bi kir bo'lgan Sedrik, yordam berish uchun egilgan do'stlariga. – Flitvikka ayting, hozir kiraman...

Garriga esa aynan shu kerak. Bola tayoqchasini yashirib, Sedrikning o'rtoqlari ko'zdan g'oyib bo'lishini kutib turdi-da, Diggoridan boshqa hech kim qolmagan yo'lak bo'ylab tez odimladi.

– Salom, – dedi siyoh sachragan «Oliy darajadagi aylanish va aylantirish kursi»ni yerdan olayotgan Sedrik. – Tasavvur qilyapsanmi, xaltam yorilib ketdi... hali yap-yangi edi-ya...

– Sedrik. Birinchi sinov – ajdarlar! – ma'lum qildi Garri.

– Nima? – hayron bo'ldi Sedrik.

– Ajdarlar, – takrorladi Garri, professor Flitvikning chiqib qolishidan xavfsirab. – To'rtta ajdar. Har birimizga bittadan. Ularning yonidan o'tib, nimadir qilishimiz kerak bo'ladi.

Baqrayib qolgan Sedrikning kulrang ko'ziga qaragan Garri shanba kunidan buyon o'zi his etib yurgan vahimani uqdi.

– Ishonching komilmi? – xirillab so'radi Sedrik.

– Yuz foiz. O'z ko'zim bilan ko'rdim ularni.

– Qayerdan bilding? Axir, biz hech narsani bilmasligimiz kerak-ku...

– Buning ahamiyati yo'q, – gapni tez bo'ldi Garri, agar rost gapni aytadigan bo'lsa, Xagridni qanday noxushliklar kutishi haqida o'ylab. – Bundan faqat mengina boxabar emasman. Flyor ham, Krum ham biladi. Chunki Maksim xonim bilan Karkarov ham ajdarlarni ko'rishdi.

Taajjub ila shubha uyg'unlashgan nigohini hanuzgacha Garridan uzmagan, yelkasida yirtiq yuk xalta osilgancha, siyoh-

ga bulg'angan kitob, patqalam va pergament o'ramlarini quchib olgan Sedrik asta o'rnidan turdi.

– Nega endi bu sirni menga fosh etding?

Garri o'z qulog'iga o'zi ishonmadi. Agar ajdarlarni Sedrikning o'zi ko'rib, ma'lum qilganida, ular bilan yuzma-yuz kelishni hatto eng johil dushmanlariga ham ravo ko'rmaydigan Garri bunday savol bermagan bo'lar edi... Malfoy bilan Snegg istisno, albatta.

– Shunday qilsam... adolatdan bo'ladi, – javob berdi Garri. – Hamma bab-baravar bo'lsin deyman.

Garrining ortida tanish taraq-turuq eshitilgan paytda ham Sedrik shubhali nigohini Garridan uzmadi. Bola ortga o'girilib, qo'shni sinf xonasidan O'ynoqko'z Xmuri chiqib kelganini ko'rdi.

– Ortimdan yur, Potter, – gumburladi u. – Diggori, yo'lingdan qolma.

Ushbu holatdan biron-bir yaxshilik kutmagan Garri Xmuriga qarab qoldi. Qiziq, Sedrik ikkalasining suhbatini eshitdimikan?

– M-m-m... Professor... Men gerbologiya darsiga borishim kerak.

– Hech qisi yo'q, Potter. Borasan, o'sha gerbologiyangga. Qochib ketmaydi. Marhamat, xonamga...

Garri endi nima bo'lishini o'ylagancha, Xmurining ortidan ergashdi. Ajdarlar haqida so'rab qolsa-chi? Haqiqatdan xabar topgach, Dambldorning huzuriga Garri bilan Xagrid borasida chaqimchilik qilgani yuguradimi yoki sassiqko'zanga aylantirib qo'yadimi? Bir tomondan shunisi ham yaxshi, ma'yus xayol surdi Garri, sassiqko'zan kichkina bo'ladi, ajdarning yon-atrofida pildirab, nima qilsa, qilaveradi. Bo'yi ellik fut keladigan ajdar esa uni ko'rmaydi ham...

Ikkalasi xonaga kirishgach, Xmuri eshikni yopib, sog' ko'zi bilan ham sehrli ko'zi bilan ham Garriga qarab qoldi.

– Sen nihoyatda olijanob ish tutding, Potter, – dedi u xotirjam.

Bunday munosabat bildirilishini kutmagan Garri nima deb

javob qaytarishga hayron.

– O‘tir, – amr etdi o‘qituvchi.

Muqaddam kirib yurgan xonaga nazar solgan Garri o‘tirdi. Xonaning ikki sohibidan biri professor Charuald davrida o‘qituvchining g‘amza qilayotgan jiloli suratlari bilan to‘lib-toshgan xona devorida tangadek bo‘lsin, bo‘sh joy bo‘lmagan. Professor Lyupin zamonida bu xonada, dars davomida o‘quvchilarga ko‘rsatish maqsadida o‘zi topib, yig‘ib yurgan yovuz sehr vakillari: boggart, qizilqalpoq, fintiplyux, grindilou, kappa kabi turli-tuman qabohatlarni ko‘rish mumkin edi. Endi esa xona juda g‘alati buyumlar bilan jihozlangan. Aftidan, Xmuri bularni Sehrgarlik vazirligida avror bo‘lib ishlab yurgan kezlarida qo‘llab yurgan.

Yozuv stoli ustida darz ketgan kattagina shisha pildiroq turibdi. Ushbu buyumning sneakoskop[1] ekanini Garri darhol fahmladi. Bunday jihoz unda ham bor. Faqat Garrining sneakoskopi ancha kichkina. Burchakka o‘rnatilgan kichkina stol ustida esa past g‘uvullayotgan, nimasi bilandir haddan ortiq qayrilib, eshilib ketgan televizor antennasiga o‘xshash tilla tusli asbob bo‘y cho‘zib turibdi. Garrining ro‘parasidagi devorga ko‘zgu osilgan. Unda xonadagi biron narsa aks etmayapti-yu, ichida allaqanday g‘alati dog‘lar harakatlanyapti.

– Xo‘sh, yovuzlik detektorlarim[2] yoqdimi senga? – qiziqdi Garrini diqqat bilan kuzatayotgan Xmuri.

– Mana bu nima? – so‘radi Garri tilla tusli eshilgan asbobga imo qilib.

– Sir sezgiri. Agar yonimdagi odam yolg‘on gapirayotgan yoki biron gapni mendan sir tutayotgan bo‘lsa, zirillaydi... Bu yerda undan foyda yo‘q, albatta. Uyga berilgan vazifani bajarmay kelgan o‘quvchilar yolg‘on-yashiq gaplar to‘qishni hech qo‘yishmagani uchun bu dargohga kelgan kunimdan buyon

[1] **Sneakoskop** (*inglizcha:* sneakoskop= xavf+chiroq) – sehrgarlarning sehrli quroli. Bu qurol xavf kelishi haqida o‘z egasini ogohlantirgan.

[2] **Detektor** (*lotincha:* detector ochuvchi, topib oluvchi) – radiotexenikada qabul qilingan yuqori chastotali tebranishlarni (quloqqa eshitiladigan) past chastotali tebranishlarga aylantirib beruvchi qurilma.

tingani yo‘q. Sneakoskopni esa uzluksiz chiyillagani bois o‘chirib qo‘yishga majbur bo‘ldim. U nihoyatda ta’sirchan bo‘lib, bir milya radiusda ro‘y bergan har qanday adovatli harakatni sezadi. Tabiiyki, faqat bolalarning sho‘xligini emas, jiddiyroq xavf haqida ham ma’lum qiladi.

– Anavi ko‘zgu-chi?

– Ashaddiy dushmanlar ko‘zgusi. Ko‘ryapsanmi, unda eng ashaddiy dushmanlarim aksi yuribdi? Ularning ushbu harakatlari xavfli emas, lekin ko‘zining oqi ko‘rinadigan darajada yaqin kelishsa, darhol sandig‘imni ochaman.

U qisqa xandon otgancha, deraza ostida turgan baland sandig‘ini ko‘rsatdi. Sandiqdagi yettita qulfning teshiklari bir qator joylashgan. Xmurining navbatdagi savoli Garrining san-diq ichida nima bo‘lishi mumkinligi haqida yuritayotgan xayolini bo‘ldi.

– Demak... ajdarlardan xabar topibsan-da, a?

Garri ikkilanib qoldi. Aynan shu savoldan cho‘chib turgan edi. Nima qilganda ham u, qoidani Xagrid buzganini Sedrikka aytmagani kabi Xmuriga ham aytmaydi.

– Tashvish tortma, – tinchlantirdi uni Xmuri, yog‘och oyog‘ini oldinga uzatib, ingragancha kresloga o‘tirar ekan. – Qalloblik Uch sehrgar bellashuvi atrofida shakllangan doimiy an’analardan biridir. Azaldan shunday bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

– Men qalloblik qilganim yo‘q, – dedi Garri jig‘ibiyroni chiqib. – Bu... Men... Tasodifan...

– Men seni ayblayotganim yo‘q, yigitcha, – irshaydi Xmuri. – Oddiy bir haqiqatni Dambldorning miyasiga quyib qo‘yishga urinib kelmoqdaman. O‘zining yuksak va olijanob g‘oyalari-yu, maqsadlari ila ko‘ngliga siqqanicha yugurib-yelib yurishi mumkin u, lekin Karkarov bilan Maksim bunday tushunchalarning bariga tupurgan. O‘zlari boxabar bo‘lishgan har qanday ma’lumotni o‘z chempionlikka da’vogarlariga yetkazishlariga shubha yo‘q. Ularning maqsadi mushtarak – bellashuvda yutib, Albusning kuragini yerga tekkizish va bu bilan Dambldor ham oddiy insoniy xislatlar, xom sut emgan bandaga

xos tabiatdan xoli emasligini isbot qilishdir.

Boz qisqa xandon otgan Xmurining sehrli ko'zi shiddat-la aylanib, Garriga qaradi. Ko'z harakatini kuzatgan bolaning boshi aylanib ketdi.

– Xo'sh... Ajdarni bir yoqli qilish yo'lini o'ylab topdingmi?

– Yo'q, – iqror bo'ldi Garri.

– Nima qilish kerakligini senga aytmoqchi emasman. Erkatoy o'quvchilarga ega bo'lish menga xos odat emas. Biroq foydali maslahat berishim mumkin. Birinchi qoida – eng kuchli qobiliyatingni ishga sol.

– Bunday qobiliyatga ega emasman, – shu zahoti bosh tortdi Garri.

– Bekor gap, – na'ra tortdi Xmuri. – Har qanday inson tabiatidagi ma'lum bir qobiliyat boshqalaridan ustun bo'ladi. Qani, o'ylab ko'r-chi, qanday amalni yaxshi uddalay olasan, qaysi ishning burnini qonata olasan?

Garri o'yga toldi. Nimani yaxshi uddalay oladi? Ha... lekin bu juda sodda narsa-ku...

– Kvidish o'yinini, – ifodasiz javob berdi u. – Foyda berishiga...

– To'ppa-to'g'ri, – dedi Xmuri bolaga ikkala ko'zi bilan tik qarab. – Eshitishimcha, supurgida uchishni eshib tashlar ekansan.

– To'g'ri, ammo... – dedi Garri ham ko'zini Xmuridan uzmay, – musobaqa davomida ixtiyorimda supurgi bo'lmaydiyu, faqat sehrli tayoqcha...

– Ikkinchi qoida, – davom etdi Xmuri bolaning gapini bo'lib. – Kishi istagan narsasini qo'liga olishi uchun qadimdan qo'llanilayotgan, bisyor sinovlardan o'tib, asrlar osha bugungi kungacha yetib kelgan oddiy afsundan foydalanishi darkor.

Garri o'qituvchiga baqrayib qoldi. Xo'sh, unga nima kerak bo'ladi?

– Boshingdagi qatig'ingni ishga sol, yigitcha, – pichirladi Xmuri. – Bu unchalik qiyin ish emas...

Ana shundagina Garrining miyasida chiroq yonganday bo'ldi. U supurgida uchishning havosini olgan. Shundaymi?

Shunday. Demak, u, ajdarning yonidan bemalol uchib o'tishi mumkin. Shundaymi? Albatta, shunday. Buning uchun unga «Chaqmoq» kerak bo'ladi. Shundaymi? Ha, shunday. «Chaqmoq»qa ega bo'lish uchun esa...

Uch daqiqa o'tar-o'tmas Garri issiqxonaga otilib kirgancha, professor Sarsabil xonimdan uzr so'rab, Germionaning yoniga oshiqdi.

– Germiona, – pichirladi Garri, – menga yordam berishing kerak.

Titroqgul butayotgan Germiona titrayotgan barglar uzra Garriga tashvishli qaradi.

– Seningcha, shuncha vaqtdan buyon men nima qilayotgan edim? – so'radi qiz pichirlab.

– Germiona, men ertaga ertalabgacha Buyum chaqirish afsunini o'zlashtirib olishim shart.

***

Ikkalasi tushlik qilgani ham bormay, kimsasiz sinf xonalaridan biriga kirib olib, afsun ijrosini o'zlashtirishga kirishib ketdi. Garri o'z irodasiga zo'r berib, har xil buyumlarni xona bo'ylab uchirgancha, o'ziga chorlay boshladi. Yomon. Kitoblar-u, patqalamlar yarim yo'lga yetganda, xuddi fikridan qaytganday, tappa polga tushib ketaverdi.

– Fikringni jamla, Garri, jamla...

– Men nima qilyapman? – achchiqlandi Garri. – Negadir doimo ko'z oldimdan... ulkan, jirkanch ajdar nari ketmayapti... Xo'p, mayli. Yana urinib ko'ramiz...

U bashorat darsiga borishni istamay, mashg'ulotni davom etmoqchi bo'ldi. Lekin Germiona numerologiyani o'tkazib yuborishdan bosh tortdi. Germionasiz shug'ullanishning esa foydasi yo'q. Iloj qancha, bir soat professor Trelanining darsiga bardosh berishga to'g'ri keldi.

Professor Trelani darsning yarmini ikkita sayyoraning o'zaro holatiga bag'ishladi. Uning tushuntirishlariga qaraganda, Mirrixning Zuhalga nisbatan joylashgan holati shunday ekanki,

iyul oyida tug‘ilgan kishilar uchun kutilmagan, dahshatli o‘limdan qochib qutulishning hech iloji yo‘q ekan.

– Juda yaxshi, – ma’lum qildi toqati toq bo‘lgan Garri baland ovozda. – Azob chekishni istamayman. Kutilmaganda tappa tashlab o‘lib qolishni afzal ko‘raman.

Ronning yuzi shunday qiyofa kasb etdiki, xuddi hozir kulib yuboradiganday. U ko‘pdan buyon ilk bor Garrining ko‘ziga tik qaradi. Biroq undan qattiq xafa bo‘lgan Garri o‘zini Ronning nigohidagi mazmunni uqmagan ko‘yga solib oldi. Garri darsning qolgan qismini tayoqcha vositasida stol ostidagi mayda jismlarni o‘ziga chaqirishga sarf etib, havoda uchib ketayotgan pashshani mushtiga kirib ketishga majbur qilishga erisha oldi. Ammo bu holat Buyum chaqirish afsunini o‘zlashtirib olgani tufayli ro‘y berganiga shubha qildi. Ehtimol, bu esvos pashshadir.

Bashorat o‘tgach, Garri, kechki ovqat mahalida o‘zini biroz ovqatlanib olishga majbur qildi-da, ortiqcha savol beril-masligi uchun ko‘rinmas plashni Germiona bilan birga kiyib, bo‘sh sinf xonasiga qaytib keldi. Ikkalasi yarim tungacha mashq qildi. Ular mashqni yana davom etishlari mumkin edi-yu, Dryuzg kelib qoldi. Ahvolni ko‘rgan poltergeyst Garriga qarata narsa uloqtirish kerak ekan, degan xayolga bordi, shekilli, bola-ga qarata sinf kursilarini uloqtirishga kirishdi. Bunday shovqin Filchning e’tiborini o‘ziga jalb etishi mumkinligidan cho‘chigan Garri bilan Germiona juftakni rostlab qolishdi. Xayriyatki «Griffindor»ning umumiy mehmonxonasida hech kim yo‘q ekan.

Tungi soat ikkida kamin yonida turgan Garrining atrofi risolalar, ag‘darilib yotgan bir nechta kursilar, patqalamlar, shiqildoqlarning eski to‘plamlari va shu kabi turli-tuman buyumlarga to‘lib-toshdi. Hatto Nevillning qurbaqasi Trevor ham chetda qolmadi. Garri ushbu afsunning sir-asrorini kutilmaganda eng so‘nggi soatda anglab yetdi.

– Harakatlaring ancha durust, Garri, endi ancha durust, – dedi o‘lgudek charchaganiga qaramay, mashq natijasidan qanoatlanib, davom etayotgan Germiona.

– Kelasi safar, agar men biron-bir afsun ijrosini uddalay olmasam, nima qilish kerakligini endi bilasan, Germiona, – dedi Garri Qadimiy runalar lug'atini, takroran chaqirish uchun Germionaga uloqtirib. – Meni ajdar bilan qo'rqit. Assio lug'at!

Og'ir lug'at jildi Germionaning qo'lidan otilib chiqib, xona bo'ylab uchgancha, tikka Garrining qo'liga borib tushdi.

– O'rganib olding, Garri! – zavq-la xitob qildi Germiona.

– Buni ertaga ko'ramiz, – dedi Garri. – «Chaqmoq» mana bu narsalarga nisbatan mendan ancha olisda, qasrda bo'ladi. Men esa o'rmonda bo'laman...

– Ahamiyati yo'q, – ishonch-la ma'lum qildi Germiona. – Agar sen fikr-xayolingni talab darajasida, eshityapsanmi, talab darajasida jamlab olsang, «Chaqmoq», albatta, uchib keladi, Garri. Endi biroz uxlab olishing kerak... bu senga, qolaversa, menga ham juda zarur.

***

Garri Buyum chaqirish afsuni haqida shu qadar ko'p o'ylaydiki, so'nggi vaqtda vujudini qamrab olgan noma'lum dahshatni yodidan chiqarib yubordi. Ertasiga ertalab esa vahima o'z joyiga to'liq qaytdi. Qasrda hayajonli va ayni vaqtda quvonchli kutish muhiti qaror topgan. Garchi qanday tomosha ko'rsati-lishini hech kim bilmasa-da, o'quvchilar namoyishgohlarga ye-tib olishlari uchun bugungi mashg'ulotlar kun yarmida nihoyasiga yetadi.

Garri o'zini boshqalardan uzoqlashib, begonalashib ketganday his etdi. Maktabdoshlari unga omad tilab qolishadimi yoki izidan «Potter, biz aza tutish uchun ro'molchalarimizni tayyorlab qo'ydik», deb vishillab qolishadimi, unga farqi yo'q. Bola shunday bir alog'-chalog' asabiylashgan holatdaki, uni ajdar oldiga olib chiqishayotganda o'zini idora qilmay, qarg'ish yashinlarini ajdar qolib, odamlarga qarata o'ng-u, so'lning farqiga bormay sirasiga qo'llab yuborishdan xavfsiramoqda.

Vaqt ham o'chakishganday o'zini qandaydir g'alati, go'yo yirik-yirik bo'laklari sezilar-sezilmas gum bo'layotganday tut-

moqda. Garri hozirgina sehrgarlik tarixidan o‘tgan birinchi darsida edi, endi esa tushlik qilib o‘tiribdi. Tonggi g‘imir-g‘imir qachon o‘tdi, bilmaydi... Ana endi professor Makgonagall Katta Zal bo‘ylab Garri tomon oshiqib kelmoqda. Ko‘pchilik unga qarab o‘tiribdi.

– Potter, chempionlikka da’vogarlar zudlik bilan hovliga chiqishlari lozim... Birinchi musobaqaga hozirlik ko‘rish vaqti yetdi.

– Yaxshi, – dedi qo‘lidagi sanchqi jaranglagancha likopga tushgan Garri o‘rnidan turib.

– Omad yor bo‘lsin, Garri, – pichirladi Germiona. – Hammasi yaxshi bo‘ladi!

– Albatta, – javob berdi Garri, mutlaqo yot ohangda.

Bola Katta Zalni professor Makgonagall bilan birga tark etdi. Fakultet mudiri ham o‘zini yo‘qotib, gangib qolgan. Uning tashvishli qiyofasi Germionaning qiyofasidan qolishmaydi. Noyabrning muzday shabadasiga peshvoz chiqib, tosh zina pog‘onalaridan pastga yonma-yon tushar ekan, professor Makgonagall qo‘lini Garrining yelkasiga qo‘ydi.

– Eng asosiysi, sarosimaga tushma, – nasihat berdi u, ohangining vazminligini saqlab qolishga urinib. – Atrofda vaziyatni nazorat qilib turadigan sehrgarlar yashirinib olishgan. Qo‘ldan kelgancha urinsang bo‘ldi, hech bir kimsa sen haqingda yomon fikrga borishga jur’at etmaydi... Ahvoling yaxshimi?

– Yaxshi, – dedi Garri o‘z ovozini eshitganidan taajjublanib. – Ahvolim juda yaxshi.

Professor Makgonagall bolani «Taqiqlangan o‘rmon» cheti bo‘ylab ajdarlar qamalgan qo‘ton tomon boshlab ketdi. Yosh daraxtzorga yetgach, qo‘tonni to‘sgan chodirga ro‘baru bo‘lishdi.

– Sen, Potter, qolgan da’vogarlar bilan birgalikda mana shu chodir ichida bo‘lishing va o‘z navbatingni kutishing kerak, – dedi professor Makgonagall ta’sirli titrayotgan ovozda. – Mister Shulman ham ichkarida... U sizlarga... musobaqa jarayoni haqida aytib beradi... Omad yor bo‘lsin.

– Rahmat, – jonsiz minnatdorlik bildirdi Garri.

Bola professor Makgonagallni tashqarida qoldirib, chodir ichiga kirdi.

Burchakda, pastakkina kursida Flyor Delakyor o'tiribdi. Uning odatiy vazminligidan asar ham yo'q. Yuzidan qon qochib, sovuq terga botgan. Viktor Krum odatdagidan ham battar badqovoq. Demak, u ham asabiylashgan, taxmin qildi Garri. Sedrik xuddi chodir ichini o'lchayotgan kabi u yoq bu yoq tinimsiz yuribdi. Garrining kirib kelganini ko'rib, uni tabassum-la qarshi olganday bo'ldi. Bola ham javoban kulib boqdi-yu, yuz mushaklari itoat qilmayotgani, qanday kulish kerakligini unutib qo'ygandek bo'lganini his etdi.

– O'ho'! Garri! – zavq-la qichqirdi Shulman, bolaga yuzlanib. – Kir, kiraver, o'zingni o'z uyingda deb bil.

Rangi o'chgan chempionlikka da'vogarlar orasida Shulman o'z xatti-harakatlari ila qandaydir g'alati, o'lchami haddan ortiq katta multiplikatsiya[1] tasviriga o'xshab ketdi. U yana o'sha, eskirib ketgan kvidish kiyimini kiyib olgan.

– Xo'sh, ana endi jamoa jam. Demak, zaruriy ma'lumotlar berishga kirishsam bo'laveradi! – shodiyona e'lon qildi Shulman. – Tomoshabinlar o'z joyini egallagach, har biringizga mana bu qopchiqni havola etaman, – dedi u, qirmizi shoyidan tikilgan qopchiqni siltab. – Uning ichidan siz ro'baru bo'ladigan narsaning kichik qomatini chiqarasiz! Ular har xil... m-m-m... ko'rinishga ega. Yana nimadir aytishim kerak edi... ha, esladim... oldingizda turgan vazifa – tilla tuxumni qo'lga kiritish!

Garri sheriklariga razm soldi. Sedrik bosh irg'ib, Shulmanning gapini uqqanini bildirdi-da, rangi biroz ko'kargancha, u yoq bu yoq yurishini davom etdi. Flyor Delakyor bilan Krum esa hech qanday munosabat bildirishmadi. Javob qaytarish uchun og'iz ochishadigan bo'lsa, qayt qilib yuborishdan cho'chishayotgan bo'lsa kerak. Har qalay, Garri o'zini aynan shunday his etmoqda. Biroq ta'kidlab o'tmoq joizki, uchalasi, Garridan farqli o'laroq, ushbu chodirda o'z xohish-irodasi ila turibdi...

[1] **Multiplikatsiya** (*lotincha:* multiplicatio – ko'paytirish) – harakatdagi narsalarning ketma-ket keladigan turli holatlarini aks ettiruvchi surat yoki qo'g'irchoqlarni rasmga olish yo'li bilan film tayyorlash va shu yo'l bilan olingan kinofilm.

Oradan bir soniya ham o'tmadi go'yo, lekin tashqarida tumonat odam yurgani, hayajonli suhbat, hazil-mutoyiba, kulgi eshitildi. Garri xuddi zoti begonaday o'zini o'sha odamlardan mutlaqo yot his etdi. Xayol o'tmay Shulman qo'lidagi qirmizi qopchiqning tugunini yechishga kirishdi.

– Xonim boshlab beradi, – dedi u Flyorga qopchiq uzatib.

Flyor titrayotgan qo'lini qopchiq ichiga suqib, oddiy uelva ajdarining aniq o'xshatib yasalgan, bo'yniga «2» raqami bog'langan mittigina modelini chiqardi. Hamonki Flyorning yuzida taajjub emas, umidsiz qat'iyat ifodalangan ekan, Garri o'zining haqligi, ya'ni Maksim xonim bor gapni o'z shogirdiga aytib berganiga to'liq ishonch hosil qildi.

Krum haqidagi fikr ham o'z isbotini topdi. U olov sharini purkaydigan xitoy ajdarini chiqarib, bo'ynidagi «3» raqamini ko'rsatdi-da, ko'zini pirpiratib ham qo'ymay, yerga qaradi.

Sedrik qo'lini qopchiq ichiga solib, «1» raqamli to'mtoq tumshuqli shved ajdarining modelini chiqardi. Garriga esa tabiiyki, bo'yniga «4» raqami bog'langan oxirgi maxluq – tikanak dumli venger ajdari nasib qildi. Bola qo'lidagi ajdarchaga qaradi. Tikanak dum qanotchasini keng yozib, mitti so'yloqlarini yalang'ochladi.

– Ana bo'ldi! – e'lon qildi Shulman. – Endi hamma o'z raqibini biladi. Ajdarcha bo'ynidagi raqam maydonga chiqish navbatini anglatadi, tushunarlimi? Endi men, musobaqa sharhlovchisi bo'lganim bois sizlarni tark etaman. Mister Diggori, hushtakni eshitishingiz bilan maydonga chiqing, xo'pmi? Xo'sh, yana nima... Garri? Tashqariga chiqasanmi? Senga bir og'iz gapim bor, maylimi?

– M-m-m... ha, albatta, – ming'irladi hech narsani tushunmagan Garri, Shulmanning ortidan ergashib.

Shulman chodirdan muayyan masofa nariga uzoqlashdi-da, daraxtlar orasida to'xtadi.

– Ahvoling qalay, Garri? – so'radi u, Garriga otalarcha yuzlanib, – Senga biron narsa keltirib beraymi?

– Nima? – tushunmadi Garri. – A... yo'q, rahmat.

– Rejang bormi? – so'radi Shulman, makkorona ohangda

eshitilgan ovozini pasaytirib. – Ayrim g'oyalar bilan o'rtoqlashmoqchiman, e'tiroz bildirmasang albatta. Chunki sen yoshiga yetmagan da'vogarsan, Garri, – dedi u, ovozini yanada pasaytirib. – Agar biron-bir nafim tegsa...

– Yo'q, – gapni kesdi Garri. – Nima qilishni o'zim bilaman, rahmat.

– Hech kim sezmaydi, Garri, – ko'z qisdi Shulman.

– Yo'q, rahmat. Ishlar joyida, – dedi Garri, ahvoli hali bu qadar yomon bo'lmagan bo'lsa-da, nega bu so'zlarni qaytarayotganiga o'zi hayron bo'lib. – Rejam bor, men...

Uzoqdan hushtak ovozi eshitildi.

– E, Xudoyim! Men yugurishim kerak! – xayolini yig'ib oldi Shulman, chopqilagancha nari ketib.

Garri chodirga yaqin borib, rangi battar ko'karib ketgan Sedrikni ko'rdi. Uning yonidan o'tayotgan Garri omad tilamoqchi bo'ldi-yu, tomog'ini g'alati qira oldi, xolos.

U Flyor bilan Krum o'tirgan chodirga qaytib kirdi. Ikki soniya o'tar-o'tmas xaloyiq ayyuhannos solgani eshitildi. Aftidan, Sedrik qopchiqdan sug'urib olgan qomatchaning haqiqiy timsoli bilan yuzma-yuz kelgan ko'rinadi...

Chodirda o'tirib kutish bu qadar dahshatli kechishini Garri tasavvur ham qilmagan ekan. Tomoshabinlar ko'p boshli maxluq kabi, Sedrikning to'mtoq tumshuqli shved ajdari yoni-dan o'tish uchun bajarayotgan xatti-harakatlariga bir xilda munosabat bildirgancha, dam qichqirar, dam chirillar, dam oh urar edi. Krum ko'zini poldan uzgani yo'q. Flyor Sedrik kabi u yoq bu yoq yurib, chodir ichini qadamlab o'lchashga kirishdi. Shulmanning sharhlari esa umumiy vaziyatni battar og'irlash-tirmoqda:

– O-o-o, bir baxya qoldi-ya... juda tavakkalchi yigit ekan-u!... yaxshi harakat, lekin naf bermadi...

Yana o'n besh daqiqadan so'ng eshitilgan shovqin quloqni kar qilgancha, Sedrik ajdar yonidan o'tgani-yu, tuxumni qo'lga kiritganini anglatdi.

– Yaxshi, juda yaxshi! – qichqirdi Shulman. – Qani, ko'raylik-chi, hakamlar qanday qarorga kelishibdi ekan...

Biroq u baholarni o'qib eshittirmadi. Aftidan, hakamlar

baholarni tomoshabinlarga o'zlari ko'rsatishmoqda.

– Biri o'tib, uch nafari qoldi! – qichqirdi Shulman, hushtak yangragach. – Miss Delakyor, marhamat qilsinlar!

Boshdan oyoq dag'-dag' titrayotganiga qaramay Flyor Delakyor chodirdan sehrli tayoqchasini mahkam ushlagancha, boshini baland ko'tarib chiqdi. Buni ko'rgan Garrining qalbida qizga nisbatan biroz ehtirom uyg'ondi. Chodirda qarama-qarshi devor yonida o'tirib, bir-biriga qaramaslikka uringancha Krum ikkalasi qoldi.

Yana o'sha ahvol, Shulmanning mudhish sharhlari:

– O, shu ish bama'ni bo'ldi-da... O!... Sal qoldi... Endi ehtiyotkorona ish tutmoq darkor!... O, Xudo!... Nazarimda, yamlab yuborganday bo'ldi-ya!

O'n daqiqadan so'ng namoyishgohlarda qarsak yangradi. Demak, Flyor ham topshiriqni bajargan ko'rinadi. Jimlik... Aftidan, baho belgilanmoqda... yana qarsaklar... Shundan so'ng uchinchi hushtak.

– Endi maydonga mister Krum chiqadi! – e'lon qildi Shulman.

Garrini yolg'iz qoldirgan Krum chodirni tark etdi.

Bola tanasini qandaydir g'alati his etyapti: yuragi urishi, dahshatdan barmoqlari uyishib qolganini sezyapti-yu, xaloyiqning qichqiriqlarini eshitar ekan, ruhi tanasidan ancha nariga chiqib ketganday bo'lyapti.

– Juda dadil harakat! – yangradi Shulmanning qichqirig'i, olov sharini purkaydigan xitoy ajdarining na'rasi bilan bir vaqtda. – Mana buni mardlik desa bo'ladi!

Tomoshabinlarning yengil nafas chiqargani eshitildi.

– Va... Ha! Tuxum zabt etildi!

Qish havosida yangragan qarsaklar shisha singan tovushday eshitildi. Krum o'z chiqishini yakunladi. Navbat Garriga.

O'rnidan turgan bola oyog'i jelega[1] aylanib qolganini his etib, taklifni kutdi. Hushtak yangradi. Garri chodirdan chiqdi.

[1] **Jele** (*fransuzcha;* gelee) – nok, olma, olxo'ri va boshqa rezavorlar sharbatlaridan tayyorlanadigan shirinlik.

Vujudini qamrab olgan dahshat tobora avj olmoqda. Yosh daraxtlar yonidan o‘tib, qo‘tonga kirganini idrok etdi.

Garrining ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lgan manzara juda ravshan, rangli tushga o‘xshaydi. Bu yerga tashrif buyurgan o‘sha tundan so‘ng sehrli tarzda barpo etilgan namoyishgohlardan tumonat odamlar unga qarab turibdi. Qo‘tonning narigi tomonida o‘z tuxumlari ustiga engashgan tikanak dumli ajdar qanotini yarim bukkancha, g‘azab to‘la sap-sariq ko‘zini bolaga baqraytirib olgan. Tanasi tangachali bahaybat yasher o‘zining tikanak dumini, har bir tikanagi bilan uzunligi bir yard keladigan iz qoldirgancha, yerga gumburlatib urmoqda. Namoyishgohlarni mudhish shovqin qamrab olgan. Maktabdoshlari uni olqishlashmoqdami, o‘lim tilamoqdami, hozir Garriga farqi yo‘q. Vaqt yetdi. Bo‘ladigan ishning bo‘lgani ma’qul. Hozir jamiki fikr-xayolini uni qutqarib qoladigan yagona narsaga jamlamoq darkor...

– Assio «Chaqmoq»! – baland ovozda o‘kirdi Garri tayoqchasini ko‘tarib.

Va Xudoga ich-ichida ming-ming iltijolar qilib, vujudining jamiki tolalari ila umidvor kutdi... Agar kor bermasa-chi, supurgisi uchib kelmasa-chi... Qandaydir shaffof, qalqib ko‘rinayotgan qizigan parda uni tevarak-atrofdan to‘sib, qo‘ton ham, odamlar ham havoda uchayotganday ko‘rindi...

Banogoh Garrining qulog‘iga qadrdon tovush eshitildi. Supurgi. Bola ortga o‘girilib «Taqiqlangan o‘rmon» uzra katta tezlikda uchib kelayotgan «Chaqmoq»ni ko‘rdi. Supurgi qo‘tonga otilib kirib, Garrining qarshisida taqqa to‘xtadi. Tomoshabinlar shovqini yanada kuchaydi... Shulman ham allanima deya qichqirmoqda... ammo Garri eshitish qobiliyatini yo‘qotganday go‘yo. To‘g‘risini aytganda, hozir u hech narsani eshitmoqchi ham emas, kim nima deyapti, unga ahamiyati yo‘q...

Garri oyog‘ini ko‘tarib, supurgi ustidan olib o‘tdi-da, yer tepdi. Va mo‘jiza shu zahoti ro‘y berdi...

Havoga ko‘tarilib, sochi shamolda qo‘zg‘agan bola tomoshabinlarning yuzlari to‘g‘nog‘ich boshi, ajdar esa oddiy it o‘lchamigacha kichrayib qolganini ko‘rib, nafaqat yerni, balki

vujudini qamragan qo‘rquv bilan dahshatni ham pastda qoldirganini idrok etdi... Garri o‘zining qadrdon muhitida...

Bu navbatdagi kvidish o‘yinidan o‘zga narsa emas... Ha, oddiy kvidish o‘yini, tikanak dumli ajdar esa o‘ta jirkanch raqib jamoasi...

Garri pastga, ajdarning old oyog‘i bilan ishonchli himoyalangan tuxumlar uyumiga qarab, tosh tusli tuxumlar orasida yaltirayotgan tilla tuxumni ko‘rdi.

– Xo‘sh, Garri, – dedi u o‘ziga o‘zi, – chalg‘itish nayrangini qo‘llaymiz... Boshladik.

Bola pastga sho‘ng‘idi. Tikanak dumning boshi Garrining harakati tomon burildi. Nima qilishni bola yaxshi biladi. U sho‘ng‘ish harakatini to‘xtatib, o‘z vaqtida yuqoriga ko‘tarila boshladi. Ajdar purkagan olov shari Garri shu fursatda yetishi kerak bo‘lgan nuqtadan o‘tdi... Bola hozir har qanday xavfga tupurgan... U o‘z harakatini «Tajovuzkor» to‘pga chap bergan bilan barobar ko‘rmoqda...

– O, Oliy himmat Skotti! Bu yigitcha uchish nima ekanini juda yaxshi bilar ekan-u! – o‘kirdi Shulman, tomoshabinlarning oh-vohlarini bosib yuborib. – Mister Krum, ko‘rdingizmi?

Garri yuqorida aylana boshladi. Tikanak dum esa bo‘ynini baland cho‘zgancha, boshini bolaning harakati barobar aylantirmoqda. Agar harakat shu zaylda uzoq davom etadigan bo‘lsa, maxluqning boshi aylanishi muqarrar. Lekin uzoq cho‘zmagan ma’qul, aks holda hayvon yana olov purkashi mumkin...

Tikanak dum endi og‘iz ochgan ediki, Garri yana sho‘ng‘idi. Biroq bu safar omad u qadar zo‘r chopmadi. Olov bolani yondirib tashlamadi-yu, o‘zini chetga tortayotgan fursatda ajdar siltagan dumdagi tikanaklardan biri uning yelkasiga biroz tegib o‘tib, korjomasini yirtdi.

Garri og‘riq sezish bilan bir vaqtda namoyishgohlardan yangragan qichqiriq va ingrashlarni eshitdi. Aftidan, jarohat jiddiy emasga o‘xshaydi. Ajdar ortidan o‘qday uchib o‘tar ekan, miyasiga bir o‘y keldi...

O‘z tuxumlaridan tashvish tortayotgan ona ajdar osmonga ko‘tarilishni istamayapti. U joyida aylanib, to‘lg‘anib, qanotini

dam yozib, dam yig'ib, sap-sariq ko'zini Garridan uzmay turibdi. Bolalarini yolg'iz tashlab ketmoqchi emas... Shunga qaramay, uni uchishga majbur qilmoq darkor. Aks holda tilla tuxumga yaqin borib bo'lmaydi... Hamma gap, ushbu ishni astasekin, ehtiyotkorona bajarishda...

Garri ajdarning ro'parasida dam u tomon, dam bu tomon xira pashshaday uchib, maxluq olov bilan nari hayday olmaydigan, biroq tik qorachig'li ko'zini uzmay, kuzatadigan masofa saqlab bordi. So'yloqlari yalang'ochlangan ajdarning boshi ham tinimsiz harakatlanmoqda...

Bola yuqoriga ko'tarildi. Tikanak dumning boshi ham uning ketidan, bo'yni xuddi ilon o'ynatuvchining amrini bajara-yotgan ilon kabi tebranib, baland cho'zildi...

Garri yana bir necha futga ko'tarilgach, alam qilgan maxluq o'kirib yubordi. U Garrini chindan ham xira pashshani tinchitmoqchi bo'lganday o'ldirishga urinmoqda. Siltayotgan dumi Garrigacha yetib bormayapti... purkagan oloviga Garri chap berdi... endi esa og'zini keng ochib olgan...

– Tur o'rningdan, dangasa, – gijgijladi Garri, maxluqni gipnoz qilayotganday charx urib. – Tur dedim senga, tutib ol meni...

Nihoyat ajdar orqa oyog'iga tik turgancha, samolyot qanotiday keladigan qanotini keng yozdi. Fursatdan foydalangan Garri esa tik pastga sho'ng'idi. Toki ajdar hushini yig'ib, xira pashsha qayoqqa gum bo'lganini tushunib yetguncha, aqlga sig'mas tezlik olgan bola, yerga, endi o'tkir tirnoqli panjalar bilan himoya qilinmayotgan tuxumlar to'plamiga yaqinlashdida, supurgining sopini qo'yib yuborib, tilla tuxumni changallab oldi...

Tezlikni yanada oshirgan Garri juftakni rostladi. U og'ir o'ljani sog' qo'liga qo'ltiqlab olgancha, namoyishgohlar uzra parvoz qilmoqda. Garrining eshitish qobiliyati tiklandi. Gulduros qarsak urayotgan tomoshabinlar xuddi Kvidish bo'yicha jahon chempionatining final o'yinida Irlandiya terma jamoasining muxlislari kabi ayyuhannos solishmoqda...

– E'tibor qarating! Eng yosh chempionlikka da'vogar

tuxumni hammadan tez qo‘lga kiritdi! – qichqirdi Shulman. – Qarang-a! Bu mister Potterning imkoniyatlarini tenglashtiradi, albatta!

Ajdar hurkituvchilar tikanak dumni tinchlantirish uchun har tomondan yugurib chiqishdi. Quvonch-la qo‘l siltayotgan professor Makgonagall, professor Xmuri va Xagrid qo‘tonning kirish eshigidan Garri tomon shoshib kelishmoqda. Ularning mamnun tabassumlari uzoqdan ko‘rinmoqda. Garri o‘qituvchilar tomon namoyishgohlar uzra uchib, yerga asta qo‘ndi. Qichqiriqlar zo‘ridan quloq pardalari yirtilib ketish holatiga kelib qolgan. Bolaning qalbi ko‘pdan buyon ilk bor taskin topib, vujudi ancha yengil tortdi. U birinchi sinovdan o‘tib, omon qoldi...

– Ajoyib, Potter! – qichqirdi professor Makgonagall, supurgidan tushayotgan bolaga.

Professor Makgonagallning bunday maqtovi juda taajjubli. U.

– Hakamlar natijani e’lon qilguncha zudlik bilan Pomfri xonimning qabuliga kirib chiq... – titrayotgan qo‘lini Garrining yelkasiga o‘qtadi professor, – Bu tomonga... U Diggorini davolash muolajasini tugatgan bo‘lsa kerak...

– Barakalla, Garri! – xirilladi Xagrid. – Qoyil! Tikanak dumli venger ajdariga qarshi-ya! Charlining gapi esingdami? O‘lguday darg‘azab...

– Rahmat, Xagrid, – baqirgancha gapni bo‘ldi Garri, Xagrid og‘zidan gullab qo‘ymasligi uchun.

Professor Xmuri ham juda mamnun.

– Tez va soz ish bo‘ldi, Potter, – na’ra tortgancha maqtadi sehrli ko‘zi chanog‘ida gir aylanayotgan Xmuri.

– Bo‘ldi Potter, iltimos, tibbiyot punktiga yugur, – buyurdi professor Makgonagall.

Haligacha halloslab, nafasini rostlay olmayotgan Garri qo‘shni chodirga kirib, Pomfri xonimning tashvishli nigohini ko‘rdi.

– Ajdarlar! – jirkangancha xitob qildi feldsher ayol, Garrini ichkariga tortib.

Chodir bo‘lmalarga bo‘lingan. Garri parda ortidagi Sedrik-

ning qomatini tanidi. Aftidan, Diggori jiddiy jarohatlanmagan ko'rinadi. Har qalay, u o'tiribdi. Jag'i tinmagan Pomfri xonim ullanima deya vaysagancha, Garrining yelkasini ko'zdan kechirib chiqdi.

– O'tgan yili dementorlar, bu yil ajdarlar, – javrashini qo'ymadi Pomfri xonim. – Qiziq, yana nima olib kelishar ekan maktabga, a? Omading bor ekan... jarohating u qadar chuqur emas... faqat bitkazishdan oldin yaxshilab dezinfeksiya[1] qilish kerak... biroz chidashingga to'g'ri keladi...

Pomfri xonim vishillab, tutun purkayotgan allaqanday to'q qizil suyuqlik bilan Garrining jarohatini dezinfeksiya qilgach sehrli tayoqchasini bolaning yelkasiga tekkizdi. Jarohat bir zumda bitdi-qoldi.

– Biroz tinch o'tir! Tinch o'tir, dedim senga. Ulgurasan baholaringni bilishga, – dedi Pomfri xonim va qo'shni bo'lmaga tez o'tib, Sedrikdan so'radi: – Ahvoling yaxshimi endi, Diggori? so'radi u.

Garri joyida bosib o'tira olmadi. U tashqarida nima bo'layotganini bilish uchun o'rnidan turib, chiqish eshigiga yetib ulgurmay, ichkariga ikki kishi – Germiona bilan Ron kirib keldi.

– Sen zo'rsan, Garri! – dedi ikkala yuzida tirnoq izi ko'ringan Germiona yig'lamsiragan ohangda.

Aftidan, u dahshatga tushib, o'zini timdalab olgan ko'rinadi.

– Zo'r bo'ldi, Garri! Chin so'zim! – takrorladi qiz.

Biroq Garrining e'tibori rangi murdaday oqargan Ronga qaratilgan.

– Garri, – dedi Ron, jiddiy ohangda. – Sening nomingdan yozilgan arizani Olov kubokiga kim solganini bilmayman-u, ishonchim komilki, bu bilan ular joningga qasd qilishgan!

Ana endi, xuddi so'nggi bir necha hafta o'tmagan-u, Garri chempionlikka da'vogar sifatida e'lon qilinganidan buyon ikkalasi ilk bor uchrashganday, hamma narsa o'z iziga tushdi.

– Yetib bordimi, nihoyat? – so'radi Garri sovuq ohangda. –

[1] **Dezinfeksiya** (dez.. + infeksiya) – zararsizlantirish, xavfsiz holga keltirish: yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi mikroblarni maxsus yo'llar bilan yo'q qilish, tugatish.

Anchagina vaqt kerak bo‘ldi-ya!

Cho‘chib ketgan Germiona, nigohini dam u do‘sti, dam bu do‘stiga yugurtirgancha, o‘rtaga turib oldi.

Ronning og‘iz juftlab, uzr so‘ramoqchi bo‘layotganini fahmlagan Garri o‘rtog‘ini to‘xtatdi:

– Mayli, bo‘lar ish bo‘ldi, unutamiz.

– Yo‘q, – e’tiroz bildirdi Ron. – Men o‘zimni bunday...

– Unutamiz dedim-ku, – takrorladi Garri.

Ron asabiy kulib boqdi. Garri ham javoban irshaydi. Germiona yig‘lab yubordi.

– Ko‘z yosh to‘kish uchun biron-bir sabab ko‘rmayapman! – dedi Garri hayron bo‘lib.

– Ikkalangiz g‘irt tentaksiz! – ho‘ngradi Germiona yer depsinib.

Qarshilik ko‘rsatishga ulgurmay qolgan bolalarni mahkam quchib olgan Germiona uvvos solgancha, chodirdan o‘qday uchib chiqib, qayoqqadir qochib ketdi.

– Biz emas, o‘zi tentak, – bosh chayqadi Ron. – Ketdik, Garri, hozir baholaring e’lon qilinadi.

Bir soat oldin bunday bo‘lishini xayoliga ham keltirmagan Garri ruhan ko‘klarga ko‘tarilgancha, o‘lja olingan tilla tuxum-u, «Chaqmoq»ni qo‘ltiqlab, chodirdan sakrab chiqdi. Ron uning yonida borib, bo‘lib o‘tgan hodisalarni tez aytib berdi:

– Bilasanmi, qolganlarning chiqishidan seniki zo‘r bo‘ldi! Qiyoslashga o‘rin yo‘q! Sedrik qandaydir g‘alati hunar ko‘rsatdi. Yerda yotgan toshlardan birini itga aylantirib, ajdarning e’tiborini chalg‘itmoqchi bo‘ldi. Bir jismni boshqa narsaga aylantirish mahorati chakki emas, albatta. Modomiki, tilla tuxumni qo‘lga kiritgan ekan, hunari kor berganday bo‘ldi. Biroq uning eti kuydi. Maxluq hushini yig‘ib olgan ko‘rinadi, so‘nggi fursatda labradorga[1] emas, Diggoriga hamla qilishga ahd qildi. Sedrik bazo‘r chap berib, shashlikka aylanmay, omon qolishga

[1] **Labrador** – Nyufaundlend it zotlaridan biri bo‘lib, undan qo‘riqchilik xizmati, baliqchilik sohasi (suvdan to‘r tortib chiqarish) va qutqaruv (g‘arq bo‘layotgan kishini qutqarish) tadbirlarida foydalaniladi. MDHga a’zo davlatlarda, ushbu zot «vodolaz», deb ataladi.

ulgurdi. Anavi Flyor esa ajdarni trans holatiga solishga urindi. Uning hunari ham kor berib, maxluq hatto uxlab qol-ganday ham bo'ldi. Ammo xurrak otgan ajdarning burnidan uchqun otilib, Flyorning etagi o't oldi. Sehrli tayoqchasidan suv chiqarib, tiriklayin yonib ketishdan bazo'r omon qoldi. Krum-ning chiqishi yaxshi bo'lgani bilan mahorat bobida senga yeta olmaydi. Aytsam, ishonmaysan. O'zi mohir uchuvchi-yu, havo-ga ko'tarilishni xayoliga ham keltirmadi. Allaqanday afsun qo'llab, hayvonning ko'ziga zarb berdi! Yomoni shundaki, yerga qulagan ajdar o'z tuxumlarining yarmini ezib qo'ydi. Buning uchun ball ayriladi. Chunki tuxumlarga ziyon yetmasligi shart edi.

Ikkalasi ajdar qo'toniga yetib olguncha, shosha-pisha gapirgan Ron hansirab qoldi. Garri tikanak dumli venger ajdari olib ketilganidan so'ng, besh nafar hakam qayerda o'tirganini endi ko'rdi. Ular qarama-qarshi tomonda, tilla tusli mato bilan to'silgan, yuqori ko'tarilgan kursilarda o'tirishibdi.

– Ularning har biri birdan o'ngacha ball beradi, – ma'lum qildi Ron.

Garri ko'zini qisib, birinchi hakam Maksim xonim o'zining sehrli tayoqchasini yuqoriga ko'tarayotganini ko'rdi. Havoga «8» raqami shaklida o'ralgan kumush tasma otilib chiqdi.

– Yomon emas! – xitob qildi Ron, namoyishgohlardan yangragan qarsaklar ostida. – Yelkang uchun ikki ball ayirgan ko'rinadi.

Navbatdagi hakam mister Sgorbs. U «9» raqamini ko'rsatdi.

– Zo'r-ku! – xursand bo'ldi Ron, Garrining beliga turtib.

Dambldor ham havoga «9» raqamini uloqtirdi. Tomo-shabinlar yanada kuchli olqishlashdi. Navbat Lyudo Shulmanga yetdi. U «10» ball berdi.

– O'n ball? – ishonmadi Garri. – Lekin... men yaralandim-u... Nima qilyapti u?

– Ko'p arz qilaverma, Garri? – zavq-la qichqirdi Ron.

Nihoyat Karkarov o'z tayoqchasini ko'tarib, «4» raqamini uloqtirdi.

– Nima? – nafratlandi Ron. – To'rt? Ax, sen bir qop go'ng.

Krumga «10» ball berding-ku!

Biroq Garriga farqi yo'q. Karkarov «0» qo'ymaydimi! Hozir Ronning jon kuydirayotgani Garri uchun yuz balldan yuqoridir. Buni u Ronga aytmaydi, albatta. Ammo yuragi quvonchdan yorilib ketguday tepayotganini his etib turibdi. Garri chiqish eshigi tomon o'girildi. Uning muvaffaqiyatidan faqat Ron... yoki griffindorchilar quvonayotgani yo'q. Namoyishgohlarda o'tirgan jamiki maktab uni olqishlamoqda. Qanday sinovdan o'tganini ko'rgan maktabdoshlar endi uni ham Sedrikka tarafdor bo'lganday olqishlashmoqda. Slizerinchilarga esa Garri tupurdi... nima deb akillashsa, akillayverishsin.

– Ikkalangiz birinchi o'rindasiz! Sen va Krum! – xitob qildi Charli Uesli, qasr tomon yo'l olgan Garri bilan Ronning qarshisidan yugurib chiqib. – Ma'zur tuting, shoshyapman. Oyimga boyqush yo'llab, bo'lib o'tgan ishlardan boxabar qilishim kerak. Va'da berganman. Ishlarning esa misli yo'q! Ha, aytganday... ketib qolmasliging kerak ekan. Shu gapni senga yetkazishni tayinlashgan edi menga... Shulmanning chempionlikka da'vogarlarga aytadigan gapi bor ekan... chodirda.

Ron shu yerda kutib turishini aytdi. Garri chodirga kirdi. Bu yer endi o'zgacha, qandaydir shinam va mehmonparvar ko'rinmoqda. Garri tikanak dumga chap berayotgan fursatdagi hissiyoti bilan chodirda, o'z navbatini kutib o'tirgan paytdagi hissiyotini xayolan taqqoslab ko'rdi. «Kutish chindan ham qiyin kechadigan hissiyot ekan», xulosa chiqardi Garri.

Flyor, Sedrik va Krum birga kirib kelishdi.

– Barakalla Garri, – kulib maqtadi yuzining yarmiga, aftidan, kuygan joyni davolash uchun surtiladigan malla malham chaplangan Sedrik.

– Senga ham qoyil, – javoban kulib qo'ydi Garri.

– Hammalaringga qoyil, hammalaringga! – otilib kirdi Shulman, xuddi o'zi ham ajdarlarning bir-ikkitasini tinchitib qaytayotganday hansirab. – Endi gapimga diqqat bilan quloq tuting. Ikkinchi musobaqadan oldin uzoq tanaffus bo'lib, sinov yigirma to'rtinchi fevral kuni ertalab o'tkaziladi. Lekin ushbu tanaffus davomida sizdan bir topishmoq javobini topish talab

etiladi! Agar qo'lingizdagi tuxumga diqqat bilan nazar solsangiz, u ochiladigan tuxum ekanini ko'rasiz... uchidagi halqasini ko'rdingizmi? Topishmoq tuxum ichida. Javobini topsangiz, ikkinchi sinov mazmunini tushunib yetib, ijrosiga hozirlik ko'rish imkoniga ega bo'lasiz! Gapimni tushundingizmi? Aniq tushundingizmi? Xo'sh, unda bo'ldi. Sizlarni ortiq ushlab turmayman!

Garri chodirdan chiqqach, Ron ikkalasi «Taqiqlangan o'rmon» chetidan qasr tomon quvnoq kayfiyat-la yo'l oldi. Garri qolgan chempionlikka da'vogarlarning chiqishlari haqida batafsil bilmoqchi bo'ldi. Birozdan so'ng ular yosh daraxtzorni aylanib o'tdi. Garri ajdar na'rasini ilk bor o'sha tunda shu yerda eshitgan. Daf'atan daraxtlar orasidan allaqanday afsungar ayol sakrab chiqdi.

Rita Vriter. Bugun u egniga muloqot patqalamining tusiga mos keladigan yam-yashil korjoma kiyib olibdi.

– Tabriklayman, Garri! – qichqirdi yashnayotgan Vriter. – Atigi bir og'iz so'z, mumkin bo'lsa agar? Ajdar bilan yuzma-yuz kelgan fursatda o'zingni qanday his etding? Hakamlarning adolati haqida qanday fikrdasan?

– Atigi bir og'iz so'z, deng? – dedi Garri. – Marhamat, mana o'sha so'z: xayr!

O'z javobidan mamnun Garri teskari o'girilib xandon otgancha, Ron bilan birga yo'lini davom etdi.

XXI BOB. UY ELFLARINI HURRIYATGA CHIQARISH FRONTI

Garri, Ron va Germiona kechki payt boyqushxona tomon yo'l olishdi. Garri ajdarni bir yoqli qilib, o'zi omon qolgani haqida Ronning Cho'chrinsteli orqali Siriusga xat yuborishga ahd qildi. Yo'l davomida Garri Ronga Karkarov haqida Siriusdan eshitgan gaplarni aytib berdi. Karkarov bir vaqtlar O'lim-dan miriquvchi bo'lganini eshitgan Ron dastlab taajjublandi, biroq boyqushxonaga oz qolganda, Karkarovni ilk bor ko'rgan kundan e'tiboran u haqda aynan shunday xayolga borganini ma'lum qildi.

– Gap gapga qovushyapti! – baland ovozda fikr bildirdi u. – Poyezdda kelayotganimizda Malfoyning gapini eshitib qolganimiz esingdami? Dadasi «Durmshtrang» maktabi direktori bilan yaxshi tanish ekani va o'sha maktabga o'qishga yubormoqchi bo'lganini aytgan edi. Ular qayerda do'stlashib qolgani endi tushunarli! Jahon chempionatining final o'yinida ham niqob taqib birga yugurib yurishgan bo'lsa, ajab emas. Lekin aytish mumkinki Garri, agar arizangni Olov kubokiga chindan ham Karkarov tashlagan bo'lsa, hozir u o'zini g'irt ahmoqday his etayotgan bo'lsa kerak! Ko'zlagan maqsadiga erisha olmadi! Sal timdalanding-u, yana omon qolding! Shoshma... o'zim eplayman uni...

Jo'natma topshirilishini anglagan Cho'chrinstel chunonam hayajonlanmoqdaki, esi og'ib qolganday Garrining boshi uzra chirillab, gir aylana boshladi. Ron uni tutib, panjasiga xat bog'languncha mahkam ushlab turdi.

– Navbatdagi sinov bundan ham xavfli bo'lishi mumkin emas-u, to'g'rimi? – davom etdi Ron, Cho'chrinstelni derazaga olib borib. – Fikrimcha, bellashuv chempioni bo'lish uchun barcha imkoniyatlaring bor, Garri, jiddiy aytyapman.

Ron ushbu gapini so'nggi bir necha hafta davomida namoyon etgan xulq-atvori uchun o'ziga xos uzr sifatida aytayot-

ganini Garri tushunib turibdi, albatta. Lekin yoqdi. Qoshini chimirib olgan Germiona esa aksincha, qo'lini ko'kragida bosib, boyqushxona devoriga suyanib olgancha, Ronga e'tiroz bildirdi:

– Bellashuv tugashiga hali ancha bor. Agar birinchi sinov shunchalik dahshatli ekan, keyingi sinovlar qanday o'tishini o'ylasam, yuragim orqaga tortib ketyapti.

– Porloq kelajakka doir mulohaza yuritish borasida professor Trelani ikkalangiz bir juft kalishday yaxshi do'st bo'lasiz! – istehzoli gap qistirdi Ron, Cho'chrinstelni derazadan uloqtirib.

Qushcha tosh singari o'n ikki futcha pastlab, o'zini bazo'r idora qilib oldi. Garri barcha harakatlari, tikanak dumli venger ajdari atrofida gir aylanib, hamlalariga chap bergani haqida batafsil hisobot yozgani uchun bo'lsa kerak, xat uzun va anchagina vazmin chiqqan edi.

Bolalar Cho'chrinstelning qorong'ida gum bo'lishini kuzatib turishdi.

– Xo'sh, pastga tushamizmi endi? – taklif kiritdi Ron. – Garri, seni mehmonxonada sovg'a-salom kutyapti. Fred bilan Jorj oshxonadan har xil yeguliklar olib kelishgan bo'lsa kerak.

Ular fakultetning umumiy mehmonxonasiga kirib kelishlari bilan chindan ham ayyuhannos ko'tarildi. Stollarga pirojniylar uyub qo'yilgan, oshqovoq sharbati va huzur-lazzat ichimligiga to'ldirilgan ko'zalar terilgan. Li Jordan doktor Filibusterning suvdan olovsiz otiladigan fantastik mushaklarini uchirib, xonani yulduzchalar-u, uchqunlarga to'ldirib yuboribdi. Rasm solish ustasi Din Tomas esa supurgini egarlab ajdarning boshi atrofida uchib yurgan Garri tasvirlangan bir nechta plakat tayyorlabdi. Boshi yonayotgan Sedrikning tasviri tushirilgan bir-ikkita hajviy rasmlar ham yo'q emas.

Ancha vaqtdan buyon to'qlik nimaligini bilmagan Garri ovqatlanishga zo'r berdi. Do'stlari davrasida o'tirar ekan, dunyoda bundan ortiq baxt bo'lishi mumkinligini tasavvur qila olmadi. Ron yonida o'tiribdi, birinchi sinov ortda qoldi, navbatdagi musobaqaga esa hai uch oy bor.

– Muncha og'ir bo'lmasa! – xitob qildi stolda turgan tilla

tuxumni qo‘lda tortib ko‘rgan Li Jordan. – Ma, Garri, och, ko‘raylik-chi, ichida nima bor ekan!

– Bellashuv shartlariga ko‘ra, topishmoq javobini yolg‘iz o‘zi topishi kerak, – tez eslatdi Germiona. – Qoidasi shunaqa...

– Bellashuv shartlariga ko‘ra, ajdar yonidan o‘tish usulini ham o‘zim o‘ylab topishim kerak edi, – pichirladi Garri Germionaga eshittirib.

Germiona aybdor kishiday kulib boqdi.

– Och, Garri, och! – baralla o‘tindi fakultetdoshlar.

Tuxumning o‘rtasini belbog‘ siqib turibdi. Uni bo‘shatish uchun tuxum uchida maxsus halqa bor. Li uzatgan tuxumni qo‘liga olgan Garri halqani kuch-la burab ochdi.

Tuxumning ichki qismi bo‘shliq bo‘lib, hech narsa ko‘rinmadi, lekin ochilishi bilan umumiy mehmonxonani nihoyatda yoqimsiz, baland g‘ijirlagan tovush qamradi. Garri ushbu tovushni «Deyarli Boshsiz Nik»ning o‘lgan kun yubileyida arvohlar orkestri tomonidan musiqa arralari vositasida chalingan kuyga o‘xshatdi.

– Yop, tezroq yop! – o‘kirdi Jorj, kaftini qulog‘iga mahkam bosib.

– Nima edi u? – g‘udulladi Simus Finnigan yopilgan tuxumga dahshat-la qarab. – Narigi dunyodan vakil bo‘lib kelgan ayol ovoziga o‘xshadi-ya... Ikkinchi sinovda ajdar emas, vakil ayol bo‘larmikan?

– Qiynoqqa solingan odam afg‘onlari! – fikr bildirdi qo‘lidagi go‘shtli somsani polga tushirib yuborgan Nevill, rangi bo‘zday oqarib. – Qiynoqqa solish qarg‘ishi ta’siriga chidashing kerak bo‘ladi, shekilli.

– Nimalar deyapsan, Nevill, unday qilmish qonunga xilof-u! – e’tiroz bildirdi Jorj. – Chempionlikka da’vogarlarga nisbatan Qiynoqqa solish qarg‘ishini qo‘llash mumkin emas. Bu tovush Persining qo‘shig‘iga o‘xshaydi... Garri, menimcha, dushxonada yuvinayotgan Persiga tajovuz qilishingga to‘g‘ri keladi-yov...

– Germiona, tort yeysanmi? – taklif qildi Fred.

XXI BOB. Uy elflarini hurriyatga chiqarish fronti

Germiona Fred uzatgan likopga shubha ila qaradi.

– Qo‘rqma, bu bo‘lakka hech nima qilganim yo‘q, lekin sariyog‘li cho‘zmalardan xavfsiragan ma’qul.

Cho‘zmalardan birini endigina tishlab uzgan Nevill shu zahoti tupurib yubordi.

– Hazillashdim, Nevill, – dedi Fred makkorona irshayib.

– Fred, bularning barini oshxonadan olib kelgansiz, shundaymi? – so‘radi Germiona tortni olib.

– «So‘rang ser, istagan narsangizni muhayyo qilamiz!» – irshaydi Fred uy elfming ovoziga taqlid qilib. – Ular ochlarga bajonidil yordam berishga tayyor. Qornim och desang bo‘ldi, kerak bo‘lsa, oldingga, nimtalanmay qovurilgan novvosni qo‘yishadi.

– Oshxona qayerda o‘zi? – nozik ovoz-la so‘radi Germiona, shunchaki qiziqqan bo‘lib.

– Maktab oshxonasiga yashirin eshikdan kiriladi. Eshikni esa har xil mevaga to‘la vaza rasmi to‘sgan. Undagi nok tasvirini qitiqlasang bas, meva hiringlab...

Birdan Fred unini o‘chirib, Germionaga diqqat-la razm soldi.

– Shoshma, oshxona nima uchun kerak bo‘lib qoldi senga?

– Shunchaki, so‘radim-qo‘ydim-da, – tez javob berdi Germiona.

– Uy elflarining ish tashlashini uyushtirmoqchimisan? – qiziqdi Jorj. – Varaqa tarqatish bosqichidan endi elflar qo‘zg‘olonini uyushtirish bosqichiga o‘tmoqchimisan?

Ayrimlar kulib yuborishdi. Germiona indamay qo‘ya qoldi.

– Oshxonaga kiradigan bo‘lsang, elflarga kiyim kiyish, odamlardan ish haqi talab qilish kerakligi haqida gap ocha ko‘rma! – tahdid ohangida ogohlantirdi Fred. – Ularning kayfiyatini buzib, taom tayyorlashdan chalg‘itganing qoladi, xolos! Agar omon chiqsang, albatta.

Shu paytda yirik kanareykaga[1] aylanib qolgan Nevill

[1] **Kanareyka** (*ispancha:* Sapagu – Kanar orollari nomidan) – chumchuqsimonlar

hammaning e'tiborini o'ziga qaratdi.

– Voy!... Ma'zur ko'rasan, Nevill! – qichqirdi Fred umumiy qahhaha ostida. – Unutibman, shekilli... Biz chindan ham saryog'li cho'zmalarni sehrlab qo'ygan edik!

Bir daqiqa o'tar-o'tmas Nevill tullay boshlab, so'nggi pati tushgach, asl qiyofasiga qaytdi va boshqalarga jo'r bo'lib, o'zi ham miriqib kuldi.

– Kanareyka qandlari! – e'lon qildi Fred, qoyil qolgan xaloyiqqa murojaat qilib. – Jorj ikkalamizning ixtiromiz! Bir donasi yetti sklat, marhamat!

Tungi soat birdan o'tib Garri o'rtoqlari Ron, Nevill, Simus va Din bilan birga yotoqxonaga kirdi. To'q-qizil rangli baxmaldan tayyorlangan guldor chodirining pardasini tortishdan oldin Garri karavotining yonidagi stolcha ustiga tikanak dumli venger ajdarining mitti qomatini qo'ydi. Ajdarcha chuqur esnab, guvalacha bo'lib yotdi-da, ko'zini chirt yumdi. «Umuman aytganda, – o'yladi Garri, pardani tortar ekan, – Xagrid haq, o'ziga xos ko'rki bor, ushbu ajdarlarning... »

***

Dekabr oyi «Xogvars»ga kuchli shamol-u, yomg'ir aralash qor keltirdi. Qish faslida qasr ichida o'ynaydigan yelvizak shamol qadimiy binoning u yog'idan kirib, bu yog'idan chiqadi. Shunga qaramay, Garri har safar durmshtrangchilarning kemasi yonidan o'tar ekan, qasrning qalin devori-yu, issiq kaminlari haqida minnatdor o'ylab qoladi. Kema shamolda kuchli chayqalib, yelkanlari qora osmon tusida tinimsiz hilpiraydi. ««Belstek» maktabining aravasi ham issiq bo'lmasa kerak», xayoldan o'tkazdi Garri. Xagrid Maksim xonimning otlarini viski bilan o'z vaqtida sug'orib bormoqda. Esayotgan shamol qo'ton burchagidagi oxurdan viski bug'ini keltirib, sehrli hayvonlarni parvarish qilish fani darsida shug'ullanayotgan o'quv-

turkumiga mansub, yovvoyi holda yashaydigan va sayroqiligi uchun xonadonlarda qafasda ham boqiladigan qushcha.

chilarning kayfiyatini chog‘ qilmoqda. Ularning bunday holatda yurishi esa maqsadga muvofiq emas. Negaki o‘quvchilar hamon anavi mudhish portlovchi drakllarni parvarish qilmoqda. Bunday ish esa o‘z navbatida, bolalardan hushyorlikni talab etadi.

– Drakllar qishki uyquga yotadimi, yo‘qmi, hech tushunmayapman, – dedi Xagrid, oshqovoq yetishtiriladigan egatda sovuqdan dag‘-dag‘ titrayotgan o‘quvchilarga. – Tumshuqlari bilan yer cho‘qiyaptimi, yo‘qmi, kuzatib borishga to‘g‘ri keladi, shekilli... Hozircha ularni mana bu yashiklarga qamaymiz...

Drakllar atigi o‘nta qolgan. O‘ziga o‘xshaganlarni o‘ldirish ushbu maxluqlar tabiatiga xos, hech arimas odatga o‘xshaydi. Bugungi kunga kelib har bir draklning uzunligi olti futga yet-gan. Kulrang zirh, krabnikiday baquvvat oyoqlar, nish, so‘r-g‘ichlar va olov purkaydigan dum har bir draklga shunday qiyofa baxsh etganki, bulardan o‘tadigan jirkanch hayvonni Garri muqaddam ko‘rmagan. O‘quvchilar Xagrid keltirgan katta yashiklarga g‘alati qarab qo‘yishdi. Har bir yashik ichiga pat to‘shalgan bo‘lib, bittadan yostiq qo‘yilgan.

– Endi sizlarni yashikka yotqizib, qopqog‘ini yopamiz, – erkalab gapirdi Xagrid drakllarga. – Qani, ko‘raylik-chi, nima bo‘lar ekan

Biroq aniqlanishicha, drakllar qishki uyquga ketmas, shuningdek, ichiga pat to‘shak va yostiq tashlanib, qopqog‘i mixlanadigan yashik ichida yotmas ekan.

– Jim, tinchlaning, vahima qilmang, – drakllarga o‘kira ketdi Xagrid ko‘p o‘tmay.

Maxluqlar har yerda tutab yotgan yashik parchalariga to‘l-gan oshqovoq egati bo‘ylab yugurib, tevarak-atrofga tarqab ketdi.

Malfoy, Krabbe va Goyl boshchiligidagi aksariyat o‘quv-chilar Xagridning kulbasiga orqa eshikdan kirib, ichkaridan bekinib oldi. Garri, Ron va Germiona esa qolgan o‘quvchilar bilan birga Xagridga yordam berishdi. Eti kuyib, ko‘p jarohat olgan bolalar katta kuch sarflab drakllarning to‘qqiztasini qo‘l-ga olishga muvaffaq bo‘ldi. Ozodlikda faqat bitta drakl qoldi.

XXI BOB. Uy elflarini hurriyatga chiqarish fronti

Garri bilan Ron belidagi nishini titratgancha tahdid solib kelayotgan draklga qarata sehrli tayoqchalardan uchqun sachratayotganini ko‘rgan Xagrid qichqirdi:

– Muhimi, uni cho‘chitib yubormang! Sheriklariga zahmat yetkazishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun nishiga arqon tashlashga urining.

– Bu bilan shavqatsizlik qilib qo‘ygan bo‘lmaymizmi?! – kesatib baqirdi Ron.

Garri ikkalasi kulba devoriga beli bilan suyanib olgancha, tahdid solib yaqinlashayotgan draklga qarata uchqun otishmoqda.

– Xo‘sh-xo‘sh-xo‘sh... naqadar qiziq ko‘ngilxushlik, – eshitildi jirkanch ovoz.

Bog‘ to‘sig‘iga suyanib olgan Rita Vriter ushbu alg‘ov-dalg‘ovlikni zo‘r qiziqish bilan tomosha qilmoqda. Bugun u egniga arg‘uvon yoqali to‘q qizil rido kiyib, timsoh terisidan tayyorlangan sumkachasini qo‘liga osib olibdi.

Xagrid o‘zini Garri bilan Ronni burchakka taqagan drakl-ning ustiga tashlab, yerga mahkam bosib oldi. Maxluqning dum tomonidan portlash tovushi yangrab, egatdagi bir-ikkita osh-qovoq burda-burda bo‘lib ketdi.

– Siz kim? – so‘radi draklning nishiga arqon sirtmog‘ini tashlab, mahkam siqqan Xagrid Ritaga murojaat qilib.

– «Bashorat-u karomat gazetasi»ning maxsus muxbiri Rita Vriter, – quvonch-la o‘zini tanishtirdi Rita, tilla tishini yalang‘ochlatib.

– Bilishimcha, Dambldor sizni maktab hududiga kiritishni man etgan, – dedi qoshini chimirgan Xagrid, biroz ezilgan draklning ustidan turgancha, maxluqni sheriklari tomon tortib.

Rita Xagridning gapiga e’tibor bermadi.

– Bu qiziq hayvonchalar nima deb nomlanadi, – so‘radi u pinagini buzmay, yanada yashnab.

– Portlovchi drakllar, – g‘udulladi Xagrid.

– Nimalar?! – xitob qildi Rita, qiziqsinib, – Ilgari eshitmagan ekanman... Qayerdan keltirilgan?

XXI BOB. Uy elflarini hurriyatga chiqarish fronti

Xagridning qop-qora paxmoq soqol qamragan yuzi arg'uvon tus olayotganini ko'rgan Garri o'ylanib qoldi. Haqiqatan ham, qayerdan topib kelgan Xagrid ushbu turqi xunuk hayvonlarni? Aftidan, xuddi shuni o'ylagan Germiona gapga aralashdi:

– Juda qiziq jonivorlar, a? To'g'rimi, Garri?

– Nima?! A, ha... voy... juda qiziq hayvon, – javob berdi Garri, oyog'ini Germiona bosib olgach.

– Ax, Garri! Sen ham shu yerdamisan? – chinqirdi Rita bolalar tomon yuzlanib. – Demak, sehrli hayvonlarni parvarish qilish fanini yoqtirar ekansan-da? Yaxshi ko'rgan faningmi?

– Ha, – qat'iy bosh irg'idi Garri.

Xagridning yuzi tabassumdan yorishib ketdi.

– Juda soz, – dedi Rita. – Juda soz. Siz ko'pdan buyon o'qituvchilik qilasizmi, maktabda? – so'radi u Xagriddan.

– Ikkinchi yil, – javob berdi Xagrid.

Rita Vriter dastlab yuzi jiddiy jarohatlangan Din, korjo-masi yaxshigina yonib teshilgan Lavanda, kuygan barmog'ini puflayotgan Simusga diqqat bilan razm soldi. Shundan so'ng kulbaga bekinib olib, burunlarini deraza oynasiga bosgancha, drakllar bilan o'tayotgan muhorabaning yakuniga yetishini kutayotgan boshqa o'quvchilarning ruhiy ahvoliga e'tibor qaratdi.

– Juda soz, – yana takrorladi ayol. – Menga intervyu be-rish, sehrli hayvonlarni parvarish qilish borasida to'plangan boy tajribangiz bilan o'rtoqlashishni istamaysizmi? «Bashorat-u karomat gazetasi»ning har chorshanba kungi sonida chiqadigan zoologiya rukuni bor. Buni o'zingiz ham yaxshi bilsangiz kerak. Gazetxonlarga anavi... o'qotar drakllar haqida ma'lumot berib o'tsangiz, yomon bo'lmas edi.

– Portlovchi drakllar, – g'ayrat-la to'g'rilab qo'ydi Xagrid. – M-m-m... shunchalik ekan, berishim mumkin o'sha intervyuni.

Bu gap Garriga negadir yoqmadi. Biroq bu fikrini anavi Ritaga bildirmay Xagridga aytishning ilojini topa olmagach, davomli suhbat qurish uchun shu hafta ichida «Uch supurgi»

qahvaxonasida uchrashishga kelishib olishlarini indamay kuzatib turishdan boshqa chora topa olmadi. Tez orada qasr tomondan dars nihoyasiga yetganini anglatgan qo'ng'iroq zarbasi eshitildi.

– Ko'rishguncha, Garri! – quvnoq kayfiyat-la xayrlashdi Rita Vriter, qasr tomon yo'l olgan Garri bilan. – Juma kuni uchrashguncha, Xagrid.

– Xagridning o'sha intervyu uchun aytgan gapini uydirma, yolg'on-yashiq gaplar sifatida bayon etishi muqarrar, – pichirladi Garri.

– Xagrid drakllarning tuxumini yurtimizga yashirin yo'l bilan olib kirmaganiga umid qilishdan boshqa chora yo'q, – umidsiz xo'rsinib qo'ydi Germiona.

Bolalar bir-biriga ma'noli qarab qo'yishdi. To'g'ri-da, Xagriddan yana nimani ham kutish mumkin?

– Xagrid o'xshash qiliqlarini yuzlab marta qilgan bo'lishiga qaramay, Dambldor shu bugungacha uni ishdan haydab yubormadi, – o'rtoqlarini tinchlantirgan bo'ldi Ron. – Mabodo oqibati yomonlik bo'lsa, anavi drakllaridan xalos bo'lishga majbur bo'ladi, xolos. Uzr, yomonlik dedimmi? Yo'q, nari borsa!

Garri bilan Germiona kulib, kayfiyatlari biroz ko'tarilgach, tushlik qilgani yo'l olishdi.

Kunning ikkinchi yarmida o'tgan qo'sh soatli bashorat darsida Garri rosa miriqdi. Ular haligacha yulduzlar xaritasini tuzish-u, ushbu xaritaga asoslangan holda fol ochish bilan mashg'ul bo'lishmoqda. Ron ikkalasi yarashib olgan ekan, bu ish yanada quvnoq kechdi. O'z ajallarining turli-tuman variant-larini bashorat qilgan ikkala boladan dastlab mamnun bo'lgan professor Trelani ko'p o'tmay ikkalasidan achchiqlana boshladi. Negaki o'qituvchi Plutonning kundalik hayotga halokatli ta'sir o'tkazishi haqida so'zlar ekan, Garri bilan Ron istehzoli pishqirishni hech qo'yishmadi.

Professor Trelani Garriga ma'noli baqrayib, garchi ohangi g'azabini niqoblamagan bo'lsa-da, sirli pichirlay ketdi:

– Agar oralaringda o'tirgan ayrim shaxslar o'tgan kecha

Billur shar qa'rida menga ko'ringan narsani o'z ko'zi bilan ko'rishganda edi, o'zlarini bu qadar erkin tutishmagan bo'lishardi. To'qish ishlari bilan band bo'lib o'tirgan edim. Qo'qqisdan Shardan maslahat olishni istab qoldim. Sharning ro'para-siga o'tgach, uning billur qa'riga qaradim... Xo'sh, nima deb o'ylaysiz, Shar ichidan nima qarab turgan ekan menga?

– Yirik ko'zoynak taqib olgan, turqi xunuk qari ko'rshapalakdir-da? – taxmin qildi Ron, past eshittirib.

Pinagini saqlab, jiddiy qolish uchun Garriga ancha kuch sarflashga to'g'ri keldi.

– Ajal, qadrdonlarim, ajal ko'rindi menga! – ma'lum qildi professor.

Aftidan, vujudini dahshat qamragan Parvatti bilan Lavanda kaftlarini og'izga bosishdi.

– Ha, – haybat-la bosh irg'idi professor Trelani. – Ajal hali bu qadar yaqin kelmagan. Bosh uzra qarchig'ay singari gir aylanib, qasr ustiga tobora pastlab tushmoqda.

U Garriga ma'noli qarab qo'ydi. Garri esa lang ochilgan og'zini to'smay, ochiqdan ochiq esnab qo'ydi.

– Agar u ayni bir narsani sakson marta bashorat qilma-ganda bugungi gapidan durustroq ta'sirlangan bo'larmidim?! – fikr bildirdi Garri, professor Trelanining xizmat xonasini tark etib, toza havoda chuqur nafas olgach. – Har safargi basho-ratidan so'ng tappa yiqilib o'laversam, tibbiyot sohasiga oid favqulodda namunaga aylanib qolishim turgan gap-u.

– Yo'q, haddan ortiq qaysar arvoh bo'lar eding, – dedi kulgidan ezilgan Ron.

Ayni shu paytda ularning ro'parasidan chiqqan «Qonxo'r Baron» ko'zini tahdid-la yarqiratib o'tdi.

– Ha, mayli. Hech bo'lmasa, uyga vazifa berilmadi-yu, – dedi Ron, arvohning ketidan qarab qo'yib. – Umid qilamanki, Germionaga aksincha, ko'proq vazifa berildi. Qani endi, u dars qilsa-yu, biz bekor o'tirsak. Juda yoqtiraman shunaqa kechalarni.

Biroq Germiona tushlik qilgani kelmadi. Viktor Krumning yolg'iz o'zi o'tirgan kutubxonada ham ko'rinmadi. Ron kitob

tokchalari ortiga o'tib, Krumning dastxatini olish-olmaslik haqida Garri bilan biroz munozara qildi. Lekin qo'shni tokchalar ortida xuddi shu mavzuni muhokama qilayotgan besh-olti nafar qizni ko'rib, shashtidan qaytdi.

– Qiziq, qayoqqa yo'qolib qoldi ekan u? – takror so'radi Ron, «Griffindor» minorasiga yaqin qolganda.

– Bilmadim... Bema'ni gap.

«Semiz Xola» endigina yuqoriga ko'tarila boshlagan ediki, tapir-tupur eshitilgan qadam tovushi Germionaning yugurib kelayotganidan dalolat berdi.

– Garri! – halloslab keldi Germiona bolalarning yonida keskin to'xtab. – Garri, yur men bilan, – dedi u, do'stining qo'lidan tortgancha, yo'lak tomon tortib. – Yur, juda g'ayrioddiy narsa, yur, iltimos...

«Semiz Xola» qoshini baland ko'tarib, Germionaga qaradi.

– Nima bo'ldi, tinchlikmi? – hayron bo'ldi Garri.

– O'zing tushunib olasan. Tezroq yur! – qistadi Germiona.

Garri Ronga qarab qo'ydi. O'rtog'i ham qiziqib qolgan.

– Borsak, bora qolaylik, – rozi bo'ldi Garri Germionaning ortidan ergashib.

Ron o'rtoqlariga yetib olishi uchun bir-ikki qadam yugurishga majbur bo'ldi.

– Menga, demak, e'tibor bermasa ham bo'laveradi, shundaymi? – vaysab qoldi «Semiz Xola» bolalarning ortidan. – Bezovta qilinganim uchun uzr so'ralmasa ham bo'laverar ekanda, a? Qaytib kelish sharafiga muyassar qilgunizcha shunday ochiq holatda turaveray-da?

– Ha. Rahmat, – qichqirdi Ron yelka orqali.

Bolalar olti qavat pastga tushib, hashamatli marmar zinadan vestibulga tushishdi.

– Germiona, qayoqqa ketyapmiz? – so'radi Garri, toqati toq bo'lib.

– Ko'rasan, hozir o'zing ko'rasan! – javob berdi talvasali holatini bazo'r idora qilayotgan Germiona.

Zinadan tushgach, Germiona chapga burildi va Olov kuboki

Nok hiringlagancha to‘lg‘anib, yashil rangli eshik dastasiga aylandi. Germiona dastani tortib eshikni ochdi-da, Garrining belidan itarib, kuch bilan ichkariga kiritdi.

Katta Zal kabi nihoyatda keng, baland shiftli, devor bo‘ylab bir olam mis kastrulka-yu, tova terilgan, narigi tomonida ulkan g‘isht o‘choq ko‘ringan, aftidan, aynan Katta Zal ostida joylashgan xona. Manzarani durustroq tomosha qilishga ulgurmagan Garrining qorniga qandaydir kichik narsa kelib urildi.

– Garri Potter, ser! Garri Potter!

Garrining nafasini chiqarib yuborgan mitti maxluq shu qadar kuchli quchib olganki, bola beixtiyor qovurg‘asining qismati haqida o‘ylanib qoldi.

– D-dobbi? – ezilib so‘radi Garri.

– Dobbi, ser, Dobbi, albatta, Dobbi! – eshitildi kindik ostidan chiqqan ovoz. – Dobbi ko‘p kunlardan buyon Garri Potter bilan uchrashish niyatida yurgan edi. Mana nihoyat, Garri Potterning o‘zi Dobbi bilan uchrashishga hozir bo‘libdi, ser!

Dobbi qadrdon mehmonni xalos etib, bir necha qadam ortga tashladi-da, Garrini zavq-la tomosha qildi. Har biri tennis koptogiday keladigan yam-yashil baqako‘zlar quvonch yoshiga to‘lgan. Garri qanday eslab qolgan bo‘lsa, elf o‘sha qiyofada: qalam burni uzun, ko‘rshapalak qulog‘iga o‘xshash qulog‘i tanasiga nisbatan ancha katta, barmoqlari-yu, oyoq uchlari uzun-uzun. Faqat kiyimi batamom o‘zgaribdi.

Dobbi Malfoylar xonadonining xizmatkori bo‘lib yurgan kezlarda, kiyim sifatida xizmat qilgan bo‘lib, qullik ramzi sanalgan iflos yostiqjild egnidan tushmas edi. Endi-chi, qiyofasini biron nimaga o‘xshatish qiyin. Kiyim tanlash bobida kvidish kubogining final o‘yinini tomosha qilgani kelgan sehrgarlardan qolishmaydi. Boshiga shlapa o‘rniga, bir olam ko‘krak nishoni qadalgan choynak g‘ilofini kiyib olibdi. Yalang‘och ko‘kragini ot taqasi tasvirlangan galstuk, tanasining pastki qismini – bola-chalarning futbol shorti to‘sgan. Oyog‘iga har xil paypoqlarning bittadan poyini kiygan. Ulardan biri Garrining eski paypog‘i. Bir vaqtlar Garri oyog‘idan yechgan ushbu paypoqni ayyor yo‘l-la

mister Malfoyga ushlatgan. Mister Malfoy esa Dobbiga uzatib, o'z elfini g'ayriixtiyoriy ravishda hurriyatga chiqarib qo'ygan.

– Nima qilyapsan bu yerda, Dobbi? – hayron bo'lib so'radi Garri Dobbining pushti va malla tusli yo'laklari ila ko'zga yaqqol tashlanayotgan ikkinchi paypoq poyiga qarab.

– Dobbi «Xogvars»ga kelib, ishli bo'ldi, ser! – g'ijirlab maqtandi elf. – Professor Dambldor Dobbi bilan Vinkiga ish berdi, ser!

– Vinki? U ham shu yerdami? – so'radi Garri.

– Ha, ser, ha, shu yerda! – xitob qildi Dobbi Garrining qo'lidan ushlagancha, ikkita uzun yog'och stol orasidan oshxona ichkarisiga tortib.

Garri ushbu stollar yuqori qavatdagi Katta Zalda turgan to'rtta fakultet stoli singari o'rnatilganiga e'tibor qildi. Hozir, kechki ovqatlanish vaqti o'tgani bois stollar ustida hech qanday yegulik yo'q. Ammo shubha yo'qki, bu stollar bir soat oldin shift orqali yuqoriga, tegishli stolga yo'llanadigan taomlarga to'lib-toshgan.

Oshxonada ishlayotgan elflar soni yuztadan kam emas. Egniga «Xogvars» gerbi tasvirlangan oshxona sochig'ini toga sifatida o'rab olgan uy elflari irshaygancha, Dobbi yetaklayotgan Garriga haqirona tavoze qilishmoqda. Garri Vinkini ilk bor ko'rganida sochiqni egniga xuddi shu tarzda o'rab olganini esladi.

– Vinki, ser! – g'ishtdan terilgan o'choq yonida to'xtab, barmoq uzatdi Dobbi.

Olov yaqinidagi kursida o'tirgan Vinki Dobbidan farqli o'laroq egnidagi kiyimni o'ziga o'zi qidirib topmagan ko'rinadi. U kaltagina batartib yubka, chiroyligina ko'ylak va quloq uchun teshik ochilgan qalpoqcha kiyib olgan. Biroq Dobbining kiyimi xuddi yangiday top-toza bo'lsa, Vinki kiyimiga mutlaqo beparvo yuradigan ko'rinadi. Ko'ylagiga sho'rva to'kilib, dog' qilgan, yubkasini esa cho'g' kuydirib teshibdi.

– Salom, Vinki, – ko'rishdi Garri.

Labi titragan Vinki xuddi final o'yinidan so'ng yig'lagan

kaOi ho‘ngrab yubordi. Yirik jigarrang ko‘zidan oqa boshlagan shashqator ko‘z yoshi ko‘ylagini bir zumda ho‘l qildi.

Garrining izidan Rong bilan birga ergashib kelgan Germiona Vinkini yupatishga kirishdi:

– Voy Xudoyim, Vinki, qo‘y yig‘lama. Vinki, qo‘ysang-chi endi, bo‘ldi, yig‘lama...

Vinki esa aksincha, battar uvvos soldi. Garriga zavq-la qarab turgan Dobbi Vinkining yig‘i tovushini bosishga urin-gancha, baland chirillab so‘radi:

– Bir piyola choy ketadimi, muhtaram Garri Potter?

– M-m-m... mayli, yo‘q demayman.

Bir zumda tapir-tupir eshitilib, ustiga bir choynak choy, sut to‘la ko‘za, Garri, Ron va Germiona uchun uchta chashka va bir likop biskvit[1] terilgan katta kumush patnisni ko‘targan oltita uy elfi yaqinlashdi.

– Yaxshi ishlar ekansiz! – maqtagan bo‘ldi Ron.

Germiona qoshini chimirib qo‘ydi. Ammo maqtov eshitgan elflar yaltoqlangancha, xokisorona tavoze qilishdi.

– Qachondan buyon ishlayapsan bu yerda? – qiziqdi Garri Dobbi uzatgan chashkani olib.

– Endi bir hafta bo‘ldi, Garri Potter, ser! – huzur-la javob berdi Dobbi. – Dobbi, professor Dambldorning huzuriga tashrif buyurdi, ser. Bilmoqchi bo‘lsangiz, ser, quvg‘in qilingan uy elfiga, ish topish u qadar oson kechmaydi, ser. Juda-juda qiyin, ser...

Dobbining gapini eshitgan Vinki battar faryod ko‘tarib, o‘lchami ham shakli ham yirikkina pomidorga o‘xshash burni oqa boshlaganiga qaramay, uni artish uchun harakat ham qilmadi.

– Dobbi ish izlab ikki yil yurt kezdi, ser! – chiyildoq ovoz-da davom etdi Dobbi. – Biroq hech bir natija chiqmadi, ser. Chunki endi Dobbi maosh olishi kerak, ser!

---

[1] **Biskvit** (*fransuzcha:* biscuit) – qandolatchilik mahsuloti; un, yog‘, shakar, tuxum, sut va boshqa masalliqlardan tayyorlanadigan pishiriq turi. Maxsus shakllardagi qolip idishlarda pishiriladi.

XXI BOB. Uy elflarini hurriyatga chiqarish fronti

Suhbatni zo‘r qiziqish-la eshityotgan boshqa elflar xuddi Dobbi nihoyatda uyatsiz gap aytganday, yuzlarini teskari o‘girishdi.

– To‘g‘ri qilasan, Dobbi! – ma’qulladi Germiona.

– Minnatdorman, miss! – qing‘ir-qiyshiq tishini ko‘rsatib irshaydi Dobbi. – Faqat aksariyat sehrgarlar uy elfiga maosh to‘lashni o‘zlariga ep ko‘rmadi, miss. Dobbining talabini eshitib: «Nega endi allaqanday qalang‘i-qasang‘i uy elfiga haq to‘lashim kerak ekan» deyishgancha, eshikni shartta yopib qo‘yishdi. Dobbi mehnatdan qochmaydi, lekin u kiyim kiyish, mehnatiga yarasha haq olishni istaydi. Garri Potter... Dobbiga hurriyat juda yoqadi!

«Xogvars» elflari Dobbi allaqanday yuqumli kasallikka chalinganidan endigina voqif bo‘lishganiday orqaga tislanishdi. Faqat borgan sari baland ovoz-la baqirib yig‘layotgan Vinki joyida qoldi.

– Shundan so‘ng Dobbi Vinkining holidan xabar olgani borib, u ham hurriyatga chiqqanini bildi, Garri Potter, ser! – xitob qildi Dobbi.

Vinki o‘zini tosh koshin qoplab bezatilgan polga tashlab, yuzini yerdan ko‘tarmay yotgancha, dod solib yer mushtladi. Germiona shu zahoti Vinkining qarshisiga cho‘kkalab, uni yana bir bor yupatishga urinib ko‘rdi. Biroq qizning biron-bir so‘zi urg‘ochi elfning qulog‘iga kirmadi.

Dobbi ham ovozini ko‘tarib, hikoyasini davom etdi:

– Sal o‘tib, Dobbining miyasiga bir o‘y keldi, Garri Potter, ser! Dobbi Vinki bilan birgalikda ish qidiradigan bo‘ldi! Vinki: «Birvarakayiga ikkita elfga qayerdan ham ish topar eding?» deya e’tiroz bildirdi. Shunda Dobbi o‘ylab-o‘ylab, o‘yiga yetdi, ser! Albatta, «Xogvars»da! Shu tariqa Dobbi bilan Vinki professor Dambldorning huzuriga ish qidirib kelishdi, ser. Qarangki, professor Dambldor bizni ishga oldi!

Xursandligidan yashnab ketgan Dobbining yirik ko‘zi yana yoshga to‘ldi.

– Professor Dambldor Dobbi istagandek ish haqi to‘lashga

rozi bo‘ldi, ser! Endi Dobbi mutlaqo ozod elf, ser! Unga haftada bir galleon maosh to‘lanib, bir oyda bir kun dam olish imkoniyati havola etiladi!

– Axir, bu juda oz-u! – e’tiroz-la qichqirdi polda o‘tirgan Germiona yer mushtlab yotgan Vinki uzra qarab.

– Professor Dambldor haftada o‘n galleon haq to‘lash va ikki kun dam olishni taklif etdi, miss, – seskanib tushuntirish berdi Dobbi, xuddi buncha ko‘p boylik-u, bekor yurish istiqboli uni qo‘rqitib yuborganday. – Lekin Dobbi bahoni pasaytirishga muvaffaq bo‘ldi, miss... Dobbi hurriyatni yaxshi ko‘radi, albatta, miss, biroq unga haddan ortiq ozodlik kerak emas, u ko‘proq mehnatni yoqtiradi, miss.

– Senga-chi, Vinki? Professor Dambldor qancha haq to‘layapti? – muloyim ovozda so‘radi Germiona.

Shu tariqa Vinkiga dalda bermoqchi bo‘lgan Germiona qattiq yanglishdi. Urg‘ochi elf ho‘ngrashni bas qildi. U qaddini ko‘tarib, yotgan yeriga o‘tirdi.

– Vinki past ketgan elf, albatta, miss, – chirilladi u, shilta yuzining deyarli yarmini egallagan ko‘zi qahr-g‘azabdan yarqirab. – Biroq hali o‘zini siz o‘ylagan darajada, mehnatiga haq oladigan darajada yerga urgani yo‘q! Vinki bu qadar tubanlashmaydi! Vinki o‘z hurriyatidan or qiladi!

– Or qiladi? – tushunmadi Germiona. – Ammo... Qo‘y-sang-chi, Vinki! Sen emas, mister Sgorbs uyalishi kerak o‘z qilmishidan! Sen hech qanday nojo‘ya ish qilganing yo‘q. Aksincha, u senga mudhish munosabat bildirgan edi...

Germionaning gapini eshitgan Vinki kaftchalari bilan boshidagi qalpoqchaning quloqlar uchun ochilgan teshigini mahkam bosib oldi.

– Sohibimni haqorat qilishga jur’at etmang, miss! Mister Sgorbs yaxshi sehrgar, miss! Mister Sgorbs Vinkini quvib solib to‘g‘ri qildi!

– Vinki hurriyatga qiyin moslashyapti, Garri Potter, – tushuntirish bergan bo‘ldi Dobbi. – Vinki mister Sgorbsning quli emasligini unutib qo‘ymoqda. U endi xayoliga kelgan fikrni

aytaverishi mumkin. Lekin u bunday qilmaydi chog'i.

– Demak, uy elfi o'z sohibi haqidagi fikrini ayta olmas ekanda, shundaymi? – so'radi Garri.

– O, yo'q, ser, yo'q, – daf'atan jiddiy tus oldi Dobbi. – Qullik rasmi shunday, ser. Biz o'z sohiblarimizning sir-asrorlarini hech kimga oshkor qilmasligimiz, xonadon sha'niga putur yetkazmay, sukut saqlashimiz, ular haqida bema'ni gaplar tarqatmasligimiz kerak. Garchi professor Dambldor Dobbiga... bunday shartga amal qilishni talab qilmasligini aytgan bo'lsa ham... u bizga, hattoki...

Dobbi kutilmaganda asabiylashib, Garrini pastroq engashishga imo qildi. Garri engashgach, cho'chib-pisib hiringlagan Dobbi bolaning qulog'iga pichirladi:

– Professor Dambldor bizga: «*Agar sizga yoqadigan bo'lsa, meni kuch-quvvatdan qolib, yo'sin qoplaganiga ko'p yillar bo'lgan chol, deyishingiz mumkin*», dedi. Faqat Dobbi bunday demaydi, Garri Potter, – qat'iy rad etdi Dobbi qulog'i lunjiga urilib-urilib ketgan darajada bosh chayqab. – Dobbi professor Dambldorni nihoyatda hurmat qiladi, ser, uning sir-asrorlarini saqlab yurishni o'zi uchun buyuk sharaf, deb biladi.

– Malfoylar to'g'risida-chi? Ular haqida bemalol gapira olasanmi endi? – istehzoli kulib qo'ydi Garri.

Elfning yirik ko'zida sezilar-sezilmas qo'rquv ko'rindi.

– Dobbi... aytishi mumkinki, – ikkilandi elf, tor yelkasini qisib qo'yib, – Dobbi Garri Potterga shuni aytishi mumkinki, uning sobiq sohiblari... ular... juda yomon yovuz sehrgarlar!

O'z mardligidan o'zi larzaga kelgan Dobbi boshdan oyoq biroz dag'-dag' titrab turdi-da, kutilmaganda stol oyog'iga tashlanib:

– Dobbi yomon! Dobbi yomon! – degancha, boshini qarsillatib ura ketdi.

Garri Dobbining galstugidan ushlab, o'ziga tortdi.

– Rahmat, Garri Potter, rahmat, – minnatdorlik bildirdi zarbdan ko'zi qanshar tomon siljib qolgan Dobbi, peshanasini silab.

– Senga hali tajriba yetishmas ekan, – xulosa qildi Garri.

– Tajriba yetishmas ekan?! – darg'azab chiyilladi Vinki: – Uyat yetishmaydi unga, uyat! O'z sohibi haqida bunday deyishga or-nomus yetishmaydi!

– Ular menga sohib emas endi, Vinki! – dedi qat'iy ohangda Dobbi. – Ularning fikri Dobbini qiziqtirmaydi!

– O, sen shunday yomon elfsanki, Dobbi! – ingrab yubordi Vinki yana yig'iga tushib. – Bechora, bechora mister Sgorbs, Vinkisisiz endi nima qiladi, a? Men unga kerakman, axir! U mening yordamimga muhtoj! Men bir umr Sgorbslar xonadonida xizmat qilib kelganman, onam ham enam ham Sgorbslar sulolasiga xizmat qilib o'tishgan... Vinkiga ozodlik berilishini bilishsa, nima bo'lar edi, a? Qanday isnod, qanday sharmandalik! – uvvos soldi Vinki yuzini yubkasining etagiga bosib.

– Vinki, – dedi Germiona qat'iy ohangda, – Ishonchim komilki, mister Sgorbs hech qanday bechora ham emas, sening xizmatingga muhtoj ham emas. Biz uni yaqinda ko'rdik, u...

– Sohibimni ko'rdingiz? – unsiz so'radi Vinki yosh to'la ko'zini Germionaga chaqchaytirib. – Siz uni shu yerda, «Xogvars»da ko'rdingizmi?

– Ha, shu yerda, – javob berdi Germiona. – Mister Shul-man bilan birgalikda Uch sehrgar bellashuviga hakamlik qilmoqda.

– Mister Shulman ham shu yerdami? – yana darg'azab chiyilladi Vinki uchala bolani hayron qoldirib. – Mister Shulman yomon sehrgar! Juda yomon! Sohibim uni yoqtirmaydi! Hech xush ko'rmaydi uni!

– Shulman yomon sehrgar? – taajjublandi Garri.

– Ha, yomon, – bosh irg'idi Vinki. – Sohib Vinkiga ayrim sirlarini ishongan! Vinki ularni oshkor qilmaydi... Vinki o'z sohibining sir-asrorlarini ishonchli saqlaydi... Bechora, bechora sohib, Vinkisi yo'q, yordam beradigani yo'q sohib! – yana ho'ngray ketdi urg'ochi elf.

Vinkidan biron og'iz ma'nili so'z chiqmagach, uni o'z holiga qo'yishdi. Bolalar choyni Dobbining ozod elf sifatidagi baxtiyor hayoti, o'z jamg'armasi borasidagi kelgusi rejalari

haqidagi zavqli hikoyasini tinglab, oxirigacha ichib tugatishdi.

– Kelasi safar, Garri Potter, Dobbi o'ziga jemper sotib oladi! – quvonch-la e'lon qildi Dobbi, yalang'och ko'kragini ko'rsatib.

– Senga bir gap aytaymi, Dobbi? – dedi elfga mehri oshgan Ron. – Oyim har Rojdestvo bayramiga to'qib beradigan sviterlarimdan birini senga hadya etaman. To'q qizil rangni yoqtirasanmi, ishqilib?

Bu gapni eshitgan Dobbi zavqlanib ketdi.

– Ehtimol, tanangga mos kelishi uchun uni sal kichraytirishga to'g'ri kelar. Ammo boshingdagi choynak g'ilofiga rosa mos tushadi-da, o'ziyam.

Bolalar ketishga taraddud ko'ra boshlagach, ularning yoniga bir gala elf yugurib kelib, o'zlari bilan turli-tuman yeguliklar olib ketishni taklif qilishdi. Germiona haqirona tavoze qilayotgan elflarga achinib qarab, yegulik olishdan bosh tortdi. Garri bilan Ron esa kissalarini cho'zmalar-u, somsalarga to'ldirishdi.

– Katta rahmat! – minnatdorlik bildirdi Garri, xayrlashish uchun eshik yonida to'plangan elflarga. – Uchrashguncha, Dobbi!

– Garri Potter... Dobbi ba'zan mehmonga borib tursa maylimi? – tortinib so'radi elf.

– Albatta, – ijozat berdi Garri.

Dobbi turgan joyida yashnab ketdi.

– Bilasizlarmi? – dedi Ron, vestibuldagi hashamatli zinadan yuqoriga ko'tarilar ekan. – Shuncha yildan buyon akalarim Fred bilan Jorj oshxonadan yegulik o'g'irlab kela olishlaridan g'ururlanib kelgan edim. Endi bilsam, bu ish u qadar murakkab emas, aksincha, elflar odamlarga ovqat tarqatishdan o'zlarini baxtiyor bilishar ekan!

– Nazarimda, ikkala elf aynan shu yerga, «Xogvars»ga kelib, ish topgani yaxshi bo'ldi, – dedi Germiona. – Aytmoqchimanki, boshqa elflar hurriyatga erishgan Dobbining baxtiyorligini ko'rib, erkin hayot mazasini, ularga ham hurriyat suv va havodek zarur ekanini tushunib yetadi!

– Unday bo'lsa, hurriyatni tubanlik deb bilgan Vinkiga ko'p

vujudini qamragan qo‘rquv bilan dahshatni ham pastda qoldirganini idrok etdi... Garri o‘zining qadrdon muhitida...

Bu navbatdagi kvidish o‘yinidan o‘zga narsa emas... Ha, oddiy kvidish o‘yini, tikanak dumli ajdar esa o‘ta jirkanch raqib jamoasi...

Garri pastga, ajdarning old oyog‘i bilan ishonchli himoyalangan tuxumlar uyumiga qarab, tosh tusli tuxumlar orasida yaltirayotgan tilla tuxumni ko‘rdi.

– Xo‘sh, Garri, – dedi u o‘ziga o‘zi, – chalg‘itish nayrangini qo‘llaymiz... Boshladik.

Bola pastga sho‘ng‘idi. Tikanak dumning boshi Garrining harakati tomon burildi. Nima qilishni bola yaxshi biladi. U sho‘ng‘ish harakatini to‘xtatib, o‘z vaqtida yuqoriga ko‘tarila boshladi. Ajdar purkagan olov shari Garri shu fursatda yetishi kerak bo‘lgan nuqtadan o‘tdi... Bola hozir har qanday xavfga tupurgan... U o‘z harakatini «Tajovuzkor» to‘pga chap bergan bilan barobar ko‘rmoqda...

– O, Oliy himmat Skotti! Bu yigitcha uchish nima ekanini juda yaxshi bilar ekan-u! – o‘kirdi Shulman, tomoshabinlarning oh-vohlarini bosib yuborib. – Mister Krum, ko‘rdingizmi?

Garri yuqorida aylana boshladi. Tikanak dum esa bo‘ynini baland cho‘zgancha, boshini bolaning harakati barobar aylantirmoqda. Agar harakat shu zaylda uzoq davom etadigan bo‘lsa, maxluqning boshi aylanishi muqarrar. Lekin uzoq cho‘zmagan ma’qul, aks holda hayvon yana olov purkashi mumkin...

Tikanak dum endi og‘iz ochgan ediki, Garri yana sho‘ng‘idi. Biroq bu safar omad u qadar zo‘r chopmadi. Olov bolani yondirib tashlamadi-yu, o‘zini chetga tortayotgan fursatda ajdar siltagan dumdagi tikanaklardan biri uning yelkasiga biroz tegib o‘tib, korjomasini yirtdi.

Garri og‘riq sezish bilan bir vaqtda namoyishgohlardan yangragan qichqiriq va ingrashlarni eshitdi. Aftidan, jarohat jiddiy emasga o‘xshaydi. Ajdar ortidan o‘qday uchib o‘tar ekan, miyasiga bir o‘y keldi...

O‘z tuxumlaridan tashvish tortayotgan ona ajdar osmonga ko‘tarilishni istamayapti. U joyida aylanib, to‘lg‘anib, qanotini

e'tibor bermasliklariga umid bog'lab qolamiz, – dedi Garri.

– Hali ko'rasiz, Vinki ruhan tetiklashib, quvnoqlashadi, – ishontirdi Germiona, ikkilangan ohangda. – Ruhiy larzasi bosilib, «Xogvars»ga ko'nikkach, o'sha Sgorbssiz ham yashash mumkinligini idrok etishiga ishonchim komil.

– Menimcha, u Sgorbsni juda yaxshi ko'radi, – po'ng'illadi og'zini kremli tort bo'lagi bilan to'ldirib olgan Ron.

– Shulmandan esa nafratlanadi, sezdingmi? – qo'shib qo'ydi Garri. – Qiziq, Sgorbs uyda Shulman haqida qanday fikr bildirgan ekan, a?

– O'z tasarrufidagi departamentni yaxshi boshqarmayotgani haqida bo'lsa kerak, – dedi Germiona nazari ilmay. – To'g'risini aytadigan bo'lsak, Sgorbsning bunday fikr bildirishiga to'la asosi bor, shunday emasmi?

– Shunday bo'lsa-da, Sgorbs boshchiligida ishlagandan ko'ra, Shulman rahbarligida ishlashni afzal bilgan bo'lar edim, – dedi Ron. – Har qalay, Shulmanning hazil-mutoyibadan xabari bor.

– Bu gapingni Persi eshitib qolmasin, ishqilib, – istehzoli kulib qo'ydi Germiona.

– Eshitsa nima qilibdi? – dedi Ron, shokoladli ekler[1] bilan mashg'ul bo'lib. – O'xshatmasdan uchratmas yoki ko'r so'qirni qorong'ida taniydi, degan naqllarni eshitganmisan? Bu aynan Persi bilan Sgorbsga o'xshaganlar haqida aytilgan. Hazil degan tushunchaning o'zi Persining qarshisida Dobbining boshidagi choynak g'ilofini kiyib olgancha, qip-yalang'och raqs tushgan taqdirda ham Persi bunday holatning mazmun-mohiyatini idrok eta olmaydi.

[1] **Ekler** (*fransuzcha:* éclair – chaqmoq, chaqin) – pirogning bir turi. Bu shirinlik birinchi bor fransuzlar tomonidan tayyorlangan.

XXII BOB. KUTILMAGAN MUAMMO

Payshanba kuni bir narsani boshqa narsaga aylantirish fanidan o‘tgan dars deyarli nihoyasiga yetib, barcha topshiriqlar bajarildi. O‘quvchilar mashg‘ulot davomida dengiz cho‘chqalariga aylantirishgan sesarkalarni[1] professor Makgonagallning stoli ustidagi kattagina qafasga qamashdi. Ta’kidlab o‘tish joizki, Nevillning cho‘chqasi ajoyib pat qoplamasi bilan boshqa jonivorlardan ajrab turdi. Uyga berilgan: «*Turlararo aylantirish jarayonida bir hayvonni boshqa hayvonga aylantirish afsunini qanday soddalashtirish kerakligiga doir aniq misollar keltirish*» vazifasi sinf taxtasidan ko‘chirib olindi. Daqiqa o‘tmay qo‘ng‘iroq zarbi yangrashi lozim. Fursatdan foydalangan Garri bilan Ron oxirgi partada egizaklar Fred va Jorjning mehnat mahsuli bo‘lmish soxta sehrli tayoqchalar bilan qilichbozlik qilib o‘tirishgan paytda professor Makgonagallning qamchi tovushidek eshitilgan badjahl ovozi xonada qaror topgan jimlikni buzdi.

– Potter! Uesli! Darsga quloq solasizmi-yo‘qmi?!

O‘tirgan o‘rnida bir sapchib tushgan Garri bilan Ron o‘qituvchi tomon yuzlandi-yu, shoshib qolishdi. Negaki Ronning soxta tayoqchasi tunuka to‘tiqush, Garrining tayoqchasi esa rezina baliqqa aylanib qoldi. Xayol o‘tmay rezina baliq shalpayib, tappa polga tushgach, Ronning to‘tiqushi tomonidan shafqatsiz titib tashlandi. Professor Makgonagall ikkalasiga darg‘azab nigoh-la qarab qo‘ydi.

– Nihoyat Potter va Uesli o‘z xulq-atvorlarini yoshlariga mutanosib holatga keltirib olishga marhamat qildilar! – dedi u. – E’tiboringizga muhim bir gapni yetkazmoqchiman. Uch sehr-gar bellashuvining an’anaviy tadbiri va bir vaqtda xorijlik mehmonlar bilan yaqindan tanishish uchun ajoyib imkoniyat sanaladigan Rojdestvo bali yaqinlashmoqda. Bal to‘rtinchi va undan yuqori sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tadi. Agar ixtiyor bildirsangiz, quyi sinf o‘quvchisini ham taklif qilishingiz mumkin,

[1] **Sesarka** – tovuqsimonlar turkumidagi parranda.

albatta...

Lavanda Braun baland ovozda hiringladi. Kulib yubormaslik uchun yuzining mushaklariga zo'r berib o'tirgan Parvatti Patil Lavandaning qovurg'asiga qattiq turtib qo'ydi. Ikkala qiz baravariga Garriga yuzlandi. Professor Makgonagall qizlarga e'tibor qilmadi. Fakultet mudirining bunday munosabati, Garrining fikricha, adolatsiz bo'ldi. Axir, u hozirgina Ron ikkalasining tanbehini berdi-ku.

– Bayram kiyimida o'tkaziladigan bal Rojdestvo kuni Katta Zalda, kechki soat sakkizda boshlanib, tun yarmigacha davom etadi, – e'lon qildi professor Makgonagall. – Yana bir gap...

Professor Makgonagall o'quvchilarga allaqanday qat'iyatsiz nigoh-la qarab chiqdi.

– Rojdestvo baliga... m-m-m... soch o'rimini yozib kelishga ijozat beriladi, – so'zini yakunladi u, ma'qul topmagan ohangda.

Lavanda ovozini eshittirmaslikka urinib kaftini og'ziga mahkam bosgancha, yana hiringladi. Bu safar uning kulgisini nima qistaganini Garri tushunib yetganday bo'ldi. Qora sochi bir tutam yig'ilgan professor Makgonagallning qiyofasidan aqli noqis bo'lmagan ayol hech qachon sochini yozmaydi, degan ma'noni bexato uqib olish mumkin.

– Biroq bu, maktab ma'muriyati o'z o'quvchilari oldiga qo'yib kelgan axloq talablarining darajasini pasaytirdi, degan ma'noni anglatmaydi, – davom etdi professor Makgonagall. – «Griffindor» o'quvchilarining birortasi biror-bir tarzda fakultet sha'niga dog' tushiradigan bo'lsa, men qattiq ranjiyman.

Nihoyat qo'ng'iroq zarbi eshitilib, sinfda odatiy g'imir-g'imir boshlandi. O'quvchilar bisotlarini solgan yuk xaltalarini yelkalariga tashlashgancha, chiqish eshigi tomon ravona bo'lishdi.

Bolalarning shovqini orasida professor Makgonagallning qichqirig'i eshitildi.

– Potter! Bir og'iz so'zim bor, ushlanib qoling, iltimos.

Suhbat baxti qora rezina baliqcha haqida borishini taxmin qilgan Garri istar-istamas o'qituvchining stoli tomon odimladi.

Professor Makgonagall hamma chiqib ketishini kutib, gap boshladi:

– Potter, chempionlikka da'vogarlar va ularning juftlari...

– Juftlari? Qanaqa juftlari? – gapni bo'ldi hech narsani tushunmagan Garri.

Professor Makgonagall bola shu tariqa hazillashyapti, degan xayolga bordi, shekilli, Garriga shubha ila qarab qo'ydi.

– Rojdestvo baliga birga keladigan juftlari, Potter, – sovuqqina javob berdi professor Makgonagall. – Birgalikda raqs tushadigan juftlari.

Garrining ichidagi bor narsa qo'zg'alib, tugun bo'lib qoldi.

– Raqs tushadigan juftlari? Men raqs tushishni bilmayman, – to'rsillatib javob berdi Garri, qizarayotganini his etib.

– Bilasan, bilasan, – vaysadi professor Makgonagall. – Davomini eshit. An'anaga ko'ra, Rojdestvo balini har biri o'z jufti bilan kelgan chempionlikka da'vogarlar boshlab berishadi.

Garri shu zahoti o'zini frak va uzunchoq shlapa kiyib olib, Petuniya xola Vernon amakining idorasida uyushtiriladigan kechalarga kiyib boradigan jimjimador ko'ylak kiygan qiz yonida turganini tasavvur qilib ko'rdi.

– O, yo'q... Men raqs tushishni bilmayman, – takrorladi u.

– Rasmi shunaqa, Potter, – shartta kesdi professor Makgonagall. – Sen «Xogvars»ning chempionlikka da'vogari, maktabimiz vakilisan. Bas shunday ekan, zimmangdagi majburiyatni bajarishing shart. Demak, o'zingga juft topishing kerak.

– Biroq men... raqs...

– Aytadigan gapimni aytdim, Potter, – dedi professor Makgonagall daxl qilib bo'lmas ohangda.

***

Tikanak dumli venger ajdariga qarshi kurash bilan qiyoslanadigan bo'lsa, bir hafta muqaddam Garri, raqs tushish uchun juft topishni hayotning ikir-chikirlaridan biri degan bo'lar edi. Endi-chi? Ajdar bilan olishuv ortda qolib, qiz topib balga taklif qilish zarurati tug'ilgach, ajdar bilan takror o'tadigan

muhorabani afzal bildi.

Rojdestvo ta'tilini «Xogvars»da o'tkazadigan o'quvchilar ro'yxati hali bu qadar uzun bo'lmagan. «Odamovilar» xiyoboniga qaytishni hech istamagan Garri, ushbu bayramni hamisha maktabda, juda oz odamlar davrasida qolib, nishonlab kelgan. Bu yil esa to'rtinchi va undan yuqori sinf o'quvchilarining deyarli hech qaysi biri uyga ketgani yo'q. Garrining fikricha, hammaning miyasi aynan bal tufayli aynib qolgan. Qizlar-u, hovliqib, dunyoga sig'may qolishgani aniq. Darvoqe, «Xogvars»da tahsil ko'radigan qizlar soni sanoqsiz ekaniga Garri endi e'tibor qildi. Burchaklarga biqinib olib, allanima haqida pichirlashgancha, hiringlab o'tirgan, yonlaridan o'tib ketgan o'g'il bolalar ortidan gap otib, qah-qah urgan, Rojdestvo kechasiga qanday libos kiyishni qizg'in muhokama qiladigan qizlarni Garri ilgari payqamagan ekan.

Kam deganda o'n ikki nafar qiz, Garri tomon tantanali yurgancha, hiringlab o'tib ketdi.

– Nega ular doimo gala-gala bo'lib yurishadi? – so'radi qizlar ketidan qarab qolgan Garri o'rtog'i Rondan. – Balga taklif qilish uchun ulardan birortasini qanday qilib yakka holatda tutish mumkin?

– Kamand[1] vositasida, – taxmin qildi Ron. – Kimni taklif qilishni ko'zlab qo'ydingmi?

Garri o'rtog'ining savoliga javob qaytarmadi. Balga kim bilan borgisi kelayotganini u juda yaxshi biladi, lekin bunga jur'at etish... Chu Garridan bir yosh katta, juda chiroyli qiz. Kvidishni ham yaxshi o'ynaydi, umuman yaxshigina obro' qozongan...

Ron, aftidan, Garrining ichidagi gapni topganga o'xshaydi.

– Quloq sol Garri, bu masalada sen hech qanday muammoga duch kelmaysan. Birinchidan, kimsan – Garri Pottersan. Ikkinchidan esa yaqindagida ajdarni yenggan chempionlikka da'vogarsan. Bas bog'lashim mumkinki, ular sen bilan balga borish uchun navbatga yozilishmoqda.

[1] **Kamand** – hayvonlarni tutish uchun tashlanadigan sirtmoqli arqon.

Ron yaqindagina tiklangan do‘stlik haqi, o‘z gapining mazmunida alam miqdorini bilinar-bilinmas kamaytirishga urinayotgani sezilib turibdi. Biroq uning haqligi Garrini hayratda qoldirdi.

Ertasi kuni hali biron marta bo‘lsin suhbatlashmagan, «Xufflpuff» fakultetining uchinchi sinfida tahsil ko‘radigan qo‘ng‘iroqsoch qiz Garridan balga taklif qilishni iltimos qildi. Garri o‘zini shu qadar yo‘qotib qo‘ydiki, nima deyotganini idrok etishga ulgurmay turib, qizning iltimosini rad etib yubordi. Qiz xafa bo‘lgancha nari ketdi, Garriga esa ushbu qilmishi uchun sehrgarlik tarixi darsi davomida Din, Simus va Ronning ta’na-tanbehlarini eshitib o‘tirishga to‘g‘ri keldi. Erta-siga yana ikkita qiz Garriga xuddi shu iltimos bilan murojaat qildi. Ulardan biri ikkinchi sinfda, ikkinchisi esa (O, Xudo, o‘zing asra!) beshinchi sinfda o‘qiydi. Ikkinchisi Garrining yoniga shunday qiyofa ila keldiki, unda: «Agar rad etadigan bo‘lsang, basharangni timdalab tashlayman», degan ma’noni uqib olish qiyin kechmaydi.

– Umuman aytganda, u, unchalik xunuk emas edi, – dedi to‘yib-to‘yib kulib olgan Ron.

– Bo‘yi mendan bir fut baland-ku, axir, – g‘udulladi Garri, haligacha ruhiy larzadan o‘ziga kela olmay. – Balda opa-ukaday ko‘rinishimizni tasavvur qilib ko‘r.

Garrining esiga Germionaning Krum haqida bildirgan fikri tushib qoldi: «*Qizlar uning ketidan dongdor bo‘lgani uchun-gina yugurib yurishadi!*». Agar u chempionlikka da’vogar bo‘lmaganida, ushbu qizlarning birortasi ham balga taklif qilish iltimosi bilan Garrining yoniga kelmagan bo‘lar edi. So‘ng o‘ylanib qoldi: «agar Chu shunday iltimos bilan kelsa-chi?»

«Tan olish kerak-ki, – o‘yladi Garri, – bellashuvning birinchi sinovi o‘tgach, oldinda bal boshlab berishdek yoqimsiz ish kutayotganiga qaramay, hayot tarzi sezilarli ravishda yaxshilandi». Qasr yo‘laklarida uning sha’niga aytilgan haqoratomuz so‘zlar, «Bashorat-u karomat gazetasi»da chop etilgan manhus maqoladan keltirilgan iqtiboslar o‘z o‘zidan barham topdi. Bunda Sedrikning qo‘li borligi shubhasiz. Ajdar bilan uchrashuv haqida ogohlantirgani uchun minnatdorlik sifatida Sedrik

xufflpuffchilardan Garrini tinch qo'yishni iltimos qilgan ko'rinadi. *«Xogvars»ning haqiqiy chempionlikka da'vogari – Sedrik Diggorini qo'llab-quvvatlang!* ko'krak nishonlari ham kamdan kam uchraydigan bo'lib qoldi. Drako Malfoy, tabiiyki, Rita Vriterning maqolasidan iqtibos keltirishni bas qilgani yo'q, albatta. Biroq ommaning munosabati uning urinishlariga loqayd bo'lib qolgan. Garrining o'z hayotiga doir fikr-mulohazalari qo'llab-quvvatlanganiday «Bashorat-u karomat gazetasi»da Xagrid haqidagi maqola chop etilmadi.

Sehrli hayvonlarni parvarish qilish fanidan o'tgan so'nggi darsda Xagrid, jamiki sinfni hayron qoldirgan tarzda, drakllar bilan bevosita muloqot qilishni talab qilmadi. Bugun ular kulba orqasidagi yog'och stol atrofida to'planib, o'sha jirkanch hayvonlarning ishtahasini qitiqlashi kutiladigan yemish tayyorlashmoqda. Garri, Ron va Germiona Xagriddan Rita bilan o'tgan intervyu haqida qiziqib so'rashdi.

– To'g'risini aytganda, uni allaqanday hayvon-u, maxluqlar qiziqtirgani yo'q, – iqror bo'ldi Xagrid. – Rita Vriterni ko'proq sen qiziqtirding, Garri, – ma'lum qildi u, ovozini pasaytirib. – Sen bilan ko'pdan buyon, aniqrog'i, Dursllar xonadonidan olib ketganimdan buyon do'st ekanimizni aytdim unga. *«To'rt yildan buyon biron marta bo'lsin, koyib berishga to'g'ri kelmadimi?»* deb bergan savoliga olgan javobi uni qanoatlantirmadi. Aftidan, u xulqingga doir bo'lar-bo'lmas gaplarni aytib berishimni kutgan chog'i.

– Aytish kerak edi, – dedi Garri, ajdar jigarining to'g'ralgan bo'laklarini tog'oraga tashlab, yana to'g'rash uchun stoldagi pichoqni olib. – Qismati fojiali kechgan bechora qahramon haqida yozilaveradimi? Kishining yuragini ziq qilib, zeriktirib yuboradi-ku, axir!

– Vriter Garrining tabiatidagi yangi qirralarni kashf etmoqchi, Xagrid, – tushuntirgan bo'ldi salamandra[1] tuxumining po'chog'ini archayotgan Ron. – Garrini balog'atga yetma-

[1] **Salamandra** (*yunoncha*: salamandra) – 1) suvda va quruqlikda yashovchilar turkumiga kiruvchi, uzun dumli, kaltakesakka o'xshash jonivor.

gan savdoyi sifatida tavsiflab berishing kerak edi.

– Qanaqangi savdoyi bo‘lsin u?! – xitob qildi hazilni tushunmagan Xagrid.

– U Sneggdan intervyu olishi kerak, – fikr bildirdi Garri, ma’yus ohangda. – Shunaqangi tavsiflab beradiki, meni. Mana masalan, o‘sha kuni u: «*Bo‘lib o‘tgan ishda Potterning o‘zigina aybdor. Negaki u, maktabga kelgan ilk kunlaridan buyon, ushbu dargohda joriy etilgan jamiki qoidalarni birma-bir buzib chiqishga jon-jahd ila chiranib kelmoqda*», degan edi.

Ron bilan Germiona kulib yuborishdi.

– U shunday dedimi? – so‘radi Xagrid. – Tan olish kerak-ki, ba’zi masalalarda chindan ham qoidalarga qarshi borasan, Garri... Lekin umuman aytganda, sen zo‘rsan.

– Omon bo‘l, Xagrid, – irshayib qo‘ydi Garri.

– Balga kelasanmi, Xagrid? – qiziqdi Ron.

– Borishim mumkin. Nega endi bormasligim kerak ekan, – gurulladi Xagrid. – Zo‘r tomosha bo‘lsa kerak, o‘ziyam. Sen esa Garri, raqs tushishni boshlab berasan, shundaymi? Kimni taklif qilishni ko‘zlab qo‘ydingmi?

– Hozircha, yo‘q, – dedi Garri qizarib ketayotganini yana his etib.

Xayriyatki, Xagrid mavzuni davom etmadi.

Semestrning so‘nggi haftasida kechayotgan hodisalar tug‘yon tortib rivoj topmoqda. Hamma joyda Rojdestvo baliga doir mish-mish gaplar muhokama qilinmoqda. Garri ularning yarmiga ham ishonmaydi. Bunday gaplardan biri – Dambldor «Uch supurgi» qahvaxonasining sohibasi Rosmerta xonimga sakkiz yuz barrel[1] glintasal yetkazib berishga buyurtma bergani bo‘lsa, yana biri mashhur «Shaytonning singillari»ga angajement[2] yuborib, balga taklif qilganidir. Umuman aytganda,

[1] **Barrel** (*inglizcha:* barrel asosiy ma’nosi – bochka), – AQSH, Angliya va bir qator boshqa, ingliz o‘lchovlarini qo‘llovchi mamlakatlarda sig‘im va hajmning o‘lchov birligi. AQSHning quruq barreli detsimetr kub (dm^3)ga, neft barreli esa 158,988 detsimetr kub (dm^3)ga teng. Sochiluvchi narsalar hajmi o‘lchanadigan Angliya barreli 163,65 detsimetr kub (dm^3)ga teng.

[2] **Angajement** – biror artist yoki artistlar guruhiga yo‘llangan shartnoma bo‘yicha ma’lum muddat ishlashga doir taklifnoma.

«Shaytonning singillari» haqidagi gaplar chin bo'lishi ham mumkin. Sehrgarlar radiosini hech qachon eshitmagan Garri «Shaytonning singillari» kim yoki nima ekanini tasavvur ham eta olmaydi. Sehr-joduga oid yangiliklar kanalini (SJYAK) eshitib katta bo'lgan ayrim o'quvchilarning to'lqinlanib ketga-niga qaraganda, bu favqulodda ommalashib ketgan biron-bir musiqiy guruh bo'lsa kerak, degan xulosaga bordi.

Afsun o'qish fani o'qituvchisi professor Flitvikka o'xshagan ba'zi o'qituvchilar Rojdestvo balini o'ylab hayoli parishon bo'lib qolgan o'quvchilarga biron-bir narsani o'rgatishga urinmay qo'yishdi. Chorshanba kuni professor Flitvik hammaga o'yin o'ynab o'tirishga ruxsat berib, darsning aksariyat qismini Garri bilan bellashuvning birinchi musobaqasida Buyum chaqirish afsunini benazir bajargani haqidagi suhbatga sarfladi. Boshqa o'qituvchilar bunday ulug'sifatlik namoyon etishga qodir emas. Jumladan, biron-bir holat professor Binnzni goblinlar qo'zg'oloniga doir uyga berilgan vazifa ijrosini sinchkovlik-la titib tekshirib chiqishdan voz kechishiga sabab bo'la olmaydi. Kasbiy faoliyatiga chek qo'yish uchun hatto o'z ajaliga imkon bermagan ushbu muallimga Rojdestvo kabi allaqanday bo'lmag'ur bayram o'z ishini to'la-to'kis bajarishga to'sqinlik qila olmaydi. Taajjublanarlisi shundaki, professor Binnz qonga botgan vahshiyona qo'zg'olonlar haqida shunday zerikarli ohangda gapirib beradiki, undan ko'ra Persining tubi qalin-yupqa qozonlarga doir hisoboti qiziqroq eshitilsa kerak. Professor Makgonagall bilan Xmuri o'quvchilarni darsning so'nggi soniyasigacha ishlashga majbur qiladi, Snegg esa Garrini o'ziga o'g'il qilib olsa oladiki, darsi davomida o'quv-chilarga o'yin o'ynashga ijozat bermaydi. Sinfga basharasidagi barham topmas murdorlik ila nazar solib chiqqan Snegg semestrning so'nggi darsida o'quvchilar tomonidan tayyor-langan ziddi-zaharlarning kor berishini o'quvchilarning o'zida sinab ko'rish niyatida ekanini ma'lum qildi.

O'sha kecha «Griffindor» fakultetining umumiy mehmonxonasida portlovchi kartalar dastasidan qasr yasab o'tirgan Ron Snegg haqida norozi ohangda fikr bildirdi:

– Qumron ekan u. Bayramoldi kunlarni ahmoqona takrorlash bilan rasvo qilish, kelib-kelib eng so‘nggi darsda nazorat ishini o‘tkazishga ahd qilgan bunday ablahni yana nima deb atash mumkin?

– M-m-m... senga e’tibor qilgan kishi ortiq darajada zo‘r berib o‘qiyapti degan xulosaga borishi qiyin, – ta’kidlab qo‘ydi Germiona, sehrli damlamalar tayyorlash fanidan tutgan daftari uzra Ronga qarab.

Magllarning kartasidan farqli o‘laroq Ron o‘ynab o‘tirgan kartalar har qanday soniyada portlab ketishi mumkin.

– Rojdestvo bayrami-ku, hozir, Germiona, – erinchoqlik-la javob berdi kamin yonidagi kresloda ««Zambaraklar» bilan parvozlar» kitobini o‘ninchi bor qayta o‘qib o‘tirgan Garri.

– Senga esa Garri, – o‘qraydi Germiona, – ziddi-zaharlar mavzusini takrorlash yoqmasa, amaliy naf keltiradigan biror-bir boshqa ish bilan shug‘ullanish xalal bermas edi!

«Otar zambaraklar» jamoasining o‘yinchisi Joy Jenkins «Tajovuzkor»ni «Qovushmagan kalvaklar» «Ovchi»si tomon yo‘naltirayotganini zo‘r qiziqish bilan tomosha qilib o‘tirgan Garri ro‘yixush bermay so‘radi:

– Masalan?

– Tuxum yodingdan ko‘tarilgan chog‘i? – eslatdi qiz.

– Vahima qilma, Germiona, 24 fevralgacha hali yuz yil vaqtim bor! – qo‘l siltadi Garri.

Garri sandig‘iga tashlab qo‘ygan tilla tuxumni birinchi musobaqa sharofatiga o‘tkazilgan o‘tirishdan so‘ng hali biror marta ochib ham ko‘rgani yo‘q. Baland g‘ijirlaydigan o‘sha tovush jumbog‘ini hal etish uchun chindan ham yana ikki yarim oy vaqti bor.

– Biroq topishmoq javobini topishga bir necha hafta kerak bo‘lishi mumkin! – e’tiroz bildirdi Germiona. – Ikkinchi musobaqa ijrosining mazmuni qolgan da’vogarlarga ma’lum bo‘lsa-yu, sen g‘aflatda bo‘lsang, qanaqangi ahmoqona holatda qolib ketishingni tasavvur qilyapsanmi?!

– Tinch qo‘y uni, Germiona, u ham dam olishga haqli, – gapga aralashdi Ron, so‘nggi ikkita kartani qurilayotgan karta-

qasr cho‘qqisiga o‘rnatib.

Kutilmaganda karta-qasr kuchli portlab quruvchisining qoshini kuydirdi. Ron peshana silab, qoshiga yetgan zarar miqdorini chamalar ekan, bolalar davrasiga egizaklar kelib qo‘shildi.

– Ko‘rinishing chakki emas, Ron... Turqing bayram kiyimingga juda yarashadigan bo‘ldi! – fikr bildirdi Fred.

– Ron, Cho‘chrinstel kerak edi, berib tur, – so‘radi Jorj.

– Boyqush xat olib ketgan. Sizlarga nima uchun kerak bo‘lib qoldi u? – qiziqdi Ron.

– Jorj uni balga taklif qilmoqchi, – kesatdi Fred.

– Xat yo‘llash uchun kerak-da, tengi yo‘q nodon, – tushuntirdi Jorj.

– Negadir so‘nggi vaqtda ko‘p xat yo‘llaydigan bo‘lib qoldingiz. Kim bilan yozishyapsizlar o‘zi?

– Bizning ishlarimizga tumshug‘ingni tiqib yurma, Ron. Aks holda uni ham kuydirib qo‘yaman, – tahdid soldi Fred, sehrli tayoqchasini siltab. – Xo‘sh... Shunday qilib, o‘zingizga juft topdingizmi?

– Yo‘q, – dedi Ron.

– Unday bo‘lsa, do‘stlar, imillamang, qaddi-qomati kelishganlarni tez talab tashlashadi, – irshaydi Fred.

– O‘zing-chi, kim bilan borasan? – qiziqdi Ron.

– Angelina bilan, – shu zahoti javob berdi xijolat degan tushunchadan bexabar Fred.

– Angelina bilan? – yangilikdan serrayib qoldi Ron. – Sen uni taklif qildingmi? Rozilik berdimi o‘zi u?

– Yaxshi savol, – dedi Fred.

U boshini orqaga burib, butun mehmonxona orqali qichqirdi:

– Hoy! Angelina!

Alisiya Spinnet bilan vaysab o‘tirgan Angelina Fred tomon o‘girildi.

– Nima deysan? – javoban qichqirdi u ham.

– Men bilan balga borasanmi?

Hayron bo‘lgan Angelinaning qoshi ko‘tarildi.

– Bo‘pti, boraman, – rozi bo‘ldi u va sezilar-sezilmas

kulgancha, Alisiya tomon o‘girilib, suhbatini davom etdi.

– Ana, – dedi Fred, Garri bilan Ronga. – Ishlar joyida.

So‘ng o‘rnidan turdi-da, esnagancha Jorjga murojaat qildi:

– Ketdik, Jorj. Iloj qancha, maktab qushlaridan birini olamiz...

Egizaklar nari ketdi. Ron kuygan qoshini tek qo‘yib, tutab yotgan karta-qasr uzra Garriga qaradi.

– Bilasanmi, chindan ham bu ishni cho‘zmaslik... ya’ni bittadan qiz taklif qilish kerak. Fred haq. Ikkalamiz Rojdestvo baliga bir juft urg‘ochi troll bilan bormaymiz-ku, har qalay.

– Ma’zur tuting, bir juft... kim bilan? – tiqilib qolishiga sal qoldi achchig‘i chiqqan Germiona.

– O‘zing tushunasan, – yelka qisdi Ron, – aytaylik... Eloiza Moshkar bilan balga borgandan ko‘ra, yolg‘iz kirgan afzal.

– Bilmasangiz, bilib qo‘ying, Eloizaning yuzidagi husnbuzarlar barham topmoqda. Buning ustiga u juda nozanin qiz!

– Burni qiyshiq, – gapni kesdi Ron.

– Shunaqa deng! – jirilladi Germiona. – Tushundim! Klinik jihatdan ovsar bo‘lishidan qat’i nazar, sen bilan balga borishga rozi bo‘ladigan qiz chiroyli bo‘lsa bo‘ldi ekan-da, a?

– M-m-n-e... taxminan shunday, – iqror bo‘ldi Ron.

– Men borib uxlay, – irilladi Germiona va boshqa biron og‘iz so‘z aytmay, qizlar yotoqxonasiga olib chiqadigan zina tomon yugurib ketdi.

***

Aftidan, bu galgi Rojdestvo bayramida o‘qituvchilar tarkibi xorijlik mehmonlarga «Xogvars» qasrini nihoyatda chiroyli qiyofada ko‘rsatishni o‘z oldiga qo‘ygan asosiy maqsad deb biladi, shekilli. Maktab bayram sharofatiga bezalar ekan, bunday go‘zallikni Garri hech qachon ko‘rmagan. Vestibuldagi hashamatli marmar zina panjarasiga uchqunlari erimas qor bostirildi. Katta Zalga har yili o‘rnatiladigan o‘n ikkita archa tinmay gursullab turadigan jonli tilla boyqushlar, nayzabargning yorishuvchi mevalari kabi turli-tuman bezaklar bilan yasatildi.

Ritsarlarning yarog‘-aslahalari shunday sehrlandiki, ularga yaqin borilsa, birin-ketin yangraydigan Rojdestvo madhiyalari eshitiladi. Bo‘m-bo‘sh dubulg‘aning birdaniga chala-chulpa aytilgan «Xudojo‘ylar keling, yig‘iling» qo‘shig‘ini eshitish ja g‘alati bo‘lar ekan. Maktab nazoratchisi Filchga, ushbu yarog‘-aslaha ichiga bekinib olishni odat qilib, madhiyalar orasidagi tanaffusni o‘z ijodining namunalariga mansub, betamizligi ila farq qilib turadigan lirikasi bilan to‘latib borgan poltergeyst Dryuzgni quvishga to‘g‘ri kelmoqda.

Garri haligacha Chuni balga taklif qilgani yo‘q. Garri bilan Ron nihoyatda asabiylasha boshladi.

– Sen balga juftsiz borsang, u qadar ahmoqona ko‘rinmaysan, – dedi Garri Ronga. – Men esa o‘z juftim bilan borishim shart. Axir, men boshqa chempionlikka da’vogarlar bilan birga bal boshlab berishim kerak-ku. Odam topilmasa, anavi arvoh Dilgir Mirtlni taklif qilaman, shekilli.

– Bo‘ladigan ishning bo‘lgani ma’qul, Garri! Birortasini tezroq taklif qilaylik-da, qutulaylik, – dedi Ron, juma kuni ertalab, mustahkam qal’ani zabt etishga qaror qilgan ohangda. – Kel, kelishib olaylik: bugun kechqurun yotoqxonaga, balga kim bilan borishimizni bilib qaytamiz. Bo‘ladimi?

– M-m-m... yaxshi, – rozi bo‘ldi Garri, biroz ezilib.

Biroq kun davomida, xususan tanaffuslar, tushlik vaqti va sehrgarlik tarixi xonasi tomon eltadigan yo‘lakda Chuni uchratar ekan, Garri, ushbu qizni doimo o‘z dugonalari davrasida yurganini ko‘rdi. Biror joyga yolg‘iz o‘zi boradimi yo‘qmi? Balki, qizlar hojatxonasi yo‘lida pistirma uyushtirgan ma’quldir? YO tavba, hatto hojatxonaga ham to‘rt-besh nafar dugonalardan iborat qo‘riqchi bilan kirar ekan-a! Uni bugun taklif qilmas ekan, boshqa birov ilib ketishi muqarrar.

Sehrli damlamalar tayyorlash fanining ziddi-zahar bo‘yicha o‘tgan nazorat mashg‘ulotida Garri fikr-xayolini jamlay olmay, damlamaga bezoar[1] toshini qo‘shishni yoddan chiqarib,

[1] **Bezoar** (*inglizcha*) – magneziya, oksalat kislotasi va fosfor kislotasi ohakidan tashkilot topgan tosh. Bu toshning shakllanishi organik xususiyatga ega. Ya’ni bu tosh ko‘pincha

o‘ziga qoniqarsiz bahoni ta’minladi. Biroq hozir u bunday ahamiyatsiz narsalarga tupurgan. Ayni paytda eng asosiy muammo – jamiki jur’atini yig‘ib, ko‘zlangan ishni bajarishdir. Qo‘ng‘iroq zarb berishi bilan bola yuk xaltasini olib, yerosti xonalari tark etiladigan chiqish yo‘lagi tomon oshiqdi.

– Tushlik vaqtida uchrashamiz, – dedi u Ron bilan Germionaga.

Garri Chuni bir chetga, ikki og‘iz gapga chaqiradi-da... Chengni qidirib odamga to‘la yo‘laklarda kezar ekan, qizga o‘ylagan fursatdan ham ertaroq, o‘zi uchun kutilmagan tarzda yovuz kuchdan himoya fani xonasidan chiqish yo‘lagida ro‘baru keldi.

– Chu? Ikki og‘iz gapim bor edi, mumkinmi?

Chuni qurshab turgan qizlar kulishdi. «Mana shu hiring-hiringlarni qonun bilan man etish kerak», darg‘azab bo‘ldi Garri. Cheng birov eshitmaydigan xavfsiz masofaga uzoq-lashayotgan Garrining orqasidan ergashdi.

Chuga yuzlangan Garrining qorin bo‘shlig‘ida borki narsa zina pog‘onasini bosmay o‘tgan kabi bir sakrab tushdi.

– M-m-m, – gap boshladi Garri.

Ayta olmayapti. Tili itoat qilmayapti. Lekin aytish kerak. Chu esa hech narsa tushunmayotgan nigoh-la, churq etmay qarab turibdi. Garri tilini idora qilishga ulgurmay, so‘zlar og‘zidan otilib chiqdi:

– Melanbalgaorasanmi?

– Uzr, tushunmadim, nima deding? – hayron bo‘ldi qiz.

– Men... bilan... balga borasanmi?

Nega endi u ayni shu paytda qizarishi kerak, a? Nega?

– O! – ingrab yubordi Chu, – O Garri, ming afsus. Meni taklif qilishgan.

Chengning yuzi chindan ham afsus qilayotganday ko‘rindi.

– O, – deya oldi Garri.

Qiziq, bir soniya oldin bolaning ichidagi narsalar ilon kabi

---

echki va boshqa mo‘ylovli hayvonlar oshqozinida shakllandi. Bu tosh tibbiyotda zaharlanish va zahar qarshi malham sifatida foydalaniladi.

to‘lg‘anayotgangan edi. Hozir esa ichi bo‘shliqqa aylanib qoldi go‘yo.

– Hech qisi yo‘q, – o‘zini qo‘lga oldi yigitcha. – Juda yaxshi.

– Ming afsus.

– Qo‘ysang-chi, – yelka qisdi Garri.

Ular bir-birining ro‘parasida biroz sukut saqlab turishdi.

– Unday bo‘lsa... – og‘iz juftladi Chu.

– Ha, – bosh irg‘idi Garri.

– Unday bo‘lsa, xayr, – g‘uldiradi rangi qizargan Chu, nari ketib.

– Kim bilan borasan? – Chuning ortidan baqirdi o‘zini tiya olmagan Garri.

– O... Sedrik bilan, – javob berdi qiz. – Sedrik Diggori bilan.

– A, tushundim.

Yigitchaning ichidagi narsalari o‘z joyiga qaytdi. Biroq ular qaytib kelguncha bo‘shliq og‘ir qo‘rg‘oshinga to‘lganday bo‘ldi go‘yo.

Tushlikni unutgan Garri «Griffindor» minorasi tomon yo‘l oldi. Har bir qadamini bosar ekan, miyasida Chuning so‘zlari takror va takror yangradi: «*Sedrik bilan. Sedrik Diggori bilan*». So‘nggi vaqtda Sedrik Garriga yoqa boshlagan edi-ya. Sedrik tufayli mag‘lubiyatga uchragan o‘sha kvidish o‘yinini, barno yigit, xalq xush ko‘radigan Sedrikligini, *«Xogvars»ning haqiqiy chempionlikka da’vogari* ekanini unutishga tayyor edi-ya. Endi-chi? Sedrik Garrining ko‘ziga miyasi tuxum tagligini to‘ldirishga yetmaydigan, hech narsaga arzimaydigan barno yigitchaday ko‘rindi.

– Xitoy fonuschalari, – po‘ng‘illadi u, kecha almashtirilgan parol bilan «Semiz Xola»ga murojaat qilib

– Juda to‘g‘ri, qadrdonim! – zavq-la chinqirdi minoraga kirish tuynugini ochayotgan «Semiz Xola», boshidagi archa yomg‘irining bo‘lagidan tayyorlangan yangigina lentachani tekislab.

Umumiy mehmonxonaga kirib, atrofga alanglagan Garri, narigi burchakda rangi kuldan farq qilmay qolgan Ronni ko‘rib taajjublandi. Jinna uning yonida o‘tirib, asta tinchlantirmoqda.

– Tinchlikmi, Ron? – so‘radi Garri, yaqinroq borib.

– Nega bunday qildim, bilmayman? – dahshat to‘la nigohini Garriga qaratdi Ron. – Meni nima majbur qilganini o‘zim anglamay qoldim!

– Nima qilding? – tushunmadi Garri.

– U... hozirgina... m-m-m... Flyor Delakyorni balga taklif qildi, – tushuntirgan bo‘ldi Jinna.

Jinna akasi Ronning qo‘liga yengilgina urib-urib qo‘yguncha, dalda berayotgan bo‘lsa-da, kulgisi qistab, yorilib ketguday o‘tiribdi.

– Nima?! – ishonmadi Garri.

– Meni nima majbur qilganini o‘zim anglamay qoldim! – unsiz dahshat-la takrorladi Ron. – Qanday jin urdi meni?! Atrof odamga to‘la edi! Aqldan ozib qolganimni hamma ko‘rdi! Vestibulda yurib, yonidan o‘tibman. U Diggori bilan gaplashib turgan ekan. Shu paytda nima bo‘ldi-yu, odam qurib ketganday, kelib-kelib o‘shani balga taklif qilibman!

Ron ingrab, kaftini yuziga bosdi.

– U menga xuddi chuvalchangga qaraganday, qarab qo‘ydi, xolos! – uqish qiyin kechsa-da, gapini davom etdi u. – Hatto javob qaytarishni ham ep ko‘rmadi. Shundan so‘ng bilmadim, eshushimni yig‘ib oldim, shekilli, qochib ketdim.

– Uning tomirida veyla qoni oqadi-yu, – dedi Garri. – Sen o‘shanda haq aytgan ekansan. Uning buvilaridan qaysiir biri veyla bo‘lgan. Sehrli tayoqchasining tarkibiga o‘sha buvisining boshidan olingan soch tutami kiritilgan. Shunday ekan, senda ayb yo‘q. Yonidan o‘tib ketayotganingda u Diggorini sehrlab qo‘ymoqchi bo‘lgan-u, bexosdan senga ta’sir o‘tkazgan. Faqat u behuda urinibdi. Diggori balga Chu Cheng bilan boradi.

Ron Garriga savol nazari bilan qarab qoldi.

– Ha, men hozirgina uni taklif qilgan edim, – tushuntirish bergan bo‘ldi Garri, ifodasiz ohangda. – Shunday javob oldim.

Jinnaning yuzidagi tabassum barham topdi.

– Ana, xolos, pishdi gilos! – xitob qildi Ron. – Faqat ikkalamizgina juftsiz qolgan bo‘lsak kerak. Nevillni hisobga olmaganda, albatta. U kimni taklif qilganini bilasanmi? Germionani!

– Nima?! – qichqirdi Garri.

Ushbu kutilmagan yangilik uni noxush kechinmalardan chalg'itdi.

– Ana shunaqa! – kulib boqdi yuziga rang qaytgan Ron. – Sehrli damlamalar tayyorlash darsidan so'ng Nevillning o'zi aytdi menga! Gapiga qaraganda, Germiona juda mehribon, o'quv materiallarini o'zlashtirishda yordam beradigan va hoka-zo qiz emish. Lekin Germiona balga boshqa birov bilan borar ekan. Ha! Hech ham unday emas! U Nevill bilan borgisi kelma-gan, xolos... ya'ni, aytmoqchimanki... kim ham borar edi u bilan?

– Unday dema! – gapni bo'ldi achchiqlangan Jinna. – Kulma uning ustidan...

Shu payt portret ochilib, mehmonxonaga Germiona kirib keldi.

– Nega tushlik qilgani tushmadingiz? – qiziqdi u, bolalar davrasiga qo'shilib.

– Chunki ular... Hoy, ikkalangiz, bir pas kishnamay turing! – dedi Jinna. – Chunki ular taklif qilgan qizlar ikkalasiga ham rad javobini qaytaribdi!

Kulib o'tirgan Ron bilan Garri shu zahoti unlarini o'chirishdi.

– Katta rahmat, Jinna, – dedi Ron, basharasini burishtirib.

– Demak, Ron, qaddi-qomati kelishgan chiroyli qizlardan quruq qolibsizlar-da, a? – kibr-la so'radi Germiona. – Eloiza Moshkar ko'z o'ngingda borgan sari chiroylilashib ketayotgan bo'lsa kerak hoyna-hoy, shundaymi? Siz bilan balga boradigan biror-bir qizni biron joydan, albatta, topishlaringga shubha qilmayman.

Ron kutilmaganda Germionaga xuddi uni mutlaqo boshqa tusda ko'rayotganday baqrayib qoldi.

– Quloq sol, Germiona, Nevill chindan ham haq gapirgan ekan... – dedi u nihoyat, – Axir, sen ham qiz bolasan-u...

– Qarang-a, naqadar ajoyib yangilik! – chaqib oldi Germiona.

– Shunday ekan, balga ikkalamizdan birimiz bilan borishing mumkin! – xulosa qildi Ron.

– Yo‘q, mumkin emas, – jerkib berdi Germiona.

– Qo‘ysang-chi, Germiona, – qo‘l siltadi Ron. – Ikkalamizga ham juft kerak. Hammaning jufti bo‘lsa-yu, bizda bo‘lmasa, g‘irt ahmoqday ko‘rinamiz...

– Sizlar bilan bora olmayman, – takrorladi Germiona qizarib, – Chunki meni taklif qilishgan.

– Taklif qilishmagan! – baqirdi Ron. – Nevilldan xalos bo‘lish uchungina aytgansan bu gapni!

– Nahotki?! Agar men ham qiz bola ekanimni anglash uchun senga, Ron, uch yil kerak bo‘lgan bo‘lsa, – tishi orasidan vishillagancha javob berdi Germiona, – boshqalarga ham shuncha vaqt kerak bo‘lishini anglatmaydi!

Ron Germionaga biroz baqrayib turdi-da, yana kulib boqdi.

– Yaxshi, yaxshi, – tinchlantirganday davom etdi u, – Sen qiz bolasan, buni endi aniq bilamiz. Ko‘ngling joyiga tushdimi? Xo‘sh, endi borasanmi, biz bilan?

– Qulog‘ing og‘irlashib qoldimi, Ron?! – jahli qildi Germiona. – Taklif qilinganman, dedim-u!

U shartta o‘rnidan turdi-da, qizlar yotoqxonasiga olib chiqadigan zina tomon yugurib ketdi.

– Yolg‘on gapiryapti, – ishonch-la ma’lum qildi Ron, Germionaning orqasidan qarab.

– Yo‘q, – xotirjam e’tiroz bildirdi Jinna.

– Xo‘sh, kim ekan o‘sha taklif qilgan yigit? – dag‘al ohangda so‘radi Ron.

– Buni ma’lum qilish mening vakolatimga kirmaydi. Bu uning ishi, – rad etdi Jinna.

– Juda soz, – dedi rostakamiga dovdirab qolgan Ron. – Bularning bari g‘irt ahmoqlikning o‘zginasi bo‘ldi-qoldi. Xo‘p, mayli, Jinna, sen Garri bilan borishing mumkin, men esa...

– Yo‘q, bora olmayman, – xitob qildi Jinna, rangi qizarib. – Men Nevill bilan boraman. Germiona rad etgach, u meni taklif qildi. Men esa... o‘ylab ko‘rib... rozi bo‘ldim. Balga bo-rishning boshqa yo‘li yo‘q, axir men to‘rtinchi sinfda o‘qimayman-u.

Ma’yus qiyofa kasb etgan Jinna o‘rnidan turib, chiqish tuynugi tomon ravona bo‘ldi.

– Nima bo‘lgan ularga, a? – ko‘zi chanog‘idan chiqib ketguday holatda Garriga yuzlandi Ron.

Garri esa umumiy mehmonxonaga kirib kelgan Parvatti bilan Lavandaga qarab qoldi. Qat’iy choralar ko‘rish vaqti yetdi.

– Shu yerda qilt etmay o‘tir, – amr qildi u Ronga va shartta o‘rnidan turib, tikka Parvattining yoniga bordi.

– Parvatti? Men bilan balga borishni istaysanmi?

Taklifni eshitgan Parvattining hiringlash xuruji tutib qoldi. Garri cho‘ntagidagi barmoqlarini kesishtirib, xurujning o‘tib ketishini sabr-la kutib turishga majbur bo‘ldi.

– Ha, mayli, boraman, – nihoyat javob berdi Patil, rangi to‘q qizarib.

– Rahmat, – yengil tortdi Garri. – Lavanda? Sen-chi, Ron bilan borasanmi?

– U Simus bilan boradi, – javob berdi Patil Braunning o‘rniga.

Ikkala qizning hiringlash xuruji yana tutib qoldi. Garri og‘ir xo‘rsinib qo‘ydi.

– Ron bilan borishga rozi bo‘ladigan biron-bir qizni bilmaysanmi? – so‘radi u, Ron eshitib qolmasligi uchun past ovozda.

– Germiona Grenjer? – taklif qildi Parvatti.

– Yo‘q, uni boshqa birov taklif qilibdi, – dedi Garri.

– O-o-o... Kim ekan u? – angrayib qoldi Patil yangilikni eshitib.

– Tasavvurimga ham sig‘dira olmayman, – yelka qisdi Garri. – Xo‘sh, Ron masalasida nima deysan?

– Balki... egiz singlim Petil borar, – cho‘zib fikr bildirdi Patil. – Taniysanmi uni? «Ravenklo»da o‘qiydi. Men undan so‘rab ko‘raman.

– Zo‘r ish bo‘lar edi, – dedi Garri ifodasiz. – Javobini olgach, menga aytarsan, xo‘pmi?

Ushbu ahmoqona bal shuncha tashvishga arzimasligini o‘ylagan Garri, ishqilib, Petilning burni qiyshiq bo‘lmay, yuzining o‘rtasida to‘g‘ri joylashganiga umid qilgancha, Ron tomon ravona bo‘ldi.

XXIII BOB. ROJDESTVO BALI

To‘rtinchi sinf o‘quvchilariga ta’til davomida bajariladigan uy vazifalari misli ko‘rilmagan darajada ko‘p berilganiga qaramay, semestr nihoyasida Garri kitob o‘qish yoki nimadir yozib o‘tirishga o‘zini majbur qila olmay, Rojdestvo bayramigacha qolgan bir hafta vaqtni el qatori, hayot lazzatlaridan bahramand bo‘lib o‘tkazdi. Ta’til davri boshlangan bo‘lsa-da «Griffindor» minorasida odam soni kamaymadi, aksincha, unda istiqomat qiladiganlarning faolligi semestr davriga nisbatan ancha oshib ketgani uchun bo‘lsa kerak, minoraning o‘zi tor bo‘lib qolganday tuyuldi. Egizaklar ixtirosi – kanareyka qandlariga bo‘lgan ehtiyoj rosa oshdi. Ta’tilning ilk kunlari har daqiqada kimdir aldanib, patga burkanib qoladigan bo‘lib qoldi. Biroq ko‘p o‘tmay ogohligi oshgan xaloyiq havola etiladigan mahsulotlarga ehtiyotkorona munosabat bildirib, ichidan kanareyka qandlarini qidiradigan bo‘lib qoldi. Shunda Fred Garriga Jorj ikkalasi yana bironta yangilik ixtiro qilishga urinib ko‘rishlarini va’da qildi. Garri shu zahoti miyasiga egizaklar qo‘lidan pecheniy bo‘lsin, olmaslik kerakligini yozib qo‘ydi. U «bir pud til» pomadkasi-yu, nokas Dudlining ahvolini haligacha unutgani yo‘q.

Qasr ham, maktab hovlisi ham oppoq ko‘rpaga burkangan. Xagridning qor bosib, pryanikka o‘xshab qolgan kulbasi yaqinidagi belstekchilarning xira moviy aravasi kuzda uzilmay, egatda qolib, muzlab qolgan yirik oshqovoqqa o‘xshaydi. Abzal-arqonlari oqarib qolgan «Durmshtrang» kemasining illuminatorlarini muz qoplagan. Uy elflari har kuni issiqqina dimlangan go‘sht, nimtatir puding kabi turli-tuman mazali va juda to‘yimli taom uzatishadi. Faqat ta’bi o‘ta nozik Flyor Delakyorgina norozilik bildirish uchun vaj-bahona topadi.

Kunlardan bir kun kechki ovqatdan so‘ng Katta Zaldan chiqayotgan bolalar uning nolishini eshitib qolishdi. Flyor ko‘rib qolmasligi uchun Ron tizzasini bukib, Garrining ortiga bekinib olgan bo‘ldi.

– «Xogvag‘s» ovqatlag‘i big‘am og‘ig‘, hazm bo‘lishi big‘am qiyinki, bayg‘am kiyimimga sig‘may qolaman, deb qo‘g‘qaman.

– Fojiani qarang! – jahl qildi Germiona vestibulga chiqib ketgan Delakyorning ortidan qarab. – Ovqat og‘irlik qilib, bayram kiyimiga sig‘may qolar emish! O‘ziga haddan ortiq bino qo‘yib yubormadimi, bu xonim?

– Germiona, balga kim bilan borasan? – bemavrid so‘rab qoldi Ron.

Ushbu savolni Ron kutilmagan fursatlarda beraverib, charchamadi. Shu tariqa u, Germionaning og‘zidan gap chiqib ketishiga umid qiladi chog‘i. Germiona esa qoshini chimirib, har safar:

– Aytmayman, ustimdan kulasiz, – deya javob qaytaradi.

– Hazillashyapsanmi, Uesli? – gapga aralashdi xaloyiq orasida bolalar ortidan kelayotgan Malfoy. – Kimningdir yuragi betlab, mana buni balga taklif qilgan, demoqchimisan? Har kimni taklif qilish mumkin-u, faqat so‘yloq tishli mana shu maglvachchani emas!

Garri bilan Ron turgan joyida Malfoy tomon yuzlandi, Germiona esa qo‘lini ko‘targancha, Malfoyning orqa tomoniga siltab:

– Salom, professor Xmuri! – deb qo‘ydi.

Rangi bir zumda dokaday oqarib ketgan Malfoy chetga irg‘ib chiqib, ko‘zi ola-kula bo‘lgancha, atrofga alanglab chiqdi. Lekin Xmuri haligacha «Mo‘tabar Stol» ortida, dimlangan go‘sht bilan ovora bo‘lib o‘tiribdi.

– Yurak degan narsadan asar qolmabdi-yu, sassiqko‘zan Malfoy! – xulosa qildi Germiona xaloyiq oldida Malfoyning izzat-hurmatini yer bilan bitta qilib.

Garri, Ron va Germiona odamlarga qo‘shilib xandon otgancha, hashamatli marmar zinadan yuqoriga ko‘tarildi.

– Germiona, – kutilmaganda qoshini chimirdi Ron, – Tishing...

– Tishimga nima qilibdi?

– M-m-m... biroz o‘zgaribdi... Men endi ahamiyat

beribman...

– O‘zgargan, albatta. Nima, Malfoy o‘stirib yuborgan holaticha qolishini istaganmiding?

– Yo‘q, aytmoqchimanki, hali qarg‘ish qo‘llanilmagan holatiga nisbatan ham boshqacharoq ko‘rinyapti... qandaydir to‘g‘ri... me’yoriy o‘lchamga kelib qolibdi.

Germiona ayyorona kulib boqdi. Garri ham ushbu tabassum ilgarigi tabassumdan ancha farq qilayotganiga endigina e’tibor qildi.

– Gap shundaki, o‘sha kuni... tishimni qisqartirish uchun maktab feldsherining qabuliga kirganimda, Pomfri xonim qo‘-limga ko‘zgu ushlatib, tishim oldingi o‘lchamini kasb etgan fursatda muolaja amalini to‘xtatishimni tayinladi. Men Pomfri xonimning harakatini sal kechroq to‘xtatdim, – dedi Germiona yanada keng tabassum qilib. – Oyim bilan dadam xursand bo‘lishlariga shubha qilaman, albatta. Ulardan tishimni qisqar-tirib olishga million yildan buyon ijozat so‘rab yurgan edim. Ular esa tish halqalarini taqib yurishimni talab qilaverishdi. Tushunyapsizmi, ikkalasi ham tish davolovchi shifokor bo‘lib, tish davolash va sehr-jodu tushunchalari har xil narsalar, degan-cha... Qarang! Cho‘chrinstel qaytibdi!

Zinaning erimas qor uchqunlari bostirilgan panjarasi ustida qanotchasini hilpiratgan mittigina boyqush ko‘rindi. Uning panjasiga pergament o‘rami bog‘langan. Yonidan o‘tayotgan o‘quvchilar qushchaga barmoq o‘qtab kulishdi. Uchinchi sinf-ning o‘quvchi qizlari esa to‘xtab:

– Mittiligini qarang! Ajoyib! – deyishgancha bir pas tomosha ham qilishdi.

– Pat qoplagan tentak! – vishilladi zina bo‘ylab yugurgan Ron, qushchani qo‘liga olib. – Xatni keltirgach, tomosha ko‘r-satish emas, manzilda ko‘rsatilgan shaxsga yetkazish kerak, tushundingmi?

Ronning mushtidan bosh chiqargan Cho‘chrinstel zavq-la sayrab, javob berdi. Uchinchi sinfning o‘quvchi qizlari esa serrayib qolishdi.

– Yo‘lingizdan qolmang! – baddosladi Ron, Cho‘chrinstel-

ni ushlagan mushti bilan dag‘-dag‘a qilib.

Baxtiyorligining cheki ko‘rinmagan Cho‘chrinstel battar sayrashga tushdi. O‘quvchi qizlar nafsoniyati haqoratlangan qiyofa kasb etishgancha, nari ketishdi. Ron Siriusdan kelgan xatni qushcha panjasidan yechib, Garriga uzatdi.

– Ushla, Garri.

Garri xatni cho‘ntagiga solgach, uchovlon «Griffindor» minorasi tomon oshiqdi.

Umumiy mehmonxonadagi griffindorchilarning har biri o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib, birovning birov bilan ishi yo‘q. Uchovlon hammadan narida, asta-sekin qor bosib, ko‘mila-yotgan qorong‘i deraza yaqiniga joylashib olgach, Garri ovoz chiqarib o‘qidi:

Qadrli Garri!

Birinchi musobaqani muvaffaqiyat-la yakunlaganing bilan chin qalbdan tabriklayman! Arizangni Olov kubokiga kim tashlaganini bilmayman-u, hozir u rosa alam qilayotganiga shubha qilmayman! Ajdarning eng nozik joyi ko‘zi bo‘lgani uchun senga Ko‘r qilish qarg‘ishini maslahat bermoqchi edim...

– Krum qo‘llagan qarg‘ish! – pichirladi Germiona.

... lekin sen undan-da zo‘r yo‘lini topibsan, qoyil.

Sergaklikni susaytirma, Garri. Bu atigi birinchi sinov edi, xolos. Seni Uch sehrgar bellashuviga jalb etgan kaslarning, agar ular xohlashsa, senga ziyon yetkazish imkoniyatlari hali ko‘p. Ko‘zingni ochib yur, ayniqsa, men aytgan kishi yaqin-atrofingda ivirsib yurganida. Noxushliklarga aralashib qolish-dan ogoh bo‘l.

G‘ayrioddiy narsalar ro‘y berishi bilan yozib yubor.

Sirius.

– Xuddi Xmurining: «*Betinim sergaklik talab etiladi!*», degan gapiga o‘xshaydi, – xulosa qildi Garri, xatni ichki kissasiga bekitar ekan. – Go‘yo men ko‘zimni bog‘lab olib, qasr devoriga tinmay urilib-turtilib yuraman...

– Sirius haq, Garri, – dedi Germiona. – Seni hali bir emas, ikkita sinov kutmoqda. Tuxum ustida bosh qotirish, uning sirini aniqlash vaqti yetdi, nazarimda...

– Germiona, uning ixtiyorida hali yana yuz yil bor! – gapni kesdi Ron, – Garri, bir shaxmat surishmaymizmi, a?

– Surishamiz, – bajonidil rozi bo'ldi Garri va Germionaning yuziga qarab, qo'shib qo'ydi: – Germiona, do'stim, bun-day to's-to'polonda qanday qilib tuxum ustida bosh qotirishim mumkin? Hozir uning chiyillashini ham eshitmayman-u, axir.

– Ha, eshitmaysan, – xo'rsindi Germiona va Ron Garrini atigi ikkita o'ta dovyurak piyoda va bitta shafqatsiz fil vosita-sida ajoyib tarzda mot qilishini tomosha qilib o'tirdi.

***

Rojdestvo kuni ertalab Garri kutilmaganda uyg'onib ketdi. Shirin tushlar dunyosidan bunchalik tez qaytganining sababini tushunmagan bola ko'zini ochib, qorong'ida bir juft yashil tusli katta ko'z burniga deyarli taqalgancha, baqrayib yarqirayotganini ko'rdi! Orqaga kuch bilan tislanar ekan, karavotidan qulab tushishiga bir baxya qoldi.

– DOBBI! – qichqirdi Garri. – Qayta unday qila ko'rma! Qo'rqqanimdan siyib qo'yishimga sal qoldi-ya!

Uzun barmog'ini og'ziga bosgan elf nari sapchidi.

– Dobbi uzr so'raydi, ser! – aybdor ohangda g'ichirladi u. – Dobbi Garri Potterga masrur Rojdestvo tilagani va sovg'a hadya etgani keldi, xolos, ser! Garri Potter Dobbiga ba'zan mehmonga kelib turishga ijozat bergan edi, ser!

– Yaxshi, yaxshi, – dedi Garri, haligacha hansirayotgan bo'lsa-da, yurak urishi me'yoriga qaytayotganini his etib. – Ishlar joyida. Faqat kelasi safar meni turtib yoki yana biron boshqacha tarzda uyg'otgin. Ustimga bunday osilib olma...

Garri chodir pardasini ochib, karavot yonidagi javoncha ustida yotgan yumaloq ko'zoynagini olib taqdi. Qichqirig'i bilan Ron, Simus, Din va Nevillni uyg'otib yuboribdi. To'rtov-lon cho'chigancha, chodirlaridagi parda tirqishi orqali shishgan ko'zi

ila qarab o‘tiribdi.

– Senga birov hamla qildimi, Garri? – so‘radi Simus uyqusirab.

– Yo‘q, Dobbi mehmonga kelibdi, – g‘udulladi Garri. – Uxlayvering.

– A-a... Sovg‘alar! – dedi Simus, karavotining oyoq tomoniga terilgan bo‘xchalarga qarab.

Ron, Din va Nevill endi uyqu kelmasligini bilib, o‘z sovg‘alari bilan mashg‘ul bo‘lishdi. Garri karavotda xijolat chekkancha ikkilanib turgan, boshiga kiygan choynak g‘ilofining ilgagidan kichkinagina archa o‘yinchog‘i osilib tushgan elfga qaradi.

– Dobbi Garri Potter uchun keltirgan sovg‘asini topshirishi mumkinmi, ser? – tortinib so‘radi elf.

– Mumkin, albatta, – dedi Garri. – Menda esa sen uchun... m-m-m... sovg‘a bor.

U yolg‘on gapirdi. Aslida Garri Dobbi uchun hech narsa xarid qilmagan. Shunga qaramay, o‘rnidan turib sandig‘ini ochdi-da, Vernon amakining turish-bitmishi siqma halqalardan iborat, koptok shaklida o‘ralgan bir juft xantalrangli eski paypog‘ini chiqardi. Ushbu siqma halqalarni Garri, bir yildan oshiq vaqt davomida sneakoskopni paypoq ichida saqlash uchun ishlatgan. U paypoq ichidan chiqargan sneakoskopni sandiqqa tashlab, «sovg‘a»ni Dobbiga uzatdi.

– Ma’zur tutgaysan, Dobbi, uni sovg‘a ko‘rinishida qadoqlashni unutib qo‘yibman.

– Jamiki kiyimlar orasida, ser, Dobbi juda-juda yaxshi ko‘radigan kiyim paypoqdir! – zavqlanib chinqirdi Dobbi, oyog‘idagi poyma-poy paypog‘ini yechib, Vernon amakining paypog‘ini kiyar ekan. – Shunisi bilan yettita bo‘ladi, ser... biroq... ser... – dedi elf, shortik pochasigacha yetgan paypoqqa qarar ekan, ko‘zi yanada katta ochilib. – Do‘konda anglashilmovchilik bo‘lgan ko‘rinadi, ser. Sotuvchi Garri Potterga ikkita bir xil paypoq beribdi-yu!

– Qanday dahshat, Garri, shunchalik noshud bo‘lasanmi, a? – koyib berdi Ron, sovg‘a-salom qadoqlash qog‘ozlarining

uyumiga to‘lgan karavoti ortidan. – Bir umr mana shunday oddiy narsalarga ham e’tibor qilmay yuraverasanmi! Dobbi, mana senga yana bir juft paypoq. Ularning poylarini almash-tirsang, paypoqning ikkita to‘g‘ri juftiga ega bo‘lasan. Mana bu esa men senga va’da qilgan sviter.

Ron Dobbiga missis Uesli yuborgan binafsharang paypoq va qo‘lda to‘qilgan sviterni tashladi.

Nihoyatda hayajonlanib ketgan Dobbi chuqur ta’zim qildi.

– Ser behad mehribon! – dedi u, ko‘zi yoshga to‘lib. – Garri Potterning do‘sti bo‘lmish ser Uesli buyuk sehrgar ekani-ga Dobbi zig‘irday bo‘lsin shubha qilmagan. Lekin serning bun-chalik saxiy, olijanob va beg‘arazligidan Dobbi bexabar ekan...

– Bu atigi paypoq edi, xolos, – dedi elfning gapidan minnatdor bo‘lib, qulog‘i qizargan Ron. – Voy-bo‘, Garri! Zo‘r-u! – xitob qildi u, «Otar zambaraklar» jamoasining Garri sovg‘a qilgan shlapasini ochib.

Ron shlapani boshiga kiygach, rangi sochining rangiga mos kelmasligi ko‘zga tashlandi.

Endi navbat Dobbiga yetdi. Elf Garriga kichkinagina tuguncha uzatdi. Unda ham paypoq bor ekan.

– Dobbi uni o‘zi to‘qigan, ser! – baxtiyor ovoz-la e’lon qildi elf. – Jundan yigirilgan ipni Dobbi o‘z ish haqi hisobidan xarid qildi, ser!

Paypoqning chap poyi to‘q qizil bo‘lib, supurgilarning rasmi, o‘ng poyi yashil bo‘lib, «Tilla chaqqon»lar rasmi solingan.

– Ajoyib... Dobbi... ajoyib, katta rahmat senga, – minnat-dorlik bildirdi Garri, ikkala poyni oyog‘iga kiyib.

– Ijozatingiz bilan Dobbi ish joyiga qaytishi kerak, ser, – yanada yashnab ketdi baxtiyor Dobbi. – Biz elflar Rojdestvo sharofatiga beriladigan kechki ziyofatni tayyorlashga hozirdan kirishib ketganmiz, ser!

Dobbi Ron va boshqalarga qo‘l siltab xayrlashgancha, yotoqxonani tark etdi.

Boshqa sovg‘alar, Dursllarning sovg‘asidan tashqari, albatta, Dobbining poyma-poy paypog‘idan ko‘ra ancha qiziq

bo‘ldi. Qog‘oz dastro‘mol yuborgan Dursllar, aftidan, «bir pud til» pomadkasini unuta olmagan ko‘rinadi. Germiona «Britaniya va Irlandiya kvidish jamoalari» kitobini, Ron bir paket go‘ng bombasini, Sirius har qanday qulfni ochish va har qanday tugunni yechish moslamalariga ega nihoyatda qulay pichoq-chani sovg‘a qilibdi. Xagrid esa Garri yoqtiradigan barcha ta’mlarni o‘ziga mujassam etgan Berti Bott yong‘oqlari, Drublis ishirsaqichlari, vishillaydigan «tuk arilar» kabi turli-tuman shirinliklarga to‘la juda katta quti jo‘natibdi. Missis Uesli, aftidan, Charlining tikanak dumli ajdar haqida oyisiga batafsil bergan ma’lumotlari asosida to‘qib, ko‘krak sohasida ajdar rasmini solgan yangigina yashil jemper va turgan gapki, go‘shtli somsaning bir dunyosini yuboribdi.

Garri bilan Ron Germionani umumiy mehmonxonada uchratib, nonushta qilgani Katta Zalga birga tushishdi. Kunning birinchi yarmini uchovlon «Griffindor» minorasida o‘tkazib, har biri o‘z sovg‘alari bilan ovora bo‘ldi. So‘ng yana Katta Zalga tushib, ajoyib tushlikdan bahramand bo‘ldi. Dasturxonga bir dunyo kurka, Rojdestvo pudinglari va sehrli karta-krekerlari[1] tortilgan. Tushlikdan so‘ng bolalar hovliga chiqishdi. Belstekchilar bilan durmshtrangchilarning o‘z makonlaridan qasr tomon yurib kelgan chuqur izlarini hisobga olmaganda, qalin qor ko‘rpasi mutlaqo tegilmagan. Garri bilan Ron boshlab bergan qorbo‘ron o‘yiniga Germiona qo‘shilmadi. U bir chetda tomosha qilib turdi-da, soat besh bo‘lgach, qasrga qaytib, balga hozirlik ko‘rishini ma’lum qildi.

– Rosa uch soat hozirlik ko‘rishing kerakmi? – hayron bo‘ldi og‘zi ochilgan Ron, angraygani uchun shu zahoti Jorj uloqtirgan qor to‘pini boshiga yeb. – Balga kim bilan borasan? – baqirib qoldi u, Germionaning ortidan.

Biroq qo‘lini siltagancha, tosh zinadan ko‘tarilib, qasrga kirib ketgan Germiona, ushbu savolni odatdagiday javobsiz qoldirdi.

[1] **Kreker** (*inglizcha:* kraker) – bug‘doy uni, yog‘idan va shakar aralashmasidan tayyorlanadigan pecheniyning bir turi. Kreker tayyorlashda ba’zan xamirturush, sut, asal va qiyomdan ham foydalaniladi.

Bal o‘z ichiga ziyofatni ham mujassam etgani bois bugun choyxo‘rlik bo‘lmadi. Nishonga olib otish qiyinlashib qolgach, qor muhorabasini bas qilgan bolalar soat yettida umumiy mehmonxonaga yo‘l olishdi. «Semiz Xola» birinchi qavatlik dugonasi Violetta bilan o‘tiribdi. Rasm polida yotgan likorli shokolad qandlaridan bo‘shagan qutilar uyumiga qaraganda, ikkala xonimning kayfi anchagina oshib qolgan ko‘rinadi.

– Xitoy fonuschalari, deysizmi? – so‘radi parolni eshitgan «Semiz Xola» minora tuynugini hiringlagancha ochib. – Aynan o‘sha narsa kamlik qilyapti-da!

Garri, Ron, Simus, Din va Nevill yotoqxonaga ko‘tarilib, bayram kiyimlarini kiyishdi-yu, shu zahoti uyalinqirab qolishdi. Ayniqsa burchakka osib qo‘yilgan ko‘zguga qarab, basharasi burishib ketgan Ron o‘zini juda noqulay sezdi. Uning to‘q qizil duxobadan tikilgan uzun bayram kiyimi nimasi bilandir ayollar ko‘ylagiga o‘xshab ketayotganiga e’tibor qilmay bo‘lmaydi. Uni erkak kiyimiga o‘xshatishga uringan Ron Yulib tashlash afsunini qo‘llab, yenglar va yoqaning gardishidagi yo‘sin bos-gan to‘rlarni yulib yubordi. Biroq afsunni dag‘al qo‘llagan, shekilli, kiyimning to‘zigan chetlari popiltiriqqa o‘xshab qoldi. Iloj qancha, shu turishda pastga tushaverdi.

– Tengqurlarimiz orasidagi eng chiroyli qizlarga qanday erisha oldingiz, hech aqlim yetmayapti, – vaysadi Din.

– G‘ayri shuuriy joziba kor berdi, – dedi xo‘mraygan Ron, yengidan osilib tushgan ipni uzib.

Odatiy qora kiyim o‘rniga rang-barang kiyingan xaloyiqqa to‘lgan umumiy mehmonxona mutlaqo o‘zgacha ko‘rinmoqda. Parvatti Garrini zina bo‘sag‘asida kutyapti. Pushti korjoma kiygan, kokillari tilla bilan bezatilgan, qo‘lida bilaguzuklar yarqirayotgan Patil chindan ham juda chiroyli ko‘rinmoqda. Uning hiringlash xuruji tutib qolmaganini ko‘rgan Garri o‘zini ancha yengil his etdi.

– Sen... m-m-m... juda chiroylisan, – o‘ng‘aysiz xushomad qildi Garri.

– Rahmat, – bosh irg‘idi Patil. – Petil seni vestibulda kutadi, qo‘shib qo‘ydi u, Ronga murojaat qilib.

– Yaxshi, – g'udulladi Ron, atrofga qarab. – Germiona qani?

Parvatti yelka qisib qo'ydi.

– Pastga tushamizmi, Garri? – taklif qildi qiz.

– Ketdik, – dedi umumiy mehmonxonada qolishni hali bu qadar qattiq istamagan Garri.

Iloj qancha, portret to'sgan tuynuk tomon yurishga majbur. Fred dalda berganday, Garriga ko'z qisib qo'ydi.

Vestibul ham soat sakkiz bo'lishi-yu, Katta Zalning eshiklari ochilishini kutib turgan o'quvchilarga to'lgan. Taklif qilgan jufti boshqa fakultetda tahsil ko'radigan o'g'il bolalar o'z juftini qidirgancha, xaloyiq ichida turtinib-surtinib yuribdi. Patil singlisi Petilni topib, Garri bilan Ronning yoniga boshlab keldi. Ikkala qiz bir-biriga ikki tomchi suvday o'xshaydi. Faqat Petil opasi Patildan farqli o'laroq, egniga firuzarangli ko'ylak kiygan.

– Salom, – ko'rishishdi Petil.

– Salom, – javob berdi Ron Petilga qiyo boqmay, atrofga alanglagancha. – O, yo'q...

U Garrining orqasida turgancha, yana tizza bukib bekinib olgan bo'ldi. Bolalarning yonidan «Ravenklo» kvidish jamoasining sardori Rojer Deyvis hamrohligida kumush-kulrang kiyim kiygan Flyor Delakyor ko'zni qamashtirib o'tdi. Ikkalasi o'tib ketgach, qaddini tiklagan Ron yana so'radi:

– Germiona qayerda ekan, a?

Qasrning yerosti yo'lagidan Malfoy boshchiligidagi slizerinchilar guruhi chiqib keldi. Yoqasi ko'tarilgan qora duxoba korjoma kiygan Malfoy nimasi bilandir vikariyga[1] o'xshab qolibdi. Egniga serburma och pushti ko'ylak kiygan Pansi Parkinson Malfoyning qo'lidan tutib, yelkasiga yopishib olgan. Yashil kiyim kiygan Krabbe bilan Goyl esa yo'sin qoplagan bir juft xarsangdan farq qilmaydi. Ikkalasi ham o'ziga juft topa olmaganini ko'rgan Garri ichida kulib qo'ydi.

Qasrga olib kiradigan asosiy eman eshik ochilgach, barcha o'quvchilar boshini burib, professor Karkarov boshchiligidagi

[1] **Vikariy** – pravoslavlar cherkovida arxiyerey yordamchisi, o'rinbosari sanalsa, katoliklar cherkovida yepiskop yoki pop yordamchisi, o'rinbosari sanaladi.

durmshtrangchilar kirib kelishini tomosha qilishdi. Birinchi bo'lib, moviy korjoma kiygan, Garri tanimaydigan allaqanday chiroyli qiz bilan birga Viktor Krum kirib keldi. Garri «Durmshtrang» o'quvchilarining boshi uzra qasr oldidagi maysazorning bir qismi juda keng grotga[1] aylanib qolgani, sehrlangan butalarga osilib, Qor bobo va uning bug'ularini bezab turgan xitoy fonuslari va qanotchalarini pirpiratayotgan minglab haqiqiy sohiralarni ko'rdi.

Kutilmaganda professor Makgonagallning ovozi yangradi:

– Chempionlikka da'vogarlar, bu yoqqa, iltimos.

Yashnab ketgan Parvatti bilaguzuklarini to'g'rilashga kirishishdi. Garri ikkalasi Ron bilan Petilga «Kechroq uchrashamiz», deb qo'yishdi-da, eshik tomon ilgarilashdi. Jonli suhbat qurayotgan bolalar chetga surilib, ularga yo'l berishdi. Egniga qizil tusli katak gulli bayram kiyimi, boshiga esa chet-lari qushqo'nmasning[2] xunuk bargagi[3] bilan bezatilgan shlapa kiygan professor Makgonagall ulardan, toki hamma Katta Zalga kirib olguncha, eshik oldida kutib turishni iltimos qildi. Chempionlikka da'vogarlar Katta Zalga o'z juftlari bilan birga, hamma o'z joyini egallab bo'lganidan so'ng kirishlari kerak ekan. Flyor Delakyor bilan Rojer Deyvis eshikka yaqin turishibdi. Flyorga juft bo'lishdek qismatdan hayajonlanib ketgan Deyvis Flyordan ko'z uza olmayapti. Sedrik va Chuning yonida turgan Garri, ular bilan suhbat qurishga majbur bo'lmaslik uchun ko'zini chetga olib, Krum bilan birga kelgan qiz tomon qaradiyu, og'zi ochilib, jag'i osilib qoldi.

Germiona!

Germiona tab bo'lmas darajada batamom o'zgarib ketibdi. Odatda, hurpayib turadigan sochini nimadir qilibdi, shekilli, silliq tortib, chiroyli tuguncha shaklida boshining orqasiga tur-

[1] **Grot** – dengiz qirg'og'idagi tik qoyalarda hosil bo'ladigan g'or va shunga o'xshash sun'iy g'orlar.

[2] **Qushqo'nmas** – tikanli yovvoyi o'simlik.

[3] **Bargak** *(forscha)* – danaksiz quruq meva. 1) danagi olingan holda quritilgan o'rik; o'rikqoqi; 2) ayollar peshonasiga, ko'ksiga taqadigan oltin yoki kumush tangalardan tuzilgan barg nusxa ziynat buyumi taqinchoq; 3) tolning erta ko'klamda barg yozib, popuk chiqaradigan surx novdasi.

maklabdi. Egniga uchqunlanayotgan bo'rigulrangli ko'ylak kiygan Germionaning qomati, yelkasiga yigirmatacha kitob solingan yuk xalta osilmaganidan bo'lsa kerak, hozir tamoman boshqacha ko'rinmoqda. U Garriga qandaydir asabiy kulib qaradi. O'lchami kichraytirilgan bir tekis tishi chiroyli yarqiradi. Qiziq, nega Garri buni ilgari sezmagan ekan?

– Salom, Garri, – ko'rishishdi u. – Salom Parvatti.

Parvatti Germionaga unchalik manzur bo'lmagan nigoh-la baqrayib qoldi. Bunday qiyofani faqat Patilning yuzigina kasb etmagan. Katta Zalning eshigi ochilgach, qizlarning «Krum muxlisalari klubi» a'zolari Germionaga hasad bilan nafrat uyg'unlashgan nigohlari ila o'qrayib o'tishdi. Malfoy bilan birga o'tayotgan Pansi Parkinson Germionaga ko'zi tushgach, larzaga kelib, hiqichog'i tutib qolishiga sal qoldi. Hatto gapga to'n kiydiradigan Malfoy ham so'z topa olmadi. Ron esa aksincha, Germionaga qiyo ham boqmay o'tdi.

Katta Zalga kirganlarning hammasi o'z joyini egallagach, professor Makgonagall chempionlikka da'vogarlarga o'z juftlari bilan birga saf tortib, ichkariga kirishga ijozat berdi. Ular aytilgan tarzda ichkariga kirishlari bilan gulduros qarsaklar yangradi. Tantana qahramonlari zalning narigi boshiga o'rnatilgan, atrofida hakamlar o'tirgan katta to'garak stol tomon yo'l olishdi.

Katta Zal devoriga kumush tusli yaltiroq qirov qoplangan, yulduzlar sochilgan qop-qora shift esa pechak va omeladan to'qilgan yuzlab marjonlar bilan bezalgan. Fakultetlarning uzun stollari o'rniga o'rtasida fonus yonayotgan, har biri o'n ikki kishiga mo'ljallangan kichik o'lchamli stollar o'rnatilgan.

Garri qoqilmay yurishga urinayotgan bo'lsa, ro'y berayotgan hodisadan zavqlanib, hammaga tabassum ulashayotgan Parvatti Garrini shu qadar shaddodlik-la yetaklamoqdaki, bola o'zini ko'rgazmaga olib chiqilgan xizmat itiday his etmoqda.

Chempionlikka da'vogarlarni qarshi olayotgan Dambldor nihoyatda xursand. Krum bilan Germionani kuzatib o'tirgan Karkarovning yuzidagi qiyofa Ronning qiyofasidan zig'irday bo'lsin, farq qilmayapti. Bayram sharofatiga sariq yulduzlar

tasviri solingan to‘q qizil korjoma kiygan Lyudo Shulman maktab o‘quvchisi kabi zavq-la qarsak urmoqda. Qora shoyi ko‘ylagini bugun tovonigacha solinib turgan lavanda[1] rangli yanada chiroyli shoyi ko‘ylakka almashtirgan Maksim xonim esa nazokatli qiyofa ila chapak chalmoqda. Mister Sgorbs esa bugun ko‘rinmayapti. Hakamlarning beshinchi kursisini Persi Uesli egallagan.

Bal qahramonlari o‘z juftlari bilan asosiy stolga yaqin kelishgach o‘zidan favqulodda mamnun, egniga to‘q ko‘k rangli yap-yangi bayram kiyim kiygan Persi yonidagi kursini tortib chiqarib, Garriga ma’noli qarab qo‘ydi. Garri ishorani anglab, Persi tomon yurdi.

– Meni xizmat pog‘onasi bo‘yicha yuqori lavozimga ko‘tarishdi, – dedi Persi xuddi Olamning Bosh Hokimi etib tayinlanganini tantanavor e’lon qilayotganday. – Endi men mister Sgorbsning shaxsiy yordamchisiman. Ushbu tadbirda esa uning nomidan ishtirok etmoqdaman.

– O‘zi nima uchun kelmadi, – so‘radi Garri butun oqshom tubi qalin-yupqa qozonlarga doir ma’ruza eshitishga ruhan hozirlanib.

– Afsuski, mister Sgorbsning tobi qochgan, o‘zini juda yomon his etmoqda. Kvidish bo‘yicha jahon chempionatining final o‘yinidan buyon shu ahvol. Buning hech ajablanarli joyi yo‘q, albatta. U qattiq charchagan. Yoshi ham anchaga borib qoldi. Shunday bo‘lsa-da, ilgarigiday zo‘r rahbar, xotirasi yaxshi, zaiflashmagan. Final o‘yinini tashkillashtirish tadbirlari jamiki vazirlik uchun muvaffaqiyatsiz kechdi. Buning ustiga o‘zining uy elfi, laqabi Binkimidi, itoat etmay qo‘ygani bois mister Sgorbs ruhiy iztirob chekdi. Tabiiyki, elfni shu zahoti ishdan bo‘shatib yubordi. Lekin hayot davom etyapti, yashash kerak. Qariya parvarishga muhtoj. Nazarimda, uy elfini haydab yuborganidan so‘ng u juda noqulay hayot kechirmoqda. Biz esa Uch sehrgar bellashuvini tashkillashtirishimiz, Kubok finalining salbiy oqibatlariga barham berishimiz darkor. Anavi jirkanch Rita

[1] **Lavanda** – havorang yoki binafsharang gulli, xushbo‘y, doim yashil o‘simlik.

Vriter esa atrofimizda xira pashshaday aymashib yurishini qo'ymaydi. Yo'q, kim nima desa desin-u, bechora qariya Rojdestvoni betashvish, xotirjam o'tkazishga haqli. Damini olsin. U kimga tayanish mumkinligi, tashvish chekishga yo'l qo'ymaydigan, yo'qligini bildirmay ishlaydigan yordamchisi borligini bilishidan juda xursandman.

Garri Persidan mister Sgorbs uni «Uezerbi», deb chaqir-may qo'ygan-qo'ymaganini bilmoqchi bo'lib og'iz juftladi-yu, tilini tiydi.

Tilla likoplar hali bo'sh. Ovqatlanish anjomlarining har bir to'plami yoniga taomlar ro'yxati qo'yilgan. Garri varaqani qo'liga olib, ikkilangancha atrofga qaradi. Ofitsiantlar[1] ko'rinmaydi. O'z ro'yxatini diqqat bilan o'rganib chiqqan Dambldor likopga murojaat qilgancha:

– To'qmoqlab yumshatilgan go'sht uzatsangiz, iltimos, – deb qo'ydi.

Uning likopida chindan ham to'qmoqlab pishirilgan go'sht paydo bo'ldi. Dasturxon atrofidagi odamlar nima qilish kerakligini anglab yetgan likoplarga buyurtma berishga kirishib ketishdi. Garri Germionaga qaradi: qiziq, ovqatlanishning nisbatan murakkab kechadigan bunday usuliga u qanday munosabat bildirar ekan?! Aftidan, ushbu usul tufayli uy elflarining mehnat hajmi yanada ortadigan ko'rinadi. Biroq Germiona, bayram munosabati bilan bo'lsa kerak, SASSIQ jamiyatini vaqtincha unutgan ko'rinadi. U Krum bilan shu qadar jonli suhbat qurib o'tiribdiki, nima yeyotganiga e'tibor qilgani yo'q.

Krumning biror kishi bilan suhbatlashganini biron marta bo'lsin, ilgari ko'rmagan Garri hozir bajonidil vaysab o'tirganini ko'rib, hayron bo'ldi.

– Niima ham der ediim, – dedi u Germionaga. – Biizniing ham o'z qasriimiiz bor. To'g'ri, qasriimiiz siizning qasriingiz kabi ulkan, shiinam emas, albatta. U atiigii to'rt qavatdan iborat. Kamiinlarii esa faqat sehr-jodu maqsadiidagiina yoqiila-di.

[1] **Ofitsiant** (*lotincha:* officians, ofiiciantis – xizmatchi, xizmat qiluvchi) – restoran, kafe va shu kabilarda xo'randalarga xizmat qiluvchi, ulardan buyurtma olib, ovqat keltirib beruvchi xodim(a).

Biiroq hududiimiiz siizniing hududiingizga niisbatan anchamuncha katta. Qiish fasliida kun yorug'i tez o'tiib, uzoq sayr qiila olmaymiz. Ammo yozda ko'l-u, tog'lar uzra har kunii uzoq vaqt parvoz qiilamiiz.

– Viktor, Viktor! – ogohlikka chaqirgan bo'ldi Karkarov, sovuq ko'zigacha yetib bormagan tabassum-la, – Sir-asrorlarimizni oshkor qilib yuborma, iltimos. Aks holda sening sohibjamol suhbatdoshing bizni qayerlardan qidirib topish mumkinligini anglab oladi!

Kulib yuborgan Dambldorning ko'zi yarqirab ketdi.

– Igor, bunday sir tutish choralari... Har qanday kishini durmshtrangchilar – mehmon yoqtirmas odamlar, degan xulosaga borishga majbur qiladi.

– Dambldor, – javob berdi sariq tishini yalang'ochlatgan Karkarov, – xususiy yer-suvni muhofaza qilish, jamiki bashariyat, shu jumladan, bizning ham tabiatimizga xos odat, urf-odatlarimizga mos an'anadir, to'g'rimi? Demak, tasarrufimizdagi ma'rifat dargohlarini ham asrab-avaylashimiz shart. Har birimiz o'z maktabimizning sir-asrorlaridan faqat o'zimiz voqif ekanimizdan faxrlanib, ularni ko'z qorachig'iday asrashga haqlimiz, shunday emasmi?

– Qo'ysangiz-chi, Igor. Shaxsan men «Xogvars»ning barcha sir-asrorlaridan voqif bo'lishga oshiqmayman, – do'stona ohangda e'tiroz bildirdi Dambldor. – Istasangiz, hayotiy bir misol keltiray. Bugun ertalab vannaxonaga yo'l olar ekanman, noto'g'ri tomon burildim, shekilli, benazir me'morlik san'ati parpirab turgan xonaga kirib qoldim. Razm solib qarasam, ushbu xona tungi tuvaklarning nihoyatda chiroyli kolleksiyasi saqlanadigan ombor ekan. Vannaxonadan qaytar ekanman, o'sha xonani durustroq tadqiq qilmoqchi bo'ldim. Biroq chuch-varani xom sanabman. Xona yo'q. Uni qidirib topa olmadim. Endi asta kuzatib bormoqchiman. Nazarimda, mulohaza yuriti-layotgan xonaning eshigi yo ertalab soat besh-u, o'ttizda, yo Oyning to'rt qismidan biri ko'rinish bergandagina ochiladi. Yoxud uni qovug'i to'lgan kishigina topa oladi.

Garri yeb o‘tirgan gulashiga[1] qarab kulib yubordi. Ont ichib aytishi mumkinki, Dambldor unga qarab sezilar-sezilmas ko‘z qisib qo‘ydi. Persi esa aksincha qovoq soldi.

Bu vaqtda Flyor Delakyor Rojer Deyvisga murojaat qilib, «Xogvars»ning bayramona qiyofasini tanqid qildi.

– Bulag‘ning bag‘i hech gab emas, – ma’lum qildi u, Katta Zalning yaltirab turgan devoriga qaragancha, kamsitish ohangida. – Bizning «Belstek» qasg‘imizda G‘ojdestvo kuni butun ovqatlanish zali bo‘ylab muz haykallag‘ teg‘ib chiqiladi. To‘g‘-g‘i, ulag‘ hech qachon eg‘imaydi... lekin yig‘ik olmoslag‘day hamma yoqqa shu’la sochib tug‘adi. Taomlag‘imiz ham ajoyib! Devog‘lag‘imizga dahshatli qug‘ol-aslahalag‘ teg‘ib chiqilmagan. Agag‘ big‘og‘ta polteg‘geyst adashib «Belstek»ka kig‘ib qoladigan bo‘lsa, u mana bunday qilib uloqtig‘ib tashlanadi! – degancha, kafti bilan stol urdi.

Flyor Delakyorning gapiga xuddi sehrlab qo‘yilganday quloq tutib o‘tirgan Deyvis qo‘lidagi sanchqini og‘ziga yo‘llash qabiliyatini yo‘qotgan chog‘i, uch-to‘rt marta yuzi-yu, labiga sanchib oldi. Garrining nazarida, Flyorning husnidan zavqlanib o‘tirgan Rojerning aql-hushi asta-sekin barham topib bormoqda. Chunki u, Flyorning birorta bo‘lsin so‘zini idrok etmagan ko‘rinadi.

– To‘ppa-to‘g‘ri, mana bunday qilib! – tez ma’qulladi u, stol urishga qo‘shilishib. – Ha, mana shunday qilib!

Garri Katta Zalni ko‘zdan kechirib chiqdi. Yana o‘sha jigarrang, sertuk, nihoyatda xunuk bayramona kostum kiyib, to‘q malla katakli galstugini taqib olgan Xagrid o‘qituvchilar uchun ajratilgan stollardan birining ortida o‘tiribdi. Asosiy stol-dan ko‘zini uzmagan Xagrid o‘g‘rincha qo‘l siltab qo‘ydi. Mak-sim xonim ham opallarini yarqiratgancha, javoban qo‘l siltadi.

Aftidan, Krumning «Xermi-ovna»si joniga tekkan Germiona, endi o‘z ismini to‘g‘ri talaffuz etishni Krumga o‘rgatib o‘tiribdi.

– Ger – mi – ona, – asta va aniq talaffuz etdi u.

[1] **Gulash** – to‘g‘ramcha go‘shtdan dimlab tayyorlangan ovqat.

– Xerm – ioun – nina, – takrorladi Krum.

– Deyarli to‘g‘ri, – dedi Garrining qarab turganini ko‘rgan Germiona kulib boqib.

Ziyofat nihoyasiga yetgach, o‘rnidan turgan Dambldor, o‘quvchilarni ham turishga undadi. Sehrli tayoqchasini astagina siltab qo‘ygan ediki, barcha stol va kursilar surilgancha, devorga taqalib, o‘rtada joy bo‘shadi. Shundan so‘ng «Xogvars» direktori o‘ng devor yaqinida katta sahna barpo etdi. Sahnada urib chalinadigan musiqa asbobi, bir nechta gitara[1], ud[2], violonchel[3] va volinka[4] ko‘rindi.

Xayol o‘tmay sahnaga sochi yovvoyi odamlarning sochi kabi hurpaygan «Shaytonning singillari» guruhi shiddatli qarsaklar ostida chiqib kelib, musiqa asboblarini qo‘llariga olishdi. Ularning xatti-harakatini berilib tomosha qilayotgan, bu yerga nima uchun kelganini unutib qo‘ygan Garri atrofdagi chiroqlar o‘chirilgani-yu, boshqa chempionlikka da’vogarlar o‘rinlaridan turayotganini ko‘rdi.

– Tursang-chi, Garri! – pichirladi Parvatti. – Raqs tushishni boshlab berishimiz kerak, axir!

O‘rnidan turayotgan Garri o‘z korjomasining etagini o‘zi bosib oldi. «Shaytonning singillari» qandaydir ma’yus, motam kuyiga o‘xshash kuy chala boshladi. Garri Katta Zalning kuchli yoritilgan markaziga chiqib, birovning nigohiga qaramaslikka urindi-yu, bari bir tirjaygancha qo‘l siltayotgan Din bilan Simusni ko‘rdi. Keyingi fursatda Parvatti uning bir qo‘lini o‘z beliga qo‘yib, ikkinchisini yuqoriga ko‘targancha, ushlab oldi.

«U qadar qo‘rqinchli emas ekan», xayoldan o‘tkazdi Parvattining harakati yordamida maydonda aylana boshlagan Garri, xaloyiq uzra qayoqqadir yuqoriga qarab. Ko‘p o‘tmay raqs maydoniga boshqa juftlar ham chiqib, chempionlikka da’vogarlar tomoshabinlarning diqqat-markazidan chetga chiq-

[1] **Gitara** (*ispancha:* guitarra – chertma musiqa asbobi) – olti yoki yetti torli, chertib chalinadigan musiqa asbobi.

[2] **Ud** – qadimgi musiqa asboblaridan birining nomi.

[3] **Violenchel** (italyancha) – to‘rtta torli cholg‘u asbobi. Ko‘rinishi skripkaga o‘xshaydi.

[4] **Volinka** – dam bilan chalinadigan rus xalq cholg‘u asbobi.

di. Garrining yonida Jinna bilan Nevill raqs tushishmoqda. Oyog'i bosilayotgan Jinnaning yuzi og'riqdan burishib ketayotgani ko'rinib turibdi. Dambldor Maksim xonim bilan chiqibdi. Bo'yi ancha novcha Dambldor Maksim xonimning yonida qo'qil odamga o'xshaydi. Boshidagi cho'qqidor shlapasining uchi ba'zan Maksim xonimning jag'ini qitiqlab qo'ymoqda. Nihoyatda yirik bo'lishiga qaramay Maksim xonimning harakatlari nihoyatda latif kechmoqda. Professor Zlovestra bilan raqsga tushayotgan O'ynoqko'z Xmurining harakati juda g'alati ko'rindi. Zlovestra Xmurining tajovuzkor yog'och oyog'idan narida bo'lishga urinish bilan ovora.

– Paypoq poylaring chiroyli ekan, – dedi Garriga yaqinlashgan Xmuri, sehrli ko'zini bolaning etagiga qaratib.

– A? Ha, bumi... buni menga do'stim Dobbi, uy elfi to'qib berdi, – kulib boqdi Garri.

– Biram vahimali kishiki! – pichirladi Parvatti Xmuri nariroq kalovlanib ketgach. – Nazarimda, uning sehrli ko'zini man etib qo'yish kerak! Axir, u qizlarning...

Volinkaning so'nggi titroq notasini eshitgan Garri o'zini ancha yengil his etdi. «Shaytonning singillari» guruhi musiqasini tugatishi bilan bal ishtirokchilari gulduros qarsak urishdi.

– Yur, biroz o'tiramiz, – taklif qildi Garri Parvattining quchog'idan xalos bo'lib.

– O, mana bu kuy ham yomon emas! – e'tiroz bildirdi Patil.

«Shaytonning singillari» nisbatan jo'shqin kuy chala boshladi.

– Yo'q, menga yoqmayapti, – aldadi Garri.

U Patilni sho'x raqs tushayotgan, odamlarni jarohatlanmaslik uchun nari qochishga majbur qilayotgan Fred bilan Angelinaning yonidan olib o'tib, Ron bilan Petil o'tirgan tomon yetakladi.

Garri stol ustidagi huzur-lazzat ichimligining shishasini ochib, Ronning yoniga o'tirdi.

– Ishlar qalay? – so'radi u.

Sal narida raqs tushayotgan Germiona bilan Krumga nafrat to'la nigohini tikib o'tirgan Ron savolga javob qaytarmadi. Petil

esa uning yonida qo'lini ko'kragida qovushtirib, bir oyog'ini ikkinchisining tizzasiga chiqarib olgancha, musiqa maromida o'ynatar ekan, ahyon-ahyon Ronga domangir qarab qo'ymoqda. Ron esa bunga parvo ham qilmayapti. Garrining yoniga o'tirgan Patil ham singlisi kabi oyoq-qo'lini qovushtirib oldi. Lekin ikki daqiqa o'tar-o'tmas, uni «Belstek»lik yigitcha raqsga taklif qildi.

– E'tirozing yo'qmi, Garri? – so'radi Patil.

– Nima? – so'radi Chu bilan Sedrikni kuzatib o'tirgan Garri.

– Hech nima! – jahl qildi Patil va shartta o'rnidan turib, nari ketdi. Raqs tugaganida esa qaytib kelmadi.

Xayol o'tmay Patil bo'shatgan kursiga raqs tushaverib qizarib ketgan Germiona kelib o'tirdi.

– Salom, – dedi u Garri bilan Ronga murojaat qilib.

Ron javob qaytarmadi.

– Issiq, a? – dedi Germiona qo'li bilan yelpinib. – Viktor ichimlik olib kelgani ketdi.

– Viktor? – takrorladi Ron, Germionaga jonini oladigan qarash-la murojaat qilib. – Nega endi Vikki emas?

– Senga nima qildi? – so'radi Germiona taajjub-la qarab.

– O'zing bilmas ekansan, tushuntirib o'tirmoqchi emasman, – jerkidi Ron.

Hech narsani tushunmayotgan Germiona dastlab Ronga, so'ng Garriga tikildi. Garri yelka qisib qo'ydi.

– Ron, nima gap?... – so'radi qiz.

– U «Durmshtrang»dan, mana nima gap! – battar achchiq-landi Ron. – Krum Garrining, umuman aytganda, «Xogvars»ning raqibi sanaladi! Sen esa... sen esa... – Ger-mionaning jinoyatini tavsiflashga so'z topa olmay, qiynaldi Ron. – Sen esa dushman bilan do'stlashmoqdasan. Mana nima gap!

Germionaning og'zi hayratdan lang ochilib qoldi.

– Miyangni yeb qo'ydingmi, Ron? – dedi u nihoyat. – Dushman bilan? Nimalar deyotganingni o'zing tushunyapsan-mi? Krum «Xogvars»ga ilk bor kirib kelganida ikkalamizdan qaysi birimiz o'zini yo'qotib qo'yishiga sal qolgan edi? Qaysi birimiz uning dastxatini olish orzusida yuribdi? Ikkalamizdan qaysi birimiz o'z yotoqxonasida uning mitti qomatini saqlaydi?

– Kutubxonada yolg‘iz qolganingda taklif qilgan bo‘lsa kerak, a? – Germionaning gapini pisand qilmadi Ron.

– To‘g‘ri, shunday bo‘ldi, – tasdiqladi yuzidagi pushti dog‘lar kengaygan Germiona. – Xo‘sh, nima qilibdi?

– Sen-chi, nima qilding? SASSIQ jamiyatiga a’zo bo‘lishga undadingmi, uni?

– Yo‘q, unday qilmadim. Agar chindan ham bilmoqchi bo‘lsang... u har kuni kutubxonaga aynan men tufayli, men bilan suhbatlashish uchungina borgan, faqat, aniqlanishicha, gap boshlashga jur’at eta olmagan!

Juda tez gapirgan Germiona shu qadar qizarib ketdiki, rangi Patil kiygan pushti korjomadan farq qilmay qoldi.

– Bu Krumning topgan bahonasi, albatta, – vishilladi Ron.

– Bu bilan nima demoqchisan? – achchiqlandi Germiona.

– Nima ham der edim, hammasi shundoq ham ayon. U Karkarovning shogirdi, shundaymi? Shunday. Sen kim bilan do‘st ekaningni biladi, shundaymi? Shunday. Demak, u Garriga yaqinlashish, u haqda ichkaridan olingan, eng ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lib borish yoki suqi kiritishni niyat qilgan...

Germiona Rondan tarsaki yeganday seskanib ketdi. Tili kalima ayta oladigan holatga qaytganida esa ovozi titroq eshitildi:

– U Garri haqida hali biron og‘iz gap so‘ragani yo‘q...

– Demak, u anavi tilla tuxum masalasida sendan yordam kutadi! – zudlik bilan boshqa taxminni ilgari surdi Ron. – Ushbu jumboq yechimi ustida boshchalaringni shinamgina kutubxonachalaringda soatlab egib o‘tirgan bo‘lsalaring kerak, a?!

– Bunday jumboq yechimi borasida unga hech qachon yordam bermayman! – darg‘azab ohangda javob berdi Germiona. – Hech qachon. Qanday jur’at etyapsan bunday ayb qo‘ygani menga? Bellashuvda Garri g‘olib chiqishini istayman. Garri ham buni juda yaxshi biladi, to‘g‘rimi, Garri?

– To‘g‘ri, faqat buni namoyon etishning juda g‘alati usulini topibsan, – e’tiroz bildirdi burun kataklari kengayib ketgan Ron.

– Uch sehrgar bellashuvi turli xalqlar va millatlarga mansub yigit-qizlar o‘rtasida do‘stona munosabatlar qaror topili-

shining eng afzal usuli deya e'tirof etilgan! – chinqirib berdi Germiona.

– Yo'q! – javoban baqirdi Ron. – Ushbu bellashuv, unda g'olib chiqish uchun uyushtirilgan!

Atrofdagilar baqiroqlar tomon qarab qo'yishdi.

– Baqirma, Ron, – pichirladi Garri. – Germiona balga Krum bilan kelganiga hech qanday e'tirozim yo'q...

Ron Garriga ham e'tibor bermadi.

– Vikki kutib qolgandir, bormaysanmi! – chaqib oldi Ron.

– Vikki dema uni! – e'tiroz bildirdi Germiona.

Qiz o'rnidan irg'ib turib, xaloyiq ichiga kirib ketdi. Ron esa g'azab bilan mamnuniyat uyg'unlashgan qiyofa ila Germionaning ortidan qarab qoldi.

– Men bilan raqsga tushish niyating bormi? – eshitildi Petilning ovozi.

– Yo'q, – qisqa qildi Ron, Germiona g'oyib bo'lgan tomon darg'azab qarab.

– Juda soz, – achchiqlandi Petil.

Qiz shartta o'rnidan turdi-da, opasi Patil tomon odimladi. Patilni olib ketgan bola, Garrining nazarida, xuddi Buyum chaqirish afsunini qo'llagan kabi shu zahoti boshqa belstekchi bolani davraga chaqirdi.

– Xerm – ioun – nina qanii? – eshitildi tanish ovoz.

Boshini ko'tarib qaragan bolalar ikki porsiya huzur-lazzat ichimligini ushlab olgan Viktor Krumni ko'rishdi.

– Tasavvur ham qila olmayman, – tumshaydi Ron. – Yo'qotib qo'ydingmi uni, nima balo?

Krum ham qovog'ini solib oldi.

– Ko'riib qolsangiiz, aytiing unga, iltiimos, men ichiimlik oldiim, – dedi-da, maymoqlanib nari ketdi.

– Viktor Krum bilan do'stlashib oldingmi, Ron? – eshitildi yana bir tanish ovoz.

Bolalar oldiga qo'lini favqulodda dabdaba ila ishqalayotgan Persi keldi.

– Xalqaro sehrgarlik hamkorligi, ushbu tadbirda ko'zlangan bosh muddaodir! – hikmat qilgan bo'ldi Persi. – Juda soz ish

qilibsan!

Persi Garrining achchig'ini keltirgancha Petilning bo'shagan joyini egalladi. Asosiy stol atrofida hech kim yo'q. Professor Dambldor Sarsabil xonim bilan, Lyudo Shulman professor Makgonagall bilan, atrofida keng maydon hosil qilgan Xagrid Maksim xonim bilan raqsga tushishmoqda. Karkarov ko'rinmaydi. Navbatdagi musiqa nihoyasiga yetdi. Hamma qarsak chaldi. Lyudo Shulman professor Makgonagallning qo'lidan o'pib, xaloyiq orasiga kirib ketgani va shu zahoti uning oldiga Fred bilan Jorj kelganini Garri ko'rib o'tirdi.

– Ikkalasi miyasini yeb qo'yganmi, nima balo? – vishilladi, egizak ukalarining xatti-harakatini shubha ila kuzatib o'tirgan Persi. – Nega vazirlikning oliy tarkibiga mansub kishiga xiralik qilishyapti? Hurmat, hayiqish degan narsani bilishmaydi-ya...

Biroq Fred bilan Jorjdan osonlikcha qutulgan Lyudo Shulman Garrini ko'rib qolib, bolalar o'tirgan stol tomon yo'l oldi.

– Ukalarim sizni bezor qilib yuborishmadi degan umiddaman, mister Shulman? – hol-ahvol so'ragan bo'ldi Persi.

– Nima? Ax, bumi! Yo'q, mutlaqo! – qo'l siltadi Shulman. – Ular o'zlarining soxta sehrli tayoqchalari borasida aytib berib, marketing[1] masalasida maslahat so'rashdi. Men ularni Zonko do'koni manfaatlarida faoliyat yuritadigan kishilar bilan tanishtirib qo'yishga va'da berdim...

Bu gap Persini xursand qilmadi. Garri bas bog'lashi mumkinki, Persi, uyga yetib borishi bilan bor gapni missis Uesliga oqizmay-tomizmay yetkazadi. O'z mahsulotini rostakamiga sotishni ko'zlashgan ekan, demak, egizaklarning kelgusida savdogar bo'lish ishtiyoqlari yanada oshibdi.

Shulman Garriga murojaat qilmoqchi bo'lib, endigina og'iz juftlagan ediki, Persi yana gap boshladi:

[1] **Marketing** *(inglicha; marketing, market,* ya'ni ***bozor*** so'zidan olingan*)* – xo'jalik yuritishga oid qarorlar qabul qilish uchun bozorda ro'y berayotgan jarayonlar inobatga olinishi ko'zda tutiladigan korxona boshqarish tizimlaridan biri. Marketing XX asrning boshida AQSHda paydo bo'lib, mol sotish muammolari keskinlashgani va raqobatning narxga bog'liq bo'lmagan yangi usullari (reklama, sifatga doir raqobat va hokazo) keng qo'llanila boshlagani bois 50-60yillarda ommalasha boshladi.

– Fikringizcha, mister Shulman, bellashuv qanday o‘tyapti? Bizning departamentimiz voqealar rivojidan hozircha qanoat hosil qilmoqda, agar Olov kuboki bilan yuz bergan ko‘ngilsizlik inobatga olinmasa, albatta, – dedi u Garriga ko‘z qiri ila qarab qo‘yib. – Biroq hozircha ishlar joyida, shunday emasmi?

– Ha, ha, albatta, – quvonch-la ma’qulladi mister Shulman. - Ishlar favqulodda zo‘r kechmoqda. Qariya Bartining yumushlari qalay?

– O, ishonchim komilki, mister Sgorbs tez orada oyoqqa turib ketadi, – viqor-la ma’lum qildi Persi. – Biroq ambrazurani[1] hozircha men o‘z tanam bilan yopishga tayyor-man. Tabiiyki, faqat bal yoki shunga o‘xshash boshqa tantana-larda ishtirok etish bilangina shug‘ullanmayman, degan umid-daman, – kulib boqdi Persi, o‘z hazilidan o‘zi xursand bo‘lib. – Mister Sgorbsning yo‘qligida izdan chiqqan ayrim ishlar bilan shug‘ullanishim kerak bo‘ladi chog‘i. Ali Boshir yurtimizga kontrabanda yo‘li bilan uchar gilamlar partiyasini olib kirishga uringan paytda qo‘lga olinganini eshitdingizmi? Bundan tashqari, duellarni[2] taqiqlashga doir xalqaro hujjatni imzolash masalasida transilvaniyaliklarni ko‘ndirish bilan shug‘ullanmoqdamiz. Yangi yil bayrami o‘tgach, Transilvaniya Sehrgarlik vazirligi Xalqaro sehrgarlik hamkorligi departamenti rahbari bilan uchrashuvim rejalashtirilgan...

– Yur ketdik, – dedi Ron. – Persidan narida sayr qilib kelamiz...

Garri bilan Ron ichimlik olib kelishni bahona qilib, raqs maydonining cheti bo‘ylab odimlashgancha, vestibulga chiqishdi. Eman eshik lang ochiq. Ikkovlon asosiy zinadan pastga tushib, xitoy fonuslari miltillab turgan pushti bog‘ tomon yo‘l oldi. Ko‘p o‘tmay Garri bilan Ron butalar va yirik tosh haykallar orasida ilang-bilang ketgan chiroyli yo‘lak bo‘ylab sayr

[1] **Ambrazura** (*fransuzcha*: yembrasure – shinak) – fortifikatsion yoki boshqa mudofaa inshootlarida pulemyot, artilleriya quroli va minomyotdan o‘t ochish, shu jumladan, kuzatuv olib borish uchun ochilgan tuynuk.

[2] **Duel** (*fransuzcha:* duel – olishuv, jang) – ikki shaxsning or-nomus talashib, ma’lum shartlar asosida yakkama-yakka qilichbozlik qilishishi otishuvi.

qilishdi. Qayerdadir suv shovullayapti, aftidan, favvora yaratilgan chog'i. Atrofdagi tosh kursilarda juft-juft odamlar o'tiribdi. So'qmoq yo'llardan biriga burilgan Garri bilan Ronning qulog'iga kishining ko'nglini behuzur qilib yuborguday tanish ovoz eshitildi:

– ... xavotir bo'lishga sabab ko'rmayapman, Igor.

– Axir, hech narsa ro'y bermayotgan ko'yga solib yura olmaymiz-u o'zimizni, Severus! – eshitildi Karkarovning atayin bo'g'iq talaffuz etilgan bezovta ovozi. – Mana bu ko'p oylardan buyon ravshanlashib bormoqda. Cho'chib ketayotganimni yashirib o'tirmayman...

– Unday bo'lsa, qoch, – gapni bo'ldi Snegg. – Juftakni rostla. Seni oqlaydigan biron bahona o'ylab topaman. Lekin o'zim «Xogvars»da qolaman.

Muyulish ortidan Snegg bilan Karkarov chiqdi. Snegg yuziga umrbod yopishib qolgan murdor qiyofasi ila qo'liga sehrli tayoqchasini olib, yonidagi pushti butani ikki tomonga surib ochdi. Butalar ichidan quti uchgan bolalarning chiyil-lashlari-yu, yugurib chiqqan sharpalari ko'rindi.

– «Xufflpuff»dan o'n ball ayriladi, Fossett! – irilladi Snegg yonidan yugurib o'tgan qizga. – «Ravenklo»dan ham o'n ball ketdi, Stebbins! – davom etdi Snegg, qizning ortidan uchib chiqqan bolaga murojaat etib. – Siz ikkalangiz-chi, nima qilib yuribsiz bu yerda? – so'radi u oldinda kelayotgan Garri bilan Ronga qarab.

Bolalarni ko'rgan Karkarov, Garrining tushunishicha, o'zini biroz noqulay his etdi chog'i. U qo'lini ko'tarib, soqolini esha boshladi.

– Sayr qilyapmiz, – javob berdi Ron. – Sayr qilish qonun bilan man etilmagan-u hali, shunday emasmi?

– Sayr qilyapmiz, deng? Xo'p mayli, qilavering sayringizni! – yana irilladi Snegg, bolalar yonidan shiddat-la o'tib.

Uzun qora rido Sneggning orqasida hilpirab ko'rindi. Shoshib qolgan Karkarov uning ortidan ergashdi. Garri bilan Ron esa yo'lini davom etdi.

– Qiziq, Karkarovni nima bezovta qilyapti ekan? –

g‘udulladi Ron.

– Qachondan buyon u Snegg bilan sensirab gaplashadi? – o‘ychan so‘radi Garri.

Ikkovlon favvoraning baland ko‘tarilayotgan yorqin oqimlari ostida turgan yirik tosh bug‘u oldiga kelib qoldi. Bog‘ kursisida suvdagi Oy aksini tomosha qilayotgan ikkida nihoyatda yirik sharpa o‘tirgani ko‘rindi. Garrining qulog‘iga Xagridning qandaydir g‘alati bo‘g‘iq chiqqan gapi eshitildi:

– Men sizni birinchi marta ko‘rishim bilan tushundim.

Garri bilan Ron turgan joyida qotib qoldi. Bu manzara adashib-uloqib duch kelib qoladigan manzara emas... Garri ortga qarab, pushti butalar orasida yarim bekingan Flyor Delakyor va Rojer Deyvisni ko‘rdi. U Ronning yelkasiga turtib, sal naridagi butalar orasiga, hech kimga bildirmay (Flyor bilan Deyvis o‘zlari bilan o‘zlari ovora) bekinib olishga shama qil-gancha, imo qildi. Biroq Flyorni ko‘rib, ko‘zi katta ochilgan Ron Garrini bug‘u haykalining ortidagi qorong‘ilikka tortdi.

– Nimani tushunib qoldingiz, Xagg‘id? – mushukka o‘xshab xurullagancha so‘radi Maksim xonim.

Garri hech nimani eshitishni istamadi. Bunday vaziyatda birov pinhona quloq tutib o‘tirganidan xabar topgan Xagridning vajohati qaynab ketishi turgan gap. Har qalay, Garrining o‘zi ham shunday holatga kelgan bo‘lar edi. Garri qulog‘iga barmoq tiqib, jim o‘tirishga tayyor. Biroq bu ish vaziyatdan chiqish yo‘li emas. Garri o‘zini shimol bug‘usining belida o‘rmalab borayotgan qo‘ng‘iz bilan chalg‘itishga urindi. Biroq hasharot Xagridning keyingi gapini unutib yuborishga majbur qiladigan darajada qiziq emas.

– Siz... menga o‘xshash ekaningizni tushundim... Oilangizda kim, otangizmi yoki onangiz?

– So‘zlag‘ingiz ma’nosini tushunmayapman, Xagg‘id?

– Menda ona tomon, – dedi Xagrid past ovozda. – U Britaniya hududida yashagan so‘nggi vakillardan bo‘lgan. Uni yaxshi eslay olmayman... onam bizni tashlab ketgan. O‘shanda uch yoshli bola edim. Onalik tuyg‘usi bo‘lmagan unda. Bu ularning tabiatiga xos, shunday emasmi? Unga nima qilganini

bilmayman... balki, bu dunyoni tark etib ketgandir...

Maksim xonim indamadi. Garri xohishiga qarshi ish tutib, qo'ng'izdan ko'zini olib qochdi-da, bug'u shoxi orasidan Xagridga qarab, gapiga quloq tutdi. Xagrid hech qachon bolaligi haqida gapirmagan.

– Dadamning yuragi chil-parchin bo'ldi. Jussasi shunaqa kichkina ediki, olti yoshga to'lganimda uni shartta ko'tarar edimda, kiyim javoni ustiga o'tqizib qo'yar edim. Rosa kular edi, rahmatli...

Xagridning ovozi uzilib qoldi. Maksim xonim suvga qaragancha, jim o'tiribdi.

– U meni yolg'iz o'zi oyoqqa turg'izdi... maktabga borgan yilim esa omonatini topshirdi. Shundan so'ng mustaqil hayot kechirishga to'g'ri keldi. Dambldor ko'p yordam qildi menga. Juda mehribon zot... – juda katta xol-xol dastro'molini chiqargan Xagrid sur chalganday burun qoqdi. – Mayli, bu gaplarning endi ahamiyati yo'q... O'zingiz haqingizda gapirib bering. Sizdachi, kim tomondan edi?

– Havo salqinlashib qoldi, – o'rnidan sakrab turdi Maksim xonim. – Men bog'a qolay, Xagg'id.

Havoga nima bo'lgani noma'lum-u, biroq Maksim xonimning ovoziday sovuq emas.

– A? Yo'q, ketmang! – o'tindi Xagrid. – Men ilgari uchratmagan edim... boshqalarni!

– Qanaqa boshqalag'ni? – sovuq ohangda so'radi Maksim xonim.

Xagrid javob qaytarmagani ma'qul, tushundi Garri. U tishini mahkam qisib olib, Xagridning jim qolishiga umid bog'ladi. Biroq bolaning umidi puchga chiqdi.

– Boshqa chala zot gigantlarni-da, albatta! – xitob qildi Xagrid.

– Qanday jur'at etyapsiz! – chiyilladi Maksim xonim.

Uning ovozi tun sokinligini buzib, Flyor bilan Deyvisni bir-biridan nari qochirib yubordi.

– Meni hali hech kim bu qadag' qattiq haqog'at qilmagan! Gapni qag'ang, chala zot gigantlag' emish-a! – achchiqlandi

ayol. – Mening... mening... suyagim yo‘g‘on, tanam chog‘pahil, xolos!

Maksim xonim butalardagi rang-barang sohiralar galasini hurkitgancha, shartta o‘rnidan turdi-da, shaxdam yurib, qasr tomon yo‘l oldi. O‘zini yo‘qotib qo‘ygan Xagrid kursida o‘tirib, Maksim xonimning ortidan qarab qoldi. Atrof qorong‘i bo‘lgani bois yuzining qiyofasini ko‘rib bo‘lmadi. Daqiqa, balki, sal ko‘proq vaqt o‘tgach, o‘rnidan turib, kulbasi tomon ravona bo‘ldi.

– Bo‘ldi, – dedi Garri. – Ketdik.

– Sen bilarmiding? – so‘radi Ron o‘rnidan qilt etmay.

– Nimani? – hayron bo‘ldi Garri.

– Xagridning chala zot gigant ekanini?

– Yo‘q, – yelka qisdi Garri. – Nima bo‘pti?

Javob o‘rniga Ronning nigohini ko‘rgan Garri sehrgarlar olamiga taalluqli ishlardan mutlaqo bexabar ekaniga yana bir bor ishonch hosil qildi. Dursllar tarbiyasini olgan bola har qanday sehrgar uchun tabiiy holday ko‘ringan ko‘plab narsalar haqida biron-bir tasavvurga ega bo‘lmay o‘sgan. Maktabda tahsil ko‘rgan sari, uning bunday kamchiligi barham topib bormoqda, albatta. Biroq hozir, birorta ham to‘g‘ri tarbiya top-gan sehrgar o‘z do‘stlaridan birining onasi gigant ayol bo‘lga-nidan xabar topgach, «Nima bo‘pti?» degan savol bermasligini Ronning nigohiga qarab yaxshi tushunib yetdi.

– Qasrga boraylik, tushuntiraman, – asta pichirladi Ron. – Ketdik...

Flyor bilan Deyvis ko‘zdan g‘oyib bo‘lishibdi. Aftidan, chekkaroq joydagi butalarni qidirib ketishgan ko‘rinadi. Ikkov-lon Katta Zalga qaytdi. Patil bilan Petil zalning narigi chekka-sida, «Belstek» yigitlari davrasida o‘tirishibdi. Germiona esa Krum bilan raqs tushmoqda. Garri bilan Ron raqs maydonidan naridagi stol ortiga joylashib olishdi.

– Xo‘sh? – qistadi Garri. – Nima qilibdi anavi gigantlarga.

– Nima desam ekan, ular... ular u qadar yaxshilardan emas, – xijolat tortib fikrini tugatdi Ron.

– Nima bo‘pti? – tushunmadi Garri. – Xagrid yaxshi-yu!

– Bilaman, lekin... o‘zining chala zot gigant ekanini sir tutayotgani ajablanarli hol emas-da! – bosh chayqadi Ron. – Bolaligida Ishirish afsuni ta’siriga yo‘liqqan bo‘lsa kerak, deb o‘ylar edim... Shuncha vaqtdan buyon so‘rashga botina olmaganman...

– Onasi gigant ayol bo‘lgani kimni qiziqtirishi mumkin? – tushunmadi Garri. – Aytmoqchimanki, onasi kim bo‘lganining nima ahamiyati bor?

– U hech qanday xavf tug‘dirmasligini bilgan tanishlari uchun chindan ham ahamiyati yo‘q, – asta gap boshladi Ron. – Ammo... tushunasanmi, gigantlar tabiatan vahshiy bo‘ladi. Ularning onalik tuyg‘usi bo‘lmasligi haqida gapirgan Xagridning o‘zi ham ushbu holatni qisman ta’kidlab o‘tdi. Gigantlar xuddi trollar kabi... xullas, biron-bir sababsiz odam o‘ldirish ularga yoqadi, vassalom. Tan olish kerakki, Britaniya hududida bironta ham gigant qolmagan.

– Qayoqqa gum bo‘lishdi ular?

– Gigantlarning urug‘i shundoq ham qurib ketayotgan edi. Buning ustiga ularning aksariyatini avrorlar qirib bitkazgan. Xorij davlatlarning tog‘li hududlarida haligacha uchratish mumkinligi e’tirof etilmoqda...

Garri hakamlar stoli ortida ma’yus o‘tirgan Maksim xonimga qarab qo‘ydi.

– Unday bo‘lsa, Maksim xonim kimni aldamoqchi?! – so‘radi u. – Modomiki, Xagrid chala zot gigant ekan, bu ayol ham gigant ekaniga hech qanday shubha yo‘q. Gapni qarang, suyagi yo‘g‘on, tanasi chorpahil emish. Faqat dinozavrning suyagigina ushbu ayolning suyagidan yo‘g‘on bo‘lishi mumkin.

Balning qolgan qismini Garri bilan Ron, raqs tushishni xayollariga ham keltirmay, bir burchakda gigantlarni muhokama qilib o‘tirishga sarf etishdi. Garri Chu bilan Sedrikka e’tibor bermaslikka urinib o‘tirdi-yu, ularga ko‘zi tushishi bilan biron narsani kelishtirib tepish istagi tug‘ilaverdi.

Tun yarmida «Shaytonning singillari» guruhi musiqa chalishni bas qildi. Muxlislar musiqachilarni qarsak chalib, kuzatib qo‘ydi. Ko‘pchilik Rojdestvo kechasi yana biroz davom etma-

ganiga achindi. Garri esa uxlashi mumkinligini o'ylab, xursand bo'ldi. Uning nazarida, bayram oqshomi ko'ngildagiday o'tmadi.

Ikkovlon vestibulda durmshtrangchilarning kemasiga qaytishi kerak bo'lgan Krum bilan xayrlashayotgan Germionaga ro'baru kelib qoldi. Germiona Ronga sovuq qarab, indamasdan chetlab o'tdi-da, marmar zinadan ko'tarilib ketdi. Garri bilan Ron Germionaga ergashdi.

– Hoy! Garri! – eshitildi tanish ovoz.

Sedrik Diggori. Uni pastda Chu kutmoqda.

– Eshitaman, – sovuq javob berdi Garri.

Sedrik zinadan yugurgancha ko'tarilib keldi. Yuzidan Ronning guvohligida gapirmoqchi emasligi bilinib turibdi. Domangir Ron yelka qisib qo'ydi-da, yo'lini davom etdi.

– Quloq sol, Garri, – gap boshladi Sedrik, Ron nari ketganiga qaramay ovozini pasaytirib. – Ajdarlar to'g'risida xabar berganing uchun oldingda qarzdorman. Qopqog'i ochilgan tilla tuxum chinqiryaptimi?

– Ha, – bosh irg'idi Garri.

– Unday bo'lsa... vannaga tushib, yuvin, xo'pmi?

– Nima?

– Vannaga tushib yuvin... m-m-m... tilla tuxumni ham o'zing bilan ol... Issiq suvga tushib, obdan o'ylab ko'r. Xayolingni jamlashga yordam beradi. Gapimga ishonaver.

Garri indamay qarab turdi.

– Yaxshisi sinfboshilar vannasiga bor, – qo'shcha qildi Sedrik. – Beshinchi qavatda, Befahm Boris haykalidan chap tomondagi to'rtinchi eshik. Kirish paroli «Tetiklashtiradigan ignabarg vannasi». Bo'ldi, men boray. Xayrlashib olishim kerak.

Sedrik Garriga yana bir bor kulib boqdi-da, Chu tomon pastlab ketdi.

Garri «Griffindor» minorasi tomon yakka o'zi yo'l oldi. G'alati maslahat. Tilla tuxum jumbog'ining yechimini topishga vanna qanday yordam berishi mumkin? Sedrik unga xalal berishga urinayotgan bo'lsa-chi? Yoki Chuga ko'proq yoqish uchun Garrini ahmoqona holatga solmoqchimi?

«Semiz Xola» o'zining dugonasi Violetta bilan mizg'ib

o‘tiribdi. Ularni uyg‘otishning boshqa chorasini topa olmagan Garri baqirishga majbur bo‘ldi:

– XITOY FONUSCHALARI!

Bezovta qilingan ayollar juda norozi bo‘lishdi. Garri umumiy mehmonxonaga kirib, nihoyatda xunuk hodisa guvohi bo‘ldi. Yuzlari qip-qizarib ketgan Ron bilan Germiona o‘n futcha masofa saqlagan holda, bir-birining go‘shtini yeb yubor-guday darajada kuchanib qichqirishmoqda.

– Bilasanmi nima? Bilasanmi nima? – baqirdi yuzi g‘azabdan burishib, sochi yana to‘zib ketgan Germiona. – Modomiki, senga yoqmas ekan, o‘zing bilasan, a, nima qilish kerakligini? Bilasan, a?

– Xo‘sh? – javoban bo‘kirdi Ron. – Nima qilishim kerak ekan?

– Taklif qiladigan bo‘lsang, keyingi balga bir chetda qolib ketadigan qizni taklif qilganday emas, birinchi navbatda taklif qil meni.

Ron akvariumdan chiqarilgan tilla baliqday og‘zini ochib, gap topa olmay yana yopar ekan, turgan joyida shartta burilgan Germiona qizlar yotoqxonasiga kirib ketdi. Ron Garriga yuzlangancha qoldi.

– Bu, – dedi bo‘g‘ziga havo tiqilib, hansirab qolgan Ron, – bu... u hech nimani... tushunmayotganidan yana bir dalolat...

Garri indamadi. Ron bilan yarashib olgani unga qadrli. Shu bois masalaga oid fikrini bildirmaslikni afzal topdi. Biroq Germiona bor gapni Rondan-da ko‘ra juda yaxshi tushunganini xayolan ta’kidlab qo‘ydi.

XXIV BOB. RITA VRITERNING SENSATSIYASI

Rojdestvoning ikkinchi kuni hamma kech uyg'ondi. «Griffindor» fakultetining umumiy mehmonxonasida g'ayrioddiy jimjitlik hukm surmoqda. Onda-sonda eshitilayotgan erinchoq ovozlar ham esnoq bilan uzilib boryapti. Germionaning qalin sochi yana hurpaygan. U Maymoqoyoqni silab o'tirar ekan, Garriga Soch yotqizishning silliqlash damlamasini anchagina ishlatishga majbur bo'lgani va har kuni bu tarzda soch turmaklashning daxmazasi ko'p ekaniga iqror bo'ldi.

Ron bilan Germiona o'z ixtiloflarini qayta muhokama qilmaslik borasida lom-lim demay kelishib olishgan chog'i. Ikkalasi bir-biri bilan xayrixohona muloqot qilishmoqda-yu, ammo gap ohangi qandaydir rasmiy eshitilmoqda. Tabiiyki, Garri va Ron birinchi imkoniyat tug'ilgan zahoti Germionaga Xagrid bilan Maksim xonim o'rtasida bo'lib o'tgan, ikkovlon yashirincha quloq solib eshitishgan suhbat haqida bildiruv berdi. Xagridning chala zot gigant ekaniga doir yangilik Germionaga Ronga ta'sir o'tkazgandek ta'sir ko'rsatmadi.

– To'g'risini aytganda, o'zim ham shunday deb o'ylagan edim, – yelka qisdi Germiona. – Toza qonli gigant bo'lganida uning bo'yi kam deganda yana yigirma futcha baland bo'lgan bo'lar edi. Fikrimni bilmoqchi bo'lsangiz, gigantlar to'g'risidagi barcha nolalar vasvasadan o'zga narsa emas. Ularning hammasi birday mudhish bo'lmaydi-yu axir... Afsun bilan maxluq tusiga kiradigan odamlarga nisbatan bildiriladigan bid'atning o'zginasi... Bir so'z bilan aytganda irqchilik, vassalom.

Ron qandaydir zahar so'z aytmoqchi bo'ldi-yu, yana janjallashishni istamadi, shekilli, Germiona teskari qaragach bosh chayqab qo'ydi.

Holbuki, ta'tilning birinchi haftasida batamom unutilgan uy vazifalarini bajarish vaqti yetdi. Bayram tantanalari o'tib, asta sekin tashvishga tusha boshlagan Garridan tashqari, hamma holsizlanib yuribdi.

Rojdestvo o'tishi bilan 24-fevral sanasi keskin yaqinlash-

ganday bo'ldi. Garri esa haligacha tilla tuxumning jumbog'ini hal etgani yo'q. Shu bois u, yotoqxonaga tez-tez kirib, sandig'iga yashirib qo'ygan tuxumni qo'lga oladigan, po'stlog'ini ochib, chiyillagan tovushga diqqat bilan quloq soladigan va shu tariqa tovush zamiridagi sirni anglab yetishga urinadigan bo'lib qoldi. Musiqa arralarining mudhish tovushi nimaga o'xshab ketayotganini idrok etishga zo'r berib harakat qildi. Yo'q, bunday tovushni muqaddam eshitmagan u. Garri tuxumni yopdi-da, tovushning o'zgarishiga umid qilgancha, kuchi boricha siltab, yana ochdi. Foydasi bo'lmadi. Yana o'sha chiyillash. Baqirgancha, tuxumga savol berib ko'rdi. Bu ham kor bermadi. Yaramas, o'jar tuxumni xonaning narigi burchagiga uloqtirib ham tashladi, lekin bu ish ham yordam bermadi.

U Diggorining shamali gapini unutgani yo'q, albatta. Lekin g'urur va Chu bilan qo'l ushlashib yurgan Sedrikka nisbatan samimiy munosabatlardan ancha yiroq tug'ilgan hissiyotlar, hali umid bor ekan, uning yordamini qabul qilishga to'sqinlik qildi. Nima qilganda ham Garrining fikricha, agar Sedrik chindan ham yordam qo'lini uzatmoqchi bo'lganda edi, fikrini ochiq-oydin bayon etgan bo'lar edi. Axir, Garri Diggoriga birinchi musobaqada uni nima kutayotganini aniq-ravshan aytdi-ku! U esa vanna qabul qilishni maslahat qilyapti! Insofdanmi shu?! Yo'q, bunday ahmoqona yordamini pishirib yesin.

Ko'p o'tmay, yangi semestrning birinchi kuni yetib keldi. Garri har doimgiday kitoblar, patqalamlar va pergament o'ramlariga to'la yuk xaltasini yelkaga tashlab, darsga ravona bo'ldi. Yechimi topilmayotgan jumboq qonini ichayotgan tashvish kabi bolaga tinchlik bermayapti. Qayoqqa bormasin, tuxum ko'tarib yurganday his etdi o'zini.

Maktab hovlisidagi qor ko'rpasi battar qalinlashsa qalinlashdiki, kamaymadi. Issiqxona oynalari shu darajada terchillab ketganki, gerbologiya darsida tashqari ko'rinmadi. Bunday havoda hech kim sehrli hayvonlarni parvarish qilish fani darsiga borishni istamaydi.

– Hech qisi yo'q, drakllar isitib qo'yishadi bizni, – dedi Ron. – YO ular bizni yeyish niyatida ortimizdan quvishadi, yo portlab,

Xagridning kulbasini yondirib yuborishadi.

Biroq kulbaga yaqin borishgan bolalar oppoq sochi qisqa olingan, jag'i ancha oldinga turtib chiqqan keksa afsungar ayolga ro'baru kelishdi.

– Tezroq bossangiz-chi qadamingizni. Qo'ng'iroq zarbi eshitilganiga besh daqiqadan oshdi, – o'shqirdi u, asta qor tepalab kelayotgan o'quvchilarga.

– Siz kim bo'lasiz o'zi? – o'qraydi unga Ron. – Xagrid qani?

– Men professor Gniller-Plankman, – oqsuyak kishiga xos ohang-la javob berdi ayol. – Sehrli hayvonlarni parvarish qilish fani bo'yicha vaqtincha o'qituvchilik qilaman.

– Xagrid qani? – baland ovozda takrorladi Garri.

– U o'qituvchilikdan chetlashtirildi, – tafsilotlarga berilib o'tirmasdan ma'lum qildi professor Gniller-Plank.

Garrining qulog'iga juda yaxshi tanish bo'lgan murdor kulgi eshitildi. U ortga o'girilib Drako Malfoy boshchiligida yetib kelgan slizerinchilarni ko'rdi. Hammasining basharasi mamnun qiyofa kasb etgan. Yangi o'qituvchi tayinlangani ularni taajjublantirgani yo'q.

– Iltimos, ortimdan yuring, – dedi professor Gniller-Plank.

O'quvchilar belstekchilarning sovuqdan dag'-dag' titrayotgan yirik otlari qamalgan qo'ton tomon yo'l olishdi. Garri, Ron va Germiona o'qituvchi ketidan ergashib, Xagridning kulbasiga qarab-qarab borishdi. Kulba derazalari pardalangan. Qani Xagrid? Ichkarida, tanho o'zi, kasal yotibdimi?

– Xagridga nima qildi? – so'radi professor Gniller-Plankka yetib olgan Garri.

– Ishing bo'lmasin, – qo'pol javob berdi o'qituvchi, xuddi Garrining savoli uyatsiz eshitilganday.

– Ishim bo'ladi, – e'tiroz bildirdi qizishib ketgan Garri. – Unga nima qildi?

Professor Gniller-Plank o'zini eshitmagan ko'yga soldi. O'qituvchi o'quvchilarni junjikib olgan otlar qo'toni yonidan olib o'tib, «Taqiqlangan o'rmon» chetidagi daraxtga bog'lab qo'yilgan kattagina, ko'rkam yakkashox ot yaqinida to'xtatdi. Zavqlanib ketgan qizlar oh urib yuborishdi.

– O-o-o, chiroyliligini qarang! – shivirladi Lavanda Braun. – Qayerdan oldi ekan, a? Ularni tutish juda qiyin-u!

Ko‘zni qamashtirib yuborguday oppoq yakkashox ot oldida yerdagi qor kulrang ko‘rindi. Asabiylashgan jonivor tillarang tuyoqlari bilan yer depsinib, shoxli boshini orqaga tashlamoqda.

– O‘g‘il bolalar ortga chekinsin! – amr qildi professor Gniller-Plank.

U man etadigan imo ila qo‘lini orqaga uzatib, yonida kelayotgan Garrining ko‘kragiga qattiq urib yubordi.

– Yakkashox ot ayollarni afzal ko‘radi. Qizlar, oldinga chiqing. Ehtiyot bo‘lib yaqinlashing... sekin, sekin, shoshilmang...

Professor Gniller-Plank bilan o‘quvchi qizlar asta-sekin hayvonga yaqin borishdi. O‘g‘il bolalar ihota yonida qoldi.

– Unga nima qildi ekan, a? – Ronga murojaat qildi Garri o‘qituvchi nari ketishi bilan. – Drakllar biron narsa qilib qo‘yish...

– Yo‘q Potter, drakllar uni yeb qo‘yishmagan, agar shundan tashvish chekayotgan bo‘lsang, – pichirladi yaqin o‘rtada turgan Malfoy tilyog‘lama ohangda. – U o‘zining yirik, jirkanch basharasini odamlarga ko‘rsatishdan uyalmoqda.

– Bu bilan nima demoqchisan? – dag‘al so‘radi Garri.

Malfoy qo‘lini korjomasining ichki kissasiga suqib, gazetaning o‘ralgan parchasini chiqardi.

– Ma, o‘qi, – uzatdi u. – Dilingni siyoh qilishdan xijolatdaman, Potter...

Malfoy gazetani yulib olgan Garriga murdor irshaycha qarab qoldi. Ron, Simus, Din va Nevill ham Garrining orqasiga o‘tib, gazeta o‘qishga kirishishdi. «Bashorat-u karomat gazetasi»ning maxsus muxbiri Rita Vriterning shubhali qiyofa kasb etgan Xagridning surati bilan boshlangan navbatdagi maqolasi chop etilibdi.

DAMBLDORNING GIGANT XATOSI

«Xogvars» sehrgarlik va afsungarlik san’ati maktabining

favqulodda g'alati direktori Albus Dambldor o'qituvchilar tarkibini saralab, ishga olish masalasiga hamisha mutlaqo tushunib bo'lmaydigan, asossiz erkinliklarni o'ziga ep ko'rib kelgan. Joriy yilning sentabr oyida ko'zikish xususida miyasi aynib, badnom bo'lgan Alastor «O'ynoqko'z» Xmuri yovuz kuchdan himoya fani o'qituvchisi sifatida qabul qilindi. Telba Xmurining bilib-bilmay keskin harakat qilib qo'ygan har qanday kishiga tashlanish odati hammaga ma'lum bo'la turib, maktab direktorining bunday ma'muriy qarori Sehrgarlik vazirligida taajjub-la qarshi olindi. Shunday bo'lsa-da, sehrli hayvonlarni parvarish qilish fani o'qituvchisi lavozimiga ishga olingan, aslida odam zotiga mansub bo'lmagan maxluq bilan qiyoslanadigan bo'lsa, O'ynoqko'z Xmurini nihoyatda odamshavanda kishiday ko'rish mumkin.

Rubeus Xagrid, o'zi aytganday, uchinchi sinfda tahsil ko'rayotgan yili «Xogvars» o'quvchilari ro'yxatidan chetlashtirilgach, rahmdil Dambldor tomonidan havola etilgan maktab qorovuli va xizmatkori vazifasini bajarib, ancha behbud hayot kechirib keldi. Biroq vaqt o'tib, bunday hayot uni qanoatlantirmay qo'ydi. Maktab direktoriga sirli ta'sir o'tkazish qobiliyatidan mohirona foydalana bilgan Xagrid, o'tgan yili, ko'plab munosib nomzodlarni dog'da qoldirgan tarzda, yana bir ish, u ham bo'lsa, sehrli hayvonlarni parvarish qilish fani o'qituvchisi lavozimini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Erkak jinsiga mansub bo'lib, kishini vahimaga soladigan tana o'lchami-yu, yovvoyi qiyofaga ega Xagrid yuqorida bayon etilgan tarzda qo'lga kiritgan yangi mavqeidan maktab o'quvchilarini qo'rqitib, hukmini o'tkazish maqsadida turli-tuman mudhish hayvonlarni qo'llay boshladi. Jumladan, Xagrid, «so'qir» Dambldorning ko'z o'ngida, o'zining, aksariyat o'quvchilar ta'biri ila aytganda: «dahshatli kechadi»gan darslari davomida ko'plab bolalarni majruh qilishga kirishdi.

«Menga Xagridning gippogrifi hamla qilgan bo'lsa, do'stim Vinsent Krabbeni quturgan flobber chuvalchangi tala-di, ikkalamiz ham maxluqlarga yem bo'lishimizga bir baxya qoldi, – guvohlik berdi to'rtinchi sinf o'quvchisi Drako Malfoy. – Biz

Xagriddan nafratlanamiz. Faqat bu haqda birovga og'iz ochishga qo'rqamiz».

Holbuki Xagrid, maktab o'quvchilarini xo'rlashga qaratilgan faoliyatiga chek qo'yishni xayoliga ham keltirmadi. Aksincha, o'tgan oy «Bashorat-u karomat gazetasi»ning max-sus muxbiri bilan o'tgan suhbati davomida o'zi «portlovchi drakllar» deya beo'xshov nom bergan maxluqlar galasini boqish bilan band ekanini og'zidan gullab qo'ydi. Ushbu maxluqlar mantikora bilan olov purkaydigan dengiz qisqichbaqasining nihoyatda xavfli duragayidan o'zga narsa emas. Ma'lumki, sehrli hayvonlarning yangi zotlarini yaratish tadbirlari Buyuk Britaniya Sehrgarlik vazirligi Sehrli maxluqlar ustidan nazorat bo'limining qat'iy kuzatuvi ostida amalga oshirilmog'i darkor. Biroq bunday «ahmoqona cheklashlar» Xagridga umuman daxl qilmaydigan ko'rinadi.

Unga qonun haqida eslatib o'tilganda: «Ha endi biroz ko'ngil ochib, vaqtichog'lik qilyapman-da, osmon uzilib, yerga tushibdimi?» – degancha qo'l siltab, mavzuni o'zgartirdi.

Yuqorida bayon etilgan va tegishli chora ko'rish uchun yetarli bo'lgan holatlarga qo'shimcha ravishda «Bashorat-u karomat gazetasi», garchi Xagrid bugungi kungacha o'zini tabiatan toza qonli sehrgar odam sifatida ko'rsatib yurgan bo'lsa-da, aslida unday emasligiga doir e'tirozga o'rin qoldirmaydigan dalil-isbotlarni qo'lga kiritdi. Umuman aytganda, Xagrid odam zotiga mansub ham emas ekan. Ishonchli manbalardan olingan ma'lumotlarga qaraganda uning onasi gigant ayol Fridvulfa bo'lib, ayni vaqtda u qayerda bekinib yurgani noma'lum.

O'tgan yuz yil ichida qonxo'r va bexosiyat gigantlar bir-biri bilan urishaverib o'z urug'ini o'zlari quritib yubordi. Omon qolgan bir hovuch gigantlar «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»ga tarafdorlar safiga qo'shilib, Yovuz Lord hukm surgan davrda nihoyatda mudhish, jumladan, magllarni ommaviy ravishda qirish kabi og'ir jinoyatlar sodir etishgan.

«Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»ga qarshi ayovsiz kurash olib borgan avrorlar tomonidan yo'q qilingan gigantlar ro'y-

xatida Fridvulfa ismi topilmadi. U yurtimizni tark etib, xorij davlatlarning tog'li hududlarida qo'nim topgan gigantlar to'dasiga qo'shilib ketgani ham ehtimoldan holi emas. Fridvulfaning o'g'li o'z darslari davomida ko'rsatadigan qiliqlariga e'tibor beriladigan bo'lsa, «bola bechora» o'z onasining shafqatsiz tabiatini to'la-to'kis meros qilib olganiga zig'irday bo'lsin, shubha tug'ilmaydi.

Falakning gardishini qarangki, Xagrid, «O'zingiz-Bilasiz-Kim»ning hukm surish davriga barham bergan va bu bilan Yovuz Lordning malaylari, shu jumladan, Xagridning onasini badarg'alikda kun kechirishga majbur qilgan bola bilan yaqin do'st tutingan. Ehtimol, bechora Garri Potter o'zining «bahaybat» do'sti haqidagi haqiqatdan bexabardir. Biroq ushbu bola va uning jamiki maktabdoshlari joiz xavf haqida ogohlantirilganligiga to'la ishonch hosil qilish – Albus Dambldorning zimmasidagi xizmat majburiyatlariga kiradi.

Garri mutolaani tugatib, taajjubdan og'zi lang ochilgan Ronga qaradi.

– Qanday qilib xabar topgan bo'lishi mumkin? – pichirladi Ron.

Biroq hozir Garrini tamoman boshqa narsa tashvishga soldi.

– «*Biz Xagriddan nafratlanamiz*», deb nimani isbotlamoqchi bo'lding? – so'radi u Malfoydan, so'ng Krabbe tomon imo qildi – «*Quturgan flobber chuvalchangi taladi*»ni qanday tushunish kerak? Tishi ham yo'q edi-yu, o'sha beozor chuvalchanglarning?!

O'zidan o'zi favqulodda mamnun Krabbening befahm basharasida ovsarnamo kulgi ko'rindi.

– Men o'sha to'nkaning o'qituvchilik faoliyatiga chek qo'ymoqchi bo'ldim, xolos, – dedi Malfoy ko'zini yarqiratib. – Qarangki, kutilgandan ham ziyod bo'ldi! Go'dakligida ko'krak suti o'rniga «Suyak-o'stir» dorisini emgan, deb o'ylar edim!... Biroq gap bu yoqda ekani xayolimga ham kelmagan ekan! Bularning bari o'quvchilarning ota-onalariga yoqmasligi... bolalarini yeb qo'yishlari borasida tashvishga tushishlari turgan

gap... xa-xa-xa...

– Sen... – og'iz juftladi Garri.

– Darsga quloq solasizmi-yo'qmi? – eshitildi professor Gniller-Plankning e'tirozi.

Yakkashox otni o'rab olgan qizlar xushro'y jonivorni asta silashmoqda. Garri vajohatdan titrayotgan qo'li bilan gazetani mahkam siqqancha, nafratga to'lib-toshgan ko'zini sehrli xususiyatlari professor Gniller-Plank tomonidan baland ovozda sanab o'tilayotgan yakkashox otga qaratdi.

Dars nihoyasiga yetib, o'quvchilar qasr tomon yo'l olishdi.

– Professor Gniller-Plank o'qituvchi bo'lib qolsa, yaxshi bo'lar edi! – zavq-la fikr bildirdi Parvatti Patil. – Allaqanday maxluqlar emas, aynan yakkashox ot kabi haqiqiy sehrli hayvonlarni parvarish qilish bunchalik qiziqarli bo'lishi xayolimga ham kelmagan ekan.

– Xagrid-chi? – qovoq soldi Garri qasrga olib chiqadigan zinadan ko'tarilib borishar ekan.

– Nima qilibdi Xagridga? – javob berdi Parvatti beiltifot sovuq ohangda. – Qorovulligini qilib yuraveradi.

Rojdestvo bali o'tgan kundan buyon Parvattining Garriga bo'lgan munosabati sovib ketdi. Ehtimol, o'sha kuni Garri chindan ham Patilga yetarlicha e'tibor ajratmagandir. Biroq Garrining e'tiborisiz ham Parvatti o'zini juda yaxshi his etmoqda. Har qalay, u hammani va har bir alohida odamni yaqin kelajakdagi dam olish kuni belstekchi bola bilan Xogsmyodda uchrashishi haqida xabardor qilib chiqishni unutmadi.

– Dars, haqiqatan ham, juda qiziq o'tdi, – fikr bildirdi Germiona Katta Zalga kirar ekan. – Tan olish kerakki, yakkashox ot haqida professor Gniller-Plank aytib bergan ma'lumotlarning yarmini ham bilmas edim...

– Sen mana buni o'qib ko'r! – o'shqirdi Garri, «Bashorat-u karomat gazetasi»ni Germionaning yuziga taqab.

Maqolani o'qir ekan Germionaning og'zi tobora keng ochilib boraverdi, nihoyat u Ron bergan savolni takrorladi:

– Qayerdan xabar topdi ekan, mudhish Vriter? Xagridning o'zi aytib bermagandir, axir?

– Yo‘q, albatta, – javob berdi griffindorchilar dasturxoniga birinchi bo‘lib yetgan Garri, o‘zini kursiga g‘azab-la tashlab. – Nazarimda, Xagrid o‘z intervyusida men haqimda har xil dahshatli narsalar aytib bermagani Vriterga yoqmagan. Shu bois Xagridning nomiga isnod keltiradigan material qidirish payiga tushgan.

– Bal kuni Xagrid bilan Maksim xonim o‘rtasida bo‘lib o‘tgan suhbatni pinhon eshitgan bo‘lsa kerak, – o‘ychan taxmin qildi Germiona.

– Biz uni bog‘da uchratmadik, – e’tiroz bildirdi Ron. – Xagridning gapiga qaraganda Dambldor uni maktab hududiga kiritishni man etib qo‘ygan...

– Ko‘rinmas plashi bo‘lsa-chi, – taxmin qildi Garri. – Butalar orasida izg‘ib, birovlarning gapini poylash, uning josus tabiatiga juda xos, shunday emasmi?

Hamon jahlidan tushmagan Garri toblab qizartirilgan tovuq go‘shtini likopga zarda ila solar ekan, hamma joyni bulg‘ab yubordi.

– Kal o‘zidan bexabar, deb shunga aytsalar kerak-da. O‘zingiz-chi? Qilgan ishingiz josuslikka kirmaydimi? – eslatib o‘tdi Germiona. – Gap poylamay nima...

– Biz bexosdan borib qoldik! – e’tiroz bildirdi Ron. – Boshqa chora qolmagan edi! Umuman aytganda, o‘sha tentak «bolakay» o‘z onasi haqida, har qanday kishi eshitib qolishi mumkin bo‘lgan joyda jar solmasligi kerak edi!

– Borib, holidan xabar olish kerak, – ahd qildi Garri. – Shu bugunoq, bashorat darsidan keyin. O‘qituvchilikka qaytishingni istaymiz, deb aytgani... Qaytishini istaysan-ku, shundaymi? – ovoz ko‘tardi u Germionaga.

– Menmi... xm... xilma-xillik sifatida sehrli hayvonlarni parvarish qilish fanidan risoladagiday o‘tilgan darsda bo‘lish zavqli o‘tganini inkor etmayman... – cho‘zib javob berdi Germiona. – Lekin Xagridning qaytishini istayman, albatta! – shosha-pisha fikrini yakunladi u, Garrining vajohatli nigohidan cho‘chib ketib.

Shunday qilib uchovlon, kechki ovqatdan so‘ng muzlagan

hovli orqali Xagridning kulbasiga borib, eshik taqillatdi. Biroq ichkaridan So'yloqtishning akillashidan boshqa javob bo'lmadi.

– Xagrid och eshikni, biz keldik! – qichqirdi Garri, eshikni darang'latib.

Eshik ochilmadi. So'yloqtishning angillab, yog'och tirnagani eshitildi, xolos. Uchovlon o'n daqiqacha navbat bilan taqillatdi. Erinmagan Ron kulbaning derazasini ham darang'latdi. Foydasi bo'lmadi.

– Nega endi u o'zini olib qochyapti? – taajjublandi Germiona, taqdirga tan berib, qasrga qaytishar ekan. – Bu gaplarning bari bizga biron-bir ahamiyati bor, deb o'ylamas, har qalay, a? Chala zot gigant bo'lsa, nima qilibdi?!

Lekin Xagrid, aftidan, boshqacha fikrda, shekilli. Hafta davomida qorasini ko'rsatmadi. Ovqatlangani ham Katta Zalga kirmay qo'ydi, hovlibonlik ishini yig'ishtirgan chog'i, hech qayerda ko'rinmadi. Uning darsini ilgarigiday professor Gniller-Plank o'tkazmoqda. Garri va uning do'stlarini tahqir qilishni Malfoy imkon qadar qo'ldan bermay yurdi. Har safar uchrashib qolishganda, Garri hech narsa qila olmasligi uchun atayin biron-bir o'qituvchi yaqinida pichirlaydi:

– Chala zot gigantni sog'indingmi? Odam-filni o'ylab ho'ng-ho'ng yig'layapsanmi?

Yanvar oyining o'rtalarida Xogsmyodga safar uyushtirildi. Garrining qishloqqa chiqishga taraddud ko'rayotganini ko'rgan Germiona taajjublandi.

– Umumiy mehmonxonada hech kim bo'lmaydigan paytdan foydalanasan, deb o'ylagan edim, – dedi u. – Tuxum bilan jiddiyroq shug'ullanish vaqti yetmadimikan?

– A, ha, men... gap nimada ekanini deyarli tushunib yetganday bo'ldim, – aldadi Garri.

– Rostdanmi? – zavqlanib ketdi Germiona. – Barakalla!

Yolg'on gapirgani tufayli his etgan aybdorlik tuyg'usi Garrining ichini timdalaladi-yu, e'tibor bermaslikka urindi. Qolaversa hali ixtiyorida yana besh hafta bor. Bu juda ko'p... Xogsmyodda esa Xagridni uchratib, o'qituvchilikka qaytishga ko'ndirishi mumkin...

Shanba kuni Ron va Germiona bilan birga qasrdan chiqqan Garri ivib ketgan sovuq hovli bo'ylab maktab darvozasi tomon yo'l oldi. Durmshtrangchilarning langar tashlangan kemasi yonidan o'tishar ekan, yuqori palubada turgan Viktor Krumni ko'rishdi. Uning egnida cho'milish trusikidan boshqa narsa yo'q. Krum juda ozg'in ekan-u, aftidan, yaxshigina chiniqqan ko'rinadi. U kema korpusining chetiga turdi-da, o'zini shartta suvga tashladi.

– Voy telba! – dedi Garri ko'lda suzib yurgan Krumga qarab. – Hovlida yanvar bo'lsa, suv muzday-yu, axir!

– U yashaydigan yurt iqlimi bundan ham sovuq, – fikr bildirdi Germiona. – Yurtimiz unga issiq o'lkaday ko'rinsa kerak.

– To'g'ri, biroq ko'lda bahaybat kalmar yashaydi, – dedi Ron.

Ammo uning ohangida tashvish emas, aksincha, qandaydir umid eshitildi. Buni payqagan Germiona qoshini chimirdi.

– Garchi u «Durmshtrang»dan bo'lsa ham sen o'ylagancha yomon bola emas, – ishonch-la ma'lum qildi qiz. – Maktabimiz unga juda yoqibdi. O'zi aytdi menga.

Ron indamay qo'ya qoldi. Bal o'tgandan buyon u Germionaning oldida Krum haqida umuman gap ochmay qo'ydi. Garri esa Rojdestvoning ikkinchi kuni Ronning karavoti ostidan Bolgariya jamoasi o'yinchisining mitti qomatidan uzib tashlangan o'yinchoq qo'l topib oldi.

Xogsmyodning pilchillagan Daroz ko'chasi bo'ylab borishar ekan Garri Xagridni ko'rish ilinjida atrofga alanglab yurdi. Do'konlarning birortasida ham uchratmagach, «Uch supurgi» qahvaxonasiga kirishni taklif qildi.

Qahvaxona odatdagiday gavjum-u, Xagridning yo'qligini tushunib yetish uchun bir bor ko'z yugurtirib chiqishning o'zi kifoya. Bolaning ko'ngli cho'kdi. Do'stlari bilan birga pesh-taxta yoniga borib, Rosmerta xonimga huzur-halovat ichim-ligiga buyurtma bergach, tuxumning mudhish chinqiriqlarini eshitib o'tirish uchun umumiy mehmonxonada qolmaganiga achindi.

– U ishga boradimi, o'zi? – pichirladi Germiona. –

Ko‘zguga qarang!

Garri peshtaxta ortiga mahkamlangan, Germiona imo qilgan ko‘zguga qarab, Lyudo Shulmanning aksini ko‘rdi. Qorong‘i burchakda, goblinlar davrasida o‘tirgan Shulman nimalarnidir tez va past ovozda gapirmoqda, qo‘lini ko‘krakka qovushtirib olgan goblinlar esa vahimali qiyofa yasagancha, uning gapini diqqat bilan eshitib o‘tiribdi.

«Dam olish kuni, bellashuv bilan bog‘liq biron-bir tadbir o‘tkazilmayotgan, demak, hakamlik vazifasini bajarishga hojat bo‘lmagan kuni Shulmanning «Uch supurgi» qahvaxonasida o‘tirgani chindan ham juda g‘alati», xayoldan o‘tkazdi Garri. U Shulmanning aksini diqqat bilan kuzatdi. Sobiq «Urib qaytaruvchi» juda bezovta. Ajal belgisi hosil qilingan o‘rmonda paydo bo‘lganda ham xuddi shunaqa bezovta qiyofada ko‘ringan edi. Ayni shu paytda nigohini peshtaxta tomon qaratgan Shulman, Garrini ko‘rib qolib, o‘rnidan turdi.

– Hozir qaytaman, – surbetlarcha baqirdi u, goblinlarga murojaat qilib.

Garrining yoniga yugurib kelgan Shulmanning bolalarcha tabassumi joyiga qaytdi.

– Garri! – zavq-la xitob qildi u. – Ishlar qalay? Seni shu yerda uchratishga umid qilgan edim! Xo‘sh, ishlaring joyidami?

– Joyida, rahmat, – javob berdi Garri.

– Holi qolib gaplashib olishimiz mumkinmi? Ikki og‘iz so‘zim bor, xolos? – hovliqib so‘radi Shulman. – Ikkalangiz, iltimos, bir daqiqaga holi qoldiring bizni.

– M-m-m... Xo‘p, mayli, – yelka qisdi Ron.

Germiona bilan Ron nari ketishdi. Shulman esa Garrini Rosmerta xonimdan nari tortdi.

– Men... seni yana bir bor ajoyib g‘alabang bilan tabriklamoqchi edim, – gap boshladi Shulman. – Chindan ham o‘sha kungi chiqishing zo‘r bo‘ldi.

– Rahmat.

Bu bilan ish bitmasligini Garri yaxshi tushunib turibdi. Tabriklaydigan bo‘lsa, Ron bilan Germionaning oldida ham tabriklashi mumkin. Yuragi po‘killab ko‘zgudagi goblinlar

aksiga qarab qo'ygan Shulman niyatini ochiq bildirishga oshiqmadi. Goblinlar esa o'z navbatida, qora tirqishga o'xshash ko'zlarini Shulman bilan Garridan uzmay o'tiribdi.

– Dahshatning o'zginasi-ya, – shivirladi Shulman, Garrining goblinlarga e'tibor qilganini sezib. – Ingliz tilini mutlaqo tushunishmaydi. Kubokning bolgarlar bilan o'tgan final o'yinida shunday holatga tushib qolgan edim... Bolgarlarning fikrini hech bo'lmaganda odamga o'xshab bajargan imo-ishoralaridan uqib olsa bo'lar edi. Bular esa faqat gobldeguk[1] tilida g'ing'illashadi... Ularning tilida faqat bladvak so'zini bilaman. Dastaki so'qa, degan ma'noni anglatadi. Faqat tahdid qilyapti, degan xayolga bormasliklari uchun o'sha so'zni hech talaffuz qilmayman.

Shulman o'zining hazilidan o'zi kulib qo'ydi.

– Muddaosi nima, ularning? – qiziqdi Garri, Shulmanga diqqat bilan qarab o'tirishgan goblinlarni kuzatib.

– M-m-m... ular, – kutilmaganda asabiylasha boshladi Shulman. – Ular... m-m-m... Barti Sgorbsni qidirishmoqda.

– Nega endi bu yerda qidirishyapti uni? – hayron bo'ldi Garri. – Londonda, vazirlikda emasmi u?

– Umuman aytganda... m-m-m... u qayerda ekanini tasavvur ham qila olmayman, – dedi Shulman. – Sgorbs... nima deb tushuntirsam ekan... ishga chiqmay qo'ydi. Uning yordam-chisi Persi Ueslining gapiga qaraganda, qattiq betob emish. Ishga doir ko'rsatmalar yozib, boyqush pochtasi orqali yo'lla-yotgan ekan. Faqat bu gaplarni hech kimga aytma, Garri, xo'pmi? Aks holda, hamma teshikka tumshuq tiqadigan Rita Vriter pashshadan fil yasab, Sgorbsning kasalligiga doir kurak-da turmas bema'niliklarni to'qib-chatib yuborishi mumkin. Tag'in Sgorbsni ikkinchi Berta Jorkinsga aylantirib qo'ymasin...

– Aytganday, o'sha qizdan biron xabar bormi? – qiziqdi Garri.

– Yo'q, – yana asabiylashdi Shulman. – Men, tabiiyki, qidiruvga odam jo'natdim... Ja g'alati ish... Albaniyaga yetib

[1] **Gobldeguk tili** – goblinlar tili.

borgani aniq. Chunki u o‘sha yurtda istiqomat qiladigan amma-vachchasi bilan uchrashgan. Ammavachchasining uyidan chiqib, janubda yashaydigan xolasining holidan xabar olgani yo‘l olgan... va yo‘l davomida izsiz yo‘qolgan... jazman topib, qochib ketadigan ayollardan emas u... shunga qaramay... Qo‘ysang-chi, Garri? Nimalar haqida gaplashib o‘tiribmiz? Allaqanday goblinlar, allaqanday Berta Jorkins... Aslida tilla tuxum haqida so‘ramoqchi edim. Muammo yo‘qmi?

– M-m-m... yo‘q, muammo yo‘q, – yana aldadi Garri.

– Quloq sol, Garri, – past ovozda gap boshladi Shulman bolaning yolg‘on gapirganini uqib, – Seni bellashuvga, ixtiyoringga qarshi tiqishtirib qo‘yishganidan... men... juda tashvishdaman... Shunday ekan, agar... agar biron-bir muammo bo‘lsa, men yordam ko‘rsatishim... tegishli yo‘l-yo‘riq berishim mumkin... Senga bo‘lgan mehrim yanada oshdi... ayniqsa, ajdar bilan olishganingni ko‘rib!... Xullas, shama qilib qo‘ysang bo‘lgani.

Garri Shulmanning qizil yonoqlari, bolalarcha katta ochilgan moviy ko‘ziga qaradi. So‘ng imkon qadar ehtiyotkorona, vazirlikning Sehrgarlik o‘yinlari va sport departamenti boshlig‘ini qoidabuzarlikda ayblayotgan kishiga o‘xshab qolmaslikka urinib, gapirdi:

– Biroq biz jumboq yechimini o‘zimiz, mustaqil topishimiz kerak-ku.

– Albatta, albatta, – gapni bo‘ldi betoqat Shulman, – le-kin... Qo‘ysang-chi, shu gapingni, Garri!... Bellashuvda «Xogvars» g‘alaba qozonishini hammamiz ham istaymiz-u, shunday emasmi?!

– Sedrikka ham yordam ko‘rsatishni taklif qildingizmi? – tikka so‘radi Garri.

– Yo‘q, taklif qilganim yo‘q, – tan oldi silliq yuzi xavotirdan sezilar-sezilmas burishgan Shulman. – Boya aytdim-u, senga bo‘lgan mehrim yanada oshdi, deb. Shu bois ham yordam berishga urinib ko‘raman, degan xayolga bordim...

– Rahmat. Lekin, nazarimda, muammoni hal qilganday bo‘ldim. Yana bir-ikki kundan so‘ng jumboqning tagiga yetaman.

Nima uchun yordamdan voz kechayotganini Garrining o'zi aniq tushunmayapti. Balki, Shulman bilan tanishganiga hali bo'lmagani, shu bois uning yordami Ron, Germiona va Siriusning maslahatlari bilan qiyoslab ko'rilganida g'ayriqonuniy ko'ringanidandir.

Shulman izzati-nafsi olingan bashara yasadi-yu, Fred bilan Jorj kelishgani uchun ortiq hech nima deya olmadi.

– Salom, mister Shulman, – quvonch-la ko'rishdi Fred. – Ijozat bersangiz, mehmon qilay?

– M-m-m... yo'q, – rad etdi Shulman so'nggi bor Garriga ixlosi qaytganday qarab qo'yib. – Rahmat, bolalar...

Shulmanning basharasidagi, xuddi Garri juda kuchli pand bergan kabi qiyofa bilan qiyoslab ko'riladigan bo'lsa, Fred bilan Jorjning dili siyohligi ushbu qiyofadan qolishmadi.

– Borishim kerak, – xayrlashdi Shulman. – Hammangizni ko'rganimdan juda xursandman. Garri, omad yor bo'lsin!

U ko'cha tomon harakat boshlashi bilan goblinlar yoppasiga qo'zg'alib, ortidan ergashdi. Garri esa Ron bilan Germionaning yoniga qaytdi.

– Sendan nima istayapti u? – so'radi Ron, kursiga o'tirgan Garridan.

– Tilla tuxum masalasida yordam bermoqchi, – javob berdi Garri.

– U bunday qilmasligi kerak! – hayajonlanib ketdi Germiona. – Axir, u hakam-ku! Lekin nima qilganda ham bu masalada sen yordamga muhtoj emassan, to'g'rimi? Jumboq yechimini topding, shundaymi yoki yo'qmi?

– M-m-m... deyarli, – ko'zini olib qochdi Garri.

– Shulman senga g'irromlik qilishni taklif qilganini Dambldor bilib qolsa bormi?! – dedi bo'lib o'tgan gapni ma'qul topmagan qiz. – Sedrikka ham yordam taklif qilgan bo'lsa kerak?

– Yo'q, taklif qilmagan, so'radim, – dedi Garri.

– Diggoriga kim ham yordam bergisi keladi? – zahar qildi Ron.

Garri Ronning fikrini ich-ichidan ma'qulladi.

– Anavi goblinlarning basharalari haddan ortiq badxohona

ko‘rindi ko‘zimga, – o‘ychan fikr bildirdi Germiona, huzur-lazzat ichimligidan simirar ekan. – Umuman aytganda, nima kerak ekan ularga bu yerda?

– Shulmanning gapi rost bo‘lsa, Sgorbsni qidirib yurishgan emish, – javob berdi Garri. – Sgorbs haligacha kasal bo‘lib, ishga chiqmayotgan emish.

– Boshlig‘ining iyagi bog‘langan kuni departament rahbari bo‘lishni orzu qilgan Persi Sgorbsga oz-ozdan zahar sepib berayotgan bo‘lsa, ajab emas, – taxmin qildi Ron.

Germiona Ronga yeb qo‘yguday o‘qraydi.

– Qiziq, nega endi goblinlar mister Sgorbsni qidirib qolishdi? – qiziqdi Germiona. – Odatda, ular Sehrli maxluqlar ustidan nazorat bo‘limi bilan munosabatda bo‘lishadi.

– Sgorbs mingdan ziyod til biladi, – tushuntirish topgan bo‘ldi Garri. – Balki, goblinlarga tarjimon kerak bo‘lib qolgandir.

– Demak, endi bizni mittigina va nihoyatda ojiz goblinchalar tashvishga solyapti ekan-da, a? – chaqib oldi Ron Germionani. – Endi biron-bir MGHJ, ya’ni Mayriq goblinlarni himoya qilish jamiyatini ta’sis etishni niyat qildikmi, deyman?

– Xa-xa-xa, – istehzo-la kuldi Germiona. – Goblinlar himoyaga muhtoj emas. Ularning qo‘zg‘olonlari haqida professor Binnz aytib bergan gaplarni hech eshitganmisiz?

– Yo‘q, – baralla javob berdi Garri bilan Ron.

– Eshitmagan bo‘lsangiz, bilib qo‘ying. Ular sehrgarlarni hech bir qiyinchiliksiz bir yoqli qilishlari mumkin, – dedi huzur-lazzat ichimligidan yana simirgan Germiona. – Goblinlar juda aqlli bo‘lishadi. Gap qaytargani jur’at etmaydigan uy elflari emas ular.

– Anavi tomonga qarang, – dedi Ron, eshikka imo qilib.

Qahvaxonaga Rita Vriter kirib keldi. Bugun u banan tusli sariq korjoma kiyib, tirnog‘iga pushti lak surtibdi. Rita bilan birga meshqorin fotosuratchi kirib keldi. Ichimlik xarid qilgan Rita sherigi bilan birga uchala o‘rtoq turgan joyga yaqinroq stolni tanlab joylashdi. Garri, Ron va Germiona nafratga to‘lib-toshgan ko‘zlarini Vriterga tikib qolishdi. Rita nimadandir juda mamnun

bo‘lib, nihoyatda tez gapiryapti:

– ... ja xursand bo‘lmadi u, a, Buzo? Nega? Nima deb o‘ylaysan? Umuman aytganda, goblinlar qurshovida nima qilib yuribdi bu yerlarda?... Qishloqning diqqatga sazovor joylarini ko‘rsatib yurgan emish... Qanday bema’nilik!... U hech qachon yolg‘on gapira olmagan. Biron narsani niyat qilib yuribdi, deb o‘ylamaysanmi? Kovlashtirib ko‘rish kerakmikan? «Sehrgarlik o‘yinlari va sport departamentining sharmandasi chiqqan sobiq boshlig‘ini Lyudo Shulman»... Maqola shunday boshlansa yomon bo‘lmaydi, nima deysan Buzo? O‘ng‘ay kirdikor topish qoladi, xolos...

– Yana biron kishining hayotini rasvo qilishga urinyapsizmi? – atayin baland ovozda so‘radi Garri.

Qahvaxona mijozlari asta o‘girilib qaradi. Gardishiga qimmatbaho toshlar qadalgan ko‘zoynak ortida Rita Vriterning ko‘zi taajjubdan katta ochilib ketdi.

– Garri! – yashnab ketdi u. – Uchrashgan joyimizni qara-ya! Davramizga kelib qo‘shilmay...

– Siz bilan o‘tirgandan ko‘ra, o‘sha goblinlar bilan do‘st tutingan yoki eshak bilan bir oxurdan yem yegan afzal! – nafratla qichqirdi Garri. – Nega Xagridning nomiga isnod keltirdingiz?

Rita Vriterning qalin bo‘yalgan qoshi ko‘tarilib ketdi.

– Gazetxonlarimiz haqiqatni bilishga haqli, Garri, men o‘z ishimni bajaryapman xol...

– Uning chala zot gigant ekani kimni qiziqtirishi mumkin? – baqira ketdi Garri. – U juda yaxshi kishi! Siz uning tirnog‘idagi kiriga ham arzimaysiz!

Qahvaxonada sukunat qaror topdi. Asal quyib, ko‘zadan toshirib yuborayotganini idrok etmayotgan Rosmerta xonim ko‘zini katta ochgancha serrayib qoldi.

Rita qayoqqadir gum bo‘lgan tabassumini arang tiklab oldi. So‘ng timsoh terisidan tayyorlangan sumkachasini ochib, ichidan muloqot patqalamini chiqardi.

– Xagrid haqida intervyuga nima deysan, Garri? O‘sha mushaklar uyumi zamirida qanday shaxs bekingan? Ikkalangizning g‘alati do‘stligingiz-u, bunday munosabatlarning yuzaga

kelish sabablari nimada? Xagrid otang o'rnini bosa oldimi?

Qo'lidagi huzur-lazzat ichimligining idishini granata kabi ushlab olgan Germiona Ritaning yoniga irg'ib keldi.

– Siz o'taketgan badbaxt, jirkanch ayol ekansiz, – dedi u mahkam qisib olgan tishi orasidan. – Shov-shuv bo'ladigan felyeton[1] yozish uchun har qanday kishining, mana endi Lyudo Shulmanning obro'yini bir pul qilishdan tab tortmay o'tiribsiz, shunday emasmi?

– O't joyingga, tentak qiz. O'zing tushunmaydigan narsalarga aralashma, – dedi yomon qarab qolgan Rita Vriter sovuq ohangda. – Men o'sha Lyudo Shulman haqida shunday narsalarni bilamanki, eshitgan kishining tepa sochi tikka bo'ladi... Sening soching bundan istisno, albatta, – dedi u Germionaning sochini sovuq nigoh-la o'rganib chiqib.

– Ketdik bu yerdan, – dedi Germiona. – Ketdik... Garri... Ron... ketdik. Bu ayol bor joyda toza havo bulg'anadi. U bilan bir joyda o'tira olmayman.

Uchovlon zarda qilib, qahvaxonani tark etdi. Aksariyat mijozlar bolalarning ortidan qarab qoldi. Vriterning muloqot patqalami nihoyatda katta tezlik bilan stolda yotgan pergamentga nimalarnidir yoza ketdi.

– Germiona, sen endi uning navbatdagi qurboni bo'lishing muqarrar, – dedi Ron tashvishli ohangda.

Bolalar Daroz ko'cha bo'ylab jadal odimlashdi.

– Qani, jur'at etib ko'rsin-chi! – qichqirdi g'azabdan dag'-dag' titrayotgan Germiona. – Ko'rsatib qo'yaman unga, felye-ton yozish qanday bo'lishini. Demak, men, uning nazarida tentak qiz ekanman-da? Yo'q, men buni shundayligicha qoldirmayman. Dastlab Garri, endi Xagrid...

– Germiona, Rita Vriterning jahlini chiqarma, – qo'rqa-pisa o'tindi Ron. – Jiddiy aytyapman. Sen to'g'ringda ham biron narsa kovlashtirib topadi...

---

[1] **Feleton** (*fransuzcha:* feuilleton varaq; dastlabki feletonlar Fransiyada alohida varaqlarda chop etilgan) – kundalik hayotda ro'y beradigan salbiy hodisalarni yoki biror kimsani o'tkir til bilan tanqid qilib, uning ustidan kulib, dolzarb mavzuda yozilgan gazeta yoki jurnal maqolasi; publitsistik janr.

– Mening ota-onam «Bashorat-u karomat gazetasi»ni o‘qimaydi. Meni esa odamlardan bekinib yurishga majbur qila olmaydi!

Germiona shu qadar tez odimlamoqdaki, Garri bilan Ron unga arang yetishib yuribdi. U so‘nggi bor bunday kayfiyatda bo‘lgan kuni Drako Malfoyning basharasiga musht qo‘yib tinchlangan edi.

– Xagridni ham bekinib o‘tirgan joyidan olib chiqaman! – tinchimadi Germiona. – U taqdirga tan berib, taslim bo‘lmasligi kerak! Nega lallayasiz, tezroq yuring!

Qiz qishloq ko‘chasi bo‘ylab yugurgancha, «Xogvars»ning ikki yonida qad ko‘targan tosh ustunlarning tepa qismini qanotli to‘ng‘izlar bezagan dang‘illama cho‘yan darvozasidan o‘tib, maktab hovlisi orqali to‘g‘ri Xagridning kulbasi tomon yo‘l oldi.

– Xagrid! – chinqirdi Germiona kulbaning eshigini gumburlatib. – Xagrid, bas qil bekinishni! Ichkarida o‘tirganingni yaxshi bilamiz! Onang gigant ayol bo‘lgani bilan nima ishimiz bor! O‘sha betavfiq, yovuz benomusning gapidan ezilib o‘tiraverasanmi! Chiq dedim senga, Xagrid, o‘zingni nihoyatda ahmoqona tut... yap... san...

Eshik ochildi. Germiona: «Nihoyat...» demoqchi bo‘ldi-yu, gapi og‘zida qolib, dami ichiga tushib ketdi. Negaki u, ostonada Xagrid bilan emas, «Xogvars» direktori Albus Dambldor bilan yuzma-yuz keldi.

– Xayrli kun, – boadabona ohangda salomlashdi direktor kulib.

– Biz... m-m-m... Xagrid bilan ko‘rishmoqchi edik, – jur’atsiz tushuntirish berganday bo‘ldi Germiona.

– Buni men nihoyatda aniq tushundim, – dedi quv ko‘zi yarqiragan Dambldor. – Ichkariga marhamat qilinglar.

– O... xm... ha, – ezildi Germiona.

Bolalar ichkariga kirishdi. O‘lgudek sog‘inib ketgan, shekilli, So‘yloqtish angillagancha Garrining yoniga yugurib kelib, qulog‘ini yalay ketdi. Itdan arang qutulgan Garri xonaga ko‘z yugurtirdi.

Xagrid ikkita choy krujkasi qo‘yilgan stol ortida o‘tiribdi.

Afti-angoriga qarab bo'lmaydi: ko'zi shishib, yuzini dog' bosgan... sochiga qarab bo'lmaydi, chigallashib ketgan sim kalavasini boshiga bostirib qo'yishganday ko'rinmoqda.

– Salom, Xagrid, – ko'rishdi Garri.

Xagrid boshini stoldan ko'tardi.

– ...lom, – bo'g'iq xirilladi u.

– Bilishimcha, yana choy ketadi, – dedi eshikni yopgan Dambldor o'ziga o'zi.

U sehrli tayoqchasini chiqarib, barmoqlari orasida o'ynatgan bo'ldi. Havoda choy anjomlari-yu, bir likop pirojniy terilgan patnis aylangancha, paydo bo'ldi. Dambldor patnisni stol ustiga qo'ndirgach, hamma dasturxon atrofiga joylashdi.

– Xagrid, miss Grenjerning gapini eshitdingmi? – qisqa tanaffusdan so'ng gap boshladi Dambldor.

Germiona qizarib ketdi. Dambldor qizga kulib boqdi-da, davom etdi:

– Ko'rib turibsanki, Germiona ham, Garri ham, Ron ham sen bilan ilgarigiday muloqot qilishmoqchi. Eshikni buzib tashlashga tayyor ekaniga qaraganda, ular bunday muloqotga juda tashna.

– Albatta, – tasdiqladi Xagridga tik qarab o'tirgan Garri. – Anavi gumbaz g'unajinning gapi... ma'zur tuting, professor, og'zimdan bexos chiqib ketdi, – tez qo'shib qo'ydi u, Dambldorga qarab qo'yib.

– Kechirasan, Garri, xayolga berilib, gapingni eshitmay qolibman, – o'zini jinnilikka soldi Dambldor, bosh barmoqlarini aylantirgancha, shiftga qarab.

– A... aytmoqchi edim-ki, Xagrid, – tortinib davom etdi Garri, – anavi... ayolning gapi biz uchun biron-bir ahamiyat kasb etishi haqida noto'g'ri xayolga borma.

Xagridning bir juft qora qo'ng'izday keladigan katta-kata ko'zidan yosh dumalab, paxmoq soqoliga singib ketdi.

– Mana marhamat, gapimning jonli isboti, – gap qistirdi shiftdan ko'zini uzmay o'tirgan Dambldor. – Axir, men senga bir vaqtlar o'zlari ushbu maktabda tahsil ko'rgan, seni juda yaxshi eslaydigan ota-onalardan kelgan son-sanoqsiz maktub-larni

ko‘rsatdim-ku. Ularning hammasi, agar seni ishdan bo‘shatadigan bo‘lsam, meni nima deb so‘kishlarini juda aniq bayon etishgan...

– Hammasi ham emas, – xirilladi Xagrid. – Hammasi ham bunday fikr yuritmaydi.

– Bilasanmi nima, Xagrid, agar senga butun jahon miqyosidagi e’tirof kerak bo‘lsa, kulbangdan chiqmay, juda uzoq o‘tirishingga to‘g‘ri keladi. O‘sha vaqtga kelib maqolani hech kim eslamay ham qo‘yadi, – dedi Dambldor yarim oy shakli-dagi ko‘zoynagi orqali Xagridga diqqat bilan qarab. – Direktor etib tayinlanganimdan buyon maktab faoliyatini noto‘g‘ri boshqarayotganim haqida kam deganda bitta boyqush kelmagan hafta o‘tganini eslay olmayman. Xo‘sh, nima qilishim kerak endi? Xonamga bekinib, hech kim bilan gaplashmay, tarki dunyo qilib o‘tirishim kerakmi?

– Lekin siz... chala zot gigant emassiz-u! – do‘rilladi Xagrid.

– Xagrid, sen mening qarindoshlarimni yaxshi taniysan-u! – baqirdi toqati toq bo‘lgan Garri. – Dursllarni esla!

– Juda to‘g‘ri, – bosh irg‘idi professor Dambldor. – Yoki misol tariqasida ukam Aberforsni olaylik. U echkiga nisbatan noma’qul jodu qo‘llagani uchun javobgarlikka tortilgan. Bu haqda barcha gazetalarda jar solindi. Biroq Aberfors odamlardan bekinib olgani yo‘q?! Aksincha, boshini mag‘rur ko‘targancha, o‘z qilmishini davom etib yuraverdi! Lekin xat-savodiga shubha qilganim uchun ham uning xulqini mardonavor deya olmayman...

– Oddiy hayotga qaytgin-da, darslaringni davom et, – past ovozda o‘tindi Germiona. – Iltimos, biz sensiz zerikyapmiz.

Xagrid yutinib qo‘ydi. Uning ko‘z yoshi to‘xtamay oqib, soqolining orasiga kirib ketyapti. Dambldor o‘rnidan turdi.

– Qisqasi, iste’fongni qabul qilmayman, Xagrid. Dushanba kuni seni o‘z ish joyingda ko‘rishni istayman. Katta Zalda soat sakkiz-u o‘ttizda nonushta vaqtida kutaman. Hech qanday vajbahona qabul qilinmaydi, – amr qildi u. – Hammaga yana bir bor xayrli kun tilayman.

So‘yloqtishning qulog‘ini qashlab qo‘yish uchun bir-ikki

soniyaga to‘xtagan Dambldor kulbani tark etdi. Direktorning ortidan eshik yopilishi bilan Xagrid, yuzini, har birining o‘lchami chiqindi tashlash bakining qopqog‘iday keladigan kaftlariga bosgancha, ho‘ngrab yubordi. Germiona o‘zining kichkinagina, nozik kafti bilan davangirning baquvvat qo‘lini, toki u boshini stoldan ko‘targuncha, yupatgan bo‘lib, silab o‘tirdi.

– Yaxshi odam, Dambldor... – dedi ko‘zi qizarib ketgan Xagrid. – Juda yaxshi odam.

– Ha, yaxshi odam, – tasdiqladi Ron. – Xagrid, pirojniylardan bittasini olib yesam maylimi?

– Ol, ye, – bosh irg‘idi Xagrid, kaftlarining orqa tomoni bilan ko‘zini artib. – To‘g‘ri aytdi... hammangiz haqsiz... o‘zimni nihoyatda ahmoqona tutdim... dadam xabar topsa, uyalgan bo‘lar edi.

Xagrid yana oqib ketgan yoshini shasht bilan artib tashladi.

– Uning rasmini sizlarga ko‘rsatganmanmi? Hozir...

Davangir o‘rnidan turib, javon tortmasidan fotosurat chiqardi. Ko‘zi-yu, ko‘z atrofidagi ajinlari Xagridning ko‘zidan farq qilmaydigan mitti amaki o‘g‘lining yelkasida quvnoq kulib o‘tiribdi. Ikkalasi olma daraxtining yonida turib suratga tushgan. Shunga qarab, Xagridning o‘sha vaqtdagi bo‘yi yetti-sakkiz futdan past bo‘lmaganligi, soqoli hali chiqmagan, yosh yuzining silliqligi va yumaloqligidan o‘n bir yoshdan oshmaganini fahmlasa bo‘ladi.

– Endigina «Xogvars»ga o‘qishga kirgan edim, – yig‘lamsiragan ovozda tushuntirish berdi Xagrid. – Dadamning boshi ko‘kka yetgan edi o‘shanda... Onam tufayli sehrgar bo‘lmasligimdan qo‘rqqan edi, o‘zingiz tushunasiz... mayli, hozir buning ahamiyati yo‘q. Sehr-jodu masalasida men doimo qoloq bo‘lib kelganman... Xayriyatki, maktab o‘quvchilari ro‘yxatidan chetlashtirilgunimcha o‘lib ketdi. Omonatini ikkinchi sinfda o‘qiyotganimda topshirib qo‘ydi...

Xagrid biroz sukut saqlab o‘tirdi.

– Dadamni tuproqqa topshirib kelganimdan so‘ng Dambldor menga ko‘z-quloq bo‘ldi. Ko‘rib turibsiz, ish topib berdi... Odamlarga ishonch bildira oladi u. Xato qilgan kishiga

yana bir bor imkon berishdan ham cho'chimaydi. Aynan shu fazilati bilan boshqa direktorlardan farq qiladi. Haqiqiy iste'dodi bo'lsa bo'ldi, u kim bo'lishidan qat'i nazar «Xogvars»ga ishga qabul qilaveradi. Odam tanlamaydi. Oilasi... obro'siz bo'lsa ham insonning o'zi halol, vijdonli bo'la olishini juda yaxshi tushunadi. Kek saqlamaydi. Ba'zilar buni tushunmaydi. Ayrimlar senga choh qazib, oyog'ingdan chalish, tagingga sovuq suv quyish payida bo'ladi. Ba'zilar o'zini suyagi yo'g'on kishi sifatida ko'rsatishga urinadi. Bundan nima naf. Undan ko'ra: «Xudo qanday yaratgan bo'lsa, shunday ko'ring meni, chunki men bundan hech uyalmayman», de. Otam aytgan edi: «Hech qachon o'zingdan uyalma. Senga qarshi chiqadiganlar hamisha topiladi. Unday kaslar bilan ishing bo'lmasin». To'g'ri aytgan ekan, rahmatli. Ahmoq, nodon ekanman. U bilan endi ishim bo'lmaydi, mana ko'rasiz. Suyagi yo'g'on emish... ko'rsatib qo'yaman hali, suyak qanchalik yo'g'on bo'lishini.

Garri, Ron va Germiona bir-biriga tortinib qarab qo'yishdi. Garri Xagridning Maksim xonim bilan o'tgan suhbatini yashirincha eshitib qolganiga iqror bo'lishdan ko'ra portlovchi drakllarning elliktasini sayr qildirib kelishni afzal topdi. Xagrid esa ortiqcha vaysayotganini idrok etmay, gapini davom etdi:

– Bilasanmi, nima, Garri? – dedi u, boshini otasining rasmidan ko'targancha, yoshga to'lgan ko'zi ila qarab. – Seni ilk bor ko'rganimda bolaligimni eslaganman. Ota-onasi yo'q, g'irt yetim... Esingdami, o'shanda sen «Xogvars»da tahsil olishga to'g'ri kelish-kelmasliging borasida ikkilangan eding? O'qishni eplay olish-olmasligingni bilmagan eding? Ana endi o'zingga qara, Garri? Maktabning chempionlikka da'vogari!

U muayyan vaqt Garriga tikilib, tek qoldi. So'ng jiddiy ohangda so'radi:

– Bilasanmi, nimani istashim, orzu qilishimni, Garri? G'alaba qozonishing, chempion bo'lishingni istayman! O'shanda sen hammasiga ko'rsatib qo'ygan bo'lar eding... U yoki bu marraga erishish, yuksak cho'qqilarni zabt etish uchun kishi-ning zoti, qoni toza bo'lishi shart emasligini isbotlab bergan bo'lar eding! Kishi hech qachon o'zidan o'zi uyalishi kerak emasligini

ko‘rsatib, hammasining ko‘zini moshday ochib qo‘y-gan bo‘lar eding! Oxir-pirovardida sehr-jodu bilan shug‘ullana oladigan har qanday kishini maktabga qabul qilayotgan Dambldorning haq ekanini tushunib yetar edi ular. Aytganday, tuxum masalasida ishlar qalay?

– Zo‘r. Juda zo‘r, – aldadi Garri.

Sho‘rli Xagridning so‘lg‘in yuzida nihoyatda keng, yig‘la-moqdan qiyshayib ketgan tabassum ko‘rindi.

– Bilardim, Garri, shubha qilmas edim... yasha azamat! Sen ularga ko‘rsatib qo‘yasan. Men bunga ishonaman. Hamma-sining ta’zirini berasan.

Boshqalarni aldashga nisbatan Xagridni aldash, vijdon azobi tufayli bo‘lsa kerak, juda qiyin kechdi. Sal o‘tib, Ron va Germiona bilan birgalikda qasrga qaytayotgan Garrining ko‘z o‘ngidan bellashuv chempioni sifatida e’tirof etilgan Garrini tasavvur qilib, baxtiyor qiyofa kasb etib o‘tirgancha qolgan Xagridning yuzi hech nari ketmadi. O‘sha oqshom Garrining fikr-xayolini qiynab kelayotgan, sirini tushunib bo‘lmas tilla *tuxumning vazni yanada og‘irlashib* ketganday bo‘ldi. Yotar vaqt yetgach, Garri, g‘ururni bir chetga qo‘yib, Sedrikning shamali gapi sariq chaqaga arzish-arzimasligini aniqlab ko‘rishga ahd qildi.

XXV BOB. SEHRLI KO‘Z VA TILLA TUXUM

Tuxum jumbog‘i hal bo‘lmaguncha ancha vaqt vanna qa-bul qilishga to‘g‘ri kelishini Garri bilar edi. Binobarin, ushbu ish bilan tunda shug‘ullanishga, Sedrikka itoat qilishni istama-sa-da, sinfboshilar yuvinadigan vannaxonaga borishga qaror qildi. Har qalay, u yerga odam kam kiradi. Shunday ekan, unga birov xalal berishi kutilmaydi.

Kunlardan bir kun, maktab bo‘ylab o‘tkazgan tungi sayo-hati davomida nazoratchi Filch tomonidan qo‘lga olinganini eslab, o‘sha ko‘yga takror tushishni istamagan Garri bu safargi tungi yurishini puxta rejalashtirdi. Ko‘rinmas plashga asosiy umid bog‘lagan bo‘lsa, maktab qoidalarini buzish masalasida qimmatli buyum sanaladigan Kafanduzd xaritasi unga ko‘mak-chi vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu xarita «Xogvars» qasrini jamiki yashirin yo‘llari-yu, kesib o‘tish joylari bilan birga butunicha ko‘rsatadi. Muhimi, qasrdagi odamlar perga-ment varag‘ida kichkinagina siyoh nuqtalar shaklida ko‘rinadi. Har bir nuqta ustida tegishli kishining ismi bitilgan mikroskopik yozuvli tamg‘a bo‘ladi. Ya’ni xarita vositasida kim qayerda yurganini kuzatish mumkin. Demak, birov vannada yuvingisi kelib qolsa, Garri oldindan xabardor bo‘ladi.

Chorshanbadan payshanbaga o‘tar kechasi ustiga ko‘rin-mas plashini tashlab olgan Garri pastga tushib, umumiy meh-monxonadan Xagrid ajdarlarni ko‘rsatgan tunda chiqqan kabi tuynuk to‘sgan portretning ochilishini kutdi. Faqat bu safar parolni («Bananli blinlar»ni) «Semiz Xola»ga Germiona emas Ron aytdi.

– Omad yor bo‘lsin! – pichirladi Garrini yonidan o‘tkazgan Ron.

Bir qo‘li bilan og‘ir, silliq tuxumni qo‘ltiqlab olgan, ikkin-chi qo‘liga xarita tutgan Garriga plash ostida yurish oson kech-madi. Xayriyatki, yaxshigina yoritilgan qasr yo‘laklari kimsasiz ekan. Bundan tashqari, u, vaqti-vaqti bilan xaritaga qarab, chetlab o‘tilishi kerak bo‘lgan biror-bir kishi yo‘laklarda izg‘ib

yurgan-yurmaganini kuzatib bormoqda. Qo‘lqopini poyma-poy taqib, parishon qiyofa yasagan sehrgar Befahm Boris haykaliga yetgach, Garri kerakli xonani topib, yuzini eshikka yaqin keltirdi-da, Sedrikning yo‘rig‘iga amal qilgancha pichirlab parolni talaffuz etdi:

– *Tetiklashtiradigan ignabarg vannasi.*

Eshik g‘ijirlab ochildi. Garri xonaga lip etib o‘tdi-da, ichkaridan lo‘kidonni yopib, atrofga razm soldi.

«Bu yerda yuvinish huquqiga ega bo‘lish uchun ham sinfboshi bo‘lsa arziydi», xayoldan o‘tkazdi Garri. Serhasham qandillarga o‘rnatilgan shamlar xonani xira yoritgan. Xona devorlari, shu jumladan, o‘rtadagi to‘g‘ri burchakli chuqur ham, aftidan, basseyn bo‘lsa kerak, oppoq marmar bilan qoplangan. Basseynning bir chetiga suvga sakrash tramplini o‘rnatilgan bo‘lib, qirg‘og‘ining ustki qirralaridan sirtiga qimmatbaho toshlar qadalgan, har biri o‘zining betakror tusi ila tovlanayotgan jo‘mraklar aylanasiga chiqib turibdi. Xona derazalariga uzun oppoq parda tortilgan bo‘lib, bir burchagida yumshoqqina oq sochiqlar taxlangan. Xona devoriga bittagina rasm osilgan bo‘lib, unda qoya tosh ustida yonboshlagancha uyquga ketgan oq sariq sochli suv parisining surati solingan. Yuziga tushgan bir tutam soch yengil tebranayotganidan suv parisi pishilla-yotganini fahmlasa bo‘ladi.

Garri qo‘lidagi plash, xarita va tuxumni polga qo‘yib, atrofni tomosha qilgancha, ichkariga kirdi. Qadam tovushi devordan bo‘g‘iq aks sado bo‘lib qaytmoqda. Xona ko‘rkam, chiroyli jo‘mraklarning besh-oltitasini ochib ko‘rish istagi paydo bo‘lsa ham, Garri o‘zini aldanganday his etmoqda. Bularning bari tuxum sirini ochishga qanday yordam berishi mumkin? Shunday bo‘lsa-da, Garri sochiqlardan biri, plash, xarita va tuxumni basseyn qirg‘og‘iga joylab, tiz cho‘kkancha biratula bir nechta jo‘mrakni ochib yubordi.

Har bir jo‘mrakdan oqayotgan suv o‘z tusiga ega ko‘pik hosil qilib chiqmoqda. Faqat bu ko‘pik Garri bilgan ko‘pik emas. Jo‘mraklardan biri o‘lchami futbol to‘piday keladigan pushti va moviy pufak chiqarsa, boshqa biri nihoyatda quyuq ko‘pik

chiqarmoqda. Garrining nazarida, ushbu ko‘pik ustiga yonboshlab olsa vazniga bemalol bardosh bera oladi. Yana bir jo‘mrakdan suv yuzida muallaq turib qolgan atir hidli qirmizi bug‘ purkalmoqda. Garri jo‘mrak ochib-yopib biroz vaqtini chog‘ qildi. Ayniqsa ulardan birining suvdan qochib, yuzasida keng ravoq hosil qilgancha tarqagan oqimi bolaga juda yoqdi. Chuqurgina basseyn bir pastda issiq suv, ko‘pik va pufakka to‘ldi. Jo‘mraklarni yopgan Garri egnidagi xalati, pijamasi va shippagini yechib, suvga tushdi.

Basseyn shu qadar chuqurki, u yoq bu yoq huzur qilib suzgan bolaning oyog‘i tubiga bazo‘r yetmoqda. Suvdan chiqqa Garri tuxumga tikilgancha basseyn qirg‘og‘ida aylanib yurdi. Issiqqina, ko‘piklari rang-barang muattar basseynda bo‘lish qanchalik yoqimli bo‘lmasin, fikri ravshanlashib ketganini hozircha his etmadi.

Garri tuxumni ho‘l qo‘liga oldi-da, po‘stlog‘ini shartta ochdi. Xonani qamrab, devordan aks sado berib qaytgan manfur qichqiriq ilgarigiday tushunarsiz va yanada baland yangradi. Ushbu dod-faryod maktab nazoratchisi Filchni o‘ziga jalb etishidan cho‘chib ketgan bola manhus buyumning qopqog‘ini tez yopdi. Ehtimol, Sedrik aynan shu maqsadni ko‘zlagandir.

– Sening o‘rningda bo‘lsam, uni suv ostida ochgan bo‘lar edim.

Kutilmaganda yangragan ushbu ovozdan o‘lgudek cho‘chigan Garri suvga qulab tushib, rosa ko‘pik yutdi. Qo‘lidan chiqib ketgan tuxum polda yumalab xona burchagida to‘xtadi. Ko‘pik tupurgan Garri muvozanatini to‘g‘rilab olib, jo‘mraklardan birining ustida chordana qurib o‘tirgan badqovoq xonimning arvohini ko‘rdi. Axir bu qizlar hojatxonasida yig‘laydigan Dilgir Mirtl-ku!

– Mirtl! – jahl-la qichqirdi Garri. Men yal... men... egnimda kiyim yo‘q!

Suv yuzasidagi ko‘pik shu qadar qalinki, yigitcha yalang‘och tanasi ko‘rinmayotganiga umid qildi. «Biroq Mirtl ancha vaqtdan buyon poylab o‘tirgan bo‘lishi mumkin», gumon qildi Garri.

– Suvga kirayotganingda ko'zimni yumib olgan edim, – ko'z pirpiratdi nihoyatda qalin ko'zoynak taqqan Mirtl. – Holimdan xabar olmay qo'yganingga ming yil bo'ldi.

– Ha... to'g'ri... – g'udulladi Garri boshidan boshqa hech qayeri ko'rinmasligi uchun suv ichidagi tizzasini bukib. – Menga sizlarning hojatxonangizga kirish mumkin emas-u. Ayollarniki-yu u, shunday emasmi?

– Bir vaqtlar bu muammoni xayolingga ham keltirmay, Xudoning bergan kuni o'sha yerda o'tirgan eding, – ayanchli ohangda o'pkalandi Mirtl.

Chindan ham shunday bo'lgan. Mirtl uchun makon vazifasini o'taydigan, bir zamonlar buzilib, ishdan chiqqan qizlar hojatxonasi ikkinchi sinfda tahsil ko'rayotgan Garri, Ron va Germionaga rosa asqatgan edi. O'sha yerda uchovlon man etilgan damlama – Barcha qiyofalar damlamasini tayyorlagan. Garri bilan Ron damlama vositasida Krabbe bilan Goylning o'xshashiga aylanib, «Slizerin» fakultetining umumiy mehmonxonasiga kirishga muvaffaq bo'lishgan.

– O'sha hojatxonaga kirganim uchun so'kish eshitgan edim, – tushuntirgan bo'ldi Garri. – Shu bois kirmay qo'yganim ma'qul, degan xayolga bordim.

Bu gap ham deyarli rost. O'sha yerda ularni Persi ko'rib qolgan edi.

– A... tushunarli... – dedi qovoq solgan Mirtl, jag'idagi husnbuzarini chuqulab. – Mayli... hozir buning ahamiyati yo'q. Sening o'rningda bo'lganimda, tuxumni suv ostida ochgan bo'lar edim. Sedrik Diggori aynan shunday qildi.

– Demak, sen uni ham poylab o'tirgan ekansan-da? – jahl qildi Garri. – Vanna qabul qilgani kelgan sinfboshilarni tomo-sha qilgani har oqshom kelib turasanmi deyman?

– Ba'zan, – makkorona javob berdi Mirtl. – Lekin ularning birortasiga ham o'zimni bildirmaganman, hech qaysi biri bilan gaplashmaganman.

– Menga ko'rsatilgan bunday sharafdan boshim osmonga yetdi, – kesatdi Garri. – Ko'zingni yumib tur.

Mirtl kafti bilan ko'zoynagini yaxshilab to'sganiga ishonch

hosil qilgan bola suvdan tez chiqib, sochiqqa o‘rangancha, tuxum tomon yugurdi.

Garri yana suvga kirgach, shaffof kaftini yuzidan olgan Mirtl bolani tezlatdi: – Bo‘lsang-chi... suvga botirgin-da, och!

Garri tuxumni suvga botirib, halqasini tortdi... Bu safar qichqiriq yangramadi. Aksincha, xuddi birov tomoq chayqayotgan singari qulqullagan qo‘shiq eshitildi. Faqat qo‘shiq misralarini anglab bo‘lmadi.

– Boshingni ham suvga tiq, xomkalla, – buyurdi Mirtl, bolaning harakatiga rahbarlik qilayotganidan huzurlanib. – Bo‘l tez, nega angrayasan?!

Garri chuqur nafas olib suvga sho‘ng‘idi. Ko‘pikka to‘lgan vannaning marmar tubida chordona qurib o‘tirgan bola qo‘lidagi tuxumdan chiqayotgan jarangdor, qandaydir ilohiy ovozni eshitdi:

Ovoz tomon talpin-u, lekin shuni eslab qol,
Yer ustida aytmaymiz, suv ostida yodlab ol.
Senga aziz narsani o‘zimiz-la g‘arq qildik,
Topib olishing uchun bir soatcha vaqt berdik.
Imkonni boy bersang, muddat o‘tar, ish tamom
Ko‘rmay o‘tarsan uni, yo‘qotib sen batamom.

Garri suvdan qalqib chiqdi. Boshi pufaklar qatlamini yorgach, ko‘zini to‘sgan sochini orqaga oldi.

– Eshitdingmi? – so‘radi Mirtl.

– Ha... qandaydir ovoz tomon borishim kerak ekan... iloj qancha, boraman... shoshma, yana bir eshitib ko‘ray...

Bola uch bor sho‘ng‘ib, qo‘shiq misralarini yod oldi. So‘ng o‘ylanib, suv ichida u yoq bu yoq yura ketdi. Mirtl xalal bermay, Garrini jimgina kuzatib o‘tirdi.

– Ovozi yer ustida eshitilmaydigan odamlarni topish kerak... – asta fikr bildirdi Garri, – M-m-m... kim bo‘lishi mumkin ular, a?

– Ja haftafahm ekansan-u!

Garri Dilgir Mirtlni bunchalik mamnun kayfiyatda ko‘rmagan, agar Barcha qiyofalar damlamasining ta’siridan Germiona-

ning yuzini tuk qoplab, orqasidan mushukning dumi o‘sib chiqqan holat hisobga olinmasa, albatta.

Bola xona devoriga tikilgancha, miyasiga zo‘r berib, fikr yurita boshladi... Modomiki, ularning ovozi faqat suv ostida eshitilar ekan, mantiqan o‘ylab ko‘riladigan bo‘lsa, ovoz sohiblarini suvda yashaydigan maxluqlar, deya e’tirof etish kerak. U o‘z nazariyasini Mirtl bilan o‘rtoqlashdi.

– Diggori ham aynan shunday fikrga borgan edi, – bosh irg‘idi arvoh javoban irshayib. – Mana bu yerda yuz, ehtimol, ming yilcha yotib, ko‘piklarning bari o‘tirib bo‘lguncha o‘zi bilan o‘zi gaplashdi.

– Suv ostida... – o‘ychan gapirdi Garri, – Bahaybat kalmardan tashqari yana nimalar yashaydi ko‘lda, Mirtl?

– Nimalar yashamaydi deysan u yerda, – javob berdi arvoh. – Ko‘lga ba’zan o‘zim ham suzib o‘taman... Aksariyat hollarda, ya’ni kimdir suv ochganda, majbur oqib ketaman...

Mirtlning kanalizatsiya[1] quvurlarida nimalarga aralashib ko‘lga oqib borishi haqida o‘ylamaslikka uringan Garri fikrini davom etdi:

– Odamga o‘xshab gapira oladigan maxluqlar yashaydimi u yerda? – so‘radi Garri. – Shoshma-shoshma...

Bolaning nigohi uxlab yotgan suv parisiga tushdi.

– Suv parilari yashaydimi ko‘lda, Mirtl?

– O-o-o, bo‘lar ekan-u! – maqtadi ko‘zoynagi yarqirab ketgan arvoh ayol, – Diggoriga esa bunday xulosaga borish uchun ancha vaqt kerak bo‘ldi! – so‘ng rasmdagi suv parisi tomon salbiy nigoh-la bosh irg‘ib qo‘yib, gapini davom etdi: – O‘shanda anavi uyg‘oq bo‘lib, dam qahqahlar, dam quruqlanar, dam suzgichini[2] o‘ynatar edi.

– Demak, to‘g‘ri fikr yurityapman, a? – suyundi Garri. – Binobarin, ikkinchi topshiriqning mazmuni ko‘lda suv parilarini topish va... va...

---

[1] **Kanalizatsiya** (*lotincha:* canalis) – axlatlarni, iflos va yog‘in suvlarini, chiqindilarni aholi yashaydigan joylardan yoki sanoat korxonalari hududidan oqizib chiqarib tashlash uchun yer tagidan o‘tkazilgan quvurlar, sanitariya texnika inshootlari tizimi.

[2] **Suzgich, yuzgich** – suv hayvonlarining suzish organi.

Kutilmaganda Garri o‘zi aytgan gapning ma’nosini o‘zi tushunib yetib, xursandligi, kimdir qornidagi tiqinni sug‘urib chiqarganday bir zumda barham topdi. U yaxshi suza olmaydi. Suzish ko‘nikmasini shakllantirish uchun imkoni bo‘lmagan. Bolaligida Dursllar o‘z o‘g‘li Dudlini suzish darslariga olib borishar edi. Garrini esa yo‘q. Kun o‘tib bir kun cho‘kib o‘lishiga umid qilishgan bo‘lsa kerak. Mana bu vannada suzish boshqa, ko‘lda suzish boshqa. Ko‘l havzasi nihoyatda katta, chuqur va vahimali... Anavi suv parilari esa ko‘l tubida yashashsa kerak...

– Mirtl, suv ostida qanday nafas olsa bo‘ladi? – asta so‘radi Garri.

Savolni eshitgan Dilgir Mirtlning ko‘zi yoshga to‘ldi.

– Qanday andishasizlik! – g‘udulladi u, kissasidan dastro‘mol chiqarib.

– Nega endi andishasizlik? – tushunmadi Garri.

– Men bilan nafas olish haqida gaplashishning o‘zi andishasizlik! – tutaqib ketdi Mirtl. – So‘nggi nafasim chiqqaniga ko‘p yillar bo‘lganini bila turib, bu haqda gap ochishning o‘zi andishasizlik...

Dilgir Mirtl yuziga dastro‘mol bosib, ho‘ngray ketdi. Garri Mirtlning o‘likligi haqida gap ochilsa jizzaki bo‘lib qolishini esladi. Boshqa arvohlar negadir bu masalada to‘polon ko‘tarishmaydi.

– Ma’zur tutgaysan, – dedi u betoqat bo‘lib. – Yodimdan ko‘tarilibdi... men boshqa narsani nazarda tutgan edim...

– Albatta, Mirtlning o‘lganini unutish oson, – dedi ko‘zi bir zumda shishib, yig‘lamoqdan hiqichog‘i tutgan arvoh. – Tirikligimda ham hech kim eslamagan meni. Jasadimni topish uchun ham ularga ancha vaqt kerak bo‘ldi! Necha soat kutib o‘tirganimni o‘zim bilaman! Hojatxonaga Oliviya Xornbi kirib kelib vaysagan edi: «Yana shu yerga kirib oldingmi, Mirtl? Haligacha xafa bo‘lib yuribsanmi mendan? Professor Dippet seni topib kelishimni buyurdi...» Ana shundagina u jonsiz yotganimni idrok etdi. O-o-o, o‘sha manzarani umrining so‘nggi daqiqalarigacha unutmaydi, ishonaver... buning uchun qo‘ldan

kelgancha harakat qildim... ketidan ta’qib qilib, o‘tgan gaplarni yodiga solib yuraverdim... hatto akasining to‘yida ham tinch qo‘ymadim...

Garri Mirtlning hikoyasiga quloq solgani yo‘q. U suv parilarining qo‘shig‘i haqida o‘ylanib qoldi: «*Senga aziz narsani o‘zimiz-la g‘arq qildik*». Aftidan, ular nimanidir, qaytarib olishim shart bo‘lgan qandaydir narsani o‘g‘irlab ketishadi. Nima ekan u?

– ... keyin Xornbi Sehrgarlik vazirligiga borib, uni ta’qib qilayotganim borasida arz qildi... Qasrga qaytdim va o‘shandan buyon hojatxonada kun kechirishga majburman.

– Yaxshi bo‘pdi, – poyintar-soyintar fikr bildirdi Garri. – Bir qadam bo‘lsa ham olg‘a odimladim... Iltimos, ko‘zingni yu-mib tur, suvdan chiqmoqchiman.

Garri basseyn tubida yotgan tuxumni olib, suvdan chiqdida, artinib, pijamasi, ustidan xalatini kiydi.

– Holimdan xabar olgani hojatxonaga kelib turasanmi? – fojiali ohangda so‘radi Mirtl, ko‘rinmas plashni olish uchun egilgan Garridan.

– M-m-m... harakat qilaman, – dedi Garri, bu ishni qasr-dagi jamiki hojatxonalar ishlamay qolgandagina qilishi mum-kinligini o‘ylab. – Ko‘rishguncha, Mirtl... yordam uchun rahmat.

– Ko‘rishguncha, – xayrlashdi arvoh.

Garri plashni ustiga tashlar ekan, Mirtlning jo‘mrak ichiga kirib ketganini ko‘rdi.

Qorong‘i yo‘lakka chiqqan Garri yo‘lda g‘ov yo‘qligiga ishonch hosil qilish uchun Kafanduzd xaritasini o‘rganib chiqishga kirishdi. Filch bilan missis Norrisni anglatgan nuqtalar nazoratchining xonasida. Bir qavat pastdagi o‘lja olingan qurol-aslaha xonasida ivirsiyotgan Dryuzgni inobatga olmaganda, boshqa hech kim yo‘q. Garri «Griffindor» minorasi tomon qadam bosgan ediki, xaritadagi allaqanday shubhali nuqta e’tiborini o‘ziga jalb etdi.

Dryuzgni anglatayotgan nuqtagina harakatlanayotgani yo‘q hozir. Chap tomondagi pastki xonada, ya’ni Sneggning xona-sida yana bir nuqta harakatlanmoqda. Faqat ushbu nuqta «Severus

Snegg» tamg‘asi bilan emas «Bartolomeus Sgorbs» tamg‘asi bilan belgilangan.

Garri xaritaga taajjublangancha qarab qoldi. Mister Sgorbsni hamma og‘ir kasal, deb biladi. Shu qadar og‘ir kasal-ki, Rojdestvo baliga kelishga ham madori bo‘lmadi. Shunday ekan tungi soat birda «Xogvars»da nima qilyapti u? Garri xonada tinmay tipirchilayotgan, faqat ba’zi joylarda bir necha soniyaga to‘xtab borayotgan nuqtani diqqat bilan kuzatib turdi.

Garri biroz ikkilandi-yu... qiziquvchanlik ustun keldi. U burilib, teskari yo‘nalish, yaqin oradagi zina tomon ravona bo‘ldi. Sgorbsning niyatini bilish shu tobda unga zarur bo‘lib qoldi.

Bola shovqin solmay pastga asta tusha boshladi. Shunga qaramay, zinaning g‘ichirlagan tovushi-yu, kiyimning shitir-shitirini eshitgan ayrim portretlar yuzlarini bo‘g‘iq shovqin tomon burdi. Pastga tushgan Garri yo‘lakning yarmiga yetgach, gobelenni itarib, tor zinadan pastlay boshladi. Bu qisqa, yana ikki qavat pastga tez tushish imkonini beradigan yo‘l. Garri Kafanduzd xaritasiga qarab borar ekan, yo‘l davomida zo‘r berib o‘yladi: yarim kechasi birovning xizmat xonasini titkilash – to‘g‘ri so‘z, barcha qonun-qoidalarga so‘zsiz amal qiladigan mister Sgorbsning tabiatiga xos ish emas.

Mister Sgorbsning xulqi tushunarsiz kechayotgani haqida o‘ylab ketayotgan Garrining oyog‘i Nevill hamisha sakrab o‘tishni unutib qo‘yadigan pog‘onalar orasiga kirib ketdi. Haligacha qurimagan tilla tuxum qo‘li beixtiyor siltanib ketgan bolaning qo‘ltig‘idagi sirpanib chiqib zina pog‘onalariga qattiq urilib, gumbur-gumbur tovush chiqargancha pastga dumaladi. Ko‘rinmas plash ham ustidan yechila boshladi. Ustidagi plashni ushlab qolishga uringan Garri ikkinchi qo‘lidagi Kafanduzd xaritasini ham chiqarib yubordi. Pergament olti pog‘ona pastga uchib tushdi. Tizzasigacha qamalib qolgan bolaning qo‘li xaritaga yetmadi.

Gobelendan o‘tib, pastga yumalab tushgan tilla tuxum zina bo‘sag‘asiga yetganda ochilib ketdi. Ana shovqin, mana to‘polon! Garri sehrli tayoqchasini chiqarib, sirtidagi tasvirni yo‘q

qilish uchun xaritaga cho‘zildi. Ming afsuski, qo‘li yetmadi.

Garri plashni to‘g‘rilab, dahshatdan ko‘zini chirt yumdi-da, qaddini rostlab atrofga quloq tutib o‘tiraverdi... Ko‘p o‘tmay tanish na’ra yangradi: – DRYUZG!

Hech shubha yo‘qki, bu ovoz g‘azab otiga mingan, tabiatan ovchi Filchning ovozi. Har soniya o‘tgan sari nazoratchining yerga sudralib, tez bosilayotgan qadami aniq, chinqiroq ovozi esa baland eshitildi.

– Nima shovqin? Qasrni oyoqqa turg‘izmoqchimisan? Hozir ko‘rsatib qo‘yaman senga, to‘polon qilish qanaqa bo‘lishini... Iye, bunisi nima bo‘ldi?

Filchning qadam tovushi o‘chdi. Soniya o‘tib, metallning shaqillashi eshitildi. Shovqin tindi. Filch tuxumni olib, qopqog‘ini yopibdi. Oyog‘i sehrli pog‘ona iskanjasida qolgan Garri tiq etgan tovushga quloq solgancha, turgan joyida tek qotdi. Mana hozir Dryuzgni qidirishga tushadigan nazoratchi gobelen-ni ochadi... va tabiiyki, poltergeystni ko‘rmaydi... agar u zinadan sal ko‘tarilsa bormi, Kafanduzd xaritasini topib oladi... xarita esa ko‘rinmas plash kiyganiga qaramay «Garri Potter»ning turgan joyini aniq ko‘rsatadi...

– Tuxum? – eshitildi zina bo‘sag‘asida turgan Filchning past ovozi. – Azizam, bellashuv topishmog‘i-ku, bu! Chempionlikka da’vogarlardan biriga tegishli tuxum!

Aftidan, Filch sadoqatli mushugi missis Norrisga murojaat qilmoqda. Garrining yuragi shiddat-la urib, ko‘nglini behuzur qilib yubordi.

– DRYUZG! Buni sen o‘g‘irladingmi?

Garri gobelenni kuch bilan tortgan Filchning jirkanch, solqigan, oqimtir, xuddi mushugining ko‘ziday chaqchaygan ko‘zini ko‘rdi. Qariya ko‘ziga kimsasiz ko‘ringan zinaga diqqat bilan razm soldi.

– Bekinib oldingmi? – so‘radi nazoratchi. – Hozir tutib olaman seni, Dryuzg... bellashuv topishmog‘ini o‘g‘irlaganini qarang-a... shoshmay tur, yaramas o‘g‘ri, Dambldor xabar topsin, teringga somon tiqadi.

Filch zinadan ko‘tarila boshladi. Uning ketidan esa shu-

voqrang eti suyagiga yopishib qolgan mushuk ergashib kelmoqda. Missis Norrisning yirik fonus ko‘zi tikka Garriga qarab turibdi. Bola bir vaqtlar, «Ko‘ngildagi orzular ko‘zgusi» saqlangan xonada, ushbu jonivor bilan yuzma-yuz kelib, ko‘rinmas plash mushuk nigohiga ta’sir qilish-qilmasligi haqida o‘ylanib qolgan edi. Mana hozir ham miyasida shu o‘y. Noxush xayollardan joni og‘rib ketguday bo‘lgan Garri yaqin kelgan Filchning eski flanel xalatini ko‘rib, oyog‘ini xalos etmoq uchun tortib ko‘rdi-yu, holatini yanada battar qildi. Hozir Filch yo xaritani ko‘rib qoladi yo uni oyog‘i bilan bosib oladi...

– Filch, nima bo‘lyapti bu yerda?

Garriga yetishiga atigi bir nechta pog‘ona qolgan Filch to‘xtab, ovoz tomon o‘girildi. Zina bo‘sag‘asida, butun maktab ichra Garrining hozirgi holatini yanada murakkablashtirib yuborishga qodir yagona odam Snegg ko‘rindi. Egniga uzun kulrang ko‘ylak kiygan professorning avzoi nihoyatda buzuq.

– Yana o‘sha Dryuzg-da, professor, – ichiqoralik-la pichirladi Filch. – Poltergeyst mana bu tuxumni zinadan uloqtirib yuboribdi.

Snegg tez ko‘tarilib, Filchning yoniga keldi. Yuragining qattiq dukillashi eshitilib fosh etilishiga ishonchi komil bo‘lib qolgan bola tishini mahkam qisib oldi...

– Dryuzg deysizmi? – so‘radi Snegg Filchning qo‘lidagi tilla tuxumga o‘ychan qarab. – Biroq u mening xonamga kira olmaydi...

– Tuxum sizning xizmat xonangizdamidi, professor? – tushunmadi Filch.

– Yo‘q, albatta, – o‘shqirib berdi Snegg. – Men taqir-tuqur tovush-u, chiyillashni eshitdim...

– To‘g‘ri professor, tuxumdan chiqqan ovoz edi u...

– Men nima gap ekanini bilgani chiqdim...

– Uni Dryuzg tashlab yubordi, professor...

– ... xizmat xonamning yonidan o‘tar ekanman, ichkarida mash’ala yonayotgani, javonlardan birining eshigi ochilganini ko‘rdim! Kimdir nimadir qidirib, titkilagan!

– Biroq Dryuzg bunday qila olmaydi...

– Hamma gap shunda-da, Filch! – yana o‘shqirdi Snegg. – Men xonamning eshigini shunday afsun bilan yopamanki, uning ta’sirini faqat sehrgar kishigina bekor qila oladi!

Snegg dastlab Garri orqali yuqoriga, so‘ng pastga, yo‘lakka qaradi.

– Filch, iltimos, men bilan yurib, qulfbuzar o‘g‘rini topishga yordamlashib yuboring.

– Men... albatta, professor... biroq...

Filch shahvat-la, Garri orqali yuqoriga qaradi. Bola nazoratchining poltergeystga zulm o‘tkazish uchun qulay fursatni hech ham qo‘ldan boy bergisi kelmayotganini fahmladi. «Ket, – ich-ichida o‘tindi Garri. – Bor, Snegg bilan ket, yo‘-qol»... Filchning oyog‘i ostida missis Norris o‘ralashmoqda. «Mushuk hidimni sezayotgani aniq, – xayoldan o‘tkazdi Garri. – Vannaga shuncha muattar ko‘pik quyishim shartmidi?»

– Meni to‘g‘ri tushuning, professor, – g‘amgin ohangda o‘zini oqlay boshladi Filch. – Bu safar direktor mening gapimga jiddiyroq e’tibor ajratishga majbur! Dryuzg o‘quvchiga tegishli narsani o‘g‘irladi. Bu esa men uchun poltergeystni qasrdan badarg‘a qildirib, undan batamom qutulishning asosli va yagona imkon bo‘lishi mumkin.

– Filch, tupurdim o‘sha ahmoqona poltergeystning qismatiga. Meni hozir xonam ko‘proq tashvishga solyapti.

G‘irch. G‘irch. G‘irch.

Kutilmaganda unini o‘chirgan Snegg Filch bilan bir vaqtda pastga qaradi. Garri esa ikkalasining boshi orasidan, odatdagiday, asoga tayangan, egnidagi tungi ko‘ylak ustidan eski safar ridosini tashlab olgan O‘ynoqko‘z Xmurini ko‘rdi.

– Bugun pijamada o‘tkaziladigan tungi bayrammi, deyman? – do‘rillab so‘radi Xmuri.

– Professor Snegg ikkalamiz shovqin eshitdik, – darhol javob berdi Filch. – Dryuzg odatiga ko‘ra, qo‘liga kirgan narsani uloqtiradi... bundan tashqari, professor Snegg xizmat xonasiga kimdir kirganini payqabdi...

– Ovozingizni o‘chiring! – pichirlab o‘shqirdi Snegg.

Xmuri zina tomon yana bir qadam tashladi. Garri

Xmurining sehrli ko‘zi dastlab Severusga, so‘ng shubha yo‘qki, o‘ziga qaratilganini ko‘rib turdi. Seskanib ketgan Garrining yuragi to‘xtab qolganday bo‘ldi. Axir, Xmurining ko‘zi ko‘rinmas plash orqali ko‘ra oladi-yu... Manzara hozir qanchalik g‘alati ekanini faqat Xmurigina idrok eta oladi: egniga tungi ko‘ylak kiygan Snegg, tanasiga tilla tuxumni bosib olgan Filch va oyog‘i qopqonga tushgan Garri. Xmurining qiyshiq og‘zi taajjubdan ochilib qoldi. Garri bilan Xmuri bir necha soniya davomida ko‘z urishtirib turishdi. Shundan so‘ng Xmuri og‘zini yopib, moviy ko‘zini Snegg tomon qaratdi.

– Men to‘g‘ri eshitdimmi, Snegg? – dona-dona qilib so‘radi u. – Kimdir qulf buzib kirganmi?

– Nazarimda, o‘quvchilardan biri, – javob berdi yog‘li chakkasida bo‘rtib chiqqan qon tomiri harakatlanayotgan Snegg. – Bunday holat ilgari ham bo‘lgan. Shaxsiy omborim-dan moddalarning ayrim turlari yo‘qolib borgan. Shubha yo‘q-ki, kimdir man etilgan damlama tayyorlamoqchi.

– Demak, fikringizcha, ular damlama uchun giyoh qidirishgan, shundaymi? – so‘roqni davom etdi Xmuri. – Balki, boshqa biron-narsa yashirib yurgandirsiz xonangizda, a?

Jirkanch sarg‘ish yuzi g‘isht tusini olib battar xunuklash-gan Sneggning chakkasidagi tomir harakati yanada tezlashdi.

– Xmuri, yashiradigan narsam yo‘qligi o‘zingizga ma’lum, – tahdid ohangida muloyim javob berdi Snegg. – Chunki xonamni o‘zingiz obdan tintuv qilib chiqqansiz.

– Avror huquqi ila, Snegg. Dambldor kuzatib yurishni amr etgan, – kulib qo‘ydi Xmuri yuzi battar burishib.

– Gap shundaki, Xmuri, Dambldor menga to‘la-to‘kis ishonadi, – mahkam qisilgan tishi orqali vishilladi Snegg. – Xonamni tintuv qilish to‘g‘risida buyruq berganiga ishonmayman!

– Dambldor sizga to‘la-to‘kis ishonadi, albatta, – irillab ma’qulladi Xmuri. – Uni laqma desangiz? yanglishmagan bo‘lasiz, shunday emasmi? Bechora «Yana bir imkon» tushunchasiga ishonadi. Menga kelsak... «O‘tmishning oqlab bo‘lmaydigan dog‘i», tushunchasiga ko‘proq ishonaman. Nimani nazarda tutayotganimni anglayapsizmi, Snegg? Abadiy dog‘...

Snegg Xmurining gapiga juda g‘alati munosabat bildirdi. U, xuddi kutilmagan og‘riqni his etganday, o‘ng qo‘lini chap qo‘lining bilagiga uzatdi.

– Borib yoting, Snegg, – kulib yubordi Xmuri Sneggning harakatini ko‘rib.

– Menga ko‘rsatma berish vakolati berilmagan sizga, – vishilladi Snegg, o‘ziga o‘zi jahl qilganday qo‘lini tushirib. – Maktab hududida tunda yurish huquqi menda ham bor!

– Juda yaxshi. Unday bo‘lsa yo‘lingizdan qolmang, – javob berdi Xmuri tahdidli ohangda. – Hayotning qorong‘i yo‘laklarida yana uchrashib qolarmiz, degan umiddaman... Ha, aytganday, nimanidir tushirib qo‘yibsiz...

Xmuri zinada yotgan Kafanduzd xaritasini ko‘rsatar ekan, Garrining yuragiga pichoq sanchilganday bo‘ldi. Snegg bilan Filch xaritaga yuzlandi. Garri esa har qanday hushyorlikni yig‘ishtirib qo‘yib, Xmurining e’tiborini o‘ziga jalb etish uchun plash ostidagi qo‘lini siltagancha, imo qila boshladi: «Bu meniki! Meniki!»

Snegg egilib, xaritaga qo‘l uzatdi. Uning qabih basharasi nimanidir anglagan kabi tobora munavvar bo‘la boshladi.

– Assio pergament!

Sneggning barmoqlari orasidan sirpanib chiqqan xarita zina pog‘onalari uzra pastga o‘qday uchib, to‘g‘ri Xmurining qo‘liga tushdi.

– Ma’zur tuting, adashdim, – xotirjam tushuntirish bergan bo‘ldi u. – Bu mening buyumim. Ilgari tushirib qoldirganman chog‘i.

Biroq Sneggning qora ko‘zi Filchning qo‘lidagi tuxumdan Xmurining qo‘lidagi pergament orasida yugura boshladi. U o‘zining jirkanch zakovati ila ikkini ikkiga ko‘paytirib bo‘lganini Garri fahmladi.

– Potter, – dedi past ovozda Snegg.

– Nimadir deganday bo‘ldingizmi? – so‘radi Xmuri xaritani o‘rab, kissasiga yashirar ekan.

– POTTER! – o‘kirib yubordi Snegg.

U boshini ortga o‘girib, xuddi ko‘rish qobiliyatiga ega

bo‘lib qolganday chindan ham Garri turgan tomonga qaradi.

– Mana bu tuxum Potterga tegishli. Anavi pergament bo‘lagi ham Potterniki. O‘sha qog‘ozni ilgari ko‘rganman, men uni tanidim! Potter qayerdadir shu yerda! Ko‘rinmas plash ostida!

Snegg so‘qirga o‘xshab qo‘lini oldinga uzatgancha, zinadan ko‘tarila boshladi. Qopqonga tushgan Garrining hidini his etish uchun g‘ayritabiiy keng burun kataklari battar kattalashdi. Sneggning barmoqlari tegib ketmasligi uchun bechora Garri tanasini imkon qadar orqaga egishga majbur bo‘ldi... yana ikki-uch millimetr...

– U yerda hech kim yo‘q, Snegg! – baqirdi Xmuri. – Biroq bor aybni Potterning gardaniga yuklashga uringaningiz haqida direktorga bildiruv berishdan xursand bo‘laman!

– Bu bilan nima demoqchisiz? – akilladi Snegg boshini Xmuri tomon burib.

Uning uzatilgan qo‘li Garrining ko‘kragiga tegay deb turibdi.

– Aytmoqchimanki, mazkur maktabda o‘sha boladan nafratlanadigan kishi kim ekani Dambldorni juda qiziqtirmoqda! – dedi Xmuri zinaga yanada yaqinroq kalovlanib. – Meni ham agar bilmoqchi bo‘lsangiz, juda qiziqtiradi.

Mash’ala nuri badburush basharadagi ajinlar-u, burundagi yetishmayotgan bo‘lak o‘rnini aniq yoritdi.

Snegg pastga, Xmuriga qarab qolgani bois uning yuzi kasb etgan qiyofa Garriga ko‘rinmadi. Hamma jim bo‘lib, hech kim qilt etmadi. Sal o‘tib, Snegg qo‘lini tushirdi.

– Men faqat, – ilojsiz ohang-la gap boshladi u, – agar Potter o‘zining ahmoqona odatiga ko‘ra man etilgan vaqtda sandiroqlab yurgan bo‘lsa... uni to‘xtatib qolish kerak, degan fikrga borgan edim, xolos. Aynan Potterning manfaatlarini ko‘zlab...

– Sizni tushunganday bo‘ldim, shekilli, – muloyim ohangda javob berdi Xmuri. – Potterning manfaatlarini himoya qilyapman, deng?

Yana sukunat. Snegg bilan Xmuri bir-biriga teshib yuborguday qarab qolishdi. Filchning oyog‘i ostida o‘ralashayotgan

missis Norris esa vanna ko‘pigining hidini taratayotgan manbani topishga chiranmoqda.

– Fikrimcha, yotadigan vaqtim bo‘ldi, – qisqa qildi Snegg.

– Sog‘lom fikr, – chaqib oldi Xmuri. – Endi, Filch, marhamat qilib tuxumni bu yoqqa uzatsangiz...

– Yo‘q! – e’tiroz bildirdi Filch, tilla tuxumni ko‘z ochib ko‘rgan yagona farzandini ko‘kragiga bosganday quchib. – Professor Xmuri, bu buyum Dryuzgning o‘g‘irlik qilganini isbot qiladigan ashyoviy dalildir!

– Bu chempionlikka da’vogarning buyumi. Dryuzg uni o‘g‘irlagan. Uni menga bering dedim, iltimos, – amr etdi Xmuri.

Snegg boshqa biron og‘iz so‘z aytmay, Xmurining yonidan o‘tgancha, shiddat-la pastga tushib ketdi. Filch missis Norrisni chiriqlab chaqirdi. O‘girilib, sohibining ketidan ergashib ketishdan oldin mushuk yana bir necha soniya Garrining ko‘ziga qarab turdi. Bolaning qulog‘iga Sneggning uzoqlashib borayot-gan qadam tovushi eshitildi.

– Hech qisi yo‘q, azizam. Ertalab Dambldorning huzuriga borib, o‘g‘ri Dryuzg haqida aytib beramiz, – mushugiga shikoyat qildi Filch tilla tuxumni Xmuriga topshirib.

Nazoratchi ham ko‘zdan g‘oyib bo‘lgach qayerdadir eshik taraqlagani eshitildi. Garri bilan tanho qolgan Xmuri qo‘lidagi asoni zinaning birinchi pog‘onasiga yotqizib, yog‘och oyog‘ini g‘ichirlatgancha, mashaqqat-la yuqoriga ko‘tarila boshladi.

– Sal qoldi, Potter, qo‘lga tushishingga, – vaysadi u.

– A... ha... men... rahmat, – bedarmon ohangda g‘o‘ldiradi Garri.

– Nima o‘zi bu? – so‘radi Xmuri kissasidan Kafanduzd xaritasini chiqarib.

– «Xogvars» xaritasi, – javob berdi oyog‘i og‘riyotgan Garri qopqondan xalos bo‘lish uchun Xmuridan umid qilib.

– O, Merlin soqoli, – xitob qildi sehrli ko‘zi o‘ynab ketgan Xmuri. – Mana buni qarang-a, zo‘r-ku, Potter, qarang-a!

– Ha, bu... juda foydali buyum, – dedi og‘riqdan ko‘ziga yosh kelayotgan Garri. – M-m-m... professor Xmuri, malol kelmasa yordam berib yuborsangiz...

– Nima? O! Ha, albatta...

Xmuri Garrining qo‘ltig‘idan tutib tortdi. Oyog‘i qopqondan xalos bo‘lgan bola bir pog‘ona yuqoriga sakrab o‘tdi. Xmuri esa hamon ko‘zini xaritadan uza olmayapti.

– Potter, – asta gap boshladi u. – Sneggning xizmat xonasiga kim kirganini ko‘rganing yo‘qmi mabodo? Xaritani nazarda tutyapman?

– M-m-m... umuman aytganda, ko‘rdim... – iqror bo‘ldi Garri. – Shuning uchun ham tushgan edim bu yerga. Mister Sgorbs edi.

Sehrli ko‘z xarita yuzasini yana bir bor shiddat-la o‘rganib chiqdi.

– Sgorbs? Ishonching komilmi, Potter?

– Mutlaqo.

– Hm. Endi ko‘rinmayapti, – dedi xaritadan uzilmagan sehrli ko‘zi tinmay yugurayotgan Xmuri. – Sgorbs... qiziq... juda qiziq.

Xmuri xaritani deyarli bir daqiqa kuzatib turdi. Bunday yangilik Xmuri uchun qandaydir ahamiyatga ega bo‘lganini Garri tushundi. Biroq qanday ahamiyatga? So‘rab bilmoqchi bo‘ldi-yu, ikkilandi. Xmuri har qanday kishini hayiqtirib yuboradi... lekin u Garriga ko‘p yordam berdi...

– E-m-m... professor Xmuri... Nima deb o‘ylaysiz, Sneggning xonasini titish mister Sgorbsga nimaga kerak bo‘lib qoldi ekan?

Xaritadan uzilib, biroz titragan sehrli ko‘z Garriga teshib yuborguday qarab, tek qotdi. Xmuri o‘z javobini, umuman ja-vob berish kerakmi-yo‘qmi, javob berish kerak bo‘lsa, nima deyish mumkin-u, nimani aytmaslik kerakligini batafsil o‘ylayotgani bilindi.

– Gap mundoq, Potter, – nihoyat g‘udulladi u. – O‘zingga ma’lumki, meni, ya’ni keksa O‘ynoqko‘zni ta’qib vasvasasiga yo‘liqqan, deyishadi. Qayerda bo‘lmay, ko‘zimga yovuz sehrgarlar ko‘rinaverar emish. Biroq shuni aytishim mumkinki, O‘ynoqko‘z Xmuri Barti Sgorbs bilan qiyoslanadigan bo‘lsa, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan kishiday ko‘rinadi.

U e’tiborini yana xaritaga qaratdi. Garrining esa tagpursligi tutib qoldi.

– Professor Xmuri! – yana murojaat qildi u o‘qituvchiga. – Mister Sgorbs bu yerda... nimalardir bo‘layotganini gumon qilib yurgan bo‘lsa-chi. Shunday xayolga bormaysizmi?

– Masalan? – shu zahoti so‘radi Xmuri.

Garri nima deyishni o‘ylab qoldi. «Xogvars» tashqarisida yurgan axborot manbasiga ega ekanini Xmuri anglab yetib, Sirius to‘g‘risida nodarkor savollar yog‘dirishini istamadi.

– Bilmadim, – dedi bola nihoyat. – So‘nggi vaqtda juda g‘alati hodisalar ro‘y bermoqda, shunday emasmi? «Bashorat-u karomat gazetasi»da ham bu haqda yozishmoqda... Final o‘yini kuni paydo bo‘lgan Ajal belgisi, O‘limdan miriquvchilar va hokazo... Xmurining ikkala ko‘zi katta-katta ochilib ketdi.

– Aqlli bola ekansan, Potter, – dedi u, sehrli ko‘zini yana xaritaga tushirib. – Sgorbs ham shunday fikr yuritayotgan bo‘lsa, ajab emas, – asta davom etdi u. – Bo‘lishi mumkin... Chindan ham so‘nggi vaqtda, Rita Vriterning vositachiligi tu-fayli, albatta, har xil jumboqli mish-mish gaplar yuribdi. Shu sababdan ham ko‘pchilik asabiylashgan, – g‘udulladi u Garriga emas ko‘proq o‘ziga o‘zi murojaat qilgancha, sehrli ko‘zini xaritaning pastki chap burchagiga yo‘naltirib. – Oh, Garri, agar bilmoqchi bo‘lsang, bu yorug‘ olamda men nafratlanadiganlar – ozodlikda yurgan O‘limdan miriquvchilardir...

Garri professorga baqrayib qoldi. Nahotki Xmurining fikri Garrining fikr-mulohazalari bilan mushtarak bo‘lsa.

– Endi men bir narsa so‘ramoqchiman, Potter, – dedi Xmuri jiddiy ohangda.

Garrining yuragi shuv etib ketdi. Hozir Xmuri ushbu shubhali sehrli buyumni qayerdan olgani haqida so‘roq boshlaydi. Kafanduzd xaritasining tarixi esa nafaqat Garrining o‘zini, balki uning otasi, Fred va Jorj Ueslilar, yovuz kuchlardan himoya fanining o‘tgan yilgi o‘qituvchisi professor Lyupinni jinoyatchilar guruhiga aylantirib qo‘yadi. Xmuri xaritani Garrining yuzi oldida silkitdi...

– Vaqtincha foydalangani berib tura olasanmi uni menga?

– O! – xitob qildi Garri. – Ha, albatta.

Garri xaritadan mahrum bo‘layotganiga achindi-yu, ayni vaqtda Xmuri ortiqcha savol-javob qilmaganidan suyundi. Buning ustiga ko‘rsatgan yordami uchun unga biron-bir yo‘sinda minnatdorlik bildirish kerak-ku, axir.

– Yaxshi bola ekansan, – do‘rillab qo‘ydi Xmuri. – Undan juda unumli foydalanaman... juda... Ayni shu narsa yetmay turgan edi menga... Xo‘p, mayli Potter, izzating borligida borib yot. Ko‘rpaga, tez...

Ikkalasi birga yuqoriga ko‘tarildi. Xmuri sehrli ko‘zini, xuddi bir umr qidirgan xazinasini topib tomosha qilayotganday, xaritadan uza olmadi. Ular Xmurining xizmat xonasigacha churq etmay borishdi.

– Avror bo‘lish haqida hech o‘ylab ko‘rganmisan, Potter? – so‘rab qoldi xonasiga yetgan o‘qituvchi.

– Yo‘q, – dedi Garri kutilmagan savoldan hayron bo‘lib.

– Bekor qilasan, – dedi boshini chayqagancha, Garriga qarab qolgan Xmuri. – Chindan ham... ha, aytganday... tuxum bilan tunda shunchaki sayrga chiqmagan bo‘lsang kerak?

– Hm... yo‘q... – irshaydi Garri, uzatilgan tuxumni olib. – *Shunchaki emas... jumboqni hal etishga urinyapman.*

Xmuri ko‘z qisib qo‘ydi. Uning sehrli ko‘zi xuddi quturib ketganday yana aylana boshladi.

– Fikr yuritish uchun tungi sayrdan a’lo narsa o‘ylab topilgani yo‘q hali, Potter... Ertalab ko‘rishguncha...

Xmuri Kafanduzd xaritasiga termilgancha, xonasiga kirib, eshigini yopib oldi. Garri esa Snegg, Sgorbs va bo‘lib o‘tgan hodisa haqida o‘ylangancha, «Griffindor» minorasi tomon asta-sekin yo‘l oldi... Nega «Xogvars»ga yetib olishga qodir Sgorbs o‘zini kasalga solib oldi? Sneggning xonasida nima qidirdi u?

Xmuri esa Garrini avror bo‘lishi kerak, deb o‘ylaydi! Umuman aytganda, qiziq g‘oya... Lekin o‘n daqiqadan so‘ng tuxum bilan plashni sandig‘iga joylab, karavotiga cho‘zilgan bola o‘ylanib qoldi: «Bunday kasb va hayotiy yo‘lni tanlashdan oldin qolgan avrorlarning ham a’zoyi badanidagi chandiqlar shunchalik ko‘pmi-yo‘qmi, bilish kerak».

XXVI BOB. IKKINCHI MUSOBAQA

– Tuxum masalasini hal etdim, degan eding-ku! – e'tiroz bildirdi Germiona, ovoz ko'tarib.

– Baqirma! – jahl qildi Garri. – Men... Ba'zi narsalarni aniqlab olishim kerak edi.

Uchovlon afsun o'qish fani xonasining oxirgi partasida o'tirib, Buyum chaqirish afsunining teskarisi – Buyum haydash afsunini mashq qilib, ijrosini me'yoriga yetkazmoqda go'yo.

Sinf bo'ylab uchadigan jismlarni xavf manbasi, deya e'tirof etgan o'qituvchi o'quvchilar ixtiyoriga bir dunyo yostiq havola etdi. Aftidan, bunday chora ko'rgan professor Flitvik, ushbu yostiqlar ko'zlangan nishonga tegmay, yonidan uchib o'tgan taqdirda ham hech kimga jabr yetkazmaydi, degan nazariy mulohazani ilgari surgan ko'rinadi. Umuman aytganda, uning nazariyasi yaxshi edi, albatta. Biroq amaliyotda o'z tasdig'ini topmadi. Xususan, Nevillning nishonga olish ko'nik-masi shu qadar yomon shakllangan ediki, ba'zan yostiq qolib nisbatan og'irroq narsalar, chunonchi professor Flitvikning o'zini uchirib yubordi.

– O'sha kasofat tuxumni biror daqiqaga bo'lsin, unuta olasanmi? – vishilladi Garri, yonidan uchib o'tgan professor Flitvikning javon ustiga borib qo'nishini kuzatib. – Men sizlarga Snegg bilan Xmuri o'rtasidagi muloqot haqida aytib bermoqchiman...

Sirli mavzudagi suhbat uchun bugungi afsun o'qish darsi juda qulay bo'ldi. Sinfdoshlarning bari vaqtichog'likka berilib ketishgan. Hamma o'zi bilan o'zi ovora, birovning birov bilan ishi yo'q. Garri yarim soat davomida kechagi sarguzashtlarini lavhalarga bo'lib, ba'zi joylarini takroran aytib berdi.

– Demak, Sneggning gapiga qaraganda, Xmuri ham xonani tintuv qilib chiqqan ekan-da? – pichirladi ko'zi jonli yarqirab ketgan Ron, tayoqchasini dag'al siltagancha, yostiqlardan birini o'zidan nari haydab. – Fikringcha, Xmuri maktabga nafaqat Karkarov, Sneggni ham kuzatib yurish uchun kelganmi?

Ronning yostig'i o'qday uchib, Parvattining boshidagi shlapasini uchirib yubordi.

– Dambldor Sneggni kuzatib yurish vazifasini qo'ygan-qo'ymaganini bilmadim-u, lekin Xmuri aynan shu ish bilan band ekanini angladim, – dedi Garri, tayoqchasini maqsadsiz siltagancha, stol ustidagi yostiqlardan birini beo'xshov tushirib yuborib. – Xmurining gapidan shuni tushundimki, Dambldor Severusga yana bir imkon bergan. Shuning uchungina u maktabda ishlayotgan emish, agar men to'g'ri fahmlagan bo'lsam, albatta...

– Nima?! – xitob qildi ko'zi katta ochilib ketgan Ron, yostiqdan chalg'ib. – Garri, balki, Xmurining gumonicha, sening nomingdan yozilgan arizani Olov kubokiga Snegg tashlagandir?

Ron ko'targan yostiq havoda buralib aylangancha, chil-chiroqdan sapchib, o'qituvchining stoliga shalp etib tushdi.

– Hoy Ron, es-hushingni yig'ib, jo'yali mulohaza yuritib ko'r. Biz ilgari ham, agar esingda bo'lsa, Snegg Garrini o'l-dirish payida yuribdi, degan fikrga borgan edik, – shubhali ohangda fikr bildirdi Germiona. – Aslida esa u, aksincha, namoyishgohda Garrining hayotini saqlab o'tirgan ekan.

Germiona tomonidan gap orasida haydalgan yostiqlardan biri o'qituvchi tayinlagan joyga, ya'ni yashik ichiga borib tushdi.

Garri Germionaga o'ychan baqrayib qoldi. Garchi Garri-dan o'z vaqtida uning otasidan nafratlangan kabi nafratlanib, ko'rgani ko'zi, otgani o'qi bo'lmasa-da, chindan ham Snegg Garrining hayotini saqlab qolgan edi. Bolaning fikricha, Sneggning ushbu yorug' olamda eng yaxshi ko'rgan ishi – «Griffindor» fakultetidan Potter tufayli ball ayirish, Garrining o'ziga esa mehnat jazosini tayinlashdir. Qulay fursat kelishi bilan har safar bolani maktab o'quvchilarining ro'yxatidan chetlashtirish darkorligi haqida fikr bildirib boradi.

– Xmuri nima deb aljiragani bilan ishim yo'q, – fikrini davom etdi Germiona. – Dambldor ahmoq emas. U bir vaqtlar hamma jirkanib, o'ziga yaqin yo'latishni xayoliga ham keltir-magan Xagrid bilan professor Lyupinga ishonch bildirib, ishga olgan. Nega endi Severusga nisbatan adashdi, degan xulosaga

borish kerak? Garchi Snegg biroz...

– Jirkanch, qabih va murdor bo‘lsa-da, – Germionaning fikrini tezroq va to‘g‘riroq yakunlashga oshiqdi Ron. – Qo‘y-sang-chi, Germiona! Nega bo‘lmasa yovuz sehrgarni ovlab yuradigan avrorlar uning xonasini vaqti-vaqti bilan tintuv qilib borish payida yurishadi?

– Va nima uchun mister Sgorbs o‘zini kasalga solib yuribdi? – dedi Germiona Ronning gapiga e’tibor qilmay. – Rojdestvo baliga kelishga madori yo‘g‘-u, qasr ahli yettinchi tushini ko‘rib yotgan paytda Sneggning xonasiga o‘g‘rincha kirib olish uchun kuch-quvvati yetarlidan ortiq! Ja-a g‘alati emasmi, a?

– Sen Sgorbsni uning elfi Vinki tufayli yomon ko‘rasan, – xulosa qildi Ron, navbatdagi yostiqni deraza oynasiga qapishtirib qo‘yib.

– Sen esa Snegg biron-bir qabih ishga jazm qilgan deb yurishni istaysan, – javob berdi Germiona, keyingi yostiqni ham yashik ichiga batartib joylab.

– Meni esa, modomiki, yana bir imkon berilgan ekan, Snegg o‘zining ilk imkonini, ya’ni odamlar ishonchini qay tarzda yo‘qotib qo‘ygani qiziqtiradi, – dedi Garri, g‘amgin ohangda.

U uchirgan yostiq butun sinf bo‘ylab uchib o‘tib, Germionaning yostig‘i ustiga astagina borib qo‘ndi.

***

Siriusning «Xogvars»da ro‘y berayotgan g‘ayrioddiy hodisalar haqida xabardor qilib borish to‘g‘risidagi iltimosini bajargan Garri, ushbu oqshom o‘tirib, kecha bo‘lib o‘tgan voqeani, jumladan mister Sgorbs Sneggning xonasiga qulf buzib kirgani va Snegg bilan Xmuri o‘rtasida bo‘lib o‘tgan suhbatni batafsil bayon etdi. Shundan so‘ng eng muhim muammoni, xususan 24-fevral kuni suv ostida bir soat suzib, o‘lmay chiqish muammosini hal etishga kirishdi.

Ron yana bir bor Buyum chaqirish afsunidan foydalanish kerakligini maslahat berdi. Negaki Garri unga magl g‘avvoslar

va ular ishlatadigan akvalang[1] apparatlari haqida aytib berdi. Shu bois Ron ushbu apparatlardan birini magllarning yaqin o'rtadagi shahridan chaqirib olishga xalal beradigan sabab ko'rmadi. Germiona esa ushbu fikrni puchga chiqardi. Qizning fikricha, agar Garri akvalangdan qanday foydalanish kerakligini bir soat ichida o'rganib olgan taqdirda ham, Sehrgarlik faoliya-tini sir tutish to'g'risidagi xalqaro bitim shartlarini buzganlikda ayblanib, sehr-jodu bilan shug'ullanish huquqidan mahrum bo'ladi. Darhaqiqat, yurt uzra uchayotgan akvalang apparatini birorta ham magl ko'rmaydi deb bo'lmaydi-ku, axir.

– Suv osti kemasi yoki shunga o'xshash narsaga aylanib qolsang, boshqa gap, – fikr bildirdi Germiona. – Odamning boshqa narsaga aylanishini o'tganimizda edi! Biroq bunday darslar, menimcha, oltinchi sinfdan boshlanadi. Agar qanday ish tutishni bilmasang, aylanish jarayoni noto'g'ri kechadi. Aynan shu sababli ham bellashuv ishtirokchilarining yoshi cheklangan bo'lsa kerak...

– Ha, peshanamda periskop[2] qolib ketgan ahvolda yurishni istamayman, – bosh irg'idi Garri. – Xmurining ko'z oldida biron kishiga zimdan hamla qilsam bo'ldi. U biladi nima qilishni...

– To'g'ri. Faqat u seni baliqqa aylantirib qo'yishiga shubha qilaman, – jiddiy e'tiroz bildirdi Germiona. – Qisqasi, biron-bir tilsim qidirib topishimiz kerak.

Shunday qilib Garri, ovqatdan ko'ra ko'proq kitobga to'yishini his etgan holda yana chang bosgan kitob jildlariga ko'milib, kislorodsiz qolgan inson zotiga bir soat davomida tirik qolish imkonini beradigan tilsim qidirishga kirishdi. Ishga uch kishilashib sho'ng'ib ketishganiga, tushlik tanaffuslari, barcha oqshomlar-u, dam olish kunlarini sarf etishganlariga, Garri professor Makgonagalldan maktab kutubxonasining maxfiy bo'limida saqlanadigan kitoblardan foydalanish huquqini beradigan ruxsatnoma olganiga, kutubxonaning oriq, o'z vajohati ila

[1] **Akvalang** – suv ostida bemalol nafas olib suzishga imkon beradigan apparat.

[2] **Periskop** *(yunoncha: periskopéo — atrofni ko'ryapman, ko'zdan kechiryapman)* – pana joyda (okop, blindaj va hokazo) turib, tank yoki suv osti kemasidan kuzatishga moslangan durbinsimon optik asbob.

och qolib ketgan jo‘rchi qushni eslatadigan badjahl xodimi Ships xonimga yordam so‘rab murojaat qilganiga qaramay, kishi suvga sho‘ng‘ib, bir soat o‘tgach, tirik chiqishiga omil bo‘ladigan biron-bir ma’lumot topishga erishilmadi.

Garrining vujudini odatiy vahima qamray boshlab, fikr-xayolini dars mavzulariga jamlay olmadi. Derazaga yaqin kelishi bilan tashqi manzaraning ajralmas qismi sanaladigan, ko‘ziga deyarli ilg‘amas bo‘lib qolgan ko‘l endi yirik, kulrang po‘lat tusli, Oygacha qancha masofa bo‘lsa, sirli, sovuq chu-qurligi ham shuncha keladigan dahshatli suv havzasiday ko‘rina boshladi.

O‘tgan safar, tikanak dumli venger ajdari bilan yuzma-yuz kelishdan oldin, vaqt qanchalik tez o‘tgan bo‘lsa, bu gal uning tezligi ikki baravar oshib, shiddat-la kechmoqda. Go‘yo hozirgina, 24-fevralgacha butun boshli hafta bor edi («A, hali vaqt bisyor»), endi esa besh kun («Men, albatta, biron narsa o‘ylab topaman»)... uch kun qoldi («E Xudo, o‘zing yorlaqa, biron narsa o‘ylab topayin, iltimos»)...

Ikki kun qolganda Garrining ishtahasi yo‘qoldi. Yagona dilkash ish dushanba kungi nonushta mahalida Siriusga yo‘llangan boyqushning qaytib kelgani bo‘ldi. Garri keltirilgan javobni olib, Sirius tomonidan yozilgan xatlar orasida eng qisqasini o‘qidi:

Zudlik bilan Xogsmyodga uyushtiriladigan keyingi safar sanasini yozib yubor.

Garri yana biron narsa o‘qish ilinjida pergamentning orqa tomonini o‘girib ko‘rdi. Hech narsa yo‘q.

– Bir dam olish kuni o‘tib, keyingisida uyushtiriladi, – pichirladi Germiona xatni Garrining yelkasi orqali o‘qib. – Ma, patqalamimni olib, javobini hozirning o‘zida yozib yubor.

Garri Siriusdan kelgan xatning orqasiga sanani yozib, pergamentni boyqushning panjasiga bog‘ladi-da, uchib ketishini kuzatib o‘tirdi. Xo‘sh, boshqa nimani ham kutishi mumkin edi u? O‘sha oqshom Siriusga xat yozib, Snegg bilan Xmuri o‘rtasidagi

munosabatlarni bayon etishga berilib, tuxum ichidan eshitilgan qo'shiq misralarini yozib yuborish xayoliga ham kelmadi.

– Safar sanasi unga nimaga kerak bo'lib qoldi ekan? – so'radi Ron.

– Men qayerdan bilay, – ma'yus javob berdi Garri, xat tufayli his etgan quvonchi bir zumda barham topib. – Yuringlar, sehrli hayvonlarni parvarish qilish darsiga...

Xagrid ishga qaytgan kundan buyon, yo drakllar tomoni-dan muqaddam yetkazilgan noxushliklar uchun badal tariqa-sidami, yo atigi ikkita drakl qolgani boismi, balkim, bilimi professor Gniller-Plankdan kam emasligini ko'rsatib qo'yish maqsadida bo'lsa kerak, ishqilib, yakkashox otlar haqidagi mavzuni davom etdi. Aniqlanishicha, Xagridning bunday hay-vonlarga oid bilimlari, garchi u yakkashox otlarning zaharli tishi bo'lmaganini noxush holat deb topsa-da, har xil maxluqlar haqidagi bilimlaridan hech ham qolishmas ekan.

Xagrid bugungi darsi uchun yakkashox otlarning ikkita toychog'ini tutib kelishga muvaffaq bo'libdi. Yetilgan yakka-shox otlardan farqli o'laroq toychoqlar sof tillarang bo'lar ekan. Bunday chiroyli hayvon bolasini ko'rgan Parvatti bilan Lavan-daning tutqanog'i tutib qolishiga sal qoldi. Hatto slizerinchi qiz Pansi Parkinson ham o'zini bazo'r idora qilib turdi.

– Yetilgan yakkashox otdan ko'ra toychog'ini ko'rib qolish osonroq kechadi, – ma'lumot berdi Xagrid. – Toychoq kumush tusni ikki yoshga to'lganda kasb etadi, shoxi esa taxminan to'rt yoshga yetganda ko'rinish beradi. Faqat to'liq yetilgandagina tanasi sof oq rang oladi. Bu esa yakkashox ot yetti yoshga yetganida ro'y beradi. Ushbu hayvonning yangi tug'ilgan bolasi kattalariga nisbatan ishonuvchan, laqmaroq bo'ladi. O'g'il bola-larga nisbatan ham u qadar salbiy munosabat bildirmaydi... yaqinroq kelib, silab qo'yishingiz mumkin... mana bu qanddan bering ularga...

O'quvchilarning aksariyati toychoqlar bilan ovora bo'lib qolishgach, Xagrid chetga o'tib, Garridan hol-ahvol so'radi:

– Qalaysan, Garri, ishlaring yaxshimi?

– Ha.

– Qo‘rqyapsanmi?

– Biroz.

Xagrid o‘zining nihoyatda yirik kaftini Garrining yelkasiga qo‘ygan ediki, qo‘l vaznidan bolaning tizzasi bukilib ketdi.

– Garri, to‘g‘risini aytsam, tikanak dumli ajdarni bir yoqli qilganingni o‘z ko‘zim bilan ko‘rgunimcha, men ham qo‘rqqan edim. Endi esa yo‘q, qo‘rqmayman. Shuni bilamanki, agar sen istasang, tog‘ni tolqon qilib tashlaysan. Topishmoq javobini topding-ku, shundaymi?

Garri bosh irg‘idi. Ayni vaqtda Xagridga iqror bo‘lgisi, qanday qilib bir soat davomida ko‘l tubida suzib yurish va suvdan o‘lmay chiqishni tasavvur ham qila olmasligini aytgisi keldi. «Balki, Xagridga vaqti-vaqti bilan ko‘l ostiga tushib, u yerda yashaydigan maxluqlar bilan allaqanday tarzda muloqot qilib turishga to‘g‘ri kelar», – xayoldan o‘tkazdi Garri, davangir do‘stiga qarab. – «Maktab hududi-yu, unda yashovchilardan ko‘z-quloq bo‘lib turishi kerak emasmi, axir u?...»

– Sen, albatta, g‘olib chiqasan, Garri, – do‘rilladi Xagrid bolaning yelkasiga qoqib.

Do‘stona berilgan «muloyim» zarbadan Garrining oyog‘i loyga botdi.

– Aniq bilaman, – harakatini davom etdi chala zot gigant. – Men buni his etyapman. Sen, albatta, g‘olib chiqasan, Garri.

Xagridning yashnab turgan yuzida shunday baxtiyor, shunday ishonchli tabassum ko‘rindiki, Garri do‘stining hafsalasini pir qilgisi kelmadi. U javoban irshayib, o‘zini toychoqlar bilan qiziqayotgan ko‘yga soldi-da, oyog‘ini loydan bazo‘r sug‘urib yakkashox ot toyini silagani odimladi.

***

Ikkinchi musobaqa arafasida, kechga yaqin, Garri, o‘zini xuddi alog‘-chalog‘ tush ko‘rib, og‘ir uyqudan uyg‘ona olmayotgan odamday his etdi. Agar shuncha vaqtdan buyon qidirgan tilsimni hozir topgan taqdirda ham uning ijrosini ayonki bir kechada o‘zlashtira olmaydi. Nega ishni shunday ayanchli

holatga keltirib qo'ydi u? Nega ertaroq boshlamadi jumboq yechimi ustidagi ishlarini? Nega u doimo darsga quloq solmay o'tiradi? Balki, o'qituvchilardan birortasi aytib o'tgandir, suv tagida qanday nafas olish kerakligini?

Deraza ortida quyosh botyapti. Uchovlon kutubxonada, kitoblar uyumi orasiga kirib ketgancha, sahifa titkilab, ko'z yugurtirib o'tiribdi. Har safar «suv» so'ziga ko'zi tushgan Garrining yuragi hayajondan taka-puka bo'lar, biroq aksariyat hollarda bu: «*ikki pinta suv, mandragoraning yarim funt*[1] *to'g'ralgan bargi va bitta amfibiya*[2] *oling-da, ularni...*» kabi damlama tayyorlash usuli yoki shunga o'xshash befoyda yo'riqlar bo'lib chiqar edi.

– Nazarimda, ishlar pachavaga borib taqaldi, – xulosa chiqardi stolning narigi tomonida o'tirgan Ron umidsiz ohangda. – Bu yerda hech narsa yo'q. Hech narsa. Yagona tilsim – hovuz va ko'lmaklarni qaqratish uchun qo'llaniladigan Quritish afsuni bor ekan, xolos. Biroq bunday afsun qudrati ko'lni quritib yuborish uchun yetmaydi.

– Nimadir bo'lishi kerak-ku, axir... – g'udulladi kuchli toliqqan Germiona, «Qadimgi va unutilgan sehr-jodular» manuskriptining[3] mayda satrlarini o'qish uchun shamni yaqinroq surib. – Ular hech qachon ijrosining iloji bo'lmagan vazifa qo'yishmaydi.

– Mana, qo'yishibdi-yu, – e'tiroz bildirdi Ron. – Xullas, Garri, gap mundoq. Ertaga ko'l sohiliga borasan-da, boshingni suvga tiqib: «Qani, nimani shilib ketgan edilaring, tez qayta-ringchi» deya suv parilariga o'shqirib berasan, vassalom. Keyin nima bo'lishini tomosha qilib o'tiraverasan. Bundan boshqa chora yo'q. Qo'lingdan kelgani shu bo'ladi.

– Bo'lishi kerak, yo'li bo'lishi kerak! – g'azab-la gapni bo'ldi Germiona. – Bo'lishi shart!

---

[1] **Funt** (*lotincha:* pondus – vazn, og'irlik) – 1) ingliz o'lchov tizimida asosiy massa birligi. 1 funt (savdoda)=0,409512 kilogramm; 1 funt dorixonada) =0,35832336 kilogramm; 2) rus o'lchov tizimida massa birligi: 1 funt =0,40951241 kilogramm.

[2] **Amfibiya** (*yunoncha:* amphibios – ikki xil hayot kechiruvchi) – umurtqalilarning bir sinfi, suvda va quruqlikda yashashga moslangan jonivorlar.

[3] **Manuskript** – qadimgi qo'lyozma kitob.

Qiz kutubxonadek joyda zaruriy axborot yo‘qligini shaxsi haqoratlangandek qabul qilmoqda, shekilli. Shu bugungacha kitoblar hech pand bermagan edi unga.

– Nima qilish kerakligini endi tushundim, – g‘udulladi Garri «Har bir firibgar uchun makkorona nayranglar» kitobiga boshini qo‘yib. – Siriusga o‘xshab animag[1] bo‘lib olishim kerak ekan.

– To‘ppa-to‘g‘ri. Shunda sen har qanday fursatda oltin baliqchaga aylanib olar eding! – ma’qulladi Ron.

– Yoki qurbaqaga, – esnadi o‘lgudek toliqqan Garri.

«Sehr-joduga oid jiddiy muammolar va ularni hal etish yo‘llari» kitobining mundarijasiga ko‘z yugurtirgan Germiona parishonxotirlik bilan fikr bildirdi:

– Animag bo‘lish uchun ko‘p yillar kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, Buyuk Britaniya Sehrgarlik vazirligi Sehrgarlik va afsungarlik faoliyati ustidan nazorat bo‘limida yuritiladigan maxsus ro‘yxatdan o‘tish kerak va hokazo. Professor Makgonagallning darsida sehrgar-animaglar mavzusini o‘tganmiz. Uning gapiga qaraganda o‘z ixtiyori bilan hayvonga aylanishi mumkin bo‘lgan sehrgar erkak va ayollarga doir hujjatlar to‘plamida barcha ma’lumotlar, ya’ni ular qanaqangi hayvonga aylana olishlari, hayvon qiyofasidagi o‘ziga xos alomatlari va hokazo aks etiladi. Bularning bari tegishli Nizomda bayon etilgan talablarni...

– Germiona, hazillashdim, – to‘xtatdi uni Garri. – Tonggacha baqaga aylanishni o‘zlashtira olmasligimni bilaman...

– Bularning bari befoyda, – dedi qo‘lidagi kitobni qarsillatib yopgan Germiona. – Burun katagi ichida gajak o‘stirish kimga kerak ekan?

– Shaxsan men e’tiroz bildirmagan bo‘lar edim, – kutilmaganda yangradi Fredning ovozi. – Nima qilibdi, muhokama uchun doimiy mavzu bo‘ladi.

Garri, Ron va Germiona boshlarini ko‘tarib, kitob tokchalarining ortida turgan egizaklarni ko‘rishdi.

---

[1] **Animag** (*lotincha;* animagus) – G‘arbiy Yevropa afsonalarida aytilishicha, odamdan hayvonga va hayvondan odamga aylana olish sehr-jodusini o‘zlashtirgan va egallagan sehrgar.

– Ikkalangiz nima qilyapsiz bu yerda? – hayron bo‘ldi Ron. – Kutubxona-yu bu yer! Nahotki ikkalangiz kitob o‘qishni bilsangiz?!

– Seni qidirib yuribmiz, – javob berdi Jorj. – Seni Makgonagall chaqiryapti, Ron. Seni ham Germiona.

– Nima uchun? – taajjublandi Germiona.

– O‘limimdan xabarim bor-u, bundan xabarim yo‘q. Biroq kampirning afti-angori juda noxush, qovog‘idan qor yog‘ilib turibdi.

Ron bilan Germiona ichida nimadir uzilib ketgan Garriga qarab qo‘yishdi. Nahotki professor Makgonagall ularni koyib bersa? Haddan ortiq yordam berishganiga e’tibor berdimikan? Chempionlikka da’vogar esa o‘z vazifasini o‘zi mustaqil hal etishi lozim. Unga birovning yordam qo‘lini qabul qilishga ruxsat berilmaydi.

– Mehmonxonada ko‘rishguncha, – dedi Germiona. – Kitoblardan ko‘targaningcha olib bor, xo‘pmi?

Ron ikkalasi tashvishli qiyofa ila o‘rinlaridan turishdi.

– Xo‘p, – va’da berdi Garri xavotirli ohangda.

Kechki soat sakkizda Ships xonim chiroqlarni o‘chirib, Garrini kutubxonadan haydab chiqardi. Ko‘targan kitoblarining og‘irligidan lopillab qolgan Garri «Griffindor» minorasi tomon yo‘l oldi. Stollardan birini umumiy mehmonxonaning burchagiga tortib, qidiruvni davom etdi. U «G‘alati azayimxonlar uchun g‘ayriodatiy jodu» kitobida ham, «O‘rta asr sehr-jodusiga oid qo‘llanma»da ham hech narsa topa olmadi. «O‘n sakkizinchi asr afsunlari antologiyasi[1]» kitobi va «Chuqur joylarda yashaydigan qabih jonivorlar yoki muqaddam xayo-lingizga ham keltirmagan ichki kuchlar. Ularni idrok etgach esa nima qilishni bilmay, boshingiz qotib qolgan holatlar» to‘pla-mida ham suv ostida nafas olish to‘g‘risida hech narsa yo‘q.

Garrining tizzasiga chiqib olgan Maymoqoyoq guvala bo‘-lib yotgancha, xirillay boshladi. Mehmonxona asta-sekin bo‘-

[1] **Antologiya** (*yunoncha:* anthos – gul va lego – teraman) – bir guruh mualliflarning tanlab olingan asarlari (musiqiy, falsafiy, adabiy) to‘plami.

shab bordi. Hamma xuddi Xagrid kabi quvnoq, bag'ayrat ohangda unga omad tilamoqda. Aftidan, ularning birortasi ham Garrining ertangi chiqishi o'tgan safargi kabi oson va silliq o'tishiga shubha qilmaydi. Bo'g'ziga golf koptogi tiqilib qolganday o'tirgan Garri javob berishga qurbi yetmay, bosh irg'ishga yaradi, xolos. Tun yarmiga yetishiga o'n daqiqa qolgan fursatda umumiy mehmonxonada Maymoqoyoq ikkalasi qoldi. Garri ko'tarib kelgan barcha kitoblarni titkilab bo'ldi-yu, Ron bilan Germionadan hamon darak yo'q.

«Hammasi tamom bo'ldi, dedi u o'ziga o'zi. Vazifani uddalay olmading. Ertaga ertalab ko'l sohiliga borasan-da, bu haqda hakamlarga aytasan»...

Garri hakamlar oldida vazifani bajara olmasligiga iqror bo'layotganini ko'z oldiga keltirib ko'rdi. Shulmanning taajjubdan katta ochilgan yumaloq ko'zi, sariq tishini yana yalang'ochlatgan Karkarovning mamnun irshayishi ko'z o'ngida gavdalandi. Flyor Delakyorning «Aytdim-u, u bizlag'ga qag'shi bellasha olmaydi. U kali juda kichkina» degan xitobini deyarli yaqqol eshitdi. Ichiga sig'may ketgan Malfoy tomoshabinlarga «*Potter – badbo'y*» yozuvi bitilgan ko'krak nishonini namoyon qilgancha yugurib yurgani va hech narsaga bovar qilmay turgan Xagridning xomush yuzini ko'rdi...

Tizzasida Maymoqoyoq yotganini unutib qo'ygan Garri o'rnidan irg'ib turdi. Yerga dumalab tushgan mushuk vishillab, Garriga domangir qiyofa ila qarab qo'ydi-da, dumini viqor-la ko'tarib nari ketdi. Biroq Garri bunga e'tibor qilmadi. U aylanma zina bo'ylab yotoqxonasiga yugurdi. Ko'rinmas plashini olib, kutubxonaga yo'l oldi. Kerak bo'lsa tun bo'yi o'tirib chiqishga ahd qildi...

– Lyumos, – pichirladi yigirma besh daqiqa o'tib kutubxonaning eshigini ochgan Garri.

Sehrli tayoqchasining yorishgan uchini oldinga uzatib borar ekan Garri kitob tokchalaridan ko'zikish va afsunlar, suv parilari va suv ostida yashaydigan maxluqlar, mashhur sehrgar erkaklar-u, afsungar ayollar, sehrli kashfiyotlar, xullas andak bo'lsa ham suv ostida omon qolish haqida so'z yuritilishi mumkin bo'lgan

kitoblarni chiqarib, to'pladi. Hammasini stol ustiga terib chiqib, onda-sonda soatga qarab-qarab qo'ygancha, xira nur ostida ishga kirishdi...

Soat bir bo'ldi... ikki bo'ldi... taslim bo'lmaslikning yagona yo'li, topishmoq javobi keyingi kitobda... keyingi kitobda... yo'q, keyingi kitobda chiqishiga umid bog'lash bo'lib qoldi.

***

Sinfboshilar yuvinadigan vannaxona devoriga osilgan rasmdagi suv parisi baland ovozda xandon otmoqda. Garri qoya ostida, toshga urilib ko'piklab ketayotgan to'lqinlarda xuddi shisha tiqini kabi qalqimoqda. Suv parisi esa «Chaqmoq»ni boshi uzra ko'tarib olgan.

– Qani, olib qo'ychi mendan! – kalaka qildi u. – Qani, bo'l, sakra!

– Sakray olmayman, – baqirdi supurgiga intilgancha, to'lqinga qarshi kurashayotgan Garri dimiqib. – Supurgimni qaytarib ber!

Biroq badkor urg'ochi qotib-qotib kulgancha, supurgining sopi bilan Garrining biqiniga turtdi.

– Voy! Jonim og'riyapti!... Tinch qo'y meni!

– Garri Potter zudlik bila uyg'onishi kerak, ser!

– Turtishni bas qil...

– Dobbi Garri Potterni turtishi kerak, ser, u tezroq uyg'onishi kerak!

Garri ko'zini ochdi. U haligacha kutubxonada. Ko'rinmas plash boshidan sirpanib tushgan. Yuzi «Sehrli tayoqcha bo'lsa bas, usul topiladi» risolasiga yopishib qolgan. Garri o'tirgan o'rnida qaddini rostlab, kun yorug'idan ko'zi qamashgancha yumaloq ko'zoynagini to'g'rilab oldi.

– Garri Potter shoshilishi kerak! – pishilladi Dobbi. – Ikkinchi musobaqa o'n daqiqadan so'ng boshlanadi. Binobarin Garri Potter...

– O'n daqiqadan so'ng? – xirilladi Garri. – O'n daqiqa?...

U soatga qaradi. Dobbi haq. Soat to'qqizdan yigirma daqiqa

o‘tibdi. Garrining ko‘kragidan qandaydir nihoyatda og‘ir narsa qorin bo‘shlig‘iga dumalab tushganday bo‘ldi.

– Garri Potter shoshilishi darkor! – g‘ijirladi Dobbi, Garrining yengidan tortib. – Siz va qolgan chempionlikka da’vo-garlar allaqachon ko‘l sohilida bo‘lishi kerak edi, ser!

– Kech bo‘ldi, Dobbi, – umidsiz qo‘l siltadi Garri. – Men bari bir topshiriqni bajara olmayman, qanday bajarishni bilmayman...

– Garri Potter topshiriqni, albatta, bajaradi! – chiyilladi elf. – Garri Potter kerakli kitobni topa olmaganini Dobbi bilar edi. Shu bois Dobbi kerakli ishni Garri Potterning o‘rniga bajardi!

– Nima? – ishonmadi Garri. – Axir, sen topshiriq shartini bilmas eding-ku?!

– Dobbi biladi, ser! Garri Potter ko‘lga sakrab, Vessini topishi kerak bo‘ladi...

– Qanaqangi Vessi haqida gapiryapsan?

– Vessini! Vessini suv parilaridan tortib olmog‘i darkor!

– Vessi deganing nima bo‘ldi? Tushunarliroq gapirsang-chi!

– Sizning Vessingiz, ser. Dobbiga sviter hadya etgan Vessi!

Dobbi barmoqlari bilan egnidagi kichraytirilgan, short bilan birga kiygan sviterni chimchilab ko‘tardi.

– Nima?!

Dahshatdan Garrining nafasi qaytib ketdi.

– Ular Ueslini... Ronni olib ketishdimi?

– Ha, ular Vessini o‘zlari-la g‘arq qilishdi! – tushuntirgan bo‘ldi Dobbi, – Bir soatdan so‘ng esa...

– «*Topib olishing uchun bir soatcha vaqt berdik*» – misrani takrorladi aqldan ozib borayotgan Garri, elfga baqrayib, – «*Imkonni boy bersang, muddat o‘tar, ish tamom, ko‘rmay o‘tarsan uni yo‘qotib sen batamom*»... Dobbi... Nima qilsam bo‘ladi?

Dobbi qo‘lini kissasiga solib, qandaydir tushunarsiz, kalamush dumini eslatadigan kulrang yashil kalavani chiqardi.

– Suvga sakrashdan oldin mana buni chaynab, yutishingiz kerak, ser! – g‘ijirladi elf. – Bu oyquloq o‘stir giyohi!

– Bu nimaga kerak? – elfning qo‘liga baqraydi Garri.

– Garri Potterga suvda nafas olishi uchun kerak, ser!

– Dobbi, – umid-la so‘radi Garri. – Ishonching komilmi?

Har qalay, aynan Dobbining «yordami» bilan bir vaqtlar Garri o‘ng qo‘lidagi suyaklardan mahrum bo‘lgan edi.

– Dobbining ishonchi mutlaq komil, ser! – dedi elf qat’iy ohangda. – Dobbi uy elfi sifatida qasrda yurib turli yumushlarni bajaradi, kaminlarga o‘t qalaydi, pol yuvadi va hokazo va ayni vaqtda barcha gaplarni eshitib yuradi, ser. Kunlardan bir kun Dobbi professor Makgonagall bilan professor Xmurining orasida o‘tgan navbatdagi topshiriqqa oid suhbatni eshitib qoldi... Dobbi Garri Potterga o‘zining Vessisini yo‘qotib qo‘yishiga yo‘l qo‘ymaydi, ser.

Garrining shubhasi barham topdi. U oyoqqa qalqib turib, ko‘rinmas plashini yuk xaltasiga joyladi. Oyquloq o‘stir giyohini changallab, kissasiga soldi-da, kutubxonadan o‘qday uchib chiqdi. Dobbi esa unga izma-iz yetishib yurdi.

– Dobbi oshxonaga qaytishi kerak, ser! – dedi u yo‘lakka chiqishgach. – Dobbining yo‘qligini payqab qolishlari mumkin. Omad yor bo‘lsin, Garri Potter, ser, omad yor bo‘lsin!

– Keyin ko‘rishamiz, Dobbi! – qichqirdi yo‘lak bo‘ylab to‘xtamay yugurib ketayotgan Garri.

Zinalarning har uch-to‘rt pog‘onasidan sakrab o‘tgan Garri vestibulga yetdi. Bu yerda ikkinchi musobaqa boshlanishiga kechikib, Katta Zaldan oshiqib chiqayotgan o‘quvchilar ikki tavaqali katta eman eshigidan chiqishmoqda. Hamma o‘qday uchib borayotgan Garrining ortidan taajjub-la qarab qolmoqda. Garri bexosdan aka-uka Kolin va Dennis Krivilarni ikki tomonga turtib yuborib asosiy zina ustidan uchgancha, quyosh yoritgan sovuq hovliga chiqdi.

Maysazor bo‘ylab yugurar ekan Garri, noyabr oyida ajdarlar qo‘toni atrofida tiklangan namoyishgohlar endi narigi sohilga o‘rnatilib, ko‘l suvida aks etganiga e’tibor qildi. Jamiki maktab namoyishgohlardagi o‘rinlarni egallab bo‘lgan. Odamlar ovozining to‘lqinlangan shov-shuvi suv uzra g‘alati taralmoqda. Garri eng yaqin sohil chetiga o‘rnatilib, tilla tusli mato bilan to‘silgan stol atrofida o‘tirgan hakamlar tomon yugurdi. Hakamlar stoli yonida turgan Sedrik, Flyor va Krum yugurib

kelayotgan Garriga qarab turishibdi.

– Men... shu yerdaman... – bazo'r ayta oldi Garri keskin to'xtagancha, Flyorning egniga loy sachratib.

– Qayerda yuribsan? – eshitildi norozi ohangda berilgan kattakonlarga xos savol. – Musobaqa ha demay boshlanishi kerak!

Garri ovoz eshitilgan tomon qarab, hakamlar stoli ortida viqor-la o'tirgan Persi Ueslini ko'rdi. Demak, mister Sgorbs kela olmabdi.

– Bo'pti, bo'pti, qizishma Persi! – dedi Shulman Garriga qaragancha ochiqdan ochiq yengil tortib. – Nafasini rostlab olishga imkon ber!

Dambldor kulib boqdi. Karkarov bilan Maksim xonim esa aksincha, Garrining paydo bo'lganidan xursand emas. Aftidan, ular Garrini kutishmagan ko'rinadi.

Halloslagan Garri ikki bukilib, qo'li bilan tizzasiga suyandi. Biqini, xuddi birov pichoq sanchganday og'rimoqda. Lekin nafas rostlashga vaqt yo'q. Lyudo Shulman chempionlikka da'vogarlarni sohilga, bir-biridan o'n fut masofaga qo'yib chiqdi. Garri uchun qo'liga tayoqcha ushlab olgan Krumdan keyin, eng oxirgi joy ko'rsatildi.

– Ishlar joyidami, Garri? – pichirladi Shulman bolani Krumdan yana ikki futcha nariga olib. – Nima qilish kerakligini bilasanmi?

– Ha, – qisqa qildi Garri, qovurg'asini ishqalab.

Shulman Garrining yelkasini siqib qo'ydi-da, hakamlar stoliga qaytdi va xuddi Kubok finalida bajargan kabi sehrli tayoqchasini chiqarib, o'z tomog'i tomon bir siltadi-da, ovoz kuchaytirish afsunini o'qidi:

– Sonorus!

Sehr qo'llanilib kuchaytirilgan ovoz suv uzra namoyishgohlar tomon yo'naldi.

– Shunday qilib, chempionlikka da'vogarlarimiz ikkinchi topshiriqni bajarishga tayyor. Ular hushtagimga binoan start olib, o'g'irlatib qo'yishgan narsalarini qaytarib olishlari uchun suvga sakrashadi. Da'vogarlar ixtiyorida atigi bir soat vaqt bor. Demak,

uchgacha sanayman, marhamat: bir... ikki... uch!

Shulmanning hushtagi qilt etmayotgan muzday havoda o‘zgacha baland yangradi. Jim o‘tirgan tomoshabinlarga to‘lib-toshgan namoyishgohlar quvnoq ayyuhannos va qarsaklardan portlab ketganday bo‘ldi. Boshqa chempionlikka da’vogarlarga e’tibor bermagan Garri botinkasi bilan paypog‘ini xotirjam yechgancha, kissasidan oyquloq o‘stir giyohini chiqarib og‘ziga soldi-da, asta suvga odimladi.

Suv shu qadar sovuqki, oyog‘ining teri qoplamasi xuddi cho‘qqa botganday lovulladi. Ko‘lga chuqurroq kirib borgan sari nam tortayotgan korjomasi og‘irlashib, pastga torta bosh-ladi. Tez uvushayotgan oyog‘i ko‘lning serbalchiq tubi, shilim-shiq parda qoplagan yassi toshlar ustida sirpanmoqda. Sakkiz-oyoqning paypaslagichlariday sirg‘anchiq, ta’mi rezinaday bemaza giyohni imkon qadar tez va maydalab chaynab boryapti. Beligacha suvga kirgan Garri og‘zidagi narsani yutib, nima bo‘lishini kutgancha tek turdi.

Uning hech qanday sehr-jodu qo‘llamaganini ko‘rib turgan tomoshabinlarning kulgisi eshitildi. Garri hammaning ko‘ziga suvga kirib olgan molday tentaknamo ko‘rinayotganini yaxshi idrok etmoqda. Tanasining hali suvga kirmagan qismi jimir-lashdi. Suv yuzasida esayotgan muzday shamol sochini hilpirat-moqda, a’zoyi-badani sovuqdan dag‘-dag‘ titray boshladi. Garri namoyishgohlar tomon qaramaslikka urindi. Slizerinchilarning har xil masxaraomuz, jirkanch tovushlari eshitila boshlandi.

Birdan Garri og‘zi va burnini ko‘zga ko‘rinmaydigan qan-daydir yostiq to‘sib qo‘yganini his etdi. Chuqur nafas olishga urindi-yu, boshi aylandi. Bo‘ynining ikkala tomonida kuchli og‘riq sezildi...

Garri ikkala qo‘li bilan tomog‘ini ushlab, qulog‘ining ortida muzday shamol tomon bir maromda ochilib-yopilayotgan kesiklar... oyquloqlar paydo bo‘lganini angladi. U o‘ylab-netib o‘tirmasdan ayni paytda yagona bama’ni harakatni bajardi: yaxshilab tebranib, suvga sho‘ng‘idi.

Muzday suvning birinchi yutumi Garriga hayot yutimiday tuyuldi. Bosh aylanishi to‘xtadi. Yana bir bor chuqur simirilgan

suv o‘z tarkibidagi kislorodni miyaga yuborgancha, oyquloq-lardan silliq chiqib ketayotganini his etdi. Oldinga uzatib qaragan qo‘li xayoliy yashil tus kasb etganini, barmoqlar orasida suzish pardasi paydo bo‘lganini ko‘rdi. Bola egilib, yalang‘och oyog‘iga qaradi. Oyog‘i cho‘zilib, baliq suzgichiga o‘xshab qolgan.

Suv endi sovuq emas, aksincha, vujudiga yoqimli salqinlik va yengillik baxsh etmoqda. Garri tanasini uzatib maza qildi. Suzgich oyog‘i uning harakatlarini ajoyib tezlatgancha, ilgarilatdi. Tevarak-atrof ko‘ziga aniq ko‘rinmoqda. Ko‘z pirpiratishga hojat yo‘q. Ko‘p o‘tmay Garri shu qadar uzoq suzib ketdiki, sohil tubi ko‘rinmay qoldi. Chuqur sho‘ng‘ib, ko‘l qa’riga kirib ketdi.

Garri tuman qoplagan, qorong‘i va qandaydir sirli manzara ustidan tez suzdi. Suv ostidagi sukunat qulog‘iga ta’sir o‘tkazmoqda. Ko‘ziga ko‘rinayotgan masofa o‘n futdan uzoq emas, binobarin, yangi manzaralar, chunonchi qorong‘ilikda: bir-biriga chirmashgan suv o‘tlaridan hosil bo‘lgan o‘rmon yoki xira miltillayotgan tosh sochilgan bepoyon balchiq tekislikligi kutilmagan tarzda birin-ketin paydo bo‘lyapti. Ko‘zini katta ochgan Garri cheki ko‘rinmaydigan suv qa’riga tikilgancha, ko‘lning tobora chuqurlab, xiralashib borayotgan markazi tomon suzib ketmoqda.

Atrofda kumush o‘qlar kabi tez suzar mitti baliqlar zir uchmoqda. Bir-ikki marta baliqdan farq qiladigan jiddiyroq narsa ko‘ringanday bo‘ldi. Biroq yaqinroq borib qorayib ketgan daraxt tanasi yoki suv o‘tlarining qalin to‘pi ekanini ko‘rdi. Boshqa chempionlikka da’vogarlar ham, suv parilari ham, Ron ham, bahaybat kalmar ham ko‘rinmaydi.

Bir vaqt Garrining ko‘z o‘ngida bo‘yi ikki fut keladigan suv o‘tlaridan iborat keng yaylov paydo bo‘ldi. Oldinga ko‘zini pirpiratmay qarab borayotgan Garri uzoqdagi qandaydir tushunarsiz narsaning tashqi qiyofasini yaxshilab ko‘rishga urindi... shu paytda mutlaqo kutilmagan holat ro‘y berdi: kimdir to‘piq suyagidan mahkam tutib oldi.

Garri egilib, mittigina, shoxdor grindilouni ko‘rdi. Boshini

chakalakzordan chiqargancha, o‘tkir tishchalarini yalang‘ochlatgan suv jini uzun barmoqlari bilan Garrining oyog‘ini mahkam ushlab olgan. Garri zudlik bilan pardali qo‘lini kissasiga soldi. Toki u ivirsib, tayoqchasini chiqarguncha, suv o‘tlari orasidan yana ikkita grindilou chiqib, korjomasidan tutgancha, pastga torta boshladi.

– Relashyo! – qichqirdi Garri.

U o‘z ovozini eshitmadi... Og‘zidan so‘z o‘rniga katta pufak otilib chiqdi. Tayoqcha esa grindiloularga uchqun sachra-tish o‘rniga, aftidan, issiq suv zaryadi bilan zarb berdi. Tanasi yashil grindiloularning qaynoq suv tekkan badani qizardi. Garri oyog‘ini grindilouning qo‘lidan tortib chiqarib, ortga qaramay nari suzdi. Har ehtimolga qarshi vaqti-vaqti bilan atrofga o‘t ochib bordi. Ba’zan oyog‘ini boshqa grindiloular tutib olishga urinar, Garri esa bu paytda ularni tepkilar edi. Nihoyat u shoxdor boshlardan biriga qattiq tepganini sezdi. Ortga o‘giri-lib, suv jinlaridan birining ko‘zi qanshariga kelib qolgancha cho‘kib ketayotgani, qabiladoshlari esa mushtchalarini tugib, o‘dag‘aylab qolganini ko‘rdi.

Garri tezlikni pasaytirib, sehrli tayoqchasini kissasiga soldida, atrofga diqqat bilan quloq solgancha, to‘liq aylanib hamma yoqni ko‘zdan kechirib chiqdi. Suv qa’rida quloq parda-sini teshib yuborguday sukunat qaror topgan. Juda chuqurlab ketganini tushungan Garri atrofda to‘lg‘anayotgan suv o‘tlaridan boshqa hech narsani ko‘rmayapti.

– Xo‘sh, ishlar qalay?

Garrining yuragi to‘xtab qolishiga sal qoldi. Ovoz tomon tez o‘girilib, suvda tebranayotgan Dilgir Mirtlni ko‘rdi. Arvoh o‘zining sadafrangli qalin ko‘zoynagi orqali Garriga qarab turibdi.

– Mirtl!

Garri arvohni so‘kib bermoqchi bo‘ldi-yu, og‘zidan ovoz o‘rniga pufak chiqdi. Dilgir Mirtl kulib yubordi

– Anavi yerga bor! – ko‘rsatdi u. – Sen bilan bormayman. Yoqtirmayman ularni. Yaqin borsam quvib solishadi.

Garri minnatdorlik bildirgan bo‘lib, ikkita bosh barmog‘ini

yuqoriga ko‘tardi-da, grindiloularga duch kelmaslik uchun ehtiyot chorasi sifatida suv o‘tlaridan balandroq suzishga harakat qilib, arvoh ko‘rsatgan tomon yo‘l oldi.

Bola kam deganda yigirma daqiqacha suzib yuribdi. Ostida serloyqa keng tekislik bo‘lib, o‘z harakati bilan gohi-gohida kichik uyurmalar hosil qilmoqda. Nihoyat Garrining qulog‘iga suv parilarining qo‘shig‘i chalindi:

Senga aziz narsani o‘zimiz-la g‘arq qildik,
Topib olishing uchun bir soatcha vaqt berdik.

Garri suzishni tezlatdi. Ko‘p o‘tmay yirik toshga duch keldi. Tosh sirtida nayza bilan qurollanib, bahaybat kalmar shi-koriga chiqqan suv parilari tasvirlangan. Garri ovoz eshitilayotgan tomon suzdi.

Endi muddat qisqarib, yarim soatcha vaqt qoldi,
Imillama, tezroq bo‘l, o‘rtog‘ing holdan toydi.
Imkonni boy bersang, muddat o‘tar, ish tamom
Qutqara olmaysan uni, o‘lib ketar, vassalom.

Kutilmaganda suv o‘tidan dog‘ bo‘lgan toshlar vositasida g‘aliz ko‘tarilgan imoratlar zulmat ichra ko‘rina boshladi. Imoratlarning derazalarida sinfboshilar yuvinadigan vannaxona devoriga osilgan rasmdagi suv parisidan tamoman farq qiladigan basharalar ko‘rindi.

Bo‘yniga tosh marjonlarning qalin shodasini osib olgan, ko‘zi va kemtik tishi sariq ko‘rinayotgan ushbu maxluqlarning teri qoplamasi kulrang yashil bo‘lib, boshlarini uzun to‘q yashil soch tutamlari qoplagan. Hammasi yonlaridan pisib o‘tayotgan Garriga qarab turishibdi. Ikki-uchtasi Garrini tuzukroq ko‘rish uchun bo‘lsa kerak, qo‘lidagi nayzani mahkam tutgancha, baquvvat baliq dumini u yoq bu yoq lapanglatib, bekingan istiqomatgohidan chiqib keldi.

Atrofga sergak qarab borayotgan Garri harakatini tezlatdi. Ko‘p o‘tmay imoratlar soni ko‘paydi. Ba’zi uylar yonida suv

o‘tlaridan bog‘ yaratilgan. Imoratlardan birining yoniga qoqilgan qoziqqa grindilou zanjirlangan. Tomoshaga chiqqan suv parilar soni tobora ortib bormoqda. Ayrimlari Garrining oyqulog‘i-yu, pardali panjalariga barmoq o‘qtab, bir-biriga allanima degancha, og‘zini kaft bilan to‘sib ham olishdi. Garri muyulish ortiga o‘tib, g‘alati manzara guvohi bo‘ldi.

Imoratlar orasidagi suv osti qishlog‘i maydonida bir gala suv parisi to‘plangan. Maydon markazida suv parisining toshdan yo‘nilgan ulkan haykali qad ko‘tarib turibdi. Haykal yonida chempionlikka da’vogarlarni jalb etayotgan xor qo‘shiq aytmoqda. Tosh maxluqning qayrilib ko‘tarilgan dumiga esa to‘rt kishi mahkam bog‘langan.

Germiona bilan Chu Chengning o‘rtasida Ron, sal narida yoshi sakkizdan oshmagan qizaloq bog‘langan. Kumush tusli sochidan, ushbu qizcha Flyor Delakyorning singlisi ekanini Garri darhol fahmladi. To‘rtovlon qattiq uyquda. Boshlari u yoq bu yoq chayqalib, og‘zilaridan pufakchalarning ingichka oqimi chiqib turibdi.

Garovga olinganlar tomon tashlangan Garri suv parilarining hamlasini kutdi. Ammo birorta maxluq salbiy munosabat bildirmadi. Asirlar haykal dumiga suv o‘tlaridan tayyorlangan qalin arqon vositasida bog‘langan. Garri Rojdestvo bayramiga Sirius sovg‘a qilgan, hozir sandiqda, foydasiz yotgan pichoqchani esladi.

U atrofga qarab, suv parilarining qo‘llaridagi nayzalarga e’tibor qildi. Garri bo‘yi yetti futcha keladigan maxluq yoniga kelib, imo-ishora ila nayzasini berib turishini so‘radi. Suv maxlug‘i xandon otib, bosh chayqadi:

– Biz yordam ko‘rsatmaymiz, – dedi u, do‘rillagan xirildoq ovozda.

– Qo‘ysangiz-chi! – xitob qildi Garri, og‘zidan pufak chiqib.

U nayzani kuch bilan tortib olmoqchi ham bo‘ldi. Biroq kulaverib zo‘riqib ketgan maxluq boshini chayqab, nayzasini qaytarib oldi.

Garri o‘tkirroq biron nima topish uchun bizbizakday aylandi.

Ko‘l tubi toshlarga to‘lib-toshgan. U pastga sho‘ng‘ib, qirrasi o‘tkirroq toshlardan birini oldi-da, Ronni bog‘lagan sirpanchiq, pishiq arqonni chopa boshladi. Bir necha daqiqa kechgan tirishqoq mehnatdan so‘ng arqon uzildi. Behush Ronning tanasi ko‘l tubidan bir necha fut yuqoriga ko‘tarilib, suv qatlamlarida qalqib yotdi.

Garri atrofga qarab boshqa chempionlikka da’vogarlarni ko‘rmadi. Qayerda yurishibdi ular? Tezroq kelishmaydimi? U Germionaning oldiga qaytib, arqon chopmoqchi bo‘lgan ediki... bir nechta baquvvat, kulrang yashil qo‘llar uni to‘xtatdi. O‘n ikkitacha maxluq xandon otgancha bolani Germionadan nari tortdi.

– Do‘stingni olgin-da, tuyog‘ingni shiqillat bu yerdan. Boshqalarga tegma, – dedi ulardan biri.

– Hech qachon! – jahl-la qo‘l siltadi, og‘zidan so‘z o‘rniga ikkita katta pufak otilib chiqqan Garri..

– Vazifang, do‘stingni qutqarish... qolganlar bilan ishing bo‘lmasin.

– U ham mening do‘stim! Qolganlarni ham bu yerda qoldirib ketmayman! – quturib ketganday imo-ishora qildi Garri.

Chuning boshi Germionaning yelkasida yotibdi. Kichkina qizaloqning rangi esa oqarib ketgan bo‘lib, yuzining ba’zi joylari ko‘karib ham qolgan. Garri suv maxluqlarining iskanjasidan xalos bo‘lishga urindi. Maxluqlar esa hech qiyinchiliksiz uni mahkam ushlab, xandon otishni qo‘yishmayapti. Qani qolganlar? Ronni yuqoriga chiqarib, Germiona va qolganlarni olib ketish uchun qaytib kelishga vaqti yetarmikan? Shu joyni yana topa olarmikan? Garri soatiga qaradi. Taassufki, soati suv ostida to‘xtab qolibdi.

Kutilmaganda suv parilari orasida hayajon yuzaga kelib, hammasi yuqoriga barmoq o‘qtadi. Garri boshini ko‘tarib, yaqinlashib kelayotgan Sedrikni ko‘rdi. U boshiga yirik pufak kiyib olgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, yuzi g‘alati cho‘zinchoq ko‘rindi.

– Adashib qoldim! – dedi Sedrik labini qimirlatib. – Flyor bilan Krum ham kelib qolishi kerak!

Sedrik kissasidan pichoq chiqarib, Chuni ozod qilganini ko‘rgan Garri biroz yengil tortdi. Ko‘p o‘tmay Chuni tortib ketgan Sedrik ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Garri boshini atrofga aylantirib, qolganlarni kutdi. Xo‘sh, qani Flyor bilan Krum? Vaqt tig‘iz, ulardan esa darak yo‘q. Qo‘shiq mazmuniga ko‘ra, bir soat o‘tgach, garovga olinganlar qaytarib berilmaydi...

Kutilmaganda suv maxluqlari quvonch-la qichqirishdi. Garrini ushlab turgan maxluqlar ortga qarab, qo‘llarini bo‘sh qo‘yishdi. Garri ham burilib, boshi nahangning boshi-yu, qol-gan qismi odam tanasidan iborat cho‘milish trusikini kiygan maxluq suv parilari tomon suzib kelayotganini ko‘rdi. Krum! Aftidan, u nahang qiyofasiga kirib olmoqchi bo‘lgan-u, afsun ijrosini oxirigacha uddalay olmagan.

Nahang-odam Germionaning yoniga suzib kelib, qiz bog‘-langan arqonlarni tishlab uzishga urindi. Ammo Krumning yangi tishi delfindan mayda narsani tishlashga yaramaydi. Ehtiyot bo‘lmasa, Germionani g‘ajib qo‘yishi turgan gap. Ahvolni ko‘rgan Garri bunga shubha qilmadi. U oldinga tashla-nib, Krumning yelkasiga qattiq turtdi-da, qirrali toshni qo‘liga tutqazdi. Krum toshni changallab, arqon chopishga kirishdi. Bir necha soniyadan so‘ng Germionani xalos qilib, belidan tutdi-da, orqasiga qaramay yuqoriga tortib ketdi.

Xo‘sh, endi-chi, xavotir ola boshladi Garri. Flyorning yetib kelishiga ishonchi komil bo‘lganida... biroq «Belstek» qizi yo‘q. Nima qilish kerak?

U Krum uloqtirgan toshni qo‘liga oldi. Lekin suv maxluq-lari bosh chayqagancha Ron bilan qizaloqni to‘sib olishdi.

– Yo‘qol yo‘limdan! – qichqirdi Garri qo‘liga sehrli tayoqchasini olib.

Og‘zidan so‘z o‘rniga pufak otilib chiqqan bo‘lsa-da, suv parilari uning fikrini aniq tushunishdi. Har qalay, ular bema’ni kulgilarini bas qilib, sap-sariq ko‘zi ila sehrli tayoqchaga baqrayib qolishdi. Ko‘pchilik bo‘lishlariga qaramay, qiyofala-rida ko‘ringan qo‘rquv alomatiga ko‘ra, ularning sehr-jodu bobidagi mahoratlari bahaybat kalmarning mahoratidan zig‘ir-

day bo‘lsin, qolishmasligini Garri darhol fahmladi.

– Uchgacha sanayman! – baqirdi Garri, maqsadi ayoniy bo‘lishi uchun barmoq bukib, – Bir... (bitta barmog‘ini bukdi) Ikki... (yana bittasini)

Maxluqlar orqaga tislandi. Garri oldinga tashlanib, arqon chopa ketdi va nihoyat qizaloqni ham ozod qildi. Bola qizaloqning belidan, Ronning yoqasidan tutib, ko‘l tubiga zarb bilan tepingancha, yuqoriga ko‘tarildi.

Uchalasi suv yuziga juda sekin ko‘tarilmoqda. Pardali qo‘li bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘lmagan Garri suzgich-oyog‘iga zo‘r berdi. Ron bilan qizaloq esa ikki qop kartoshka singari uni pastga tortmoqda... Garri umid bilan yuqoriga qaradi... ular hali juda-juda chuqurda. Yuqorida ko‘ringan suv qatlami hali qop-qora...

Suv parilari ham uning izidan ko‘tarilib kelishmoqda. Ular Garrining atrofida gir aylanib, qiynalayotganini tomosha qilib borishyapti... Nahotki muddat o‘tishi bilan pastga tortib ketishsa? Odam go‘shtini yeb kun ko‘risharmikan ular? Zo‘r berilganidan oyoq mushaklari qotib qolmoqda, yuk og‘irligidan yelkalari zirqiramoqda...

Nafas olish qiyinlashdi. Garri bo‘yin sohasida yana og‘riq sezib... og‘zi suvga to‘lib qolganini his etdi. Xayriyatki suv zulmati tarqab, yuqorida kun yorug‘i ko‘rindi...

Garri suzgichiga zo‘r bermoqchi bo‘ldi-yu, suzgichning yo‘qligini angladi. Oyog‘i o‘z holatiga qaytibdi. Og‘zidagi suv o‘pkaga kirib ketib, boshi aylandi. Yorug‘lik bilan havo yaqin. Qolgan bo‘lsa, o‘n fut qoldi... yetib borish kerak... yetib borish kerak... Toliqqan oyog‘ining mushaklari itoat etmayapti. Miyasi go‘yo suvga to‘lib, og‘irlashib ketganday... unga kislorod kerak... oz qoldi, harakat qilish kerak... to‘xtash mumkin emas...

Birdan boshi suv yuzasiga chiqqanini his etdi. Muzday, hayotbaxsh havo yuzini chimdidi. Chuqur nafas olgan Garri suvga tiqilgancha Ron bilan qizaloqni yuqoriga tortib chiqardi. Suv yuzasida har joyda yashil sochli boshlar chiqib keldi. Suv parilarining hammasi Garriga irshaymoqda.

Namoyishgohlardagi tomoshabinlar oyoqqa qalqib turgan,

to‘polon, qiy-chuv ko‘tarilgan. Garrining nazarida, Ron bilan qizaloq tomoshabinlarga o‘likday ko‘ringan. Lekin ikkalasining ham ko‘zi deyarli bir vaqtda moshday ochildi. Qizaloq hech narsani tushunmay, cho‘chib ketdi. Ron esa og‘ziga kirgan suvni chiqarib yuborib, Garriga yuzlandi.

– Ustim shalabbo bo‘libdimi? – so‘radi u va Flyorning singlisiga ko‘zi tushib, hayron bo‘ldi: – Anavi qizni nega tortib chiqarding?

– Flyorni kutdim, kelmadi. Tashlab chiqmayman-u axir, – hansiradi Garri.

– Juda to‘porisan-da, Garri, – xitob qildi Ron. – Anavi qo‘shiq mazmunini jiddiy qabul qildingmi deyman? Dambldor bizni baliqqa yem qildirib qo‘yarmidi?!

– Biroq suv parilarining qo‘shig‘ida...

– Faqat vaqtni cheklash uchungina shunday deyilgan! – baqirdi Ron. – Umid qilamanki, pastda o‘zingni qahramonona tutib, vaqtni behuda sarf etmagansan. To‘g‘rimi, Garri?!

Garri o‘zini g‘irt ahmoqday his etib, jahli chiqdi. Ron uchun bularning bari arzimas o‘yinday ko‘rinmoqda. To‘g‘ri-da, u xurrak otib uxlagan, pastdagi dahshatni ko‘rmagan. Ayniqsa qo‘liga o‘tkir nayza ushlab, qotillikni o‘ziga kasb deb bilgan suv maxluqlari seni qurshab olganda...

– Xo‘p, mayli. Bo‘lar ish bo‘ldi, yordamlashib yubor, – buyurdi Garri. – Nazarimda, qizaloq suzishni bilmaydigan ko‘rinadi.

Ikkovlon qizaloqni qirg‘oq tomon tortib ketdi. Sohilda o‘tirgan hakamlar mudhish ovoz chiqarayotgan yigirmatacha suv maxlug‘i davrasida suvga qarab turibdi.

Garri qalin adyolga o‘rab qo‘yilgan Germiona, Krum, Sedrik va Chuga Pomfri xonim muolaja qilayotganini ko‘rdi. Dambldor bilan Lyudo Shulman yaqin kelgan Garri bilan Ronni kulib qarshi olishdi. Rangi oqarib ketganidan ancha yosh ko‘rinayotgan Persi esa sabri chidamay suvga tushib oldi. Maksim xonim esa jazavasi tutib, o‘zini suvga tashlashga oshiqayotgan Flyor Delakyorni mahkam ushlab turibdi.

– Gabg‘iel! Gabg‘iel! Tig‘ikmi? Yag‘alangani yo‘qmi? –

chinqiri Flyor.

– Unga hech nima qilgani yo‘q! – qichqirishga urindi Garri.

Bola shu qadar holdan toyganki, qichqirish u yoqda tursin, gapirgani holi yo‘q.

Persi Ronni mahkam ushlab, qirg‘oqqa tortdi.

– Tek qo‘y meni, Persi, o‘zim chiqaman, – qarshilik ko‘rsatdi Ron.

Dambldor bilan Shulman Garriga yordam berib yuborishdi. Maksim xonimning iskanjasidan xalos bo‘lgan Flyor singlisi tomon otilib, uni mahkam quchib oldi.

– Anavi gg‘indilou galasi!... menga tashlanib... o, Gabg‘iel, o‘yladim-ki... o‘yladim-ki...

– Qani, shum taka, bu yoqqa kel-chi, – yangradi Pomfri xonimning ovozi.

Feldsher ayol Garrini, go‘yo hozir qochib ketayotgandek mahkam ushlab, Germiona o‘tirgan joyga tortib bordi-da, adyolga shunday mahkam o‘rab qo‘ydiki, bola o‘zini jinni-xonada ishlatiladigan tiydirish ko‘ylagi kiydirilganday his etdi. Shundan so‘ng Pomfri xonim Garrining og‘zini issiq suyuq doriga to‘ldirdi. Dorini arang yutgan Garrining qulog‘idan bug‘ otilib chiqdi.

– Garri, sen zo‘rsan! – qichqirdi Germiona. – Topshiriqni zo‘r uddalading, muammoni o‘zing hal etdingmi? Qanday qilib?

– Men...

Garri Dobbi haqida aytmoqchi bo‘ldi-yu, Karkarovning nigohini o‘z vaqtida sezib qoldi. Karkarov o‘tirgan o‘rnidan turishga urinmagan ham. Aftidan, u Garri, Ron va Flyorning singlisi sog‘-salomat qaytganidan xursand emasga o‘xshaydi.

– O‘zim hal etdim muammoni, – dedi Garri Karkarov eshitishi uchun atayin baland gapirib.

– Xerm – ioun – nina, sochiingga qo‘ng‘iiz ilashiib oliibdi, – eshitildi Krumning ovozi.

Garrining nazarida, Krum Germionaning e’tiborini o‘ziga qaratish, hozirgina suvdan olib chiqqanini yodiga solib qo‘yish-ga uringanday bo‘ldi. Biroq qiz sochiga ilashgan qo‘ng‘izni olib, suvga uloqtirdi-da, gapini davom etdi:

– Faqat sen, Garri, vaqt limitini oshirib yubording... Nega bizni uzoq qidirding?

– Yo‘q... men sizlarni birinchi bo‘lib topdim...

Ahmoqligini idrok etish hissi Garrining vujudini daqiqa sayin qamrab olmoqda. Mana endi, suvdan chiqqach, chempionlikka da’vogarlar tomonidan olib chiqilmagan bolalarning xavfsizligini ta’minlash choralari Dambldor tomonidan to‘la-to‘kis ko‘rilgani mutlaqo ayon bo‘ldi. Nega endi u Ronni xalos etiboq yuqoriga ko‘tarilmadi? Shubha yo‘qki, marraga birinchi bo‘lib yetib kelgan bo‘lar edi... Ana, Sedrik bilan Krum vaqtni zoye ketkazmadi. Chunki ular suv parisining qo‘shig‘iga bovar qilishmagan...

Suv parilarining sardori bilan nimalarnidir muhokama qilgan Dambldor suv yuzasigacha egilib, nihoyatda xunuk suv parisi kabi g‘alati g‘ichirlagan tovush chiqarmoqda. Demak, «Xogvars» direktori suv parilari tilida muloqot qila oladi. Qaddini rostlagan Dambldor boshqa hakamlarga murojaat qildi:

– Chempionlikka da’vogarlarimizga baho belgilashdan oldin kengashib olishimiz kerak.

Hakamlar kengash o‘tkazishga kirishib ketishdi. Pomfri xonim Ronni Persining quchog‘idan xalos etib, Garri va qolganlar davrasiga olib keldi-da, og‘ziga Qalampirdamlama quydi. Shundan so‘ng opa-singil Delakyorlar bilan shug‘ul-landi. Korjomasi yirtilgan Flyorning yuz-qo‘li timdalangan bo‘lsa ham muolajaga qarshilik bildirdi.

– Gabg‘ielni tuzatib beg‘ing, – o‘tindi u, so‘ng Garriga murojaat qildi: – Sen qutqag‘ding uni, gag‘chi singlim bilan ishing bo‘lmasligi keg‘ak bo‘lsa ham.

– Ha, – dedi Garri, uchala qizni suv ostidagi haykal dumiga bog‘langan holda tashlab kelmaganiga yurakdan achinib.

Flyor egilib, Garrining ikkala lunjidan o‘pdi. Garri yuzi qizarayotganini his etib, qulog‘idan yana bug‘ chiqmaganiga hayron bo‘ldi. Flyor esa Ronga yuzlandi.

– Sen ham... sen unga yog‘dam beg‘ding...

– Ha, – katta umid-la ma’qulladi Ron. – Sal-pal qarashib yubordim...

Flyor Ronni quchib, o'pib qo'ydi. Buni ko'rgan Germionaning joni chiqib ketishiga sal qoldi. Shu payt Lyudo Shulmanning bolalarni o'tirgan joyida bir sapchitgan, namoyishgohlardagi tomoshabinlarni jim bo'lishga majbur qilgan baland ovozi yangradi.

– Muhtaram xonimlar va janoblar! Qarorimizni e'tiboringizga havola etaman! Zatonida, ya'ni suv parilari qabilasining yo'lboshchisi suv ostida bo'lgan ishlarni bizga batafsil aytib berdi. Natijada, chempionlikka da'vogarlarga baho, ushbu musobaqada eng yuqori ellik ballga erishishlari mumkinligini hisobga olgan holda, quyidagicha belgilandi. Miss Flyor Delakyor. Bosh pufagi afsunini mahorat-la bajargan bo'lishiga qaramay, nishonga yaqin qolganda grindiloular hamlasini qaytara olmadi. Oqibatda garovga olingan singlisini qutqarishga muvaffaq bo'lmadi. Shu bois unga yigirma besh ball belgilandi.

Namoyishgohlarda qarsak yangradi.

– Men aslida nol bahoga ham ag'zimayman, – chiroyli boshini chayqab hiqilladi Flyor.

– Bosh pufagi afsunini qo'llagan mister Sedrik Diggori marraga birinchi bo'lib yetib kelganiga qaramay, vaqt limitini bir daqiqaga oshirib yubordi. Shu bois unga qirq yetti ball belgilandi.

Xufflpuffchilar hayqirib yuborishdi. Chuning Sedrikka zavq-la qarab qo'ygani Garriṇing e'tiboridan chetda qolmadi.

Garrining ko'ngli cho'ki. Modomiki, Sedrik vaqt limitini oshirib yuborgan ekan, Garri haqida nima ham deyish mumkin?

– Aylanish jarayoni chala kechganiga qaramay, samarali o'tib, o'z-o'ljasi bilan qaytgan mister Viktor Krum qirq ballga erishdi.

G'olibona qiyofa kasb etgan Karkarov hammadan qattiq qarsak urdi.

– Oyquloq o'stir giyohidan mohirona foydalangan mister Garri Potter vaqt limitini haddan ortiq oshirib yuborgancha, eng oxirgi bo'lib qaytdi, – sharhini davom etdi Lyudo Shulman. – Biroq suv parilari qabilasining sardori Zatonidaning bergan guvohligiga qaraganda mister Potter garovga olinganlar yoniga birinchi bo'lib yetib borgan. Kech qolganining boisi esa – barcha

asirlarning yer yuziga xavfsiz va sog‘-salomat qaytarilishini ta’minlagani va bunday vazifani o‘z oldiga qat’iy maqsad sifatida qo‘ygani bo‘lgan. Ron bilan Germiona Garriga hamdardlik-la g‘amgin qarab qo‘yishdi.

– Hakamlarning aksariyati tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarga ko‘ra, – dedi Shulman, Karkarovga xusumat-la qarab qo‘yib. – Mister Garri Potter o‘z xatti-harakati ila nihoyat-da yuksak ma’naviy iroda va misli ko‘rilmagan jasorat namoyon etgan. Yuqorida aytib o‘tilgan mulohazalardan kelib chiqqan holda... mister Potter... qirq besh ballga sazovor bo‘ldi.

Garrining yuragini siqib turgan g‘amginlik kishani kutil-maganda parcha-parcha bo‘lib ketdi. Endi u Sedrik bilan birga peshqadam bo‘lib qoldi. Vaziyatning bu tarzda o‘zgarib keti-shini kutmagan Ron bilan Germiona Garriga baqrayib qolishdi. Xayollarini yig‘ib olishgach esa el qatori olqishlay ketishdi.

– Ana, xolos, Garri! – o‘kirdi Ron. – Bundan chiqdi sen men o‘ylagandek to‘pori emas ekansan-da! Yuksak ma’naviy irodangni namoyon etibsan-a!

Flyor ham jon-jahd ila qarsak urmoqda. Krum esa aksin-cha, domangir qarab qoldi. U Germionaning e’tiborini o‘ziga qaratmoqchi bo‘ldi-yu, Garrining zafaridan nihoyatda shodlanib ketgan qiz uning gapiga quloq tutmadi.

– Uchinchi va so‘nggi musobaqa yigirma to‘rtinchi iyun kuni tong sahar bo‘lib o‘tadi, – e’lon qildi Shulman. – Chempionlikka da’vogarlar musobaqa mazmuni haqida roppa-rosa bir oy oldin xabardor qilinadi. Ularni bugun qo‘llab-quvvatlaganingiz uchun hammangizga tashakkur.

Pomfri xonim chempionlikka da’vogarlar-u, asirlikdan xalos etilganlarni egnilariga quruq kiyim kiyib olishlari uchun qasrga quvib solgan paytda, o‘tgan barcha hodisalar Garriga qalin tumanda kechganday tuyuldi... hammasi ortda qoldi... ikkinchi imtihondan ham o‘tdi... endi 24 iyungacha tashvish tortmay yursa bo‘laveradi...

«Xogsmyodga uyushtiriladigan birinchi safardan Dobbi uchun yilning har kuniga bir juftdan yangi kiyadigan paypoq olib qaytaman» qaror qildi Garri, tosh zinadan qasrga ko‘tarilar ekan.

XVII BOB. YUMSHOQOYOQNING QAYTISHI

Ikkinchi musobaqa o‘tib, ko‘l tubida nimalar bo‘lganini eshitishga hamma zoriqdi. Ron ham ahyon-ahyonda shuhrat shu’lasida hopitib bordi. Garrining kuzatishicha, bo‘lib o‘tgan hodisalarning Ron tomonidan havola etilayotgan talqini muayyan izchillikda o‘zgarib bormoqda. Zotan dastavval Germionaning hikoyasi bilan Ronning lofi o‘zaro mos keldi. Xususan, ikkalasini professor Makgonagallning xizmat xonasiga chaqirtirgan Dambldor suv ostida mutlaqo xavfsiz bo‘lishlari, suv yuzasiga chiqqandagina uyg‘onishlariga ishontirib, sehrli uyquga eltib qo‘ygan. Biroq bir hafta o‘tar-o‘tmas Ronning hikoyasi, uni eshitgan bolalar qalbini larzaga solib, etini junjitib yuboradigan bo‘ldi. Emishki, tish-tirnog‘igacha qurollangan sal kam ellikta suv maxlug‘i Ronga hamla qilibdi. So‘nggi kuchi qolguncha mushtlashib, rosa kaltak yegach, maxluqlar uning qo‘l-oyog‘ini mahkam bog‘lashga bazo‘r erisha olibdi.

Ronning mashhurligi osha borgach, Parvatti Patilning egiz singlisi Petil unga ko‘proq qiziqish bildira boshlab, Ronga duch kelib qolgan joyda u yoki bu narsalar haqida vaysab o‘tirish uchun tez-tez to‘xtaydigan bo‘lib qoldi.

– Yengimda sehrli tayoqcham bor edi o‘shanda, – ishontirdi Ron Petilni. – Agar xohlaganimda men ularga ko‘rsatib qo‘ygan bo‘lar edim.

– Nimani ko‘rsatgan bo‘lar eding? – zahargina gap qistirdi oxiri Germiona, Ronning loflaridan toqati toq bo‘lib. – Uyquda qanday qilib xurrak otish kerakliginimi?

Qulog‘igacha qizargan Ron gapni sehrli uyqu tomon burdi.

Mart oyi nisbatan quruq kelganiga qaramay, maktab hovlisida o‘tayotgan mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilarning bet-qo‘lini sidirib yuborguday darajada kuchli esadigan shamol mavsumi boshlandi. Yo‘ldan adashib qolayotgan boyqushlar pochtani kech yetkazmoqda. Xogsmyodga uyushtiriladigan safar sanasini Siriusga eltib bergan boyqush juma kuni nonushta mahalida qaytib keldi. Garri uning panjasiga bog‘langan javob

xatini yechib olishi bilan pati har tomon dikkaygan bechora qush yana o‘sha manzilga yuborishlaridan cho‘chidi, shekilli, tez uchib ketdi.

Siriusning xati o‘tgan safar yuborgan maktubi kabi qisqagina.

Shanba kuni soat ikkida Xogsmyoddan chiqish yo‘lidagi shox devordan o‘tib, Darvesh va nasha do‘koni ortidagi ko‘prikcha yoniga yetib kel. Iltimos, o‘zing bilan ko‘targaningcha yegulik ol.

– Nahotki Xogsmyodga qaytib kelgan bo‘lsa? – ishonqiramay so‘radi Ron.

– Shunga o‘xshaydi, – dedi Germiona.

– Ishongim kelmayapti, – xavotirlandi Garri. – Qo‘lga tushib qolsa-chi...

– Shuncha vaqtdan buyon qo‘lga olishmagan aynan shanba kuni tushadimi? – achchiqlandi Ron. – Buning ustiga Xogsmyodda dementorlar yo‘q endi.

To‘g‘risini aytganda, Siriusning qaytib kelishini juda istayotgan Garri o‘yga tolgancha, xatni taxlab, kissaga soldi. Sehrli damlamalar tayyorlashning qo‘sh soatli darsiga ko‘tarinki ruh-la tushdi.

Qasr osti yo‘lagidagi eshik yoniga Malfoy, Krabbe, Goyl, Pansi Parkinson va uning dugonalari to‘planib olishgan. Hammasi mamnun irshaygancha nimanidir tomosha qilishmoqda. Tumshug‘i mopsnikiga o‘xshash Pansi Goylning keng yelkalari ortidan boshini chiqardi.

– Ana ular, ana kelishyapti! – hiringladi u.

Garrining nigohi Parkinsonning qo‘lidagi «Avsunpoliten» jurnaliga tushdi. Jurnal muqovasida, odatdagiday harakatchan fotosurat ko‘rindi. Unda qo‘ng‘iroq sochli afsungar qizcha oppoq tishini ko‘rsatgancha, sehrli tayoqchasi bilan biskvit tortga ishora qilmoqda.

– Ma, Grenjer, varaqlab ko‘rsang, qiziq narsa topasan! – ovoz ko‘tardi Parkinson qo‘lidagi jurnalni Germionaga uloqtirib.

Jurnalni tutib olgan qiz hech narsani tushunmai. Shu payt-da eshik ochilib, ostonada ko‘rinish bergan Snegg imo ila

o‘quvchilarni ichkariga chorladi.

Uchovlon, odatga ko‘ra orqa partalardan birini egalladi. Snegg bugun tayyorlanadigan damlamaning tarkibini sinf taxtasiga yozish uchun orqa o‘girishi bilan Germiona jurnal varaq-lab, o‘rta sahifalardan birida qidirgan narsasini topdi. Garrining rangli fotosurati Rita Vriterning qisqagina maqolasini bezab turibdi.

GARRI POTTERNING SIR TUTILGAN DIL YARASI

O‘z tengqurlariga umuman o‘xshamasa ham yigitcha bari bir yigitcha ekan-da. U ham boshqa kursdoshlari kabi, o‘smirlikning tabiiy kechinmalaridan xoli emas. Ota-onasini juda barvaqt, fojiali ravishda yo‘qotib, bir umr mehr-muhabbat va erkaliklarsiz o‘sgan o‘n to‘rt yoshli Garri Potter magllar oilasida tug‘ilgan afsungar qiz Germiona Grenjer bilan kechayotgan barqaror munosabat-la ruhan taskin topdim, degan xayolga borgan, chamasi. Biroq og‘ir yo‘qotishlari kamlik qilganday, bechora yigitcha, hayotning yana bir kuchli zarbasiga bardosh berishga majbur bo‘ldi.

Bir qarashda soddagina ko‘ringan miss Grenjer nafsoniyati juda kuchli va, aftidan, mashhur shaxslar bilan muloqotga o‘ch tabiatini idora qila olmaydigan qiz bo‘lib chiqdi. Qanchalik mashhur bo‘lmasin, qizning bunday maylini Garri Potterning yolg‘iz o‘zi qanoatlantira olmagan ko‘rinadi.

Kvidish bo‘yicha jahon chempionatining final o‘yini qahramoni, Bolgariya milliy terma jamoasining «Sayyod»i, «Durmshtrang» maktabi o‘quvchisi, endilikda Uch sehrgar bellashuvi chempionligiga da’vogarlardan biri Viktor Krum «Xogvars»ga kelgan kundan buyon miss Grenjer ikkala yigitchaning qalb torlarini chertib kelmoqda. Riyokor qizning maftuni-la es-hushini batamom yo‘qotganini hech bir tarzda yashirmayotgan Krum mezbon maktabning ushbu o‘quvchi qizini o‘z yurti – Bolgariyaga, yozgi ta’tilni birgalikda o‘tka-zishga taklif qilib: «Shu kungacha birorta qizga nisbatan bunday tuyg‘u his etmagan edim», deya ishontirayotgan emish.

Biroq ta’kidlab o‘tmoq joizki, ikkala yigitchaning havasi miss Grenjerning o‘quvchi qizlar orasida shubha tug‘dira-

yotgan tabiiy fazilatlari sababligina yuzaga kelmagan ekan.

«O'zi aslida tabiatan qo'rqinchli, chin so'zim, juda qo'rqinchli qiz, – guvohlik berdi to'rtinchi sinfda tahsil ko'rayotgan quvnoqqina, istarasi issiqqina Pansi Parkinson, – Lekin uning zehni nihoyatda o'tkir. Ishonchim komilki, u, Sevgi damlamasini tayyorlash sirini norasmiy, yashirin o'zlashtirib olgan va o'sha damlama vositasida yigitlarni o'ziga moyil qilgan»

«Xogvars»da Sevgi damlamasini tayyorlash man etilgan va tabiiyki, Albus Dambldor, ushbu guvohlikka jiddiy e'tibor ajratadi. Har qalay, tahririyat shunga umid qiladi. Garri Potterga yaxshilik tilaydigan odamlarga esa yigitcha kelasi safar o'z qalbini nisbatan munosibroq nomzodga ochib beradi, degan umid ila yashashdan boshqa chora qolmaydi.

– Aytgan edim-a senga Rita Vriterning jahlini chiqarma, deb! – pichirlab qichqirdi Ron, jurnaldan ko'zini uza olmay. – Mana marhamat, seni allaqanday... tungi kapalakka aylantirib qo'yibdi!

– Tungi kapalakka? – xaxolab yubordi Germiona boshini ko'tarib.

– Oyim ularni shunday deb ataydi, – dedi qulog'i qizarib ketgan Ron.

– Agar bu bilan Rita zo'r jurnalistlik mahorat ko'rsatdim, deb o'ylayotgan bo'lsa, malakasini deyarli yo'qotibdi, – dedi Ronga yuzlangan Germiona ko'zi katta ochib. – Favqulodda kam uchraydigan bema'nilik, – xulosa qildi u, kulishda davom etgancha, jurnalni bo'sh kursilardan biriga uloqtirib.

Slizerinchilarning diqqat bilan kuzatib o'tirganini ko'rgan Germiona istehzoli irshaygancha, qo'lini siltab qo'ydi-da, Garri va Ron bilan birgalikda Ong tozalash damlamasini tayyorlash uchun zarur bo'lgan giyohlarni yuk xaltasidan chiqarishga kirishdi.

– Lekin bir narsa chindan ham juda g'alati, – g'udulladi Germiona skarabey[1] solingan hovoncha ustida o'g'ir dastasini

[1] **Skarabey – issiq mamlakatlarda bo'ladigan go'ng qo'ng'izi.**

to‘xtatib. – Rita qayerdan bila qoldi ekan, a?...

– Nimani bilibdi? – darhol so‘radi Ron. – Sevgi damlamasini tayyorlaganingnimi?

– Bema’ni gapni qo‘y, Ron, – so‘kib berdi Germiona, skarabey ezib. – Viktor meni yurtiga taklif qilganini aytyapman.

Germiona og‘zidan gullashga gullab qo‘ydi-yu, Ronning ko‘ziga qarashga uyalib, qizarib ketdi.

– Nima? – dedi Ron, o‘g‘ir dastasini qo‘lidan chiqarib yuborib.

Dasta polga taraqlagancha tushdi.

– Meni ko‘l tubidan olib chiqib, nahang boshini yo‘qot-gach yurtiga taklif qilgan edi, – xijolat tortib g‘udulladi Germiona. – Pomfri xonim bittadan adyol bergach, birov eshit-masligi uchun meni bir chetga tortib, agar yozgi ta’tilni qanday o‘tkazishni hali rejalashtirmagan bo‘lsam...

– Xo‘p, sen nima deb javob berding? – gapni bo‘ldi Germionadan ko‘zini uzmay, qo‘liga olgan o‘g‘ir dastasini havonchadan besh-olti dyum narida stolga taraqlatib urgan Ron.

– *«Shu kungacha birorta qizga nisbatan bunday tuyg‘u his etmagan edim»* degani rost.

Germiona shu qadar qizarib ketdiki, undan ufurilayotgan haroratni Garri jismonan his etganday bo‘ldi.

– Biroq Rita... qanday eshitishi mumkin? Sohilda yo‘q ediyu u... yoki bormidi? Yoxud chindan ham ko‘rinmas plashi bormikan uning? Ikkinchi musobaqani ko‘rgani maktab hududiga yashirincha kirib keldimikan?

– Xo‘p, sen nima deb javob berding? – savolni takrorladi Ron, qo‘lidagi o‘g‘ir dastasini stolga yanada qattiq taraqlatib.

– O‘sha paytda sen bilan Garridan shu qadar xavotirda edim-ki... – o‘ychan davom etdi Germiona.

– Shaxsiy hayotingiz qanchalik qiziq bo‘lmasin, miss Grenjer, uni mening darsimda muhokama qilmaslikni iltimos qilgan bo‘lar edim, – eshitildi nihoyatda sovuq ovoz orqa tomondan. – «Griffindor»dan o‘n bal ayriladi.

Ular gaplashib turgan fursatda Snegg sezdirmay orqa tomonga o‘tib olgan ekan. Hamma o‘girilib, uchoviga tikildi.

Malfoy esa fursatdan foydalanib Garriga «*Potter – badbo'y*» ekanini yana bir bor eslatib qo'ydi.

– yana ustiga... dars vaqtida yashirincha jurnal o'qiymiz, deng! – davom etdi Snegg qo'liga «Avsunpoliten»ni olib. – Yana o'n ball ayriladi «Griffindor»dan... – dedi Rita Vriterning maqolasini ko'rib, qora ko'zi yarqirab ketgan Snegg. – Potter o'zi haqida yozilgan maqolalarni to'plab borish uchun qachondir qirqib olishi kerak-ku, axir...

Slizerinchilarning kulgisidan qasr osti portlab ketganday bo'ldi. Sneggning basharasida ham murdor kulgi ko'rindi. U maqolani ovoz chiqarib o'qishga kirishdi.

– *Garri Potterning sir tutilgan dil yarasi...* Obbo, Potter, yana nima qildi senga, a? *O'z tengqurlariga umuman o'xshamasa ham ...*

Garri yuzi lovullayotganini his etmoqda. Har bir jumlaning nihoyasida Snegg atayin to'xtalib, slizerinchilarga miriqib kulib olishga imkon berib bordi. Sneggning ifodali o'qishida maqola mazmuni yanada jirkanch eshitildi.

– ... *Garri Potterga yaxshilik tilaydigan odamlarga esa yigitcha kelasi safar o'z qalbini nisbatan munosibroq nomzodga ochib beradi, degan umid ila yashashdan boshqa chora qolmaydi.* Qarang-a! Juda ta'sirli, iydiradigan maqola chiqibdi, – tishining oqini ko'rsatdi Snegg jurnalni to'xtamagan qahhaha ostida yopib. – Unday bo'lsa, chigallashib ketgan ishqiy munosabatlaringiz haqida emas, dars haqida o'ylashingiz uchun sizlarni bir-biringizdan ajratib, boshqa-boshqa o'tqizib chiqaman, shekilli. Uesli, siz joyingizda qolasiz. Miss Grenjer, siz miss Parkinsonning yoniga ko'chib o'ting. Potter, siz stolim ro'parasidagi bo'sh stolga ko'chib o'ting. Tezroq.

Vujudini nafrat alangasi yondirayotgan Garri bugungi damlamaning tarkibiy qismlari va yuk xaltasini qozon ichiga tashladi-da, xona boshidagi bo'sh partaga ko'tarib bordi. Uning ortidan ergashib, o'z kursisiga o'tirgan Snegg Garrining qozon bo'shatishini diqqat bilan kuzatib turdi. O'qituvchining nigohini sezgan Garri uni ochiqdan ochiq pisand qilmay, har bir skarabeyni Sneggning jirkanch basharasi sifatida tasavvur qilgancha,

qo'ng'iz ezishni davom etdi.

– Matbuotning shaxsingga bo'lgan e'tibori tufayli, Potter, o'zing haqingdagi pufak kabi haddan ortiq shishgan fikr-mulohazang kun o'tib bir kun paq etgancha yoriladi, – asta pichirladi Snegg sinf tinchlanishi bilan.

Garri javob qaytarmadi. Sneggning g'alamisligini bola juda yaxshi idrok etmoqda. Chunki u ilgari ham shunday qilgan. «Griffindor»dan kam deganda yana ellik ball ayirishga sabab qidirayotgani aniq.

– Jamiki sehrgarlar olami qoyil qolib, menga tahsin o'qiydi, degan komil ishonch-la yurgan bo'lsang kerak, – da-vom etdi Snegg bolaning o'zigina eshitishi uchun deyarli ovoz chiqarmay.

Garri esa Sneggning gapiga e'tibor qilmay, kukunga aylanib ketgan skarabeylarni g'azab-la tuyishda davom etdi.

– Menga qolsa basharang tasviri davriy matbuotda kun ora bosib chiqarilsin, farqi yo'q. Sen, Potter, men uchun maktab qoidalarini pisand qilmaydigan yaramas boladan o'zga narsa emassan.

Garri qo'ng'iz kukunini qozonga solib, zanjabil[1] ildizini to'g'rashga kirishdi. Qo'li g'azabdan titrayotgan bo'lsa ham Sneggning ranjitishga urinayotgan gapini eshitmayotgan ko'yga solib, ko'zini giyohdan uzmadi.

– Binobarin, ogohlantirib qo'ymoqchiman seni, Potter, – tinchimadi Snegg yanada past va qo'rqinchli ohangda gapirib. – Mashhurmisan, balomisan, takror aytaman, zig'irday bo'lsin, farqi yo'q menga. Agar yana bir bor xizmat xonamning qulfini buzib kirganingni sezib qolguday bo'lsam...

– O'sha xonangizning yaqiniga ham yo'llaganim yo'q! – yorilib ketdi Garri o'zining soxta karligini bir chetga yig'ishtirib.

– Yolg'on gapirma, – vishilladi Snegg tubsiz nigohini Garriga sanchib, – Bumsleng terisi. Oyquloq o'stir giyohi. Unisi ham bunisi ham mening shaxsiy omborimdan chiqqan. Ularni kim olgani ayon.

[1] **Zanjabil** (*arabcha*) – ziravor o'simlik nomi. Zanjabildoshlar oilasiga mansub, yo'g'on ildizpoyali, gul va mevasiz, naysimon o't o'simlik (dorivor, ziravor modda sifatida ishlatiladi).

Garri aybdorday ko‘rinmasligi uchun ko‘zini olib qochmay, imkon qadar pirpiratmaslikka urindi. Garchi Snegg hamisha Garridan gumon qilib yurgan bo‘lsa ham bumsleng terisini Barcha qiyofalar damlamasini tayyorlash uchun ikkinchi sinfda o‘qib yurishgan kezlarda Germiona o‘g‘irlagan edi. Oyquloq o‘stir giyohini esa Dobbi o‘g‘irladi.

– Nimaga shama qilayotganingizni tushunmadim, – aldadi Garri, loqayd qiyofa kasb etib.

– Xizmat xonamning qulfi buzilgan o‘sha kecha sen yotoqxonangda bo‘lmagansan! – pichirlab baqirdi Snegg. – Buni aniq bilaman, Potter! Ehtimol, anavi O‘ynoqko‘z Xmuri «Garri Potterning muxlislari klubi»ga a’zo bo‘lib olgandir, bilmayman, bilishni ham istamayman, biroq shuni aniq bilamanki, yaramas xulq-atvoringga ko‘nikmoqchi emasman! Xizmat xonamga kirish uchun tungi sayrga yana bir marta chiqar ekansan, Potter, qattiq pushaymon qilasan!

– Yaxshi, – pinagini buzmay javob berdi Garri, zanjabil ildizini to‘g‘rashni davom etib. – Agar o‘sha xonaga tashrif buyurish borasida yengib bo‘lmas istak paydo bo‘lsa, gapingizni, albatta, inobatga olib qo‘yaman.

Bolaning jur’atli gapini eshitgan Sneggning ko‘zi yarqirab, qo‘lini korjomasining ostiga yugurtirdi. Garrining xayoliga Snegg sehrli tayoqchasini chiqarib, biron-bir qarg‘ish qo‘llaydi, degan fikr keldi. Biroq sehrli damlamalar tayyorlash fani professori kissasidan shaffof suyuqlik to‘ldirilgan kichkinagina billur shishacha chiqarib, Garriga ko‘rsatdi.

– Mana bu nima, bilasanmi Potter? – so‘radi tahdidli nigohi yarqiragan Snegg.

– Xo‘sh?

– Istig‘for keltirishga majbur qiladigan Iqror bo‘lish damlamasi. Shu qadar kuchli ta’sirga egaki, uning uch tomchisi seni, bir umr yurak tubiga bekitib kelgan eng maxfiy sirlaringni mana bu sinf oldiga to‘kib-sochishga majbur qilish uchun yetarlidan ortiq bo‘ladi, – pichirladi Snegg dahshatli ohangda. – Ushbu damlamaning qo‘llanilishi Sehrgarlik vazirligi tomonidan qat’iy nazorat ostiga olingan. Ammo xulq-atvoringni tuza-

tib olmas ekansan, sen ichadigan oshqovoq sharbati ustida qo'lim qaltirab qolmasligiga shubha qilmasang bo'laveradi. Ana o'shanda, Potter, ko'p gaplarni... shu jumladan, xonamga kirgan-kirmaganingni aniq bilamiz.

Garri javob qaytarmadi. U nigohini zanjabilga olib o'tib, ildiz to'g'rashni davom etdi. Iqror bo'lish damlamasi haqida eshitganlari bolaga sira yoqmadi va muhimi, Snegg chindan ham bir-ikki tomchi tomizib qo'yishdan tap tortmasligiga shubha qilmadi. Damlama ta'sirida nimalarni aytib yuborishini xayoliga keltirgan Garri seskanib ketdi-yu, hissiyotini sezdir-maslikka harakat qildi... O'zi haqida sayrasa-yu, go'rga edi. Ammo u boshqalarni ham chunonchi, o'g'irlik qilgan Germiona bilan Dobbini ham sotib qo'yishi... Sirius bilan olib borayotgan aloqasi haqida valdirashi mumkin, shuningdek... Chuga bo'lgan munosabatini... bularning barini o'ylab ko'rgan Garrining ichidagi borki narsa kattagina bo'xcha sifatida tugilib qolgan-day bo'ldi. Zanjabilning to'g'ralgan ildizini qozonga solar ekan, balki, Xmuriga o'xshab, alohida idishda olib yuriladigan ichimlik ichib yurgan ma'qulmikan, degan xayolga bordi.

Eshik taqilladi.

– Kiring, – ijozat berdi Snegg.

Hamma eshikka yuzlandi. Xonaga kuchli hayajonlangan Karkarov kirib keldi. O'quvchilar soqolini eshayotgan «Durmshtrang» rahbarining o'qituvchi stoliga yaqinlashganini ko'rib turishdi.

– Gaplashib olishimiz kerak, – uzuq-uzuq pichirladi u, gapini hech kim eshitmasligi uchun labini bazo'r qimirlatgan-cha Severusga murojaat qilib.

Garri ish bilan mashg'ul bo'lsa-da, suhbatni diqqat bilan eshitib turdi.

– Darsdan keyin bafurja gaplashamiz, Karkarov... – rad etdi Snegg.

– Yo'q, Severus, – gapni kesdi Karkarov. – Quyonning rasmini chizib, yana qochib qolasiz. Shu bois aynan hozir va shu yerda gaplashmoqchiman.

– Darsdan keyin, – qisqa qildi Snegg.

Bronenoses[1] safrosini[2] yetarlicha quygan-quymaganini bilish maqsadida o'lchov idishini ko'tarib, yorug'likka qaratgan Garri, bahonada ikkala kishiga diqqat bilan razm soldi. Karkarov nimadandir xavotirlangan. Sneggning yuzi esa domangir qiyofa kasb etgan.

Karkarov darsning qolgan qismini Sneggning yonidan qilt etmay o'tkazdi. Aftidan, u o'qituvchini qochirib yubormaslikka astoydil bel bog'lagan ko'rinadi. Karkarov nimalar haqida gapirishiga juda qiziqqan Garri qo'ng'iroq zarbi yangrashiga ikki daqiqa qolganida bronenoses safrosini atayin polga to'kib yuborib, qozon atrofini tozalashga kirishdi. Qolgan o'quvchilar shovqin solgancha, xonani tark etdi.

– Bunday qistalanglikning boisi nima? – vishilladi Snegg.

– Mana bu, – javob berdi Karkarov.

Qozon ortidan boshini chiqargan Garri Karkarov chap qo'lining yengini tortib, tirsagining ichki tomonini Severusga ko'rsatayotganini ko'rdi.

– Xo'sh? – so'radi hanuzgacha lab qimirlatmay gapirayotgan Karkarov. – Ko'rdingizmi? Bu qadar aniq ko'rinmay qolgan edi o'sha...

– Yoping! – keskin buyurdi Snegg, xonaga ko'z yugurtirib.

– Lekin sizda ham ko'rinishi kerak... – davom etdi Karkarov tashvishli ohangda.

– Bu haqda keyinroq gaplashamiz, Karkarov, – gapni bo'ldi Snegg. – Potter! Siz nima qilyapsiz bu yerda?

– Bronenosetsning safrosi to'kilib ketdi, professor, artyapman, – beayb ko'zini pirpiratdi Garri, qo'lidagi ho'l lattani ko'rsatgancha, bezrayib.

Bir vaqtning o'zida ham bezovta bo'lgan, ham jahli chiqqan Karkarov turgan joyida shartta burildi-da, xonadan o'qday otilib chiqdi. Yovuz Snegg bilan tanho qolishni istamagan Garri

---

[1] **Bronenoses** – to'la tishsiz hayvonlar (Edentata) turkumiga kiradigan sut emizuvchilar oilasiga mansub zirhli armadilla (Dasypodidae). Janubiy va Markaziy Amerikada yashaydigan, pakana, beso'naqay, tanasining ustki qismi va yon tomonlari harakatchan muguz qalqonlar bilan qoplangan hayvon.

[2] **Safro** (*arabcha*: sariq rang; oqimtir; o't) – odam jigaridagi bezlar orqali muntazam ishlab chiqiladigan ko'kimtir sariq suyuqlik; zarda, o't.

kitoblari-yu, giyohlarini yuk xaltasiga tashladi-da, hozirgina guvohi bo'lgan sahna haqida aytib berish uchun Ron bilan Germionani qidirgancha, yugurib ketdi.

***

Ertasiga, maktab hovlisini kumush tusli xira quyosh yoritgan kun yarmida, o'quvchilar qasrni tark etdi. Havo yoqimli bo'lgani uchun Xogsmyod tomon yo'l olgan bolalar ridoni yechib, yelkaga tashlab olishgan. Sirius so'ragan ovqat Garrining yuk xaltasida. Uchovlon tushlik dasturxonidan o'n ikkitacha tovuq soni, bir buxanka non va bir ko'za oshqovoq sharbatini o'g'rincha olib chiqishga muvaffaq bo'ldi.

Bolalar Dobbiga sovg'a xarid qilish uchun O'Trebyenning modalar do'koniga kirib, haddan ortiq chiroyli paypoqlarni tanlash bilan mashg'ul bo'lgancha, vaqtni mamnun o'tkazishdi. Do'konda sotilayotgan ba'zi paypoqlardagi tilla va kumush tusli yulduzchalar rasmi milt-milt etsa, ayrim paypoq turlari kuchli hidlansa baland ovozda qichqirar ekan.

Soat bir yarimda sehrli jihozlar sotiladigan Darvesh va nasha do'koni yonidan o'tgan bolalar Daroz ko'cha bo'ylab qishloq tashqarisiga yo'l olishdi.

Qishloq uylari kamayib, bog'lar kengayib borayotgan, Garri muqaddam kelmagan egri-bugri ko'cha Xogsmyodni qurshagan, odam oyog'i yetmagan qalin o'rmon tomon olib chiqmoqda. Bolalar etagida ushbu qishloq joylashgan toqqa yaqinlashib, muyulishdan so'ng ko'cha oxiridagi shox devor ortiga solingan ko'prik va ko'prik zinasining birinchi pog'onasiga old oyog'ini qo'yib yotgan, qop-qora, baroq, faqat uchalasi taniydigan, og'ziga gazeta tishlab olgan yirik itni ko'rishdi.

– Salom, Sirius, – dedi itga yaqinlashgan Garri.

Bolalarni ko'rib tetiklashgan it Garrining yelkasidagi yuk xaltasini tez hidlab chiqdi-da, dumini siltab orqa o'girgancha, yakkam-dukkam changal o'sgan so'qmoq bo'ylab, tog'ning toshloq etagiga ko'tarila boshladi. Shox devordan o'tgan uchala

bola itga ergashdi.

Sirius bolalarni toqqa yetakladi. Tevarak-atrof sochilib yotgan yirik xarsang toshlarga to‘lib-toshgan. To‘rt oyoqli itga tog‘ so‘qmog‘i bo‘ylab yugurib yurish muammo emas, albatta. Biroq ko‘p o‘tmay toliqqan bolalarning tili osilib qoldi. Baland ko‘tarilib, u yoq bu yoq siltanayotgan dumga ergashgan bolalar quyosh nurida terga botgancha, qoyaning tik, sertosh yonbag‘ridagi ilonizi yo‘l bo‘ylab yuqoriga ko‘tarildi. Buning ustiga yelkadagi xalta tasmasi Garrining etiga qattiq botmoqda.

Birozdan so‘ng ko‘ppak ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Yuqoriga ko‘tarilgan bolalar qoyada hosil bo‘lgan ensiz kavakni ko‘rishdi. Uchovlon ichkariga o‘tgach, salqin, xira yoritilgan g‘orga kirib qolganini angladi. G‘orning narigi burchagida tanasi, orqa oyog‘i va dumi otniki, old qismi esa yirik burgutnikiga o‘xshaydigan, arqon bilan tushovlanib, katta toshga bog‘lab qo‘yilgan, badjahl to‘q sariq ko‘zini mehmonlar tomon yarqiratgan gippogrif ko‘rindi. Uchovlon shu zahoti ikki bukilib, achishib, yoshlanib ketsa ham ko‘z pirpiratmay chuqur ta’zim qildi. Otburgut boshini yon tomon og‘dirib, to‘q sariq ko‘zi ila uchala bolaga ma’lum vaqt viqor-la qarab turdi-da tangachali tizzasini bukib ta’zim qildi va oldiga yugurib borgan Germionaga patli bo‘ynini silashga ijozat berdi. Garri esa bu vaqtda cho‘qintirgan otasiga aylanayotgan itga qarab turdi.

Ozib ketgan Sirius Azkabandan qochgan kezlarda kiyib yurgan o‘sha kulrang korjomasini hanuzgacha egnidan yechgani yo‘q. Kamin yonida uchrashgan kundan buyon qora sochi o‘sib, yana chigallashib ketibdi.

– Tovuq go‘shti! – shodligidan xitob qildi «Bashorat-u karomat gazetasi»ning eski sonlarini og‘zidan chiqarib, yerga tashlagan Sirius.

Garri yuk xaltani ochib, Siriusga non bilan go‘sht tugilgan bo‘xchani uzatdi. Sirius tugunni ochar ekan, yerga o‘tirishga ulgurmay, go‘shtning kattagina bo‘lagini tishlab uzdi.

– Rahmat, – samimiy minnatdorlik bildirdi u. – So‘nggi vaqtda yegan narsam kalamush bo‘ldi. Odamlarning e’tiborini jalb etmaslik uchun Xogsmyod ovqatlarini ko‘p o‘g‘irlay

olmayman.

U Garriga kulib boqdi. Garri esa javob tariqasida zo'rma-zo'raki tabassum qila oldi.

– Bu yerlarda nima qilib yuribsan, Sirius? – so'radi u.

– Cho'qintirgan ota majburiyatini bajaryapman, – javob berdi Sirius it singari suyak g'ajishga kirishib. – Mendan xavotir olma, yoqimtoy daydi it rolini zo'r mahorat-la bajaryapman.

Haligacha kulib turgan Sirius Garrining yuzidagi tashvishni ko'rib, jiddiy ohangga o'tdi.

– Yoningda bo'lmoqchiman. So'nggi xatingda... Xullas, bir so'z bilan aytganda, ishlarning pachavasi chiqmoqda, – dedi u, «Bashorat-u karomat gazetasi»ning sarg'ayib ketgan uyumi-ga imo qilib. – Birov tashlab yuborgan gazetalarni terib yuraman. Aftidan, xavotirga tushgan yolg'iz o'zim emasman.

Ron gazetalarning birini qo'liga olib, yozdi.

– Seni ko'rib qolishsa-chi? – Siriusdan ko'zini uzmadi Garri. – Qo'lga olishsa-chi, nima bo'ladi?

– Animag ekanimni bu yerda faqat siz uchalangiz va Dambldor biladi, – yelka qisdi Sirius, tovuqning keyingi soni bilan mashg'ul bo'lib.

Ron Garrining biqiniga turtib, ikkita gazetani uzatdi. Ulardan birida «*Bartolomeus Sgorbsning sirli betobligi*» ikkinchisida esa «*Vazirlik xodimasi hanuzgacha topilmadi. Sehrgarlik vaziri qidiruv ishlarini o'z nazoratiga olmoqda*» sarlavhalari ko'rindi.

Garri Sgorbs haqidagi maqolaga ko'z yugurtirib chiqdi. Ayrim jumlalar ko'zga g'ayriixtiyoriy tashlanmoqda: *noyabr oyidan buyon odamlar ko'ziga ko'rinmadi... uyi tashlandiq imoratga o'xshab qolgan... Muqaddas Rezgi kasalxonasi – g'alati jarohat va patologiyalar instituti xodimlari bo'layotgan hodisalarga izoh berishdan bosh tortishdi... vazirlik xavfli kasallik haqidagi axborotni tasdiqlamadi...*

– Ularning gapiga qaraganda, Sgorbs o'lyapti, – o'ychan xulosa chiqardi Garri. – Lekin «Xogvars»ga o'g'rincha kela olar ekan, demak, u qattiq betob emas...

– Akam uning shaxsiy yordamchisi bo'lib ishlaydi, –

ma'lum qildi Ron Siriusga. – Uning gapiga qaraganda, mister Sgorbs haddan ortiq ko'p ishlagani bois qattiq charchagan.

– Tan olish kerakki, oxirgi marta yaqindan ko'rganimda ko'zimga chindan ham betob ko'rindi, – asta fikr bildirdi Garri, maqolani o'qishda davom etib. – Olov kuboki mening ismimni e'lon qilgan kechada...

– Vinkini ishdan bo'shatgani uchun qilmishiga yarasha azob tortyapti, – sovuq ohangda ma'lum qildi Germiona, tovuq suyaklarini yutayotgan Otburgutni silab. – Pushaymon bo'layotganiga shubha qilmayman. G'amxo'rlik qiladigan mehribonini haydab yuborganidan so'ng hayot qiyinchiliklarini boshdan kechiryapti.

– E'tibor qilma unga, Sirius. Uy elflarining qismati haqida o'ylayverib Germionamizning tomi bu masalasida biroz siljib qolgan, – tushuntirish bergan bo'ldi Ron Germiona tomon ma'yus qarab qo'yib.

– Sgorbs o'z elfini haydab yubordimi? – qiziqish bildirdi ushbu ma'lumotga Sirius.

– Ha, Kvidish bo'yicha jahon chempionatining final o'yini o'tkazilgan kuni, – tasdiqladi Garri.

Bola Ajal belgisi, uning tayoqchasini ushlab yotgan Vinkini topib olishgani va mister Sgorbsning jahli chiqqani haqida Siriusga qisqacha aytib berdi. Hikoyasi nihoyasiga yetganda Sirius oyoqqa turib, g'or bo'ylab u yoq bu yoq yura boshladi.

– Qani, bir chetdan tahlil qilib ko'raylik-chi, – dedi u, navbatdagi tovuq sonini ushlagan qo'lini siltab. – Dastlab elfni Mo'tabar Lojada ko'rgansiz. U Sgorbs uchun joy band qilib o'tirgan, shundaymi?

– Shunday, – baralla javob berdi uchovlon.

– Lekin Sgorbs o'yin tomoshasiga kelmadi, shundaymi? – so'radi Sirius.

– Kelmadi, – tasdiqladi Garri. – Juda band edi, shekilli.

– Garri, lojadan tushganingdan so'ng kissangni tekshirib ko'rdingmi? Tayoqchang joyida edimi? – qo'qqisdan so'rab qoldi g'or bo'ylab indamay yurgan Sirius.

– Hm-m-m... – xotirasiga zo'r berdi Garri. – Yo'q, – dedi u

nihoyat, – o‘sha paytda tayoqchaga ish yo‘q edi. O‘rmon ichiga kirganimizda kerak bo‘ldi. Qo‘limni kissamga solib, omniokul-yardan boshqa narsa topa olmadim, – dedi u va Siriusga qarab: – O‘ylaysanki, Ajal belgisini yaratgan kishi mening sehrli tayoqchamni Mo‘tabar Lojada o‘g‘irlab qo‘yganmi?

– Ehtimol, – javob berdi Sirius.

– Vinkining o‘g‘irlik qilishga haddi sig‘maydi! – dedi Germiona chiyillab.

– Lojada elfdan tashqari boshqalar ham bo‘lgan, – qoshini chimirdi Sirius, g‘or bo‘ylab yurishda davom etib. – Orqa tomo-ningda yana kim o‘tirgan?

– Bir to‘da odam... – cho‘zdi Garri. – Bolgariya vaziri va bolgariyalik allaqanday mehmonlar... Kornelius Fuj... Malfoylar oilasi...

– Malfoylar! – kutilmaganda baqirib yubordi Ron.

Uning g‘or devoridan aks-sado bo‘lib qaytgani ovozidan Otburgut boshini keskin ko‘tardi.

– Bas bog‘lashim mumkinki, – komil ishonch bildirdi Ron. – Garrining sehrli tayoqchasini aynan Lyutsius Malfoy o‘g‘irlagan!

– Xo‘p, yana kim bor edi? – so‘radi Sirius.

– Hech kim, – dedi Garri.

– Nega endi, hech kim. U yerda Lyudo Shulman ham bor edi, – eslatdi Germiona.

– Ha, to‘g‘ri...

– «Yaramas arilar» jamoasining «Urib qaytaruvchi»si bo‘l-ganidan boshqa Shulman haqida hech narsa bilmayman. Qana-qangi odam o‘zi u? – so‘radi Sirius, harakatini to‘xtatmay.

– To‘g‘ri odam, – ishontirdi Garri. – Uch sehrgar bella-shuvi borasida hamisha yordam bermoqchi bo‘ladi.

– Yordam bermoqchi bo‘ladi? – qosh chimirdi Sirius. – Qiziq, nega?

– Aytishiga qaraganda menga bo‘lgan mehri oshib ketgan emish, – tushuntirdi Garri.

– Hm-m-m, – o‘ychan ming‘illadi Sirius.

– Biz uni o‘rmonda, Ajal belgisi paydo bo‘lmasidan oldin

uchratgan edik, – ma'lum qildi Germiona Siriusga. – Esingizdami? – so'radi u Garri bilan Rondan.

– To'g'ri, lekin o'rmonda qolmadi-yu. Lagerda to's-to'polon ko'tarilib, hamma yoq vayron qilinayotganini aytganimizdan so'ng havoda daf bo'lib, o'sha tomon yl oldi.

– Qayerdan bilasan, qay tomon yo'l olganini? – bahslashdi Germiona.

– Qo'ysang-chi, Germiona, – qo'l siltadi Ron. – Ajal belgisini Shulman yaratgan demoqchi emasdirsan, har qalay?

– Vinkidan ko'ra ko'proq o'shandan kutaman bunday qiliqni, – sarkashlik qildi Germiona.

– Aytdim-u, uy elflari masalasida tomi biroz siljib qolgan, deb – ma'noli qarab qo'ydi Ron.

Lekin Sirius qo'lini ko'tarib, Ronga jim o'tirib turishni imo qildi.

– Ajal belgisi paydo bo'lib, Garrining tayoqchasini ushlab yotgan elf topilganidan so'ng Sgorbs nima qildi? – so'radi u.

– Biror-bir boshqa kishini izlab topish uchun butalar orasini titkilab chiqdi, – javob berdi Garri. – Lekin chakalaklar orasida hech kim yo'q edi.

– Albatta, – g'udulladi Sirius g'or ichra yurib. – Tabiiyki u, aybni har qanday boshqa odamning bo'yniga qo'yishni istagan... faqat o'zining uy elfiga emas... keyin esa elfni ishdan haydab yubordi, shundaymi?

– Ha, – qizishib ketdi Germiona, – chodirda qolmagani, oyoq osti bo'lishni istamagani uchun haydab yubordi.

– Germiona, bir pas tinch qo'yasanmi-yo'qmi, o'sha Vinking bilan! – baqirdi Ron.

– Sgorbsni sendan ko'ra tuzukroq tushunyapti, u, Ron, – dedi Sirius. – Agar biron-bir odamning tabiatini durustroq o'rganib chiqmoqchi bo'lsang, o'z tenglari bilan emas bo'ysunuvchilari bilan qanday muomala qilishiga e'tibor qil. Ko'zga ko'rinmay qoladigan odati o'ylantirib qo'ydi meni... – chuqur o'ylangancha, soqoli olinmagan yuzini siladi u. – Dastlab u lojada uy elfi yordamida joy band qilgan, o'zi esa o'yinga kelishni lozim topmagan. Uch sehrgar bellashuvini tashkil-

lashtirish masalasida ancha ter to'kkan, endi esa dumini tutqizmay yuribdi... Sgorbsga o'xshamaydi. Agar shu kungacha kasalligi tufayli bir kun bo'lsa ham ishga chiqmagan deyishsa, Otburgutni yeb qo'yaman.

– Demak, sen Sgorbsni yaxshi bilar ekansan-da? – qiziqdi Garri.

Kutilmaganda Siriusning yuzi o'zgarib, Garri bilan ilk bor uchrashgan o'sha tundagi kabi vahimali qiyofa kasb etdi.

– O, Sgorbsni men juda yaxshi bilaman, – asta javob berdi u. – Meni sud qilib o'tirmay Azkabanga qamab tashlash buyrug'ini aynan Sgorbs bergan.

– Nima? – baralla qichqirib yuborishdi Ron bilan Germiona.

– Bo'lishi mumkin emas! – xitob qildi Garri.

– Bo'lganda ham qandoq, – dedi Sirius tovuq go'shtining kattagina bo'lagini tishlab uzib. – O'sha kezlarda Sgorbs Sehrli huquqni muhofaza qilish departamentining boshlig'i edi. Buni bilar edingizmi?

Uchovlon bosh chayqadi.

– Uni sehrgarlik vaziri bo'ladi, deb taxmin qilishgan, – davom etdi Sirius. – Buyuk, favqulodda sehr qudratiga ega, hukm surib, so'z o'tkazishni hush ko'radigan sehrgar u, Barti Sgorbs. Yo'q, u hech qachon Voldemortni qo'llab-quvvat-lamagan, – qo'shib qo'ydi u, Garrining qiyofasini to'g'ri talqin qilib. – Barti Sgorbs yovuz kuchlar sehriga zid munosabatini hamisha ochiqdan ochiq ko'rsatib kelgan. Biroq keyinchalik, yovuz kuchlar tomoniga o'tishni istamagan odamlarning aksari-yati... Ha, mayli, qo'ying bu gaplarni. Yoshsizlar hali... Bari bir tushunmaysiz...

– Dadam ham chempionatda xuddi shunday degan edi, – darg'azab achchiqlandi Ron. – Balki, sinab ko'rarsan bizni?

– Mayli, sinab ko'rganim bo'lsin... – dedi Sirius, yuzi tabassumdan yorishib.

U g'orning narigi burchagiga borib, qaytdi-da, gap boshladi:

– Tasavvur qiling, hozir Voldemort o'z hukmini o'tkazib yuribdi. Kim unga tarafdor bo'lgan, kim uning manfaatlarida ishlayapti, kim betaraf qolgan, bilmaysiz. Faqat bir narsa aniq, u

ham bo‘lsa, Yovuz Lord odamlarning xatti-harakatini shunday idora qilmoqdaki, ular qarshilik ko‘rsata olmay, nima qilishayotganini idrok etmay, mudhish ishlarni amalga oshirib yurishibdi. O‘zingiz, oilangiz va do‘stlaringizdan xavotirdasiz. Har hafta kimningdir o‘limi, bedarak ketgani, qiynoq qo‘llanilgani haqida xabar topib yuribsiz... Sehrgarlik vazirligida parokandalik qaror topgan... Nima qilishni bilishmaydi. Kechayotgan hodisalarni magllardan sir tutishga urinishmoqda. Biroq magllar orasida ham sehr-jodu tufayli o‘lim holatlari ro‘y bermoqda. Hamma yoqda terror... vahima... chalkashlik... Ana shunday vaziyat yuzaga kelgan edi o‘shanda.

Sirius biroz o‘ylanib, yana davom etdi:

– Bunday davrda ba’zi odamlar qalbida eng yaxshi tuyg‘ular uyg‘onsa, boshqalar fikrida razil xayollar kechadi. Ehtimol, dastlabki bosqichda Sgorbs tutgan yo‘l tamoyili samarali bo‘lgandir, bilmadim. Vazirlikda ishlar ekan xizmat pog‘onasi bo‘yicha tez o‘sib, Lord Voldemortning malaylariga nisbatan o‘ta qat’iy choralar ko‘rdi. Avrorlarga yangi vakolatlar berdi. Chunonchi, shunday buyruq chiqardiki, mazmunan Yovuz Lord malaylarini asir olgandan ko‘ra, joyida o‘ldirib qutulgan afzal, deya e’tirof etildi. Tergov tadbirlari olib borilmay, sud qilinmay to‘g‘ri dementorlar ixtiyoriga topshirilgan odam yolg‘iz men emas. Sgorbs zo‘ravonlikka qarshi zo‘ravonlik qo‘lladi. Gumon qilinayotganlarga nisbatan Oqibati mudhish qarg‘ishlar qo‘llashga ijozat berdi. Muxtasar qilib aytish mumkinki, Sgorbs, yovuz kuchlar tarafdorlarining aksariyati kabi shafqatsiz, zolim kishiga aylandi. Lekin adolat yuzasidan shuni ham ta’kidlab o‘tmoq darkorki, uning xatti-harakatini oqlaganlar kam bo‘lmagan. Bunday kishilar Sgorbs tomonidan olib borilayotgan siyosatni ma’qullashgan, amalga oshirayotgan chora-tadbirlarini to‘g‘ri deb topishgan, aksariyat sehrgarlar Sgorbsni sehrgarlik vaziri lavozimiga saylashni talab ham qilishgan. Voldemort g‘oyib bo‘lganidan so‘ng Sgorbsning vazir sifatida saylanishiga hech qancha vaqt qolmagan. Lekin sal o‘tib, nihoyatda noma’qul hodisa ro‘y berdi, – dedi Sirius ma’yus kulib. – Uning o‘g‘li Azkaban asirligidan qochib qutulishga muvaffaq bo‘lgan,

Voldemortni qidirib topib, hayotga qaytarishga uringan bir guruh O'limdan miriquvchilar bilan birga qo'lga olindi.

– Sgorbsning o'g'lini qo'lga olishdi? – vahima qildi Germiona.

– Ha, – dedi suyakni Otburgutga uloqtirib, o'zi yerga o'tirgancha, buxanka nonni ikki bo'lgan Sirius. – Qariya Barti uchun bu qanday zarba bo'lganini tasavvur qiling. Oilasiga, farzand tarbiyasiga sal ko'proq vaqt ajratishi kerak edi u, shunday emasmi? Ba'zida bo'lsa ham ishdan ertaroq uyga qaytishi... o'g'liga yaqinroq bo'lishi kerak edi.

Sirius non mag'zini bo'ri singari tishladi.

– Chindan ham o'g'li O'limdan miriquvchi bo'lganmi? – so'radi Garri.

– Tasavvur ham qila olmayman, – dedi non yutayotgan Sirius. – Bola Azkabanga qamalganda o'sha yerda edim. Bo'lib o'tgan ishlardan keyinchalik xabar topdim. Uni, haqiqatan ham, O'limdan miriquvchilar bilan birga qo'lga olishgan. Lekin bola, hali tilga olingan uy elfi kabi noto'g'ri joyga, bemavrid kelib qolgan bo'lishi ham mumkin.

– Sgorbs-chi, o'g'lini xalos etishga urinmadimi? – pichirladi Germiona.

– Sgorbs-a? O'g'lini-ya? – it irillagan kabi kulib yubordi Sirius. – Uning qanaqa odam bo'lganini yaxshi tushungansan, deb o'ylabman, Germiona! Sgorbs kechirayotgan hayot tamoyillaridan biri – nomiga dog' tushirish xavfini yuzaga keltiradigan har qanday g'ov barham topishi kerakligidir. Axir u butun hayotini sehrgarlik vaziri lavozimini egallashga bag'ishlagan. Odamlar uning nomini yana Ajal belgisi bilan bog'lashgani uchun ham sadoqatli uy elfini ko'chaga haydab chiqarganiga o'zingiz shohid bo'ldingiz. Bu ko'p narsalardan dalolat beradi. Sgorbsning otalik mehri o'z o'g'li ustidan ibratli sud uyushtirishga yetdi, xolos. Bu bilan u jinoyatchi o'g'lidan qanchalik nafratlangani, undan voz kechgani, to'g'ri Azkabanga yo'llaganini hammaga ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ldi...

– O'z o'g'lini dementorlarga topshirib yubordimi? – oh urdi Garri bazo'r eshittirib.

– Topshirdi, – javob berdi Sirius pinagini buzmay. – Kamera eshigining panjarasi orqali dementorlar qo'lida olib o'tilayotganini ko'rdim. Yoshi o'n to'qqizdan oshmagan yigitcha. Menga qo'shni kameraga tiqishdi uni. Kechgacha qichqirib, onasini chaqirdi bechora. Bir necha kun o'tgach, qichqirmay qo'ydi... u yerga qamalganlarning hammasi oxir-oqibatda qichqirmay qo'yadi... tushida qichqirishi inobatga olinmasa, agar...

Siriusning ko'zidagi nur, parda tortilgan kabi ma'lum vaqtga so'nib qoldi.

– Demak, hozir u Azkabanda ekan-da? – so'radi Garri.

– Yo'q, – ifodasiz javob berdi Sirius. – Azkabanda emas, umuman bu yorug' olamda ham emas endi u. Qamalganidan so'ng bir yil o'tar-o'tmas omonatini topshirdi.

– O'ldimi? – baralla so'rashdi bolalar.

– O'lgan yolg'iz u emas, – alam-la, javob berdi Sirius. – U yerda ko'pchilik aqldan ozadi. Aksariyat mahbuslar ovqat yemay qo'yadi. Hayotga, yashashga bo'lgan ishtiyoqlari bata-mom barham topadi. Yaqin orada kim asfalasofilinga yo'l olishi hammaga tushunarli bo'lib qoladi. Chunki dementorlar buni his etib, to'lqinlanib ketishadi. Yigitcha kasal ekani boshidan ma'lum edi. Sgorbs vazirlikda nufuzli zot bo'lgani uchun ham xotini ikkalasiga o'g'lining o'limi arafasida holidan xabar olib ketishga ijozat berildi. O'shanda men Barti Sgorbsni so'nggi bor ko'rgan edim. Xotinini kameramning oldidan deyarli qo'lda ko'tarib o'tdi. Adashmasam, o'g'lining o'limidan so'ng hech qancha o'tmay, xotini ham omonatini topshirdi. Yigitchaning onasini dard-alam olib ketdi, albatta. Sgorbs o'g'lining jasadini olib ketish uchun kelmadi. Dementorlar uni qasr yaqinidagi qabristonga qo'yishganini o'z ko'zim bilan ko'rib turdim.

Sirius og'ziga keltirgan nonni chetga qo'ydi-da, ko'zani ko'tarib, oshqovoq sharbatini bir simirishda tugatdi.

– Qariya Sgorbs o'z murodiga deyarli yetay deb qolgan fursatda hammasini birdaniga yo'qotdi-qo'ydi, – davom etdi u, og'zini kaftining orqa tomoni bilan artib. – Hozirgina el og'zida yurgan qahramon, «besh daqiqa kam sehrgarlik vaziri»... o'g'li

o‘ldi, xotini o‘ldi, oilasiga isnod keldi, qochib qaytganimdan keyin eshitishimcha, shuhrati ham batamom badnom bo‘ldi. Yigitcha o‘lgach odamlarning unga rahmi keldi. Shunday yoshgina, yaxshi oilada tug‘ilib o‘sgan yigitcha qanday qilib yomon yo‘lga kirib ketishi mumkin, degan savollar duv-duv yog‘ila boshladi. Tabiiyki, jamoatchilik yagona bir xulosaga, u ham bo‘lsa, yigitcha ota mehriga to‘ymagan, ota tarbiyasini ko‘rmagan degan to‘xtamga keldi. Shu tariqa, vazirlik lavozimi Kornelius Fujga nasib qildi. Sgorbs chetga surildi. Unga Xalqaro sehrgarlik hamkorligi departamenti ravo ko‘rildi.

Oraga uzoq sukunat cho‘kdi. Garri Sgorbsning o‘rmonda, kvidish kubogi finalidan keyin amriga itoat qilmagan uy elfiga ko‘zi chanog‘idan chiqib ketguday qaraganini esladi. Vinkining Ajal belgisi ostida topilganiga bu qadar ayqirib munosabat bildirganining sababi bu yog‘da ekan-da. O‘sha hodisa unga o‘g‘li bilan bog‘liq ishlar, eski g‘alva-yu, vazirlikda yomon otliq bo‘lib qolganini eslatgan.

– Xmurining gapiga qaraganda, Sgorbs hamma yoqda yovuz sehrgarlarni izlab topishga urinar ekan, – dedi Garri.

– To‘g‘ri, bunday faoliyat uning tabiatidagi vasvoslikka aylanib qolgan, – bosh irg‘idi Sirius. – Fikrimcha, agar u yana birorta O‘limdan miriquvchini tutib keltirsa, ilgarigi shuhratini qaytara olishiga umid qiladi.

– Shu bois ham Sneggning xizmat xonasini tintuv qilish uchun o‘g‘rincha kelgan bu yerga, – qichqirdi yuzida muzaffariyat barq urgan Ron, Germionaga yuzlanib.

– Ehtimol. Faqat uning harakatida ma’ni ko‘rmayapman, – ta’kidlab o‘tdi Sirius.

– Bekor qilasan! – dedi Ron.

– Modomiki, Sgorbs Severusga nisbatan tergov harakatini amalga oshirmoqchi ekan, – bosh chayqadi Sirius, – nega u bellashuvda hakamlik vazifasini bajarmayapti? Axir, bunday imkon «Xogvars»ga rasman, muntazam ravishda, ochiqdan ochiq tashrif buyurish va shu tariqa Sneggni kuzatib borish uchun bequsur sabab-ku, shunday emasmi?

– Nima deb o‘ylaysan, Snegg biron narsani niyat qilib

yuribdimi? – so'radi Garri.

– Snegg haqida nima desangiz, deng-u, lekin Dambldor Severusga to'la-to'kis ishonishini unutmang... – eslatib o'tdi qiz.

– Qo'ysang-chi, Germiona, – gapni bo'ldi besabr Ron. – Dambldor avliyo va hokazo, albatta. Biroq bu rostakam qudratli sehrgar uni alday olmasligini anglatmaydi.

– Nega bo'lmasa Snegg birinchi sinfda o'qib yurganimizda Garrining hayotini saqlab qoldi? – qaysarligini qo'ymadi Germiona. – Nega o'lib ketishini tek tomosha qilib o'tirmadi?

– Men qayerdan bilay. Balki, Dambldor uni ko'chaga chiqarib haydab yuborishidan qo'rqqandir... – taxmin qildi Ron.

– Sen nima deb o'ylaysan, Sirius? – baland ovozda so'radi Garri, Ron bilan Germionaning gap talashishlariga chek qo'ygancha, Siriusga quloq tutishga majbur qilib.

– Fikrimcha, ikkalangiz ham qaysidir ma'noda haqsiz, – dedi Sirius Ron bilan Germionaga o'ychan qarab. – Bu yerda o'qituvchilik qilayotganini eshitganimdan buyon nima sababdan Dambldor uni ishga olgani haqida o'ylanib yuribman. Snegg yovuz sehr-joduni hush ko'rib, hali maktabda o'qib yurgan kezlaridayoq yomon nom chiqargan. U qachon qarasang sochi kir yuradigan, hamisha suvdan quruq, tegirmondan butun chiqadigan ayyor bola edi, – qo'shib qo'ydi Sirius.

Garri bilan Ron bir-biriga qarab, kulib qo'yishdi.

– Hali maktabga kelmay turib shuncha qarg'ishlarni o'zlashtirib olgan ekanki, yettinchi sinfda tahsil ko'rayotgan har qanday o'quvchi ham uning oldida ip esha olmagan, – dedi Sirius. – U bilan do'st tutingan slizerinchilarning deyarli hammasi kelgusida O'limdan miriquvchilarga aylanib ketishgan. Rozye va Vilks, – qo'lini ko'tarib, barmoq bukkancha, sanay ketdi Sirius. – Ikkalasi ham Voldemort gum bo'lguncha avrorlar tomonidan o'ldirilgan. Er-xotin Lestranglar Azkabanda o'tirishibdi. Eyveri, eshitishimga qaraganda, jazodan qutulib, hozirgacha ozodlikda yuribdi. Unga nisbatan Qaram qilish qarg'ishi qo'llanilgan emish. Bilishimcha, Sneggning o'zi O'limdan miriquvchilikda ayblanmagan. Lekin bu uning oppoq ekandigidan dalolat bermaydi, albatta. Afsuski, ularning ko'p-

chiligi jinoyat ustida qo'lga olinmagani bois e'tibordan chetda qolib ketgan. Snegg esa ancha aqlli, juda makkor tulki. Uni biron-bir jinoyatda ayblash qiyin.

– Snegg bilan Karkarov eski qadrdonlar. Biroq ushbu ma'lumot oshkor bo'lishini Snegg istamaydi, – ta'kidlab o'tdi Ron.

– To'ppa-to'g'ri! – dedi Garri to'lqinlanib. – Karkarov kechagi darsga bostirib kelgan fursatda Sneggning basharasi tomoshabop bo'lib qoldi! Karkarov darsga kirib kelishga maj-bur bo'lganini aytib, Snegg boshqa joyda dumini tutqizmay yurganini ta'na qildi. Karkarov basharasidan juda tashvishli ko'rindi. U yengini tortib, tirsagidagi allaqanday narsani ko'rsatdi. Nima ekanini men ko'ra olmadim.

– Tirsagini ko'rsatdi? – so'radi Sirius, hang-mang bo'lib.

Qo'lini kir sochi orasiga solgancha, yelka qisgan Sirius-ning hayoli qochdi.

– Bu nima bo'lishi mumkinligini tasavvur ham qila olmayman... – dedi u nihoyat. – Modomiki, qattiq tashvish tortgan Karkarov tushuntirish so'rab Sneggning huzuriga kelgan ekan... Nima qilganda ham haqiqatni haqiqatday tan olmoq darkor, – hafsalasi pir bo'lgan qiyofa yasadi Sirius ma'lum vaqt g'or devoriga tikilib turgach. – Dambldor Severusga ishonadi. Dambldor boshqalar ishonmay qo'ygan odamlarning ko'piga ishonch bildirishidan xabarim bor. Biroq u o'z vaqtida Voldemortga xizmat qilgan Severusga ishonch bildirganiga aqlim bovar qilmayapti...

– Nega bo'lmasa Xmuri bilan Sgorbs uning xonasini tintuv qilib borishga oshiqadi? – sarkashlik qildi Ron.

– Xmuri «Xogvars»ga kirib kelishi bilan qasrning jamiki teshiklarini titib chiqmasa o'ziga o'zi o'xshamay qoladi. Qariya yovuz kuchdan himoya masalasiga jiddiy yondashadi. U biron kishiga ishonishiga shubha qilaman. Hayoti davomida ko'rgan narsalari inobatga olinadigan bo'lsa, buning hayron bo'ladigan joyi yo'q. Biroq ta'kidlab o'tmoq joizki, Xmuri imkoni boricha odam o'ldirmaslikka harakat qilgan. Jinoyatchini tiriklayin qo'lga olishga uringan. To'g'ri, kezi kelganda shafqatsiz bo'l-

gan, lekin O'limdan miriquvchilar darajasigacha past ketmagan. Sgorbs esa... u boshqa gap... Chindan ham kasalmikan u? Sog' bo'lsa, nimani niyat qilib yuribdi? Final o'yini mahalida qanaqangi muhim ish bilan band bo'lgan? Bellashuvga hakamlik qilish kerak bo'lgan paytda nima bilan mashg'ul bo'lib yuribdi?

Sirius g'or devoriga tikilgancha, jim bo'ldi. Yer depsinayotgan Otburgut esa ko'zga ko'rinmayotgan suyaklarni qidirish bilan ovora.

– Akam Sgorbsning shaxsiy yordamchisi, dedingmi? – Ronga yuzlandi Sirius. – So'nggi vaqtda Sgorbsni shaxsan ko'rgan-ko'rmaganini bilib berasanmi?

– Urinib ko'raman, – ikkilanib cho'zdi Ron. – Biroq Sgorbsni biron narsada gumon qilayotganimni aytmaganim ma'qul. Akam o'z boshlig'iga sal kam sajda qiladi.

– Biratula so'rab ko'r-chi, Berta Jorkinsdan xabar bormiyo'qmi, – dedi Sirius, ikkinchi gazetaga imo qilib.

– Shulmanning gapiga qaraganda xabar yo'q, – ma'lum qildi Garri.

– Uning gapidan maqolada ham iqtibos keltirilgan, – dedi Sirius. – Shulmanning fikricha, Bertaning xotirasi qisqa emish. Bekor gap. Jismi o'zgargan bo'lsa, o'zgarib ketgandir, ehtimol, hozir ko'chada ko'rsam, tanimasman, lekin shuni aniq aytishim mumkinki, o'zi g'irt tentak qiz bo'lsa ham, xotirasi hech qachon qisqa bo'lmagan. Aksincha, suxanchinlikni eshib qo'yib, har xil g'iybat gaplarni yillab esida saqlab yurgan. Tilini tiya olmagani uchun har xil noxush holatlarga tushib borgan. Vazirlikda aynan Bertaning tili sababli qanday muammolar yuzaga kelganini ko'z oldimga keltirishim mumkin. Balkim, shuning uchun ham Shulman uni qidirib topishga oshiqmagandir. Ayolning tili boshiga yetadi, deb shunga aytishsa, ajab emas. Soat necha bo'ldi? – og'ir xo'rsinib, toliqqan ko'zini ishqaladi u.

Garri soatiga qarab, ko'l tubida suzib yurganidan buyon ishlamay qolganini esladi.

– Uch yarim, – dedi Germiona.

– Maktabga qaytadigan vaqtingiz bo'ldi, – dedi Sirius o'rnidan turib. – Ha aytganday, yodingizda bo'lsin, – ogoh-

lantirdi u, Garriga diqqat-la qarab. – Bu yoqqa g'izillab qatnashingizni istamayman, tushundingizmi? Kerak bo'lsam xat yo'llang. Har qanday g'ayrioddiy hodisalar haqida xabardor bo'lib borganim ma'qul. Sen esa qasrdan ijozatsiz chiqma. Aks holda hamla qilish uchun g'animlarga yaxshi imkoniyat berasan.

– Ajdar bilan bir juft grindilou hisobga olinmasa, so'nggi vaqtda menga hech kim hamla qilmadi, – dedi Garri.

– Farqi nima... bellashuv o'tgandan so'nggina, erkin nafas olishim mumkin, – bolaga domangir qarab qo'ydi Sirius. – Bunga esa hali ancha bor. Tinchlanishning birinchi imkoniyati iyun oyida bo'ladi. Yana bir gap. O'zaro suhbatda meni Daydi, deb atang, xo'pmi? Sizlarni qishloq boshigacha kuzatib qo'yaman, – dedi u Garriga bo'sh ko'za bilan sochiqni uzatgach, Otburgutni silab. – Balki, yana birorta gazeta topib olarman.

G'orni tark etishdan oldin Sirius yana qora itga aylanib oldi. Ko'prikka yetib borishgan bolalar Daydining boshini silab Xogsmyod orqali «Xogvars» tomon yo'l olishdi. Sirius esa qishloq cheti bo'ylab yugurgancha, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Qiziq, Persi Sgorbs haqidagi gaplardan xabari bormikan? – so'radi Ron, qasrga yaqin qolganda. – Balki, bunday gaplar uni qiziqtirmas... xabar topsa, ehtimol, yanada battar g'ururlanib ketar. Ha, Persi qonun-qoidalarga amal qilinishini yaxshi ko'radi. O'z o'g'lining manfaatlari yo'lida qonun buzmaganini eshitib, balkim, Sgorbsning tutgan yo'li, xatti-harakatlarini ma'qullar.

– Persi o'z oila a'zosini dementorlarga topshirib qo'ymas edi, – baqirdi Germiona.

– Bir nima deyishim qiyin, – e'tiroz bildirdi Ron. – Agar xizmat pog'onasi bo'yicha o'sishiga biz, ya'ni oila a'zolari xalal berayotganimiz haqida o'ylanib qoladigan bo'lsa bormi... Bilasanmi, Germiona, Persi juda shuhratparast...

Uchovlon asosiy zinadan qasrga ko'tarilib, Katta Zaldan kelayotgan mazali taomlar hidini sezdi.

– Bechora Daydi, – chuqur xo'rsindi Ron. – Aftidan, u seni haddan ortiq yaxshi ko'radi, shekilli, a, Garri?... Kalamush yeb tirikchilik qilar ekan-a!...

XVIII BOB. AQLDAN OZGAN MISTER SGORBS

Yakshanba nonushtasidan so‘ng Garri, Ron va Germiona boyqushxonaga borib, Persiga xat yuborishdi. «*So‘nggi bor mister Sgorbsni qachon ko‘rding?*» deya berilgan savolni anchadan buyon bekor o‘tirgan Xedvig orqali yo‘llashga ahd qilishdi. Boyqush safarga kuzatilgach, Dobbiga paypoq hadya qilgani maktab oshxonasiga yo‘l olindi.

Uy elflarining bir guruhi tiz bukkancha ta’zim qilib, boshqa guruhi ikki bukilib qulluq qilgancha yosh mehmonlarni iltifotla qarshi oldi. Ba’zi elflar choy damlash, ayrimlari shirin-lik keltirishga shoshilishdi. Sovg‘a-salomlarni ko‘rgan Dobbi esa aqldan ozib qolay dedi.

– Garri Potter Dobbiga juda mehribon! – chiyillab qo‘ydi Dobbi katta ko‘zidan dumalab chiqqan yirik yosh tomchilarini artib.

– Dobbi sen menga bergan oyquloq o‘stir giyohi hayotimni saqlab qoldi, chin so‘zim, – dedi Garri. – Hech bir mubolag‘asiz aytyapman.

– Shokoladli ekler bormi? – so‘radi Ron quvonch-la ta’zim qilayotgan elflar to‘dasidan.

– Hozirgina nonushta qilding-ku! – e’tiroz bildirdi Germiona.

– Daydiga biron narsa jo‘natish kerakmi axir, – pichirladi Garri.

Xayol o‘tmay to‘rtta elf kattagina kumush patnisga terilgan eklerlar uyumini yetkazib keltirdi.

– To‘ppa-to‘g‘ri, – ma’qulladi Ron. – Shu bahonada Cho‘chqa ham bekor o‘tirmay, foydali ish bilan shug‘ullanadi. Yana ovqat topiladimi? – yana murojaat qildi u elflarga.

Besh-oltitta elf iltimosni vojib qilgani yugurib ketdi.

– Vinki qani, Dobbi? – so‘radi Germiona atrofga qarab.

– Vinki ho‘v anavi yerda, kamin yonida o‘tiribdi, miss, – javob berdi Dobbi, katta qulog‘i osilib.

– O, Xudoyim, – xitob qildi Vinkining ahvolini ko‘rgan

Germiona.

Vinki o'tgan safar o'tirgan kursiga astoydil joylashib ol-gan. Faqat endi uning tanasi va egnidagi yirtilib, adoyi tamom bo'lgan kiyimi shu qadar kir-ki, kaminning qurum qoplagan g'ishtlaridan farq qilmay qolibdi. Qo'liga huzur-lazzat ichim-ligining bir shishasini ushlab olgan urg'ochi elf ko'zini kamin olovidan uzmay, hiqichog'i tutib tebranib o'tiribdi.

– Kuniga olti shishadan ichyapti, – pichirlagancha chaqimchilik qildi Dobbi.

– O'tkir ichimlik emas-u, – dedi Garri.

– Uy elfi uchun o'tkirlik qiladi, – g'udulladi Dobbi bosh chayqab.

Ekler olib kelgan elflar hiqillab qo'ygan Vinkiga tanqidiy nigoh tashlab, o'z ishlari bilan shug'ullana ketishdi.

– Vinki o'z sog'lig'iga o'zi badgirlik qilyapti, – ma'yus pichirladi Dobbi. – Uyga qaytishni istayapti. Professor Dambldor yangi sohibimiz ekanini hech idrok eta olmayapti. Dobbi qancha uqtirmasin, bari bir tushunmayapti. Haligacha mister Sgorbsni sohib, deb biladi.

Kutilmaganda Garrining miyasiga bir fikr keldi.

– Salom, Vinki, – ko'rishdi u, urg'ochi elfga yaqinroq borgancha, ustida engashib. – Ittifoqo, mister Sgorbsga nima qilishi mumkinligini bilmaysanmi? Negadir Uch sehrgar bellashuvi musobaqalariga kelmay qo'ydi.

Vinkining ko'zi ravshanlashganday bo'ldi. O'tirgan joyida yana bir tebranib, kengayib ketgan qorachiqlarini Garriga qaratdi.

– S-sohib, hiq, tashrif, hiq, kelmay qo'ydimi? – so'radi u.

– Ha, shunday, – tasdiqladi Garri. – Birinchi musobaqa o'tgan kundan buyon ko'rmadik uni. «Bashorat-u karomat gazetasi»da yozishlaricha, betob emish.

Vinkining pastki labi titray boshladi.

– Biroq bu gaplar rost ekaniga komil ishonch bildira olmaymiz, – tez qo'shimcha qildi Germiona.

– S-sohibga, hiq, uning Vinkisi kerak! – ingradi baxti qora elf. – Hayot tashvishlarini, hiq, s-sohib yolg'iz o'zi, hiq, uddalay

olmaydi...

– Xabaring bo'lsa, Vinki, xizmatkor elfi bo'lmagan boshqa odamlar uy yumushlarini o'zlari eplay oladi, – dedi Germiona zaharli ohangda. – Sgorbsning boshqalardan ortiq yoki kam joyi yo'q. Shunday ekan, undan xavotir olmasang ham bo'laveradi.

– Vinki, hiq, sohibning uyida, hiq, faqat xo'jalik ishlari bilangina, shug'ullanmagan! – chiyillab e'tiroz bildirdi Vinki, o'tirgan joyida xavfli tebrangancha, ustiga ichimlik sachratib. – S-sohib, hiq, Vinkiga, hiq, o'ta muhim sirlarini, hiq, ishonadi...

– Qanday sirlarni? – so'radi Garri.

Vinki qattiq bosh chayqab, ustini battar ho'l qildi.

– Vinki, hiq, sohibning sirlarini, hiq, yaxshi saqlaydi, – dedi elf birovga itoat qilmasligini bildirmoqchi bo'lganday ikki ko'zini bir nuqtaga qaratgancha Garriga qosh chimirib. – Siz esa o'zingizga taalluqli bo'lmagan ishga burun suqyapsiz... hiq...

– Vinki, Garri Potter bilan bunday ohangda gaplashmasligi kerak! Garri Potter bizning yo'lchi yulduzimiz, u nihoyatda olijanob va mard kishi, – gapga aralashdi jahli chiqqan Dobbi. – U burun suqayotgani yo'q!

– Yo'q, u burun suqyapti, hiq, sohibimga taalluqli maxfiy ishlarga, hiq, Vinki yaxshi elf, hiq, – o'zinikini ma'qullab turib oldi urg'ochi elf. – Ba'zi odamlar esa hiq, burun suqyapti sohibim ishlariga, hiq.

Kutilmaganda yirik ko'zi qisilgan Vinki kursi tagidagi sholcha ustiga qulab, qattiq xurrak torta boshladi. Huzur-lazzat ichimligining qolgan qoldiqlari pol koshiniga to'kilib, deyarli bo'shagan shisha nari yumaladi.

Yugurib kelgan o'n ikkitacha elf basharalarini bujmaytirgancha, Vinkining ustini katak gulli dasturxon bilan yirganib yopib qo'ydi, tanasining, sohiblar ko'ziga haqoratli ko'rinadigan qismini durustroq bekitdi. Yana bir elf Vinkining shishasini olib, bekitgan bo'ldi.

– Huzurimizga tashrif buyurgan janoblar va xonim bunday noxush manzara ustidan chiqib qolishgani uchun hammamiz uzr so'raymiz, – dedi bolalarga yaqin turgan keksa elflardan biri nihoyatda qattiq xijolat tortib. – Umid qilamizki, Vinkining

xulqini ko'rib uy elflari haqida yomon fikrlarga bormaysiz!

– Vinki o'zini juda yomon his etyapti, shekilli! – xavotirlanib baqirdi Germiona. – Ustini latta bilan yopib qutulgandan ko'ra, unga dalda berib yupatsangiz bo'lmaydimi?

– Ma'zur tutgaysiz, miss, – dedi elf yana bir bor yuzi yerga tekkuday darajada ta'zim bajo aylab. – Sohiblarga xizmat ko'rsatish kerak bo'lgan, bir dunyo ish turgan paytda uy elfi o'zini yomon his etishga haqi yo'q.

– Xudo haqi! – o'kirib yubordi Germiona. – Gapimga quloq tuting, hammangiz! Sizning ham har qanday inson kabi muayyan huquqlaringiz bor! Siz ham o'zingizni yomon his etishga haqlisiz! Oylik maosh, mehnat ta'tili, durustroq kiyim kiyishga hammangiz haqlisiz! To'g'ri kelgan buyruqni so'zsiz bajarmaslikka, bosh ko'tarishga haqlisiz! Ana, Dobbidan o'rnak oling!

– Dobbini bu ishga aralashtirmaslikni iltimos qilgan bo'lar edim, miss, – g'udulladi cho'chib ketgan Dobbi.

Oshxonadagi jamiki elflarning yuzidagi baxtiyor tabassum bir zumda barham topdi. Ular Germionaga aqlidan ozgan xavfli qizga qaragan kabi baqrayib qolishdi.

– Mana sizning yeguligingiz! – tishini g'ichirlatdi Garrining tirsagi yaqinida turgan boshqa elf, bolaning qo'liga dudlangan go'shtning yirikkina bo'lagi, o'n ikkitacha pirojniy va bir bo'xcha meva ushlatib. – Qani endi, xush ko'rdik, tuyoqchalaringizni shiqillatib qoling-chi bu yerdan!

Garri, Ron va Germionaning atrofida qurshov halqasini hosil qilgan elflar bolalarni, mitti kaftlari bilan bellariga turtgancha, oshxonadan siqib chiqara boshladi.

– Paypoq uchun rahmat, Garri Potter! – degancha qoldi sho'rli Dobbi, ustiga dasturxon yopilgan shaklsiz tanacha yonida g'amgin qolib.

Yo'lakka chiqqan bolalarning ortida qolgan oshxona eshigi taraqlagancha yopilgach, jahli qaynagan Ron Germionaga o'shqirib berdi:

– Bir pas tilingni tiyib tursang bo'lmasmidi? Endi ular bizni hech qachon ichkariga kiritmaydi! Undan Sgorbs to'g'risida

biron nima bilib borsak bo‘lar edi!

– Sgorbs haqida qayg‘urayotgan ko‘yga solma o‘zingni, iltimos! – jerkib berdi Germiona. – Fikr-xayoling ovqatda!

Dam olish kunining rasvosi chiqdi. Umumiy mehmonxonada ikkala o‘rtoqning behuda tortishuvlaridan charchagan Garri Siriusga ovqat jo‘natish uchun boyqushxonaga yolg‘iz o‘zi chiqishga majbur bo‘ldi.

Siriusga yetkaziladigan bir dunyo ovqat Cho‘chrinstel uchun haddan ortiq og‘irlik qiladi. Binobarin, Garri boyqushchaga yordam tariqasida yana ikkita maktab boyqushini ishga jalb qildi. Uchala boyqush kun qorong‘isiga kirib ketgach, Garri deraza tokchasiga qo‘ygan qo‘liga iyagini tirab maktab hovlisi, «Taqiqlangan o‘rmon» daraxtlari va suvda qalqiyotgan «Durmshtrang» kemasining hilpirayotgan yelkanlarini bir pas tomosha qildi. Xagridning kulbasidan buralib chiqayotgan tutun orasidan qarchig‘aylar oilasiga mansub ukki uchib chiqib, boyqushxonani aylanib o‘tgancha, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Pastga qaragan Garri belkurak bilan g‘ayrat-la mehnat qilayotgan Xagridni ko‘rdi. «Sabzavot urug‘ini sepish uchun egat tayyorlayotgan bo‘lsa kerak», xayoldan o‘tkazdi Garri. Xagridning xatti-harakatlarini kuzatib turar ekan belstekchilarning ot aravasidan Maksim xonim chiqqanini ko‘rdi. U Xagridning yoniga kelib, suhbat qurmoqchi bo‘ldi, shekilli, belkurakka suyangan Xagrid gaplashishni istamaganday bo‘ldi. Ko‘p o‘tmay Maksim xonim yana aravasiga kirib ketdi.

Ron bilan Germionaning «Griffindor» minorasida it-mushukday qirilishayotganini ko‘rgisi kelmagan Garri boyqushlar galasi tungi ovga chiqqunga, ekinzorda mehnat qilayotgan Xagrid ko‘rinmay qolguncha boyqushxonada qoldi.

***

Ertalab Ron ham Germiona ham baharnav kayfiyatda ko‘rindi. yana ustiga Ronning mudhish bashorati, xususan Germionaning haqoratidan so‘ng uy elflari jazo tariqasida «Griffindor» dasturxoniga ikkinchi navli ovqat tortadi, degan

xavfsirashi behuda ekani ma'lum bo'ldi. Dudlangan baliq, bekon va tuxum ilgarigiday mazali ekanini his etgan Garri ancha yengil tortdi.

Katta Zalga pochta boyqushlari otilib kirganda, aftidan, qandaydir xabar kutayotgan Germiona umid-la yuqoriga qaradi.

– Persi javob yo'llashga ulgurmagan hali, – dedi Ron. – Axir, xatni unga kechagina yo'lladik.

– Men boshqa narsa kutyapman, – dedi Germiona, – Yangiliklarni slizerinchilardan bilib yurish jonga tegdi. «Bashorat-u karomat gazetasi»ga buyurtma bergan edim.

– To'g'ri qilibsan! – ma'qulladi Garri yuqoriga qarab. – Qara, Germiona, omading chopgan ko'rinadi...

Kulrang boyqush Germionaga qarab pastlamoqda.

– Ammo u olib kelayotgan narsa gazeta emas, – dedi Germiona hafsalasi pir bo'lib, – Bu...

Bolalarni mahliyo qilgan boyqush tikka pastlab, Germionaning likopi yoniga qo'ndi. Uning ketidan yana to'rtta, biri jigarrang, biri malla ombor boyqushi pastladi. Garri har biri o'z jo'natmasini birinchi bo'lib topshirishga urinib, bir-birini turtayotgan qushlar ag'darib yubormasligi uchun Germionaning tilla qadahini tutib qolishga bazo'r ulgurdi

– Gazetaning nechta soniga buyurtma bergansan? – so'radi Garri.

– Bunisi nima bo'ldi?... – dedi xatlardan birini ochgan Germiona. – Yana qandaydir bema'nilik! – tiqilib qoldi u, qizarib.

– Nima gap? – so'radi Ron.

– Bu... voy ahmoqlar...

U xatni Garriga tutqazdi. Aslida bu xat ham emas, «Bashorat-u karomat gazetasi» sahifalaridan qiyib olingan harflardan bitilgan noma ekan.

SEN BATTOL QIZ, GARRI POTTERNI TINCH QO'Y. U SENDAN KO'RA DURUSTROQ QIZGA MUNOSIB. O'Z DUNYONGGA, MAGLLAR ORASIGA QAYTIB KET.

– Bari shu ma'noda ekan! – ma'yus tortdi xat ketidan xat ochayotgan Germiona. – Quloq soling:

«Garri Potter sal aqlliroq bo'lishi, senday qizni sevmasligi kerak edi»... Mana yana bittasi:

«Seni qurbaqa uvuldirig'iga qo'shib, qaynatish kerak»... Voy!

Germiona so'nggi konvertni ochishi bilan ichidan benzin hidini esga soladigan sarg'ish-yashil quyuq suyuqlik otilib chiqib, qo'liga sachradi. Shu zahoti uning qo'li kuyib, sariq dog' bosdi.

– Eritilmagan bubotuber fasodi! – dedi konvertni olib, hidlagan Ron.

Joni og'riganidan ingrab yuborgan Germiona ko'zidan yosh oqqancha, sochiq bilan qo'l artishga urindi. Barmoqlarini zahil pufakchalar qoplagan qizning qo'li g'uddachali qo'lqop taqib olganday bo'lib qoldi. Ahvolni ko'rgan boyqushlar pir etib havoga ko'tarildi.

– Tez kasalxonaga bor, – maslahat qildi Garri. – Qayoqqa ketganingni Sarsabil xonimga aytib qo'yamiz...

– Ogohlantirgan edim-a, uni! – vaysadi Ron, Germiona qo'lini ko'ksiga bosib, Katta Zaldan yugurib chiqib ketgach. – Aytdim unga, Rita Vriterning jahlini chiqarma, deb! Mana buni eshit...

Ron xatlardan birini o'qidi:

«Garri Potterni aldab yurganingni «Avsunpoliten» jurnalida o'qib qoldim. U bola shundoq ham hayot achchiqlariga to'yib yuribdi. Endi sen kamlik qilayotgan eding. Shoshmay tur, kattaroq konvert topay, ko'rsatib qo'yaman senga, Garriga ozor yetkazish qanday bo'lishini. Shunday qarg'ish yo'llay-ki, bir umr eslab yurasan». O'ho', Germiona ehtiyot bo'lib yurishi kerakka o'xshab qoldi!

Germiona gerbologiya darsiga kelmadi. Issiqxonadan chiqqan bolalar qasrning asosiy pillapoyasidan tushib kelayotgan Malfoy, Krabbe va Goylni, ularning ketidan esa dugonalari bilan hiringlashib kelayotgan Pansi Parkinsonni ko'rishdi. Garriga ko'zi tushgan Pansi bolaning ortidan qichqirib qoldi:

– Potter, suyukli yoringdan voz kechdingmi, nima balo?

Nonushta mahalida qandaydir xomush ko'rindimi, u?

Garri e'tibor bermadi. «Avsunpoliten» jurnalida bosilgan mash'um maqola Germionaga qancha tashvish keltirganini bilsa, ushbu ahmoq qiz ichqoralik-la sevinishini istamadi.

Yakkashox otlar bilan o'tadigan mashg'ulotlar nihoyasiga yetganini o'tgan darsda e'lon qilgan Xagrid, navbatdagi savatlar zaxirasini oyoq ostiga terib, o'quvchilarni kulba yonida kutib turibdi. Savatlarni ko'rgan Garrining ichida bir narsa uzilib ketganday bo'ldi. Nahotki yana o'sha drakllar? Biroq yaqinroq kelib, savat ichiga qaragan Garri mayin mo'ynasi qop-qora, uzun xartumli, old oyoqlari kurakni eslatadigan mitti maxluq-larni ko'rdi. Bolalarga taajjubli nigoh-la muloyim baqraygan hayvonchalar o'zlariga bu qadar katta e'tibor ajratilayotganining boisini tushunmay ko'z pirpiratib o'tiribdi.

– Iskovuchlar, – tushuntira ketdi Xagrid, hamma to'plangach. – Asosan oltin konlarida yashaydi. Yaltiraq narsani juda yoqtiradi... ana, qarang.

Iskovuchlardan biri kutilmaganda bir sakrab Pansi Parkinsonning qo'lidagi soatni tishlab uzishga urindi. Pansi chiyillagancha, nari qochdi.

– Ushbu hayvonchalar tabiatan har xil qimmatbaho buyumlarning jonli detektori sanaladi, – sevinib ketdi Xagrid. – Bugun biz musobaqa uyushtiramiz. Oldindan tayyorlangan anavi yer maydoniga e'tibor qiling.

Garri boyqushxonada turib Xagridning aynan mana shu yer maydonini shudgorlaganini esladi.

– Men shudgorga juda ko'p tilla tanga ekib chiqdim. Kimning iskovuchi ko'p pul topsa, shu kishiga sovg'a borligini e'lon qilaman. Faqat dastlab qimmatbaho buyumlaringizni ye-chib qo'ying. O'zingizga iskovuchlardan birini tanlab, qo'yib yuborishga tayyor turing.

Garri ko'ldan chiqqanidan buyon ishlamay qolgan bo'lsa ham odatiga ko'ra taqib yurgan soatini yechib, kissasiga soldida, iskovuchlardan birini tanlab, qo'liga oldi. Hayvoncha o'zining quvurcha-burnini Garrining qulog'iga tiqib, qitig'ini keltirgancha obdan hidlab ko'rdi.

– Shoshmang... – dedi Xagrid savatga qarab. – Bittasi ortib qolibdi. Kim yo‘q? Qani Germiona?

– Kasalxonaga ketdi, – dedi Ron.

– Keyin tushuntirib beramiz, – dedi Garri, Pansi Parkinson qulog‘ini ding qilib olganini ko‘rib.

Bugun sehrli hayvonlarni parvarish qilish fanidan o‘tgan eng qiziqarli dars bo‘ldi. Iskovuchlar xuddi suvga sho‘ng‘igan kabi shudgorga kirib, tez chiqishar va yer ostidan topib olgan tilla tangalarni hech ham adashmay o‘z sohibining oldiga kelti-rib taxlashar edi. Ronning iskovuchi mehnatsevar bo‘lib chiqdi. Ko‘p o‘tmay uning qo‘lida bir olam pul to‘plandi.

– Birortasini xarid qilib, uyda boqsa bo‘ladimi, Xagrid? – so‘radi ruhlanib ketgan Ron, egniga loy sachratgan iskovuchi yana yer ostiga kirib ketganini ko‘rib.

– Bu fikring onangga yoqmaydi, Ron, – kulib boqdi Xagrid. – Iskovuchlar yer qazib, uy qulatishga qodir bo‘ladi. Xo‘p, nazarimda, ular pulni yig‘ib bo‘lishdi, – dedi u, shudgorni aylanib chiqib. – Men atigi yuz tilla tanga ekkan edim, xolos. Ana, Germionamiz ham keldi.

Maysazorda xomush, zo‘rg‘a yurib kelayotgan Germiona ko‘rindi. Pansi Parkinson unga o‘tkir qarab qo‘ydi.

– Xo‘sh, kim qancha pul to‘plaganini hisoblash vaqti yetdi! Sanang, tangalarni! – e’lon qildi Xagrid. – Ularni o‘g‘irlash befoyda, Goyl, – dedi u, qo‘ng‘iz ko‘zini qisib. – Bu neprech-yomlar tangasi. Bari bir ikki soatdan so‘ng o‘zidan o‘zi gum bo‘ladi.

Domangir qiyofa kasb etgan Goyl cho‘ntagidagi tilla tangalarni chiqarib to‘kdi. Eng yuqori mahsuldorlikni Ronning iskovuchi namoyon qilib, shakarpazlik korxonasiga ega «Rohat-luqum» qandolat do‘konining kattagina shokoladiga sazovor bo‘ldi. Hammani tushlikka chorlagan qo‘ng‘iroq zarbi yangra-gach, Garri, Ron va Germionadan tashqari hamma qasrga ravo-na bo‘ldi. Uchovlon iskovuchlarni tutib, savatlarga joylash masalasida Xagridga yordam berar ekan, arava ichida o‘tirgan Maksim xonim ularni kuzatib turgani Garrining e’tiboridan chetda qolmadi.

– Qo'lingga nima qildi, Germiona? – hamdardlik ohangida so'radi Xagrid.

Germiona ertalab olgan serzarda xatlar-u, bubotuber fasodiga to'ldirilgan konvert haqida aytib berdi.

– A-a-a-a, gap bu yoqda degin! Hech qisi yo'q, unutib, – ovuntirgan bo'ldi Xagrid, qizga muloyim qarab. – Menga ham anavi Rita Vriterning onam haqida yozgan maqolasidan so'ng o'xshash xatlarning bir dunyosi kelgan. «*Sen maxluqsan, seni daf qilgan kishi savobning tagida qolib ketadi*». «*Onang qanchadan qancha aybsiz odamlarning yostig'ini quritdi. Senda zig'irday bo'lsin vijdon bo'lganda, o'zingni allaqachon ko'lga tashlab, cho'kib o'lgan bo'lar eding*» va hokazo.

– Bo'lishi mumkin emas! – xitob qildi taajjubining cheki ko'rinmagan Germiona.

– Bo'lganda qandoq, – dedi Xagrid, iskovuchlar qamalgan savatlarni kulba devoriga suyab. – Senga yo'llangan o'sha xat mualliflari g'irt ahmoq odamlar, Germiona. Agar yana keladigan bo'lsa, ochib o'tirmasdan olovga tashla.

– Juda qiziq dars bo'ldi, – mavzuni almashtirmoqchi bo'ldi Garri qasrga qaytishar ekan, Germionaga murojaat qilib. – O'tkazib yuborganing chatoq bo'ldi-da. Yoqimtoy jonivorlar ekan, iskovuchlar, to'g'rimi, Ron?

Qovog'idan qor yog'ilayotgan Ron qo'lidagi shokoladga qarab kelmoqda. U nimadandir xafa bo'lgan ko'rinadi.

– Nima gap? – so'radi Garri. – Shokoladning ichidagi masalliq yoqmadimi?

– Yo'q, – qisqa qildi Ron. – Nima uchun anavi tilla tangalar haqida menga hech nima demading?

– Qaysi tilla tangalar haqida aytyapsan? – tushunmadi Garri.

– O'zingni go'llikka solma, Garri. Menga olib bergan omniokulyarning pulini final o'yini o'tganidan so'ng Mo'tabar Lojada qaytarib bergan edim. O'sha pul haqida so'rayapman. Tilla tangalar o'z o'zidan gum bo'lgani haqida nega aytmading?

Ron qaysi tilla tangalar haqida gapirayotganini eslashi uchun Garriga bir daqiqagacha vaqt kerak bo'ldi.

– A-a, – cho'zdi u, nihoyat esga olib, – Bilmadim... Gum

bo‘lganini payqaganim ham yo‘q. Rostini aytsam, o‘shanda meni boshqa tashvish qiynagan edi, tayoqcham, esingdami?

Uchovlon vestibulga kirib, Katta Zal tomon yo‘l oldi. Dasturxon atrofiga joylashib, likoplarga rostbif[1] bilan yorkshir pudinggini solishar ekan Ron uzuq-yuluq fikr bildirib qoldi:

– Bir dunyo puling bo‘lsa-yu, bir hovuchgina tilla galleoningni yo‘qotib qo‘yganingni sezmasang, yaxshi bo‘lsa kerak, a?! – kesatdi Ron.

– O‘shanda xayolim mutlaqo boshqa narsada edi, eshityapsanmi meni? – darg‘azab bo‘ldi Garri. – Hammamiz ham tashvishli ahvolda edik!

– Neprechyomlarning tilla tangalari o‘z o‘zidan gum bo‘lishini men qayerdan bilay, – g‘udullashini qo‘ymadi Ron. – Pulingni qaytarib berdim, deb o‘ylagan edim. «Otar zambaraklar» shlapasini sovg‘a qilmasliging kerak edi menga.

– Bo‘ldi, unut! – dedi Garri.

Ron qovurilgan kartoshka bo‘lagini sanchqiga sanchib, darg‘azab qiyofa ila bir pas tomosha qilib o‘tirdi.

– Faqirligim bois o‘zimdan o‘zim nafratlanaman, – dedi u nihoyat.

Garri bilan Germiona ovuntirishga so‘z topa olmay, birbiriga qarab qo‘yishdi.

– Mayli, buning ahamiyati yo‘q, – davom etdi Ron, kartoshka bo‘lagiga murojaat qilib. – Pul ishlashga urinayotgan Fred bilan Jorjni hech ham ayblamayman. Faqat men, afsuski, bunday qila olmayman. Iskovuchim yo‘qligiga achinaman.

– Kelasi Rojdestvo bayramiga senga nima sovg‘a qilishni endi bilamiz, – yupatib, dalda bergan bo‘ldi Germiona, biroq Ronning qovog‘i ochilmaganini ko‘rib, qo‘shib qo‘ydi: – Bas qilsang-chi, Ron, bundan-da battar holatlar ham bo‘ladi. Qo‘lingni fasod bog‘lamagan-u, – dedi u, shishgan qo‘li bilan sanchqi-pichoqni bazo‘r ishlatib. – Vriterdan nafratlanaman! – kutilmaganda yorildi qiz. – Qarimta qaytaradi hali, shoshmay

[1] **Rostbif** (*inglizcha*) – qovurilgan mol go‘shti. Inglizlarning tansiq taomlaridan biri. Bu taom, odatda, molning biqin go‘shtidan tayyorlanib, ochiq olovda panjarali maxsus moslamada pishiriladi.

tursin! Qasosli dunyo bu, qasosli dunyo! Hayotimdagi eng oxirgi ishim bo'lsa bo'lsin, lekin qilmishiga yarasha jazosini beraman! Chakkiga dakki nima ekanini yaxshilab tushuntirib qo'yaman!

***

Keyingi hafta davomida ham imzosiz xatlar kelishi davom etdi. Garchi Germiona Xagridning maslahatiga quloq tutib, konvertlarni ochmay qo'ygan bo'lsa-da, ba'zi badxohlar Qichqiriqnoma yo'llashni qo'ymadi. Muallifining qichqiriqlari eshitiladigan ushbu xatlar butun Katta Zalni boshiga ko'tarib, Germionani uyatsiz so'zlar bilan haqorat qilgani-qilgan. «Avsunpoliten» jurnalida bosilgan o'sha manhus maqolani o'qimaganlar ham mulohaza yuritilayotgan ishqiy uchburchak haqida keragidan ortiq xabardor bo'ldi. Garri esa hammaga Germiona uning qizi emasligini tushuntiraverib charchadi.

– E'tibor qilmay qo'ysak, hamma ishlar o'z iziga tushadi, mana ko'rasan, – der edi u Germionaga. – Men to'g'rimda yozilgan anavi mudhish maqolani muhokama qilmay qo'yishdiyu, har qalay...

– Qanday qilib odamlar orasida yakkama-yakka o'tgan suhbatni eshitib yurganini bilmoqchiman. Axir, Rita Vriter uchun maktab hududiga kirish darvozalari yopiq-ku! – achchiqlandi Germiona.

Yovuz kuchdan himoya fani bo'yicha o'tkazilgan navbatdagi darsdan so'ng Germiona, ba'zi narsalarni aniqlab olish uchun professor Xmurining huzurida ushlanib qoldi. Qolgan o'quvchilar esa xonani imkon qadar tezroq tark etib chiqishga oshiqdi. Gap shundaki, Xmuri, afsun yo'nalishini o'zgartirishga oid test sinovlariga shu qadar berilib ketgan ediki, tan jarohati yetmagan bolaning o'zi qolmadi. Quloq cho'zish afsuni Garri uchun yaxshilik bilan yakun topmadi. Bola boyaqish sinf xonasidan qulog'ini boshiga bosib olgancha, tez chiqib ketdi.

Besh daqiqa o'tmay Germiona bolalarni vestibulda quvib yetdi.

– Har qalay, Rita ko'rinmas plashdan foydalanmayotgani aniq bo'ldi, – dedi qiz, Garrining qo'lini buralib ketgan qulog'i-

dan tortib. – Xmurining gapiga qaraganda, ikkinchi musobaqa vaqtida Rita Vriter hakamlar stoli yonida ham, ko‘l sohilida ham bo‘lmagan.

– Germiona! Shu ishingni bas qilishni iltimos qilishdan naf bormi? – ehtiros-la murojaat qildi Ron.

– Yo‘q! – sarkashlik qilgancha, turib oldi Germiona. – Viktor bilan o‘tgan suhbatimni, Xagrid o‘z onasi haqida aytgan gaplarni qanday eshitganini juda bilgim kelyapti!

– Ehtimol, kiyimlaringga mitti elektron qo‘ng‘izcha o‘rnatgandir? – taxmin qildi Garri.

– Qo‘ng‘izcha? – tushunmadi Ron. – Bu... burga qo‘yish, deganimi?

Garri magllar olamining maxsus xizmatlari tomonidan yashirincha o‘rnatiladigan kichik o‘lchamli mikrofonlar-u, ovoz yozish qurilmalari haqida tushuntira ketdi. Buni zavq-la eshitgan Ron rosa hayron bo‘ldi-yu, Germiona gapga aralashdi.

– Biror kun kelib ««Xogvars» tarixi»ni o‘qib chiqasizmi ikkalangiz, yo‘qmi?

– Ovora bo‘lib o‘qib yotamizmi? – taajjublandi Ron. – Yonimizda o‘sha kitobni yod olgan sen bor-ku. Biron-bir ma’lumot kerak bo‘lsa, sendan so‘rab olaveramiz.

– Elektr toki vositasida ishlaydigan, sehr-jodudan mutlaqo bexabar magllar tomonidan qo‘llaniladigan kompyuter, radar kabi narsalar «Xogvars» yaqiniga keltirilishi bilan ishdan chiqadi. Negaki bu yerdagi havo sehr-joduga haddan ortiq to‘yintirilgan. Yo‘q, Rita Vriter bu yerda unday narsalarni ishlata olmaydi. U faqat sehrgarlar olamida qo‘llaniladigan pinhona eshitish vositalaridan foydalana olishi mumkin, xolos... Qanaqangi vositalar ekan?... Bilib olguday bo‘lsam bormi!... Agar bordi-yu o‘sha vositalar g‘ayriqonuniy bo‘lsami!... Oh, onasini Uchqo‘rg‘onda ko‘rsatib qo‘yaman o‘shanda unga...

– Xuddi boshqa tashvishimiz yo‘qday gapirasan-a! – e’tiroz bildirdi Ron. – Xun olish bilan shug‘ullanish yetmay turgan edi!

– Sendan yordam so‘rayotganim yo‘q! – o‘shqirib berdi Germiona. – O‘zim uddalayman!

U shartta ortga o‘girdi-da, marmar zina bo‘ylab yuqoriga

chiqib ketdi. «Kutubxona tomon yo'l oldi», xayoldan o'tkazdi Garri, no'xatday bo'lsin, shubha qilmay.

– Bas bog'lashim mumkinki, «*Rita Vriterdan nafratlanaman*» ko'krak nishonlarining bir qutisi bilan qaytadi.

Germiona chindan ham Ritaga qarshi olib borgan kurashida Garridan ham Rondan ham yordam so'ramadi. Bolalar esa bundan juda xursand bo'lishdi. Chunki, Pasxa ta'tili yaqinlashgan sari o'quvchilarga bir olam uyga vazifa berildi. Ularni bazo'r uddalayotgan Garri nafaqat vazifalar ijrosi, balki sehrli pinhona eshitish usullarini ham tasarruf etib borishga ulgura-yotgan Germionaga qoyil qoldi. Bola Siriusga taom yo'llab turishni ham unutmadi. Uning och yurish borasida yozgi ta'til-lar davomida to'plangan tajribasi nihoyatda boy bo'lib, Sirius-ning hozirgi holatini juda yaxshi tushunadi. Jo'natmalar orasiga yangiliklar yo'qligi, Persidan hanuzgacha javob olinmagani haqida yozilgan xatlar yo'llab bordi.

Xedvig Pasxa ta'tili nihoyasiga yetganda qaytib keldi. Persining javob xati missis Uesli tomonidan yo'llangan Pasxa tuxumlari orasiga joylangan. Qaynatib quyultirilgan sutga to'ldirilgan bo'lib, Garri bilan Ronga atalgan tuxumlarning har biri sal kam ajdar tuxumiday kelsa, Germionaga yo'llangan tuxum bedananing tuxumiday keladi. Sovg'asini ko'rgan Germiona qovog'ini uyib oldi.

– Ron, mabodo oying «Avsunpoliten» jurnaliga obuna bo'lmaganmi? – so'radi qiz past ovozda.

– Bo'lgan, – g'udulladi og'zini quyultirilgan sutga to'ldirgan Ron, – Ovqat tayyorlash usullarini o'sha jurnaldan oladi-da.

Germiona o'zining mittigina tuxumiga ma'yusgina qarab qo'ydi.

– Kelinglar, yaxshisi Persidan kelgan xatni o'qiymiz! – taklif kiritdi Garri, mavzuni almashtirib.

Persining xati qisqa, ohangi esa darg'azab ekan:

«Bashorat-u karomat gazetasi»ning muxbirlariga doimo ta'kidlab kelganman, sizlarga ham shuni takrorlayman: mister Sgorbs toliqqan va u haqli ravishda dam olyapti. Biroq boy-

qushlar orqali departamentimiz faoliyatiga taalluqli farmoyishlar yo'llashni to'xtatgani yo'q. O'zini ko'rmadim, lekin o'ylaymanki, gapimga ishonsangiz bo'laveradi. Chunki, o'z boshlig'imning dastxatini juda yaxshi taniyman. Bo'lar-bo'lmas mish-mish gaplarga barham berishdan tashqari, o'zimning ishim ham boshdan oshib-toshib yotibdi. Binobarin, favqulodda zarurat bo'lmas ekan, meni ortiqcha bezovta qilmang. Dilkash Pasxani tilayman.

***

Odatda, yozgi semestr boshida, Garri, kvidish mavsumining so'nggi o'yini uchun o'tkaziladigan mashqlarga zo'r berar edi. Bu yil esa Uch sehrgar bellashuvining so'nggi, uchinchi musobaqasiga tayyorgarlik ko'rishi kerak. Faqat ushbu musobaqa mazmunan qanday vazifa ijrosidan iborat bo'lishini bilmaydi. Nihoyat, bir narsani boshqa narsaga aylantirish fani bo'yicha may oyining so'nggi haftasida o'tgan darsdan keyin professor Makgonagall uni ushlab qoldi.

– Bugun, kechki soat to'qqizda, Potter, o'yingohga borishing kerak, – ma'lum qildi u. – Mister Shulman sizlarga so'nggi musobaqaga doir yo'l-yo'riq beradi.

Soat sakkiz yarimda Garri do'stlari bilan xayrlashib, «Griffindor» minorasidan pastga tushib ketdi. Vestibuldan o'tar ekan «Xufflpuff»ning umumiy mehmonxonasidan chiqib kelayotgan Sedrikni ko'rdi.

– Nima deb o'ylaysan, bu safar nima kutyapti bizni? – so'radi u Garridan. – Flyor allaqanday yerosti yo'llari haqida gapirgani-gapirgan. Qizning gapiga qaraganda, alaqanday xazina izlab topishimiz kerak emish.

Ikkalasi asosiy pillapoyadan tushib, bulut qoplagan kechki osmon ostiga chiqdi.

– Yomon bo'lmas edi, – dedi Garri, iskovuchlardan birini Xagriddan qarzga so'rab turishi-yu, hayvoncha uning o'rniga kerakli ishni bajarishini o'ylab.

Sedrik ikkalasi oqshom osmoni ostida qorayib borayotgan maysazor bo'ylab, o'yingohga, namoyishgohlar orasidan o'tib, o'yin maydoniga yetib bordi.

– Nima qilishdi bular o‘yingohimizni? – e’tiroz bildirdi Sedrik, oyog‘i yerga ko‘milganday tek qolib.

Hamisha tekis, silliq bo‘lgan kvidish maydonida endi pastakkina, o‘zaro kesishib, har tomon tarmoqlab ketgan uzun shox devor o‘sib chiqqan.

– Buta devorlar! – dedi Garri, yaqinroq ko‘rish uchun engashib.

– Hammaga salom! – yangradi quvnoq ovoz.

Dala o‘rtasida Krum bilan Flyor davrasida Lyudo Shulman turibdi. Garri bilan Sedrik pastak devordan oshib uchalasiga qo‘shilishdi. Flyor Garrini ko‘rib yashnab ketdi. Singlisini ko‘l tubidan olib chiqib berganidan buyon Flyorning Garriga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgargan.

– Qalay? Yoqdimi sizlarga? – qiziqdi baxtiyor qiyofa kasb etgan Shulman, Garri bilan Sedrik so‘nggi buta devordan oshib kelgach. – Yaxshi o‘syapti, a? Xagridning sa’y-harakati ila yana bir oydan so‘ng ushbu devorning bo‘yi yigirma futga yetadi. Xavotir olmang, – kuldi u, Garri bilan Sedrikning tahayyur yuzlaridagi ma’noni uqib. – Musobaqa o‘tgach kvidish maydoningiz yana o‘z holiga qaytadi! Nima bunyod etilayotganini anglab yetdingiz, deb o‘ylayman, a?

Bir-ikki soniya hamma jim bo‘lib qoldi.

– Labirint[1], – g‘udulladi nihoyat Krum.

– To‘ppa-to‘g‘ri, – sevinib ketdi Shulman. – Labirint. Uchinchi musobaqa sharti aslida u qadar qiyin emas, sodda. Uch sehrgar bellashuvi Kubogi labirint markaziga joylashtiri-ladi. Unga birinchi bo‘lib qo‘l tekkizgan chempionlikka da’vo-gar oliy ballga erishib, chempionlik unvoniga sazovor bo‘ladi.

– Biz labig‘intdan o‘tsak bo‘ldimi? – so‘radi Flyor.

– Biroq bu siz o‘ylagancha oson kechmaydi, deb o‘ylayman, miss. Labirint ichida muayyan g‘ovlara ham duch kelasiz, – zavq-shavq-la aniqlik kiritdi Shulman, tovonida turib tebrangancha. – Xagrid bu yerga... o‘simlik-hayvonchalarning ayrim

[1] **Labirint** (*yunoncha:* labyrinthos) – xonalari behad ko‘p, yo‘laklari odamni adashtiruvchi bino. Yunon mifologiyasida Krit oroli podshosi Minos me’mor va mohir mexanik Dedal labirint qurgan.

turlarini ekib qo'yadi... Bundan tashqari, yo'lingizda ta'siriga barham berish kerak bo'lgan ayrim afsunlar ham uchraydi va hokazo, o'zingiz tushunasiz. Ha, yana bir gap: labirint ichiga birinchi bo'lib ballar soni bo'yicha peshqadamlik qilayotgan chempionlikka da'vogarlar kiradi, – qo'shicha qildi Shulman Garri bilan Sedrikka irshayib. – Sizlardan keyin mister Krum, oxirgi bo'lib esa miss Delakyor kiradi. Shunga qaramay, ichkarida har biringizning imkoningiz tenglashadi. Zotan hamma gap yo'lingizda uchragan to'siq va g'ovlarni mahorat-la yengib o'tishingizga bog'liqdir. Vaqtichog'likning o'zginasi, shunday emasmi?

Uch sehrgar bellashuvi sharofatiga Xagrid qanday «beozor» o'simlik-hayvonchalar ekib qo'yishi mumkinligini yaxshi tasavvur qilgan Garri, ushbu tadbirning vaqtichog'lik deb atalishiga shubha ila qaradi. Shunday bo'lsa-da, boshqalar qatori bosh irg'ib qo'ya qoldi.

– Juda soz... agar savollar bo'lmasa, qasrga qaytishni taklif qilaman. Salqin tushib qoldi.

Ular labirintdan chiqish tomon yo'l olishdi. Shulman Garrining yonida lo'killab kelmoqda. «Hozir yana yordam taklif qiladi», xayoldan o'tkazdi Garri. Ammo shu fursatda uning yelkasiga Krum qo'l tekkizdi.

– Gaplashiib olsak bo'ladiimii?

– Bo'ladi, albatta, – taajjublandi Garri.

– Chetga chiiqamiizmii?

– Yaxshi, – qiziqib qoldi Garri.

– Kutib turaymi seni, Garri? – so'radi, aftidan, nimadandir umidvor bo'lgan Shulman hafsalasi pir bo'lganday ko'rinib.

– Yo'q, rahmat, mister Shulman, ishlar joyida, – rad etdi Garri, kulgisini bazo'r tiyib. – Qasrni o'zim topa olaman.

Garri bilan Krum o'yingohdan birga chiqishdi. Lekin negadir Krum «Durmshtrang» kemasi tomon emas «Taqiqlangan o'rmon» tomon yo'l boshladi.

– Nega o'rmon tomon ketyapmiz? – so'radi Garri Xagridning kulbasi bilan yorqin yoritilgan «Belstek» aravasi yonidan o'tishgach.

– Gapiimiiznii biirov piinhon eshiitiib qoliishiinii istamayman, – qisqa qildi Krum.

Nihoyat ikkovlon qanotli otlar qamalgan qo'tondan sal naridagi sokin joyga yetdi. Krum daraxtlar orasida to'xtab, Garriga yuzlandi.

– Xerm-ioun-nina ikkalangiizniing orangiizda niima gap borliigiinii biiliishnii istayman, – domangir qiyofa yasagancha, gap boshladi u.

Jiddiyroq mavzu kutgan Garri suhbatning bunday muqaddimasini eshitib, Krumga taajjub-la qarab qo'ydi.

– Hech gap yo'q, – dedi u.

Biroq Krumning badqovoq basharasini ko'rgan Garri, bolgarning bo'yi aslida novcharoq ekaniga yana bir bor iqror bo'lib, qo'shimcha qildi:

– Biz shunchaki do'stmiz, xolos. U mening qizim emas va hech qachon unday bo'lmagan. Bu gaplarning barini Rita Vriter to'qib chiqargan.

– Xerm-ioun-nina sen haqiingda tez-tez gapiirib turadii, – dedi Krum Garriga shubha ila qarab.

– To'g'ri, – tasdiqladi Garri. – Chunki biz do'stmiz.

Mashhur kvidish o'yinchisi Viktor Krum bilan ushbu mavzuda suhbatlashayotganiga Garri hech ishonmayapti. Demak, o'n sakkiz yoshli Krum Garrini o'ziga teng ko'rib, raqib deb bilyapti...

– Va siizlar hech qachon?... siiz ikkalangiiz... hech qachon?...

– Yo'q, – javob berdi Garri nihoyatda qat'iy ohangda.

Krumning ko'ngli yorishganday bo'lib, Garriga bir necha soniya churq etmay tikilib turdi.

– Zo'r uchar ekansan, – dedi u kutilmaganda. – Biiriinchii musobaqada ko'riib, shaxsan ishonch hosiil qiildiim.

– Rahmat, – dedi Garri irshayib. – Men esa sening mahoratingni Kubok finalida ko'rganman. Kazzobskiyning firibiga gap yo'q!...

Shu payt Krum ortidagi daraxtlar orasidan bir narsa yalt etib o'tganday bo'ldi. «Taqiqlangan o'rmon» ichida yashay-digan

maxluqlardan boxabar Garri g'ayriixtiyoriy ravishda Krumning qo'lidan ushlab, o'ziga tortdi.

– Niima edii u? – talmovsirab qoldi bolgar.

Garri bosh chayqab qo'ydi-da, harakat sodir etilgan joydan ko'z uzmay qo'lini korjomasining qatlariga solib sehrli tayoqchasini chiqardi.

Keyingi fursatda baland o'sgan eman ortidan yoshi katta erkak kishi chiqib keldi. Garri dastlab uni tanimadi... sal o'tib... axir, bu mister Sgorbs-ku!

Mister Sgorbsning zohiriy ko'rinishi xuddi ko'p kunlardan buyon piyoda yurgan musofirga o'xshaydi. Soqoli aftidan, bir necha kundan buyon olinmagan, bir vaqtlar bequsur ko'ringan mo'ylovi bilan sochi sartarosh xizmatiga ehtiyoj sezmoqda, korjomasining tizza qismi yirtilib, qonga belangan, kulrang tus olgan toliqqan yuzi rosa timdalangan. Qiyofasi taajjub ko'rinayotgan bo'lsa, xulq-atvori undan ham g'alati kechayotgan mister Sgorbs allanima vaysab, zo'r bergancha imo-ishora qilmoqda. Aftidan, u, faqat o'zining ko'ziga ko'rinayotgan allaqanday kishi bilan suhbat qurmoqchi. Turishidan bir vaqtlar Petuniya xola bilan do'konda yurishganda duch kelgan miskin kishini eslatdi. O'sha odam ham xuddi mister Sgorbs kabi o'zi bilan o'zi gaplashib yurgan. Undan tezroq nari qochish uchun Petuniya xola Dudlining qo'lidan ushlab, ko'chaning narigi tomoniga o'tib olgan edi. O'sha oqshom Vernon amaki ixtiyor unda bo'lganida gadoylar-u, miskinlarni nima qilgan bo'lishi haqida uzoq ma'ruza o'qidi.

– Hakam-u, bu?! – baqraydi Krum. – Siizniing vaziirliigiingiizdan, a?

Bosh irg'ib qo'ygan Garri biroz ikkilanib turgach, mister Sgorbs tomon odimladi. O'girilib ham qo'ymagan mister Sgorbs yonidagi daraxt bilan gaplashishni davom etmoqda:

– ... bu ishni yakuniga yetkazgach, Uezerbi, Uch sehrgar bellashuviga hozir bo'ladigan «Durmshtrang» o'quvchilarining sonini aniqlab, Dambldorga boyqush yo'llang. Karkarovdan olingan ma'lumotga qaraganda, ulardan o'n ikki nafar o'quvchi keladi...

– Mister Sgorbs, – asta chaqirdi Garri.

– ... shundan so‘ng Maksim xonimga ham boyqush yo‘llang. Modomiki, Karkarov o‘n ikki nafar o‘quvchi olib kelar ekan, Maksim xonim ham o‘z o‘quvchilarining sonini oshirsa, ajab emas... Uddalay olasizmi, Uezerbi? Uddalay olasizmi? Uddalay...

Birdan mister Sgorbsning ko‘zi chanog‘idan chiqib ketguday bo‘ldi. U daraxtga baqraygancha, unsiz g‘udullab turdi-da, tizzasiga o‘tirib qoldi.

– Mister Sgorbs! – balandroq ovozda chaqirdi Garri. – Sizga nima qildi?

Garri ko‘zi orqaga tortib ketgan Sgorbsning ortidan kelib, baqraygancha tek qotgan Krumga yuzlandi.

– Unga niima qiiliibdii? – so‘radi Krum.

– Bilmadim, – g‘udulladi Garri. – Balki, birortasini chaqirib kelarsan?

– Dambldor! – kutilmaganda ovoz berdi Sgorbs.

U qayoqqadir yuqoriga, noma’lum tomon qaragancha, qo‘lini oldinga uzatib Garrining korjomasini mahkam ushladi-da, o‘ziga tortdi.

– Dambldorni... men Dambldorni ko‘rishim kerak... – ovoz ko‘tardi Sgorbs.

– Ko‘rasiz, albatta. O‘rningizdan tursangiz, sizni Dambldorning huzuriga olib boramiz... – ishontirdi Garri.

Jag‘idan so‘lak osilib tushgan, har bir gapini qattiq kuchanib aytayotgan, chaqchaygan ko‘zi dam-badam orqaga tortib ketayotgan Sgorbsning aqldan ozgani ko‘rinib turibdi.

– Men... ahmoqlik qilib qo‘ydim... – bazo‘r gapirdi u. – Dambldorga... iqror... bo‘lishim kerak...

– O‘rningizdan turing, mister Sgorbs, – baland va aniq talaffuz etdi Garri. – Turing, men sizni uning huzuriga eltib qo‘yaman!

Sgorbsning nigohi Garriga kelib to‘xtadi.

– Siz... kimsiz? – pichirladi u.

– Men o‘quvchiman, – javob berdi Garri Krumdan madad kutib.

Biroq cho'chib ketgan Krum sal nariga borib olgan.

– Siz... u bilan emasmisiz? – pichirladi Sgorbs iyagi ochilib.

– Yo'q, – tavakkal javob berdi Garri.

– Dambldor tarafdorimisiz?

– Albatta, – tasdiqlari Garri.

Sgorbs bolani yanada kuchliroq tortdi. Garri uning changalidan xalos bo'lishga urindi-yu, uddasidan chiqa olmadi.

– Dambldorni... ogohlantirib qo'ying...

– Dambldorni o'zim boshlab kelaman, agar meni qo'yib yuborsangiz, – uqtirishga urindi Garri. – Qo'lingizni bo'shating, mister Sgorbs, men uni boshlab kelaman...

– Rahmat, Uezerbi. Ushbu ishlarni nihoyasiga yetkazib bo'lgach bir piyola choy keltirsangiz, sizdan juda minnatdor bo'lar edim. Tez orada rafiqam bilan o'g'lim kelishi kerak. Bugun Fujlar oilasi bilan birga konsertga tushamiz.

Sgorbs yana daraxt bilan suhbatlashishga kirishdi. U yonida birov borligini anglagani ham yo'q. Garri Sgorbsning bunday holatidan shu qadar taajjublandiki, changalini bo'shat-ganini ham sezmadi.

– O'g'lim yaqinda MOSDning o'n ikkinchi saviyasiga ega bo'ldi, – davom etdi Sgorbs, – To'g'ri, qoniqarli saviya, to'g'ri, tashakkur, rahmat, ha, ha, chindan ham faxrlanaman. Endi marhamat qilib, Andorra[1] Sehrgarlik vazirligidan kelgan xatni uzatib yuborsangiz. Javob xatini qoralab qo'yishga ulgursam kerak...

– Sen bu bilan o'tirib tur! – buyurdi Garri Krumga. – Men qasrga borib Dambldorni boshlab kelaman. Men uni tezroq topaman. Direktorimizning xonasi qayerda ekanini hamma ham bilavermaydi...

– U aqldan ozgan, – dedi Krum ikkilanib.

Persi bilan suhbat qurayotganiga shubha qilmayotgan Sgorbs yerga yonboshlab olgancha, daraxtga allanima deb vaysayapti.

[1] **Andorra** – davlat (Andorra vodiylari – Andorra knyazligi, Yevropaning janubiy-g'arbidagi davlat, Sharqiy Pireneya tog'lari va Valira (Ebro daryo havzasi) vodiyida).

– Yonidan ketmay tursang bo'ldi, – dedi Garri o'rnidan turar ekan.

Biroq bolaning qo'zg'alishi Sgorbsning xulqida yana o'zgarish uyg'otdi. U Garrining tizzasidan quchib, yana yerga tortdi.

– Meni... yolg'iz tashlab... ketmang... – umidsiz pichirladi Sgorbs, ko'zi chanog'idan chiqib ketguday bo'lib. – Men... qochib ketdim... oldini olishim kerak... ogohlantirib qo'yishim zarur... Dambldorni... ko'rishim shart... mening aybim... hammasiga o'zim aybdorman... Berta o'lgan... mening aybim bilan... o'g'lim... mening aybim bilan... hammasiga o'zim aybdorman... Dambldorga ayting... Garri Potter... Yovuz Lord... u kuchli... Garri Potter...

– Qo'yib yuboring, Dambldorni boshlab kelaman! – baqirdi Garri va Krumga darg'azab qaradi, – Yordam bersang-chi, nega lallayasan!

Xavfsirab kelgan Krum Sgorbsning yoniga kelib cho'kkaladi.

– Ketib qolishiga yo'l qo'yma, – dedi Garri xalos bo'lgach. – Men Dambldorni boshlab kelaman.

– Tezroq qayt, xo'pmii? – baqirib qoldi Krum.

Garri qop-qorong'i hovli bo'ylab qasr tomon yugurdi. Atrof kimsasiz. Shulman, Sedrik va Flyor allaqachon ketib bo'lishgan. Garri asosiy pillapoya ustidan uchib o'tib, marmar zinadan ikkinchi qavatga ko'tarildi. Besh daqiqadan so'ng kimsasiz yo'lakdagi katta, nihoyatda xunuk ajdar tusli tosh ilon qarshisida to'xtadi-da, Dambldorning xonasiga ko'tarib chiqa-digan yashirin eskalatorga[1] kirish parolini hansirab talaffuz etdi:

– Lim... limonli obakidandon[2]!

Har qalay, devor ikki yil muqaddam shu parol bilan ochilgan edi. Biroq parol almashgan ko'rinadi, jonlanib, chetga qochishi kerak bo'lgan tosh ilon qilt etmay, Garriga darg'azab qaragancha, tek turibdi.

---

[1] **Eskalator** (*inglizcha:* escalator – harakatlanuvchi zinapoya; *lotincha:* scala – narvon, zinapoya) – metro, katta magazin va shu kabilarda odamlarni yuqoriga chiqarish va pastga tushirishga xizmat qiladigan, uzluksiz harakatlanuvchi pog'onalardan iborat qiya zina.

[2] **Obakidandon** (*forscha*) – shakar qiyomidan tayyorlangan shirinlik turi.

– Qimirlasang-chi! – na'ra tortdi Garri. – Tezroq!

Ammo «Xogvars»da baqir-chaqir bilan ish bitmaydi. Garri buni yaxshi biladi. U qorong'i yo'lakka qaradi. «Balki, Dambldor o'qituvchilar xonasidadir», xayoldan o'tkazdi bola va zina tomon kuchi boricha otildi...

– POTTER!

Keskin to'xtagan Garri orqa o'girilib, yashirin eskalatordan chiqib kelayotgan Sneggni ko'rdi. Uning ortidagi devor asta yopilmoqda. Snegg Garriga imo qilib, yoniga chorladi.

– Nima qilyapsiz bu yerda, Potter? – so'radi Snegg.

– Menga professor Dambldor kerak! – yugurdi Garri.

Biroq devor yopilib, Sneggning ro'parasida qoqilgan qoziq singari turib qolishga to'g'ri keldi.

– Xo'sh?

– Mister Sgorbs to'g'risida aytadigan gapim bor... u hozirgina paydo bo'lib keldi... o'rmonda... o'tinib yotibdi...

– Nimalar deb aljirayapsan, Potter? – gapni bo'ldi Snegg qop-qora ko'zi noxush yarqirab.

– Aljirayotganim yo'q! Mister Sgorbs haqida gapiryapman! Vazirlikda ishlaydi, taniysizmi? U kasal yoki boshqa nimadir bo'lgan unga. O'rmonda yotibdi, Dambldorni so'rayapti! Parolni ayting menga...

– Direktor band, Potter, – murdor tabassum-la ma'lum qildi Snegg.

– Dambldorga zudlik bilan yetkazishim kerak!

– Gapimni eshitdingizmi, Potter?

Snegg Garrining maqsadga erishish yo'lida g'ov bo'lganidan huzur qilayotgan ko'rinadi.

– Quloq soling, – darg'azab bo'ldi Garri. – Sgorbsning tomi jilib qolgan, chamasi... alahsirab yotibdi... nimanidir oldini olmoqchi...

Sneggning ortidagi devor yana ochilib, ostonada egniga yashil korjoma kiygan, yo'lakda turganlarni ko'rib, hayron bo'lgan Dambldor ko'rindi.

– Professor! – qichqirdi Garri og'iz juftlashga ulgurmagan Sneggni aylanib o'tib. – O'rmonda... mister Sgorbs... siz bilan

gaplashmoqchi!

Garri Dambldor ham bir dunyo savol yog'dirishini kutdi. Biroq Garrini hayron qoldirgan direktor bunday qilmadi. Aksincha, «Yo'l ko'rsat» degancha, tahayyur bashara kasb etgan Sneggni tosh ilon oldida qoldirib, bolaning ketidan ergashib ketdi.

– Mister Sgorbs nimalar dedi, Garri? – so'radi Dambldor, marmar zinadan pastga shiddat-la tushib borishar ekan.

– Sizni ogohlantirib qo'yishi kerak ekan... qandaydir gunoh ish qilib qo'yganiga iqror bo'lmoqchi... o'g'lini eslab o'tdi... Berta Jorkinsni... Voldemortni ham tilga olib o'tdi... aytishicha u, tobora kuchli bo'lib borayotgan emish...

– Rostdanmi? – dedi Dambldor qadamini tezlatib.

Ikkalasi qop-qorong'i zulmatga kirishdi.

– O'zini juda g'alati tutdi, – davom etdi Garri, Dambldorning ketidan shoshib. – Aftidan, qayerga kelib qolganini idrok etmayapti. Dam Persi bilan xotirjam gaplashib o'tirganday bo'ladi, dam keskin o'zgarib qolib, siz bilan yuzlashtirishni so'rab, o'tinadi. Men uni Krum bilan qoldirdim.

– Shunaqa de? – sergak tortdi Dambldor qadamini yanada tezlatib. – Mister Sgorbsni yana biron kishi ko'rgan bo'lishi mumkinmi, xabaring yo'qmi?

Garri yetishib yurishi uchun yugurishga majbur bo'ldi.

– Yo'q, – javob berdi bola. – Mister Shulman uchinchi musobaqa mazmuni haqida aytib berdi. Shundan so'ng Krum ikkalamiz suhbatlashib, ortda qoldik. Ana o'sha paytda mister Sgorbs o'rmondan chiqib keldi...

– Qayerda ular? – so'radi Dambldor.

Qorong'ilikda «Belstek» aravasi ko'rindi.

– Ho', anavi yerda, – dedi Garri oldinga chiqqancha, Dambldorni ortidan ergashtirib.

Sgorbsning ovozi eshitilmayotgan bo'lsa-da, Garri qaysi tomonga yurishni biladi. Aravadan uzoq emas... qayerdadir shu yaqin atrofda...

– Viktor! – baqirdi Garri.

Hech kim javob bermadi.

– Ular shu yerda edi, – dedi Garri Dambldorga. – Aniq shu yerda edi...

– Lyumos, – g'udulladi Dambldor sehrli tayoqchasini baland ko'tarib.

Tayoqcha uchidan taralgan ensiz nur shu'lasi bir daraxtdan ikkinchisiga o'tib, nihoyat yerda yotgan odamning oyog'ini yoritdi.

Garri bilan Dambldor olg'a tashlandi. Hushsiz Krum yerda uzala cho'zilib yotibdi. Dambldor asta engashib, Krumning qovog'ini ochib ko'rdi.

– Urib yiqitish qarg'ishi, – asta xulosa chiqardi yarim oy shaklidagi ko'zoynagi qorong'ilikda yarqiragan Dambldor.

– Biron kishini chaqirib kelaymi? – so'radi Garri. – Pomfri xonimni chaqiraymi?

– Yo'q, – tez rad etdi Dambldor. – Qimirlamay o'tir.

U tayoqchasini yuqoriga ko'tarib, Xagridning kulbasi tomon o'qtadi. Tayoqcha uchidan kumush tusli nimadir uchib chiqib, xayoliy qush kabi daraxtlar orasidan uchib ketdi. Shundan so'ng pastga engashgan Dambldor tayoqchasini Krumga yo'llab g'udulladi: – Enerveyt!

Krum ko'zini ochdi. Yuzida hech qanday ifoda yo'q. Dambldorni ko'rib, o'tirib olishga urindi. Biroq Dambldor qo'lini Viktorning yelkasiga qo'yib, xotirjam yotishni amr etdi.

– Menga tashlandii! – to'ng'illadi Krum. – Anavii aqliinii yegan qariiya menga tashlandii! Potternii izlab atrofga qaragan ediim, orqamdan hamla qiiliib qoldii!

– Biroz xotirjam yot, – to'xtatdi uni Dambldor.

Og'ir qadam tovushi bilan itning angillashi eshitildi. Tez orada qo'lida arbalet[1] ushlagan Xagrid bilan So'yloqtish paydo bo'ldi.

– Professor Dambldor! Garri? Bu nima?... – so'radi manzarani ko'rgan davangir qo'ng'iz ko'zi katta ochilib.

---

[1] **Arbalet** – (*fransuzcha:* arbalete; *lotincha*: arcus – yoy va ballista – irg'itiladigan snaryad) – o'rta asrlarda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ishlatilgan otish quroli; yog'och asosga (dastgohga) mahkamlangan po'lat kamondan iborat. Arbaletdan kalta o'q-yoylar bilan otilgan.

– Xagrid, professor Karkarovni tez topib kel, – buyurdi Dambldor. – Uning o‘quvchilaridan biriga hamla qilingan. Shundan so‘ng iltimos, professor Xmuriga xabar ber...

– Bunga hojat yo‘q, Dambldor, – yangradi zirillagan na’ra. – Men shu yerdaman.

Bir qo‘liga aso, ikkinchisiga yoritilgan tayoqchasini ushlagan Xmuri kalovlanib keldi.

– Jin ursin, bu oyoqni, – darg‘azab vaysadi u. – Tezroq kelishim ham mumkin edi... Tinchlikmi? Snegg Sgorbs to‘g‘risida nimadir deganday bo‘ldi...

– Sgorbs to‘g‘risida? – so‘radi hech nimani tushunmagan Xagrid.

– Karkarovni chaqirib kel, iltimos, Xagrid, tezroq! – gapni bo‘ldi Dambldor.

– A... Ha-ya... – do‘rilladi Xagrid va So‘yloqtish bilan birga qorong‘ilikka kirib ketdi.

– Barti Sgorbsning qayerdaligini bilmayman-u, – dedi Dambldor Xmuriga murojaat qilib, – lekin uni topish shart ekanligini aniq bilaman.

– Unday bo‘lsa, meni ishga kirishdi, deb hisoblayvering, – na’ra tortdi Xmuri, qo‘lida tayoqchasini mahkam tutgancha, o‘rmon qa’riga kirib ketib.

Xagrid bilan So‘yloqtish qaytayotgani aniq eshitilguncha Dambldor ham Garri ham churq etmay o‘tirdi. Kumush tusli mo‘yna kiyim kiygan, rangi oqarib, darg‘azab qiyofa kasb etgan Karkarov ikkalasining ortidan paydo bo‘lib keldi.

– Tinchlikmi? Nima gap? – so‘radi u, yerda yotgan Krum va uning yonida turgan Dambldor bilan Garriga ko‘zi tushgach.

– Menga hamla qiiliishdi! – javob berdi Krum yotgan o‘rniga o‘tirgancha, boshini uqalab. – Miister Sgorbsmiii yokii niima edii uning ismii...

– Sgorbs hamla qildi? – hayron bo‘ldi Karkarov. – Sgorbs? Uch sehrgar bellashuvi hakami-ya?

– Igor, – gap boshladi Dambldor.

Biroq mo‘ynasiga yanada zichroq o‘ranib olgan Karkarov darg‘azab nigoh tashlab, gapni bo‘ldi.

– Xiyonat! – o‘kira ketdi u, ko‘rsatkich barmog‘ini Dambldorga o‘qtab. – Fitna! Siz va sizning vazirligingiz munofiqona yo‘l tutib, meni bu yerga jazb etgansiz! Avval boshdan ma’lum bo‘lgan edi musobaqa teng huquqli emasligi! Dastlab yoshi yetmagan Potterni tiqishtirdingiz! Endi vazirlikda ishlaydigan do‘stingiz mening chempionlikka da’vogarimni safdan chiqarishga urindi! Munofiqona o‘yin bo‘layotgani boshidan ayon ediya! Bularning bari uyushgan jinoyatchilik, deb ataladi, Dambldor! Xalqaro sehrgarlik munosabatlarini mustahkamlash, ilgarigi birlikni tiklash, bo‘lib o‘tgan xusumatlarni unutish to‘g‘risidagi gapingiz... Tupurdim o‘sha gaplaringizga! – dedi Karkarov Dambldorning oyog‘i ostiga tupurib.

Yashin tezligida harakat qilgan Xagrid Karkarovning ko‘kragidan shartta changallab oldi-da, baland ko‘tarib, daraxtlardan birining tanasiga qapishtirib qo‘ydi.

– Joningdan umiding bo‘lsa, uzr so‘ra! – irilladi Xagrid og‘zi bilan havo yutib, oyog‘i tipirchilayotgan Karkarovning bo‘g‘zini ezib.

– Xagrid, yo‘q! – qichqirdi Dambldor ko‘zi chaqnab.

Davangir sal kam daraxt uchiga ko‘tarilgan Karkarovning yoqasini osilib turgan joyidan qo‘yib yubordi. «Durmshtrang» direktori daraxtning bo‘rtib chiqqan ildizi ustiga gumburlab tushib, boshiga bir nechta shox va bir olam barg to‘kildi.

– Xagrid, iltimos, Garrini qasrga, «Griffindor» minorasigacha kuzatib qo‘y, – dedi Dambldor qat’iy ohangda. – Ha, aytganday, Garri, tong otguncha o‘sha yerdan chiqmay o‘tirishingni iltimos qilgan bo‘lar edim. Har qanday yumushingni, shu jumladan, boyqush jo‘natish kabi ishlaringni ertalab bajara-san, xo‘pmi? Fikrimni tushunding, a?

– M-m-m... ha... – hayron bo‘ldi Siriusga zudlik bilan Cho‘chrinstelni yuborish haqida o‘ylayotgan Garri.

– So‘yloqtishni siz bilan qoldiraman, direktor, – dedi mo‘yna kiyimi daraxt ildiziga ilinib, o‘rnidan tura olmayotgan Karkarovga yovuz qarab qo‘ygan Xagrid.

Garri ikkalasi «Belstek» aravasi yonidan indamay o‘tib, qasr tomon yo‘l olishdi.

– Dambldorga bunday ayb qo‘yishga qanday jur’at etdi?! – ovoz ko‘tardi Xagrid, ko‘l bo‘yidan o‘tishar ekan. – Dambldor bunday ishga qodirday ayblashini qarang! Go‘yo u seni bellashuvda ishtirok etishingni istagan kabi gapirishi-chi! Axir, aynan shu holat tufayli tashvishiga tashvish qo‘shilib yuribdi-yu! Dambldorni bunday holatda hali hech qachon ko‘rmagan edim! Sen-chi, churvaqa?! – kutilmaganda Garriga o‘shqira ketdi u. – Anavi jin urgan Krum bilan kimsasiz, notanish joylar-da yurishingni qara-ya! Axir u «Durmshtrang»dan-u, Garri! Shartta oladi-da, qarg‘ab tashlaydi! Xmuri seni hech narsaga o‘rgatmadimi? Tentak qo‘yga o‘xshab, o‘zingni o‘zing tuzoqqa ilintirib berishingni qara-ya!

– Krum yaxshi yigit! – qizishib e’tiroz bildirdi Garri, asosiy pillapoyadan ko‘tarilib, vestibulga kirishar ekan. – U meni qarg‘amoqchi emas edi, shunchaki, Germiona haqida gaplashib olmoqchi edi...

– Germiona bilan ham gaplashib qo‘yaman hali! – do‘rilladi Xagrid tanqid ohangida. – Anavi ajnabiylar bilan qancha kam og‘iz-burun o‘pishib yursangiz, shuncha ko‘p xavfsiz bo‘lasiz. Ularga ishonib bo‘lmaydi.

– Kal o‘zidan bexabar, deb shunga aytsalar kerak-da, – zaharli ilonday chaqib oldi Garri. – Maksim xonim bilan apoq-chapoq bo‘lib yurgan kim?! Avval o‘zingga boq, keyin nog‘ora qoq.

– U haqda gapirma menga! – jahl qildi Xagrid, qo‘rqinchli qiyofa kasb etib. – Uning qandayligini fahmlab oldim! Aldam-qaldam yo‘llar ila yana ishonchimni qozonish, aldab-suldab pinjimga kirib olish ilinjida yuribdi. Maqsadi ayon – uchinchi musobaqada nima bo‘lishini bilib olmoqchi! Ovora bo‘ladi! Yo‘q endi ishonch xorijliklarga!

Xagridning jahli shu qadar qaynadiki, Garri «Semiz Xola» qarshisida davangir bilan xayrlashadigan fursat yetganidan xursand bo‘ldi. Portret ortidagi to‘siq orqali o‘tar ekan umumiy mehmonxonaning bir burchagida o‘tirgan Ron bilan Germionaning oldiga, bo‘lib o‘tgan hodisa haqida tezroq aytib berishga oshiqdi.

XXIX BOB. TUSH

– Muxtasar qilib aytganda, yo mister Sgorbs Viktorga hamla qilgan, yo allaqanday uchinchi kas ikkalasiga hamla qil-gan-u, Viktor uni ko‘rmay qolgan, – xulosa qildi Germiona, peshanasini artib.

– Sgorbs hamla qilgan, – shu zahoti yakun yasadi Ron. – Binobarin, Garri bilan Dambldor yetib kelishganida voqea joyi-da bo‘lmagan. Qisqasi quyonning rasmini chizib, juftakni rostlab qolgan.

– Unday demagan bo‘lar edim, – bosh siltadi Garri. – Sgorbs shu qadar zaif ediki, havoda daf bo‘lish yoki shunga o‘xshash karomat ko‘rsatishga kuchi yetmas edi.

– «Xogvars» hududida havoda daf bo‘lib ham bo‘lmaydi, paydo bo‘lib ham, – toqati toq bo‘ldi Germionaning. – Necha marta takrorlash kerak buni ikkalangizga!

– Xo‘p, yaxshi... mana bu taxmin-chi, – hayajon-la ovoz ko‘tardi Ron. – Krum dastlab Sgorbsga hamla qilgan... Yo‘q, sizlar gapimni oxirigacha eshitsangiz-chi, so‘ng Urib yiqituvchi bilan o‘zini o‘zi urgan!

– Mister Sgorbs esa bug‘ga aylanib, shabadada har tomon tarqab ketgan, shundaymi? – sovuqqina chaqib oldi Germiona.

– Ha-ya... sal yopishmadi... – bosh qashidi Ron.

Tong sahar Garri, Ron va Germiona yotoqxonadan chiqib, Siriusga xat yo‘llagani boyqushxonaga chiqishdi. Kechasi alla-mahalgacha bahslashib o‘tirishgani bois ko‘zi shishib, lunji oqargan bolalar boyqushxona darchasidan tuman qoplagan hovliga qarab turishdi.

– Mister Sgorbsning aytganlarini yana bir bor gapirib ber, Garri, – iltimos qildi Germiona.

– Aytdim-ku, gapini durustroq tushunib bo‘lmadi, deb. Professor Dambldorni ogohlantirib qo‘ymoqchi bo‘ldi. Berta Jorkinsni tilga oldi. Aftidan, u o‘sha ayolni o‘lganga chiqargan ko‘rinadi. Har bir gapida o‘zini aybdor deb topdi. O‘g‘lini esladi.

– Nima ham der edim, bu chindan ham uning aybi, – nafrat-

la g'uldiradi Germiona.

– Hushi joyida emas edi, – davom etdi Garri. – Bir qarasang, xotini va o'g'lini haligacha tirik deb o'ylaydi. Bir qarasang, Persiga o'xshatgan daraxt bilan ish yuzasidan gapla-shadi, unga har xil ko'rsatmalar beradi. Bir qarasang...

– «O'zing-Bilasan-Kim» haqida nima dedi? – qo'rqa-pisa so'radi Ron.

– Tobora kuchli bo'lib boryapti, dedi, – ifodasiz takrorladi Garri.

Oraga sukunat cho'kdi.

– O'zing aytganday, hushi joyida bo'lmagan, – soxta ishonch-la, ma'lum qildi Ron birozdan so'ng. – Shunday ekan, gapining kam deganda yarmida alahsiragan.

– Voldemort haqida faqat hushiga kelganda gapirdi, – e'tiroz bildirdi Garri, Ronning yuzi kasb etgan dahshatga e'tibor qilmay. – Bunday fursatlarda bazo'r gapirdi-yu, lekin qayerda turgani, unga nima kerakligini juda yaxshi idrok etdi. Dambldor bilan ko'rishishi kerakligini bir necha bor ta'kidlab o'tdi.

Garri derazaga orqa o'girib, chordoq to'sinlariga yuzlandi. Aksariyat qo'noqlar bo'sh, lekin darchalardan tumshug'iga turli-tuman kemiruvchi va mayda sudraluvchilarni qisib olgan boyqushlar tungi ovdan birin-ketin qaytishmoqda.

– Snegg meni to'xtatib qolmaganda ulgurgan bo'lar edik, – alam-la fikr bildirdi Garri. – «*Direktor band, Potter*», «*Nimalar deb aljirayapsan, Potter?*» Aralashmasa nima qilardi ekan, a?

– Balki, maqsadi shu bo'lgandir! Ulgurishlaringni istamagan! – shu zahoti baqirib yubordi Ron. – Ehtimol... shoshma, Snegg qancha vaqtda yetib olishi mumkin edi o'rmonga? U yaramas Dambldor ikkalangizdan oldin yetib bormadimikan?

– Yo'q, bo'lishi mumkin emas. Agar ko'rshapalakka aylanib olmagan bo'lsa, albatta, – javob berdi Garri.

– U marazdan har narsa kutish mumkin, – g'udulladi Ron.

– Xmuri bilan uchrashish kerak, – ahd qildi Germiona. – Mister Sgorbsni topgan-topmaganini bilish kerak.

– Kafanduzd xaritasini o'zi bilan olib yurgan bo'lsa, bu ish mutloqo qiyin kechmagan, – yelka qisdi Garri.

– Agar Sgorbs maktab hududidan tashqariga chiqib ketmagan bo‘sa, albatta, – ta’kidlab qo‘ydi Ron. – Xarita faqat «Xogvars» hududini ko‘rsatadi, xolos, shunday...

– Tss! – kutilmaganda gapni bo‘ldi Germiona.

Bir-biri bilan bahslashgancha, boyqushxonaga ko‘tarilayotgan ikki kishining ovozi eshitildi:

– ... buni tovlamachilik deyishadi, tushundingmi? Qilmishimiz uchun boshimizga yaxshigina ko‘ngilsizliklar yog‘ilishi muqarrar...

– ... boadab muomala qildik, bas. Endi o‘zi kabi ish tutish mavridi yetdi. Qush bilan qush tilida, it bilan it tilida gaplashmoq darkor. Vazirlikdagilar xabar topishini istamasa kerak, u nima bilan...

– Takror aytaman senga. Bularning barini xat orqali aytadigan bo‘lsak, qilmishimiz tovlamachilik, deb tasniflanadi!

– To‘g‘ri, lekin shu qilmish tufayli bir dunyo pulli bo‘lib olamiz. Buni rad etmasang kerak, har qalay, a?

Boyqushxonaning kirish eshigi qarsillab ochilib, ostonada ko‘ringan Fred bilan Jorj Garri, Ron va Germionani ko‘rib, serrayib qolishdi.

– Sizlar nima qilyapsiz bu yerda? – baralla so‘rashdi Ron bilan Fred.

– Xat jo‘natyapmiz, – bir vaqtda javob qaytarishdi Garri bilan Jorj.

– Muncha barvaqt? – birga so‘radi Germiona bilan Fred.

– Juda soz, – irshaydi Fred. – Biz sizlardan so‘ramaymiz, kimga xat yuborayotganingizni, sizlar esa bizdan.

Garri Fredning qo‘lidagi konvertga qaradi. Lekin Fred atayinmi, bexosdanmi, barmog‘ini surib, konvertdagi manzilni bekitdi.

– Shunday ekan, sizni ortiq ushlab qolmaymiz, – masxaravozlarcha ta’zim bajo aylab, chiqish eshigiga ishora qildi Fred.

– Kimni tovlayapsiz? – so‘radi turgan joyidan qilt etmagan Ron.

Fredning yuzidagi tabassum shu zahoti barham topdi. Jorj Ronga kulib qarashdan oldin Fredga sezilar-sezilmas qarab

qo‘yganini Garri payqamay qolmadi.

– Aqlingni yedingmi Ron, biz hazillashib kelayotgan edik, – qo‘l siltadi Jorj.

– Gaping ohangiga qaraganda, hazilga o‘xshamadi, – bovar qilmadi Ron.

– Yodingda bo‘lsa, Ron, – qo‘rslik qildi Fred, egizak aka-ukalar bir-biriga qarab qo‘ygach, – men senga aytgan edim: burningni birovning ishlariga suqma, deb. Agar uning hozirgi shakli o‘zingga yoqayotgan bo‘lsa, albatta. Yoqishiga esa shubha qilaman, biroq...

– Modomiki, ikkalangiz kimnidir tovlayotgan ekansiz, bu ish endi birovniki emas mening ishim, – sarkashlik qildi Ron. – Jorj haq, bunday qilmishingiz uchun boshimizga yaxshigina ko‘ngilsizliklar yog‘ilishi muqarrar.

– Hazillashib kelayotgan edik dedim-u senga, – ishontirdi Jorj, Fredning qo‘lidagi konvertni olib, ombor boyqushining panjasiga bog‘lar ekan. – So‘nggi vaqtlarda, Ron, akamiz Persiga o‘xshab boryapsan. Shu tarzda davom etaver. Qarabsanki, sinfboshi etib tayinlashadi.

– Tayinlashmaydi! – qizishdi Ron.

– Unday bo‘lsa, kim nima qilishi kerag-u, nima qilmaslik kerakligini o‘rgatishni bas qil, – irshaydi Jorj, boyqushni darchaga keltirib, qo‘yib yuborgach. – Bo‘pti, uchrashguncha!

Egizaklar boyqushxonani tark etishdi. Garri, Ron va Germiona bir-biriga qarab qolishdi.

– Ular bo‘layotgan ishlardan, Sgorbs-u, shu kabi gaplardan boxabar, deb o‘ylamaysizmi? – pichirladi Germiona.

– Yo‘q, – bosh siltadi Garri. – Agar ular bunday jiddiy narsalardan xabar topishsa, biron kishiga, chunonchi Dambldorga aytishgan bo‘lar edi.

Ammo Ronning yuzida bu masalada shubhasi borligini anglatayotgan qiyofa ko‘rindi.

– Nima gap? – so‘radi Germiona.

– Nima desam ekan.. aytishgan bo‘larmidi-yo‘qmi, bilmadim. Ular... – cho‘zdi Ron, – ular... so‘nggi vaqtda ikkalasining miyasida bittagina fikr qotgan, u ham bo‘lsa, pul topish. Buni

men ikkalasi bilan yaqindan muloqot qilib yurganimda sezdim... o'sha... o'sha kunlari... o'zingiz bilasiz...

– Ikkalamiz gaplashmay, arazlashib yurganimiz, – Ronning fikrini yakunladi Garri. – Biroq tovlamachilik...

– Gap kulgili mollar do'koni to'g'risida bormoqda, – tushuntirish berishni lozim topdi Ron. – Dastlab men egizak akalarim onamni kuydirish uchungina gapirishyapti, degan fikrga borgan edim. Lekin ular rostakamiga ochishmoqchi bunday do'konni. Ikkalasi «Xogvars»ni tamomlashiga atigi bir yil qoldi. Kelajak haqida o'ylash vaqti yetdi, deb ta'kidlashgani-ta'kidlashgan. Dadam bechora ularga moddiy jihatdan yordam bera olmasligini yaxshi bilishadi. Binobarin, nimadandir boshlash kerak, degan fikrni ilgari surib yurishibdi.

– To'g'ri, biroq ular o'z niyatlariga erishish uchun g'ayriqonuniy ish tutishmaydi-yu, to'g'rimi? – tashvishga tushib qoldi Germiona.

– Tutishmaydi? – istehzoli kuldi Ron. – Qayerdan bilay... Maktabda joriy etilgan qoidalarni buzish borasida ikkalasi uzoq o'ylanib o'tirishmaydi-yu, shunday emasmi?

– Biroq qonun maktab ma'muriyati joriy etgan allaqanday ahmoqona qoidalar emas! – cho'chib xitob qildi Germiona. – Tovlamachilik uchun belgilanadigan jazo chorasi maktabda tayinlanadigan mehnat jazosining ijrosi singari oson kechmaydi! Ron... balkim, Persiga aytib berganing ma'quldir...

– Aqlingni yedingmi, Germiona? – tutaqib ketdi Ron. – Persiga aytib ber emish-a! Axir, u shu zahoti Sgorbsga aylanib qolib, egizaklarni hukumat ixtiyoriga topshirib yuboradi-yu!

– Yuringlar, nonushta qilamiz, – dedi Ron boyqushxona darchasiga bir pas qarab turgach.

– Professor Xmurining qabuliga borishga hali ertadir, a? – so'radi Germiona, uchovlon aylanma zinadan pastlab borar ekan.

– Erta, – ishonch-la tasdiqladi Garri. – Tong sahar uyg'otadigan bo'lsak, uyquda yotganimda suiqasd qilishmoqchi, degan xayolga borib, yopiq eshik orqali urib yiqitadi bizni. Yaxshisi tanaffusgacha kutganimiz ma'qul.

Sehrgarlik tarixi darsi hali bu qadar uzoq cho'zilmagan.

O‘zining buzuq soatini taqmay qo‘ygan Garri Ronning soatiga qaragani-qaragan. Biroq millari nihoyatda sekin harakatlanayotgan ushbu soat ham buzilib qolganday ko‘rindi. Uchovlon shu qadar toliqqanki, tek qo‘yishsa boshini partaga tashlab, miriqib uxlaydi. Hatto Germiona ham hech narsa yozmay, iyagini qo‘liga suyab olgancha, xiralashgan nigohini professor Binnzning shaffof tanasiga tikib o‘tirdi.

Qo‘ng‘iroq zarbi yangragach, uchovlon qasr yo‘laklari bo‘ylab yugurib, yovuz kuchdan himoya fani xonasi tomon oshiqdi. Xonasidan chiqib kelayotgan professor Xmurining qiyofasi ham bolalarning qiyofasi kabi toliqqan ko‘rindi. Sog‘lom ko‘zi yarim yopiq bo‘lgani bois yuzi battar qing‘ayib ketibdi.

– Professor Xmuri! – murojaat qildi Garri, xaloyiq orasidan o‘qituvchi tomon talpinib.

– Salom, Potter, – do‘rilladi Xmuri.

Uning sehrli ko‘zi ichkariga tortib, ikki nafar birinchi sinf o‘quvchisi qo‘rqib-pisib muyulish ortiga kirib ketguncha kuzatib turdi.

– Kiring, – dedi chetga surilgan Xmuri, bolalarni ichkariga kiritib.

– Topdingizmi uni? – tikka so‘radi Garri, cho‘zib o‘tirmay. – Mister Sgorbsni nazarda tutyapman.

– Yo‘q, – javob berdi stoli yonidagi kursiga o‘tirgan Xmuri.

Professor ingragancha yog‘och oyog‘ini oldinga uzatib, suvdonini chiqardi.

– Xaritadan foydalandingizmi? – so‘radi Garri.

– Albatta, – dedi ichimlik simirgan Xmuri. – Sendan o‘rnak olyapman, Potter. Xonamdagi xaritani o‘rmonga chaqir-dim. Biroq Sgorbs ko‘rinmadi.

– Demak, havoda daf bo‘libdi-da? – gap qo‘shdi Ron.

– «Xogvars» hududida havoda daf bo‘lib ham bo‘lmaydi, paydo bo‘lib ham Ron! – ovoz ko‘tardi Germiona. – Biroq daf bo‘lishning boshqa yo‘llari ham bor, shunday emasmi, professor?

– Sen ham avror kasbini egallash masalasini o‘ylab ko‘rsang bo‘lar ekan Grenjer, – dedi sehrli ko‘zi biroz titrab,

Germionada to'xtagan Xmuri. – Miyang to'g'ri ishlaydi seni.

O'zidan o'zi mamnun bo'lgan Germionaning yuzi qizarib ketdi.

– Har qalay, ko'zga ko'rinmas bo'lib olmagan, u, – dedi Garri, – Garchi xarita ko'rinmaslarni ham aks etsa-da. Demak, u «Xogvars» hududini tark etgan.

– O'zi tark eta olganmikan? Hamma gap mana shunda, – ma'qulladi Germiona. – Aftidan, uni birov kuch ishlatib olib ketgan. Bo'lishi mumkin-u, a?

– To'g'ri, o'sha birov uni supurgiga chiqarib, o'zi bilan birga olib ketgan bo'lishi mumkin, – o'z taxminini ilgari surishga oshiqdi Ron, unga ham avror kasbini tavsiya etishini umid qilgancha, Xmuriga termilib.

– Olib qochish masalasini ham rad etib bo'lmaydi, – g'udulladi Xmuri.

– Demak, – davom etdi Ron. – Sizningcha, u Xogsmyodda bo'lishi mumkin, shundaymi?

– Har qanday joyda bo'lishi mumkin, – bosh chayqadi Xmuri. – Shu narsa aniqki, hozir u «Xogvars»da emas.

Xmuri og'iz bo'shlig'ida anchagina tishi yo'qligini ko'rsatgancha chunonam chuqur esnadiki, yuzidagi chandiqlari tortilib ketdi.

– Endi gap bunday. Uchalangiz izquvarlikni yoqtirishingizni Dambldor aytgan menga. Ammo Sgorbs masalasida hech narsa qila olmaysiz. Dambldor tegishli xabar yo'lladi. Sgorbsni qidirish bilan endi vazirlik shug'ullanadi. Fikr-xayolingni uchinchi musobaqaga jamlasang yaxshi bo'lar edi, Potter.

– Nimaga? – darhol ilg'ab olmadi Garri, – Ha, musobaqami...

Krum ikkalasi labirintdan chiqqan fursatdan buyon u hali biron marta bo'lsin, musobaqa haqida o'ylab ko'rmagan.

– B safargi musobaqa sening tabiatingga mos keladi, – dedi Garriga yuzlangan Xmuri, chandiqlar rasvosini chiqargan jag'ini qashlab. – Dambldorning aytishicha, o'xshash to'siqlar senga muammo emas emish. Hali birinchi sinfda o'qib yurgan kezlaringda falsafiy toshgacha borib yetibsan, shundaymi?

– Bizning yordamimiz bilan, – gapga aralashdi Ron. – Germiona ikkalamiz yordam berganmiz unga.

– Juda soz, – kulib qo'ydi Xmuri. – Uchinchi musobaqaga tayyorlanish masalasida ham yordam berib Potterni bellashuv chempioni darajasiga ko'taring. Ana o'shanda men taajjublanmayman. Hozircha esa Potter, yodingdan chiqmasin: betinim sergaklik... hozir sendan talab etiladigan yagona narsa – betinim sergaklik.

Sehrli ko'zi derazaga qaragan Xmuri suvdonidagi ichimlikdan uzoq simirdi. Tashqarida «Durmshtrang» kemasining eng baland yelkani ko'rinmoqda.

– Siz ikkalangiz, – davom etdi Xmuri, sog' ko'zini Ron bilan Germionaga qaratib, – hamisha Potterning yonida bo'ling, xo'pmi? Men hamma narsani kuzatib yuribman. Shunday bo'lsada, kuzatuv ishiga jalb etilgan ko'zlarning ortiqchasi bo'lmaydi.

***

Sirius pochta boyqushini ertasiga ertalab ortga qaytardi. Qush Garrining ro'parasiga, tumshug'ida Germiona uchun «Bashorat-u karomat gazetasi»ning yangi sonini olib kelgan malla rang boyqush bilan deyarli bir vaqtda qo'ndi. Germiona qo'lidagi gazetaning bir necha sahifasiga ko'z yugurtirib chiqib, quvonib ketdi:

– Ha, anavi battol Vriter Sgorbs haqidagi gaplardan bexabar qolibdi.

Shundan so'ng uchovlon, Siriusdan kelgan xatni o'qishga kirishdi.

Krumga qo'shilib «Taqiqlangan o'rmon»ga kirganingda qayering bilan va nimalar haqida o'ylagan eding, Garri? Tungi vaqtda boshqa hech kim bilan sanqimaslik borasida ont ichib, javob boyqushi orqali yo'llashingni talab qilaman!

«Xogvars»da nihoyatda xavfli odam borligi aniq. Ishonchim komilki, u yoki ular Sgorbs bilan Dambldorning uchrashuviga qarshilik ko'rsatishgan. Yovuz niyatli kaslar sendan atigi bir necha fut narida bo'lishgan, sen esa ularni qorong'ida

payqamagansan. O'sha ablahlar seni o'ldirishlari mumkin edi.

Arizang Olov kubokiga o'zidan o'zi tushib qolmaganini unutma. Agar birorta yaramas senga chindan ham hamla qilmoqchi ekan, uning yagona imkoniyati qoldi. Hamisha Ron bilan Germionaning yonida bo'l. Qosh qoraygach, «Griffindor» minorasidan chiqma, uchinchi musobaqaga hozirlik ko'r. Urib yiqitish va Qurolsizlantirish afsunlarini o'zlashtir. Besh-oltita qarg'ish ijrosini o'rganib olsang ham ziyon qilmaydi. Sen Sgorbsga yordam bera olmaysan. O'zingni o'yla, har narsaga aralashaverma. Maktab hududini tashlab chiqmaslik borasida va'dangni kutib qolaman.

Sirius.

– Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kular, deb shunga aytsalar kerakda. O'zi kim bo'lganki, mendan itoat qilishni talab qilsa? – jahl qildi Garri Siriusning xatini darg'azab taxlab, korjo-masining kissasiga yashirar ekan. – Maktabda o'qib yurgan kezlarida o'zi nimalar qilmagan!

– Sendan xavotir olyapti, Xmuri bilan Xagrid kabi! – shu zahoti dakki berdi Germiona. – Shunday ekan, quloqqa ol gapini!

– Yil davomida hech kim menga biror marta bo'lsin, hamla qilishga urinmagan, – uqtirishga urinib ko'rdi Garri. – Menga hech kim, hech qanday ziyon yetkazgani yo'q...

– Arzimagan bir holatdan tashqari, albatta. U ham bo'lsa, arizangni Olov kubokiga tashlab qo'yishgan, – kesatdi Germiona. – Bu hodisalar shunchaki, o'zidan o'zi ro'y berayotgani yo'q. Daydi haq. Shuncha vaqtdan buyon yomon niyatni ko'zlab yurgan o'sha kaslar qulay fursat kutishayotgani ehtimoldan xoli emas. Aynan so'nggi musobaqa vaqtida hamla qilishlarini rad etib bo'lmaydi.

– Aqlingni peshlab, fikr-mulohazalarim mantig'iga quloq sol, Germiona, – gapni bo'ldi Garri. – Deylik, Daydi haq. Faraz qilaylik birov Sgorbsni olib qochish uchun Krumni Urib yiqitish qarg'ishi bilan qulatdi. Demak, o'shanda ular mendan uzoq bo'lishmagan, yaqin oradagi butalar orasida bekinib o'tirishgan, shundaymi? Shunday. Lekin negadir ular o'rmonni tark

etganimdan so‘nggina ishga kirishgan, shundaymi? Shun-day. Bundan chiqdi ular, aynan mening payimga tushishganiga o‘xshamaydi, shunday emasmi? Albatta, shunday.

– Agar ular seni o‘rmonda o‘ldirishsa, o‘z qilmishlarini baxtsiz hodisa sifatida niqoblay olishmaydi, – sarkashlik-la, o‘z bilganidan qolmadi Germiona. – Nafasimni yer yutsin-u, muso-baqa davomida o‘lsang... boshqa gap...

– Biroq Krumga hamla qilishganida bunday niqob haqida o‘ylab-netib o‘tirishmadi, to‘g‘rimi? – e’tiroz bildirdi Garri. – Unga qo‘shib meni ham bir yoqli qilishlariga nima xalal berishi mumkin edi ularga? Shunda o‘z qilmishlarini, misol uchun Krum ikkalamizning oramizdagi duel sifatida ko‘rsata olishar edi.

– Garri, to‘g‘risiyei aytsam, o‘zim ham hech narsani tushunmay qoldim, – xijolat tortib iqror bo‘ldi Germiona. – Menga yoqmayotgan g‘oyat g‘alati hodisalar ro‘y berayotganini bilaman, xolos... Xmuri ham, Daydi ham haq. Uchinchi musobaqaga jiddiy hozirlik ko‘ra boshlashing lozim. Sendan iltimos, Daydiga xat yozib, yakka o‘zing hech qayoqqa chiq-maslik borasida va’da ber.

***

«Xogvars» tevaragi hali bu qadar ko‘rkam qiyofa kasb etmagan. Garri esa bu vaqtda qasrda qamalib o‘tiribdi. O‘tgan bir necha kun ichida Ron va Germiona bilan birgalikda dam kutubxonada har xil foydali qarg‘ishlar qidirib o‘tirdi, dam bo‘sh sinf xonalariga yashiriqcha kirib, nazariyani amaliyotda qo‘llash bilan mashg‘ul bo‘ldi. Garri asosiy diqqat-e’tiborini muqaddam bajarmagan Urib yiqitish qarg‘ishining ijrosiga qaratdi. Ushbu afsun ijrosini o‘zlashtirib, me’yoriga yetkazish-ning mushkulligi Ron bilan Germionadan ma’lum ma’noda fidoyilik taqozo qilinishidan iborat bo‘ldi.

Dushanba kungi tushlik tanaffusi mobaynida Garri Ronni qatorasiga besh marta hushiga keltirishga majbur bo‘ldi.

– Balkim, missis Norrisni o‘g‘irlab kelib, o‘shanda mashq qilarmiz? – taklif kiritdi belida yotgan bechora Ron. – Xumor-dan chiqquncha yaramas mushukning po‘stini qoqqan bo‘lar-midik. Dobbini ham chaqirish mumkin. Ishonchim komilki, u sen

uchun har narsaga tayyor. Yo‘q, men arz qilayotganim yo‘q, – dedi u o‘rnidan turar ekan, belini uqalashga urinib. – Shunchaki, hamma joyim zirillab ketdi.

– Nega polga yiqilyapsan?! – e’tiroz bildirdi Germiona, Buyum haydash afsuni o‘zlashtirilganda foydalanilgan, hozir esa yerga to‘shalgan yostiqlarni tuzatib. – Chetga og‘may, to‘g‘ri orqaga yiqilishga harakat qilgin-da, axir!

– Agar bilsang, Germiona, Urib yiqitish yashini bilan qo‘yib yuborishsa yerga yiqilish nuqtasini mo‘ljal olish kishi uchun ja qiyin kechar ekan, – jahl qildi Ron. – Balki, o‘zingda sinab ko‘rarsan?

– Nazarimda, Garri, afsun ijrosini puxta o‘zlashtirib oldi, – tez javob berdi Germiona. – Qurolsizlantirish afsunini mohirona qo‘llay bilishini esa bir vaqtlar amalda isbotlab bergan... Shunday ekan, o‘ylashimcha, bugun kechqurun boshqa qarg‘ishlar ijrosiga kirishsak ham bo‘laveradi, – xulosa qildi qiz, kutubxonada tuzilgan ro‘yxatni chiqarib. – Menga mana bunisi ko‘proq yoqdi, – dedi u, ro‘yxatga barmoq o‘qtab. – To‘sqinlik qarg‘ishi. Kim hamla qilmasin, xatti-harakatlarining tezligini pasaytiradi. Mana shundan boshlaymiz.

Qo‘ng‘iroq zarbi yangradi. Bolalar yostiqlarni javoncha ichiga shosha-pisha otishdi-da, sinf xonasini kishi bilmas tark etishdi.

– Kechki ovqat mahalida uchrashguncha! – dedi numerologiya darsiga oshiqqan Germiona.

Garri bilan Ron esa bashorat darsiga, Shimoliy minora tomon yo‘l olishdi. Qasr yo‘laklarini quyoshning baland derazalardan singib kirayotgan, ko‘zni qamashtirib yuborguday tilla tusli keng nuri kesib o‘tmoqda. Moviy rangli yorqin osmon sirlangan yuzaga o‘xshab qolgan.

– Trelanining xonasi hammomday issiq bo‘lsa kerak! – taxmin qildi Ron, tuynukning ochiq qopqog‘idan pastga tushirilgan kumush narvondan ko‘tarilar ekan. – Kaminini hayotda o‘chirmaydi-yu, u.

Taxmin to‘g‘ri chiqdi. Nim qorong‘i xona chidab bo‘lmas darajada qizib ketgan. Kamindan chiqayotgan aromatik

birikmalar[1] bug'i ilgarigidan jadal taralmoqda. Pardalangan derazalardan biri tomon odimlagan Garri boshi aylanib ketganini his qildi. Professor Trelani stol usti chirog'iga tashlangan sholro'molini olar ekan, derazalardan birining tavaqasini bildirmay ochgan Garri xush yoqayotgan shabada yo'nalishidagi chit qoplangan kresloga joylashdi.

– Azizlarim, – dars boshladi tirsakqo'ygichli kresloga o'tirgan professor Trelani, har bir o'quvchining yuziga g'ayritabiiy katta ko'zi bilan sinchkovlik-la qarab. – Sayyoralar harakatiga asoslangan bashorat ustida olib borgan ishlarimizni deyarli nihoyasiga yetkazdik. Qarangki, Mirrix ta'sirini o'rganib chiqish uchun bugun favqulodda noyob imkon tug'ildi. Chunki ushbu sayyoraning koinotda joylashgan ayni vaqtdagi o'rni katta qiziqish uyg'otmoqda. Ijozatingiz bilan chiroqlarni o'chirib, e'tiboringizga bir narsani havola etsam...

O'qituvchi sehrli tayoqchasini siltab chiroqlarni o'chirdi. Endi kamin olovi yagona yorug'lik manbaiga aylandi. Professor kreslo ostidan yasama quyosh tizimining shisha gumbaz ichidagi mitti modelini chiqardi. Hayratomuz chiroyli buyum. Shisha shar ichida muallaq osilgancha aylanayotgan to'qqizta sayyora o'z yo'ldoshlari bilan birga yarqirayotgan bo'lsa, o'rtadagi Quyosh o'zgacha porlamoqda. Professor Trelani Mirrixning Neptunga nisbatan hosil qilgan qoyil-maqom burchagini ko'rsatib, tushuntirish berishga kirishdi. Uning xatti-harakatlarini erinchoqlik bilan kuzatib o'tirgan Garriga dam chuchmal-muattar bug', dam derazadan kirib kelayotgan toza havo oqimi ta'sir qilmoqda. Qalin matodan tayyorlangan parda ortida allaqanday hasharot vizillayapti. Bolaning qovog'i og'irlashib, ko'zi o'zidan o'zi yumila boshladi...

Qarchig'aylar oilasiga mansub ukkini egarlagan Garri musaffo osmon ostidagi baland do'nglikda, old tomoni qishloqqa qaratilib qurilgan, puturdan ketib, devorini pechak qamragan uy tomon uchmoqda. Ukki pastlar ekan, Garrining yuziga

[1] **Aromatik birikmalar** – molekulasining tarkibida bir yoki bir necha benzol yadrosi bo'lgan organik birikmalar.

yoqimli shabada urilmoqda. Nihoyat qush ulkan binoning yuqori qavatidagi dabdalasi chiqqan derazasidan ichkariga kirib, nim qorong'i yo'lakdan to'g'ri uchgancha, derazalari mixlangan qorong'i xonaga kirdi...

Garri ukkining belidan tushdi. Qush qanot hilpiratib, eshikka orqa tomoni bilan turgan kresloning suyanchig'iga borib qo'ndi... kreslo tagida esa tushunib bo'lmaydigan ikkita qomat harakatlanayotgani ko'rindi...

Ulardan biri bahaybat ilon bo'lsa... boshqasi inson... Pakana, sochi to'kilib, boshi toz bo'lib borayotgan, mitti ko'zi sersuv, uzun burni ingichka kas husht-hushtlab nafas olgancha hiqillab yig'lamoqda...

– Omading bor ekan, Chuvalchangdum, – yangradi nihoyatda sovuq eshitilgan ovoz ukki qo'ngan kreslodan. – Judayam omadli ekansan. Sen yo'l qo'ygan qo'pol xato ishlarimizning pachavasini chiqara olmadi. U o'libdi.

– Milord! – hiqilladi polda o'tirgan kishi. – Milord, men... behad xursandman... va oldingizda o'zimni nihoyatda zomin his etmoqdaman...

– Nagini, – davom etdi sovuq ovoz. – Sening esa omading yurishmadi. Aftidan, Chuvalchangdumni hozircha senga yem sifatida bera olmayman... Hech qisi yo'q, xafa bo'lma... yaqinda Garri Potterni yeb, maza qilasan...

Ilon vishillab, titroq tilini chiqarib qo'ydi.

– Endi esa Chuvalchangdum, – yana yangradi ovoz, – nima uchun bundan buyon birorta ham xatoga yo'l qo'yishga haqing yo'qligini esga olaylik...

– Milord... yo'q... o'tinaman... yo'q...

– Krusio!

Tanasidagi har bir asab tolasi do'zax olovida yonayotgan singari o'kira boshlagan Chuvalchangdumning afg'onlari Garrining qulog'ini kar qilib, miyasini qamradi. Bolaning peshanasidagi chandiq qattiq og'rib, Chuvalchangdumga jo'r bo'lgancha baqira ketdi. Hozir Voldemort Garrining ovozini eshitib, shu yerda ekanini bilib qoladi...

– Garri! Garri!

Bola ko‘zini ochib, professor Trelanining xonasida, qo‘lini peshanasiga bosgancha yotganini idrok etdi. Chandiq qattiq og‘rib, Garrining ko‘zidan yosh chiqardi. Atrofida jamiki sinfdoshlari to‘plangan. Yoniga cho‘kkalab olgan Ron qo‘rqib ketibdi.

– Tuzukmisan, Garri? – so‘radi Ron.

– Yo‘q, albatta! – xitob qildi jonlanib ketgan professor Trelani, katta ko‘zini Garriga tikib. – Qanday holat edi bu, Potter? Alomatmi? Tasavvurmi? Nimani ko‘rding?

– Hech nimani, – aldadi Garri, yotgan o‘rniga o‘tirib.

Voldemortning ovozi shu qadar yaqqol eshitildiki... Garri beixtiyor orqaga, nim qorong‘i burchakka qarab qo‘ydi.

– Chandig‘ingni changallading! Peshanangni ushlagancha, polda rosa yumalading! – tinchlanmadi professor Trelani. – Yashirma Potter, bu masalada meni alday olmaysan!

– Kasalxonaga borishim kerak, shekilli, – dedi Garri professorga qarab. – Boshim qattiq og‘riyapti.

– Qadrdonim, makonimning noyob flyuidlari[1] sohibkaromatlik qobiliyating namoyon bo‘lishiga omil bo‘ldi-yu, axir! – xiraligini qo‘ymadi professor Trelani. – Agar uni tark etadigan bo‘lsang, yanada uzoq kelajakni ko‘rish imkoniyatini qo‘ldan berasan...

– Bosh og‘riq doridan tashqari, hech qanday uzoq-yaqin kelajakni ko‘rgim yo‘q, – gapni kesdi o‘rnidan turgan Garri.

Tashvishlangan sinfdoshlar nari chekindi.

– Ko‘rishamiz, – dedi Garri, Ronga qarab.

Bola yuk xaltasini oldi-da, professor Trelaniga e’tibor qilmay, tuynuk tomon odimladi. Professor esa hozirgina favqulodda kam uchraydigan huzur-halovatdan mahrum qilingan qiyofa ila qoldi.

Kumush narvondan pastga tushgan Garri kasalxonaga bormadi. Aslida kasalxonaga borish niyati ham yo‘q edi uning.

---

[1] **Flyuidlar** – spiritizm tarafdorlarining fikricha, odam yoki hayvonlar tanasidan chiqadigan yoxud boshqa biror narsada nurlanadigan «ruhiy toklar». **Spiritizm** – o‘lganlar ruhi narigi dunyoda yashashi va ular bilan so‘zlashish mumkinligini ilgari suruvchi oqim.

Chandiq og'rig'i qaytalaydigan bo'lsa, nima qilish kerakligini Sirius aytgan. Garri uning nasihatiga quloq tutib, to'ppa-to'g'ri Dambldorning huzuriga yo'l oldi. Yo'lakda borar ekan, tushi haqida fikr yuritdi. Bu tush yozda, «Odamovilar» xiyobonida ko'rgan tushi kabi yaqqol ko'rindi... Garri, biron-bir tafsilotni unutib qo'ymaslik uchun tushida ko'rgan narsalarini bir chetdan eslab o'tdi... Demak, Voldemort Chuvalchangdumni yo'l qo'yilgan allaqanday xatoda aybladi... Ukki xushxabar keltirgach, xato tuzalgani aniqlandi... kimdir o'ldi... binobarin Chuvalchangdum ilonga yem bo'lmadi... endi yem sifatida ilonga Garri beriladigan bo'ldi...

Xayolga berilgan Garri Dambldorning xonasiga kirish eshigini qo'riqlayotgan ajdar tusli tosh ilonni sezmay, yonidan o'tib ketdi. Ko'zini pirpiratib atrofga qarab chiqqan bola gap nimada ekanini idrok etib, ortga qaytdi-da, tosh maxluqning qarshisiga kelgach, ichkariga kirish parolini bilmasligi esiga tushdi.

– Limon sharbati, – tavakkal boshladi u.

Tosh ilon qilt etmadi.

– Yaxshi, – dedi o'ylanib qolgan Garri, toshga qarab. – Nokli obakidandon. M-m-m... Sehrli qizilmiya tayoqchalar. Vishillaydigan «tuk arilar». Drublisning ishirsaqichi. Barcha ta'mlarni o'ziga mujassam etgan Berti Bott yong'oqlari... ha-ya, o'sha yong'oqlarni yoqtirmaydi-yu, u. Hoy, maynabozchilik qilmay, ochil dedim senga! – darg'azab baqirdi bola. – Zudlik bilan ko'rishim kerak uni!

Garrining tashvishi ajdar tusli tosh ilonni mutlaqo qiziqtirmadi. Bola uni bir tepib, o'z jonini og'ritishdan boshqa hech narsaga erisha olmadi.

– Shokobaqa! – baqirgancha davom etdi Garri, bir oyoqda turib. – Qand patqalam! Suvaraklar shodasi!

Kutilmaganda tosh ilon jonlanib, chetga qochdi, ortidagi devor ikki tomon surildi.

– Suvaraklar shodasi?! – talmovsiradi ko'zi pirpiragan Garri dovdirab. – Hazillashgan edim-u...

U devor o'rnida paydo bo'lgan eshik ostonasidan tez xatlab

o‘tib, aylanma zina shaklidagi tosh eskalatorga chiqdi. Devor asta yopildi. Zina buralib, buralib, Garrini yuqoriga ko‘tarib ketdi. Nihoyat u grifon[1] gavdasi ko‘rinishida yasalgan eshik bolg‘asiga ega, sayqal berilgan katta eman eshik ro‘parasiga yetdi.

Eskalatordan tushgan Garri ichkarida suhbatlashayotgan odamlarning ovozini eshitib, ikkilangancha, turib qoldi.

– Dambldor, biron-bir bog‘liqlikni ko‘rmayapman men! – eshitildi sehrgarlik vaziri Kornelius Fujning ovozi. – Lyudoning gapiga qaraganda, Berta tabiatan shunday ayol ekanki, o‘zini o‘zi yo‘qotib qo‘ysa ajablanmasak ham bo‘laverar emish! To‘g‘ri, vazirlik tomonidan olib borilayotgan qidiruv tadbir-larining miqyosi shu qadar keng yoyildiki, o‘lganmi, tirikmi, allaqachon topilishi kerak edi. Shunday bo‘lsa-da, bu masalada palidlik bor deyishga asos yo‘q, ha, mutlaqo yo‘q. Lekin uning yo‘qolishini Barti Sgorbsning gum bo‘lishi bilan bog‘lash!...

– Xo‘p yaxshi, bog‘liq emas deylik, muhtaram vazir janob-lari. Unday bo‘lsa, Sgorbsga nima qilgan bo‘lishi mumkin, fikringiz? – do‘rilladi Xmuri.

– Ikki holatdan biri ro‘y bergan bo‘lishi mumkinligiga yo‘l qo‘yaman, Alastor, – javob berdi Fuj. – YO Sgorbs nihoyat aqldan ozdi, ishonchim komilki, ikkalangiz ham uning shaxsiy muammolarini inobatga olib, bunday holat ro‘y berishi mum-kinligini rad etmaysiz va hozir u qayerdadir izg‘ib yuribdi...

– Uning izg‘ish tezligi nihoyatda kattaga o‘xshaydi, Kornelius, – gapni bo‘ldi Dambldor vazmin ohangda.

– YO... hm-m-m... – davom etdi Fuj, ikkilanib, – yo‘q, yaxshisi hodisa joyini ko‘zdan kechirib chiqquncha, ikkinchi fikrimni aytmay turganim ma’qul. Hodisa joyi «Belstek» aravasidan uzoqda emas dedingiz-u, shundaymi? Dambldor, anavi ayol kim ekanini bilasizmi?

– Uni o‘z maktabining munosib direktori va raqs tushish uchun ajoyib juft sifatida bilaman, – javob berdi pinagi buzil-

[1] **Grifon** (*fransuzcha;* griffon) – qadimiy afsonalardagi qanotli burgut yoki sher boshli, sher tanali afsonaviy maxluq.

magan Dambldor.

– Bas qiling, Dambldor! – zarda qildi Fuj. – Xagrid tufayli unga yanglish munosabat bildirayotganingizni o'zingiz sezmayapsizmi? Ularning hammasini ham beozor deb bo'larmikan? Har xil maxluqlarni boqish masalasida tomi siljib qolganini inobatga oladigan bo'lsak, Xagridni beozor deyishga odamning tili bormaydi...

– Maksim xonim Xagriddan katta emas, – xotirjam e'tiroz bildirdi Dambldor. – O'sha ayolga nisbatan mendan ko'ra siz ko'proq yanglish munosabat bildirmoqdasiz, nazarimda, Kornelius.

– Ushbu mubohasani bas qilsak, nima deysiz? – do'rilladi Xmuri.

– Ha, ha, to'g'ri, yaxshisi hovliga chiqib, hodisa joyiga boraylik, – sabrsizlik-la, ma'qulladi Fuj.

– Yo'q, gap bunda emas, – dedi Xmuri. – Gap shundaki, Dambldor, Potter siz bilan gaplashmoqchi. U eman eshigingiz ortida turibdi.

XXX BOB. DAMBLXOTIRA

Xona eshigi ochildi.

– Salom, Potter, – ko'rishdi Xmuri. – Kelgan ekansan, kir ichkariga.

Garri ilgari kelgan ushbu xona ostonasini yana xatlab o'tdi. Doira shaklidagi xona ancha keng bo'lib, hamma yoqdan qandaydir sirli shitir-shitir tovush eshitiladi. Devorga sobiq maktab direktorlarining rasmlari osilgan. Ularning hammasi o'z kreslosida mizg'ib o'tiribdi.

Yozuv stoli yonida egniga odatdagiday uzun yo'l-yo'l rido kiygan, qo'lidagi jo'karangli[1] qozon shlapasini o'ynatayotgan, to'ladan kelgan past bo'yli Fuj turibdi.

– Garri! – ovoz berdi u, oldinga qadam tashlab. – Ishlar qalay?

– Joyida, – aldadi Garri.

– Mister Sgorbsning maktab hududida kutilmagan tarzda paydo bo'lganini muhokama qilayotgan edik, – tushuntirish berdi Fuj. – Uni sen topgan eding, shundaymi?

– Shunday, – tasdiqladi Garri va o'zini eshik ortidan hech narsani eshitmagan ko'yga solish befoydaligini bilib, qo'shimcha qildi: – Lekin mister Sgorbsga ro'baru bo'lgan joyda Maksim xonimni ko'rmadim. Maksim xonimning bekinib olishi, buni o'zi xohlagan taqdirda ham, oson kechmasa kerak deb o'ylayman...

Fujning orqasida turgan Dambldor kulib qo'ydi.

– Ha, albatta, – g'udulladi xijolat tortgan Fuj. – Garri, biz maktab hududini aylanib kelishimiz kerak. Umid qilamanki, to'g'ri tushunib, ma'zur tutgaysan... balkim, hozircha sinfga qaytganing ma'quldir...

– Siz bilan gaplashmoqchi edim, professor, – dedi shoshib qolgan Garri Dambldorga murojaat qilib.

– Meni shu yerda kut, Garri, – dedi Dambldor bolaga diqqat

[1] **Jo'ka** – jo'kadoshlar oilasiga mansub buta va daraxtlar turkumi. O'zbekistonda 9 turi o'stiriladi. Rangi oqishko'k.

bilan razm solib. – Hudud ko‘rigi uchun ko‘p vaqt ketmaydi.

Uchalasi bolani yolg‘iz qoldirib, eshikni yopgancha, xonani tark etdi. Yog‘och oyoqning taqir-tuquri eshitilmay qolgach, Garri atrofga qaradi.

– Salom, Yangus, – ko‘rishdi u.

Yangus bu, Dambldorning nihoyatda ziynatli pat qoplamasi alvon va tillarang tusda tovlanadigan, tanasi oqqushday kelib, odatda, eshik oldidagi tilla qo‘noqda o‘tiradigan qaqnusidir. Qush uzun dumini qimirlatib, Garriga muloyim qaragancha, ko‘z qisdi.

Yozuv stoli yonidagi kursiga o‘tirgan Garri atrofga razm solib, hozirgina eshitgan gap-so‘zlarning mag‘zini chaqishga uringancha, og‘rimay qolgan chandig‘ini uqalab qo‘ydi.

Tushini aytib berib, tez orada ichini bo‘shatib olishini bilgan Garri Dambldorning xizmat xonasida o‘zini ancha xotirjam his etdi. Stol ortidagi devor tokchasiga e’tibor qilgan bola haddan tashqari kir, a’zoyi badani yamoq bo‘lib, rosa eskirgan saralovchi Shlapa yonidagi uzun shisha sandiq ichida saqlana-yotgan dastasi yoqut bilan bezatilgan kumush qilichni ko‘rdi. Yoqutlardan birining kattaligi tovuq tuxumiday keladi. Garri qadrdon fakultetining asoschisi sanaladigan mashhur sehrgar Godrik Griffindorning ushbu qilichini darhol tanidi. Ushbu qudratli qurolni u ikkinchi sinfni endigina tamomlagan kunlari saralovchi Shlapa ichidan chiqarib olgan. O‘limdan qutulishga umid qolmagan fursatda ushbu mo‘jizakor qurol Garriga yordamga kelgan edi. O‘sha fursatni eslagan bola shisha sandiq sirtida yaltirayotgan oq kumush tusli yorug‘ doqqa e’tibor qildi. Yorug‘lik manbasini topish uchun o‘girilib, xonaning narigi tomonidagi qop-qora javonchaning zich yopilmay qolgan tavaqasi orasidan taralayotgan shu’lani ko‘rdi. Yangusga va har biri o‘z kreslosida mizg‘iyotgan sobiq direktorlar portretlariga biroz ikkilanib qaragan Garri shartta o‘rnidan turdi-da, javoncha yoniga borib, eshigini ochdi.

Javonchada chetiga qadimgi runa yozuvlari aylanasiga ajib o‘yma naqsh shaklida yuritilgan, uncha chuqur bo‘lmagan tosh

chig‘anoq turibdi. tabiiyki, Garri yozuvni o‘qiy olmadi. Shisha javon sirtida ko‘ringan kumush yog‘du chig‘anoq ichidagi juda g‘alati, o‘xshashi Garriga muqaddam uchramagan substansiyadan[1] taralmoqda. Suyuqlikmi bu, gazmi aytish qiyin. Bir qaraganda yarqiroq, uzluksiz harakatlanayotgan oppoq kumushga o‘xshaydi. Yuzasi shamol ta’sirida dam-badam mavj urayotgan suv yuzasini eslatadi. Lekin suvdan farqli o‘laroq, ushbu modda bo‘laklarga yengil bo‘linib, xuddi osmondagi bulutlar singari buralib-buralib bir maromda to‘lqinlanmoqda. Suyuqlikka aylangan yorug‘lik desa ham, qattiq bo‘lib qolgan shamol desa ham bo‘laveradi uni. Biroq qaysi talqin haqiqatga yaqinroqligini aytish qiyin.

Bola moddani ushlab ko‘rish, qo‘lda qanday sezilishini bilishni juda istadi. Biroq tabiatan qiziquvchi Garri, sehrgarlar olamida to‘plangan to‘rt yillik hayotiy tajribasiga asoslangan holda noma’lum moddaga barmoq tiqish – ahmoqlikdan u qadar uzoq emasligi haqida o‘ylanib qoldi. Binobarin, sehrli tayoqchasini qo‘liga olgan bola atrofga asta pisib qaradi-da, nigohini yana chig‘anoqqa qaratib, tayoqcha uchini moddaga botirib ko‘rdi. Yuzasi qo‘zg‘ab ketgan substansiya shiddat-la aylana boshladi.

Garri boshini javoncha ichiga kiritib, pastroq egildi. Kumush modda endi shisha kabi shaffof bo‘lib qoldi. Bola chig‘anoqning tosh tubini ko‘rish ilinjida durustroq tikildi-yu, sirli yuzada shiftda ochilgan derazadan qaragan kabi ulkan zalni ko‘rdi.

Zal xira yoritilgan bo‘lib, derazasi yo‘qligiga qaraganda, aftidan, yer ostida joylashgan ko‘rinadi. Devoriga «Xogvars»ning yo‘laklarini yoritadigan mash’alalar mahkamlangan. Burnining uchini shishasimon moddadan bir dyum yuqorida tutgan Garri zalda son-sanoqsiz odam yig‘ilganini ko‘rdi. Xaloyiq zina pog‘onalari kabi ko‘tarilgan kursi qatorlarida o‘tiribdi. Pastda, zalning qoq o‘rtasiga, ko‘rinishidan har qan-day kishining vujudida vahima uyg‘otadigan qora kreslo o‘rna-tilgan

[1] **Substansiya** – doim harakatlanib, o‘zgarib, rivojlanib turadigan materiya, butun borliqning birlamchi asosi.

bo‘lib, tirsakqo‘ygichlaridan, o‘tirgan kishini kishanlash uchun bo‘lsa kerak, zanjir osilib turibdi.

Qanaqa joy o‘zi bu? «Xogvars» emasligi aniq. Garrining bilishicha, maktabda bunday zal yo‘q. yana ustiga, chig‘anoq tubida ko‘rinayotgan xonaga yig‘ilgan xaloyiq faqat katta yoshli odamlardan tashkil topgan bo‘lib, «Xogvars»da dars beradigan o‘qituvchilar soni bunchalik ko‘p emas. Garrining nazarida, zaldagi odamlar qilt etmay, nimanidir kutyapti. Cho‘qqidor shlapalardan boshqa narsa ko‘rinmayotgan bo‘lsa-da, hammaning boshi bir tomonga burilgan.

Chig‘anoq yumaloq, zal esa kvadrat shaklida bo‘lgani bois xona burchaklari yaxshi ko‘rinmayapti. Bola burchaklardan biriga qarash uchun yanada pastroq egilgan ediki, burni moddaga tegib ketdi. Shu payt Dambldorning xonasi daf’atan kuchli larzaga kelib, nimadir Garrini oldinga itqitib yubor-ganday bo‘ldi. Bola shu zahoti kumush moddaning tortish kuchini his etdi...

Garrining boshi chig‘anoqning tosh tubiga urilmadi, aksincha, suv girdobi tortib ketayotganday muzday qorong‘ilik sari pastladi...

Banogoh Garri o‘zini chig‘anoq ichidagi zal kursilarining eng oxirgi qatorida, hammadan baland joyda o‘tirganini ko‘rdi. U hozirgina o‘zi qaragan shift derazasini ko‘rish ilinjida yuqoriga qaradi. Biroq qora toshdan qilingan yaxlit shiftda hech qanday deraza ko‘rinmadi.

Nafasi tezlashgan Garri atrofga alangladi. Zalga yig‘ilgan qariyb ikki yuz kishidan birortasi ham bolaga e’tibor qilmadi. Qiziq, o‘n to‘rt yoshli yoigitcha yuqoridan tappa tushsa-yu uni hech kim sezmasa?! Garri yonida o‘tirgan kishiga qarab, taajjubdan qattiq xitob qilib yubordi. Chap yonida birov emas shaxsan Albus Dambldor o‘tiribdi.

– Professor! – bo‘g‘iq pichirlab baqirdi Garri. – Meni ma’-zur tuting, professor... bunday bo‘lishini bilganim yo‘q... men chig‘anoqni tomosha qildim, xolos... men... qayerdamiz biz?

Biroq Dambldor Garriga e’tibor qilmay, kursilar qatoridagi

boshqa sehrgarlar kabi zalning narigi tomoniga, chiqish eshigiga qarab indamay o'tiribdi.

Garri Dambldorga hayrat-la baqrayib qoldi, so'ng nimanidir kutib, tek qolgan tomoshabinlarga va yana Dambldorga diqqat bilan nazar solib, vaziyatni idrok etdi.

Bir vaqtlar Garri sehrlangan kundalik vositasida birovning xotirasiga kirib, o'xshash holatga tushgan edi. O'shanda ham hech kim uni ko'rmagan, gapini eshitmagan... Adashmasa, hozir ham o'sha ahvol...

Garri har ehtimolga qarshi o'ng qo'lini ko'tarib biroz ikkilanib turgach, Dambldorning burni oldida siltadi. Dambldor yuzini olib qochmadi, ko'zini pirpiratmadi, umuman qilt etmadi. Demak, bu haqiqiy Dambldor emas. Bundan chiqdi Garri yana birovning xotirasiga kirib olgan. Yonidagi Dambldor esa bugungi Dambldor emas, lekin sochining oqiga qaraganda, xotiradagi ushbu hodisaga ko'p bo'lgani yo'q. Qanaqangi joy ekan o'zi bu yer? Shuncha odam nimani kutyapti?

Bola atrofga sinchiklab razm soldi. Tepadan qarab, to'g'ri xulosa chiqargan ko'rinadi. Chunki, qandaydir vahimali vaziyat qaror topgan ushbu zal chindan ham yerosti xonasiga o'xshaydi. Devorda birorta bo'lsin rasm yoki xonaga zeb berish buyumi ko'rinmadi. O'rtaga o'rnatilgan mudhish kreslo hammaga aniq ko'rinishi uchun kursi qatorlari zina pog'onalari kabi terib ko'tarilgan.

Ushbu joy haqida yakuniy xulosa chiqarishga ulgurmagan Garri qadam tovushini eshitdi. Xona burchagidagi eshik ochilib, ichkariga uch kishi, aniqroq aytiladigan bo'lsa, bir nafar inson-u, ikki yonida ikkita dementor kirib keldi.

Garrining ich-ichi sovidi. Egnidagi jubbaning qaytarma qalpog'ini yuziga tashlab olgan novcha bo'yli ushbu maxluqlar irigan qo'li bilan baxti qora mahbusni mahkam ushlagancha, zal o'rtasidagi mash'um kreslo tomon suzishdi. Mahbus hozir bo'lmasa, sal o'tib hushini yo'qotadigan ahvolda ekanini qiyofasidan uqsa bo'ladi. Birovning xotirasida dementorlar hech qanday ziyon yetkaza olmasligini bilsa-da, Garri, ularning ta'sir

kuchini yaxshi biladi. Dementorlar mahbusni kreslo zanjirlari vositasida kishanband qilib, eshik taraqlatib chiqib ketguncha zaldagi tomoshabinlar tirishib o'tirdi. Kresloga mahkam bog'langan bandi Karkarovni Garri darhol tanidi.

Dambldordan farqli o'laroq, soch-soqoli qora Karkarov ancha yosh ko'rinadi. Egniga bugungi yaltiroq mo'ynali qimmatbaho kiyim emas, eskib yirtilgan yupin korjoma kiygan. Hozir u boshdan oyoq dag'-dag' qaltiramoqda. Garri Karkarovga tikilib o'tirar ekan, tirsakqo'ygich zanjirlari birdan tilla tus olib, mahbusni o'tirgan joyida mahkamlagancha, yuqoriga ko'tarildi.

– Igor Karkarov, – uzuq-yuluq eshitildi birovning ovozi.

Garri gapirayotgan kishi tomon o'girilib, o'zidan sal naridagi qator o'rtasida gavdasi yig'noq, sochi qora, yuzidagi ajinlar hozirgiday ko'p bo'lmagan ishga chechan mister Sgorbsni ko'rdi.

– O'ta muhim axborotdan boxabar ekaningizni ma'lum qilganingiz sababli Sehrgarlik vazirligining jamiki xodimlari oldida guvohlik berishingiz uchun Azkabandan olib kelindingiz.

– Xuddi shunday, ser, – javob berdi o'tirgan o'rnida qaddini imkon boricha rostlagan Karkarov. – Vazirlikka yaqindan yordam berishga ahd qildim. Men... menga ma'lumki, vazirlik... Yovuz Lord atrofida yig'ilgan tarafdorlar guruhining omon qolgan parchalarini qidirib topishni o'z oldimga turgan maqsad deb biladi. Bu masalada qo'ldan kelgancha yordam berishga tayyorman...

Karkarov qo'rqib-pisib gapirayotgan bo'lsa-da, tabiatiga xos tulkilik ohangi Garrining e'tiboridan chetda qolmadi. Vazirlik xodimlari orasida shivir-shivir ko'tarildi. Ba'zilar Karkarovga qiziqsinib, ayrimlar shubhalanib qarashmoqda.

– G'irt yolg'on, – do'rilladi Dambldorning narigi yonida o'tirgan kishi.

Kim ekanini bilmoqchi bo'lgan Garri oldinga egilib, tashqi qiyofasi umuman boshqacha, ikkala ko'zi soppa-sog' Xmurini ko'rdi. Alastor Xmuri bir ko'zini qisib olgancha, baxti qora

Karkarovga sovuq qarab o‘tiribdi.

– Sgorbs uni qo‘yib yubormoqchi, – dedi u, Dambldorga arz qilib. – Olti oy uning payida yurgan edim-a. Sgorbs esa... dushmanlarning ko‘pini sotsa, ozod qilmoqchi. Sotmoqchi ekan, mayli imkon beraylik sotsin, so‘ng yana Azkabanga qamab qo‘yaveramiz, dedim...

Dambldor norozi ovoz chiqargan bo‘ldi.

– Ha-ya Albus, yodimdan chiqib qolaveradi... – istehzoli kulib qo‘ydi Xmuri. – Dementorlarni xush ko‘rmaysiz-u, a?

– Xush ko‘rmayman, – xotirjam tasdiqladi Dambldor. – Vazirlik, ushbu maxluqlar bilan ittifoqdosh bo‘lib, nihoyatda jiddiy xatolikka yo‘l qo‘ygan.

– Faqat, anavi razilga o‘xshaganlar uchun emas... – past ovozda g‘udulladi Xmuri.

– Ayrim jinoyatchilarning ismini aytish niyatida ekaningizni ma’lum qilgan edingiz, Karkarov, – davom etdi Sgorbs. – Ularning ismlarini eshitmoqchimiz, marhamat, so‘z sizga.

– Bir narsani to‘g‘ri tushunishingizni istar edim, – shu zahoti bidirlay ketdi Karkarov. – «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» o‘z ishida maxfiylikni qat’iy saqlagan, xususan, biz... ya’ni unga tarafdor bo‘lganlar o‘z sheriklarimizning ismlarini bilmasligimizni afzal topgan.... hozirda men... tarafdorlar safiga qo‘shilganimga pushaymon bo‘lib, tavba qilmoqdaman...

– Albatta, albatta, – yana istehzo qildi Xmuri.

– ... tarafdorlar soni, ularning ismlari tanho o‘zigagina ma’lum bo‘lgan...

– Umuman aytganda, aql bilan ish tutibdi. Chunki hammani yoppasiga sotadigan senday xoinlar hamma joyda, har vaqt topiladi, – pichirlab vaysadi Xmuri.

– Shunga qaramay, ayrimlarning ismini ayta olasiz, shundaymi? – so‘radi Sgorbs.

– H-ha, – bazo‘r g‘udulladi Karkarov. – Ta’kidlab o‘tishim joizki, men sanab o‘tadigan odamlar uning eng yaqin yor-birodarlari doirasiga kirib, ko‘z o‘ngimda sohib amrini bajargan kishilardir. Bugungi guvohligimni Yovuz Lorddan batamom yuz

o‘girib, ich-ichimdan pushaymon qilayotganimdan dalolat sifatida e’tirof etishingizni va men...

– Xo‘sh, ismlar? – takallufsizlik-la gapni kesdi Sgorbs.

– Avvalambor, Antonin Doloxov, – chuqur nafas olib, bazo‘r gap boshladi Karkarov. – Ko‘plab magllarni, shuningdek, Yovuz Lordni qo‘llab-quvvatlamagan sehrgarlarni qiynoqqa solganini ko‘rganman.

– Va bu masalada unga yaqindan yordam berib borgansan, – qo‘shimcha sharh berib o‘tdi Xmuri o‘tirgan joyida.

– Doloxov fosh etilgan, – dedi Sgorbs. – Siz qo‘lga olinishingiz bilan u ham hibsga olingan.

– Rostdanmi? – ko‘zi chanog‘idan chiqib ketganday so‘radi Karkarov. – Men... men bag‘oyat xursandman.

Uning qiyofasiga qaraganda xursand bo‘lganiga ishonish qiyin. Ushbu xabar unga qattiq zarba bo‘lgani, ma’lum qilmoqchi bo‘lgan ismlardan biri naf bermagani ko‘rinib turibdi.

– Xo‘sh, yana kim? – sovuq va loqayd ohangda so‘radi Sgorbs.

– H-ha... Rozye, – shosha-pisha baqirdi Karkarov. – Evan Rozye.

– Rozye o‘lib qutildi, – ma’lum qildi Sgorbs. – U ham qamoqqa olinganingizdan keyin fosh etilgan. Jangsiz taslim bo‘lishni istamay, hukumatga qarshilik ko‘rsatayotganda avrorlar tomonidan o‘ldirildi.

– Burnimning bir bo‘lagini ham o‘zi bilan narigi dunyoga olib ketdi, ablah, – pichirladi Xmuri.

– Rozye chindan ham o‘sha qismatga munosib edi, – chinqirdi vujudini vahima qamrayotgan Karkarov.

Berayotgan ma’lumotlari vazirlik xodimlarini qiziqtirmagani uchun sarosimaga tusha boshlagan sudlanuvchi ortida dementorlar kutayotgan chiqish eshigi tomon qarab qo‘ydi.

– Xo‘sh, yana kim? – so‘radi Sgorbs.

– Ha! Makkinnonlar oilasini o‘ldirgan Trevers! – bidirlay ketdi Karkarov. – Qaram qilish qarg‘ishiga ixtisoslashgan, ko‘plab kishilarni dahshatli jinoyatlar sodir etishga majbur qilgan

Mulchiber! Sehrgarlik vazirligining faoliyati haqida Yovuz Lordni voqif qilib borgan josus Gadvud!

Bu safar, aftidan, Karkarov nishonga tekkan ko'rinadi. Lom-lim demay kuzatib o'tirgan tinglovchilar kutilmaganda g'ovur-g'uvur qila boshladi.

– Gadvud? – takrorladi Sgorbs, pergamentga bir nimalar yozib o'tirgan afsungar ayolga imo qilib. – Sirli sehr bo'limida ishlaydigan Augustus Gadvudmi?

– Xuddi o'sha, – darhol tasdiqladi Karkarov. – Bilishim-cha, Gadvud, tegishli ma'lumotlarni yig'ish borish manfaat-larida vazirlik ichida ham, uning tashqarisida ham faoliyat yuritgan josuslar tarmog'ini yaratishga erishgan...

– Mulchiber bilan Trevers haqida biz shundoq ham bila-miz, – ma'lum qildi Sgorbs. – Xo'sh, Karkarov, aytadigan gapingiz shu bo'lsa, tegishli qaror qabul qilinguncha Azkabanga qaytasiz...

– Yo'q, hali hammasi emas! – umidsiz o'kirdi Karkarov. – Shoshmang, men yana bir-ikki kishining ismini aytaman!

Sudlanuvchi qo'rqqanidan terlab ketgani mash'alalar yo-rug'ligida ko'rinmoqda. Uning bo'rday oqargan teri qoplamasi qop-qora soch-soqolidan keskin farq qilmoqda.

– Snegg! – baqirdi Karkarov. – Severus Snegg!

– Snegg mazkur mo'tabar yig'in tomonidan oqlangan, – nihoyatda sovuq ohang-la gapni kesdi Sgorbs. – Albus Dambldor uning kafilligini olgan.

– Yo'q! – baqirdi Karkarov, kreslo kishanining zanjirini tortib. – Ishontirib aytamanki, Snegg O'limdan miriquvchilar-dan biri bo'lgan!

– Bu masalada men yetarlicha guvohlik berganman, – o'rnidan turib xotirjam gap boshladi Dambldor. – Chindan ham Severus Snegg O'limdan miriquvchilar safiga qo'shilib qolgan. Biroq Lord Voldemort hali qulamasdan oldin biz tomonga o'tgan va o'z hayotini xavf ostiga qo'ygancha, bizning xabar-chimiz sifatida faoliyat yuritgan. Bugungi kunda shaxsan men qanday O'limdan miriquvchi bo'lsam, u ham shunday miriquvchidir.

Alastor Xmuri shubha ifodalagan yuzini burishtirib qo'ygani Garrining e'tiboridan chetda qolmadi.

– Juda soz, Karkarov, – sovuq ovoz-la yakun yasadi Sgorbs. – Siz bizga yordam berdingiz, deb hisoblaymiz. Ishingiz qayta ko'rib chiqilishini tayinlayman. Hozircha Azka-banga qaytasiz...

Garri atrofga nazar soldi. Mister Sgorbsning ovozi pasayib, zal tarqalayotgan tutunday gum bo'ldi. Endi u faqat o'zining tanasini ko'rmoqda. Atrofdagi narsalar zulmat qa'riga botgan.

Xayol o'tmay zal yana paydo bo'ldi. Garri endi boshqa joyda, bu safar ham yuqori qatorda-yu, faqat Dambldorning emas mister Sgorbsning yonida o'tirganini ko'rdi. Zalda hukm surayotgan muhit ham o'zgacha, qandaydir quvnoq ko'rindi. Sehrgar erkaklar-u, afsungar ayollar allaqanday sport musobaqasini tomosha qilgani yig'ilganday bir-biri bilan shodmon suhbat qurib o'tiribdi. Zalning narigi tomonida egniga pushti korjoma kiygan, qo'lidagi yashil patqalamini so'rib o'tirgan oq-sariq sochli afsungar ayol Garrining e'tiborini o'ziga tortdi. Shubha yo'qki, bu ayol Rita Vriter, faqat nisbatan yoshroq. Garri atrofga nazar solib, egnidagi korjomaning rangi o'zgargan Dambldordan uzoqda emasligini ko'rdi. Mister Sgorbs toliqqan, xayoli parishon, qiyofasi jiddiy tus olgan holatda o'tiribdi... Garri endi boshqa xotira, boshqa kun, boshqa sud majlisiga kelib qolganini idrok etdi.

Zal burchagidagi eshik lang ochilib, Lyudo Shulman kirib keldi. Lekin bu Shulman bugungi kunda qorin qo'ygan Lyudo Shulman emas, balki sport sohasida shuhrat cho'qqisiga chiqqan, baland bo'yli, qaddi-qomati kelishgan, baquvvat, burni hali sinmagan yigit. Shulman atrofga asabiy qarab chiqqach, zanjirli kresloga o'tirdi. Biroq u Karkarov kabi kishanlanmadi. Aftidan, aynan shu sababli bo'lsa kerak, biroz ruhlanib, tomo-shabinlarga razm solgancha, ayrimlarga qo'l siltab, hatto kulib qo'yishga ham jur'at etdi.

– Lyudo Shulman, – gap boshladi mister Sgorbs. – Siz, O'limdan miriquvchilar faoliyati yuzasidan guvohlik berishingiz uchun Oliy sehrgarlik sudi majlisiga chaqirtirilgansiz.

Sud sizga qarshi berilgan guvohliklarni tinglab, hukm chiqarishga tayyor. Hukm chiqarilguncha muqaddam bergan ko‘rsatmalaringizga qo‘shimcha shohidligingiz bormi?

Garri o‘z qulog‘iga o‘zi bovar qilmay o‘tiribdi. Lyudo Shulman O‘limdan miriquvchi bo‘lsa-ya?!

– Bittagina qo‘shimcham bor, – ming‘irladi Lyudo, jur’atsiz kulib. – Nima desam ekan... qisqasi o‘shanda g‘irt ahmoq bo‘lganimni tushunib yetdim...

Tomoshabinlardan ayrimlari kechirimli kulib boqishdi. Biroq ayovsiz sovuq nigoh-la qarab o‘tirgan mister Sgorbs, aftidan, o‘xshash kayfiyatlarga sherik bo‘lmaydigan ko‘rinadi.

– Ha, bu yigitcha shu bugungacha bunchalik aqlli fikr bidirmagan, – vaysadi Garrining orqasida o‘tirgan odamlardan biri. – Agar tug‘ma ahmoqligini bilmaganimda, «Tajovuzkor» to‘plardan biri boshiga yaxshigina zarb bergan, degan xulosaga borgan bo‘lar edim...

Garri o‘girilib, Dambldorga gapirayotgan Xmurini ko‘rdi.

– Lyudovik Shulman, siz Lord Voldemortning tarafdorlaridan biriga ma’lumot yetkazayotganingizda qo‘lga olingansiz, – davom etdi mister Sgorbs. – Bunday kirdikorligi uchun jinoyatchini Azkabanga, ma’lum muddat qamoq jazosiga hukm qilish ko‘zda tutilgan. Ushbu muddat...

Shu payt atrofdan e’tirozli hayqiriqlar eshitildi. Ayrim sehrgarlar o‘rinlaridan qalqib turib, mister Sgorbsga boshlari va hatto qo‘llari bilan ham o‘dag‘aylashdi.

– Aytdim-ku, o‘shanda nima ish bo‘layotganini tasavvur ham qilmagan edim deb! – xaloyiqdan ham baland ovozda baqirib yubordi Shulman, aybsiz moviy ko‘zini chaqchaytirib. – Mutlaqo bexabar edim! Qariya Gadvud otamga yoshlikdan do‘st tutinib kelgan... «O‘zingiz-Bilasiz-Kim»ga sotilganini xayolimga ham keltirmaganman! O‘zimiz uchun axborot yig‘ib yuribman deb o‘ylagan edim! Gadvud esa menga, vaqti kelib kvidishni tark etganimdan so‘ng vazirlikda durustroq lavozim topib berishni va’da qilgan edi... O‘zingiz o‘ylab ko‘ring... bir umr «Tajovuzkor» to‘plardan kaltak yeb yurmayman-u, axir,

to‘g‘rimi?

Zalda o‘tirgan ayrim odamlar kulib yubordi.

– Masalani ovozga qo‘yamiz, – e’lon qildi pinagini buzmagan mister Sgorbs, o‘ng tomonga murojaat qilib. – Sud maslahatchilari, qaysi biringiz qamoq jazosiga ovoz berasiz? Iltimos, qo‘lingizni ko‘taring...

Garri zalning o‘ng tomoniga yuzlandi. Hech kim qo‘l ko‘tarmadi. Aksariyat tomoshabinlar qarsak urib qo‘yishdi. Maslahatchi ayollardan biri o‘rnidan turdi.

– Nimadir demoqchisiz, shekilli? Eshitaman, – g‘udulladi Sgorbs.

– Barcha sud maslahatchilari nomidan, – dedi hayajondan entikib qolgan ayol, – mister Shulmanni o‘tgan shanba kuni Turkiya jamoasiga qarshi o‘tgan o‘yinda qozonilgan qoyilmaqom g‘alaba bilan chin qalbdan tabriklayman.

Mister Sgorbsning g‘azabi qaynab ketgani yuzidan ma’lum. Zalga yig‘ilgan odamlar esa gulduros qarsak chaldi. Yashnab ketgan Shulman o‘rnidan turib, hammaga ta’zim bajo ayladi-da, zalni tark etdi.

– Sharhlagani so‘z ojiz, – vishilladi Dambldorning yoniga o‘tirgan Sgorbs. – Gadvud unga lavozim va’da qilgan emish-a... Lyudo Shulman o‘sha lavozimga ishga olingan kun – vazirlik tarixidagi eng achinarli sanalardan biri bo‘ladi...

Zal yana ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Takror paydo bo‘lgach, Garri yana atrofga qaradi. U ilgarigidek Dambldor bilan birga Sgorbsning yonida o‘tiribdi. Biroq zalda hukm surayotgan muhit batamom o‘zgarib ketgan. Birorta ham bo‘sh joy yo‘qli-giga qaramay, suv quygandek jimjitlik qaror topgan. Faqat mister Sgorbsning narigi yonida o‘tirgan, nihoyatda nimjon ayolgina dastro‘molini titroq barmoqlari bilan og‘ziga bosib olgancha, ko‘z yosh to‘kmay, onda-sonda hiqillab qo‘ymoqda. Garri Sgorbsga razm soldi. Chakka tomiri o‘ynayotgan Sgorbs ilgarigiga qaraganda o‘zini ancha oldirib qo‘ygan, tinka-madori qurigan ko‘rindi...

– Olib kiring, – amr etdi u.

Sgorbsning ovozi zal devoridan aks sado bo‘lib qaytdi. Burchakdagi eshik ochilib, bu safar oltita dementor to‘rt kishidan iborat mahbuslar guruhini olib kirdi. Aksariyat tomoshabinlar mahbuslarga emas Sgorbsga yuzlandi, ayrimlari pichir-pichir qila boshladi. Garri, mahbuslardan biri bo‘m-bo‘sh nigohini yuqoriga, Sgorbsga qaratgan baquvvat kishi, ikkinchisi ozg‘in, nisbatan bezovta erkak, uchinchisi yirik qovoqli, qalin sochi qop-qora, taxtda o‘tirgan kabi kresloga viqor-la joylashib olgan ayol, to‘rtinchisi esa dahshatdan serraygan yoshgina yigitcha ekanini ko‘rdi. Malla sochi sepkilli yuziga tushib, rangi bo‘zday oqargan yigitcha sezilar-sezilmas qaltiramoqda. Mister Sgorbsning yonida dastro‘molini og‘ziga mahkam bosib o‘tirgan nimjon ayol tanasini old-orqaga tebratgancha, ingrab yubordi.

O‘rnidan turgan Sgorbs sudlanuvchilarga ochiqdan ochiq nafrat-la qarab, gap boshladi.

– Sizlar dahshatli jinoyatlar sodir etganda ayblanib, Oliy sehrgarlik sudi oldida hozir bo‘ldingiz, – dedi u, har bir so‘zini dona-dona talaffuz etib.

– Dada, – dedi malla soch yigitcha. – Dada... iltimos... dada...

– ... ushbu dargohda siz sodir etgan jinoyatdan-da og‘ir jinoyatlar hali ko‘rib chiqilmagan, – davom etdi Sgorbs, o‘g‘lining ovozini bosish uchun atayin baland gapirib. – Sizga qarshi ayblovlar diqqat bilan tinglandi. To‘rtalangiz avror Frenk Longbottomni tutib olib, quvg‘in qilingan sohibingiz, «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» qayerdaligini aytib berishi uchun Qiynoqqa solish qarg‘ishi ta’siriga mubtalo qilgansiz...

– Dada ont ichaman, men bunday qilmaganman, qilmaganman! – baqirdi zanjirband yigitcha. – O‘tinaman, dementorlarga qaytarib bermang meni...

– Shuningdek siz, – o‘kira boshladi Sgorbs, – Frenk Longbottomni qiynab, muddaongizga erisha olmagach, uning rafiqasini ham qiynoqqa solganingizda ayblanasiz. Qisqasi sizlar, «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»ni qaytarish maqsadida o‘zaro

til biriktirgansiz va bu bilan uning qudrati hukm surgan davrda sodir etgan joiz kirdikorlaringizni davom etishni ko‘zla-gansiz. Endi men sud maslahatchilaridan...

– Oyi! – umidsiz chirilladi yigitcha. – Oyi, oyijon! Men unday qilmaganman! Dadamga ayting, dementorlarga topshir-masin meni!

Sgorbsning yonida tebranishini qo‘ymay o‘tirgan ayol nihoyat uvvos solib yubordi.

– Bunday mudhish jinoyatlari uchun, – do‘rilladi mister Sgorbs, – ushbu ayblanuvchilar umrbod qamoq jazosiga mahkum qilinishi va jazo muddatini Azkabanda o‘tashi kerak deya, menday fikr yuritayotgan sud maslahatchilaridan qo‘l ko‘tarib, ovoz berishni so‘rayman.

Zalning o‘ng tomonida o‘tirgan sehrgar erkaklar-u, afsun-gar ayollar beistisno qo‘l ko‘tardi. Tomoshabinlar Lyudo Shul-manning sudida qarsak urishganday, faqat bu safar yuzlarida qonxo‘rlik tantanasi barq urgan holatda gulduros qarsak chalishdi.

– Yo‘q! Oyi, yo‘q! – ayanchli qichqirdi mahkum etilgan yigitcha. – Men unday qilmaganman! Men mana bularni tanimayman! Jo‘natmang meni u yoqqa! Ayting dadamga!...

Zalga dementorlar sirpanib kirdi. Uch nafar mahbus lom-lim demay o‘rnidan turdi.

– Yovuz Lord yana bosh ko‘taradi, Sgorbs! – kutilmaganda qichqirdi Sgorbsga tik qaragan yirik qovoqli mahbusa. – Tiq bizni qamoqqa, biz uni o‘sha yerda kutamiz! U oldingi holati-dan ham ulug‘vor bo‘lib, sizlar uchun yanada dahshatli holatda qaytadi va bizni, eng sadoqatli xizmatkorlarini munosib taqdir-laydi! Chunki faqat biz sodiq qoldik unga! Faqat biz qidirib topishga urindik uni!

Yigitcha esa dementorlar qo‘lidan xalos bo‘lishga behuda urinmoqda. Maxluqlarning sovuq, kishini holdan toydiradigan kuchi o‘z ta’sirini o‘tkaza boshlaganini Garri ko‘rib o‘tirdi. Oyoqqa qalqib turgan tomoshabinlar quloqni teshib yuborguday baqirishdi. Ayolni olib ketishdi, yigitcha esa qarshilik ko‘rsa-

tishni behuda davom etmoqda.

– Axir men o‘g‘lingizman-u, dada! – yolvordi bola. – O‘g‘lingizman!

– Yo‘q, oqpadar! O‘g‘lim emassan sen endi! – baqirdi Sgorbs. – Oq qildim seni! Senday o‘g‘lim yo‘q endi! Yo‘qol ko‘zimdan!

Nimjon ayol oh urgancha, hushini yo‘qotib, kursidan quladi. Sgorbs bunga e’tibor ham qilmadi.

– Olib keting ularni! – o‘shqirdi Sgorbs dementorlarga so‘lak sachratib. – Qamoqda chirib ketishsin!

– Dada! Dadajon! – baqirdi yigitcha. – Menda ayb yo‘q! Yo‘q! Yo‘q! Iltimos, dadajon!

– Nazarimda, Garri, xonaga qaytadigan vaqting bo‘ldi, – dedi kimdir Garrining qulog‘iga.

Seskanib ketgan Garri dastlab chap, so‘ng o‘ng tomonga qaradi. O‘ng tomondagi Albus Dambldor Sgorbsning o‘g‘lini sudrab ketayotgan dementorlarni tomosha qilayotgan bo‘lsa, chap tomonidagi Albus Dambldor Garriga qarab turibdi.

– Ketdik, – dedi chap tomondagi Dambldor, Garrining qo‘ltig‘idan tutib.

Garri yuqoriga ko‘tarilayotganini his etdi. Sud zali yana ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Atrof ma’lum vaqt qorong‘ilashdi. Asta salto bajargach, Dambldorning quyosh nuri ko‘zni qamashtirib yuborguday yoritgan xizmat xonasida oyoqqa turdi. Bolaning ro‘parasidagi qop-qora javoncha ichida turgan tosh chig‘anoq kumush yog‘du taratmoqda. Chig‘anoq yonida esa Albus Dambldor turibdi.

– Professor, – oh urdi Garri. – Bilaman, bunday qilmasligim kerak edi... tavaqa ochiq ekan...

– Seni juda yaxshi tushunaman, – bosh irg‘idi Dambldor.

U tosh chig‘anoqni qo‘liga olib, stol yoniga bordi-da, sayqal berilgan yuzaga qo‘ygach, kresloga o‘tirdi. So‘ng ro‘pa-radagi kresloga imo qilgancha Garriga o‘tirishni buyurdi.

Bola kresloga o‘tirib, tosh chig‘anoqqa baqraydi. Ilgarigidek oq kumush tus olgan modda yana aylanib, yuzasi mavj

urmoqda.

– Nima bu? – so'radi Garri titroq ovozda.

– Bumi? Damblxotira, – javob berdi Dambldor. – Bilasanmi, ba'zan miyamdagi fikr-xayol, g'oya va xotiralar haddan ortiq ko'payib, boshim yorilib ketgudek bo'ladi. Ishonchim komilki, senda ham shunday bo'lib turadi.

– M-m-m... – g'udullab qo'ydi Garri, biron marta bunday bo'lganini ishonch-la ayta olmasligini bilib.

– Bunday fursatda damblxotira juda asqatadi – davom etdi Dambldor, chig'anoqqa imo qilib. – Miyamdagi o'ylarni ajratib olib, chig'anoqqa solib qo'yaman-da, qo'l bo'shaganda o'sha xayollarga yana qaytaman. Tushunyapsanmi? Agar ish shu tarzda olib borilsa, hodisalarning o'zaro bog'liqligini, mantiqiy izchilligini kuzatish oson kechadi.

– Ya'ni aytmoqchisiz-ki, mana bu modda – sizning o'y-xayollaringiz-u, xotiralaringiz, shundaymi? – ishonqiramay so'radi Garri, burqirayotgan oq moddaga qarab.

– Albatta, – tasdiqladi Dambldor. – Ijozating bilan senga isbotlab beraman.

Direktor kissasidan sehrli tayoqchasini chiqarib, uchini oq sochi bekitgan chakkasiga taqadi. Tayoqchani boshidan nari olganida Garrining ko'ziga, dastlab, tayoqcha uchiga oq soch tolasi ilashib qolganday ko'rindi. Durustroq razm solganda esa bu soch emas, damblxotira chig'anog'i to'lib turgan oq kumush tusli modda ipi ekanini angladi. Demak, Dambldor chig'anoqdagi fikr-xayollariga yana bir o'yini qo'shib qo'ydi. Xayol o'tmay, Garri, chig'anoqdagi modda yuzasida o'zining aksini ko'rdi.

Dambldor damblxotira chig'anog'ini ikkala qo'li bilan ushlab, oltin qumni yuvib tozalayotgan oltin qidiruvchi kishidek chayqaltirdi. Modda yuzasidagi Garrining aksi Sneggning aksiga almashdi. Ushbu aks shiftga qaragancha og'zini ochib, yangroq ovoz chiqardi: «*U yana ko'rinyapti... Karkarovda ham shu ahvol... ilgarigidan ham aniq, to'q rangda paydo bo'lyapti*»...

– O'zim ham fahmlashim mumkin bo'lgan bog'liqlik, –

xo‘rsindi Dambldor. – Mayli, hozir buning ahamiyati yo‘q.

Direktor ko‘zoynagi uzra moddaning yuzasida aylanayotgan Sneggning basharasini tomosha qilayotgan Garriga qarab qo‘ydi.

– Mister Fuj tashrif buyurganida men damblxotira bilan shug‘ullanib o‘tirgan edim. Aftidan, shoshib qolibman, shekilli, joyiga yaxshilab yashirib qo‘ymabman. Tabiiyki, damblxotira chig‘anog‘i e’tiboringni o‘ziga jalb etgan.

– Ma’zur tuting, – ming‘irladi Garri.

Dambldor bosh siltadi.

– Qiziqish qusur sanalmaydi, – dedi direktor. – Biroq kishi qiziquvchanlik bilan muomala qilar ekan, nihoyatda ehtiyotlik-la ish tutmog‘i darkor... ha-ha, aynan shunday...

Qoshini chimirgan Dambldor sehrli tayoqchasining uchini chig‘anoqdagi xotiralariga tekkizdi. Damblxotira chig‘anog‘i ichidan o‘n olti yoshli lo‘ppigina qiz o‘sib chiqib, oyog‘i chig‘anoqdan uzilmay, turgan joyida astagina aylana boshladi. Garriga ham, Dambldorga ham e’tibor qilmagan qiz Snegg kabi yangroq gap boshladi: «*U menga ko‘zikish qarg‘ishini qo‘lladi, professor Dambldor. Men uni ozgina masxara qilib, ustidan kulib qo‘ygan edim, xolos, ser. O‘tgan payshanba kuni issiq-xona ortida Florensdan bo‘sa olayotganini ko‘rib qolganimni aytgan edim*»

– Nega uni kuzatib yurish kerak bo‘lib qoldi senga, a, Berta? – ma’yus so‘radi Dambldor.

– Berta? Bu Berta Jorkinsmi? – pichirladi Garri, qizga termilib.

– Ha, – bosh irg‘idi Dambldor, tayoqchasini xotiralariga yana tekkizib.

Bertaning aksi erib ketgach, modda yana kumush tusli shaffof ko‘rinish oldi.

– Maktabda o‘qib yurgan kezlarida xotiramda saqlanib qolgan, o‘ta qiziquvchan Berta Jorkinsning aksi edi bu, – dedi Dambldor.

Chig‘anoqdan taralayotgan kumush yog‘du Dambldorning

yuzini yoritdi. Shunda Garri direktorning qartayib qolganiga e'tibor qildi. Dambldor ham boshqa odamlar kabi keksayishini biladi, albatta. Ammo Garri Dambldorni hech qachon keksa kishi deya e'tirof etmagan.

– Shunday qilib, Garri, – gap boshladi Dambldor, – xotiralarim ichida yo'qolib qolguninggacha, menga bir nima demoqchi bo'lib kelgan eding, to'g'rimi?

– Ha, – tasdiqladi Garri. – Professor... men hozir bashorat darsida o'tirgan edim... uxlab qolibman.

Bola tanbeh eshitishga shay bo'lib, biroz tutilib qoldi.

– Sababini tushunsa bo'ladi, albatta. Davom et.

– Qisqasi, tush ko'rdim. Tushimda Lord Voldemort Chuvalchangdumni qiynoqqa soldi... Chuvalchangdumni taniysizmi?...

– Taniyman, – tez javob berdi Dambldor. – Iltimos, davom et.

– Ukki Voldemortga xat keltirdi. Xatni o'qigan Voldemort Chuvalchangdumning xatosi tuzatilgani, kimdir o'lgani, shu bois Chuvalchangdumni hozircha ilonga yem qilmasligini aytdi. Kreslosining ostida nihoyatda katta ilon yotgan edi. So'ng Chuvalchangdumni Qiynoqqa solish qarg'ishi vositasida qiynay boshladi. Shunda mening chandig'im ham og'ridi. Qattiq og'riqdan uyg'onib ketdim.

Dambldor lom-lim demay bolaga qarab o'tiribdi.

– M-m-m... bor gap shu, – hikoyasini tugatdi Garri.

– Tushunarli, – past ovozda javob berdi Dambldor. – Tushunarli. Yozda, og'riqdan uyg'onib ketgan holatdan tashqari, yana biron marta og'ridimi, chandig'ing?

– Yo'q, og'rigani yo'q... Yozda og'riganini qayerdan bilasiz? – hang-mang bo'lib qoldi Garri.

– Sirius bilan xat yozishadigan yolg'iz sen emassan, – tushuntirish berdi Dambldor. – U o'tgan yozda «Xogvars»ni tark etgandan buyon men bilan yozishib boradi. Tog' g'orida bekinib olishni unga men maslahat berganman.

Dambldor o'rnidan turib, yozuv stoli yonida u yoq bu yoq

yura boshladi. Vaqti-vaqti bilan sehrli tayoqchasining uchini chakkasiga taqab, damblxotira ichiga yangi va yangi kumush tus berib tovlangan xotiralarini qo‘shib bordi. Chig‘anoqdagi xotiralar shu qadar tez aylanar ediki, Garrining ko‘ziga rang-barang dog‘ ko‘rindi, xolos.

– Professor, – chaqirdi u bir necha daqiqa o‘tgach.

Dambldor yurishdan to‘xtab, Garriga qaradi.

– Ma’zur tutgaysan, – dedi u, joyiga o‘tirib.

– Chandig‘im nima sababdan og‘rishini bilasizmi?

– Bu borada faqat bitta fikrni ilgari surishim mumkin... – javob berdi muayyan vaqt bolaga diqqat bilan tikilib o‘tirgan Dambldor. – Ta’kidlab o‘taman, bu atigi taxmin, xolos. Fikrimcha, chandig‘ing Lord Voldemort yaqin atrofda bo‘lib, vujudini o‘ta kuchli nafrat qamrab olgan fursatdagina og‘riydi.

– Xo‘p... nima uchun?

– Chunki sen ham, Lord Voldemort ham o‘ngmagan qarg‘ish kuchi vositasida o‘zaro bog‘lanib qolgansizlar, – tushuntirish berdi Dambldor. – Peshanangdagi chandiq oddiy chandiqlar sirasiga kirmaydi.

– Demak, sizningcha, men ko‘rgan tush aslida tush emas, haqiqatda bo‘lib o‘tgan hodisa, shundaymi?

– Bo‘lishi mumkin, – bosh irg‘idi Dambldor. – Shunday taxmin haqiqatga yaqinroq degan bo‘lar edim. Ayt-chi, Garri, tushingda... Voldemortning o‘zini ko‘rdingmi?

– Yo‘q, – bosh siltadi Garri, – kreslosining orqa tomonini ko‘rdim, xolos... uning ko‘rinadigan tanasi yo‘q-ku, to‘g‘rimi? U tanasiz-u, axir?! Biroq tanasi bo‘lmasa, qanday qilib sehrli tayoqcha ushlashi mumkin?

– Chindan ham, – g‘udulladi Dambldor. – Qanday qilib?...

Ikkalasi ma’lum vaqt sukut saqlab o‘tirishdi. Dambldor nigohsiz ko‘zini bo‘shliqqa qaratgancha, chakkasidan vaqti-vaqti bilan yangi o‘ylar chiqarib, damblxotira chig‘anog‘ida qaynayotgan xotiralarga qo‘shib bordi.

– Professor, u tobora kuchli bo‘lib boryapti, deb o‘ylamaysizmi?

– Voldemortmi?

Dambldor damblxotira uzra bolaga diqqat-la razm soldi. Direktorning bunday nigohi bolaga yaxshi tanish. Garrining nazarida, direktorning ushbu qarashi oldida hech qanday sehrli ko‘z ip esha olmaydi.

– Bu masalada ham Garri, o‘z taxminimni aytishim mumkin, xolos.

Toliqqan, ilgarigiga qaraganda ancha keksayganday ko‘ringan Dambldor chuqur xo‘rsindi.

– Voldemort o‘z hukmini surib yurgan yillarda odamlar izsiz yo‘qolgan holatlar ko‘p bo‘lgan, – gap boshladi u. – Hozir ham Voldemort ko‘rinish bergan yurtda Berta Jorkins bedarak yo‘qoldi. Mister Sgorbs ham aynan shu yerda, maktabimiz hududida gum bo‘ldi. Yana bir kishi izsiz yo‘qolgan. Taassufki, vazirlik ushbu holatga talab darajasida e’tibor ajratmadi. O‘sha kishining ismi Frenk Brays. U Voldemortning otasi o‘sib ulg‘aygan qishloqda yashagan. Braysni o‘tgan avgust oyidan buyon hech kim ko‘rmagan. Tushungan bo‘lsang, vazirlikdagi aksariyat do‘stlarimdan farqli o‘laroq, men magllarning gazetalarini ham o‘qib boraman.

Dambldor Garriga jiddiy qarab qo‘ydi.

– Ushbu holatlar, menimcha, o‘zaro bog‘liq. Vazirlik esa fikrimga qo‘shilmaydi. Buni o‘zing ham eshitding, eshik ortida turganingda.

Garri bosh irg‘ib, tasdiqladi. Oraga yana sukunat cho‘kdi. Dambldor xotiralarini boshidan chiqarib, chig‘anoqqa tashlab o‘tirdi. Garri direktorga xalal bermay, ketishga ahd qildi-yu, qiziquvchan tabiati yana ustun keldi.

– Professor.

– Eshitaman, Garri.

– Damblxotira vositasida ko‘ringan anavi sud haqida so‘rasam maylimi?

– So‘ra, – og‘ir xo‘rsindi Dambldor. – Men juda ko‘p sud majlislarida ishtirok etganman. Ayrimlarini nisbatan yaxshiroq eslayman... ayniqsa hozir...

– Meni qaysi majlisda topib olganingizni bilasizmi? Sgorbsning o‘g‘liga hukm chiqarilgan majlisda. U yerda... m-m-m... Nevillning ota-onasi haqida gap bordi.

Dambldor yana Garriga teshib yuborguday tikildi.

– To‘g‘ri, Nevillning ota-onasi tilga olindi, – tasdiqladi u. – Nevillning otasi, Frenk Longbottom, professor Xmuri kabi avror bo‘lib ishlagan. O‘z qudratini yo‘qotgan Voldemort qayerga yashiringanini bilish maqsadida er-xotin qiynoqqa solinganini tushunib yetgan ko‘rinasan.

– Ular halok bo‘lishdimi? – past ovozda so‘radi Garri.

– Yo‘q, – javob berdi Dambldor, Garri muqaddam eshitmagan alamli ohangda. – Ikkalasi ham aqldan ozib qolgan. Hozir ular Muqaddas Rezgi kasalxonasi – g‘alati jarohat va patologiyalar institutida davolanmoqda. Bilishimcha, Nevill buvisi bilan birga har yozgi ta’tilda ota-onasidan xabar olgani boradi. Biroq ular er-xotin farzandini tanimaydi.

– Mister Sgorbsning o‘g‘li chindan ham aybsiz bo‘lishi mumkinmi? – asta so‘radi Garri.

– Bu masalada biron-bir tasavvurga ega emasman, – bosh chayqadi Dambldor.

Garri damblxotira ichidagi moddaning aylanishini tomosha qilib, yana biroz sukut saqladi. Yana ikkita savol uning ichini qizdirmoqda. Ammo bu savollar hozirda barhayot yurgan ikki kishiga taalluqli...

– E-m-m... mister Shulman-chi?

– O‘sha davrdan buyon biron marta bo‘lsin, yovuz kuchlarga daxldor faoliyat bilan shug‘ullangani kuzatilmagan, – xotirjam ma’lum qildi Dambldor.

– Tushunarli, – tez javob berdi Garri, xotira kiritilmay qo‘yilgach, aylanish tezligi pasaya borayotgan moddaga qarab, – A... m-m-m...

Bolaga damblxotira yordam berishga ahd qilgan ko‘rinadi. Chunki modda yuzasida yana Sneggning ruxsori ko‘rindi. Chig‘anoqqa qarab qo‘ygan Dambldor Garriga yuzlanib, qo‘shib qo‘ydi:

– Professor Snegg ham.

Direktorning moviy ko'ziga qaragan Garrining tili o'yidan ilgarilab ketdi.

– Professor, nega endi Snegg Voldemort tarafdori emasligiga qattiq ishonch bildirasiz?

Dambldor Garrining nigohini qarshi olib, bir necha soniya sukut saqlab turdi-da, javob berdi:

– Bu masala, Garri, faqat professor Snegg ikkalamizga taalluqli.

Garri bugungi intervyu nihoyasiga yetganini angladi. Dambldor achchiqlangani yo'q, biroq uning ovozida suhbatni yakunlovchi ohang eshitilib, ketar vaqt bo'lganini tushundi. U Dambldor bilan deyarli bir vaqtda o'rnidan turdi.

– Garri, – chaqirdi direktor, bola chiqish eshigiga yetay deganda, – Iltimos, Nevillning ota-onasi haqida hech kimga gapira ko'rma. Bunga faqat Nevillning o'zi haqli.

– Albatta, professor, – bosh irg'idi Garri, eshik tomon o'girilib.

– Yana bir gap...

Garri ortga o'girilib, xotira chig'anog'idan taralayotgan shu'lada Dambldor shunchaki keksa kishi emas, ibtidoiy zamonlardan bugungi kungacha yetib kelgan cholday ko'rinayotganiga e'tibor qildi.

– Uchinchi musobaqada omad senga yor bo'lishini istayman, – tilak bildirdi bolaga uzoq qarab turgan «Xogvars» direktori.

XXXI BOB. UCHINCHI MUSOBAQA

– Demak, «O'zing-Bilasan-Kim» yana kuchga erishayotganini Dambldor ham rad etmas ekan-da, a? – pichirladi Ron.

Garri damblxotira ichida ko'rganlari, jumladan, Dambldor sharhlab bergan ma'lumotlar va ko'rsatgan narsalar haqida Ron bilan Germionaga oqizmay-tomizmay aytib berib, tabiiyki, Siriusga ham batafsil yozib yubordi. Uchovlon bo'lib o'tgan hodisani muhokama qilib, yana allamahalgacha umumiy mehmonxonada o'tirib chiqdi. Oqibatda Garrining boshi aylanib, miyaga haddan ortiq to'lib ketgan fikr-xayol, g'oya va xotiralar haqida Dambldor bildirgan mulohazaning ma'nosini endi tushunib yetdi. Ha, chindan ham miyadagi o'ylarning ma'lum qismidan xalos bo'lgan kishi o'zini ancha yengil his etsa kerak...

– Demak, bir vaqtlar O'limdan miriquvchi bo'lganiga qaramay, Snegg ham Dambldorning nazarida, ishonchli kishilardan biri ekan-da, a? – sezilar-sezilmas seskanib ketdi kamindagi olovga qarab, o'y surib qolgan Ron, oqshom iliq bo'lishiga qaramay.

– Ha, – tasdiqladi Garri.

Peshanasini kaftiga tirab, nigohini tizzasiga qaratib olgan Germiona o'n daqiqacha indamay o'tirdi. Garri damblxotira chig'anog'iga o'xshash buyum Germionaga ham ortiqchalik qilmasligini xayoldan o'tkazdi.

– Rita Vriter, – dedi Germiona nihoyat.

– Shunday paytda o'sha ayol haqida o'ylaganingga hayronman, – dedi Ron taajjubli qarab.

– Ritaning o'zi haqida emas, aytgan gapi haqida o'ylanib qoldim, – tushuntirish berdi Germiona, tizzasidan ko'zini uzmay. – «Uch supurgi» qahvaxonasida menga nima degani esingizdami? O'shanda u: «*Men Lyudo Shulman haqida shunday narsalarni bilamanki, eshitgan kishining tepa sochi tikka bo'ladi*», degan edi. Shuni nazarda tutgan ekan-da! Vriter sud majlisida bo'lgan, Shulman O'limdan miriquvchilarga axborot yetkazib turganini bilgan! Ana endi Vinkining gapini eslang:

«*Mister Shulman yomon sehrgar! Juda yomon! Sohibim uni yoqtirmaydi! Hech xush ko'rmaydi uni!*» degan edi. Aftidan, Shulmanning jazosiz qolgani mister Sgorbsga yoqmay, bu haqda o'z uyida fikr bildirgan.

– To'g'ri, lekin Shulman O'limdan miriquvchilar uchun ma'lumot berayotganini bilmagan, – eslatdi Garri.

Germiona yelka qisib qo'ydi.

– Fujning fikricha, Sgorbsga Maksim xonim hamla qilgan, shundaymi? – so'radi Ron, yana Garriga yuzlanib.

– Sgorbs «Belstek» aravasining yaqinida gum bo'lgani uchungina, shunday xayolga bordi, – dedi Garri.

– Biz esa uni xayolimizga ham keltirmaganmiz, – asta fikr bildirdi Ron. – Garchi chala zot gigant ekanidan tonib, o'zini suyagi yo'g'on, tanasi chorpahil deb bilsa-da, aslida...

– Tonadi, albatta! – ovoz ko'tardi Germiona, boshini ko'tarib. – Ritaning maqolasidan keyin Xagrid qay ahvolga tushganini o'zing ko'rding! Fuj sehrgarlik vaziri bo'la turib, Maksim xonim haqida, o'sha ayol chala zot gigant bo'lgani uchungina qanday mulohaza yuritayotganini fikr tarozisidan o'tkazib ko'r! Qani, ayt-chi, kimga kerak bunday munosabat? Men ham Maksim xonimning o'rnida bo'lganimda, haq gapni aytib, nimaga erishishim mumkinligini bilgan holda, yolg'onni tanlagan va hammaga suyagim yo'g'on, tanam chorpahil deya e'lon qilgan bo'lar edim. Bugun umuman shug'ullanmadik! – dedi qiz soatiga qarab. – To'sqinlik qarg'ishini o'zlashtirishni rejalashtirgan edik-ku! Ertaga o'sha qarg'ish ustida ishlashimiz shart. Bo'ldi, Garri, kirib yot. Yaxshi dam – mehnatga hamdam! Sen dam olishing kerak.

Garri Ron bilan birga asta yotoqxonaga ko'tarildi. Tungi pijamasini kiyar ekan, ko'zini Nevillning karavotidan uza olmadi. Va'daga vafo qilgan bola Ron bilan Germionaga Nevillning ota-onasi haqida hech nima demadi. Ko'zoynagini yechib, ko'rpasiga yotar ekan, ota-ona tirik bo'la turib, o'z bolasini tanimasa, qanday bo'lishini tasavvur qilib ko'rdi. G'irt yetim bo'lgani uchun unga mutlaqo yot odamlarning rahmi keladi. Endi esa sinfdoshining pishillashini eshitib yotib, aslida Nevill-ga

ko‘proq rahm qilish kerakligi haqida o‘ylanib qoldi. Qoron-g‘ida yotgan Garrining vujudini er-xotin Longbottomlarni qiy-noqqa solgan jinoyatchilarga nisbatan nafrat tuyg‘usi qamradi... Dementorlar Sgorbsning o‘g‘lini sheriklari bilan birga sudrab ketayotganida xaloyiqning quturib ketganday ayyuhannos solgani va rangi sutday oqarib qichqirgan o‘sha yigitcha bir yil o‘tar-o‘tmas olamdan o‘tganini dahshat-la esladi...

«Bularning bari Voldemortning qilmishi, – xayoldan o‘tkazdi Garri, qorong‘ida bazo‘r ko‘rinayotgan to‘q-qizil baxmaldan tayyorlangan guldor chodirining shiftiga qarab. – Hamma gap oxir-pirovardida Voldemortga borib taqalyapti... Ko‘plab odamlarning yostig‘ini quritgan, oilasini sarson qilgan, hayotini izdan chiqargan o‘sha la’nati Voldemort bo‘ladi...»

***

Umuman aytganda, Ron bilan Germiona imtihonga tayyorgarlik ko‘rishi kerak. Ikkalasi esa bor kuch-g‘ayratini Garriga yordam berishga sarflamoqda. Binobarin Garri, ushbu masalaga shama qilib, ma’lum vaqt o‘zi mustaqil shug‘ullanishi mumkinligi aytdi.

– Tashvish tortma, – qo‘l siltadi Germiona. – Yovuz kuchdan himoya fanidan a’lo baho Ron ikkalamizning cho‘ntagimizda, deb sanayver. Dars davomida shuncha ko‘p tilsim, afsun, ko‘zikishlar-u, qarg‘ishlarni o‘zlashtirmagan bo‘lar edik.

Havoda uchib kelayotgan arini To‘sqinlik qarg‘ishi vositasida muallaq osiltirib qo‘ygan Ron o‘ziga o‘zi qoyil qolib, Garrini tinchlantirgan bo‘ldi:

– Avror bo‘lsak, bularning bari asqatib qoladi!

Iyun oyi kirib keldi. «Xogvars» qasrida ham quvonchli, ham keskin vaziyat qaror topdi. Hamma o‘quv yilining tuga-shiga bir hafta qolganda bo‘lib o‘tadigan so‘nggi musobaqani sabrsizlikla kutmoqda. Garri qo‘li bo‘shashi bilan turli-tuman afsunlar ijrosini mashq qilib yuribdi. Ta’kidlab o‘tmoq joizki, bu safar u, ilgarigiga nisbatan ancha dadil, ishonchli his etmoq-da o‘zini. To‘g‘ri, oxirgi musobaqa ham oldingi sinovlar kabi qiyin va

xavfli kechadi, albatta. Biroq Xmuri haq: Garri doimo maxluqlarni chuv tushirish va sehrli to‘siqlarni yengib o‘tishning har xil usullarini topa bilgan. Hozir esa barcha sinovlarga oldindan, yetarlicha puxta tayyorgarlik ko‘rish imkoni bor.

Tinib-tinchimas uchlikka duch kelaverib charchagan professor Makgonagall Garriga, tushlik tanaffusi davomida bir narsani boshqa narsaga aylantirish fani xonasidan foydalanishga ijozat berdi. Tez orada Garri: raqib tomonidan bajarilayotgan harakat tezligini pasaytiradigan, umuman aytganda, tajovuzkor o‘z niyatiga erishishiga mone bo‘ladigan To‘sqinlik qarg‘ishini; yo‘lda duch keladigan qattiq jismlarni har tomon uloqtirib yuboradigan Sochib tashlash afsunini; sehrli tayoqchani burilib, uchi bilan shimol tomonni ko‘rsatishga majbur qiladigan To‘rt nuqta tilsimini mukammal o‘zlashtirdi.

To‘rt nuqta tilsimi Germionaning ajoyib topildig‘i bo‘lib, labirint ichida mo‘ljal olib yurishga yordam berishi muqarrar. Biroq Garri To‘sish tilsimining ijrosini hech uddalay olmayapti. Taxminga ko‘ra, ushbu tilsim kishi atrofida o‘tib bo‘lmas g‘ov yaratib, u qadar kuchli bo‘lmagan qarg‘ish yashinlarini ortga qaytarishi lozim. Lekin Germiona yaxshigina nishonga olib qo‘llagan Paxta oyoq qarg‘ishi Garri yaratgan g‘ovdan singib o‘tib, toki Germiona ushbu qarg‘ishga qarshi qarg‘ish topguncha bolani o‘n daqiqacha titrab qolgan oyoqda kalovlanib yurishga majbur qildi.

– O‘zlashtirishing yomon emas, Garri, – dalda berdi Germiona, qarg‘ishlar ro‘yxatidagi tegishli tilsim va qarg‘ish nomlarining ustiga chiziq tortib. – Bularning bari bo‘lmasa ham aksariyati senga kor berishi turgan gap.

– Bu yoqqa keling, – chaqirdi hovli tomosha qilayotgan Ron. – Pastga qarang, Malfoy nima qilyapti?

Deraza yoniga to‘plangan bolalar hovlidagi daraxtlardan birining ostida turgan Malfoy va tishining oqini ko‘rsatayotgan Krabbe bilan Goylni ko‘rishdi. Krabbe va Goyl, aftidan, poyloqchilik qilishmoqda. Malfoy esa qo‘lini og‘ziga keltirib, kaftiga gapiryapti.

– Ratsiya orqali radioso‘zlashuv olib borayotgan ko‘rinadi,

– hayron bo‘ldi Garri.

– Bo‘lishi mumkin emas, – bosh siltadi Germiona. – Aytgan edim-u sizlarga, «Xogvars» hududida o‘xshash asboblar ishlamaydi deb. Qo‘y Garri, yaxshisi To‘sish tilsimining ijrosini mashq qilaylik.

***

Sirius endi har kuni Garriga boyqush yo‘llaydigan bo‘lib qoldi. U ham xuddi Germiona kabi Garrining uchinchi sinovdan eson-omon o‘tib olishini kutish va shundan so‘nggina boshqa muammolar bilan shug‘ullanishga ahd qilgan. Har bir xatida Garriga «Xogvars»da hozir nimalar ro‘y bermasin, e’tibor qilmasligini, chunki o‘sha hodisalar jarayoniga hech qanday ta’sir o‘tkaza olmasligini eslatib o‘tmoqda.

Voldemort chindan ham yana kuchga erishayotgan ekan, zimmamdagi eng birinchi burch – sening xavfsizligingni ta’minlashdir. Dambldor himoyasi ostida ekansan, Voldemort hech qachon senga yeta olmaydi. Biroq bu, tavakkalchilik yo‘l qo‘yish mumkinligini anglatmaydi. Birinchi navbatda labirintni bir yoqli qil, qolgan ishlarga keyin kirishamiz.

Yigirma to‘rtinchi iyun yaqinlashgan sari Garri asabiylasha boshladi. Lekin u birinchi va ikkinchi musobaqadan oldin bo‘lgani kabi umidsizlikka yuz tutgani yo‘q. Sababi ayon. Birinchidan, ishonchi komilki, bu safar musobaqaga puxta tayyorgarlik ko‘rish uchun bor imkoniyatini ishga solib, qo‘ldan kelgancha harakat qildi. Ikkinchidan, bu oxirgi sinov. G‘olib chiqadimi-yo‘qmi, shu bilan Uch sehrgar bellashuvi nihoyasiga yetib, o‘zini ancha yengil his etadi.

***

Uchinchi musobaqa o‘tadigan kuni griffindorchilarning nonushtasi nihoyatda burqirab o‘tdi. Ertalabki pochta boyqushi

Garriga Siriusdan muvaffaqiyat tilangan otkritka, aniqroq aytganda, g'ijimlangan pergament bo'lagiga bosilgan it panjasining izini keltirdi. Lekin bunday tilakdan Garri rosa sevindi. Germionaga esa «Bashorat-u karomat gazetasi»ning yangi soni yetkazildi. Birinchi sahifani yozishi bilan taajjubdan tiqilib qolgan qiz, og'iz bo'shlig'iga simirib, yutib yuborishga ulgurmagan oshqovoq sharbatini gazeta sahifasiga sachratib yubordi.

– Nima bo'ldi? – baralla so'rashdi Garri bilan Ron.

– Hech nima, – javob berdi Germiona, gazetani yashirishga urinib.

Biroq Ron Germionaning qo'lidagi gazetani chaqqonlik bilan tortib olib, sarlavhaga baqrayib qoldi.

– Faqat bu emas. Faqat bugun emas. Ax sen, gumbaz.

– Ha, yana Rita Vritermi, – so'radi Garri.

– Yo'q, – javob berdi Ron, Germiona kabi gazetani yashirishga urinib.

– Yana men haqimdami? – tinch qo'ymadi Garri.

– Yo'q, – ishonchsiz ohang-la takrorladi Ron.

Biroq Garri gazetani talab qilishga ulgurmay turib, slizerinchilar dasturxonidan Drako Malfoyning qichqirig'i eshitildi.

– Hoy, Potter! Potter! Boshing qalay? Og'riyaptimi? Bugun sal bo'lsa ham mo'minroqmisan ishqilib? Odamlarga tashlanmaysanmi?

U ham «Bashorat-u karomat gazetasi»ni ushlab olgan. Garrining qanday munosabat bildirishini ko'rmoqchi bo'lgan slizerinchilarning hammasi murdor irshaygancha, o'girilib olgan.

– Ber, o'qib ko'ray, – amr qildi u Ronga. – Ber dedim senga.

Ron gazetani istar-istamas Garriga uzatdi. Gazetani yozib qaragan Garri o'zining fotosurati ostidagi Rita Vriter qalamiga mansub maqolani ko'rdi.

GARRI POTTER – TABIATAN BEQAROR VA NIHOYATDA XAVFLI BOLA

Chaqaloqligida «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»dan qo'li baland kelib, omon qolgan Garri Potter bugungi kunda ruhan

beqarorligi va shu sababli maktab o'quvchilariga nisbatan yashirin xavf tug'dirishi mumkinligi bilan o'z tengqurlaridan farq qiladi. Yaqinda Potterning Uch sehrgar bellashuvida ishtirok etishiga yo'l qo'yilishi, umuman aytganda, «Xogvars»dagi o'qishini davom etish mumkinligini shubha ostiga soladigan g'alati xulqi haqida nihoyatda xavotirli ma'lumotlar olindi.

«Bashorat-u karomat gazetasi»ning mo'tabar manbalaridan olingan ma'lumotlarga ko'ra, Potter, muntazam ravishda hushdan ketib borar, peshanasidagi chandig'i og'riyotganidan tez-tez zorlanib turar ekan. Ushbu chandiq «O'zingiz-Bilasiz-Kim» tomonidan Potterni o'ldirish maqsadida qo'llanilgan qarg'ishdan qolgan xotira ekani hammaga yaxshi ma'lum.

Jumladan, o'tgan dushanba kuni bashorat fanidan o'tkazilgan dars davomida peshanasining og'rig'i yana xuruj qilgani va shu bois darsda ishtirok eta olmasligini ma'lum qilgan Potter sinf xonasini yugurgancha tark etganiga gazetamiz muxbiri shaxsan shohid bo'ldi.

Muqaddas Rezgi kasalxonasi – g'alati jarohat va patologiyalar institutida faoliyat yuritadigan ekspertlarning fikricha, «O'zingiz-Bilasiz-Kim» qo'llagan qarg'ish yashini bolaning miyasiga bevosita daxl qilgan. Binobarin, Potterning bosh og'riqlariga doir shikoyati og'ir ruhiy kasallik alomati bo'lishi ham mumkin ekan.

«Biroq Potterning bunday qilig'ini atrofdagi odamlarning diqqat-e'tiborini o'z shaxsiga qaratish maqsadiga yo'naltirilgan chorasiz urinish sifatida ham ko'rish mumkin», – fikr bildirdi soha mutaxassislaridan biri.

Bundan tashqari, «Bashorat-u karomat gazetasi»ning tahririyati «Xogvars» direktori Albus Dambldor tomonidan sehrgarlar jamiyatidan astoydil bekitib kelingan yana bir xavotirli holatdan xabar topdi.

«Potter serpentargo tilida[1] gapira oladi, – ma'lum qildi to'rtinchi sinf o'quvchisi Drako Malfoy. – Ikki yil muqaddam maktabimizda o'quvchilarga qarshi sirli hamlalar uyushtirildi.

[1] **Serpentargo tili** – ilonlar tili.

Aksariyat odamlar ushbu qilmishlar ortida Potterning qo'li borligiga shubha qilmadi. Chunki biz, kunlardan bir kun, uning besabab quturib ketgani va ilon bilan til biriktirib, uni bir bolaga solganini o'z ko'zimiz bilan ko'rgan edik. O'sha hodisa-larni maktab ma'muriyati bosti-bosti qildi, albatta. Lekin biz Potterning maxluq tusiga kira oladigan odamlar-u, gigantlar bilan do'st tutinib yurishini yaxshi bilamiz. O'sha bola haqida hammamizning fikrimiz mushtarak, u ham bo'lsa, olamga dovrug'i ketishi uchun Potter hech narsadan tap tortmaydi».

Ma'lumki, kishining ilonzabonligi, qadim zamonlardan buyon yovuz kuchlar sehriga mansub tabiat, deya e'tirof etib kelingan. Darhaqiqat, zamonamizning serpentargo tilida gapirishni biladigan eng mashhur ilonzabon «qahramoni» «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi» sanaladi. Yovuz kuchdan himoya ittifoqi a'zolaridan biri, ismi majhul qolishini iltimos qilgan mansabdor shaxs muxbirimiz bilan o'tgan suhbatda quyidagicha bayonot qildi: «O'z fikrini serpentargo tilida bayon eta biladigan har qanday kishi batafsil tekshiruvdan o'tkazilishi shart. Shaxsan men, ilonlar bilan muloqot qila oladigan odamlarning xushxulq bo'lishiga shubha ila qarayman. Chunki sudraluvchilarning bunday turkumi yovuz kuchlar sehrining eng dahshatli, ayovsiz qarg'ishlarida tez-tez qo'llanilib kelina-di. Ilon qiyofasini yomonlik urug'ini sepuvchi odam qiyofasiga o'xshatish – bashariyat ongida azaldan shakllanib kelgan tasavvurlardan biridir. Qolaversa, gigantlar va maxluq tusini kasb eta biladigan odamlar bilan do'st tutinganlar ham mulohaza yuritilayotgan kaslardan sira qolishmaydi. Chunki, shafqatsizlikka moyillik, ushbu kishilar tabiatida alohida ifodalanib turadi».

Gazeta tahririyati A. Dambldordan G. Potterning Uch sehrgar bellashuvida ishtirok etish-etmasligini obdan o'ylab ko'rishni gazetxonlar nomidan talab qiladi. Bellashuvning uchinchi musobaqasi bugun oqshomda o'tkazilishi hech kimga sir emas. Nima qilib bo'lsa ham so'nggi musobaqada g'olib chiqishni – o'z oldidagi yagona maqsad, deb bilgan Potter yovuz kuchlar sehrini qo'llab yuborishi ehtimoldan xoli emas.

– Mana, menga ham navbat yetibdi, – dedi parvoyiga keltirmagan Garri, gazetani o‘rab.

Slizerinchilar stoli atrofida o‘tirgan Malfoy, Krabbe va Goyl Garrini baralla kalaka qilishmoqda. Uchalasi peshanalari-ga urib, o‘zini o‘zi ruhiy kasal kishi ko‘yiga solar, uzun chiqa-rib olgan tilini ilon tiliga o‘xshatib titratgancha, irjayib o‘tirar edi.

– Bashorat darsida chandig‘ing og‘rib qolganini qayerdan bilib oldi ekan, a? – so‘radi Ron. – Xonada yo‘q edi-ku u. Yoki Rita biron-bir...

– Havo yetishmaganidan derazani ochib qo‘ygan edim, – esladi Garri.

– Sizlar yettinchi qavatda, Shimoliy minora cho‘qqisida o‘tirgansiz! – ovoz ko‘tardi Germiona. – Ovozim hovlida eshitilgan, demoqchi emasdirsan, har qalay!

– Umuman aytganda, sehr qo‘llab, yashirincha quloq solish usullarini sen o‘zing oydinlashtirmoqchi eding, shekilli! – o‘sh-qirib berdi Garri. – Demak, bu savolga javobni sen berishing kerak!

– Men qo‘ldan kelgancha urindim! – baqirdi Germiona. – Lekin... biroq... ammo... faqat...

Germiona kutilmaganda unini o‘chirib, befarq qiyofa kasb etgancha, o‘y surib qoldi, qo‘lini asta ko‘tarib, bormoqlarini sochining orasiga kiritdi.

– Senga nima qildi? – baqrayib qoldi Ron, qoshini chimirib.

– Ha, – dedi Germiona, eshitilar-eshitilmas.

U yana bir bor qo‘lini sochiga tiqib chiqardi-da, xuddi ko‘zga ko‘rinmas ratsiya orqali kim bilandir gaplashayotgan singari kaftini og‘ziga keltirdi. Garri bilan Ron bir-biriga tahay-yur qarab qo‘yishdi.

– Miyamga bir o‘y keldi, – dedi Germiona bo‘shliqqa qa-rab. – Tushunib yetdim, shekilli... agar, shunday bo‘lsa, hech kim, hatto Xmuri ham ko‘rmaydi, albatta... Xona derazasining tokchasiga chiqib olgan... Qo‘lga tushgan ko‘rinadi! Men ikki daqiqaga, aniq ishonch hosil qilish uchun kutubxonaga yugurib borib, tez qaytaman!

Germiona yuk xaltasini qo'liga oldi-da, yugurgancha Katta Zaldan chiqib ketdi.

– Hoy! – baqirdi Ron Germionaning ketidan. – O'n daqiqadan so'ng sehrgarlik tarixidan imtihon boshlanadi! Uni qara-ya, – g'udulladi u Garriga yuzlanib. – Odam degan shu qadar nafratlanadimi insondan, a? Vriterning dastidan imtihonning boshini o'tkazib yuborishga tayyor-a... Sen nima qilasan Binnzning xonasida? Yana kitob o'qib o'tirasanmi?

Modomiki, Garri, Uch sehrgar bellashuvining ishtirokchisi sifatida imtihondan ozod qilingan ekan, hamma imtihon topshirayotgan paytda orqa partalardan birini egallab, biron-bir foydali tilsim qidirgancha, kitob varaqlab o'tirar edi.

– Ha, shunday qilsam kerak, – javob berdi Garri.

Lekin ayni shu paytda professor Makgonagall kelib qoldi.

– Potter, nonushta o'tgach, chempionlikka da'vogarlar Katta Zalga tutash xonada to'planishadi, – ma'lum qildi u.

– Musobaqa kechqurun bo'ladi-yu! – dedi vaqt adashtirib yuborganidan cho'chib ketgan Garri, ustiga quymoq tushirib yuborib.

– Xabarim bor, Potter, – dedi professor Makgonagall. – So'nggi musobaqaga chempionlikka da'vogarlarning oila a'zolari ham taklif qilingan. Shunday ekan, ular bilan yana yuz ko'rishish mumkin.

Garri og'zini lang ochgancha, nari ketgan professorning izidan qarab qoldi.

– Dursllar «Xogvars»ga tashrif buyuradi, demoqchi emasdir, axir, a?

– Bilmadim, – dedi Ron. – Garri, men bora qolay. Aks holda Binnzning imtihoniga kech qolaman. Kechroq uchrashamiz!

Garri asta sekin bo'shab borayotgan Katta Zalda nonushtasini tugatmoqda. Flyor o'rnidan turib, Katta Zalga tutash xona tomon yo'l olgan Sedrikka qo'shildi. Xayol o'tmay ikkalasi kirgan xonaga Krum ham maymoqlangancha kirib ketdi. Garri o'tirgan joyida qoldi. To'g'risini aytganda, Garri o'sha xonaga kirmoqchi ham emas. Oilasi yo'q. Har qalay, hayotini xavf ostiga qo'yib, jonini jabborga berib kurashayotganida yonida turadigan

yaqinlari yo‘q uning. Kutubxonaga borib, yana biron-bir turdagi foydali tilsimlar haqida risola qidirib ko‘rishni ko‘z-lagan Garri o‘rnidan turmoqchi bo‘lgan paytda xona eshigi ochilib, Sedrikning boshi ko‘rindi.

– Nima qilib o‘tiribsan, Garri? Seni kutishyapti-yu, axir!

Esankirab qolgan Garri asta o‘rnidan turdi. Sedrik ham Dursllar kutishyapti demoqchimi? Ne-ne xayollarga borgan bola Katta Zalni kesib o‘tib, xonaga kirdi.

Eshik yonida Sedrik o‘z ota-onasi bilan turibdi. Burchakka borib olgan Krum bolgar tilida sochi ko‘mirday qop-qora onasi va otasi bilan qizg‘in suhbat qurgan. Krum, o‘zining ilmoq-simon burni bilan otasiga o‘xshar ekan... Xonaning narigi bur-chagida esa Flyor o‘z onasi bilan fransuz tilida vijir-vijir qil-moqda. Uning singlisi Gabriel onasining qo‘lini mahkam ushlab olgan. Garrini ko‘rgan qizaloq quvonib ketib qo‘l siltadi. Bola ham tabassum-la qo‘l ko‘tarib qo‘ydi-da, kamin yonida yashnab turgan missis Uesli bilan Billni ko‘rdi.

– Mana biz! – xitob qildi sevinib ketgan missis Uesli. – Salom, yoqimtoyginam! Shunday kunda yoningda bo‘lishga ahd qildik! – dedi u, tabassumi kengayib ketgan Garrining yuzidan o‘pib.

– Ishlar qalay? – kulib so‘radi Bill, Garri bilan qo‘l siqi-shib. – Charli ham kelmoqchi edi-yu, ilojini topa olmadi. Tika-nak dumga qarshi misli yo‘q jang qilganingni batafsil so‘zlab berdi.

Flyor Delakyor onasining yelkasi orqali Billga qiziqish bilan qarab turganini Garri sezmay qolmadi. Uzun sochini bog‘-lab, otning dumi singari orqaga tashlab olgan, egnidagi maglcha kiyimi o‘ziga yarashgan, oyog‘idagi botinkasi ajdar terisidan emas, naq zirhidan tayyorlangan, qulog‘iga taqqan sirg‘asi qan-daydir hayvon tishiga o‘xshab ketadigan Billning qiyofasi Flyorga yoqqan ko‘rinadi, chamasi.

– Kelganingiz... juda yaxshi bo‘ldi... – asta ming‘irladi Garri. – Men esa... Dursllar, deb o‘ylabman...

– Xm-m-m, – labini qimtib qo‘ydi missis Uesli.

Garrining qarindoshlari haqida missis Uesli hech qachon tanqidiy fikr bildirmagan, lekin familiyalarini eshitgan zahoti

ko‘zi nafratga to‘lib ketadi.

«Semiz Xola»ning dugonasi Violetta Billga ko‘z qisib qo‘ydi.

– Ushbu dargohga yana tashrif buyurish naqadar yaxshi, – dedi Bill, xonaga ko‘z yugurtirib chiqib. – Besh yildan buyon endi qaytdim. Anavi tomi ketgan ritsarning rasmi bormi hali ham? Ser Kedoganning rasmi?

– Ha, bor, – dedi o‘tgan yili Ser Kedogan bilan yaxshi tanishib olgan Garri. – O‘z joyida, Shimoliy minoraning zina maydoni devoriga osilgancha turibdi.

– «Semiz Xola»-chi? – so‘radi Bill.

– U men o‘qib yurgan kezlardan buyon o‘z xizmat vazifasini bajarib kelmoqda, – dedi missis Uesli, yoshlik yillarini qo‘msab. – Kunlardan bir kun, tong sahar to‘rtda minoraga qaytganimni ko‘rib, meni rosa koyib bergan.

– Tong sahar ko‘rpangizda uxlab yotmasdan qayerlarda izg‘ib yurgan edingiz? – darhol so‘roqqa tutdi onasini Bill.

– Dadang bilan birga tungi havodan bahramand bo‘lgan edim, – kulib boqdi quv ko‘zi yarqiragan missis Uesli. – Uni ham o‘sha zamonning maktab nazoratchisi Apollion Pringl tutib olib, jazoga tortgan edi. Dadangning tanasida hali ham o‘sha jazodan qolgan chandiqlar bor.

– Bir sayr qildirmaysanmi, a, Garri? – iltimos qildi Bill.

– Albatta. Yuringlar, – taklif qildi bola.

Xonadan chiqish eshigiga yaqin kelishganda Amos Diggori o‘girilib, Garriga murojaat qildi.

– Aha, mana sen, – dedi u, bolaga boshidan oyog‘igacha razm solib. – Endi, Sedrik ochkolar bo‘yicha senga yetib olganida, o‘zingga u qadar ishonmay qo‘ygan ko‘rinasan, a?

– Nima? – tushunmadi Garri.

– E’tibor berma, – dedi Sedrik, otasiga qosh chimirib qa-rab. – Rita Vriterning maqolasini o‘qigan kundan buyon zardasi qaynab yuribdi. Esingdami, u seni go‘yo «Xogvars»ning yagona chempionlikka da’vogari, deb yozgan edi.

– To‘g‘ri. Biroq Potter Vriterning xatosini tuzatib qo‘yishga uringani ham yo‘q-ku, shunday emasmi? – baland ovozda

e'tiroz bildirdi mister Diggori, xonani tark etgan Garriga eshittirib. – Hech qisi yo'q, Sed. Sen unga ko'rsatib qo'yasan, to'g'rimi? Axir, u bilan birinchi bor yuzma-yuz kelayotganing yo'q-ku...

– Amos, Rita Vriter yurgan yo'lida adovat urug'ini sochib yuradi, – yurakdan koyib berdi missis Uesli. – Vazirlik xodimi bo'la turib, buni yaxshi bilishing kerak!

Mister Diggori, aftidan, keskin javob qaytarmoqchi bo'ldiyu, xotini kaftiga qo'lini qo'ygach, yelka qisib, teskari o'girilib oldi.

Garri Bill bilan missis Uesli davrasida quyoshli hovlida sayr qilib, tongni yaxshi o'tkazdi. Bola mehmonlarga «Belstek» aravasi bilan «Durmshtrang» kemasini ko'rsatdi. Missis Ueslini Urishqoq tol qiziqtirdi. Sehrli daraxt missis Uesli maktabni tamomlaganidan so'ng ekilgan ekan. Shundan so'ng missis Uesli Xagriddan oldin ishlagan Ogg ismli hovlibon haqida ko'p narsalarni aytib berdi.

– Persi qalay yuribdi? – so'radi Garri, issiqxonalarni aylanib o'tishar ekan.

– Unchalik emas, – javob berdi Bill.

– Unchalik xafa emas, – aniqlik kiritdi, atrofga qarab, ovozini pasaytirgan missis Uesli. – Vazirlik mister Sgorbsning yo'qolib qolgani haqida lom-lim demayapti. Persini esa so'roqqa chaqirishib, mister Sgorbs tomonidan yo'llangan ko'rsatmalar haqida so'rab turishibdi. Vazirlik xodimlarining fikricha, o'sha ko'rsatmalar boshqa odam tomonidan berib borilgan emish. Persi hozir juda qiyin ahvolda. Unga bugun mister Sgorbs nomidan hakamlik qilishga ijozat berilmadi. Beshinchi hakam shaxsan Kornelius Fuj bo'ladi.

Ular qasrga tushlik vaqtiga oz qolganda qaytishdi.

– Oyi! Bill! – hayron bo'ldi griffindorchilar dasturxoniga joylashgan Ron. – Nima qilib yuribsiz bu yerda?

– Uchinchi musobaqa kuni Garrining yonida bo'lish uchun keldik! – g'ayrat-la javob berdi missis Uesli. – Darvoqe, hadeb ovqat tayyorlayvermay, ba'zan men ham tayyor taom tanovul qilsam yomon bo'lmas. Imtihonni qanday topshirding?

– A?... Ha-ya... bo‘ladi, yaxshi, – javob berdi missis Ueslining jiddiy nigohidan oz bo‘lsa ham tortinmagan Ron, likopiga Kornual pirogidan solib. – Ayrim qo‘zg‘olonchi goblinlarning ismlarini eslay olmay, to‘qib chiqarishga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa-da, yomon bo‘lmadi. Barining nomi bir xilday go‘yo. Sersoqol Bodrod, Mixlangan Urg. Shunday ekan, imtihon qiyin kechmadi.

Fred, Jorj va Jinna ham kelib, davraga qo‘shildi. Ueslilar davrasida maza qilib o‘tirgan Garri o‘zini Boshpanaga borib qolganday his etdi. Tushlik qizg‘in o‘tayotganida Germiona topilib kelgach, ertalab Rita Vriter masalasida uning aqli ravshanlashib ketganini esladi.

– Xo‘sh, endi aytasanmi bizga?...

Missis Uesliga qarab qo‘ygan Germiona bosh chayqadi.

– Salom, Germiona, – zo‘rma-zo‘raki ko‘rishdi missis Uesli.

– Salom, – javob berdi Germiona.

Biroq missis Ueslining yuzidagi sovuq qiyofani ko‘rgan qizning tabassumi shu zahoti barham topdi. Garri ikkalasiga qarab, vaziyatni idrok etgach, missis Uesliga murojaat qildi:

– Rita Vriterning «Avsunpoliten» jurnalida chop etilgan tuturiqsizligiga ishonmagansiz-u, to‘g‘rimi, missis Uesli? Chunki Germiona mening qizim emas, hech qachon bo‘lmagan ham. Biz shunchaki, qadrdon do‘stmiz. Ertalab mister Amos Diggoriga: «*Rita Vriter yurgan yo‘lida adovat urug‘ini sochib yuradi*», deb o‘zingiz aytdingiz chog‘i, shundaymi?

– O! Garri! Ishonmadim, albatta! – xitob qildi missis Uesli

Ayolning Germionaga bo‘lgan munosabati shu zahoti o‘zgarib, qiyofasi iliganday bo‘ldi.

Tushlikdan so‘ng Garri, Bill va missis Uesli yana qasr atrofida sayr qilib, Katta Zalga, kechki ziyofatga yetib kelishdi. «Mo‘tabar Stol»da Lyudo Shulman bilan Kornelius Fuj ko‘rindi. Shulman, odatdagiday, xushchaqchaq. Maksim xonimning yoniga joylashgan Fuj aksincha, qovoq solib, hech kim bilan gaplashmay o‘tiribdi. Ko‘zi qizarib ketgan Maksim xonim boshini likopidan ko‘tarmadi. Stolning narigi boshida o‘tirgan Xagrid esa «suyagi yo‘g‘on, tanasi chorpahil» ayolga dam-

badam ko‘z qirini tashlab qo‘ymoqda.

Bayram munosabati bilan tuzalgan dasturxon turli-tuman mazali taomlarga to‘lib-toshgan. Biroq Garri asabiylasha boshlagani bois juda kam ovqat yedi. Katta Zalning sehrlangan shifti o‘zining moviy rangini asta sekin shafaq-qirmizi tusga almashtirgach, Dambldor o‘rnidan turdi. Shu zahoti Katta Zalda xuddi suv sepganday sukunat qaror topdi.

– Xonimlar va janoblar! Besh daqiqadan so‘ng Uch sehrgar bellashuvining so‘nggi uchinchi musobaqasi o‘tadigan kvidish maydoniga taklif qilinasiz. Chempionlikka da’vogarlardan esa mister Shulman bilan birga o‘yingoh tomon hozir yo‘l olishni iltimos qilaman.

Garri o‘rnidan turdi. Ueslilar oilasi va Germiona bolaga omad tiladi. Griffindorchilar uni qarsaklar ila kuzatib qo‘yishdi. Garri qolgan chempionlikka da’vogarlar Sedrik, Flyor va Krum bilan birga chiqish eshigi tomon yo‘l oldi.

– Qalaysan, Garri? – so‘radi asosiy eshikdan hovliga olib tushadigan tosh zina bo‘ylab yonma-yon borayotgan Shulman. – O‘z kuchingga ishonching bormi?

– Bor, – javob berdi Garri, qat’iy ohangda.

Umuman olganda, bola to‘g‘risini aytdi. O‘yingoh tomon odimlar ekan o‘zlashtirgan barcha afsun, qarg‘ish va tilsimlarni eslab bordi. Ularning bari esida ekani Garriga ishonch va dadillik baxsh etmoqda.

Kvidish maydoni tanib bo‘lmas darajada o‘zgargan. O‘sib, bo‘yi kam deganda yigirma futga yetgan buta devor o‘yingohning tashqi aylanasini batamom to‘sibdi. Ishtirokchilar qarshisidagi zich buta devor orasida labirintga olib kiradigan yoriq joy, ichkarida esa vahimali, qop-qora, sirli yo‘lak ko‘rindi.

Besh daqiqa o‘tar-o‘tmas namoyishgohlar odamga to‘lib, hamma joyda hayajonli ovozlar eshitila boshladi. Joy egallayotgan maktab o‘quvchilarining qadamlari har tomondan eshitilmoqda. Baland to‘q ko‘k osmonda ilk yulduzlar ko‘rinish berdi. Ko‘p o‘tmay o‘yingohga Xagrid, professor Xmuri, professor Makgonagall va professor Flitvik yetib keldi. Har birining shlapasida kattagina, qip-qizil yulduz porlamoqda. Faqat

Xagridning yulduzi belida, qishin-yozin kiyib yuradigan krot po‘stinining orqasida yorishmoqda. Ular Shulman va chempionlikka da’vogarlar yonida hozir bo‘lishdi.

– Biz labirintning tashqi devori yonida yurib, nazortachilik xizmatini o‘taymiz, – tushuntirish berdi professor Makgonagall chempionlikka da’vogarlarga. – Birortangiz mushkul ahvolga tushib qolsangiz havoga qizil yulduz otasiz. Biz shu zahoti yordamga yetib kelamiz. Tushunarlimi?

Chempionlikka da’vogarlar baralla bosh irg‘ishdi.

– Unday bo‘lsa, patrullik yo‘nalishlarini egallang! – bardam ovoz-la amr etdi Shulman to‘rt nafar patrulga.

– Omad yor bo‘lsin, Garri, – pichirladi Xagrid.

Qutqaruvchilarning har biri o‘ziga tayinlangan patrullik yo‘nalishi tomon yo‘l oldi. Lyudo sehrli tayoqchasini chiqarib, o‘z tomog‘i tomon bir siltadi-da:

– Sonorus! – deya, o‘yingohga yig‘ilgan tomoshabinlarga murojaat qildi.

Uning sehr qo‘llanilib kuchaytirilgan ovozi baland yangradi.

– Xonimlar va janoblar! Shunday qilib biz Uch sehrgar bellashuvining so‘nggi uchinchi musobaqasini boshlaymiz! Ijozatingiz bilan bugungi kunga kelib chempionlikka da’vogarlarning qaysi biri nechanchi o‘rinni egallab turganini yodingizga solib o‘taman! Birinchi o‘rinni har biri sakson besh balldan to‘plagan mister Sedrik Diggori bilan mister Garri Potter o‘zaro bo‘lishib olishgan!

Ko‘tarilgan ayyuhannos-u, urilgan qarsaklardan «Taqiqlangan o‘rmon» daraxtlarida o‘tirgan qushlar hurkib, osmonga ko‘tarildi-da, qora bulut hosil qilgancha, nari uchib ketdi.

– Ikkinchi o‘rinni, – davom etdi Shulman, – sakson ball to‘plashga erishgan «Durmshtrang» sehrgarlik maktabi vakili mister Viktor Krum egallagan.

Yana qarsaklar yangradi.

– Uchinchi o‘rinni esa «Belstek» sehr-jodu akademiyasining vakilasi miss Flyor Delakyor egallagan, – ma’lum qildi Shulman.

Garri namoyishgohlar o‘rtasida o‘tirib, Flyor sharafiga qarsak urayotgan missis Uesli, Bill, Ron va Germionani bazo‘r ajrata oldi. Ular Garrining qo‘l siltaganidan quvonib ketib, javoban qo‘l siltashdi.

– Demak... birinchi bo‘lib Garri va Sedrik! Hushtagimga binoan! – e’lon qildi Shulman. – Uch... ikki... bir...

Lyudo qisqagina hushtak chaldi. Garri bilan Sedrik shu zahoti labirint ichiga otildi.

Butazorning asosiy devori yo‘lakka qora ko‘lanka tashlagan. Uning balandligidanmi yoki sehrlab qo‘yilgani uchunmi bolalar labirintga kirishi bilan tomoshabinlarning ovozi batamom tindi. Garri o‘zini yana ko‘l tubiga tushib qolganday his etdi.

– Lyumos, – pichirladi qo‘liga sehrli tayoqchasini olgan Garri.

Sedrik ham xuddi shunday qildi. Ellik yardcha yurishgach, ikkovlon yo‘lakning ayrilish joyiga yetib, bir-biriga qaradi.

– Uchrashguncha, – dedi chap yo‘lakni tanlagan Garri.

Sedrik o‘ng tomonga burildi. Ko‘p o‘tmay Garrining qulog‘iga hushtak eshitildi. Demak, Krum ham labirintga kirdi. Garri tanlagan yo‘lak mutlaqo bo‘sh. Imkon qadar uzoq maso-fani ko‘rish uchun sehrli tayoqchasini boshi uzra baland ko‘ta-rib olgan bola o‘ngga burildi. Hech narsa ko‘rinmayapti. Uzoq-dan uchinchi hushtak yangradi. Ana endi chempionlikka da’vogarlarning bari labirint ichida.

Garri vaqti-vaqti bilan ortga o‘girilgancha, atrofni ko‘zdan kechirib bordi. Nazarida, uni kimdir kuzatayotganday tuyuldi. Har daqiqa o‘tgan sari osmon qorayib, labirint ichi qorong‘ilashib, atrofni zulmat qamrab bormoqda. Bola yo‘lakning yana bir ayrilish joyiga yetib keldi. To‘rtta nuqta tilsimini qo‘llashga ahd qilib, sehrli tayoqchasiga murojaat qildi:

– Ko‘rsat.

Tayoqcha o‘z o‘qi atrofida aylanib, uchi bilan o‘ng tomondagi butani ko‘rsatdi. Demak, shimol shu tomonda. Labirint markaziga yetish uchun esa shimoliy-g‘arb tomon harakatlanish darkor. Yuzaga kelgan ayni sharoitda chap tomon yurish-u,

birinchi imkon tug‘ilishi bilan o‘ngga burilishdan o‘zga chora yo‘q.

Tanlangan yo‘l bo‘m-bo‘sh. O‘ng tomonga buriladigan joyga yetgan Garri, ushbu yo‘lda ham hech qanday g‘ov yo‘qligini ko‘rdi. Sababini tushuntirish qiyin kechsa-da, yo‘lning ochiqligi Garrini asabiylashtira boshladi. Axir, u shuncha vaqtdan buyon biron narsaga yo‘liqishi kerak edi-yu. Garrining nazarida, labirint soxta xavfsizlik hissini tug‘dirmoqchi. Kutilmaganda orqa tomonda nimadir qimirladi. Hamlaga hozirlangan Garri tayoqchasini shovqin eshitilgan tomon o‘qtadi. Biroq tayoqcha taratayotgan shu’la yo‘lakka, o‘ng tomondan sakrab chiqqan Sedrikning yuzini yoritdi, xolos. Korjomasining yengi tutayotgan Sedrik qattiq hayajonda.

– Xagridning portlovchi drakliga ro‘baru bo‘ldim, – pichirladi u. – Shunaqa yiriklashib ketibdiki, bazo‘r qochib qutuldim.

U biroz bosh chayqab turdi-da, yo‘laklardan biriga kirib ketib, yana ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Draklga ro‘baru bo‘lishni istamagan Garri ham bu yerlardan tezroq juftak rostlashga ahd qildi.

Muyulish ortiga o‘tgan ediki, yo‘lda... bo‘yi o‘n ikki futcha keladigan, tanasi yirik, yuzini jubbasining qaytarma qalpog‘i bilan to‘sib olgan, qoraqo‘tir qoplab, irib ketgan qo‘lini oldinga uzatgancha, inson tanasidan taralayotgan haroratga intilib, so‘qir kabi yaqinlashib kelayotgan dementorni ko‘rdi. Maxluq-ning uzuq-yuluq nafasini eshitib, sovuq dahshatga tushgan Garri muayyan vaqt karaxt bo‘lib qoldi-yu, xayolini darhol yig‘ib oldi.

Garri Himoyachi afsunini qo‘llab, o‘z Himoyachisini chaqirish uchun miyasiga eng baxtli, u ham bo‘lsa, labirintdan chiqqach, Ron va Germiona bilan birgalikda Uch sehrgar bellashuvi nihoyasiga yetganini nishonlash xayolini keltirib, fikrini ushbu o‘yga jamlagancha qichqirdi:

– Ekspekto patronum!

Tayoqcha uchidan kumush tusli bug‘u otilib chiqib, dementor tomon yugurib ketdi. Orqaga tislangan maxluq o‘z jubbasining etagiga o‘ralashib, beliga quladi... Garri hali biror marta bo‘lsin, dementorning qoqilib ketganini ko‘rmagan...

– Shoshma, maraz! – qichqirdi u. – Sen boggart ekansan-u! Ridikulus!

Baland qarsillagan tovush yangradi. Qiyofa almashtiruvchi ruh portlab, tutun bulutiga aylandi. Kumush tusli bug'u ham havoda tarqab, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Afsus, qolganda yaxshi bo'larmidi. Garri bunday sherikka e'tiroz bildirmagan bo'lar edi. Iloj qancha, bola sehrli tayoqchasini boshi uzra baland ko'targancha, atrofga quloq tutib, imkon qadar shovqin solmay, yo'lini davom etdi.

Chapga... o'ngga... yana chapga... ikki marta boshi berk yo'l. U To'rtta nuqta tilsimini yana qo'llab, sharq tomon ancha masofa yurib qo'yganini tushundi. Ortga qaytib, o'ngga burilishi bilan yo'lni tilla tusli g'alati tuman to'sganini ko'rdi.

Garri asta yaqinlashib, sehrli tayoqcha shu'lasini tumanga yo'lladi. Qiziq, yo'ldan nari uloqtirib yuborsa bo'larmikan uni?

– Redukto! – ahd qildi Garri.

Afsun yashini tumanga ziyon yetkazmay, nari uchib ketdi. Chindan ham farosatini biroz ishlatganida, Sochib tashlash afsuni faqat qattiq jismlarnigina nari uloqtiradigan afsun ekanini tushunib yetgan bo'lar edi. Tuman ichiga kirsa nima bo'ladi? Sinab ko'rgan ma'qulmi yoki boshqa yo'lni tanlagan yaxshimi?

Garri o'ylab, o'yiga yetishga urinar ekan, sukunatni kimningdir qichqirig'i buzdi.

– Flyor?! – baqirdi Garri.

Javob eshitilmadi. Bola atrofga razm soldi. Flyorga nima qildi ekan? U qayerdadir oldinda chinqirdi chog'i. Garri chuqur nafas oldi-da, tuman ichiga qadam bosdi.

Shu zahoti olam to'nkarilib ketdi. Tepa sochi tikka bo'lgan Garri oyog'i yerda turgancha, osilib qoldi. Peshanasiga tushib qolgan yumaloq ko'zoynagi tubsiz osmonga tushib ketadiganga o'xshaydi. Ko'zoynagini burnining uchiga bosib olgan Garri hech narsaga aqli yetmay, osilib turdi. Oyog'i osmon o'rnini egallagan maysaga mahkam yopishib qolgan. Pastda esa yulduzlar sochilib ketgan tubsiz osmon. Bolaning nazarida, oyog'ini maysadan uzishi bilan yerdan tushib ketadigan ko'rindi.

«O'yla, – o'ziga o'zi buyurdi boshiga qon yugurib kela-

yotgan Garri. – O‘yla...»

Biroq shuncha vaqtdan buyon o‘zlashtirib kelgan afsun-u, tilsimlardan birortasi yer bilan osmon o‘rin almashgan holat uchun to‘g‘ri kelmadi. Oyog‘ini qimirlatib ko‘rsa bo‘larmikan? Boshiga quyilgan qon quloq pardasini og‘rita boshladi. Garri ikkita yo‘ldan birini tanlashi mumkin: yo harakatlanishga urinib ko‘rishi, yo bellashuvda ishtirok etishdan chetlatilishini bilsa ham qizil yulduz otishi kerak.

Garri pastdagi tubsiz bo‘shliqni ko‘rmaslik uchun ko‘zini chirt yumib oldi-da, oyog‘ini kuch bilan maysa-shiftdan uzdi.

Soniya o‘tar-o‘tmas, olam yana to‘nkarilib, hamma narsa o‘z holatiga qaytdi. Qo‘rqib ketganidan holdan toygan Garri betakror go‘zal, qattiq yerga tizza bilan tushdi. O‘zini biroz tinchlantirib olish uchun chuqur-chuqur nafas olgan bola o‘rnidan turib, yelka uzra ortga, Oy nurida beozor tovlanayotgan tilla tusli tumanga qarab-qarab qo‘ygancha, olg‘a odimladi.

Ikkita yo‘lak kesishgan joyda to‘xtab qolgan Garri Flyorni topish ilinjida atrofga razm soldi. Qichqirgan Flyor ekaniga ishonchi komil. Nima bilan to‘qnash kelib qoldi u? Sog‘-salomatmi, ishqilib? Qizil yulduzlar otilgani ko‘rinmayapti. Bu nimani anglatadi? To‘siqni eson-omon yengib o‘tganinimi? Yoki qandaydir dahshatli narsaga duch kelib, sehrli tayoq-chasini qo‘liga olishga ham ulgurmay qolganinimi? Garri xavo-tir bo‘lib, o‘ng tomon ketgan yo‘lakni tanladi... va ayni vaqtda: axir, raqiblardan biri safdan chiqqan bo‘lsa, yomon emas-u, degan xayoldan ham xoli bo‘la olmadi.

Bellashuv Kubogi qayerdadir shu yaqin orada. Flyor esa, aftidan, o‘yindan chiqqan ko‘rinadi. Garriga hali hech nima qilgani yo‘q... chindan ham chempion bo‘lsa nima qilibdi? Yomonmi? Uni chempionlikka da’vogar sifatida e’lon qilishgan kundan buyon ilk bor Uch sehrgar bellashuvi Kubogini butun maktabning ko‘z o‘ngida boshi uzra baland ko‘tarayotganini bir fursat ko‘z oldiga keltirib ko‘rdi.

Garri taxminan o‘n daqiqacha, agar boshi berk yo‘laklar inobatga olinmasa, hech narsaga yo‘liqmadi. Ro‘parasida yangi yo‘nalish paydo bo‘lgach, mayda qadam-la yugura ketdi. Sehrli

tayoqcha yo‘lni yoritmoqda, Garrining ko‘lankasi esa shox devorda sinib-sinib aks etgancha, sakrab bormoqda. Biroq muyulish ortiga o‘tishi bilan portlovchi draklga ro‘baru bo‘ldi.

Sedrik haq. Uzunligi o‘n futdan qisqa bo‘lmagan, niho-yatda yirik chayonni eslatadigan, uzun nishi yoysimon egilib, beli uzra osilib turgan, qalin zirhi sehrli tayoqcha nurida xira yaltirab ko‘ringan drakl chindan ham bahaybat bo‘lib ketibdi.

– Stupefay! – qichqirdi Garri.

Urib yiqitish qarg‘ishining yashini zirhga urilib, hech qanday ta’sir o‘tkazmay nari sapchidi. Garri vaqtida egilib olgan bo‘lishiga qaramay, kuygan soch hidini his etdi. Drakl purkagan olov bolaning boshi uzra uchib, sochini yalab o‘tdi. Drakl yana bir bor o‘t ochib, Garriga hamla qildi.

– Impedimenta!

To‘sqinlik qarg‘ishining yashini ham hayvonning zirhday kosasiga urilib, nari sapchidi. Orqaga tislangan Garri qoqilib, yerga o‘tirib qoldi.

– IMPEDIMENTA!

Garri hayvon tanasining zirh bilan himoyalanmagan ichki qismiga zarb bergan ko‘rinadi, bolaga yetishiga ikki dyum qolgan drakl karaxt bo‘lib qoldi. Ushbu qarg‘ish ta’siri uzoq cho‘zilmaydi. Shu bois hansirab qolgan Garri yerdan itarilib shartda turdi-da, juftakni rostladi.

U chapga burilib yana boshi berk yo‘lakka kirib qoldi, o‘ngga burilganda ham shu ahvol. Garri o‘zini deyarli zo‘riqib to‘xtatdi va quturib ketganday urayotgan yuragi bilan To‘rtta nuqta tilsimini yana qo‘lladi. Shundan so‘ng biroz ortga qaytib, shimoliy-g‘arb tomon olib boradigan yo‘lga burildi.

Bir necha daqiqa davomida tinmay yugurgach, parallel ketgan yo‘lakda eshitilgan ovoz uni yetgan joyida qotib qolishga majbur qildi.

– Nima qilyapsan? – qichqirdi Sedrikning ovozi. – Aqlingni yedingmi?

– Krusio! – eshitildi Krumning ovozi.

Qiynoqqa solish qarg‘ishi Sedrikni dod degizdi. Dahshat-dan aqlini yo‘qotgan Garri Sedrikni qutqarish uchun qo‘shni

yo‘lakka o‘tish joyini topishga urinib, oldinga yugurdi. Topa olmagach, buta devorga qarata Sochib tashlash afsunini qo‘llab ko‘rdi. Afsun ta’siri samarali kechmadi-yu, lekin devorni kuydirib, kichik bo‘lsa ham tuynuk ochdi. Garri qalin shoxlarni tepgancha, hosil bo‘lgan tuynukni kengaytirib, korjomasi tilkapora bo‘lishiga qaramay qo‘shni yo‘lakka bosh suqdi. O‘ng tomonga yuzlangan bola og‘riqdan tirishib, yerda tipirchilab yotgan Sedrikni, uning ustida esa tayoqcha o‘qtab turgan Krumni ko‘rdi.

Garri butalar orasidan butunlay chiqib olgach, shovqin eshitilgan tomon yuzlangan Krumga tayoqcha o‘qtadi. Chamasi, chindan ham aqlini yeb qo‘ygan bolgar qochishga urindi.

– Stupefay! – qichqirdi Garri.

Urib yiqituvchi yashin Krumning beliga tegdi. Bolgar bir fursat yerga qoqilgan qiziqday turib, basharasi bilan maysaga quladi va qilt etmay qoldi. Garri Sedrik tomon otildi. Diggori tirishmay qolgan bo‘lsa ham kaftini yuziga bosib, hansirab yotibdi.

– Qalaysan, Sedrik? Omonmisan? – so‘radi Garri Sedrikning qo‘lini mahkam ushlab.

– Ha, – zo‘riqib javob berdi Diggori. – Ha... Orqa tomondan asta pisib chiqdi... Uni payqab, o‘girilsam... tayoqchasini o‘qtab turibdi...

Boshdan oyoq dag‘-dag‘ titrayotgan Sedrik bir iloj qilib o‘rnidan turdi. Ikkovlon yerda cho‘zilib yotgan Krumning yoniga bordi.

– Ishongim kelmaydi, – dedi Garri. – Tuppa-tuzuk bolaga o‘xshab ko‘ringan edi menga.

– Menga ham.

– Flyorning qichqirganini eshitdingmi?

– Eshitdim, – bosh irg‘idi Sedrik. – Krum unga ham tajovuz qilgan, deb o‘ylaysanmi?

– Bilmadim.

– Nima qilamiz? Shu yerda qoldirib ketaveramiz-da, buni?

– Yo‘q, – qat’iy rad etdi Garri. – Fikrimcha, qizil yulduz uchirishimiz kerak. Aks holda draklga yem bo‘ladi.

– U bunday qismatga loyiq, – vishilladi Sedrik.

Jabrlanganiga qaramay, Diggori sehrli tayoqchasini yuqoriga ko'tarib, Krum yotgan joyni ko'rsatgancha, havoga muallaq osilgan qizil yulduzlar favvorasini otdi. Ikkalasi atrofga nazar solib ma'lum vaqt turib qoldi.

– Xo'sh... davom etamizmi? – so'radi Sedrik.

– Nima? – tushunmadi Garri. – A!... Ha... Ketdik...

Juda noqulay holat. Hozirgina ikkalasi Krumga qarshi bir yoqadan bosh chiqargan bo'lsa-yu, endi bir-biriga qarshi kurashayotgan raqib ekanini esga olishsa. Ikkovlon sukut saqlagancha, qorong'i yo'lak bo'ylab yo'lni davom etdi, ayrilish joyiga yetgach, Garri chapga, Sedrik o'ngga burildi. Ko'p o'tmay Sedrikning qadami eshitilmay qoldi.

Garri olg'a ilgarilar ekan, to'g'ri yo'nalishda ketayotganiga ishonch hosil qilish uchun vaqti-vaqti bilan To'rtta nuqta tilsimini qo'llab bordi. Kurashning keyingi bosqichi faqat u bilan Sedrik o'rtasida kechadi. Kubokka birinchi bo'lib yetish istagi bolaning ichini qizdira boshladi. Ilgari bunday bo'lmagan. Krumning qilgan ishini hech unuta olmayapti, o'z ko'zi bilan ko'rgan holatga ishongisi kelmayapti. Axir, professor Xmurining aytishicha, oqibati mudhish qarg'ishlardan har qanday biri inson zotiga qarshi qo'llanilishi Azkabanga umrbod qamalish uchun yetarli bo'ladi-yu! Nahotki Krum g'olib chiqishga shu qadar tashna bo'lsa?... Garri qadamini tezlatdi.

Qaysi yo'lakka kirmasin, oxiri berk. Lekin buta devor borgan sari zich o'sgani, zulmatning tobora qalinlashib borayotgani labirint markazi shu yaqin o'rtada ekanidan dalolat bermoqda. Nihoyat Garri uzun yo'lakka kirib, kutilmaganda yana qandaydir harakatni sezib qoldi. Sehrli tayoqcha tarayotgan shu'la yo'lni to'sgan g'ayrioddiy maxluqning tanasini yoritdi. Ushbu maxluqning rasmini Garri bir vaqtlar Xagrid sovg'a qilgan «Maxluqlar haqida qo'rqinchli kitob»da ko'rganini esladi. To'ppa-to'g'ri, bu sfinks[1]!

[1] **Sfinks** (*yunoncha; Sphinx*): 1) qadimgi Misrda – odatda, fir'avn boshi aks ettirilgan sher yoki boshqa muqaddas hayvon haykali bo'lib, shahanshoh hokimiyatining timsoli,

Maxluq o‘z tanasi, o‘tkir tirnoqli panjalari va uchi popuk-la yakun topgan uzun sarg‘ish dumi bilan bahaybat sherga o‘x-shaydi-yu, lekin boshi... boshi nihoyatda go‘zal ayolning boshi ekan.

Sfinks bodomqovoq ko‘zini tobora yaqinlashib kelayotgan Garriga qaratdi. Bola qo‘lidagi sehrli tayoqchasini ko‘tarib, yo‘lga to‘g‘onoq bo‘lib olgancha, u yoq bu yoq yurgan urg‘ochi maxluqqa ikkilanib o‘qtadi. Sfinksning hamla qilish niyati yo‘qligini idrok etgach, pastga tushirdi.

– Marraga deyarli yetib kelding, yigitcha, – sal xirqiragan ovoz-la gap boshladi sfinks. – Mening yonimdan o‘tishing qoldi, xolos.

– Unday bo‘lsa... chetga o‘ting, iltimos, – dedi Garri, qanday javob eshitishini yaxshi anglab turgan bo‘lsa-da.

– Yo‘q, – ko‘nmadi, u yoq bu yoq yurishdan to‘xtamagan maxluq ayol. – Senga topishmoq aytaman. Javobini topishing kerak. Topa olmasang, o‘tmaysan. Birinchi urinishda topsang, o‘tkazib yuboraman. Noto‘g‘ri javob bersang, o‘ldiraman. Mutlaqo javob bermaslikka ahd qilsang, tegmayman. Biroq bu holda marraga yetmay, ortga qaytishingga to‘g‘ri keladi.

Garrining qorin bo‘shlig‘idagi borki narsa siqilib, bir joyga to‘planganday bo‘ldi. «Topishmoq borasida men emas Germiona ustasi farang», xayoldan o‘tkazdi u. Bola imkoniyat-larini taroziga solib, chamalab ko‘rdi. «Topishmoq qiyin bo‘lsa indamayman, maxluqning changalidan sog‘-salomat qutulib, boshqa yo‘l topishga urinib ko‘raman», ahd qildi Garri.

– Xo‘p, mayli. Ayting topishmoqni.

---

qo‘riqlovchi ruh sifatida e’tirof etilgan. 2) yunon afsonalarida tanasining ko‘krak sohasi va undan yuqori qismi ayol kishi, qolgan qismi esa sherga o‘xshash qanotli maxluq bo‘lib, Fivaga kirish yo‘lida joylashib olgancha, topishmog‘ining javobini topa olmagan odamlarni o‘ldirib kelgan. Uning topishmog‘i quyidagicha bo‘lgan: «*Kim tongda to‘rt oyoqlab, kunduz kuni ikki oyoqlab, oqshomda* esa *uch oyoqlab yuradi?*». Fivaga tashrif buyurgan Edipgina sfinksning ushbu topishmog‘iga javob topa olgan. Uning javobi quyidagicha bo‘lgan: «*Bu insondir! Chunki, inson o‘z hayotining tongida, ya’ni go‘dakligida to‘rt oyoqlab yura boshlaydi, navqironlik yillarini ikki oyog‘ida yurib o‘tkazadi, qarib mukkaygach esa, ya’ni umrining oqshomida hassaga tayangancha, uch oyoqlab bazo‘r yuradi*». Edipning javobini eshitgan sfinks mag‘lublik alamiga chiday olmay, o‘zini baland qoyadan tashlab yuboradi.

Sfinks yo'l o'rtasiga astoydil o'tirib, she'r o'qiy boshlai:

Kim ekan sharpaday bekinib olgan?
Odamlar siridan voqif bo'lishni,
Shubha tug'dirmay, pinhon yurishni,
Yurgan yo'lida yolg'on so'ylashni,
Hunar-u, maqsad, niyat, deb bilgan?
Demak, shu kasbning ilk harfini ol.

O'zini o'rmon sohibi bilib,
Meva, asal, tana, baliq yeb
Tinim bilmay o'kirgan, qishda esa ko'rinmay,
Panja so'rib uxlagan hayvon nomini esla.
O'sha jonivor nomining ikkita harfini tanla.

Va nihoyat: magllarning qiziq asbobi,
Taxta yuzasida borki butoq jallodi
Nima ekan, shoshilmay, obdan o'yla.
Ikkita harfini olgin-u, barini qo'shib so'yla.

Hosil bo'lgan o'sha so'z hayvon nomin anglatar
Qucha olmaysan uni, tanangni teshib tashlar.

– Xo'sh, bolakay, joningdan umiding bormi? Noto'g'ri javob beradigan bo'lsang, o'sha joningni sug'urib olaman-qo'yaman.

Dami ichiga tushib, urg'ochi maxluqqa baqrayib qolgan Garrining og'zi lang ochilib qoldi.

– Malol kelmasa, takror o'qib bersangiz... Faqat sekinroq, iltimos, – jur'atsiz so'radi bola.

Sfinks ko'zini qisib qo'ydi-da, kulib boqqancha sherni takror o'qib eshittirdi.

– Bularning bari men qucha olmaydigan hayvon nomini anglatadimi? – aniqlik kiritdi Garri.

Sfinks sirli irshaydi. Garri buni tasdiq javobi sifatida e'tirof etib, aqlini peshlab ko'rgach, o'zi qucha olmaydigan hayvonlar

son-sanoqsiz ekanini tushunib yetdi. Tabiiyki, xayoliga birinchi navbatda hozirgina duch kelgan drakl keldi. Biroq bunday javob to‘g‘ri kelmasligini nimadir aytib turibdi unga. Avvalambor, mana bu chala hayvon, chala ayolning topishmog‘ini tahlil qilib ko‘rish kerak, ahd qildi Garri.

– Kim ekan sharpaday bekinib olgan? – g‘udulladi Garri, maxluqning go‘zal yuziga termilib. – Odamlar siridan voqif bo‘ladigan... shubha tug‘dirmay, pinhon yuradigan... hm-m-m... allaqanday qallobga o‘xshaydi... Yo‘q, yo‘q, bu hali javob emas! Kim ekan?... Bunday ish faqat josuslarning kasbi, maqsad va niyati bo‘lishi mumkin. Demak, Josus?... ya’ni «J», shundaymi? Xo‘p, mayli, bunga yana qaytaman... Asbob haqi-dagi misralarni takror o‘qib bera olasizmi? Iltimos.

Sfinks takror o‘qib berdi.

– Butoq jallodi... – qaytardi Garri. – M-m-m... qandaydir bema’nilik... tasavvurimga ham sig‘dira olmayman. Maglshunoslik fanini o‘rganish kerak edi... O‘rmon sohibi haqidagi misralarni takrorlang, iltimos.

Sfinks o‘sha hayvon tabiati haqidagi misralarni takrorladi.

– O‘zini o‘rmon sohibi bilib, meva, asal, tana, baliq yeb, – g‘udulladi Garri. – M-m-m... Iye, ayiq-ku, bu! Agar, hozircha birinchi ikkita harfini tanlasam, mayli «AY» bo‘la qolsin. Demak, «J» va «AY»... j...ay... jay...

Endi Garri ham sfinks kabi u yoq bu yoq yura boshladi.

– Men qucha olmaydigan hayvon... jay... JAYRA! To‘ppa-to‘g‘ri! Taxta yuzasi randalanib, butoqlardan tozala-nadi! Buning uchun magllar randa ishlatadi! Jayrani quchishga urinadigan bo‘lsang tanangni teshadi!

Yashnab ketgan sfinks asta o‘rnidan turib, old panjasiga tiralgancha, yaxshilab kerishib oldi-da, chetga o‘tib, Garriga yo‘l berdi.

– Rahmat, – minnatdorlik bildirdi Garri, o‘zining naqadar fahmli ekanidan taajjublangancha, olg‘a yugurib.

Kubok qayerdadir shu o‘rtada bo‘lishi kerak... harakatining yo‘nalishi to‘g‘ri ekanini tayoqcha ham ko‘rsatmoqda... agar

yana biron-bir dahshatga yo'liqmasa, g'olib chiqish, chempion bo'lish imkoni bor...

Ko'p o'tmay yana yo'l tanlashga to'g'ri keldi.

– Ko'rsat, – pichirladi u tayoqchasiga.

Tayoqcha aylanib, o'ng tomonni ko'rsatdi. Garri sehrli tayoqcha ko'rsatgan tomon yugurib, oldinda qandaydir yaltiroq buyum turganini ko'rdi. Yuz yardcha narida tagkursiga o'rnatilgan Uch sehrgar bellashuvi Kubogi xira yarqirab turibdi. Garri Kubok tomon yugurdi. Shu paytda, uning qarshisiga yon yo'-lakdan qandaydir qomat sakrab chiqdi.

Sedrik. Hozir u Kubokka Garridan oldin yetib oladi. Bo'yi ancha baland, oyog'i uzun Sedrik kamon o'qi singari uchib ketmoqda. Garri unga yeta olmasligini tushunib turibdi.

Ikkalasi yugurib ketayotgan yo'lakning chap tomonidagi qo'shni yo'lakda allaqanday yirik narsa ko'rindi. U ham shu qadar shiddat bilan harakatlanmoqdaki, yo'laklar kesishgan joy-da Sedrik bilan to'qnash kelishi muqarrar. Biroq atrofga e'tibor qilmay, ko'zini Kubokdan uzmay yugurib borayotgan Sedrik hech narsani sezgani yo'q...

– Sedrik! – baqirdi Garri. – Sedrik! Chap tomonga qara! Sedrik!

Sedrik o'z vaqtida o'girildi. U yirik maxluqning tanasiga urilmay, yonidan yugurib o'tishga ulgurdi-yu, qoqilib ketdi. Garri Sedrikning sehrli tayoqchasini qo'lidan chiqib ketgani, yo'lakka esa kattaligi Xagridning Aragog laqabli o'rgimchagi-day keladigan bahaybat hasharot otilib chiqib, Sedrik tomon odimlayotganini ko'rdi.

– Stupefay! – qichqirdi Garri.

Qarg'ish yashini o'rgimchakning tuk bosgan yirik tanasiga tikka borib urildi-yu, natijasi samarasiz kechdi. Tosh tekkan singari og'riq sezdi, shekilli, biroz selpingan o'rgimchak panja-larini tez harakatlantirib, tanasini burib oldi-da, endi Garri tomon odimlay ketdi.

– Stupefay! Impedimenta! Stupefay! – qichqira boshladi Garri.

Foydasi bo‘lmadi. O‘rgimchak yo haddan ortiq yirik, yo haddan ortiq sehrli. Qo‘llanilgan qarg‘ishlar uning g‘ayratini oshirmoqda, xolos. Maxluq hamla qilgan fursatda Garri yonayotgan sakkizta ko‘z va pichoq tig‘iday o‘tkir changallarni ko‘rib qolishga ulgurdi, xolos.

O‘rgimchak old panjalari bilan Garrini ushlab, baland ko‘tardi. Umidsiz qarshilik ko‘rsatayotgan Garri hasharotning yuqori jag‘iga kelishtirib tepdi-yu, oyog‘i qattiq og‘ridi. Ayni vaqtda Sedrik Urib yiqitish qarg‘ishini qo‘lladi. Biroq Garrining qarg‘ishi kabi Sedrikning qarg‘ishi ham kor bermadi. Maxluq komini ishtaha ila keng ochdi. sehrli tayoqchasini so‘nggi umidla ko‘targan Garri o‘kirdi:

– EKSPELLIARMUS!

Qurolsizlantirish afsuni o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Maxluq yemni qo‘ldan chiqarib yubordi. Biroq yigirma futcha baland-likdan tushgan Garri shundoq ham jiddiy lat yegan oyog‘i bilan yerga qattiq tushdi. Oyoq bolaning tagida qandaydir g‘ayritabiiy bukilgancha qoldi. Garri draklni bir yoqli qilganini eslab, biror soniya ham o‘ylanib o‘tirmay o‘rgimchakning qorin sohasini nishonga olib qichqirdi:

– STUPEFAY!

Sedrik ham Garri bilan bir vaqtda aynan shunday ish tutdi. Bir qarg‘ishning ikki yashini o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Tukli panjalarining chigili ila yo‘lni to‘sgan o‘rgimchak yon tomondagi buta devorni ezib yonboshlab qoldi.

– Garri! – qichqirdi narigi tomonda qolgan Sedrik, – Omonmisan? Ustingga quladimi?

– Yo‘q, – javoban qichqirdi Garri, qonayotgan oyog‘iga qarab.

O‘rgimchakning quyuq, yelimshak so‘lagi yirtilgan korjomasini battar rasvo qildi. Garri o‘rnidan turishga urinib ko‘rdi-yu, dag‘-dag‘ titrayotgan oyog‘i yerga tiralishni istamadi. Bola buta devorga suyanib, hansiragancha, atrofga alangladi.

Sedrik Uch sehrgar bellashuvi Kubogidan atigi bir necha fut narida turibdi.

– Olmaysanmi uni?! – bazo'r gapira oldi Garri. – Yonida turibsan-u ushla, ko'tar!

Biroq Garridan ko'zini uzmagan Sedrik qilt etmadi. Birozdan so'ng Kubok tomon o'girildi. Uch sehrgar bellashuvining asosiy o'ljasi taratayotgan tilla tusli xira shu'la Sedrikning yuzidagi ma'yus istakni yoritdi. U yana Garriga yuzlandi. Bola yiqilib tushmaslik uchun buta devorni mahkam ushlab olgan.

– Yo'q, sen ol uni, – dedi chuqur nafas olgan Sedrik. – Unga faqat sen yetishing kerak. Shu bugunning o'zida hayotim-ni ikki bor saqlab qolding.

– Yo'q, bunday qilib bo'lmaydi, – jahl qildi Garri.

O'rgimchak bilan o'tgan kurashdan so'ng Garrining oyog'i, umuman butun tanasi chidab bo'lmas darajada og'riyap-ti. Sedrik esa shuncha azob-uqubatga qaramay, Chuni birinchi bo'lib balga taklif qilganday Kubokka ham birinchi bo'lib yetib keldi.

– Kubokka kim birinchi bo'lib yetsa, o'sha g'olib sanaladi. Birinchi bo'lib sen yetding, – dedi Garri. – Bari bir men, mana bu oyog'im bilan uning yoniga bora olmayman

Sedrik Kubokdan nariga, yerda cho'zilib yotgan o'rgimchak tomon chekindi-da, boshini siltadi.

– Yo'q, – dedi u, qat'iy ohangda.

– Oliyhimmatlikni bas qil, Sedrik, – battar jahl qildi Garri. – Ol dedim senga. Tezroq chiqib ketaylik bu yerdan.

Sedrik buta devorni ushlab, qaddini rost tutishga urinayotgan Garriga qaragancha tek turibdi.

– Sen meni ajdar haqida ogohlantirding. Aks holda men birinchi sinovdan o'ta olmagan bo'lar edim.

– Meni ham ogohlantirishgan, – dedi Garri, korjomasining etagi bilan oyog'idagi qonni artishga urinib. – Sen ham tilla tuxum masalasida menga yordam berding. Shunday ekan, oramiz ochiq.

– Tuxum masalasida menga ham yordam berishgan, – sarkashlik qildi Sedrik.

– Bari bir oramiz ochiq.

Garri sinab ko‘rish uchun tanasining og‘irligini jarohatlangan oyog‘iga olib o‘tdi. Oyoq qattiq titradi. Aftidan, o‘rgimchak uni yerga uloqtirganda to‘piq suyagi qayrilgan ko‘rinadi.

– Ikkinchi musobaqada ko‘proq balga sazovor bo‘lishing kerak edi, – qaysarligini qo‘ymadi Sedrik. – Garovga olinganlarning hammasini qutqarish uchun ko‘l tubida qolding. Men ham sen kabi ish tutishim kerak edi.

– O‘sha qo‘shiqni jiddiy qabul qilmaslikka aqlim yetmagan, xolos! – alam-la baqirdi Garri. – Eshityapsanmi, ol Kubokni, ketdik bu yerdan. Jonim og‘riyapti.

– Yo‘q.

Sedrik o‘rgimchak panjasidan hatlab o‘tib, Garriga yaqinlashdi. Garri Diggorining yuziga diqqat bilan razm soldi. Sedrik uzil-kesil qaror qilgan ko‘rinadi. U ongli ravishda «Xufflpuff»ning tushiga ham kirmagan shon-sharafdan voz kechmoqda.

– Yur, – dedi Sedrik. – Senga yordam beraman.

Sedrik, Kubokka qo‘l tekkizmaslik uchun ikkala qo‘lini chalishtirib, ko‘kragiga mahkam bosib olgan. Buning uchun borki irodasini, haq yo‘l tutganiga komil ishonchini bir yerga jamlagani yuz qiyofasidan ko‘rinib turibdi.

Garri nigohini Sedrikdan Kubokka olib o‘tdi. Atigi bir nurafshon soniya davomida labirintdan qo‘lida Kubok bilan chiqayotgani, uni boshi uzra baland ko‘tarib olganini tasavvur etib ko‘rdi. Atigi bir soniya davomida qulog‘iga xaloyiqning quturib ketganday ayyuhannos solib, uni olqishlayotganini eshitdi. Atigi bir soni davomida zavqlanib ketgan Chuning tabassumini ko‘rdi... so‘ng ushbu ajoyib manzara gum bo‘lib, yana Sedrikning o‘jar qiyofasi paydo bo‘ldi.

– Birga, – dedi Garri.

– Nima?

– Ikkalamiz bir vaqtda qo‘l tekkizamiz. Nima qilganda ham bu «Xogvars»ning g‘alabasi bo‘ladi-yu, to‘g‘rimi? Shunday ekan, kel, muzaffariyatni ham birga qozonamiz.

Sedrik Garriga diqqat bilan qarab, qo‘lini bo‘shatdi.

– Ishonching... komilmi?

– Mutlaqo, – javob berdi Garri, qat'iy ohangda. – Biz doimo bir-birimizga yordam berib keldik, shundaymi? Shu yer-gacha, shu ongacha birga yetib keldik. Endi Kubokni ham birga ushlaymiz.

Sedrik Garriga baqrayib qoldi. So'ng xayolini yig'ib, irjaydi.

– Roziman, – dedi u. – Qo'lingni ber.

U Garrining qo'ltig'idan tutib, Kubok o'rnatilgan tagkursigacha sakrab borishga yordam berdi. Ikkovlon Kubokning ikki yonida yaraqlab turgan dastalariga qo'l uzatdi.

– Uchgacha sanayman, bo'ladimi? – taklif kiritdi Garri. – Bir... ikki... uch...

Ikkovlon bir vaqtda bittadan dastani mahkam ushladi.

Shu onda nimadir Garrini kindigiga mahkamlangan halqadan tortganday bo'ldi. Oyog'i yerdan uzildi. Kubokning dastasini tutgan barmoqlarini bo'shata olmadi. Kubok uni Sedrik bilan birgalikda yuqoriga, shamol va rangli dog'lar girdobiga tortib ketdi.

XXXII BOB. SUYAK, TANA VA QON

Garri tovoni yerga qattiq urilgani, lat yegan oyog'i bukilib ketib, yuzi bilan yerga yiqilgani, barmoqlari Uch sehrgar bellashuvining Kubogini qo'yib yuborganini his etib, boshini ko'tardi.

– Qayerga kelib qoldik? – so'radi u.

Sedrik boshini siltagancha o'rnidan turib, Garriga yordamlashib yuborgach, ikkovlon atrofga nazar soldi.

Bu yer «Xogvars» hududi emasligi aniq. Bolalar maktab qasridan, chamasi, yuzlab millar nariga uzoqlashgan ko'rinadi. Negaki bu yerda maktab hududini o'ragan «Taqiqlangan o'rmon» ham, ortidagi baland tog'lar ham ko'rinmayapti. Ikkovlon mudhish, tashlandiq qabristonga kelib qolgan. O'ng tomondagi tiss[1] daraxti ortida kichkinagina butxona[2] ko'rindi. Chap tomonda esa ustida ulkan, ko'hna imorat qad ko'targan baland do'nglik yuksalib turibdi.

Sedrik dastlab Kubokka, so'ng Garriga qaradi.

– Kubok aslida portshlyus ekanini birov aytganmi senga? – so'radi u.

– Yo'q, – dedi Garri, mash'um sukunat hukm surayotgan qabristonga tashvishli nazar solib. – Sinovning navbatdagi bosqichimi, bu, nima deb o'ylaysan?

– Bilmadim, – yelka qisdi asabiylasha boshlagan Sedrik. – Sehrli tayoqchalarimizni qo'limizga ushlab olsak yomon bo'lmas, a?

– To'g'ri aytasan, – rozi bo'ldi Garri, taklif o'zidan emas Sedrikdan chiqqaniga xursand bo'lib.

Atrofga razm solib chiqqan Garriga yana o'sha g'alati his – birov uni kuzatayotganday tuyuldi...

– Kimdir kelyapti, – dedi u, qandaydir harakatni sezib.

Qorong'ilikka sinchiklab qaragan bolalar qabrlar orasidan

[1] **Tlss** – issiq mintaqalarda o'sadigan yog'ochi qattiq, doimiy yashil, ignabargli daraxt yoki buta.

[2] **Butxona** (*forscha*) – butparastlar ibodatxonasi. Butga sig'inuvchilar ibodatxonasi, cherkov.

kimdir og'ir qadam tashlab kelayotganini ko'rishdi. Kishining yuzi ko'rinmaydi, biroq yurishi va qo'lining holatiga qaraganda nimanidir ko'tarib kelayotgani aniq. Bo'yi past, yuzini plashning qaytarma qalpog'i to'sgan odamning kimligini anglash qiyin. Yana bir necha qadam tashlab, bolalarga yaqin kelgan kishi qo'lida chaqaloq ushlab kelayotganday ko'rindi. Yoki boshqa narsa o'ralgan bo'xchami?

Garri sehrli tayoqchasini biroz tushirib, ko'z qiri bilan Sedrikka qarab qo'ydi. Sedrik ham talmovsiragan nigoh-la qaradi. Ikkovlon yaqinlashib kelayotgan kishini kuzatib turdi.

Kishi bolalardan olti futcha naridagi baland marmar daxma yonida to'xtadi. Garri, Sedrik va pakana odam bir-biriga ma'lum vaqt qarab qoldi.

Kutilmaganda Garrining chandig'i chidab bo'lmas og'riqdan portlaganday bo'ldi. Peshanasi hali bu qadar qattiq og'rimagan. Ikkala qo'li bilan yuzini mahkam ushlagan bolaning tizzasi o'zidan o'zi bukilib yerga yiqildi, bo'shashgan barmoqlaridan sehrli tayoqchasi chiqib ketdi. Og'riq kuchidan ko'ziga hech narsa ko'rinmay qolgan Garrining boshi ikkiga bo'linib ketadiganday tuyuldi.

Uzoqdan baland, loqayd ohangda sovuq eshitilgan buyruq yangradi:

– Nomatlub bolani o'ldir!

Xayol o'tmay hushtaksimon shitirlash va chiyillagan ovoz eshitildi:

– Avada Kedavra!

Dastlab Garri og'ir qovog'i ostidan ko'zni qamashtirgan yorqin yashil yashinni ko'rdi so'ng yoniga qandaydir og'ir narsa guppilab tushganini eshitdi. Peshanasidagi og'riq shu darajaga yetdiki, bola qayt qilib yubordi va shundan so'nggina o'zini sal yengil his etdi. Nimani ko'rishi mumkinligini dahshat-la tasavvur qilgan Garri og'riqning zo'ridan yoshlangan ko'zini ochdi.

Yonida Sedrikning oyoq-qo'li har tomon yozilgan jasadi yotibdi.

Vujudiga mangulik siqqan Garri Sedrikning yuziga, nigohdan batamom mahrum, bo'm-bo'sh, egalari ko'chib ketgan anavi uyning derazalari kabi ochiq qolgan kulrang ko'ziga, hayron bo'lib ochgan og'ziga bir necha soniya qarab qoldi. Ongi manzarani idrok etgancha, serraygan bovarsizlikdan bosh-qa narsani his etguncha kimdir uning o'zini dast ko'tarib, oyoqqa turg'izdi.

Egniga plash kiygan pastak kishi qo'lidagi bo'xchani yerga qo'yib, sehrli tayoqchasini yoritgancha Garrini marmar daxma yoniga sudradi. Tanasi dag'al aylantirilib, yodgorlik poyiga uloqtirilar ekan, Garri daxmaga yo'nilgan bo'lib, qorong'ida yorishib ko'ringan «TOM REDDL» yozuvini o'qishga ulgurdi.

Plash kiygan kas sehr qo'llab, Garrini bo'ynidan to'pig'igacha toshtaxtaga o'rab bog'lagan tushov hosil qildi. Bola qaytarma qalpoq ostidagi tezlashgan uzuq-yuluq nafasni eshitdi. Garri qarshilik ko'rsatgan ediki, uni bog'layotgan kishi bitta barmog'i yetishmayotgan qo'li bilan qattiq zarb berdi. Shundagina Garri qaytarma qalpoq ostiga kim bekinib olganini tushunib yetdi.

– Chuvalchangdum?! – so'radi Garri.

Biroq arqon yaratishni to'xtatib, itoatsiz titroq barmoqlari bilan tugunlarning mahkamligini tekshirib chiqqan Chuvalchangdum indamadi. Bola qanchalik urinmasin, biron dyumga qo'zg'ala olmaydigan holatda bog'langanligiga ishonch hosil qilgach, plashining qatlaridan qora tasma chiqarib, Garrining og'ziga dag'al tiqdi-da, teskari o'girilib, nari ketdi. Ovoz chiqarmaydigan, boshini bura olmaydigan, to'g'riga qaratilgan holatda qolgan Garri Chuvalchangdum qay tomon ketganini ko'rmadi.

Unga yigirma futcha narida yotgan Sedrikning jasadi ko'rinyapti. Murdadan sal narida Uch sehrgar bellashuvining Kubogi tungi yulduzlar shu'lasida yaltiramoqda. Garrining sehrli tayoqchasi yerda, oyog'i ostida yotibdi. Garri chaqaloq o'ralgan, deb o'ylagan bo'xcha ham, ichida nimadir bezovta qimirlagancha qabr poyida yotibdi. Bo'xchaga qaragan Garri-

ning peshanasi yana og‘ridi... shundagina u, bo‘xcha ichida nima borligini bilishni... uni birov ochishini istamasligini tushunib yetdi.

Birozdan so‘ng qandaydir tovush eshitildi. Bola nigohini pastga tushirib, maysazorda bahaybat ilon sudralib kelayotganini ko‘rdi. Ilon Garri bog‘langan qabr atrofiga keng halqalar hosil qilgancha, o‘ralib oldi. Yana Chuvalchangdumning tez-tez kechayotgan uzuq-yuluq nafasi eshitildi. Aftidan, u qandaydir og‘ir narsani sudrab kelyapti. Ko‘p o‘tmay Chuvalchangdum Garrining ro‘parasida ko‘rinish berdi. U qabr poyiga suv yoki qandaydir boshqa suyuqlikka to‘la toshqozon tortib keldi. Garri ichiga katta yoshli odam bemalol sig‘adigan bunday yirik toshqozonni hali ko‘rmagan.

Bo‘xcha ichidagi jonzod ozodlikka intilayotgan kabi yanada battar g‘imirlay boshladi. Qo‘liga sehrli tayoqcha ushlagan Chuvalchangdum qozon ostida ivirsimoqda. Fursat o‘tmay chirsillab yonayotgan olov ko‘rindi. Bahaybat ilon gulxandan qochib, qorong‘ilikka bekindi.

Qozon ichidagi suyuqlik juda tez isidi. Pufakchalardan tashqari, suyuqlik yuzasi ham yonayotgan kabi damlama ustida o‘qday otilib chiqayotgan uchqunlar favvorasi hosil bo‘ldi. Qozondan chiqayotgan bug‘ quyuqlashib bordi. Olovning yonishini kuzatib turgan Chuvalchangdum yana ko‘rinmay qoldi. Garrining qulog‘iga baland yangragan nihoyatda sovuq ovoz eshitildi:

– Imillama!

Gulxanning o‘ynoqlab otilayotgan uchqunlaridan qozondagi suyuqlik yuzasi olmos bilan bezatilganday mavjlanmoqda.

– Tayyor bo‘ldi, sohib, – dedi Chuvalchangdum.

– Tezroq!... – amr etdi sovuq ovoz.

Chuvalchangdum bo‘xcha tugunini yechib, ichidagi jonli narsani ochib qo‘ydi. Buni ko‘rgan Garri dahshatdan unsiz qichqirib yubordi.

Chuvalchangdum allaqanday toshni ag‘dargan-u, ostidan jirkanch, so‘qir, shilimshiq jonzod chiqqanday bo‘ldi. Ammo

Chuvalchangdum qo'l uzatgan bo'xcha ichidagi ushbu maxluq unday jonzoddan ming chandon xunuk ko'rinadi. Ushbu qabohat guvalacha bo'lib olgan chaqaloqni eslatgan bilan tuksiz tanasi sasib, irib ketgan to'q qizil, allaqanday tangacha qopla-gan juda eski go'sht bo'lagidan farq qilmaydi. Inson bolasi bunday bo'lmaydi. Ingichka oyoq-qo'li nihoyatda ojiz... Yuzi-chi! Ilonning yuziga o'xshash yassi. Ko'zi qip-qizil.

Bo'xchadan chiqqan jonli qabohat ojiz qo'lini uzatib, uni dast ko'targan Chuvalchangdumning bo'ynidan quchib oldi. Boshidagi qaytarma qalpog'i ochilib ketgan Chuvalchang-dumning dahshatdan murdaday oqarib ketgan qo'rqoq basharasi naqadar hazarli qiyofa kasb etgani qozon bo'yiga borganida aniq ko'rindi. Garrining ko'ziga uchqunlar yoritgan yovuz, yassi bashara ko'rindi. Chuvalchangdum qo'lidagi qabohatni qaynayotgan qozonga tashladi. Suyuqlik vishillab, qozonga tashlangan jirkanch narsa g'arq bo'ldi. Zaif tana qozon tubiga yetib urilganini Garri aniq eshitdi.

«G'arq bo'lib o'lsin, – iltijo qildi chandig'i yorilib ketar darajada og'riyotgan Garri. – Iltimos... g'arq bo'lib o'lsin...»

Shu payt aql-hushini batamom yo'qotgan Chuvalchang-dumning titroq ovozi eshitildi. U sehrli tayoqchasini yerga tirab, ko'zini chirt yumib olgancha, zulmatga murojaat qildi:

– Roziliksiz olingan ota suyagi, o'z o'g'lingni dunyoga qayta keltir!

Garrining oyog'i ostidagi go'r do'ngligi tars yorildi. Dah-shatdan dong qotgan bola Chuvalchangdumning afsuniga itoat qilgan chang buluti go'rdan chiqib, qozonga to'kilganini ko'rdi. Suyuqlikning olmos yuzasi vishillab, kuchli qaynadi va xayol o'tmay moviy tus kasb etdi.

Shundan so'ng korjomasining qatidan uzun, ingichka, yaltiroq shamshir chiqargan Chuvalchangdum hiqillab yig'lay boshladi. U ho'ngray-ho'ngray yana afsun o'qidi:

– Xohish-la berilgan qarol tanasi, o'z sohibingni jonlantir!

Chuvalchangdum bitta barmoq yetishmayotgan o'ng qo'li-ni oldinga uzatib, chap qo'li bilan shamshirni mahkam ushla-

gancha boshi uzra ko'tardi.

Atigi bir soniya qolganda Chuvalchangdum nima qilmoqchi ekanini tushunib yetgan Garri ko'zini chirt yumdi. Qani endi quloqni ham chirt yumishning iloji bo'lsa... Zulmat sukunatini qattiq chinqiriq buzib tashladi. Garri ham o'zini shamshir bilan so'yilganday his etdi. Nimadir yerga gursullab tushdi, Chuvalchangdumning azob-uqubatli xirillashi, so'ng qozonga nimadir tashlangani eshitildi. Garri ko'z ochishga jur'at eta olmayotgan bo'lsa ham yopiq qovog'i orqali qozondagi suyuqlik qip-qizil tus olganini ko'rdi...

Chuvalchangdum jon talashib ingramoqda. Uning tez-tez kechayotgan uzuq-yuluq nafasini bevosita his etgan bola anavi qabohatning qaroli ro'parasiga kelib turganini angladi.

– Zo'rlab olingan dushman qoni, ag'yoringni tiriltir!

Nigohini pastga tushirib, arqondan bo'shashga jon-jahd-la uringan Garri hozir yuz beradigan hodisaning oldini olish uchun hech narsa qila olmadi... Chuvalchangdumning titrayotgan yolg'iz qo'lida shamshir yarqiradi. Xayol o'tmay, bola, o'ng qo'lining bukiladigan joyiga tig' suqilganini his etdi. Garrining qoni yengi orqali sizib chiqdi. Og'riqdan ingrayotgan Chuvalchangdum kissasini titib, shisha idish chiqardi-da, Garrining kesilgan qo'liga keltirib, qon oldi.

Kalovlangancha Garridan nari ketgan Chuvalchangdum qo'lidagi qonni qozonga to'kdi. Suyuqlik shu zahoti ko'z qamashtiradigan darajada oppoq tus oldi. Ishni nihoyasiga yetkazgan Chuvalchangdum qozon yonida tizzasiga yiqilib, chopilgan qo'lini tebratgancha, yonboshlab oldi.

Vaqirlab qaynayotgan qozondan har tomon sachrab chiqayotgan olmos tusli yorqin uchqunlar, atrofni qop-qorong'i qilib yubordi. Boshqa hech narsa ro'y bermadi...

«Hech narsa ro'y bermasin, – iltijo qildi Garri. – O'tinaman... g'arq bo'lsin... O'lgani rost bo'lsin...»

Qozonning qaynashi tindi. Uchqun sachrashi to'xtadi. Atrofni oppoq bug' buluti qamradi. Endi Garriga Chuvalchangdum ham, Sedrikning jasadi ham ko'rinmay qoldi. Havoda

muallaq osilgan tuman ko‘rinmoqda, xolos... «Demak, ular niyat qilgan ish o‘ngidan kelmadi, – xulosa chiqardi Garri. – Qozonda pishib o‘ldi... iltimos... iltimos... o‘lgani rost bo‘lsin...»

Daf’atan tuman ichida qozon uzra asta ko‘tarilayotgan baland bo‘yli, odam skeletiga o‘xshash nihoyatda ozg‘in qomat ko‘rindi. Bolaning vujudini sovuq dahshat qamradi.

– Kiyintir meni, – amr eshitildi bug‘ ichidan.

Haligacha ingrab, hiqillab qo‘lining qolgan bo‘lagini tebratayotgan Chuvalchangdum yerda yotgan qora kiyimni tez oldida, yolg‘iz qo‘li bilan sohibini kiyintirdi.

Garridan ko‘z uzmagan skelet qozon ichidan chiqdi. Bola uch yildan buyon eng dahshatli tushlarida ta’qib qilib kelayotgan basharani ana endi o‘ngida ko‘rdi. Ushbu bashara suyakdan oq, ikki to‘q qizil ko‘zi bir-biridan uzoq joylashgan, kataklari keng burni ilon tumshug‘iga o‘xshash yassi..

Lord Voldemort hayotga qaytdi.

XXIII BOB. O‘LIMDAN ZAVQLANUVCHILAR

Voldemort Garrini qo‘yib, o‘zining yangi tanasini tomosha qilishga kirishdi. O‘rgimchak panjasini eslatadigan uzun barmoqli qo‘li, ko‘kragi, yelkasi va yuzini paypaslab chiqdi. Mushuk ko‘zini eslatadigan qizil ko‘zi yarqirab ketdi. Kaftlarini kuchli hayajon-la oldinga uzatib, barmoqlarini bukib-yozib ko‘rdi. U na yerda tipirchilab, qonga belanib yotgan Chuvalchangdumga, na vishillagancha, qabr toshiga o‘ralayotgan bahaybat ilonga e’tibor qildi. G‘ayritabiiy uzun barmoqlarini korjomasining kissasiga solib, sehrli tayoqchasini chiqardi-da, zavq-la silab, Chuvalchangdumga o‘qtadi. Chuvalchangdumning tanasi yerdan uzilib, Garri bog‘langan daxma ostiga uchib tushdi. Ho‘ngrab, qabr chetida guvala bo‘lib yotgan qarol bir zumda shalpayib, tek qotdi. Voldemort qizil ko‘zini Garriga qaratib, shafqatsiz sovuq ohangda qattiq xandon otdi.

Chuvalchangdumning chopilgan qo‘lidan sizib chiqayotgan qon ivib, kiyim matosida xira yaltiramoqda

– Milord, – ho‘ngrab ezilgancha, o‘tindi Chuvalchangdum. – Milord... va’da qilgan edingiz... siz aytgan edingiz...

– Qo‘lingni uzat, – erinchoq ohangda buyurdi Voldemort.

– O, sohib... minnatdorman, sohib... – hiqilladi Chuvalchangdum qonga belangan cho‘ltoq qo‘lini uzatib.

– Buni emas Chuvalchangdum, – yana xandon otdi Voldemort. – Narigisini uzat.

– Sohib, iltimos... o‘tinaman...

Voldemort egilib, Chuvalchangdumning chap qo‘lini changalladi-da, kuch bilan o‘ziga tortib, yengini ochdi. Shunda Garri Chuvalchangdumning qo‘lidagi teri qoplamasiga aks ettirilgan, og‘zidan tilga o‘xshab ilon chiqayotgan qirmizirangli bosh suyak tasvirini ko‘rdi. Kvidish bo‘yicha jahon chempionatining final o‘yinidan so‘ng osmonda paydo bo‘lgan tasvir-ku, bu! Ajal belgisi! Voldemort Chuvalchangdum tanasining og‘riq zo‘ridan idora qilib bo‘lmaydigan zo‘riqishiga ahamiyat ber-may, tasvirni diqqat bilan o‘rganib chiqdi.

– Yana paydo bo‘ldi, – muloyim ohangda gapirdi u. – Allaqachon tushunib yetishlari kerak edi... qani hozir ko‘ra-miz... mana endi bilamiz...

Voldemort uzun, oppoq ko‘rsatkich barmog‘ini Chuval-changdumning qo‘lidagi tasvirga bosdi.

Garrining chandig‘iga yanada qattiq og‘riq kirdi. Chuval-changdum esa battar dod soldi. Voldemort barmog‘ini olgan tasvir ko‘mirday qop-qora tus oldi.

Yovuz Lord qanoat hosil qilgan shafqatsiz yuzi bilan qaddini rostlab, boshini baland ko‘targancha, zulmat qamragan qabristonga nazar soldi.

– Qiziq, nechta dovyurak paydo bo‘lar ekan, buni his etib? – pichirladi u, xira yorishgan qizil ko‘zini yulduzlarga ko‘tarib. – Va nechta ahmoq topilar ekan, hozir bo‘lmaslikka jur’at etib?

U Garri bilan Chuvalchangdumning qarshisida, atrofga alanglagancha, u yoq bu yoq yura boshladi. Daqiqa o‘tgach, bolaga yuzlanib, ilon basharasi ila irshaydi.

– Garri Potter, – vishillagancha gap boshladi u. – Sen qadr-li onang kabi magl otamning, kamdan kam uchraydigan ahmoq-ning qabrida turibsan. Ikkalasi ham ma’lum ma’noda foyda berishdi, shunday emasmi? Onang seni go‘dakligingda himoya qilib o‘lib ketgan bo‘lsa... mening otam, uni bir vaqtlar o‘zim o‘ldirgan edim, qara qanday foyda keltirdi menga uning murdasi...

Xandon otgan Voldemort atrofga qarab-qarab qo‘ygancha, old-orqaga yura boshladi. Qabr toshidan tushgan bahaybat ilon esa atrofida aylanib, o‘rmalamoqda.

– Do‘nglik ustida qurilgan anavi uyni ko‘ryapsanmi, Potter? Otam o‘sha uyda yashagan. Afsungar onam esa qo‘shni qishloqda yashab, kelib-kelib mana shu ahmoqni sevib qolgan. Afsungar ekaniga iqror bo‘lishi bilan... sehr-joduni xush ko‘r-magan eri uni tashlab ketgan...

Voldemort atrofga qarab qo‘yib, gapini davom etdi.

– Homilador xotinini tashlab, magl qarindoshlarining uyiga qaytgan... Onam esa ko‘zi yorilgach omonatini topshirdi. Men magllarning yetimxonasida o‘sganman... Ana o‘sha kezlarda

manavi go'rda yotgan, menga o'zining jirkanch Tom Reddl ismini bergan marazni topib, xun olishga qasam ichganman...

U nigohini bir go'rdan boshqasiga olib o'tgancha, u yoq bu yoq yurishini qo'ymadi.

– Nimalar deyapman! Oilaviy xotiralar... – g'udulladi Voldemort. – Hissiyotlarga beriluvchan bo'lib qolyapman, shekilli... Ana endi bu yoqqa qara, Potter! Ana, mening haqiqiy bilam...

Kutilmaganda, atrofdan ridolarning shitirlagani eshitildi. Tiss daraxtlari, qabrlar ortidan havoda paydo bo'layotgan sehrgarlar ko'rinish bera boshladi. Hammasi birday yuzini niqob bilan to'sib, boshiga qaytarma qalpoq tashlab olgan. Ular birin-ketin, o'z ko'zlariga o'zlari ishonmayotgan kabi ehtiyotkorona, asta-sekin yaqinlashmoqda. Voldemort sukut saqlagancha tek qotib, sehrgarlar yaqin kelishini kutdi. Shundan so'ng O'limdan miriquvchilardan biri tiz cho'kkancha, Voldemortning oldiga emaklab kelib, qora kiyimining etagini o'pdi.

– Sohib... sohib... – guvrandi u.

Qolganlar ham tizzasiga yiqilib, navbat bilan emaklab kelgancha, Voldemortning etagini o'pib, orqaga tislandi. Garri, Voldemort, Tom Reddlning qabri va yerda guvala bo'lib, ho'ngrayotgan Chuvalchangdumning atrofida halqa hosil qilgan O'limdan miriquvchilar oyoqqa turishdi. Aftidan, halqa shaklidagi ushbu safda har bir O'limdan miriquvchining o'z o'rni borga o'xshaydi. Chunki, halqaning ba'zi joylarida raxnalar qolgan bo'lib, yana kimlardir hozir bo'lishi kutilmoqda. Lekin Voldemort boshqa hech kimni kutmayotgan ko'rinadi. U qip-qizil nigohini ila O'limdan miriquvchilarning qaytarma qalpoq to'sgan yuzlariga qarab chiqdi. Shabada esmayotgan bo'lsa ham safda titroq, qandaydir umumiy zirillash sezilmoqda.

– Salom, O'limdan miriquvchilar, – xotirjam gap boshladi Voldemort. – O'n uch yil-a... So'nggi bor uchrashgan kunimizdan buyon rosa o'n uch yil o'tibdi. Sizlar mening chaqirig'imga binoan, oradan bir kun ham o'tmaganday darhol yetib keldingiz... Demak, Ajal belgisi bizni hamon birlashtirmoqda! Shunday emasmi?

Uning yuzi darg'azab qiyofa kasb etib, burun kataklari kengaygancha, chuqur nafas oldi.

– Xoinlikni his etyapman, – vishilladi u. – Havo xiyonat hidiga bulg'angan.

Saf battar titradi. O'limdan miriquvchilar Voldemortdan nari tislanmoqchi bo'lyapti-yu, jur'at eta olmayapti.

– Chaqirig'imga binoan tez yetib kelgan ekansiz, demak, hammangiz sog'-salomat, sehr-jodungiz kuchini yo'qotmagan holatdasiz. Tabiiyki, menda savol tug'iladi: nega abadiy sodiq qolishga ont ichgan shuncha sehrgardan birortasi ham o'z sohibiga yordam qo'lini uzatmadi?

Hech kim churq etmadi, qon yo'qotib, yerda bemador cho'zilgancha ho'ngrayotgan Chuvalchangdumdan tashqari, hech kim qilt etmadi.

– O'z savolimga o'zim javob beraman, – pichirladi Voldemort. – Balkim, ular kunim bitganiga, nom-nishonsiz, batamom yo'q bo'lib ketganimga ishonishgandir. Shu bois ular ortga qaytib, dushmanlar orasida umrguzaronlik qilishayotgandir, aybsizliklari, qilmishlarini mening sehrim ta'sirida amalga oshirishganini vaj qilib, gapi rost ekaniga qasam ichishgandir...

Biroz sukut saqlagan Voldemort gapini davom etdi:

– Yana bir savol beraman o'zimga o'zim: yana ko'tarilib qaytishim mumkin emasligiga qanday ishonishlari mumkin ular? Axir, men o'zimni ajaldan ishonchli saqlaganimni juda yaxshi bilishar edi-ku ular? Yer yuzidagi har qanday sehrgardan qudratli ekanimni namoyon qilganimni cheksiz mahobatga ega ekanimni isbotlaydigan ko'plab dalillarni o'z ko'zlari bilan ko'rishgan edi-yu?!

Voldemort safda turgan har bir O'limdan miriquvchining oldiga borib, yuziga diqqat bilan qarab chiqdi.

– O'z savolimga yana o'zim javob beraman: balkim, ular Lord Voldemortni yengishga qodir bo'lgan yanada qudratli kuch borligiga bovar qilishgandir... Ehtimol, endi ular boshqa sohib xizmatiga o'tishgandir... Avom xalq qahramoni, magllar va maglvachchalarning yo'lchi yulduzi... Albus Dambldorga xizmat qilishayotgan bo'lsa, ajab emas, a?

Dambldor tilga olinganida safda turganlar qo‘zg‘alib, tushunarsiz g‘udullagancha, bosh siltadi. Voldemort bunga e’tibor qilmadi.

– Ixlosim qaytdi... Ha, to‘g‘risini aytishim kerak, ixlosim qaytdi...

Safda turgan erkaklardan biri kutilmaganda halqani buzib, oldinga chiqdi-da, boshdan oyoq titragancha, Voldemortning oyog‘i ostiga tashlandi.

– Sohib, – asabiy qichqirdi u. – Sohib, o‘tinaman, afv eting meni! Hammamizni afv eting!

Voldemort xandon otdi.

– Krusio! – sehrli tayoqchasini boshi uzra ko‘tardi u.

Yerda yotgan O‘limdan miriquvchi joni og‘riganidan yurakni ezib yuborguday faryod qildi. Garri ushbu afg‘onlarni yaqin o‘rtadagi aholi eshitishi... politsiya yetib kelishi shart, deb o‘yladi. Kelsin o‘sha politsiya, o‘tindi u ichida... kimdir biron chora ko‘rsin...

Voldemort tayoqchasini tushirdi. Qiynoqqa mubtalo bo‘lgan O‘limdan miriquvchi xirillagancha, qilt etmay qoldi.

– Tur o‘rningdan, Eyveri, – soxta muloyim ohangda buyurdi Voldemort. – Tur. Afv etishimni so‘rayapsanmi? Bilib qo‘ying, men hech kimni kechirmayman, hech narsani unutmayman. Uzoq davom etgan o‘n uch yil... Har biringiz uzrimni olishingiz uchun har bir yil uchun qarimta qaytarasiz. Mana, marhamat, qarshingizda Chuvalchangdum yotibdi. U o‘z qarzining ma’lum qismini qaytardi, to‘g‘rimi, Chuvalchangdum?

Lord Voldemort tinmay ho‘ngrayotgan Chuvalchangdumga loqayd qarab qo‘ydi.

– Menga sodiq qolganing uchun qaytganing yo‘q, huzurimga, Chuvalchangdum. Eski do‘stlaring qasosidan qo‘rqqaning uchun qaytgansan. Demak, sen ushbu og‘riqni qilmishingga yarash boshdan kechiryapsan. Buni o‘zing ham yaxshi tushunib turibsan, to‘g‘rimi Chuvalchangdum,?

– To‘g‘ri, sohib, – ingradi qon yo‘qotib holsizlangan Chuvalchangdum. – O‘tinaman, sohib... iltimos...

– O‘z tanamga ega bo‘lishimga yordam berding, – sovuq

ohangda davom etdi Voldemort, azob tortayotgan qarolning tipirchilayotganini kuzatib. – Aslida hech narsaga arzimaydigan, qo‘rqoq, yaramas odamsan. Shunga qaramay menga yordam berding... Lord Voldemort esa yordam qo‘lini uzatganlarni qanday rag‘batlantirish kerakligini biladi...

Voldemort sehrli tayoqchasini siltab, sal aylantirdi. Tayoqcha harakatining izida shu’la singari erigan kumush hosil bo‘ldi. Dastlab hech qanday shaklga ega bo‘lmagan kumush eshilib, bukildi. Xayol o‘tmay odam qo‘li shaklini kasb etib, havoda biroz osilib turgach, uchib borib, Chuvalchangdumning chopilgan qo‘li o‘rniga joylashdi.

Ohu-zorini birdan bas qilgan qarol odatiy uzuq-yuluq nafas olib, boshini ko‘tardi va o‘z ko‘ziga ishonmay bilagi bilan bir onda bitishib ketgan, xuddi ko‘zni qamashtiradigan yaltiroq qo‘lqopday ko‘rinayotgan kumush tirsakka baqrayib qoldi. Xayolini yig‘ib olgach, dastlab yangi, yaltiroq barmoqlarini qimirlatib ko‘rdi so‘ng yerda yotgan kichik shoxchani olib ezg‘ilagancha, changga aylantirib yubordi.

– Milord, – pichirladi u. – Sohib... qanday latofat... tashakkur sohib...tashakkur...

U tizzada yurib Voldemortga yaqin bordi-da, etagini o‘pa ketdi.

– Sadoqating mustahkam bo‘lsin, Chuvalchangdum, – talab qildi Voldemort.

– Qulingiz bo‘lay, milord... qulingiz...

Chuvalchangdum o‘rnidan turib, yosh to‘la ko‘zini qudratli qo‘lidan uza olmay, safdagi joyini egalladi. Voldemort esa Chuvalchangdumdan o‘ng tomonda turgan kishiga yaqin bordi.

– Orqa qilib bo‘lmaydigan, ishonchsiz do‘stim, Lyutsius, – pichirladi u, daf’atan to‘xtab. – Garchi sehrgarlar jamiyatida odamshavanda sanalsang-da, boshdan o‘tgan yillar shuhratidan kechmaganingni aytishdi menga. Bilishimcha, gap magllar haqida borar ekan, ilgarigiday, qiynoqqa soluvchilar jamoasiga boshchilik qilishga qarshi emassan, to‘g‘rimi? Shunday bo‘lsada, sen ham boshqalar kabi meni qidirmading, Lyutsius... Final o‘yinida ko‘rsatgan karomating sho‘xlikdan o‘zga narsa emas...

G‘ayratingni nisbatan mahsuldor sohaga yo‘llasang bo‘lmasmidi?

– Milord, men hamisha sergak va tegishli ish ijrosiga shay bo‘lib kelganman, – shosha-pisha ishontirdi qaytarma qalpoq ostidagi Malfoyning ovozi. – Kichik bir belgi, ozgina shama bersangiz edi, qayerda bo‘lishingizdan qat’i nazar, shu zahoti huzuringizda hozir bo‘lar edim. Bu masalada yo‘limda hech qanday to‘siq-to‘g‘onoq bo‘lmagan...

– Biroq sen, o‘tgan yozda, sodiq xizmatkorlarimdan biri hosil qilgan belgimni ko‘rib, juftakni rostlab qolding, shunday emasmi? – erinchoq ohangda ta’kidlab qo‘ydi Voldemort.

Malfoyning dami ichiga tushib ketdi.

– Ha-ha, Lyutsius, hamma gapdan xabarim bor... Ixlosim qaytdi sendan. Kelgusida sadoqat-la xizmat qilishingni kutib qolaman.

– Albatta, milord, albatta... Nihoyatda marhamatlisiz, milord, tashakkur...

Voldemort harakatini davom etib, Malfoyning yonida turishi kerak bo‘lgan O‘limdan miriquvchining bo‘sh o‘rniga qarab qoldi.

– Bu yerda er-xotin Lestranglar turishi kerak, – dedi Voldemort ma’yus ohangda. – Ular esa Azkabanda qamalib o‘tirishibdi. Ikkalasi o‘z sadoqatini oxirigacha saqlab qolishdi. Mendan yuz o‘girish o‘rniga qamoq jazosini afzal ko‘rishdi... Dahshatli zindon eshigini ochib, Lestranglarni orzu qilishga jur’at eta olishmagan hurmat-ehtiromga burkaymiz. Dementorlar biz tarafda. Ular bizga ittifoqchi... tabiatan shunday ular... Quvg‘in qilingan gigantlarni ham yurtga qaytaramiz... Sodiq xizmatkorlarimning hammasini qaytaraman. Odam boki qo‘rqadigan maxluqlardan butun boshli armiya yig‘aman...

Voldemort harakatini davom etdi. Ba’zilarning yonidan indamay o‘tdi, ayrimlar bilan suhbat qurdi.

– Makneyr... Chuvalchangdumning aytishicha, vazirlik manfaatlarida faoliyat yuritib, xavfli hayvonlarni yo‘q qilayotgan emishsan, shundaymi? Ko‘p o‘tmay yanada qiziqroq ish topiladi senga, Makneyr. Lord Voldemort seni ish bilan

ta'minlaydi...

– Tashakkur, sohib... tashakkur... – g'udulladi Makneyr.

Voldemort o'ta yirik, yuzlarini qaytarma qalpoq bilan to'sib olgan bir juft O'limdan miriquvchi qarshisida to'xtadi.

– Krabbe... Bu safar durustroq ishlaysan degan umiddaman? Sen-chi, Goyl?

Ikkalasi dag'al ta'zim bajo aylab, g'udullashdi:

– Ha, sohib...

– Albatta, sohib...

– Bu gap senga ham taalluqli, Nott, – dedi Voldemort, Krabbening ko'lankasiga yashirinib olgan bukriga.

– Shikastanafslik-la oyog'ingiz ostiga cho'zilaman milord, sizning eng sodiq qulingizman, kerak bo'lsa...

– Bas, yetar, – bosh irg'idi Voldemort.

Voldemort halqa shaklidagi safning keng raxnasiga yetib, shu yerda turishi kerak bo'lgan odamlarni ko'rib turganday, qizil ko'zini bo'shliqqa tikdi.

– Bu yerda olti nafar O'limdan miriquvchi yetishmayapti... Ulardan uch nafari o'z hayotini sohib uchun qurbon qildi. Yana biri juda qo'rqoq bo'lib, huzurimga hozir bo'lmadi... buning uchun u javob beradi, albatta. Yana biri mendan voz kechib, safimizni tark etdi. Tabiiyki u o'ldiriladi... Yana bir sadoqatli xizmatkorim meni topib, o'z xizmatini allaqachon boshlab yubordi.

O'limdan miriquvchilar safida qimir-qimir boshlanib, niqob ostidan bir-biriga qarab qo'yishdi.

– U «Xogvars»da. Aynan o'sha sadoqatli insonning sa'y-harakati ila yosh do'stimiz huzurimizga tashrif buyurdi...

Voldemort labsiz og'zini qiyshaytirib irshaygan bo'ldi.

– Ha-ha, – dedi u, yarqiragan ko'zini bolaga tikib. – Dunyoga qayta kelgan kunim munosabati bilan Garri Potter huzurimga lutfan tashrif buyurdi. Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, bugun u mening hurmatli mehmonimdir.

Hamma jim. Faqat Chuvalchangdumning o'ng tomonida turgan O'limdan miriquvchigina oldinga bir qadam tashlab, niqob ostidan Voldemortga Lyutsius Malfoyning ovozi bilan

murojaat qildi:

– Sohib, biz bilishga juda tashnamiz... O‘tinamiz, aytib bering... Bunga qanday erishdingiz... Bu mo‘jiza qanday ro‘y berdi... Qanday qilib qaytib kela oldingiz...

– O, Lyutsius, bu juda qiziq hikoya, – lazzatlanib cho‘zdi Voldemort. – Va bu hikoya qarshingizda turgan yosh do‘stim bilan boshlanib, u bilan tugaydi.

Voldemort shoshilmay Garriga yaqinlashib, yoniga turdi. Safda turganlarning hammasi ikkalasiga yuzlandi. Ilon esa Voldemortning atrofida aylangani-aylangan.

– Bu bola hukmim barham topishining sababi, deya e’tirof etilganini hammangiz yaxshi bilasiz, albatta, – past ovozda gap boshladi Voldemort, qip-qizil ko‘zini chidab bo‘lmas og‘riqdan dodlab yuborishdan o‘zini bazo‘r tiyib turgan Garriga tikib. – Uni o‘ldirishga uringanimda o‘z tanam va qudratimdan mahrum bo‘lganimni ham bilasiz. Ona o‘z bolasini saqlab qolish uchun o‘zini qurbon qildi va bu bilan chaqaloqni o‘zi bilmagan holda, men oldindan ko‘ra bilmagan himoya ila ta’minladi... Men hatto qo‘l ham tekkiza olmas edim bu bolaga.

Voldemort uzun barmog‘ini Garrining lunjiga yaqinlashtirdi.

– Onaning qurbonligi bolani bir umr saqlab keldi... Bu sehrgarlar olamidagi qadimiy udum bo‘lib, o‘sha fursatda mening xayolimga ham kelmagan ekan... hozir buning ahamiyati yo‘q. Endi men unga qo‘l tekkiza olaman.

Garri yuziga barmoq tegishi bilan boshi qattiq og‘rib, tars ikkiga bo‘linib ketishidan qo‘rqdi. Voldemort uning qulog‘i ostida asta kulib qo‘ydi-da, barmog‘ini olib, yana o‘z jamoasiga murojaat qildi:

– Hisob-kitobda biroz adashib ketganimni tan olishim kerak, do‘stlarim. Ahmoq ayolning kaltafahm qilmishi tufayli men yo‘llagan qarg‘ish yashini bolaning peshanasidan sapchib, o‘zimga kelib urdi. Oh, bu og‘riq! Bunday og‘riq har qanday og‘riqdan ming chandon kuchlidir, do‘stlar. Unga tayyor bo‘lishning iloji yo‘q. Men o‘z tanam bilan aloqani yo‘qotib qo‘ydim, ruhdan-da, xayolotdan-da battar zaif bo‘lib qoldim...

Lekin o‘lmadim, tirik qoldim... Kimga yoki nimaga aylanib qolganimni o‘zim ham bilmayman... Hammadan qudratli, mangulikka qadam bosgan odam bo‘la turib, shu ahvolga tushdim... Maqsadim – ajal ustidan g‘alaba qozonish bo‘lganidan o‘zingiz xabardorsiz. Shu tariqa, o‘zimni sinab ko‘rishga imkon tug‘ildi. Ba’zi bir tajribalarim yomon chiqmadi... Garchi, qarg‘ish meni shubhasiz o‘ldirishi kerak bo‘lsa-da, tirik qoldim. Ammo nihoyatda ojiz bo‘lib, yer yuzida yashaydigan har qanday jonzodlar orasida eng notavoniga aylanib qoldim... Bunday holatdan chiqish uchun hech qanday umidim... tanam yo‘q edi... Har qanday tilsim, afsun yoki qarg‘ish esa sehrli tayoqcha bilan muomala qilishni taqozo etadi...

Voldemort sukut saqlab, biroz o‘ylanib qoldi.

– O‘zimni o‘zim har daqiqa, har soniya tinim bilmay, mashaqqat-la kun kechirishga majbur qilganimni eslayman... O‘rmon ichiga kirib, kutdim... Sodiq xizmatkorlarimdan birortasi urinib ko‘rishi, meni qidirib topishiga umid bog‘ladim... Ulardan birortasi kelib, tegishli afsunni mening nomimdan bajarishi, tanamni qaytarib berishiga komil ishonch bildirgan edim... ming afsus...

Sohibining har bir so‘zini diqqat-la eshitayotgan O‘limdan miriquvchilar safida yana hayajonli g‘imir-g‘imir boshlandi. Voldemort dahshatli sukunatni atayin cho‘zdi.

– Men faqat bir narsani eplar edim, xolos, – davom etdi Lord Voldemort. – U ham bo‘lsa, boshqalar tanasiga kirib, egalik qilish. Biroq atrofda avrorlar izg‘ib yurganini bilib, gavjum joylarga kirishga jur’at etmadim. Ba’zan hayvonlar, asosan ilon tanasiga kirib yurdim. Biroq hayvon tanasida bo‘lib, ruhlik holatimdan nari o‘ta olmadim. Hayvon tanasi sehr-joduga yaxshi moslashmagan... Bundan tashqari, ulardan qaysi birining ichiga kirib olsam, umri keskin qisqarib ketar ekan...

Voldemort safdagi odamlarga yana bir bor nazar solib chiqdi.

– To‘rt yil muqaddam... hayotga qaytish yo‘lini topganday bo‘ldim. Kunlardan bir kun men bekingan o‘rmonga yosh, laqma, kaltafahm sehrgar yigit kirib qoldi. O, bu mening orzuim

edi. Chunki o'sha laqma Dambldor maktabining o'qituvchisi ekan... Tentakni izmimga itoat qildirish qiyin kechmadi. Uning yordami bilan yurtga qaytdim. Hech qancha vaqt o'tmay, tanasiga egalik qilgancha, xatti-harakatlarini idora qilib bordim. O'qituvchi jamiki ko'rsatmalarimni so'zsiz bajardi. Biroq men ko'zlagan reja barbod bo'ldi. Mangu hayotimni ta'minlaydigan falsafiy toshni o'g'irlashga muvaffaq bo'la olmadim... yana manavi Garri Potter tufayli...

Oraga o'lik sukunat cho'kdi. Tiss daraxtlarining bargi ham qilt etmay qolganday go'yo. Garri bilan Voldemortdan ko'z uzmagan O'limdan miriquvchilar qilt etmay turishibdi.

– Tanasini tark etishim bilan o'qituvchi o'ldi, – davom etdi Voldemort. – Yana ilgarigiday zaif, notavon bo'lib qoldim. Yana o'sha o'rmonga qaytdim. Rostini aytsam, ilgarigi qudra-timni qaytara olishimga shubhalana boshladim... Hayotimning eng qora kunlari boshlandi... Taqdir menga yana bir sehrgar yuborishiga ishonmadim... Xizmatkorlarimdan birortasi mening qismatim bilan oz bo'lsa ham qiziqib ko'rishiga bo'lgan umidim butkul so'ndi...

Safda turganlarning bir-ikki nafari xavotirlanib, tanasining vaznini oyoqdan oyoqqa tashlab qo'ydi.

– Deyarli bir yil oldin, birorta ham umid uchquni qolmagan paytda taqdir menga yana kulib boqdi... Nihoyat men kutgan hodisa ro'y berdi... Huzurimga qarollarimdan biri – Chuvalchangdum qaytdi. Mana u, odil suddan bekinish uchun o'z o'limini sahnalashtira bilgan inson qarshingizda turibdi. Biroq uning qilmishi eski do'stlari tomonidan fosh etildi. Shundan so'nggina u, sohib huzuriga qaytishga ahd qildi. Mish-mish gaplar ketidan borib, meni qidirdi. Bu masalada unga yo'lida uchragan kalamushlar yaqindan yordam bergan. Chuvalchangdumni kalamushlar bilan qandaydir qarindoshlik rishtalari bog'lab turadi, shundaymi, Chuvalchangdum? Uning mitti, jirkanch qabiladoshlari alban o'rmonining qoq markazida shunday joy borki, birorta bo'lsin jonzod u yerga kirishga jur'at eta olmasligini ma'lum qilishgan... Vujudiga singib kiradigan qora ko'lanka sabab, har xil mayda hayvonlar qirilib ketishar emish...

Voldemort Chuvalchangdumga yaqin bordi.

– Lekin o‘sha sayohating, meni topganing yomon bo‘lmadi, shundaymi Chuvalchangdum? Kunlardan bir kun, qorni ochgan Chuvalchangdum meni qidirib topgan o‘rmon chetidagi kichik bir mehmonxonaga kirib qolgan... U yerda kimni uchratganini bilasizmi? Vazirlik xodimasi Berta Jorkinsni!

Yovuz Lord yana irshaydi.

– Taqdirning Lord Voldemortga ko‘rsatgan muruvvatiga e’tibor qiling, do‘stlar. Mantiqan o‘ylab ko‘riladigan bo‘lsa, aslida o‘sha kun Chuvalchangdum tamom bo‘lgan, u bilan birga mening so‘nggi umidim ham puchga chiqqan kun bo‘lishi kerak edi. Biroq Chuvalchangdum, kesakdan o‘t chiqqan kabi kutilmagan ziyraklik namoyon etib, Berta Jorkinsni tungi sayrga olib chiqishga muvaffaq bo‘la oldi. O‘rmonda qo‘lga olib... to‘g‘ri huzurimga olib keldi. Shu tariqa, hamma ishni barbod qilishi mumkin bo‘lgan Berta Jorkins falakning men orzu-havas qilishga jur’at eta olmaydigan tuhfasi bo‘lib chiqdi! Chunki u, biroz qo‘llanilgan zo‘rlash vositasida, qimmatli ma’lumotlar manbasiga aylandi.

Voldemort safda turganlarga diqqat bilan razm soldi.

– Berta Jorkins «Xogvars»da o‘tkazilishi rejalashtirilgan Uch sehrgar bellashuvi haqidagi ma’lumotlarni batafsil so‘zlab berdi. Aloqa bog‘lay bilsam, menga sadoqat ila xizmat qilish-dan o‘zini behad baxtiyor biladigan O‘limdan miriquvchining nomini aytdi. U yana ko‘p narsalarni ma’lum qildi... Biroq unga qo‘llanilgan Unuttirish afsunining ta’siriga barham berish uchun juda kuchli vositalar qo‘llashga to‘g‘ri keldi. Zaruriy ma’lumotlarni olib bo‘lganimdan so‘ng uning xotirasi ham, tanasi ham shu qadar yaroqsiz holatga kelib qoldiki, qayta tiklashning iloji bo‘lmadi. Qiz o‘z vazifasini o‘tab bo‘ldi. Tanasiga kirib olish mumkin bo‘lmay qoldi. Shu bois undan xalos bo‘lishga to‘g‘ri keldi.

Voldemort murdor irshayib, qip-qizil ko‘zi bilan ilonga qarab qo‘ydi.

– Ayonki, hamma uchun qahramonlarcha halok bo‘lgan Chuvalchangdumning tanasi ham kor bermaydi. Birov uni tanib

qoladigan bo‘lsa, ortiqcha shov-shuv ko‘tariladi. Lekin u o‘z xizmatini davom etar ekan, tanasi o‘z ixtiyorida qoldi... Zotan, Chuvalchangdum kamdan kam uchraydigan no‘noq sehrgarlardan biri bo‘lishiga qaramay, amrimni bajarib keldi. Natijada nihoyatda zaif, rudiment[1] holatda bo‘lsam ham tanaga ega bo‘ldim, har qalay. Qayta tug‘ilish uchun zaruriy tarkibiy qismlar topilguncha, bunday tanada o‘zim ixtiro qilgan bir juft afsun va qadrdonim Nagini yordamida muvaqqat qolishim mumkin edi. Yakkashox ot qoni va ilon zahridan tayyorlangan damlama. Yana bir bor Naginiga tashakkur... Ko‘p o‘tmay, o‘zimga deyarli inson qiyofasini qaytara olib, sayohat qilishga yaroqli bo‘lib qoldim.

Voldemort sukut saqlab, o‘ylanib qoldi.

– Falsafiy toshga erishish umidi so‘ndi. Dambldor uni yo‘q qilgani aniq. Biroq mangulik ketidan quvishdan oldin, dastlab oddiy banda hayotiga erishmoq darkor, – davom etdi Voldemort. – Tilak va ehtiyojlarim darajasini pasaytirdim... Bi-rinchi navbatda tana va ilgarigi qudratga erishib olishim kerak. Bugun meni tiriltirgan damlama yovuz kuchlar sehri olamida yaxshi ma’lum. Ushbu damlamani tayyorlash uchun uchta eng muhim tarkibiy qism kerak bo‘lishini bilar edim. Ulardan biri doimo yonimda, to‘g‘rimi, Chuvalchangdum? Xohish-la beril-gan qarol tanasi... Roziliksiz olingan ota suyagi esa tabiiyki, shu yerga, uning mozoriga kelish kerakligini anglatadi. Zo‘rlab olingan dushman qoni-chi... Chuvalchangdum duch kelgan... mendan nafratlanadigan har qanday sehrgarning qonini olishni taklif qilib, xoli-jonimga qo‘ymadi. Axir, mendan jirkanadigan, o‘lgunday nafratlanadigan sehrgarlar juda ko‘p-u, shunday emasmi? Modomiki, men, Yovuz Lord, oldingi holatimdan ham buyuk va yanada dahshatli holatda bosh ko‘tarishni istar ekanman, menga kimning qoni kerakligini yaxshi bilaman. Menga aynan Garri Potterning qoni kerak edi. O‘n uch yil muqaddam mening hukmimga chek qo‘ygan bolaning qoni kerak

[1] **Rudiment**, qoldiq – organizmning evolyutsion taraqqiyoti mobaynida o‘z ahamiyatini yo‘qotgan qismi.

edi menga... Ana o‘shanda, onasi bergan bitmas-tugan-mas himoya mening qon tomirimda jo‘shib oqadi...

Voldemort yana sukut saqlab qoldi.

– Lekin Garri Potterni qanday qilib qo‘lga olaman? Qanchalik puxta muhofaza qilinayotganini o‘zi ham tasavvur qila olmasa kerak! Miyasiga chaqaloqning kelajagini ta’minlash g‘oyasi mustahkam o‘rnashib qolgan Dambldor ushbu himoya tadbirlarini puxta tashkillashtirdi. Buning uchun u qadimiy sehr-jodu kuchini qo‘lladi, ya’ni bola o‘z qarindoshining vasiy-ligida bo‘lar ekan, hamisha xavfsiz qoladi. Shunday ekan, bola yashaydigan manzilga bora olmayman... Kutilmaganda Kvidish bo‘yicha jahon chempionatining final o‘yini o‘tadigan bo‘lib qoldi... Ana o‘sha yerda, qarindoshlari va Dambldordan narida yuradigan bolaning himoyasi zaiflashadi, degan xayolga bordim... Ammo uni olib qochish uchun men hali u qadar kuchli emas edim. Axir uning atrofida vazirlikning bir gala iti izg‘ib yuradi-yu! O‘yin o‘tgach esa bola na «Xogvars»ga, ya’ni o‘sha jirkanch, qayrilma burunli, magllar himoyachisining muho-fazasi ostiga qaytadi. Xo‘sh, bolani qanday qilib qo‘lga olish mumkin?

Voldemort O‘limdan miriquvchilarga qaragancha yana y surib qoldi.

– Qanday qilib? – mulohazasini davom etdi u. – Berta Jorkinsdan olingan bebaho ma’lumotlardan samarali foydalanib, hiyla-nayrang qo‘llagan tarzda, albatta. Olov kubokiga bolaning nomidan ariza tashlashi uchun «Xogvars»ga sadoqatli xizmat-korimni yo‘lladim. U shunday qilishi kerak ediki, bola bellashuv chempioni bo‘lib, portshlyusga aylantirilgan Uch sehrgar bellashuvi Kubogiga qo‘l tekkizishi bilan to‘g‘ri huzu-rimga uchib kelsin... Bu yerda u himoyasiz bo‘ladi... Dambldor-dan ham yordam kelmaydi... Va mana marhamat, siz hukmim barham topishining sababchisi, deb bilgan bola qarshingizda turibdi...

Voldemort Garriga asta yuzlanib, sehrli tayoqchasini ko‘tardi.

– Krusio!

Garrining vujudini qamragan og‘riqni hech narsa bilan

taqqoslab bo'lmaydi. Do'zax harorati ko'zi orqaga tortib ketgan bolaning iligigacha singib kirib, boshi yorilib ketguday og'riyapti. Hozir Garri faqat bir narsani, u ham bo'lsa, bularning bari tezroq tugashini... tezroq hushini yo'qotishini... tezroq o'lishini... istayapti.

Chindan ham qiynoq azobi kutilmaganda barham topdi. Bola ro'parasida yarqiragan bir juft qip-qizil ko'zga allaqanday parda orqali qaragancha, daxmaga bog'langan arqonda jonsiz osilib qoldi. Tungi sukunatda O'limdan miriquvchilarning qahhahasi yangradi.

– Ko'rib turibsizki, ushbu bolakayni «Ismi-Tilga-Olinmaydigan-Kishi»dan kuchli deb topish ahmoqlikning o'zginasidir, – ta'kidlab o'tdi Lord Voldemort. – Birov «Garri Potter baxtli tasodif tufayligina Yovuz Lorddan qochib qutuldi», degan xayolga bormasligi uchun hozir men sizning ko'z oldingizda uning jonini sug'urib olaman. Bu yerda unga yordam beradigan Dambldor ham o'rniga o'ladigan onasi ham yo'q. Biroq qaysi birimiz kuchliroq ekanimiz borasida shubha qilmasligingizni istayman. Binobarin, unga kichik bir imkon beraman. Potterga menga qarshi jang qilishga izn beriladi. Biroz sabr qil, Nagini, – pichirladi u, ochlikdan betoqat bo'layotgan bahaybat ilonga.

Ilon O'limdan miriquvchilar tomon sudralib ketdi.

– Ana endi, Chuvalchangdum, uni yechib, sehrli tayoqchasini qo'liga ushlat.

XXXIV BOB. PRIORI INKANTATEM

Daxmaga siqib bog'langan Garri arqon yechilgan paytda qulab tushmay, yerga tayanib qolish uchun oyog'ini tipirchilatdi. Ro'parasiga kelgan Chuvalchangdum bolaning og'ziga suqilgan lattani sug'urib chiqardi-da, yangi kumush qo'lini bir siltab, arqonni chopib tashladi.

Tushovdan xalos bo'lgan bola juftakni rostlamoqchi bo'ldiyu, lat yegan oyog'i tana og'irligini ko'tara olmay titra-yotgani, yana ustiga, yaqinroq kelgan O'limdan miriquvchilar-ning Garri bilan Voldemortni o'rab olgan halqasi jipslashib, safdagi raxnalar endi yo'qolgani bois harakati zoye ketishini o'ylab, fikridan qaytdi. Chuvalchangdum yerda yotgan sehrli tayoqchani olib, Garrining qo'liga dag'al ushlatib qo'ydi-da, diqqat-la kuzatib turgan O'limdan miriquvchilar safiga borib qo'shildi.

– Duel jangi udumini o'rgatishganmi senga, Garri Potter? – muloyim ohangda so'radi Voldemort, qizil ko'zi qorong'ilikda yarqirab.

Savolni eshitgan Garri ikkinchi sinfda o'qib yurgan kezlarida atigi bir kun faoliyat ko'rsatgan duelchilar klubiga tashrif buyurib, Ekspelliarmus, ya'ni Qurolsizlantirish afsunini o'zlashtirganini oldingi hayotida bo'lib o'tganday esladi. Voldemortni qurolsizlantirishga erishgan taqdirda ham hozir bundan ne foyda? Uni kam deganda o'ttiz nafar O'limdan miriquvchi himoya qiladi. Yo'q, bunday vaziyatda asqatadigan biron narsaga o'rgatishgani yo'q unga. Hozir Garriga qarata ta'sirini muhosara qilib bo'lmaydigan, Xmuri doimo ogoh qilib kelgan O'ldirish qarg'ishi – Avada Kedavra qo'llaniladi. Bola buni yaxshi tushunib turibdi... Voldemort qaysidir ma'noda haq: bu yerda Garriga yordam beradigan Dambldor ham, o'rniga o'ladigan onasi ham yo'q... Ayni vaziyatda u mutlaqo himoyasiz, tanho o'zi qolgan...

– Dastlab biz bir-birimizga ta'zim bajo aylashimiz kerak, Garri, – dedi Voldemort, ilon basharasini yerga qaratmagan,

ko‘zini boladan uzmagan tarzda yengil ta’zim qilib. – Bo‘la qol, Garri, udumlarga amal qilish shart... Dambldor boadabligingni ko‘rsa, rosa xursand bo‘lar edi, albatta... O‘z ajalingga ta’zim qil deyapman, Garri...

O‘limdan miriquvchilar xandon otishdi. Voldemortning labsiz og‘zi ham burishdi. Garri ta’zim qilmadi. Yo‘q, mushukning qo‘liga tushgan sichqon kabi masxara bo‘lmoqchi emas u... Bunday xushvaqtlikni Voldemortga havola qilib qo‘ymaydi...

– Ta’zim qil, dedim... – vishilladi Voldemort, sehrli tayoqchasini siltab.

Garri o‘zi xohlamasa-da, ko‘zga ko‘rinmas qo‘l yuqoridan kuchli bosganday umurtqasi bukilayotganini his etdi. O‘limdan miriquvchilar kulaverib qorin ushlashdi.

– Juda yaxshi, – maqtadi Voldemort, tayoqchasini yuqoriga ko‘tarish barobarida bolani yuklamadan xalos etib. – Ana endi ikkalamiz bir-birimizga, erkak erkakka yuzlangan kabi yuzlanamiz... Qaddingni rostla, Garri, otang o‘z ajaliga tik qaragani kabi ko‘kragingni viqor-la kerib tur... Yaxshi, ana endi duel boshlasak bo‘ladi.

Voldemort tayoqchasini asta siltadi. Garri himoyalanish u yoqda tursin, qilt etishga ulgurmay vujudi Qiynoqqa solish qarg‘ishining ta’siridan zir titradi. Og‘riq shu qadar kuchli, shu qadar chuqur singib kechmoqdaki, bola qayerda ekanini umuman idrok etmay qoldi... tanasiga minglab qizdirilgan shamshirlar suqilganday bo‘ldi... boshi bu gal yorilishi aniq... Garri hali bunday chinqirmagan...

Og‘riq, qanday paydo bo‘lgan bo‘lsa, shunday barham topdi. Vujudi, Chuvalchangdum o‘z qo‘lini o‘zi chopib tashlashidan oldin qanday titragan bo‘lsa, shunday titramoqda. Bolaning qoqinib ketayotgan oyog‘i devorday yaxlit turgan tomoshabinlar tomon g‘ayriixtiyoriy ravishda odimladi. O‘limdan miriquvchilar esa uni Voldemort tomon itarishdi.

– Tanaffus e’lon qilamiz, tanaffus... – huzur-la burun ishirdi Voldemort. – Joning og‘ridimi, Garri? Yana takror-lashimni istaysanmi?

Garri indamadi. O‘z qismatini bir juft shafqatsiz qizil ko‘zda ko‘rmoqda... o‘ladi, Sedrik kabi o‘ladi... ammo o‘lim oldidan jirkanch Voldemortga mayna bo‘lmoqchi emas. Hech qachon uning izmiga yurmaydi! Hech qachon!... Shafqat so‘rab o‘tinmaydi, yalinib-yolvormaydi! Hech qachon!

– Senday so‘rayapman, yana takrorlaymi, yo‘qmi? – pichirladi Voldemort. – Javob ber! Imperio!

Garri hayotida ikkinchi bor vujudini qandaydir g‘alati tuyg‘u qamrab olib, fikr-xayoli uzoqlarga ketib qolayotganini his etdi. Naqadar yaxshi... hech narsani o‘ylamaslik... Tushida qayoqqadir uchib ketayotganday go‘yo.

Xayol o‘tmay miyasida, ongining uzoq burchagida ovoz eshitildi:

– «Yo‘q», de... «Yo‘q» de... «Yo‘q» de...

Miyasining yanada chuqurroq joyidan sarkashlik qilayotgan boshqa ovoz eshitildi:

– Aytmayman.

– «Yo‘q», de...

– AYTMAYMAN!

So‘nggi so‘zni Garri shu qadar qattiq baqirib aytdiki, butun qabristonda aks sado bo‘lib eshitildi. Xuddi bir chelak suv sepib yuborishganday, Qaram qilish qarg‘ishining mast qiladigan ta’siri bir zumda barham topib, hozirgina qo‘llanilgan Qiynoqqa solish qarg‘ishining asorati yana sezildi. Bola qayerda, kimlarning orasida turgani, uni nima kutayotganini yana idrok etdi...

– Aytmaysanmi? – xotirjam so‘radi Voldemort. – Demak, «Yo‘q» demaysan, shundaymi?

O‘limdan miriquvchilar bu safar kulmasdan, jiddiy turishibdi.

– Itoat – yaxshi xislatdir, Garri, – davom etdi Voldemort. – O‘limingdan oldin tabiatingda, ushbu fazilatni shakllantirib qo‘ymoqchiman... Aftidan, buning uchun yana bir kattagina doza qo‘llashga to‘g‘ri keladi, shekilli...

Voldemort tayoqchasini ko‘tardi, biroq Garri bu safar

harakatga shay. Kvidish o'yinlarida shakllangan refleks[1] sababli bo'lsa kerak, bola shu zahoti yerga tashlanib, zudlik bilan qabr toshining ortiga yumalab o'tdi. Qiynoqqa solish qarg'ishining yashini zarbidan daxma darz ketdi.

– Yanglishib ketding chog'i, Garri, – dedi sira hovriqmay yaqinlashgan sovuq ovoz. – Biz bekinmachoq o'ynayotganimiz yo'q.

O'limdan miriquvchilar yana xandon otishdi.

– Mendan bekina olmaysan, Potter. Bunday xulqingni duel jangidan charchaganing sifatida tushunish kerakmi? Seni qiynamay, tezroq o'ldirishimni istaganingmi, bu? Chiq, Garri... bu yoqqa chiq, davom etamiz... Endi ko'p vaqtingni olmayman... Balki, joning ham og'rimas... bilmadim, o'lib ko'rganim yo'q...

Garri, kuni bitganini anglab, qabr toshi ortida guvala bo'lib oldi. Umid yo'q... Biror joydan najot kelmaydi... Biroq tobora yaqin kelayotgan Voldemortning qadam tovushiga quloq solar ekan, Garrining vujudini qo'rquvdan ham, sog'lom aqldan ham kuchliroq hissiyot qamradi. U chindan ham bekinmachoq o'ynayotgan yosh bolaga o'xshab mana bu daxma ortida, Voldemortning oyog'i ostiga yiqilib, tiz cho'kkan holatda o'lib ketmoqchi emas... Bir boshga bir o'lim... U o'z otasi singari ajal yuziga tik qarab o'ladi. Foydasi bo'lmasa-da, o'zini himoya qiladi...

Voldemortga daxma ortiga o'tishga yo'l qo'ymagan Garri, sehrli tayoqchasini oldinga uzatib, mahkam ushlagancha, qaddini rost tutib dushman qarshisida hozir bo'ldi. Shu zahoti Garrining «Ekspelliarmus» qichqirig'i bilan bir vaqtda hamlaga shay bo'lib kelayotgan Voldemortning «Avada Kedavra»si yangradi.

Ikkala tayoqchadan yashin otildi. Voldemortning yashil, Garrining qizil yashinlari havoda to'qnash keldi. Daf'atan Garrining tayoqchasi xuddi elektr tokining qudratli oqimi o'tganiday qattiq titray boshladi. Bolaning qo'li tayoqchaga mahkam yopishib qoldi. Endi tayoqcha Garrining qo'lidan, o'zi

[1] **Refleks** – tirik organizmning tashqi ta'sirga javoban beixtiyor ko'rsatadigan munosabati.

istagan taqdirda ham chiqib ketmasligi aniq. Ikkala tayoqchani ingichkagina nur rishtasi birlashtirdi. Ushbu nur yashil ham emas, qizil ham emas. U qandaydir tilla tus kasb etgan. Voldemortning uzun, oppoq barmoqlari ham titrayotgan tayoqchasiga mahkam yopishib qolgan.

Keyingi holatni Garri mutlaqo kutmagan, unga tayyor ham bo'lmagan. Bolaning oyog'i to'satdan yerdan uzildi. Allaqanday noma'lum kuch Yovuz Lord ikkalasini, tayoqchalarini birlashtirib turgan nur rishtasini uzmagan tarzda, Voldemortning otasi dafn etilgan qabr uzra havoga ko'tarib, qabr toshlaridan xoli bo'lgan keng maydonga olib o'tdi... Voldemort bilan Garrini qurshab, yana halqa hosil qilish uchun yugurib kelgan O'limdan miriquvchilar baqir-chaqir ko'targancha, sohibdan qanday ish tutishni so'rashmoqda. Ularning aksariyati sehrli tayoqchalarini qo'lga olishgan... Bahaybat ilon ham ularning yaqinida o'rmalab yuribdi...

Daf'atan tilla tusli nur tilimlarga bo'linib, sehrli tayoqchalar nur rishtasi vositasida bog'angancha qoldi. Yorug'lik tilimlari bir-biri bilan kesishib, baland ko'tarilgan minglab tilla arkalarga o'xshadi. Ko'p o'tmay jang qilayotgan ikkala raqib o'rgimchak inini eslatadigan oltin gumbaz ostida qoldi. Nurdan hosil bo'lgan ushbu qafas tashqarisida O'limdan miriquvchilar ayyuhannos solib, shaqallar kabi gir aylanishmoqda... Ularning o'kirib yig'lashlari bazo'r eshitilmoqda.

– Hech nima qilmang! – baqirdi Voldemort malaylariga.

Garri Voldemortning sarosimaga tushib qolgani, tahayyur ko'zi katta ochilgani, sehrli tayoqchalarni bog'lagan nur rishtasini uzishga urinayotganini ko'ri. Bola tayoqchasini ikkala qo'li bilan mahkam ushlab, nurning uzilishiga yo'l qo'ymadi.

– Buyrug'imni kuting! Hech nima qilmang! – yana baqirdi Voldemort o'z ko'ppaklariga.

Shu payt havoda qandaydir ilohiy musiqa yangradi... ushbu kuy gumbaz hosil qilgan nur tilimlaridan chiqmoqda. Garri bunday tovushni hayotda bir martagina eshitgan bo'lsa ham, darhol tanidi... Bu qaqnus xonishi...

Qush xonishi Garriga kuch va umid bag‘ishladi... Hayotida bunday benazir, bunday yoqimli kuyni eshitmagan. Nazarida, musiqa tashqarida emas, uning ich-ichida yangramoqda... Mo‘jizador tovush orqali Garri Dambldor bilan bog‘langanini, uning do‘stona ohangda pichirlab: «*Nurni uzib yuborma*», deya bergan maslahatini eshitganday bo‘ldi. «*Bilaman*, – javob berdi Garri. – *Uzmaslik kerakligini sezib turibman*». Biroq lorsillayotgan tayoqchani tutib turish ham tobora qiyinlashib bormoqda. Kutilmaganda Garrini Voldemort bilan bog‘lagan nurda o‘zgarish ro‘y berdi... Nur bo‘ylab yirik yorug‘lik marjonlari harakatlana boshlab, Garri tomon dumalab kelmoqda. Bola sehrli tayoqchasi qo‘ldan otilib chiqishga urinayotganini his etdi... Garrining nazarida, tayoqchasining jahli chiqib, Voldemort tomondan taralayotgan nurga sarkashlik qilmoqda.

Yaqinlashib kelayotgan yorug‘lik marjoni Garrining tayoqchasiga tegishiga oz qolganda yog‘och shu qadar qizib ketdiki, go‘yo hozir o‘t oladi. Marjon qanchalik yaqin kelsa, tayoqcha shunchalik kuchli titramoqda. Marjon bilan to‘qnash keladigan tayoqcha bardosh bera olmay parchalanib ketishiga Garri shubha qilmadi...

Bola bor kuchini yig‘ib, yorug‘lik marjonini ortga, Voldemort tomon qaytarishga sarfladi... Qulog‘iga qaqnus xonishi eshitilib, bir joyga jamlangan nafrat yosh qalbida jo‘sh urmoqda... Jarayon uzoq, nihoyatda uzoq kechdi. Marjonlar biroz titrab, oxiri to‘xtadi... so‘ng sekin-asta ortga, Voldemort tomon qayta boshladi... Endi raqibning tayoqchasi kuchli titray boshla-di. Yovuz Lord dovdirab, ko‘zida qo‘rquv ko‘rindi...

Birinchi marjon Voldemort tayoqchasining uchiga yetib borishiga bir-ikki dyum qoldi. Garri nima qilayotgani, nimaga erishmoqchi bo‘lganini o‘zi bilmaydi, lekin jamiki irodasini, diqqat-e’tiborini jamlab, yorug‘lik marjonini Voldemortning tayoqchasiga turtib kiritishga ahd qildi. Marjon tilla tusli nur rishtasi bo‘ylab asta harakatlanib, nihoyat Voldemortning tayoqchasiga singib ketdi...

Shu zahoti Voldemortning tayoqchasidan odamlarning

dahshat va og'riqdan baqirayotgan ovozlari yangradi. Qo'rqib ketgan Yovuz Lordning qip-qizil ko'zi yanada katta ochilib ketdi. Uning tayoqchasidan dastlab qo'l shaklidagi yarim shaffof, surmarangli bulutcha chiqib, havoda tarqadi... Yana og'riq azobidan qichqirayotgan odamlar ovozi eshitildi... Bu safar Voldemortning tayoqchasida qandaydir kattaroq, kulrang, tutundan yaralgan narsa ko'rindi... odam boshi... ko'kragi, qo'li... tanasi chiqib kelmoqda... axir bu, Sedrik Diggori-yu!

Agar Garri tayoqchasini qo'ldan chiqarib yuboradigan bo'lsa, bunday holat hozir ro'y berishi kerak edi. Ammo bolaning ayni paytdagi his-tuyg'usi tayoqchani mahkam ush-lashga majbur qilib, nur rishtasini uzmay, butun saqlab qoldi. Sedrikning qalin kulrang arvohi, garchi tanasi zich bo'lganidan uni arvoh deyish qiyin kechsa-da, o'zini o'zi siqib chiqargandek tayoqchaning tor tunnelidan[1] xalos bo'lib, qaddini rost tutib olgancha, tilla tusli nur rishtasiga diqqat bilan qaradi.

– Bardam bo'l, Garri, – dalda berdi u.

Diggorining ovozi uzoqdan, aks sado bo'lib eshitildi. Garri Voldemortning turqiga e'tibor berdi. Yovuz Lordning qo'rquvdan tong qotgan qiyofasi basharasida, qip-qizil ko'zida saqlangan. U ham Garri kabi bunday holat ro'y berishini mutlaqo kutmagan... Vahima bosib, zir yugurayotgan O'limdan miriquvchilarning qichqiriqlari tilla gumbaz ichida bazo'r eshitilmoqda...

Voldemortning tayoqchasidan odamlarning dahshat va og'riqdan baqirayotgan ovozlari eshitildi... Tayoqchaning tor tunnelidan yana kimningdir arvohi xalos bo'lib chiqmoqchi... odam boshi... ko'kragi, qo'li... butun tanasi... Bu o'sha, Garrining tushiga kirgan cho'loq qariyaning arvohi! Cholning hassaga tayangan arvohi Sedrikning arvohi yoniga kelib, dam Garriga, dam Voldemortga, dam tilla gumbazga, dam nur rishtasi ila birlashib qolgan sehrli tayoqchalarga hayrat-la qarab chiqdi.

– Demak, mana bu iflos chindan ham sehrgar ekan-da? –

[1] **Tunnel** (*inglizcha:* tunnel – quvur) – transport yurishi, suv o'tishi, kommunikatsiyalar joylashishi va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan, yotiq yoki qiya joylashgan yer osti yoki suv osti sun'iy inshooti.

xulosa qildi qariyaning arvohi Voldemortga qarab. – Mana shu maraz o'ldirdi meni, shu mening qotilim. Bo'sh kelma, yigit-cha. Adabini ber bu yaramasni...

Sehrli tayoqcha ichidan yana bir odamning boshi ko'rindi. Kulrang marmar rangini eslatadigan ushbu arvoh ayol kishining arvohi ekan. Ikkala qo'li kuchli titragancha, tayoqchani mahkam ushlagan Garri yerga qulab, oyoqqa turgan ayol qolgan arvohlarning yoniga uchib o'tganini ko'rdi. Hayratdan ko'zi katta ochilgan Berta Jorkinsning arvohi ham Garriga dalda bera boshladi.

– Qo'yib yuborma, qo'yib yuborma! – qichqirdi u, ovozi Sedrikning ovozi kabi uzoqdan eshitilib. – Taslim bo'lma, bolakay, qo'yib yuborma!

Uchala arvoh tilla qafas devori bo'ylab yurmoqda. Tashqarida esa O'limdan miriquvchilarning oyog'i kuygan tovuq kabi u yoq bu yoq yugurayotgan sharpalari ko'rinmoqda. Atrofni Voldemort o'ldirgan odamlarning pichir-pichirlari qamradi... ular Garriga dalda berish barobarida qotilga, bola eshita olmagan allanima deyishmoqda.

Mana, yana kimningdir arvohi Voldemortning sehrli tayoqchasidan chiqib, xalos bo'lmoqchi. Bu kimning arvohi bo'lishi mumkinligini Garri fahmlaganday bo'ldi... Sedrikning arvohini tanigach, shu kishining arvohini kutayotgan edi. Bola bugun uni ko'p marta eslagan...

Sochi to'zg'igan baland bo'yli kishining arvohi Bertaning xatti-harakatini takrorladi. Yerdan ko'tarilishi bilan Garriga yuzlandi. Zo'riqayotgan, qo'li hayajondan dag'-dag' titrayotgan bola dadasining xayoliy yuziga qaradi.

– Oying hozir chiqadi, – dedi ota xotirjam. – U seni ko'rmoqchi... Qo'rqma, o'g'lim, hammasi yaxshi bo'ladi.

Ana, oyisi ham ko'rinish berdi... boshi... ko'krak qafasi, qo'li... tanasi. Lili Potterning ko'kish tusli arvohi Voldemortning tayoqchasi ichidan gullab chiqib, yerga tushdi. So'ng o'rnidan turib erining yoniga bordi. Sng Garrining yoniga kelib, qo'rqayotganidan oq yuzi ko'karib ketgan Voldemortga eshittir-

magan tarzda, qolgan arvohlarning ovozi kabi uzoqdan eshitilgan ovozda pichirladi:

– Nur rishtasi uzilgan fursatdan e'tiboran biz bir necha soniya davomidagina qolishimiz mumkin... lekin ushbu vaqt senga portshlyus yoniga yetib borish uchun yetarli bo'ladi. Portshlyus seni «Xogvars»ga eltadi. Gapimni tushundingmi, Garri?

– Tushundim, – bazo'r javob qaytara oldi Garri, kuchli siltanayotgan tayoqchani qo'lidan chiqarib yubormaslikka jon-jahd ila harakat qilib.

– Garri, – pichirladi Sedrikning arvohi, – mening jasadimni ham o'zing bilan olib ket, xo'pmi? Uni ota-onamga topshir, iltimos...

– Albatta, – va'da berdi Garri, zo'riqishdan burishib.

– Tayyorlan, – pichirladi dadasining ovozi. – Rishta uzilishi bilan yugur... qani, boshladik...

– Hozir! – qichqirdi Garri, biror soniya ham ortiq bardosh bera olmasligini his etib.

Bola sehrli tayoqchasini yuqoriga kuch bilan ko'tardi. Tilla tusli nur rishtasi uzildi, yorug'lik gumbazi gum bo'ldi, qaqnus xonishi tindi. Faqat arvohlargina qolib, Voldemortni qurshab olgancha, yo'lini to'sishdi.

Garri hayotida hali bunday tez yugurmagan. Sochib tashlash afsuni vositasida ikki nafar O'limdan miriquvchini har tomon uloqtirib, qabrlar orasida ilon izi yugura ketdi. Unga qarata qo'llanilgan qarg'ishlarning yashinlari qabr toshlariga urilmoqda. Oyog'i lat yeganini unutib, yagona maqsadni ko'zlagan bola daxmalar orasida ilang-bilang yugurgancha, Sedrikning jasadi tomon oshiqmoqda.

– Urib yiqiting uni! – o'kirdi Voldemort.

Sedrikning jasadigacha o'n futcha masofa qoldi. Garri marmar malak ortiga o'tishi bilan yonidan qizil yashin uchib o'tib, malak qanotining uchini sindirib yubordi. Garri tayoqchasini mahkam tutgancha, tosh malak panasida yugura ketdi...

– Impedimenta! – o'kirdi u, deyarli quvib yetgan O'limdan

miriquvchiga qarata.

Eshitilgan baqiriqqa qaraganda uning To‘sqinlik qarg‘ishi nishonga tekkan. O‘girilib qarashga vaqt yo‘q. U Kubok tomon sakrab, orqa tomondan yangragan zalplarni eshitishi bilan engashib oldi. Shu zahoti uning boshi uzra yorug‘lik zaryadlari uchib o‘tdi. Garri yerga yotib olib, qo‘lini Sedrikning qo‘li tomon uzatdi...

– Nari turing! O‘zim! O‘zim o‘ldiraman uni! U meniki! – chiyilladi Voldemort.

Garri Sedrikning qo‘lini mahkam changalladi. Allaqanday qabr toshi uni Voldemortdan to‘sib turibdi. Sedrikning jasadi shu qadar vazminki, Kubok tomon torta olmayapti.

Zulmat ichra bir juft qip-qizil ko‘z paydo bo‘ldi. Garri tayoqchasini ko‘tarayotgan Voldemortning og‘zi irshayib burishganini ko‘rdi.

– Assio! – o‘kirdi Garri, tayoqchasini Uch sehrgar bellashuvining Kubogiga o‘qtab.

Kubok havoga ko‘tarilib, to‘g‘ri Garri tomon uchib keldi. Bola Kubokning dastasini mahkam ushlashi bilan Voldemortning darg‘azab baqirganini eshitdi. Shu zahoti nimadir Garrini kindigidagi halqadan tortib ketganday bo‘ldi. Portshlyus ishga tushdi. Kubok uni Sedrikning jasadi bilan birga yuqoriga, shamol va rang-barang dog‘lar girdobiga tortib ketdi.

XXXV BOB. IQROR QILISH DAMLAMASI

Butun tanasi bilan yerga tushgan Garrining dimog'i maysa hidiga to'ldi. Parvoz davomida chirt yumgan ko'zini ochmay, qilt etmay yotdi. Kema palubasida chayqalayotgan kabi boshi aylanib, nafas olishga qylanmoqda. Chayqalishni biroz sekinlatish uchun Uch sehrgar bellashuvining Kubogi bilan Sedrikning qo'lini mahkam ushlab olgan. Ularni qo'yib yuborguday bo'lsa, tobora qalinlashayotgan zulmatning tubsiz qa'riga tushib ketadi go'yo. Lohaslik va ruhiy larza o'rnidan turishga to'sqinlik qilmoqda. Maysaning hidini his etib yotgancha, nimadir ro'y berishini kutmoqda... chandig'ining og'rishi hech qolmayapti...

Kutilmaganda yangragan ayyuhannos bo'roni, yaqin oradagi odamlarning dupur-dupuri, hayqiriqlari bolaning qulog'ini kar qilib, xayollarini chalkashtirib yubordi. Battar azob berayotgan ushbu alog'-chalog' tugashi, shovqin tinishini kutib, yuzini burishtirib olgan Garri qilt etmadi. Nihoyat kimdir uni mahkam ushlab, beliga ag'dardi.

– Garri! Garri!

Bola ko'zini ochib, yulduzli osmonni ko'rdi. Birozdan so'ng ustiga engashgan kishi Albus Dambldor ekanini asta idrok eta boshladi. Atrofda yurgan sharpalarning bosgan qadamlaridan yer larzaga kelib, Garrining boshini battar og'rityapti. Bola labirint chetida yotgani, asosiy buta devor yonidagi namoyishgohlar baland ko'tarilgani... yulduzlarni asta farqlay boshladi.

Garri Kubokni qo'yib yubordi-yu, Sedrikning qo'lini mahkam siqdi. Bo'shagan qo'lini ko'tarib, yuzi dam chaplashib, dam aniq ko'rinayotgan Dambldorning bilagini g'ippa bo'g'di.

– U qaytdi, – pichirladi Garri. – Qaytdi. Voldemort qaytdi.

– Nima gap? Nima bo'ldi? – so'radi kimdir.

Garrining ustida Kornelius Fujning bo'zday oqarib, esankirab qolgan yuzi ko'rindi.

– Ey Xudoyim... Diggori! – pichirladi Fuj. – Dambldor! Yigitcha o'lib qolibdi-yu!

Vazirning og'zidan chiqqan ushbu jumla birinchi qatorda

siqilib turganlar tomonidan orqada turganlarga takrorlandi. Orqada turganlar esa o‘z navbatida, qorong‘ilikka baqirishmoqda: «O‘libdi!», «O‘libdi!», «Sedrik Diggori! O‘lib qolibdi!»

– Garri, qo‘yib yubor uni, – eshitildi Fujning ovozi.

Kimdir barmoqlarini bo‘shatishga urinayotganini his etayotgan Garri Sedrikning jonsiz bilagini yanada mahkam siqib oldi. Shunda uning yuziga Dambldorning tumanda chap-lashib ketayotgan yuzi yaqin keldi.

– Garri, endi unga yordam bera olmaysan. Hammasi tamom bo‘ldi. Qo‘yib yubor uni.

– U jasadini o‘zim bilan olib ketishimni iltimos qildi, – g‘udulladi Garri. – Ota-onasiga topshirishimni so‘radi...

– Tushundim, Garri... endi qo‘yib yubor...

Dambldor egilib, ozg‘in, keksa kishiga mutlaqo xos bo‘lmagan kuch bilan Garrini dast ko‘tardi-da, oyog‘iga qo‘ydi. Garri tebranib ketdi. Kimdir uning boshiga bolg‘a urib, danak chaqayotganday bo‘lmoqda. Lat yegan oyog‘i tanasini ko‘tarishni inkor etyapti. Atrofdagi odamlar bir-birini turtgani-turtgan: «Nima bo‘ldi?», «Nima gap?», «Unga nima qilibdi?», «Diggori o‘libdi?!»...

– Bolani kasalxonaga eltish kerak! – baqirdi Fuj. – U yaralangan. Aytganday, Dambldor, Diggorilar shu yerda, namoyishgohda...

– Men Garrini olib ketaman, Dambldor, olib ketaman... – dedi kimdir.

– Yo‘q, u shu yerda, yonimda bo‘lishini afzal ko‘rgan bo‘lar edim... – ko‘nmadi Dambldor.

– Dambldor, Amos Diggori kelyapti... – dedi Fuj. – Ana u, yaqinlashib qoldi... Ko‘rguncha ogohlantirib, tayyorlab qo‘ygan ma’qulmi, deyman?...

– Garri, hech qayerga ketmay, shu yerda tur... – dedi Dambldor.

Qizlarning jazavasi tutib, ho‘ngray boshlashdi... Garrining ko‘ziga hamma narsa tezlashtirilgan tarzda namoyish etilayotgan filmga o‘xshab ko‘rinmoqda...

– Hammasi joyida, o‘g‘lim, seni ushlab turibman... – dedi

kimdir. – Yur... kasalxonaga boramiz...

– Dambldor shu yerda turishimni tayinladi, – mubham g'udulladi Garri.

Chandig'ining to'xtab-to'xtab tutayotgan og'rig'i bolani ko'rish imkoniyatidan mahrum etmoqda. Nazarida, hozir u qayt qilib yuboradi.

– Hozir sen tinch yotishing kerak... – dedi birov. – Yur, ketdik... yura qol...

O'takasi yorilguday holatga kelgan olomon orasida qo'pol harakatlanib o'ziga yo'l ochgan qandaydir yirik, kuchli odam Garrini yarim ko'tarib, yarim sudrab ketdi. Bolaning qulog'iga xaloyiqning oh-vohi, baqir-chaqiri, chinqirishi chalinmoqda. Ko'p o'tmay u maysazordan, ko'l sohili bo'ylab yurib, «Durmshtrang» kemasi yonidan o'tayotganini idrok etdi. Endi Garri yurishga yordamlashayotgan kishining og'ir nafasidan tashqari, hech nimani eshitmayapti.

– Nimalar bo'ldi, Garri? – so'radi qasrga yetaklab kelayotgan kishi, bolani asosiy kirish eshigining zinasidan deyarli ko'tarib chiqib.

Garri yog'och oyoqning taqir-tuqur qilishidan bu kishi O'ynoqko'z Xmuri ekanini bazo'r fahmladi.

– Kubok aslida portshlyus ekan... Sedrik ikkalamiz allaqanday qabristonga borib tushdik... – asta tushuntira boshladi Garri, vestibul orqali o'tishar ekan. – U yerda esa bizni Voldemort qarshi oldi... Lord Voldemort...

– Lord Voldemort deysanmi? Xo'sh, keyin nima bo'ldi? – so'rog'ini davom etdi Xmuri, marmar zinadan ko'tarilib.

– Sedrikni shu zahoti o'ldirishdi... ular Sedrikni halok qilishdi...

– Keyin-chi? – so'radi Xmuri yo'lak bo'ylab yurib.

– Allaqanday damlama tayyorlandi... va u, o'z tanasiga ega bo'ldi...

– Yovuz Lord o'z tanasiga ega bo'ldi? U qayta tug'ildimi?

– O'limdan miriquvchilar havoda paydo bo'lib kelishdi... Keyin u, men bilan duel jangini boshladi...

– Sen Yovuz Lord bilan jang qildingmi?

– Men qutulib qoldim... Sehrli tayoqcham... allaqanday karomat ko‘rsatdi... men tushunmadim. So‘ng ota-onamni ko‘rdim... hammasi Voldemortning tayoqchasidan chiqib keldi...

– Bu yoqqa kir, Garri... Hozir hammasi joyida bo‘ladi, o‘tir... Hammasi joyida bo‘ladi... Ma, mana bundan xo‘plab ol...

Garri eshik qulflanganini eshitib, og‘ziga chashka keltirilganini sezdi.

– Ich... o‘zingni ancha yengil his etasan... Dadilroq gapir, Garri, nima bo‘lganini men aniq bilishim kerak...

Xmuri Garriga suyuqlik ichishga yordamlashib yubordi. Bolaning tomog‘ini achchiq qalampir ta’mi kuydirib o‘tdi. Garri yo‘talib, ko‘ziga xona manzarasi ham, rangi Fujning rangidan farq qilmay qolgan Xmuri ham aniqroq ko‘rina boshladi... Professor ikkala ko‘zini ham Garrining yuziga qaratgan.

– Demak, Garri, Voldemort qaytdi degin? Qaytganiga ishonching komilmi? Bunday ishning uddasidan qanday chiqdi u?

– U otasining qabri, Chuvalchangdum va mendan damlamaning tarkibiy qismlarini oldi, – tushuntirish berdi Garri.

Bolaning fikrlari oydinlasha boshladi, chandig‘ining og‘rig‘i tina boshadi, garchi xona qorong‘i bo‘lsa-da, Xmurini aniq ko‘ra oldi. Kvidish maydonida qolgan xaloyiqning baqir-chaqiri esa bazo‘r eshitilmoqda.

– Yovuz Lord sendan nima oldi?

– Qon oldi, – javob berdi Garri.

Bola korjomasining yengidagi Chuvalchangdum shamshir suqib teshgan joyni ko‘rsatdi. Buni ko‘rgan Xmuri hushtak ohangida uzoq nafas chiqardi.

– O‘limdan miriquvchilar ham paydo bo‘lishdi, degin?

– Ha, – bosh irg‘idi Garri. – Ular juda ko‘pchilik edi.

– Voldemort ularga nisbatan qanday chora ko‘rdi? – past ovozda so‘radi Xmuri. – Afv etdimi ularni?

Birdan Garrining esiga Dambldorga yetkazish kerak bo‘lgan nihoyatda muhim gap tushdi. Zudlik bilan xabardor qilish kerak uni...

– «Xogvars»da O‘limdan miriquvchi bor! U hozir shu

yerda, maktabda. Mening nomimdan yozilgan arizani ham Olov kubokiga o'sha tashlagan. G'olib chiqishimni uyushtirgan ham o'sha...

Garri o'rnidan turmoqchi bo'ldi-yu, Xmuri uni turtib, o'rniga o'tqizib qo'ydi.

– Men taniyman o'sha O'limdan miriquvchini, – xotirjam ohangda ma'lum qildi u.

– Karkarovmi? – baqirib so'radi Garri. – Qani u? Qo'lga oldingizmi? Qamab qo'ydingizmi?

– Karkarov? – g'alati xandon otdi Xmuri. – Karkarov bugun tunda, qo'lidagi Ajal belgisi achishayotganini his etgan zahoti quyonning rasmini chizib ketdi. Yovuz Lordning ko'plab izdoshlarini sotgani bois o'z sohibi bilan uchrashishga qo'rqadi... Umuman aytganda, u hech qayoqqa qochib qutula olmaydi. Dushmanni ta'qib qilish masalasida Yovuz Lordga teng keladigan kishi topilmagan hali.

– Karkarov qochib ketdi? Bundan chiqdi, Olov kubokiga mening nomimdan yozilgan arizani u tashlamagan ekan-da, a?

– Yo'q, – asta javob berdi Xmuri. – Yo'q, u emas. Arizani men tashlaganman.

Garri aniq eshitdi-yu, ishonmadi.

– Yo'q, siz emas, – bosh chayqadi u. – Siz emas... Siz unday qila olmaysiz...

– Bu ishni men qilganman, ishonaver.

Xmurining sehrli ko'zi chanog'ida aylanib, eshikka tikilgancha, tek qotdi. U tashqarida hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilmoqchi ekanini Garri tushundi. Ayni vaqtda professor sehrli tayoqchasini chiqarib, Garriga o'qtadi.

– Demak, ularni afv qilibdi-da? – g'udulladi u. – Ozodlikda yurgan, Azkabanda biror kun ham o'tirmagan O'limdan miriquvchilarni-ya?

– Nima?

Garri o'ziga o'qtalgan tayoqchaga qarab, hech narsani tushunmadi. Qandaydir ahmoqona hazildan o'zga narsa emas bu.

– Sendan yana bir bor so'rayapman. Uni qidirib topishga urinib ham ko'rmagan anavi ablahlarni kechirdimi? – dona-dona

qilib takrorladi Xmuri. – O‘z sohibi uchun Azkabanga qamalishga yuragi betlamagan qo‘rqoq va xoinlarni afv etdimi? Biron ishga yaramaydigan, o‘z maslagidan qaytgan ablahlarni, kubok finalida niqob taqqancha irg‘ib yurishga sullohligi yetgan-u, Ajal belgisini yaratishim bilan tum-taraqay bo‘lgan marazlarni kechirdimi?

– Siz yaratdingiz... nimalar deyapsiz?

– Aytgan edim senga, Garri, aytgan edim... Bu yorug‘ olamda men nafratlanadiganlar – ozodlikda yurgan O‘limdan miriquvchilar, degan edim. Sohib yordamga muhtoj bo‘lgan paytda, hammasi undan yuz o‘girdi. Sohib ularni jazolashini, qiynoqqa solishini kutgan edim. Ayt menga, Garri, ularning jonini og‘ritdi, deb ayt...

Xmurining yuzida aqldan ozgan kishining kulgisi paydo bo‘ldi.

– Tanho o‘zim sodiq qolganimni sohib aytdimi ularga, yo‘qmi, Garri?... Bu yorug‘ olamda uning yagona istagini... seni yetkazib berish uchun o‘z hayotimni qurbon qilishga tayyorligimni aytdimi, yo‘qmi?...

– Yo‘q, siz emas... Siz unday qila olmaysiz...

– Boshqa maktab vakili sifatida ko‘rsatib, sening nomingdan yozilgan arizani Olov kubokiga tashlagan kim? Men. Senga ziyon yetkazib, bellashuv chempioni bo‘lishingga xalal berishi mumkin bo‘lganlardan muhofaza qilib yurgan kim? Men. Ajdarlarni senga ko‘rsatish kerakligini Xagridga maslahat bergan kim? Yana men. O‘sha ajdarni faqat bir usul bilan yengish mumkinligiga shama qilgan kim? Men, men, men.

Xmuri eshikni qo‘yib, sehrli ko‘zi ila Garriga qaradi. Qiyshiq og‘zi xunuk kulgidan katta ochildi.

– Seni sinovlardan muvaffaqiyatli olib o‘tib, hech kimda shubha tug‘dirmaslik u qadar oson kechgani yo‘q, Potter. Ketmaket qozongan g‘alabalaring ortida mening qo‘lim borligini sezdirib qo‘ymaslik uchun anchagina hiyla ishlatishga to‘g‘ri keldi. Barcha sinovlardan oson o‘tadigan bo‘lsang, turgan gapki, Dambldor qandaydir noxushlik kechayotganini fahmlab qoladi. Labirintga imkon qadar muayyan imtiyozlarga ega bo‘lgan holda

kirsang boshqa chempionlikka da'vogar-lardan qutulish, yo'lingni ulardan tozalash mumkinligini bilar edim. Menga uchragan ko'plab muammolarni hal etib borishdan tashqari, Potter, sening befarosatligingga qarshi ham kurash olib borishga ham to'g'ri keldi. Ikkinchi musobaqa... ana o'sha kunlari yutqazib qo'yishimiz mumkinligidan xavfsirab yurgan edim. Seni muttasil kuzatib yurdim, Potter. Tilla tuxum jumbo-g'ini hal eta olmay yurganingni bilar edim. Binobarin senga yana shama qilishga to'g'ri keldi...

– Siz shama qilganingiz yo'q, – xirillab e'tiroz bildirdi Garri. – Sedrik aytdi menga...

– Boyadan beri qulog'ingga tambur chalyapmanmi, Potter? Ushbu ishlar ortida mening qo'lim borligini sezdirib qo'ymaslik uchun hiyla ishlatishga to'g'ri keldi, dedim-u senga! Tilla tuxumni suv ostida ochish kerakligini o'sha kaltafahm Sedrikka men aytganman! Men! Bu gapni senga yetkazishiga esa zig'ir-day bo'lsin, shubha qilganim yo'q. Eslab qol, Potter, halol, pok, vijdonli odamlarni aldam-qaldam yo'llarga yetaklash qiyin kechmaydi. Ajdarlar haqida uni boxabar qilganing uchun u, o'zini, oldingda qarzdor bilishi, tilla tuxum haqidagi gapni sen bilan o'rtoqlashishni o'z burchi, deb sanashiga ishonchim komil edi. Shunda ham, shunda ham yutqazib qo'yishingga sal qoldi-ya, Potter. Seni kuzatishni davom etib, kutubxonada uzoq vaqt o'tirganingni ko'rib yurdim. Zaruriy kitob o'z yotoqxonangda ekaniga farosating yetmadi! Uni o'zim, anavi Longbottomning qo'liga atayin tutqazib, tumshug'ing ostiga keltirib qo'yganimni bilmading-a, Potter! Esingdami o'sha kitob? «O'rta dengiz havzasida o'sadigan sehrli suv o'simliklarining o'ziga xos xusu-siyatlari»? Oyquloq o'stir giyohi haqida o'sha kitobda yozilgan. Hammadan, shu jumladan, Longbottomdan yordam so'rashing-ni kutgan edim. Senga nima kerakligini darhol aytgan bo'lar edi u. Yo'q... sen bunday qilmading. Ahmoqona g'ururing, musta-qilliging bunga yo'l qo'ymadi. Oqibatda ishni pachavaga borib taqading.

G'azabi qaynagan Xmuri biroz sukut saqladi.

– Nima qilishim kerak edi? – davom etdi u. – Boshqa,

begunoh qo‘lni ishga solishga ahd qildim. Esingda bo‘lsa, Rojdestvo balida oyog‘ingdagi ahmoqona paypoqni Dobbi ismli uy elfi sovg‘a qilganini aytgan eding. Men uni o‘qituvchilar xonasiga chaqirtirib, kiyimimni kir yuvish xonasiga eltishni buyurdim va ayni paytda Makgonagall bilan kimlar garovga olinishi va oyquloq o‘stir giyohidan foydalanishga aqling yetish-yetmasligi borasida yetarlicha baland ovozda suhbat uyushtirdim... Mitti do‘sting shu zahoti Sneggning shaxsiy omboriga uchib borib, so‘ng seni qidirishga tushdi...

Sehrli tayoqcha hanuzgacha Garrining ko‘kragiga o‘qtalgan. Xmurining ortidagi devorga osilgan Ashaddiy dushmanlar ko‘zgusida esa allaqanday sharpalar ko‘rinmoqda.

– Suv ostida shu qadar uzoq ivirsidingki, Potter, cho‘kib o‘lding, degan xayolga bordim. Xayriyatki Dambldor aqling pastligini yuksak ma’naviy iroda sifatida e’tirof etib, seni rag‘batlantirish yuzasidan qaror qabul qildi. Shundagina o‘zimni ancha yengil tortdim.

Xmuri chuqur nafas chiqardi.

– Bugun labirintda esa sezgan bo‘lsang, ishlaring odatiy vaziyatdan ko‘ra ancha yengil kechdi, – davom etdi u. – Sababi ayon. Chunki men yoningda bordim. Labirintning tashqi devori ortida patrullik xizmatini o‘tar ekanman, ichkarida nima bo‘layotganini ko‘rib turdim. Yo‘lingni turli qabohatlardan tozaladim. Flyor Delakyorni harakatsizlantirdim. Diggorini bir yoqli qilib, Kubokka eltadigan yo‘lingni ochib berishi uchun Krumga nisbatan Qaram qilish qarg‘ishini qo‘lladim.

Garrining ko‘zi katta ochilib ketdi. Bularning bari qanday ro‘y berishi mumkin? Dambldorning qadrdon do‘sti, O‘limdan miriquvchilarning bir dunyosini qo‘lga olgan mashhur avror... Yo‘q, bu allaqanday bema’nilik...

Devorga osig‘liq Ashaddiy dushmanlar ko‘zgusidagi uch kishining sharpasi yaqinlashib, tobora aniq shamoyil kasb etmoqda. Sehrli ko‘zini Garridan uzmagan Xmuri esa buni sezmadi.

– Yovuz Lord seni o‘ldira olmadi degin? – pichirladi Xmuri. – Axir, bu uning asosiy orzusi edi-ku! Ishni oxirigacha yetkazib,

seni o‘zim o‘ldirganimni eshitsa, sohib meni qanday rag‘batlantirishini faraz qilyapsanmi? Dastlab seni unga yetkazib berdim. Chunki qaytadan dunyoga kelishi uchun u aynan sening qoningga tashna edi. Endi esa seni, sohib o‘rniga o‘zim o‘ldiraman. Meni O‘limdan miriquvchilar orasida yuqori qo‘yadi. Men sohibning eng yaqin, eng qadrdon kishisiga aylanaman... O‘g‘lidan ham yaqinroq bo‘lib olaman...

Orzu-havasga berilgan Xmurining sog‘ ko‘zi chanog‘idan chiqib ketguday darajada katta ochilib ketdi. Sehrli ko‘zi esa Garridan uzilgani yo‘q. Chiqish eshigi qulflangan. Tayoqchasini o‘z vaqtida chiqarishga ulgurmasligini Garri yaxshi tushunib turibdi...

– Yovuz Lord bilan umumiy jihatlarimiz juda ko‘p, – aqlini yeb qo‘ygan kishiday qichqirdi Xmuri. – Chunonchi, ikkalamizning ham otamiz... maraz bo‘lgan. Ikkalamiz ham ismlarimiz o‘sha ifloslar sharafiga qo‘yilganidan bir umr iztirob chekib kelganmiz. Yovuz Tartib, aniqroq aytiladigan bo‘lsa, adolat qaror topishi uchun ikkalamiz ham o‘z otalarimizni mamnuniyat-la... yo‘q, zo‘r mamnuniyat-la asfalasofilinga yo‘llaganmiz!

– Sen savdoyisan! – o‘zini tuta olmadi Garri. – Haqiqiy savdoyisan!

– Savdoyi, degin? – bo‘kirdi Xmuri o‘zini idora qila ol-may. – Kim savdoyi ekanini ko‘ramiz hali! Yovuz Lord hayotga qaytdi, men uning sodiq xizmatkoriman, ana endi ko‘ramiz kim savdoyi ekanini! U qaytdi, eshityapsanmi, Potter, u hayotga qaytdi... Sen uni yenga olmading! Endi men seni yengaman!

Garri sehrli tayoqchasini olish uchun qo‘lini kissasiga soldi, Xmuri esa sehrli tayoqchasini ko‘tarib endi og‘iz juftla-gan ediki...

– STUPEFAY!

Ko‘z qamashtirgan yashin xona eshigini portlatlatdi. Xmuri nari uchib, polga tushdi. Nigohini hozirgina Xmuri tur-gan joydan olishga ulgurmagan Garri Ashaddiy dushmanlar ko‘zgusidagi Albus Dambldor, professor Snegg va professor Makgonagallning aksiga qarab qoldi. O‘girilib, uchalasi eshik

o‘rnida, sehrli tayoqchasini qo‘liga ushlab olgan direktor oldinda turganini ko‘rdi.

Nima uchun Voldemort bu yorug‘ olamda qo‘rqadigan yagona sehrgar aynan Dambldor ekanini Garri mana endi tushunib yetdi. Direktorning polda behush yotgan tanani teshib yuborguday dahshatli nigohidan ham qo‘rqinchli nigohni tasavvur qilish qiyin. Yuzidagi odatiy xayrixoh tabassum, moviy ko‘zidagi quvlikdan asar qolmagan. Uning har bir ibtidoiy ajinida nihoyatda sovuq qahr barq urmoqda, muhitga hukm o‘tkazayotgan qudrat harorati vujudidan ufurmoqda.

Dambldor xonaga kirib, oyog‘ini polga qarab yotgan Xmurining tanasi ostiga suqdi-da, keskin ko‘tarib, beliga yotqizdi. Snegg ham o‘zining Ashaddiy dushmanlar ko‘zgusidagi xonani vahshiyona nigoh-la ko‘zdan kechirayotgan aksiga qaragancha, direktorning ortidan kirib keldi.

Professor Makgonagall Garrining yoniga oshiqdi.

– Yur, ketdik bu yerdan, Potter, – pichirladi u, ho‘ngrab yuborishdan o‘zini tiyish uchun labini mahkam qimtib. – Yur... kasalxonaga boramiz...

– Yo‘q, – keskin ohangda e’tiroz bildirdi direktor.

– Dambldor, bolaning ahvoliga qarang. Uni zudlik bilan kasalxonaga eltish kerak. Axir, qancha narsalarni boshdan kechirdi u.

– U shu yerda qoladi, Minerva. Negaki u, o‘zi ko‘rib tushunishi lozim, – qisqa izohladi Dambldor o‘z qarorini. – Tushunish – ong-la qabul qilish demakdir. Qabul qilgandan so‘nggina boshdan kechirgan hodisalardan o‘zini o‘nglashi oson kechadi. Bunday kunlarni boshdan kechirishga kim va nima uchun majbur qilganini bola tushunib yetishi kerak.

Bo‘layotgan hodisalarning norealligini hech idrok eta olmayotgan Garri dovdirab qoldi.

– Xmuri, – dedi u. – Qanday jur’at etishi mumkin?!

– Bu kishi Alastor Xmuri emas, – ma’lum qildi Dambldor xotirjam ohangda. – Sen haqiqiy Xmuri bilan hali hech qachon ko‘rishmagansan. Agar mana bu haqiqiy Xmuri bo‘lganida bugun bo‘lib o‘tgan ishlarni ko‘ra-bila turib, seni mening oldim-dan

bir qadam ham nariga olib ketmagan bo‘lar edi. Amrimga xilof ravishda olib ketishi bilan men bor gapni tushunib, iziga tushdim.

Dambldor jonsiz yotgan tana ustiga engashib, korjomasining qatlaridan suvdon va bir dasta kalit bog‘lamini chiqardida, Snegg bilan Makgonagallga yuzlandi.

– Severus, iltimos, Vinki ismli uy elfi va ixtiyoringizdagi istig‘for keltirishga majbur qiladigan eng kuchli Iqror bo‘lish damlamasini keltirsangiz. Minerva, siz esa Xagridning kulbasiga boring, iltimos. Oshqovoq yetishtiriladigan egatda juda yirik qora it o‘tiribdi. Uni xonamga eltib, yaqin orada hozir bo‘lishimni aytgach, qaytib keling.

Snegg bilan Makgonagall berilgan ko‘rsatmalarni g‘alatiroq, deb topishgan bo‘lsa-da, sir boy berishmadi. Ikkovlon shu zahoti o‘girilib, xonani tark etdi. Dambldor yettita qulfli sandiq yoniga kelib, qopqog‘ini birinchi kalit vositasida ochdi. Sandiq ichi kitobga to‘la ekan. Dambldor qopqoqni yopib, ikkinchi kalitni ishga soldi-da, qopqoqni yana ochdi. Kitoblar gum bo‘lib, ishdan chiqqan sneakoskoplar, patqalamlar, pergament o‘ramlari va ko‘rinmas plashga o‘xshagan buyum ko‘rindi. Dambldorning uchinchi, to‘rtinchi, beshinchi, oltinchi kalitlarni ishga solgani va har safar boshqa-boshqa narsalar ko‘rinayot-ganini Garri taajjubla kuzatib o‘tirdi. Nihoyat direktor yettinchi kalitni ishga solib, sandiq qopqog‘ini qaytadan ochgach, hayron qolgan Garri baqirib yubordi.

Sandiq ichida yerosti xonasini eslatadigan, chuqurligi o‘n futcha keladigan o‘ra ko‘rindi. O‘ra tubida esa ozib-to‘zib ketgan, aftidan, uzoq vaqtdan buyon to‘yib ovqatlanmagan haqiqiy O‘ynoqko‘z Xmuri yotibdi. Uning yog‘och oyog‘i ham sehrli ko‘zi ham yo‘q. Ko‘z o‘rnida bo‘m-bo‘sh chanoq ko‘rindi, chalkashib ketgan soch tutamlari esa notekis qiyilgan. Garri esankirab, nigohini dam sandiq ichida yotgan Xmuriga, dam xona polida hushsiz cho‘zilib yotgan Xmuriga olib o‘tdi.

Dambldor sandiq ichidagi o‘raga tushib, uxlab yotgan Xmurining ustiga engashdi.

– Qaram qilish qarg‘ishi vositasida harakatsiz holatga keltirilgan. Tanasi juda zaif, – xulosa chiqardi u. – Tabiiyki,

ularga Xmurining tirigi kerak bo‘lgan. Garri, anavi yaramasning ridosini tashla, Alastor sovqotib yotibdi. Pomfri xonim ixtiyoriga topshirish kerak uni. Lekin hayotiga hech narsa xavf solayotgani yo‘q.

Garri ridoni sandiq ichidagi o‘raga tashladi. Dambldor Xmurining ustini yaxshilab yopib, sandiq ichidan chiqdi. Shundan so‘ng stol ustida yotgan suvdonni qo‘liga olib, qopqog‘ini ochdi-da, bo‘g‘zini pastga qaratib ag‘dardi. Polga qandaydir quyuq, yelimshak suyuqlik tomchiladi.

– Barcha qiyofalar damlamasi, – dedi Dambldor. – Ko‘rdingmi, Garri, naqadar sodda va shu bilan birga dohiyona ish tutilgan. Xmurining faqat o‘z idishidan suv ichish odati hammaga yaxshi ma’lum. Mana bu qallobga, tabiiyki, haqiqiy Xmurini yonida saqlab yurish shart bo‘lgan. Shunday qilgandagina u, damlamaning yangi porsiyalarini tayyorlay oladi. Haqiqiy Xmurining notekis sochiga e’tibor berdingmi? Qallob yil davomida sochidan qiyib kelgan. Bugun esa qattiq hayajonlanganidan bo‘lsa kerak, damlamani muntazam, har soatda ichib borish lozimligini unutib qo‘ygan... mana hozir ko‘ramiz...

Dambldor stol ostidagi kursini chiqarib, polda qilt etmay yotgan tana ro‘parasiga joylashib oldi. Garri ham soxta Xmuriga tikilgancha, Dambldorning yonida, sukut saqlab o‘tirdi.

Ko‘p o‘tmay Garrining ko‘z o‘ngida polda yotgan kishining qiyofasi o‘zgara boshladi. Chuqur ajin va chandiqlar barham topib, yuzining teri qoplamasi deyarli silliqlashdi, yarimta burni butunlashib, asta kichraydi. Oq oralagan uzun sochi boshining teri qoplamasiga kirib ketgancha qisqarib, och sariq tus oldi. Yog‘och oyoq shiq etib ajralib, o‘rniga haqiqiy oyoq o‘sib chiqdi. Fursat o‘tgach, sehrli ko‘z o‘z kosasidan ajralib, nari dumalagancha, atrofni kuzatishni davom etdi. Uning o‘rnida esa sog‘ ko‘z paydo bo‘ldi.

Endi Garrining qarshisida och sariq sochli, bo‘zday oqargan yuzini xira sepkil bosgan kishi yotibdi. Garri uni tanidi. Uchinchi musobaqa arafasida damblxotira chanog‘iga kirib, dementorlar tomonidan sud zalidan sudrab chiqarilganini, o‘tinib, yolvorib aybsiz ekaniga mister Sgorbsni ishontirmoqchi

bo‘lganini ko‘rgan. Oradan yillar o‘tib o‘sha yosh yigitcha ancha ulg‘ayibdi, yuzida sezilar-sezilmas ajin paydo bo‘libdi.

Tashqi yo‘lakda qadam tovushi eshitildi. Snegg qaytib, o‘zi bilan Vinkini yetaklab keldi. Xayol o‘tmay professor Makgonagall ham kirib keldi.

– Sgorbs! – xitob qildi Snegg oyog‘i yerga ko‘milib qolganday serrayib, – Barti Sgorbs!

– O, Xudo! – ingradi professor Makgonagall harakatsiz yotgan tanaga baqrayib.

Sneggning oyog‘i ostida ruxsoriga qarab bo‘lmaydigan Vinki ko‘rindi. Dastlab u og‘zini katta ochib turdi-da, so‘ng o‘zini Sgorbsning ko‘kragiga tashlab, quloqni teshib yuborguday chinqirib yubordi:

– Master Barti! Master Barti! Nima qilib yuribsiz bu yerda? Sizlar uni o‘ldiribsiz! O‘ldiribsiz! Sohibning o‘g‘lini o‘ltiribsiz!

– U harakatsiz holatga keltirilgan, xolos, Vinki, – tushuntirish berdi Dambldor. – Iltimos, sal nari qochib tur. Severus, tayinlangan damlamani olib keldingizmi?

Sehrli damlamalar tayyorlash fani professori kissasidan shaffof suyuqlik to‘ldirilgan kichkinagina billur shishacha chiqarib, Dambldorga uzatdi. Bu aynan o‘sha, yaqinda Snegg Garrining oshqovoq sharbatiga tomizishni va’da qilgan Iqror bo‘lish damlamasi. Dambldor o‘rnidan turib, yerda cho‘zilib yotgan tanani devorga, hanuzgacha uchala professorning darg‘azab aksi ko‘rinayotgan Ashaddiy dushmanlar ko‘zgusi ostiga suyab o‘tqizdi. Dag‘-dag‘ qaltirab, yuzini qo‘li bilan bekitib olgan Vinki tiz cho‘kib o‘tirgan joyida qoldi. Dambldor Sgorbsning og‘zini ochib, Snegg bergan damlamadan uch tomchi tomizgach, sehrli tayoqchasini ko‘kragiga taqadi.

– Enerveyt!

Sgorbs ko‘zini ochdi. Yuzi ifodasiz, ko‘zi nigohsiz.

– Meni eshityapsanmi? – so‘radi Dambldor, yuzini Sgorbsning ko‘ziga yaqin keltirib

– Eshityapman, – g‘udulladi qovog‘i jonlanib titragan yigit.

– Bu yerga qanday kelganing, Azkabandan qochishga qanday muvaffaq bo‘lganingni ayt, – muloyim ohangda so‘radi

Dambldor.

Sgorbs uzoq, chuqur nafas olib, hissiyotsiz, bir maromda so‘zlay ketdi:

– Kuni bitayotganini his etgan oyim qutqardi meni. U so‘nggi vasiyatini bajo etishga dadamni ko‘ndira oldi. Dadam meni yomon ko‘rib, oyimni qattiq sevar edi. Shuning uchungina meni Azkabandan olib chiqishga rozi bo‘ldi. Kunlardan bir kun ikkalasi holimdan xabar olgani qamoqxonaga kelishdi. Menga oyimning sochi solingan, oyimga esa mening sochim solingan Barcha qiyofalar damlamasi ichirildi. Oyim ikkalamiz qiyofalarimiz bilan almashdik.

– Jim bo‘ling, master Barti, jim bo‘ling, – boshini chayqadi dag‘-dag‘ titrayotgan Vinki. – Boshqa hech narsa demang, otangizga yomonlik qilib qo‘yasiz!

Ammo Sgorbs yana bir bor chuqur nafas oldi-da, hikoyasini bir maromda davom etdi:

– Dementorlar so‘qir bo‘ladi. Ular Azkabanga bir nafar sog‘lom va bir nafar o‘layotgan odam kirgani, bir nafar sog‘lom va bir nafar o‘layotgan odam chiqqanini his etguncha, nazorat qilib turishdi. Dadam Azkaban mahbuslaridan birortasi o‘z kameralarining panjaralari orqali meni olib chiqayotganini ko‘rib qolmasligi uchun egnimga oyimning kiyimini kiydirib qo‘ydi. Azkabanda so‘nggi soatigacha Barcha qiyofalar damla-masini ichib yotgan oyim ko‘p o‘tmay omonatini topshirdi. Uni o‘sha yerda, mening qiyofam va mening ismim bilan dafn etishdi. Mayyit men ekanimga hech kimda shubha tug‘ilmadi.

Yigitning qovog‘i yana titradi.

– Uyga qaytgach dadang nima qildi? – asta so‘radi Dambldor.

– Oyimning o‘limini sahnalashtirdi. Dafn marosimini ortiqcha shovqin-suronsiz uyushtirib, bo‘m-bo‘sh qabr yaratdi. Uy elfimiz Vinki meni parvarish qilib, oyoqqa turg‘izdi, dardimni davoladi. Mendan, dadam qo‘ygan shartga binoan, odamlar ko‘ziga ko‘rinmaslik, har bir bosgan qadamim borasida hisobot berib borish talab etildi. O‘zimni ancha kuchli his eta boshlagach, dadam qarg‘ish vositasida irodamni bukib, sindirib

bordi. Bunday hayotga ortiq toqat qila olmay, faqat bir narsani, u ham bo'lsa, sohibni topib, xizmatiga qaytishni orzu qila boshladim.

– Dadang irodangni qay tarzda sindirib bordi? – so'radi Dambldor.

– Qaram qilish qarg'ishi vositasida, – javob berdi sobiq Xmuri. – U meni to'la-to'kis idora qilib bordi. Tun-u, kun ustimga ko'rinmas plash tashlab yurishga majbur qildi. Uy elfining doimiy nazorati ostida bo'ldim. Elfning joni achishsa-da, ham qo'riqchi, ham enagalik vazifasini bajardi. Yaxshi xulqim uchun meni u yoki bu narsa bilan siylash borasida dadamni ko'ndirishga urinib bordi.

– Master Barti! Master Barti! – hiqilladi Vinki. – Bunday narsalarni aytib berish mumkin emas. O'zimizga yomon bo'ladi...

– Sen tirik ekaningni biror kishi bilganmi? – ilgarigiday muloyim ohangda so'radi Dambldor. – Dadang va uy elfidan tashqari, biror kishi bilganmi?

– Bilgan, – javob berdi Sgorbs, yana qovog'i titrab. – Dadam boshchilik qilgan departamentda ishlagan afsungar qiz Berta Jorkins bilgan. Kunlardan bir kun o'sha qiz dadam imzo chekishi kerak bo'lgan allaqanday qog'ozlar bilan uyimizga keldi. Dadam uyda yo'q edi. Vinki qizni uyga kiritib, o'zi osh-xonaga, yonimga qaytdi. Elf kim bilandir gaplashayotganini eshitgan Jorkins qiziqsinib qolib, oshxona eshigi ortida turgan-cha, pinhona quloq tutgan ekan. U eshitib qolgan suhbat ko'rin-mas plash ostida kim o'tirganini tushunib yetish uchun yetarli bo'lgan. Dadam uyga qaytgan fursatda Jorkins uni ayblay boshladi. Dadam esa Jorkinsga nisbatan juda kuchli Unuttirish afsunini qo'lladi. Gapiga qaraganda, qizning xotirasiga niho-yatda jiddiy shikast yetgan.

– Nega sohibning shaxsiy ishlariga burnini suqadi axir? – yig'lab yubordi Vinki. – Nima kerak edi unga?

– Kvidish bo'yicha jahon chempionatining final o'yini haqida aytib ber, – amr qildi Dambldor.

– Vinki dadamni ko'ndirishga muvaffaq bo'ldi, – javob

berdi Sgorbs, o'sha maromda. – Buning uchun elf ko'p kuch va vaqt sarfladi. Bu vaqtga kelib oradan ko'p yillar o'tgan, men esa biron marta bo'lsin, uydan tashqariga chiqmay o'tirgan edim. Bolaligimdan kvidishni yoqtirishimni uydagilar yaxshi biladi. Ko'rinmas plashni yechmay yurishni va'da qilib, toza havoda oz bo'lsa ham sayr qilib kelishimga ijozat berishini Vinki o'tinib so'radi. Oyim uy qamog'ida o'tirishim uchun emas, ozodlikka chiqishim uchun o'zini qurbon qilganini ta'na qildi. Nihoyat dadam rozi bo'ldi. Barcha ishlar batafsil rejalashtirildi. Dadam erta tongda Vinki ikkalamizni Mo'tabar lojaga chiqarib qo'yadigan, Vinki hammaga dadam uchun joy band qilib o'tirganini aytadigan, men esa ko'rinmasligimcha qolib, jim o'tiradigan, o'yin o'tgach, lojani eng oxirgi bo'lib tark etadigan bo'ldik. Shunday qilinsa, hech kim hech narsani sezmaydi. Ayni vaqtda men tobora kuchli bo'lib borayotganimni Vinki tasavvur ham qila olmagan. Qaram qilish qarg'ishining ta'siriga qarshi kurasha boshlagan edim. Ma'lum vaqt davomida nazorat ostidagi holatdan chiqib, o'z holatimga qaytadigan bo'lib oldim. Hammasi o'sha yerda, Mo'tabar lojada ro'y berdi. Bayramona muhit vujudimni qamrab olib, qarg'ish ta'siri barham topdi. Men o'z holatimga qaytdim. O'sha fursatda qarshimda o'tirgan bolakayning orqa cho'ntagidan chiqib turgan sehrli tayoqchasini ko'rib qoldim. Sehrli tayoqchani so'nggi bor Azkabanga mahkum qilinmasdan oldin qo'limga olganman. Bolaning sehrli tayoqchasini astagina o'g'irladim. Balandlikdan qo'rqadigan Vinki yuzini bekitib o'tirgani bois o'g'irlik qilganimni ko'rmadi.

– Master Barti yomon bola, – hiqilladi Vinki.

– Sehrli tayoqchani o'g'irlading. Keyin-chi, keyin nima bo'ldi? – so'radi Dambldor.

– O'yin o'tgach, chodirga qaytdik, – hikoyasini davom etdi Sgorbs. – Keyin hayotida bir kun bo'lsa ham Azkabanda o'tirmagan, sohibim uchun jon kuydirmagan, undan yuz o'girgan, azob-uqubat nima ekanidan, men boshdan kechirayotgan qaramlikdan mutlaqo bexabar O'limdan miriquvchilarning hayqiriqlarini eshitib qoldim. Ular ozodlikda bo'lib, sohibni qidirib topishlari mumkin edi. Yo'q, ular o'zlarini ortiqcha urintirishni

istashmagan. Magllarni tahqirlab, biroz sho‘xlik qilishni xohlashgan. Ularning baqir-chaqirlari vujudimni qo‘zg‘atib, ongimni uyg‘otib yubordi. Fikr-mulohazalarim uzoq yillardan buyon birinchi marta ravshanlashib ketdi. G‘azabim qaynadi. Qo‘limda sehrli tayoqcha bor. Sohibga sodiq bo‘lmaganlari uchun ularga hamla qilmoqchi bo‘ldim. Dadam chodirda yo‘q. U magllarni qutqargani yugurib ketgan. Vajohatimni ko‘rgan Vinki qo‘rqib ketdi. Meni o‘z yonidan uzoqlashtirmaslik uchun u elflarga xos sehr qo‘llab meni o‘rmonga, O‘limdan miriquv-chilardan uzoqroq joyga tortib ketdi. Men unga qarshilik ko‘r-satdim, chodirli lagerga qaytmoqchi, anavi subuti yo‘q kaslarga Yovuz Lordga qanday xizmat qilish kerakligini ko‘rsatib, ularning ta’zirini berib qo‘ymoqchi bo‘ldim. O‘g‘irlangan sehrli tayoqchani qo‘llagan tarzda osmonda Ajal belgisini yaratdim.

Sgorbs biroz sukut saqlab, davom etdi.

– Vazirlik xodimlari biz turgan joyga yetib kelib Urib yiqituvchi yashinlar bilan har tomon o‘t ocha boshlashdi. Yashinlardan biri biz bekinib olgan yosh daraxtni teshib o‘tdi. Vinki ikkalamizning oramizdagi sehrli bog‘lama uzildi. Vinkini topib olishgach, men ham shu yaqin o‘rtada bo‘lishim kerak-ligini dadam tushunib yetdi. U Vinki topilgan joydagi butalarni titib chiqib, mening tanamni paypaslab topdi. Vazirlik xodim-lari o‘rmonni tark etishini kutib, meni hushimga keltirgach Qaram qilish qarg‘ishini yana qo‘lladi-da, uyga olib ketdi. Pand bergan, mening xatti-harakatlarimni talab darajasida kuzatma-gan, oqibatda qo‘limga sehrli tayoqcha tushib qolishiga yo‘l qo‘ygan Vinkini uydan quvib soldi.

Ruhiy tushkun holatda o‘tirgan Vinki o‘kirib yubordi.

– Uyda dadam ikkalamiz qoldik. Keyin... keyin... kunlardan bir kun yarim kechada sohibim mening holimdan xabar olgani keldi.

Sgorbsning boshi g‘alati tebranib, yuzida telbanamo kulgi ko‘rindi.

– Sohibimni Chuvalchangdum ismli qaroli olib keldi. Sohib Albaniyada qo‘lga olingan Berta Jorkinsni qiynoqqa solib tirik ekanimdan xabar topibdi. Jorkins sohibga ko‘p narsalarni,

jumladan, «Xogvars»da o‘tkazilishi rejalashtirilgan Uch sehrgar bellashuvi haqida, sobiq avror Xmuri maktabga o‘qituvchi lavozimiga ishga olingani haqida aytib beribdi. U Jorkinsni toki dadam qo‘llagan Unuttirish afsunining ta’siri barham topguncha ko‘p qiynoqqa solibdi. Men Azkabandan qochganimdan, sohibni qidirib ketishimga yo‘l qo‘ymaslik uchun dadam meni uy qamog‘ida saqlayotganidan xabar topibdi. Shu tariqa sohib eng sadoqatli xizmatkor ekanimni tushunib yetibdi. Olingan ma’lumotlarga asoslangan holda bir reja ishlab chiqibdi. Ushbu rejani amalga oshirish uchun esa men kerak bo‘lib qolibman. U yarim tunda xonadonimizga tashrif buyurdi. Tabiiyki, eshikni dadam ochdi...

Mister Sgorbsning o‘g‘li telbanamo irshayib, aftidan, hayotining eng maroqli daqiqalarini eslagan bo‘ldi. Ruhiy iztirob chekayotgan Vinkining shundoq ham yirik ko‘zi yanada keng ochilib, barmoqlar orasida dahshatdan yarqirab ko‘rindi.

– Ish juda tez bitdi. Sohib dadamga nisbatan Qaram qilish qarg‘ishini qo‘llab, o‘ziga itoat etib oldi. Endi dadam xatti-harakatlari kuzatib boriladigan, ishlari nazorat ostiga olingan mahbusga aylandi. Sohib uni hech narsa bo‘lmaganday o‘z faoliyati bilan shug‘ullanishga majbur qildi. Men esa erkin shaxsga aylandim. Yana uyg‘ondim. Yana o‘z holatimga, uzoq yillar davomida kechirmagan erkin hayotga qaytdim.

– Lord Voldemort sendan nimani istagan edi? – so‘radi Dambldor.

– Hamma narsadan voz kechib, o‘zimni fido qilishga tayyorligimni so‘radi. Siz uchun hamma narsaga tayyorman, dedim unga. Sohibga xizmat qilish, sadoqatimni amalda isbotlash – ushalmas orzuim, baxtim edi. Shunda sohib, «Xogvars»ga Garri Potterni Uch sehrgar bellashuvida g‘alaba sari yetaklay biladigan, o‘sha bolani diqqat bilan kuzatib yura-digan, bellashuv Kubogini portshlyusga aylantirib, unga aynan Garri Potter birinchi bo‘lib yetishini va bu bilan bola to‘g‘ri sohib huzurida paydo bo‘lishini ta’minlaydigan eng ishonchli odamni yo‘llashi lozimligini aytdi. Lekin dastlab...

– Senga Alastor Xmuri kerak bo‘lgan, – sabrqila olmadi

Dambldor.

Direktorning moviy ko‘zida g‘azab olovi yonayotgan bo‘lsa-da, ovozining vazminligi saqlab qoldi.

– Chuvalchangdum ikkalamiz kerakli ishlarni tashkillashtirdik. Barcha qiyofalar damlamasini oldindan tayyorlab, Xmurining uyiga o‘g‘rincha kirib bordik. U biz bilan olishib, ortiqcha shovqin ko‘tarib yubordi. Uni tinchitishga arang ulgurdik. Sochini qiyib, Barcha qiyofalar damlamasiga aralashtirdik. O‘zini esa sandig‘iga qamadik. Men damlamani ichib, Artur Uesli shovqinni eshitgan magllarni tinchlantirish uchun yetib kelguncha Xmurining o‘xshashiga aylanib oldim. Chiqindi baklarini hovli bo‘ylab harakatlantirgan men edim. Uesliga esa kimdir hovlimga kirib, baklarimni bezovta qilganini aytdim. Shundan so‘ng Xmurining buyum-bisotlari, yovuzlik detektorlarini egasi qamalgan sandiqqa joylab, «Xogvars» tomon yo‘l oldim. Dambldorni laqillatish maqsadida Xmurini vaqti-vaqti bilan so‘roq qilib borish, o‘tmishining tafsilotlari, odatlarini bilib, o‘zlashtirib borish uchun tirik qoldirdim. Buning ustiga damlama tayyorlab borish uchun yil davomida uning sochi kerak edi menga. Damlamaning qolgan tarkibiy qismlarini to-pish qiyin kechmadi. Bumsleng terisini yerosti xonalaridan o‘g‘irlab chiqdim. Sehrli damlamalar tayyorlash fani professori meni o‘z xonasida tutib olganida esa tintuv o‘tkazishga doir buyruq olganimni aytdim.

– Xmuriga uyushtirilgan hujumdan so‘ng Chuvalchangdum qayoqqa ketdi? – so‘radi Dambldor.

– Chuvalchangdum sohibni parvarish qilib, dadamning xatti-harakatlarini nazorat ostiga uchun uyimizga qaytdi.

– Biroq dadang ulardan qochib qutuldi, to‘g‘rimi? – so‘radi Dambldor.

– To‘g‘ri. Ma’lum vaqt o‘tgach, dadam, xuddi men kabi Qaram qilish qarg‘ishining ta’siriga qarshi kurashishni o‘rganib olgan. Nima bo‘layotganini idrok eta boshlagan. Buni sezgan sohib uni uydan chiqarmay qo‘ydi. Vazirlikka xat yo‘llash, o‘zini toliqqan, kasal, deb ma’lum qilishga majbur qildi. Chuvalchangdum o‘z majburiyatlariga beparvo qarab, dadamning

xatti-harakatlarini talab darajasida kuzatib bormadi. Oqibatda dadam ularning qo'lidan qochib, «Xogvars»ga yetib kelishga muvaffaq bo'ldi. Dadam Dambldorga iqror bo'lish, meni Azkabandan o'g'irlab chiqqanini ma'lum qilishga ahd qilgan. Sohib dadamning qochib ketgani haqida meni zudlik bilan xabardor qilib, qanday bo'lmasin, uni to'xtatib qolishni buyurdi. Dadamning kelishini kutdim, bu yerda ro'y berayotgan jarayonlarni diqqat bilan kuzatib bordim. Men Garri Potterdan olib qo'ygan, ishlarning pachavasini chiqarishiga sal qolgan xaritadan foydalandim.

– Xaritadan? – so'radi Dambldor, – Qanaqa xarita ekan u?

– Potterga tegishli «Xogvars» xaritasi. Sneggning xonasidan damlama uchun zarur bo'ladigan tarkibiy qismlarni o'g'irlab turgan paytimda bola meni o'sha xaritada ko'rib qolgan. Ismimiz bir xil bo'lgani uchun Potter meni dadam sifatida qabul qilgan. O'sha kecha men bolani aldab, undan xaritani olib qo'ydim. Dadam yovuz sehrgarlarni yomon ko'rishini aytdim. Potter esa dadam Sneggni ta'qib qilib yuribdi, degan fikrga bordi.

Sgorbs yana biroz sukut saqlab o'tirdi.

– Dadamning «Xogvars»ga yetib kelishini kutdim. Nihoyat, taxminan bir hafta oldin, oqshom paytida, dadam maktab hududiga kirib kelganini xaritada ko'rib qoldim. Ko'rinmas plashimni kiyib, uni qarshi olish uchun hovliga chiqdim. U o'rmon chetida kelayotgan edi. Kutilmaganda Potter bilan Krum paydo bo'lib qolishdi. Men bekinib oldim. Potterga ziyon yetkazib bo'lmaydi. U sohibga kerak. Sal o'tib, Potter Dambldorni boshlab kelish uchun qasr tomon yugur. Men esa Krumni urib yiqitib, dadamni o'ldirdim.

– Y-o'-o'-o'q! – chirillab yubordi Vinki. – Master Barti, master Barti, nimalar deb aljirayapsiz?!

– Dadangni o'ldirding, – takrorladi Dambldor o'sha muloyim ohangda. – Jasadini nima qilding?

– O'rmon ichiga olib kirib, ko'rinmas plash bilan yopib qo'ydim. Xarita yonimda edi. Potter qasrga kirgani, u yerda Sneggni uchratgani, so'ng ularga Dambldor qo'shilganini ko'rgan edim. Potter Dambldorni hodisa joyiga boshlab kelayot-

ganini ko‘rib turdim. O‘rmondan chiqib, orqa tomondan aylanib o‘tdim-da, ikkalasiga yaqinlashdim. Qayoqqa borish kerakligini Sneggdan bilib olganimni aytdim. Dambldor menga Sgorbsni qidirib topishni buyurdi. Men jasad yoniga qaytib, xarita vositasida bo‘layotgan xatti-harakatlarni kuzatib turdim. Hamma tarqagach, dadamning jasadini suyakka aylantirdim-da, ustimga ko‘rinmas plashni tashlab, Xagridning kulbasi yaqinidagi yangi shudgorga ko‘mib qo‘ydim.

Oraga Vinkining nafasi bilan buzilib borilayotgan sukunat cho‘kdi.

– Bugun-chi, bugun nima ish qilding?

– Bugun Uch sehrgar bellashuvi Kubogini labirint markaziga eltib qo‘yish taklifini kiritdim, – pichirladi Barti Sgorbs. – O‘sha yerda uni portshlyusga aylantirdim. Sohibning rejasi ro‘yobga chiqdi. U o‘z qudratini yana qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldi. Endi meni o‘zim kutganimdan ham ziyod darajada rag‘batlantiradi.

Telbanamo kulgi uning yuzini biroz yoritgan bo‘ldi-yu, boshi yelkasiga shilq etib tushdi. Yonida esa Vinki ho‘ngrab qoldi.

XXXVI BOB. YO‘LLARIMIZ AYRILADI

Dambldor o‘rnidan turib, Barti Sgorbsga nafrat-la qarab qo‘ydi-da, sehrli tayoqchasini siltadi. Tayoqcha uchidan uchib chiqqan arqon asirni bir zumda chirmab oldi.

– Minerva, Garrini yuqoriga olib chiqmoqchiman. Siz mana bunga biroz poyloqchilik qilib tura olasizmi? – so‘radi Dambldor professor Makgonagallga yuzlanib.

– Albatta, – javob berdi sehrli tayoqchasini chiqarib Barti Sgorbsga o‘qtagan professor Makgonagall.

Ayol xuddi birov uning oldida qayt qilib yuborganday Sgorbsga hazar-la qarab qo‘ydi.

– Severus, sizdan iltimos, Pomfri xonimga borib ayting, Alastor Xmurini kasalxonaga olib ketsin. So‘ng hovliga chiqib, Kornelius Fujni toping-da, ushbu xonaga boshlab keling. Shubha yo‘qki, vazir Sgorbsni shaxsan o‘zi so‘roq qilish istagini bildiradi. Agar meni ko‘rmoqchi bo‘lsa, yarim soatdan so‘ng qasrning kasalxona joylashgan qanotiga yetib boraman.

Snegg churq etmay bosh irg‘idi-da, xonani tark etdi.

– Garri, – muloyim ohangda chaqirdi Dambldor.

Sgorbsning hikoyasini tinglab, oyoq og‘rig‘ini unut Garri o‘rnidan turib, yana tebranib ketdi. Dambldor boshdan oyoq dag‘-dag‘ titrayotgan bolaning qo‘ltig‘idan olib, yo‘lak tomon yetakladi.

– Kasalxonaga borishdan oldin xonamga kirib o‘tishingni istar edim, Garri, – dedi Dambldor past ovozda. – U yerda seni Sirius kutmoqda.

Garri bosh irg‘ib, rozi bo‘ldi. Bola bo‘layotgan ushbu hodisalarning realligini ongiga hech singdira olmay, dong qotib, batamom loqayd bo‘lib qoldi, qolaversa, bunday holatidan u qandaydir mamnun. Hozir Garri hech narsani o‘ylagisi, Uch sehrgar bellashuvining Kubogiga qo‘l tekkizgan fursatdan e’tiboran ro‘y bergan voqealarni eslagisi yo‘q. Ongida g‘ayriixtiyoriy ravishda lip-lip o‘tib turgan yangi, azob berayotgan, fotosuratlar kabi yorqin xotiralar tafsilotiga berilishni xayoliga

ham keltirmayapti. Sandiqqa qamalgan O'ynoqko'z Xmuri... chopilgan qo'linin tebratgancha, ko'p qon yo'qotganidan holsizlanib, yerda yumalab yotgan Chuvalchangdum... tutayotgan qozon ichidan chiqib kelayotgan Voldemort... Sedrik... jasadini ota-onasiga topshirishni iltimos qilib qolgan Sedrik...

– Professor, – g'udulladi Garri. – Mister va missis Diggorilar hozir qayerda?

Dambldorning Barti Sgorbsni so'roq qilish davomidagi vazmin ohangi birdan qaltiroq eshitildi:

– Professor Sarsabil xonimning huzurida, – javob berdi direktor. – U «Xufflpuff» fakultetining mudiri, Sedrikni hammamizdan ko'ra yaxshi biladi.

Ikkovlon xonaga kirish eshigini qo'riqlayotgan ajdar tusli tosh ilon qarshisiga keldi. Parolni eshitgan haykal chetga o'tib, yo'l berdi. Garri Dambldor bilan birga devor o'rnida paydo bo'lgan eshik ostonasidan xatlab, aylanma zina shaklidagi tosh eskalator vositasida yuqoriga ko'tarildi.

Xonada Sirius turibdi. Uning bo'zday oqargan yuzi Azkabandan endigina qochib qutulgan kunlardagi kabi so'lg'in ko'rinmoqda.

– Omonmisan, Garri? – sakrab yaqinlashdi u. – Bilar edim... Qandaydir noxushlik ro'y berishini bilar edim... Nima bo'ldi?

Sirius bolani titrayotgan qo'li bilan yozuv stoli yonidagi kresloga o'tqizib qo'ydi.

– Gapir, nima bo'ldi? – so'radi u, nisbatan qat'iy ohangda.

Dambldor Siriusga hozirgina Barti Sgorbsdan olingan ma'lumotlarni aytib berishga kirishdi. Garri direktorning hikoyasini e'tiborsiz eshitib o'tirdi. Bola o'lgudek charchagan. Qarg'ish vositasida qiynoqqa solingan tanasining har bir hujayrasi dod demoqda. Hozir Garri faqat bir narsani, ushbu kresloda soatlab o'tirishni, hamma uni tinch qo'yishini, tarashaday qotib uxlashni istaydi.

Qush qanotining mayin shitirlashi eshitildi. Oltin qo'nog'idan sakragan qaqnus Garrining tizzasiga kelib qo'ndi.

– ... a, salom, Yangus, – bazo'r ko'rishdi Garri.

Bola qushning nihoyatda ziynatli, alvon va tillarang ko'ri-

nayotgan pat qoplamasini silab qo'ydi. Navozishni hush yoqtirgan Yangus ko'zini pirpiratdi. Kattaligi oqqushday bo'lib, ancha og'ir bo'lsa ham Yangusning vazni Garriga qandaydir iliq, tavsiflab bo'lmas darajada tinchlantiradigan ta'sir o'tkazdi.

Dambldor hikoyasini nihoyasiga yetkazib, Garrining ro'parasidagi stol ortiga o'tirdi-da, bolaga qaradi. Garri direktorning nigohidan ko'zini olib qochdi. Bo'lib o'tgan hodisalarni aytib berib, qaytadan boshdan kechirishga majbur qiladigan savollarga javob berishni mutlaqo istamadi.

– Garri, Kubokka qo'l tekkizgan fursatingdan so'ng bo'lib o'tgan hodisalarni bilishim kerak, – dedi Dambldor.

– Dambldor, shu ishni ertaga qoldirsak bo'lmaydimi? – gapga aralashdi Sirius, qo'lini Garrining yelkasiga qo'yib. – Biroz uxlab, dam olsin.

Garri cho'qintirgan otasining bunday taklifidan xursand bo'ldi. Biroq Dambldor Siriusning gapiga e'tibor qilmadi. U butun tanasi bilan Garriga yaqinroq egildi. Bola boshini istar-istamas ko'tarib, Dambldorning ta'rifga sig'mas moviy ko'ziga qaradi.

– Agar bugungi hodisalarni eslash kerak bo'lgan fursatni chetga surishga izn berib, sehrli uyquga eltgan tarzda senga yordam berishning imkoni bo'lganda edi, o'g'lim, men, albatta, shunday yo'l tutgan bo'lar edim. – dedi Dambldor nihoyatda muloyim ohangda. – Biroq hayotiy tajribamga asoslangan holda aytishim mumkinki: og'riqni muvaqqatan to'xtatish – muqarrar qaytgan fursatda yanada zo'raytirish demakdir. Bugun sen shunday jasorat ko'rsatdingki, bunday mardlikni sendan kutmagan edim. Hozir sendan ushbu jasoratni yana bir bor namoyon etishni so'rayman. Iltimos, bo'lib o'tgan hodisalarning barini batafsil aytib ber.

Qaqnusning mo'jizador, ajoyib tovushini eshitgan Garri, vujudini isitib, tetiklashtiradigan ichimlik ho'plaganday his etdi o'zini.

Bola chuqur nafas olib, hikoyasini boshladi. Bo'lib o'tgan hodisalarni so'zlab berar ekan, uning ko'z o'ngida barcha sahnalar qaytadan o'tib bordi: Voldemortni tiriltirgan damla-

maning yaltirayotgan yuzasi, qabristonda havoda paydo bo'lgan O'limdan miriquvchilar, Sedrikning Kubok yonida cho'zilib yotgan jasadini qaytadan ko'rdi.

Garrining yelkasini mahkam ushlab o'tirgan Sirius nimadir demoqchi bo'lganday bir-ikki bor og'iz juftladi. Biroq Dambldor qo'l ko'tarib man etib turdi. Garri gapini birov bo'li-shi, chalg'itishini istamadi. Bola so'zlagan sari, ichidan allaqan-day zahar chiqib ketayotganday, o'zini yengil his etib bordi. Har bir so'zni talaffuz etish uchun katta kuch ishlatib, zo'riqmoqda. Shunga qaramay, hikoyasini nihoyasiga yetkazsa, o'zini ancha yengil his etishiga ishondi.

Chuvalchangdum shamshirni chiqarib, bolaning qo'liga sanchganini eshitgan Sirius qichqirib yubordi. Garrini seskan-tirib yuborgan Dambldor esa o'rnidan keskin turib, stolni ayla-nib o'tdi-da, bolaning yoniga kelib, qo'lini ko'rsatishini buyur-di. Garri yengidagi teshik va qo'lidagi kesikni ko'rsatdi.

– Yovuz Lordning aytishicha, mening qonim boshqa dush-manlarning qoniga nisbatan qudratliroq qilib qo'yar ekan endi uni, – tushuntirish berdi Garri. – Oyim... bergan himoya... endi uni ham himoya qilar ekan. U haq gapiribdi. Sal o'tib menga... yuzimga qo'l tekkiza oldi.

Dambldorning yuzida muzaffariyat qiyofasi kasb etganday ko'rindi. Biroq keyingi fursatda Garri, unga shunday tuyulga-niga shubha qilmadi. Chunki, Dambldor o'z kreslosiga qanday-dir charchagan, munkaygan holatda qaytdi.

– Juda yaxshi, – xulosa qildi Dambldor, joyiga o'tirib. – Ushbu to'siqni Voldemort yengib o'tibdi. Davom et, Garri, iltimos.

Voldemortning qozon ichidan chiqqach, O'limdan miri-quvchilarga aytgan gapini Garri imkon qadar to'la-to'kis yetka-zishga harakat qildi. Shundan so'ng uni daxmadan yechishgani, Voldemort bilan o'tgan duel jangi haqida aytib berdi.

Tilla tusli nur rishtasi sehrli tayoqchasini raqib tayoqchasi bilan bog'lab qo'yganini hikoya qilib beryotgan Garrining bo'g'ziga allanima tiqilib qoldi. Davom etmoqchi bo'lyapti-yu, kuchi yetmayapti. Voldemortning tayoqchasidan chiqib kelgan-

larni eslab, tili aylanmayapti. Garrining ko'z o'ngida Sedrik, qariya, Berta Jorkins... oyisi... dadasi... navbat bilan yana gavdalandi.

Oraga cho'kkan sukunatni Sirius buzdi.

– Sehrli tayoqchalar bog'lanib qolishdi? – so'radi u, nigohini Garridan Dambldorga olib o'tib. – Sabab?

Garri ham xayoli qochgan Dambldorga yuzlandi.

– Priori Inkantatem, – g'udullab qo'ydi Dambldor.

Direktor Garrining ko'ziga sinchkovlik-la qarab o'tirdi. Ikkalasining o'rtasida hamfikrlikning allaqanday ko'zga ko'rinmas uchquni uchib o'tganday bo'ldi.

– Qarg'ish yo'nalishi o'zgargan holatmi? – fahmladi Sirius.

– To'ppa-to'g'ri, – tasdiqladi Dambldor. – Ikkala tayoqchaning o'zagi mutlaqo bir xil: ularning tarkibiga bor-yo'q ikki dona pat bergan bitta qaqnusning, aniqroq aytiladigan bo'lsa, mana bu qushning pati kiritilgan, – dedi Dambldor, pat qoplamasi rang-barang bo'lib, Garrining tizzasiga astoydil joylashib olgan qushga imo qilib.

– Sehrli tayoqcham tarkibiga Yangusning pati kiritilganmi? – hayron bo'ldi Garri.

– Ha, – bosh irg'idi Dambldor. – To'rt yil oldin, do'kondan chiqishing bilan mister Ollivander ikkinchi tayoqchani aynan sen xarid qilganing haqida menga xabar bergan edi.

– Tayoqcha o'zining egizi bilan to'qnash kelganda qanday-dir holat ro'y berar ekan-da? – so'radi Sirius.

– Bir-biriga qarshi chiqsa, noto'g'ri ishlashadi, – tushuntirish berdi Dambldor. – Agar tayoqcha sohiblari ularni bir-biriga qarshi jang qilishga majbur qilishadigan bo'lsa... niho-yatda kamdan kam duch keladigan, ajablanarli holat yuz beradi. Bir tayoqcha ikkinchisidan, muqaddam amalga oshirilgan qarg'ishlarni teskari tartibda sug'urib chiqaradi. Dastlab eng oxirgi bo'lib bajarilgan amal, so'ng undan oldin amalga oshirilgan afsun va hokazo.

Ikkalasi ushbu so'zlarga tasdiq topish uchun Garriga yuzlandi. Bola bosh irg'idi.

– Bu, – asta gapirdi Dambldor, – sening qarshingda u yoki

bu qiyofa kasb etgan Sedrik Diggori paydo bo'lganini anglatadi.

Bola Dambldorning gapini tasdiqlab yana bir bor bosh irg'idi.

– Diggori tirildimi? – seskanib ketdi Sirius.

– Mayyitni tiriltira oladigan afsun yo'q va hech qachon bo'lmaydi, – chuqur xo'rsindi Dambldor. – Ro'y berishi mumkin bo'lgan yagona holat, qaytgan aks sadoga o'xshash holatdir, ya'ni sehrli tayoqcha ichidan tirik Sedrikning ko'lan-kasi chiqqan bo'lishi mumkin... Shundaymi, Garri?

– U men bilan gaplashdi, – dedi Garri, kutilmaganda yana titrab. – Sedrikning arvohi yoki bilmadim nimasi, men bilan gaplashdi...

– Sedrikning tashqi qiyofasi va shaxsiga xos jihatlarini o'ziga mujassam etgan aks sado, – tushuntirish berdi Dambldor. – Taxmin qilishim mumkinki, Voldemort tomonidan nobud qilingan boshqa kishilarning... arvohlari ham paydo bo'lishgan...

– Qariya, – dedi bo'g'zi qattiq siqilib qolgan bola, – Berta Jorkins va...

– Ota-onangmi? – asta so'radi Dambldor.

– Ha...

Sirius bolaning jonini og'ritib yelkasini siqib yubordi.

– Tayoqcha tomonidan amalga oshirilgan so'nggi qotilliklar, – bosh irg'idi Dambldor. – Teskari tartibda. Agar aloqa saqlanib qolganida boshqa qurbonlar ham ko'rinish bergan bo'lar edi. Yaxshi Garri. O'sha... ko'lankalar nima qilishdi?

Ko'lankalar tilla tusli nur rishtasi hosil qilgan oltin qafas ichida yurgani, Voldemort ulardan qo'rqqani, otasining ko'lankasi nima qilish kerakligini aytgani... va Sedrikning vasiyatini Garri bazo'r aytib bera oldi.

Bola endi ortiq gapira olmasligini his etib, Siriusga yuzlandi. Cho'qintirgan ota yuzini bekitib olgancha o'tiribdi.

Kutilmaganda Yangus Garrining tizzasidan polga sakrab, chiroyli boshini lat yegan oyoqqa yotqizdi. Qushning ko'zidan sadafrangli ko'z yoshi dumalab bolaning oyog'idagi jarohatga tomdi. Og'riq barham topib, jarohat o'rni g'oyib bo'ldi. Oyoq

batamom tuzalib qoldi.

– Yurak so‘zlarimni takrorlamaslikning ilojini topa olmayapman, – dedi Dambldor, qaqnus havoga ko‘tarilib, oltin qo‘nog‘iga borib qo‘ngach, – Bugun sen shunday jasorat ko‘rsatdingki, bunday mardlikni sendan kutmagan edim. Voldemort o‘z qudratining hukmini o‘tkazib yurgan kezlarda unga qarshi jang qilgan katta yoshli sehrgarlar kabi qahramonlik ko‘rsata olding. O‘z zimmangga har qanday katta yoshli kishi bardosh bera olmaydigan mashaqqatni yuklab, yengishga muvaffaq bo‘lding. Sendan kutilgan amallarni munosib bajarding. Endi men bilan birga kasalxonaga borasan. Bugungi tunni fakultetning umumiy yotoqxonasida o‘tkazishingni istamagan bo‘lar edim. Senga endi Uyqu damlamasi va tinchlik kerak... Sirius, Garrining yonida qolishni istaysanmi?

Sirius bosh irg‘ib o‘rnidan turdi-da, yana ulkan qora itga aylanib, xonani Garri va Dambldor bilan birga tark etdi. Uchovlon qasrning kasalxona joylashgan qanoti tomon yo‘l oldi.

Dambldor eshikni ochgach, Garri, cho‘chib ketgan Pomfri xonimni qurshab olishgan missis Uesli, Bill, Ron va Germionani ko‘rdi. Aftidan, ular Pomfri xonimdan Garri hozir qayerda-yu, unga nima qilganini aytib berishni talab qilishmoqda. Ular uchovlon kirib kelgan eshik tomon baralla yuzlandi.

– Garri! O, Garri! – bo‘g‘iq qichqirdi missis Uesli, bola tomon oshiqib.

Biroq Dambldor qo‘lini oldinga uzatib yo‘l to‘sdi.

– Molli, iltimos, gapimga quloq sol, – dedi u – Bugun Garri nihoyatda og‘ir, azob-uqubatli sinovdan o‘tdi. Bo‘lib o‘tgan hodisalarni menga aytib berib, ularni qaytadan boshdan kechirganday bo‘ldi. Hozir bola uyqu, tinchlik va jimlikka juda ehtiyojmand. Agar sizlar shu yerda qolishingizga Garrining e’tirozi bo‘lmasa, – dedi Dambldor Ron, Germiona va Billga yuzlanib, – marhamat, qolishingiz mumkin. Faqat, u, javob beradigan holatga qaytguncha hech qanday savol bera ko‘rmang. Ayniqsa hozir.

Rangi bo‘zday oqargan missis Uesli bosh irg‘idi. So‘ng churq etmay turgan Ron, Germiona va Billga, xuddi ular to‘polon

qilishayotganday, qattiq pichirladi:

– Eshitdingizmi?! Unga tinchlik kerak!

– Direktor, – dedi Pomfri xonim, qora itga baqrayib, – bilsam bo‘ladimi, bu nima?...

– It bu, Pomfri. Ma’lum vaqt Garrining yonida bo‘ladi, – javob berdi Dambldor. – Ishontirib aytamanki, u nihoyatda yaxshi tarbiya ko‘rgan. Garri... ko‘rpangga kirib yotguningcha kutib turaman.

Savol ketidan savol berilishidan xalos qilgan Dambldordan Garri nihoyatda mamnun bo‘ldi. Hamma chiqib ketishini, o‘zi yolg‘iz qolishni istayotgani yo‘q u, albatta. Biroq bo‘lib o‘tgan hodisalarni qaytadan gapirib, esga olishni o‘ylasa, yuragi orqaga tortib ketyapti.

– Garri, Fujga uchrashim bilan, qaytaman, – dedi Dambldor. – Ertaga ham toki men o‘quvchilarga murojaat qilgunimcha shu yerda qolishingni istayman.

Dambldor palatani tark etdi. Garri Pomfri xonim bilan karavot sari borar ekan, palataning narigi burchagida, yoniga yog‘och oyog‘i bilan sehrli ko‘zi qo‘yilgan haqiqiy Xmurining harakatsiz yotganini ko‘rdi.

– Ahvoli qalay? – so‘radi u.

– Tuzalib ketadi, – ishontirdi Pomfri xonim, Garriga pijama uzatib, pardani yopar ekan.

Bola korjomasini yechib, pijamani kiydi-da, karavotga cho‘zildi. Hamma uning atrofida to‘plandi. Ron bilan Germiona Garriga dahshat to‘la nigohlarini tikib turibdi.

– Ahvolim yaxshi, – tinchlantirdi u, do‘stlarini. – Charchaganman, xolos.

Missis Ueslining ko‘zi yoshga to‘lib, qo‘li bilan choyshabni tekislagan bo‘ldi. Qo‘liga qadah va qirmizi suyuqlik quyilgan mittigina shisha idishcha ushlagan Pomfri xonim xonasidan chiqib keldi.

– Buni oxirigacha ichishing kerak, Garri, – tayinladi u. – Tush ko‘rmay uxlash damlamasi bu.

Feldsher ayolning qo‘lidagi qadahni olib, bir-ikki ho‘plagan Garrini shu zahoti uyqu bosdi. Atrofni siyrak tuman qopla-

di, palatada yonayotgan fonuslar parda ortida miltillab ko'rindi. Damlamani oxirigacha ichishga, biron og'iz so'z aytishga ulgurmagan bolaning tanasi tivitdan tayyorlangan parto'shakka chuqur botib, vujudi qattiq uyquga cho'mdi.

***

Garri shunday iliqlik, sokinlikda uyg'ondiki, ko'zini ochmay, yana biroz yotishni, yana o'shanday najotbaxsh uyquga ketishni istadi. Palata xira yoritilgan bo'lib, hali tun ekani, ko'p uxlamaganini tushunib yetdi. Yonida kimdir pichirlab o'tiribdi:

– Agar anavi baqiroqlar o'zlarini bosib olishmasa, bolani uyg'otib yuborishadi!

– Nega buncha qichqirishmasa ular, a? Yana biror kor-xol yuz bermagandir degan umiddaman.

Garri ko'zini bazo'r ochdi. Kimdir ko'zoynagini yechib qo'yibdi. Karavot pardasining ortida missis Uesli bilan Billning sharpalarini arang farqlab oldi.

– Bu Fuj bilan Minervaning ovozi, – pichirladi oyoqqa turib olgan missis Uesli. – Nimani talashyapti ular?

Endi Garri ham eshikka yaqinlashib kelayotgan ovozlarni eshityapti.

– Qaysidir ma'noda achinaman, albatta, Minerva, shunday bo'lsa-da... – baland eshitildi Fujning ovozi.

– Uni qasrga kiritish shart emas edi! – o'kirdi professor Makgonagall. – Dambldor xabar topsa...

Palataning eshigi ochildi. O'rnidan turgan Bill o'zi bilmagan holda karavot pardasini qiya ochib qo'ydi. Hamma eshik tomon yuzlandi. Garri yotgan o'rniga o'tirib, ko'zoynagini taqdi.

Kasalxonaga Fuj, uning ketidan esa professor Makgonagall bilan Snegg shiddat-la kirib keldi.

– Dambldor qani? – talab ohangida so'radi Fuj missis Ueslidan.

– Bu yerda yo'q, – javob berdi missis Uesli achchig'i chiqib. – Bu yer kasalxona, vazir janoblari, siz yaxshisi ovozingizni...

Shu payt eshik ochilib, palataga Dambldor kirib keldi.

– Tinchlikmi? – g'azab-la tikildi u Fuj bilan professor Makgonagallga. – Nega bemorlarni bezovta qilyapsiz? Minerva, men taajjubdaman... Sgorbsga poyloqchilik qilib turing degan edim-u...

– Endi bunga hojat yo'q, Dambldor! – chirilladi professor Makgonagall. – Vazir janoblarining sa'y-harakatlari tufayli!

Garri hali hech qachon yuzida g'azab barq urib, qo'lini musht qilib tugib olgan, boshdan oyoq dag'-dag' titrayotgan professor Makgonagallni bu qadar, o'zini idora qila olmaydigan holatda ko'rmagan.

– Bugungi hodisalar ro'y berishida aybdor sanalgan O'limdan miriquvchi qo'lga olinganini mister Fujga ma'lum qilishimiz bilan vazir janoblari, ushbu holatni shaxsiy xavfsizligiga nisbatan tahdid sifatida qabul qilib, qasrga kirganda uni qo'riqlab borishi uchun dementorlardan birini chaqirtirishni talab qilib turib oldi, – past ovozda bildiruv berdi Snegg. – Dementor yetib kelgach, ikkalasi Barti Sgorbs tutqunlikda saqlab turilgan xonaga kirishdi...

– Bunday xavfsizlik chorasiga direktor ijozat bermaydi dedim unga! – yorilib ketdi professor Makgonagall. – Dementor qasr ichiga kirishiga Dambldor aslo izn bermaydi, deb ogohlantirdim, biroq...

– Muhtarama xonim! – o'kirdi Fuj. – Sehrgarlik vaziri sifatida, xavfli jinoyatchini so'roq qilish uchun yonimda qo'riqchi olib yurish-yurmaslik borasida qaror qabul qilishga haqliman...

Vazirning bu qadar quturib ketgan holatini ham Garri muqaddam ko'rmagan. Biroq professor Makgonagallning baqirig'i Fujning ovozini bosib yubordi.

– Anavi maxluq... xonaga kirib kelgan zahoti... – chinqirdi ayol, qahr-g'azabdan titrayotgan vazirga barmoq o'qtab, – Sgorbsga tashlandi-da... va... va...

Professor Makgonagall bo'lib o'tgan ishni tavsiflash uchun so'z topa olguncha Garrining vujudi muzlab, nima bo'lganini tushunib bo'ldi. Professor fikrini oxirigacha yetkazishi shart emas. Dementorning keyingi harakatini izohlashga hojat yo'q. U

Barti Sgorbsdan bo'sa olib, ruhini batamom so'rib olgan. Endi Sgorbs, tirik bo'lgani bilan ahvoli murdaning ahvolidan besh battar bo'lib qolgan.

– Nima qilganda ham zarari yo'q! – o'shqirdi Fuj. – U bir nechta qotillikda gumon qilingan edi.

– Biroq endi u ko'rsatma bera olmaydi-yu, Kornelius! – e'tiroz bildirdi Dambldor, Fujga, xuddi uni birinchi marta ko'rib turganday qarab. – Endi Sgorbs, o'sha odamlarni nima sabab-dan o'ldirganini tushuntirish qobiliyatidan mahrum bo'ldi.

– Uning tushuntirishlari kimga kerak? Shundoq ham hammasi oydek ravshan! – baqirdi Fuj. – Minerva bilan Severusning gapiga qaraganda, u «O'zingiz-Bilasiz-Kim»ning amriga ko'ra ish tutyapman, deb o'ylagan. Demak, u g'irt savdoyi!

– Chindan ham Lord Voldemort unga ko'rsatmalar berib borgan, Kornelius, – dedi Dambldor. – O'sha kishilarning o'limi Voldemortni qaytadan tiriltirish maqsadiga qaratilgan fitnani amalga oshirish yo'lidagi ikkinchi darajali ishlar sana-ladi. Fitna esa chindan ham amalga oshdi. Voldemort yana o'z tanasiga ega bo'lib oldi.

Fujning basharasi, xuddi birov boshiga pishgan g'isht bilan qo'yib yuborganday bo'lib qoldi. Ko'zi pirpirab, aftidan, hozir-gina eshitgan gap mazmunini idrok etishga qurbi yetmay, xira-lashib qolgan nigohini Dambldorga qaratdi. Ko'zi chanog'idan chiqib ketishiga oz qolgan Fuj poyma-poy g'udullay boshladi.

– «O'zingiz-Bilasiz-Kim»?... Qaytdi... kim?... Bema'ni-lik:.. Qo'ysangiz-chi, Dambldor!

– Barti Sgorbsning iqrorlarini o'z qulog'imiz bilan eshit-ganimizni, shubha yo'qki, Minerva bilan Severus sizga ma'lum qilishgan, – vazmin ohangda javob berdi Dambldor. – U istig'for keltirishga majbur qiladigan Iqror bo'lish damlamasi ta'sirida bor gapni aytib berdi. Natijada biz Barti Sgorbsning Azkabandan qay yo'sinda qochishga muvaffaq bo'lgani, Berta Jorkinsni qiynab yosh Sgorbs tirik qolganini bilib olgan Volde-mort uni otasi qamagan tutqunlikdan xalos qilgani, Yovuz Lord Garrini qo'lga olish uchun Sgorbsning xizmatidan foydalan-gani, oxir-

pirovardida Lord Voldemortning rejasi amalga osh-ganini bilib oldik. Gapimga ishoning, Fuj, Voldemort me’yoriy hayotga qaytdi.

Vazirning yuzida tabassum yoyilib ketayotganini Garri ko‘rib o‘tirdi.

– Quloq soling, Dambldor, – dedi Fuj. – Siz... siz bu gaplarga jiddiy ahamiyat bermagansiz, shundaymi? «O‘zingiz-Bilasiz-Kim» hayotga qaytdi emish! Nimalar deyapsiz, nimalar deyapsiz?! Ha, Sgorbs «O‘zingiz-Bilasiz-Kim»ning amriga ko‘ra ish tutyapman, deb o‘ylagan bo‘lishi mumkin, biroq Dambldor, savdoyining ko‘rsatmalariga laqqa tushish sizga yarashmaydi...

– Bugun, Garri Uch sehrgar bellashuvining Kubogiga qo‘l tekkizishi bilan Sgorbs tomonidan portshlyusga aylantirilgan o‘sha Kubok bolani to‘g‘ri Lord Voldemortning huzuriga uchirib ketgan, – sarkashlik qildi Dambldor. – Garri Yovuz Lordning qayta tug‘ilganiga guvoh bo‘ldi. Agar xonamga tashrif buyursangiz, men sizga bor gapni tushuntirib beraman.

Dambldor Garri tomon qarab, uning uxlamay, gap poylab o‘tirganini sezgan bo‘lsa-da, bosh siltadi.

– Ammo hozir Garrini so‘roqqa tutishga ijozat bera olmayman.

Fujning yuzidagi tabassum yanada kengaydi. U ham Garrining parda ortidagi karavoti tomon qarab qo‘ydi.

– Dambldor, siz... m-m-m... nima desam bo‘lar ekan... Garriga to‘la-to‘kis ishonch bildira olasizmi?

Oraga cho‘kkan sukunatni Fujga tishini ko‘rsatib, yungi hurpayib ketgan Siriusning irillashi buzdi.

– Albatta, ishonaman, – javob berdi Dambldor, ko‘zida olov chaqnab. – Men Sgorbsning iqrori va Garrining hikoyasini diqqat bilan tingladim. Ikkala ma’lumot bir-biriga zid kelmaydi, aksincha, Berta Jorkins yo‘qolgan kunlardan buyon bo‘lib o‘tgan ishlarga oydinlik kiritadi.

Fuj hanuzgacha g‘alati kulib turibdi. Dambldorga javob berishdan oldin u Garrining karavoti tomon yana qarab qo‘ydi.

– Demak, siz «O‘zingiz-Bilasiz-Kim»ning qayta tug‘ilga-

niga savdoyi qotilning ko'rsatmalari va... x-m-m.. sal g'alatiroq bolaning...

Fuj yana bir bor Garri tomon qarab qo'ygach, bola bor gapni tushunib yetdi.

– Rita Vriterning maqolasini men ham o'qiganman, – ovoz berdi Garri parda ortidan.

Ron, Germiona, missis Uesli va Bill o'tirgan o'rinlarida sakrab turib, karavot pardasini ochishdi. Garrining uyg'onganini shu vaqtgacha hech kim sezmagan.

Fuj biroz qizardi-yu, biroq yuzi kishining g'ashini keltiradigan sarkash qiyofa kasb etdi.

– Xo'p, agar men ham o'qigan bo'lsam-chi, o'sha maqolani, Dambldor? – murojaat qildi u direktorga. – Ushbu bolaga daxldor ba'zi ma'lumotlarni mendan yashirib kelganingizni bilib olgan bo'lsam-chi? Ilonzabon-a! Anavi tutqanoqlari-chi!

– Taxminimcha, siz, Garrining chandig'idagi, ba'zan ro'y berib turadigan og'riq xurujlarini nazarda tutyapsiz chog'i, vazir janoblari? – sovuq ohangda tuzatish kiritdi Dambldor.

– Demak, siz bunday xurujlar haqiqatdan ham ro'y berib turishini tasdiqlamoqdasiz, shundaymi? – jonlandi Fuj. – Bosh og'riqlar? Tungi bosinqirashlar? Ehtimol, gallyutsinatsiyalar[1]?...

– Quloq soling, Kornelius, – dedi Dambldor Fuj tomon qadam bosib.

Garri Dambldorning vujudida yana o'sha, soxta Xmurining xonasida ko'rgan yengilmas qudrat barq urayotganini his etdi.

– Siz bilan men qanday odam bo'lsak, Garri ham xuddi shunday sog'lom odam. Chandiq bola miyasining faoliyatiga hech qanaqangi salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Fikrimni bilmoqchi bo'lsangiz, uning chandig'i faqat ikki holatda og'riydi: Lord Voldemort unga yaqin masofada bo'lganida yoki u kimnidir o'ldirmoqchi bo'lib turganida.

Fuj sarkash qiyofasi bilan Dambldordan yarim qadam orqaga tislandi.

---

[1] **Gallyutsinatsiya** *(lotincha:* hallucinatio – xomxayol; alahlash) – bosh miya faoliyatining buzilishi natijasida ko'rish, eshitish, sezish, hidlash a'zolarining chalg'ishi, yo'q narsa va hodisalarni bordek idrok etish.

– Meni kechirasiz-u, Dambldor, qarg‘ish ta’sirida aks ettirilgan bo‘lib, trevoga signali sifatida qo‘llaniladigan chandiqlar haqidagi cho‘pchaklarni eshitib to‘yganman.

– Voldemort qayta tug‘ilganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim! – baqirdi Garri, o‘rnidan turishga oshiqib. Biroq missis Uesli uning yelkasidan bosib qoldi. – O‘limdan miriquvchilarni ham o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim! Nomlarini sanab o‘tishim mumkin! Lyutsius Malfoy...

Snegg allaqanday keskin harakat bajardi. Biroq Garri unga e’tibor berganda, Fuj tomon qarab oldi.

– Malfoy oqlangan! – xafa bo‘ldi Fuj. – Shunday qadimiy urug‘... shuncha xayr-ehson...

– Makneyr! – davom etdi Garri.

– U ham oqlangan! Vazirlikda ishlayapti hozir!

– Eyveri! Nott! Krabbe! Goyl!

– Bolakay, sen o‘n uch yil oldin O‘limdan miriquvchilar jamiyatiga daxldorlikda ayblanib, oqlangan kishilarni sanab o‘tyapsan! – gapni bo‘ldi darg‘azab Fuj. – Sen ularning ismlarini arxiv hujjatlarida ko‘rgan bo‘lishing mumkin! Xudo haqi, Dambldor! Bularning bari aynan shu bola tomonidan o‘tgan o‘quv yilining oxirida to‘qib chiqarilgan bema’ni gaplar sirasiga kiradi! Uning aljirashlari borgan sari aqlga sig‘mas bo‘lib boryapti. Siz esa laqqa tushib, itoatkorona yutib kelyapsiz bularni, direktor! Bola ilonlar bilan gaplasha biladi, siz esa unga ishonch bildirish mumkinligiga meni ishontirmoqchisiz, shundaymi?

– Ahmoq ekansiz! – chiday olmadi professor Makgonagall. – Sedrik Diggori-chi? Mister Sgorbs-chi? Ular siz aytgan savdoyining tasodifiy qurbonlari emas!

– Buning aksini isbotlaydigan dalillarni ko‘rmayapman, – baqirdi Fuj, yuzi qizarib. – Nazarimda, sizlar vahima ko‘tarish, vaziyatni izdan chiqarish, so‘nggi o‘n uch yil davomida bunyod etilgan yutuqlarimizga putur yetkazishni ko‘zlamoqdasiz!

Garri o‘z qulog‘iga o‘zi ishonmayapti. U doimo Kornelius Fujni o‘zini tuta olmaydigan, biroz mutakabbir bo‘lsa-da, yetarlicha xayrixoh kishi sifatida qabul qilib kelgan edi. Hozir esa uning qarshisida o‘zi uchun o‘zi yaratib olgan qulaygina, muay-

yan tartib joriy etilgan dunyosi vayron bo'lishi mumkinligiga ishonishni, Voldemort qaytadan bosh ko'targaniga bovar qilishni butunlay rad etayotgan darg'azab pakana turibdi.

– Voldemort hayotga qaytdi, – takrorladi Dambldor. – Yuz bergan ushbu holatni tezroq e'tirof etib, tegishli choralar ko'rsangiz, hali kech emas, vaziyatni saqlab qolish mumkin. Eng birinchi va asosiy qadam – Yovuz Lordning tarafdorlari qamalgan Azkabanni dementorlar nazoratidan chiqarishdir...

– Bema'nilik! – qichqirdi Fuj. – Dementorlarni haydash-a! Axir, bunday taklif uchun meni ishdan haydab yuborishlari muqarrar-ku! Elatimizning yarmi Azkabanni aynan dementorlar qo'riqlab turgani uchungina kechasi tinch uxlay oladi!

– Ikkinchi yarmi esa Kornelius, Yovuz Lordning eng xavfli izdoshlarini qo'riqlashdek nihoyatda muhim ishni zaruriy fursat yetishi bilan Voldemort tomonga o'tib ketadigan maxluqlar qo'liga topshirganingiz uchun ham siz aytgan darajada tinch uxlay olmaydi! – xitob qildi Dambldor. – Ular sizga el bo'lmaydi, Fuj! Voldemort dementorlarga, nafslarini qondirish uchun siz havola etgan Azkabandek kichkinagina makonga nisbatan anchagina keng makon ajratib berishi muqarrar! Agar Yovuz Lord atrofidagi eski hamtovoqlar guruhiga dementorlar ham qo'shiladigan bo'lsa, Voldemortni to'xtatib qolish nihoyatda qiyin kechadi! O'n uch yil muqaddam mashaqqat-la qo'lga kiritgan qudratini endi u juda tez tiklab oladi.

E'tiroz bildirishga so'z topa olmayotgan Fuj og'zini ochib, yana yopib turaverdi.

– Keyingi, imkon qadar kechiktirmay qo'yiladigan qadam – gigantlar qo'nim topgan yurtlarga diplomatik vakillar yuborishdir, – davom etdi Dambldor.

– Gigantlar qabuliga diplomatik vakillar? – chiyillab yubordi, gapirish qobiliyati tiklangan Fuj. – Bu qanaqangi jinnilik bo'ldi?

– Do'stlik qo'lini uzating ularga, Kornelius. Qancha tez harakat qilsangiz, shuncha yaxshi, – dedi Dambldor. – Aks holda kech bo'ladi. Yoxud Voldemort ularni yetarlicha erk va huquq havola eta biladigan yagona sehrgar ekaniga ishontira oladi.

Tarix sahifalari esa esingizda bo'lsa, buni isbotlagan.

– Siz... bo'lishi mumkin emas, Dambldor, siz... bularning barini jiddiy gapiryapsizmi?! – dahshatga tushdi Fuj, boshini sarak-sarak siltagancha, Dambldordan nari tisarilib. – Agar sehrgarlar jamiyati gigantlar bilan siyosiy o'yin boshlaganimni eshitib qolsa, nima bo'lishini tasavvur qila olasizmi?... Odamlar gigantlardan nafratlanadi, Dambldor... mavqeimning kuni o'sha kuni bitadi...

– Mavqeingiz haqida o'ylayverib so'qir bo'lib qolibsiz, Kornelius! – ovoz ko'tardi Dambldor. – G'ayriodatiy qaror qabul qilish borasidagi jur'atsizlik sizni batamom so'qir qilib qo'yibdi! Asilzodalik, sehrgarlik qonining tozaligiga haddan ortiq ahamiyat bermoqdasiz va hamisha shunday qilib kelgan-siz! Inson kim bo'lib tug'ilgani emas kim bo'lib shakllangani muhim ekanini tushunib yetmayapsiz! Mana, hozirgina sizning dementoringiz urug'-aymog'i azaldan asilzoda sehrgar bo'lib kelgan oilaning eng so'nggi vakilini yo'q qildi. Xo'p, asilzoda bo'la turib, u nimalar bilan mashg'ul bo'ldi? Nima uchun uni yo'q qildingiz? Takror aytaman, zudlik bilan men taklif qilgan choralarni ko'ring! Shunday qilsangiz, vazirlikda ham, uning tashqarisida ham siz eng mard va buyuk vazirlardan biri sifatida yodda qolasiz. Faoliyatsizlik qiladigan bo'lsangiz esa sizni, murakkab vaziyatda chetga chiqib olgan, qaytadan tiklash uchun hammamiz ter to'kib kelgan dunyoni vayron qilishga uringan Voldemortga yana bir bor imkon bergan kas sifatida eslab qolasiz!

– Telbalik, – pichirladi Fuj, Dambldordan tisarilishni davom etib, – Jinnilik...

Oraga sukunat cho'kdi. Pomfri xonim kaftini og'ziga bosgancha, Garrining karavoti yonida serrayib qolgan. Missis Uesli Garrining yelkasiga qo'lini qo'yib, ustida engashgancha, tek qotgan. Bill, Ron va Germiona esa Fujga qaragancha, og'zilari lang ochiq qolgan.

– Mabodo, Kornelius, atrofda bo'layotgan hodisalarga ko'z yumishga qat'iy ahd qilgan ekansiz, – dedi Dambldor, – shu fursatdan e'tiboran yo'llarimiz ayriladi. Siz o'z bilganingizcha

ish tutasiz, men... men esa o'z bilganimdan qolmayman.

Dambldorning ovozida hech qanday tahdid ohangi eshitilmadi. Yuzaga kelgan holat qayd etildi, xolos. Shunday bo'lsa-da, Fuj, xuddi Dambldor sehrli tayoqchasi bilan tahdid qilayotganday seskanib ketdi.

– Gap bunday, Dambldor. Gapimga diqqat bilan quloq tuting, – dedi Fuj, baland ko'targan ko'rsatkich barmog'ini siltab. – Men hamisha sizni o'z holingizga qo'yib kelganman. Sizni hurmat qilib kelganman. Garchi ayrim qarorlaringizni ma'qul topmagan bo'lsam-da, indamay, tek qo'yib berganman. Maktabga maxluq tusiga kiradigan odamni ishga qabul qilishga, Xagridni maktabda olib qolishga, o'quvchilarga nimani o'qitish kerak va nimani o'qitish kerak emasligini hal qilishga har qanday boshqa vazir ham imkon bermas edi. Biroq menga qarshi biron-bir xatti-harakatni niyat qiladigan bo'lsangiz...

– Men faqat Yovuz Lordga qarshi kurashni niyat qilganman, – javob berdi Dambldor, ohangining vazminligini saqlab. – Agar siz ham unga qarshi harakat qiladigan bo'lsangiz, ko'chabandning bir tomonida bo'lamiz.

Bu gapga Fuj javob topa olmadi. Kichkinagina boshmog'ining tovonida tebrangancha, qozon shlapasini o'ynatib turdi. Nihoyat iltijo yashiringan ovoz chiqardi:

– Bo'lishi mumkin emas, Dambldor, u qaytmagan...

Shu payt Snegg yurgan yo'lida yengini shimargancha, Dambldorni aylanib o'tib, Fujning ro'parasiga keldi-da, ochilgan qo'lini ko'rsatdi. Fuj yana ortga tisarildi.

– Mana, – xirilladi Snegg, – ko'rib qo'ying. Ajal belgisi. Bir soat oldin u ko'mirday qop-qora edi, hozir ham aniq ko'ri-nib turibdi. Har bir O'limdan miriquvchining qo'lida shaxsan Lord Voldemort tomonidan kuydirilgan mana shunday belgi bor. Aynan mana shu belgiga ko'ra biz bir-birimizni tanib olganmiz, mana shu belgi vositasida u bizlarni o'z huzuriga chaqirgan. U belgiga qo'l tekkizishi bilan biz Voldemort turgan joyda havoda paydo bo'lishimiz kerak bo'lgan. Joriy yil davo-mida mening qo'limda aks ettirilgan belgi tobora aniq ko'rinish berib bordi. Karkarovning qo'lida ham shunday holat ro'y ber-di. Nima deb

o'ylaysiz, nima sababdan Karkarov bugun ertalab gum bo'ldi? Chunki ikkalamiz ham ushbu belgining achish-ganini his etganmiz va ikkalamiz ham Yovuz Lord hayotga qaytganini aniq bilganmiz. Karkarov o'zining ko'plab safdosh-larini sotgan va shu tufayli O'limdan miriquvchilar tomonidan quchoq ochib qarshi olinishiga shubha qilgan.

Boshini sezilar-sezilmas siltagan Fuj o'zini Sneggdan nari oldi. Aftidan, u hozirgina batafsil tushuntirib berilgan holat bayonining birorta ham so'zini tushunmay, xunuk belgidan hazar qilgancha, go'layib turdi.

– Bu yerda, Dambldor boshchiligida qanday o'yin o'ynayotganingizni bilmadim-u, bugunga yetar, bas, – asta pichirladi u, – Aytadigan boshqa gapim yo'q. Dambldor, tasarrufingizdagi maktabni boshqarish masalasini muhokama qilish uchun siz bilan ertaga bog'lanaman. Hozir esa vazirlikka qaytishim darkor.

Eshik yoniga yetgan vazir birdan to'xtab, ortga burildi va iziga qaytib, Garrining karavoti yoniga kelib to'xtadi.

– Bu sening yutug'ing, – qisqa tushuntirish berdi u, kissasidan chiqargan yirik hamyonni karavot yonidagi javoncha ustiga uloqtirib. – Ming galleon. Tantanali topshirish taomili o'tkazilishi kerak edi. Biroq yuzaga kelgan vaziyatda...

U qozon shlapasini boshiga bostirib oldi-da, eshikni taraqlatgancha yopib, palatani tark etdi. Fuj chiqib ketishi bilan Dambldor Garri yotgan karavot atrofida to'planganlarga murojaat qildi.

– Harakat boshlash darkor, – dedi u. – Molli... Artur ikkalangizga ishonch bildirib, to'g'ri qilamanmi?

– Albatta! – xitob qildi missis Uesli, rangi bo'rday oqargan bo'lsa-da, qat'iy nigoh-la qarab. – Fujning qanaqangi tovus ekanini Artur yaxshi biladi. Shuncha yildan buyon magllarga bo'lgan hurmati tufayligina vazirlikda ishlab kelmoqda. Fuj esa Arturga nisbatan sehrgarlik g'ururi yetishmaydiganlardan biri deya fikr bildirmoqda.

– Unday bo'lsa, Arturga xabar yo'llashim kerak, – dedi Dambldor. – Bo'lib o'tgan hodisa haqida bizga ishonadigan odamlarni zudlik bilan xabardor qilish lozim. Arturning tanish-

bilishlari esa bizga asqatib, Fujga nisbatan uzoqroq istiqbolni ko'ra biladigan odamlar bilan bog'lanish imkonini beradi.

– Men boraman dadamning huzuriga, – dedi Bill, o'rnidan turib. – Hozirning o'zida yo'lga chiqaman.

– Juda soz, – ma'qulladi Dambldor. – O'zing ko'rgan, eshitgan narsalar haqida gapirib ber unga. Tez orada u bilan bog'lanishimni ayt. Ehtiyot bo'lsin. Agar men vazirlik ishlariga aralashayotganimni Fuj bilib qolguday bo'lsa...

– Buni menga qo'yib bering, – tinchlantirgan bo'ldi Bill.

U Garrining yelkasiga asta urib, onasining yuzidan o'pib qo'ydi-da, ridosini kiyib, palatani tark etdi.

– Minerva, – ko'rsatma berishni davom etdi Dambldor. – Xagrid bilan imkon qadar tezroq gaplashib olishim kerak. Xonamga chorlang uni, iltimos. Agar qarshi bo'lmasa, Maksim xonimni ham.

Professor Makgonagall bosh irg'ib, so'z aytmay chiqib ketdi.

– Poppi, iltimos, – murojaat qildi Dambldor Pomfri xonimga, – professor Xmurining xonasiga tush. U yerda Vinki ismli uy elfini topasan. Hozir u, marhum sohibining o'g'lidan demen-tor bo'sa olganiga shohid bo'lib, nihoyatda kuchli ruhiy larzani boshdan kechirib o'tiribdi. Unga g'amxo'rlik qilib, oshxonaga eltib qo'y, xo'pmi? Dobbi uni tinchlantira olishiga umid qilaman.

– Xo'p... yaxshi, – dedi taajjubini yashirishga uringan Pomfri xonim, palatani tark etib.

Dambldor eshik ishonchli yopilganini tekshirib, keyingi gapini boshlashdan oldin Pomfri xonimning qadam tovushi uzoqlashishini kutdi.

– Ana endi fursat yetdi, – tantanavor e'lon qildi u. – Bu yerda yig'ilganlarning ikki nafariga uchinchi kishini tanishtirish vaqti yetdi. Sirius... o'z qiyofangni qabul qilishing mumkin.

Palatada turgan yirik qora it Dambldorga qarab turdi-da, bir zumda odam qiyofasini kasb etdi. Missis Uesli chiyillab, karavot ustiga sakrab chiqdi.

– Sirius Blek! – o'kirdi u, barmoq o'qtab.

– Oyi, bas qiling! – baqirdi Ron. – Hammasi yaxshi!

Snegg o'kirmadi, sakramadi, ammo yuzida nafrat ila dahshat uyg'unlashgan qiyofa paydo bo'ldi.

– Anavi-yu! – o'shqirdi u, Siriusga jirkanib qarab. – Nima qilyapti u, bu yerda?

– U xuddi siz kabi Severus, taklifimga binoan tashrif buyurgan, – javob berdi Dambldor, nigohini birining yuzidan ikkinchisining yuziga olib o'tib. – Men ikkalangizga ham to'la-to'kis ishonch bildiraman. Sizlarga ham oralaringdagi barcha ixtiloflarni chetga surib, bir-biringizga ishonch bildiradigan vaqt yetdi.

Garrining nazarida, Dambldor iloji bo'lmagan narsani talab qilyapti. Siriusning ham, Sneggning ham ko'zida murosasiz nafrat yonmoqda.

– Hozircha meni, – davom etdi Dambldor, sezilar-sezilmas jahl ohangida, – orangizda ochiqdan ochiq adovat bo'lmasligining o'zi qanoatlantiradi. Siz faqat bir-biringiz bilan qo'l siqishib qo'ysangiz bas. Ixtiyorimizdagi vaqt u qadar bisyor emas. Shunday ekan, haqiqatdan boxabar odamlar bir yoqadan bosh chiqarmas ekan, g'alaba qozonishga ishonib ham, umid bog'lab ham bo'lmaydi.

Ikkala inson bir-biriga faqat yomonlik tilayotganini nigohlaridan bexato uqib olsa bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, ular bir-biriga yaqinlashib qo'l siqishdi-da, zudlik bilan nari turib olishdi.

– Hozircha shuning o'zi kifoya, – dedi Dambldor ikkalasining o'rtasiga turib. – Endi har biringiz uchun topshiriq bor. Fujning munosabati, garchi bundan ortiq munosabat kutmagan bo'lsam-da, vaziyatni tubdan o'zgartirdi. Sirius, sen zudlik bilan yo'lga chiqib, Rem Lyupin, Arabella Figg, Mundugnus Fletcherni, xullas eski jamoamizni ogohlantirishing kerak. O'zing Lyupinnikida qolib, tek o'tir. Tez orada sizlar bilan bog'lanaman.

– Biroq... – ovoz chiqardi Garri.

Bola cho'qintirgan otasidan bu qadar tez ajralishni istamadi.

– Garri, ko'p o'tmay uchrashamiz, – bolaga yuzlandi Sirius. – Va'da beraman. Axir, men qo'ldan kelgancha harakat qilishim kerakligini o'zing tushunasan-u, to'g'rimi o'g'lim?

– Ha, – bosh irg'idi Garri, – ha... albatta, tushunaman...

Sirius bolaning kaftini kaftiga olib, biroz siqib turdi-da, Dambldorga bosh irg‘ib, yana itga aylangancha, old oyog‘i bilan eshik ochib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

– Severus, sizdan nimani iltimos qilishim mumkinligini o‘zingiz yaxshi bilasiz, – yuzlandi Dambldor. – Agar bunga tayyor bo‘lsangiz...

– Tayyorman, – javob berdi Snegg.

Sneggning yuzi odatdagidan ham battar oqargan bo‘lsa-da, nihoyatda sovuq qora ko‘zi qandaydir g‘alati yaltiradi.

– Unday bo‘lsa, omad yor bo‘lsin, – tilak bildirdi Dambldor.

Direktor Siriusning ketidan indamay chiqib ketgan Sneggni xavotir to‘la nigoh-la kuzatib qo‘ydi. U yana tilga kirguncha bir necha daqiqa o‘tdi.

– Men pastga tushishim, Diggorilar bilan uchrashishim kerak, – dedi u. – Garri... damlamaning qolganini ichib qo‘y. Hammaga xayr. Kechroq ko‘rishamiz.

Dambldor chiqib ketishi bilan Garri boshini yostiqqa tashladi. Germiona, Ron va missis Uesli churq etmay qarab turishibdi. Sukunat uzoq cho‘zildi.

– Ma, Garri, ich, – dedi nihoyat missis Uesli.

Qadah bilan shisha idishchani uzatayotgan missis Uesli-ning qo‘li pulga to‘la hamyonga tegib ketdi.

– Uyquga to‘yib olishing kerak. Boshqa biron narsa haqida o‘ylashga urin... masalan, yutug‘ingga nima xarid qilishingni o‘ylab ko‘r.

– Menga kerak emas bu pul, – ifodasiz g‘udulladi Garri. – Siz oling. Kimga kerak bo‘lsa olaversin. Men ulami yutishim kerak emas edi. Ular Sedrikka nasib qilishi kerak edi.

Labirintdan chiqqanidan buyon yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilayotgan holat ustun kelayotganga o‘xshaydi. Burchagida qandaydir issiq, o‘tkir sanchish sezilgan ko‘zini pirpiratib oldi-da, shiftga tikildi.

– Sen aybdor emassan, Garri, – pichirladi missis Uesli.

– Kubokni birgalikda ushlab olish taklifini men kiritgan edim.

Endi bo‘g‘ziga nimadir tiqilib, achishyapti. Ron bir pas

teskari qarab o'tirsa bo'lmaydimi, a?

Missis Uesli damlamani javoncha ustiga qo'yib, engashdi-da, bolani bag'riga bosib, mahkam quchib oldi. Hali hech kim Garrini mana shunday... onalarcha quchmagan. Bugungi tun hodisalari bolaning vujudini butun yuklamasi ila ezib yubordi. Oyisi, dadasi, Sedrik... hammasi ko'z o'ngida gavdalandi... u ortiq bardosh bera olmaydi... yuzi zo'riqishdan burishib ketyapti... mana hozir dod solib, ho'ngrab yuboradi...

Kutilmaganda baland qars eshitildi. Missis Uesli bilan Garri bir-biridan keskin tislandi. Deraza oldida mushtchasiga nimanidir mahkam siqib olgan Germiona turibdi.

– Meni ma'zur tuting, – pichirladi u.

– Damlamani ich, Garri, – dedi missis Uesli, ko'zini kaftining orqa tomoniga artib.

Garri bir ko'tarishda damlamani yutib yubordi. Dori bir zumda ta'sir qilib g'ir, yengib bo'lmas uyqu bolaning vujudini egalladi. Garri boshini bolishga tashladi-da, bo'shliqqa qulab tushdi.

XXXVII BOB. IBTIDO

Oradan bir oy o‘tgan bo‘lsa ham Garri, uchinchi musobaqadan keyingi kunlarni yaxshi eslab qolmaganini o‘ylab, hayron bo‘ldi. Aftidan, boshdan o‘tgan hodisalardan so‘ng uning ongida yangi taassurotlar uchun joy qolmagan ko‘rinadi. Xotirada saqlanib qolgan voqealar esa azob beradi, xolos. Ular orasida eng yomon qiynayotgani – musobaqa o‘tib, ertasiga ertalab Sedrikning ota-onasi bilan o‘tgan uchrashuv bo‘ldi.

Er-xotin Diggorilar Garrini hech narsada ayblamadi, aksincha, farzandlarining vasiyatini bajarib, jasadini keltirib bergani uchun bolaga minnatdorlik bildirishdi. Bechora mister Diggori suhbatning asosiy vaqtini yig‘lab o‘tkazdi. Missis Diggorining musibati esa shu qadar og‘ir ediki, ko‘z yoshini butkul tugatib, quritib qo‘ydi.

– Deyarli azob chekmagan ekan-da, a? – dedi u, Garrining hikoyasi nihoyasiga yetgach. – Amos... bolamiz... o‘z omonatini... Bellashuvda g‘olib chiqiboq topshirgan. Demak, u... baxtiyor kayfiyatda o‘lgan...

Suhbat tugab, er-xotin ketishga taraddud ko‘rayotganida missis Diggori taqqa to‘xtadi.

– Endi sen ogoh bo‘lib yurgin, xo‘pmi? – dedi u, Garriga biroz qarab turib.

Garri javoncha ustidagi hamyonni olib, Sedrikning ota-onasiga uzatdi.

– Mana buni olib keting, iltimos, – dedi u, o‘ng‘aysiz ahvolda. – Bu pul Sedrikka nasib qilishi kerak edi. Birinchi bo‘lib Kubokka Sedrik yetgan, oling...

– Qo‘ysang-chi, nimalar deyapsan? – o‘zini darhol nari tortdi missis Diggori. – Bu pul seniki yoqimtoyginam, olmaymiz biz uni...

***

Ertasiga kechqurun Garri «Griffindor» minorasiga qaytib,

Ron bilan Germionadan, nonushta vaqtida so‘zga chiqqan Dambldor maktab o‘quvchilaridan Garrini tinch qo‘yish, labirintda bo‘lib o‘tgan hodisalar haqida so‘rayverib, joniga tegmaslik, tagpurslik qilmaslikni iltimos qilganini bildi. Chindan ham Garrining kuzatishicha, aksariyat bolalar uni chetlab o‘tib, ko‘ziga tik qarashga botina olishmayapti. Ayrimlar og‘zini kafti bilan bekitib, pichirlashmoqda. Aftidan, ko‘pchilik Rita Vriterning maqolasiga, ya’ni Garri tabiatan beqaror-u, shu bois nihoyatda xavfli bola ekaniga ishonishgan ko‘rinadi. Ehtimol, ba’zilar Sedrik Diggorining o‘limi borasida o‘z fikr-mulohazasiga egadir. Biroq Garri bularning bariga mutlaqo befarq qaramoqda. U o‘zini mavhum mavzularda suhbatlashib yoki sehrli shaxmat o‘ynab o‘tirgan Ron bilan Germionaning yonida, indamay o‘tirganida yaxshi his etmoqda. To‘rt yildan buyon do‘st tutinib kelgan bolalar bir-birini ortiqcha gapsiz ham juda yaxshi tushunadi. Ular biron-bir alomat, «Xogvars»dan tashqarida ro‘y berayotgan hodisalar haqidagi xabarlarni kutishmoqda. Aniq ma’lumotlar olinmas ekan, voqealarning keyingi rivojini bashorat qilishdan ma’ni yo‘q. Ular achchiq mavzuga atigi bir marta to‘xtalib o‘tishdi. O‘shanda Ron «Xogvars»ni tark etib ketayotgan missis Uesli bilan Dambldor o‘rtasida o‘tgan suhbat mazmunini aytib berdi.

– Oyim Dambldorning huzuriga kirib, ushbu yozgi ta’tilni o‘tkazishing uchun to‘g‘ri bizning uyimiz – Boshpanaga borishing mumkin yoki mumkin emasligini so‘radi, – dedi Ron. – Biroq direktor: «Garri dastlab Dursllar xonadoniga borishi kerak», debdi.

– Nima uchun? – tushunmadi Garri.

– Oyimning aytishicha, bu masalada Dambldorning o‘z asoslari bor emish, – qosh chimirdi Ron. – Tushunishimcha, biz uning aytganlarini, ayniqsa, bundan buyon so‘zsiz bajarishimiz kerak, shundaymi?

Ron va Germionadan tashqari, Xagrid bilan ham muloqot qilish imkoni bo‘lishini Garri juda istaydi. Yovuz kuchdan himoya fani o‘qituvchisi endi yo‘q va shu bois ushbu fan darslariga ajratilgan soatlar bo‘sh o‘tmoqda. Binobarin, uchovlon

quyoshli payshanba kuni Xagridning ahvolidan xabar olishga ahd qildi.

Kulbaning ochiq eshigidan dumini silkitib akillagan So'yloqtish sakrab chiqdi.

– Kim u? – qichqirdi ostonada ko'ringan Xagrid. – O, Garri!

Mehmonlarni qarshi olgan davangir Garrini o'ziga tortdi.

– Seni ko'rganimdan xursandman, og'ayni, juda xursandman, – bolaning sochini to'zg'itdi u.

Kulbaga kirgan bolalar kamin yonidagi stol ustida sal kam paqirday keladigan bir juft krujka turganini ko'rishdi..

– Olimpiya bilan bir piyolachadan choy urib olgan edik, – tushuntirish berdi Xagrid. – U hozirgina chiqib ketgan edi.

– Kim bilan? – qiziqsinib so'radi Ron.

– Kim bilan bo'lar edi, Maksim xonim bilan-da! – dedi Xagrid.

– Demak, oxiri yulduzlaring yulduzlaringga to'g'ri kelib qolibdi-da, a? – so'radi Ron.

– Bilmadim, nimalar to'g'risida gapirayotganingni, – dedi Xagrid, befahm bashara yasab.

Toza idishlar javonidan krujkalar chiqargan Xagrid choy damlab, dasturxonga xom pishgan biskvit uzatgach, o'zining bahaybat kursisiga suyanib o'tirgancha, qo'ng'iz ko'zi bilan Garriga sinchiklab qaradi.

– Ishlar qalay? – so'radi u Garridan.

– Joyida, – javob berdi bola.

– Yo'q, joyida emas, – bosh chayqadi Xagrid. – Ko'rib turibman-u, joyida emasligini. Lekin, albatta, joyida bo'ladi.

Garri ko'zini pirpiratib qo'ydi.

– Bir kun emas bir kun, uning qaytishini bilar edim, – dedi Xagrid.

Garri, Ron va Germiona Xagridga cho'chib qarab qo'yishdi.

– Ha, Garri, buni ko'p yillardan buyon bilar edim. Qayergadir bekinib olgani, nimanidir kutayotganini sezar edim. Shu kun kelishi kerak edi, mana nihoyat keldi ham. Biz esa o'z hayotimizni davom etishimiz kerak va buning uchun kurashamiz. Balkim, kuch-qudratini to'la-to'kis tiklab olgunicha

to‘xtatib qolishga muvaffaq bo‘larmiz. Har qalay, Dambldorning rejasi shunday. Buyuk inson-da bu, Dambldor. Dambldor bor ekan, men hech narsadan tashvish tortmayman.

Bolalarning badgumon yuzlariga e’tibor qilgan Xagrid quyuq qoshini ko‘tardi.

– Pisib, qo‘rqib o‘tirishdan nima naf, – davom etdi davangir. – Bir boshga bir o‘lim. Nima bo‘lsa, bo‘lsin. Siz bilan bizning ishimiz esa o‘sha kunni munosib qarshi olishdir. Dambldor menga o‘sha mashum kecha haqidagi bor gapni aytib berdi, Garri.

Biroz xayol surib qolgancha Garriga qarab o‘tirgan Xagrid, daf’atan iftixordan shishib ketdi.

– Sen otangning munosib o‘g‘lisan, Garri! Maqtov gapim shu. Ortiqcha gap ortiqcha.

Bola ko‘p kundan buyon ilk bor irshaydi.

– Xagrid, o‘sha tunda Dambldor professor Makgonagallni seni va Maksim xonimni chaqirib kelish uchun kulbangga yuborgan edi. Sendan nimani iltimos qildi u? – so‘radi Garri.

– Ha, endi... yozda bajarishim kerak bo‘lgan vazifa oldimda, – mubham javob berdi Xagrid. – Lekin o‘ta maxfiy vazifa. Bu haqda gapirish mumkin emas menga. Hatto sizlarga ham. Balki, men bilan Olimpiya ham borar. Sizlar uchun u Maksim xonim. Borsa kerak, ko‘ndirganday bo‘ldim, shekilli.

– Voldemort bilan bog‘liq vazifami? – so‘radi Garri.

– Balkim, shundaydir, – ochiq javobdan qochdi ushbu ismni eshitib afti burishib ketgan Xagrid. – Xo‘sh, kim men bilan so‘nggi draklni ko‘rgani boradi? Hazillashyapman! – qo‘shib qo‘ydi u, bolalarning basharalari burishib ketganini ko‘rib.

***

Kechqurun, «Odamovilar» xiyoboniga qaytishdan oldin, yotoqxonada sochilib yotgan narsalarini istar-istamas sandig‘iga joylayotgan Garri, o‘quv yili yakunlariga ko‘ra g‘olib deb topilgan fakultet nomi e’lon qilinadigan, odatda, rosa quvnoq kayfiyat-la o‘tadigan xayrlashuv ziyofati haqida o‘ylab, yuragi orqaga

tortib ketdi.

Garri kasalxonadan chiqqan kundan buyon qiziqsinuvchi nigohlardan o'zini chetga tortib yurdi. Xaloyiq to'plangan Katta Zalga kirmay, hamma tarqagach, hech kim yo'qligida, tanho o'zi ovqatlanishni afzal bildi.

Xayrlashuv ziyofatiga Garri, Ron va Germiona birgalikda tushishdi. O'quv yili yakunlanishi sharofatiga o'tkaziladigan bunday tadbirda, Katta Zal, odatda, g'olib chiqqan fakultet bayrog'ining ranglari bilan bezatiladi. Bugun esa bu yerda hech qanday bayram muhiti yo'q. «Mo'tabar Stol»ning ortida Sedrikning xotirasiga qora mato tortilgan.

O'qituvchilar dasturxonida haqiqiy O'ynoqko'z Xmuri o'tiribdi. Uning yog'och oyog'i ham sehrli ko'zi ham joyida. Faqat birov murojaat qilsa, seskanib ketyapti. «Uni tushunsa bo'ladi, albatta, – xayoldan o'tkazdi Garri. – Shundoq ham tabiatida shakllangan haddan ortiq sergaklik, sandiq ichida o'n oy qamalib yotgach, battar kuchayib ketganiga hech hayron bo'lmasa bo'laveradi». Professor Karkarovning o'rni bo'sh. Qolgan griffindorchilar bilan birga dasturxon atrofiga joylashayotgan Garri, ayni paytda Karkarov qayerda bo'lishi mumkinligi haqida o'ylanib qoldi. Balki, Voldemort uni allaqachon bir yoqli qilib bo'lgandir.

Maksim xonim shu yerda, Xagridning yonida o'tiribdi. Ikkalasi shivirlashib, nimanidir muhokama qilishmoqda. Sal narida, professor Makgonagallning yonida o'tirgan Sneggning nigohi Garrining nigohi bilan to'qnash keldi. Sneggning basharasi qandaydir g'alati qiyofa kasb etgan-u, bari bir odatdagidek, zahar tomib turibdi. Garri yuzini o'girib olgan ushbu professorga uzoq qarab o'tirdi.

Qiziq, Voldemort hayotga qaytgan o'sha tunda Snegg, Dambldorning buyrug'iga ko'ra nima vazifa bajardi ekan? Va nima uchun... nima uchun Snegg chindan ham biz tomonda ekaniga Dambldor qattiq ishonadi? To'g'ri, u bir vaqtlar biz-ning josusimiz bo'lgan, har qalay, damblxotira chig'anog'i ichidagi Dambldor sud zalida «*Severus Snegg o'z hayotini xavf ostiga qo'ygancha, bizning xabarchimiz sifatida faoliyat yurit-gan*»,

degan edi. Endi-chi, nima vazifa bajardi? Balki, O'limdan miriquvchilar bilan bog'langandir? O'zini Dambldor tomonga hech qachon rostakamiga o'tmagan kishi sifatida ko'rsatgandir? Lord Voldemort singari, qulay fursat kutdim, degandir?

«Mo'tabar Stol» ortidan turgan professor Dambldor Garrining xayolini bo'ldi. Shundoq ham odatiy xayrlashuv ziyofatiga xos bo'lmagan jimlik hukm surayotgan Katta Zalda sukunat qaror topdi.

– Intiho, – gap boshladi o'ychan Dambldor. – Navbatdagi o'quv yili o'z intihosiga yetdi, demoqchiman.

Nigohini «Xufflpuff» stoli tomon qaratgan Dambldor biroz sukut saqlab qoldi. Ushbu stol atrofida to'plangan g'amgin bolalar tadbir boshidan buyon jim o'tirishibdi.

– Bugun nihoyatda jiddiy masalaga doir fikrimni siz bilan o'rtoqlashmoqchiman. Biroq dastlab ajoyib bir yigitcha haqida ikki og'iz so'z aytib o'taman. Hozir u shu yerda, oramizda, xayrlashuv ziyofatida biz bilan teppa-teng quvonib, hayotdan zavqlanib o'tirishi kerak edi, – dedi Dambldor, xufflpuffchilar stoli tomon imo qilib, – Sedrik Diggori xotirasiga qadah ko'tarishingizni so'rayman.

Katta Zalda o'tirgan jamiki odamlar o'rinlaridan asta turib, yagona past ovozda baralla gumburlagancha, qo'llaridagi qadahlarni: «Sedrik Diggori uchun», deya ko'tarishdi.

Garri xaloyiq orasida yuzlaridan duv-duv yosh oqayotgan Chuni ko'rib, nigohini stolga olib o'tdi. Hamma o'tirdi.

– Sedrik haqiqiy xufflpuffchiga xos ko'plab fazilatlarni o'ziga mujassam etgan, yaxshilikni ayamaydigan, nihoyatda mehnatsevar o'ktam yigit, yaxshi do'st edi, – davom etdi Dambldor. – Halollik, poklik, vijdonlilik, to'g'ri so'zlikni u hamma narsadan ustun ko'rib kelgan. Shaxsan bilish-bilmasligimiz, tanish-tanimasligimizdan qat'i nazar, Sedrikning o'limi har birimizning qalbimizga nihoyatda qattiq ta'sir o'tkazdi. Nazarimda, shu bois ham siz, haqiqatni bilishga haqlisiz.

Garri boshini ko'tarib, Dambldorga qaradi.

– Sedrik Diggorini Lord Voldemort o'ldirdi, – e'lon qildi maktab direktori.

Katta Zalda o‘tirgan odamlarning quti o‘chib, shovur-shuvur boshlandi. Bunday gapni eshitib, dahshatga tushgan maktab o‘quvchilari bovar qilmay, Dambldorga baqrayib qoldi. Direktor vazminligini saqlagancha, shovqin tinib, jimlik tiklanishini kutib turdi.

– Ushbu xabarni sizga yetkazish masalasida Sehrgarlik vazirligida e’tiroz bildirildi, – dedi u. – Lord Voldemortning hayotga qaytganiga ishonmaganliklari yoki bunday mudhish xabarni eshitishga sizni hali yosh deb bilganlari uchun ota-onangiz ham ushbu ishimni ma’qul topmas, balkim... Biroq imoni komilligimga asoslangan holda aytamanki, haqiqat yolg‘ondan afzaldir. Agar men Sedrikni baxtsiz hodisa tufayli yoki o‘zi yo‘l qo‘ygan xatolik oqibatida o‘ldi, deya e’lon qiladigan bo‘lsam, haqiqatni ko‘ra-bila turib, uning xotirasini ochiqdan ochiq tahqirlagan bo‘laman.

Larzaga kelgan, cho‘chigan barcha... yoki deyarli barcha nigohlar ayni paytda Dambldorga qaratilgan. Slizerinchilar stoli atrofida o‘tirgan Drako Malfoy Krabbe bilan Goylga allanima pichirlab o‘tirganini Garri ko‘rib o‘tirdi. Bolaning vujudi g‘azabdan qaynab ketgan bo‘lsa-da, o‘zini Dambldor tomon yuzlanishga majbur qildi.

– Sedrikning o‘limi munosabati bilan yana bir kishini tilga olib o‘tishim kerak, – dedi Dambldor. – Men Garri Potterni nazarda tutmoqdaman.

Katta Zaldagilar orasida shivir-shivir ko‘tarildi. Aksariyat o‘quvchilar Garri tomon bir soniya qarab qo‘yishdi-da, yana direktorga yuzlanishdi.

– Garri Potter Lord Voldemortning qo‘lidan qutulib qolishga muvaffaq bo‘ldi, – e’lon qildi Dambldor. – Va hayotini xavf ostiga qo‘ygancha, Sedrikning vasiyatini ado etib, jasadini «Xogvars» hududiga, ota-onasiga qaytarib keltirdi. Lord Voldemortga qarshi chiqqan Garri shunday jasorat ko‘rsata bildiki, bunday qahramonlikni katta yoshli har qanday sehrgar ham namoyon eta olmaydi.

Dambldor jiddiy nogoh-la, Garri tomon yuzlanib, qadahini ko‘tardi:

– Garri Potterga shon-sharaflar.

Zalda o'tirganlarning deyarli hammasi oyoqqa qalqib turib, Sedrikni qanday xotirlashgan bo'lishsa, Garrining ismini ham shunday talaffuz etgancha qadah ko'tardi. Malfoy, Krabbe, Goyl va ko'plab boshqa slizerinchilar o'z o'rinlarida namoyish-korona o'tirgancha qolib, qadahga qo'l ham tekkizmadi. Sehrli ko'zga ehtiyoj sezmaydigan, bisyor iste'dodlarga ega Dambldor buni payqamadi.

Hamma o'z o'rniga o'tirgach, Dambldor nutqini davom etdi.

– Uch sehrgar bellashuvi va o'xshash tadbirlarni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar jumlasiga xalqaro sehrgarlik munosabatlarini mustahkamlash, ilgarigi birlikni tiklash, muqaddam bo'lib o'tgan xusumatlarni unutish, ixtiloflarga barham berish, turli xalq va millatlarga mansub yigit-qizlar o'rtasida do'stona munosabatlar qaror toptirish sanaladi. Lord Voldemortga o'xshaganlar bosh ko'tarar ekan, bunday munosabatlar nihoyatda jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Dambldor dastlab Maksim xonim bilan Xagrid tomonga, so'ng Flyor Delakyor va boshqa belstekchilarga, slizerinchilarning stoli atrofida o'tirgan Viktor Krum va durmshtrangchilarga birma-bir qarab chiqdi. Krum allaqanday bezovta, xuddi hozir Dambldordan tanbeh eshitishga hozirlanganday ko'rindi.

– Muqaddas dargohimizda o'tirgan har bir mehmonimizni har doim va har qanday vaqtda ko'rishdan xursand bo'lamiz. Qadrli do'stlar, betakror yurtimiz Buyuk Britaniya va tengi yo'q «Xogvars»ga o'zingiz istagan fursatda tashrif buyurishingiz mumkin, – davom etdi Dambldor, durmshtrangchilarga qaragancha qolib. – Lord Voldemortning yana hayotga qaytganini nazarda tutgan holda esa barchangizdan oddiy bir haqiqatni hech qachon unutmay, doimo yodda saqlab yurishingizni so'ragan bo'lar edim: shuni bilingki, kuch-qudratimiz birlik-dadir! Tarqoqlik bizni zaif, dushman qarshisida ojiz qilib qo'ya-di! Lord Voldemort va uning malaylari yurgan yo'lida xusumat, adovat urug'ini sochish borasida o'ziga xos qobiliyatga egadir. Bunga qarshi esa yagona bir usulni qo'llash orqali, u ham bo'lsa,

faqat do‘stlik va o‘zaro ishonch rishtalari bilan mahkam bog‘langan tarzdagina kurash olib borish mumkin. Maqsadlarimiz mushtarak, qalblarimiz ochiq ekan – o‘rtamizdagi milliy va madaniy tafovutlar biz uchun to‘siq sanalmaydi. Men bir narsani aniq bilaman va yanglishishni hali hech qachon bu qadar istamaganman! Bizni oldinda nihoyatda og‘ir, hasratli kunlar kutadi. Oramizda o‘tirgan ayrim kishilar Lord Volde-mortning zulmiga bevosita duchor bo‘lgan. Yovuz Lord ko‘plab oilalarning yostig‘ini quritib, odamlar taqdirini vayron qilgan. Bir hafta muqaddam esa maktabdoshimizdan ayirdi. Sedrikni unutmang. Vaqt yetib, oson yo‘l yoxud to‘g‘ri yo‘lni tanlash zarurati tug‘ilgan fursatda Lord Voldemort o‘z yo‘lida tasodifan uchratib qolgan, birovdan yaxshilikni ayamagan, jasur yigitchani nima qilganini esga oling. Sedrik Diggorini unutmang do‘stlar.

***

Garrining ustida Xedvig qamalgan qafas turgan sandig‘i safarga shay. O‘zi esa Ron va Germiona bilan birgalikda vestibulni egallab olgancha, laqillab turishgan to‘rtinchi sinf o‘quvchilari orasida Xogsmyod temir yo‘l stansiyasiga eltib qo‘yadigan otsiz yuradigan aravalarni kutmoqda. Bugun yozning ajoyib kunlaridan biri. Kechqurun «Odamovilar» xiyoboni ko‘m-ko‘k maysaga burkanib, gulzorlarining rang-barangligi bilan kishining ko‘zini quvontirgancha, Garrini qarshi oladi. Biroq ushbu fikr bolaning qalbiga hech qanday quvonch keltirmadi.

– G‘arri! – ismi chaqirilgan tomon o‘girilgan Garri, asosiy pillapoyadan shosha-pisha ko‘tarilayotgan Flyor Delakyorni ko‘rdi.

Uzoqda Xagrid ulkan uchar otlarni aravaga qo‘shishga uringancha chiranib, Maksim xonimga ko‘maklashmoqda. «Belstek» aravasi parvozga hozirlanmoqda.

– Umid qilamanki, biz yana uchg‘ashamiz, – dedi Flyor qo‘l uzatib. – Ingliz tilimni takomillashtig‘ish maqsadida yug‘tingizda o‘zimga ish qidig‘im topmoqchiman.

– Ingliz tilida sen shundoq ham juda chiroyli gapirasan, – dedi hayajondan bo'g'ilib qolayotgan Ron.

Flyor javoban kulib boqdi. Germionaning lunji esa shishib qoldi.

– Xayg', G'arri, – eshik tomon o'girildi Flyor. – Sen bilan tanishganimdan bag'oyat xug'sandman!

Garri kumush sochini quyoshda yaraqlatib hilpiratgancha maysazor bo'ylab Maksim xonim tomon yugurib ketayotgan Flyorning ketidan qarab qoldi. Ha, kayfiyat asta-sekin ko'tarilmoqda.

– Qiziq, durmshtrangchilar qanday yetib olishar ekan, a, o'z yurtiga? – so'radi Ron. – Kema boshqarishni Karkarovsiz uddalay olisharmikan?

– Kemanii Karkarov boshqarmagan, – eshitildi xirillagan ovoz. – O'zii kayutada[1] o'tiriib, barcha ishlarnii o'ziimiizga qo'yiib qo'ygan.

Krum Germiona bilan xayrlashishga kelibdi.

– Xerm – ioun – nina, sen biilan gaplashiib olsam bo'ladiimii? – dedi u.

– O... ha... albatta, – dedi hayajonlangan Germiona, Krumning ortidan xaloyiq ichiga kirib ketib.

– Tezroq bo'ling! – baqirib qoldi Ron, ikkalasining orqasidan. – Hozir aravalar kelib qoladi.

Arava kutishni Garrining zimmasiga yuklab qo'ygan Ron oyoq uchiga turib olgancha, bo'yin cho'zib, Krum bilan Germiona nima bilan mashg'ulligini ko'rishga urindi. Ikkalasi tez qaytdi. Ron Germionaning yuziga sinchkovlik-la qarab, hech qanday o'zgarish, hayajon yoki tashvish alomatini ko'rmadi.

– Diggorii menga yoqar edii, – dedi Krum Garriga murojaat qilib. – garchii durmshtrangdan, Karkarov biilan kelgan bo'lsam-da, Seriik men biilan doiimo boadab muomala qiilgan edii, – qo'shib qo'ydi u g'amgin ohangda.

– Yangi direktor tayinlandimi maktabingizga? – qiziqdi

[1] **Kayuta** (*gollandcha;* cajuit) – kemada ekipaj a'zolari yoki passajirlar uchun belgilangan turar joy, bo'lma, xona.

Garri.

Krum yelka qisdi. So‘ng Flyor singari qo‘l uzatib, dastlab Garri, keyin Ron bilan xayrlashdi.

Ronning o‘zi bilan o‘zi kurashayotgani yuzidan bilinib turibdi. Nomi jahonga mashhur bolgar o‘yinchisi endigina o‘girilib, ketmoqchi bo‘lib turganida nihoyat yorilib ketdi:

– Menga dastxat berib ket.

Kulib yuborgan Germiona yaqinlashib kelayotgan otsiz aravalar tomon o‘girilib oldi. Qiyofasida taajjub bilan mamnuniyat uyg‘unlashgan Krum esa Ron uchun pergament bo‘lagiga dastxat qo‘yib berdi.

***

Kings-Kross vokzaliga qaytish yo‘lidagi ob-havo, sentabr oyida, «Xogvars» tomon yo‘lga chiqilgan kuni bolalarning adabini bergan havodan keskin farq qilmoqda. Osmonda tangaday bo‘lsin, bulut yo‘q. Garri, Ron va Germiona alohida kupe topishga muvaffaq bo‘lishdi. Sayrayverib quloq-miyani yemasligi uchun Cho‘chrinstel qamalgan qafas ustiga Ronning bayram kiyimi yana tashlab qo‘yildi. Xedvig boshini qanotiga suqib olib, mizg‘imoqda. Maymoqoyoq esa Germionaning yonidagi bo‘sh kursiga kulala bo‘lib olib, katta, malla rang, paxmoq yostiqqa o‘xshab olgan. Poyezd bolalarni janub tomon olib ketmoqda. Garri, Ron va Germiona maktabda o‘tgan so‘nggi hafta davomida o‘tgan muloqotga nisbatan erkinroq, istak bilan suhbat qurib ketishdi. Dambldorning xayrlashuv ziyofatidagi nutqi Garrining qalbidagi o‘zi muqaddam his etmagan allaqanday torlarni chertib yuborganday bo‘ldi. Bo‘lib o‘tgan hodisalar muhokamasi deyarli ozor bermay qo‘ydi. Dambldor tomonidan Voldemortga qarshi ko‘rilayotgan joiz choralar haqidagi suhbat kupe yoniga poyezdda sotiladigan ovqat aravasi kelganda bo‘lindi.

Yegulik xarid qilib kirgan Germiona pulini yuk xaltasiga solib, «Bashorat-u karomat gazetasi»ning yangi sonini chiqardi.

Garri nimalar haqida yozishayotganini so‘rashga yuragi

betlamay gazetaga ikkilanib qarab qo‘ydi.

– Birorta ham yomon gap yo‘q. O‘zing ko‘rib chiqishing mumkin, – dedi Garrining holatini fahmlagan Germiona xotirjamgina. – Men har kuni tekshirib boryapman. Uchinchi musobaqaning ertasi kuni sen Uch sehrgar bellashuvining chempioni, deya e’tirof etilganing haqida kichkinagina ma’lumot berib o‘tildi, xolos. Rahmatli Sedrik tilga olinmadi ham. Bo‘lib o‘tgan ishlar haqida umuman hech narsa aytilmadi. Aftidan, Fuj, jurnalistlarning og‘zini yopib tashlagan ko‘rinadi.

– Rita Vriterga o‘xshaganlarning og‘zini hech kim yopa olmaydi, – e’tiroz bildirdi Garri. – Ayniqsa shunday olamshumul hodisa ro‘y berganda!

– Uchinchi musobaqadan keyin Ritaning birorta ham maqolasi chop etilmadi, – dedi Germiona, g‘alati sipo ohangda. – Umuman aytganda, – qo‘shib qo‘ydi u, ovozi biroz titrab, – Vriterga ma’lum vaqt hech narsa yozmay yurishga to‘g‘ri keladi, agar u haqdagi ba’zi bir ma’lumotlarni tegishli idoralarga yetkazishimni istamasa, albatta.

– Nimalar deyapsan? – hayron bo‘ldi Ron.

– «Xogvars» hududiga kirish man etilganiga qaramay, maktabdagi odamlar orasida yakkama-yakka tarzda o‘tgan suhbatlarni qay tarzda eshitib yurganini aniqlashga muvaffaq bo‘ldim, – hovliqib ketdi Germiona.

– Xo‘sh, qay tarzda eshitgan ekan? – so‘radi Garri.

– Qanday aniqlading? – baqraydi Ron.

– Umuman aytganda, g‘oyani menga sen berding, Garri, – dedi Germiona.

– Men? – hayron bo‘ldi Garri. – Qanaqangi g‘oya haqida gapiryapsan?

– Gap poylash qo‘ng‘izchasi haqidagi g‘oya-da! – nihoyat baqirib yubordi Germiona.

– Axir, elektr toki vositasida ishlaydigan narsalar «Xogvars» yaqiniga keltirilishi bilan ishdan chiqadi, deb o‘zing aytgan eding-ku...

– Elektron qo‘ng‘izcha emas, yo‘q, – tushuntirish berishga kirishdi qiz. – Bilasizlarmi... yaramas Rita Vriter aslida Buyuk

Britaniya Sehrgarlik vazirligi Sehrgarlik va afsungarlik faoliyati ustidan nazorat bo'limida yuritiladigan maxsus ro'yxatdan o't-magan animag ekan! – muzaffariyat ohangida ma'lum qildi Germiona. – Va aniqlashimcha, u...

Germiona yuk xaltasidan kichkina, qopqog'i zich yopilgan shisha bankani chiqarib, bolalarga ko'rsatdi.

– ... qo'ng'izga aylana olar ekan.

– Hazillashma, – bovar qilmadi Ron, basharasini bankaga yaqin keltirib. – Axir, sen... u... sen..

– O'sha. Aniq o'sha, – dedi sevinib ketgan Germiona bankani qattiq siltab.

Banki ichida bir nechta barg, novdacha va kattagina, semiz qo'ng'iz ko'rindi.

– Bo'lishi mumkin emas... hazillashyapsan... – pichirladi Ron, bankani ko'z oldiga yaqinroq keltirib.

– Yo'q, hazillashayotganim yo'q, – dedi soniya o'tgan sayin quvonchdan yashnab ketayotgan Germiona. – Kasal-xonada, tokchada tutib oldim. Diqqat bilan qara. Mo'ylovining yaqinida anavi mudhish ko'zoynagini eslatadigan dog' bor.

Garri qo'ng'izga diqqat bilan nazar solib, Germionaning haqligiga ishonch hosil qildi. Keyin Rojdestvo bali kuni xitoy fonuslari miltillab turgan pushti bog'dagi favvoraning baland ko'tarilayotgan yorqin oqimlari ostida turgan yirik shimol bu-g'usining haykalini va haykal beli bo'ylab o'rmalab yurgan qo'ng'izni esga oldi.

– Xagrid Maksim xonimga o'z onasi haqida gapirib berga-nida bog'dagi tosh bug'u belida qo'ng'iz o'rmalab yurgan edi! – dedi u.

– To'ppa-to'g'ri, – bosh irg'idi Germiona. – Viktor ikkala-miz ko'l sohilida gaplashib bo'lganimizdan keyin, Krum, sochimga qo'ng'iz ilashib qolganini aytgan edi. Bashorat darsi-da chandig'ing og'rib qolgan fursatda, adashmasam, parda ortidagi tokchada qo'ng'izga aylanib olgan Rita o'tirgan. Muxtasar qilib aytganda Vriter yil davomida shov-shuvga sabab bo'ladigan ma'lumotlar qidirib tanda qo'yib yurgan.

– Esingizdami, derazadan, hovlidagi daraxt ostida turgan

Malfoyni ko‘rgan edik? – asta esladi Ron. – O‘shanda Garri, nima edi-ya... ha... ratsiya orqali radioso‘zlashuv olib borayotgan ko‘rinadi, degan edi...

– Malfoy daraxt panasiga o‘tib olib, kaftiga qo‘ngan qo‘ng‘iz bilan gaplashib o‘tirgan, – tasdiqladi Germiona. – Malfoy bilan Rita ikkalasi tanish, albatta. Vriter aynan shu tarzda slizerinchilardan o‘zining ajoyib intervyularini olib yurgan. Ritaning xati-harakatlari g‘ayriqonuniy ekaniga slize-rinchilar befarq qarashgan. Asosiy maqsad – Xagrid haqida har xil tuturiqsiz gaplarni to‘qib chiqarish bo‘lgan.

Germiona Ronning qo‘lidagi bankani olib, qo‘ng‘izga kulib boqdi.

– Uni Londonga yetgach qo‘yib yuborishni va’da qilganman, – dedi Germiona. – Bankaga esa Sinmaslik afsunini qo‘llaganman. Shunday ekan, Vriter, toki men uni qo‘yib yubormas ekanman, o‘z qiyofasiga qayta olmaydi. Bundan tashqari, yil davomida patqalamini chuqurroq joyga bekitib qo‘yish shartini qo‘ydim. Qani ko‘ramiz, odamlar haqida har xil bo‘htonlarni to‘qib chiqarishni bas qiladimi-yo‘qmi.

Germiona betashvish kulgancha, bankani yuk xaltasiga joyladi. Shu fursatda kupe eshigi ochilib, jirkanch basharalar ko‘rindi.

– Ja aqllisan-da, Grenjer, – vishilladi Drako Malfoy.

Uning ortida qurolbardorlari Krabbe bilan Goyl cho‘zilib turibdi. Uchalasi ham o‘zidan xursand, surbet va tahdidli qiyofa kasb etgan. Garri ularning bunday muttaham turqini muqaddam ko‘rmagan edi.

– Xo‘sh, shunday qilib, – shoshilmasdan cho‘zib gap boshladi Malfoy, ostona hatlab o‘tgancha, bolalarga birma-bir qarab chiqib. – Sen allaqanday badbaxt muxbirni tutib olding, Grenjer. Potter esa Dambldoming erkatoyiligicha qoldi, shun-daymi? Nihoyatda katta ish, bag‘oyat ulkan yutuq.

Uning murdor kulgisi kengaydi. Krabbe bilan Goyl esa tishining oqini ko‘rsatib turishdi.

– Ortiqcha narsalar haqida o‘ylamaslikka harakat qilyapmiz, deng? – davom etdi Malfoy, hammaga ko‘z yugurtirib

chiqib. – O‘zimizni hech narsa sodir bo‘lmagan ko‘yga solib o‘tiribmiz, deng?

– Yo‘qol bu yerdan, – buyurdi Garri.

Garri Malfoyni Dambldor nutq o‘qiyotgan vaqtda pichirlashib o‘tirganini ko‘rganidan buyon endi uchratdi. Hozir esa qulog‘ida nimadir jaranglab, qo‘li g‘ayriixtiyoriy ravishda sehrli tayoqchasiga yugurdi.

– Sen ishi o‘ngmagan, tolei past odamlarga ilashib qolding, Potter! Bir vaqtlar, esingda bo‘lsa, seni ogohlantirgan edim. Nomunosib kishilar bilan do‘stlashish kerak emas, mana bularga o‘xshagan chiqindilar yoki anavi mudhish Xagridga o‘xshaganlar bilan muloqot qiladigan bo‘lsang, o‘zing ham iflos bo‘lib qolasan, degan edim o‘shanda, – dedi Malfoy Ron bilan Germiona tomon bosh irg‘ib. – Ana endi, Potter, kech qolding! Lord Voldemort ishga kirishishi bilan birinchi navbatda mana bularni, yani magvachchalar-u, maglparvarlarni tegishli joyga yo‘llaydi! Aniqroq aytadigan bo‘lsam, ikkinchi navbatda. Negaki birinchi navbat Diggoriga nasib qil...

Kutilmaganda kupeda bir yashik petarda[1] portlab ketganday bo‘ldi. Har tomondan o‘t ochilgan qarg‘ish yashinlaridan ko‘zi qamashib ketib, qulog‘i bitib qolgan Garri ko‘zini pirpiratib olgach, polga qaradi.

Kupe polida Malfoy, Krabbe va Goyl behush yotibdi. Dilozorlarni har biri o‘z qarg‘ishi bilan jazolagan Garri, Ron va Germiona o‘rinlaridan turib olishdi. Biroq jazolash amalini uchalasigina bajarmagan.

– Mana bu uchlik nimalarni ko‘zlab yurishganini bilmoqchi bo‘ldik, – dedi qo‘liga sehrli tayoqchasini ushlab olgan Fred, kupega kirgancha, Goylning tanasiga oyoq qo‘yib.

Xayol o‘tmay akasining ketidan kirib, Malfoyning tanasini bosib olgan Jorj ko‘rindi. Uning ham qo‘lida sehrli tayoqcha bor.

– Qarg‘ishlar uyg‘unligining juda qiziq natijasi, – ta’kidlab qo‘ydi Jorj, Malfoyning ustida turgancha, Krabbening tanasiga

[1] **Petarda** – xatarli joylarda poyezdni darhol to‘xtatish uchun signal sifatida qo‘llaniladigan portlovchi snaryad.

razm solib. – Chipqon bostirish qarg'ishini kim qo'lladi?

– Men, – dedi Garri.

– G'alati bo'lar ekan, – fikr bildirdi Jorj, Malfoyning ustidan tushmay. – Men esa Paxta oyoq qarg'ishini qo'lladim. Aftidan, ikkala qarg'ish puxta uyg'unlashmaydigan ko'rinadi. Qara, basharasida allaqanday paypaslagichlar o'sib chiqdi. Xo'p, mayli. Umumiy manzarani buzmasligi uchun bularni yumalatib, biron yerga to'plab qo'yish kerakmi, deyman?

Ron, Garri va Jorj har birining basharasi qarg'ishlarning puxta uyg'unmasligini ifoda etayotgan Malfoy, Krabbe va Goylning tanalarini tepib, turtib yo'lakka chiqarib qo'yishdi-da, kupega kirib, eshikni ichkaridan bekitib olishdi.

– Karta tashlaymizmi? – taklif kiritdi Fred, portlovchi kartalar dastasini chiqarib.

Beshinchi o'yin o'rtasida, Garri, kutilmaganda egizaklarga savol berishga ahd qildi.

– Bizga aytasizmi-yo'qmi, ikkalangiz kimni tovladingiz? – so'radi u Jorjga murojaat qilib.

– Oh, – xo'rsindi Jorj, – yana o'sha savolmi?

– Farqi nima sizlarga, – bosh chayqadi Fred. – Arzimagan ish. Endi ahamiyati yo'q. Har qalay, hozir.

– Bari bir umidimiz puchga chiqdi, – yelka qisdi Jorj.

Biroq Garri, Ron va Germiona egizaklarni tinch qo'yishmadi. Oxiri Fred taslim bo'ldi.

– Xo'p, mayli. Sizga bu shunchalik muhim ekan... Lyudo Shulman edi...

– Shulman? – orqa tisarildi Garri. – U ham daxldor demoqchimisiz, anavi...

– Yo'q, – dedi Jorj, g'amgin ohangda, – unday ishlarga Shulmanning aqli yetmaydi.

– Unda nima gap? – so'radi Ron.

Fred biroz ikkilanib turdi-da, oxiri yorildi.

– Esingizdami, Kvidish kubogining final o'yinida Irlandiya g'alaba qozonadi-yu, «Tilla chaqqon»ni Krum tutib oladi, deya jamiki jamg'armamizni dov tikkan edik?

– Ha, – baralla javob berdi Garri bilan Ron.

– Yutqizib qo‘ygach, o‘sha maraz qo‘limizga neprechyomlarning tilla tangasini ushlatib qo‘ygancha biz bilan hisobkitob qilgan ekan.

– Xo‘sh?...

– Ikki qo‘ling bo‘sh, – jahl qildi Fred. – Ertasiga ertalab sariq chaqa ham qolmadi. Tangalar o‘z o‘zidan gum bo‘ldi.

– B... balkim, tasodifan... adashtirib yuborgandir? – asta taxmin qildi Germiona.

– Hamma balo shunda-da, – g‘amgin kulib qo‘ydi Jorj. – Biz ham dastlab shunday fikrga bordik. Agar ro‘y bergan holat haqida yozib yuborsak, yanglishib ketganini bilib, bunday tasodifdan o‘tirgan joyida tiqilib qoladi, degan xayolga bordik. Chuchvarani xom sanagan ekanmiz. Xatimizni javobsiz qoldirdi. Vaqt o‘tib, «Xogvars»ga tashrif buyurib yurgan kunlari u bilan gaplashmoqchi bo‘ldik. Biroq Shulman har safar dumini ushlatmay, ustalik bilan sekingina quyon bo‘ldi.

– Oxiri u bizga o‘shqirib, dadamning: «Sizlarga qimor o‘ynagani hali erta, yoshsiz», degan gapini takrorladi-da, pul bermay, masalani yopdi-qo‘ydi.

– Loaqal dov tikkan pulimizni qaytarib berishini iltimos qildik, – dedi Jorj har soniya o‘tgan sari jahli chiqib.

– Bosh tortdimi? Bo‘lishi mumkin emas! – xitob qildi Germiona.

– Bo‘lganda qandoq, – dedi Fred.

– Axir, o‘sha pul sizlarning jamiki jamg‘armangiz edi-yu! – xitob qildi Ron.

– Buni bizga eslatish shart emas! – o‘shqirdi Jorj. – Biz oxiri gapning tagiga yetdik. Li Jordanning dadasi ham xuddi shunday ahvolga tushib qolib, o‘z pulini Shulmandan undira olmay bo‘g‘ilib yurgan ekan. Xullas, aniqlanishicha, Shulman goblinlardan yirik miqdorda qarz olib, ular bilan ham o‘xshash nayrang o‘ynamoqchi bo‘lgan. Final o‘yini o‘tgach, goblinlarning butun boshli to‘dasi Shulmanni o‘rmonda tutib olib, yonida borki pulini olib qo‘yishgan. Biroq qarzidan qutulish uchun u pul kamlik qilgan. Ular Shulmanni «Xogvars»gacha ta’qib qilib, qochib qutulishga yo‘l qo‘yishmagan. Lyudo o‘zi-ning so‘nggi

nutigacha yutqazib qo'ygan. Bilasizmi, u ahmoq o'zining bo'ynidagi qarzlaridan qanday qutulmoqchi bo'lgan?

– Qanday qilib? – so'radi Garri.

– U sening g'alabangga tikkan, do'stim, – javob berdi Fred. – Sen Uch sehrgar bellashuvi chempioni bo'lishingga komil ishonch bildirib, goblinlar bilan garov o'ynagan.

– Aytdim-a, nima uchun hamisha yordam qo'lini taklif qilib yuradi, u deb. Gap bu yoqda ekan-da! – tushunib yetdi nihoyat Garri. – Xo'p... mana men chempion bo'ldim. Endi u qarzini to'laydimi sizga?

– Aslo, – dedi Jorj, bosh chayqab. – Goblinlar ham uni aldashdi. Qush bilan qush tilida, it bilan it tilida gaplashmoq darkor qabilida ish tutishdi. Sen bellashuvni Diggori bilan sherik bo'lib yutganing, garov sharti bo'yicha sen yakka o'zing chempion bo'lishing kerakligini pesh qilishdi. Muxtasar qilib aytganda, shamoldan qochib qutulmoqchi bo'lgan Shulman bo'ronga yo'liqdi. Bo'ynidagi qarz miqdori ikki baravar oshib ketgach, qochib qutulishdan boshqa chorasi qolmadi. Uchinchi musobaqa o'tgach, u aynan shunday yo'l tutdi.

Chuqur xo'rsinib qo'ygan Jorj yana karta tarqatishga kirishdi.

Yo'lning qolgan qismi quvnoq o'tdi. Garri ushbu damlar abadiy davom etishini, poyezd hech qachon Kings-Kross temir yo'l vokzaliga yetib bora olmasligini juda-juda istadi. Taassufki, u, ushbu o'quv yilida oddiy bir haqiqatni, u ham bo'lsa: oldinda noxushlik kutar ekan, vaqt hech qachon o'z harakatini sekinlatmasligini juda yaxshi o'zlashtirib oldi. Shunday ekan, ko'p o'tmay poyezd sekinlashib, to'qqiz butun to'rtdan uchinchi platformada asta to'xtadi. Yo'lakda odatiy to's-to'polon boshlandi. O'quvchilar o'z yuklarini pastga tushira boshlashdi. Ron bilan Germiona sandiqlarini Malfoy, Krabbe va Goylning tanalari ustidan bazo'r o'tkaza olishdi.

Garri esa kupeda ushlanib qoldi.

– Fred... Jorj... bir daqiqa shoshmay turing, – dedi u egizaklarga.

Egizaklar to'xtadi. Garri sandig'ini ochib, yutug'ini

chiqardi.

– Mana buni oling, – dedi u, hamyonni Jorjning qo'liga ushlatib qo'yib.

– Nima qilyapsan?! – esankirab qoldi Fred.

– Oling, – qat'iy ohangda takrorladi Garri. – Buni ixtirolarga, kulgili mollar do'konini ochishga ishlatasiz.

– U haqiqatan ham Rita yozganday, ruhiy jihatdan beqarormi, deyman, a? – dedi Fred, Garriga favqulodda izzat-ikrom ila boqib.

– Quloq soling, – dedi Garri jiddiy ohangda. – Agar olmaydigan bo'lsalaring men bari bir ularni axlatga tashlab yuboraman. Bu pul menga kerak emas. Xursandchilik esa menga, umuman boshqalarga ham ziyon qilmagan bo'lar edi. Nazarimda, ko'p o'tmay oz bo'lsa ham xursandchilik qilinadigan joylar suv bilan havoday zarur bo'lib qoladi.

– Garri, – g'udullab qoldi ovozi pasayib qolgan Jorj. – Axir, hamyondagi pul ming galleon-u.

– To'ppa-to'g'ri, – kulib boqdi Garri. – Faraz qilyapsanmi, qanchadan qancha kanareyka qandlari. Faqat qayerdan olganingizni oyingizga aytmang, iltimos... garchi missis Uesli bundan buyon, ikkalangizni vazirlikka ishga kirishingizni istamasada...

– Garri, – e'tiroz bildirmoqchi bo'ldi Fred.

Biroq Garri qo'liga sehrli tayoqchasini ushlab, ikkalasiga o'qtadi.

– Bilasizmi nima, – dedi u, xotirjam ohangda. – So'nggi vaqtlarda men ko'p qiliqlarni o'zlashtirib olganman. Hozir yo pulni, yo biron-bir qarg'ishimning yashinini olasiz. Sizdan yagona bir narsani iltimos qilaman, maylimi? Ronga yangi bayram kiyim olib bering. Faqat o'z nomingizdan, xo'pmi?

Garri egizaklar bir nima deguncha haligacha polda, qarg'ishlar ta'sirida cho'zilib yotgan Malfoy, Krabbe va Goylning ustidan xatlab o'tib, kupeni tark etdi.

Vernon amaki Garrini to'siq ortida kutib turibdi. Amakidan sal narida turgan missis Uesli Garrini mahkam quchib, qulog'iga pichirladi:

– O‘ylashimcha, biroz vaqt o‘tgach, Dambldor, uyimizga kelishingga ijozat beradi. Yozib tur bizga, Garri.

– Ko‘rishguncha, Garri! – dedi Ron, Garrining beliga urib qo‘yib.

Germiona, hali hech qachon qilmagan ishini qilib, Garrining yuzidan o‘pib qo‘ydi.

– Uchrashguncha, Garri! – dedi u.

– Rahmat... Garri, – asta g‘udulladi Fred, zo‘r berib bosh irg‘iyotgan Jorjning yonida turib.

Garri egizaklarga ko‘z qisib qo‘yib, Vernon amakiga yuzlandi-da, magllar dunyosi tomon indamay odimlab ketdi.

«Tashvish tortgani hozir biron-bir sabab yo‘q, – xayoldan o‘tkazdi Garri, Dursllar mashinasining orqa o‘rindig‘iga joylashar ekan. – Xagridning ta’biri ila aytiladigan bo‘lsa: ***Bir boshga bir o‘lim. Nima bo‘lsa, bo‘lsin. Siz bilan bizning ishimiz esa o‘sha kunni munosib qarshi olishdir.***

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI	.....	**3**
I Bob.	Reddllar uyi	**5**
II Bob.	Chandiq	**20**
III Bob.	Taklifnoma	**30**
IV Bob.	Boshpanagaqaytish	**42**
V Bob.	Ueslilarning ajoyib ultrafokuslari	**53**
VI Bob.	Portshlyus	**67**
VII Bob.	Shulman va Sgorbs	**76**
VIII Bob.	Jahon kubogi	**97**
IX Bob.	Ajal belgisi	**118**
X Bob.	Vazirlikdagi to‘polon	**146**
XI Bob.	Xogvars-ekspres»da	**159**
XII Bob.	Uch sehrgar bellashuvi	**172**
XIII Bob.	O‘ynoqko‘z Xmuri	**194**
XIV Bob.	Oqibati mudhish qarg‘ishlar	**210**
XV Bob.	«Belstek» va «Durmshtrang»	**229**
XVI Bob.	Olov kubok	**249**
XVII Bob.	To‘rt nafar chempionlikka da’vogar	**271**
XVIII Bob.	Sehrli tayoqchalar ko‘rigi	**287**
XIX Bob.	Tikanak dumli venger ajdari	**312**
XX Bob.	Birinchi musobaqa	**335**
XXI Bob.	Uy elflarini hurriyatga chiqarish fronti	**360**
XXII Bob.	Kutilmagan muammo	**381**
XXIII Bob.	Rojdestvo bali	**399**
XXIV Bob.	Rita Vriterning sensatsiyasi	**429**
XXV Bob.	Sehrli ko‘z va tilla tuxum	**453**
XXVI Bob.	Ikkinchi musobaqa	**472**
XXVII Bob.	Yumshoqoyoqning qaytishi	**500**
XXVIII Bob.	Aqldan ozgan mister Sgorbs	**525**
XXIX Bob.	Tush	**553**

XXX Bob.	Damblxotira	**570**
XXXI Bob.	Uchinchi musobaqa	**592**
XXXII Bob.	Suyak, tana va qon	**623**
XXXIII Bob.	O'limdan zavqlanuvchilar	**630**
XXXIV Bob.	Priori inkantatem	**645**
XXXV Bob.	Iqror qilish damlamasi	**655**
XXXVI Bob.	Yo'llarimiz ayriladi	**676**
XXXVII Bob.	Ibtido	**698**

JAHON ADABIYOTINING JAVOHIRLARI

Joanna Ketlin ROULING

GARRI POTTER

*(ruschadan **Dolimov Shokir** tarjimasi)*

GARRI POTTER VA OLOV KUBOKI

(«Garri Potter» romanlar turkumining IV qismi)

Nashrga tayyorlovchi:
Ergashbay **MATYAKUBOV**

Iqtiboslar va izohlarni tayyorlovchi:
Ergashbay **MATYAKUBOV**

Bosh muharrir:
Alisher **RAVSHANOV**

Musahhih:
Lolaxon **QO'ZIBOYEVA**

Kompyuterda sahifalovchi:
Feruzbek **VOXIDOV**

DIQQAT!!! «Garri Potter» romanlar turkumining o'zbek tilidagi ushbu tarjimasini yoki uning bir qismini nashrga tayyorlovchining maxsus (yozma) ruxsatisiz kitob holida yoki gazeta va jurnallarda chop etish, elektron ko'rinishida tarqatish, internetga joylashtirish, shuningdek, asarda keltrilgan izoh va iqtiboslardan ijodiy foydalanish qat'iyan taqiqlanadi.

Litsenziya raqami AI № 193. 10.05.2011 yilda berilgan.

Bosishga 2019 yil 10.04 da ruxsat etildi.
Bichimi 84/108 1/32.
Bosma tobog'i 45 Shartli bosma tobog'i 48
Garnitura "Times New Roman" offset qog`ozi.
Adadi 1 500 nusxa. Buyurtma № 16
Bahosi kelishilgan narxda.

"BOOK MEDIA PLUS" xususiy korxonasida tayyorlandi.
Manzil: Toshkent, Chilonzor tumani, Cho'pon ota ko'chasi, 6-uy.

"ADAD-PLYUS" MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent, "Bunyodkor" shoh ko'chasi 28-uy. 100097



ISBN 978-9943-5367-5-3